O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
«TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK
TO‘G‘RISIDA»GI QONUNIGA

SHARH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING «TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK TO‘G‘RISIDA»GI QONUNIGA

SHARH

Toshkent
«Akademnashr»
2026

UO‘K: 347.736(575.1)(094.5.072)
KBK: 67.402(5O‘)
O‘ 32

O‘zbekiston Respublikasining «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi Qonuniga sharh / Mualliflar jamoasi. Mas’ul muharrir F.X. Otaxonov. – Toshkent: Akademnashr, 2026. – 816 b.

Mas’ul muharrir: yuridik fanlar doktori, professor **F.X. Otaxonov**

MUALLIFLAR JAMOASI

Kalandarova Malikaxon Pirnazarovna	– kirish, IV va XVI boblar
Nazarov Sherbek Ulug‘bek o‘g‘li	– I, II, III boblar
Saydaxmedov Umid Murodovich	– V bob
Saidov Maqsudbek Norboevich	– VI va XVII boblar
Xudaybergenov Bexzod Baxtiyorovich	– VII, IX va X boblar
Maksudov Alisher Maksud o‘g‘li	– VIII bob
Otaxonov Foziljon Xaydarovich	– XI va XIII boblar (bundan 177–179-moddalar mustasno)
Masadikov Sherzodbek Maxmudovich	– XII bob
Berdiyarov Raxmatjon Tojinorovich	– XIII bobning 177–179-moddalari, XIV va XV boblar
Martin John	– xalqaro sharh.

Osiyo taraqqiyot banki	Lim Hannah
Loyiha koordinatorlari:	Masadikov Sherzodbek (maslahatchi) Antonio Hyacinth (maslahatchi)

Ushbu sharh O‘zbekiston Respublikasining «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi Qonuniga bag‘ishlangan bo‘lib, unda qonun normalarining moddama-modda tahlili keltirilgan. Sharhda to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari, sud va sudgacha bo‘lgan tartib-taomillar, kuzatuv, sudgacha sanatsiya, tashqi boshqaruv, sanatsiya hamda tugatish jarayonlari, mulk egalari, kreditorlar va qarzdorning huquq va majburiyatlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, sud boshqaruvchisining maqomi, kreditorlar talablarini qanoatlantirish navbati, qarzdor mol-mulkini baholash va sotish tartibi, alohida toifadagi qarzdorlar (qishloq xo‘jaligi, moliya tashkilotlari, shaharni tashkil etuvchi korxonalar) to‘g‘risidagi qoidalar tahlil qilingan. Sharhda qonun normalari sud amaliyoti, xalqaro tajriba va tegishli qonunosti hujjatlari bilan uyg‘unlikda izohlanadi.

Nashr sudyalar, advokatlar, sud boshqaruvchilari, tadbirkorlik subyektlari rahbarlari, professor-o‘qituvchilar va talabalar hamda ushbu sohaga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga ushbu sharhni tayyorlashda qo‘shgan hissasi uchun minnatdorlik bildiriladi.
Konrad Adenauer Stiftung ko‘magida nashr etilgan.

ISBN 978-9910-5214-0-9

© Asian Development Bank, 2026.
Huquqlar himoyalangan

SO‘ZBOSHI

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi bosqichida qonun ustuvorligini ta’minlash, sud hokimiyatining mustaqilligini mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, mulk huquqi daxlsizligini kafolatlash hamda tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini samarali ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy mulkni muhofaza qilish, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashga qaratilgan izchil islohotlar huquqiy davlat barpo etishning muhim sharti bo‘lmoqda.

Mazkur jarayonda sud hokimiyati zimmasiga alohida mas’uliyat yuklatilgan. Sudlar nafaqat buzilgan huquqlarni tiklash, balki iqtisodiy munosabatlar barqarorligi, tadbirkorlik muhitining ishonchliligi, investitsiya xavfsizligi va bozor munosabatlarining izchil rivojlanishini ta’minlovchi muhim davlat instituti hisoblanadi. Odil sudlovning sifati va samaradorligi mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshliligi, investorlar ishonchi hamda huquqiy barqarorlik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi global iqtisodiy munosabatlarda to‘lovga qobiliyatsizlik instituti faqat qarzdor va kreditor o‘rtasidagi xususiy huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy mexanizm sifatida emas, balki mamlakat iqtisodiy xavfsizligi, moliya bozori barqarorligi, investitsiya muhiti jozibadorligi va tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim huquqiy institut sifatida e’tirof etilmoqda. Shu bois mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlar davlatning iqtisodiy siyosatini huquqiy jihatdan ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, to‘lovga qobiliyatsizlik munosabatlarini zamonaviy talablar asosida tartibga solish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, kredit munosabatlarining ishonchliligi, ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab qolish va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashning muhim huquqiy kafolatlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy yondashuvlarda to‘lovga qobiliyatsizlik korxonaning iqtisodiy faoliyatini tugatish emas, balki uning moliyaviy barqarorligini tiklash, ishlab chiqarish salohiyatini saqlab qolish, kreditorlar huquqlarini adolatli ta’minlash hamda iqtisodiy munosabatlarning barqarorligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy mexanizm sifatida baholanmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda mazkur sohani tubdan takomillashtirish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 6-maydagi «To‘lovga qobiliyatsizlik institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–78-son Farmoni bu boradagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur Farmon bilan to‘lovga qobiliyatsizlik institutini xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajriba asosida rivojlantirish, sudgacha sanatsiya mexa-

nizmlarini keng joriy etish, iqtisodiy jihatdan istiqbolli korxonalarni saqlab qolish, kreditorlar huquqlarini yanada ishonchli himoya qilish, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish hamda sohada davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Mazkur islohotlarning huquqiy asosini «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi Qonun tashkil etadi. Ushbu Qonun qarzdor, kreditor, investor hamda davlat manfaatlari o‘rtasida adolatli huquqiy muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi. Eng muhimi, qonunchilikning yangi konsepsiyasi to‘lovga qobiliyatsizlikni faqatgina yuridik shaxsni tugatish tartib-taomili sifatida emas, balki uning iqtisodiy faoliyatini saqlab qolish, moliyaviy sog‘lomlashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish salohiyatini asrab qolish va ish o‘rinlarini muhofaza qilishga qaratilgan samarali huquqiy institut sifatida talqin etadi.

Zamonaviy xalqaro tajriba ham aynan shu yondashuvni tasdiqlaydi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda to‘lovga qobiliyatsizlik institutining asosiy vazifasi qarzdorni har qanday holatda tugatish emas, balki uning iqtisodiy hayotchanligini saqlab qolish, moliyaviy qayta tiklanishi uchun huquqiy imkoniyat yaratish va barcha ishtirokchilar manfaatlarining muvozanatini ta’minlashdan iboratdir. O‘zbekistondagi islohotlar ham aynan ushbu zamonaviy huquqiy konsepsiyaga tayangan holda amalga oshirilmoqda.

Yangi huquqiy normalarning maqsad va vazifalari to‘liq ro‘yobga chiqishi, avvalo, ularning sudlar tomonidan to‘g‘ri, bir xil va izchil qo‘llanilishiga bog‘liq. Sud amaliyotining barqarorligi, huquqiy aniqlik prinsipining ta’minlanishi hamda qonun normalarining bir xil talqin qilinishi odil sudlov samaradorligining muhim shartlaridan biridir. Shu bois qonunga sharh tayyorlash huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish, sudlar faoliyatida yagona huquqiy yondashuvlarni shakllantirish hamda huquqiy madaniyatni yuksaltirish yo‘lidagi muhim qadam hisoblanadi.

Mazkur sharhning asosiy maqsadi «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi Qonun har bir normasining mazmun-mohiyatini atroflicha ochib berish, ularning qabul qilinishiga asos bo‘lgan huquqiy g‘oya va maqsadlarni tushuntirish, qonun normalarini qo‘llashda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ayrim muammoli masalalarni tahlil qilish hamda huquqni qo‘llash amaliyoti uchun yagona yondashuvlarni shakllantirishdan iborat.

Sharhni tayyorlash jarayonida milliy qonunchilik, Konstitutsiya va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, Oliy sud amaliyoti, huquqshunos olimlarning tadqiqotlari, xalqaro tashkilotlar tavsiyalari hamda xorijiy davlatlarning ilg‘or huquqiy tajribasi keng o‘rganildi. Bu esa mazkur nashrning amaliy ahamiyati va huquqni qo‘llash amaliyoti uchun foydali manba sifatidagi qimmatini yanada oshiradi.

Shu bilan birga, qonun normalarini sharhlash huquqni qo‘llash amaliyotida turlicha yondashuvlarning oldini olish, huquqiy aniqlikni ta’minlash, sud qarorlarining barqarorligi va sifatini oshirishga xizmat qiladi. Sharhlar huquqni qo‘llovchi subyektlar uchun qonun normalarini chuqur anglashga, ularni yagona huquqiy yondashuv asosida qo‘llashga hamda qonunchilikni yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflarni shakllantirishga ko‘maklashadi.

Ishonchim komilki, ushbu sharh sudyalar, sud boshqaruvchilari, advokatlar, prokurorlar, davlat organlari xodimlari, tadbirkorlik subyektlari, huquqshunos olimlar, tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilar, magistrlar va talabalar uchun ishonchli huquqiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Eng muhimi, u «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi Qonun normalarini to‘g‘ri va bir xil talqin qilish, yagona sud amaliyotini shakllantirish, huquqni qo‘llash samaradorligini oshirish hamda mamlakatimizda to‘lovga qobiliyatsizlik institutini yanada rivojlantirishga munosib hissa qo‘shadi deb ishonaman.

Robaxon Mahmudova,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi

SO‘ZBOSHI

Zamonaviy, raqobatbardosh va barqaror iqtisodiyot uchun samarali to‘lovga qobiliyatsizlik tizimi juda muhimdir. Global va mahalliy iqtisodiyotlar rivojlanib borishi bilan biznes moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy. Kuchli to‘lovga qobiliyatsizlik tizimi yashashga qodir korxonalarni saqlab qolish, kreditorlar uchun qiymatni oshirish va kapitalni samarali ravishda qayta taqsimlash uchun samarali yo‘llar va huquqiy aniqlikni ta’minlaydi. Shu tarzda, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilik unumdorlikni qo‘llab-quvvatlaydi, investorlar ishonchini mustahkamlaydi, moliyalashtirish imkoniyatlarini yaxshilaydi va xususiy sektorning o‘sishini rag‘batlantiradi.

Samarali to‘lovga qobiliyatsizlik tizimi iqtisodiy o‘zgarishlarni boshdan kechirayotgan mamlakatlar uchun ayniqsa muhimdir. O‘zbekiston islohotlar dasturini amalga oshirib, bozor iqtisodiyotini mustahkamlayotgan bir paytda, tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun oldindan bashorat qilinadigan va shaffof to‘lovga qobiliyatsizlik rejimini yaratish juda muhimdir. 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasining «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilinishi muhim bosqich bo‘lib, xalqaro standartlar va amaldagi tijorat amaliyotiga mos keladigan zamonaviy qonunchilik asosini yaratdi.

Biroq faqat qonunchilikning o‘zi yetarli emas. To‘lovga qobiliyatsizlik tizimining samaradorligi uni talqin qilish, qo‘llash va amalga oshirishga bog‘liq. Bu barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun kuchli huquqiy institutlar qanchalik zarur ekanligining amaliy namunasidir. O‘zbekistonda Oliy sud boshchiligidagi sud tizimi qonunning izchil, shaffof va oldindan bashorat qilinadigan tarzda qo‘llanilishini ta’minlashda markaziy o‘rin tutadi.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) o‘zining Huquq va siyosat islohotlari dasturi orqali o‘n yildan ortiq vaqt davomida Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi hukumatlar hamda sud hokimiyati organlari bilan tijorat huquqiy asoslarini mustahkamlash, nizolarni hal etish tizimini takomillashtirish va institutsional salohiyatni oshirish yo‘lida hamkorlik qilib kelmoqda. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilik sohasida ushbu faoliyat qonunchilik va institutsional islohotlarni qo‘llab-quvvatlash, mintaqaviy siyosiy muloqotlarni rivojlantirish, sud amaliyoti bo‘yicha bilim almashishni kengaytirish hamda ilg‘or xalqaro tajribani tarkibiy jihatdan o‘zgartirish, korxonalarni qayta tiklash va to‘lovga qobiliyatsizlik tizimlariga joriy etishni o‘z ichiga oladi.

Ushbu hamkorlik doirasida OTB O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi bilan yaqin hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasining «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi Qonuniga sharh tayyorlanishini qo‘llab-quvvatlaganidan mamnun. Sudyalar, O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (Agentlik), olimlar hamda xalqaro ekspertlar ishtirokidagi yuqori darajadagi hamkorlik natijasida tayyorlangan ushbu sharh milliy hamda xalqaro tajribaga asoslanadi.

Ushbu sharh O‘zbekistonning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchiligini har tomonlama tahlil qiladi hamda uning izchil va samarali qo‘llanilishiga ko‘maklashish maqsadida milliy va xalqaro tajribani uyg‘unlashtiradi. U sudyalar, davlat organlari, to‘lovga qobiliyatsizlik sohasidagi amaliyotchilar, huquqshunoslar va biznes hamjamiyati uchun muhim amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur sharh yuqori sifatli huquqiy adabiyotlarni yaratish hamda O‘zbekistonda to‘lovga qobiliyatsizlik tizimini yanada takomillashtirish yo‘lidagi umumiy sa’y-harakatlarimizning yorqin ifodasidir.

O‘zbekiston xususiy sektorni rivojlantirishni rag‘batlantirish uchun o‘zining huquqiy va institutsional asoslarini mustahkamlayotgan bir paytda, OTB hukumat va sud tizimi bilan doimiy hamkorlik orqali ushbu sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlashdan mamnun. Umid qilamizki, ushbu sharh sudyalar va amaliyotchilar uchun qimmatli manba bo‘ladi, to‘lovga qobiliyatsizlik amaliyotida yanada izchillik va bashorat qilishni rag‘batlantiradi hamda investitsiyalar, biznes ishonchi va inklyuziv o‘sishni rag‘batlantiradigan samarali to‘lovga qobiliyatsizlik tizimini rivojlantirishni davom ettirishga yordam beradi.

OTBning Huquq va siyosat islohotlari dasturi doirasida ushbu nashrni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Agentlik bilan yaqin hamkorlikda qo‘llab-quvvatlash biz uchun katta sharaf bo‘ldi. Ushbu sharhning tayyorlanishiga munosib hissa qo‘shgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Agentlik, sudyalar, milliy va xalqaro ekspertlar hamda OTBdagi hamkasblarimizga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Jennifer Ngai,
bosh huquqshunos o‘rinbosari
Osiyo taraqqiyot banki

KIRISH

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida to‘lovga qobiliyatsizlik instituti iqtisodiy munosabatlarning ajralmas huquqiy elementi sifatida davlatning iqtisodiy barqarorligi, investitsiyaviy jozibadorligi va tadbirkorlik muhitining samarali faoliyat ko‘rsatishida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning erkinlashuvi, xususiy mulk daxlsizligining mustahkamlanishi, kredit munosabatlarining kengayishi va bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning murakkablashib borishi to‘lovga qobiliyatsizlik munosabatlarini huquqiy jihatdan samarali tartibga solishni davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirmoqda.

To‘lovga qobiliyatsizlik huquqining asosiy vazifasi moliyaviy qiyinchilikka uchragan qarzdorni har qanday holatda iqtisodiy muomaladan chiqarish emas, balki uning to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyatlarini saqlab qolish, kreditorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini adolatli himoya qilish, tadbirkorlik faoliyatining uzluksizligini ta’minlash hamda iqtisodiy munosabatlarda huquqiy barqarorlikni qaror toptirishdan iboratdir. Shu ma’noda u xususiy huquq, iqtisodiy protsessual huquq, korporativ boshqaruv, bank-moliya tizimi va investitsiya munosabatlarining o‘zaro uyg‘unlashgan nuqtasida joylashgan murakkab huquqiy institut hisoblanadi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilik so‘nggi o‘n yilliklarda jiddiy transformatsiyani boshdan kechirdi. Ilgari ustuvor bo‘lgan tugatishga asoslangan yondashuv bosqichma-bosqich reabilitatsiya, restrukturizatsiya va iqtisodiy faoliyatni qayta tiklashga qaratilgan zamonaviy modellar bilan almashtirildi. Bugungi kunda to‘lovga qobiliyatsizlik instituti kreditorlar talablarini qanoatlantirish vositasigina emas, balki iqtisodiy resurslarni samarali qayta taqsimlash, ishlab chiqarish salohiyatini saqlab qolish, ish o‘rinlarini muhofaza qilish va investitsiya muhitining barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim huquqiy mexanizm sifatida e’tirof etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy sektorning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda mamlakatning xalqaro iqtisodiy munosabatlarga chuqur integratsiyalashuvi to‘lovga qobiliyatsizlik sohasida mutlaqo yangi huquqiy yondashuvlarni shakllantirish zaruratini keltirib chiqardi. Ana shu ehtiyojlar asosida 2022-yil 12-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining **«To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi Qonuni** milliy qonunchilik rivojida muhim bosqichni boshlab berdi.

Mazkur Qonun avval amal qilgan **«Bankrotlik to‘g‘risida»gi Qonun**ning mantiqiy davomi bo‘lishi bilan birga mazmun-mohiyati, huquqiy konsepsiyasi va tartibga solish mexanizmi jihatidan mutlaqo yangi huquqiy modelni shakllantirdi. Qonunning amal qilish doirasi kengaytirilib, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkor bilan bir qatorda jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligi ham huquqiy tartibga solish obyekti sifatida belgilandi. Shuningdek, qarzdorning moliyaviy barqarorligini tiklashga

qaratilgan tartib-taomillar takomillashtirildi, kreditorlar huquqlarini himoya qilishning huquqiy kafolatlari kuchaytirildi, sud boshqaruvchilari faoliyatining huquqiy asoslari qayta takomillashtirildi hamda to‘lovga qobiliyatsizlik munosabatlarini tartibga solishning xalqaro standartlarga yaqinlashtirilgan huquqiy mexanizmi shakllantirildi.

Yangi Qonunning qabul qilinishi huquqni qo‘llash amaliyoti oldiga ham mutlaqo yangi vazifalarni qo‘ydi. Qonunning ko‘plab normalari milliy qonunchilik uchun yangi hisoblangan huquqiy institutlarni nazarda tutadi. Ularning mazmuni, huquqiy tabiati va amal qilish mexanizmining to‘g‘ri anglanishi sudlar, davlat organlari, sud boshqaruvchilari, advokatlar, yuridik xizmat xodimlari, banklar hamda boshqa huquqni qo‘llovchi subyektlar faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Shu bois qonun normalarini yagona yondashuv asosida talqin qilish, ularni izchil va bir xil qo‘llash hamda huquqni qo‘llash amaliyotida huquqiy aniqlikni ta’minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Har qanday qonunning ijtimoiy ahamiyati uning matnida emas, balki amaliyotda qanday anglanishi va qay tarzda qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi. Qonun chiqaruvchining maqsadi huquqni qo‘llovchi subyektlar tomonidan to‘g‘ri anglangan va amaliyotda izchil tatbiq etilgan taqdirdagina to‘liq ro‘yobga chiqadi. Ayniqsa, to‘lovga qobiliyatsizlik sohasida fuqarolik, iqtisodiy protsessual, korporativ, bank, mehnat va soliq qonunchiligi normalari o‘zaro chambarchas bog‘liq holda qo‘llanilishi sababli huquqiy normalarni tizimli va kompleks tarzda sharhlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Aynan shu ehtiyoj mazkur sharhni tayyorlashning asosiy omillaridan biri bo‘ldi. Sharhning maqsadi Qonun matnini shunchaki izohlash bilan cheklanmasdan, uning har bir normasining huquqiy mazmunini, qonun chiqaruvchining irodasini, huquqiy institutlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, huquqni qo‘llash amaliyotidagi ahamiyatini hamda zamonaviy huquqiy doktrina nuqtayi nazaridan talqin qilishdan iboratdir.

Mazkur sharh Qonunning har bir normasini alohida izohlash bilan cheklanmaydi. Uning asosiy vazifasi to‘lovga qobiliyatsizlik institutini yaxlit huquqiy tizim sifatida ochib berish, Qonunning ichki mantig‘ini, huquqiy konstruksiyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hamda huquqni qo‘llash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarning yechimlarini ko‘rsatishdan iboratdir. Shu maqsadda Qonunning har bir moddasi uning qabul qilinishiga asos bo‘lgan huquqiy g‘oyalar, tartibga solish maqsadi va amaliyotdagi ahamiyati nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

Sharhlarni tayyorlash jarayonida huquqiy normalarni talqin qilishning umume’tirof etilgan zamonaviy yuridik metodlaridan kompleks ravishda foydalanildi. Jumladan, grammatik, mantiqiy, tizimli, tarixiy, funksional talqin usullari qiyosiy-huquqiy tahlil bilan uyg‘unlashtirildi. Bu esa Qonunning har bir normasini uning lug‘aviy mazmuni bilan cheklanmasdan, qonun chiqaruvchining irodasi, huquqiy tartibga solish maqsadi hamda butun qonunchilik tizimidagi o‘rni nuqtayi nazaridan baholash imkonini berdi.

Shu bilan birga, Qonun normalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi, Soliq kodeksi, Mehnat kodeksi va to‘lovga qobiliyatsizlik munosabatlari bilan bog‘liq boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil qilindi. Bunday yondashuv alohida huquqiy normani

emas, balki uning butun huquq tizimidagi o‘rni va vazifasini to‘g‘ri anglash imkonini yaratadi.

Sharhning yana bir muhim xususiyati uning huquqni qo‘llash amaliyotiga yo‘naltirilganidir. Qonun normalarini sharhlashda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari, iqtisodiy sudlar amaliyotida shakllangan huquqiy yondashuvlar, vakolatli davlat organlarining huquqiy pozitsiyalari o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi. Bu sharhlarning nazariy asoslanishini ta’minlash bilan birga ularning amaliy ahamiyatini ham yanada oshiradi.

To‘lovga qobiliyatsizlik huquqi zamonaviy iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismiga aylanganligi sababli milliy qonunchilikni xalqaro huquqiy tajribadan ajratgan holda tahlil qilish mumkin emas. Shu munosabat bilan sharhni tayyorlashda BMTning Xalqaro savdo huquqi bo‘yicha komissiyasi (UNCITRAL)ning namunaviy hujjatlari, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlarning tavsiyalaridan foydalanildi.

Sharhning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, unda O‘zbekiston Respublikasi **«To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi Qonunining barcha o‘n yetti bobi va har bir moddasi** izchil ravishda moddama-modda sharhlangan. Har bir modda tahlilida uning huquqiy tabiati, tartibga solish predmeti, huquqiy konstruksiyasi, qo‘llash shartlari, huquqiy oqibatlari hamda amaliyotda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan muammoli holatlarga alohida e’tibor qaratildi. Bu yondashuv sharhdan nafaqat nazariy manba sifatida, balki sudlar, sud boshqaruvchilari, davlat organlari, advokatlar, yuriskonsultlar va boshqa huquqni qo‘llovchi subyektlar uchun amaliy qo‘llanma sifatida ham foydalanish imkonini beradi.

Sharhni tayyorlashda xolislik, huquqiy aniqlik va amaliy yo‘naltirilganlik ustuvor tamoyillar sifatida qabul qilindi. Mualliflar ayrim bahsli huquqiy masalalar bo‘yicha yagona nuqtayi nazar bilan cheklanmasdan, ularning huquqiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatiga baho berishga harakat qilishdi. Bu esa sharhning ilmiy munozaralar uchun ham muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qilishiga imkon yaratadi.

Mazkur sharhning yana bir o‘ziga xos jihati shundaki, uning yakuniy qismida ilova sifatida to‘lovga qobiliyatsizlik huquqi sohasida katta tajribaga ega bo‘lgan xorijiy ekspertning xalqaro sharhi ham joylashtirildi. Ushbu materiallar asosiy sharhning tarkibiy qismi sifatida emas, balki uni to‘ldiruvchi mustaqil manba sifatida taqdim etildi. Ular milliy huquqni xalqaro huquqiy tajriba bilan qiyosiy baholash, zamonaviy tendensiyalarni anglash va qonunchilikni yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar chiqarish uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan mazkur sharh qonun normalarini sharhlashga bag‘ishlangan oddiy amaliy qo‘llanma emas. U to‘lovga qobiliyatsizlik huquqining zamonaviy milliy doktrinasini shakllantirishga qaratilgan kompleks amaliy tadqiqot sifatida tayyorlandi va qonunchilik, huquqni qo‘llash amaliyoti hamda yuridik fan o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlashga xizmat qilishni maqsad qiladi.

Milliy huquqshunoslikda qonunlarga sharhlar tayyorlash huquqiy doktrinani rivojlantirish, qonun normalarining mazmun-mohiyatini chuqur ochib berish hamda huquqni qo‘llashning yagona amaliyotini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bunday

nashrlar qonun matnini sharhlash bilangina cheklanmay, uning qabul qilinishiga asos bo‘lgan huquqiy g‘oyalarni, qonun chiqaruvchining irodasini, huquqiy institutlarning o‘zaro bog‘liqligini hamda huquqni qo‘llashning asoslarini yoritishga xizmat qiladi.

Shu ma’noda mazkur sharh milliy yuridik adabiyotda alohida o‘rin egallaydi. U mamlakatimizda to‘lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) qonunchiligiga bag‘ishlangan **uchinchi fundamental amaliy sharh** hisoblanadi. Ilgari amal qilgan «Bankrotlik to‘g‘risida»gi Qonunlarga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy sharhlar o‘z davri uchun mazkur institut bo‘yicha huquqni qo‘llash amaliyoti shakllanishiga munosib hissa qo‘shgan bo‘lsa, ushbu sharh 2022-yil 12-aprelda qabul qilingan **«To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi Qonun**ga bag‘ishlangan birinchi kompleks va tizimli sharh sifatida tayyorlandi.

Bu sharh avvalgi nashrlarning oddiy davomi emas. Yangi Qonun to‘lovga qobiliyatsizlik institutining huquqiy konsepsiyasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Shu bois mazkur sharh ham yangi qonunchilikning mazmuni, huquqiy tabiati va amal qilish mexanizmini hisobga olgan holda mutlaqo yangicha yondashuv asosida tayyorlandi. Unda har bir huquqiy norma alohida emas, balki butun qonun tizimining tarkibiy qismi sifatida baholandi.

Ushbu sharhning yana bir muhim xususiyati uning nufuzli va ko‘p tarmoqli mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlanganidir. Sharh ustidagi ishda sud hokimiyati, davlat boshqaruvi organlari, to‘lovga qobiliyatsizlik sohasidagi vakolatli davlat organi, oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar hamda huquqni qo‘llash amaliyotida bevosita faoliyat yuritayotgan yuqori malakali mutaxassislar ishtirok etishdi. Bunday yondashuv sharhlarning amaliy ahamiyati va hayotiyligini ham ta’minladi.

Mualliflar jamoasi tarkibiga huquqshunos olimlar, sudyalar, davlat organlarining mas’ul xodimlari, to‘lovga qobiliyatsizlik sohasidagi amaliyotchi mutaxassislar hamda ilmiy tadqiqotchilar kiritildi. Har bir bob tegishli sohada chuqur bilim va amaliy tajribaga ega muallif tomonidan tayyorlangan bo‘lsa-da, sharhning umumiy konsepsiyasi, uslubi, huquqiy atamalarning yagona qo‘llanilishi va mazmunan yaxlitligi ta’minlandi. Natijada mazkur nashr turli mualliflar ishlarining oddiy yig‘indisi emas, balki yagona g‘oya va metodologiya asosida yaratilgan kompleks amaliy asar sifatida shakllantirildi.

Mualliflar mazkur sharhni tayyorlashda qonun normalarini to‘g‘ri va bir xil anglash hamda qo‘llashga ko‘maklashish, huquqiy aniqlik va sud amaliyotining barqarorligini ta’minlashni asosiy maqsad qilib qo‘yishdi. Shu ma’noda mazkur sharh turli davlat organlari, sud hokimiyati, ilmiy muassasalar va amaliyotchi huquqshunoslarning bilim va tajribasini o‘zida mujassam etgan jamoaviy intellektual mehnat mahsuli hisoblanadi.

Sharh, avvalo, sudyalar, sud boshqaruvchilari, advokatlar, prokurorlar, davlat organlari xodimlari, yuridik xizmat xodimlari, banklar va boshqa kredit tashkilotlari mutaxassislari, tadbirkorlarning kundalik faoliyatida amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishga mo‘ljallangan. Shu bilan birga, u huquq sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar va talabalar uchun ham muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi kutilmoqda.

Mualliflar mazkur sharhni to‘lovga qobiliyatsizlik sohasidagi barcha muammolarga yakuniy javob sifatida emas, balki huquqiy doktrinani rivojlantirishga xizmat qiluvchi ochiq muloqot maydoni sifatida baholashadi. Iqtisodiy munosabatlar, raqamli texnologiyalar, moliya bozorlari va transchegaraviy huquqiy munosabatlar jadal rivojlanayotgan sharoitda to‘lovga qobiliyatsizlik qonunchiligi ham muntazam takomillashib boradi. Shu sababli mazkur sharh ham huquqni qo‘llash amaliyoti, sud amaliyoti va qonunchilikdagi keyingi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda kelgusida yanada boyitib borilishi tabiiydir.

Mualliflar ushbu sharh O‘zbekiston Respublikasining **«To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi Qonuni**ni bir xil anglash va qo‘llashga, huquqiy aniqlik va huquqiy barqarorlikni ta’minlashga, sud amaliyotining izchil rivojlanishiga hamda milliy to‘lovga qobiliyatsizlik huquqi doktrinasini yanada boyitishga munosib hissa qo‘shadi deb ishonishadi.

Shu bilan birga, kitobxonlar, huquqni qo‘llovchi amaliyotchilar va ilmiy jamoatchilikning bildiriladigan taklif hamda mulohazalari mazkur sharhning keyingi nashrlarini yanada takomillashtirish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilishiga umid bildirishadi.

Malikaxon Kalandarova,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o‘rinbosari, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

O‘zbekiston Respublikasining Qonuni
TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK TO‘G‘RISIDA

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlarning to‘lovga qobiliyatsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonunning amal qilishi davlat muassasalariga va boshqa notijorat tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilmaydi, bundan matlubot kooperativi yoki ijtimoiy fond shaklidagi faoliyatni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar mustasno.

Sharhlanayotgan modda qonun ijodkorligidagi an’anaviy modda hisoblanib, unda O‘zbekiston Respublikasining «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi Qonunining (bundan buyon matnda Qonun deb yuritiladi) maqsadi va uning amal qilishi doirasi, qonun bilan tartibga solinadigan munosabatlar belgilangan.

1. Qonunning maqsadi to‘lovga qobiliyatsizlik bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat, bunday munosabatlardagi subyektlar doirasiga yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar (bundan buyon matnda YTT deb yuritiladi) kiradi. Asosiy maqsad iqtisodiy nochorlikni hal qilishning adolatli va samarali jarayonini, to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-qoidalari amalga oshirilishini ta’minlashdir. Bunday yondashuv tashkilotlar yoki alohida shaxslar kreditorlar oldidagi o‘z majburiyatlarini bajara olmaydigan vaziyatni tartibga solish uchun huquqiy asos yaratishga, shuningdek, jarayonning barcha ishtirokchilari uchun oqibatlarni minimallashtirishga imkon beradi.

To‘lovga qobiliyatsizlik instituti mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim huquqiy vositalardan biridir. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan uning oldiga ikki asosiy vazifa qo‘yiladi. Birinchisi, vaqtincha to‘lovga qobiliyatsiz, iqtisodiy nochorlikka duchor bo‘lgan qarzdorga muayyan qoidalar asosida iqtisodiy holatini tiklashiga, so‘ngra o‘z majburiyatlarini bajarishiga imkon berishdan iborat. Ikkinchisi esa, agar qarzdorning iqtisodiy holatini tiklashning imkoni yo‘qligi aniqlansa, uni tugatish bilan bog‘liq jarayonni boshlash va bu jarayonda kreditorlarning talablari eng maqbul darajada ta’minlanishi nazarda tutiladi. Ushbu institut bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotning zarur elementi sanalib, usiz iqtisodiy taraqqiyotni yo‘lga qo‘yib bo‘lmaydi.

Demak, to‘lovga qobiliyatsizlik instituti xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan iqtisodiy nochor, biroq o‘z to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyatiga ega qarzdorlarni moliyaviy jihatdan sog‘lomlashtirish yoki iqtisodiyotni xuddi shunday nochor ahvoldagi, past rentabelli, ya’ni o‘z xarajatini o‘zi qoplay olmaydigan, daromadsiz va istiqboliga ishonch yo‘q subyektlardan xalos etish yo‘li bilan mustahkamlovchi mexanizmlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi **Fuqarolik kodeksining** (bundan buyon matnda FK deb yuritiladi) 39-moddasida *yuridik shaxs* tushunchasiga ta’rif berilgan bo‘lib, unga ko‘ra, o‘z mulkida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo‘lishlari kerak.

YTT belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tib, yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan jismoniy shaxs hisoblanadi. «**Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida**»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan, YTT tomonidan mustaqil, mulk huquqi asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yadigan o‘zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi. YTT o‘z nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadi, huquq va majburiyatlarni oladi hamda amalga oshiradi. Jismoniy shaxs o‘z tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bitimlar tuzayotganida YTT sifatida harakat qilayotganligini, agar bu bitimlarni tuzish vaziyatining o‘zidan aniq anglashilmasa, ko‘rsatishi kerak. Bunday eslatmaning mavjud emasligi YTTni o‘z majburiyatlari bo‘yicha zimmasidagi javobgarlikdan ozod etmaydi.

FKning 26-moddasiga muvofiq, YTT kreditorlarning pul majburiyatlari bo‘yicha talablarini to‘la hajmda qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishga qodir bo‘lmasa, sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsiz deb topilishi mumkin. Shuningdek, YTT maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxs ham kreditorlarning pul majburiyatlari bo‘yicha talablarini to‘la hajmda qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishga qodir bo‘lmasa, agar tegishli talablar uning ilgarigi tadbirkorlik faoliyatidan kelib chiqqan bo‘lsa, belgilangan tartibda sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsiz deb topilishi mumkin.

Qonunda yuridik shaxslar va YTTlar bilan birga jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligi sohasidagi munosabatlarning ham huquqiy jihatdan tartibga solinishi o‘z ifodasini topdi. Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi yangi amaliyot sifatida kiritildi. Qonunning 2023-yil 1-yanvardan e’tiboran amalga kiritilgan 14-bobi bevosita jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligi masalalariga bag‘ishlangan.

Jismoniy shaxs tushunchasiga huquqiy ta’rif FKning 16-moddasida berilgan bo‘lib, fuqarolar (jismoniy shaxslar) deganda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi. FKning 26^1-moddasiga asosan jismoniy shaxs pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlarning talablarini to‘la hajmda qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar

bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishga qodir bo‘lmasa, sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsiz deb topilishi mumkin.

Qonunga asosan jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligi amaliyotini joriy etish va tartibga solish (ba’zan to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha xalqaro amaliyotda «iste’molchilar bankrotligi» deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi to‘lovga qobiliyatsizlik tizimida muhim huquqiy rivojlanish hisoblanadi. Bu O‘zbekiston iqtisodiyotining yanada barqarorligini, shuningdek, mamlakat fuqarolari uchun ham (iste’mol kreditlaridan ko‘proq foydalanilmoqda), ularning kreditorlari uchun ham (iste’mol kreditlarini taqdim etadilar, shuning uchun iqtisodiy nochorlikka duch kelgan mijozlarga nisbatan adolatli va oldindan aytib bo‘ladigan natijalarni talab qiladilar) tegishli himoyani ta’minlashi kutilmoqda.

2. Qonun davlat muassasalariga va boshqa notijorat tashkilotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi. Qonunning qoidalari qo‘llaniladigan matlubot kooperativi va jamoat fondi shaklida tashkil etilgan notijorat tashkilotlar bundan mustasno. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘z faoliyatini olib borishda to‘liq yoki qisman Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan muassasalar, shuningdek, notijorat tashkilotlar to‘lovga qobiliyatsiz deb topilishi mumkin emas.

Qonunning ushbu normasi amaliyotdagi keng qamrovli yondashuvlarni qisqartirib, sudlar uchun yurisdiksiya masalasini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, Qonun faqat tijorat xarakteriga ega bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar uchun amal qiladi, ya’ni byudjet tashkilotlari va notijoriy faoliyat yurituvchi subyektlar undan mustasno etiladi. Misol uchun, davlat ta’lim va maktabgacha ta’lim muassasalari, sog‘liqni saqlash, huquqni muhofaza qiluvchi organlar shular jumlasidandir.

Mazkur moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan istisnolarni hisobga olgan holda Qonun qo‘llanilmaydigan notijorat tashkilotlarining ro‘yxatiga quyidagi tashkilotlar kiradi: muassasalar, jamoat birlashmalari, yuridik shaxslar birlashmalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari.

Qonun «davlat muassasalari»ga nisbatan qo‘llanilmaydi, bu maqbul istisno hisoblanadi, chunki to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari barcha korxonalarga nisbatan qo‘llanilishi kerak, bunday muassasalar alohida Qonun doirasida ko‘rib chiqilishi mumkin bo‘lgan holatlar bundan mustasno.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-iyuldagi 302-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat muassasalari to‘g‘risidagi Nizomga ko‘ra, *davlat muassasasi* boshqaruv, ijtimoiy-madaniy yoki boshqa notijoriy tusdagi vazifalarni amalga oshirish uchun davlat organi yoki tashkiloti tomonidan tashkil etilgan hamda to‘liq yoxud qisman u tomonidan moliyalashtiriladigan yuridik shaxs hisoblanadi. Mazkur Nizomning 17-bandida belgilanganidek, davlat muassasasi o‘z majburiyatlari bo‘yicha ixtiyoridagi mablag‘lar bilan javob beradi. Bu mablag‘lar yetarli bo‘lmasa, agar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasi hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, muassis davlat muassasasining majburiyatlari yuzasidan subsidiar javobgar bo‘ladi.

FKning 178-moddasida (operativ boshqarish huquqi) davlat muassasasi o‘ziga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkka nisbatan qonunda belgilangan doirada, o‘z faoliyatining maqsadlariga, mulkdorning topshiriqlariga hamda mol-mulkning vazifasiga muvofiq holda

egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlarini amalga oshirishi belgilangan. FKning 180-moddasiga ko‘ra, muassasa o‘ziga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkni va smeta bo‘yicha unga ajratilgan mablag‘larga sotib olingan mol-mulkni boshqa shaxsga berishga yoki o‘zgacha usul bilan tasarruf etishga haqli emas. Agar ta’sis hujjatlariga muvofiq muassasaga daromad keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi berilgan bo‘lsa, bunday faoliyatdan olingan daromad va bu daromad hisobidan sotib olingan mol-mulk muassasaning mustaqil tasarrufiga o‘tadi va alohida balansda hisobga olinadi.

Ushbu normadagi yana bir ahamiyatli holat Qonunning matlubot kooperativi yoki ijtimoiy fond shaklidagi faoliyatni amalga oshirayotgan yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganidir. Uning huquqiy mantig‘ini FKning 208-moddasida fuqarolar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari, *kooperativlar*, jamoat birlashmalari, *ijtimoiy fondlar* va davlatga qarashli bo‘lmagan boshqa yuridik shaxslar xususiy mulk huquqining subyektlari hisoblanadilar deb belgilanganida ham ko‘rish mumkin.

FKning 57-moddasida matlubot kooperativi yoki ijtimoiy fond shaklida ish olib borayotgan yuridik shaxs pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlarning talablarini to‘la hajmda qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishga qodir bo‘lmasa, sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsiz deb topilishi mumkinligi nazarda tutilgan.

FKning 73-moddasiga asosan, ishtirokchilarning moddiy (mulkiy) ehtiyojlarini qondirish maqsadida fuqarolarning a’zolikka asoslangan ixtiyoriy birlashmasi *matlubot kooperativi* hisoblanib, bu birlashuv uning a’zolari tomonidan o‘z mulkiy (pay) badallarini qo‘shish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

FKning mazkur moddasiga muvofiq matlubot kooperativining a’zolari ko‘rilgan zararni yillik balans tasdiqlanganidan keyin uch oy mobaynida qo‘shimcha badallar to‘lash yo‘li bilan qoplashlari shart. Ushbu burch bajarilmagan taqdirda, kooperativ kreditorlarning talablariga muvofiq sud tomonidan tugatilishi mumkin. Matlubot kooperativining a’zolari uning majburiyatlari bo‘yicha har bir kooperativ a’zosi to‘laydigan qo‘shimcha badalning to‘lanmagan qismi doirasida subsidiar javobgar bo‘ladilar. Bu holda kooperativ a’zolari solidar javob beradilar.

2-modda. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilik

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Sharhlanayotgan modda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilikni, O‘zbekiston Respublikasining bu boradagi qonunchiligi va xalqaro shartnomalarining o‘zaro nisbatini belgilaydi.

1. To‘lovga qobiliyatsizlikni huquqiy tartibga solish manbalari tizimida sharhlanayotgan moddaning qoidalari muhim ahamiyatga ega. Ular Qonunning 1-moddasida ko‘rsatilgan munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik tabiatini ta’riflaydi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi amaldagi qonunchilik nafaqat Qonunning o‘zida, balki boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ham mavjud bo‘lgan bir qator huquqiy normalardan iborat.

Mazkur moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasida to‘lovga qobiliyatsizlikni huquqiy tartibga solishning asosiy tizimini o‘zida mujassamlashtiradi. «Qonunchilik hujjatlari» tushunchasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari (shu jumladan, kodekslar), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, vazirliklar va idoralarning buyruqlari, qarorlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlarini qamrab oladi.

«Boshqa qonunchilik hujjatlari» jumlasiga quyidagilar kiradi: O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi (bundan buyon matnda IPK deb yuritiladi); O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, «Qishloq xo‘jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bankrotlik taomillarini yanada soddalashtirish va sud boshqaruvchilari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2019-yil 1-fevraldagi PQ–4146-son qarori; Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 14-avgustdagi 224-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Soxta to‘lovga qobiliyatsizlik, to‘lovga qobiliyatsizlikni yashirish va qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelish alomatlarini aniqlash» Qoidalari, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrdagi 838-son qarori bilan tasdiqlangan Sud boshqaruvchilari malaka attestatini berish tartibi to‘g‘risida Nizom va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari qonunchilik hujjati hisoblanmasa-da, «Sudlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 25-moddasiga asosan, qonunchilikni qo‘llash masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari sudlar, ushbu tushuntirish berilgan qonunchilikni qo‘llayotgan davlat organlari va boshqa organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar uchun majburiydir. Shu sababli yuqoridagi Plenum qarori tushuntirishlariga zid ravishda qabul qilingan sud hujjatlari belgilangan tartibda bekor qilinishiga asos bo‘lishi mumkinligini inobatga olish lozim.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida» 2025-yil 23-iyundagi 13-son qarori to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishda muhim ahamiyatga ega.

Qonun normalari to‘lovga qobiliyatsizlik holatidagi korxonalarga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlikning sog‘lomlashtirish tartib-taomillarini qo‘llash orqali ularning faoliyatini tiklash va istiqbolsiz korxonalarni tugatish samaradorligini oshirishga qaratil-

gan. Shuningdek, jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslari belgilangan.

Jumladan, yuridik shaxslardan tashqari jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligi tushunchasi, uning asosiy alomatlari, jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish asoslari va mezonlari, ushbu jarayonda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan to‘lovga qobiliyatsizlik taomillari, kelishuv bitimini tuzish, qarzdorni majburiyatdan ozod qilish tartibi, kreditor, qarzdor va moliyaviy boshqaruvchining huquqlari va majburiyatlari, ishni sudda ko‘rib chiqish tartibi, muddatlari va sudning vakolatlari belgilangan.

FKda to‘lovga qobiliyatsizlik sohasidagi muhim fundamental qoidalar belgilangan. Jumladan, uning 57-moddasida tijoratchi tashkilot bo‘lgan yuridik shaxs, shuningdek, matlubot kooperativi yoki ijtimoiy fond shaklida ish olib borayotgan yuridik shaxs pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlarning talablarini to‘la hajmda qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishga qodir bo‘lmasa, sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsiz deb topilishi mumkinligi belgilangan.

Shuningdek, FKning 26-moddasida YTTning va YTT maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi, 26^1-moddasida jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi, 48-moddasida yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligidagi javobgarlikka oid qoidalar mustahkamlangan.

Yuridik shaxslar va YTTlar to‘lovga qobiliyatsizligining protsessual jihatlari Qonun bilan bir qatorda IPK bilan ham tartibga solinadi.

To‘lovga qobiliyatsizlikka oid normalar vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlarida ham mavjud bo‘lishi mumkin. Ular idoraviy normativ-huquqiy hujjat sifatida huquqiy tartibga solish manbasi bo‘lib, o‘zining doimiy o‘rniga ega. Bundan hujjatlar faqatgina Qonunda, FKda, boshqa qonunchilik hujjatlarida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, Hukumati qarorlarida) nazarda tutilgan holatlarda va doiradagina qabul qilinishi mumkin.

Ijroiya hokimiyati organlarining davlat ro‘yxatidan o‘tmagan, shuningdek, ro‘yxatdan o‘tgan, ammo belgilangan tartibda e’lon qilinmagan normativ-huquqiy hujjatlari (o‘z ichiga davlat sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni yoxud maxfiy tusdagi ma’lumotlarni olgan hujjatlar va ularning ayrim qoidalaridan tashqari) amalga kiritilmagani sababli huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi hamda tegishli huquqiy munosabatlarni tartibga solish, ularda mustahkamlangan talablarni bajarmaganligi uchun fuqarolarga, mansabdor shaxslarga va tashkilotlarga nisbatan jazo choralarini qo‘llash uchun asos bo‘la olmaydi. Nizolarni hal qilishda bunday hujjatlarga tayanish mumkin emas.

E’tiborlisi, sohaga oid qonunchilik hujjatlari o‘rtasida ziddiyatlar, kolliziyalar yuzaga kelganda Qonun ustuvor bo‘lib, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning normalari qo‘llanilmaydi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida xalqaro huquq normalarining ustuvorligi tamoyili mustahkamlangan. Ushbu qoida O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining universal prinsipiga tayanadi: agar milliy qonunchilik normalari va O‘zbekiston

Respublikasining xalqaro shartnomasi o‘rtasida tafovut yuzaga kelsa, xalqaro shartnoma qoidalari ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi.

Mazkur prinsip O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasi, «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida»gi Qonunning 33- va 34-moddalari hamda xalqaro huquqning fundamental «*pacta sunt servanda*» (shartnomalarga rioya qilinishi shart) prinsipiga to‘la mos keladi. Xususan, 1969-yildagi «Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risida»gi Vena konvensiyasining 26-moddasida ushbu prinsipning mazmuni ochib berilgan bo‘lib, unga ko‘ra: «Har bir amaldagi shartnoma uning ishtirokchilari uchun majburiydir va ular tomonidan vijdonan bajarilishi lozim». Ushbu xalqaro-huquqiy majburiyat BMT Nizomi 2-moddasining 2-bandida mustahkamlangan «BMTning barcha a’zolari ushbu Nizom bo‘yicha zimmalariga olgan majburiyatlarini vijdonan bajaradilar» degan umume’tirof etilgan qoidadan kelib chiqadi.

Ushbu norma quyidagi ustuvor maqsadlarga yo‘naltirilgan: a) transchegaraviy to‘lovga qobiliyatsizlik munosabatlarini tizimli muvofiqlashtirish; b) chet ellik kreditorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish; d) xalqaro iqtisodiy bitimlardan kelib chiqadigan majburiyatlar ijrosini kafolatlash; e) O‘zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy maydondagi nufuzini yanada mustahkamlash.

To‘lovga qobiliyatsizlik jarayonlari zamonaviy iqtisodiyotda faqat bir davlat hududi bilan cheklanib qolmaydi. Xorijiy investorlar va transmilliy korporatsiyalar ishtirok etadigan murakkablashgan munosabatlarda milliy qonunchilik barcha huquqiy jihatlarni to‘liq qamrab olishi imkonsiz. Shu bois xalqaro shartnomalar ustuvorligining belgilanishi to‘lovga qobiliyatsizlik sohasida huquqiy normalarning muvofiqligini ta’minlaydi.

Ushbu qoida imperativ xarakterga ega bo‘lib, bevosita qo‘llanilish kuchiga ega. U transchegaraviy to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonlarida milliy qonunchilik va xalqaro huquq o‘rtasidagi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kolliziyalarni bartaraf etishga xizmat qiladi hamda bunday holatlarda xalqaro huquq normalarining qo‘llanilishini kafolatlaydi.

Hozirgi vaqtda to‘lovga qobiliyatsizlik masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari mavjud emas. BMTning xalqaro savdo huquqi bo‘yicha Komissiyasi (UNCITRAL) tomonidan Transchegaraviy to‘lovga qobiliyatsizlik haqidagi Namunaviy qonun ishlab chiqilib, mazkur qonun davlatlarga o‘z milliy qonunchiligi tizimiga implementatsiya qilish uchun tavsiya qilingan (1997-yil 15-dekabrdagi BMT Bosh Assambleyasi 52/158-rezolyutsiyasi).

Xalqaro amaliyotda (jumladan, UNCITRALning Transchegaraviy to‘lovga qobiliyatsizlik haqidagi Namunaviy qonuni va Yevropa Ittifoqining To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Reglamentida) yurisdiksiyalararo hamkorlik, xorijiy shaxslarning talablarini tan olish, aktivlarni qidirish va qaytarish hamda kreditorlar da’volarini konsolidatsiya qilish (birlashtirish) kabi mexanizmlar markaziy o‘rin tutadi. O‘zbekiston milliy qonunchiligida ushbu jarayonlar hali to‘liq qamrab olinmaganligi sababli xalqaro shartnomalar ustuvorligining tan olinishi nafaqat nazariy, balki muhim amaliy-yuridik zaruratdir.

Xususan, investitsiya bitimlari va ikki tomonlama investitsiyalarni himoya qilish to‘g‘risidagi shartnomalarda kreditorlar huquqlarini kafolatlovchi maxsus normalar mavjud. Agar milliy qonunchilikda xorijiy kreditorlar uchun cheklovlar yoki kamroq imkoniyatlar nazarda tutilgan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari ustuvor ravishda qo‘llaniladi. Shuningdek, qarzdor korxonalarning aktivlari xorijiy davlatlar hududida joylashgan hollarda ushbu aktivlarni qidirish, himoya qilish va qaytarish jarayonlari xalqaro kelishuvlar asosida tartibga solinadi. Mazkur qoidalar, ayniqsa, xorijiy kapital ishtirokidagi qo‘shma korxonalarning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

bankrot – sudning qaroriga asosan to‘lovga qobiliyatsiz deb topilgan va o‘ziga nisbatan tugatishga doir ish yuritish yoki mol-mulkini sotish tartib-taomili qo‘llaniladigan qarzdor;

bir turdagi kreditorlar – qarzdorga nisbatan bir xil talablarga ega bo‘lgan va ularni qanoatlantirishda bir-biriga nisbatan imtiyozga ega bo‘lmagan kreditorlar guruhi;

kelishuv bitimi – taraflarning o‘zaro yon berish asosida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish yuritishni tugatish haqidagi bitimi;

kreditorlar – qarzdor pul majburiyatlari bo‘yicha va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish yuzasidan qaysi yuridik yoki jismoniy shaxslar oldida javobgar bo‘lsa, ayni shu yuridik yoki jismoniy shaxslar, bundan qarzdor qaysi fuqaroning hayotiga yoki sog‘lig‘iga zarar yetkazilganligi uchun javobgar bo‘lsa, ayni shu fuqaro, shuningdek, o‘z ishtirokida kelib chiqadigan majburiyatlar bo‘yicha qarzdor yuridik shaxsning muassasalari (ishtirokchilari) mustasno;

kreditorlar yig‘ilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining vakili – to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etishiga kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi tomonidan vakolat berilgan shaxs;

kuzatuv tartib-taomili – qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning mol-mulki but saqlanishini ta’minlash, qarzdorning moliyaviy ahvoli tahlilini o‘tkazish, kreditorlar talablari reyestrini tuzish va birinchi kreditorlar yig‘ilishini o‘tkazish uchun qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza qabul qilingan kundan e’tiboran keyingi to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomiliga qadar sud tomonidan qo‘llaniladigan tartib-taomil;

mol-mulkni sotish tartib-taomili – jismoniy shaxsga nisbatan kreditorlarning talablarini mutanosib ravishda qanoatlantirish uchun to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida qo‘llaniladigan tartib-taomil;

moratoriy – qarzdor yuridik shaxs tomonidan pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini to‘xtatib turish;

pul majburiyati – qarzdorning fuqarolik-huquqiy shartnomasi bo‘yicha, shuningdek, boshqa asoslarga ko‘ra kreditorga muayyan pul summasini to‘lash majburiyati;

soliqlar va yig‘imlar – O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va (yoki) davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lanadigan majburiy to‘lovlar;

soxta to‘lovga qobiliyatsizlik – yuridik va jismoniy shaxs, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorning o‘z majburiyatlarini iqtisodiy jihatdan bajara olishi haqida bila turib pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlarning talablarini qanoatlantirish va (yoki) soliq hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatini to‘liq hajmda bajara olmasligi to‘g‘risida e’lon berishi natijasida kreditorlarga zarar yetkazilishi;

sud boshqaruvchisi (muvaqqat boshqaruvchi, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi, tashqi boshqaruvchi, tugatish boshqaruvchisi, moliyaviy boshqaruvchi) – to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini o‘tkazish uchun sud tomonidan tayinlanadigan shaxs;

sud sanatsiyasi tartib-taomili – qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning to‘lov qobiliyatini tiklash va uning kreditorlar oldidagi qarzini to‘lash uchun qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini sanatsiya qiluvchi boshqaruvchiga o‘tkazmagan holda sud tomonidan qo‘llaniladigan tartib-taomil;

sudgacha sanatsiya qilish – qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) yoki uning mol-mulki egasi, kreditorlar va boshqa shaxslar tomonidan qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash hamda to‘lovga qobiliyatsizligining oldini olish uchun ko‘riladigan chora-tadbirlar;

tashqi boshqaruv – qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uni moliyaviy jihatdan sog‘lomlashtirish uchun qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini tashqi boshqaruvchiga o‘tkazgan holda sud tomonidan qo‘llaniladigan to‘lov qobiliyatini tiklash tartib-taomili;

tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili – kreditorlarning talablarini mutanosib ravishda qanoatlantirish, qarzdorning majburiyatlardan ozod etilganligini hamda tugatilganligini e’lon qilish maqsadida sud tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan tartib-taomil, bundan jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishlar mustasno;

to‘lovga qobiliyatsizlik – sud tomonidan e’tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini to‘la hajmda qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini to‘la hajmda bajarishga qodir emasligi;

to‘lov qobiliyatini tiklash tartib-taomili – sud tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan, sud sanatsiyasini yoki tashqi boshqaruvni

o‘z ichiga oladigan hamda qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadigan tartib-taomil;

to‘lovga qobiliyatsizlikni yashirish – yuridik va jismoniy shaxs, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotlar va hujjatlar taqdim etilganligi, buxgalterlik hisobotlari buzib ko‘rsatilganligi yoki o‘zining to‘lovga qobiliyatsizligi boshqacha tarzda qasddan yashirilganligi natijasida kreditorlarga zarar yetkazish;

qarzdor – kreditorlarning pul majburiyatlari yuzasidan talablarini qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishga qodir bo‘lmagan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar;

qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) yoki uning mol-mulki egasining vakili – to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish jarayonida muassislar (ishtirokchilar) yoki qarzdor mol-mulkining egasi tomonidan vakolat berilgan shaxs;

qarzdor xodimlarining vakili – to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili o‘tkazilayotganda o‘z manfaatlarini ifodalash uchun qarzdorning xodimlari tomonidan vakolat berilgan shaxs;

qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili – jismoniy shaxsga nisbatan to‘lov qobiliyatini tiklash va kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida qo‘llaniladigan tartib-taomil;

qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelish – yuridik shaxsning boshqaruv organi tarkibiga kiradigan shaxs, muassis (ishtirokchi) yoxud yuridik shaxsning mulkdori, shuningdek, jismoniy shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan shaxsiy manfaatlarini yoki boshqa shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab to‘lovga qobiliyatsizlikni qasddan yuzaga keltirish yoki ko‘paytirish;

qishloq xo‘jaligi korxonasi – qishloq xo‘jaligi kooperativi, fermer xo‘jaligi va yuridik shaxs tashkil etgan holdagi dehqon xo‘jaligi, shuningdek, faoliyatining asosiy turi qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqarishdan iborat bo‘lgan boshqa yuridik shaxslar;

shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxona – xodimlari, ularning oila a’zolari ham qo‘shib hisoblanganda tegishli aholi punkti aholisining kamida yarmini yoki xodimlarining soni kamida uch ming nafar kishini tashkil etadigan yoxud davlatning mudofaa qobiliyati va xavfsizligi saqlab turilishini ta’minlaydigan, shuningdek, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yoki tabiiy monopoliyalar subyekti bo‘lgan yuridik shaxs.

Sharhlanayotgan modda to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini amalga oshirishda qo‘llaniladigan bazaviy huquqiy institutlar va tushunchalar tizimini belgilab

beradi. To‘lovga qobiliyatsizlik huquqining murakkab va ko‘p bosqichli tabiatini inobatga olgan holda asosiy tushunchalarning qonunchilikda aniq ifodalanishi sud va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tushunchalarning aksariyati xalqaro to‘lovga qobiliyatsizlik huquqi standartlariga (UNCITRALning Namunaviy qonuni, Jahon bankining Samarali to‘lovga qobiliyatsizlik va kreditorlik/qarzdorlik rejimlari tamoyillari) to‘la mos kelib, milliy huquqiy tizimning xalqaro standartlar bilan integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Mazkur moddada qonunchilikda qo‘llaniladigan asosiy atamalarning (tushunchalarning) mazmuniga aniq ta’rif berilgan bo‘lib, bu huquqni qo‘llash amaliyotida ularning bir xilda talqin qilinishi va tushunilishini ta’minlaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 719-b.

4-modda. Joriy to‘lovlar

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish jarayoni boshlangan sanadan e’tiboran yuzaga kelgan pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar joriy to‘lovlardir.

Kreditorlarning joriy to‘lovlar bo‘yicha talablari kreditorlar talablarining reyestrida aks ettirilmaydi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish jarayonida kreditorlarning joriy to‘lovlar bo‘yicha talablarini qanoatlantirish ushbu Qonun 150-moddasining birinchi qismiga muvofiq amalga oshiriladi.

Sharhlanayotgan moddada to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish boshlanganidan keyin vujudga kelgan pul majburiyatlari hamda soliq va yig‘imlar joriy to‘lovlar deb e’tirof etilishi, ular bo‘yicha talablar kreditorlar reyestriga kiritilmasligi va bunday talablarni qanoatlantirish Qonunning 150-moddasida belgilangan navbatda amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismiga muvofiq, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganidan keyin yuzaga kelgan majburiyatlar, ya’ni qarzdor tomonidan qabul qilingan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha qarzdorliklar joriy to‘lovlar hisoblanadi.

Qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza sud tomonidan qabul qilinganidan keyin ham uning xo‘jalik faoliyati (tartib-taomil turidan qat’i nazar) davom etadi odatda. Shu sababli jarayonning samaradorligini ta’minlash uchun quyidagi joriy xarajatlarni o‘z vaqtida to‘lash majburiyati saqlanib qoladi: kommunal va foydalanish to‘lovlari; ko‘char va ko‘chmas mulk ijara haqi; xodimlarning ish haqi; joriy soliqlar va yig‘imlar hamda boshqa operatsion xarajatlar.

Ushbu to‘lovlarning amalga oshirilmasligi sanatsiya, tashqi boshqaruv yoki tugatish jarayonlarini sifatli o‘tkazishga imkon bermaydi.

Shuningdek, qarzdorda likvidlik muammosi yuzaga kelishi mumkin. Bunday vaziyatda majburiyatlarni kredit tavakkalchiligini o‘z zimmasiga olishga tayyor bo‘lgan moliya tashkilotlari bilan yangi kredit shartnomalari tuzish orqali hal qilish talab etiladi. To‘lov qobiliyatini tiklash va qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan aylanma kapitalni moliyalashtirish imkoniyatiga bog‘liqdir.

To‘lovga qobiliyatsizlikning xalqaro amaliyotida bu jarayon «DIP-moliyalashtirish» (Debtor-in-Possession financing) deb ataladi. Ushbu mexanizm yangi mablag‘ taqdim etgan kreditorga o‘z talablarini boshqa kreditorlarga nisbatan imtiyozli (ustuvor) tartibda qondirish huquqini beradi. Qonunning 114- va 125-moddalarida qo‘shimcha pul mablag‘larini qarz olish yo‘li bilan jalb qilish imkoniyati nazarda tutilgan bo‘lib, bu joriy to‘lovlarning ustuvorligiga oid 150-modda bilan uyg‘unlashadi.

To‘lovga qobiliyatsizlikning samarali tizimi yangi moliyalashtirishni himoya qilish orqali qarzdorning kundalik faoliyatini tiklashga ko‘maklashishi lozim. Korxonani sog‘lomlashtirish ko‘pincha yangi investitsiyalarni talab qilganligi sababli, bozor shartlari asosida taqdim etilgan har qanday moliyalashtirish: a) to‘lovlar navbatida ustuvorlikka ega bo‘lishi; b) keyingi ehtimoliy tugatish jarayonlarida bitimni bekor qilish xavfidan himoyalashi lozim.

2. Ushbu normada joriy to‘lovlar bo‘yicha kreditorlarning huquqiy maqomi belgilangan bo‘lib, ular to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar hisoblanmaydi va tegishli protsessual huquqlarga ega bo‘lmaydi.

Bunday huquqiy rejim joriy to‘lovlarning boshqa talablardan ustuvor ravishda, ya’ni navbatdan tashqari qondirilishi lozimligi bilan asoslanadi (Qonunning 150-moddasi). Shu sababli joriy to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlikni undirish talablariga nisbatan quyidagi cheklovlar tatbiq etilmaydi: a) moratoriy cheklovlari. Masalan, tashqi boshqaruv joriy etilishi munosabati bilan o‘rnatiladigan moratoriy joriy to‘lovlarga nisbatan amal qilmaydi (Qonunning 110-moddasi); b) navbat kutish. Ushbu talablar reyestrga kiritilgan «eski» qarzlar to‘lanishini kutmasdan, mablag‘ mavjudligiga qarab navbatdan tashqari qoplanadi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismiga muvofiq, kreditorlarning joriy to‘lovlar bo‘yicha talablari navbatdan tashqari qanoatlantiriladi. Agar joriy to‘lovlarning o‘zi bir nechta bo‘lsa, ular 150-moddada ko‘rsatilgan ichki navbat bo‘yicha (masalan, sud xarajatlari, keyin ish haqi, so‘ngra kommunal to‘lovlar va h.k.) ijro etiladi.

Shuningdek, joriy to‘lovlarning to‘lanishini ta’minlash sud boshqaruvchisining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, Qonunning 85–100-moddalarida belgilangan sud boshqaruvchisining vakolatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Qarang: Xalqaro sharh. 720-b.

5-modda. To‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari

To‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari quyidagilardan iborat:

vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizlik – agar tegishli majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e’tiboran uch oy ichida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo‘lsa, shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxonalar tomonidan esa olti oy ichida bajarilmasa, sudga murojaat etish sanasida qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishga qodir emasligi;

doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik – agar sudga ariza berish sanasidagi va ariza berilgan yilning boshidagi hisobot davrida, agarda ariza yilning birinchi choragida berilgan bo‘lsa, o‘tgan yilning boshidagi hisobot davrida qarzdorning majburiyatlari uning aktivlari qiymatidan oshib ketgan bo‘lsa.

Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar soddalashtirilgan tartibda ko‘rib chiqilayotganda, jismoniy shaxslar, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishlar ko‘rib chiqilayotganda qo‘llanilmaydi.

Sharhlanayotgan moddada to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari sifatida qarzdorning majburiyatlarini belgilangan muddatlarda bajara olmasligi bilan ifodalanuvchi vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizlik hamda majburiyatlar hajmining aktivlar qiymatidan oshib ketishi bilan tavsiflanuvchi doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik tushunchalari belgilanib, mazkur qoidalarning soddalashtirilgan tartibda ko‘rib chiqiladigan ishlarga, jismoniy shaxslar va YTTga nisbatan qo‘llanilmasligi nazarda tutilgan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismi ikkita alohida, bir-birini to‘ldiruvchi, biroq huquqiy natijalari turlicha bo‘lgan mezonlarni belgilaydi: a) vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizlik – likvidlik (pul yoki pul ekvivalentlari) yetishmasligiga asoslangan mezon; b) doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik – qarzdorning moliyaviy barqarorligi uzoq muddatli buzilgan, passivlar aktivlardan yuqori bo‘lgan holat.

1.1. Vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizlik – likvidlik mezoni qarzdorning joriy to‘lov majburiyatlarini bajara olmaslik muddati bilan belgilanadi. Agar qarzdor pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini qanoatlantirishga yoki soliq va yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlarini bajarishga qodir bo‘lmasa hamda ushbu muddat: a) umumiy tartibdagi qarzdorlar uchun majburiyat yuzaga kelgan sanadan e’tiboran 3 oyni tashkil etsa; b) shaharni tashkil etuvchi va unga tenglashtirilgan korxonalar uchun majburiyat yuzaga kelgan sanadan e’tiboran 6 oyni tashkil etsa, qarzdor vaqtincha to‘lovga qobiliyatsiz deb hisoblanadi. Mazkur muddatlar kreditorlarga sudga murojaat qilish huquqini beradigan «kutish davri» hisoblanadi.

1.2. Doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik – balans mezoni, ya’ni qarzdor majburiyatlarining jami qiymati uning aktivlari qiymatidan oshib ketganligi quyidagi ikki davr uchun taqqoslanadi: a) sudga ariza berilgan sanadagi holat; b) hisobot yilining boshidagi ho-

lat (agar ariza yilning birinchi choragida berilgan bo‘lsa, o‘tgan yilning boshidagi holat bilan taqqoslanadi). Bunda qarzdorning barcha mulklari (aktivlari) sotilganda ham uning qarzlarini (passivlarini) qoplashga mablag‘ yetmaydi. Bu ko‘rsatkich qarzdorni tugatish yoki sog‘lomlashtirish (sanatsiya) kerakligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Doimiy to‘lovga qobiliyatsizlikni aniqlashda ariza berilgan sana bilan yil boshidagi holatning taqqoslanishi qarzdorning moliyaviy ahvoli yomonlashib borayotganini (dinamikasini) ko‘rsatib beradi.

Doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik mezonlarini qo‘llashda hisobot davrlarining o‘ziga xos xususiyatlariga alohida e’tibor qaratish lozim. Qonunchilikda belgilangan taqqoslash davrlari ariza berilgan vaqtga qarab turlicha bo‘lishi mumkin. Agar ariza yilning ikkinchi choragi boshida (masalan, aprel oyida) berilgan bo‘lsa, majburiyatlar va aktivlar qiymati ariza berilgan sana hamda joriy yilning boshidagi (1 yanvar) holat bilan solishtiriladi. Bunda taqqoslanayotgan davr oralig‘i atigi 3 oydan sal ko‘proqni tashkil etadi. Agar ariza yilning birinchi choragida (masalan, mart oyida) berilgan bo‘lsa, Qonunga ko‘ra, ko‘rsatkichlar ariza berilgan sana hamda o‘tgan yilning boshidagi holat bilan taqqoslanadi. Bunday vaziyatda tahlil qilinayotgan davr ancha uzoq – taxminan 1 yil-u 3 oygacha bo‘lgan muddatni qamrab oladi. Shu sababli doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlarini baholashda hisobot sanasi va taqqoslanayotgan davr oralig‘idagi farqlar qarzdorning moliyaviy holati haqidagi xulosaga ta’sir qilishi mumkin.

To‘lovga qobiliyatsizlik alomatlarining aniq belgilanishi qarzdorga nisbatan asossiz da’vo qo‘zg‘atilishining oldini oladi hamda ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqishda barcha manfaatdor va aloqador tomonlar uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Bunda, Qonunning 37-moddasiga muvofiq, qarzdorning vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizligi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish va to‘lovga qobiliyatsizlikni tiklash tartib-taomillaridan birini qo‘llash haqida sudga ariza bilan murojaat qilishga asos bo‘ladi. Qarzdorning doimiy to‘lovga qobiliyatsizligi esa qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish hamda uni bankrot deb topish, shuningdek, tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqidagi ariza bilan sudga murojaat etish uchun asos bo‘ladi.

Mazkur moddaning qoidalari umumiy bo‘lib, agar Qonunning alohida toifadagi qarzdorlarga nisbatan maxsus qoidalarida boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, qo‘llaniladi. Masalan, shaharni tashkil etuvchi korxonalar toifasiga kiruvchi korxonalarning to‘lovga qobiliyatsizligi asoslari Qonun XIII bobining 172-moddasida belgilangan.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlarini (vaqtinchalik va doimiy) aniqlash qoidalaridan istisnolarni belgilaydi.

Soddalashtirilgan tartibda ko‘rib chiqilayotgan ishlarga nisbatan ushbu moddaning qoidalari qo‘llanilmasligiga sabab shuki, bunda qarzdor tugatilish jarayonida bo‘ladi yoki uning aktivlari mavjud bo‘lmaganligi sababli qarzlarni to‘lashning iloji yo‘qligi oldindan ma’lum bo‘ladi. Bunday hollarda 3 oylik kutish muddati yoki balans qiymatini tahlil qilish talab etilmaydi.

Qarzdor jismoniy shaxsning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatini to‘liq hajmda bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to‘lov majburiyatlari yuzaga kelgan kundan e’tiboran uch oy ichida qarzdor jismoniy shaxs tomonidan bajarilmagan hamda qarzdor jismoniy shaxsga nisbatan talablar bazaviy hisoblash miqdorining kamida ikki yuz baravarini tashkil etsa, qarzdor jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi alomatlari hisoblanadi.

Agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to‘lov majburiyatlari yuzaga kelgan kundan e’tiboran uch oy ichida qarzdor YTT tomonidan bajarilmasa hamda qarzdor YTTga nisbatan talablar bazaviy hisoblash miqdorining kamida ikki yuz baravarini tashkil etsa, qarzdor YTTning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini qanoatlantirish va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish imkoniyati yo‘qligi qarzdor YTTning to‘lovga qobiliyatsiz ekanligining alomatlari bo‘ladi. Qarang: Xalqaro sharh. 720-b.

6-modda. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish ushbu Qonunning 7-moddasiga muvofiq sudga murojaat etish huquqiga ega bo‘lgan shaxsning (organning) arizasi asosida qarzdor yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tgan joydagi, shuningdek, qarzdor jismoniy shaxs va (yoki) yakka tartibdagi tadbirkorning yashash joyidagi sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishlar O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksida nazarda tutilgan qoidalar bo‘yicha, ushbu Qonunda belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Sharhlanayotgan modda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishning sudga taalluqliligi va sudlovga tegishliligini, shuningdek, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish shartlarini belgilaydi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismi bo‘yicha to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar IPKning 25-, 27-, 210- va 210-moddalariga muvofiq faqat iqtisodiy sudlar tomonidan ko‘rib chiqiladi. Bu norma to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni ma’muriy tartibda emas, balki sud tartibida hal qilinishini anglatadi. Bunda iqtisodiy sud ishlarini yuritish: faqat sud qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish, sog‘lomlashtirish yoki tugatish tartib-taomillarini belgilash bo‘yicha mutlaq vakolatga ega; sud nazorati jarayon davomida kreditorlar va qarzdor o‘rtasidagi manfaatlar muvozanatini saqlash hamda sud boshqaruvchisi faoliyatini tartibga solish uchun huquqiy kafolat bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu yondashuv to‘lovga qobiliyatsizlik huquqining klassik g‘oyalariga mos: qarzdorning moliyaviy holatiga baho berish, tartib-taomillarni qo‘llash, qarzdorlikni tugatish, kreditorlar huquqlarini himoya qilish faqat sud tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Qonunning ushbu normasi IPK 25-moddasining birinchi qismiga muvofiq bo‘lib, unga ko‘ra, mazkur toifadagi ishlarni ko‘rish sudlarning vakolatiga kiritilgan. Ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarining maxsus sudlov tartibiga ega ekanligini, protsessual qoidalarga nisbatan maxsus Qonun normalari ustuvorligini kafolatlaydi. Shu bilan birga, modda Qonunning ariza berish subyektlariga oid 7-moddasi bilan uzviy bog‘liq.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi quyidagilarni belgilaydi: to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar Qonunning 7-moddasida sanab o‘tilgan, qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarning (qarzdorning o‘zi, kreditorlar, davlat soliq xizmati organlari va vakolatli davlat organi) arizasi bo‘yicha qo‘zg‘atiladi; arizachi qarzdor yuridik shaxs bo‘lsa, u davlat ro‘yxatidan o‘tgan joydagi, qarzdor jismoniy shaxs va (yoki) YTT bo‘lsa, ularning yashash joyidagi sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Bu qoida IPKdagi umumiy sudlovga tegishlilik qoidalariga (da’vogar emas, qarzdor joylashgan yeri bo‘yicha) mos keladi. Anglash mumkinki, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar doimo qarzdorning asosiy moliyaviy manfaatlari joylashgan hududda ko‘rib chiqiladi. Mazkur tartib kreditorlar talabi asosida o‘z foydasiga qulay hududni tanlash (forum shopping) hollarini cheklaydi.

Qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga kim (qarzdor, kreditor, vakolatli davlat organi) murojaat qilishidan qat’i nazar, ish qarzdor davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan yoki turgan (yashaydigan) joyidagi sudda ko‘rib chiqilishi lozim. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarga nisbatan IPK 37- va 38-moddalarining alohida va shartnoma bo‘yicha sudlovga tegishlilik to‘g‘risidagi qoidalari qo‘llanilmaydi. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar da’vo ish yurituviga taalluqli emas, shu munosabat bilan ularga nisbatan nizolarni hal qilish uchun hakamlik sudiga (arbitrajga) topshirish to‘g‘risidagi IPK 29-moddasining normalari ham qo‘llanilmaydi.

3. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar sud tomonidan Qonunda belgilangan o‘ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda IPKda nazarda tutilgan qoidalar bo‘yicha ko‘rib chiqiladi.

Qonunning protsessual normalari to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarda Qonunning IPKga nisbatan o‘ziga xos xususiyatga egaligi shu bilan izohlanadi. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda yuzaga keladigan protsessual huquqiy munosabatlar Qonunning normalari bilan tartibga solinmagan hollarda ularga nisbatan IPK normalari qo‘llaniladi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar IPKning umumiy normalari asosida yuritiladi: arizani qabul qilish tartibi; ish yuritish muddatlari; sud majlislarini o‘tkazish; ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilish; dalillar taqdim etish va baholash; sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish va boshqalar.

Biroq to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari quyidagi sohalarda maxsus normalarga ega: ish qo‘zg‘atish uchun asoslar (37-modda); qarzdorning moliyaviy

holatini baholashning maxsus tartibi; kreditorlar talablari reyestrini shakllantirish (18-modda); sud boshqaruvchisini tayinlash, uning vakolatlari, hisobdorligi; sanatsiya, tashqi boshqaruv, tugatish tartib-taomillari; mol-mulkni sotish (224-modda) va boshqalar.

Bu normalar IPKda mavjud emas, shuning uchun ham Qonundagi normalar qo‘llaniladi. Chunki to‘lovga qobiliyatsizlik murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo‘lib, uning protsessual tartibini umumiy protsessual normalar bilan cheklash mumkin emas. Qarang: Xalqaro sharh. 721-b.

7-modda. Sudga murojaat etish huquqi

Qarzdor pul majburiyatlarini bajarmaganligi munosabati bilan unga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan sudga murojaat etish huquqiga qarzdorning o‘zi va kreditor ega.

Qarzdor va kreditor to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizada qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashga yoxud tugatishga doir ish yuritish tartib-taomillarini qo‘llash zarurligini ko‘rsatishi mumkin.

Qarzdor soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlarini bajarmaganligi munosabati bilan unga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan sudga murojaat etish huquqiga qarzdorning o‘zi, davlat soliq xizmati organlari, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan va (yoki) pul majburiyatlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi oldida qarzi bo‘lgan yuridik shaxslarga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha vakolatli davlat organi va uning hududiy boshqarmalari (bundan buyon matnda vakolatli davlat organi deb yuritiladi) ega bo‘ladi.

Sharhlanayotgan modda qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risida sudga ariza berish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar doirasini belgilaydi. Moddadagi normalar to‘lovga qobiliyatsizlik institutining eng muhim elementlaridan biri – ariza berish subyektiv huquqining hajmi va uning cheklanishini belgilaydi, bu esa to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonini boshlashning protsessual kafolatidir.

1. Qarzdorning bajarilmagan pul majburiyatlari mavjud bo‘lgan taqdirda qarzdorning o‘zi va kreditor sudga ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, qarzdor va kreditor yuridik shaxs, jismoniy shaxs yoki YTT bo‘lishi mumkin. Ushbu qoida qarzdorga ham, kreditorlarga ham to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni boshlash uchun ariza bilan sudga murojaat qilish huquqini beradi, agar bunday ariza uchun asosiy mezonlar mavjudligi isbotlangan bo‘lsa.

Qonunning 5-moddasida ko‘rsatilgan to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud bo‘lganda qarzdor o‘zining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Qarzdorning o‘zi murojaat qilishi huquqi – to‘lovga qobiliyatsizlik tizimining markaziy kafolati. Qonun qarzdorning o‘ziga murojaat qilish huquqini belgilab unga tadbirkorlik faoliyati barqarorligini saqlash, qonunga zid bosimlardan himoya mexanizmlarini taklif etadi. Jahon amaliyotida ham qarzdorning o‘zi tomonidan ish qo‘zg‘atilishi to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining eng ishonchli va samarali modeli sifatida e’tirof etiladi. Qonunning 8-moddasida qarzdorning sudga murojaat etishi asoslari, 39–40-moddalarida qarzdorning arizasi mazmuni va unga ilova qilinadigan hujjatlar belgilangan.

Kreditorning murojaat qilish huquqi kreditorlar manfaatini himoya qilish kafolati hisoblanadi. Agar majburiyat bajarilmagan bo‘lsa, kreditor ham ariza bilan murojaat qila oladi. Bu huquq orqali kreditorlar qarzdorning yashirin faoliyati, aktivlarni chiqarib yuborishi yoki majburiyatlarni suiiste’mol qilishi xavflarining oldini oladi.

«Pul majburiyatlarini bajarmaganlik» mezoni ushbu moddaning asosiy yuridik shart-sharoitidir. Subyektning u yoki bu huquqqa egaligi ayni majburiyatlar bajarilmaganini isbot qilishi bilan belgilanadi. Bu mezon Qonunning 41-, 43-moddalaridagi kreditorning arizasi mazmuni va unga ilova qilinadigan hujjatlar bilan bog‘lanadi, chunki arizaga asoslarni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilishi shart.

2. Ushbu norma taraflarga (qarzdor va kreditorga) sudga murojaat qilish bosqichidayoq jarayonning strategik yo‘nalishini taklif qilish huquqini beradi. Bu «sud faolligi» tamoyilini taraflarning «dispozitivlik» (o‘z huquqlarini erkin tasarruf etish) huquqi bilan muvozanatlashtiradi.

Taraflarning tanlov huquqi: *tiklash* – agar arizachi qarzdorning iqtisodiy salohiyati bor deb hisoblasa, u sudgacha sanatsiya, sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv tartib-taomillarini qo‘llashni so‘raydi. Sudya bunda qarzdorning sog‘lomlashtirish imkoniyatini (aktivlar mavjudligi, bozordagi o‘rni) o‘rganishi kerak; *tugatish* – agar qarzdor «iqtisodiy samarasiz» (aktivlari qarzlaridan sezilarli darajada kam, faoliyati to‘xtagan) bo‘lsa, arizada tugatishga doir ish yuritishni qo‘llash so‘raladi.

Taraflarning arizada ma’lum bir tartib-taomilni ko‘rsatishi sud uchun majburiy emas, balki yo‘nalish beruvchi hisoblanadi. Sudya arizachining xohishidan qat’i nazar, ishdagi mavjud hujjatlar va moliyaviy tahlil asosida boshqacha qaror qabul qilishga (masalan, qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash so‘ralgan bo‘lsa-da, tugatishga doir ish yuritish tartib-taomillarini qo‘llash) haqli.

Bunda arizada ma’lum bir tartib-taomil ko‘rsatilgan bo‘lsa, arizachi nima uchun aynan shu yo‘lni tanlaganini iqtisodiy jihatdan asoslab berishi lozim (masalan, biznes-reja loyihasi yoki mol-mulk inventarizatsiyasi orqali).

3. Soliqlar va yig‘imlar to‘lanmaganligi munosabati bilan qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish bo‘yicha davlat soliq xizmati organlari ham arizachilar bo‘lishi mumkin.

«Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 1-moddasiga asosan, davlat soliq xizmati organlari soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning

byudjetga to‘liq va o‘z vaqtida tushishini ta’minlash maqsadlarida tuziladi. Ular soliq nazoratini amalga oshiradi.

Soliq majburiyatlari to‘lovga qobiliyatsizlik tizimida alohida huquqiy ahamiyatga ega davlat talablari hisoblanadi. Shuning uchun Qonun soliq organlariga mustaqil ravishda ish qo‘zg‘atish haqida ariza berish huquqini beradi. Bu davlat byudjeti manfaatlarining kafolatidir.

Shu bilan birga, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha vakolatli davlat organi va uning hududiy boshqarmalari ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan va (yoki) pul majburiyatlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi oldida qarzi bo‘lgan yuridik shaxslarga nisbatan ham qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risida sudga ariza berishi mumkin.

Qonunning 29-moddasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha vakolatli davlat organidir. Ushbu moddada uning vakolatlari ham belgilab qo‘yilgan.

Vakolatli davlat organining ishtiroki davlat ulushiga ega korxonalar ustidan davlatning mulkiy manfaatlari yo‘lida nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ustav kapitalida davlat ulushi mavjud yuridik shaxslar yoki davlat oldida qarzi bo‘lgan subyektlar bo‘yicha davlat manfaatlarini vakolatli organ himoya qiladi.

Bu huquq kreditorlar manfaatlaridan iborat ommaviy huquqiy munosabatning ifodasi bo‘lib, davlatning fiskal nazoratini ta’minlaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 721-b.

8-modda. Qarzdorning sudga murojaat etishi asoslari

Ushbu Qonunning 5-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo‘lganda qarzdor to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli.

Agar ushbu Qonunda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, qarzdor yuridik shaxs o‘z muassislarining (ishtirokchilarining) yoki mol-mulki egasining qarori yoxud mol-mulkining egasi tomonidan vakil qilingan organning qarori asosida qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan sudga murojaat etadi.

Sharhlanayotgan modda qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish uchun sudga murojaat etish huquqi qanday hollarda vujudga kelishi, ya’ni ariza berish uchun asoslarni belgilaydi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida sudga murojaat qilish uchun asos sifatida pul majburiyatlarini yoki soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlarni kelgusida qondirishga qodir emaslik nazarda tutilgan. Bunda Qonunning 5-moddasi birinchi qismidagi vaqtincha va doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlariga e’tibor qaratish lozim. Ushbu alomatlar yuridik jihatdan arizani asoslovchi obyektiv faktlar hisoblanadi. Qarzdorning sudga murojaat etish huquqi ushbu obyektiv moliyaviy holatga bog‘langan.

Qarzdorning murojaat etishi uning huquqidir, biroq ba'zi hollarda uning majburiyati ham bo'lishi mumkin. Masalan, aktivlar qarzlarni qoplashga yetmasligi ochiq-oydin ayon bo'lgan hollarda murojaat qilish orqali u kreditorlarga nisbatan adolatli va shaffof mexanizmni ishga tushiradi.

To'lovga qobiliyatsizlik alomatlarining mavjudligi ariza berish uchun yetarli bo'lib, tasdiqlovchi hujjatlar (buxgalteriya va boshqa hujjatlar) arizaga ilova qilinishi mumkin.

Qayd etish kerakki, ushbu norma «erta murojaat qilish» (early filing) tamoyilini rag'batlantiradi. Qarzdor moliyaviy qiyinchiliklar chuqurlashishini kutmay, o'z vaqtida murojaat qilish imkoniyatiga ega. Bu to'lov qobiliyatini tiklash imkoniyatlarini oshiradi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida qarzdor yuridik shaxsning sudga murojaat qilishida rioya etilishi majburiy bo'lgan maxsus qoida belgilangan. Tegishli boshqaruv organining qarori mavjudligi shunday qoida hisoblanadi. Binobarin, qarzdor – yuridik shaxsning sudga ariza bilan murojaat qilishidan oldin muassislar yoki mol-mulk egasi yoxud ta'sis hujjatlari bilan vakolat berilgan yuridik shaxs boshqaruv organining shunday qaror qabul qilish to'g'risidagi qarori bo'lishi kerak.

Yuridik shaxs nomidan ariza berish korporativ tartibda qabul qilingan qarorga bog'liq. Qonun yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tgan ustavi va ichki boshqaruv tuzilmasiga muvofiq ravishda ariza yuborish vakolatini aniqlashtirish uchun muassislar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi, mol-mulk egasi yoki unga tenglashtirilgan organning qarori bo'lishi kerakligini belgilaydi. Bu talab korporativ boshqaruvning qonuniyligini ta'minlaydi.

Agar rahbar shaxs (direktor) mustaqil ravishda ariza bersa, biroq bunday qaror korporativ organ tomonidan qabul qilinmagan bo'lsa, sud arizani qaytarishi mumkin.

Bunda Qonunning 39–40-moddalaridagi qarzdorning arizasining mazmuni va unga ilova qilinadigan hujjatlarga oid talablarga ahamiyat berish kerak. Muassislar (ishtirokchilar) to'lovga qobiliyatsizlik jarayoni orqali yuridik shaxs taqdiriga daxldor muhim qarorlar qabul qiladi.

Qonun 7-moddasining uchinchi qismida ko'rsatilgan hollarda ish soliq organlari yoki vakolatli davlat organi tomonidan qo'zg'atilganda yuridik shaxsning bunday ichki qarori talab qilinmaydi.

Agar yuridik shaxsning ustavida to'g'ridan to'g'ri shunday vakolat berilgan bo'lsa yoki muassislar tomonidan bunday huquq beruvchi doimiy qaror qabul qilingan bo'lsa, rahbarning mustaqil ariza berish huquqi mavjud bo'lishi mumkin. Lekin bu holatlar qat'iy isbot talab qiladi va sud amaliyotida bunga ahamiyat berish lozim bo'ladi. Qarang: Xalqaro sharh. 722-b.

9-modda. Qarzdorning, tugatish komissiyasining yoki tugatuvchining sudga ariza berish majburiyati

Qarzdor yuridik shaxsning rahbari, qarzdor jismoniy shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor quyidagi hollarda qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza bilan sudga murojaat etishi shart, agar:

bir yoki bir nechta kreditorlarning talablarini qanoatlantirish qarzdorning boshqa kreditorlar oldidagi pul majburiyatlarini va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini to‘liq hajmda bajarishini imkonsiz qilib qo‘yishga olib keladigan bo‘lsa;

qarzdorning ta’sis hujjatlariga muvofiq qarzdorni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilishga vakolatli bo‘lgan organ tomonidan qarzdorni tugatish to‘g‘risida ariza bilan sudga murojaat etish haqida qaror qabul qilingan bo‘lsa;

qarzdorning mol-mulkiga qaratilgan undiruv qarzdorning xo‘jalik faoliyatini imkonsiz qilib qo‘yishi yoki boshqa kreditorlar talablari qanoatlantirilmasligiga olib kelishi mumkin bo‘lsa.

Agar yuridik shaxs tugatilayotganda kreditorlarning talablarini to‘liq hajmda qanoatlantirish imkonsizligi aniqlangan bo‘lsa, tugatish komissiyasi yoki tugatuvchi sudga qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza bilan murojaat etishi shart.

Qarzdorning, tugatish komissiyasining yoki tugatuvchining arizasi ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan holatlar yuzaga kelgan paytdan e’tiboran bir oydan kechiktirmay sudga yuborilishi kerak.

Sharhlanayotgan modda qarzdor yuridik shaxsning rahbari, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor va jismoniy shaxs, shuningdek, tugatish komissiyasining yoki tugatuvchi majburiy tartibda qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishlari lozim bo‘lgan holatlarni belgilaydi. Agar Qonunning 7–8-moddalari ariza berish huquqini belgilasa, 9-moddasi ariza berish majburiyatini nazarda tutadi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida qarzdor yuridik shaxs rahbarining, shuningdek, qarzdor YTT va jismoniy shaxsning qarzdorning arizasi bilan sudga murojaat qilish majburiyatini keltirib chiqaruvchi asoslar ro‘yxati keltirilgan (bunda to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlariga rioya qilish majburiy shart hisoblanmaydi).

Qonunga ko‘ra, quyidagi holatlar kelib chiqqan taqdirda, ariza berish endi huquq emas, yuridik majburiyatga aylanadi. Bu majburiyat qarzdor rahbariga, qarzdor jismoniy shaxsga yoki YTTga tatbiq etiladi:

1.1. Ayrim kreditor talablarini qanoatlantirish boshqalar manfaatiga zarar yetkazsa.

Bu holatda qarzdorning likvid aktivlari cheklangan bo‘lib, bir kreditorning talabini ado etish natijasida mulk bazasi kamayadi va boshqa kreditorlarga hisob-kitob qilish imkoniyati yo‘qoladi.

Qonun kreditorlar tengligi (*pari passu*) prinsipini himoya qiladi. Bu norma ayrim kreditorlarning talablarini imtiyozli qondirishga yo‘l qo‘ymaslik prinsipiga to‘liq mos keladi.

Agar qarzdor bu paytda ariza bermasa, uning harakatlari kreditorlarning huquqlarini buzish sifatida baholanishi, hatto rahbar mansabdorlik javobgarligiga (ma’muriy/fuqarolik) sabab bo‘lishi mumkin.

Sud amaliyotida bu odatda hisobvarag‘idagi mablag‘lar yetarli bo‘lmagan, debitor qarzdorlik undirilishi imkonsiz bo‘lgan holatlar, hisob-kitoblarning to‘xtashi bilan bog‘liq holatlarda uchraydi.

1.2. Yuridik shaxsni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan bo‘lsa.

Agar vakolatli organlar (muassislar yig‘ilishi, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi, mulkdor) yuridik shaxsni tugatishga qaror qilganda, agar aktivlar barcha kreditor talablarini qoplamasligi ma’lum bo‘lsa, tugatish komissiyasi oddiy tugatish tartibida emas, balki to‘lovga qobiliyatsizlik tartibida ish yuritilishi uchun sudga murojaat etishi shart. Bu talab ushbu moddaning ikkinchi qismida yana alohida mustahkamlangan.

Bundan maqsad – kreditorlar talablari qonun bilan belgilangan navbatlar asosida (150-modda) adolatli qanoatlantirilishini ta’minlash. Xalqaro korporativ qonunchilikda bu «insolvency-triggered liquidation filing» deb qaraladi.

1.3. Mol-mulkka qaratilgan undiruv xo‘jalik faoliyatini imkonsiz qilib qo‘ysa yoki boshqa kreditorlar talablari qanoatlantirilmasligiga olib kelishi mumkin bo‘lsa.

Agar ijro hujjatlari asosida hisobvaraqlardan mablag‘ o‘tkazilishi, asosiy vositalar musodara qilinishi, tovar qoldiqlari olib qo‘yilishi natijasida yuridik shaxs faoliyatini davom ettirish imkoniyati yo‘qolsa, sudga murojaat qilinishi lozim.

Bu holatda undiruv adolatli (mutanosib) taqsimlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki bir ijro ishi doirasida ayrim kreditor imtiyozga ega bo‘lib qoladi. Shuningdek, qarzdorning faoliyatini to‘xtatib qo‘yish orqali mulkning qiymati yanada pasayishi va kreditorlar manfaatiga zarar yetishi mumkin.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida tugatish komissiyasi yoki tugatuvchi qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan sudga murojaat etishi shart bo‘lgan asosni nazarda tutadi.

Ma’lumki, tugatish jarayonini amalga oshirishda tugatish komissiyasi (tugatuvchi) oraliq tugatish balansini tuzadi, u tugatilayotgan yuridik shaxs mol-mulkining tarkibi, kreditorlar tomonidan taqdim etilgan talablar ro‘yxati, shuningdek, ularni ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Oraliq tugatish balansi tahlilidan tugatish komissiyasi (tugatuvchi) kreditorlar talablarini to‘liq hajmda qondirish mumkin emasligi to‘g‘risida xulosa chiqarishi mumkin. Agar tugatish komissiyasi (tugatuvchi) kreditorlarning talablarini to‘liq hajmda qondirish mumkin emasligini aniqlasa, u qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilishi shart. Bunda Qonunning 238–242-moddalari nazarda tutilgan to‘lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartib-taomillari qo‘llaniladi.

Tugatish komissiyasi (tugatuvchi) bu majburiyatni bajarmasa, uchinchi shaxslarga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarlik, ma’muriy javobgarlik, ba’zi hollarda jinoiy javobgarlik yuzaga kelishi mumkin.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi uning birinchi va ikkinchi qismlarida sanab o‘tilgan shaxslar qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishlari shart bo‘lgan muddatni belgilaydi.

Muddat – imperativ, ya’ni har qanday holatda bajarilishi shart. Muddat mazkur modda birinchi qismining 2–4-xatboshilaridagi holatlar yuzaga kelgan kundan, ikkinchi qismda ko‘rsatilgan – tugatish komissiyasi qarzlarni qoplash mumkin emasligi aniqlangan kundan boshlab hisoblanadi. Sud amaliyotida bir oylik muddatni kechiktirish ko‘pincha rahbarning aybi sifatida baholanadi. Ushbu muddatning o‘rnatilishidan maqsad aktivlar kamayib ketishining, kreditorlar huquqlari buzilishining oldini olishdan iborat.

Ta’kidlash joizki, ta’sis hujjatlari bilan qarzdorni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilishga vakolatli bo‘lgan organ yoki xususiy korxona rahbari yoxud vakolatli davlat organi tomonidan qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan sudga murojaat etish haqida qaror qabul qilingan taqdirda, Qonun mazkur moddasining uchinchi qismida belgilangan bir oylik muddat bunday qaror qabul qilingan kundan e’tiboran hisoblanadi.

Qarzdorning sudga ariza bilan murojaat etishi uchun asos bo‘ladigan boshqa holatlar yuzaga kelganda, bir oylik muddatni hisoblashda nafaqat ko‘rsatilgan holatlar haqiqatda aniqlangan sana, balki tegishli ravishda qarzdorning rahbari yoki tugatish komissiyasi (tugatuvchi) oqilona va vijdonan harakat qilib qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligidan dalolat beruvchi holatlarni aniqlagan payt ham e’tiborga olinishi kerak.

Moddaning ahamiyati shundaki, majburiyat moliyaviy barqarorlikka jiddiy xavf tug‘ilgan vaziyatlarda yuzaga keladi. Qarzdorning rahbari, tugatish komissiyasi a’zolari yoki tugatuvchi ariza bermasa, u kreditorlarga yetkazilgan zarar uchun subsidiar javobgar bo‘lishi mumkin. Ushbu norma kreditorlar tengligini ta’minlash, aktivlarning yo‘qolib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik va sud nazoratini ta’minlashga xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 723-b.

10-modda. Qarzdorning arizasini sudga berish majburiyatini bajarmaganlik uchun qarzdor rahbarining, tugatish komissiyasi a’zolarining yoki tugatuvchining subsidiar javobgarligi

Qarzdorning rahbari, tugatish komissiyasi a’zolari yoki tugatuvchi tomonidan sudga qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza taqdim etilmaganligi ushbu Qonunning 9-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan muddat tugaganidan keyin qarzdorning yuzaga kelgan pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlari qarzdor rahbarining, tugatish komissiyasi a’zolarining yoki tugatuvchining subsidiar javobgarligiga sabab bo‘ladi.

Sharhlanayotgan modda qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilish majburiyatini bajarmaganligi

uchun qarzdorning rahbari, shuningdek, tugatish komissiyasi a’zolari yoki tugatuvchining subsidiar javobgarligini nazarda tutadi.

Mazkur modda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish yuzasidan qarzdor tomonidan sudga ariza berish majburiyati bajarilmagan taqdirda yuzaga keladigan subsidiar javobgarlik asoslarini belgilaydi. Moddaning mohiyati shundaki, qarzdorning rahbari, tugatish komissiyasi a’zolari yoki tugatuvchi o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi tufayli kreditorlar manfaatlari buzilsa, ular shaxsan mol-mulki bilan javobgar bo‘lishlari mumkin.

Bu norma kreditorlar huquqlarini himoya qilish, qarzdor rahbariyatining noxolis va kechikishga yo‘l qo‘ymaydigan faoliyatini ta’minlash, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonlarini o‘z vaqtida boshlashga, shuningdek, kreditorlarga yetkaziladigan zararni cheklashga xizmat qiladi. Mazkur javobgarlik orqali Qonun qarzdorning rahbari, tugatish komissiyasi a’zolari yoki tugatuvchining mas’uliyatini aniqlashtirib, ularni o‘z vazifalarini puxta bajarishga majburlaydi.

Qarzdorning rahbariga yoki tugatish komissiyasi a’zolariga (tugatuvchiga) nisbatan talab qarzdorning pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar Qonun 9-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan muddat o‘tganidan keyin yuzaga kelgan har bir kreditor tomonidan faqat alohida tugatishga doir ish yuritish doirasidan tashqarida taqdim etilishi mumkin. Bunday kreditorlar talablarining miqdori qarzdorning tegishli kreditor oldidagi majburiyatlari umumiy hajmi bilan uning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish jarayonida qanoatlantirilgan qismi o‘rtasidagi farqdan kelib chiqqan holda aniqlanishi kerak.

Mazkur moddaning qoidalari Qonunning 9-moddasi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, unga ko‘ra, qarzdorning rahbari yoki YTT (qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi alomatlari aniqlangan yoki uning mol-mulki kreditorlar talablarini to‘liq qanoatlantirish uchun yetarli bo‘lmagan taqdirda), shuningdek, tugatish komissiyasi yoki tugatuvchi (yuridik shaxs tugatilayotganda kreditorlarning talablarini to‘liq hajmda qanoatlantirish imkonsizligi aniqlangan taqdirda) qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza bilan sudga murojaat qilishlari shart.

Qonunning 9-moddasida belgilangan hollarda qarzdorning sudga ariza berish majburiyatini buzganlik uchun bunday ariza berishi shart bo‘lgan shaxslar qarzdorning Qonunning 9-moddasida nazarda tutilgan holatlar yuzaga kelgan paytdan e’tiboran bir oylik muddat o‘tganidan keyin yuzaga kelgan majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgarlikka tortiladilar.

Subsidiar javobgarlikka tortish asoslari va tartibi FKning 48-moddasida (yuridik shaxsning javobgarligi) va 329-moddasida (subsidiar javobgarlik) belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ularga muvofiq agar yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi shu yuridik shaxs uchun majburiy ko‘rsatmalarni berish huquqiga ega bo‘lgan muassis (ishtirokchi) sifatidagi shaxsning yoki yuridik shaxs mol-mulki mulkdorining yoxud yuridik shaxsning boshqaruv organi tarkibiga kiruvchi shaxsning yoki qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxsning g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga keltirilgan bo‘lsa, yuridik shaxsning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda bunday shaxs zimmasiga

qonunga muvofiq uning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin.

Qonunchilik yoki majburiyat shartlariga muvofiq asosiy qarzdor bo‘lgan boshqa shaxsning javobgarligiga qo‘shimcha ravishda javobgar bo‘lgan (subsidiar javobgarlik) shaxsga talablar qo‘yishdan oldin kreditor asosiy qarzdorga talab qo‘yishi kerak. Agar asosiy qarzdor kreditorning talabini qondirishdan bosh tortsa yoki kreditor undan qo‘yilgan talabga oqilona muddatda javob olmagan bo‘lsa, bu talab subsidiar javobgar bo‘lgan shaxsga qo‘yilishi mumkin.

Shunday qilib, subsidiar javobgarlik asosiy qarzdorning majburiyatlarini qanoatlantirish imkoniyati bo‘lmaganda, ikkinchi darajadagi (qo‘shimcha) javobgarning mol-mulkiga undiruv qaratilgan holda amalga oshiriladi.

Javobgarlik yuzaga kelishi uchun bir vaqtning o‘zida bir nechta yuridik asoslar mavjud bo‘lishi shart: qarzdor Qonunning 9-moddasidagi holatlardan biriga tushgan bo‘lishi; ariza berish majburiyati yuzaga kelgan paytdan e’tiboran bir oylik muddat o‘tib ketgan bo‘lishi; shu muddatdan keyin qo‘shimcha majburiyatlar vujudga kelgan bo‘lishi yoki mavjud majburiyatlar og‘irlashgan bo‘lishi; ariza berilmaganligi ushbu majburiyatlarning yuzaga kelishining asosiy sabablaridan biri ekanligi.

Ushbu norma nafaqat pul majburiyatlarini, balki soliq va yig‘imlar bo‘yicha qarzdorlikni ham qamrab oladi. Javobgarlik faqat ariza berilmaganidan keyin vujudga kelgan majburiyatlarga nisbatan yoki mavjud majburiyatlarning oshishiga nisbatan qo‘llaniladi.

Sud muayyan shaxsning harakatsizligi natijasida kelib chiqqan zarar hajmini aniqlaydi va shunga mutanosib ravishda subsidiar javobgarlikni belgilaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 723-b.

11-modda. Korxonalarning iqtisodiy qodirligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish majburiyati

To‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlangan taqdirda davlat soliq xizmati organlari, davlat statistika organlari vakolatli davlat organiga ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan korxonalar haqidagi ma’lumotlarni taqdim etishi, shuningdek, vakolatli davlat organining so‘roviga ko‘ra korxonalarning iqtisodiy qodirligi to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlarni taqdim etishi shart.

Sharhlanayotgan modda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha vakolatli davlat organiga va uning hududiy boshqarmalariga axborot taqdim etish bo‘yicha davlat organlari doirasini va ularning majburiyatlarini belgilaydi. Mazkur modda davlat soliq xizmati organlari, davlat statistika organlari zimmasiga korxonaning iqtisodiy qodirligi to‘g‘risida ma’lumot almashish majburiyatini yuklaydi.

Bu mexanizm *ustav fondida davlat ulushi mavjud bo‘lgan korxonalarning* moliyaviy holati yuzasidan tezkor nazoratni ta’minlaydi, ular to‘lovga qobiliyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik va davlat manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Ushbu norma qator davlat organlari o‘rtasidagi axborot ayirboshlashning huquqiy asosini belgilab, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonini erta bosqichda monitoring qilish, tahlil etish va zarur hollarda to‘g‘ri choralar ko‘rish imkonini yaratadi. Bunda asosiy o‘rin davlat ulushi bo‘lgan korxonalarning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, ularning faoliyatidagi moliyaviy xavflarni o‘z vaqtida aniqlash va davlatning mulkiy manfaatlarini himoya qilishdir.

Ma’lumotlarni taqdim etuvchi subyektlar sifatida norma aniq ikki organni belgilaydi:

davlat soliq xizmati organlari – korxonaning soliq qarzdorligi, hisobotlari, ish haqi bo‘yicha majburiyatlari va joriy moliyaviy ko‘rsatkichlari haqida ma’lumotlarga ega;

davlat statistika organlari – korxonaning rasmiy statistik hisobotlarini, ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini, iqtisodiy faolligi parametrlarini yuritadi.

Ushbu organlar korxonaning moliyaviy holati yuzasidan eng ishonchli va to‘liq ma’lumotga ega manbalar hisoblanadi.

Ma’lumotlarni taqdim etishning majburiyligi «shart» degan so‘zdan kelib chiqib moddadagi majburiyat imperativdir. Yuqoridagi organlar ma’lumotni taqdim etishdan bosh torta olmaydi. Ma’lumotlarni taqdim etmagan organlar ma’muriy javobgarlikka tortilishi mumkin (MJtK 215[1]-moddasi).

Taqdim etiladigan ma’lumotlar turi bo‘yicha moddada keng qamrovli ma’lumotlar nazarda tutilgan: moliyaviy ko‘rsatkichlar; soliq qarzdorligi; statistik hisobotlar; ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari; aktivlar-passivlar dinamikasi; to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlarini aks ettiruvchi boshqa ma’lumotlar.

«....Shuningdek, vakolatli davlat organining so‘roviga ko‘ra korxonalarning iqtisodiy qodirligi to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlar...»ga to‘xtaladigan bo‘lsak, «iqtisodiy qodirlik» tushunchasi, Qonun terminologiyasiga ko‘ra, korxonaning: majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarish imkoniyati; daromad va xarajatlar barqarorligi; likvidlik va to‘lov qobiliyati; aktivlarning holati va aylanma mablag‘lar yetarliligi kabi parametrlarini qamrab oladi.

Ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlikka oid axborotlar almashinuvining asosiy huquqiy mexanizmlaridan biri bo‘lib, davlatga tegishli korxonalar moliyaviy ahvolini o‘z vaqtida monitoring qilish imkoniyatini yaratadi.

2-BOB. TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK TO‘G‘RISIDAGI ISHNI YURITISH ISHTIROKCHILARINING, KREDITORLAR YIG‘ILISHINING, JAMOAT BIRLASHMALARINING, SUD BOSHQARUVCHILARINING HUQUQLARI, MAJBURIYATLARI VA JAVOBGARLIGI

12-modda. Kreditorlar va kreditorlarning yig‘ilishi

To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari qo‘llanilayotganda barcha kreditorlarning manfaatlarini kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi himoya qiladi. Sud qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani ish yuritishga qabul qilib olgan kundan e’tiboran kreditorlar qarzdorga o‘z talablarini yakka tartibda qanoatlantirish maqsadida murojaat qilishga haqli emas.

Qarzdorga nisbatan bajariladigan barcha harakatlar kreditorlar nomidan kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Kreditorlar yig‘ilishida yoki kreditorlar qo‘mitasida qarzdor xodimlarining vakili, sud boshqaruvchisi, qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining vakili ovoz berish huquqisiz ishtirok etadi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda yagona kreditor ishtirok etgan hollarda kreditorlar yig‘ilishining mutlaq vakolatlariga taalluqli qarorlarni qabul qilishni shu kreditorning o‘zi amalga oshiradi.

Kreditorlar yig‘ilishining mutlaq vakolatlari jumlasiga quyidagi qarorlarni qabul qilish kiradi:

kelishuv bitimi tuzish to‘g‘risidagi qaror;

kreditorlar qo‘mitasi a’zolarini saylash, qo‘mitaning miqdoriy tarkibini belgilash va a’zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risidagi qaror;

sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish va ularning muddatini uzaytirish yoki muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish haqidagi qaror;

qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini boshlash yoki qarzdorning faoliyatini to‘xtatmasdan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini boshlash haqidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish to‘g‘risidagi qaror;

sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlash hamda qarzlarni to‘lash jadvalini ma’qullash haqidagi qaror;

tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qaror.

Ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan qoidalar jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishlar ko‘rib chiqilayotganda qo‘llanilmaydi.

Ushbu modda beshinchi qismining to‘rtinchi va beshinchi xatboshilarida nazarda tutilgan, kreditorlar yig‘ilishining mutlaq vakolatlari jumlasiga kiritilgan qarorlar ushbu Qonun 86-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan qarzdorning moliyaviy holati to‘g‘risidagi muvaqqat boshqaruvchining xulosasi asosida qabul qilinishi mumkin.

Agar kreditorlar yig‘ilishida qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilingan bo‘lsa, sud muvaqqat boshqaruvchining qarzdorning faoliyatini tiklash uchun imkoniyat mavjudligi to‘g‘risidagi xulosasini inobatga olgan holda qarzdorga nisbatan uning to‘lov qobiliyatini tiklash tartib-taomillaridan birini joriy etishga haqli.

Kreditorlar yig‘ilishini tashkil etish va o‘tkazish sud boshqaruvchisi tomonidan amalga oshiriladi.

Kreditorlar yig‘ilishi, basharti unda qarzdorning pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlari umumiy summasining kamida uchdan ikki qismi miqdorida talablar bildirayotgan, ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan kreditorlar hozir bo‘lsa, vakolatli hisoblanadi. Kreditorlar yig‘ilishda o‘z vakillari orqali ham ishtirok etishi mumkin. Kvorum mavjud bo‘lmagan taqdirda, o‘n kunlik muddatda kreditorlarning takroriy yig‘ilishi chaqiriladi, basharti yig‘ilishni o‘tkazish sanasi, vaqti va joyi to‘g‘risida kreditorlar lozim darajada xabardor etilgan bo‘lsa, takroriy yig‘ilish, hozir bo‘lgan kreditorlarning sonidan qat’i nazar, vakolatli hisoblanadi.

Kreditor o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan sud qarori, kreditorlar yig‘ilishining qarori, sud boshqaruvchisining harakatlari (harakatsizligi), shuningdek, to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilini amalga oshirish davrida sud boshqaruvchisi uning talablarini qanoatlantirishni rad etganligi ustidan shikoyat berishga haqli.

Sharhlanayotgan modda kreditorlar yig‘ilishining vakolatlarini, kreditorlar yig‘ilishida kreditorlarning manfaatlarini ifodalash tartibini, kreditorlar yig‘ilishining vakolatliligi shartlarini, kreditorlar yig‘ilishining mutlaq vakolatlarini, yig‘ilishda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning qatnashish tartibini, shuningdek, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida alohida yoki jamoaviy harakatlar orqali kreditorlarning manfaatlari himoyasini ta’minlashni nazarda tutadi.

1. Kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari qo‘llanilayotganda barcha kreditorlarning manfaatlarini ifodalaydi va qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza sud tomonidan ish yuritishga qabul qilingan paytdan e’tiboran kreditorlar o‘z talablarini qanoatlantirish maqsadida

qarzdorga yakka tartibda murojaat etishga haqli emas (Qonunda qarzdorga talablarni yakka tartibda taqdim etish nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, ushbu moddaning to‘rtinchi qismida ham istisno nazarda tutilgan).

Sud qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani ish yuritishga qabul qilib olgan kundan boshlab kreditorlar qarzdorga nisbatan yakka tartibda talab qo‘yishi mumkin emas (ya’ni alohida ijro harakatlari uchun murojaat qilolmaydi). Bu normaning amaliyotdagi maqsadi jamoaviy mexanizm orqali adolatli tarzda qarzdor majburiyatlarini ta’minlashdir.

Qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganidan keyin kreditor tomonidan mulkiy tusdagi da’vo taqdim etilgan taqdirda, IPK 107-moddasining 9-bandiga (javobgarga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan bo‘lsa va javobgarga nisbatan taqdim etilgan talab qonunga ko‘ra to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida ko‘rilishi lozim bo‘lsa) asosan sud da’vo arizasini ko‘rmasdan qoldirishi lozim.

«Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 34-moddasi ikkinchi qismining 2-bandiga (qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish bo‘yicha iqtisodiy sud tomonidan ish yuritish qo‘zg‘atilganda, shu jumladan, kuzatuvni joriy etish, sud sanatsiyasini yoki tashqi boshqaruvni joriy etish va (yoki) ularning muddatini uzaytirish haqida iqtisodiy sud tomonidan ajrim qabul qilinganda) muvofiq qarzdorga nisbatan mavjud bo‘lgan barcha ijro harakatlari davlat ijrochisi tomonidan to‘xtatilishi lozim.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi qarzdorga nisbatan kreditorlarning xohish-irodasi faqat kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi o‘tkazish orqali ifodalanishi lozimligini belgilaydi.

Kreditorlar yig‘ilishi oliy organ hisoblanib, eng muhim qarorlarni (kelishuv bitimini tuzish, tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash va h.k.) qabul qiladi.

Kreditorlar qo‘mitasi joriy nazorat organi bo‘lib, yig‘ilishlar oralig‘idagi vakolatlarni amalga oshiradi. Bu tezkorlikni ta’minlash va sud xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

3. Qarzdor xodimlarining vakili, shuningdek, qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) va qarzdor mol-mulki egasining vakili kreditorlar yig‘ilishining ishtirokchilari deb e’tirof etiladi, yig‘ilish kun tartibidagi masalalar bo‘yicha so‘zga chiqishi mumkin, lekin ular ovoz berish huquqiga ega emas. Sud boshqaruvchisi ham kreditorlar yig‘ilishining ovoz berish huquqisiz ishtirokchisi hisoblanadi. Ushbu ishtirokchilar qarzdorning moliyaviy holati, strategiyalar, sanksiyalar, rejalar bo‘yicha fikr bildirishlari mumkin.

Qarzdor xodimlari vakili xodimlarning ish haqi bo‘yicha talablari birinchi navbatda qanoatlantirilishi sababli ularning vakili aktivlarning taqsimlanishini nazorat qiladi.

Sud boshqaruvchisi yig‘ilish tashkilotchisi sifatida ishtirok etadi, lekin kreditor bo‘lmagani uchun ovoz berolmaydi. Uning vazifasi yig‘ilishning qonuniy o‘tishini va axborot almashinuvini ta’minlashdir.

Muassislar va mulk egasi vakillari qarzdorning mulkiy huquqlarini himoya qilish, ayniqsa, korxonani sog‘lomlashtirish (sanatsiya, tashqi boshqaruv) imkoniyatlarini asoslash uchun qatnashadilar.

Bu shaxslar yig‘ilishda *maslahat ovozi* bilan ishtirok etadilar. Ular:

yig‘ilish kun tartibidagi masalalar yuzasidan tushuntirishlar berishi;

kreditorlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi yuzasidan o‘z e’tirozlarini bildirishi;

kreditorlar yig‘ilishi bayonnomasiga o‘z fikrlarini kiritishni talab qilishi mumkin.

Biroq ularning ishtiroki yoki fikri ovoz berish natijalariga (masalan, kelishuv bitimini tuzish yoki tugatishga o‘tish) bevosita ta’sir qilmaydi.

Ushbu qoida to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida *manfaatlar muvozanatini* ta’minlashga xizmat qiladi. Garchi kreditorlar yig‘ilishi kreditorlarning mulkiy manfaatlarini ifodalovchi organ bo‘lsa-da, qarzdorning taqdiriga daxldor boshqa subyektlarning (xodimlar, muassislar) jarayondan xabardor bo‘lishi va o‘z fikrini bildirishi shart.

Qonunning 88-moddasiga ko‘ra, ushbu shaxslarning yig‘ilishda ishtirok etmasligi yig‘ilish qarorini haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘lmaydi (agar ular belgilangan tartibda xabardor qilingan bo‘lsa). Biroq ularni yig‘ilishdan asossiz ravishda chetlatish yoki xabardor qilmaslik jarayonning shaffofligi buzilishi sifatida baholanishi mumkin.

4. Qarzdorning kreditori bitta bo‘lgan holat ham bo‘lishi mumkin. Bunda yagona kreditor kreditorlar yig‘ilishining mutlaq vakolatiga kiritilgan qarorlarni mustaqil ravishda qabul qiladi.

Bu qoida «*ko‘pchilik irodasi*» prinsipining istisnosi bo‘lib, protsessual tezkorlikni ta’minlashga qaratilgan. Agar qarzdorning faqat bitta kreditori bo‘lsa (yoki reyestrda faqat bir kishi qolsa), jamoaviy qaror qabul qilish imkoniyati obyektiv ravishda mavjud bo‘lmaydi. Bunday holatda yagona kreditor yig‘ilishning barcha vakolatlarini (shu jumladan, mutlaq vakolatlarni) yakka tartibda amalga oshiradi.

Yagona kreditor Qonunning 13-moddasida belgilangan mutlaq vakolatlar bo‘yicha yakka tartibda qaror qabul qiladi. Yagona kreditor ishtirok etganda, jarayon klassik «yig‘ilish» shaklida (bahs-munozara bilan) emas, balki *yagona kreditorning qarori* (bayonnoma) bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu hujjat sud boshqaruvchisi va iqtisodiy sud uchun kreditorlar yig‘ilishining bayonnomasi bilan teng huquqiy kuchga ega bo‘ladi.

Suiiste’mollarning oldini olishdagi muhim jihat shundaki, garchi yagona kreditor qarorlarni yakka o‘zi qabul qilsa-da, bu qarorlar boshqa manfaatdor shaxslarning (masalan, qarzdor muassislari yoki xodimlarining) huquqlarini buzmasligi kerak. Sud yagona kreditorning qarorini tasdiqlayotganda (masalan, kelishuv bitimini) uning boshqa navbatdagi kreditorlar (agar reyestrga kirmagan bo‘lsa) yoki davlat manfaatlariga zid emasligini tekshirishi lozim.

Agar kreditorlar soni ko‘p bo‘lib, lekin yig‘ilishga faqat *bitta kreditor* (kvorum mavjud bo‘lganda) kelsa, bu norma qo‘llanilmaydi – bunda klassik yig‘ilish tartibi amal qiladi. Ushbu norma faqat reyestr bo‘yicha *haqiqatda yagona kreditor* mavjud bo‘lgan holatga tegishli.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismi kreditorlar yig‘ilishining *mutlaq vakolatiga taalluqli masalalarni* tartibga soladi. Kelishuv bitimi tuzish, kreditorlar qo‘mitasi a’zolarini saylash, uning son jihatdan tarkibini belgilash va vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risidagi qaror bilan bir qatorda sud sanatsiyasini yoki tashqi boshqaruvni joriy etish va ularning muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish haqida, shuningdek, qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qaror qabul qilish ham kreditorlar yig‘ilishining mutlaq vakolatlari jumlasiga kiradi.

Biroq shuni ta’kidlash lozimki, Qonun 92-moddasining uchinchi qismiga muvofiq, agar kreditorlarning birinchi yig‘ilishi tomonidan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan bo‘lsa yoxud sudga uning qarorlaridan hech biri taqdim etilmagan bo‘lsa, sud qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining, vakolatli davlat organining, shuningdek, uchinchi shaxsning (shaxslarning) iltimosnomasiga binoan, arizachilar tomonidan qarzdorning majburiyatlari ijrosining qarzni to‘lash jadvaliga muvofiq ta’minoti taqdim etilgan taqdirda, sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risida ajrim chiqarishga haqli.

Kreditorlar yig‘ilishining mutlaq vakolatiga sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlash va qarzlarni to‘lash jadvalini ma’qullash to‘g‘risida, shuningdek, tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash haqida qaror qabul qilish ham kiradi. Qonun 100-moddasining uchinchi qismiga ko‘ra, qarzni to‘lash jadvali sud tomonidan tasdiqlanishi lozim.

«Mutlaq vakolat» deganda faqat *kreditorlar yig‘ilishi* tomonidan qabul qilinishi mumkin bo‘lgan qarorlar tushuniladi. Ushbu vakolatlarni hatto kreditorlar qo‘mitasiga yoki sud boshqaruvchisiga berib bo‘lmaydi. Bu demokratik boshqaruv prinsipining ifodasi bo‘lib, eng muhim qarorlar barcha kreditorlarning umumiy irodasi asosida shakllanishini ta’minlaydi.

Ushbu vakolatlarni 3 ta asosiy yo‘nalishga bo‘lib tushunish maqsadga muvofiq:

tartib-taomilni belgilovchi (strategik) (sanatsiya, tashqi boshqaruv yoki tugatishga o‘tish). Kreditorlar korxonani «sog‘lomlashtirish» yoki «tugatish» haqida xulosa chiqaradi;

rejaviy-iqtisodiy (sanatsiya yoki tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash). Bunda kreditorlar qarzni qaytarishning iqtisodiy mexanizmini ma’qullaydi;

institutsional (tashkiliy) (kreditorlar qo‘mitasini tuzish). Bu ichki boshqaruv tizimini yaratish va nazorat mexanizmini soddalashtirish uchun xizmat qiladi.

Ushbu normaning amaliy jihatlari: iyerarxiya buzilishi – agar tashqi boshqaruv rejasini kreditorlar yig‘ilishi emas, balki kreditorlar qo‘mitasi tasdiqlagan bo‘lsa, bunday qaror yuridik kuchga ega emas; iltimosnomaning majburiyligi – sud o‘z tashabbusi bilan (kreditorlar iltimosnomasisiz) tugatishga doir ish yuritishni boshlay olmaydi (qonunda belgilangan ayrim istisnolardan tashqari).

Kelishuv bitimi kreditorlarning xohish-irodasi eng oliy darajada namoyon bo‘ladigan hujjatdir. Sud faqatgina bitimning qonuniyligini va boshqa shaxslar manfaatiga zid emasligini tekshiradi.

Ushbu normaning mavjudligi qarzdor korxona taqdiri ustidan sudning emas, balki kreditorlarning hukmronligini (creditor control) ta'minlaydi. Bu bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos kelib, davlatning (sud timsolida) xususiy mulkiy munosabatlarga faqat qonuniylikni ta'minlash maqsadida aralashishini chegaralaydi.

6. Jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda kreditorlar yig‘ilishining mutlaq vakolati Qonunning 204-moddasiga (kreditorlar yig‘ilishining jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishga doir mutlaq vakolatlari) asosan belgilanadi. Shu sababli ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan qoidalar jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishlar ko‘rib chiqilayotganda qo‘llanilmaydi.

Bu qoida yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari o‘rtasidagi farqni belgilab beradi. Jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligi instituti *ijtimoiy yo‘naltirilgan* bo‘lib, unda kreditorlar yig‘ilishining vakolatlari yuridik shaxslardagi kabi keng qamrovli bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Nega jismoniy shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi?

Tartib-taomillarning farqi jismoniy shaxslarga nisbatan «tashqi boshqaruv» yoki «sud sanatsiyasi» qo‘llanilmaydi. Ularning o‘rniga qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish yoki bankrotlikni tan olish va mol-mulkni sotish tartib-taomillari amal qiladi.

Ijtimoiy himoya: Bunda jismoniy shaxsning yashash uchun zarur bo‘lgan minimal mulki va huquqlarini himoya qilish davlat (sud timsolida) zimmasida bo‘ladi. Kreditorlar yig‘ilishining «mutlaq vakolatlari» shaxsning yashash huquqi va konstitutsiyaviy kafolatlarini cheklab qo‘ymasligi kerak.

Ushbu istisnoning mavjudligi qonunchilikda subyektlarning huquqiy tabiati hisobga olinganini ko‘rsatadi. Jismoniy shaxsning iqtisodiy taqdiri faqat kreditorlarning xohishiga emas, balki sudning adolatli muvozanatiga va qonunda belgilangan maxsus ijtimoiy kafolatlarga bog‘liq bo‘lishi lozim.

7. Mazkur moddaning yettinchi qismiga muvofiq kreditorlar yig‘ilishi mazkur qarorlarni qabul qilishi uchun muvaqqat boshqaruvchining qarzdorning moliyaviy ahvoli to‘g‘risidagi xulosasi olinishi mumkin. Ushbu xulosa ham sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Ushbu norma kreditorlar yig‘ilishining eng muhim qarorlari faqatgina subyektning xohish-istagiga emas, balki *obyektiv iqtisodiy asoslarga* tayanishi kerakligini mustahkamlaydi.

Kreditorlar yig‘ilishining mutlaq vakolatlariga kiruvchi ikkita qaror – *qarzdorni bankrot deb topish* (tugatish) yoki, aksincha, *sog‘lomlashtirish* (sanatsiya/tashqi boshqaruv) jarayonini boshlash faqatgina professional mutaxassis, ya'ni muvaqqat boshqaruvchining xulosasiga asoslanishi mumkin. Bu kreditorlarning ehtimoliy suiiste'mollari yoki qarzdorning moliyaviy holati haqidagi noto‘g‘ri qaror qabul qilinishining oldini oluvchi «*filtr*» vazifasini bajaradi.

Qonun 86-moddasining uchinchi qismiga ko‘ra, muvaqqat boshqaruvchi moliyaviy tahlil natijasida qarzdorning moliyaviy ahvoli to‘g‘risida quyidagi xulosalardan birini tayyorlaydi: to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlanmaganligi to‘g‘risida; agar vaq-

tincha to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlansa, to‘lov qobiliyatini tiklash tartib-taomillaridan birini joriy etishning asoslari mavjudligi to‘g‘risida; agar doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlansa, to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyati mavjudligi yoki mavjud emasligi to‘g‘risida.

Bunda muvaqqat boshqaruvchi quyidagilarni tahlil qiladi: qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyati; mulkiy ahvoli (aktivlarning yetarliligi); to‘lovga qobiliyatsizlikning sabablari (masalan, qasddan).

Sudya kreditorlar yig‘ilishining iltimosnomasini ko‘rib chiqayotganda bayonnomaga muvaqqat boshqaruvchining xulosasi ilova qilinganini tekshirishi lozim. Agar xulosada korxonani sog‘lomlashtirish mumkinligi ko‘rsatilgan bo‘lsa-yu, kreditorlar tugatishni talab qilsa, sud kreditorlarning qarori iqtisodiy jihatdan qanchalik asoslanganini chuqurroq o‘rganishi lozim.

Bunda muvaqqat boshqaruvchi betaraf shaxs sifatida xulosa beradi. Bu xulosa kreditorlarga ham, qarzdorga ham yo‘nalish ko‘rsatuvchi «yo‘l xaritasi» bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining *iqtisodiy asoslanganligi* prinsipini ta’minlaydi. U kreditorlarning subyektiv manfaatlari (masalan, tezroq mol-mulkni sotib olish) va korxonani saqlab qolish kabi ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlaydi.

8. Muvaqqat boshqaruvchining xulosasi bilan tasdiqlanadigan qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyati mavjud bo‘lgan taqdirda, hatto kreditorlar qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini boshlash to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish haqida qaror qabul qilgan taqdirda ham sud to‘lov qobiliyatini tiklash tartib-taomillaridan birini joriy etishga haqli.

Normaning konseptual mohiyati ushbu holatda «*sudning faol roli*» namoyon bo‘lishidadir. Mazkur qoida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarda sudning roli faqatgina kreditorlar irodasini tasdiqlovchi «notarius» vazifasidan iborat emasligini ko‘rsatadi. Bu yerda «dispozitivlik» (taraflar irodasi) va «ommaviy manfaat» (korxonani va ish o‘rinlarini saqlab qolish) o‘rtasidagi muvozanat namoyon bo‘ladi.

Kreditorlar va sud o‘rtasidagi vakolatlar taqsimotiga ko‘ra, garchi ushbu moddada qarzdorga nisbatan harakatlar kreditorlar nomidan amalga oshirilishi belgilangan bo‘lsa-da, ushbu norma sudga kreditorlarning «tugatish» haqidagi qarorini rad etish va qarzdorni sog‘lomlashtirish (sanatsiya yoki tashqi boshqaruv) imkonini beradi.

Bunda muhim mezonlar quyidagilar hisoblanadi:

iqtisodiy ustuvorlik: agar muvaqqat boshqaruvchining tahlili korxonaning yashovchanligini (viability) isbotlab bersa, sud kreditorlarning faqat mulkning tezroq sotilishiga qaratilgan qaroridan ustun tura oladi;

xulosaning maqomi: muvaqqat boshqaruvchining xulosasi sud uchun majburiy emas, lekin u eng muhim dalil hisoblanadi. Sud ushbu xulosani inobatga olishda qarzdorning moliyaviy ko‘rsatkichlarini atroflicha o‘rganishi shart.

Sud kreditorlar yig‘ilishining «bankrot deb topish» haqidagi iltimosnomasini rad etib, sog‘lomlashtirishni joriy etar ekan, o‘z ajrimida nima sababdan kreditorlarning

fikriga qo‘shilmaganini va muvaqqat boshqaruvchining xulosasi qaysi iqtisodiy omillarga ko‘ra asosli ekanligini batafsil ko‘rsatishi lozim.

Sog‘lomlashtirish tartib-taomilini joriy etishda sud qarzdorning moliyaviy ahvoli haqiqatda yaxshilanishiga va bu kreditorlarning huquqlarini (qarz miqdorining yanada oshib ketishi) jiddiy ravishda kamsitmasligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Ushbu norma O‘zbekiston qonunchiligida *«reabilitatsiya yo‘nalishi»* (pro-rehabilitation) ustuvor ekanligini anglatadi. Davlat korxonalarning ommaviy ravishda tugatilishidan emas, balki ularning to‘lov qobiliyati tiklanishi va iqtisodiyotda qolishidan manfaatdor. Bu esa bozor munosabatlarida barqarorlikni ta’minlovchi muhim huquqiy mexanizmdir.

9. Kreditorlar yig‘ilishini tashkil etish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni bu haqida ommaviy axborot vositalarida e’lon berishdan boshlab, shuningdek, kreditorlar yig‘ilishini o‘tkazish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni *sud boshqaruvchisi* amalga oshiradi.

Sud boshqaruvchisi kreditorlar yig‘ilishida nafaqat ijrochi, balki *mustaqil professional subyekt* sifatida ishtirok etadi. Uning asosiy vazifasi kreditorlarning o‘z irodasini erkin va qonuniy ifoda etishi uchun texnik va tashkiliy-huquqiy sharoit yaratishdir.

Sud boshqaruvchisining zimmasidagi quyidagi *funksiyalarni* alohida ko‘rsatish lozim:

xabardor qilish: barcha ma’lum kreditorlarni, qarzdor vakillarini va vakolatli organlarni yig‘ilish vaqti va joyi haqida Qonunda belgilangan muddatlarda (odatda 10 kun oldin) shaxsan yoki OAV orqali xabardor qilish.

ro‘yxatga olish: kelgan kreditorlarning vakolatlarini (ishonchnomalarini) tekshirish va ularni ro‘yxatga olish.

kvorumni aniqlash: yig‘ilish qaror qabul qilishga vakolatli ekanligini (ovozlar soni bo‘yicha) tasdiqlash.

bayonnoma yuritish: yig‘ilishda bildirilgan fikrlar va ovoz berish natijalarini rasmiylashtirish hamda bayonnomani 2 kun ichida sudga taqdim etish.

Sud boshqaruvchisi yig‘ilishda ovoz berish huquqiga ega emas. Uning vazifasi kun tartibidagi masalalar bo‘yicha xolis axborot berishdir. Agar sud boshqaruvchisi biror kreditorning manfaatini ko‘zlab, yig‘ilish bayonnomasini soxtalashtirsa yoki xabardor qilish tartibini buzsa, bu uning vakolatlarini tugatishga va yetkazilgan zararni undirishga asos bo‘ladi.

Sud kreditorlar yig‘ilishi qarorining qonuniyligini tekshirayotganda, avvalo, *sud boshqaruvchisi tomonidan tashkiliy jarayon to‘g‘ri bajarilganiga* e’tibor berishi kerak. Xabardor qilish tartibining buzilishi yig‘ilish qarorini bekor qilish uchun eng ko‘p uchraydigan asoslardan biridir.

Sud boshqaruvchisiga yig‘ilishni tashkil etish vazifasining yuklatilishi kreditorlar va qarzdor o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvini kamaytirishga xizmat qiladi. Bu jarayonning *institutsional xolisligini* ta’minlovchi kafolatdir.

10. Mazkur moddaning o‘ninchi qismi kreditorlar yig‘ilishi kvorumiga qo‘yiladigan talablarni o‘z ichiga oladi. Yig‘ilish, basharti unda kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan qarzdorning pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar

umumiy summasining kamida uchdan ikki qismi miqdorida talablar qo‘yayotgan, ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan kreditorlar hozir bo‘lsa, vakolatli hisoblanadi (ya’ni uning qarorlari yuridik kuchga ega bo‘ladi).

Kvorum bo‘lmagan taqdirda o‘n kunlik muddat ichida kreditorlarning takroriy yig‘ilishi chaqiriladi, bu yig‘ilish unda ishtirok etayotgan kreditorlarning sonidan qat’i nazar, agar kreditorlar yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joy to‘g‘risida tegishli tarzda xabardor qilingan bo‘lsa, vakolatli bo‘ladi. Mazkur moddada kreditorlar yig‘ilishining roli va uni boshqarish, kreditorlar yig‘ilishining vazifalari va funksiyalari belgilangan.

Kvorum kreditorlar yig‘ilishi qaror qabul qilishga vakolatli bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan ovozlarning eng kam miqdoridir. Qonunchilikda kvorum kreditorlar soni bilan emas, balki ularga tegishli bo‘lgan talablar summasi (ovozlar soni) bilan belgilanadi. Asosiy mezon: reyestrga kiritilgan ovoz beruvchi majburiyatlar umumiy summaning kamida uchdan ikki qismi miqdorida talablar bildirayotgan kreditorlar ishtirok etishi shart. Bundan maqsad yirik kreditorlarning ishtirokisiz muhim qarorlar qabul qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik va ko‘pchilik manfaatlarini himoya qilishdir.

11. Ushbu normadagi qoida to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining *qonuniyligini ta’minlovchi eng muhim tiyib turish va muvozanat mexanizmi* hisoblanadi. To‘lovga qobiliyatsizlik ishlari ko‘plab manfaatdor taraflar (qarzdor, turli navbatdagi kreditorlar, davlat organlari) ishtirok etadigan murakkab jarayon bo‘lgani uchun, har bir ishtirokchiga o‘z huquqlarini sud tartibida himoya qilish kafolati beriladi.

Bunda shikoyat qilinishi mumkin bo‘lgan uchta asosiy yo‘nalishni alohida ko‘rsatish lozim:

sud hujjati ustidan shikoyat: kreditor iqtisodiy sudning ajrimlari va qarorlari (masalan, talabni reyestrga kiritishni rad etish yoki tartib-taomilni tugatish haqidagi) ustidan yuqori instansiyaga shikoyat qilishi mumkin;

kreditorlar yig‘ilishi qarorlari ustidan shikoyat: agar yig‘ilishda ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilingan qaror ozchilikdagi kreditorning huquqlarini kamsitsa yoki qonun buzilishi bilan qabul qilingan bo‘lsa (masalan, kvorum bo‘lmasa), ushbu qaror sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkin;

sud boshqaruvchisining harakati yoki harakatsizligi: bu eng ko‘p uchraydigan shikoyat turi bo‘lib, boshqaruvchi mulkni sotishda xatolikka yo‘l qo‘ygan, xarajatlarni asossiz oshirgan yoki ma’lumotlarni yashirgan, shuningdek, sud boshqaruvchisi kreditorning talabini reyestrga kiritishni yoki to‘lashni asossiz rad etgan hollarda beriladi.

Sud kreditorning shikoyatini ko‘rib chiqayotganda quyidagi ikkita shartning mavjudligini tekshirishi shart: *qonunbuzarlik fakti,* ya’ni harakat yoki qaror qonun normalariga zidmi?; *manfaatlarning buzilishi*, ya’ni ushbu xatti-harakat yoki qaror shikoyat qiluvchi kreditorning mulkiy yoki protsessual huquqlariga haqiqatda zarar yetkazganmi? (Masalan, uning ovoz berish imkoniyati cheklanganmi yoki olishi kerak bo‘lgan mablag‘ miqdori kamayganmi?)

Shikoyat berish jarayonning umumiy muddatlarini to‘xtatib qo‘ymaydi (agar sud alohida ajrim bilan to‘xtatmasa). Bu to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining asossiz cho‘zilib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun muhimdir.

Mazkur norma kreditorning «*sud orqali himoyalanish huquqi*» konstitutsiyaviy prinsipining to‘lovga qobiliyatsizlik sohasidagi ifodasidir. U sud boshqaruvchisi va kreditorlar ko‘pchiligining «yakkahokimligiga»ga yo‘l qo‘ymaydi, har bir kreditorning ovozi va manfaati qonun himoyasida ekanligini kafolatlaydi.

Ushbu shikoyatlar Qonunning 60-moddasida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 725-b.

13-modda. Bir turdagi kreditorlar guruhlari

Bir turdagi kreditorlar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

birinchi guruh – qarzdorning garov bilan ta’minlangan majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar;

ikkinchi guruh – qarzdorga nisbatan garov bilan ta’minlanmagan shartnomalardan, mahsulot yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek, majburiy sug‘urta va bank kreditlarini sug‘urta qilish shartnomalaridan kelib chiqadigan talablar bo‘yicha kreditorlar;

uchinchi guruh – soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha kreditorlar;

to‘rtinchi guruh – mehnat shartnomalariga ko‘ra mehnatga haq to‘lash va kompensatsiyalar to‘lash bo‘yicha, alimentlar undirish to‘g‘risidagi talablarni qanoatlantirish uchun hisobvaraqdan pul mablag‘larini o‘tkazishni yoki berishni nazarda tutuvchi ijro hujjatlari bo‘yicha, mualliflik shartnomalari yuzasidan haq to‘lash bo‘yicha, qarzdorning mehnatga oid va unga tenglashtirilgan huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi majburiyatlarining teng darajada bajarilishini ta’minlovchi to‘lovlar va talablar, shuningdek, fuqarolarning jinoiy yoki ma’muriy huquqbuzarlik oqibatida o‘z mol-mulkiga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplashga doir talablari bo‘yicha kreditorlar;

beshinchi guruh – hisoblangan dividendlar bo‘yicha qarzdorning aksiyalari egalari.

Kreditorlar yig‘ilishida ushbu Qonun 12-moddasi beshinchi qismining ikkinchi va uchinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan masalalarni ko‘rib chiqishda birinchi, ikkinchi va uchinchi guruh kreditorlari ovoz berish huquqiga ega.

Kreditorlar yig‘ilishida ushbu Qonun 12-moddasi beshinchi qismining to‘rtinchi, beshinchi, oltinchi va yettinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan masalalarni ko‘rib chiqishda birinchi hamda ikkinchi guruh kreditorlari ovoz berish huquqiga ega.

Agar kreditor qarzdorga taalluqli tan olingan talablarni saqlovchi bo‘lsa, kreditorlar yig‘ilishida ovoz berish huquqiga ega bo‘ladi.

Sharhlanayotgan modda to‘lovga qobiliyatsizlik munosabatlarida kreditorlarni guruhlarga ajratish orqali ularning huquqiy maqomi, manfaatlarining ustuvorlik darajasi hamda kreditorlar yig‘ilishida qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etish tartibini belgilaydi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismi kreditorlarni majburiyatlarning tabiati va ta'minlanganlik darajasiga ko‘ra 5 ta aniq guruhga ajratadi. Bunday tasniflashning *huquqiy ahamiyati* quyidagilardan iborat:

a) *manfaatlar muvozanatini ta'minlash* – to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida kreditorlarning manfaatlari bir-biriga zid kelishi mumkin (masalan, garovli kreditor va oddiy yetkazib beruvchi). Qonun chiqaruvchi kreditorlarni guruhlarga ajratish orqali har bir toifa uchun «alohida ovoz berish va qaror qabul qilish» mexanizmini yaratadi. Bu «katta» kreditorlar tomonidan «kichik» kreditorlar huquqlari kamsitilishining oldini oladi;

b) *navbat va ustuvorlik prinsipi* – guruhlar bo‘yicha taqsimlanish mablag‘larni qaytarish navbati bilan uzviy bog‘liq: birinchi guruh (garovli kreditorlar) – ularning talablari imtiyozli bo‘lib, garov mulki sotilishidan tushgan mablag‘lar birinchi navbatda ularga yo‘naltiriladi. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari to‘lovga qobiliyatsizlik yuzaga kelgunga qadar kreditorlar va qarzdor o‘rtasida tuzilgan kelishuvlarni hisobga olishi kerak, bunda kreditorlar talablarini tartibga solish va ayrim bitimlarni bekor qilish to‘g‘risidagi aniq qoidalarga rioya etilishi lozim. Shuningdek, u ta'minlangan kreditni olish xarajatlarini minimallashtirish maqsadida ta'minlangan kreditorlarning mavqeini saqlab qolishga qaratilgan bo‘lishi kerak; ikkinchi guruh (shartnomaviy): biznes munosabatlarining asosiy qismi. Ular uchun ovoz berish va kelishuv bitimi shartlari muhim. Kreditorlar, ularning talablari qarzdor bilan tuzilgan fuqarolik-huquqiy shartnomalardan kelib chiqqan bo‘lsa, garov bilan ta'minlanmagan (ya'ni kreditor muayyan mol-mulk hisobidan ustuvor qanoatlantirish huquqiga ega emas), tovarlar yetkazib berishga, ishlar bajarishga, xizmatlar ko‘rsatishga, shuningdek, sug‘urtaga taalluqlidir.

Mahsulot yetkazib berish, pudrat, xizmatlar ko‘rsatish shartnomalari bo‘yicha kontragentlar, masalan, korxona tovarni sotib oldi, lekin uning haqini to‘lamadi yoki xizmatlarga (transport, qo‘riqlash, AT qo‘llab-quvvatlash) buyurtma bergan va qarzdor bo‘lib qolgan.

Ikkinchi guruh birinchi guruhdan keyin turadi, unga sud va soliq xarajatlari (shuningdek, joriy to‘lovlar) kiradi. Birinchi navbatdagi talablar qondirilmaguncha, ikkinchi navbatdagi kreditorlar to‘lovlarni olmaydilar. Ikkinchi guruh kreditorlari ustuvorlik bo‘yicha uchinchi va to‘rtinchi navbatga qaraganda yuqoriroq turadi (masalan, ish haqi yoki ijtimoiy majburiyatlar bo‘yicha), bu kutilmagan tuyulishi mumkin, ammo shuni tushunish kerakki, gap turli xil majburiyatlar haqida ketmoqda va qonun ustuvorlikni turlicha taqsimlashi mumkin. Ikkinchi guruh kreditorlari fuqarolik-huquqiy kontragentlar bo‘lib, ularning qarzdor bilan tuzgan shartnomalari garov ta'minotiga ega emas. Qonun ularni ustuvor toifaga kiritadi, ijtimoiy va ma'muriy majburiyatlarga nisbatan yuqori mavqeni ta'minlaydi. Bu qarzdorning iqtisodiy faoliyatida ishtirok etayotgan ishbilarmon sheriklarning manfaatlarini himoya qilish zarurligini aks ettiradi.

Uchinchi guruh (fiskal): davlat byudjeti oldidagi majburiyatlar. Uchinchi guruh kreditorlari – soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha kreditorlar, bu yuridik va jismoniy shaxslar soliqlar va yig‘imlarni davlat byudjetiga to‘lashi lozim bo‘lgan, yuzaga kelgan kontragentdir.

To‘rtinchi guruh (ijtimoiy): ish haqi, aliment va sog‘liqqa yetkazilgan zarar – bu guruh yuqori ijtimoiy himoyaga ega. Ushbu guruhga qarzdorning huquqbuzarliklardan jabr ko‘rgan jismoniy shaxslar – xodimlar, mualliflar, fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatga molik majburiyatlari kiradi. Qonun chiqaruvchi ularni boshqa kreditorlarning ko‘pchiligiga (masalan, tijorat banklari yoki yetkazib beruvchilarga) nisbatan ustun qo‘yadi.

To‘rtinchi guruhga aynan kimlar kiritilgan:

qarzdorning xodimlari: to‘lanmagan ish haqi bo‘yicha talablar. Mehnat shartnomasida nazarda tutilgan kompensatsiyalar (masalan, foydalanilmagan ta’til, ishdan bo‘shatish va boshqalar uchun);

ijro hujjatlari bo‘yicha talablar, agar ular quyidagilarga taalluqli bo‘lsa: alimentlar (bolalar, ota-onalar va boshqalar uchun), mualliflik mukofotlari (masalan, yozuvchilar, bastakorlar, rassomlar), mehnat munosabatlari bilan bog‘liq boshqa to‘lovlar;

jinoyatlardan yoki ma’muriy huquqbuzarliklardan jabrlangan fuqarolar, agar mol-mulkka moddiy zarar yetkazilgan bo‘lsa va bu tegishli qaror (masalan, sud qarori) bilan tasdiqlangan bo‘lsa. Bu fuqarolar ham ustuvorlikka ega, chunki ular davlat tomonidan tan olingan huquqbuzarlik bilan bog‘liq holda himoyalanadilar.

Barcha kreditorlar qonun bo‘yicha navbatlarga bo‘linadi va talablar navbat tartibida qondiriladi. Birinchi, ikkinchi va uchinchi navbat talablari to‘liq qondirilmaguncha, to‘rtinchi navbat hech narsa olmaydi. To‘rtinchi navbatdagi talablar qondirilgandan so‘ng beshinchi navbatga o‘tish mumkin (masalan, tijorat shartnomalari bo‘yicha kreditorlar va h.k.).

Ish haqi bo‘yicha qarzdor bo‘lgan xodimlar yetkazib beruvchilar yoki banklar bilan «bir qatorda turmasligi» kerak – ularga ustuvorlik beriladi. Mualliflik haqi, alimentlar va sud kompensatsiyalari ham ustunlikka ega. Ushbu qoida ijtimoiy huquqlarni himoya qiladi va jismoniy shaxslar uchun to‘lovga qobiliyatsizlik oqibatlarini yumshatishga qaratilgan.

To‘rtinchi guruh qonunchilikning ijtimoiy yo‘naltirilgan holatini aks ettiradi: jismoniy shaxslar, ayniqsa, zaif qatlamlar – xodimlar, bolalar, mualliflar, jabrlanganlar ustuvorlikka ega. U qarzdor mol-mulkining teng va adolatli taqsimlanishini ta’minlaydi, nafaqat tijorat manfaatlariga, balki inson huquqlarini himoya qilishga ham e’tibor qaratadi.

Beshinchi guruh (aksiyadorlar): eng oxirgi navbatdagi talabgorlar bo‘lib, ularning maqomi kreditor va mulkdor oralig‘ida bo‘ladi. Bu guruh to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilik doirasida ko‘rib chiqiladigan kreditorlar turkumlaridan biri bo‘lib, korxona yoki tashkilot moliyaviy jihatdan yetarlicha barqaror bo‘lmagan, qarzdorlikni qoplash jarayonida ustuvorlik darajasi eng past bo‘lgan shaxslar hisoblanadi.

Bular – aksiyadorlar (jismoniy yoki yuridik shaxslar), ularga hisoblangan, ammo to‘lanmagan dividendlar bo‘yicha qarzdorlik mavjud. Bu guruhdagi kreditorlar kompaniyaning mulkini taqsimlashda eng oxirgi navbatda kompensatsiya oladi, agar avvalgi guruhlardagi (1–4) kreditorlar to‘liq qoplanmasdan qolsa, beshinchi guruh umuman pul olmasligi ham mumkin.

Nega beshinchi guruh oxirgi, chunki aksiyadorlar – kompaniyaning egalari, ular biznesdagi xavf-xatarni ham baham ko‘radi. Ular qarz beruvchi emas, balki investitsiya kiritgan shaxslardir. Shu sababli faqat boshqa barcha majburiyatlar (ish haqi, soliq, kreditlar va h.k.) qoplangandan keyingina ularga navbat yetadi;

d) *ovoz berish tartibidagi xususiyatlar*: to‘lov qobiliyatini tiklash rejasi yoki kelishuv bitimi tasdiqlanayotganda ovozlar har bir guruh ichida alohida hisoblanadi. Agar bir guruh rejaga qarshi bo‘lsa, lekin bu reja ushbu guruh manfaatlarini boshqa muqobil variantlardan ko‘ra yaxshiroq himoya qilsa, sud «majburiy tasdiqlash» (cram-down) mexanizmini qo‘llashi mumkin;

e) *amaliy ahamiyati*: sud boshqaruvchisi kreditorlar reyestrini yuritayotganda har bir kreditorni qat’iy ravishda ushbu moddadagi guruhlarga joylashtirishi shart. Xato guruhga kiritish kreditorning ovoz berish huquqiga va qarz undirish navbatiga ta’sir qilib, sud qarorining bekor bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

2. Ushbu norma kreditorlar yig‘ilishida qaror qabul qilishning «manfaatdorlik va ta’sir doirasi» tamoyilini belgilaydi. Unga ko‘ra, eng muhim strategik masalalarda faqat iqtisodiy jihatdan «real» talabga ega bo‘lgan birinchi, ikkinchi va uchinchi guruh kreditorlariga ovoz berish huquqi beriladi.

Birinchi, ikkinchi va uchinchi guruh kreditorlari quyidagi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishda ovoz berish huquqiga ega:

kelishuv bitimi tuzish to‘g‘risidagi qarorlar;

kreditorlar qo‘mitasi a’zolarini saylash, uning son tarkibini belgilash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risidagi qarorlar.

3. Birinchi va ikkinchi guruh kreditorlari quyidagi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishda ovoz berish huquqiga ega: sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish, ularning muddatini uzaytirish yoki muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish haqidagi qarorlar; qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini boshlash to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish haqidagi yoki qarzdorning faoliyatini to‘xtatmagan holda uni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini boshlash to‘g‘risidagi qarorlar; sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlash va qarzlarni uzish jadvalini ma’qullash to‘g‘risidagi qarorlar; tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarorlar.

Shunga ko‘ra qolgan kreditorlar yuqorida sanab o‘tilgan masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilishda ovoz berish huquqiga ega emas.

Nima uchun to‘rtinchi va beshinchi guruhlar ovoz berishdan chetlashtirilgan? To‘rtinchi guruh (ijtimoiy majburiyatlar): ish haqi va aliment bo‘yicha kreditorlarning talablari qonun bo‘yicha ustuvor hisoblanadi. Ularning pullari, tiklash rejasidan qat’i nazar, imkon qadar birinchi navbatda to‘lanishi shart. Ularga ovoz berish huquqining berilmasligi sababi – ularning talabi muhokama qilinmaydigan va kamaytirilmaydigan (imtiyozli) xarakterdadir.

Beshinchi guruh (aksiyadorlar): ular biznesning egalari hisoblanadi. To‘lovga qobiliyatsizlik holatida korxona aktivlari birinchi navbatda tashqi qarzlarni yopishga yo‘-

naltiriladi. Aksiyadorlar faqat qoldiq mablag‘ga da’vogar bo‘lganlari sababli, ularning tiklash rejasiga ta’sir ko‘rsatishi manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin.

Birinchi (garovli) va ikkinchi (shartnomaviy) guruh kreditorlari jarayonning asosiy «iqtisodiy lokomotivlari» hisoblanadi. Ular o‘z pullarini tijoriy xavf (risk) ostiga qo‘ygan tadbirkorlik subyektlaridir. Davlat organlarining (uchinchi guruh) rolini cheklash: soliq organlari (uchinchi guruh) davlat manfaatini ifodalaydi va ularning talablari qonun bilan qat’iy belgilangan. Kelishuv bitimi yoki boshqaruvchini tanlash kabi «tijoriy» masalalarda davlat organining ovoz berishi xususiy sektor manfaatlariga va bozor tamoyillariga mos kelmasligi mumkin.

Qaror qabul qiluvchilar doirasining toraytirilishi eng faol kreditorlarga jarayonni boshqarish va tezkor qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Kreditorlar yig‘ilishi bayonnomasini va qabul qilingan qarorlarning qonuniyligini tekshirishda sudya quyidagilarga e’tibor qaratishi lozim: kvorum faqat ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan (1-, 2- va 3-guruh) kreditorlarning talablari summasidan kelib chiqib hisoblanishi shart; 4- va 5-guruh kreditorlari yig‘ilishda kuzatuvchi sifatida ishtirok etishlari va fikr bildirishlari mumkin, lekin ularning «qarshi» yoki «yoqlab» bergan ovozlari yakuniy qarorga ta’sir etmaydi.

Bu norma «biznes qarori» (business judgment) qoidasiga asoslangan. Ya’ni korxonani qutqarib qolish yoki tugatish taqdirini faqat shu jarayonda bevosita iqtisodiy xavfga ega bo‘lgan (tijorat va fiskal) kreditorlar hal qiladi.

4. Kreditor, agar uning qarzdorga nisbatan talablari tan olingan va kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan bo‘lsa, kreditorlar yig‘ilishida ovoz berish huquqi bilan ishtirok etish huquqiga ega.

Kreditorlar yig‘ilishida ovoz berish uchun faqatgina qarzdorlikning mavjudligi yetarli emas. Talab tan olingan bo‘lishi shart. Ya’ni talab sud boshqaruvchisi tomonidan tekshirilib, e’tiroz bildirilmagan va Kreditorlar talablari reyestriga kiritilgan bo‘lishi lozim yoki talab sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Ushbu normada to‘lovga qobiliyatsizlik yuzaga kelgunga qadar belgilangan talablarning ustuvorligi e’tirof etiladi va odatda bu ustuvorliklar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish jarayonida qo‘llab-quvvatlanadi.

Kreditorlar yig‘ilishi, basharti unda qarzdorning pul majburiyatlari va (yoki) majburiy to‘lovlari umumiy summasining kamida uchdan ikki qismi miqdorida talablar qo‘yadigan, ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan kreditorlar hozir bo‘lsa, vakolatli bo‘ladi. Kreditorlar yig‘ilishda o‘z vakillari orqali ham ishtirok etishlari mumkin. Kvorum bo‘lmagan taqdirda o‘n kunlik muddat ichida kreditorlarning takroriy yig‘ilishi chaqiriladi, bu yig‘ilish unda ishtirok etayotgan kreditorlarning sonidan qat’i nazar, agar kreditorlar yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joy to‘g‘risida tegishli tarzda xabardor qilingan bo‘lsa, vakolatli bo‘ladi.

Sud boshqaruvchisi reyestrni shakllantirayotganda har bir talabning asosliligini tekshirishi kerak. Agar boshqaruvchi talabni tan olmasa, kreditor yig‘ilishda ovoz berish huquqidan mahrum bo‘ladi. Bunday holatda kreditor faqat sud tartibida o‘z talabini reyestrga kiritish orqali ovoz berish huquqini tiklashi mumkin.

Sudlar kreditorlar yig‘ilishi qarorlarini haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi arizalarni ko‘rayotganda quyidagilarni tekshirishi zarur:

ovoz bergan shaxsning talabi ovoz berish vaqtida reyestrga kiritilganmidi?

agar talab «shartli» yoki nizoli bo‘lsa, unga ovoz berish huquqi berilganligi boshqa kreditorlarning ovozlari salmog‘iga (proporsiyasiga) qanday ta’sir qilgan?

talabning summasi ovozlar sonini belgilagani sababli, tan olingan summaning to‘g‘riligi kvorum va qaror taqdirini hal qiluvchi omildir.

Ushbu norma «huquqiy muayyanlik» prinsipiga asoslanadi. Ya’ni faqatgina miqdori va asosi shubhasiz bo‘lgan (tan olingan) majburiyat egasiga boshqaruv qarorlarini qabul qilish vakolati beriladi. Bu qarzdor bilan til biriktirgan «soxta» kreditorlarning jarayonga kirib kelishi va ovoz berish orqali qarorlarga ta’sir o‘tkazishiga to‘siq bo‘ladi.

Kreditorning ovoz berish huquqi uning moddiy huquqiy talabining tan olinganlik fakti bilan bog‘liq. Reyestrga kiritilmagan kreditor, hatto uning qo‘lida shartnoma bo‘lsa ham, yig‘ilishda qaror qabul qilishda ishtirok etolmaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 727-b.

14-modda. Kreditorlar yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risida xabardor etish

Lozim darajada xabardor etish deganda kreditorga, tegishli vakolatli organga, shuningdek, ushbu Qonunning 12-moddasiga muvofiq kreditorlar yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan boshqa shaxsga kreditorlar yig‘ilishi o‘tkazilishi haqidagi xabarni kreditorlar yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin pochta aloqasi orqali yoki bunday xabar kreditorlar yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan kamida besh kun oldin olinishini ta’minlovchi boshqa usulda yuborish tushuniladi.

Kreditorni yoki kreditorlar yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan boshqa shaxsni shaxsan xabardor qilish uchun zarur ma’lumotlarni aniqlash imkoni bo‘lmaganda yoxud mazkur shaxslarni shaxsan xabardor etish imkonini bermaydigan boshqa holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda kreditorlar yig‘ilishi o‘tkazilishi haqidagi xabarning O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda va u belgilagan ommaviy axborot vositasida e’lon qilinishi ana shunday shaxslarni lozim darajada xabardor qilish deb e’tirof etiladi.

Kreditorlar yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risidagi xabarda quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

qarzdor yuridik shaxsning nomi va joylashgan yeri;

kreditorlar yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joy;

kreditorlar yig‘ilishining kun tartibi;

kreditorlar yig‘ilishida ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan materiallar bilan tanishish tartibi;

kreditorlar yig‘ilishi ishtirokchilarini ro‘yxatga olish tartibi;

qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning yoki jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi va yashash joyi.

Sud boshqaruvchisi kreditorlar yig‘ilishida ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan materiallar bilan yig‘ilish o‘tkaziladigan sanadan kamida uch ish kuni ilgari tanishish uchun kreditorlarga imkoniyat yaratishi kerak.

Sharhlanayotgan modda kreditorlar yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risida ishtirokchilarni xabardor qilish tartibi, muddatlari va usullarini hamda ushbu xabarning mazmuniga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

1. Kreditorlar yig‘ilishining barcha ishtirokchilari, ya’ni ovoz berish huquqiga ega bo‘lganlar ham, ovoz berish huquqiga ega bo‘lmaganlar ham, lekin Qonun 12-moddasining uchinchi qismiga muvofiq kreditorlar yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lganlar ham xabardor qilinishi kerak.

Ushbu normada yuqorida ko‘rsatilgan shaxslarni xabardor qilishning uchta usuli nazarda tutilgan. *Birinchidan*, bu xabarni kreditorlar yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin pochta orqali yuborish bo‘lib, bunda ushbu xabar yuborilganligini tasdiqlovchi dalillar mavjud bo‘lishi kerak. Pochta kvitansiyasi yoki xabar topshirilganligi to‘g‘risidagi bildirishnoma bunday jo‘natishning dalili hisoblanadi.

Ikkinchidan, xabarni kreditorlar yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan kamida besh kun oldin olinishini ta’minlaydigan boshqa usul bilan yuborish. Bunda xabarni telefon, faks, elektron pochta, kuryer va hokazolar orqali jo‘natish nazarda tutiladi, lekin asosiy shart mazkur xabarning olinishini ta’minlashdir.

Shunday qilib, tegishli tarzda xabardor qilish deganda kreditorlar yig‘ilishi o‘tkazilishidan ikki hafta oldin pochta orqali yuborish ham, yig‘ilish o‘tkazilishidan besh kun oldin xabarni shaxsan olishni ta’minlaydigan boshqa usulda yuborish (ya’ni yetkazib berish yoki topshirish) ham tushuniladi. Amaliyotda sud boshqaruvchisi xabarnomalarni bitta aholi punkti hududida joylashgan kreditorlarga shaxsan o‘zi yetkazadi.

Kreditorlar yig‘ilishi bayonnomasining qonuniyligini tekshirishda sud quyidagi isbotlovchi hujjatlarni talab qilishi lozim: pochta kvitansiyalari va yuborilgan xatlarning ro‘yxati (opis); elektron xabar yuborilgan bo‘lsa, uning qabul qilinganini tasdiqlovchi texnik ma’lumotlar.

Agar xabardor qilish tartibi buzilgan bo‘lsa va bu yig‘ilish kvorumiga yoki ovoz berish natijasiga ta’sir qilgan bo‘lsa, bunday yig‘ilish qarorlari haqiqiy emas deb topiladi.

Bu norma «adolatli sudlov va teng imkoniyatlar» prinsipining aksidir. Sud boshqaruvchisi xabar berish tartibini suiiste’mol qilib, o‘zi istamagan kreditorlarni jarayondan chetlashtirishga harakat qilishining oldi olinadi. Muddatlarning qat’iy belgilanishi kreditorlarga yig‘ilish kun tartibidagi masalalarni o‘rganish va asoslantirilgan pozitsiya tayyorlash uchun yetarli vaqt beradi.

«Lozim darajada xabardor etish» shunchaki texnik harakat emas, balki kreditorlarning mulkiy huquqlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmidir. Xabardor qilin-

magan kreditorning yig‘ilishda ishtirok etmasligi uning protsessual huquqlari qo‘pol ravishda buzilishi deb baholanadi.

2. Xabardor qilishning uchinchi usuli ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan bo‘lib, unga ko‘ra, yig‘ilish o‘tkazilishi to‘g‘risida xabardor qilish Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda rasmiy nashrda ma’lumotlarni e’lon qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Vazirlar Mahkamasining «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan ma’lumotlarni e’lon qilishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2009-yil 11-iyundagi 160-son qarori bilan «Biznes-Daily «Birja» iqtisodiy gazetasi va/yoki Davlat aktivlarini boshqarish agentligi rasmiy veb-sayti Qonunda nazarda tutilgan ma’lumotlar e’lon qilinadigan ommaviy axborot vositalari etib belgilangan.

Bunda shuni nazarda tutish lozimki, kreditorlar yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risida xabar berish faqat kreditorni yoki kreditorlar yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan boshqa shaxsni shaxsan xabardor qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni aniqlash imkoni bo‘lmaganda yoxud ko‘rsatilgan shaxslarni shaxsan xabardor qilish imkoni bo‘lmaydigan boshqa holatlar mavjud bo‘lganda ma’lumotlarni rasmiy nashrda e’lon qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Ushbu norma shaxsiy xabardor qilish imkoni bo‘lmagan vaziyatlarda jarayonning to‘xtab qolmasligini ta’minlovchi «ommaviy bildirish» (public notice) mexanizmini joriy etadi. Bunda qonun chiqaruvchi kreditorning xabardor bo‘lish majburiyatining bir qismini uning o‘ziga yuklaydi, ya’ni manfaatdor kreditor rasmiy manbalarni kuzatib borishi lozim. Bu mexanizm to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining cho‘zilib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi va jarayonning dinamikasini saqlab qoladi.

Ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilish «zaxira» usuli bo‘lib, undan faqatgina shaxsiy xabardor qilishning iloji qolmaganda foydalanish mumkin. Agar sud boshqaruvchisi kreditorning aniq manzilini bila turib faqat gazetada e’lon chiqarish bilan cheklansa, bu lozim darajada xabardor etmaslik deb baholanishi va qarorlarning bekor bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi kreditorlar yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risidagi xabarning mazmuniga qo‘yiladigan majburiy talablarni belgilaydi. Ushbu norma kreditorlarning o‘z huquqlarini amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarning minimal hajmini kafolatlaydi. Xabarning mazmuniga qo‘yilgan talablar shunchaki texnik xarakterda emas, balki yig‘ilishda qabul qilinadigan qarorlarning qonuniyligini ta’minlovchi shartdir.

Kreditorlar yig‘ilishi bayonnomasini o‘rganishda sud xabarda ushbu oltita ma’lumotning barchasi mavjudligini tekshirishi lozim. Birorta rekvizitning tushib qolishi kreditorning huquqlarini cheklash deb baholanishi va yig‘ilish natijalarini shubha ostiga qo‘yishi mumkin.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismiga muvofiq kreditorlar yig‘ilish o‘tkaziladigan sanadan kamida uch ish kuni oldin ish materiallari bilan tanishib chiqish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Ko‘rsatilgan muddat kreditorlarga qarzdorga nisbatan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan keyingi harakatlarni o‘rganish va baholash imkoniyatini beradi deb taxmin qilinadi.

Ushbu norma kreditorlar yig‘ilishida qabul qilinadigan qarorlarning asoslantirilgan (informed decision) bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi. Kreditor shunchaki ovoz berish subyekti emas, balki qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil qila oladigan ishtirokchi sifatida namoyon bo‘lishi lozim.

«Uch ish kuni» muddatining ahamiyati shundaki, qonun chiqaruvchi oddiy kalendar kunlarini emas, balki ish kunlarini belgilagan. Bu kreditorlarga (ayniqsa, yuridik shaxslarning huquqshunoslari va hisobchilariga) taqdim etilgan hujjatlarni (masalan, murakkab sanatsiya rejasi yoki inventarizatsiya dalolatnomalarini) batafsil o‘rganish, o‘z rahbariyati bilan maslahatlashish va ovoz berish pozitsiyasini shakllantirish uchun real vaqt beradi.

Sud boshqaruvchisi materiallar bilan tanishish uchun nafaqat vaqt ajratishi, balki sharoit (imkoniyat) ham yaratib berishi shart. Bu quyidagilarni anglatadi: hujjatlarning aniq joyda (masalan, boshqaruvchining ofisida yoki qarzdor korxona binosida) mavjudligi; kreditorlarga hujjatlardan nusxa olish yoki ularni fotosuratga tushirish imkoniyatini berish; zamon talabidan kelib chiqib materiallarni elektron shaklda yuborish (bu ixtiyoriy, lekin tavsiya etiladi).

Agar sud boshqaruvchisi materiallarni yig‘ilish kunida yoki yig‘ilishga bir kun qolganda taqdim etsa, bu qonun talablarining qo‘pol ravishda buzilishi hisoblanadi. Bunday holatda kreditor yig‘ilishni qoldirishni talab qilishga haqli, agar yig‘ilish o‘tkazilib, qaror qabul qilingan bo‘lsa, sud mazkur qarorni kreditorning «tayyorgarlik ko‘rish huquqi buzilganligi» asosi bilan haqiqiy emas deb topishi mumkin.

Bu norma «vijdonlilik va shaffoflik» prinsipiga asoslanadi. Sud boshqaruvchisi materiallarni yashirishi yoki tanishish muddatini ataylab qisqartirishi jarayondagi xolislikka putur yetkazadi. Kreditorlarning materiallar bilan tanishishi ularga boshqaruvchining faoliyati ustidan nazorat o‘rnatish imkonini ham beradi.

Mazkur modda har bir alohida kreditorning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish doirasida uning huquqlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan masalalar bo‘yicha tegishli tarzda xabardor qilinishini ta’minlash va bunday ish yuritishda ishtirok etish imkoniyatini berish bo‘yicha protsessual huquqlariga rioya etilishiga ko‘maklashadi. Qarang: Xalqaro sharh. 727-b.

15-modda. Kreditorlar yig‘ilishini chaqirish tartibi

Kreditorlar yig‘ilishi sud boshqaruvchisining tashabbusiga ko‘ra yoki kreditorlar qo‘mitasining talabiga binoan yoxud pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlar yuzasidan talablari kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlar yuzasidan talablar umumiy summasining kamida uchdan bir qismini tashkil etuvchi kreditorlarning talabiga binoan yoki kreditorlar umumiy sonining uchdan bir qismi tashabbusi bilan chaqiriladi.

Kreditorlar yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risidagi talabda kreditorlar yig‘ilishi kun tartibiga kiritilishi lozim bo‘lgan masalalar ta’riflangan bo‘lishi kerak.

Sud boshqaruvchisi kreditorlar qo‘mitasining yoki ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan kreditorlarning talabiga binoan chaqirilayotgan kreditorlar yig‘ilishi kun tartibining masalalari ta’rifiga o‘zgartishlar kiritishga haqli emas.

Kreditorlar yig‘ilishi kreditorlar qo‘mitasining yoki ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan kreditorlarning talabiga binoan tegishli ariza bilan sud boshqaruvchisiga murojaat etilgan paytdan e’tiboran kechi bilan o‘ttiz kunlik muddat ichida sud boshqaruvchisi tomonidan chaqiriladi.

Kreditorlar yig‘ilishi, agar kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi tomonidan boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, qarzdorning joylashgan yerida (yashash joyida) o‘tkaziladi. Kreditorlarning birinchi yig‘ilishini qarzdorning joylashgan yerida (yashash joyida) o‘tkazish mumkin bo‘lmasa, kreditorlarning birinchi yig‘ilishi o‘tkaziladigan joy sud boshqaruvchisi tomonidan belgilanadi.

Sharhlanayotgan modda kreditorlar yig‘ilishini chaqirish tartibini belgilaydi. Ushbu norma yig‘ilish chaqirish vakolatiga ega bo‘lgan subyektlar doirasini va ularning huquqiy chegaralarini (kvotalarini) belgilaydi. Qonun chiqaruvchi bu yerda ikki xil yondashuvni (pul miqdori va shaxslar soni) birlashtirgan.

1. Kreditorlar yig‘ilishini o‘tkazish tashabbusi bilan ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan subyektlar, chunonchi: a) sud boshqaruvchisi; b) kreditorlar qo‘mitasi; d) pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha talablari kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha talablar umumiy summasining kamida uchdan bir qismini tashkil etadigan kreditorlar; e) reyestrga kiritilgan kreditorlar umumiy sonining uchdan bir qismini tashkil etuvchi kreditorlar chiqadi.

Shunday qilib, Qonunning 12-moddasiga muvofiq, kreditorlar yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan barcha shaxslar ham kreditorlar yig‘ilishi chaqirilishini talab qilishga haqli emas.

Yuqorida ko‘rsatilgan barcha subyektlar (sud boshqaruvchisidan tashqari) kreditorlar yig‘ilishini o‘tkazish tashabbusi bilan chiqish huquqini sud boshqaruvchisiga murojaat qilish orqali amalga oshiradilar. Protsessual tartibda «tashabbus ko‘rsatish» yoki «talab qilish» bir-biridan farq qilmaydi.

Sud boshqaruvchisi ushbu kvotalarga ega bo‘lgan kreditorlarning talabini rad etishga haqli emas. Agar boshqaruvchi yig‘ilish chaqirishdan asossiz bosh tortsa, kreditorlar sudga murojaat qilish orqali boshqaruvchining harakatsizligini qonunga xilof deb toptirishlari va uni javobgarlikka tortish (yoki almashtirish) masalasini qo‘yishlari mumkin.

2. Sud boshqaruvchisiga yig‘ilish o‘tkazish to‘g‘risida talab qo‘yilganda kreditorlar qo‘mitasi yoki yig‘ilish o‘tkazilishini talab qilish huquqiga ega bo‘lgan kreditorlar kre-

ditorlar yig‘ilishi ko‘rib chiqishi uchun kiritiladigan masalalarni shakllantirishi kerak. Agar talabda kreditorlar yig‘ilishining kun tartibiga kiritilishi lozim bo‘lgan masalalar ifodalanmagan bo‘lsa, sud boshqaruvchisi ushbu talabni kamchiliklarni to‘g‘rilash uchun qaytarishi mumkin va kreditorlar yig‘ilishini chaqirishni rad etishga haqli. Bunda kreditorlar yig‘ilishini chaqirishni rad etish to‘g‘risidagi xatda sud boshqaruvchisi rad etish sababi Qonunning 15-moddasi ikkinchi qismi talablarining buzilishi ekanligini ko‘rsatishi lozim.

3. Qonun sud boshqaruvchisiga kreditorlar qo‘mitasi yoki ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan kreditorlar talabiga binoan chaqiriladigan kreditorlar yig‘ilishi kun tartibidagi masalalar ta’rifiga o‘zgartirishlar kiritishni taqiqlaydi. Biroq Qonun kreditorlar yig‘ilishi kun tartibini kreditorlar yig‘ilishi bilan kelishish yoki muhokama qilishni talab etadigan masala bilan to‘ldirishni taqiqlamaydi.

Bu xolislikni ta’minlash uchun o‘ta muhimdir. Amaliyotda kreditorlar sud boshqaruvchisining faoliyatidan norozi bo‘lganlarida yoki uni almashtirish masalasini qo‘yish uchun yig‘ilish chaqiradigan hollar uchraydi. Agar boshqaruvchiga kun tartibini o‘zgartirish huquqi berilsa, u o‘ziga noqulay bo‘lgan masalalarni «yumshatishi», mazmunini o‘zgartirishi yoki mutlaqo chiqarib tashlashi mumkin edi. Ushbu taqiq bunday suiiste’mollarning oldini oladi.

Bunda sud boshqaruvchisi faqat tashkilotchi (texnik ijrochi) sifatida ish yuritadi. U kreditorlar talab qilgan masalalarni qanday bo‘lsa, shundayligicha yig‘ilish haqidagi xabarnomaga kiritishi; ovoz berish byulletenlarida aks ettirishi shart.

Sudlar kreditorlar yig‘ilishi bayonnomalarini o‘rganishda quyidagilarga e’tibor qaratishlari lozim: kreditorlarning yig‘ilish chaqirish haqidagi dastlabki talabnomasi va yakuniy bayonnomadagi kun tartibini solishtirish, agar boshqaruvchi masala ta’rifini o‘zgartirgan bo‘lsa (masalan, «sud boshqaruvchisini chetlashtirish» o‘rniga «sud boshqaruvchisining hisoboti» deb o‘zgartirgan bo‘lsa), bunday xatti-harakat g‘ayriqonuniy deb topiladi va ushbu masala bo‘yicha qabul qilingan qarorlar haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismiga muvofiq sud boshqaruvchisi yig‘ilishni chaqirish to‘g‘risidagi talabnomani olganidan keyin murojaat (ariza) olinganidan keyin o‘ttiz kun ichida yig‘ilishni chaqirishi shart. Ushbu norma *protsessual muddatlarning qat’iyligi* va sud boshqaruvchisining hisobdorligini ta’minlaydi.

Qonun chiqaruvchi tomonidan belgilangan o‘ttiz kunlik muddat kreditorlarning xohish-irodasi va real boshqaruv qarori o‘rtasidagi maksimal vaqt oralig‘idir.

Muddat kreditorlarning tegishli arizasi sud boshqaruvchisi tomonidan qabul qilib olingan (yoki pochta orqali yetib borgan) kundan boshlab hisoblanadi. Ushbu 30 kun ichida nafaqat yig‘ilish haqida xabar yuborilishi, balki yig‘ilishning o‘zi o‘tkazib bo‘linishi shart. Bu sud boshqaruvchisidan tezkorlikni talab qiladi, chunki xabarnoma kamida 2 hafta oldin yuborilishi kerakligini inobatga olsak, boshqaruvchida tashkiliy ishlar uchun atigi 10–15 kun vaqt qoladi. Bu muddat tavsiyaviy emas, balki majburiy xarakterdadir. Sud boshqaruvchisining bandligi, kasalligi yoki boshqa shaxsiy sabablari ushbu muddatni uzaytirish uchun asos bo‘lmaydi.

Agar sud boshqaruvchisi 30 kun ichida yig‘ilishni chaqirmasa, kreditorlar sudga boshqaruvchining harakatsizligi ustidan shikoyat qilishga haqli. Agar muddat o‘tib ketgandan keyin chaqirilgan yig‘ilishda kreditorlarga zarar yetkazuvchi qarorlar qabul qilinsa, bu boshqaruvchining moddiy javobgarligini keltirib chiqarishi mumkin.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismi kreditorlar yig‘ilishini o‘tkazishning geografik joyini va uni belgilash tartibini nazarda tutadi. Bu qoida jarayonning oshkoraligi va kreditorlar uchun qulayligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ushbu norma kreditorlar yig‘ilishi, agar kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi tomonidan boshqacha qoida belgilangan bo‘lmasa, qarzdorning joylashgan yerida (yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan yashash joyida) o‘tkazilishini belgilaydi.

Kreditorlarning birinchi yig‘ilishiga nisbatan qonun hujjatlari uni qarzdor joylashgan yerda (yashash joyida) o‘tkazilishini belgilaydi. Agar kreditorlarning birinchi yig‘ilishini qarzdorning joylashgan yerida (yashash joyida) o‘tkazish u yoki bu sabablarga ko‘ra mumkin bo‘lmasa, kreditorlarning birinchi yig‘ilishini o‘tkazish joyi sud boshqaruvchisi tomonidan belgilanadi.

Birinchi yig‘ilishda hali kreditorlarning jamoaviy irodasi (qarori) shakllanmagan bo‘ladi. Shu sababli, agar qarzdorning manzilida yig‘ilish o‘tkazishning imkoni bo‘lmasa (masalan, bino muhrlangan, xavfli holatda yoki korxona mavjud bo‘lmasa), joyni belgilash huquqi sud boshqaruvchisiga beriladi.

Qonun chiqaruvchi yig‘ilish o‘tkaziladigan joyni tanlashda «qarzdorga yaqinlik» prinsipini asos qilib olgan. Bu kreditorlarga nafaqat yig‘ilishda qatnashish, balki qarzdorning real ahvoli (aktivlari, ishlab chiqarish quvvatlari) bilan tanishish imkonini beradi.

Kreditorlar yig‘ilishi yoki qo‘mitasi ovoz berish orqali yig‘ilishni boshqa joyda o‘tkazish haqida qaror qabul qilishi mumkin. Misol uchun, agar aksariyat kreditorlar Toshkent shahrida joylashgan bo‘lsa-yu, qarzdor korxona chekka viloyatda bo‘lsa, kreditorlar yig‘ilishini Toshkent shahrida o‘tkazish maqsadga muvofiq deb topilishi mumkin.

Bu boradagi zamonaviy tendensiyani hisobga olganda, yig‘ilishlarda masofaviy (onlayn) ishtirok etish ommalashmoqda. Hozirgi huquqni qo‘llash amaliyoti va raqamlashtirish jarayonlarini inobatga olsak, «o‘tkaziladigan joy» tushunchasi videokonferensaloqa tizimlaridan foydalanishni istisno etmaydi (agar bu haqida kreditorlar yig‘ilishi qarori bo‘lsa). Biroq xabarnomada baribir jismoniy manzil ko‘rsatilishi shart.

Agar yig‘ilish joyi asossiz ravishda kreditorlar uchun o‘ta noqulay joyda belgilangan bo‘lsa va bu kvorum yo‘qligiga yoki muhim kreditorlarning ishtirok eta olmasligiga sabab bo‘lsa, sud bunday yig‘ilish qarorlarini haqiqiy emas deb topishi mumkin. Qarang: Xalqaro sharh. 727-b.

16-modda. Kreditorlar yig‘ilishining bayonnomasi

Kreditorlar yig‘ilishida bayonnoma yuritiladi.

Kreditorlar yig‘ilishi bayonnomasiga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

kreditorlar yig‘ilishi o‘tkazilayotgan sanadagi holatga ko‘ra kreditorlarning talablari reyestri;

kreditorlar vakillarining vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar;

kreditorlar yig‘ilishi ishtirokchilarining ro‘yxatga olish varaqlari;

kreditorlar yig‘ilishi ishtirokchilariga tanishib chiqish va (yoki) tasdiqlash uchun taqdim etilgan materiallar;

kreditorlar yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joy haqida kreditorlar hamda tegishli vakolatli organlar tegishli tarzda xabardor etilganligining dalillari;

ovoz berish byulletenlari;

sud boshqaruvchisining ixtiyoriga ko‘ra yoki kreditorlar yig‘ilishi qaroriga binoan boshqa hujjatlar.

Kreditorlar yig‘ilishining bayonnomasi hamda unga ilova qilingan hujjatlar kreditorlar yig‘ilishi o‘tkazilgan sanadan e’tiboran ikki kundan kechiktirmay sudga topshirilishi lozim.

Sharhlanayotgan modda kreditorlar yig‘ilishining natijalarini hujjatlashtirish va sud nazoratiga topshirish tartibini belgilaydi. Kreditorlar yig‘ilishi bayonnomasi oddiy hisobot emas, balki to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonidagi eng muhim *huquqiy dalil* hisoblanadi. Unda aks etgan qarorlar qarzdor va barcha kreditorlar uchun majburiy kuchga ega.

1. Qonunning 16-moddasi birinchi qismiga muvofiq, kreditorlar yig‘ilishida bayonnoma yuritilishi lozim. Bayonnoma bo‘lmasa, yig‘ilishda qabul qilingan hech qanday qaror (hatto u bir ovozdan qabul qilingan bo‘lsa ham) yuridik kuchga ega emas.

Qonunga ko‘ra, yig‘ilishni tashkil etish sud boshqaruvchisi zimmasida bo‘lgani sababli, bayonnoma yuritilishini ta’minlash va uni imzolash ham uning majburiyatidir. Amaliy jihatdan, bayonnomani kotib yuritishi mumkin, lekin uning to‘g‘riligi va mazmuni uchun sud boshqaruvchisi shaxsan javobgar bo‘ladi.

Qonunda bayonnoma mazmuniga nisbatan talablar mavjud emas, lekin bayonnoma matnida yig‘ilish o‘tkazilgan sana va vaqt, yig‘ilishda hozir bo‘lgan shaxslar, kun tartibi, kun tartibiga kiritilgan masalalar bo‘yicha muhokamalar va ular yuzasidan qabul qilingan qarorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi kreditorlar yig‘ilishi bayonnomasiga ilova qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlar ro‘yxatini nazarda tutadi va ushbu ro‘yxat tugal hisoblanmaydi, chunki sud boshqaruvchisining xohishiga ko‘ra yoki kreditorlar yig‘ilishi qaroriga ko‘ra bayonnomaga boshqa hujjatlar ham ilova qilinishi mumkin.

Qonun chiqaruvchi ilovalar ro‘yxatini qat’iy belgilash orqali «protsessual shaffoflik» tamoyilini amalga oshiradi. Bayonnoma faqat ushbu ilovalar bilan birgalikda yaxlit huquqiy hujjat hisoblanadi.

Kreditorlar yig‘ilishi o‘tkazilayotgan sanadagi holatga ko‘ra kreditorlarning talablari reyestri kvorumni aniqlashning asosidir. Reyestrda nafaqat kreditorlar nomi, balki ularning ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan talablari summasi ko‘rsatilgan bo‘lishi shart. Agar reyestr yig‘ilish sanasidan oldingi yoki keyingi sana bilan berilsa, ovozlar hisobi noto‘g‘ri deb topilishi mumkin.

Kreditorlar vakillarining vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar (ishonchnomalar) kreditor nomidan qatnashayotgan shaxsning ovoz berishga haqli ekanligini isbotlaydi. Sud boshqaruvchisi ishonchnomada «to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida ovoz berish» vakolati borligini tekshirishi va uni bayonnomaga tikib qo‘yishi shart.

Ro‘yxatga olish varaqlari, bu yig‘ilishda kimlar real ishtirok etganini ko‘rsatuvchi hujjatdir. Unda ishtirokchining imzosi bo‘lishi shart. Bu «soxta» kvorum yaratilishining oldini oladi.

Taqdim etilgan materiallar – kreditorlar ovoz berishdan oldin tanishgan hujjatlar (masalan, sanatsiya rejasi loyihasi). Bu ovoz berishning asoslantirilganini tasdiqlaydi.

Xabardor etilganlik dalillari: pochta kvitansiyalari, xatlar ro‘yxati (opis) yoki e’lon berilgan gazeta nusxasi. Bu ilovaning yo‘qligi yig‘ilish qarorini haqiqiy emas deb topish uchun eng ko‘p qo‘llaniladigan asosdir.

Ovoz berish byulletenlari: har bir kreditorning shaxsiy irodasini aks ettiradi. Bayonnomada ko‘rsatilgan raqamlar byulletenlardagi raqamlar bilan bir xil bo‘lishi shart.

Boshqa hujjatlar: bu yerda kreditorlar tomonidan berilgan alohida fikrlar, e’tirozlar yoki yig‘ilishda qabul qilingan qo‘shimcha arizalar bo‘lishi mumkin.

Sud bayonnomani qabul qilayotganda ushbu ro‘yxat bo‘yicha «inventarizatsiya» o‘tkazishi kerak. Ilovalarning to‘liq emasligi sud boshqaruvchisiga nisbatan xususiy ajrim chiqarish yoki qarorni shubha ostiga qo‘yish uchun asos bo‘lishi mumkin.

3. Sud boshqaruvchisi kreditorlar yig‘ilishi o‘tkazilgan sanadan e’tiboran ikki kun ichida yig‘ilish bayonnomasini va unga ilova qilingan hujjatlarni sudga taqdim etishi (yuborishi) shart.

Qonun chiqaruvchi tomonidan belgilangan «ikki kunlik muddat» to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilikdagi eng qisqa va qat’iy protsessual muddatlardan biridir.

Muddatning o‘ta qisqaligi sud boshqaruvchisiga bayonnoma mazmunini o‘zgartirish, ovoz berish natijalarini soxtalashtirish yoki kreditorlar bilan kelishib hujjatlarni qayta rasmiylashtirish uchun imkon qoldirmaydi. Sud qabul qilingan qarorlardan (masalan, sanatsiyani boshlash yoki tugatish) zudlik bilan xabardor bo‘lishi va keyingi protsessual harakatlarni amalga oshirishi lozim.

Muddat yig‘ilish o‘tkazilgan kunning ertasidan boshlanadi. Agar yig‘ilish juma kuni o‘tkazilgan bo‘lsa, ikki kunlik muddat yakshanba kuni tugaydi. Biroq, protsessual qoidalarga ko‘ra, agar muddatning oxirgi kuni dam olish kuniga to‘g‘ri kelib qolsa, hujjatlar dushanba kunidan kechiktirmay topshirilishi kerak.

Agar sud boshqaruvchisi bayonnomani ikki kundan kechiktirib topshirsa, sud buni protsessual huquqbuzarlik deb baholashi lozim. Bu holat boshqaruvchini intizomiy javobgarlikka tortish yoki unga nisbatan xususiy ajrim chiqarish uchun asos bo‘ladi.

Biroq muddatning buzilishi (agar bayonnomaning haqiqiyligi shubha ostida bo‘lmasa) o‘z-o‘zidan yig‘ilish qarorini bekor qilish uchun asos bo‘lmaydi, lekin boshqaruvchining faoliyatiga nisbatan «ishonchsizlik» uyg‘otadi. Shu sababli ikki kunlik muddat sud boshqaruvchisining intizomi va professionalligi ko‘zgusidir. Ushbu muddatga rioya qilish kreditorlarning qarorlari tezkorlik bilan ijroga yo‘naltirilishini kafolatlaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 727-b.

17-modda. Kreditorlar yig‘ilishi tomonidan qarorlarni qabul qilish tartibi

Ovozga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha kreditorlar yig‘ilishining qarorlari yig‘ilishda hozir bo‘lgan ovoz berish huquqiga ega kreditorlarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan har bir kreditor kreditorlar yig‘ilishi o‘tkazilayotgan sanadagi holatga ko‘ra umumiy kreditorlik qarzidagi o‘z ulushiga mutanosib ovozlar soniga ega bo‘ladi.

Kreditorlar yig‘ilishi quyidagi qarorlarni ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan barcha kreditorlarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qiladi:

kelishuv bitimi tuzish to‘g‘risidagi qaror;

sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish, ularning muddatini uzaytirish yoki muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish haqidagi qaror;

qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini boshlash haqidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish to‘g‘risidagi qaror;

sud boshqaruvchisini tayinlash, almashtirish yoki vazifasidan ozod qilish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish haqidagi qaror.

Agar kreditorlarning yig‘ilishida ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan qarorlarni qabul qilish uchun ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan kreditorlarning zarur kvorumi bo‘lmasa, kreditorlarning takroriy yig‘ilishi chaqiriladi, basharti kreditorlarning yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joy to‘g‘risida kreditorlar lozim darajada xabardor etilgan bo‘lsa, ushbu takroriy yig‘ilish bunday qarorlarni ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan va yig‘ilishda hozir bo‘lgan kreditorlar sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilishga vakolatlidir.

Kreditorlar yig‘ilishining ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari talablari buzilgan holda qabul qilingan hamda kreditorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan qarori ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan kreditorning arizasiga ko‘ra sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Agar kreditorlar yig‘ilishining qarori to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy

manfaatlarini buzsa, bunday qaror sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Kreditor va (yoki) to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxs qabul qilingan qaror haqida bilgan yoki bilishi kerak bo‘lgan kundan e’tiboran yigirma kun ichida ariza berishi mumkin.

Sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish, ularning muddatini uzaytirish yoki muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish haqidagi qaror, agar buni yoqlab birinchi va ikkinchi guruh kreditorlarining ko‘pchiligi ovoz bergan bo‘lsa, qabul qilingan deb hisoblanadi. Birinchi va ikkinchi guruh kreditorlarining ko‘pchiligi qarshi ovoz bergan taqdirda, shuningdek, ovoz berish chog‘ida har bir guruhda zarur ovozlar soni to‘planmagan bo‘lsa, qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish haqida qaror qabul qilinadi.

Ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan har bir guruh kreditorlari ovoz berishda ishtirok etish uchun teng huquqqa ega.

Sharhlanayotgan modda kreditorlar yig‘ilishi tomonidan o‘z qarorlarini qabul qilish va har bir kreditorning ovozlari sonini belgilash tartibini, kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ko‘pchilik ovoz mavjud bo‘lgan taqdirda qabul qilinadigan qarorlar turlarining ro‘yxatini, kreditorlarning takroriy yig‘ilishini o‘tkazish va yig‘ilish qaroriga rozi bo‘lmagan taqdirda uning ustidan shikoyat qilish imkoniyatini belgilaydi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismi kreditorlar yig‘ilishida ovoz berishning umumiy tartibini belgilaydi, unga ko‘ra, qaror qabul qilish yig‘ilishda ishtirok etayotgan kreditorlarning ko‘pchilik ovozi bilan amalga oshiriladi.

Kreditorlar yig‘ilishiga nisbatan kvorum Qonunning 12-moddasi o‘ninchi qismida nazarda tutilgan. Qonunda to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatilgan eng muhim qarorlardan tashqari barcha qarorlar umumiy tartibda ovoz berish yo‘li bilan qabul qilinadi. Ovoz berishning umumiy tartibidan ushbu moddaning uchinchi qismida belgilangan (malakali) tartib istisno hisoblanadi.

Shuni ham nazarda tutish kerakki, ayrim masalalarni hal etishda Qonunda ovoz berishning muayyan tartibi belgilangan. Masalan, qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish to‘g‘risidagi masalani hal etishda (Qonunning 131-moddasi ikkinchi qismi va 153-moddasi birinchi qismi) *kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan barcha kreditorlar* ushbu masalani qabul qilish uchun ovoz berishlari talab etiladi. To‘lovga qobiliyatsiz korxonani tugatish rejasini ma’qullash uchun talablar summasining kamida uchdan ikki qismini taqdim etuvchi kreditorlarning roziligi talab qilinadi (Qonunning 145-moddasi ikkinchi qismi).

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismiga muvofiq yig‘ilishda kreditorlar ega bo‘lgan ovozlar soni kreditorlar yig‘ilishi o‘tkazilayotgan sanadagi holatga ko‘ra ularning umumiy kreditorlik qarzidagi ulushiga mutanosib bo‘ladi.

Ushbu norma kreditorlar o‘rtasidagi «kuchlar muvozanati»ni belgilaydi. Kreditorlar yig‘ilishida ovozlar soni kreditorlarning soniga qarab emas (bitta kreditor – bitta ovoz), balki ularning iqtisodiy manfaati (pul summasi) hajmiga qarab taqsimlanadi.

Kreditorning ovozlari soni uning talablari reyestriga kiritilgan qarz summasiga to‘g‘-ridan to‘g‘ri bog‘liqdir. Misol uchun, agar jami ovoz beruvchi kreditorlarning qarzi 1 mlrd so‘m bo‘lsa va «A» kreditorning talabi 300 mln so‘m bo‘lsa, u yig‘ilishda 30 foiz ovozga ega bo‘ladi. Bu tizim yirik mablag‘ tikuvchi kreditorlarga jarayonni boshqarishda kattaroq vakolat beradi, chunki korxonaning taqdiri ularning puliga ko‘proq ta’sir qiladi.

«*Yig‘ilish o‘tkazilayotgan sanadagi holatga ko‘ra*» sharti o‘ta muhim protsessual ahamiyatga ega. Reyestr dinamik hujjat bo‘lib, u doimiy o‘zgarib turishi mumkin (qarz qisman to‘lanishi yoki yangi talablar qo‘shilishi natijasida). Ovozlar soni yig‘ilishdan oldin emas, balki aynan yig‘ilish kunidagi reyestr asosida qayta hisoblanishi shart. Agar yig‘ilishgacha qarzning bir qismi so‘ndirilgan bo‘lsa, kreditorning ovozlari soni ham mos ravishda kamayadi.

Sud yig‘ilish bayonnomasini tekshirayotganda quyidagi matematik verifikatsiyani (tekshiruvni) o‘tkazishi lozim: reyestrdagi summa va ovozlar foizi bir-biriga mosmi? Jarimalar va penyalar (sanksiyalar) ovozlarni hisoblashda inobatga olinmaganmi? (Qonunchilikka ko‘ra, ovoz berish huquqi odatda faqat asosiy qarz summasi bo‘yicha beriladi.)

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi kreditorlar yig‘ilishi tomonidan barcha kreditorlarning ko‘pchilik ovozi bilan qaror qabul qilinadigan masalalar ro‘yxatini belgilaydi.

Bu norma oddiy (hozir bo‘lganlarning ko‘pchiligi) va ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan barcha kreditorlarning ovoz berish tartibi o‘rtasidagi farqni belgilaydi. Ushbu to‘rtta masala korxonaning taqdirini tubdan o‘zgartirgani sababli qonun chiqaruvchi ular bo‘yicha qaror qabul qilish mezonini ancha yuqori qilib belgilagan.

«Barcha kreditorlarning ko‘pchilik ovozi» shuni anglatadiki, bu yerda ovozlar soni yig‘ilishga kelganlar summasidan emas, balki talablar reyestriga kiritilgan, ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan barcha kreditorlarning umumiy sonidan kelib chiqib hisoblanadi.

Sud yig‘ilish bayonnomasini tasdiqlash yoki iltimosnomani qabul qilishda arifmetik xatolarni tekshirishi shart: ovozlarni hisoblashda «kelganlar» emas, «reyestrdagi barcha kreditorlar» asos qilib olinganmi? Agar yig‘ilishda kvorum bo‘lsa-yu, ovozlar reyestrdagi jami miqdorning 50% dan oshmagan bo‘lsa, sud bunday iltimosnomani rad etishi mumkin.

Ushbu norma «ozchilikning huquqlarini himoya qilish» va «muhim qarorlarning legitimligi» tamoyiliga asoslanadi. U bir nechta kichik kreditorlar yig‘ilishga kelib, qolgan barcha yirik kreditorlar nomidan qarorlar qabul qilib yuborishiga yo‘l qo‘ymaydi.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismiga ko‘ra, agar ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan qarorlarni qabul qilish uchun chaqirilgan kreditorlar yig‘ilishida ovozlarning zarur soni to‘planmagan bo‘lsa, kreditorlarning *takroriy yig‘ilishi* chaqiriladi. Agar kreditorlarning yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joy to‘g‘risida kreditorlar lozim darajada xabardor etilgan bo‘lsa, ushbu takroriy yig‘ilish bunday qarorlarni ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan va yig‘ilishda hozir bo‘lgan kreditorlar sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilishga vakolatli bo‘ladi.

Takroriy yig‘ilishda ovoz berish tartibini yumshatish (soddalashtirish) uchun asosiy shart – birinchi yig‘ilish haqida barcha kreditorlar qonuniy tartibda *xabardor qilingan* bo‘lishi shart. Agar birinchi yig‘ilishda xabardor qilish tartibi buzilgan bo‘lsa, takroriy yig‘ilishning qarorlari haqiqiy emas hisoblanadi.

Strategik masalalar (kelishuv bitimi, sanatsiya, sud boshqaruvchisini almashtirish) bo‘yicha birinchi yig‘ilishda reyestrdagi jami ovozlarning 50% dan ortig‘i talab etilgan bo‘lsa, takroriy yig‘ilishda bu mezon bekor qilinadi. Qaror faqat «kelganlarning ko‘pchiligi» (50% + 1 ovoz) bilan qabul qilinadi.

Sud takroriy yig‘ilish bayonnomasini tasdiqlashda quyidagi «uch bosqichli» tekshiruvni o‘tkazishi lozim: birinchi yig‘ilish haqida xabarnomalar va ularning natijasiz (kvorumsiz) yakunlanganini tasdiqlovchi bayonnoma bormi? Takroriy yig‘ilish haqida kreditorlar yana qaytadan (kamida 2 hafta oldin pochta yoki 5 kun oldin boshqa usulda) xabardor qilinganmi? Ovozlar hisobida faqat yig‘ilishda qatnashganlar summasi asos qilib olinganmi?

5. Mazkur moddaning beshinchi qismi kreditorlar yig‘ilishi qarorini haqiqiy emas deb topish asoslari va tartibini belgilaydi.

Kreditorlar yig‘ilishining qarorini haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi ariza ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan kreditor tomonidan, agar bunday qaror Qonun va boshqa qonun hujjatlari talablari buzilgan holda qabul qilingan hamda qaror bunday kreditorning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan bo‘lsa, berilishi mumkin. Ariza sud tomonidan Qonunning 60-moddasida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

Qaror ustidan hamma kreditor ham shikoyat qilolmaydi. Bu huquq faqat ikki toifaga berilgan: *qarshi ovoz bergan kreditor* – yig‘ilishda qatnashgan va o‘z e’tirozini bayonnoma (yoki byulleten) orqali ifoda etgan kreditor; *ovoz berishda ishtirok etmagan kreditor* – odatda bu xabardor qilinmagan yoki uzrli sabablarga ko‘ra kelolmagan kreditor bo‘ladi.

Buning maqsadi ovoz berishda «ha» deb ovoz bergan kreditorning keyinchalik fikridan qaytib, qaror ustida nizolashishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sud qarorni bekor qilishi uchun quyidagi ikki holat bir vaqtda mavjud bo‘lishi kerak: *qonunbuzilish fakti* – qaror qabul qilishda qonun hujjatlari talablari buzilgan bo‘lishi (masalan, xabardor qilish muddati buzilgan, kvorum noto‘g‘ri hisoblangan yoki malakali ko‘pchilik ovozi ta’minlanmagan); *manfaatlar buzilishi* – ushbu qaror kreditorning huquqlari yoki qonuniy manfaatlariga real zarar yetkazishi lozim (masalan, uning talablarini so‘ndirish muddati asossiz uzaytirilgan yoki uning ovozi qaror taqdiriga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan).

Sud nizoni ko‘rishda «protsessual xato» va «qarorning mazmuni» o‘rtasidagi bog‘liqlikni tekshiradi. Agar yo‘l qo‘yilgan xatolik (masalan, xabarnoma 14 kun emas, 13 kun oldin yuborilgan bo‘lsa) ovoz berish yakuniga ta’sir qilmagan bo‘lsa va kreditorning huquqlarini jiddiy buzmasa, sud qarorni o‘z kuchida qoldirishi mumkin. Agar ovoz berish huquqiga ega bo‘lmagan (manfaatdor) shaxsning ovozi qaror qabul qilinishida hal etuvchi bo‘lgan bo‘lsa, bunday qaror so‘zsiz bekor qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

12. Sudlarning e’tibori qaratilsinki, kreditorlar yig‘ilishining qarori ustidan nafaqat ovoz berishda ishtirok etmagan yoki tegishli qarorga qarshi ovoz bergan kreditor, balki to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan ham shikoyat qilinishi mumkin.

Kreditorlar yig‘ilishining qarorini haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi ariza kreditor va (yoki) to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxs qabul qilingan qaror haqida bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan kundan e’tiboran yigirma kun ichida berilishi mumkin.

Bunday ariza Qonunning 60-moddasida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

Kreditorlar qo‘mitasining qarori ustidan ham shu tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

Kreditorlar yig‘ilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining qarorini haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi ariza, shuningdek, Qonunning 60-moddasida nazarda tutilgan boshqa ariza (shikoyat)dan arizachi voz kechgan taqdirda, ariza bo‘yicha ish yuritish IPK 110-moddasining 6-bandiga mos holda tugatiladi.

Sudlar inobatga olishlari kerakki, kreditorlar yig‘ilishida yoki kreditorlar qo‘mitasida qarzdor xodimlarining vakili, qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining vakili ovoz berish huquqisiz ishtirok etishga haqli. Biroq ularning ishtirok etmaganligi kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi qarorini haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘lmaydi.

6. Mazkur moddaning oltinchi qismi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan kreditorlar yig‘ilishi qarorini haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi ariza, agar bunday qaror ushbu shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzsa, berilishi mumkinligini nazarda tutadi. Ta’kidlash joizki, Qonunning 60-moddasida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning bunday arizalarini ko‘rib chiqish tartibi nazarda tutilmagan.

Qaror nafaqat kreditorlarning, balki «ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar»ning ham huquqlarini buzishi mumkin. Ularga quyidagilar kiradi:

qarzdorning o‘zi: agar kreditorlar aktivlarni o‘ta arzon sotish yoki asossiz tugatish haqida qaror qabul qilsa;

mehnat jamoasi vakillari: agar qaror ishchilarning ish haqi yoki ijtimoiy huquqlariga daxl qilsa;

vakolatli davlat organlari: agar qaror davlat manfaatlariga (masalan, ekologik xavfsizlik yoki strategik aktivlar) zid bo‘lsa.

Qonun chiqaruvchi nizolashish uchun qat'iy 20 kunlik muddat belgilagan. Bu muddat qaror qabul qilingan kundan emas, balki shaxs bu haqida «bilgan yoki bilishi kerak bo'lgan kundan» boshlanadi. Muddatning qisqaligi jarayonning cho'zilib ketishiga yo'l qo'ymaydi. 20 kun o'tgandan keyin qaror barqarorlik kasb etadi va uning ijrosiga kirishiladi.

Sud qarorni bekor qilishda faqat formal xatoga emas, balki real manfaatlar buzilishiga baho berishi kerak. Masalan, qaror boshqa shaxsning mulk huquqini cheklaydimi yoki uning talabini qanoatlantirish imkoniyatini yo'qqa chiqaradimi?

Moddaning ushu normasi «ommaviy tartib» elementini ifodalaydi. Kreditorlar jamoaviy qaror qabul qilayotganda, ushbu qaror uchinchi shaxslarning qonuniy huquqlariga daxl qilmasligi shart.

7. Mazkur moddaning yettinchi qismi kreditorlar yig'ilishi tomonidan alohida qarorlar qabul qilinishi uchun ovozlar soniga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish (ularni uzaytirish yoki tugatish) to'g'risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish haqidagi qarorni qabul qilish kreditorlarning birinchi va ikkinchi guruhlari (ta'minlangan va ta'minlanmagan kreditorlar) har birining ko'pchiligi vakolatiga kiradi. Bunday qaror bo'lmagan taqdirda qarzdorga nisbatan tugatish tartib-taomili joriy etilishi mumkin.

Ta'minlangan kreditorlar sud sanatsiyasi jarayoniga kiritilishi kerak, chunki ularni chiqarib tashlash qarzdordan sud sanatsiyasi jarayonida alohida ta'minlangan kreditorlarning roziligi va taqiqiga tayanishni talab qiladi, bu esa kreditorlarning ko'pchiligi boshchiligidagi har qanday to'lov qobiliyatini tiklash rejasiga (sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv doirasida tasdiqlangan, to'lov qobiliyatini tiklashga qaratilgan rejalar) putur yetkazishi mumkin. Bu Qonunning 12-, 13- va 17-moddalarida nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, to'lov qobiliyatini tiklash rejalari soliq organlari sud sanatsiyasi tartib-taomiliga veto qo'yish huquqidan foydalanishi mumkin bo'lgan holatlarni cheklash orqali soliq talablarini tartibga solishga qodir bo'lishi kerak. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Qonunning 17-moddasiga muvofiq, kreditorlar yig'ilishining sud sanatsiyasini yoki tashqi boshqaruvni joriy etish (shuningdek, ushbu taomillarni uzaytirish yoki muddatidan ilgari tugatish) to'g'risidagi qarori, agar birinchi va ikkinchi guruh kreditorlarining ko'pchiligi uni yoqlab ovoz bergan bo'lsa, qabul qilingan deb hisoblanadi (13-moddaga muvofiq). Boshqacha qilib aytganda, sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruvni joriy etish to'g'risidagi qaror ko'pchilik tomonidan ma'qullanishi mumkin, hatto soliq va yig'imlar bo'yicha kreditorlar bu qarorni qabul qilishga qarshi ovoz bergan bo'lsa ham.

Moslashuvchanlik va pragmatizm maqsadida qarzdor tashabbusi bilan amalga oshiriladigan sudgacha sanatsiya qilish jarayoni qarzdorga to'lov qobiliyatini tiklash rejasini faqat muayyan kreditorlarga taklif etish imkonini berishi va boshqa kreditorlarga ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Keyinchalik Qonun muayyan kreditorlar ishtirokida to'lov qobiliyatini sudgacha tiklash usullarini o'z ichiga olishi mumkin, ular ishtirok etuvchi kreditorlarga muayyan harakatlarni bajarish yoki bajarishdan o'zini tiyish majburiyatini yuklagan.

Shuningdek, ovoz berish maqsadlari uchun kreditorlar guruhlari, shuningdek, to‘lov qobiliyatini tiklash rejasini qabul qilish uchun ko‘pchilikning tegishli chegaralari to‘lov qobiliyatini tiklash rejimining bir qismi bo‘lishi va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida aniq ko‘rsatilishi kerak. Qoidaga ko‘ra, ta’minlangan va ta’minlanmagan kreditorlar alohida guruhlar bo‘lib, ularning manfaatlari va navbatini hisobga olgan holda ovoz berishlari kerak. Imkoni boricha va bu ularning manfaatlariga daxldor bo‘lgan darajada aksiyadorlar (ishtirokchilar) yoki qarzdor ishtirokchilarining qo‘llab-quvvatlashiga erishish lozim. Mamlakatning huquqiy tizimi mavjud aksiyadorlarni (ishtirokchilarni) to‘lov qobiliyatini tiklash rejasi doirasida har qanday taklif etilayotgan moliyalashtirish choralariga nisbatan aksiyalarni (ulushlarni) imtiyozli sotib olish huquqidan mahrum qilishi mumkin, ayniqsa, agar aksiyadorlar (ishtirokchilar) qarzdorning biznesi qiymatini saqlab qolmasa.

Bu normada qonun chiqaruvchi oddiy ko‘pchilik ovozidan voz kechib, «guruhlar kelishuvi» prinsipini joriy etgan. Bu korxonani qutqarish (sanatsiya yoki tashqi boshqaruv) faqat asosiy kreditorlarning roziligi bilan amalga oshishini kafolatlaydi: birinchi guruh (garov bilan ta’minlangan kreditorlar): ularning aktivlari xavf ostida; ikkinchi guruh (shartnomaviy majburiyatlar): ular asosiy tijorat hamkorlaridir.

Qonun tiklash tartib-taomilini boshlash uchun har ikkala guruhning alohida-alohida roziligini talab qiladi. Agar bitta guruh rozi bo‘lib, ikkinchisi qarshi bo‘lsa, tiklash jarayoni boshlanmaydi.

Bunda o‘ta qat’iy qoida belgilangan: agar 1- va 2-guruh kreditorlari tiklashni qo‘llab-quvvatlamasa (yoki ovozlar yetarli bo‘lmasa), kreditorlar yig‘ilishi majburiy tartibda qarzdorni bankrot deb topish va tugatish haqida qaror qabul qilishi shart.

Bu norma iqtisodiy mantiqqa asoslangan. Agar asosiy mablag‘ egalari (garov egalari va ta’minotchilar) korxonaning tiklanishiga ishonmasa, tiklash jarayoni faqat vaqtni yo‘qotish va aktivlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli ularning irodasi jarayon yo‘nalishini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

8. Ushbu norma kreditorlarni guruhlarga bo‘lish (1-, 2-, 3-guruhlar) ularning ovoz berishdagi ishtirokini cheklash uchun emas, balki jarayonni tartibga solish uchun xizmat qilishini tasdiqlaydi. Garchi kreditorlarning talablari navbatlilik asosida (iyerarxiya) qanoatlantirilsa-da, ovoz berish jarayonida har bir guruh kreditori: yig‘ilishda ishtirok etish; kun tartibidagi masalalar bo‘yicha muzokaralarda qatnashish; o‘z fikr va e’tirozlarini bayonnomaga kiritishni talab qilish; eng muhimi, o‘z ulushiga mutanosib ravishda ovoz berishda bir xil huquqiy imkoniyatga ega.

Sud boshqaruvchisi yoki yirik kreditorlar biror-bir guruhni (masalan, 3-guruh soliq organini yoki kichik ta’minotchilarni) «izlarning navbatingiz oxirida» yoki «sizlarning ovozingiz hal qilmaydi» degan vaj bilan yig‘ilishdan chetlashtirishga yoki ularning so‘z navbatini cheklashga haqli emas.

Demak, moddiy huquq (pulni olish navbati) bo‘yicha farq bo‘lishi mumkin, lekin protsessual huquq (qaror qabul qilishda qatnashish) bo‘yicha barcha ovoz beruvchi kreditorlar tengdir. Qarang: Xalqaro sharh. 727-b.

18-modda. Kreditorlarning talablari reyestri

Kreditorlarning talablari reyestrini sud boshqaruvchisi yuritadi.

Kreditorlarning talablari hisobi kreditorlar talablari reyestrida O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida yuritiladi. Kreditorlarning chet el valyutasida ifodalangan talablari kreditorlarning talablari reyestrida, agar kreditor va qarzdor o‘rtasida tuzilgan shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, kreditorlar yig‘ilishi o‘tkaziladigan kundagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan rasmiy kurs bo‘yicha qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hisobga olinadi. Kreditorlarning talablari reyestrida har bir kreditor haqidagi, pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlar yuzasidan kreditor talablarining aniqlangan miqdori, uning har bir talabining qanoatlantirish navbati to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Kreditor talablari bayon etilgan arizada o‘zi haqidagi ma’lumotlarni, shu jumladan, firmaning to‘liq nomini, joylashgan yerini (pochta manzilini), elektron pochta manzilini (mavjud bo‘lgan taqdirda), jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini, shuningdek, bank rekvizitlarini (mavjud bo‘lgan taqdirda) ko‘rsatishi shart.

Talablari kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan shaxs o‘zi xususidagi ma’lumotlar o‘zgarganligi haqida, shuningdek, qarzdorga nisbatan o‘z talablarining miqdori va tarkibi o‘zgarganligi, shu jumladan, talablaridan uchinchi shaxslar foydasiga voz kechganligi haqida sud boshqaruvchisini bir haftalik muddat ichida xabardor qilishi kerak. Bunday ma’lumotlar taqdim etilmagan yoki o‘z vaqtida taqdim etilmagan taqdirda, shu munosabat bilan yetkazilgan zarar uchun sud boshqaruvchisi va qarzdor javobgar bo‘lmaydi.

Kreditorlarga kreditorlarning talablari reyestri bilan tanishish imkoniyati ta’minlanishi kerak. Sud boshqaruvchisi kreditor yoki uning vakili talabi bilan mazkur kreditorga yoki uning vakiliga talablari qanoatlantirilishining miqdori, tarkibi va navbati to‘g‘risida bunday talab olingan kundan e’tiboran besh ish kuni ichida kreditorlarning talablari reyestridan ko‘chirma yuborishi shart. Bunday ko‘chirmani tayyorlash va yuborish xarajatlari kreditorning zimmasiga yuklatiladi.

Kreditorlarning talablari reyestrini tuzishda yuzaga keladigan kelishmovchiliklar sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Sharhlanayotgan modda kreditorlarning talablari reyestrini tuzish va yuritish bilan bog‘liq masalalarni tartibga soladi. Kreditorlar talablari reyestri to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoniga xos bo‘lgan asosiy hujjatlardan biridir. Reyestrga kiritilgan kreditorlar ishda ishtirok etuvchi shaxslar maqomini oladilar (Qonunning 38-moddasi birinchi qismi) va o‘z talablarini reyestrda ko‘rsatilgan navbat tartibida qanoatlantirishlari mumkin.

1. Kreditorlarning talablari reyestrini faqat sud boshqaruvchisi yuritadi. Sud boshqaruvchisi tomonidan reyestrning yuritilishi shunchaki ro‘yxat emas, balki moliyaviy nazoratning markaziy mexanizmi ekanligi bilan izohlanadi.

Reyestr qarzdorning barcha tan olingan majburiyatlari to‘plangan yagona huquqiy hujjat bo‘lib, uni yuritish mas’uliyati to‘liq sud boshqaruvchisi zimmasiga yuklatiladi.

Sud boshqaruvchisining majburiyatlari: *talablarni qabul qilish*: kreditorlar tomonidan berilgan arizalarni va ularga ilova qilingan hujjatlarni (shartnomalar, sud hujjatlari, invoyslar va boshqalar) qabul qiladi; *tekshirish:* har bir talabning asosliligini va summasining to‘g‘riligini tekshiradi. Agar qarzdorning buxgalteriya hujjatlarida bu qarz aks etmagan bo‘lsa, boshqaruvchi uni reyestrga kiritishni rad etishi mumkin; *navbatni belgilash*: Qonunning 13- va 150-moddalariga muvofiq, talablarni tegishli guruhlarga (1-, 2-, 3-, 4- yoki 5-guruh) ajratadi.

Reyestr doimiy ravishda yangi tan olingan talablar bilan to‘ldiriladi, qarz to‘langani sayin yoki kreditor o‘z talabidan voz kechganda kamaytiriladi, kreditor o‘z huquqini boshqa shaxsga o‘tkazganda (sessiya) o‘zgartiriladi.

Sud uchun reyestr – ovoz berish huquqini va pul taqsimlanishini belgilovchi asosiy manba. Agar kreditor sud boshqaruvchisining talabni reyestrga kiritmaslik haqidagi qaroridan norozi bo‘lsa, u sudga e’tiroz (shikoyat) bildiradi. Sud bu nizoni ko‘rib chiqib, sud boshqaruvchisiga talabni reyestrga kiritish haqida majburiy ko‘rsatma berishi mumkin.

Reyestrni yuritish funksiyasi sud boshqaruvchisiga «kvazi-sud» vakolatini beradi, chunki u dastlabki bosqichda kim kreditor ekani va kim emasligini aniqlaydi. Shu sababli sud boshqaruvchisining betarafligi va professionalligi jarayonning adolatli bo‘lishini ta’minlaydi.

2. Ushbu moddaning ikkinchi qismi reyestrni yuritish tartibini va uning mazmunini belgilaydi. Mazkur normalar to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida kreditorlarning mulkiy huquqlarini tenglashtirish va hisob-kitoblarda yagona o‘lchov birligidan foydalanishni ta’minlaydi.

Qarzdorning majburiyati qaysi valyutada yuzaga kelganidan qat’i nazar, reyestrdagi yakuniy raqamlar faqat O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida, ya’ni so‘mda ifodalanishi shart. Bu aktivlarni sotishdan tushgan mablag‘larni kreditorlar o‘rtasida mutanosib (proporsional) taqsimlash uchun zarur.

Kreditorlarning birinchi yig‘ilishini o‘tkazish uchun qarzdorda chet el valyutasidagi qarz mavjud bo‘lgan taqdirda, kreditorlarning talablari reyestriga kiritiladigan kreditorlar talablarining miqdori sud tomonidan qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza qabul qilingan sanadagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan rasmiy kursga muvofiq, keyingi taomillarda esa to‘lovga qobiliyatsizlikning tegishli taomili joriy etilgan sanadagi rasmiy kurs bo‘yicha aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

24. ...

Qonun 18-moddasining ikkinchi qismiga ko‘ra, kreditorlar talablarining hisobi reyestrda O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida yuritiladi. Kreditorlarning chet el valyutasida ifodalangan talablari kreditorlarning talablari reyestrida, agar kreditor va qarzdor o‘rtasida tuzilgan shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, kreditorlar yig‘ilishi o‘tkaziladigan kundagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan rasmiy kurs bo‘yicha qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hisobga olinadi.

Sudlarning e’tibori qaratilsinki, kreditorlar yig‘ilishi o‘tkaziladigan kun deganda to‘lovga qobiliyatsizlikning tegishli tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish haqida kreditorlar yig‘ilishi qarori qabul qilingan sana tushunilishi kerak.

Qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganidan keyin yuzaga kelgan, shuningdek, to‘lovga qobiliyatsizlikning tegishli tartib-taomili joriy etilgandan so‘ng bajarish muddati kelgan pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar va yig‘imlar joriy to‘lovlar hisoblanadi va kreditorlarning talablari reyestriga kiritilmaydi.

Agar kreditor va qarzdor o‘rtasidagi shartnomada kursni hisoblashning boshqacha tartibi (masalan, «to‘lov kunidagi kurs» yoki «qat’iy belgilangan kurs») ko‘zda tutilgan bo‘lsa, o‘sha shartnomaviy tartib ustuvor hisoblanadi.

Reyestrda har bir kreditor to‘g‘risidagi ma’lumotlar, uning qarzdorga nisbatan talablarining belgilangan miqdori, Qonunning 149-moddasi, 150-moddasi ikkinchi – beshinchi qismlariga muvofiq ularni qondirish navbati ko‘rsatiladi.

Har bir kreditor bo‘yicha reyestrda quyidagi «uchlik» bo‘lishi shart: kreditor identifikatsiyasi (nomi, STIR/PINFL, manzili); talabning aniq miqdori (tan olingan asosiy qarz va alohida hisobga olinadigan penya/jarimalar); navbati (1–5-guruhlardan qaysi biriga mansubligi).

Kreditorlarning talablari reyestriga qarzdorning majburiyatlari sud tomonidan qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza qabul qilinguniga qadar yuzaga kelgan va ularni bajarish muddati to‘lovga qobiliyatsizlikning tegishli tartib-taomili joriy etilguniga qadar boshlangan kreditorlar kiritiladi. Sud tomonidan qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza qabul qilinganidan keyin yuzaga kelgan yoki to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili joriy etilganidan keyin ijro etish muddati kelgan kreditorlarning aynan o‘sha talablari joriy talablar deb hisoblanadi va kreditorlarning talablari reyestriga kiritilmaydi.

Shuni ham nazarda tutish kerakki, tugatishga doir ish yuritishda odatda, talablari qaysi navbatda qanoatlantirilishidan qat'i nazar, barcha kreditorlar reyestrga kiritiladi (bunda tugatishga doir ish yuritish boshlangunga qadar yuzaga kelgan navbatdan tashqari kreditorlar ham nazarda tutiladi). Bu sud boshqaruvchisi ham, kreditorlar ham qarzdorning barcha majburiyatlari umumiy hajmini bilishlari uchun zarurdir. Qonunning 150-moddasi birinchi qismida sanab o'tilgan talablardan tugatishga doir ish yuritish, joriy kommunal va foydalanish to'lovlari va boshqalar bilan bog'liq xarajatlar hajmi reyestrni tuzish paytida hali ma'lum emas, shu sababli unga to'liq hajmda kiritilmasligi mumkin.

3. Kreditor arizasi uning jarayonga rasman kirishini va mulkiy da'vosini ifodalovchi hujjatdir. Qonun chiqaruvchi arizada majburiy rekvizitlarni belgilash orqali sud boshqaruvchisining ishini va mablag'lar taqsimotini tizimlashtiradi.

Kreditor to'g'risidagi ma'lumotlarni reyestrga kiritish uchun kreditor o'z talablarini bildirishda o'zi haqidagi ma'lumotlarni (jismoniy shaxslar uchun – familiyasi, ismi, otasining ismi, pasport ma'lumotlari; yuridik shaxslar uchun – nomi, joylashgan yeri), shuningdek, (mavjud bo'lgan taqdirda) bank rekvizitlarini ko'rsatishi kerak.

4. Talablari kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan kreditor ushbu moddaning uchinchi qismida sanab o'tilgan ma'lumotlar o'zgarganligi to'g'risida, shuningdek, qarzdorga nisbatan o'z talablarining miqdori va tarkibi o'zgarganligi haqida, shu jumladan, talablarini uchinchi shaxslarga bergan holda o'zgarganligi haqida sud boshqaruvchisini xabardor qilishi shart.

Agar kreditor va uning bank rekvizitlari to'g'risidagi ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilmagan bo'lsa (bu ma'lumotlarning o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlarga ham taalluqli), u holda buning natijasida yetkazilgan zararlar xavfi kreditor zimmasida bo'ladi – sud boshqaruvchisi va qarzdor yetkazilgan zarar uchun hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

Qonun chiqaruvchi sud boshqaruvchisi va qarzdorni himoya qiluvchi muhim qoidani o'rnatgan: agar kreditor o'z vaqtida xabar bermasa va shu sababli zarar ko'rsa, bunga o'zi aybdor bo'ladi. Misol uchun, kreditor bank rekviziti o'zgarganini aytmadi va pullar eski (yopilgan) hisobga o'tkazildi yoki «osilib» qoldi. Bunda kechikish uchun penya yoki zararni boshqaruvchidan talab qilib bo'lmaydi.

Bu norma «xavfni taqsimlash» prinsipiga asoslanadi. Kreditor o'z talabining taqdiriga mas'uldir. Sud boshqaruvchisi har kuni har bir kreditorning rekvizitlarini tekshirib chiqishga majbur emas, u reyestrdagi mavjud ma'lumotlarga tayanishga haqli.

5. To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishlarni yuritishning shaffofligi zamonaviy to'lovga qobiliyatsizlik tizimining muhim elementi hisoblanadi. Shunga ko'ra kreditorlarning talablari reyestrida mavjud bo'lgan ma'lumotlar hamma uchun ochiq bo'lishi kerak (ma'lumotlarni himoya qilish va maxfiylik bo'yicha amaldagi qoidalarga rioya qilish sharti bilan).

Mazkur moddaning beshinchi qismi reyestrdagi ma'lumotlar istalgan vaqtda faqat kreditorga (yoki uning vakolatli vakiliga), uning talablari miqdoridan qat'i nazar, reyestrda aks ettirilgan kreditorlik qarzining umumiy summasidan ochiq bo'lishini belgilaydi

– bunday subyektga sud boshqaruvchisi talab olingan paytdan e'tiboran besh ish kuni ichida kreditorlarning talablari reyestridan ko'chirma yuborishi shart, bunda kreditorning zimmasiga reyestrdan ko'chirmani tayyorlash va yuborish bilan bog'liq xarajatlar yuklatiladi (rad etilgan taqdirda kreditor sud boshqaruvchisining xatti-harakatlari ustidan Qonunning 60-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq shikoyat qilishga haqli).

Ushbu norma to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida «axborot oshkoraligi» va kreditorlarning o'z talablari ustidan nazoratini ta'minlaydi. Sud boshqaruvchisi nafaqat ko'chirma berishi, balki kreditorlarga reyestrning o'zi bilan bevosita tanishish (uni ko'zdan kechirish) uchun ham sharoit yaratishi shart. Bu kreditorning o'z talabi reyestrga to'g'ri kiritilganini shaxsan tekshirish huquqini kafolatlaydi.

To'lovga qobiliyatsizlik tizimi ma'lumotlarni himoya qilish va maxfiylik qoidalariga rioya etgan holda to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari to'g'risidagi hamma foydalanishi mumkin bo'lgan axborot saqlanadigan to'lovga qobiliyatsizlikning elektron reyestrlarini yaratishni nazarda tutishi kerak.

6. Kreditorlar talablarining reyestrini tuzish chog'ida kreditor, qarzdor va sud boshqaruvchisi o'rtasida pul majburiyatlari yoki soliqlar va yig'imlarning navbatlari, tarkibi va miqdori yuzasidan kelib chiqadigan kelishmovchiliklar Qonunning 60-moddasida nazarda tutilgan tartibda sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Ushbu norma talablar reyestrining haqqoniyligini ta'minlovchi eng muhim protsessual nazorat mexanizmi hisoblanadi. Reyestr ovoz berish huquqini va mablag'lar taqsimotini belgilagani sababli undagi har bir raqam sud nazoratida bo'lishi shart.

Kelishmovchiliklarning asosiy turlari: *reyestrga kiritishni rad etish* – sud boshqaruvchisi kreditorning talabini asossiz deb topib, reyestrga kiritmagan holatlar; *summa bo'yicha nizo* – kreditor talabi kiritilgan, lekin uning miqdori (masalan, asosiy qarz yoki penya hisobi) bo'yicha e'tirozlar mavjudligi; *navbat bo'yicha nizo* – kreditor o'z talabini imtiyozli (masalan, 2-guruh) deb hisoblasa-yu, boshqaruvchi uni keyingi navbatga qo'ygan bo'lsa. Qarang: Xalqaro sharh. 727-b.

19-modda. Kreditorlar qo'mitasi

Kreditorlar qo'mitasi kreditorlarning manfaatlarini ifoda etadi hamda sud boshqaruvchilarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Kreditorlar qo'mitasi tarkibiga kreditorlar yig'ilishi tomonidan belgilanadigan miqdorda kreditorlar vakillari kiritiladi.

Agar kreditorlar soni yigirmatadan kam bo'lsa, kreditorlar qo'mitasining vazifalarini kreditorlar yig'ilishining qarori bilan kreditorlar yig'ilishi zimmasiga yuklatish nazarda tutilishi mumkin.

O'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun kreditorlar qo'mitasi quyidagilarga haqli:

sud boshqaruvchisidan qarzdorning moliyaviy ahvoli va to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilining borishi to‘g‘risida axborot taqdim etishni talab qilishga;

sud boshqaruvchisining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat berishga;

to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etish uchun o‘z vakilini saylashga;

ushbu Qonunda va sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv rejasida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirishga.

Kreditorlar qo‘mitasi quyidagi qarorlarni qabul qilishga haqli:

kreditorlar yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risidagi qaror;

sud boshqaruvchisining tayinlanishi, almashtirilishi yoki vazifasidan ozod qilinishi to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etishni kreditorlar yig‘ilishiga tavsiya qilish haqidagi qaror;

qarzdorning yirik bitimlarini hamda amalga oshirilishidan qarzdor manfaatdor bo‘lgan bitimlarini tasdiqlash yoki ularni tasdiqlashni rad etish to‘g‘risidagi qaror.

Kreditorlar qo‘mitasining majlisida masalalarni hal etishda kreditorlar qo‘mitasining har bir a’zosi bir ovozga ega bo‘ladi. Kreditorlar qo‘mitasining a’zosi ovoz berish huquqini boshqa shaxsga o‘tkazishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kreditorlar qo‘mitasining qarorlari kreditorlar qo‘mitasi a’zolari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Kreditorlar qo‘mitasi majlislarida qarzdor xodimlarining vakili, sud boshqaruvchisi, qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) yoki qarzdor molmulki egasining vakili ovoz berish huquqisiz ishtirok etishi mumkin.

Sharhlanayotgan modda kreditorlar qo‘mitasining maqomi va vakolatlarini belgilaydi. Kreditorlar qo‘mitasi kreditorlarning maxsus organi bo‘lib, u to‘lovga qobiliyatsizlik huquqi subyekti (fuqarolik huquqi subyekti bo‘lmagan holda) hisoblanadi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismi kreditorlar qo‘mitasining ikkita asosiy vazifasini belgilaydi: birinchidan, u kreditorlarning manfaatlarini ifodalaydi, ikkinchidan, sud boshqaruvchilarining harakatlari ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida «vakillik va nazorat» tamoyilini amalga oshiradi. Kreditorlar yig‘ilishi yuzlab kreditorlardan iborat bo‘lishi mumkinligi sababli qo‘mita tezkor va kundalik nazoratni amalga oshiruvchi ixcham organ sifatida ishlaydi:

1) *manfaatlarni ifoda etish (vakillik)*. Kreditorlar qo‘mitasi yig‘ilish nomidan ish yuritadi. Uning asosiy vazifasi barcha kreditorlarning (ham yirik, ham kichik) manfaatlari muvozanatini saqlash va ularni sud hamda sud boshqaruvchisi oldida ifodalashdir;

2) *sud boshqaruvchisi faoliyati ustidan nazorat*. Bu qo‘mitaning eng muhim vakolatidir. Nazorat quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: hisobotlarni eshitish – sud bosh-

qaruvchisidan amalga oshirilgan ishlar va xarajatlar to‘g‘risida ma’lumot talab etish, harakatlarni tahlil qilish – sud boshqaruvchisi tomonidan aktivlarni sotish, shartnomalarni bekor qilish yoki xarajatlarni amalga oshirish qonuniyligini tekshirish, harakatsizlikka qarshi chora – agar boshqaruvchi aktivlarni qidirish yoki qarzlarni undirishda sustkashlik qilsa, qo‘mita bu haqida sudga shikoyat qilishga haqli.

2. Kreditorlar qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risidagi qaror kreditorlar yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi, uning tarkibiga kreditorlar yig‘ilishi tomonidan belgilanadigan miqdorda kreditorlarning vakillari kiritiladi.

Ushbu norma qo‘mita a’zolari sonini qat’iy belgilamasdan, uni hal qilishni kreditorlar yig‘ilishining ixtiyoriga qoldiradi. Bu esa har bir muayyan to‘lovga qobiliyatsizlik ishining murakkabligi va kreditorlar sonidan kelib chiqib yondashish imkonini beradi.

3. Ushbu normaga muvofiq kreditorlar qo‘mitasi kreditorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan kreditorlar soni yigirma nafar va undan ortiq bo‘lgan taqdirda tuziladi. Biroq bu shuncha miqdordagi kreditorlar mavjud bo‘lganda kreditorlar qo‘mitasini saylash majburiyligini anglatmaydi. Har bir aniq holatda kreditorlar yig‘ilishi kreditorlar qo‘mitasini tuzish yoki tuzmaslik to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Agar kreditorlar soni yigirmatadan kam bo‘lsa va kreditorlar yig‘ilishi tomonidan kreditorlar qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilinmagan bo‘lsa, kreditorlar qo‘mitasining vazifalarini kreditorlar yig‘ilishi bajarishi mumkin, bu haqida kreditorlar yig‘ilishida qaror qabul qilinadi.

4. Ushbu normaga muvofiq sud boshqaruvchilarining harakatlari ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida kreditorlar qo‘mitasi sud boshqaruvchisidan vaqti-vaqti bilan qarzdor korxonaning moliyaviy ahvoli, o‘zi amalga oshirayotgan harakatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etishni talab qilishi mumkin; sud boshqaruvchisining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari (ular mavjud bo‘lgan taqdirda) ustidan sudga shikoyat berish huquqiga ega.

Ushbu norma kreditorlar qo‘mitasiga sud boshqaruvchisining faoliyati ustidan real nazorat o‘rnatish va jarayonda faol ishtirok etish uchun huquqiy dastaklar beradi.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismi kreditorlar qo‘mitasi o‘z vazifalarini amalga oshirish jarayonida ro‘yobga chiqarishi mumkin bo‘lgan huquqlarning taxminiy ro‘yxatini o‘z ichiga oladi: a) kreditorlar qo‘mitasi sud boshqaruvchisidan kreditorlarning umumiy yig‘ilishini chaqirishni talab qilishga haqli; b) kreditorlar qo‘mitasi sud boshqaruvchisini to‘g‘ridan to‘g‘ri vazifasidan ozod qilolmaydi, lekin uning faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlab, kreditorlar yig‘ilishiga uni almashtirish haqida professional xulosa (tavsiya) beradi.

Kreditorlar yig‘ilishi tomonidan sud boshqaruvchisining tayinlanishi, almashtirilishi yoki vazifasidan ozod qilinishi to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etishni tavsiya qilish kreditorlar yig‘ilishida qabul qilinishi mumkin bo‘lgan muhim qarorlardan biri bo‘lib, u to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonidagi boshqaruv samaradorligi va adolatliligini ta’minlashga qaratilgan.

Kreditorlar qo‘mitasi sud boshqaruvchisining faoliyatidan norozi bo‘lganda yoki unga nisbatan ishonchsizlik bildirilganda uni almashtirish, vazifasidan ozod qilish, yangi nomzodni tayinlash masalalari yuzasidan sudga iltimosnoma kiritish bo‘yicha

kreditorlar yig‘ilishiga tavsiya berishi mumkin. Ushbu masala kreditorlar yig‘ilishida muhokama qilinadi va ovoz berish orqali qaror qabul qilinadi. Odatda qarzdorning qarz miqdoriga mutanosib ravishda ovoz beriladi va ovozlarning katta qismi bilan qaror qabul qilinadi.

Qarorda sud boshqaruvchisining nomi va lavozimi, unga nisbatan qanday chora ko‘rish taklif etilayotgani (tayinlash, almashtirish, ozod qilish) aks ettiriladi, shuningdek, bu taklifning asoslantirilishi (masalan, faoliyatdagi kamchiliklar, manfaatlar to‘qnashuvi, ishonchsizlik va h.k.) lozim va agar yangi nomzodlar bo‘lsa, bu haqida qarorda takliflar ko‘rsatiladi. Sudga iltimosnoma kiritish uchun vakolat berilgan shaxs (masalan, kreditorlar yig‘ilishi raisi yoki tashabbuskor kreditor) ko‘rsatiladi.

Qarorning ahamiyati to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonini shaffof va samarali olib borish, sud boshqaruvchisining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish, kreditorlar manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi.

Sud boshqaruvchisini almashtirish yoki vazifasidan ozod qilish to‘g‘risida sudga murojaat etish bo‘yicha kreditorlar yig‘ilishida qabul qilinadigan qaror kreditorlar tomonidan boshqaruvga ta’sir ko‘rsatish mexanizmi bo‘lib, u to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida adolat va manfaatlar muvozanatini ta’minlashga xizmat qiladi;

Kreditorlarning umumiy yig‘ilishi chaqirilib, o‘tkazilgan taqdirda qo‘mita boshqa sud boshqaruvchisini almashtirish, vazifasidan ozod qilish yoki yangi tayinlash to‘g‘risida iltimosnoma bilan sudga murojaat etish zarurligi to‘g‘risida qaror qabul qilishi (va ushbu yig‘ilishda barcha kreditorlarga tavsiya etishi) mumkin. Kreditorlar qo‘mitasi sud boshqaruvchisining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat bilan sudga murojaat etish huquqiga ega bo‘lganligi sababli, bir vaqtning o‘zida qo‘mita sud boshqaruvchisini shu munosabat bilan ozod qilishni ham so‘rashi mumkin; yirik va manfaatdor bitimlarni nazorat qilish kreditorlar qo‘mitasining eng muhim «aktivlarni himoya qilish» vakolatidir. Qarzdorning mulkini sotish yoki yirik shartnomalar tuzishda sud boshqaruvchisi qo‘mitaning roziligini olishi shart.

6. Ushbu normada ovoz berish masalalari aks ettirilgan bo‘lib, unga ko‘ra: kreditorlar qo‘mitasining har bir ishtirokchisi bir ovozga ega bo‘ladi; kreditorlar qo‘mitasi a’zosi tomonidan ovoz berish huquqini boshqa shaxsga o‘tkazish taqiqlanadi.

Kreditorlar yig‘ilishi muayyan shaxsni uning shaxsiy va kasbiy fazilatlariga ishonib qo‘mita a’zoligiga saylagan. Shu sababli ushbu mas’uliyatni boshqa shaxsga o‘tkazish yig‘ilish irodasiga zid keladi. Qayd etish kerakki, bu qo‘mita a’zosining vakili (advokati) majlisda qatnasha olmaydi degani emas, balki aynan ovoz berish jarayonida a’zoning o‘zi ishtirok etishi shartligini anglatadi.

7. Ushbu norma bo‘yicha qarorlar qo‘mita ishtirokchilari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Qonun qo‘mita majlislarida kvorumga hech qanday talablar qo‘ymaydi, ammo moddaning mazmunidan kelib chiqadiki, majlisda hozir bo‘lganlarning emas, balki qo‘mitaning barcha a’zolari sonidan ko‘pchilikning roziligi talab qilinadi.

Ushbu norma qo‘mita majlislarida ovoz berish usuli, xususan, ovoz berish so‘rov yo‘li bilan o‘tkazilishi mumkinmi degan savolga javob bermaydi. Maxsus tartibga so-

lish yo‘qligi sababli biz bu savolga ijobiy javob beramiz, biroq barcha masalalar faqat qo‘mita majlislarida hal qilinishini (ovoz berilishini) belgilash maqsadga muvofiqdir.

8. Ushbu norma qo‘mita majlisida qarzdor xodimlarining, muassislarining (ishtirokchilarining) yoki mol-mulk egasining vakillari, shuningdek, sud boshqaruvchisi ishtirok etish huquqiga egaligini belgilaydi. Biroq mazkur shaxslar biron-bir qaror qabul qilishda ovoz berish huquqiga ega emas.

Ovoz berish huquqisiz ishtirok etuvchi subyektlar: *qarzdor xodimlarining vakili*: ishchilarning ish haqi va ijtimoiy huquqlari jarayonda zarar ko‘rmasligini nazorat qiladi; s*ud boshqaruvchisi*: qo‘mita a’zolariga amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha tushuntirishlar beradi va ularning savollariga javob qaytaradi; *muassislar (ishtirokchilar) va mulk egasi vakili*: qarzdorning aktivlarini saqlab qolish va tiklash imkoniyatlari bo‘yicha o‘z takliflarini kiritadi.

Ushbu shaxslar qo‘mita majlislarida: kun tartibidagi masalalar bo‘yicha so‘zga chiqishi; o‘z e’tirozlari va takliflarini bayonnomaga kiritishni talab qilishi; ko‘rib chiqilayotgan materiallar bilan tanishishi mumkin. Lekin ularning «qarshi» yoki «yoqlab» bergan fikrlari qaror qabul qilish uchun ovozlar soniga qo‘shilmaydi.

Sud boshqaruvchisi qo‘mita majlisi o‘tkazilishi haqida ushbu shaxslarni ham oldindan xabardor qilishi shart. Agar ular majlisga qo‘yilmasa yoki xabar berilmasa, bu jarayonning oshkoralik prinsipi buzilishi deb baholanishi mumkin. Qarang: Xalqaro sharh. 727-b.

20-modda. Kreditorlar qo‘mitasini saylash

Kreditorlar qo‘mitasining a’zolari kreditorlar yig‘ilishi tomonidan sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv tartib-taomillari va tugatishga doir ish yuritish amalga oshiriladigan davrga saylanadi. Kreditorlar yig‘ilishining qaroriga binoan kreditorlar qo‘mitasi barcha a’zolarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilishi mumkin. Bunday qaror bir vaqtning o‘zida kreditorlar qo‘mitasining barcha a’zolariga nisbatan qabul qilinishi mumkin.

Eng ko‘p ovoz olgan nomzodlar kreditorlar qo‘mitasi tarkibiga saylangan hisoblanadi.

Kreditorlar qo‘mitasining a’zolari o‘z tarkibidan kreditorlar qo‘mitasining raisini saylashi mumkin.

Agar kreditorlar qo‘mitasida a’zolar besh kishidan ortiq bo‘lsa, kreditorlar qo‘mitasi raisi majburiy tarzda saylanadi.

Sharhlanayotgan modda kreditorlar qo‘mitasi a’zolari va raisini saylash, ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish tartibini belgilaydi.

1. Kreditorlar qo‘mitasi sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv va tugatishga doir ish yuritish davrida faoliyat ko‘rsatadi. Kreditorlar yig‘ilishi tomonidan qo‘mitaning barcha a’zolari vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan

taqdirda, bunday qaror faqat kreditorlar qo‘mitasining barcha a’zolariga nisbatan bir vaqtning o‘zida qabul qilinishi mumkin.

Qo‘mita a’zolari kalendar muddatga (masalan, bir yilga) emas, balki tegishli tartib-taomil davriga saylanadi. Bu qo‘mita sanatsiya boshida saylangan bo‘lsa, to sanatsiya tugagunga qadar (yoki keyingi tartib-taomilga o‘tilgunga qadar) o‘z vakolatlarini saqlab qoladi deganidir.

Qonunning 89-moddasida kreditorlar qo‘mitasini saylash kuzatuv davrida amalga oshirilishi mumkinligi ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, amalda faoliyat ko‘rsatish, o‘z vakolatlarini amalga oshirish keyingi to‘lovga qobiliyatsizlik taomillari davrida qo‘mita tomonidan amalga oshiriladi, chunki kuzatuv taomilining asosiy maqsadi faqat moliyaviy tahlil o‘tkazish va qarzdor mol-mulkining saqlanishini ta’minlash hisoblanadi.

2. Ushbu normaga muvofiq eng ko‘p ovoz olgan nomzodlar kreditorlar qo‘mitasi tarkibiga saylangan hisoblanadi. Saylashning ikki usuli – bitta nomzod bo‘yicha yoki umumiy ro‘yxat bo‘yicha bo‘lganligi sababli, ovoz berish usuli tanlangandan so‘ng, har bir kreditor ovoz berish yo‘li bilan o‘z fikrini bildiradi.

3. Ushbu norma mazmunidan kelib chiqadiki, qo‘mita raisini saylash majburiy emas, chunki uchinchi qismda «kreditorlar qo‘mitasi a’zolari o‘z tarkibidan kreditorlar qo‘mitasi raisini saylashlari mumkin» deb belgilangan. Biroq agar u saylanmasa, qo‘mita ish reglamentida qo‘mita yig‘ilishi bayonnomalarini kim imzolashi, ya’ni kreditorlar qo‘mitasi yig‘ilishi raisini saylash lozimligi belgilab qo‘yilishi kerak. Bunday rais mavjud bo‘lgan taqdirda bayonnomalarni aynan u imzolaydi.

4. Ushbu normada agar qo‘mita a’zolari beshtadan ortiq bo‘lsa, raisni saylash qo‘mita faoliyatining majburiy sharti ekanligi ko‘rsatilgan. Qonun chiqaruvchi bu yerda ixtiyoriylikka yo‘l qo‘ymaydi. Agar qo‘mita 5 nafardan ko‘p bo‘lsa, birinchi qo‘mita majlisida rais saylanishi shart. Rais saylanmagan qo‘mitaning keyingi harakatlari va qarorlari protsessual jihatdan nizoli bo‘lib qolishi mumkin.

21-modda. Manfaatdor shaxslar

Qarzdor yuridik shaxsga nisbatan manfaatdor shaxslar quyidagilardan iborat:

qonunchilikka muvofiq qarzdorga nisbatan bosh yoki tobe bo‘lgan yuridik shaxs;

qarzdorning rahbari, shuningdek, kuzatuv kengashi, kollegial ijroiya organi tarkibiga kiruvchi shaxslar, bosh buxgalter (buxgalter), shu jumladan, ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilmasidan oldingi bir yil davomida bekor qilingan hollarda ham;

yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdorning mol-mulki egasi.

Ushbu Qonunda jismoniy shaxsga, shuningdek, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan manfaatdor shaxs deganda uning xotini (eri), nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan o‘zidan oldingi va keyingi qarindoshlari, opa-singillari, aka-ukalari hamda ularning nasl-nasab shajarasi bo‘yicha o‘zidan keyingi qarindoshlari, xotinining (erining) ota-onasi, opa-singillari va aka-ukalari tushuniladi.

Sud boshqaruvchilariga, kreditorlarga nisbatan manfaatdor shaxslar ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlariga muvofiq aniqlanadi.

Sharhlanayotgan modda qarzdorga, kreditorlarga va sud boshqaruvchilariga nisbatan manfaatdor shaxslar hisoblangan subyektlarni belgilaydi.

1. Quyidagilar qarzdor yuridik shaxsga nisbatan manfaatdor shaxslar deb e’tirof etilishi mumkin: 1) qonun hujjatlariga muvofiq qarzdorga nisbatan bosh yoki tobe (qaram) bo‘lgan yuridik shaxs. FKning 68-moddasiga muvofiq, agar boshqa ishtirok etuvchi jamiyat (bosh jamiyat) uning ovoz beruvchi aksiyalarining yigirma foizidan ko‘prog‘iga ega bo‘lsa, xo‘jalik jamiyati qaram deb e’tirof etiladi; 2) qarzdorning rahbari, shuningdek, kuzatuv kengashining, kollegial ijroiya organining tarkibiga kiruvchi shaxslar, bosh buxgalter (buxgalter), shu jumladan, u bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan hollarda ham to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgunga qadar, ya’ni sud tomonidan tegishli ariza qabul qilingunga qadar bir yil mobaynida; 3) yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari).

Institutsional manfaatdorlik. Bosh yoki tobe yuridik shaxslar: agar qarzdor korxona boshqa bir kompaniyaning shu’basi bo‘lsa yoki, aksincha, ular o‘zaro manfaatdor hisoblanadi. Bu aktivlarni bir kompaniyadan ikkinchisiga «olib qochish» sxemalarini fosh etish uchun xizmat qiladi.

Rahbariyat va mas’ul xodimlar. Qonun chiqaruvchi manfaatdor shaxslar doirasiga nafaqat amaldagi, balki oxirgi bir yil davomida ishdan bo‘shagan rahbarlar va buxgalterlarni ham kiritadi. Ko‘pincha korxona to‘lovga qobiliyatsizlik yoqasiga kelganda, rahbariyat javobgarlikdan qochish uchun ishdan bo‘shaydi. 1 yillik muddat ular tomonidan imzolangan shubhali bitimlarni nizolashish imkonini beradi.

Mulkdorlar va muassislar. Ta’sischilar korxonaning ichki holatini eng yaxshi biladigan shaxslardir. Ularning manfaatdor deb topilishi ular tomonidan kiritilgan «qarz»-larni qanoatlantirish navbatini pasaytirish uchun asos bo‘ladi.

Sud to‘lovga qobiliyatsizlik ishini ko‘rishda quyidagilarga e’tibor qaratishi lozim: sud boshqaruvchisini tayinlashda: agar nomzod qarzdorning manfaatdor shaxsi bo‘lsa (masalan, sobiq buxgalteri bo‘lsa), ushbu ishga tayinlanishi mumkin emas; bitimlarni bekor qilishda: manfaatdor shaxslar bilan tuzilgan bitimlar boshqa kreditorlarga nisbatan imtiyozli xarakterda bo‘lsa, ular belgilangan tartibda bekor qilinadi; ovoz berishda: ayrim hollarda manfaatdor kreditorlarning ovoz berish huquqi cheklanishi mumkin.

Manfaatdor shaxslarning aniq ro‘yxati korxonani sun’iy ravishda bankrot qilish va aktivlarni «o‘zniki qilish» harakatlariga qarshi huquqiy to‘siqdir.

Manfaatdor shaxslar bilan tuziladigan bitimlar alohida talablarga rioya etish majburiyatini keltirib chiqaradi (masalan, Qonunning 19-moddasi beshinchi qismi, 96-moddasi beshinchi qismi, 118-moddasi ikkinchi va to‘rtinchi qismlari, 64-moddasi, 162-moddasi uchinchi qismi), ular sud boshqaruvchisi etib tayinlanishi mumkin emas (Qonunning 22-moddasi uchinchi qismi), qarzdorga yoki sud boshqaruvchisiga nisbatan manfaatdor shaxslar kimoshdi savdosining tashkilotchisi sifatida ishtirok etishi mumkin emas (Qonunning 126-moddasi o‘n ikkinchi qismi, 151-moddasi oltinchi qismi).

Ushbu normaning huquqiy maqsadi qarzdor bilan yaqin aloqada bo‘lgan shaxslarning jarayonga nohalol ta’sir ko‘rsatishi, aktivlarni yashirishi yoki «soxta» kreditorlik qarzlarini yaratishining oldini olishdir.

2. Quyidagilar qarzdor jismoniy shaxsga, shu jumladan, qarzdor YTTga nisbatan manfaatdor shaxslar deb e’tirof etilishi mumkin: uning xotini (eri), nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan qarindoshlari, opa-singillari, aka-ukalari va ularning nasl-nasab shajarasi bo‘yicha qarindoshlari, erining (xotinining) ota-onasi, opa-singillari va aka-ukalari.

Sud jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi ishida quyidagilarga e’tibor qaratishi kerak: bitimlarni nizolashish: agar qarzdor to‘lovga qobiliyatsizlikdan oldin (odatda 1–3 yil ichida) yuqorida qayd etilgan shaxslar bilan uy-joy, avtomobil yoki boshqa aktivni sotish/hadya qilish bitimini tuzgan bo‘lsa, bunday bitim prezumpsiya bo‘yicha shubhali hisoblanadi; isbotlash majburiyati: manfaatdor shaxs bilan tuzilgan bitimda «halollik»ni isbotlash majburiyati kreditorga emas, balki qarzdor va o‘sha qarindoshga yuklatiladi. Ular bitim bozor narxida tuzilganini va maqsad kreditorlardan mulkni yashirish bo‘lmaganini isbotlashlari kerak.

Sud boshqaruvchisi qarzdorning mol-mulkini xatlovdan o‘tkazishda faqat uning nomidagi mulkni emas, balki yaqin qarindoshlariga o‘tgan mulklar tarixini ham tekshirishi lozim.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida sud boshqaruvchisi yoki kreditorga nisbatan manfaatdor shaxslar kimlar ekanligi masalasini hal etishda birinchi va ikkinchi qismlarda belgilangan qoidalardan kelib chiqish lozim. Masalan, sud boshqaruvchisiga nisbatan manfaatdor shaxslar sifatida sharhlanayotgan moddaning ikkinchi qismida sanab o‘tilgan shaxslar bo‘lishi mumkin, kreditorlarga nisbatan esa, agar kreditor yuridik shaxs bo‘lsa, birinchi qism qoidalari, agar kreditor jismoniy shaxs bo‘lsa, sharhlanayotgan moddaning ikkinchi qismi qoidalari qo‘llaniladi.

Qonunning 22-moddasiga ko‘ra, manfaatdor shaxslar sud boshqaruvchisi etib tayinlanishi mumkin emas. Misol uchun, agar bank (kreditor) o‘zining sobiq yuristini yoki shu’ba korxonasi xodimini sud boshqaruvchisi etib tayinlashni taklif qilsa, bu manfaatdorlik hisoblanadi va sud bu nomzodni rad etishi zarur.

Sud nomzodni tasdiqlashdan oldin uning nafaqat qarzdor bilan, balki yirik kreditorlar bilan ham aloqasi yo‘qligini tekshirishi lozim. Agar jarayon davomida boshqaruvchining qaysidir kreditor bilan yaqin qarindoshligi yoki biznes aloqasi aniqlansa, bu uni vazifasidan ozod qilish uchun mustahkam huquqiy asos bo‘ladi.

Bu norma «manfaatlar to‘qnashuvi» institutining muhim qismidir. Sud boshqaruvchisi – barcha kreditorlarning manfaatlarini teng himoya qiluvchi xolis shaxs. Agar u

biror kreditorga bog‘liq bo‘lsa, u mablag‘larni taqsimlashda yoki bitimlarni nizolashishda o‘sha kreditorga imtiyoz berishi xavfi yuzaga keladi.

22-modda. Sud boshqaruvchilari

Oliy ma’lumotga hamda kamida ikki yillik ish stajiga ega bo‘lgan, shuningdek, vakolatli davlat organida attestatsiyadan o‘tgan shaxslar sud boshqaruvchilari etib tayinlanishi mumkin.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan talablarga javob beradigan, fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini yuritishga ixtisoslashuvi bo‘yicha litsenziyaga ega bo‘lgan advokat ham sud boshqaruvchisi bo‘lishi mumkin.

Sud boshqaruvchilari etib quyidagilar tayinlanishi mumkin emas:

qarzdorga yoki kreditorlarga nisbatan manfaatdor shaxslar;

sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar;

sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar;

o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili joriy etilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki jismoniy shaxslar;

ilgari sud boshqaruvchisi vazifasini bajarayotganda qarzdorga, kreditorlarga zarar yetkazgan va bu zararning o‘rnini qoplamagan shaxslar;

vakolatli davlat organi qarori bilan sud boshqaruvchisi attestatining amal qilishi tugatilgan (bekor qilingan) va (yoki) vaqtincha to‘xtatib turilgan (sud boshqaruvchisi attestatining amal qilish muddati vaqtincha to‘xtatib turilgan muddatga) shaxslar;

o‘ziga nisbatan boshqa shaxslarning ishlarini va (yoki) mol-mulkini boshqarish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishga cheklov belgilangan shaxslar (bunday faoliyat bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum etilgan shaxslar).

Sud ushbu moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan asoslarga muvofiq to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxslar taqdim etgan dalillar bo‘lgan taqdirda, sud boshqaruvchiligiga tavsiya etilgan nomzodni tayinlashni rad etadi yoki sud boshqaruvchisini vazifalarini bajarishdan ozod etadi.

Sud boshqaruvchisi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxslarga zarar yetkazilishi hodisasi uchun o‘z javobgarligini sud tomonidan sud boshqaruvchiligiga tayinlangan sanadan e’tiboran o‘n kun ichida sug‘urtalashi kerak.

Ushbu moddaning beshinchi qismida ko‘rsatilgan talablar to‘lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartibini amalga oshirayotgan sud boshqaruvchilariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Kreditorlar yig‘ilishi sud boshqaruvchisidan qarzdorning mol-mulkini sug‘urta qilish shartnomasini tuzishni talab qilishga haqli.

Sharhlanayotgan modda sud boshqaruvchisi etib tayinlanishi mumkin bo‘lgan shaxslar doirasini, ularni tayinlashni rad etish asoslarini, sud boshqaruvchisining o‘z javobgarligini va qarzdorning mol-mulkini sug‘urta qilish majburiyatini belgilaydi.

1. Sud boshqaruvchisi to‘lovga qobiliyatsizlikning tartib-taomillarida muvaqqat boshqaruvchi, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi, tashqi boshqaruvchi, tugatish boshqaruvchisi, moliyaviy boshqaruvchi ishtirok etadi. Har qanday sud boshqaruvchisini tayinlash uchun nomzod muayyan talablarga javob berishi kerak.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrdagi 838-son qaroriga 4-ilova bilan tasdiqlangan *Sud boshqaruvchilari malaka attestatini berish tartibi to‘g‘risidagi Nizom* sud boshqaruvchilari talabgorlariga sud boshqaruvchisi attestatini berish uchun malaka imtihonini o‘tkazish va malaka attestatini berish xizmatini ko‘rsatish tartibini belgilaydi. Ushbu Nizomga muvofiq, iqtisodiy sud to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilidan kelib chiqib quyidagi turdagi sud boshqaruvchilarini tayinlaydi: kuzatuv tartib-taomilini amalga oshirish uchun – muvaqqat boshqaruvchi; sud sanatsiyasi tartib-taomilini amalga oshirish uchun – sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi; tashqi boshqaruv tartib-taomilini amalga oshirish uchun – tashqi boshqaruvchi; tugatish ishlari tartib-taomilini amalga oshirish uchun – tugatish boshqaruvchisi; jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va mol-mulkini sotish tartib-taomilini amalga oshirish uchun – moliyaviy boshqaruvchi.

Sud boshqaruvchisi attestatiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi sud boshqaruvchisi hisoblanadi va u iqtisodiy sud tomonidan sud boshqaruvchilari faoliyatini reyting baholash va sud boshqaruvchilari attestat toifasi hisobga olingan holda:

kuzatuv va jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish yoki mol-mulkini sotish tartib-taomilini joriy etishda kreditor (kreditorlar) tomonidan taklif etilgan nomzodlar orasidan tayinlanadi. Muvaqqat boshqaruvchi nomzodi kreditor (kreditorlar) tomonidan taklif etilmagan taqdirda, u Agentlik yoki uning hududiy boshqarmasi yoxud vakolatli tashkilot yoki uning hududiy bo‘linmasi tomonidan taklif etilgan nomzodlar orasidan tayinlanadi;

sud sanatsiyasi tartib-taomilini amalga oshirishda kreditorlar yig‘ilishi yoki qarzdorning majburiyatlari bo‘yicha ta’minot bergan shaxslar yoxud Agentlik yoki uning hududiy boshqarmasi tomonidan taklif etilgan nomzodlar orasidan tayinlanadi;

tashqi boshqaruv va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomillarini amalga oshirishda kreditorlar yig‘ilishi yoki Agentlik yoxud uning hududiy boshqarmasi tomonidan taklif etilgan nomzodlar orasidan tayinlanadi;

ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarda to‘lovga qobiliyatsizlikning har qanday tartib-taomillarini amalga oshirishda Agentlik yoki uning hududiy boshqarmasi tomonidan taklif etilgan nomzodlar orasidan tayinlanadi.

Sud boshqaruvchisi quyidagi *asosiy malaka talablariga* mos kelishi zarur: oliy ma’lumotli bo‘lishi; iqtisod, moliya, buxgalteriya hisobi yoki audit, soliq maslahatchisi yoxud huquq sohasida kamida ikki yil mehnat stajiga ega bo‘lishi; vakolatli tashkilotda malaka imtihonidan o‘tishi.

Mazkur asosiy talablardan tashqari sud boshqaruvchilariga quyidagi qo‘shimcha malaka talablari qo‘yiladi:

tashqi boshqaruv tartib-taomilini amalga oshiruvchilarga – ikkinchi toifadagi sud boshqaruvchisi sifatida kamida ikki marta sud sanatsiyasi va (yoki) ikki yil tugatishga doir ishlarni yuritish tartib-taomilini amalga oshirishda sud boshqaruvchisi sifatida mehnat stajiga ega bo‘lishi va sud boshqaruvchilari reytingida yil davomida yuqori darajadan tushmagan bo‘lishi yoki ikkinchi toifada sud boshqaruvchisi sifatida o‘n ikki oydan kam bo‘lmagan mehnat stajiga ega bo‘lishi hamda avval rahbarlik (davlat boshqaruvi yoki mahalliy hokimlik yoxud sud organlarida rahbar va rahbar o‘rinbosari, xo‘jalik jamiyatlarida rahbar va boshqalar) lavozimida besh yildan kam bo‘lmagan mehnat stajiga ega bo‘lishi va sud boshqaruvchilari reytingida ketma-ket uch chorakda kamida yuqori darajani qayd etgan bo‘lishi;

sud sanatsiyasi tartib-taomilini amalga oshiruvchilarga – uchinchi toifadagi sud boshqaruvchisi sifatida kamida yigirma to‘rt oydan kam bo‘lmagan mehnat stajiga ega bo‘lishi va sud boshqaruvchilari reytingida yil davomida yetarli darajadan tushmagan bo‘lishi yoki uchinchi toifada sud boshqaruvchisi sifatida o‘n ikki oydan kam bo‘lmagan ish stajiga ega bo‘lishi hamda avval rahbarlik (davlat boshqaruvi yoki mahalliy hokimlik yoxud sud organlarida rahbar va rahbar o‘rinbosari, xo‘jalik jamiyatlarida rahbar va boshqalar) lavozimida yigirma to‘rt oydan kam bo‘lmagan mehnat stajiga ega bo‘lishi va sud boshqaruvchilari reytingida ketma-ket uch chorakda kamida yetarli darajani qayd etgan bo‘lishi;

kuzatuv va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomillarini amalga oshiruvchilarga – to‘rtinchi toifadagi sud boshqaruvchisi sifatida yigirma to‘rt oydan kam bo‘lmagan mehnat stajiga ega bo‘lishi va sud boshqaruvchilari reytingida yil davomida o‘rta darajadan tushmagan bo‘lishi yoki to‘rtinchi toifadagi sud boshqaruvchisi sifatida kamida o‘n ikki oydan kam bo‘lmagan mehnat stajiga ega bo‘lishi hamda avval rahbarlik (respublika darajasidagi tashkilotlarda bo‘lim boshlig‘i va boshqalar) lavozimlarida yigirma to‘rt oydan kam bo‘lmagan mehnat stajiga ega bo‘lishi va sud boshqaruvchilari reytingida ketma-ket uch chorakda kamida o‘rta darajani qayd etgan bo‘lishi;

to‘lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartib-taomilini hamda jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va mol-mulkini sotish tartib-taomilini amalga oshiruvchilarga – iqtisod, moliya, buxgalteriya hisobi yoki audit, soliq maslahatchisi yoxud huquq sohasida ikki yildan kam bo‘lmagan mehnat stajiga ega bo‘lish.

Sud boshqaruvchisi: qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi; buxgalteriya hisobi, mol-mulkni baholash va menejmentga oid bilimlar asosiga ega bo‘lishi; O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslarini bilishi; qarzdorni moliyaviy sog‘lomlashtirish va kreditorlar talablarini mutanosib ravishda qondirish yechimlarini topishi; to‘lovga qobiliyatsizlik sohasida professional bilimlarga ega bo‘lishi, ularni doimiy ravishda takomillashtirishi; yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishi – topshirilgan ishga vijdonan munosabatda bo‘lishi, o‘z faoliyatini amalga oshirishda ijrochi, tashabbuskor, intizomli, bosiq, emotsional va ruhiy barqaror bo‘lishi zarur.

Bundan tashqari, shuni nazarda tutish kerakki, sud boshqaruvchisi etib faqat jismoniy shaxs tayinlanishi mumkin. Ushbu moddada sud boshqaruvchisi O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lishi lozimligi aniq ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, yuqoridagi Nizomda sud boshqaruvchisi vakolatli tashkilot tomonidan sud boshqaruvchisi attestati berilgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi ekanligi belgilangan.

Oldingi taomilda sud boshqaruvchisi vazifasini bajargan shaxs keyingi taomilda ham boshqaruvchi etib tayinlanishi mumkin (tegishli attestat mavjud bo‘lgan taqdirda). Shu bilan birga, har safar saylash va tayinlash jarayonidan o‘tish kerak.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda sud boshqaruvchilari to‘lovga qobiliyatsizlikning samarali tizimida markaziy o‘rinni egallaydi. Ular ishonchli mavqega ega bo‘lib, kreditorlar oldida eng muhim majburiyatlarni bajaradi va to‘lovga qobiliyatsizlikni tezkor, oldindan aytib berish mumkin bo‘lgan va tartibli boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun sud boshqaruvchilarining halol va professional, yuqori darajadagi malaka va vijdon bilan ish yuritishini ta’minlash, ularning faoliyatini tegishli darajada tartibga solish muhim ahamiyatga ega.

Shunga ko‘ra to‘lovga qobiliyatsizlikning samarali tizimi ularning faoliyatini tartibga solishi va muayyan asosiy tamoyillarga amal qilishi kerak. Rasmiy talablar, ularning kasbiy malakasi va tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar, barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlari muvozanatini ta’minlaydigan tarzda ularni tayinlashga qo‘yiladigan talablar, ularni lavozimidan chetlashtirish, iste’foga chiqarish va almashtirish qoidalari, samarali va o‘z vaqtida ish yuritishni qo‘llab-quvvatlash uchun kasbiy xulq-atvor standartlari, sud, kreditorlar, qarzdor va tartibga soluvchi organlar uchun to‘liq shaffoflikni ta’minlash uchun hisobot talablari, nazorat, nazorat va intizom, adolatli va oqilona mukofot va xarajatlarni to‘lash (demak, yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish), axloq kodekslarini qabul qilishga ko‘maklashish, sug‘urtani qo‘llab-quvvatlash va adolatli shartlarda javobgarlikdan ozod qilish shular jumlasidandir.

Sud boshqaruvchisi to‘lovga qobiliyatsizlikning barcha taomillarida muvaqqat, sanatsiya qiluvchi, tashqi, tugatish va moliyaviy boshqaruvchi sifatida ish yuritadi. Har qanday sud boshqaruvchisini tayinlash uchun nomzod muayyan talablarga javob berishi kerak, ularni shartli ravishda ijobiy (mavjud bo‘lishi kerak) va salbiy (mavjud bo‘lmasligi kerak) deb tasniflash mumkin. Ijobiy talablar ushbu moddaning birinchi qismida, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-sentyabrdagi 765-son qarori bilan tasdiqlangan *Sud boshqaruvchisi attestatini olish uchun talabgorlarni o‘qitish va sud boshqaruvchilari malakasini oshirish tartibi to‘g‘risida Nizomda* sud boshqaruvchisi attestatini olish uchun talabgorlarni o‘qitish va sud boshqaruvchilari malakasini oshirishni tashkil etish tartibi belgilangan.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida belgilanishicha, fuqarolik va sud ishlarini yuritish ixtisosligi bo‘yicha litsenziyaga ega bo‘lgan advokat birinchi qismda ko‘rsatilgan talablarga javob bersa, sud boshqaruvchisi bo‘lishi mumkin. Advokat oliy ma’lumotga, kamida ikki yillik ish stajiga ega bo‘lishi va sud boshqaruvchisi sifatida attestatsiyadan o‘tgan bo‘lishi shart.

Sud boshqaruvchilari malaka attestatini berish tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 13-bandiga ko‘ra, uch yildan kam bo‘lmagan uzluksiz ish stajiga ega «fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini yuritish» ixtisoslashuvidagi advokatlar sud boshqaruvchilarini tayyorlash bo‘yicha o‘quv kursida o‘qimasdan, imtihonga kirishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

17. Qonun 22-moddasining birinchi va ikkinchi qismlariga muvofiq, oliy ma’lumotga hamda kamida ikki yillik ish stajiga ega bo‘lgan va vakolatli davlat organida attestatsiyadan o‘tgan shaxslar, shuningdek, ushbu talablarga javob beradigan hamda fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini yuritishga ixtisoslashuvi bo‘yicha litsenziyaga ega bo‘lgan advokatlar sud boshqaruvchilari etib tayinlanishi mumkin.

Vakolatli davlat organi sud boshqaruvchilarning yagona reyestrini yuritadi va undagi ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga idoralararo ma’lumot almashinuvi asosida elektron tarzda taqdim etadi.

Sud boshqaruvchisini tayinlash masalasini hal etishda sud attestat to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yagona reyestrdan olishi va ish hujjatlariga qo‘shib qo‘yishi lozim.

18. Qarzdorga yoki kreditorlarga nisbatan manfaatdor shaxslar, sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar, o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili joriy etilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki jismoniy shaxslar, ilgari sud boshqaruvchisi vazifasini bajarayotganda qarzdorga, kreditorlarga zarar yetkazgan va bu zararning o‘rnini qoplamagan shaxslar, vakolatli davlat organi qarori bilan sud boshqaruvchisi attestatining amal qilish muddati tugatilgan (bekor qilingan) va (yoki) vaqtincha to‘xtatib turilgan (vaqtincha to‘xtatib turilgan muddatga) shaxslar, o‘ziga nisbatan boshqa shaxslarning ishlarini va (yoki) mol-mulkini boshqarish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishga cheklov belgilangan shaxslar (bunday faoliyat bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum etilgan shaxslar) sud boshqaruvchisi etib tayinlanishi mumkin emas.

Ko‘rsatilgan asoslarga ko‘ra sud boshqaruvchisi lavozimiga tavsiya etilgan nomzodni sud bu vazifaga tayinlashni rad etishi yoki sud boshqaruvchisini o‘z vazifasini bajarishdan ozod etishi lozim.

Sudlarning e’tibori qaratilsinki, qarzdor va kreditorlarga nisbatan manfaatdor shaxslar deganda Qonunning 21-moddasida ko‘rsatilgan shaxslar tushuniladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida shaxsni sud boshqaruvchisi etib tayinlash mumkin bo‘lmaydigan holatlar sanab o‘tilgan:

a) Qonunning 21-moddasi qoidalariga muvofiq, aniqlanadigan shaxsning qarzdorga yoki kreditorlarga nisbatan manfaatdorligi. Mazkur cheklovlar, agar sud boshqaruv-

chisi qarzdor yoki kreditorlarga nisbatan manfaatdor shaxs bo‘lsa, ushbu shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab adolatli va xolisona harakat qilmasligi sababli joriy etilgan (Qonunning 23-moddasi beshinchi qismi);

b) sudlanganlik holati tugallanmaganligi yoki olib tashlanmaganligi. Sudlanganlikning tugallanishi va olib tashlanishi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 78–79-moddalari bilan belgilanadi;

d) sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar ruhiy holati buzilganligi yoki kasalligi tufayli o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan va ularni boshqara olmaydigan fuqarolardir;

e) Qonunning 30-moddasiga muvofiq, to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda quyidagi taomillar qo‘llanilgan qarzdor jismoniy shaxslar: qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish; to‘lovga qobiliyatsiz deb topish va mol-mulkni sotish. Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili qo‘llaniladi;

f) qarzdorga, kreditorlarga yetkazilgan qoplanmagan zararning mavjudligi (Qonunning 25-moddasi ikkinchi qismida qarzdor, kreditorlar sud boshqaruvchisidan uning harakatlari (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli ekanligi ko‘rsatilgan). Shunday qilib, yetkazilgan zararni qoplamagan shaxs sud boshqaruvchisi etib qayta tayinlanishi mumkin emas;

g) boshqa shaxslarning ishlarini va (yoki) mol-mulkini boshqarish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishga doir cheklovning mavjudligi (diskvalifikatsiya). Ushbu norma shaxsning aynan qanday cheklash va qanday lavozimlar bo‘yicha, shuningdek, qanday tartibda cheklanishi aniq belgilanmagan, biroq bunday cheklash faqat mazkur shaxsga rahbarlik lavozimini egallashni yoki xo‘jalik yurituvchi subyektlarni boshqarish bo‘yicha tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishni taqiqlovchi sud hujjati mavjud bo‘lgandagina e’tiborga olinishi mumkin;

h) sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan, shuningdek, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar ishlarni boshqarish bo‘yicha cheklovlar tatbiq etiladigan shaxslar jumlasiga kiradi. Bu cheklovlar sud qarori asosida yoki muayyan huquqbuzarlik sodir etilishi natijasida qo‘yilishi mumkin.

4. Ushbu normada sudning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan taqdim etilgan dalillar mavjud bo‘lgan taqdirda, sharhlanayotgan moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan asoslar bo‘yicha taklif etilgan nomzodni tayinlashni rad etish yoki sud boshqaruvchisini o‘z vazifasini bajarishdan ozod qilish huquqi mustahkamlangan.

Sud boshqaruvchisi nomzodi taklifi bilan sudga murojaat qilgan shaxslar, arizachilar taklif qilinayotgan shaxs to‘g‘risidagi to‘liq axborotni sudga taqdim etishi kerak. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar taklif qilinayotgan shaxsni sud boshqaruvchisi etib tayinlash mumkin emasligi to‘g‘risidagi arizalar bilan sud muhokamasi jarayonida so‘zga chiqishga haqli, bu holda taraflar o‘z vajlarining dalillarini taqdim etishlari kerak. Sud ishlarini yuritish prinsiplaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, sud boshqaruvchisini

vazifasidan ozod qilish yoki almashtirish masalasini sudya o‘z tashabbusi bilan mustaqil hal qilmasligi lozim.

5. Qonun chiqaruvchi ushbu norma orqali sud boshqaruvchisi tomonidan yetkazilgan zararni qoplash muammosini hal etishga harakat qilgan. Sharhlanayotgan moddaning to‘rtinchi qismida sud boshqaruvchisining to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxslarga zarar yetkazilishi hodisasi uchun o‘z javobgarligini u tayinlanganidan keyin o‘n kunlik muddatda sug‘urta to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sug‘urta qilish majburiyati mustahkamlangan.

To‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida sud boshqaruvchisi yirik aktivlarni boshqaradi. Uning xatosi yoki ehtiyotsizligi (masalan, mulkni arzon sotish, soliqlarni kechiktirib to‘lash va h.k.) kreditorlarga katta zarar yetkazishi mumkin. Sug‘urta polisi mana shunday zararlarni qoplash uchun xizmat qiladi.

Qonun chiqaruvchi sud boshqaruvchisi tayinlangan kundan boshlab 10 kunlik qat’iy muddat belgilagan. Bu muddat ichida u sug‘urta kompaniyasi bilan shartnoma tuzishi va sug‘urta polisini olishi shart. Agar sud boshqaruvchisi 10 kun ichida sug‘urta qilmasa, u o‘z vazifalarini bajarishga kirisha olmaydi va bu uni vazifasidan ozod qilish uchun asos bo‘lishi mumkin.

6. To‘lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartibini amalga oshiruvchi sud boshqaruvchilariga (4-toifadagi sud boshqaruvchilari) to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga zarar yetkazilishi hodisasi uchun o‘z javobgarligini sug‘urta qilish majburiyati talab etilmaydi.

Soddalashtirilgan tartib odatda qarzdorning mol-mulki bo‘lmagan yoki yetarli bo‘lmagan hollarda (masalan, hozir bo‘lmagan qarzdorga nisbatan) qo‘llaniladi. Bunday vaziyatda jarayonni tezlashtirish va ortiqcha texnik xarajatlarni (sug‘urta polisi uchun to‘lovlarni) kamaytirish maqsadida ushbu imtiyoz berilgan.

7. Mazkur moddaning yettinchi qismi kreditorlar yig‘ilishiga sud boshqaruvchisidan amaldagi sug‘urta qonunchiligi asosida qarzdorning mol-mulkini sug‘urta qilish shartnomasini tuzishni talab etish huquqini beradi. Bunda bunday sug‘urta kimning hisobidan amalga oshirilishi ko‘rsatilmaydi. Mazkur sug‘urta sud boshqaruvchisining o‘zi hisobidan ham, qarzdorning mol-mulki hisobidan ham amalga oshirilishi mumkin. Bunday shartnomani tuzish muddatini kreditorlarning o‘zlari belgilab, taxminiy sug‘urta summasini ham belgilashlari mumkin. Amaliyotda sug‘urtalanuvchining o‘zi sug‘urtalanishi lozim bo‘lgan mol-mulkning qiymatini belgilaydi va shunga muvofiq sug‘urta to‘lovlari summasini aniqlaydi.

Sug‘urta mukofoti to‘lovlari qarzdorning mol-mulki (mablag‘lari) hisobidan, ya’ni to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni xarajatlari sifatida amalga oshiriladi. Agar korxonada pul bo‘lmasa, kreditorlar o‘zlari mablag‘ ajratib, keyinchalik bu xarajatni birinchi navbatda qoplab olish sharti bilan sug‘urtani moliyalashtirishlari mumkin. Bunda kreditorlar yig‘ilishi shunday qaror qabul qilgan bo‘lsa, sud boshqaruvchisi sug‘urta shartnomasini tuzishga majbur. Qarang: Xalqaro sharh. 728-b.

23-modda. Sud boshqaruvchisining huquqlari va majburiyatlari

Sud boshqaruvchisi:

kreditorlar yig‘ilishini chaqirishga;

ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda kreditorlar qo‘mitasi chaqirilishini talab qilishga;

oldindan davlat boji to‘lamay turib da’vo arizalari va boshqa arizalar bilan sudga murojaat etishga;

ushbu Qonunning 26-moddasiga muvofiq haq olishga;

boshqa shaxslarni ular faoliyatiga qarzdorning mablag‘lari hisobidan haq to‘lagan holda, agar kreditorlar bilan tuzilgan bitimda boshqacha qoida belgilangan bo‘lmasa, shartnoma asosida jalb etishga;

davlat xizmatlaridan, shu jumladan, davlat xizmatlari markazlari orqali ko‘rsatiladigan xizmatlardan oldindan haq to‘lamasdan foydalanishga;

qarzdorning mulki, hisobvaraqlari va depozitlari, shu jumladan, kredit kartalari, elektron balanslari va elektron pul o‘tkazmalari to‘g‘risida jismoniy va yuridik shaxslardan (shu jumladan, kredit tashkilotlaridan) hamda davlat organlaridan bepul axborot olishga;

qarzdor jismoniy shaxsdan uning jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini amalga oshirishga doir faoliyati to‘g‘risidagi axborotni so‘rab olishga;

o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish uchun davlat soliq xizmati va bojxona organlaridan, byudjetdan tashqari jamg‘armalardan, ko‘chmas mulkka oid hujjatlarni ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlardan hamda qarzdor korxona va unga tegishli mol-mulk to‘g‘risida zarur axborotga ega bo‘lgan boshqa vakolatli organlardan axborot olishga;

o‘z vazifalarini bajarishni muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risida sudga ariza berishga haqli.

Sud boshqaruvchisi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Sud boshqaruvchisi:

qarzdorning mol-mulki but saqlanishi yuzasidan choralar ko‘rishi;

kreditorlarning talablari reyestrini shakllantirishi va yuritishi;

qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil qilishi;

qarzdorning moliyaviy ahvoli va (yoki) o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni kreditorning talabiga ko‘ra o‘n kunlik muddatda taqdim etishi;

soxta to‘lovga qobiliyatsizlik, to‘lovga qobiliyatsizlikni yashirish yoki qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelish alomatlarini aniqlashga doir harakatlarni amalga oshirishi va choralar ko‘rishi hamda bunday alomatlar aniqlanganligi haqida kreditorlar yig‘ilishiga, sudga, vakolatli davlat organiga, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishi;

qarzdor jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishi;

qarzdor jismoniy shaxs tomonidan kreditorlarning talablari to‘la hajmda qanoatlantirilishi uchun mablag‘larning o‘z vaqtida to‘liq to‘lanishini nazorat qilishi;

sud hujjatlari bilan o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi shart.

Sud boshqaruvchisining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Sud boshqaruvchisi to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini o‘tkazayotganda qarzdorning va kreditorlarning manfaatlarini ko‘zlab oqilona ish yuritishi shart.

Agar sud boshqaruvchisi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda qarzdorga, kreditorlarga va uchinchi shaxslarga zarar yetkazilgan bo‘lsa, mazkur zarar sud boshqaruvchisidan sud tartibida undirilishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada sud boshqaruvchisining huquq va majburiyatlari belgilangan, shu bilan birga, o‘ziga xos axloqiy tamoyillar ham mustahkamlangan va u vijdonan va oqilona harakat qilishi kerakligi aks ettirilgan.

1. Sud boshqaruvchisi rahbar bilan bir qatorda o‘z nomidan ham, qarzdor nomidan ham mustaqil harakat qilishga haqli, bunda u o‘z nomidan harakat qilgan hollarda huquq va majburiyatlar qarzdorda vujudga keladi. Sud boshqaruvchisi qarzdorning ham, kreditorlarning ham manfaatlarini ko‘zlab harakat qiladi (ushbu moddaning beshinchi qismi).

Bundan kelib chiqadiki, sud boshqaruvchisi to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish zarurati bilan belgilanadigan alohida maqomga ega bo‘lgan alohida huquq subyekti hisoblanadi. Sud boshqaruvchisining to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini amalga oshirish chog‘ida amalga oshirishi mumkin bo‘lgan huquqlari sanab o‘tilgan.

Sud boshqaruvchisi Qonunda nazarda tutilgan hollarda kreditorlarning talabiga ko‘ra kreditorlar qo‘mitasini chaqirishi shart. Bu kreditorlarni vaziyatdan xabardor qilish, to‘lovga qobiliyatsiz qarzdorning muhim masalalarini muhokama qilish va birgalikda qaror qabul qilish uchun amalga oshiriladi.

Sud boshqaruvchisi qonunda belgilangan hollarda oldindan davlat boji to‘lamay turib da’vo arizalari va boshqa arizalar bilan sudga murojaat etishga haqli. Bu protsessual imtiyoz bo‘lib, uning vazifalarini samarali bajarishi uchun berilgan.

Sud boshqaruvchisi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha haq olish huquqiga ega bo‘lib, u Qonunning 26-moddasiga muvofiq to‘lanadi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda sud boshqaruvchisining qarzdor hisobidan malakali mutaxassislarni jalb qilish imkoniyati ayrim toifadagi ishlar, shu jumladan, ixtisoslashgan tarmoqlar, yirik sanoat korxonalari, ko‘chmas mulk va infratuzilma

obyektlari, yirik va ko‘p tarmoqli korxonalar va boshqalar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunday hollarda xalqaro yoki milliy darajadagi auditorlar va buxgalterlar, yuridik maslahatchilar, muhandislar, arxitektorlar va boshqa maslahatchilarni balans tuzish uchun ham, biznesni qayta tuzish uchun ham jalb qilish kerak bo‘lishi mumkin. Agar bu xarajatlar kreditorlar bilan kelishilgan limitdan oshsa, sud boshqaruvchi kreditorlar qo‘mitasi (yig‘ilishi) roziligini olishi lozim. Bunday mutaxassislarni jalb qilish kreditorlarga to‘lov qobiliyatini tiklash rejasi shartlarini belgilashda zarur bo‘ladi.

Huquqni qo‘llash amaliyotida sud boshqaruvchisi o‘z vazifalarini bajarishi uchun boshqa organlardan ma’lumot va hujjatlarni talab qilish huquqiga ega bo‘lishi kerak.

Sud boshqaruvchisi qarzdorga tegishli ko‘chmas mulk, transport vositalari, qishloq xo‘jaligi texnikasi va boshqa mol-mulk va aktivlarni aniqlash uchun davlat xizmat ko‘rsatish markazlariga murojaat qiladi, ular ushbu xizmatlar pullik asosda ko‘rsatilishi sababli qiyinchiliklarga duch keladi. Bunda qarzdorning hisobvarag‘ida mablag‘ yo‘qligi sababli bunday xizmatlardan foydalanmasdan, mavjud hujjatlar asosida qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish holatlari mavjud. Bu holat, o‘z navbatida, tugatish massasining to‘liq shakllanishi kreditorlar, shu jumladan, byudjet oldidagi qarzlarni yetarli darajada qoplash imkonini bermaydi. Shuning uchun sud boshqaruvchisiga axborot olishga va tegishli davlat xizmatlaridan foydalanishga oid huquqlar berilgan.

Qarzdor jismoniy shaxsdan qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining bajarilishi to‘g‘risidagi axborotni so‘rab olish to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili doirasida amalga oshirilishi mumkin, bunda rejaning bajarilishi jarayoni to‘g‘risidagi axborot sud hujjatiga muvofiq sud boshqaruvchisi va kreditorlar tomonidan taqdim etiladi. Bu kreditorlar yig‘ilishi va sud tomonidan tasdiqlanadigan rejaning bajarilishini nazorat qilish uchun zarur bo‘ladi.

To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilini yanada samarali o‘tkazishga to‘sqinlik qiluvchi muayyan holatlar (sog‘lig‘ining qoniqarsiz ahvoli, manfaatdorlik, zarur bilim va ish tajribasining yo‘qligi va boshqalar) yuzaga kelganda, sud boshqaruvchisi o‘z vazifasini bajarishni muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishga haqli.

2. Sud boshqaruvchisi ushbu moddaning birinchi qismida sanab o‘tilgan huquqlardan tashqari qonunchilik hujjatlarida unga berilgan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Masalan, to‘lovga qobiliyatsizlikning har bir tartib-taomilida sud boshqaruvchisi foydalanishi mumkin bo‘lgan alohida huquqlar ham nazarda tutilgan (Qonunning 83-, 98-, 114, 144-moddalarida kuzatuv, sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv va tugatishga doir ish yuritish taomillarida sud boshqaruvchisi qo‘shimcha huquqlari nazarda tutilgan).

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini amalga oshirishda sud boshqaruvchisi bajarishi lozim bo‘lgan majburiyatlarning (tugal bo‘lmagan) ro‘yxatini o‘z ichiga oladi. Ushbu norma sud boshqaruvchisining faoliyati faqat kreditorlar foydasiga emas, balki qonun ustuvorligini ta’minlashga qaratilganligini tasdiqlaydi.

Sud boshqaruvchisining o‘z vazifasini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi, agar bu qarzdorga yoki kreditorlarga zarar yetkazilishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, Qonunning 25-moddasi uchinchi qismiga muvofiq, uni o‘z vazifasini bajarishdan ozod qilish uchun asos bo‘lishi mumkin.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha sud boshqaruvchisi va sud qarzdor va uning xodimlari manfaatlarini hisobga olgan holda kreditorlar foydalanishi mumkin bo‘lgan aktivlarning umumiy qiymatini saqlab qolishi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi xalqaro prinsiplardan biri hisoblanadi.

Ushbu norma sud boshqaruvchilariga qarzdorning mol-mulki kreditorlar o‘rtasida mutanosib taqsimlanishini ta’minlash maqsadida uning mol-mulkini himoya qilish (shu jumladan, uning nobud bo‘lishiga, kamayib ketishiga yoki boshqacha tarzda qadrsizlanishiga yo‘l qo‘ymaslik) majburiyatini yuklaydi.

Mol-mulkni but saqlash majburiyati deganda mol-mulkning joriy qiymatini saqlab qolish maqsadida uni oqilona va uzluksiz saqlash va ekspluatatsiya qilish (va undan daromad olish) tushuniladi (amaldagi korxonaning bir qismi sifatidagi mol-mulkning qiymati odatda uning individual tugatish qiymatidan yuqori bo‘ladi).

Sud boshqaruvchisi Qonunning 14-moddasida belgilangan tartibda kreditorlarning talablari reyestrini yuritish lozim. Shuningdek, u qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil qilishi kerak.

Qarzdorning moliyaviy ahvoli va (yoki) o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborot so‘ralganda o‘n kunlik muddatda uni taqdim etishi majburiyati kreditorlarga keng imkoniyatlar yaratadi, ya’ni ular to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi har qanday ish yuritish jarayonida sud boshqaruvchisidan o‘zlari uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni so‘rab olishlari mumkin.

Sud boshqaruvchisi tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilishidan oldingi 2 yilgacha bo‘lgan davr uchun faoliyat tahlili o‘tkaziladi, agar qarzdor ko‘rsatilgan davrda faoliyat ko‘rsatmagan bo‘lsa, Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 14-avgustdagi 224-son qarori bilan tasdiqlangan «Soxta to‘lovga qobiliyatsizlik, to‘lovga qobiliyatsizlikni yashirish va qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelish alomatlarini aniqlash qoidalari»ga muvofiq qarzdor tomonidan moliya-xo‘jalik faoliyati amalga oshirilgan oxirgi ikki yil tahlil qilinishi lozim.

Soxta to‘lovga qobiliyatsizlik, to‘lovga qobiliyatsizlikni yashirish yoki qasddan to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlarini aniqlash sud boshqaruvchisi tomonidan qarzdorning arizasiga ko‘ra sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan barcha hollarda va bosqichlarda amalga oshiriladi. Agar aktivlar ataylab chiqarib yuborilgan bo‘lsa (qasddan to‘lovga qobiliyatsizlik) yoki to‘lov qobiliyati bo‘la turib jarayon qo‘zg‘atilgan bo‘lsa (soxta to‘lovga qobiliyatsizlik), sud boshqaruvchisi bu haqida zudlik bilan huquqni muhofaza qilish organlariga xabar berishi shart. Bu majburiyatni bajarmaslik sud boshqaruvchisining o‘zini jinoyat sherigiga aylantirishi mumkin.

Qarzdor jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining bajarilishini nazorat qilish sud boshqaruvchisi tomonidan amalga oshiriladi. U belgilangan muddatlar davomida qarzdorning to‘lovlarini tekshiradi, uning katta xarajatlarini ku-

zatib boradi va bitimlarni tahlil qiladi. Agar qarzdor reja shartlarini buzsa, sud boshqaruvchisi bu haqida sudga xabar beradi, bu esa qayta tashkil etishning to‘xtatilishiga olib kelishi mumkin.

Kreditorlarning talablarini qondirish uchun qarzdor jismoniy shaxs tomonidan qarzlarning o‘z vaqtida to‘liq qaytarilishini nazorat qilish O‘zbekistonda to‘lovga qobiliyatsiz yoki qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilining bir qismidir. Bunday nazoratning aniq mexanizmi qarzdorning to‘lovga qobiliyatli yoki to‘lovga qobiliyatsiz deb topilganligiga bog‘liq.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha «sud hujjatlari bilan yuklatilgan majburiyatlarni bajarish» jumlasi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning (qarzdor, sud boshqaruvchisi, kreditorlar, nazorat qiluvchi shaxslar va boshqalar) to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili doirasida sud qarorlari bilan belgilangan talablarga rioya qilishi yuridik majburiyatini anglatadi.

Bunda sud hujjatlari (masalan, kuzatuv tartib-taomilini joriy etish, tarkibiy o‘zgartirish rejasini tasdiqlash, subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida), to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishdan kelib chiqadigan nizolar bo‘yicha hal qiluv qarorlari, yuqori instansiya sudlarining qarorlari bo‘lishi mumkin.

4. Sud boshqaruvchisi mazkur moddaning uchinchi qismida belgilangan majburiyatlardan tashqari boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Xususan, Qonunning 53-moddasi ikkinchi qismiga ko‘ra, u to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritish uchun maxsus tashkil etilgan matbuot organiga yuborishi, kreditorlar yig‘ilishini tashkil etishi va o‘tkazishi, bayonnoma tuzilishini ta’minlashi (Qonunning 16-moddasi), Qonunning 84-, 99-, 144-moddalarida nazarda tutilgan sud boshqaruvchisi majburiyatlarini bajarishi shart.

5. Agar sud boshqaruvchisi kreditorlarning huquqlarini himoya qilishi va ularning talablarini qanoatlantirishi (va kreditorlarga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘lishi) kerak bo‘lsa-da, u «qarzdorning manfaatlari yo‘lida oqilona harakat qilishi» kerak.

Ushbu norma sud boshqaruvchisining faoliyatiga qo‘yiladigan «yuqori mezon» hisoblanadi. Bu yerda gap nafaqat Qonun normalarini bajarish, balki «vijdonli boshqaruvchi» (prudent administrator) sifatida qaror qabul qilish haqida ketmoqda.

Sud boshqaruvchisi faqat kreditorlarning pulini undirishni yoki faqat qarzdorni saqlab qolishni o‘ylamasligi kerak. Uning vazifasi ikkala tomonning ham qonuniy manfaatlarini himoya qilishdir, ya’ni u manfaatlar muvozanatini ta’minlashi kerak.

«Oqilona ish yuritish» sud amaliyotida quyidagilarni anglatadi: *tejamkorlik* – jarayon xarajatlarini (masalan, jalb qilingan mutaxassislar haqini) asossiz oshirib yubormaslik; *tezkorlik* – Qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarga rioya qilish va aktivlarni sotish yoki tiklash uchun eng maqbul vaqtni tanlash; *professionallik* – *q*aror qabul qilishda bozor konyunkturasi va iqtisodiy tahlillarga tayanish.

Agar kreditorlar sud boshqaruvchisining harakatidan zarar ko‘rganlarini iddao qilishsa, sud uning harakatlarini aynan shu «oqilonalik» mezoni bilan o‘lchaydi: «xuddi shunday vaziyatda boshqa professional boshqaruvchi qanday yo‘l tutgan bo‘lardi?»

Agar sud boshqaruvchisining harakatlari nooqilona deb topilsa (masalan, mulkni sotishda reklama bermagan yoki bozor narxidan ancha past narxni qabul qilgan bo‘lsa), u yetkazilgan zararni qoplashga majbur bo‘ladi. Bu norma «fidutsiar mas’uliyat» (ishonilgan mulkni o‘z mulkidek ehtiyot qilish) tamoyiliga asoslanadi.

6. Sud boshqaruvchilari odatda ularga qo‘yiladigan standartlarga mos kelmasligi va malakasizligi yoki g‘ayriqonuniy harakati (harakatsizligi) uchun vazifasidan ozod etilishi mumkin.

Ushbu norma sud boshqaruvchisining nafaqat ma’muriy (attestatdan mahrum bo‘lish), balki shaxsiy mulkiy javobgarligini ham belgilaydi. Uning har bir oqilona bo‘lmagan qarori yoki harakati (harakatsizligi) uchun pul bilan javob berish xavfi mavjud.

Zarar yetkazishning ikkita asosiy shakli mavjud: *vazifani bajarmaslik,* masalan, mulkni xatlovdan o‘tkazmasligi natijasida u o‘g‘irlab ketilsa yoki debitorlik qarzlarini undirish muddati o‘tib ketsa; *lozim darajada bajarmaslik*, masalan, aktivlarni bozor narxidan ancha past bahoda (baholovchini jalb qilmay) sotib yuborish yoki soliq hisobotlarini kechiktirib qarzdorga katta jarimalar keltirish.

Sud boshqaruvchilar faoliyati ushbu Qonun, Vazirlar Mahkamasining «Sud boshqaruvchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2019-yil 12-sentyabrdagi 765-son qarori, 2025-yil 30-dekabrdagi 838-son qarori bilan tasdiqlangan Sud boshqaruvchilari malaka attestatini berish tartibi to‘g‘risidagi Nizom asosida tashkil etiladi.

24-modda. Sud boshqaruvchilarining jamoat birlashmalari

Sud boshqaruvchilarining jamoat birlashmalari sud boshqaruvchilarini ixtiyoriy asosda birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkilotlardir.

Sud boshqaruvchilarining jamoat birlashmalari sud boshqaruvchilarining kasbiy darajasini yuksaltirishi va saqlab turishi, ularning kasbiy manfaatlarini himoya qilishga ko‘maklashishi kerak.

Sud boshqaruvchilarining jamoat birlashmalari:

sud boshqaruvchilari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

davlat hokimiyati organlari hamda respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan munosabatlarda sud boshqaruvchilarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi;

davlat hokimiyati organlaridan va respublika ijro etuvchi hokimiyat organlaridan o‘z vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni so‘rab oladi;

ushbu Qonunda belgilangan tartibda sud boshqaruvchisi lavozimiga nomzodni sudga taqdim etadi;

sud boshqaruvchilarining kasbga oid odob qoidalarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

sud boshqaruvchilari faoliyatini reyting asosida baholashni, ular tomonidan qonunchilikka, kasbga oid odob qoidalariga rioya etilishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

sud boshqaruvchilarini tayyorlash dasturlarini ishlab chiqadi va ushbu dasturlarni vakolatli davlat organiga tasdiqlash uchun kiritadi;

sud boshqaruvchilarini attestatsiyadan (qayta attestatsiyadan) o‘tkazishda ishtirok etadi;

o‘z a’zolari faoliyatini o‘rganadi va tahlil qilib boradi.

Sud boshqaruvchilarining jamoat birlashmalari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Sharhlanayotgan modda sud boshqaruvchilarining o‘zini o‘zi boshqarish va professional jamoatchilik nazorati tizimini belgilaydi, shuningdek, ularni tashkil etish maqsadlari va vazifalarini tartibga soladi. Ushbu modda sud boshqaruvchisi kasbining institutsional mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan.

1. Sud boshqaruvchilarining professional birlashmalari nodavlat notijorat tashkilotlar bo‘lib, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmaydi va olingan daromadlarni (foydani) uning ishtirokchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlamaydi. Sud boshqaruvchilarining professional birlashmalari «Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etiladi va faoliyat ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sud boshqaruvchilari assotsiatsiyasi asosiy jamoat birlashmasi hisoblanib, u sud boshqaruvchilarining yagona reyestrini yuritishda va ularning malakasini baholashda vakolatli organ bilan yaqin hamkorlik qiladi. Assotsiatsiya huzuridagi komissiya sud boshqaruvchilari faoliyati samaradorligini doimiy ravishda reyting asosida baholab boradi. Assotsiatsiya Agentlik bilan hamkorlikda sud boshqaruvchilari uchun o‘quv dasturlari va test savollarini ishlab chiqishda ishtirok etadi.

2. Sud boshqaruvchilari faoliyatining samaradorligi asosan ularning kasbiy darajasiga bog‘liq. Shu bilan birga, sud boshqaruvchilari ham o‘z manfaatlarini huquqiy himoya qilishga haqlidir. Bunday muammolarni hal etish maqsadida Qonunda ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq sud boshqaruvchilarining kasbiy darajasini rivojlantirish va saqlab turishga, ularning manfaatlarini himoya qilishga ko‘maklashishga da’vat etilgan sud boshqaruvchilarining professional birlashmalari faoliyat yuritishi nazarda tutilgan.

3. O‘z maqsadlariga erishish va qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun sud boshqaruvchilarining jamoat birlashmalariga ushbu moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan muayyan vakolatlar beriladi.

Ushbu norma sud boshqaruvchilari jamoat birlashmalarining funksional vakolatlarini belgilaydi. Bu vakolatlar tizimni «davlat tomonidan qat’iy boshqarish»dan «kasbiy o‘zini o‘zi tartibga solish» (self-regulation) modeliga o‘tkazishga xizmat qiladi. Jumladan, sud boshqaruvchisini tayinlashda jamoat birlashmasining tavsiyasi va reytingi

asosiy mezon hisoblanadi. Bu «tasodifiy» shaxslarning murakkab ishlarga tayinlanishining oldini oladi.

Birlashma sohadagi muammolarni yaqindan bilgan holda sohani tartibga soluvchi hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi. Davlat organlaridan axborot so‘rab olish huquqi birlashmaga o‘z a’zolarining faoliyatini xolis tahlil qilish imkonini beradi.

Birlashma tomonidan tasdiqlangan sud boshqaruvchilarining kasbga oid odob qoidalari amal qilinishi majburiy bo‘lgan hujjatdir. Ushbu qoidalarni buzish sud boshqaruvchisini birlashma a’zoligidan chiqarish va attestatdan mahrum qilish uchun asos bo‘lishi mumkin. Bunda kasb obro‘sini saqlash, sud boshqaruvchisi jamoat ishonchini qozongan shaxs bo‘lishi, xolislikni ta’minlashi, qarzdor yoki kreditor tomonini qo‘llab-quvvatlash man etilishi, sud boshqaruvchisi faoliyatida shaffoflik va mas’uliyat bo‘lishi, moliyaviy manfaatdorlik, shaxsiy aloqalar va boshqa omillar qarorlarga ta’sir qilmasligi kerakligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamoat birlashmalari vakolatli organ bilan birgalikda imtihon olishda ishtirok etadi. Bu jarayonning shaffofligini va korrupsiyadan xoliligini ta’minlaydi.

Sud boshqaruvchilari faoliyatini reyting asosida baholash sud boshqaruvchilari faoliyati belgilangan mezonlar asosida sifat jihatdan baholanishini anglatadi.

Baholashning maqsadi samarali boshqaruvchilarni aniqlash, past sifatda ishlayotganlarni ajratish, ish sifatini oshirishga rag‘bat berishdir.

Baholash mezonlari ishni belgilangan muddatda tugatishi, kreditorlar talablarining qondirilishi va natijadorlik darajasi, sud qarorlarini bajarishdagi xolislik, Qonunga va adolatga moslik, shikoyatlar soni, kasbiy xato va etikaga rioya qilmaslik holatlari bo‘lishi mumkin

4. Sud boshqaruvchilarining professional birlashmasi yuridik shaxs hisoblanadi va qonun hujjatlariga muvofiq Nizom asosida faoliyat ko‘rsatadi. «Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 31-moddasidagi qoidalardan kelib chiqib sud boshqaruvchilarining professional birlashmalari nodavlat notijorat tashkilot bo‘lib, o‘z nizomi maqsadlariga mos keladigan doirada tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga haqli. Sud boshqaruvchilarining professional birlashmalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Amaliyotda uchraydigan «boshqa vakolatlar»: *mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish* – birlashmalar kreditorlar va sud boshqaruvchisi o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni sudgacha hal qilish (mediatsiya) markazlarini tashkil etishi mumkin; *xalqaro hamkorlik* – xorijiy inqirozga qarshi boshqaruvchilar tashkilotlari (masalan, INSOL International) bilan aloqa o‘rnatish va tajriba almashish; *metodologik ko‘mak* – murakkab sohalar (masalan, banklar yoki sug‘urta kompaniyalari) to‘lovga qobiliyatsizligi bo‘yicha maxsus qo‘llanmalar ishlab chiqish. Qarang: Xalqaro sharh. 730-b.

25-modda. Sud boshqaruvchisining javobgarligi

Sud boshqaruvchisi o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun qonunga muvofiq javobgar bo‘ladi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxslar sud boshqaruvchisidan uning harakatlari (harakatsizligi) natijasida yetkazilgan zararning o‘rni qoplanishini talab qilishga haqli.

Agar sud boshqaruvchisi zimmasiga ushbu Qonunning 23-moddasiga muvofiq yuklatilgan vazifalar bajarilmaganligi yoxud lozim darajada bajarilmaganligi qarzdorga yoki kreditorlarga zarar yetkazilishiga olib kelgan bo‘lsa, bu sud boshqaruvchisini o‘z vazifalarini bajarishdan ozod etish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Sharhlanayotgan modda sud boshqaruvchisining javobgarligi asoslari va uni ta’minlash tartiblarini nazarda tutadi.

1. Sud boshqaruvchisining o‘z vazifasini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi qarzdorga yoki kreditorlarga zarar yetkazilishiga sabab bo‘lgan ikkita oqibat keltiriladi: sud boshqaruvchisini o‘z vazifasini bajarishdan ozod etish (intizomiy); zararlarni qoplash (fuqarolik-huquqiy).

Bundan tashqari, ish holatlariga ko‘ra jinoiy va ma’muriy javobgarlik masalalari ham kelib chiqishi mumkin. Masalan, qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelish, mulkni talon-toroj qilish holatlari aniqlansa.

Qonunga muvofiq sud boshqaruvchisi boshqa asoslarga ko‘ra ham, masalan, uning arizasiga ko‘ra to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha davlat organining qarori asosida vazifasidan ozod qilinishi mumkin (Qonunning 113-moddasi). Mazkur modda Qonunning 23-moddasi uchinchi va to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni va qarzdorga yoki kreditorlarga zarar yetkazilishiga olib kelgan boshqa majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlik sifatida sud boshqaruvchisini ozod qilishni nazarda tutadi.

Sud boshqaruvchisini vazifasidan ozod qilish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga kreditorlar yig‘ilishi va (yoki) to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha davlat organi murojaat qilishi mumkin.

Arizani ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha sud ajrim chiqaradi, ajrim ustidan Qonunning 61-moddasida nazarda tutilgan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

Sud boshqaruvchisining javobgarligini belgilashda sud quyidagilarni ham aniqlashi lozim: boshqaruvchi o‘z harakatlarida «oqilonalik va vijdonlilik» (23-modda) tamoyiliga amal qilganmi? Zarar va boshqaruvchining harakati o‘rtasida sababiy bog‘lanish mavjudmi? Kreditorlar qo‘mitasining (yig‘ilishining) ko‘rsatmalariga rioya etilganmi?

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida qarzdorga, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga sud boshqaruvchisidan uning harakatlari (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan zararning o‘rnini qoplashni talab qilish huquqi berilgan.

Sud boshqaruvchisi qarzdorga yoki kreditorga yetkazilgan zararni qoplashdan ixtiyoriy ravishda qoplashdan bosh tortgan taqdirda, yetkazilgan zararni undirish sud tartibida amalga oshirilishi mumkin.

Bunda shuni alohida ta'kidlash lozimki, javobgarlik yuzaga kelgan taqdirda sud boshqaruvchisi aybni hisobga olgan holda javob beradi, javobgarlik masalasini hal qilishda sud boshqaruvchisining harakatlari (harakatsizligi) va zararlar o'rtasida sababiy bog'lanish mavjudligini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Bundan tashqari, Qonunning 22-moddasi uchinchi qismida sud boshqaruvchisi vazifasini bajarish chog'ida ilgari qarzdorga, kreditorlarga zarar yetkazgan va ko'rsatilgan zararlarning o'rnini qoplamagan shaxslar sud boshqaruvchisi etib tayinlanishi mumkin emasligi ko'rsatilgan.

3. Qonunning ushbu normalariga muvofiq sud boshqaruvchisi boshqa asoslar bo'yicha ham vazifasidan ozod etilishi mumkin, masalan, uning o'z arizasiga binoan, davlat organining qaroriga asosan.

Ushbu normada sud boshqaruvchisini o'z vazifalarini bajarishdan ozod etish – o'z majburiyatlarini qarzdorga yoki kreditorlarga zarar yetkazilishiga olib kelgan tarzda bajarilmaganligi yoxud lozim darajada bajarilmaganligi uchun javobgarlik belgilangan.

Ushbu normaning maqsadi zarar yetkazayotgan yoki o'z ishiga sovuqqonlik bilan qarayotgan boshqaruvchini jarayondan zudlik bilan chetlatish orqali aktivlar yanada kamayib ketishining oldini olishdir. Masalan, sud boshqaruvchisi debitorlik qarzini undirish bo'yicha da'vo muddatini o'tkazib yubordi, natijada korxonaga 500 mln so'm pul tushmadi. Bu real zarar va ozod etish uchun yetarli asosdir. Harakatsizlik: agar boshqaruvchi mulkni xatlashni paysalga solsa va bu vaqt ichida mulk talon-toroj qilinsa, bu ham ozod etishga sabab bo'ladi.

Kreditorlar yig'ilishi va (yoki) to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish bo'yicha davlat organi sudga sud boshqaruvchisini ozod etish to'g'risida iltimosnoma bilan murojaat etishi mumkin.

Sud arizani ko'rib chiqish natijasida ajrim chiqaradi va ushbu ajrim ustidan ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda shikoyat qilinishi mumkin. Qarang: Xalqaro sharh. 731-b.

26-modda. Sud boshqaruvchisiga haq to'lash

Sud boshqaruvchisiga vazifalarini bajarganligi uchun haq to'lash miqdori va tartibi bajarilgan ishlar hajmidan kelib chiqqan holda kreditorlarning yig'ilishi tomonidan belgilanadi, sud tomonidan tasdiqlanadi hamda, agar kreditorlar bilan tuzilgan bitimda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, qarzdorning mol-mulki hisobidan to'lanadi.

Jismoniy shaxsga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqida sudga ariza bergan arizachi tomonidan moliyaviy boshqaruvchi-

ga haq to‘lash uchun sudning depozit hisobvarag‘iga mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining yetti baravari miqdorida oldindan pul mablag‘lari o‘tkaziladi.

Sudning depozit hisobvarag‘iga o‘tkazilgan pul mablag‘larining o‘rni jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi jarayonida qarzdor jismoniy shaxsning mol-mulki hisobidan ushbu Qonun 221-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan tartibda qoplanadi. Qarzdor jismoniy shaxsning mol-mulki mavjud bo‘lmagan taqdirda, agar kreditorlar yig‘ilishida boshqacha kelishuv belgilangan bo‘lmasa, moliyaviy boshqaruvchiga haq to‘lash sudning depozit hisobvarag‘iga arizachi tomonidan o‘tkazilgan pul mablag‘lari bilan cheklanadi.

To‘lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartibi qo‘llanilganda, agar qarzdor bilan boshqacha kelishuv belgilangan bo‘lmasa, sud boshqaruvchisiga haq to‘lash xarajatlarining o‘rni qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza bergan arizachi tomonidan qoplanadi. Bunda sud boshqaruvchisiga haq to‘lash uchun sudning depozit hisobvarag‘iga mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining yetti baravari miqdorida oldindan to‘lov amalga oshiriladi. Sud boshqaruvchisiga haq har bir yakunlangan ishi uchun to‘lanadi.

Davlat soliq xizmati organining arizasiga asosan jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik va (yoki) to‘lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartibi qo‘llanilganda, sud boshqaruvchisiga haq to‘lash xarajatlari sudga ariza bergan davlat soliq xizmati organi tomonidan davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi. Bunda sud boshqaruvchisiga to‘lanadigan haq miqdori qonunchilik hujjatlarida belgilanadi va ushbu moddada belgilangan tartibda to‘lanadi.

Agar sud boshqaruvchisiga haq to‘lash xarajatlari sudning depozit hisobvarag‘iga o‘tkazilmagan bo‘lsa, sud qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani qaytaradi.

Qarzdor jismoniy shaxsning uni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi arizasi bilan sudga murojaat etilganda sud moliyaviy boshqaruvchiga to‘lanadigan haqni sudning depozit hisobvarag‘iga o‘tkazishni kechiktirishi mumkin.

Sud boshqaruvchisiga haq to‘lash to‘g‘risidagi nizolar sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Kreditorlar yig‘ilishining qarori bilan sud boshqaruvchisiga uning faoliyati yakunlariga ko‘ra quyidagi hollarda qo‘shimcha haq belgilanishi mumkin, agar:

kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan kreditor qarzdorlik to‘liq to‘langan bo‘lsa, ushbu to‘langan qarzdorlikka doir talablar summasining besh foizigacha miqdorda;

kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan kreditorlarning yetmish besh foizidan ko‘prog‘i qanoatlantirilgan bo‘lsa, mazkur kreditorlar talablari summasining uch foizigacha miqdorda;

kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan kreditorlarning ellik foizidan ko‘prog‘i qanoatlantirilgan bo‘lsa, mazkur kreditorlar talablari summasining bir foizigacha miqdorda.

Ko‘rilayotgan ish bo‘yicha qo‘shimcha haq sud boshqaruvchisiga ushbu ish bo‘yicha to‘langan umumiy summaning yarmidan oshmasligi kerak.

Qarzdor to‘lov qobiliyatini tiklash tartib-taomilidan tugatishga doir ish yuritish tartib-taomiliga o‘tgan taqdirda ushbu davr uchun sud boshqaruvchisiga qo‘shimcha haq to‘lanmaydi.

Sharhlanayotgan moddada Qonun 23-moddasining birinchi qismiga (umumiy qoidalar), 82-moddasiga (muvaqqat boshqaruvchi) va 114-moddasi ikkinchi qismiga (tashqi boshqaruvchi) muvofiq sud boshqaruvchisiga to‘lanadigan haq miqdori va uni to‘lash tartibi belgilangan.

1. Umumiy qoidaga ko‘ra sud boshqaruvchisiga haq to‘lash qarzdorning mol-mulki hisobidan amalga oshiriladi. Bunda sud boshqaruvchisiga haq to‘lash miqdori va tartibini belgilash kreditorlar yig‘ilishi vakolatiga, tasdiqlash esa sud vakolatiga kiradi.

Haq miqdori sud boshqaruvchisi tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar hajmiga, shuningdek, qarzdor mol-mulkining qiymatiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Sud boshqaruvchisiga to‘lanadigan haq miqdorini belgilashda qarzdor mol-mulkining qiymati, u bajarishi lozim bo‘lgan ishlarning hajmi hisobga olinishi kerak. Bunda sud boshqaruvchisiga to‘lanadigan haq qarzdorning sobiq rahbari ish haqi miqdoridan kam bo‘lishi mumkin emas.

Kreditorlar bilan kelishuvda moliyalashtirishning boshqa manbasi nazarda tutilgan va ushbu moddaning birinchi qismi qoidalari qo‘llanilmaydigan holatlar bundan mustasno. Qarzdorda mol-mulk bo‘lmagan taqdirda sud boshqaruvchisiga haq to‘lash to‘g‘risidagi masala ham kreditorlar tomonidan xuddi shunday tartibda hal etiladi. Agar kreditorlar o‘rtasida ushbu masala bo‘yicha kelishuvga erishilmasa, Qonun 53-moddasining beshinchi qismiga o‘xshash tarzda haq to‘lash bo‘yicha xarajatlar qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat qilgan kreditor zimmasiga yuklatilishi lozim.

2. Jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida sudga ariza berish uchun sudning depozit hisobvarag‘iga mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining yetti baravariga teng summani deponentlash talablaridan biri hisoblanadi.

Qonun chiqaruvchi uning mehnati kafolatlangan holda to‘lanishi uchun sudning depozit hisobvarag‘iga oldindan to‘lov (depozit) tizimini joriy etgan. Jismoniy shaxslarda ko‘pincha sotishga mulk bo‘lmaydi. Agar ushbu depozitdagi pul mablag‘lari bo‘lmaganida, moliyaviy boshqaruvchilar bepul ishlashga majbur bo‘lardi va bu tizim-

ning to‘xtab qolishiga olib kelardi. Ushbu mablag‘ boshqaruvchining minimal xizmat haqini kafolatlaydi.

3. Depozitdagi pul mablag‘lari jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishda sud boshqaruvchisiga haq to‘lash uchun kafolatlangan summa hisoblanadi. Ushbu summa jismoniy shaxsning mol-mulki hisobiga qoplanishi lozim. Ushbu moddaning mazmunidan kelib chiqib jismoniy shaxsning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda depozit summasi qoplanmaydi. Agar to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza jismoniy shaxs tomonidan o‘ziga nisbatan berilgan bo‘lsa, sud depozitni kiritishni kechiktirishi mumkin (ushbu moddaning yettinchi qismi).

4. Qonunning 16-bobida nazarda tutilgan to‘lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartib-taomilida ham depozit qo‘yiladi. Depozit summasi qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza bergan arizachi tomonidan kiritilishi kerak.

Soddalashtirilgan tartib-taomil qarzdorning mol-mulki bo‘lmagan yoki u tugatish jarayonida to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lib qolgan hollarda qo‘llaniladi. Bunday vaziyatda «pulsiz» korxonani boshqarayotgan sud boshqaruvchisining mehnatini kafolatlash uchun arizachining mas’uliyati belgilangan. Agar to‘lovga qobiliyatsizlik ishini qo‘zg‘atish haqida arizani kreditor yoki soliq xizmati organlari bergan bo‘lsa, boshqaruvchiga haq to‘lash majburiyati aynan o‘sha arizachi zimmasiga tushadi.

Bu shuni anglatadiki, agar kreditor mulki yo‘q korxonani bankrot deb topmoqchi bo‘lsa, u jarayon xarajatlarini (sud boshqaruvchisi haqini) o‘z zimmasiga olishi shart. Bu asossiz yoki «foydasiz» to‘lovga qobiliyatsizlik ishlari ko‘payib ketishining oldini oladi.

5. Depozitga pul mablag‘lari jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik va (yoki) Qonunning 16-bobida nazarda tutilgan to‘lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartibi qo‘llanilganda ham kiritiladi. Depozit summasi qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza bergan arizachi tomonidan kiritilishi kerak.

Ushbu norma davlat manfaatlarini himoya qilishda sud boshqaruvchilarini moliyaviy rag‘batlantirishning alohida mexanizmini belgilaydi.

Xarajatlar davlat byudjetining maxsus maqsadli mablag‘lari hisobidan qoplanadi. Sud boshqaruvchisi davlat uchun «soliq yig‘uvchi» vazifasini bajaradi. Uning mehnati byudjetdan to‘lanishi sud boshqaruvchisining davlat manfaatlari yo‘lida faol ishlashini kafolatlaydi.

6. Agar sudning depozit hisobvarag‘iga pul qo‘yilmasa, sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani qaytaradi.

Arizaning qaytarilishi arizachining keyinchalik, kamchiliklarni bartaraf etib (pul mablag‘ini to‘lab), qaytadan sudga murojaat qilish huquqini istisno etmaydi.

7. Qarzdor moliyaviy qiyinchilikda bo‘lganda, sud moliyaviy boshqaruvchiga to‘lanadigan haqni kechiktirishi mumkin. Ushbu normaning asosiy maqsadi haqiqatan ham o‘ta og‘ir moliyaviy ahvolda qolgan, sud boshqaruvchisiga haq to‘lash imkoni bo‘lmagan shaxslarga sud himoyasidan foydalanish huquqini berishdir.

8. Sud boshqaruvchisiga haq to‘lash to‘g‘risidagi nizolar sud tomonidan ko‘rib chiqilganda, taraflar o‘z huquq va majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘g‘ri tushunib, kelishuvga erishishlari mumkin.

Sud nizoni hal qiladi, adolatni ta’minlaydi va to‘lovning qonuniyligini nazorat qiladi. Bu jarayonda qarzdor, kreditorlar va sud boshqaruvchisining huquqlari himoya qilinadi.

9. Kreditorlar yig‘ilishining qarori bilan sud boshqaruvchisiga uning faoliyati yakunlariga ko‘ra qo‘shimcha haq belgilanishi imkoniyati va shartlari nazarda tutilgan.

Bunda sud boshqaruvchisiga qarzdorning mol-mulki hisobidan qo‘shimcha haq belgilash Qonunga zid bo‘lmaydi va, asosiy haqidan farqli ravishda, sud tomonidan tasdiqlanishi talab etilmaydi (ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq).

Ushbu normalar sud boshqaruvchisi uchun eng kuchli moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmi – «muvaffaqiyat haqi» (success fee) tizimini belgilaydi. Bundan maqsad sud boshqaruvchisini shunchaki jarayonni boshqaruvchi emas, balki kreditorlarning pullarini maksimal darajada qaytarishdan manfaatdor bo‘lgan shaxsga aylantirishdir.

Qonun chiqaruvchi qo‘shimcha haqni natijaga qarab uchta toifaga bo‘lgan:

besh foizigacha: agar qarz to‘liq qoplansa. Bu sud boshqaruvchisi uchun «oltin standart» bo‘lib, u aktivlarni samarali sotgani yoki korxonani sog‘lomlashtirganini anglatadi;

uch foizigacha: kreditorlarning yetmish besh foizidan ko‘prog‘i qanoatlantirilsa;

bir foizigacha: kreditorlarning kamida ellik foizidan ko‘prog‘i qanoatlantirilgan bo‘lsa.

10. Qonunda «qo‘shimcha haq umumiy to‘langan summaning yarmidan oshmasligi kerak» degan cheklov bor. Ushbu qoida qo‘shimcha haq miqdori kreditorlarga beriladigan puldan asossiz ravishda ko‘p bo‘lib ketmasligini ta’minlashga qaratilgan. Masalan, agar kreditorlarga jami 100 mln so‘m to‘langan bo‘lsa, boshqaruvchining qo‘shimcha haqi 50 mln so‘mdan oshmasligi kerak (hatto foizlar hisobi bo‘yicha ko‘p chiqsa ham).

11. Agar korxonani sog‘lomlashtirish (sanatsiya yoki tashqi boshqaruv) natija bermay, tugatish jarayoniga o‘tilsa, o‘sha muvaffaqiyatsiz davr uchun sud boshqaruvchisiga hech qanday qo‘shimcha haq to‘lanmaydi. Bundan maqsad sud boshqaruvchisini istiqboli yo‘q qarzdor faoliyatini «tiklayman» deb jarayonni ataylab cho‘zishdan qaytarishdir. Qarang: Xalqaro sharh. 732-b.

27-modda. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bilan bog‘liq xarajatlar

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bilan bog‘liq xarajatlarning o‘rni, agar ushbu Qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qarzdorning mol-mulki hisobidan qoplanadi.

Sud boshqaruvchisi o‘z huquq va majburiyatlarining bajarilishini ta’minlash maqsadida shartnoma asosida jalb etilgan shaxslarga haq to‘lashni, sud xarajatlarini, qarzdorning ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqini davlat ro‘y-

xatidan o‘tkazish, mol-mulkini xatlovdan o‘tkazish, baholash xarajatlarini, zarur hollarda auditor xizmatlaridan foydalanganlik xarajatlarini, auksion xarajatlarini, hujjatlarni saqlashga topshirish xarajatlarini, shuningdek, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish bilan bog‘liq boshqa xarajatlarni to‘lashni amalga oshirishi mumkin.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishga sud boshqaruvchisi tomonidan jalb etilgan shaxslarning xizmatlariga to‘lanadigan haqning miqdori qarzdor aktivlari balans qiymatining bazaviy hisoblash miqdoriga (bundan buyon matnda BHM deb yuritiladi) nisbatan hisob-kitob qilingan summadan kelib chiqib (bundan ushbu Qonunning 26-moddasida nazarda tutilgan xarajatlar mustasno), agar balans qiymatining summasi:

BHMning ming baravarigacha bo‘lsa – qarzdor aktivlari balans qiymatining o‘n ikki foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda;

BHMning ming baravaridan besh ming baravarigacha bo‘lsa – qarzdor aktivlari balans qiymatining o‘n foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda;

BHMning besh ming baravaridan o‘n ming baravarigacha bo‘lsa – qarzdor aktivlari balans qiymatining sakkiz foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda;

BHMning o‘n ming baravaridan ortiq bo‘lsa – qarzdor aktivlari balans qiymatining besh foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda foizlarda belgilanadi. Bunda xarajatlar BHMning ko‘pi bilan ikki ming ikki yuz baravaridan oshmasligi kerak.

Ushbu moddaning maqsadlari uchun qarzdor aktivlarining balans qiymati to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilishidan oldingi oxirgi hisobot sanasidagi moliyaviy hisobotlar asosida aniqlanadi.

Qarzdor aktivlarining haqiqiy balans qiymatini aniqlash imkoni bo‘lmagan hollarda u baholovchi tashkilot tomonidan belgilangan baholash qiymati asosida aniqlanadi. Ushbu qoidalar sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillariga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish bilan bog‘liq xarajatlar haqidagi ma’lumotlar tegishincha sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv va tugatish, shuningdek, qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va mol-mulkni sotish rejasida aks ettiriladi.

Garovga qo‘yilgan mol-mulkni sotish bilan bog‘liq xarajatlar, agar kreditorlar yig‘ilishida yoki kreditorlar qo‘mitasi majlisida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, garov bilan ta’minlangan kreditor tomonidan amalga oshiriladi.

Sharhlanayotgan modda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda yuzaga keladigan xarajatlarni to‘lash tartibini belgilaydi. Ushbu xarajatlar to‘lovga qobiliyatsizlik taomillarining samarali va shaffof amalga oshirilishini ta’minlashga, shuningdek, jarayonda ishtirok etayotgan tomonlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.

1. Ushbu normaning maqsadi to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar qaysi hisobdan qoplanishini aniq belgilashdir.

Qonun chiqaruvchi xarajatlarni qoplash mas’uliyatini birinchi navbatda qarzdorning o‘ziga yuklaydi. Bu xarajatlar kreditorlarning talablarini qanoatlantirishdan oldin (navbatdan tashqari) amalga oshiriladi.

«Agar boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa» iborasi Qonunning boshqa moddalaridagi (masalan, 26-modda) istisnolarga ishora qiladi: *soddalashtirilgan tartibda*: agar mulk bo‘lmasa – arizachi (kreditor) to‘laydi; *soliq organi arizasi bo‘yicha*: davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi, *jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligida*: arizachi tomonidan to‘langan depozitdagi pul hisobidan qoplanadi.

2. To‘lanishi mumkin bo‘lgan xarajatlar doirasi:

sud xarajatlari – sud jarayoni bilan bog‘liq xarajatlar, shu jumladan, davlat bojlari va sud tartib-taomillarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan boshqa xarajatlar;

qarzdorning mol-mulkka bo‘lgan huquqlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish – to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida ushbu mol-mulkni qonuniy sotish yoki tugatish uchun muhim bo‘lgan qarzdorning mol-mulkiga bo‘lgan mulk huquqini ro‘yxatdan o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar;

mol-mulkni xatlovdan o‘tkazish va baholash – qarzdorning mol-mulkini xatlovdan o‘tkazish va baholashga doir xarajatlar bo‘lib, ular qarzdorning aktivlari qiymatini belgilash va ularni keyinchalik kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun sotish uchun zarurdir. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-iyundagi 141-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) «Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish»ga muvofiq amalga oshiriladi (12.08.2024-yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3548);

auditor xizmatlari – zarurat bo‘lganda sud boshqaruvchisi qarzdorning moliyaviy hujjatlari va hisobotlarini tekshirish uchun auditor xizmatlari xarajatlarini to‘lashi mumkin;

auksion savdosi xarajatlari – agar qarzdorning mol-mulki auksion savdosi orqali sotilishi kerak bo‘lsa, bu savdoni tashkil etish xarajatlarini o‘z ichiga oladi (masalan, auksion to‘lovi, reklama xarajatlari va boshqa ma’muriy xarajatlar);

hujjatlarni topshirish va saqlash xarajatlari – to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni topshirish va saqlash xarajatlari;

mutaxassislarni jalb qilish – Qonun sud boshqaruvchisiga mol-mulkni baholash, inventarizatsiya qilish, audit o‘tkazish kabi muayyan vazifalarni bajarish uchun shartnoma asosida mutaxassislarni jalb qilish imkonini beradi. Ushbu mutaxassislarga to‘lovga qobiliyatsizlik taomillari bilan bog‘liq mablag‘lar hisobidan haq to‘lanishi mumkin.

Garchi boshqaruvchi bu xarajatlarni qilishga haqli bo‘lsa-da, u ikkita cheklovga amal qilishi shart: xarajatsiz ishni yakunlab bo‘lmasligi (masalan, baholashsiz mulk sotilmaydi) va xarajat miqdori bozor narxiga mosligi.

Yirik xarajatlar (masalan, audit xizmati) odatda kreditorlar yig‘ilishi yoki qo‘mitasi bilan oldindan kelishiladi.

Sud boshqaruvchi ishni yakunlayotganda barcha xarajatlar bo‘yicha moliyaviy hisobot taqdim etadi. Sud asossiz deb topgan xarajatlarni qoplashni rad etishi mumkin.

3. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishga sud boshqaruvchisi tomonidan uning faoliyatini amalga oshirish uchun jalb etilgan shaxslar xizmati uchun to‘lov bilan bog‘liq xarajatlar mazkur qismda nazarda tutilgan sud xarajatlariga kiritilishi hamda navbatdan tashqari qanoatlantirilishi mumkin.

Moddaning ushbu normasi sud boshqaruvchisi tomonidan jalb qilinadigan mutaxassislar (advokatlar, auditorlar, qo‘riqchilar va boshqalar) xizmat haqining yuqori chegarasini (limitini) belgilaydi.

Qonun chiqaruvchi «aktiv qancha katta bo‘lsa, xarajat foizi shuncha past bo‘lishi kerak» tamoyilini qo‘llagan. Sud boshqaruvchisi professional boshqaruvchi sifatida eng maqbul (arzon va sifatli) xizmatlarni tanlashi shart.

Sud boshqaruvchisining hisobotini ko‘rishda sudya balans qiymatini aniqlaydi, jalb etilgan shaxslarning shartnoma summalarini yuqoridagi foizlarga solishtiradi, agar limit oshgan bo‘lsa, oshgan qismini xarajat sifatida tasdiqlamaydi va bu summani boshqaruvchining zimmasiga yuklaydi.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismi xarajatlar limitini hisoblash uchun «bazaviy nuqta»ni belgilab beradi, ya’ni qarzdor aktivlarining balans qiymati to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilishidan oldingi oxirgi hisobot sanasidagi soliq va statistika organlariga moliyaviy hisobotlar asosida aniqlanadi. Bu norma nizolarning oldini olish va hisob-kitoblarning shaffofligini ta’minlash uchun o‘ta muhimdir.

Agar qarzdor korxona bir necha yildan beri hisobot topshirmagan bo‘lsa yoki hujjatlar yo‘qolgan bo‘lsa, sud boshqaruvchisi avval buxgalteriya hisobini tiklashi va «muqobil balans» tuzishi shart. Bunday hollarda limit shu tiklangan balans asosida hisoblanadi.

Bugungi kunda iqtisodiy sudlar Soliq qo‘mitasining ma’lumotlar bazasiga (my.soliq.uz) integratsiya qilingan. Sudya arizani ko‘rish jarayonida korxonaning oxirgi balans qiymatini tizim orqali ko‘radi. Bu esa sud boshqaruvchisi tomonidan xarajatlarni «shishirish» uchun aktivlar qiymatini sun’iy ravishda oshirib ko‘rsatish xavfini kamaytiradi.

5. Qarzdor aktivlarining haqiqiy balans qiymatini aniqlash imkoni bo‘lmagan hollarda u baholovchi tashkilot tomonidan belgilangan baholash qiymati asosida aniqlanadi, shuningdek, mazkur qoidalar sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillariga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Agar qarzdor aktivlarining haqiqiy balans qiymatini aniqlash imkoni bo‘lmasa, ularning baholovchi tashkilot tomonidan belgilangan baholash qiymati asosida aniqlanadi.

6. Qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishdagi xarajatlar sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv, mol-mulkni sotish va qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish jarayonlarini o‘zida jamlaydi.

Bu xarajatlar sudda aniq rejada aks ettirilishi kerak, shu bilan birga, ushbu xarajatlar ijro etilishi va moliyaviy hisobotlarda aniq ko‘rsatilishi shart. Shuningdek, bu

jarayondagi xarajatlar to‘lovga qobiliyatsizlik ishi va qarzdorning moliyaviy holatiga mutanosib ravishda muvofiqlashtirilishi kerak.

7. Garovga qo‘yilgan mol-mulk sotiladigan bo‘lsa, sotish bilan bog‘liq xarajatlar garov bilan ta’minlangan kreditor tomonidan amalga oshiriladi, agar kreditorlar yig‘ilishida boshqa qoida belgilashmagan bo‘lsa.

Garov bilan ta’minlangan kreditorlar mol-mulkni sotish orqali o‘z qarzini qaytarishga birinchi navbatda haqli bo‘lib, shu sababli ular sotish jarayonidagi xarajatlarni o‘z hisoblariga olishlari mumkin.

Odatda garovga qo‘yilgan mol-mulkni (masalan, bank krediti uchun garovga qo‘yilgan bino) sotilganda, undan tushgan mablag‘ning asosiy qismi (qonunchilikka ko‘ra, 80 foiz yoki undan ortig‘i) to‘g‘ridan to‘g‘ri garovdagi kreditorga (bankka) ketadi.

Mol-mulk sotilishidan asosiy foydani garovdagi kreditor olar ekan, uni sotish bilan bog‘liq xarajatlarni (baholash, auksion savdosi) ham aynan o‘sha kreditorning o‘zi moliyalashtirishi adolatdandir.

Kreditorlar yig‘ilishi yoki qo‘mitasi ushbu xarajatlarni qarzdorning umumiy mol-mulki hisobidan qoplashga rozilik berishi mumkin. Bu odatda garovdagi mulk sotilgandan keyin undan tushadigan mablag‘ning bir qismi umumiy xarajatlarni qoplashga yetarli bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi.

3-BOB. TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK SOHASINI TARTIBGA SOLISH

28-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining to‘lovga qobiliyatsizlik sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarida pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar yuzasidan majburiyatlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining kreditor tariqasidagi talablarini taqdim etishning yagona tartibini tasdiqlaydi;

sud boshqaruvchilari sifatida faoliyatni amalga oshiruvchi shaxslarning attestatsiyadan o‘tishi tartibini, ularga nisbatan malaka va kasbga oid talablarni hamda sud boshqaruvchilarining yagona reyestrini yuritish tartibini tasdiqlaydi;

sud boshqaruvchilarining faoliyati to‘g‘risidagi tartibni tasdiqlaydi;

sanatsiya fondini shakllantirish va uning mablag‘laridan foydalanish tartibini belgilaydi;

mol-mulkni realizatsiya qilish tartibini belgilaydi;

vakolatli davlat organi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Sharhlanayotgan modda to‘lovga qobiliyatsizlik munosabatlarini davlat miqyosida muvofiqlashtirish va samarali amalga oshirishda Vazirlar Mahkamasining vakolatlarini belgilaydi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida Vazirlar Mahkamasining vakolatlari quyidagi yo‘nalishlarga taalluqli:

kreditor tariqasidagi davlat talablarini taqdim etishning yagona tartibini tasdiqlash. Bu tartib davlatning pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar yuzasidan qarzdorga nisbatan qo‘yiladigan talablari yagona standart asosda amalga oshirilishini ta’minlaydi;

sud boshqaruvchilari institutini shakllantirish va nazorat qilish. Bunda sud boshqaruvchilarining faoliyatini tashkil etish, huquq va majburiyatlari, faoliyat standartlari, hisobdorlik mexanizmlari va nazorat usullari bo‘yicha tartibni, shuningdek, sud boshqaruvchilarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi, malaka va kasbga oid talablar, yagona reyestrni yuritish tartibi kabi muhim masalalarni belgilaydi. Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 14-avgustdagi 224-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Soxta to‘lovga qobiliyatsizlik, to‘lovga qobiliyatsizlikni yashirish va qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib

kelish alomatlarini aniqlash» Qoidalari, 2025-yil 30-dekabrdagi 838-son qarori bilan tasdiqlangan Sud boshqaruvchilari malaka attestatini berish tartibi to‘g‘risida Nizom tasdiqlangan;

sanatsiya fondini shakllantirish va uning mablag‘laridan foydalanish. Sanatsiya fondi – to‘lov qobiliyatini tiklash tartib-taomillarini amalga oshirishda moliyaviy manba, u moliyaviy barqarorlashtirish maqsadida tashkil etiladi. Mazkur tartibni belgilash fondning shakllantirish manbalari, mablag‘lardan foydalanish yo‘nalishlari, moliyalashtirish mexanizmlarini tartibga soladi, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy vaziyatga ko‘ra fonddan foydalanish tartibini belgilashi jarayonning muhim rolini hamda davlat organlari va moliyaviy mexanizmlarini izchil ishlashini ta’minlaydi;

mol-mulkni realizatsiya qilish tartibini belgilash. Bu tartib savdo usullari, shaffoflik talablari, elektron savdo platformalaridan foydalanish, baholash va nazorat mexanizmlari kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu mexanizm kreditorlar manfaatlari himoyasi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki mol-mulkni adolatli va bozor qiymatida sotish natijasida kreditorlar talabi maksimal darajada qondiriladi. Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 18-apreldagi 188-son qarori bilan Tarkibiy o‘zgartiriladigan korxonalarning, shuningdek, ularga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili qo‘llanilgan korxonalarning mol-mulkini baholash va sotish tartibi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlangan;

vakolatli davlat organi faoliyatini tartibga solish. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-yanvardagi 23-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi to‘g‘risida Nizom tasdiqlangan. Ushbu organ to‘lovga qobiliyatsizlik sohasida monitoring, ma’lumotlar yig‘ish, davlat ulushiga ega korxonalar faoliyati yuzasidan axborotlarni tahlil qilish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkinligi belgilangan. Bu qoida qonunchilikning dinamik rivojlanishiga moslashish, amaliyotda yuzaga kelayotgan yangi ehtiyojlar va muammolarni hisobga olish, tartib-taomillarni takomillashtirish imkonini beradi.

Shu tariqa, Vazirlar Mahkamasining ushbu sohadagi vakolatlari to‘lovga qobiliyatsizlik holatlarini davlat darajasida muvofiqlashtirish, yagona normalar asosida tartibga solish va amaliyotda barqaror qo‘llash uchun zarur institutsional asosni yaratadi. Ular to‘lovga qobiliyatsizlik sohasidagi davlat siyosatining amaliy asosini belgilaydigan normalardir. Qarang: Xalqaro sharh. 735-b.

29-modda. Vakolatli davlat organining vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi vakolatli davlat organidir.

Vakolatli davlat organi:

ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan korxonalarning moliyaviy ahvoli monitoringini to‘lovga qobiliyatsiz, zarar ko‘rib ishlayotgan va

iqtisodiy nochor korxonalarni aniqlash maqsadida yuritadi hamda ularning elektron ma'lumotlar bazasi shakllantirilishini tashkil etadi;

ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo'lgan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi oldida pul majburiyatlari bo'yicha qarzi bor korxonalarning to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi ariza bilan sudga murojaat etadi;

sud boshqaruvchilarining attestatsiyasini o'tkazadi hamda sud boshqaruvchilarining yagona reyestrini yuritadi;

ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo'lgan korxonalarni sudgacha sanatsiya qilish, ularning sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruvi rejalarini kelishib oladi;

ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo'lgan korxonalarni sudgacha sanatsiya qilish va ularning to'lovga qobiliyatsizligi tartib-taomillari jarayoni ustidan nazoratni amalga oshiradi;

to'lovga qobiliyatsizlik jarayoni ustidan monitoring olib boradi;

sud boshqaruvchilari faoliyati ustidan qonunchilikka muvofiq nazoratni amalga oshiradi, sud boshqaruvchisining faoliyatida qonunchilik muntazam ravishda yoki bir marta qo'pol ravishda buzilganligi aniqlangan taqdirda uni vazifasini bajarishdan ozod qilish haqida sudga ariza bilan murojaat etadi;

to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishning soddalashtirilgan tartibi jarayonida, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo'lgan korxonalarni tugatishga doir ish yuritish amalga oshirilayotganda sud boshqaruvchiligiga nomzodlarni taqdim etish huquqiga ega;

moliyaviy holati bo'yicha monitoring yuritilayotgan korxonalarning moliya-xo'jalik faoliyati haqidagi materiallar taqdim etilmaganligi yoki o'z vaqtida taqdim etilmaganligi uchun ushbu korxonalarning rahbarlariga yoki boshqa mansabdor shaxslariga jarimalar soladi;

qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

Vakolatli davlat organining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari vazirliklar, agentliklar, boshqa davlat boshqaruvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiydir.

Sharhlanayotgan modda to'lovga qobiliyatsizlik jarayonlarining davlat tomonidan muvofiqlashtirilishida markaziy institut hisoblangan vakolatli davlat organi – O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining (bundan buyon matnda Agentlik[1] deb yuritiladi) vazifalari va vakolatlarini belgilaydi.

[1] Izoh: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 6-maydagi "To'lovga qobiliyatsizlik institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–78-son Farmoniga muvofiq Adliya vazirligi huzurida To'lovga qobiliyatsizlik ishlari agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) va uning hududiy bo'limlari tashkil etilgan, Agentlik to'lovga qobiliyatsizlik sohasida maxsus vakolatli organ etib belgilangan.

1. Ushbu norma Agentlikning vakolatli davlat organi ekanligini belgilaydi.

Agentlik to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari qo‘llanilgan davlat ulushiga ega korxonalar faoliyatini monitoring qiladi, sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv rejalarini kelishib beradi. Mazkur vakolatlar orqali davlat manfaatlari himoya qilinadi; davlat ulushiga ega korxonalarning moliyaviy barqarorligi ta’minlanadi; to‘lov qobiliyatini tiklash bo‘yicha choralar muvofiqlashtiriladi; sud boshqaruvchilari institutining samarali faoliyati ta’minlanadi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida vakolatli davlat organining vakolatlari sanab o‘tilgan. Vakolatli davlat organi:

a) ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan korxonalarning moliyaviy ahvoli monitoringini yuritadi.

Agentlik ushbu korxonalarning moliyaviy ahvoli yuzasidan tizimli monitoring olib boradi. Monitoringdan asosiy maqsad to‘lovga qobiliyatsiz korxonalarni, zarar ko‘rib ishlayotgan yoki iqtisodiy nochor korxonalarni o‘z vaqtida aniqlash va elektron ma’lumotlar bazasini shakllantirishdir;

b) ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi oldida pul majburiyatlari bo‘yicha qarzi bor korxonalarning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan sudga murojaat etadi.

Agentlik davlat ulushiga ega yoki davlat oldida qarzi mavjud korxonalar yuzasidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ariza bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Agar korxona davlat ulushiga ega bo‘lsa, unda davlatning faoliyati va mablag‘laridan foydalanish va korxonaning moliyaviy ahvoli to‘g‘risida qarorlar qabul qilishda vakolatli organlar to‘g‘ridan to‘g‘ri ishtirok etadi.

Davlat ulushiga ega bo‘lgan korxonalar strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yoki davlatning iqtisodiy manfaatlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘lgan sohalarda faoliyat yuritadi odatda (masalan, energetika, transport, kommunal xizmatlar va boshqalar).

O‘zbekiston Respublikasi oldida pul majburiyatlari bo‘yicha qarzi bor korxonalar, ya’ni korxona davlat oldidagi pul majburiyatlarini bajarmagan yoki vaqtida to‘lay olmagan bo‘lsa, u davlat oldidagi qarzini bajarishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Bu holatda davlat ushbu korxonalarning moliyaviy ahvolini inobatga olib tegishli choralarni ko‘rish uchun huquqiy mexanizmlarni ishga solishi mumkin.

Korxonalarning davlat oldidagi qarzi bo‘lishi sudga murojaat qilish yoki davlat tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik ishi boshlash uchun asos bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda, korxona moliyaviy barqarorligini tiklash yoki agar buning imkoniyati bo‘lmasa, uning mol-mulklarini taqsimlash orqali kreditorlar bilan hisob-kitob qilish talab qilinadi.

Sudga murojaat etish to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atishning asosiy yo‘li hisoblanadi. Agar korxona davlat ulushiga ega bo‘lsa va (yoki) davlat oldida pul majburiyatlari bo‘yicha qarzi bor bo‘lsa, sudga murojaat qilish orqali: korxonaning moliyaviy ahvoli to‘g‘risida qaror qabul qilish; to‘lovga qobiliyatsizlik haqida ish yuritishni boshlash; sudning hujjatiga asosan sud boshqaruvchini tayinlash kabi

jarayonlar amalga oshiriladi. Agar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida sud hujjati qabul qilinsa, sud boshqaruvchi tayinlanishi mumkin;

d) sud boshqaruvchilarining attestatsiyasini o‘tkazadi hamda sud boshqaruvchilarining yagona reyestrini yuritadi.

Sud boshqaruvchilarining professionallik darajasini baholash, ularning ishi uchun maxsus qoidalarni belgilash va ularning faoliyatini tashkil etishning aniq, ishonchli va barqaror ishlashiga yordam beradi. Bu vakolat professional boshqaruvchilar korpusini shakllantirishda muhimdir. Amaliy ahamiyati, sud boshqaruvchisi sifatida faoliyat yurituvchi shaxslarning malakalari tekshiriladi, reyestr orqali ularning faoliyati ustidan nazorat ta’minlanadi.

Sud boshqaruvchilarining attestatsiyasi sud boshqaruvchilarining professional darajasini va huquqiy qobiliyatlarini baholash jarayonidir. Sud boshqaruvchilari attestatsiyadan o‘tganidan keyin ularning ishi, shu bilan birga, moliyaviy jarayonlardagi rolini nazarda tutgan holda to‘g‘ri va adolatli qarorlar qabul qilinishi mumkin. Sud boshqaruvchisining attestati – sud boshqaruvchilariga qo‘yiladigan malaka va professional talablarga mos kelish uchun attestatsiyadan o‘tganlikni tasdiqlovchi hujjat.

Sud boshqaruvchilari malakalarini tekshirish sud boshqaruvchilarining moliyaviy va yuridik bilimlari, to‘lovga qobiliyatsizlik sohasidagi tajribalarini tekshirish hisoblanadi.

Sud boshqaruvchilarining yagona reyestri – sud boshqaruvchilarining hamma ma’lumotlari, litsenziyalari, attestatsiyadan o‘tganligi va ularning amalga oshirgan ishlari haqidagi to‘liq ma’lumotlarning jamlanmasi va uning yordamida boshqaruvchilarning holatiga monitoring o‘tkazish imkoni yaratiladi.

Sud boshqaruvchilariga oid to‘liq ma’lumotlarning markazlashtirilgan bazasi bo‘lishi ularning ish faoliyatini, attestatsiya holatini, qaysi korxonalar bilan ishlaganini monitoring qilish imkonini beradi.

Yagona reyestr orqali kim qaysi korxona bilan ishlagani, faoliyatining qanday bo‘lganligi va qanday natijalarga erishilganini ko‘rish mumkin, sud boshqaruvchilari uchun aniq qoida va mezonlar belgilash orqali adolatlilik va shaffoflik ta’minlanadi. U sud boshqaruvchilarining malakalari va tajribasini muntazam ravishda kuzatib borish, ularning kamchiliklarini aniqlash va zarur bo‘lsa, ularni qayta tayyorlash yoki qayta attestatsiyadan o‘tkazish imkonini beradi.

Yagona reyestrdagi ma’lumotlar: sud boshqaruvchisining familiyasi, ismi va otasining ismi; attestatsiyadan o‘tganligi yoki tayinlanganligi; sud boshqaruvchilik faoliyatini olib borayotgan korxonalarning nomlarini o‘z ichiga oladi;

e) ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan korxonalarni sudgacha sanatsiya qilish, ularning sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruvi rejalarini kelishib olish.

Ushbu vakolat to‘g‘ridan to‘g‘ri davlat ulushiga ega korxonalarga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik holatigacha va undan keyingi moliyaviy barqarorlashtirish choralarini muvozanatli va muvofiqlashtirilgan tarzda amalga oshirishni ta’minlashga qaratilgan.

Bu jarayonlarda sud boshqaruvchisi tayinlanadi, qarzlarni to‘lash, kreditorlar bilan kelishuvga erishish rejalari ishlab chiqiladi. Agar korxona ustav kapitalida davlat ulu-

shiga ega bo‘lsa, uning to‘lovga qobiliyatsizlikka duch kelishi ehtimoli tug‘ilganda, u holda sudgacha sanatsiya, sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv rejalari davlat vakolatli organlari bilan kelishilgan holda tasdiqlanishi shart.

Bu mexanizmning maqsadi: korxonaning to‘lov qobiliyatini tiklash imkonini baholash; davlat ulushiga ega aktivlarning samaradorligini ta’minlash; moliyaviy qiyinchilikka tushgan korxonani saqlab qolishga qaratilgan choralarni muvofiqlashtirish;

f) ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan korxonalarni sudgacha sanatsiya qilish va ularning to‘lovga qobiliyatsizligi tartib-taomillari jarayoni ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Bu normada davlat ulushi bo‘lgan korxonalarning to‘lovga qobiliyatsizlikka uchramasligini ta’minlash yoki to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonlarida ularning manfaatlarini himoya qilish uchun aktiv rol o‘ynashi shart ekani belgilangan.

Davlat ulushi bo‘lgan korxonalar milliy iqtisodiyot uchun muhim strategik subyektlar (energetika, neft-gaz, transport va boshqalar), jamoat manfaati bilan bog‘liq ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish sohalarida faoliyat yuritadi, katta miqdorda davlat mablag‘i, subsidiyalari yoki resurslari ishtirok etgan tuzilmalar hisoblanadi.

Shunday ekan, nazorat quyidagilarga xizmat qiladi: tartibsiz sanatsiyalarning oldini olish (davlat bilan kelishmasdan amalga oshirilgan rejalar uning manfaatlariga zid bo‘lishi mumkin); davlat manfaatlarini himoya qilish (korxona aktivlarini arzonga sotish, norasmiy kelishuvlar kabi xavflardan saqlash); Qonunga muvofiqlikni ta’minlash (barcha sanatsiya va to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonlari amaldagi qonunchilikka muvofiq bo‘lishi shart); korxonani saqlab qolish imkonini baholash (to‘g‘ridan to‘g‘ri tugatishga olib kelmasdan avval sog‘lomlashtirish choralari ko‘rib chiqiladi).

Bu kabi nazorat faoliyatini vakolatli davlat organlari amalga oshiradi, jumladan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Agentlik va boshqa vakolatli organlar va ular korxonalarning moliyaviy hisobotlarini olib boradi, sanatsiya rejalari bilan tanishadi va baholaydi, sudgacha sanatsiya jarayonlarini kuzatib boradi, sud qarorlarining ijrosi ustidan monitoring o‘rnatadi.

Agar ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxona iqtisodiy nochorlikka duch kelsa, qarzlarini vaqtida to‘lay olmasa, rejalarni tayyorlayotgan bo‘lsa yoki to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoniga kiritilsa, davlat bu jarayonlarni nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi. Masalan, korxonaning faoliyatini saqlab qolish imkoni bo‘lsa, sudgacha sanatsiya yo‘li bilan ham uni qayta tiklash choralari ishlab chiqiladi;

g) to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni ustidan monitoring olib boradi.

Ushbu normada to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni nazoratsiz qolmasligi kerakligi nazarda tutilmoqda. Shu maqsadda vakolatli davlat organi tomonidan monitoring faoliyati amalga oshiriladi.

Monitoring ma’lum jarayonni doimiy ravishda kuzatish, tahlil qilish va zarur holda ta’sir choralarini ko‘rishdir. Monitoringning vazifalari esa to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarini yuritishda mol-mulkni sotish, qarzdorlikni qoplash va boshqa jarayonlar qanday o‘tayotganini tahlil qilish, qonunbuzarliklar yoki manfaatlar to‘qnashuvi bo‘lsa, o‘z vaqtida chora ko‘rish, davlat manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi;

h) sud boshqaruvchilari faoliyati ustidan qonunchilikka muvofiq nazoratni amalga oshiradi.

Ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonlarida muhim rol o‘ynaydigan sud boshqaruvchilarining faoliyatini qonun doirasida, shaffof va xolislik bilan amalga oshirilishini ta’minlashga qaratilgan.

Agentlik sud boshqaruvchilarining qonunga rioya etishi, vazifalarni to‘g‘ri bajarishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Agar qonun buzilishi aniqlansa, Agentlik ularning malaka attestati amal qilishini 6 oygacha to‘xtatish yoki sudga attestat amal qilishini bekor qilish haqida ariza kiritish huquqiga ega. Bunda sud boshqaruvchining xatosi kreditorlar, korxona va davlat manfaatlariga jiddiy zarar yetkazishi mumkinligi inobatga olingan;

i) to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishning soddalashtirilgan tartibi jarayonida, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan korxonalarni tugatishga doir ish yuritish amalga oshirilayotganda sud boshqaruvchiligiga nomzodlarni taqdim etish huquqiga ega.

Agentlik soddalashtirilgan tartibda ish yuritishda, davlat ulushiga ega korxonalarni tugatishda sud boshqaruvchiligiga nomzodlar taklif qiladi. Bu huquq yuqoridagi tartib-taomillarda professional boshqaruvchilarni jalb etish, davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadlariga xizmat qiladi.

Agar to‘lovga qobiliyatsizlik ishi soddalashtirilgan tartibda ko‘rilayotgan bo‘lsa, sud boshqaruvchisini tanlash jarayonida vakolatli davlat organi o‘z nomzodini sudga taqdim etishi mumkin.

Agar ustav fondida davlat ulushi mavjud bo‘lgan korxona tugatilayotgan bo‘lsa, davlat manfaatlari yuzasidan sud boshqaruvchisini tanlash huquqi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli vakolatli davlat organi bu holatda ham sud boshqaruvchisi lavozimiga nomzod ko‘rsatadi;

j) moliyaviy holati bo‘yicha monitoring yuritilayotgan korxonalarning moliya-xo‘jalik faoliyati haqidagi materiallar taqdim etilmaganligi yoki o‘z vaqtida taqdim etilmaganligi uchun ushbu korxonalarning rahbarlariga yoki boshqa mansabdor shaxslariga jarimalar soladi.

Monitoring o‘tkazilayotgan korxonalarning moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi materiallarni taqdim etmaganlik yoki o‘z vaqtida taqdim etmaganlik uchun vakolatli davlat organi tomonidan jarima solinadi. Javobgarlik aynan korxonalarning rahbarlari yoki mansabdor shaxslari zimmasiga yuklanadi. Bu mexanizm hisobdorlik va shaffoflikni ta’minlaydi;

k) qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

Agentlik qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin. Bu normaning maqsadi sohada yuzaga kelayotgan yangi huquqiy-iqtisodiy ehtiyojlarga moslashish, to‘lovga qobiliyatsizlik tizimini doimiy takomillashtirishdir.

Agar ushbu vakolatli organga qonunlarda, qonunosti hujjatlarida boshqa vakolatlar ham belgilangan bo‘lsa, u faqat yuqorida ko‘rsatilgan vakolatlar bilangina cheklanib qolmaydi, balki qonunchilikda ko‘zda tutilgan boshqa vazifalarni ham bajaradi.

Asosiysi, ushbu vakolat qonunchilikda nazarda tutilgan bo‘lishi kerak. Bu vakolatlar asosiy vakolatlar bilan birga «qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlar» sifatida ham amalga oshirilishi mumkin.

Yuqorida ko‘rsatilgan huquqlardan tashqari vakolatli davlat organi: to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha davlat organining to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida qatnashish (ariza berilganda ham, qarzdorning ustav fondida davlat mulkining ulushi mavjud bo‘lganda ham) (Qonunning 38-moddasi); kreditorlar yig‘ilishida ovoz berish huquqisiz ishtirok etish (Qonunning 12-moddasi uchinchi qismi); qarzdorning ustav fondida davlat ulushi mavjudligidan qat’i nazar, muvaqqat, tashqi va tugatish boshqaruvchisi nomzodini ko‘rsatish (Qonunning 82-moddasi birinchi qismi, 111-moddasi ikkinchi qismi va 142-moddasi), shuningdek, ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonaga nisbatan sud sanatsiyasini (Qonunning 92-moddasi uchinchi qismi) va tashqi boshqaruvni (Qonunning 108-moddasi birinchi qismi) joriy etish to‘g‘risida ariza berish huquqlarini ko‘rsatish mumkin.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha davlat organi o‘z vakolatlarini amalga oshirishda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-yanvardagi 23-son qarori bilan qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi to‘g‘risidagi Nizomga amal qiladi.

3. Ushbu normada Agentlik qarorlarining majburiyligi nazarda tutilgan. Vazirlar Mahkamasi bilan bir qatorda to‘lovga qobiliyatsizlik sohasidagi davlat boshqaruvini to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha davlat vakolatli organi – Agentlik ham amalga oshiradi. Agentlikning o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari vazirliklar, agentliklar, boshqa davlat boshqaruvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiydir.

Bu normaning ahamiyati shundaki, u orqali Agentlikning institutsional maqomi mustahkamlanadi, yagona davlat siyosatining ijrosi ta’minlanadi, tartib-taomillarni amalga oshirishda nomuvofiqliklar kamayadi.

Mazkur norma vakolatli davlat organining huquqiy maqomi, uning to‘lovga qobiliyatsizlik sohasidagi vakolatlari va qabul qiladigan qarorlarining huquqiy kuchini belgilaydi. Vakolatli davlat organi – Agentlik to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini davlat tomonidan muvofiqlashtirish, nazorat qilish va ta’minlashga mas’ul bo‘lgan organ hisoblanadi. Uning qarorlari majburiyligi, avvalo, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonini samarali tashkil etish, davlat ulushi bo‘lgan korxonalar harakatlarini tartibga solish va sud boshqaruvchilari faoliyatida qonuniylikni ta’minlashga qaratilgan. Qarang: Xalqaro sharh. 735-b.

4-BOB. TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK TARTIB-TAOMILLARI VA SUDGACHA SANATSIYA QILISH

30-modda. To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari

Qarzdor yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda quyidagi tartib-taomillar qo‘llaniladi:

kuzatuv;

sud sanatsiyasi;

tashqi boshqaruv;

tugatishga doir ish yuritish.

Qarzdor jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda quyidagi tartib-taomillar qo‘llaniladi:

qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish;

bankrotlikni tan olish va mol-mulkni sotish.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili qo‘llaniladi.

Sharhlanayotgan moddada to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishda qo‘llaniladigan tartib-taomillar qarzdorning huquqiy maqomiga ko‘ra farqlanishi belgilangan bo‘lib, mazkur tartib-taomillar kreditorlar talablarini qondirish hamda qarzdorni iqtisodiy nochorlikdan chiqarishga qaratilgan qonunchilikda nazarda tutilgan harakatlar ketma-ketligini ifoda etadi. Ular maqsadiga ko‘ra to‘lovga qobiliyatni tiklashga qaratilgan taomillar (sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv) va tugatishga doir taomillarga (bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritish) ajratiladi. Bunda yuridik shaxslar uchun kuzatuv, sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv va tugatishga doir ish yuritish, jismoniy shaxslar uchun qarzni tarkibiy o‘zgartirish va bankrotlikni tan olish va mol-mulkni sotish, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun esa tugatishga doir ish yuritish tartib-taomillari nazarda tutiladi.

1. Ushbu normada qarzdor yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda qo‘llaniladigan huquqiy jihatdan tartibga solingan tartib-taomillar tizimi belgilangan. Ushbu tartib-taomillar yuridik shaxs-qarzdorning moliyaviy ahvolini baholash, uning faoliyatini saqlab qolish imkoniyatini aniqlashga qaratilgan.

Kuzatuv qarzdorning moliyaviy holatini tahlil etish, mulkiy huquqlarini muhofaza qilish va kreditorlar reyestrini shakllantirishga xizmat qiluvchi dastlabki bosqichdir. Kuzatuv sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilgan kundan boshlab qo‘llaniladigan birinchi sud tartib-taomilidir. Kuzatuv tartib-taomili iqtisodiy sud tomo-

nidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning mol-mulki but saqlanishini ta'minlash, qarzdorning moliyaviy ahvoli tahlilini o'tkazish, kreditorlar talablari reyestrini yuritish va kreditorlar birinchi yig'ilishini o'tkazish maqsadida qarzdorni to'lovga qobiliyatsiz deb topish to'g'risidagi ariza qabul qilingan paytdan e'tiboran keyingi taomilga qadar majburiy tartibda qo'llaniladigan to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili hisoblanadi.

Kuzatuv birinchi sud majlisi o'tkazilgunga va to'lovga qobiliyatsiz qarzdorning keyingi taqdiri hal qilingunga qadar amalda bo'ladi. Keyingi taomilni tanlash kreditorlar yig'ilishi qaroriga bog'liq. Umumiy qoida bo'yicha kuzatuv ikki oydan ortiq bo'lmagan muddatda belgilanadi (Qonunning 50-moddasi), lekin alohida hollarda bir oydan oshmagan muddatgacha uzaytirilishi mumkin. Biroq ishni o'z vaqtida hal qilish maqsadida muvaqqat boshqaruvchi tomonidan barcha tartib-qoidalarga amal qilgan holda kuzatuv jarayonining qisqa muddatlarda olib borilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kuzatuv tartib-taomili to'lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartib-taomillarida hamda jismoniy shaxsning to'lovga qobiliyatsizligida qo'llanilmaydi (Qonun 239-moddasining ikkinchi qismi), chunki kuzatuv tartib-taomilini o'tkazish uchun qonunda belgilangan tadbirlarni amalga oshirish zaruriyati va tugatishga doir ish yuritishdan o'zga taomilni tanlash imkoniyati mavjud emas. Kuzatuv, shuningdek, YTTning to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risidagi ish ko'rilayotganda ham qo'llanilmaydi (Qonun 30-moddasining ikkinchi qismi).

Sud sanatsiyasi qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklashga qaratilgan rejali chora-tadbirlar majmuasini sud nazorati ostida amalga oshirish imkonini beradi. *«Sanatsiya» lotincha «sanatio» – davolash, sog'lomlashtirish degan ma'noni bildiradi*.

Sud sanatsiyasi sog'lomlashtirish va to'lov qobiliyatini tiklash tusidagi tartib-taomil hisoblanib, qarzdor, qarzdor muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdor mol-mulkining egasi, shuningdek, uchinchi shaxslar tomonidan qarzdor korxonaning to'lov qobiliyatini tiklash va qarzdor faoliyatini boshqarishni qarzdor rahbarining o'zida qoldirish yo'li bilan kreditorlar talablarini qanoatlantirish maqsadida murojaat qilish natijasida kreditorlar yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qaror asosida sud tomonidan joriy etiladi.

Sud sanatsiyasi tartib-taomili iqtisodiy sud tomonidan qarzdorni moliyaviy jihatdan sog'lomlashtirish hamda kreditorlar oldidagi qarzini uzish maqsadida joriy etiladi.

Umuman olganda, «sanatsiya» qarzdor yuridik shaxs bankrot deb topilishining oldini olish va uning to'lov qobiliyatini tiklashga qaratilgan moliyaviy, iqtisodiy, texnik, ishlab chiqarish, tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar tizimi, «sud sanatsiyasi» to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishda qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklashga qaratilgan tartib-taomil hisoblanadi.

Sud sanatsiyasi davrida qarzdor to'lov qobiliyatini tiklashning chora-tadbirlariga quyidagilar kiradi:

qayta tashkil etish (qarzdor biznesini to'liq yoki qisman bir yoki bir nechta yuridik shaxsga o'tkazish, qarzdor mol-mulkining bir qismini yoki to'liq sotish, yuridik shaxslarni qayta tashkil etish shakllarini qo'llash);

iqtisodiy sog'lomlashtirish (ishlab chiqarishni qayta ixtisoslashtirish, past rentabelli ishlab chiqarishni yopish);

tashkiliy sog‘lomlashtirish (qarzdor rahbarini almashtirish, uning faoliyatini to‘xtatib turish, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining funksiyalarini kengaytirish);

huquqiy vositalardan foydalangan holda sog‘lomlashtirish (debitorlik qarzlarni undirish, qarzdor manfaatlariga zid ravishda tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish, qarzdor shartnomalari ijrosining davom etishini ta’minlash, qarzdorning talabidan o‘zganing foydasiga voz kechish, uchinchi shaxslar tomonidan qarzdorning majburiyatlarini bajarish, qarzdorning qo‘shimcha aksiyalarini joylashtirish).

Tashqi boshqaruv esa korxonani faol ravishda sog‘lomlashtirish maqsadida boshqaruvni vaqtincha maxsus boshqaruvchiga o‘tkazish orqali qarzdorning iqtisodiy faoliyatini qayta tiklashga qaratilgan. Tashqi boshqaruv kreditorlar yig‘ilishining qaroriga yoki to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakolatli davlat organining arizasiga binoan sud tomonidan joriy qilinadigan sog‘lomlashtirish va to‘lov qobiliyatini tiklashga qaratilgan tartib-taomil hisoblanadi.

Tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etishdan maqsad qarzdor va uning biznesini saqlab qolish uchun to‘lov qobiliyatini tiklashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishdir.

Tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy qilishning rasmiy (protsessual) asosi kreditorlar birinchi yig‘ilishining qarori yoki iltimosnomasiga binoan, mol-mulkida davlat ulushi bo‘lgan korxonalar bo‘yicha vakolatli davlat organining arizasi asosida, shuningdek, sudning o‘z tashabbusiga ko‘ra qabul qilingan iqtisodiy sudning ajrimi hisoblanadi.

Tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish uchun moddiy asoslarni ikki guruhga bo‘lish mumkin: 1) tashqi boshqaruv tartib-taomilini qo‘llashning zaruriyati va maqsadga muvofiqligi taqdim etilgan arizada keltirilgan hujjatlar asosida o‘z isbotini topganligi; 2) qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashning haqiqiy imkoniyati.

Tashqi boshqaruv o‘n ikki oydan yigirma to‘rt oygacha muddatga joriy etiladi (Qonun 108-moddasining uchinchi qismi). Tashqi boshqaruvning maqsadi ham qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash, kreditorlar talablarini qanoatlantirishdir. Bunda yuridik shaxsni boshqarish va uning mulkini tasarruf etish bo‘yicha qarzdor rahbari vakolatlari majburiy ravishda tashqi boshqaruvchiga beriladi.

Agar yuqoridagi choralar samara bermasa, *tugatishga doir ish yuritish* tartib-taomili qo‘llanilib, yuridik shaxs-qarzdorning mol-mulki sotiladi va kreditorlarning qonuniy talablari qondiriladi. Tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili kreditorlarning talablarini mutanosib ravishda qanoatlantirish, qarzdorning majburiyatlardan ozod etilganligini hamda tugatilganligini e’lon qilish maqsadida sud tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan tartib-taomil hisoblanadi.

Tugatishga doir ish yuritish kelishuv bitimi tuzilganda yoki kreditorlar talablarining to‘liq qondirilishi, xo‘jalik faoliyatini davom ettirish imkoniyati mavjud bo‘lgan holatda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish tugatilishi bilan tamomlanishi mumkin, shuningdek, qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyati mavjud bo‘lganda tashqi boshqaruv tartib-taomiliga o‘tish mumkin.

Tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilining maqsadi quyidagilardan iborat:

birinchidan, tugatish massasini shakllantirish va kreditorlarning talablarini qonunda belgilangan navbat bo‘yicha mutanosib ravishda qondirish;

ikkinchidan, qarzdorning mol-mulki yetmaganligi uchun qondirilmagan qarz majburiyatlarini qanoatlantirilgan deb hisoblash;

uchinchidan, qarzdorning qolgan mol-mulkini saqlab, kreditorlarning mulkiy manfaatlarini ta’minlash;

to‘rtinchidan, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonini yakunlash natijasida qarzdorning faoliyatini tugatish.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda qo‘llaniladigan tartib-taomillarni nazarda tutadi:

qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish – jismoniy shaxsga nisbatan to‘lov qobiliyatini tiklash va kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida qo‘llaniladigan tartib-taomil;

bankrotlikni tan olish va mol-mulkni sotish – jismoniy shaxsga nisbatan kreditorlarning talablarini mutanosib ravishda qanoatlantirish uchun to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida qo‘llaniladigan tartib-taomil.

Qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish (restrukturizatsiya) jismoniy shaxsning moliyaviy barqarorligini tiklash maqsadida qarzdorning mavjud pul majburiyatlarini qayta ko‘rib chiqish, ularning tuzilmasini yangilash, to‘lov muddatlarini uzaytirish, to‘lovlarni muayyan vaqtgacha kechiktirish yoki qisqartirish kabi huquqiy mexanizmlarni o‘z ichiga oladi. Bu orqali qarzdorga pul majburiyatlarini bosqichma-bosqich bajarish imkoniyati beriladi, kreditorlar uchun esa real, uzoq muddatli qondirilish kafolati yaratiladi.

Agar sud qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tasdiqlagan bo‘lsa, jismoniy shaxs qarzlarni rejaga muvofiq to‘laydi.

Biroq jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi quyidagi talablarga javob berishi kerak: a) jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi taqdim etilgan sanada qarzdor jismoniy shaxs daromad manbaiga ega bo‘lishi kerak; b) jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza qabul qilingan sanaga qadar jismoniy shaxsni mayda o‘g‘rilik sodir etganligi uchun, mol-mulkni qasddan yo‘q qilish, unga zarar yetkazish yoki uni shikastlash yoxud soxta to‘lovga qobiliyatsizlik yoki qasddan to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari bo‘yicha ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortish haqidagi ishlar bo‘yicha ish yuritish tugatilgan bo‘lishi, shuningdek, jismoniy shaxsning iqtisodiy sohada qasddan jinoyat sodir etganligi uchun sudlanganlik holati olib tashlangan yoki tugatilgan bo‘lishi; d) qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi taqdim etilishidan oldingi besh yil davomida jismoniy shaxs bankrot deb topilmaganligi va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili qo‘llanilmaganligi; e) ushbu reja taqdim etilishidan oldingi sakkiz yil davomida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi tasdiqlanmagan bo‘lishi.

Qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyati mavjud emasligi aniqlangan hollarda bankrotlikni tan olish va mol-mulkni sotish tartib-taomili qo‘llaniladi. Mazkur tartib-taomil qarzdorning mol-mulki qonun bilan belgilangan tartibda inventarizatsiya qilinadi, baholanadi va sotuvga qo‘yiladi; tushgan mablag‘lar kreditorlar o‘rtasida

navbatlilik asosida taqsimlanadi. Ushbu tartib-taomil qarzdorning qarz yukidan ozod qilinishi, uning iqtisodiy faoliyatini tubdan yangilash imkonining yuzaga kelishi hamda kreditorlar manfaatlarining huquqiy jihatdan himoya qilinishiga xizmat qiladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi YTTning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritishda qo‘llaniladigan tartib-taomilning huquqiy mohiyati va maqsadini belgilaydi. YTTga nisbatan tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Kreditorlarning e’tirozlari bo‘lmagan taqdirda sud tomonidan tadbirkorning o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan qarzni uzish rejasi tasdiqlanishi mumkin (Qonun 229-moddasining ikkinchi qismi). Bu holda kreditorlar talablarini qanoatlantirish maqsadida ish yuritish ikki oygacha bo‘lgan muddatga to‘xtatilishi mumkin. Agar mazkur rejani bajarish asosida kreditorlarning barcha talablari qondirilsa, ish yuritish tugatiladi (Qonun 229-moddasining beshinchi qismi). Shu orqali qarzdor o‘zini to‘lovga qobiliyatsiz deb topish holatidan qutulishi va tadbirkorlik faoliyatini davom ettirishi mumkin. Qarzdorning to‘lovga qobiliyati tiklanishi faqatgina haqiqiy amalga oshirish imkoniyati bo‘lgan qarzlarni uzish rejasi mavjudligiga bog‘liq bo‘lganligi uchun YTT qarzdor mazkur rejani amalga oshirish mumkin yoki mumkin emasligini e’tiborga olishi kerak. Qarzlarni to‘lay olmaslik holatida u to‘lovga qobiliyatsiz deb topiladi va qolgan majburiyatlarni bajarishdan ozod etiladi, kreditorning hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash va shu kabi alohida toifadagi majburiyatlar bundan mustasno (Qonun 237-moddasining birinchi qismi).

Ushbu mexanizm YTTning faoliyatini to‘xtatish, uning moliyaviy majburiyatlarini bartaraf etish va kreditorlar huquqlarini himoya qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

53. Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda Qonun 30-moddasining ikkinchi qismida, yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda esa ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan tartib-taomillar qo‘llaniladi.

Qarang: Xalqaro sharh. 738-b.

31-modda. Suddan tashqari bajariladigan tartib-taomillar

Suddan tashqari bajariladigan tartib-taomillar sudgacha sanatsiya qilishni yoki qarzdorni ixtiyoriy ravishda tugatishni (faoliyatini tugatishni) o‘z ichiga olishi mumkin.

Sharhlanayotgan modda suddan tashqari bajariladigan tartib-taomillarning huquqiy mohiyati va qo‘llanilish doirasini belgilab, to‘lovga qobiliyatsizlikka oid munosabatlarni sud jarayonigacha tartibga solishga qaratilgan mexanizmlarni nazarda tutadi. Bunda qarzdorga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan suddan tashqari bajariladigan tartib-taomillar turini belgilaydi. Mazkur moddada belgilanishicha, sudgacha sanatsiya qilish hamda ixtiyoriy ravishda tugatish holatlari to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari qatoriga kirmaydi, shunday bo‘lsa-da, ular to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, to‘ldiruvchi ahamiyatga ega.

Sudgacha sanatsiya qilish qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilgunga qadar qo‘llaniladi va uning to‘lov qobiliyatini tiklashni maqsad qilib qo‘yadi, ya’ni tiklash tusidagi taomillar singari maqsadga ega. Biroq sudgacha sanatsiya qilishda sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillaridan farqli o‘laroq, ushbu taomilda sud ishtirok etmaydi.

Ixtiyoriy ravishda tugatish qoidalarini FKning 53–56-moddalari, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni va turli xil yuridik shaxslarning huquqiy maqomini belgilab beruvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar belgilab beradi. Ixtiyoriy tugatish qarzdorning o‘z tashabbusi bilan faoliyatini belgilangan tartibda yakunlashi va o‘z majburiyatlarini tartibli ravishda bajarishini nazarda tutadi. Qarang: Xalqaro sharh. 739-b.

32-modda. Sudgacha sanatsiya qilish asosi

Sudgacha sanatsiya qilish to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilguniga qadar amalga oshiriladi.

Ushbu Qonunning 5-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari yuzaga kelgan taqdirda, qarzdorning rahbari bu haqida qarzdorning muassislariga (ishtirokchilariga), boshqaruv organlariga yoki qarzdor mol-mulkining egasiga yozma shaklda xabar qilishi shart.

To‘lovga qobiliyatsizlikning oldini olish maqsadida qarzdorning muassislari (ishtirokchilari), boshqaruv organi yoki qarzdor mol-mulki egasining qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi arizasi sudga taqdim etilguniga qadar qarzdorni moliyaviy jihatdan sog‘lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘riladi. Qarzdorni moliyaviy jihatdan sog‘lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar qarzdor bilan tuzilgan bitimga asosan kreditorlar yoki boshqa shaxslar tomonidan ham ko‘rilishi mumkin.

Sharhlanayotgan modda sudgacha sanatsiya qilishning asosini belgilab, uni to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari paydo bo‘lganda sudga murojaat etilgunga qadar moliyaviy sog‘lomlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish imkoniyati deb biladi. Bunda qarzdor rahbari muassislar, ishtirokchilar, boshqaruv organlari yoki mol-mulk egasini yozma tarzda xabardor qilishi, shuningdek, chora-tadbirlar qarzdor bilan tuzilgan bitim asosida kreditorlar yoki boshqa manfaatdor shaxslar tomonidan ham ko‘rilishi mumkinligini nazarda tutadi.

1. Sudgacha sanatsiya qilish sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilmasidan oldin amalga oshiriladi. Qonunning 62-moddasida istisno qiluvchi norma mustahkamlangan bo‘lib, unga ko‘ra, ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonaga nisbatan sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgandan keyin sudgacha sanatsiya qilishni qo‘llash to‘g‘risidagi masala hal etilishi mumkin. Ushbu holatda sudgacha sanatsiya qilish o‘tkazilishi munosabati bilan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish tugatiladi.

2. Qarzdorning moliyaviy holatida to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari paydo bo‘lgan taqdirda manfaatdor tomonlarning o‘z vaqtida xabardor qilinishi rahbarning majburiyati ekanligini belgilaydi. Qarzdor rahbari tomonidan yozma xabar berish majburiyati sudgacha sanatsiya choralarini amalga oshirish, moliyaviy sog‘lomlashtirishni ta’minlash hamda kreditorlar huquqlarini himoya qilish uchun huquqiy asos yaratadi.

Qarzdor muassislari (ishtirokchilari), boshqaruv organlari yoki qarzdorning mol-mulki egasi yuridik shaxs ham, jismoniy shaxs ham bo‘lishi mumkin. Qarzdorning muassislarini (ishtirokchilarini), boshqaruv organlari yoki qarzdorning mol-mulki egasini vaqtida xabardor qilish hamda ular tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlikning oldini olish va qarzdorni moliyaviy sog‘lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘rish muhim ahamiyatga ega.

3. Sudgacha sanatsiya qilish tartib-taomili to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilmasdan oldin qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi oldini olish maqsadida kiritiladi. Ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlikning oldini olish mexanizmlarini huquqiy jihatdan belgilaydi va qarzdorning moliyaviy barqarorligini saqlashga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Shu tufayli qarzdorni bankrot deb topishni so‘rab sudga ariza berishdan oldin qarzdorning muassislari (ishtirokchilari), boshqaruv organlari yoki qarzdorning mol-mulki egasi qarzdorning moliyaviy holatini sog‘lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rishlari mumkin. Odatda qarzdorni moliyaviy sog‘lomlashtirish maqsadida rejalashtirilayotgan ishlar va kutilayotgan natijalar aks ettirilgan maxsus biznes reja ishlab chiqiladi.

Bunda chora-tadbirlar, agar zarurat bo‘lsa, qarzdor bilan tuzilgan bitim asosida kreditorlar yoki boshqa manfaatdor shaxslar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Bu tartib sud aralashuvisiz moliyaviy sog‘lomlashtirish jarayonini tezkor, samarali va tizimli tarzda tashkil qilish hamda to‘lovga qobiliyatsizlikning oldini olish uchun huquqiy kafolat yaratadi.

33-modda. Sudgacha sanatsiya qilishga oid huquqiy munosabatlarning obyekti va subyektlari

Sudgacha sanatsiya qilishning obyekti qarzdor yuridik shaxsdir.

Sudgacha sanatsiya qilishning subyektlari qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari), qarzdor mol-mulkining egasi, davlat organlari va boshqa shaxslar bo‘lishi mumkin.

Sharhlanayotgan modda sudgacha sanatsiya qilishga oid huquqiy munosabatlarning obyekti va subyektlarini belgilaydi, unga koʻra, moliyaviy sogʻlomlashtirish choralari qaratilgan obyekt sifatida qarzdor yuridik shaxs e'tirof etiladi, subyektlar sifatida esa uning muassislari (ishtirokchilari), mol-mulk egasi, davlat organlari va boshqa manfaatdor shaxslar ishtirok etib, mazkur jarayonda huquqiy va moliyaviy qoʻllab-quvvatlash, muvofiqlashtirish hamda nazorat funksiyalarini amalga oshiradilar.

1. Sudgacha sanatsiya qilishning obyekti qarzdor hisoblanadi. Sudgacha sanatsiya qilishning obyekti sifatida qarzdor yuridik shaxsning belgilanishi ushbu huquqiy mexanizmning moliyaviy sogʻlomlashtirish choralarini aniq subyektga qaratilgan tarzda amalga oshirishni ta'minlaydi. Bu yuridik shaxsning mol-mulki, iqtisodiy faoliyati va toʻlov qobiliyatini kompleks baholash hamda uni tiklash choralarini sud aralashuvisiz, samarali va huquqiy jihatdan asoslangan tartibda amalga oshirish imkonini yaratadi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-oktyabrdagi 708-son qaroriga ilova muvofiq tasdiqlangan «Sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam koʻrsatgan holda oʻtkazish tartibi toʻgʻrisida»gi Nizomga koʻra, toʻlovga qobiliyatsizlik alomatiga ega boʻlgan korxona sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam koʻrsatgan holda oʻtkazishning obyekti hisoblanadi. Mazkur Nizomda sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam koʻrsatgan holda oʻtkazishning obyektlar tasnifi belgilangan boʻlib, quyidagilar birinchi navbatda sudgacha sanatsiya qilinadigan korxonalar hisoblanadi:

hayotiy muhim oziq-ovqat va nooziq-ovqat xalq iste'moli mollari hamda dori-darmonlar ishlab chiqaruvchi korxonalar;

davlat mudofaasi va xavfsizligi saqlab turilishini ta'minlovchi korxonalar;

respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim oʻrin egallagan bazaviy tarmoq (kon qazish, energetika, metallurgiya, kimyo va boshqa tarmoq) korxonalari;

raqobatbardosh, eksportbop va import oʻrnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar;

zamonaviy, yuqori unumli texnika ishlab chiqarishni va iqtisodiyot sohasiga yangi, progressiv, resurs tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni ta'minlaydigan korxonalar;

shaharni tashkil etuvchi va unga tenglashtirilgan korxonalar.

Qishloq xoʻjaligi korxonalariga nisbatan sudgacha sanatsiya qilishni oʻtkazishda «Qishloq xoʻjaligi korxonalarini sanatsiya qilish toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni ham qoʻllaniladi. Ushbu Qonunga koʻra, zarar koʻrib ishlovchi, toʻlovga qobiliyatsiz va iqtisodiy jihatdan nochor ahvoldagi qishloq xoʻjaligi korxonalari sanatsiya obyektlari boʻladi.

Bunda sudgacha sanatsiya qilish qishloq xoʻjaligi korxonalarining toʻlovga qobiliyatsizligi toʻgʻrisida ish qoʻzgʻatishga qadar amalga oshiriladi va qishloq xoʻjaligi korxonasining toʻlov qobiliyatini, iqtisodiy quvvatini tiklash va kelgusida uning faoliyati samarali boʻlishi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida qonun sudgacha sanatsiya qilishda subyekt sifatida ishtirok etadigan shaxslar sonini chegaralamasligi belgilangan. Subyekt sifatida qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari), qarzdorning mol-mulki

egasi, davlat organlari, shuningdek, boshqa shaxslar ham bo‘lishi mumkin. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-oktyabrdagi 708-son qaroriga ilova muvofiq tasdiqlangan «Sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomda ham to‘lovga qobiliyatsizlik alomatiga ega bo‘lgan korxonaning muassislari (ishtirokchilari), korxona mol-mulkining egasi, davlat organlari va boshqa shaxslar sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazishning subyektlari bo‘lishi mumkinligi belgilangan.

«Qishloq xo‘jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida qishloq xo‘jaligi korxonalari mol-mulkining mulkdorlari, kreditorlar yoki boshqa yuridik va jismoniy shaxslar sanatsiya subyektlari bo‘lishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Bu subyektlar qarzdorning moliyaviy barqarorligini tiklash, to‘lovga qobiliyatsizlikning oldini olish va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida muvofiqlashtiruvchi, nazoratchi va qo‘llab-quvvatlovchi vazifani bajaradi.

34-modda. Sudgacha sanatsiya qilishning asosiy chora-tadbirlari

Sudgacha sanatsiya qilishning asosiy chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

to‘lov muddati o‘tkazib yuborilgan qarzlarni to‘liq yoki qisman sotib olish;

ishlab chiqarishni raqobatbardosh mahsulot chiqarishga moslab qayta ixtisoslashtirish;

chetdan yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish;

xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanishi hamda faoliyatini davom ettirishidan manfaatdor bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan moliyaviy yordam ko‘rsatish;

qarzdorning faoliyatni davom ettirishi uchun kreditorlarga to‘lanadigan to‘lovlar muddatini kechiktirish va (yoki) uni bo‘lib-bo‘lib to‘lash yoxud qarzlardan chegirma berish to‘g‘risida qarzdor va kreditorlar o‘rtasida kelishuvga erishishga qaratilgan bitim;

soliqlar hamda yig‘imlarni to‘lashni va kreditlarni qaytarishni sudgacha sanatsiya qilish muddatiga kechiktirish;

qarzdor yuridik shaxsni qayta tashkil etish.

Sudgacha sanatsiya qilish tartib-taomilida boshqa chora-tadbirlar ham bo‘lishi mumkin.

Sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan organning qarori asosida amalga oshiriladi.

Sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish tartibi qonunchilikda tartibga solinadi.

Sudgacha sanatsiya qilish qarzdorga davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazilayotganda qarzdorga uning xizmat ko‘rsatib kelayotgan bankdagi ishlab turgan hisobvaraqlari to‘xtatib qo‘yilib, so‘mlardagi va (yoki) valyutadagi sanatsiya hisobvarag‘i ochiladi. Sanatsiya hisobvarag‘idan foydalanish tartibi qonunchilikda belgilanadi.

Sharhlanayotgan moddada sudgacha sanatsiya qilishning asosiy chora-tadbirlari qarzdor yuridik shaxsning moliyaviy barqarorligini tiklash va faoliyatini davom ettirishga qaratilgan bo‘lib, ular muddati o‘tgan qarzlarni qoplash, ishlab chiqarishni qayta ixtisoslashtirish, malakali mutaxassislarni jalb qilish, xodimlarni tayyorlash, moliyaviy yordam ko‘rsatish, kreditorlar bilan to‘lov shartlarini qayta kelishish, soliq va yig‘imlarni to‘lashni kechiktirish hamda yuridik shaxsni qayta tashkil etishni o‘z ichiga oladi.

Mazkur modda sudgacha sanatsiyaning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlari, chora-tadbirlari hamda davlat ko‘magi bilan amalga oshirilish jarayonini belgilaydi.

1. Sudgacha sanatsiya qilish qarzdorni sog‘lomlashtirish bo‘yicha asosiy chora-tadbirlarni belgilab beradi va ushbu choralarini shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin:

Iqtisodiy – muddati o‘tkazib yuborilgan qarzlarni to‘la yoki qisman sotib olish, raqobatbardosh mahsulot chiqarishga moslab ishlab chiqarishni qayta ixtisoslashtirish, qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanishi hamda faoliyatini davom ettirishidan manfaatdor bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan moliyaviy yordam ko‘rsatilishi.

Bunda to‘lov muddati o‘tkazib yuborilgan qarzlarni to‘liq yoki qisman sotib olish jarayonida qarzdorning uzoq muddatli qarz majburiyatlari qoplanishi orqali uning moliyaviy barqarorligi tiklanadi va kreditorlar talablari qisman yoki to‘liq qondiriladi.

Ishlab chiqarishni raqobatbardosh mahsulot chiqarishga moslab qayta ixtisoslashtirishda esa ishlab chiqarish jarayonlari va mahsulot turlarini bozor talablariga moslashtirish orqali qarzdorning iqtisodiy faolligini oshirish va daromad olish imkoniyati yaratiladi.

Qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanishi hamda faoliyatini davom ettirishidan manfaatdor bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan moliyaviy yordam ko‘rsatish orqali qarzdorning faoliyatini davom ettirish va moliyaviy barqarorligini saqlash maqsadida investitsiyalar, kreditlar yoki grantlar shaklida moliyaviy yordam taqdim etiladi.

Huquqiy – qarzdor faoliyatini davom ettirishi uchun qarzdor bilan kreditorlar o‘rtasida kreditorlarga to‘lanadigan to‘lovlar muddatini kechiktirish va (yoki) uni bo‘lib-bo‘lib to‘lash yoxud qarzlardan siylov berish to‘g‘risida kelishuvga erishishga qaratilgan bitim tuzish, majburiy to‘lov majburiyatini bajarishni va kreditlarni qaytarishni sudgacha sanatsiya qilish muddatiga kechiktirish.

Kreditorlar bilan kelishuv orqali to‘lov muddatini kechiktirish, bo‘lib-bo‘lib to‘lash yoki chegirma berish orqali qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash va faoliyatni barqaror davom ettirish uchun qarzdor va kreditorlar o‘rtasida majburiyatlarni qayta kelishish mexanizmi hisoblanadi.

Soliqlar va yig‘imlarni to‘lashni, shuningdek, kreditlarni qaytarishni sudgacha sanatsiya muddatiga kechiktirish chora-tadbiri qarzdorning moliyaviy yukini kamaytirish va faoliyatini tiklash uchun to‘lovlarni kechiktirish mexanizmi bo‘lib, bu to‘lovga qobiliyatsizlikni oldindan bartaraf etishga xizmat qiladi.

Tashkiliy – chetdan yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, qarzdor yuridik shaxsni qayta tashkil etish.

Bunda chetdan yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish orqali mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun zarur malakali kadrlar jalb qilinadi, bu orqali qarzdorning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshliligi ta’minlanadi.

Xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mehnat resurslarining sifatini yaxshilash, samaradorlikni oshirish va tashkilot faoliyatini barqaror davom ettirishga yordam beradi.

Qarzdor yuridik shaxsni qayta tashkil etish qarzdor faoliyati samaradorligini oshirish, majburiyatlarini qayta tuzish va faoliyatini barqarorlashtirishga qaratilgan mexanizm hisoblanadi.

Sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazishda quyidagi ko‘maklar berilishi mumkin:

to‘lovga qobiliyatsizlik alomatiga ega bo‘lgan korxonaga xizmat ko‘rsatuvchi bankda ilgari amal qilgan hisobvaraqlari to‘xtatilgan holda sanatsiya hisobvarag‘ini ochishga ruxsat berish;

tijorat banklaridan kredit olishda yoki kreditorlar bilan kelishuv davrida kafilliklar berish shaklida moliyaviy yordam ko‘rsatish;

xalqaro moliya institutlari va xorijiy moliya tashkilotlari bilan korxonalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish, ularga texnik va maslahat ko‘magi ko‘rsatilishini tashkil etish bo‘yicha o‘zaro hamkorlik qilish;

foydalanilmayotgan asosiy vositalarni va qurilishi tugallanmagan obyektlarni konservatsiya qilish;

qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ko‘maklar.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida sudgacha sanatsiya qilish tartib-taomilida qonunchilikda aniq ko‘rsatilgan asosiy chora-tadbirlardan tashqari qo‘shimcha choralar ham qo‘llanilishi mumkinligi nazarda tutiladi.

Qo‘shimcha chora-tadbirlar sudgacha sanatsiya tartib-taomilida qarzdorning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, to‘lovga qobiliyatsizlikning oldini olish va kreditorlar manfaatlarini adolatli tarzda ta’minlash, shuningdek, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kadrlar malakasini oshirish va moliyaviy nazoratni kuchaytirish orqali qarzdorning iqtisodiy faoliyatini samarali va raqobatbardosh holda davom ettirishini ta’minlash ko‘zda tutiladi.

Sudgacha sanatsiya qilish tartib-taomili o‘zida boshqa chora-tadbirlarni ham mujassamlashtirgan bo‘lishi mumkin, xususan, qarzdorni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda sudgacha sanatsiya qilish ham shular jumlasidandir. Bular orqali qarzdorni bankrot deb topilishining oldi olinishi mumkin bo‘ladi.

3. Sudgacha sanatsiyani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmi qarzdor yuridik shaxsning moliyaviy barqarorligini tiklash va faoliyatini davom ettirishda dav-

latning ishtiroki va qonuniy vakolatini ta’minlaydi. Bu jarayon Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan vakolatli organning qarori asosida amalga oshiriladi, ya’ni davlat organi sanatsiyani muvofiqlashtiruvchi, nazorat qiluvchi va moliyaviy yordam ko‘rsatuvchi taraf sifatida ishtirok etadi. Amaliy jihatdan bu mexanizm sud aralashuvisiz, davlat ko‘magi orqali qarzdorning faoliyatini barqarorlashtirish, to‘lov qobiliyatini tiklash va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-oktyabrdagi 708-son qarori bilan tasdiqlangan «Sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga binoan, sudgacha sanatsiya qilish davlat organlarining ishtiroki bilan yoki, aksincha, uning ishtirokisiz, qaytarish yoki qaytarmaslik asosida, shu jumladan, tanlov asosida amalga oshirilishi mumkin.

To‘lovga qobiliyatsizlik alomati mavjud bo‘lgan korxonani sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish to‘g‘risidagi qarorni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan organ qabul qiladi.

4. Sudgacha sanatsiyani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshirish tartibi qonunchilikda aniq belgilanishi lozim, chunki bu qarzdorning moliyaviy barqarorligini tiklash, to‘lov qobiliyatini qaytarish va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish jarayonida huquqiy asos va kafolatlarni ta’minlaydi. To‘lovga qobiliyatsizlik alomatiga ega bo‘lgan qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash va moliyaviy sog‘lomlashtirish sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-oktyabrdagi 708-son qarori bilan tasdiqlangan «Sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom to‘lovga qobiliyatsizlik alomatiga ega bo‘lgan qarzdorni moliyaviy sog‘lomlashtirish hamda ularning to‘lov qobiliyatini tiklash uchun sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish masalalarini tartibga soladi.

Ushbu Nizom «Qishloq xo‘jaligi korxonalarini sanatsiyalash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladigan qishloq xo‘jaligi korxonalarini sudgacha sanatsiya qilishga tatbiq etilmaydi.

Sudgacha sanatsiya qilish davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda to‘lovga qobiliyatsizlik alomatiga ega bo‘lgan korxonaga nisbatan sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilguniga qadar o‘tkaziladi va korxonaning to‘lov qobiliyatini tiklash hamda kelgusida samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Yuqorida qayd qilingan Nizomning 12-bandiga ko‘ra, to‘lovga qobiliyatsizlik alomati mavjud bo‘lgan korxonani sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish to‘g‘risidagi qarorni Davlat aktivlarini boshqarish agentligi qabul qiladi.

To‘lovga qobiliyatsizlik alomati mavjud bo‘lgan korxonani davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda sudgacha sanatsiya qilish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish uchun to‘lovga qobiliyatsizlik alomati mavjud bo‘lgan korxona rahbari yoki uning no-

midan murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxsning Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga taqdim etgan murojaati asos bo‘ladi.

Bunda korxona mazkur xizmatdan foydalanish uchun Davlat xizmatlari markaziga o‘zi kelib murojaat etadi yoki davlat xizmatlaridan elektron shaklda foydalanish uchun O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (keyingi o‘rinlarda – YIDXP) ro‘yxatdan o‘tadi.

Shuningdek, Nizomda korxona rahbari yoki uning nomidan murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxs sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazishni joriy etish xizmatidan foydalanish davomida bosh tortish huquqiga ega ekanligi, bu holatda murojaatni ko‘rib chiqish to‘xtatilishi, agar sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazishni joriy etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan bo‘lsa, mazkur qaror bekor qilinishi qayd etilgan.

Sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish joriy etilgan korxona rahbari va uning boshqaruv organlari korxonani moliyaviy sog‘lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni bajarishga mas’ul hisoblanadi.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismida sudgacha sanatsiyani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlagan holda amalga oshirishda qarzdorga uning xizmat ko‘rsatib kelayotgan bankdagi hisobvaraqlari to‘xtatilib, alohida so‘m va (yoki) valyutada sanatsiya hisobvarag‘i ochilishining huquqiy va moliyaviy nazorati ko‘zda tutilgan. Bu mexanizm orqali mablag‘lar faqat sudgacha sanatsiya chora-tadbirlariga yo‘naltirilishi, kreditorlar talablari adolatli tarzda qondirilishi va qarzdorning moliyaviy barqarorligini tiklash jarayonida samarali foydalanishi kafolatlanadi.

Bunda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining qaroriga asosan sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish joriy etilgan korxonaga milliy va (yoki) chet el valyutasidagi sanatsiya hisobvarag‘i ochiladi.

Xizmat ko‘rsatuvchi bank ariza kelib tushgan sanadan e’tiboran bir ish kunida 2-son kartotekaning va sudgacha sanatsiyani davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish joriy etilgan korxonaning ushbu bankdagi boshqa barcha hisobvaraqlarining amal qilishini to‘xtatib, ulardagi mavjud mablag‘larni korxonaning sanatsiya hisobvarag‘iga o‘tkazadi. Bunda korxonaning chet el valyutasidagi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i avvalgi rejimda faoliyatni davom ettiradi, uni tasarruf etish huquqi sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish joriy etilgan korxonaga o‘tadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 15-fevraldagi 3/12-son qaroriga ilovaga muvofiq tasdiqlangan hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 13-aprelda 3229-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan «O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida»gi Nizomga ko‘ra, 2-son kartoteka muddatida to‘lanmagan to‘lov hujjatlari hisobi yuritiladigan balansdan tashqari hisobvaraq hisoblanadi.

Mablag‘larni sanatsiya hisobvarag‘idan hisobdan chiqarishga faqat sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish joriy etilgan korxonaning to‘lov topshiriqnomalari asosida yo‘l qo‘yiladi.

Sanatsiya hisobvarag‘idagi sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish joriy etilgan korxonaning to‘lov topshiriqnomasi bilan qarzni uzish jadvaliga muvofiq joriy to‘lovlar va to‘lovlar amalga oshiriladi.

Sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish joriy etilgan korxonaning chet el valyutasidagi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalar Markaziy bankning ushbu hisobvaraqning amal qilishini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlari bilan belgilangan tartibda, sudgacha sanatsiya qilinayotgan korxonaning topshiriqlariga ko‘ra o‘tkaziladi.

Sanatsiya hisobvarag‘ining amal qilishi belgilangan sudgacha sanatsiya qilish muddati yakunlanganda yoki Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazishni muddatidan avval tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda to‘xtatiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 739-b.

35-modda. Sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish muddati

Qarzdorni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda sudgacha sanatsiya qilish o‘n ikki oydan yigirma to‘rt oygacha muddatga joriy etiladi.

Sharhlanayotgan modda sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish muddatini belgilaydi. Sudgacha sanatsiyani davlat yordami bilan o‘tkazishning mazkur muddati qarzdorning moliyaviy barqarorligini, to‘lov qobiliyatini qayta tiklash va kreditorlar talablarini qondirish uchun huquqiy va amaliy jihatdan zarur. Muddatning aniq ko‘rsatilishi davlat yordamidagi sanatsiya jarayonida chora-tadbirlarni rejalashtirish, moliyaviy resurslardan maqsadli foydalanish va monitoringini ta’minlaydi, shu bilan birga, qarzdorning faoliyatini barqarorlashtirish va to‘lovga qobiliyatsizlikning oldini olish imkonini beradi.

Qarzdorni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda sudgacha sanatsiya qilish bu haqidagi arizalarni ko‘rib chiqishga vakolatli organning qaroriga asosan o‘n ikki oydan yigirma to‘rt oygacha muddatga joriy etiladi.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazishning muddati (masalan, o‘n to‘rt oy muddat joriy etilganda) umumiy muddatidan oshmagan muddatga uzaytirish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi mumkin.

Shuningdek, «Qishloq xo‘jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 13-moddasiga asosan, qishloq xo‘jaligi korxonasini sanatsiya qilish yigirma to‘rt oy muddatgacha joriy etiladi. Shu o‘rinda aytish o‘rinliki, mazkur Qonun davlat tomonidan yordam ko‘rsatilgan holda sudgacha sanatsiya qilishni minimal muddatini belgilamaydi. Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda ushbu muddatning o‘n ikki oyga uzaytirilishiga yo‘l qo‘yiladi.

36-modda. Davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda sudgacha sanatsiya qilishni bekor qilish

Davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda sudgacha sanatsiya qilish tartib-taomili uning samarasizligi aniqlanganligi munosabati bilan bekor qilinishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda sudgacha sanatsiya qilishni bekor qilishning quyidagi asoslari belgilab berilgan:

sudgacha sanatsiya muddatining tugashi;

sudgacha sanatsiya samarasizligining aniqlanishi.

Monitoring natijasida sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish samarasiz ekanligi aniqlanganda (biznes rejasi va (yoki) qarzni uzish jadvali ketma-ket uch chorak davomida bajarilmasa) yoki sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish muddati tugaganda yoxud soliq organi tomonidan soliqlarni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashning amal qilishi muddatidan oldin tugatilganda, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazishni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligining sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazishni tugatish to‘g‘risidagi qarori qabul qilinganidan so‘ng mazkur qarorning nusxasi uch ish kunidan kechiktirilmay korxonaga xizmat ko‘rsatuvchi tijorat bankiga va soliq organiga hamda sudgacha sanatsiya qilish tugatilgan korxonaga yuboriladi.

Xizmat ko‘rsatuvchi bankka Davlat aktivlarini boshqarish agentligining sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazishni muddatidan avval tugatish to‘g‘risidagi qarori nusxasi taqdim etilgan kundan boshlab sanatsiya hisobvarag‘ining amal qilishi to‘xtatiladi va u talab qilib olinguncha asosiy depozit hisobvarag‘i sifatida amal qilishda davom etadi.

Bundan tashqari, qonunchilik korxona rahbari yoki uning nomidan murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxs sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazishni joriy etish xizmatidan foydalanish davomida bosh tortish huquqiga ega ekanligini ham belgilaydi. Bu holatda murojaatni ko‘rib chiqish to‘xtatiladi. Bunda sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazishni joriy etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan bo‘lsa, mazkur qaror bekor qilinadi.

5-BOB. TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI SUDDA KO‘RISH

37-modda. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish asoslari

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish ushbu Qonunning 5-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo‘lganda sud tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ishni yuritish kreditorlarning, qarzdorning va ushbu Qonun bilan vakolat berilgan shaxslarning arizasi asosida joriy etiladi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish va to‘lovga qobiliyatsizlikni tiklash tartib-taomillaridan birini qo‘llash haqida sudga ariza bilan murojaat qilishga qarzdorning vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizligi asos bo‘ladi.

Qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish hamda uni bankrot deb topish, shuningdek, tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqidagi ariza bilan sudga murojaat etish uchun qarzdorning doimiy to‘lovga qobiliyatsizligi asos bo‘ladi.

Kreditorning qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish hamda uni bankrot deb topish, shuningdek, tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida ariza bilan sudga murojaat etishi uchun kreditor talablarining asosliligini tasdiqlovchi dalillar, shu jumladan, sudning qonuniy kuchga kirgan qarori, mazkur talablar qarzdor tomonidan tan olinganligini tasdiqlovchi dalillar, notariusning ijro xati asos bo‘ladi.

Davlat soliq xizmati organi tomonidan qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza berish uchun soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha qarzni undirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar asos bo‘ladi.

Sharhlanayotgan moddada to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish va ish yuritishning joriy etilish asoslari, vaqtincha va doimiy to‘lovga qobiliyatsiz deb topishning asoslari, kreditorning qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish hamda uni bankrot deb topish uchun taqdim etiladigan tasdiqlovchi dalillari, soliq xizmati organi tomonidan qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza berish uchun soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha qarzni undirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar asos bo‘lishi belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish Qonun 5-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo‘lgan taqdir-

dagina sud tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkinligini belgilaydi. Bu alomatlar qarzdorning vaqtincha yoki doimiy to‘lovga qobiliyatsizligini anglatadi.

Biroq 5-moddada nazarda tutilgan qoidalar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar soddalashtirilgan tartibda ko‘rib chiqilayotganda, jismoniy shaxslar, shuningdek, YTTning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishlar ko‘rib chiqilayotganda qo‘llanilmasligi Qonunda belgilangan.

2. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish, Qonunning 7-moddasiga muvofiq, sudga murojaat etish huquqiga ega bo‘lgan shaxs (qarzdor, kreditor, davlat soliq xizmati organlari, vakolatli davlat organi va uning hududiy boshqarmalari)ning arizasi asosida shakllantiriladi. Bu haqida Qonunning 7-moddasiga berilgan sharhda batafsil bayon qilingan.

3. Qarzdorning vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizligi asosida murojaat qilish Qonun normasiga ko‘ra, agar qarzdorning vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizligi mavjud bo‘lsa, u to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish va uni tiklash tartib-taomillaridan birini qo‘llash haqida sudga ariza bilan murojaat etishi mumkin.

Bu norma qarzdorga iqtisodiy qiyinchilikni bartaraf etish imkonini berishga qaratilgan. Vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizlik korxona yoki shaxsning ayni vaqtda o‘z majburiyatlarini bajara olmasligi, biroq kelgusida moliyaviy barqarorlikni tiklash imkoniyati saqlanib qolgan holat hisoblanadi.

Sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atgandan so‘ng qarzdorga nisbatan muvaqqat boshqaruvchini tayinlaydi. Muvaqqat boshqaruvchi qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil etish natijasida qarzdorning moliyaviy ahvoli to‘g‘risida agar vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlansa, to‘lov qobiliyatini tiklash tartib-taomillaridan birini joriy etishning asoslari mavjudligi to‘g‘risida xulosani tayyorlaydi. Bunday holatda sud ushbu xulosa asosida qarzdorni bankrot deb topishni emas, balki sanatsiya yoki tashqi boshqaruv kabi uning faoliyatini sog‘lomlashtirishga yoki tiklashga qaratilgan tartib-taomillardan birini qo‘llashni ko‘rib chiqishi mumkin. Bu qoida iqtisodiy faoliyatni to‘xtatmaslik, ish o‘rinlarini saqlab qolish va kreditorlar manfaatlarini mutanosib himoya qilish maqsadida joriy etilgan.

4. Doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik asosida ish qo‘zg‘atish. Agar qarzdorning doimiy to‘lovga qobiliyatsizligi aniqlansa, bu holat sudga qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish hamda uni bankrot deb topish, shuningdek, tugatishga doir ish yuritishni boshlash masalasida ariza kiritish uchun asos bo‘ladi.

Doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik qarzdorning moliyaviy ahvoli barqaror yomonlashgan, majburiyatlarni uzoq vaqt davomida bajara olmagan, aktivlari yetarli bo‘lmagan holatni anglatadi.

Qonunning 82-moddasiga asosan, Muvaqqat boshqaruvchi tahlil natijasida qarzdorning moliyaviy ahvoli to‘g‘risida agar doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlarini aniqlasa, to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyati mavjudligi yoki mavjud emasligi to‘g‘risidagi xulosani tayyorlaydi.

Bu holatda sud nafaqat qarzdorning faoliyatini tiklashni, balki uning mol-mulkini sotish, kreditorlar talablarini qondirish va tugatish ishlarini amalga oshirish masalalarini ko‘rib chiqadi. Shu orqali iqtisodiy tizimda past rentabelli subyektlarning faoliyati to‘xtatilib, iqtisodiy barqarorlik ta’minlanadi.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismida kreditorning ariza berishi asoslari keltirilgan. Qonunga koʻra, kreditor qarzdorga nisbatan toʻlovga qobiliyatsizlik ishini qoʻzgʻatish yoki uni bankrot deb topish haqida ariza bilan murojaat qilish uchun talablarining asosliligini isbotlovchi hujjat-dalillarni taqdim etishi shart.

Bunday dalillar quyidagilar boʻlishi mumkin: sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori; qarzdorning qarzni tan olganligi haqidagi hujjat; notariusning ijro xati.

Bu talab kreditorning arizasi asossiz ravishda iqtisodiy faoliyat yuritayotgan subyektga nisbatan berilmasligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, sud faqat aniq, hujjatli asosga ega holatlardagina toʻlovga qobiliyatsizlik ishini qabul qiladi.

6. Davlat soliq xizmati organining ariza berish huquqi. Qonun davlat soliq xizmati organlariga ham qarzdorga nisbatan toʻlovga qobiliyatsizlik toʻgʻrisida ish qoʻzgʻatish haqida ariza berish huquqini beradi. Bu holatda ariza berish uchun asos soliqlar va yigʻimlar boʻyicha qarzni undirish yuzasidan koʻrilgan chora-tadbirlar samara bermaganligidir.

Agar davlat soliq xizmati organi qonuniy tartibda majburiy ijro choralarini qoʻllab ham qarzdordan qarzni undira olmasa, qarzdorga nisbatan toʻlovga qobiliyatsizlik toʻgʻrisida ish qoʻzgʻatish uchun sudga murojaat qilishi mumkin.

Bu mexanizm davlat manfaatlarini himoya qilish bilan birga iqtisodiy tizimda noqonuniy yoki samarasiz subyektlarni aniqlash va ularning moliyaviy faoliyatini tartibga solishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi qonun normalari toʻlovga qobiliyatsizlik ishini qoʻzgʻatishdagi huquqiy asoslar va ishtirokchi subyektlarning vakolatlarini aniq belgilaydi. Ularning mazmunidan kelib chiqib quyidagi asosiy maqsad koʻzda tutilgan: qarzdorning haqiqiy moliyaviy holatini farqlash (vaqtincha yoki doimiy); bankrotlik jarayonlarini suiiste'mol qilishning oldini olish; kreditorlar va davlat manfaatlarini mutanosib himoya qilish; iqtisodiy faol subyektlarni saqlab qolish va faqatgina toʻliq moliyaviy tanazzul holatlarida tugatishga yoʻl qoʻyish. Qarang: Xalqaro sharh. 740-b.

38-modda. Toʻlovga qobiliyatsizlik toʻgʻrisidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar

Toʻlovga qobiliyatsizlik toʻgʻrisidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar quyidagilardan iborat:

qarzdor;

sud boshqaruvchisi;

kreditorlar, ular tomonidan qarzdorga ushbu Qonunda belgilangan tartibda talablar taqdim etilgan paytdan e'tiboran;

vakolatli davlat organi;

qarzdorning majburiyatlari boʻyicha ta'minot bergan shaxs.

Toʻlovga qobiliyatsizlik toʻgʻrisidagi ishda qarzdor yuridik shaxs xodimlarining vakili, qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) vakili yoki qarzdorning mol-mulki egasi, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning vakili, kredi-

torlar yig‘ilishi (kreditorlar qo‘mitasi) vakili hamda boshqa shaxslar ishtirok etishi mumkin.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda qo‘llaniladigan har qanday tartib-taomil jarayonida sudga soxta to‘lovga qobiliyatsizlikka, to‘lovga qobiliyatsizlikni yashirishga yoki qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelgan alomatlarni aniqlash maqsadida ekspertiza tayinlash haqidagi iltimosnoma bilan murojaat qilishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek, ushbu ishda qarzdor yuridik shaxs xodimlarining vakili, qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) vakili yoki qarzdorning mol-mulki egasi, qarzdor YTTning vakili, kreditorlar yig‘ilishi (kreditorlar qo‘mitasi) vakili hamda boshqa shaxslarning ishtirok etishi va ularning qay holatlarda ekspertiza tayinlash haqidagi iltimosnoma bilan murojaat qilishiga oid masalalar yoritilgan.

1. To‘lovga qobiliyatsizlikda yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar subyektining to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar toifasiga kiritilishi ko‘rsatilgan subyektlarda IPKning 35-moddasida nazarda tutilgan protsessual huquq va majburiyatlarni keltirib chiqaradi. Mazkur shaxslar sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishning ko‘rib chiqilishi va qonunda nazarda tutilgan, to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining amalga oshirilishi doirasida protsessual huquqiy munosabatlarning to‘la huquqli subyektlari bo‘ladilar. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual huquq va majburiyatlari Qonun bilan aniqlashtirilgan.

1.1. Qarzdor – pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlarning talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘z majburiyatini bajarishga qodir bo‘lmagan yuridik shaxs yoki YTT.

Ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatidagi qarzdor o‘zini bankrot deb topish to‘g‘risida ariza berganda, shuningdek, kreditor (kreditorlar), vakolatli organlarning talablari uni bankrot deb topish maqsadida unga qarshi qaratilgan holda ham arz qiluvchi sifatida ishtirok etishi mumkin.

1.2. Sud boshqaruvchisi (muvaqqat boshqaruvchi, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi, tashqi boshqaruvchi, tugatish boshqaruvchisi) sud tomonidan tayinlangan vaqtdan e’tiboran to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishning ishtirokchisi hisoblanadi.

1.3. Kreditorlar qonunda belgilangan tartibda qarzdorga nisbatan o‘z talablarini taqdim etgan vaqtdan e’tiboran ishda ishtirok etuvchi shaxs hisoblanadi. Kreditorlar qarzdorga o‘z talablarini ikki ko‘rinishda taqdim etishi mumkin. Birinchi holatda kreditor sudga qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risida murojaat etadi va shu bilan qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atishda tashabbus ko‘rsatadi. Ikkinchi holatda qo‘zg‘atib bo‘lingan ishda kreditor kreditorlar yig‘ilishida ishtirok etish, uni kreditorlar talablari ro‘yxatiga kiritish va talablarini qondirish maq-

sadida qarzdorga talablar qo‘yadi. Bu tusdagi talablarni taqdim etish tartibini belgilovchi qoidalar Qonunning 116-moddasi bilan belgilanadi.

1.4. Vakolatli davlat organi ustav fondi (ustav kapitali)da davlat ulushi bo‘lgan korxonalarning, shuningdek, boshqa shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizlik ishida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga solish sohasidagi ixtisoslashgan davlat organi hisoblanadi. Uning vakolatlari Qonunning 29-moddasida ko‘rsatilgan.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, vakolatli davlat organi o‘z tashabbusi bilan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish haqida sudga ariza bergan hollarda, shuningdek, qarzdorga nisbatan ustav fondi (ustav kapitali)da davlat ulushi bo‘lgan hollarda, bu ish uning tashabbusi bilan qo‘zg‘atilgan yoki qo‘zg‘atilmaganligidan qat’i nazar, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida tan olinadi.

IPK 148-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan yuridik shaxslar va fuqarolarning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan prokurorning, davlat organlari va boshqa shaxslarning arizalari bo‘yicha sud tomonidan ish qo‘zg‘atish haqidagi qoida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarga qo‘llanilmaydi.

Shu munosabat bilan ushbu shaxslar qarzdor, kreditor yoki davlat soliq va bojxona xizmati organlari manfaatlarida qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi haqida ish qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat etganda, ariza IPK 155-moddasi birinchi qismining 2-bandiga mos holda qaytariladi, ariza ish yuritishga qabul qilingan bo‘lsa, IPK 107-moddasining 3-bandiga mos holda ko‘rmasdan qoldiriladi.

1.5. Qarzdorning majburiyatlari bo‘yicha ta’minot bergan shaxslar uchinchi shaxslar bo‘lib, ular qarzdorning kreditor oldidagi majburiyatlarini bajarishini kafolatlaydi. Ular quyidagi turlarga bo‘linadi: kafil, garant (kafolat beruvchi: odatda bank yoki sug‘urta tashkiloti; kafildan farqi mustaqil majburiyat oladi), garov beruvchi (o‘z mulkini qarzni ta’minlash uchun garovga qo‘yadi, u qarz beruvchi bo‘lmasligi mumkin), sug‘urtalovchi (qarz majburiyatini sug‘urta shartnomasi orqali ta’minlaydi), hamqarz (solidar qarzdor) va h.k.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida Qonunning birinchi qismida ko‘rsatilganlardan tashqari qonunda belgilangan tartibda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etishi mumkin bo‘lgan boshqa shaxslar nazarda tutilgan.

Qarzdor xodimlari majlis o‘tkazib vakilni saylagan holda, shuningdek, FKning 10-bobi hamda IPK 6-bobining 2-paragrafida nazarda tutilgan va rasmiylashtirilgan ishonchnoma asosida vakil to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etish huquqiga ega. Xodimlar vakili xodimlar manfaatlari yuzasidan amal qiladi va bu manfaatlarni to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha ish yuritishda taqdim etadi. Qarzdor xodimlarining vakili qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizasining nusxasini, faqat u qarzdor bunday arizani berishdan oldin saylangan bo‘lsagina, talab etish huquqiga ega. Shuningdek, u mehnat shartnomasi asosida ishlovchi shaxslarga mehnat haqi to‘lash va ishdan bo‘shatish nafaqasi to‘lash bo‘yicha talablarning miqdori va tarkibi xususida sud boshqaruvchisi bilan nizolar kelib chiqqanda sudga shikoyat qilishi mumkin (Qonunning 60-moddasi). Bunda xodimlarning o‘zlari bunday e’tirozlarni berish huquqiga ega emasliklarini hisobga olish kerak.

Qarzdor muassislar (ishtirokchilar) yoki qarzdor mol-mulki egasi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishning ishtirokchilari bo‘la oladilar, chunki ular to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonunga binoan kreditorlar kabi ulushni ajratib berish to‘g‘risida qarzdorga talab qo‘yish huquqiga egadir. Mazkur qism qarzdor muassislari (ishtirokchilari) vakili yoki qarzdor mol-mulki egasi vakiliga qonunda belgilangan hollarda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida qatnashish imkonini beradi. Qarzdor muassislarning (ishtirokchilarning) yoki qarzdor mol-mulki egasining vakili qarzdorning bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizasi nusxasini, faqat u qarzdor bunday arizani berishdan oldin saylangan bo‘lsagina, olish huquqiga ega bo‘ladi. Qarzdor muassislarning (ishtirokchilarning) yoki qarzdor mol-mulki egasining vakili, shuningdek, qarzdor muassislarning (ishtirokchilarning) yoki qarzdor mol-mulki egasining huquq va qonuniy manfaatlarini buzayotgan sud boshqaruvchisi harakati (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, qarzdor muassislarning (ishtirokchilarning) yoki qarzdor mol-mulki egasining vakili sudga sud sanatsiyasining rejasi, qarzni uzish grafigi, sud sanatsiyasini joriy etish to‘g‘risida iltimosnoma bilan kreditorlar majlisiga murojaat etish uchun ovoz bergan muassislar ro‘yxati keltirilgan, qarzdor muassislarning umumiy majlisi bayonnomasi va qarzdor qarzni uzish grafigini bajarishini ta’minlovchi hujjatlar ilova qilingan holda sud sanatsiyasini joriy etish to‘g‘risida murojaat etgan vaqtdan e’tiboran ishda ishtirok etuvchi shaxs hisoblanishi mumkin.

Kreditorlarning yig‘ilishi (kreditorlar qo‘mitasi) vakilining ham to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etish huquqi nazarda tutilgan. Kreditorlar yig‘ilishining (kreditorlar qo‘mitasining) vakili bo‘lib, qarzdor bilan kelishuv bitimini imzolash vakolati beriladigan shaxs sifatida majlis tomonidan saylangan hollarda ishda ishtirok etuvchi shaxs hisoblanishi mumkin.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi ko‘ra ishda ishtirok etuvchi shaxslar ishning istalgan tartib-taomilida sudga ekspertiza tayinlash haqida iltimosnoma bilan murojaat qilishi mumkin. Ekspertiza uch holatni aniqlash uchun tayinlanadi: soxta to‘lovga qobiliyatsizlik; to‘lovga qobiliyatsizlikni yashirish; qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelish. Normaning asosiy maqsadi kreditorlarning huquqlarini suiiste’molliklardan himoya qilish va qarzdorning haqiqiy moliyaviy ahvolini aniqlash orqali tartib-taomillarning adolatli o‘tishini ta’minlashdir.

39-modda. Qarzdorning arizasi

Qarzdorning o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasi sudga yozma yoki elektron shaklda beriladi va tegishincha qarzdor yuridik shaxsning rahbari, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor, qarzdor jismoniy shaxs yoki ularning vakillari tomonidan imzolanadi.

Qarzdorning o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasida quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

ariza berilgan sudning nomi;

arizachining nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi) va uning joylashgan yeri (pochta manzili), elektron pochta manzili (mavjud bo‘lgan taqdirda);

pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablari summasining qarzdor tomonidan tan olingan miqdori;

qarzdorning xodimlar hayotiga yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash, ularga mehnat haqini va to‘lanishi lozim bo‘lgan ishdan bo‘shatish nafaqasini to‘lash borasidagi qarzdorligi summasi;

mualliflik shartnomalari bo‘yicha to‘lanishi kerak bo‘lgan haq summasi;

soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha qarz miqdori;

kreditorlarning talablarini to‘la hajmda qanoatlantirishga qodir emaslikning asosi;

qarzdorga nisbatan da’vo arizalari sudlar tomonidan ish yuritishga qabul qilinganligi to‘g‘risidagi, shuningdek, so‘zsiz (akseptsiz) hisobdan chiqarish uchun taqdim etilgan ijro hujjatlari haqidagi ma’lumotlar;

qarzdordagi mavjud mol-mulk, shu jumladan, pul mablag‘lari, debitorlik qarzi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

qarzdorning bank hisobvaraqlari raqamlari, bankning pochta manzili;

ilova qilinayotgan hujjatlar ro‘yxati.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning o‘zini to‘lovga qobiliyatsiz deb topish haqidagi arizasida qarzdorning tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan majburiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham ko‘rsatiladi.

Kreditorlarga hamda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga qarzdor o‘z arizasidan ko‘chirma nusxa yuborishi shart. Agar qarzdor ariza berguniga qadar qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining vakili, qarzdorning xodimlari vakili saylangan (tayinlangan) bo‘lsa, mazkur shaxslarga ham qarzdor arizasining ko‘chirma nusxasi yuboriladi.

Sharhlanayotgan modda qarzdorning o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasi va unda ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan ma’lumotlar hamda uni to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yuborishini belgilaydi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida qarzdor tomonidan sudga ariza yozma yoki elektron shaklda taqdim etilishi belgilangan. Bundan ko‘rinadiki, qarzdor sudga murojaat etishning yozma yoki elektron shaklidan birini tanlashi kerak. Agar qarzdor sudga yozma shaklda ariza taqdim etishni xohlasa, sudning devonxonasi orqali yoki pochta xizmati orqali yozma arizasini sudga taqdim etadi. Elektron shakldagi ariza bilan sudga murojaat etishda murojaat etuvchi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining interaktiv xizmatlari portalida elektron sud xizmatlaridan foydalangan holda murojaat qilishi

mumkin. Bunday hollarda murojaat va unga ilova qilinadigan hujjatlar sudga elektron hujjat tarzida yuboriladi.

Ariza qarzdorning – yuridik shaxsning rahbari tomonidan (yuridik shaxs tugatilayotgan holda tugatish komissiyasi uning raisi shaxsida yoki tugatuvchi tomonidan) yoki qarzdor YTT tomonidan imzolanadi. *Qonun chiqaruvchi, shuningdek,* arizaning qarzdor vakili tomonidan ishonchnoma asosida imzolanish imkonini ham nazarda tutadi. IPKning 61-moddasida vakilning sudda ish yuritishga doir vakolatlari qonunga muvofiq berilgan va rasmiylashtirilgan ishonchnomada ko‘rsatilgan bo‘lishi, yuridik shaxs nomidan berilgan ishonchnoma uning rahbari yoki ta’sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan boshqa shaxs tomonidan imzolangan va ushbu yuridik shaxsning muhri bilan (muhr mavjud bo‘lganda) tasdiqlangan bo‘lishi kerakligi belgilangan.

Yana shunga e’tiborni qaratish lozimki, qarzdorning arizasi ishonchnoma (yoki uning tegishli tartibda tasdiqlangan nusxasi) asosida vakil tomonidan imzolanayotganda ishonchnoma arizaga ilova qilingan bo‘lishi shart. IPKning 64-moddasida sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning va ularning vakillarining vakolatlarini tekshirishi shartligi belgilanganligi sababli, sudya arizani o‘rganib chiqayotganda vakilning vakolatlari IPKning 63-moddasi talablariga binoan rasmiylashtirilganini tekshirishi kerak.

2. Qonun qarzdor arizasining mazmuniga ham talablarni belgilaydi. Kreditor arizasidan farqli ravishda, qarzdorning arizasiga qo‘yiladigan talablar batafsil tartibga solingan. Qonun 39-moddasining ikkinchi qismi normasi qarzdor arizasida bo‘lishi shart bo‘lgan bir qator majburiy ma’lumotlar ro‘yxatini belgilaydi. Qarzdorning arizasida ariza berilgan sudning nomi; arizachining nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi) va uning joylashgan yeri (pochta manzili), elektron pochta manzili (mavjud bo‘lgan taqdirda); pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablari summasining qarzdor tomonidan tan olingan miqdori; qarzdorning xodimlar hayotiga yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash, ularga mehnat haqini va to‘lanishi lozim bo‘lgan ishdan bo‘shatish nafaqasini to‘lash borasidagi qarzdorligi summasi; mualliflik shartnomalari bo‘yicha to‘lanishi kerak bo‘lgan haq summasi; soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha qarz miqdori; kreditorlarning talablarini to‘la hajmda qanoatlantirishga qodir emaslikning asosi; qarzdorga nisbatan da’vo arizalari sudlar tomonidan ish yuritishga qabul qilinganligi to‘g‘risidagi, shuningdek, so‘zsiz (akseptsiz) hisobdan chiqarish uchun taqdim etilgan ijro hujjatlari haqidagi ma’lumotlar; qarzdordagi mavjud mol-mulk, shu jumladan, pul mablag‘lari, debitorlik qarzi to‘g‘risidagi ma’lumotlar; qarzdorning bank hisobvaraqlari raqamlari, bankning pochta manzili va ilova qilinayotgan hujjatlar ro‘yxati ko‘rsatilishi belgilangan.

Qarzdorning arizasida u e’tiroz bildirmaydigan miqdordagi talablar summasi ko‘rsatilishi talab qilinadi. Bu hol arizani qabul qilishda sud Qonunning 195-moddasi va 228-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan summadan ortiq miqdorda qarzning mavjudligini belgilashi kerakligi bilan bog‘liq. Qarzdor hatto Qonunning 195-moddasi va 228-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan miqdorda qarzning mavjudligi-

ni talab etmaydigan Qonunning 8-moddasi asosida murojaat etgan taqdirda ham, sud baribir qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizani qabul qilishda uning qarzdorlik holatini bilishi kerak.

Qarzdorning arizasida, shuningdek, quyidagi talablar summasi ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim: hayot va sog‘liqqa yetkazilgan ziyonni qoplash; qarzdorning xodimlariga to‘lanishi shart bo‘lgan ish haqi va ishdan bo‘shatish vaqtida to‘lanadigan nafaqa puli; mualliflik shartnomalari bo‘yicha haqlar; qarzdorning majburiy to‘lovlari va kreditorlar oldidagi boshqa pul majburiyatlari. Mazkur talablar arizada sud, sud boshqaruvchisi, kreditorlar va h.k. qarzdorda qanday miqdorda va qanday talablar mavjudligini bilishlari uchun ko‘rsatiladi. Mazkur qismda ko‘rsatilgan talablar turlari qarzdorni o‘zini bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizasida ko‘rsatilishi shart bo‘lgan majburiy ma’lumotlar sifatida keltirilgan. Biroq qarzdor o‘z arizasida unda mavjud bo‘lgan boshqa qarzlarni ham miqdorini ko‘rsatgan holda keltirishi mumkin (sharhlanayotgan moddaning uchinchi qismi).

Qarzdorning arizasida, shuningdek, kreditorlar talablarini qondirishga qodir emasligi asoslari ham ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim. Bu sud, sud boshqaruvchisi va kreditorlarga talablarni qondirishga qodir emaslik sabablarini ma’lum qilish yo‘li bilan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgandan so‘ng qarzdorga nisbatan kiritilayotgan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini tanlashda zarur bo‘lgan muhim axborotni taqdim etish maqsadida bajariladi. Bunday axborot, shuningdek, Qonun 5-moddasining birinchi qismiga binoan, ya’ni majburiyatlar kuchga kirgan kundan e’tiboran uch oy ichida (vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizlik holatida) majburiyatlarni qondira olmasligidan dalolat beruvchi vaziyat mavjud bo‘lib, qarzdor o‘zini bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat etgan hollarda mazkur asosni belgilash uchun muhim hisoblanadi. Bu yerda shuni ta’kidlash joizki, Qonun 9-moddasi birinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan «bir yoki bir nechta kreditorlarning talablarini qanoatlantirish qarzdorning boshqa kreditorlar oldidagi pul majburiyatlarini va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini to‘liq hajmda bajarishini imkonsiz qilib qo‘yishga olib kelgan» holda qarzdorning rahbari yoki qarzdor YTT o‘zini bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat etishi lozim va ushbu axborot murojaat etish uchun bunday asosning mavjudligini tekshirish uchun kerak.

Sudlar tomonidan ish yuritishga qabul qilingan qarzdorga nisbatan da’vo arizalari va so‘zsiz (akseptsiz) ravishda hisobdan chiqarish uchun taqdim etilgan ijro va boshqa hujjatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham qarzdorning arizasida ko‘rsatilishi shart.

Da’vo tartibida ishni ko‘rib chiqish jarayonida javobgarga nisbatan qo‘zg‘atilgan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishning mavjudligi aniqlangan holda, iqtisodiy ish bo‘yicha ish yuritish IPK 107-moddasining 9-bandiga asosan javobgarga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan bo‘lsa va javobgarga nisbatan taqdim etilgan talab qonunga ko‘ra to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida ko‘rilishi lozim bo‘lsa, ko‘rmasdan qoldirilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23 iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

11. Agar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilgandan keyin qarzdordan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza berilgunga qadar vujudga kelgan qarzni undirish haqida kreditorning da’vo arizasi (sud buyrug‘i berish haqidagi ariza) sudga kelib tushsa, IPK 154-moddasi birinchi qismining 1-bandiga asosan da’vo arizasi (ariza)ni ish yuritishga qabul qilish rad etiladi.

Agar ko‘rsatilgan holatlar da’vo arizasi ish yuritishga qabul qilingandan keyin aniqlansa, IPK 107-moddasining 9-bandiga asosan da’vo arizasi ko‘rmasdan qoldiriladi.

Ushbu qoida qarzdorlikni undirish to‘g‘risida birinchi instansiya sudida ishni ko‘rish jarayonida javobgarga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza sudga berilgan va u sud tomonidan ish yuritishga qabul qilingan holatga ham qo‘llaniladi.

So‘zsiz (akseptsiz) hisobdan chiqarish uchun taqdim etiladigan ijro hujjatlari va boshqa hujjatlarning mavjudligini ko‘rsatish arizani ish yurituviga qabul qilgan sudning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi ajrimni, ijro ishini to‘xtatish uchun ijro organlariga yuborishi uchun zarur. Bundan tashqari, «undiruv qarzdorning mol-mulkiga qaratilganda bunday undiruv qarzdorning xo‘jalik faoliyatini imkonsiz qilib qo‘yadi deb hisoblashga asoslar bo‘lsa» (Qonun 9-moddasi birinchi qismining beshinchi xatboshisi), qarzdor ariza bilan murojaat etishi mumkin, shuning uchun ijro hujjatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar sud bunday asoslar mavjudligini tekshirib ko‘rishi uchun zarur.

Undirish so‘zsiz (akseptsiz) tartibda amalga oshiriladigan boshqa ijro hujjatlari deganda soliq va bojxona organlari, «O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi Nizomga (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori, 13.04.2020-yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3229) asosan, qarzdorning bank hisobvaraqlaridan mablag‘larni so‘zsiz (akseptsiz) ravishda hisobdan chiqarish uchun inkassa topshiriqlarini berish huquqiga ega bo‘lgan boshqa vakolatli davlat organlarining inkassa topshiriqlari tushuniladi.

Shuni inobatga olish kerakki, arizada ko‘rsatilgan mulk, pul mablag‘lari va debitorlik qarzlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar arizaga ilova qilinayotgan, so‘nggi hisobot kunidagi holatga ko‘ra qarzdorning buxgalteriya balansida ko‘rsatilgan xuddi shunday ma’lumotlarga mos kelishi kerak. Debitorlik qarz tushunchasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 12-maydagi «Xalq xo‘jaligida hisob-kitoblar o‘z vaqtida o‘tkazilishi uchun korxona va tashkilotlar rahbarlarining mas’uliyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida« PF-1154-son Farmonining 2-bandi bilan belgilangan. Qarzdor foyda-

siga to‘lanishi lozim bo‘lgan neustoyka boshqa jarima sanksiyalari, zararlar summalari, shu jumladan, sudning qonuniy kuchga kirgan hujjatlari asosidagi summalar debitorlik qarz tushunchasiga kirmaydi. Pul mablag‘lari borasida qarzdorning barcha bank hisob raqamlarida mavjud bo‘lgan pul mablag‘lari, shuningdek, qarzdorning bank jamg‘armalari, korxona kassasidagi naqd pul mablag‘lari ko‘rsatilishi lozim.

Shuningdek, amaliyotda qarzdorning arizasida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni to‘g‘ri hal etish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlar ham ko‘rsatilmoqda, ya’ni «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 40-moddasiga muvofiq ijro etilmagan va qaytarilgan, undirish qarzdor foydasiga amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ijro hujjatlari to‘g‘risida ma’lumotlar.

3. Ushbu normaga ko‘ra, yakka tartibdagi tadbirkor o‘zini to‘lovga qobiliyatsiz deb topish haqida sudga ariza berganda faqat tadbirkorlik faoliyatidan kelib chiqqan qarzlarini emas, balki shaxsiy majburiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ham ko‘rsatishi shart. Masalan, aliment to‘lovlari, kredit shartnomalari bo‘yicha shaxsiy qarzlar yoki hayot va sog‘liqqa yetkazilgan zararni qoplash majburiyatlari ham arizada aks ettirilishi lozim. Bu sudga qarzdorning umumiy moliyaviy ahvolini to‘liq baholash, uning barcha majburiyatlarini aniqlash hamda kreditorlar manfaatlarini adolatli himoya qilish imkonini beradi.

4. Qarzdorning ariza nusxasini yuborish majburiyati to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarini yuritishning asosiy prinsiplaridan birini – shaffoflik va barcha manfaatdor tomonlarni xabardor qilish majburiyatini belgilaydi. Ushbu norma ikkita mustaqil qoidani o‘z ichiga oladi: birinchi qoida – kreditorlar va ishda ishtirokchilarini xabardor qilish. Bu kreditorlarga o‘z huquqlarini himoya qilishga tayyorlanish imkonini beradi; sud jarayonida kutilmagan axborot omilini istisno qiladi va protsessual tenglik prinsipini ta’minlaydi. Ikkinchi qoida – ichki vakillarni xabardor qilish, ya’ni muassislar (ishtirokchilar) vakili korporativ manfaatlarni ifodalaydi, xodimlar vakili mehnat jamoasining huquqlarini ifodalab, mazkur shaxslar korxonaning turli manfaat guruhlariga vakillik qiladi va ular: bankrotlik jarayonida ishtirok etish huquqiga ega; restrukturizatsiya rejasiga e’tiroz bildirishi mumkin; xodimlarning ish haqi va boshqa talablari ustuvorlik tartibida himoya qilinishini nazorat qiladi.

Bu kreditorlar uchun ariza nusxasini olish ularga o‘z talablarini tayyorlash, hujjatlarni yig‘ish va sud jarayoniga tayyorlanish uchun vaqt bersa, xodimlar uchun to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish ularning ish o‘rni va ish haqiga bevosita ta’sir qiladi, shu bois ularning vakili dastlabki bosqichdan xabardor bo‘lishi ijtimoiy ahamiyatga ega. Qarang: Xalqaro sharh. 741-b.

40-modda. Qarzdorning arizasiga ilova qilinadigan hujjatlar

Qarzdorning o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasiga O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksida nazarda tutilgan hujjatlardan tashqari qarzdorlik mavjudligini,

shuningdek, kreditorlarning talablarini qarzdor to‘la hajmda qanoatlantirishga qodir emasligini, qarzdorning arizasiga asos bo‘lgan boshqa holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Qarzdorning o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasiga quyidagilar ham ilova qilinadi:

qarzdor yuridik shaxsning ta’sis hujjatlari, yuridik shaxsning yoki yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi hujjatlar, shuningdek, jismoniy shaxs pasportining ko‘chirma nusxasi;

qarzdorning kreditorlari va debitorlari ro‘yxati, ularning joylashgan yeri (pochta manzili), elektron pochta manzili (mavjud bo‘lgan taqdirda), uning kreditorlik hamda debitorlik qarzi yoyilmasi ko‘rsatilgan holda;

qarzdor yuridik shaxsning so‘nggi hisobot sanasidagi holatga ko‘ra buxgalteriya balansi yoki uning o‘rnini bosuvchi hujjatlar;

qarzdor jismoniy shaxsning yoki yakka tartibdagi tadbirkorning mol-mulki tarkibi va qiymati to‘g‘risidagi hujjatlar;

qarzdor yuridik shaxs muassislarining (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining qarzdor o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilishi haqidagi qarori;

agar qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza berilguniga qadar qarzdor xodimlarining yig‘ilishi o‘tkazilib, unda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rishda ishtirok etish uchun qarzdorning xodimlari vakili saylangan bo‘lsa, ushbu yig‘ilish bayonnomasi.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko‘rsatilgan hujjatlarning asl nusxasi yoki tasdiqlangan ko‘chirma nusxalari ilova qilinadi.

Sharhlanayotgan modda qarzdorning o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasiga IPK va Qonunga ko‘ra ilova qilinadigan hujjatlar mazmunini belgilaydi.

1. Avvalo, IPKda nazarda tutilgan hujjatlar deganda IPKning 149-moddasida nazarda tutilgan hujjatlarni tushunish kerak. Ular qatoriga: belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji va pochta xarajatlari to‘langanligini va arizaning ko‘chirma nusxasi va unga ilova qilingan hujjatlar kreditor(lar)ga hamda uchinchi shaxslarga yuborilganligini tasdiqlovchi hujjatlar kiradi.

Agar ariza qarzdor vakili tomonidan imzolangan bo‘lsa, unga arizani imzolagan shaxsning arizani imzolash vakolatini tasdiqlovchi ishonchnoma ilova qilinadi.

Qarzdorning qarzi mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar deganda kreditorlar talablarining tan olinishini tasdiqlovchi dalillar, qarzdor tomonidan akseptlangan to‘lov talablari, soliq organlarining inkassa topshiriqlari, qarzdordan qarz summasini undirish to‘g‘risidagi qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini tushunish kerak.

Qarzdorning kreditorlar talablarini to‘liq hajmda qondira olmasligini asoslovchi hujjat sifatida qarzdor mol-mulkining inventarizatsiyasi, auditor xulosasi va h.k.lar

xizmat qilishi mumkin va ularda qarzdorda aktivlar, mol-mulk, pul mablag‘larining yo‘qligi ko‘rsatiladi.

Qarzdorning arizasiga asos bo‘lgan boshqa holatlarni tasdiqlovchi hujjatlarga misol tariqasida qarzdorni shaharni tashkil etuvchi va unga tenglashtirilgan korxonalar qatoriga kirishini tasdiqlovchi hujjatni keltirish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

52. Shaharni tashkil etuvchi va unga tenglashtirilgan korxonaning bankrotligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ishlarni ko‘rishda sudlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 30-apreldagi 107-sonli qarori bilan tasdiqlangan Korxonalarni shaharni tashkil etuvchi korxonalar va ularga tenglashtirilgan korxonalar jumlasiga kiritish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga rioya qilishlari lozim.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risida sudga ariza kelib tushgan taqdirda, sudya mazkur qarzdorga nisbatan Qonunni qo‘llash mumkinligi masalasini ko‘rib chiqishi kerak. Qonun faqat yuridik shaxslarga (davlat byudjeti hisobidan faoliyat yurituvchi yuridik shaxslar, siyosiy partiyalar va diniy tashkilotlar bundan mustasno), YTTlar va jismoniy shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi (2-moddaning ikkinchi qismi sharhiga qarang). Shu munosabat bilan sharhlanayotgan mazkur qism arizaga yuridik shaxsning ta’sis hujjatlarini, shuningdek, yuridik shaxs yoki YTTning davlat ro‘yxatidan o‘tganligini tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilishni talab etadi.

Qarzdor yuridik shaxsning ta’sis hujjatlari sifatida ustav (nizom) va (yoki) ta’sis shartnomasi taqdim etilishi mumkin.

Yuridik shaxs yoki YTTning davlat ro‘yxatidan o‘tganligini tasdiqlovchi hujjat sifatida ro‘yxatga oluvchi organ tomonidan belgilangan tartibda va shaklda beriladigan davlat ro‘yxatidan o‘tganlik to‘g‘risidagi guvohnomasi xizmat qilsa, jismoniy shaxsga uning pasporti yoki ID kartasining ko‘chirma nusxasi ilova qilinadi.

Qarzdorning sudga o‘zini bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat etishi to‘g‘risidagi qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) qarori bu subyektlar tomonidan sudga murojaat qilish to‘g‘risidagi qarorning qabul qilinganligiga dalil sifatida ilova qilinadi, chunki Qonun 8-moddasining ikkinchi qismi bunday talabni nazarda tutadi. Bunday qarorning ko‘rinishi qarzdor yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakliga bog‘liq. Agar qarzdor aksiyadorlik jamiyati bo‘lsa, u holda aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarori, mas’uliyati cheklangan jamiyati bo‘lsa, jamiyat ishtirokchilari umumiy yig‘ilishining qarori talab etiladi. Mulk egasining qarori qaror yoki buyruq ko‘rinishida rasmiylashtirilgan hujjat ilova qilinadi.

To‘lovga qobiliyatsizlik ishlarida qatnashish uchun vakil saylangan qarzdor xodimlari majlisining bayonnomasini ilova qilishni nazarda tutadi, agar bunday majlis

qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza berilguniga qadar o‘tkazilgan bo‘lsa. Qarzdor xodimlarining vakili saylangan holda, muvaqqat boshqaruvchi kreditorlarning birinchi majlisini o‘tkazish to‘g‘risidagi xabar nusxasini unga ham yuborishi kerak (Qonun 88-moddasining birinchi qismi). To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarida qarzdor xodimlarining mehnat haqini va ishdan bo‘shatish nafaqasini to‘lash to‘g‘risidagi talablar alohida xodimlar tomonidan emas, balki barcha xodimlarning umumiy talablari summasi ko‘rinishida vakil tomonidan taqdim etiladi. Xodimlar vakili, shuningdek, sud boshqaruvchisi bilan qarzdor xodimlari o‘rtasida mehnat shartnomasi asosida mehnat haqini va to‘lanishi kerak bo‘lgan ishdan bo‘shatish nafaqasining tarkibi va miqdori borasida nizolar kelib chiqqanda sudga shikoyat qilishi mumkin (Qonun 60-moddasining ikkinchi qismi).

Shunday qilib, qarzdor xodimlarining vakili to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarida muhim rol o‘ynaydi va mazkur qismning normasi sud va sud boshqaruvchisi uchun xodimlar vakili etib kim saylanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotning muhimligi hisobga olingan holda belgilangan.

3. Qarzdorning arizasiga ilova qilinishi kerak bo‘lgan barcha hujjatlar asl nusxada yoki belgilangan tartibda tasdiqlangan (muhr mavjud bo‘lgan taqdirda) nusxalar shaklida bo‘lishi shart. Shu bois hujjatlar yuridik shaxs yoki YTTning muhri bilan yoki notarial tasdiqlangan shaklda bo‘lishi kerak.

41-modda. Kreditorning arizasi

Kreditorning qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasi sudga yozma yoki elektron shaklda beriladi. Kreditor yuridik shaxsning arizasi uning rahbari yoki vakili tomonidan, kreditor jismoniy shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi esa shu jismoniy shaxsning o‘zi yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

Kreditorning qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasida quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

ariza berilayotgan sudning nomi;

arizachining nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi) va uning joylashgan yeri (pochta manzili), elektron pochta manzili (mavjud bo‘lgan taqdirda);

qarzdorning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi) va uning joylashgan yeri (pochta manzili), elektron pochta manzili (mavjud bo‘lgan taqdirda);

qarzdorning kreditor oldidagi talab kelib chiqishiga sabab bo‘lgan pul majburiyati miqdori, shuningdek, uni bajarish muddati;

kreditor talablarining asosliligini tasdiqlovchi dalillar, shu jumladan, sudning qonuniy kuchga kirgan qarori, mazkur talablar qarzdor tomonidan tan olinganligini tasdiqlovchi dalillar, notariusning ijro xati;

ilova qilinayotgan hujjatlar ro‘yxati.

Kreditor qarzdorga o‘z arizasidan ko‘chirma nusxa yuborishi shart.

Sharhlanayotgan modda kreditorning qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasi va unda ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan ma’lumotlar hamda uni to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yuborishini belgilaydi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida kreditor tomonidan qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasi sudga yozma yoki elektron shaklda taqdim etilishi belgilangan. Bundan ko‘rinadiki, kreditor sudga murojaat etishning yozma yoki elektron shaklidan birini tanlashi kerak. Agar kreditor sudga yozma shaklda ariza taqdim etishni xohlasa, sudning devonxonasi orqali yoki pochta aloqa xizmati orqali yozma arizasini sudga taqdim etadi. Elektron shakldagi ariza bilan sudga murojaat etishda murojaat etuvchi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining interaktiv xizmatlari portalida elektron sud xizmatlaridan foydalangan holda murojaat qilib, murojaat va unga ilova qilinadigan hujjatlar sudga elektron hujjat tarzida yuboriladi.

Kreditor yuridik shaxsning arizasi uning rahbari yoki vakili tomonidan, kreditor jismoniy shaxs yoki YTTning arizasi esa shu jismoniy shaxsning o‘zi yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

Qonun chiqaruvchi, shuningdek, arizaning qarzdor vakili tomonidan ishonchnoma asosida imzolanishi imkonini ham nazarda tutadi. IPKning 61-moddasida vakilning sudda ish yuritishga doir vakolatlari qonunga muvofiq berilgan va rasmiylashtirilgan ishonchnomada ko‘rsatilgan bo‘lishi, yuridik shaxs nomidan berilgan ishonchnoma uning rahbari yoki ta’sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan boshqa shaxs tomonidan imzolangan va ushbu yuridik shaxsning muhri bilan (muhr mavjud bo‘lganda) tasdiqlangan bo‘lishi kerakligi belgilangan.

Yana shunga e’tiborni qaratish lozimki, qarzdorning arizasi ishonchnoma (yoki tegishli tartibda tasdiqlangan uning nusxasi) asosida vakil tomonidan imzolanayotganda ishonchnoma arizaga ilova qilingan bo‘lishi shart. IPKning 64-moddasida sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning va ular vakillarining vakolatlarini tekshirishi shartligi belgilanganligi sababli, sudya arizani o‘rganib chiqayotganda vakilning vakolatlarini FKning 10-bobi hamda IPKning 2-paragrafida belgilangan talablarga binoan rasmiylashtirilganini tekshirishi lozim.

2. Kreditorning qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasida quyidagilar ko‘rsatilishi kerak: ariza berilayotgan sudning nomi; arizachining nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi) va uning joylashgan yeri (pochta manzili), elektron pochta manzili (mavjud bo‘lgan taqdirda); qarzdorning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi) va uning joylashgan yeri (pochta manzili), elektron pochta manzili (mavjud bo‘lgan taqdirda); qarzdorning kreditor oldidagi talab kelib chiqishiga sabab bo‘lgan pul majburiyati miqdori, shuningdek, uni bajarish muddati; kreditor talablarining asosliligini tasdiqlovchi dalillar, shu jumladan, sudning qonuniy kuchga kirgan qarori, mazkur talablar qarzdor tomonidan tan olinganligini tasdiqlovchi dalillar, notariusning ijro xati va ilova qilinayotgan hujjatlar ro‘yxati.

Qarzdorning kreditor oldidagi qarzining miqdori jismoniy shaxsga nisbatan Qonunning 195-moddasida va 228-moddasining birinchi qismida belgilangan qarzdor

jismoniy shaxsning hamda YTTning to‘lovga qobiliyatsizligi alomatlari hisoblanishini inobatga olishi lozim. Majburiyatni bajarish muddatini ko‘rsatish Qonunning 5-moddasida ko‘rsatilgan vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlariga mos kelishini aniqlash uch oydan kam bo‘lmagan muddatga kechiktirilgan davrni aniqlash uchun muhim hisoblanadi. Ushbu ma’lumotlarni ko‘rsatish zarurati shu bilan bog‘liqki, ular Qonun 6-moddasining ikkinchi qismi va 46-moddasiga muvofiq arizani ko‘rib chiqish uchun qabul qilishga asos bo‘ladi.

Ushbu dalillar kreditor arizasining asosliligini tasdiqlaydi va qarzdorni uning bankrotligi to‘g‘risidagi asossiz arizalardan himoyalaydi. Qarzdor mazkur dalillardan norozi bo‘lgan taqdirda, Qonunning 48-moddasiga asosan sudga yozma fikrini berishga haqli. Kreditor arizasidagi boshqa ma’lumotlar sifatida kreditor va qarzdor o‘rtasida tuzilgan va pul majburiyatlarini keltirib chiqargan shartnomalar va h.k.lar to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilishi, shuningdek, arizaning umumiy matnida kreditorning ekspertiza tayinlash, kreditorlar talablarini ta’minlash bo‘yicha choralar ko‘rish va h.k.lar to‘g‘risidagi iltimosnomalari ko‘rsatilishi mumkin.

3. Kreditor qarzdorga o‘z arizasidan ko‘chirma nusxa yuborishi shartligining belgilanishi qarzdor ariza yuzasidan sudga o‘zining yozma fikrini taqdim etish imkonini berish (Qonunning 48-moddasi), agar kreditorning arizasi ish yurituvga qabul qilingan holda esa, Qonun 47-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlariga muvofiq qarzdorning huquqlariga ma’lum cheklovlar qo‘yadi, shu sababli qarzdor zudlik bilan o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza berilganligidan xabardor qilinishi kerak, shu munosabat bilan qonun chiqaruvchi ariza nusxasini qarzdorga yuborish shartligini ko‘zda tutadi. Qarang: Xalqaro sharh. 741-b.

42-modda. Kreditorlar talablarini birlashtirish

Kreditorning qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasi turli majburiyatlar bo‘yicha birlashtirilgan qarzdorlikka asoslangan bo‘lishi mumkin.

Kreditorlar qarzdorga nisbatan o‘z talablarini birlashtirishga hamda iqtisodiy sudga bitta ariza bilan murojaat etishga haqli. Bunday ariza o‘z talablarini birlashtirgan kreditorlar tomonidan imzolanadi.

Sharhlanayotgan modda qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizada kreditorlar qarzdorga nisbatan o‘z talablarini birlashtirish mumkinligini belgilaydi.

1. Kreditor qarzdorni to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ariza berish jarayonida talablar summasiga qarzdorga bo‘lgan turli talablar yig‘indisini kiritishi mumkin. Bunda shu narsaga e’tibor qaratish lozimki, qarzdorning tadbirkorlik faoliyatidan kelib chiqadigan, ammo hayot va sog‘liqqa yetkazilgan zararni qoplash, shuningdek, alimentlar va h.k.lar kabi shaxsiy tusdagi talablar bilan bog‘liq bo‘lmagan majburiyatlari bo‘yicha talablar birlashtirilishi mumkin. Shuningdek, muassislar (ishtirokchilar)

ulushini ajratish to‘g‘risidagi talablar ham birlashtirilishi mumkin emas, chunki ular kreditor hisoblanmaydilar va qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizani taqdim etish huquqiga ega bo‘lmaydilar.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi ariza bir nechta kreditorlar tomonidan berilishi kreditorlarning protsessual ishtirokchiligiga yo‘l qo‘yishini anglatadi. Bunda Qonunning 5-moddasida nazarda tutilgan vaqtincha (agar tegishli majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e’tiboran uch oy ichida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo‘lsa, shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxonalar tomonidan esa olti oy ichida bajarilmasa) yoki doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik (agar sudga ariza berish sanasidagi va ariza berilgan yilning boshidagi hisobot davrida, agarda ariza yilning birinchi choragida berilgan bo‘lsa, o‘tgan yilning boshidagi hisobot davrida qarzdorning majburiyatlari uning aktivlari qiymatidan oshib ketgan bo‘lsa) alomatlari mavjud bo‘lgan taqdirda, jismoniy shaxsga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining kamida ikki yuz baravarini tashkil etsa (Qonunning 195-moddasi), kreditorlar tomonidan birlashtirilgan talablar bilan ariza berish imkoni nazarda tutilgan. Mazkur ariza o‘z talablarini birlashtirgan yuridik shaxslarning rahbarlari yoki YTTlar tomonidan imzolanadi. Bunda Qonun arizani ularning vakillari tomonidan imzolanishini nazarda tutmagan, biroq FK va IPK talablari asosida rasmiylashtirilgan ishonchnoma orqali ular ham ariza imzolash vakolatiga ega bo‘lishlari mumkin.

Ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlik huquqidagi protsessual iqtisod va kreditorlar hamjihatligi prinsiplarini o‘zida mujassamlashtiradi. U, bir tomondan, sud tizimini ortiqcha ish yuklamasidan xalos etish, ikkinchi tomondan, moliyaviy zaifroq kreditorlarning huquqlarini real himoya qilishning samarali vositasini yaratadi. Ayniqsa, kichik ta’minotchilar, pudratchilar va xizmat ko‘rsatuvchilar uchun bu mexanizm o‘zlarining haqli talablarini himoya qilishda muhim amaliy vosita hisoblanadi.

43-modda. Kreditorning arizasiga ilova qilinadigan hujjatlar

Kreditorning qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasiga O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksida nazarda tutilgan hujjatlardan tashqari qarzdorning kreditor oldidagi pul majburiyatlarini, shuningdek, qarzi mavjudligini va uning miqdorini tasdiqlovchi hujjatlar, to‘lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartib-taomilida hamda jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishda sud boshqaruvchisiga haq to‘lash xarajatlari to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinadi.

Kreditorning uning vakili tomonidan imzolangan arizasiga vakilning arizani imzolashga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi ishonchnoma ham ilova qilinadi.

Kreditorning qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasiga quyidagilar ham, agar mavjud bo‘lsa, ilova qilinadi:

kreditorning qarzdorga nisbatan talablarini ko‘rib chiqqan sudning qarori;

ijro hujjati (ijro varaqasi, qarzdor tomonidan akseptlangan to‘lov talablari, notariusning ijro xati va boshqalar) yoki kreditor talablari qarzdor tomonidan tan olinganligini tasdiqlovchi dalillar.

Sharhlanayotgan modda kreditorning qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasiga ilova qilinadigan hujjatlarni belgilaydi.

1. IPKda nazarda tutilgan hujjatlar deganda IPKning 151-moddasida nazarda tutilgan hujjatlarni tushunish kerak. Ular qatoriga belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji va pochta xarajatining to‘langanligi va ariza nusxasining qarzdorga va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga yuborilganligini tasdiqlovchi hujjatlar kiradi.

Yuqorida qayd etilgan hujjatlardan tashqari mazkur qismning normasi kreditor arizasiga yana qarzdorning kreditor oldidagi pul majburiyatlarining mavjudligini, bu majburiyatlar summasini va kreditor arizasi asoslangan boshqa holatlarni tasdiqlovchi hujjatlarning ilova qilinishini talab etadi. Qarzdorning kreditor oldidagi pul majburiyatlarini, shuningdek, bu majburiyatlar bo‘yicha qarzlarning mavjudligi va ularning miqdorini tasdiqlovchi hujjatlar hisobvaraq-fakturalar, tovar-transport yuk xatlari va boshqa hujjatlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23 iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

8. Qarzdor yoki kreditorning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasiga Qonunning 40-, 43-, 198-moddalari va IPKning 151-moddasida nazarda tutilgan hujjatlar ilova qilinadi. Ushbu hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda, ariza va unga ilova qilingan hujjatlar IPKning 155-moddasi va Qonunning 46-moddasining oltinchi qismiga asosan qaytariladi, ariza bilan murojaat etish qarzdorning rahbari uchun majburiy bo‘lgan va arizaga Qonunning 40-moddasida nazarda tutilgan hujjatlar ilova qilinmagan hollar bundan mustasno. Bunday holatda ariza sud tomonidan ish yuritishga qabul qilinadi, yetishmayotgan hujjatlar esa to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlash tartibida talab qilib olinadi.

Kreditor arizasi asoslangan boshqa holatlarni tasdiqlovchi hujjatlarga misol tariqasida to‘lovga qobiliyatsizlikning hozir bo‘lmagan qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risida ariza berilganda qarzdor – o‘z faoliyatini tugatgan YTT yoki tugatilayotgan yuridik shaxs rahbarining hozir bo‘lmaganligini, shuningdek, ularning turarjoyini aniqlashning imkoniyati yo‘qligini tasdiqlovchi dalillar sudga taqdim etiladi va bunday dalillarga manzil ma’lumot byurosi tomonidan shaxsning ro‘yxatdan chiqib, boshqa hududga ketganligi haqida berilgan ma’lumotnoma, fuqarolarning o‘zini o‘zi bosh-

qarish organi, uy-joy mulkdorlarining shirkati vakillari ishtirokida shaxsning ro‘yxatga olingan manzilda yashamasligi to‘g‘risida tuzilgan dalolatnomani keltirish mumkin (*yuqoridagi Oliy sud Plenumi qarorining 54-bandi*).

2. Ariza kreditor vakili tomonidan imzolangan holda, arizaga imzolagan shaxsning tegishli vakolatlarini tasdiqlovchi ishonchnoma ilova qilinadi. Kreditor vakilining vakolatlari FKning 138-moddasida nazarda tutilgan tartibda vakilga vakolat berilgan harakatlar ko‘rsatilgan holda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan tasdiqlanadi.

Shuningdek, IPKning 61-moddasida vakilning sudda ish yuritishga doir vakolatlari qonunga muvofiq berilgan va rasmiylashtirilgan ishonchnomada ko‘rsatilgan bo‘lishi, yuridik shaxs nomidan berilgan ishonchnoma uning rahbari yoki ta’sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan boshqa shaxs tomonidan imzolangan va ushbu yuridik shaxsning muhri bilan (muhr mavjud bo‘lganda) tasdiqlangan bo‘lishi kerakligi belgilangan.

Yana shunga e’tiborni qaratish lozimki, qarzdorning arizasi ishonchnoma (yoki tegishli tartibda tasdiqlangan uning nusxasi) asosida vakil tomonidan imzolanayotganda ishonchnoma arizaga ilova qilingan bo‘lishi shart. IPKning 64-moddasida sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning va ular vakillarining vakolatlarini tekshirishi shartligi belgilanganligi sababli, sudya arizasini o‘rganib chiqayotganda vakilning vakolatlari FKning 10-bobi va IPKning 63-moddasi talablariga binoan rasmiylashtirilganini tekshirishi lozim.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi kreditorning qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasiga quyidagilar mavjud bo‘lgan taqdirda unga ilova qilinishini belgilaydi: kreditorning qarzdorga nisbatan talabini ko‘rib chiqqan sudning hal qiluv qarori. Bunda kreditorning qarzdorga nisbatan jinoiy, iqtisodiy, fuqarolik sudlari tomonidan qabul qilingan sud hujjatlari yoki qarorlari, hakamlik va arbitraj kabi sudlar tomonidan qabul qilingan hal qiluv qarorlarini tushunish lozim. Bunda O‘zbekiston Respublikasining vakolatli sudlari tomonidan chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risidagi sud hujjati yoki qarorining mavjudligiga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Qarzdor tomonidan kreditor talabining tan olinganligini tasdiqlovchi ijro hujjati (ijro varaqasi, qarzdor tomonidan akseptlangan to‘lov talablari va h.k.) yoki boshqa dalillar, yani o‘zaro hisob-kitoblarni solishtirish dalolatnomalari hisoblanadi. Moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi buxgalteriya hisobotlarida qarzdorning o‘zi tomonidan soliq va to‘lanishi shart bo‘lgan boshqa majburiy to‘lovlar va h.k. summalari ko‘rsatiladi.

«Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida» 2001-yil 29-avgustdagi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasida ijro hujjatlari keltirilgan bo‘lib, ular quyidagilardir: sudlar o‘zlari qabul qiladigan sud hujjatlari asosida beradigan ijro varaqalari; hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish yuzasidan sudlar beradigan ijro varaqalari; mediativ kelishuvni majburiy ijro etish yuzasidan sudlar beradigan ijro varaqalari; chet el sudlari va arbitrajlari qarorlari asosida O‘zbekiston Respublikasi sudlari beradigan ijro varaqalari; sud buyruqlari; alimentlar to‘lash to‘g‘risidagi notarial tarzda tasdiqlangan kelishuvlar; notariuslarning ijro xatlari; mehnat nizolari komissiyalari o‘z qarorlari asosida beradigan guvohnomalar; ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega organlar (mansabdor

shaxslar) chiqargan qarorlar; o‘zboshimchalik bilan turarjoyni egallab olgan yoki avariya holatida deb topilgan uylarda yashayotgan shaxslarni ma’muriy tartibda ko‘chirish to‘g‘risidagi prokurorlarning qarorlari; davlat ijrochilarining qarorlari; qonunda nazarda tutilgan boshqa organlarning hujjatlari.

Kreditorning qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizasining asosli ekanligini tasdiqlaydigan ushbu hujjatlarning taqdim etilishi, o‘z navbatida, qarzdorni asossiz arizadan himoyalash uchun ham zarurdir. Shuningdek, kreditorning sudga murojaat qilganida mazkur hujjatlarning taqdim etishi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishning tez muddatlarda ko‘rib chiqilishiga yordam beradi.

44-modda. Vakolatli davlat organining arizasi

Ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi oldida pul majburiyatlari bo‘yicha qarzi bor korxonaga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi vakolatli davlat organining arizasi sudga yozma yoki elektron shaklda, qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligini tasdiqlovchi zarur hujjatlar ilova qilingan holda beriladi.

Vakolatli davlat organining arizasi sudga ushbu Qonunning 41- va 43-moddalarida nazarda tutilgan talablarga rioya etilgan holda beriladi.

Sharhlanayotgan modda vakolatli davlat organi arizasiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

1. Qonun vakolatli davlat organini ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan yoki O‘zbekiston Respublikasi oldida pul majburiyatlari bo‘yicha qarzi bo‘lgan korxonalarni bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar qatoriga qo‘shadi (Qonunning 7-moddasi).

Mazkur moddada vakolatli davlat organi tomonidan sudga ariza yozma yoki elektron shaklda taqdim etilishi belgilangan. Bundan ko‘rinadiki, vakolatli davlat organi sudga murojaat etishning yozma yoki elektron shaklidan birini tanlashi mumkin. Agar vakolatli davlat organi sudga yozma shaklda ariza taqdim etishni xohlasa, sudning devonxonasi orqali yoki pochta xizmati orqali yozma arizasini sudga taqdim etadi. Elektron shakldagi ariza bilan sudga murojaat etishda vakolatli davlat organi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining interaktiv xizmatlari portalida elektron sud xizmatlaridan foydalangan holda murojaat qilishi mumkin. Bunday hollarda murojaat va unga ilova qilinadigan hujjatlar sudga elektron hujjat tarzida yuboriladi.

Iqtisodiy nochorlikni tasdiqlovchi hujjatlar Qonun 43-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan «qarzdorning kreditor oldidagi pul majburiyatlarini, shuningdek, qarzi mavjudligini va uning miqdorini tasdiqlovchi hujjatlar» hisoblanib, ularga o‘zaro hisob-kitob solishtirma dalolatnomalari, soliq organlarining inkassa topshiriqlari, hisobvaraqlar, yuk xatlari va h.k.lar kiradi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi vakolatli davlat organining arizasi Qonunning 41- va 43-moddalarida nazarda tutilgan talablarga rioya qilgan holda sudga be-

rilishini belgilaydi. Bunda murojaat etilayotgan IPKning 151-moddasi arizaga davlat bojining belgilangan tartibda va miqdorda to‘languanini tasdiqlovchi hujjatning ilova qilinishini belgilaydi. Biroq, shuni ta’kidlash lozimki, «Davlat boji to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 9-moddasining 10-bandiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va uning hududiy organlari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi hamda uning hududiy organlari o‘z zimmasiga yuklatilgan vakolatlariga muvofiq sudlarga ko‘rib chiqish uchun kiritiladigan da’volar va arizalar bo‘yicha iqtisodiy sudlarda davlat bojini to‘lashdan ozod etilgan. Bundan ko‘rinadiki, sharhlanayotgan moddada nazarda tutilgan vakolatli davlat organining to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi arizasiga davlat bojining to‘langanini tasdiqlovchi hujjatni ilova qilish talab qilinmaydi. Biroq vakolatli davlat organiga pochta xarajatlarini to‘lashdan ozod qilish qonunchilikda nazarda tutilmagan. Shu munosabat bilan pochta xarajatlari to‘langanini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmagan bo‘lsa, ariza va unga ilova qilingan hujjatlar IPK 155-moddasi birinchi qismining 6-bandiga asosan qaytarilishi haqida Plenum qarorida tushuntirish berilgan.

Sudga ustav fondida (ustav kapitalida) O‘zbekiston Respublikasi ulushi bo‘lgan korxonaning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat qilinganda arizada korxona ustav fondida (ustav kapitalida)gi davlat ulushi to‘g‘risidagi ma’lumot ko‘rsatilishi kerak. Bundan tashqari, arizaga korxonaning ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi borligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinishi lozim.

45-modda. Davlat soliq xizmati organining va boshqa vakolatli organning arizasi

Davlat soliq xizmati organining hamda boshqa vakolatli organning qarzdorga nisbatan soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasi ushbu Qonunning 41- va 43-moddalarida nazarda tutilgan talablarga javob berishi kerak.

Davlat soliq xizmati organining hamda boshqa vakolatli organning qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasiga qonunchilikka muvofiq soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha qarzni qaytarib olishga doir chora-tadbirlar ko‘rilganligi dalillari ilova qilinishi kerak.

Sharhlanayotgan modda davlat soliq xizmati organi va boshqa vakolatli organning arizasiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

1. Qonun davlat soliq xizmati organi va boshqa vakolatli organlarni qarzdorning soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlarini bajarmaganligi natijasida qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan sudga murojaat etish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar qatoriga kiritadi (Qonun 6-moddasining uchinchi qismi). Bunda shuni ta’kidlash kerakki, davlat soliq xizmati organi va boshqa vakolatli organlar qarzdorning soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlarini bajar-

maganligi natijasida qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan sudga faqat soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganligi munosabati bilan murojaat qilishi mumkin va qarzdorning kreditor oldidagi pul majburiyatlarini bajarmaganligi natijasida bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat etish huquqiga ega bo‘lmasligini anglatadi. Mazkur moddada havola qiluvchi norma mavjud, ya’ni Qonunning 41-, 43-moddalariga havola qiladi. Qonunning 41-moddasida arizani berishning umumiy qoidalari belgilangan, ya’ni nusxasi qarzdorga yuborilishi kerak bo‘lgan ariza yozma ravishda taqdim etilib, oltita majburiy belgiga ega: ariza berilayotgan sudning nomi; arizachining nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi) va uning joylashgan yeri (pochta manzili), elektron pochta manzili (mavjud bo‘lgan taqdirda); qarzdorning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi) va uning joylashgan yeri (pochta manzili), elektron pochta manzili (mavjud bo‘lgan taqdirda); qarzdorning kreditor oldidagi talab kelib chiqishiga sabab bo‘lgan pul majburiyati miqdori, shuningdek, uni bajarish muddati; kreditor talablarining asosliligini tasdiqlovchi dalillar, shu jumladan, sudning qonuniy kuchga kirgan qarori, mazkur talablar qarzdor tomonidan tan olinganligini tasdiqlovchi dalillar, notariusning ijro xati; ilova qilinayotgan hujjatlar ro‘yxati.

IPKning 151-moddasi hamda Qonunning 43-moddasidagi umumiy qoidalardan kelib chiqqan holda arizaga quyidagilarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi kerak: qarzdorga arizaning nusxasi va unga ilova qilingan hujjatlarning yuborilganligi; soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlarning arizalari asoslanadigan qarzdorning kreditor oldidagi majburiy to‘lovlarning mavjudligini, ularning qiymati va boshqa holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar; agar ariza vakil tomonidan imzolangan bo‘lsa, soliq va boshqa organ vakilining ishonchnomasi.

Arizaga, shuningdek, mavjud bo‘lsa, quyidagilar ilova qilinadi: a) kreditorning qarzdorga nisbatan bildirgan talablarini ko‘rib chiqqan sudning hal qiluv qarori; b) qarzdor kreditor talablarini tan olganligini tasdiqlovchi ijro hujjatlari (ijro varaqasi, qarzdor tomonidan akseptlangan to‘lov talablari va h.k.) yoki dalillar. Ular o‘zaro hisob-kitoblarni solishtirish dalolatnomalari, moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi buxgalteriya hisobotlari bo‘lib, qarzdorning o‘zi tomonidan soliq va to‘lanishi shart bo‘lgan boshqa majburiy to‘lovlar va h.k.lar summalari ko‘rsatiladi.

IPKning 151-moddasida arizaga davlat bojining belgilangan tartibda va miqdorda to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatning ilova qilinishini belgilaydi. Biroq, shuni ta’kidlash lozimki, «Davlat boji to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 9-moddasining 12-bandiga asosan, davlat soliq xizmati organlari, moliya va bojxona organlari barcha ishlar hamda hujjatlar bo‘yicha, shuningdek, alohida yuritiladigan ishlar bo‘yicha sudga arizalar berganlik uchun iqtisodiy sudlarda davlat bojini to‘lashdan ozod etilgan. Bundan ko‘rinadiki, sharhlanayotgan moddada nazarda tutilgan davlat soliq xizmati organining va boshqa vakolatli organning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi arizasiga davlat bojining to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatni ilova qilish talab etilmaydi.

Ammo davlat soliq xizmati organi va boshqa vakolatli organni pochta xarajatlarini to‘lashdan ozod qilish qonunchilikda nazarda tutilmagan.

Shu munosabat bilan pochta xarajatlari to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmagan bo‘lsa, ariza va unga ilova qilingan hujjatlar IPK 155-moddasi birinchi qismining 6-bandiga asosan qaytarilishi haqida Plenum qarorida tushuntirish berilgan.

2. Boshqa subyektlardan farqli ravishda, soliq organlari va boshqa vakolatli organlar tomonidan ariza berilayotganda Qonunning mazkur moddasida nazarda tutilgan farq SKga asosan majburiy to‘lovlar bo‘yicha muddatida to‘lanmagan qarzlarni undirib olish uchun choralarni ko‘rganligi bo‘yicha dalillar arizaga ilova qilinishi zarurati bilan izohlanadi.

Bunday hujjat sifatida arizaga hisobida mablag‘ yo‘qligi tufayli bajarilmaganlik haqida belgi bilan bank idorasiga taqdim etilgan, yuridik shaxsdan boqimanda qarzlarni so‘zsiz ravishda hisobdan chiqaruvchi to‘lov talabnomasi (inkassa topshirig‘i) ilova qilinadi. Qarzdorning mulki bo‘lgan holda, arizaga boqimanda qarzdorlikni undirish uchun, undirishni qarzdor mol-mulkiga qaratish to‘g‘risidagi sudning hal qiluv qarori ilova qilinadi. Undirish qarzdorning mulkiga qaratilib, ammo boqimanda qarzdorlikni undirish imkoniyati bo‘lmagan holda, arizaga mulkning yo‘qligi tufayli bajarilmaganligi to‘g‘risida sud ijrochisining belgisi qo‘yilgan ijro varaqasi ilova qilinadi.

Davlat soliq va bojxona xizmati organi tomonidan qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza berish uchun soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha qarzni undirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar asos bo‘lishi va shu sababli arizaga qonunchilikka muvofiq soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha qarzni undirishga doir chora-tadbirlar ko‘rilganligiga oid dalillar ilova qilinishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini yanada soddalashtirish va sud boshqaruvchilari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2019-yil 1-fevraldagi PQ-4146-sonli qarori 1-bandining ikkinchi xatboshisida soliq xizmati organlari soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qarzdorlikni undirish imkoniyati bo‘lmaganligi sababli ijro hujjatlari qaytarilgan kundan boshlab 30 kundan kechiktirmasdan qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

10. Shu sababli agar davlat soliq xizmati organining qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi arizasiga soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qarzdorlikni undirish imkoniyati bo‘lmaganligi sababli ijro hujjatlarini qaytarish to‘g‘risidagi davlat ijrochisining qarori ilova qilinmagan bo‘lsa, ariza Qonun 46-moddasining oltinchi qismi va IPK 155-moddasi birinchi qismining 7-bandiga asosan qaytariladi, ariza ish yuritishga qabul qilingan bo‘lsa, u IPK 107-moddasining 5-bandiga asosan ko‘rmasdan qoldiriladi.

Ushbu qoida davlat bojxona xizmati organining arizasiga ham tatbiq etiladi.

46-modda. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish

Qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani qabul qilish haqidagi masalani yoki to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani qabul qilishni rad etish yoxud qaytarish to‘g‘risidagi masalani sudya ariza tushgan paytdan e’tiboran besh kundan kechiktirmay hal etadi.

Sudya qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi va ushbu **Qonun talablariga rioya etgan holda berilgan arizani o‘z ish yurituviga qabul qiladi.**

Sudya qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani ish yurituviga qabul qilar ekan, kuzatuv tartib-taomilini joriy etish va muvaqqat boshqaruvchini tayinlash to‘g‘risida ajrim chiqarishi mumkin.

Sudning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ajrimi sud tomonidan davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga, qarzdor joylashgan yerdagi (yashash joyidagi) davlat ijrochisiga yuboriladi. Qarzdor yuridik shaxsning o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ajrimning ko‘chirma nusxasini o‘z vakolatxonalari va filiallari joylashgan yerdagi shunday shaxslarga (organlarga) yuborish majburiyati uning zimmasiga yuklatiladi.

Agar ushbu Qonun 37-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan shart buzilgan bo‘lsa, sudya qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani qabul qilishni rad etadi.

Agar qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza ushbu Qonunning 39–45-moddalarida nazarda tutilgan talablarga muvofiq bo‘lmasa, sudya arizani qaytaradi. Ariza bilan murojaat etish qarzdorning rahbari uchun majburiy bo‘lgan va arizaga ushbu Qonunning 40-moddasida nazarda tutilgan hujjatlar ilova qilinmagan hollarda bunday ariza sud tomonidan qabul qilinadi, yetishmayotgan hujjatlar esa to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlash tartibida talab qilib olinadi.

Sharhlanayotgan modda qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish, arizani qabul qilishni rad etish yoxud qaytarishning tartibini belgilaydi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida nazarda tutilganidek, sudya ariza tushgan paytdan e’tiboran besh kundan kechiktirmay qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani qabul qilish haqidagi masalani yoki to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani qabul qilishni rad etish yoxud qaytarish to‘g‘risidagi masalani yakka tartibda hal etishi belgilangan, ya’ni bu muddat ichida sudya sudga taqdim etilgan ariza va unga ilova qilingan hujjatlar (dalillar)ga o‘ziga xos huquqiy «baho» berishi lozim. Bu qoida IPKning 152-moddasida ham belgilangan.

2. Sudya qarzdor yoki kreditorning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasiga Qonunning 40-, 43-, 198-moddalari va IPKning 151-moddasida nazarda tutilgan hujjatlar ilova qilinganligini, shuningdek, vakolatli davlat organining arizasi hamda davlat soliq xizmati organining va boshqa vakolatli organning arizasi ham IPK va Qonun talablariga asosan berilganligini tekshiradi. Agar ariza IPK va Qonunning 5-moddasi va 37–45-moddalarining talablariga rioya qilingan holda berilgan bo‘lsa, sudya arizani ish yuritishiga qabul qiladi va bu haqida ajrim chiqaradi. Ushbu ajrim, IPK 153-moddasining birinchi qismiga binoan, chiqarilgan kunidan e’tiboran besh kun ichida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yuboriladi. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish, albatta, qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizaning qabul qilinishi bilan bir vaqtda qo‘zg‘atiladi. Sudya arizaning ish yuritish uchun qabul qilinganligi va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishning qo‘zg‘atilganligi to‘g‘risidagi ajrimni bir vaqtda chiqaradi.

IPKning 153-moddasida nazarda tutilgan arizani qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi maxsus qoidani aks ettiradi, bunda arizani qabul qilish to‘g‘risidagi ajrim ustidan shikoyat qilish tartibi na Qonun, na IPKda nazarda tutilgan. Binobarin, mazkur ajrim ustidan shikoyat qilib bo‘lmaydi (60-moddaning sharhiga qarang). Bunda ushbu ajrimga rozi bo‘lmagan qarzdor Qonunning 48-moddasiga binoan ariza yuzasidan yozma fikr berishi mumkin.

Arizani ish yurituviga qabul qilish to‘g‘risidagi ajrimida sud qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilganligini hamda birinchi sud muhokamasini o‘tkazish vaqti va joyini ko‘rsatadi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismiga binoan, sudya to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani qabul qilishda kuzatuvni joriy qilish va muvaqqat boshqaruvchini tayinlash to‘g‘risidagi ajrimni arizani ish yurituviga qabul qilish to‘g‘risidagi ajrim bilan bir vaqtda qabul qilish huquqiga ega. Qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani qabul qilish to‘g‘risidagi ajrimda kuzatuv tartib-taomilini joriy qilish va muvaqqat boshqaruvchining tayinlanishi ko‘rsatilishi mumkin. Bunda Qonun 78-moddasining tushunchasi va mazmunidan kelib chiqqan holda kuzatuv tartib-taomilini joriy qilish to‘g‘risida alohida ajrim chiqarilishi talab etilmaydi. Ammo agar biror-bir sababga ko‘ra yoki vaziyat tufayli arizani ish yurituviga qabul qilish to‘g‘risidagi ajrim kuzatuv tartib-taomilini joriy qilish va muvaqqat boshqaruvchini tayinlash to‘g‘risidagi ajrimni bir vaqtda chiqarishning imkoni bo‘lmasa, masalan, arizani ko‘rib chiqishga qabul qilish to‘g‘risidagi ajrimni chiqarish vaqtida muvaqqat boshqaruvchilikka nomzod bo‘lmagan taqdirda, sud qarzdorni to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza kelib tushgan kundan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay kuzatuvni joriy etish va muvaqqat boshqaruvchini tayinlash to‘g‘risidagi alohida ajrim chiqarishi mumkin. Bunday holda shuni nazarda tutish kerakki, kuzatuv muddati arizani qabul qilish to‘g‘risidagi ajrimning chiqarilgan vaqtidan e’tiboran emas, balki kuzatuvni joriy qilish va muvaqqat boshqaruvchini tayinlash to‘g‘risidagi ajrimning chiqarilish vaqtidan e’tiboran hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

14. Sudya to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni sud majlisida ko‘rishga tayyorlash bilan bir vaqtda kuzatuv tartib-taomilini joriy etish masalasini hal qilishi lozim (Qonunning 49- va 78-moddalari). Kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi arizani ish yuritishga qabul qilish va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi sudning ajrimida ko‘rsatiladi.

Mol-mulki mavjud bo‘lgan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilinganda unda muvaqqat boshqaruvchining nomzodi ko‘rsatiladi. Arizada muvaqqat boshqaruvchining nomzodi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, sud arizachidan yoki vakolatli davlat organidan yoxud sud boshqaruvchilarining jamoat birlashmasidan tegishli nomzodni taqdim etishni so‘raydi.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismi sud tomonidan arizani ish yurituvga qabul qilish va qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ajrim yuboriladigan shaxslarning majburiy ro‘yxatini belgilaydi. Ular qatoriga soliq xizmati organlari, sud ijrochisi va qarzdorning joylashgan joyi (yashash joyi)dagi boshqa vakolatli organlarni kiritish mumkin. O‘z navbatida, qarzdor yuridik shaxsning o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ajrimning ko‘chirma nusxasini o‘z vakolatxonalari va filiallari joylashgan yerdagi shunday shaxslarga (organlarga) yuborish majburiyati uning zimmasiga yuklatiladi.

Ajrimning sud ijrochisiga yuborilishi shu bilan asoslanadiki, «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 34-moddasi ikkinchi qismining 2-bandiga ko‘ra qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish bo‘yicha iqtisodiy sud tomonidan ish yuritish qo‘zg‘atilganda, shu jumladan, kuzatuvni joriy etish, sud sanatsiyasini yoki tashqi boshqaruvni joriy etish va (yoki) ularning muddatini uzaytirish haqida iqtisodiy sud tomonidan ajrim qabul qilinganda va Qonunning 79-moddasi birinchi qismi ikkinchi xatboshisiga binoan mulkiy undiruvlar bo‘yicha ijro hujjatlarini ijro etish to‘xtatib turiladi. Bu orqali sud qarzdor mol-mulki sotilishining oldini oladi, bu to‘lovga qobiliyatsizlik ish yurituvi tartib-taomilida muhim holat hisoblanadi. Qarzdorning mulkini sotish to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari doirasida amalga oshiriladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, agar qarzdorning ustav fondi (ustav kapitali)da davlat ulushi bo‘lsa, IPK 153-moddasi birinchi qismiga muvofiq, sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganligi haqida vakolatli davlat organini ajrim chiqarilgandan keyin besh kun ichida xabardor qilishi kerak.

5. Agar qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza Qonunning 5-moddasida belgilangan talablarga javob bermasa, sharhlanayotgan moddaning beshinchi qismiga binoan, sudya uni qabul qilishni rad etadi. Biroq bu sud tomonidan arizani qabul qilishni rad etishning yagona asosi emas. Sharhlanayotgan moddaning beshinchi qismi normasi IPKning 154-moddasi qoidalariga nisbatan alohida tartiblarni aks ettiradi, ya’ni u to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani qabul qilishni rad etish uchun alohida asosni belgilaydi. Shuningdek, sudya faqat mazkur moddaning beshinchi qismiga asosan emas, balki IPKning 154-moddasida ko‘rsatilgan asoslarga muvofiq ham arizani qabul qilishni rad etadi. Arizani qabul qilishni rad etish to‘g‘risida sud ajrim chiqaradi, IPK 154-moddasining ikkinchi qismiga binoan, ishda ishtirok etuvchi shaxslar uning ustidan shikoyat qilishlari mumkin.

6. Qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani qaytarish uchun umumiy asoslar IPKning 155-moddasi bilan tartibga solinadi. Chunonchi, IPKning 155-moddasiga muvofiq, da’vo arizasi imzolanmagan bo‘lsa yoki uni imzolash huquqiga ega bo‘lmagan shaxs yoxud mansab mavqei yoki familiyasi, ismi, otasining ismi ko‘rsatilmagan shaxs tomonidan imzolangan bo‘lsa, qaytarilishi kerak.

Sharhlanayotgan moddada belgilangan arizani qaytarish uchun qo‘shimcha asoslar sifatida arizaning mazmuni va shakli Qonunning 39–45-moddalarida nazarda tutilgan talablarga javob bermasligi keltiriladi. Bunday hollarda sud arizani qaytaradi.

Yagona istisno arizaga ilova qilinadigan zarur hujjatlar to‘g‘risidagi Qonunning 40-moddasidagi talablar uchun belgilanadi. Mazkur qismda belgilanishicha, qarzdorning rahbari uchun ariza berish majburiy bo‘lgani holda, Qonunning 40-moddasida ko‘rsatilgan hujjatlar ilova etilmagan taqdirda ham, mazkur ariza sud tomonidan qabul qilinadi. Yetishmayotgan hujjatlar sud tomonidan ishni sudda ko‘rishga tayyorlash doirasida talab qilib olinishi kerak. Shunga e’tiborni qaratish kerakki, mazkur qism faqat qarzdorning rahbari sudga qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan murojaat qilishi shart bo‘lgan holdagina qo‘llanadi (Qonun 9-moddasining birinchi qismi).

Sudya arizani qaytarish to‘g‘risida ajrim chiqaradi va uni kelib tushgan kundan e’tiboran besh kun ichida ishda ishtirok etayotgan shaxslarga yuboradi. Bunda arizachiga ilova qilingan hujjatlar qaytariladi. Mazkur ajrim ustidan IPK 155-moddasi uchinchi qismida belgilangan umumiy tartibda shikoyat berilishi yoki protest keltirilishi mumkin. Mazkur shikoyatni ko‘rib chiqish jarayonida arizani qaytarish to‘g‘risidagi ajrim bekor qilingan holda ariza sudga birinchi bor berilgan sanadan topshirilgan deb hisoblanadi. Arizani qabul qilishda rad etish va qaytarishning protsessual oqibatlardagi asosiy farqi shundan iboratki, arizaning qaytarilishi aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilganidan keyin sudga qayta ariza bilan murojaat etishga monelik qilmaydi.

47-modda. Kreditorlarning talablarini ta’minlashga doir chora-tadbirlar

Sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxsning arizasi asosida O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga muvofiq kreditorlar talablarini ta’minlashga doir chora-tadbirlar ko‘rishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksida kreditorlarning talablarini ta’minlash bo‘yicha nazarda tutilgan chora-tadbirlardan tashqari sud bitimlarni sud boshqaruvchisining roziligisiz tuzishni taqiqlab qo‘yishga, qimmatli qog‘ozlarni, valyuta qimmatliklarini va boshqa mol-mulkni saqlash uchun uchinchi shaxslarga topshirishni qarzdorning zimmasiga yuklatishga hamda qarzdorning mol-mulki but saqlanishini ta’minlashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar ko‘rishga haqli.

Kreditorlarning talablarini ta’minlashga doir chora-tadbirlar tegishincha sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillaridan birini joriy etish to‘g‘risida yoki sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topishni rad etish haqida qaror qabul qilinguniga qadar yoxud sud tomonidan kelishuv bitimi tasdiqlanguniga qadar amal qiladi.

Sud ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan holatlar yuzaga kelguniga qadar kreditorlarning talablarini ta’minlashga doir chora-tadbirlarni bekor qilishga haqli.

Sudning kreditorlar talablarini ta’minlashga doir chora-tadbirlar ko‘rish haqidagi ajrimi ustidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxslar tomonidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Sharhlanayotgan moddada sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida kreditorlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida qarzdor mol-mulkining saqlanishini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni qo‘llashi, ularning amal qilish muddati va bekor qilinishi hamda bu haqidagi ajrim ustidan shikoyat qilish mumkinligi belgilangan.

1. Kreditorlar talablarini ta’minlash chora-tadbirlari qarzdorning kreditorlari manfaatlarini himoya qilishdagi muhim boshlang‘ich bosqichdir. Bu chora-tadbirlar qarzdorning barcha mol-mulkini yoki bir qismining yaxlitligini va saqlanishini ta’minlaydi.

Qonun to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarida kreditorlar talablarini ta’minlash bo‘yicha sudlar tomonidan chora-tadbirlar ko‘rilishi imkonini nazarda tutadi. To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilida kreditorlar talablarini ta’minlash chora-tadbirlari uchun IPKning 7-moddasi qoidalari qo‘llanadi, mazkur modda esa to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha kreditorlar talablarini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarning ayrim xususiyatlarini belgilaydi.

Ushbu norma IPK 93-moddasi birinchi qismiga binoan ishda ishtirok etuvchi shaxsning arizasi bo‘yicha kreditorlar talablarini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilishi mumkinligini belgilaydi.

2. Talablarni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar IPK 94-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan javobgarga tegishli mol-mulkni yoki pul mablag‘larini xatlab qo‘yish; javobgarga muayyan harakatlarni bajarishni taqiqlash; boshqa shaxslarga nizo predmetiga aloqador bo‘lgan muayyan harakatlarni bajarishni taqiqlash; da’vogar nizolashayotgan, undirish so‘zsiz (akseptsiz) tartibda amalga oshiriladigan ijro hujjati yoki boshqa hujjat bo‘yicha undirishni to‘xtatib turish; mol-mulkni xatlashdan ozod qilish to‘g‘risidagi ariza ko‘rib chiqilgan taqdirda mol-mulkni realizatsiya qilishni to‘xtatib turish; nizoli mol-mulk buzilishining, holati yomonlashishining oldini olish maqsadida javobgarning zimmasiga muayyan harakatlarni bajarish majburiyatini yuklash; nizoli mol-mulkni uchinchi shaxsga (saqlovchiga) o‘tkazish bo‘lishi mumkin. Shuningdek, sud o‘z tashabbusi bilan qarzdorning fuqarolik muomala layoqati bilan bog‘liq bo‘lgan cheklovlarni belgilashi, sud boshqaruvchisining ruxsatisiz qarzdorning bitimlar tuzishini taqiqlashi, qarzdorni qimmatli qog‘ozlar, valyuta boyliklari va boshqa mol-mulkni saqlash uchun uchinchi shaxslarga topshirishga majburlashi va qarzdorning mol-mulkini saqlashga qaratilgan boshqa choralarni qo‘llashga haqli ekanligini belgilashi mumkin. Kreditorlar talablarini ta’minlash bo‘yicha mazkur choralar borasida yana shuni ta’kidlash kerakki, muvaqqat boshqaruvchi Qonun 83-moddasi birinchi qismining to‘rtinchi xatboshisiga muvofiq sudga mazkur qismda nazarda tutilgan qo‘shimcha choralarni ko‘rish to‘g‘risida iltimosnoma bilan murojaat qilishi mumkin.

3. Sud tomonidan kreditorlarning talablarini ta’minlash bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbir keyingi to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili kiritilguniga qadar (sud sanatsiyasi bo‘yicha, tashqi boshqaruv bo‘yicha, tugatishga doir ish yuritish bo‘yicha) yoki sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinguniga qadar yoki sud tomonidan kelishuv bitimi tasdiqlanguniga qadar yoki ish yuritish tugatilgunga qadar amal qiladi. Ko‘rsatilgan holatlarda kreditorlar talablarini ta’minlashni bekor qilish to‘g‘risidagi ajrimning chiqarilishi talab etilmaydi.

4. Shu bilan birga, sud ishda ishtirok etayotgan shaxsning iltimosnomasiga ko‘ra Qonunda ko‘rsatilgan holatlar yuzaga kelguniga qadar ham kreditorlarning talablarini ta’minlashni bekor qilishi mumkin. Bunday iltimosnoma qarzdorning mol-mulki kreditorlar zarariga foydalanishi mumkin degan asos bo‘lmaganda, aksincha, mol-mulkni tasarruf etish huquqi qarzdorning to‘lovga qodirligini tiklashga qaratilgan holda qondirilishi mumkin.

Kreditorlar talablarini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni bekor qilish to‘g‘risidagi iltimosnoma ishda ishtirok etuvchilarni xabardor qilgan holda sud majlisida ko‘rib chiqiladi. Biroq tegishli tartibda xabardor etilganda ularning kelmasligi ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni bekor qilish to‘g‘risidagi masalaning ko‘rib chiqilishi uchun to‘sqinlik qilmaydi.

5. Kreditorlar talablarini ta’minlash chora-tadbirlari va qarzdor mol-mulkining saqlanishini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha sudya ajrim chiqaradi, u chiqqan (e’lon qilingan) vaqtdan e’tiboran ijro etilishi kerak va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar IPKda belgilangan umumiy tartibda uning ustidan shikoyat qilishlari yoki protest keltirilishi mumkin. Qarang: Xalqaro sharh. 741-b.

48-modda. Qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza yuzasidan qarzdorning yozma fikri

Kreditor, davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organning qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida arizasi qabul qilinganligi to‘g‘risidagi sud ajrimini olgan kundan e’tiboran besh kunlik muddatda qarzdor, agar ushbu Qonunda boshqacha qoidalar belgilanmagan bo‘lsa, sudga, arizachiga va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga mazkur ariza yuzasidan yozma fikrini yuborishga, shuningdek, arizada ko‘rsatilmagan barcha kreditorlarni o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganligi haqida xabardor qilishga haqli.

Qarzdorning sudga yuborayotgan yozma fikriga uning ko‘chirma nusxasi arizachiga hamda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga yuborilganligini tasdiqlovchi dalillar ilova qilinishi kerak.

Qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza yuzasidan yozma fikrda O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksida nazarda tutilgan ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak. Qarzdorning yozma fikri mavjud emasligi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishning ko‘rilishiga monelik qilmaydi.

Sharhlanayotgan moddada qarzdorning sudga, arizachiga va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza yuzasidan yozma fikr yuborish, shuningdek, barcha kreditorlarni o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganligi haqida xabardor qilish huquqi belgilangan.

1. Qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza yuzasidan qarzdorning yozma fikri to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda unga arz qilingan talablarga nisbatan protsessual himoya vositasi hisoblanadi. Ushbu yozma fikr da’vo tartibida ish yuritishdagi IPKning 156-moddasida nazarda tutilgan yozma fikr bilan bir xil funksiyalarga ega.

Sud tomonidan kreditor, davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organining qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza qabul qilingan holda qarzdor sudga, arizachiga va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga arizada ko‘rsatilgan talablarning tarkibi va miqdoridan norozi bo‘lsa, mazkur ariza yuzasidan yozma fikrini yuborishga haqlidir. Yozma fikr taqdim etish qarzdorning majburiyati emas, aksincha, uning huquqi hisoblanadi. Shuni ta’kidlash joizki, qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizada ko‘rsatilgan talablarga nisbatan qarzdorning e’tirozlari Qonunga ko‘ra emas, balki sharhlanayotgan moddada belgilangan yozma fikrni yuborish tartibiga asosan yuboriladi.

Sud tomonidan qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza ish yuritishga qabul qilinganligi to‘g‘risidagi ajrimni olgan kundan

e’tiboran qarzdor besh kunlik muddat ichida sudga yozma arizani yuborish huquqiga ega ekanligi nazarda tutilgan. Besh kunlik muddat o‘tganidan so‘ng sudga yozma arizani taqdim etish qarzdorning vajlari sud tomonidan ko‘rib chiqilishiga to‘sqinlik qilmaydi. Qarzdor sudga yozma fikrni to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish ko‘riladigan kunga qadar berishi mumkin. Yozma fikrni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra sud alohida sud hujjatini chiqarmaydi, balki yozma fikrda bayon etilgan qarzdorning vajlariga ishni mazmunan ko‘rib chiqish jarayonida baho beradi.

Shuningdek, qarzdor arizada ko‘rsatilmagan kreditorlarni ham unga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilganligi to‘g‘risida xabardor qilish huquqiga ega. Qarzdorni qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizada ko‘rsatilmagan kreditorlarni xabardor qilish yozma fikrni taqdim qilish kabi qarzdorning majburiyati emas, balki huquqi hisoblanadi.

2. Ushbu normaga ko‘ra, qarzdor sudga to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ariza yuzasidan yozma fikr taqdim etayotganda ushbu fikrning nusxalari arizachiga va ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga ham yuborilganini tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilishi shart. Masalan, pochta kvitansiyasi, elektron yuborish tasdig‘i yoki qabul qilinganligi haqidagi xabarnoma bunday dalil sifatida xizmat qilishi mumkin. Bu tartib ish ishtirokchilarining xabardorligini ta’minlash, ularga o‘z munosabatini bildirish imkonini berish va sud muhokamasining oshkora hamda tortishuv tamoyili asosida amalga oshirilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

3. IPKning 156-moddasiga asosan qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizaga yozma fikrda quyidagilar ko‘rsatiladi: yozma fikr yuboriladigan sudning nomi; qarzdorning nomi va ishning raqami; da’vogarning talablarini to‘liq yoki qisman rad etishning qonun hujjatlariga asoslangan sabablari, shuningdek, e’tirozlarni asoslovchi dalillar; yozma fikrga ilova qilinayotgan hujjatlarning ro‘yxati; javobgarda mavjud bo‘lgan iltimosnomalar va boshqa ma’lumotlar. Majburiy ma’lumotlardan tashqari yozma fikrda quyidagilar ko‘rsatilishi mumkin: hamma kreditorlarning oldidagi qarzning umumiy summasi, shuningdek, ish haqi va majburiy to‘lovlar yuzasidan bo‘lgan qarzlar; qarzdorning bank va kredit tashkilotlardagi hisoblarining mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar; agar mavjud bo‘lsa, arizachining talablari asossiz ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar. Qarzdor tomonidan boshqa zarur ma’lumotlar taqdim etilishi mumkin, xususan, unda debitor qarzni qoplaydigan mol-mulkning mavjudligi, qarzdorning xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar, pul majburiyatlarini bajarishni va majburiy to‘lovlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash to‘g‘risidagi iltimosnomalar, qarzdorning to‘lovga qobiliyatliligini tiklashga qaratilgan choralar ro‘yxati va h.k.

Yozma fikrda ishda ishtirok etuvchi shaxsning yoki uning vakilining pochta manzili, telefonlari, fakslari raqamlari, elektron manzili (agar ular mavjud bo‘lsa) ko‘rsatiladi. Qarzdorning yozma fikriga to‘lovga qobiliyatsizlikning aniq tartib-taomilini qo‘llash, ta’minlovchi choralardan voz kechish to‘g‘risidagi iltimosnomalar ilova qilinishi mumkin. Yozma fikrning mavjud emasligi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishga to‘sqinlik qilmaydi.

49-modda. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlash

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlash O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksida nazarda tutilgan tartibda, ushbu Qonunda belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda sudya tomonidan amalga oshiriladi.

Qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza tushgan kundan e’tiboran sudya besh kundan kechiktirmay kuzatuv tartib-taomilini joriy etish haqidagi masalani hal qiladi.

Kreditorlarning talablari yuzasidan qarzdor yoki muvaqqat boshqaruvchi yoxud davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organda e’tirozlar mavjud bo‘lsa, sudya ularning e’tirozlari asosliligini tekshiradi.

Sudyaning qarzdor yoki muvaqqat boshqaruvchi yoxud davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organ e’tirozlari asosliligini tekshirishi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishning belgilangan muddati tugashiga kamida bir oy qolganda o‘tkaziladi.

Sud qarzdor yoki muvaqqat boshqaruvchi yoxud davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organning e’tirozlari asosliligini ko‘rib chiqish natijalari asosida kreditorlar talablarini kreditorlarning talablari reyestriga kiritish haqida yoki ularni reyestrga kiritishni rad etish to‘g‘risida ajrim chiqaradi. Ajrimda kreditorlarning, agar ularga nisbatan e’tirozlar asossiz deb topilgan bo‘lsa, talablari miqdori va ularni qanoatlantirish navbati ko‘rsatiladi.

Kreditorlarning talablari yuzasidan e’tirozlarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha sud chiqargan ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin. Mazkur ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) uning amal qilishini to‘xtatib qo‘ymaydi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlash paytida, shuningdek, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish ko‘rilayotganda sud qarzdorning moliyaviy ahvolini aniqlash uchun ekspertiza tayinlashga haqli.

Sharhlanayotgan moddada to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlash tartibi, kuzatuv tartib-taomilini joriy etish, kreditorlar talablari yuzasidan e’tirozlarni ko‘rib chiqish, ularni reyestrga kiritish masalalarini hal qilish hamda qarzdorning moliyaviy ahvolini aniqlash uchun ekspertiza tayinlash tartibi belgilangan.

1. Ishni sud muhokamasiga tayyorlash tumanlararo iqtisodiy sudning sudyasi, iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudlov hay’atlari sudyasi tomonidan IPKning 19-bobida nazarda tutilgan tartibda, Qonunda belgilangan o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. IPKning 155-moddasiga asosan arizani qaytarish yoki 154-moddasiga asosan uni rad etish uchun asoslar mavjud bo‘lmasa, sudya to‘lovga qobili-

yatsizlik to‘g‘risidagi arizani ish yuritishga qabul qilish va ishni sud muhokamasiga tayyorlash to‘g‘risida ajrim chiqaradi.

Amaliyotda sudya, odatda, bitta ajrim chiqaradi, qonunda ko‘rsatilgan o‘ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda unda ishni tayyorlashga doir harakatlar, bu harakatlarni bajarish muddatlari, ishni sudda ko‘rishga tayinlash, uni o‘tkazish vaqti va joyi ko‘rsatiladi.

Xususan, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlash chog‘ida sudya quyidagi harakatlarni amalga oshiradi: 1) ishda ishtirok etish uchun uchinchi shaxslarni jalb qilish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqadi; 2) manfaatdor shaxslarni sud muhokamasini o‘tkazish vaqti va joyi haqida xabardor qiladi; 3) ishda ishtirok etuvchi shaxslarni ularning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etishga bo‘lgan huquqlari haqida xabardor qiladi; 4) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga, boshqa tashkilotlarga, ularning mansabdor shaxslariga muayyan harakatlarni amalga oshirishni taklif etadi, shu jumladan, nizoni hal qilish uchun ahamiyatli hujjatlar va ma’lumotlar taqdim etishni taklif qiladi; 5) odil sudlovni amalga oshiruvchi shaxslar (guvoh, tarjimon, mutaxassis va ekspert(lar)ni chaqirtiradi; 6) ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqadi; 7) taraflarga zarur dalillarni olishga ko‘maklashadi, taraflarning iltimosnomasi bo‘yicha ularni talab qilib oladi; 8) da’voni va dalillarni ta’minlash to‘g‘risidagi masalalarni taraflarning iltimosnomasi bo‘yicha hal etadi; 9) boshqa shaxslarning ishga kirishishi, sudning sayyor majlisini o‘tkazish to‘g‘risidagi masalalarni ko‘rib chiqadi. Sudya ishning to‘g‘ri va o‘z vaqtida hal etilishini ta’minlashga qaratilgan boshqa harakatlarni ham amalga oshiradi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza tushgan kundan e’tiboran sudya besh kundan kechiktirmay kuzatuv tartib-taomilini joriy etish haqidagi masalani hal qilishi belgilangan bo‘lib, unga Qonunning 78-moddasiga berilgan sharhda batafsil to‘xtalib o‘tilgan.

Qonunning 78-moddasiga ko‘ra, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganda kuzatuv tartib-taomili sud qarzdor – yuridik shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani ish yuritishga qabul qilgan sanadan e’tiboran joriy etiladi. IPK nuqtayi nazaridan, kuzatuv tartib-taomili ishlarni mazmunan sudda ko‘rish uchun tayyorlash bo‘yicha iqtisodiy protsessning bir bosqichidir.

Bularning barchasini quyidagi tarzda ham tushunish mumkin.

Sudga to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza taqdim qilinganida arizada muvaqqat boshqaruvchining nomzodi ko‘rsatilishi lozim. Bu holda sudya arizani ish yurituviga qabul qila turib kuzatuv tartib-taomilini joriy etish va muvaqqat boshqaruvchini tayinlash to‘g‘risidagi ajrim (Qonun 46-moddasining uchinchi qismi) chiqaradi va kuzatuv tartib-taomili sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza ish yurituviga qabul qilingan vaqtdan e’tiboran joriy etiladi (Qonunning 78-moddasi).

Mol-mulki mavjud bo‘lgan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilinganda unda muvaqqat boshqaruvchining nomzodi ko‘rsatiladi. Arizada muvaqqat boshqaruvchining nomzodi

ko‘rsatilmagan bo‘lsa, sud arizachidan yoki vakolatli davlat organidan yoxud sud boshqaruvchilarining jamoat birlashmasidan tegishli nomzodni taqdim etishni so‘raydi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida belgilanishicha, kreditorlarning talablari yuzasidan qarzdor yoki muvaqqat boshqaruvchi yoxud davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organda e’tirozlar mavjud bo‘lsa, sudya ularning e’tirozlari asosliligini tekshiradi. Qonunning 87-moddasida kreditorlarning aniqlangan deb e’tirof etish uchun asosga ega bo‘lgan talablariga nisbatan qarzdor o‘z e’tirozlarini sudga yuborishga haqliligi belgilangan (bu haqida Qonunning 87-moddasiga berilgan sharhda batafsil bayon qilingan). Shuningdek, Qonunning 83-moddasida muvaqqat boshqaruvchining huquqlari keltirilgan bo‘lib, u Qonunning 79-moddasida nazarda tutilgan hollarda kuzatuv tartib-taomili davrida kreditorlarning talablarini bajarishga e’tirozlar bildirishga haqli (bu haqida Qonunning 83-moddasiga berilgan sharhda batafsil bayon qilingan). Shu bilan birga, sudya davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organda e’tirozlar mavjud bo‘lsa, ularning ham asosliligini tekshiradi.

4. Ushbu normaga ko‘ra, sudya qarzdor, muvaqqat boshqaruvchi, davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan kreditorlar talablariga nisbatan bildirilgan e’tirozlarni ishni ko‘rib chiqish muddati tugashidan kamida bir oy oldin tekshirishi shart. Masalan, kreditor talabining asossizligi yoki miqdori yuzasidan e’tiroz bildirilgan bo‘lsa, sud bu masalani asosiy ish yakuniga yaqin emas, balki oldindan ko‘rib chiqishi lozim. Bu tartib sudga barcha bahsli holatlarni o‘z vaqtida hal qilish, kreditorlar talablari reyestrini aniq shakllantirish va ishni belgilangan muddatlarda samarali yakunlash imkonini beradi.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismida belgilanishicha, sud qarzdor yoki muvaqqat boshqaruvchi yoxud davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organning e’tirozlari asosliligini ko‘rib chiqish natijalari asosida kreditorlar talablarini kreditorlarning talablari reyestriga kiritish haqida yoki ularni reyestrga kiritishni rad etish to‘g‘risida ajrim chiqaradi. Ajrimda kreditorlarning, agar ularga nisbatan e’tirozlar asossiz deb topilgan bo‘lsa, talablari miqdori va ularni qanoatlantirish navbati ko‘rsatiladi.

Ushbu ajrim faqat qarzdorning e’tirozlari bo‘yicha emas, balki muvaqqat boshqaruvchi yoxud davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organning e’tirozlari bo‘yicha ham chiqariladi. Shunday qilib, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlash chog‘ida arz qilingan talablarning hajmini aniqlash bo‘yicha kichik jarayonlar o‘tkazilishi mumkin.

6. Mazkur moddaning oltinchi qismida ko‘rsatilgan kreditorlarning talablari yuzasidan e’tirozlarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha sud chiqargan ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkinligi belgilangan.

Demak, ushbu ajrim ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga ta’sir qilganligi sababli, uning ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkinligi belgilangan.

IPKning 199-moddasida sudning ajrimi ustidan IPKda nazarda tutilgan hollarda, shuningdek, ajrim ishning kelgusidagi harakatiga to‘sqinlik qilgan taqdirda, sudning hal qiluv qaroridan alohida tarzda shikoyat qilinishi (protest keltirilishi), agar ushbu Kodeks-

da boshqa muddat belgilanmagan bo‘lsa, ajrim chiqarilgan kundan e’tiboran bir oydan oshmagan muddatda uning ustidan shikoyat (protest) berilishi mumkinligi belgilangan.

Biroq ushbu ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) uning amal qilishini to‘xtatib qo‘ymaydi.

7. Bundan tashqari, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlash paytida, shuningdek, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish ko‘rilayotganda sud qarzdorning moliyaviy ahvolini aniqlash maqsadida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomalari bor yoki yo‘qligidan qat’i nazar, sud tomonidan ekspertiza tayinlanishi mumkin. Bu IPKning 9-moddasi «taraflarning tortishuvi va tenghuquqliligi» normasiga zid kelmaydi, chunki ushbu holat Qonunning 49-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan.

50-modda. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rish muddati

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish sud majlisida qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza ish yuritishga qabul qilinganligi to‘g‘risida ajrim chiqarilgan kundan e’tiboran ikki oydan ortiq bo‘lmagan muddatda ko‘rib chiqilishi kerak. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rish alohida hollarda bir oydan oshmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish muddatlari belgilangan.

Qonunga ko‘ra, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish sud majlisida qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza ish yuritishga qabul qilinganligi to‘g‘risida ajrim chiqarilgan kundan e’tiboran ikki oydan ortiq bo‘lmagan muddatda ko‘rib chiqilishi kerak. Sud uchun vaqt talab qiladigan ushbu holat quyidagilar bilan asoslanadi: kreditor yoki vakolatli davlat organi nomzodini taqdim etadigan muvaqqat boshqaruvchini tayinlash uchun ketadigan vaqt, qarzdorga nisbatan muayyan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilini qo‘llash to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish uchun kreditorlarning birinchi yig‘ilishi o‘tkazilishini ta’minlash, qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil qilish, kreditor talablarining hajmini belgilash, kreditorlar talablarining reyestrini tuzish uchun kerak bo‘ladigan vaqt.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish bo‘yicha sudning birinchi muhokamasi vaqti qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani ish yuritishga qabul qilish to‘g‘risidagi ajrimda belgilanadi. Muvaqqat boshqaruvchi kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi to‘g‘risida qarzdorning kreditorlarini aniqlashi va kreditorlarning talablari reyestrini yuritishi, qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi haqida kreditorlarni xabardor qilishi; kreditorning talabiga ko‘ra qarzdorning moliyaviy ahvoli va (yoki) o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni o‘n kunlik muddatda taqdim etishi shart. Istisno holatlarda ishni ko‘rib chiqishning ikki oylik muddati bir oydan ko‘p bo‘lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

Muayyan holat ajrim uchun istisno holat ekanligi yoki yo‘qligini aniqlash uchun Qonunda huquqiy mezon o‘rnatilmagan. Shuningdek, muddatni uzaytirishni kim amalga oshirishi ham belgilanmagan. Bu holda IPKning 164-moddasi qo‘llaniladi, unga ko‘ra, ishni ko‘rib chiqish muddatlarini uzaytirish sud raisining ruxsatiga asosan amalga oshiriladi. Ushbu holat istisno ekanligi yoki emasligi haqidagi masala sudning raisi tomonidan ishga aloqador bo‘lgan barcha holatlarni hisobga olgan holda ko‘rib chiqiladi.

Ishni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha sud Qonunning 51-moddasida sanab o‘tilgan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish to‘g‘risidagi sud hujjatlaridan birini chiqaradi. Qarang: Xalqaro sharh. 741-b.

51-modda. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud hujjatlari

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha sud quyidagi sud hujjatlaridan birini qabul qiladi:

qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqidagi qaror;

qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to‘g‘risidagi qaror;

sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish va uning muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ajrim;

tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish va uning muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ajrim;

to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish haqida ajrim;

to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani ko‘rmasdan qoldirish to‘g‘risidagi ajrim;

kelishuv bitimini tasdiqlash to‘g‘risidagi ajrim.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha sud hujjatlari, agar ushbu Qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, darhol ijro etilishi lozim. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha sud hujjatining ko‘chirma nusxasi sud tomonidan darhol qarzdorning turgan joyidagi (yashash joyidagi) davlat ijrochisiga yuboriladi.

Sharhlanayotgan moddada to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha sud qabul qiladigan sud hujjatlarining turlari, ularning darhol ijro etilishi hamda sud hujjatlari nusxasini davlat ijrochisiga yuborish tartibi belgilangan.

1. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar iqtisodiy sud tomonidan IPKda nazarda tutilgan qoidalar bo‘yicha va Qonunda belgilangan xususiyatlarni hisobga olgan holda ko‘riladi. Sudlarda birinchi instansiya sudida ishlar sudyaning yakka o‘zi tomonidan ko‘riladi (IPK 16-moddasining birinchi qismi).

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish, agar Qonunga zid bo‘lmasa, IPKning 17-bobida o‘rnatilgan tartibda amalga oshiriladi. IPKning qoidala-

ri qo‘llanilmaydigan holatlarga misollar sifatida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish muddatlari bo‘yicha IPKning 164-moddasi emas, balki to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonunning 50-moddasi qo‘llanilishini, shuningdek, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda IPKning 16-bobi – «Yarashtirish tartib-taomillari» ham qo‘llanilmasligini ko‘rsatish mumkin.

Sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarni kreditorlar yig‘ilishi bayonnomasi va unga ilova qilinadigan hujjatlar, sud (muvaqqat) boshqaruvchining hisoboti, ishda ishtirok etuvchi shaxslar taqdim etgan dalil va shikoyatlar asosida ko‘rib chiqadi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish jarayonida sud quyidagi sud hujjatlaridan birini qabul qiladi:

qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qaror (sharhlanayotgan moddaning birinchi qismining ikkinchi xatboshisi) – qarzdorda to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud bo‘lsa va sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruvni joriy etish, kelishuv bitimini tasdiqlash yoki to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatishga asoslar bo‘lmasa;

qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to‘g‘risidagi qaror (sharhlanayotgan moddaning birinchi qismining uchinchi xatboshisi) – to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud bo‘lmagan holda, shuningdek, sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishning mazmuni bo‘yicha sud hujjati chiqarilgunga qadar kreditorlar talablari qondirilsa yoki soxta to‘lovga qobiliyatsizlik aniqlangan bo‘lsa;

sud sanatsiyasini joriy etish va uning muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ajrim (sharhlanayotgan moddaning birinchi qismining to‘rtinchi xatboshisi) – agar sudga kreditorlar yig‘ilishi qarori bo‘yicha sud sanatsiyasini joriy etish to‘g‘risidagi iltimosnoma berilgan bo‘lsa yoki 92-moddaning uchinchi qismiga asosan va mazkur tartib-taomilni qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashining real imkoniyati sifatida topish uchun asoslar mavjud bo‘lgan hollarda (Qonunning 95-moddasi sharhiga qarang). Shuni ta’kidlash kerakki, mazkur xatboshida sud sanatsiyasi muddatining uzaytirish to‘g‘risidagi ajrim haqida aytilgan bo‘lsa ham, bu ajrim bankrot deb topish to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan emas, balki sud tomonidan sud sanatsiyasi muddati mobaynida chiqariladi;

tashqi boshqaruvni joriy etish va uning muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ajrim (sharhlanayotgan moddaning birinchi qismi beshinchi xatboshisi) – agar sudga kreditorlar yig‘ilishi qarori bo‘yicha tashqi boshqaruvni joriy qilish to‘g‘risidagi iltimosnoma berilgan bo‘lsa, mazkur tartib-taomilni qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashining real imkoniyati sifatida topish uchun asoslar mavjud bo‘lgan hollarda (Qonunning 108-moddasi sharhiga qarang). Bu yerda shuni ta’kidlash joizki, mazkur bandda sud sanatsiyasi muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ajrim haqida aytilgan bo‘lsa ham, bu ajrim bankrot deb topish to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan emas, balki sud tomonidan sud tashqi boshqaruv jarayoni mobaynida chiqariladi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish yuritishni tugatish haqidagi ajrim (sharhlanayotgan moddaning birinchi qismi oltinchi xatboshisi) – mazkur ajrim vakolatli davlat organi tomonidan ustav fondida (ustav kapitalida) davlatning ulushi

bo‘lgan korxonaga nisbatan sudgacha sanatsiya qo‘llanishining maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida qaror qabul qilingan bo‘lsa va bu tartib-taomil qo‘llanilishiga kreditorlar rozi bo‘lsa (Qonun 62-moddasining uchinchi qismi) yoxud YTTning bankrotligi to‘g‘risidagi ishda qarzdorning barcha qarzlari qarzlarni qoplash rejasi ijro etilishi natijasida qoplangan bo‘lsa (Qonun 229-moddasining beshinchi qismi) yoki ishda ishtirok etuvchi barcha kreditorlarning arz qilgan talablaridan voz kechganlari holatida (57-moddaning birinchi qismining beshinchi xatboshisi) sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishning ko‘rib chiqish jarayonida chiqariladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan holatlardan tashqari IPKning 110-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lganda, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish jarayonida sud tomonidan ish yuritishni tugatish to‘g‘risidagi ajrim, mazkur qismda to‘g‘ridan to‘g‘ri aytilmasa ham, chiqarilishi mumkin. Masalan, sudning qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi qarori mavjud bo‘lsa, shuningdek, tugatilish munosabati bilan qarzdor davlat reyestridan chiqarilgan hollarda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish IPK 110-moddasi birinchi qismining 2- va 4-bandlariga muvofiq tugatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

30. Agar sudning qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risida hal qiluv qarori mavjud bo‘lsa yoki qarzdor korxona tugatilgan va davlat reyestridan chiqarilgan bo‘lsa, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish yuritish tegishlicha IPK 110-moddasining 2- yoki 4-bandlariga asosan tugatiladi.

Lekin shuni ta’kidlash kerakki, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar uchun mazkur moddada ko‘rsatilgan barcha asoslar qo‘llanilmaydi, ya’ni ularning ba’zilari to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarning o‘ziga xos xususiyatlari munosabati bilan qo‘llanilmaydi.

Qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizani ko‘rmasdan qoldirish haqidagi ajrim (sharhlanayotgan moddaning birinchi qismi yettinchi xatboshisi) – mazkur ajrim IPKning 107-moddasida nazarda tutilgan asoslar aniqlanganda chiqariladi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rish jarayonida mazkur bandda ko‘rsatilgan ajrimni chiqarish uchun asos bo‘ladigan holatlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: a) sudning ish yurituvida aynan shu qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish to‘g‘risidagi ish mavjud bo‘lsa (IPK 107-moddasi birinchi qismining 1-bandi); b) ariza imzolanmagan yoki imzolash huquqiga ega bo‘lmagan shaxslar tomonidan imzolangan yoxud mansab darajasi ko‘rsatilmagan shaxs tomonidan imzolangan bo‘lsa (IPK 107-moddasi birinchi qismining 3-bandi).

Shuni ta’kidlash lozimki, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishga nisbatan mazkur moddada nazarda tutilgan barcha asoslar ham qo‘llanilmaydi, ya’ni ba’zi asoslar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjudligi munosabati bilan qo‘llanilmaydi. Masalan, IPK 107-moddasining 6-bandi (da’vogarning sud majlisiga kelmasligi) to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishga nisbatan qo‘llanilishi mumkin emas, chunki to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilgandan so‘ng kreditorlar manfaatlarini himoya qilish huquqi kreditorlar yig‘ilishiga o‘tadi va qarzdorning kelajakdagi taqdiri kreditorlar yig‘ilishining irodasiga bog‘liq bo‘ladi, ya’ni xususiy tusga ega bo‘lgan ariza boshqa shaxslarning manfaatlariga ta’sir qiladigan ommaviy munosabatlarga aylanadi.

Kelishuv bitimini tasdiqlash to‘g‘risidagi ajrim (sharhlanayotgan moddaning birinchi qismi sakkizinchi xatboshisi) – mazkur ajrim to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rish jarayonida qarzdor va kreditorlar o‘rtasida kelishuv bitimi tuzilgan taqdirda sud tomonidan chiqariladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan sud hujjatlari ichida qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash (sharhlanayotgan moddaning birinchi qismi ikkinchi xatboshisi) va qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to‘g‘risidagi qaror (sharhlanayotgan moddaning birinchi qismi uchinchi xatboshisi) IPKning 21-bobi qoidalariga muvofiq qabul qilinadigan sud hujjatlari (hal qiluv qarori) hisoblanadi. Qolgan ajrimlar ishning mazmuni bo‘yicha emas, IPKning 22-bobi qoidalariga muvofiq chiqariladigan ajrimlardir.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismiga ko‘ra, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha sud hujjatlari, agar ushbu Qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, darhol ijro etilishi lozim. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha sud hujjatining ko‘chirma nusxasi sud tomonidan darhol qarzdorning turgan joyidagi (yashash joyidagi) davlat ijrochisiga yuboriladi. Mazkur norma sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin ijro etilishi to‘g‘risidagi umumiy qoidadan istisno hisoblanadi (IPK 196-moddasining to‘rtinchi qismi).

Lekin bu hol sud hujjatlari ular qabul qilinganidan so‘ng qonuniy kuchga kirishini bildirmaydi. Ularning ustidan IPKda nazarda tutilgan tartibda shikoyatlar berilishi (protest keltirilishi) mumkin. Ammo sud hujjatlariga nisbatan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) uning ijrosini to‘xtatmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

26. Qonunning 51-moddasiga ko‘ra, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha sudning qarorlari va ajrimlari darhol ijro etiladi. Lekin ularning ustidan IPKda nazarda tutilgan tartibda shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

52-modda. Qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qaror

To‘lovga qobiliyatsizlikka oid tiklash tartib-taomillaridan birini joriy etish, kelishuv bitimini tasdiqlash yoki to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish uchun asoslar mavjud bo‘lmaganda sudning qarzdor yuridik shaxsni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qarori ushbu Qonunning 5-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlangan hollarda qabul qilinadi.

Sudning qarzdor yuridik shaxsni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qarorida qarzdorni bankrot deb topish hamda tugatishga doir ish yuritishni boshlash, tugatish boshqaruvchisini tayinlash va unga haq to‘lash haqidagi ko‘rsatma aks ettirilishi kerak.

Sudning qarzdor yuridik shaxsni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qarori ustidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi har qanday shaxslar, shu jumladan, kreditorlarning biri tomonidan, shuningdek, ishda ishtirok etishga jalb etilmagan, huquqlari va majburiyatlari haqida sud qaror qabul qilgan shaxslar tomonidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Sudning qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qarorida qarzdorning yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tganligi o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilganligi ko‘rsatiladi.

Sharhlanayotgan modda sud tomonidan chiqarilgan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qarorning mazmuni va uni chiqarish tartibini belgilaydi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida to‘lovga qobiliyatsizlikka oid tiklash tartib-taomillaridan birini joriy etish, kelishuv bitimini tasdiqlash yoki to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish uchun asoslar mavjud bo‘lmaganda sudning qarzdor yuridik shaxsni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qarori ushbu Qonunning 5-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlangan hollarda qabul qilinishini belgilagan.

Ushbu norma yuridik shaxsga nisbatan uni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash shartlarini belgilaydi. Ayni o‘rinda shuni e’tiborga olish kerakki, mazkur qism qoidalari qarzdor YTTga nisbatan ham uni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash sharti sifatida qo‘llaniladi.

Ta’kidlash joizki, Qonunning mazkur qismi qo‘llanilmaydigan istisno holatlar ham mavjud. Qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza mazkur Qonun 8-moddasining birinchi qismi yoki 9-moddasining birinchi va ikkinchi qismlariga asosan

berilgan hollarda mazkur qism normalari qo‘llanilmaydi. Ya’ni bu holatda 8-moddaning birinchi qismi, 9-modda birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lsa hamda sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruvni joriy etish, kelishuv bitimini tasdiqlash yoxud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatishga asoslar mavjud bo‘lmasa, sud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxonalarga nisbatan uni bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza berilganda to‘lovga qobiliyatsizlik alomati olti oy mobaynida o‘z majburiyatlarini bajara olmaslik hisoblanadi. Tugatilayotgan yuridik shaxsni bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza taqdim etilganda (Qonun 238-moddasining ikkinchi qismi), mazkur yuridik shaxs mol-mulki qiymati kreditorlar talablarini qondirishga yetarli bo‘lmasa, sud uni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Hozir bo‘lmagan qarzdorning bankrot deb topish to‘g‘risida ariza kelib tushgan holda (Qonunning 241-moddasi) qarzdor YTT yoki yuridik shaxsning rahbari hozir bo‘lmasa va ularning turarjoyini (yashash joyini) aniqlashning imkoniyati bo‘lmasa yoki qarzdorning mol-mulki mavjud bo‘lmasa, sud uni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Mazkur holatda qabul qilinayotgan qaror faqat qarzdorni bankrot deb topish bilan bog‘liq bo‘lmaydi, ya’ni bir vaqtning o‘zida bu qarzdorga nisbatan tugatishga doir ish yuritish boshlanganligi haqidagi qaror deb ham hisoblanadi. Ya’ni tugatishga doir ish yuritish faqat qarzdorni bankrot deb topish bilan bir vaqtda boshlanishi mumkin.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi sudning qarzdorni bankrot deb topish hamda tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqidagi qarori mazmunini belgilaydi: unda qarzdorning bankrot deb topilishi to‘g‘risidagi hamda unga nisbatan tugatishga doir ish yuritish boshlanganligi ko‘rsatilishi kerak. Bundan tashqari, ushbu qarorda tugatish boshqaruvchisi deb tayinlangan shaxs ko‘rsatiladi (agar ushbu vaqtda qonunchilik talablariga javob beradigan nomzod taqdim etilgan bo‘lsa) va unga to‘lanadigan haq miqdori belgilanadi.

3. Qarzdorni bankrot deb topish hamda tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqidagi sud qarori yuzasidan shikoyat (protest) keltirish mumkinligini belgilaydi. Bu qaror sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan chiqariladi, shuning uchun shikoyat berilishi (protest keltirilishi) IPKda ko‘rsatilgan tartibda amalga oshiriladi. Agar tugatish boshqaruvchisini tayinlash qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi hamda tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qaror qabul qilinishi bilan bir paytda amalga oshirilgan bo‘lsa, tayinlangan sud boshqaruvchisining nomzodi bilan kelishmagan taqdirda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar qonunning 60-moddasida ko‘rsatilgan tartibda sud hujjatining sud boshqaruvchisini tayinlashga doir qismi ustidan shikoyat berishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

27. Sud boshqaruvchilarini tayinlash (ozod qilish, almashtirish) to‘g‘risidagi ajrimlar ustidan Qonunda nazarda tutilgan tartibda shikoyat qilish (protest keltirish) mumkin. Agar sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilishi bilan bir paytda sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi yoki tashqi boshqaruvchi tayinlangan, tugatish boshqaruvchisi esa qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash bilan bir paytda tayinlangan bo‘lib, ularni tayinlash to‘g‘risida sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruvni joriy etish haqidagi sudning ajrimida yoxud qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi hal qiluv qarorida ko‘rsatilgan bo‘lsa, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar Qonunda nazarda tutilgan tartibda sud hujjatining sud boshqaruvchisini tayinlashga doir qismi ustidan shikoyat berishi mumkin.

4. Qonun 233-moddasining uchinchi qismiga ko‘ra sud tomonidan qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan paytdan e’tiboran ushbu tadbirkorning yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tganligi o‘z kuchini yo‘qotadi, shuningdek, faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish uchun unga berilgan litsenziyalarning amal qilishi tugatiladi. Shu bois ko‘rib chiqilayotgan moddaning to‘rtinchi qismi sudning qarzdor YTTni bankrot deb topish to‘g‘risidagi qarorida qarzdorning YTT sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tganligi o‘z kuchini yo‘qotganligini ko‘rsatilishi lozimligini belgilaydi.

Sud qarzdor YTTni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish haqidagi qarorning ko‘chirma nusxasini ushbu shaxsni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatga olgan organga va litsenziyalovchi organga yuborishi lozim (Qonun 233-moddasining to‘rtinchi qismi).

53-modda. Sud tomonidan chiqarilgan sud hujjatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni e’lon qilish

Sud tomonidan kuzatuv, sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv tartib-taomillarini joriy etish, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish, sud boshqaruvchisini tayinlash, almashtirish yoki vazifasidan ozod qilish to‘g‘risida chiqarilgan ajrimlar haqidagi, qarzdor yuridik shaxsni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qarorlar, mazkur hujjatlarni bekor qilish yoki o‘zgartirish haqida qarorlar qabul qilinganligi haqidagi ma’lumotlar ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi. Ommaviy axborot vositalarining ro‘yxati, davriyligi va mazkur ma’lumotlar-

ni e’lon qilish muddati, ko‘rsatiladigan xizmatlarning narxlari hamda moliyalashtirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Sud boshqaruvchisi tegishli sud hujjati olingan sanadan e’tiboran uch kun ichida ommaviy axborot vositasining manziliga ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan e’lonni yuboradi.

E’lon qilish uchun yuborilgan sud hujjatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ular olingan kundan e’tiboran uch kun ichida e’lon qilinadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan ma’lumotlarni e’lon qilish bilan bog‘liq xarajatlarning o‘rnini qoplash, agar ushbu Qonunda yoki kreditorlar yig‘ilishining yoxud kreditorlar qo‘mitasining qarorida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qarzdorning pul mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Qarzdorda pul mablag‘lari mavjud bo‘lmasa, bunday ma’lumotlarni e’lon qilish haqini to‘lash to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza bilan sudga murojaat etgan arizachi hisobidan amalga oshiriladi, bu mablag‘larning o‘rni keyinchalik qarzdorning molmulki hisobidan qoplanadi.

Qarzdorda e’lon qilish xarajatlarining o‘rnini qoplash uchun yetarli molmulk mavjud bo‘lmasa, xarajatlarning o‘rnini qoplash qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan sudga murojaat etgan arizachi hisobidan amalga oshiriladi.

Sud tomonidan chiqarilgan sud hujjatlari haqidagi ma’lumotlar boshqa ommaviy axborot vositalarida ham e’lon qilinishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha sud hujjatlari haqidagi ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish tartibi, muddatlari, uni amalga oshiruvchi shaxslar va e’lon qilish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash tartibi belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismiga muvofiq, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida chiqarilgan quyidagi sud hujjatlari majburiy e’lon qilinishi lozim: sud tomonidan kuzatuvni, sud sanatsiyasini, tashqi boshqaruvni joriy etish, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish, sud boshqaruvchisini tayinlash, almashtirish yoki vazifasidan ozod qilish haqidagi, qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qarorlar qabul qilingani to‘g‘risidagi ma’lumotlar. Mazkur hujjatlarni o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi appelyatsiya yoki kassatsiya va taftish instansiya sudlarining sud hujjatlari qabul qilinganligi haqidagi ma’lumotlar ham rasmiy nashrda e’lon qilinishi lozim.

Ushbu Qonun imperativ normadan iborat bo‘lib, unga ko‘ra, e’lon qilish Vazirlar Mahkamasining «Bankrotlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan ma’lumotlarni e’lon qilishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2009-yil 11-iyundagi 160-sonli qarorida belgilangan rasmiy nashrda amalga oshirilishi

lozim. Ushbu qarorga asosan Agentlik, Soliq qo‘mitasi hamda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining «Biznes-Daily «Birja» iqtisodiy gazetasi va/yoki Agentlik rasmiy veb-saytida Qonunda nazarda tutilgan ma’lumotlar e’lon qilinadigan ommaviy axborot vositalari etib belgilangan. «Birja» gazetasi O‘zbekiston Respublikasining butun hududida kamida 1000 nusxada tarqatiladi va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarning har haftada e’lon qilinishini ta’minlaydi. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarni «Birja» gazetasida e’lon qilish qiymati, shriftning yirikligi kamida 7 punkt va interlinyaji kamida 8 punkt bo‘lgan taqdirda, qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobga olgan holda bir kvadrat santimetr uchun bazaviy hisoblash miqdorining 1,0 foizidan oshishi mumkin emas; to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarni «Birja» gazetasida e’lon qilish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash Qonunda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

23. Sudlarga tushuntirilsinki, Qonunning 53- va 54-moddalarida nazarda tutilgan ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 11-iyundagi 160-sonli qarorining 1-bandiga muvofiq «Biznes-Daily «Birja» iqtisodiy gazetasi va (yoki) vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi nashr uchun mas’ul bo‘lgan shaxsni, nashr uchun ma’lumotlar jo‘natish hamda nashr etish muddatlarini belgilaydi. Xabarlarni e’lon qilish uchun jo‘natish majburiyati sud boshqaruvchisi (muvaqqat boshqaruvchi, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi, tashqi boshqaruvchi)ga yuklanadi, u esa tayinlanganidan e’tiboran uch kun ichida Qonunning ushbu talabini bajarishi shart. Ushbu qoidadan istisno sifatida qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash bo‘yicha ma’lumotlarni, 143-moddaning uchinchi qismiga muvofiq, tugatish boshqaruvchisi boshqaruvchilikka tayinlangan paytdan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish uchun yuborishi kerak. Gazeta to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ular manfaatdor shaxslardan olingandan va e’lon qilinganlik haqi to‘liq hajmda to‘langandan keyin uch kun mobaynida e’lon qilishi lozim. Moddaning sharhlanayotgan qismida to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, YTT to‘lovga qobiliyatsizlik holatida unga sud boshqaruvchisi tayinlanmasligi tufayli, YTTning o‘zi uni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qaror haqidagi xabarlarni e’lon qilishi lozim bo‘ladi.

3. E’lon qilingan sud hujjatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar «Birja» gazetasi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ular manfaatdor shaxslardan olingandan

va e’lon qilinganlik haqi to‘liq hajmda to‘langandan keyin uch kun mobaynida e’lon qiladi; to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarning «Birja» gazetasining Internetdagi saytida qo‘shimcha haq undirilmasdan joylashtirilishini, shuningdek, saytda joylashtirilgan ma’lumotlardan bepul foydalanilishini ta’minlaydi; agentlik rasmiy veb-saytining alohida sahifasiga sud boshqaruvchisi tomonidan o‘zining elektron raqamli imzosi bilan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi e’lon qilinadigan ma’lumotlarni o‘z kabineti orqali joylashtiradi. Ushbu sahifaga ma’lumotlar bepul joylashtiriladi.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismiga ko‘ra, umumiy qoida bo‘yicha e’lon qilish qarzdorning pul mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Kreditorlar yig‘ilishining (qo‘mitaning) qarori bilan sud hujjatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar nashri amalga oshiriladigan manbalar ko‘rsatilishi mumkin. Masalan, kreditorlar yig‘ilishi (qo‘mitasi) nashr etishni kreditorlardan biri hisobidan amalga oshirish to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin. Agar qarzdorda pul mablag‘lari bo‘lmasa, bunday ma’lumotlarni e’lon qilish haqini to‘lashni sud boshqaruvchisi amalga oshiradi, bu mablag‘lar keyinchalik qarzdorning mol-mulki hisobidan qoplanadi.

5. Agar sud boshqaruvchisi o‘z hisobidan Qonunda ko‘rsatilgan ma’lumotlarni e’lon qilish uchun xarajat qilgan bo‘lsa, u qarzdordan bu xarajatlarni qoplashni talab qilishi mumkin. Qarzdorda e’lon qilish xarajatlarini qoplashga mol-mulki bo‘lmasa yoki yetarli bo‘lmasa, sud boshqaruvchisi xarajatlarni qoplashni qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat etgan kreditor hisobidan amalga oshirilishini talab qilishi mumkin. Vakolatli davlat organi arizasi bo‘yicha ish qo‘zg‘atilgan bo‘lsa va qarzdorda e’lon qilish xarajatlarini qoplashga mol-mulki bo‘lmasa yoki yetarli bo‘lmasa, sud boshqaruvchisining xarajatlarini qoplash O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi mablag‘laridan amalga oshiriladi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish davlat soliq organi arizasiga binoan qo‘zg‘atilgan bo‘lsa, sud boshqaruvchisi soliq organlari xodimlaridan tayinlanadi va ma’lumotlar Davlat soliq qo‘mitasining nashr organida bepul e’lon qiladi.

6. Sud tomonidan chiqarilgan sud hujjatlari haqidagi ma’lumotlar sharhlanayotgan moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan nashrlar bilan birga boshqa ommaviy axborot vositalarida ham e’lon qilinishi mumkin. Qarang: Xalqaro sharh. 742-b.

54-modda. To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari jarayoni haqidagi ma’lumotlarni e’lon qilish

To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari jarayoni haqidagi ma’lumotlar ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinishi shart.

To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari jarayoni haqidagi ma’lumotlarni e’lon qilish bilan bog‘liq xarajatlarning o‘rnini qoplash, agar ushbu Qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qarzdorning mol-mulki hisobidan amalga oshiriladi. Qarzdorda e’lon qilish xarajatlarining o‘rnini qoplash uchun yetarli mol-mulk mavjud bo‘lmasa, xarajatlarning

o‘rnini qoplash kreditorlar yig‘ilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Agar qarzdorning kreditorlari soni ellik nafardan ortiq bo‘lsa yoki ularning sonini aniqlash mumkin bo‘lmasa, qarzdorga nisbatan qo‘llaniladigan har bir to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili boshlanishi haqidagi ma’lumotlar ham ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinishi shart.

Kreditorlar yig‘ilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining qarori asosida e’lon qilinishi shart bo‘lgan ma’lumotlar boshqa ommaviy axborot vositalarida ham e’lon qilinishi mumkin.

To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari jarayoni haqida e’lon qilingan ma’lumotlarda quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

qarzdorning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi) va uning joylashgan yeri (pochta manzili), elektron pochta manzili (mavjud bo‘lgan taqdirda);

sud hujjatini qabul qilgan sudning nomi, shu sud hujjati qabul qilingan sana va joriy qilingan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilining nomi, shuningdek, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishning tartib raqami;

tayinlangan sud boshqaruvchisining familiyasi, ismi, otasining ismi va uning pochta manzili, elektron pochta manzili (mavjud bo‘lgan taqdirda);

to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rish bo‘yicha keyingi sud majlisining sud tomonidan belgilangan sanasi;

qarzdorning qarzini to‘lash istagini bildirgan shaxslarning sud boshqaruvchiga murojaat qilishi mumkinligi to‘g‘risidagi ma’lumot;

ushbu Qonunda nazarda tutilgan boshqa axborot.

Sharhlanayotgan moddada to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari jarayoni haqidagi ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish, bunday e’lonlarning mazmuni, xarajatlarini qoplash tartibi hamda qo‘shimcha axborotlarni e’lon qilish asoslari belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismi qarzdor korxona yoki jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik ishi ochilgani, undagi o‘zgarishlar va yakunlar haqida jamoatchilikni, avvalo, kreditorlarni xabardor qilish mexanizmini belgilaydi.

To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari odatda ko‘p sonli taraflar – qarzdorning, kreditorlarning, sud boshqaruvchisining va sudning ishtirokini talab qiladi. Shu sababli axborot ochiqligi nafaqat huquqiy talab, balki barcha ishtirokchilarning manfaatlarini himoya qilishning zarur sharti hisoblanadi. 54-moddada belgilangan e’lon qilish majburiyati uch muhim maqsadga xizmat qiladi: *birinchidan,* noma’lum kreditorlarni aniqlash imkonini beradi – ba’zida qarzdorning barcha kreditorlari boshqalarga ma’lum bo‘lmaydi, OAVdagi e’lon esa ularni o‘z talablarini o‘z vaqtida bildirish uchun xabardor qiladi; *ikkinchidan*, tortishuv va suiiste’mollarning oldini oladi – tartib-taomil ochiq amalga oshirilsa, manfaatdor taraflar uni nazorat qila oladi va har qanday qonunbuzarlikka e’tiroz bildirishi mumkin; *uchinchidan*,

qarzdorning mol-mulkini sotib olish yoki uning qarzini to‘lab olish istagidagi uchinchi shaxslarni jalb etadi, bu esa kreditorlarning manfaatlarini yanada yaxshi himoya qilishga yordam beradi.

Ushbu normada qonun chiqaruvchi qat’iy norma belgilagan: to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari jarayoni haqidagi ma’lumotlar ommaviy axborot vositalarida (OAV) e’lon qilinishi shart. «Shart» so‘zi bu yerda ixtiyoriy emas, balki majburiy xarakterni bildiradi, ya’ni bu normadan chetlashishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish matbuot nashrlari, internet platformalar va rasmiy saytlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Amalda O‘zbekiston Respublikasida OAV orqali e’lon qilishning asosiy platformasi sifatida yuridik shaxslarning rasmiy ma’lumotnoma bazalari va davlat ro‘yxatxonalari saytlari, sud ma’lumotnomalari xizmat qiladi. Ushbu majburiyat sud boshqaruvchisiga yuklanadi. U e’lon qilish tartibini ta’minlash va buning uchun zarur xarajatlarni amalga oshirish uchun javobgardir.

E’lon qilish majburiyati to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining barcha turlari – kuzatuv, sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv, tugatishga doir ish yuritish kabilar uchun bir xil tarzda qo‘llaniladi. Mazkur norma har bir tartib-taomil uchun alohida e’lon qilinishni talab qiladi, chunki har bir tartib-taomil yangi huquqiy holatni bildiradi va kreditorlarning yangi harakat qilish majburiyatini yuzaga keltirishi mumkin.

Qonunning 53- va 54-moddalarida nazarda tutilgan ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar, Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 11-iyundagi 160-sonli qarorining 1-bandiga muvofiq, «Biznes-Daily «Birja» iqtisodiy gazetasi va (yoki) vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi e’lon qilish xarajatlarini moliyalashtirish masalasini tartibga soladi. Bu masala amaliy ahamiyatga ega, zero, OAVda e’lon qilish xarajatlari ba’zan nisbatan katta summani tashkil etishi mumkin. Asosiy qoida qarzdorning mol-mulki hisobidan moliyalashtirishdir.

Umumiy qoidaga muvofiq, e’lon qilish xarajatlarining o‘rni qarzdorning mol-mulki hisobidan qoplanadi. Bu tushunarli va mantiqiy tartib-taomil, avvalo, qarzdorning manfaatlari uchun (uning moliyaviy ahvolini tartibga solish, kuzatuv, sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv kabi tartib-taomillar orqali imkon boricha tiklanish) va uning kreditorlarining manfaatlari uchun amalga oshiriladi.

Ushbu xarajatlar tanlov massasining birinchi navbatdagi to‘lovlari jumlasiga kiradi, ya’ni ishlab chiqarishi jarayonida qarzdorning mol-mulki taqsimlanishidan avval to‘lanadi. Bu holat sud boshqaruvchisiga e’lon qilish uchun zarur mablag‘larni qarzdorning mablag‘laridan ajratish vakolatini beradi.

Agar qarzdorda e’lon qilish xarajatlarini qoplash uchun yetarli mol-mulk bo‘lmasa, qonun boshqa yo‘l belgilaydi. Xususan, xarajatlarni kreditorlar yig‘ilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining qaroriga muvofiq kreditorlar o‘zlari o‘z zimmalariga oladilar. Bu tartib-taomildan eng ko‘p manfaat ko‘radigan taraflar – kreditorlar zaruriy ma’muriy xarajatlarni o‘z bo‘yinlariga olishga tayyor bo‘lishlari lozim.

Amalda kreditorlar yig‘ilishi xarajatlarni ishtirokchilar o‘rtasida talablar ulushiga mutanosib ravishda taqsimlash haqida qaror qabul qilishi mumkin. Ushbu mexanizm

e’lon qilish majburiyatini bajarishga to‘sqinlik qiladigan moliyaviy sabablarning oldini oladi va tartib-taomilning to‘xtab qolishiga yo‘l qo‘ymaydi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi alohida e’tiborga loyiq. Agar qarzdorning kreditorlari soni ellik nafardan ortiq bo‘lsa yoki ularning sonini aniqlash imkoni bo‘lmasa, har bir to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilining boshlanishi haqidagi ma’lumotlar ham majburiy ravishda OAVda e’lon qilinishi shart.

Bu norma nimani anglatadi? Kreditorlar soni katta bo‘lgan yirik korxonalarda sud boshqaruvchisi barcha kreditorlarga tegishli xabarnomalarni yuborishga ulgurmasligi yoki ularning barchasini aniqlay olmasligi mumkin. Ayniqsa, kreditorlar orasida noma’lum yoki hujjatlarda to‘liq aks ettirilmagan subyektlar mavjud bo‘lgan hollarda OAVdagi e’lon ularni xabardor qilishning yagona samarali vositasiga aylanadi.

«Kreditorlar sonini aniqlash mumkin bo‘lmasa» degan jumlaga alohida e’tibor berish lozim. Bu holat ko‘pincha keng iste’molchilar bazasiga ega korxonalar (banklar, sug‘urta kompaniyalari, ijtimoiy xizmatlar), notarial ko‘rinishda rasmiylashtirilmagan qarzdorliklar yoki uzoq muddatli operatsiyalar natijasida yuzaga kelgan qarzdorliklar bo‘lgan hollarda kreditorlar sonini dastlabki ishning ochilishi paytida aniqlash amalda mumkin emas.

Ushbu norma kreditorlarning teng muomala huquqini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, kim birinchi xabar olsa, u imtiyozga ega bo‘lmasligi uchun OAVda ommaviy e’lon qilish orqali barcha kreditorlarga bir vaqtda ma’lumot beriladi.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismida kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi qaroriga asosan e’lon qilinishi shart bo‘lgan ma’lumotlar boshqa ommaviy axborot vositalarida ham chop etilishi mumkinligi belgilangan. Bu norma OAV tanlovida qo‘shimcha egiluvchanlikni ta’minlaydi, ya’ni qonun ma’lumotlar qaysi nashrda yoki platformada chop etilishini aniq ko‘rsatmaydi, balki kreditorlar yig‘ilishiga va qo‘mitasiga e’lon qilish uchun mos OAVni tanlash imkonini beradi. Masalan, mahalliy korxona uchun mintaqaviy gazeta yoki sayt, yirik kompaniya uchun milliy nashrlar afzal bo‘lishi mumkin.

Bu yerda shuni ta’kidlash lozimki, e’lon qilish manbaini tanlash kreditorlarning samarali xabardor bo‘lishini ta’minlashi kerak. Noaniq yoki tor auditoriyaga mo‘ljallangan OAVni tanlash tartib-taomilni va uning natijalarini keyinchalik xavf ostiga qo‘yishi mumkin, chunki sud ma’lumotlarning barcha manfaatdor taraflarga yetib borganligini tekshirishi mumkin.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismida e’lon mazmuniga qo‘yiladigan minimal talablar batafsil belgilangan. Ushbu talablarni birma-bir ko‘rib chiqamiz:

5.1. Qarzdorni aniqlash ma’lumotlari. E’londa qarzdorning to‘liq nomi (yuridik shaxslar uchun firma nomi, jismoniy shaxslar uchun familiyasi, ismi, otasining ismi), joylashgan yeri va pochta manzili ko‘rsatilishi shart. Elektron pochta manzili mavjud bo‘lsa, u ham qo‘shiladi. Bu ma’lumotlar kreditorlarga va boshqa manfaatdor shaxslarga qarzdorni aniq tasdiqlash, unga murojaat qilish yoki tegishli hujjatlarni yuborish imkonini beradi. «Joylashgan yeri» tushunchasi yuridik manzil yoki ro‘yxatdan o‘tish manzilini bildiradi, bu faoliyat ko‘rsatilayotgan manzildan farq qilishi mumkin.

Amalda sud boshqaruvchilari kreditorlar va uchinchi shaxslar uchun qulaylik yaratish maqsadida ikkala manzilni ham ko‘rsatishga harakat qilishadi.

5.2. Sud hujjati to‘g‘risidagi ma’lumotlar. E’londa sud hujjatini qabul qilgan sudning nomi, mazkur hujjatning qabul qilingan sanasi, joriy qilingan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilining nomi (masalan, kuzatuv, sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv kabilar), shuningdek, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishning tartib raqami ko‘rsatilishi lozim. Bunda ish tartib raqami ayniqsa muhim, chunki u kreditorlarga va boshqa manfaatdor taraflarga sud ishlari ma’lumotlar bazasida tegishli ish hujjatlarini topish, sud majlislarida ishtirok etish va rasmiy murojaatlar yuborish uchun kerak. Ishning tartib raqamisiz sud ishini amalda kuzatish juda qiyin bo‘ladi.

5.3 Sud boshqaruvchisi to‘g‘risidagi ma’lumotlar. Tayinlangan sud boshqaruvchisining familiyasi, ismi, otasining ismi va uning pochta manzili, elektron pochta manzili (mavjud bo‘lganda) ko‘rsatilishi shart. Sud boshqaruvchisi tortishuv jarayonida kreditorlar va qarzdor o‘rtasidagi asosiy vositachi vazifasini o‘taydi, shu sababli uning aloqa ma’lumotlari kreditorlarga o‘z talablarini o‘z vaqtida va to‘g‘ri tarzda yuborishlari uchun zarurdir. Sud boshqaruvchisining aloqa ma’lumotlarini OAVda chop etish kreditorlarning huquqlarini ro‘yobga chiqarishni osonlashtiradi va tartib-taomilning kechiktirilmasdan amalga oshirilishiga yordam beradi. Amalda sud boshqaruvchilari ko‘p hollarda o‘zlarining rasmiy elektron pochta manzillarini va ish telefon raqamlarini ham e’lon qilish orqali kreditorlar bilan muloqotni osonlashtiradilar.

5.4. Sud majlisining sanasi. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rish bo‘yicha keyingi sud majlisining sud tomonidan belgilangan sanasi e’londa albatta aks ettirilishi lozim. Bu ma’lumot kreditorlarga sud majlisida ishtirok etish, o‘z pozitsiyalari va e’tirozlarini bildirish, shuningdek, tegishli hujjatlarni o‘z vaqtida tayyorlash imkonini beradi. Sud majlisining sanasi kreditorlar uchun harakat qilishning boshlanish nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi. Agar kreditor sud majlisidan vaqtida xabardor bo‘lmasa, u o‘z huquqlarini va manfaatlarini himoya qilish imkoniyatini yo‘qotadi. Shu sababli ushbu ma’lumotning e’londa majburiy ravishda ko‘rsatilishi kreditorlarning tenghuquqliligini ta’minlaydi.

5.5. Qarzni to‘lash istagidagi shaxslar uchun ma’lumot. E’londa qarzdorning qarzini to‘lash istagini bildirgan shaxslar sud boshqaruvchisiga murojaat qilishi mumkinligi to‘g‘risidagi ma’lumot ham ko‘rsatilishi shart. Ushbu norma keng ko‘lamli maqsadga xizmat qiladi. U uchinchi shaxslarni – investorlarni, hamkorlarni, qarzdor korxonani sotib olishga tayyor bo‘lgan shaxslarni jalb etadi. Bu mexanizm orqali to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari yakunida qarzdorning mol-mulki savdoga chiqarilishini kutmasdan, uchinchi shaxs barcha qarzlarni to‘lab, qarzdorni tartib-taomildan chiqarishga erishishi mumkin.

Bunday holda yuridik jihatdan subrogatsiya yoki regress huquqi yuzaga keladi. Uchinchi shaxs kreditorlar o‘rniga o‘tadi va qarzdordan to‘lovni talab qilish huquqiga ega bo‘ladi. Bu norma to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarida «tartibli tugatish»ga nisbatan «tiklanish» prinsipini amalga oshirishga ko‘maklashadi.

5.6. Qonunda nazarda tutilgan boshqa axborot. Ushbu normaga ko‘ra, to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari haqida e’lon qilinadigan ma’lumotlar faqat moddada sanab o‘tilgan axborotlar bilan cheklanmaydi, balki qonunning boshqa normalarida nazarda tutilgan qo‘shimcha ma’lumotlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Masalan, kreditorlar yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, qarzdor mol-mulkini sotish tartibi, kelishuv bitimi tuzilganligi yoki sud boshqaruvchisining hisobotiga oid ma’lumotlar ham qonun talabiga ko‘ra e’lon qilinishi mumkin. Bu tartib to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, kreditorlar hamda boshqa manfaatdor shaxslarni to‘liq xabardor qilishga xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 742-b.

55-modda. Sudning qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to‘g‘risidagi qarori

Sudning qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to‘g‘risidagi qarori quyidagi hollarda qabul qilinadi:

to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlanmaganda;

sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha qaror qabul qilguniga qadar kreditorlarning bildirilgan talablari qanoatlantirilganda;

soxta to‘lovga qobiliyatsizlik aniqlanganda.

Sudning qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to‘g‘risidagi qarori ushbu Qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham qabul qilinishi mumkin.

Qarzdorda yetarli hajmda likvid mol-mulk mavjudligidan dalolat beruvchi dalillar mavjud bo‘lgan taqdirda sud qarzdorning iltimosnomasiga ko‘ra to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rishni keyinga qoldirishga, qarzdorga kreditorlarning talablarini sud tomonidan belgilangan muddatda qanoatlantirishni taklif etishga haqli, bu muddat o‘ttiz kundan oshmasligi kerak.

Sharhlanayotgan moddada sud qarzdorni bankrot deb topishni rad etishi asoslari, bunday qaror qabul qilinishi mumkin bo‘lgan boshqa holatlar hamda qarzdorda yetarli likvid mol-mulk mavjud bo‘lganda kreditorlar talablarini qondirish uchun ishni ko‘rishni kechiktirish tartibi belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismiga ko‘ra, sudning qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to‘g‘risidagi qarori quyidagi hollarda qabul qilinadi: a) to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlanmaganda, ya’ni agar qarzdor tomonidan majburiyatlarni bajarish kechiktirilishi Qonunning 5-moddasida belgilangan muddatdan kam bo‘lsa va qarzdorga nisbatan jami talablar Qonunda belgilangan miqdordan kam miqdorni tashkil etgan hollarda (Qonunning 195- va 228-moddalari); b) sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha qaror qabul qilinguniga qadar kreditorlar talablari qanoatlantirilgan bo‘lsa. Kuzatuv davomida, ya’ni to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish vaqtida hamma kreditorlar talablarini bir vaqtda qondirish sharti bilan talablarni qondirishga ruxsat etiladi. Shuni ta’kidlash lozimki, barcha kreditorlar talablarining qondirilishi nihoyasiga yetganida sud mazkur moddaga binoan qarzdorni

bankrot deb topishni rad etish to‘g‘risida qaror chiqaradi. Bundan tashqari, qarzdor YTT barcha talablarni to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni qarzdor arizasiga muvofiq kechiktirilgan muddatgacha qanoatlantirgan taqdirda ham, sud qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi; d) soxta to‘lovga qobiliyatsizlik aniqlansa. Soxta to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud bo‘lgan hollarda qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish qarzdorning bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizasi sudga uning kreditorlar talablarini to‘liq qondirish imkoniyati mavjud bo‘lgan holda berilgani yoki qarzdor arizachining asossiz talablari bo‘yicha tortishish choralarini ko‘rmaganligining natijasi bo‘ladi.

Soxta to‘lovga qobiliyatsizlik yuridik va jismoniy shaxs, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorning o‘z majburiyatlarini iqtisodiy jihatdan bajara olishi haqida bila turib pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlarning talablarini qanoatlantirish va (yoki) soliq hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatini to‘liq hajmda bajara olmasligi to‘g‘risida e’lon berishi natijasida kreditorlarga zarar yetkazilishidir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

28. Qonunning 55-moddasiga muvofiq, sudning qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to‘g‘risidagi qarori to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlanmaganda, sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha qaror qabul qilgunga qadar kreditorlarning bildirilgan talablari qondirilganda, soxta to‘lovga qobiliyatsizlik aniqlanganda va Qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda qabul qilinadi.

Sudlar inobatga olishlari lozimki, agar qarzdor o‘zining arizasiga asosan sud tomonidan bankrot deb topilgan bo‘lib, tugatishga doir ish yuritish jarayonida soxta to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlansa, ushbu holat sudning qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi hal qiluv qarori ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga muvofiq yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish uchun asos bo‘lishi mumkin. Sudning hal qiluv qarori yangi ochilgan holatlar bo‘yicha bekor qilingan taqdirda, ishni belgilangan umumiy tartibda ko‘rish natijasi bo‘yicha qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to‘g‘risida hal qiluv qarori qabul qilinadi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismiga ko‘ra, qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi qaror qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham chiqarilishi mumkin. Qonunning 5-moddasida majburiyatlar qarzdor shaharni tashkil etuvchi korxona tomonidan olti oy ichida bajarilmaganligi bunga misol bo‘la oladi. Bu holda agar sud tomonidan shaharni tashkil etuvchi korxonani bankrot deb topish to‘g‘risida noto‘g‘ri ish qo‘zg‘atilgan bo‘lsa va ishni ko‘rib chiqish jarayonida majburiyatlar olti oydan kamroq muddatda bajarilmaganligi aniqlansa, sud qarzdorni bankrot deb topishni rad etadi.

3. Qarzdorda yetarli hajmda likvid mol-mulk mavjudligidan dalolat beruvchi dalillar mavjud bo‘lgan taqdirda sud qarzdorning iltimosnomasiga ko‘ra to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rishni keyinga qoldirishga, qarzdorga kreditorlarning talablarini sud tomonidan belgilangan muddatda qanoatlantirishni taklif etishga haqli, bu muddat o‘ttiz kundan oshmasligi kerak. Bu holda sud Qonunning 50-moddasida belgilangan muddat doirasida ishni ko‘rib chiqishni kechiktirish haqida ajrim chiqaradi. Mazkur ajrim yuzasidan IPKning 171-moddasiga binoan shikoyat berish (protest keltirish) mumkin emas.

Qarzdor kreditorning talablarini mazkur qismga binoan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni keyinga qoldirish muddati davomida bir vaqtda barcha kreditorlarning talablarini qanoatlantirish sharti bilan barcha kreditorlar talablarini qanoatlantirish nihoyasiga yetganida sud qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to‘g‘risida qaror chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

29. Qonun 55-moddasining uchinchi qismiga binoan, qarzdorda yetarli hajmda likvid mol-mulk mavjudligidan dalolat beruvchi dalillar mavjud bo‘lgan taqdirda sud qarzdorning iltimosnomasiga ko‘ra to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rishni keyinga qoldirishga, qarzdorga kreditorlarning talablarini sud tomonidan belgilangan muddatda qanoatlantirishni taklif etishga haqli, bu muddat o‘ttiz kundan oshmasligi kerak.

Sudlar inobatga olishlari lozimki, qarzdor sud tomonidan belgilangan muddatda kreditorlarning talablarini qanoatlantirmagan va Qonun 5-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlangan hollarda, agar to‘lovga qobiliyatsizlikka oid tiklash tartib-taomillaridan birini joriy etish, kelishuv bitimini tasdiqlash yoki to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish uchun asoslar mavjud bo‘lmasa, sud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

56-modda. Qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atishni rad etish haqida qaror qabul qilish oqibatlari

Sud tomonidan qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atishni rad etish haqida qaror qabul qilinishi qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasi qabul qilinganligi va (yoki) kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi oqibati bo‘lgan barcha cheklovlarning amal qilishi tugatilishi uchun asos bo‘ladi.

Sharhlanayotgan modda sud tomonidan qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atishni rad etish haqida qaror qabul qilish oqibatlarini belgilaydi.

Sud tomonidan qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atishni rad etish haqida qaror qabul qilinishi qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ariza qabul qilinganligi va (yoki) kuzatuv joriy etilganligi oqibati bo‘lgan barcha cheklovlar amal qilishining tugatilishi uchun asos bo‘ladi. Mazkur moddaning mazmunidan kelib chiqqan holda bu yerda gap Qonunning 78-, 79-moddalarida nazarda tutilgan kuzatuvni joriy etish oqibatlari, shuningdek, sud tomonidan qarzdorga nisbatan qo‘llanilgan kreditorlar talablarini qondirish bo‘yicha IPKning 94-moddasi, Qonun 47-moddasining ikkinchi qismida ko‘rsatilgan choralar haqida ketmoqda. Shu bilan birga, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda sud tomonidan qarzdorga nisbatan qo‘llanilgan kreditorlar talablarini ta’minlash choralari qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilganidan e’tiboran o‘z kuchini yo‘qotadi, IPK normalari esa, aksincha, da’voni ta’minlash bo‘yicha choralar qaror qonuniy kuchga kirguniga qadar o‘z kuchini saqlab qolishini belgilaydi.

57-modda. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish asoslari

Sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritishni quyidagi hollarda tugatadi:

sud sanatsiyasi tartib-taomili jarayonida qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanganda;

tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayonida qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanganda;

kelishuv bitimi tuzilganda;

to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi barcha kreditorlar bildirilgan talablaridan voz kechganda;

kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan kreditorlarning barcha talablari har qanday to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili jarayonida qanoatlantirilganda.

Sud qonunga muvofiq boshqa hollarda ham to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatishi mumkin.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritishni tugatish haqida sud ajrimi chiqarilgan sanadan e’tiboran sud boshqaruvchisi davlat soliq xizmati organini ushbu ajrim to‘g‘risida uch ish kuni ichida yozma shaklda xabardor qiladi.

Sharhlanayotgan moddada to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish asoslari, bunday ishni qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham tugatish mumkinligi hamda sud ajrimi chiqarilganidan keyin davlat soliq xizmati organini xabardor qilish tartibi belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatishning maxsus asoslarini belgilab beradi. IPKning 110-moddasi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish bo‘yicha boshqa asoslarni nazarda tutadi, protsessual normalarni qo‘llashda ustuvorlik Qonunga beriladi.

Sud sanatsiyasi jarayonida qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanishi hamda tashqi boshqaruv jarayonida qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanishi bir xil tushuncha hisoblanadi. Bunda Qonun 125-moddasining uchinchi qismidan kelib chiqib to‘lov qobiliyati tiklanishi deganda ijrosi muddatidan e’tiboran uch oydan ko‘p vaqtga kechiktirilgan barcha talablarning qanoatlantirilishi tushuniladi. Sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv holatida kreditorlar talablari reyestriga (qarzni uzish jadvali) kiritilgan barcha talablar ularni ijro etish muddatidan e’tiboran uch oydan kam bo‘lmagan paytda ijro etilmagan bo‘ladi. Shuning uchun sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv paytida qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanishi bu kreditorlar talablari reyestri (qarz to‘lash jadvali) ga kiritilgan barcha talablar qanoatlantirilishi bilan aynan bir narsa hisoblanadi. Agarda bu masalaga aniqlik kiritiladigan bo‘lsa, sud sanatsiyasida bu holatga sud sanatsiyasi tartib-taomilining muddatidan ilgari tamomlanishi (Qonunning 102-moddasi) hamda majburiyatlarning ta’minot bergan shaxslar tomonidan bajarilishi (Qonunning 105-moddasi) kiradi.

Tashqi boshqaruvda esa bu quyidagi holatlarda kreditorlar talablari reyestriga kiritilgan barcha talablar qanoatlantirilishidir: qarzdor korxonasi (biznesi) sotilganda (Qonun 126-moddasining yigirma birinchi qismi); muassislar, qarzdor mol-mulkining egasi yoki uchinchi shaxs tomonidan qarzdor majburiyati bajarilganda (Qonun 129-moddasining birinchi-ikkinchi qismlari); kreditorlar bilan hisob-kitoblarga o‘tish yoki kreditorlar bilan muayyan navbatda hisob-kitoblar boshlanishi to‘g‘risidagi sud ajrimi asosida hisob-kitoblar amalga oshirilganda (Qonun 137-moddasining birinchi qismi). Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, tashqi boshqaruvda reyestrga kiritilgan barcha talablar qanoatlantirilishiga yetarli bo‘lgan mablag‘lar jamg‘arilgan holda, sud tashqi boshqaruvchi hisobotini qo‘rib chiqishi natijasida qarzdorning to‘lash qobiliyati tiklanishi munosabati bilan tashqi boshqaruv tugatilishi sababli kreditorlar bilan hisob-kitoblarga o‘tish haqidagi ajrimni chiqaradi (Qonunning 135-moddasi), ushbu ajrim chiqarilish paytida, garchi tashqi boshqaruv to‘xtatilsa ham, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish hali tugatilmaydi.

Shuningdek, sud sanatsiyasi hamda tashqi boshqaruv tartib-taomilida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqishda sud joriy to‘lovlar bo‘yicha talablarni, hayot yoki sog‘liqqa yetkazilgan zararni qoplash va h.k. kabi navbatdan tashqari talablarni qanoatlantirishlarni inobatga olmaydi, chunki bu talablar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasidan tashqari yakka tartibda qondirishga taqdim etiladi va kreditorlar talablari reyestriga kiritilmaydi.

Ushbu normada belgilanganidek, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish kelishuv bitimi tuzilishi bilan ham tugatiladi, kelishuv bitimi kuchga kirishi uchun sud tomonidan tasdiqlanishi lozim (Qonun 145-moddasining beshinchi qismi). Kuzatuv, sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv va tugatishga doir ish yuritish jarayonida

sud tomonidan kelishuv bitimining tasdiqlanishi bilan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish tugatiladi (Qonun 150-moddasining birinchi qismi). Kelishuv bitimi tasdiqlanganligi haqida ajrim chiqariladi, unda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish tugatilishi ko‘rsatiladi (Qonun 145-moddasining beshinchi qismi).

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi kreditorlarning barcha qo‘yilgan talablardan voz kechishi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish asosi sifatida belgilanishi qarzdorga talab qo‘yish kreditorning burchi emas, balki huquqi bo‘lgani bilan ifodalanadi hamda u tegishlicha istagan paytda (har qanday to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilida) mazkur huquqini amalga oshirishdan voz kechishi mumkin. Ushbu vaziyatda gap qarzni kechish (yoki qarzdor majburiyatlarini boshqacha yo‘l bilan bekor qilinishi) haqida emas, balki aynan kreditorning qo‘yilgan talablardan voz kechishi to‘g‘risida bormoqda. Shuni ta’kidlash kerakki, kreditorlarning bir qismi (shu jumladan, arizachi-kreditor) tomonidan qo‘yilgan talablardan voz kechilishi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishga ta’sir qilmaydi.

To‘lov qobiliyatsizlikni har qanday tartib-taomilida kreditorlar talablari reyestriga kiritilgan kreditorlarning barcha talablari qanoatlantirilishi ham Qonunda ko‘rsatilgan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish asoslaridan biri sifatida belgilangan.

Shuni ta’kidlash joizki, kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan kreditorlarning barcha talablari har qanday to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili jarayonida qanoatlantirilganda ham qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish tugatilishi belgilangan bo‘lsa-da, mazkur qoida tugatishga doir ish yuritish paytidagina amal qiladi, chunki sud sanatsiyasi natijasida kreditorlar talablari reyestriga kiritilgan kreditorlarning barcha talablari qanoatlantirilganda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish sharhlanayotgan moddaning birinchi qismi ikkinchi xatboshisiga muvofiq, tashqi boshqaruv holatida esa moddaning birinchi qismi uchinchi xatboshisiga muvofiq tugatiladi. Kuzatuv mobaynida barcha kreditorlarning talablari bir vaqtda qanoatlantirish sharti bilan qarzdorga kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga yo‘l qo‘yiladi va bunday qanoatlantirishning tugashi bilan sud ish yuritishni tugatish to‘g‘risidagi ajrim emas, balki Qonun 55-moddasining birinchi qismi bo‘yicha qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to‘g‘risidagi qaror qabul qilishiga e’tibor berish kerak.

Tugatishga doir ish yuritish paytida kreditorlar talablari reyestriga kiritilgan barcha talablar qanoatlantirilganda sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish to‘g‘risida ajrim chiqarish va shuningdek tugatishga doir ish yuritish tamomlanishi to‘g‘risida ajrim chiqarish kabi holatlar mavjud bo‘ladi.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, agar tugatishga doir ish yuritish paytida kreditorlarning reyestr bo‘yicha barcha talablari qanoatlantirilgan bo‘lsa-da, qarzdorning xo‘jalik faoliyatini olib borishga imkoniyati bo‘lmasa, sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish to‘g‘risidagi ajrimni emas, balki tugatishga doir ish yuritishni tamomlash haqidagi ajrimni qabul qiladi. Reyestrga kiritilgan barcha talablar qarzdor yuridik shaxsga nisbatan tugatishga doir ish yuritish paytida qondirilmasa, sud to‘lov-

ga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish to‘g‘risidagi ajrim emas, balki tugatishga doir ish yuritishni tamomlash haqidagi ajrimni qabul qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

46. Qarzdor – yakka tartibdagi tadbirkor kreditorlarining barcha talablari to‘liq qanoatlantirilgandan va hisob-kitoblar tugagandan keyin sud tugatishga doir ish yuritish tamomlanganligi haqida ajrim chiqaradi.

Qarzdor – yakka tartibdagi tadbirkorning barcha kreditorlar talablarini qanoatlantirish uchun mol-mulki yetarli bo‘lmagan hollarda, davlat ijrochisi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 37- va 39-moddalarida belgilangan qoidalarga muvofiq undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratish haqidagi ijro varaqasini sudga qaytaradi. Sud ijro varaqasini qaytarish haqidagi hujjatlarni ko‘rib chiqqandan keyin tugatishga doir ish yuritish tamomlanganligi to‘g‘risida ajrim chiqaradi.

Agar sud tomonidan Qonun 234-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq tugatish boshqaruvchisi tayinlangan bo‘lsa, u holda tugatishga doir ish yuritish Qonunning 160-moddasida belgilangan qoidalar bo‘yicha tamomlanadi.

2. Ushbu normaga muvofiq, sud boshqa hollarda ham to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish yuritishni tugatishi mumkin.

Kreditorlar sudgacha sanatsiya qilishga rozi bo‘lgan taqdirda, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish yuritish tugatiladi (Qonun 62-moddasining uchinchi qismi).

Shuni ta’kidlash joizki, qarzdor YTT bankrotligida qarzlarni uzish rejasini bajarganligi natijasida kreditorlarning talablari to‘la hajmda qanoatlantirilgan bo‘lsa, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish tugatiladi (Qonun 229-moddasining beshinchi qismi), qarzdor barcha qarzlarni o‘zining arizasiga ko‘ra ish ko‘rib chiqilishi kechiktirilgan muddatda to‘lasa, sud 55-moddaning birinchi qismiga muvofiq qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

3. Ushbu normaga ko‘ra, sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritishni tugatish haqida ajrim chiqarganidan keyin sud boshqaruvchisi uch ish kuni ichida bu haqida davlat soliq xizmati organini yozma ravishda xabardor qilishi shart. Masalan, qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklangani yoki kreditorlar talablari qanoatlantirilgani sababli ish yuritish tugatilgan bo‘lsa, sud boshqaruvchisi tegishli soliq organiga rasmiy xabar yuboradi. Bu tartib davlat organlarining qarzdorning huquqiy va moliyaviy holatidagi o‘zgarishlardan o‘z vaqtida xabardor bo‘lishini ta’minlash hamda soliq hisobini to‘g‘ri yuritishga xizmat qiladi.

58-modda. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritishni to‘xtatib turish

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha to‘xtatib turilishi mumkin.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritishni to‘xtatib turish sud boshqaruvchisining harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan ariza va shikoyatlarni, shuningdek, kreditorlarning talablari miqdori, tarkibi va ularni qanoatlantirish navbatiga doir kelishmovchiliklarni sud tomonidan ko‘rib chiqishga monelik qilmaydi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish to‘xtatib turilgan taqdirda sud ushbu Qonunning 51-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan sud hujjatlarini qabul qilishga haqli emas.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritishni to‘xtatib turish sudning ushbu Qonunda nazarda tutilgan ajrimlarni chiqarishi uchun, shuningdek, sud boshqaruvchisi va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar ushbu Qonunda nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirishi uchun monelik qilmaydi.

Korxonaning rahbariga yoki muassislariga (ishtirokchilariga) yoxud mulkdoriga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga va (yoki) jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelgan harakatlari (harakatsizligi) uchun jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan taqdirda, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi yuzasidan sud qarori qabul qilinguniga qadar to‘xtatib turiladi.

Sharhlanayotgan moddada to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni to‘xtatib turish asoslari, bunday to‘xtatishning huquqiy oqibatlari hamda ayrim hollarda jinoyat ishi yuzasidan sud qarori qabul qilinguniga qadar ish yuritishni majburiy tarzda to‘xtatib turish tartibi belgilangan.

1. Ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni to‘xtatib turishga nisbatan ish yuritishni tugatish asoslaridan farqli bo‘lgan, alohida, maxsus, faqat to‘lovga qobiliyatsizlik instituti uchun xos bo‘lgan asoslarni belgilamaydi. Sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni to‘xtatib turish haqidagi ajrimni qabul qilishda IPKning 101–102-moddalarini qo‘llaydi.

IPKning 101-moddasiga muvofiq, sud quyidagi holatlarda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni to‘xtatishga majbur: mazkur ishni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, fuqarolik ishlari bo‘yicha sud, jinoyat ishlari bo‘yicha sud, ma’muriy sud yoki iqtisodiy sud tomonidan ko‘rilayotgan boshqa ish yoki masala yuzasidan, shuningdek, tergov harakatlari olib borilayotgan ish yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar ko‘rish mumkin bo‘lmaganida; javobgar fuqaro O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harakatdagi qismida bo‘lganda yoki O‘zbekiston

Respublikasi Qurolli Kuchlarining harakatdagi qismidagi da'vogar-fuqaro tegishli iltimosnoma bilan murojaat qilganda; ishda ishtirok etuvchi shaxs bo'lgan fuqaro vafot etganda, agar nizoli huquqiy munosabatlar huquqiy vorislikka yo'l qo'ysa; ishda ishtirok etuvchi shaxs bo'lgan fuqaro muomala layoqatini yo'qotganda; taraf sud tomonidan tan olinishi va ijroga qaratilishi to'g'risida ko'rilayotgan chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini bekor qilish yoki uning ijrosini to'xtatib turish haqida vakolatli organga iltimosnoma berganda; mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risida kelishuv tuzilganda.

Shuningdek, IPKning 102-moddasida belgilangan holatlarda, ya'ni: sud tomonidan ekspertiza tayinlanganda; ishda ishtirok etuvchi shaxs bo'lgan yuridik shaxs qayta tashkil etilganda; ishda ishtirok etuvchi shaxs bo'lgan fuqaro davlat majburiyatini bajarish uchun jalb qilinganda; chet davlatlar sudlariga nizoni mazmunan hal etish uchun alohida protsessual harakatlarni amalga oshirish haqidagi sud topshiriqlari belgilangan tartibda yuborilganda to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish yuritishni to'xtatib turish huquqiga ega.

2. Ushbu normaga ko'ra, to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish yuritish vaqtincha to'xtatib turilgan taqdirda ham, sud sud boshqaruvchisining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan berilgan shikoyatlarni, shuningdek, kreditorlar talablarining miqdori, tarkibi va ularni qondirish navbatiga oid nizolarni ko'rib chiqishni davom ettirishi mumkin. Masalan, asosiy ish boshqa sababga ko'ra to'xtatilgan bo'lsa-da, kreditor sud boshqaruvchisi o'z vazifasini lozim darajada bajarmagani haqida shikoyat kiritsa, sud bu masalani mustaqil ravishda ko'rib chiqadi. Bu tartib kreditorlar huquqlarini himoya qilishni kechiktirmaslik, sud boshqaruvchisi faoliyati ustidan nazoratni ta'minlash va to'lovga qobiliyatsizlik jarayonidagi bahslarni o'z vaqtida hal etishga xizmat qiladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish yuritish to'xtatib turilganda sud Qonun 51-moddasining birinchi qismida qayd etilgan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqidagi qaror; qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to'g'risidagi qaror; sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish va uning muddatini uzaytirish to'g'risidagi ajrim; tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish va uning muddatini uzaytirish to'g'risidagi ajrim; to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish yuritishni tugatish haqida ajrim; to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi arizani ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi ajrim va kelishuv bitimini tasdiqlash to'g'risidagi ajrim, ya'ni sud hujjatlarini qabul qilish huquqiga ega emas.

4. Mazkur moddaning to'rtinchi qismi to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish yuritish to'xtatib turilganda sud mazkur Qonunda nazarda tutilgan ajrimlarni chiqarish uchun monelik qilmaydi, biroq Qonun 51-moddasining birinchi qismida ko'rsatib o'tilgan ajrimlar bundan mustasno. Shuningdek, to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish yuritishni to'xtatib turish sud boshqaruvchisi tomonidan o'z burchlarini ijro etishni tugatish degani emas, chunki sharhlanayotgan normaga asosan, bu (to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish yuritishni to'xtatilishi) sud boshqaruvchisi va to'lovga qobili-

yatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning qonunda ko‘rsatilgan harakatlarni bajarishga to‘sqinlik bo‘lmasligi lozim.

5. Ushbu normaga ko‘ra, agar korxona rahbari, muassislari, mulkdori, yakka tartibdagi tadbirkor yoki jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizlikka sabab bo‘lgan harakatlari yoki harakatsizligi yuzasidan jinoyat ishi qo‘zg‘atilsa, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rish jinoyat ishi bo‘yicha sud qarori qabul qilinguniga qadar to‘xtatib turiladi. Masalan, korxona rahbari mol-mulkni qasddan yashirish, soxta to‘lovga qobiliyatsizlik yoki mablag‘larni noqonuniy chiqarish orqali korxonani to‘lovga qobiliyatsiz holatga olib kelganlikda ayblansa, avval ushbu harakatlarga jinoyat-huquqiy baho beriladi. Bu tartib to‘lovga qobiliyatsizlikning haqiqiy sabablarini aniqlash, aybdor shaxslarning javobgarligini belgilash va sud qarorlari o‘zaro ziddiyatli bo‘lishining oldini olishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

25. IPKning 101- va 102-moddalarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lganda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish yuritishni to‘xtatib turishga yo‘l qo‘yiladi.

Korxonaning rahbariga yoki muassislariga (ishtirokchilariga) yoxud mulkdoriga, yakka tartibdagi tadbirkorga va (yoki) jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelgan harakatlari (harakatsizligi) uchun jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan taqdirda ham to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish yuritish to‘xtatib turiladi. Bunday holatda sudning qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi bo‘yicha chiqarilgan sud hujjati qonuniy kuchga kirgandan yoki tergov harakatlari tugagandan so‘ng to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish yuritish tiklanadi.

Sudlar inobatga olishi lozimki, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish yuritish nafaqat Qonun 51-moddasining birinchi qismida ko‘rsatilgan sud hujjatlaridan biri qabul qilinguniga qadar, balki apellyatsiya (kassatsiya) shikoyati (protesti) hamda taftish tartibidagi shikoyat (protest) bo‘yicha qaror qabul qilinguniga qadar ham to‘xtatib turilishi mumkin.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish yuritish to‘xtatilganda, sud Qonun 51-moddasining birinchi qismida ko‘rsatilgan sud hujjatlarini chiqarishga haqli emas. Bunda sud tomonidan joriy etilgan to‘lovga qobiliyatsizlik tartibtaomili davom ettiriladi, sud boshqaruvchisida esa o‘z vazifasini bajarayotganligi uchun haq olish huquqi saqlanib qoladi.

59-modda. Sud xarajatlarini va sud boshqaruvchilariga haq to‘lash xarajatlarini taqsimlash

Sud xarajatlari, shu jumladan, to‘lov muddati kechiktirilgan yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lanadigan davlat boji bo‘yicha xarajatlar, ma’lumotlarni ushbu Qonunning 53- va 54-moddalarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish xarajatlari, shuningdek, sud boshqaruvchilariga haq to‘lash xarajatlari qarzdorning mol-mulki hisobidan navbatdan tashqari to‘lanadi.

Kelishuv bitimida ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan xarajatlarni taqsimlashning boshqacha tartibi nazarda tutilishi mumkin.

Sud qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi alomatlari aniqlanmaganligi munosabati bilan uni bankrot deb topishni rad etish haqida qaror qabul qilgan taqdirda, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan xarajatlar sudga qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza bilan murojaat etgan kreditorlarga tegishli bo‘ladi va kreditorlar o‘rtasida ularning talablariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Sud xarajatlarini va sud boshqaruvchilariga haq to‘lash xarajatlarini taqsimlash tartibi sudning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qabul qilingan qarorida yoki ajrimida belgilanadi.

Sharhlanayotgan moddada sud xarajatlari, ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish va sud boshqaruvchisiga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash manbalari, ularni kreditorlar o‘rtasida taqsimlash holatlari hamda mazkur xarajatlarni taqsimlash tartibini sud hujjatida belgilash qoidalari nazarda tutilgan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida qayd etilganidek, to‘lov kechiktirilgan yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lanadigan davlat boji bo‘yicha xarajatlar (IPKning 113-moddasi), qarzdorni to‘lovga qobiliyatsizligi haqidagi ma’lumotlarni va boshqa chop etilishi shart bo‘lgan ma’lumotlarni nashriyotlarda chop etish bilan bog‘liq xarajatlar, sud boshqaruvchisiga haq to‘lash xarajatlari qarzdor mol-mulki hisobidan navbatdan tashqari qoplanadi. Ular navbatdan tashqari qoplanishi mumkin, chunki bu xarajatlar bo‘yicha talablar sud tomonidan qarzdorni to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza qabul qilingandan keyin vujudga keladi yoki ularni ijro etish muddati tegishli to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilining joriy etilishi bilan boshlanadi. Qarzdorni to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida arizani sudga taqdim etish jarayonida to‘lanadigan davlat boji esa odatda sud arizani qabul qilishidan oldin vujudga keladi va ijro etish muddati ham sud arizani qabul qilguniga qadar boshlanadi. Shunday bo‘lsa ham, ayrim hollarda arizachi arizasiga ko‘ra uning mulkiy ahvolidan kelib chiqib sud davlat bojini to‘lashni kechiktirishga yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash uchun ruxsat berishga haqli bo‘ladi (IPKning 113-moddasi). Bunday holda davlat boji joriy to‘lovlarga kiritilishi va kreditor u bo‘yicha qanoatlantirishni navbatdan tashqari olishi mumkin. Bundan tashqari, garchi ushbu qismda to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatma bo‘lmasa-da, boshqaruvchi tomonidan uning faoliyatini amalga oshirish uchun jalb etilgan shaxslar xizmati uchun

to‘lov bilan bog‘liq xarajatlar mazkur qismda nazarda tutilgan sud xarajatlariga kiritilishi hamda navbatdan tashqari qanoatlantirilishi mumkin deb tushunish lozim.

2. Ushbu normaga ko‘ra, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida tuzilgan kelishuv bitimida sud xarajatlari, ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish xarajatlari va sud boshqaruvchisiga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlarni qoplashning qonunda belgilangan umumiy tartibidan farq qiluvchi boshqa tartib ham belgilanishi mumkin. Masalan, taraflar kelishuv bitimida ushbu xarajatlarning ma’lum qismini kreditorlar, boshqa qismini esa qarzdor qoplashini nazarda tutishlari mumkin. Bu norma taraflarga o‘zaro kelishuv asosida xarajatlarni adolatli va maqbul tarzda taqsimlash imkonini beradi.

3. Ushbu normaga ko‘ra, sud qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi alomatlari aniqlanmaganligi munosabati bilan uni bankrot deb topishni rad etish haqida qaror qabul qilgan taqdirda, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan xarajatlar sudga qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza bilan murojaat etgan kreditorlarga tegishli bo‘ladi va kreditorlar o‘rtasida ularning talablariga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Ariza soliq organi, boshqa vakolatli organ, vakolatli davlat organi tomonidan berilgan hollar bundan mustasno. «Davlat boji to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-moddasi va Plenum qarorining 5-bandiga muvofiq, ko‘rsatilgan organlar sudga murojaat qilganda davlat boji to‘lashdan ozod etiladi hamda ular zimmasiga to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud xarajatlari yuklanmaydi.

4. Ushbu normaga ko‘ra, sud Qonun 51-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan sud hujjatlarini qabul qilganida sud xarajatlari va sud boshqaruvchisiga to‘lanadigan haqni taqsimlash tartibini ko‘rsatib berishi shart, ya’ni sud hujjatida ishni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq sud xarajatlari (davlat boji, ma’lumotlarni rasmiy nashrlarda chop etish xarajatlari va boshqa xarajatlar), shuningdek, sud boshqaruvchisiga to‘lanadigan haq kimga va qanday miqdorda yuklatilishi ko‘rsatiladi.

60-modda. Arizalar va shikoyatlarni ko‘rib chiqish

Kuzatuv, sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv yoki tugatishga doir ish yuritish tartib-taomillari jarayonida sud boshqaruvchisi bergan arizalar, shu jumladan, o‘zi bilan kreditorlar o‘rtasida, o‘zi bilan qarzdor o‘rtasida kelib chiqqan kelishmovchiliklar to‘g‘risida ushbu Qonunga muvofiq berilgan arizalar, shuningdek, kreditorlarning o‘z huquq va qonuniy manfaatlari buzilganligi xususidagi shikoyatlari olingan kundan e’tiboran o‘n besh kunlik muddatdan kechiktirmay sud tomonidan ko‘rib chiqiladi. Sud boshqaruvchisining arizasiga, kreditorning shikoyatiga mazkur arizani yoki shikoyatni ko‘rib chiqishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga ularning ko‘chirma nusxalari yuborilganligiga oid dalillar ilova qilinishi kerak. Mazkur arizalar va shikoyatlarni ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan sud ajrim chiqaradi. Bu ajrim ustidan qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda shikoyat berilishi mumkin.

Quyidagilar:

mehnat shartnomasi asosida ishlovchi shaxslarga mehnat haqi to‘lash va ishdan bo‘shatish nafaqasi to‘lash bo‘yicha talablarning miqdori hamda tarkibi xususida sud boshqaruvchisi va qarzdor xodimlarining vakili o‘rtasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklar;

kreditorlarning, qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining vakillari tomonidan ularning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini buzayotgan sud boshqaruvchisining harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan shikoyatlar ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

Sudning ajrimi ustidan shikoyat berish huquqiga ega bo‘lmagan shaxslar tomonidan berilgan, shuningdek, ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan tartibni buzgan holda yoki tegishli ariza yoxud shikoyatni tasdiqlovchi dalillar ilova qilinmagan holda berilgan ariza va shikoyatlar qaytarilishi kerak.

Sharhlanayotgan moddada to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari jarayonida sud boshqaruvchisi, kreditorlar va boshqa manfaatdor shaxslar tomonidan berilgan ariza hamda shikoyatlarni ko‘rib chiqish muddati, tartibi, ularga ilova qilinadigan dalillar va qonun talablariga rioya etilmagan taqdirda bunday ariza yoki shikoyatlarni qaytarish asoslari belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida sud boshqaruvchisining harakatlari, kreditorlarning huquqlari va qarzdorning majburiyatlari ixtilof manbaiga aylanadi. ko‘pincha Ushbu ixtiloflarni tez va samarali hal qilish uchun qonun chiqaruvchi Qonunning 60-moddasida maxsus protsessual mexanizmni mustahkamlagan. Ushbu modda uchta asosiy masalani tartibga soladi: birinchidan, arizalar va shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartibi va muddatlari; ikkinchidan, ayrim murojaatlar uchun alohida tartib; uchinchidan, arizalar va shikoyatlarni qaytarish asoslari. Mazkur normalar birgalikda to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarida ixtiloflarni sudda hal qilishning mustaqil protsessual tizimini tashkil etadi.

Moddaning ahamiyatini baholash uchun shuni ta’kidlash lozimki, to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari juda ko‘p taraflar ishtirokida amalga oshiriladi: sud boshqaruvchisi, turli navbatdagi kreditorlar, qarzdorning muassislari, xodimlar vakili va boshqalar. Ushbu taraflar manfaatlari ko‘pincha bir-biriga zid bo‘ladi. Bu esa ularning barchasiga o‘z huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilish imkonini beradi.

Ushbu qismda sud tomonidan ko‘rib chiqiladigan murojaatlarning ikki asosiy turi belgilangan: *birinchi* – sud boshqaruvchisining arizalari. Bunga sud boshqaruvchisi o‘zi bilan kreditorlar o‘rtasida yoki o‘zi bilan qarzdor o‘rtasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklar haqida beradigan arizalar kiradi. Sud boshqaruvchisi tartib-taomilning asosiy boshqaruvchi subyekti sifatida ko‘p hollarda u yoki bu taraf tomonidan uning vakolatlari yoki qarorlariga ishonch bildirilmaydigan vaziyatga tushishi mumkin. Bunday hollarda u sudga murojaat qilish huquqiga ega; *ikkinchi* – kreditorlarning shiko-

yatlari. Kreditorlar o‘z huquq va qonuniy manfaatlarining buzilganligi xususida sud boshqaruvchisining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat berishi mumkin. Bundan tashqari, boshqa subyektlarning harakatlari natijasida huquqlari buzilganligi haqidagi shikoyatlar ham shu toifaga kiradi.

Ushbu normaning eng muhim normalaridan biri – arizalar va shikoyatlarni o‘n besh kunlik muddatdan kechiktirmay ko‘rib chiqish majburiyati. Ushbu muddat ariza yoki shikoyat sud tomonidan olingan kundan e’tiboran hisoblana boshlaydi. O‘n besh kunlik muddatni to‘g‘ri tushunish uchun ikkita jihatga e’tibor berish zarur. Birinchidan, «olingan kun» – sudga rasmiy ravishda taqdim qilingan va sud tomonidan qabul qilinishi tasdiqlangan kun. Agar ariza sudning devonxonasiga topshirilgan bo‘lsa, o‘sha sana hisob boshlanish nuqtasi sanaladi. Ikkinchidan, «kechiktirmay» iborasi sudning ushbu muddat ichida ajrim chiqarishga majbur ekanligini anglatadi – nafaqat majlis o‘tkazishi, balki yakuniy qaror qabul qilishi lozim.

Umumiy protsessual qonunchilik normalari bilan solishtirganda ushbu muddat ancha qisqa – bu to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarida vaqtning strategik ahamiyati bilan bog‘liq. Uzoq muddatli noaniqlik tartib-taomilning samarali amalga oshirilishini tormozlaydi, mol-mulkning qiymatini pasaytirishi va kreditorlarning talablarini qondirish imkoniyatini kamaytirishi mumkin.

Ariza yoki shikoyat beruvchi shaxs o‘z murojaatiga mazkur ariza yoki shikoyatni ko‘rib chiqishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga ularning ko‘chirma nusxalari yuborilganligiga oid dalillarni ilova qilishi shart. Ushbu talab juda muhim protsessual ahamiyatga ega. Mazkur normaning maqsadi nimadan iborat? Birinchidan, u sudda taraflar o‘rtasida baravar axborot tarqalishini ta’minlaydi – hech bir taraf boshqa tarafning xabarsizligidan foydalanish imkoniga ega bo‘lmasligi lozim. Ikkinchidan, ushbu talab sudning ishini osonlashtiradi: sud taraflarni xabardor qilish uchun alohida vaqt va resurs sarflashga majbur bo‘lmaydi. Uchinchidan, murojaat etuvchi shaxs o‘z harakatlari uchun mas’uliyatni zimmasiga oladi. Ko‘chirma nusxa yuborilganligining dalillari sifatida amalda quyidagilar tan olinadi: pochta orqali jo‘natilganligi to‘g‘risidagi tasdiq kvitansiyasi, kuryer orqali topshirilganligi haqidagi tasdiqnoma, elektron pochta orqali yuborilganligini tasdiqlovchi chop etib berilgan nusxa, shaxsan topshirilganligi haqidagi imzo bilan tasdiqlangan nusxa. Ushbu dalillar arizaga yoki shikoyatga ilova tarzida taqdim etiladi.

Sudning ajrimi va unga shikoyat berish. Arizalar va shikoyatlarni ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan sud ajrim chiqaradi. Ajrim sudning mazmuniy qarori bo‘lib, u tartib-taomil ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini aniqlab beradi. Aynan ajrim chiqarilishi bejiz emas, chunki to‘lovga qobiliyatsizlik ishlari doirasidagi alohida masalalar umumiy ish bo‘yicha yakuniy qaror qabul qilinmasdan ham hal etilishi mumkin.

Ushbu ajrim ustidan qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda shikoyat berilishi mumkin. Bu norma ajrim yakuniy va shikoyat qilib bo‘lmaydigan emasligini ta’kidlaydi – taraflar ajrimdan norozi bo‘lsa, uni yuqori instansiyada muhokama qildirish huquqiga egalar. Shikoyat berish tartibi va muddatlari umumiy protsessual qonunchilikda belgilangan.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida alohida toifadagi ikki xil ixtilof birinchi qismda belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishi nazarda tutilgan. Birinchi toifa – mehnat

haqi to‘lash va ishdan bo‘shatish nafaqasi to‘lash bo‘yicha talablarning miqdori hamda tarkibi xususida sud boshqaruvchisi va qarzdor xodimlarining vakili o‘rtasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklar.

Ushbu normaning ahamiyatini tushunish uchun to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillaridagi xodimlarning huquqiy maqomini eslash zarur. Qarzdor korxonaning xodimlari ikki jihatdan alohida himoyaga muhtoj: birinchidan, ular kreditorlar ro‘yxatida birinchi navbatda, ya’ni navbatdan tashqari qanoatlantirishdan so‘ng turishadi va ko‘pincha ular uchun bu yagona daromad manbaidir; ikkinchidan, xodimlar aksariyat hollarda huquqiy bilimga ega bo‘lmagan va o‘z manfaatlarini himoya qila olish imkoni cheklangan shaxslardir.

Mazkur mehnat nizolarini hal etishda «qarzdor xodimlarining vakili» tushunchasi muhim rol o‘ynaydi. Bu vakil xodimlarning umumiy yig‘ilishida saylanadi va sud boshqaruvchisi bilan muzokaralar olib borish, sudga ariza berish va xodimlarning huquqlarini himoya qilish vakolatiga ega bo‘ladi. Shunday qilib, qonun xodimlar uchun ixtilofni alohida arz bilan emas, balki birlashgan va vakil orqali himoya qilish mexanizmini yaratgan.

Amalda sud boshqaruvchisi va xodimlar vakili o‘rtasidagi asosiy nizo nuqtalari quyidagilardan iborat bo‘ladi: mehnat haqi qarzining aniq miqdori (buxgalteriya hujjatlari to‘liq saqlanmagan yoki noto‘g‘ri yuritilgan bo‘lganda); ishdan bo‘shatish nafaqasini hisoblash tartibi (ayniqsa uzoq ish stajiga ega xodimlar uchun); mukofot va ilovalarning qarzdorlikka kiritilishi masalasi. Ushbu ixtiloflarning mazkur modda doirasida ko‘rib chiqilishi xodimlarning tez va arzon usulda himoya olish imkonini beradi.

Ushbu normada nazarda tutilgan ikkinchi toifa – kreditorlarning, qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining vakillari tomonidan sud boshqaruvchisining harakatlari (yoki harakatsizligi) ustidan berilgan shikoyatlar.

«Harakatlar» va «harakatsizlik» iboralari juda keng ma’no kasb etadi. Harakatlar bo‘yicha shikoyatlar, masalan, mol-mulkni bozor qiymatidan past narxda sotish, ayrim kreditorlarga ustunlik berish, hujjatlarni saqlamaslik, tegishli ruxsatsiz muayyan operatsiyalarni amalga oshirish kabi hollarni o‘z ichiga oladi. Harakatsizlik bo‘yicha shikoyatlar esa sud boshqaruvchisining belgilangan muddatlarda zaruriy chora ko‘rmaganligi, masalan, kreditorlar yig‘ilishini o‘tkazmaganligi, mol-mulkni ro‘yxatga olmaganligi yoki hisobot taqdim etmaganligi kabi holatlarga tegishlidir.

Muassislar (ishtirokchilar) yoki mol-mulk egasining vakillariga shikoyat huquqi berilishi alohida e’tiborga loyiq. To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari boshlanishi bilan qarzdorning boshqaruvi sud boshqaruvchisi zimmasiga o‘tadi, lekin muassislar va mol-mulk egasi o‘z manfaatlarini himoya qilish huquqidan mahrum bo‘lmaydi. Bu norma ularning sud nazoratiga huquqini ta’minlaydi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi arizalar va shikoyatlarni qaytarish asoslarini belgilaydi. Qonunda uch xil asos ko‘rsatilgan.

Birinchi asos – vakolatsiz shaxs tomonidan berilgan murojaat. Sudning ajrimi ustidan shikoyat berish huquqiga ega bo‘lmagan shaxslar tomonidan berilgan arizalar va shikoyatlar qaytariladi. Bu norma protsessual ishtirokchilikni aniq belgilaydi: har kim sudning har qanday ajrimi ustidan shikoyat bera olmaydi. Sudning ajrimi ustidan

shikoyat berish huquqi faqat arizada yoki shikoyatda manfaatdor taraf sifatida ko‘rsatilgan shaxslarga berilgan.

Ikkinchi asos – belgilangan tartibni buzgan holda berilgan murojaat. Mazkur moddaning birinchi va ikkinchi qismlarda nazarda tutilgan tartibni buzgan holda berilgan arizalar va shikoyatlar ham qaytariladi. Masalan, agar arizaga ko‘chirma nusxalar yuborilganligi to‘g‘risidagi dalillar ilova qilinmagan bo‘lsa, sud arizani mazmunan ko‘rmasdan qaytarishi mumkin. Bu norma protsessual intizomni ta’minlaydi va sudni asossiz yuklamadan himoya qiladi.

Uchinchi asos – dalillar ilova qilinmagan murojaat. Tegishli ariza yoxud shikoyatni tasdiqlovchi dalillar ilova qilinmagan holda berilgan murojaatlar ham qaytariladi. Bu norma ariza beruvchidan asossiz murojaat emas, balki o‘z pozitsiyasini tasdiqlovchi hujjatlar va dalillar bilan tayyorlangan ariza taqdim etishni talab qiladi.

Ariza yoki shikoyatni qaytarishning protsessual oqibatlari. Arizaning yoki shikoyatning qaytarilishi uning mazmunan ko‘rilmasdan rad etilganligini bildirmaydi. Amalda sud qaytarishning sabablarini ajrimda ko‘rsatadi va ariza beruvchiga kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi. Kamchiliklar tuzatilgandan so‘ng ariza yoki shikoyat qayta taqdim etilishi mumkin. Shu sababli ariza beruvchi uchun muhim masala – arizani birinchi marta to‘g‘ri va to‘liq tayyorlash. Vaqtni boy bermaslik uchun dastlab barcha zaruriy hujjatlarni, ko‘chirma nusxalarni yuborganlik tasdiqnomalarini va dalillarni tayyorlab, so‘ng arizani taqdim etish maqsadga muvofiq. Shuni ta’kidlash lozimki, arizaning qaytarilishi o‘n besh kunlik muddatga ta’sir ko‘rsatmaydi. Agar ariza tuzatilib qayta berilsa, muddat yangi arizani olgan kundan e’tiboran hisoblana boshlaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 742-b.

61-modda. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishdagi kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra chiqarilgan sud ajrimlarni qayta ko‘rish bo‘yicha ish yuritish

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda arizalar, shikoyatlar (iltimosnomalar) va kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra chiqarilgan sud ajrimi O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksida belgilangan tartibda, ushbu moddada nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda qayta ko‘rilishi lozim.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishdagi kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra chiqarilgan sud ajrimi chiqarilgan paytdan e’tiboran o‘n kun o‘tgach qonuniy kuchga kiradi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishdagi kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqishda ishtirok etgan shaxslar apellyatsiya shikoyati berish huquqiga ega.

Sudning ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risidagi ajrimiga apellyatsiya shikoyati sud tomonidan ajrim chiqarilgan paytdan e’tiboran o‘n kun ichida beriladi va u sudga kelib tushgan paytdan e’tiboran o‘n kun ichida ko‘rib chiqilishi lozim.

Sudning ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan, apellyatsiya tartibida ko‘rilmagan ajrimi ustidan kassatsiya shikoyati ajrim qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran bir oy ichida beriladi va u sudga kelib tushgan paytdan e’tiboran o‘n kun ichida ko‘rib chiqilishi lozim.

Sharhlanayotgan moddada to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ariza, shikoyat va kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqish natijasida chiqarilgan sud ajrimlarini qayta ko‘rish, ularning qonuniy kuchga kirish muddati hamda apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat qilish qoidalari belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismiga ko‘ra, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishdagi arizalar, shikoyatlar (iltimosnomalar) va kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qabul qilingan sud ajrimlari IPK tomonidan belgilangan tartibda, mazkur moddada nazarda tutilgan xususiyatlarini inobatga olgan holda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Sudning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida chiqargan, IPKda nazarda tutilmagan ajrimlari ustidan faqat Qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda shikoyatlar berilishi mumkin, Qonunning 51-moddasi, 108-moddasining ikkinchi qismi va 140-moddasi to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan ajrimlar bundan mustasno, ushbu ajrimlar ustidan IPKda nazarda tutilgan tartibda shikoyat qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

27. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud hujjatlari Qonunda nazarda tutilgan xususiyatlarni inobatga olgan holda IPKda belgilangan tartibda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Sudning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida chiqargan, IPKda nazarda tutilmagan ajrimlari ustidan faqat Qonunda belgilangan hollarda va tartibda shikoyat qilish (protest keltirish) mumkin, Qonunning 51-moddasi, 95-moddasining ikkinchi qismi, 108-moddasining ikkinchi qismi va 140-moddasining to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan ajrimlar bundan mustasno, ular ustidan IPKda nazarda tutilgan tartibda shikoyat qilish (protest keltirish) mumkin.

Xususan, Qonunning 60-moddasida ko‘rsatilgan ariza va shikoyatlarni ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan chiqarilgan sudning ajrimlari ustidan Qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin. Ko‘rsatilgan ajrimlar ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) ular chiqarilgan paytdan e’tiboran o‘n kun ichida, apellyatsiya tartibida ko‘rilmagan ajrim ustidan kassatsiya shikoyati ajrim qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran bir oy ichida beriladi (Qonunning 61-moddasi).

Xususan, sud boshqaruvchilarini tayinlash (muvaqqat boshqaruvchi mustasno) (ozod qilish, almashtirish) to‘g‘risidagi ajrimlar ustidan Qonunda nazarda tutilgan tartibda shikoyat qilinadi (protest keltiriladi). Agar sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi yoki tashqi boshqaruvchi sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruvni joriy etish bilan, tugatish boshqaruvchisi esa qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash bilan bir paytda tayinlangan bo‘lib, ularni tayinlash to‘g‘risida sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruvni joriy etish haqidagi sudning ajrimida yoxud qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi qarorida ko‘rsatilgan bo‘lsa, tayinlangan sud boshqaruvchisining nomzodi bilan kelishilmagan taqdirda, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar Qonunda nazarda tutilgan tartibda sud hujjatining sud boshqaruvchisini tayinlashga doir qismi ustidan shikoyat berishi mumkin.

Kuzatuvni joriy etish (Qonunning 78-moddasi) va muvaqqat boshqaruvchini tayinlash (Qonunning 82-moddasi) tartib-taomilini joriy etish haqidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi nazarda tutilmaganligi sababli, muvaqqat boshqaruvchini tayinlash, ozod qilish, almashtirish haqidagi ajrimga nisbatan shikoyat berish (protest keltirish) mumkin emas.

Shuningdek, kreditorlar yig‘ilishining qarorini haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi sudning ajrimiga nisbatan (Qonunning 17-moddasi) to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonunda ko‘rsatilgan tartibda shikoyat berish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

27. Kreditorlar yig‘ilishining qarorini haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi sudning ajrimi ustidan ham shu tartibda shikoyat berish (protest keltirish) mumkin (Qonun 17-moddasining beshinchi qismi).

Ajrimlarning to‘liq ro‘yxati va ular ustidan shikoyat qilish tartibi sharhlanayotgan moddaning oxirida keltirilgan.

2. Ushbu normaga ko‘ra, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishdagi kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qabul qilingan ajrimlar ular chiqarilganidan so‘ng o‘n kun ichida kuchga kiradi, IPKda nazarda tutilgan sud hujjatlari qabul qilinganidan keyin bir oylik muddat o‘tgach qonuniy kuchga ega bo‘ladi (IPKning 199-moddasi). To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish muddatini qisqartirish hamda kreditorlar uchun qo‘yilgan talablarni o‘z vaqtida qanoatlantirish imkoniyatini yaratish maqsadida Qonun IPKda ko‘rsatilgan sud hujjatlariga qaraganda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda vujudga keladigan kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qabul qilinadigan sud hujjatlarining kuchga kirishi qisqartirilgan muddatini belgilaydi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida ta'kidlanganidek, to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishdagi kelishmovchilikni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qabul qilingan sud ajrimi yuzasidan apellyatsiya shikoyati berish huquqiga faqat to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishda ushbu kelishmovchilik ko'rib chiqilishida ishtirok etgan shaxslargina ega bo'ladi. Masalan, kreditorlar tomonidan arz qilingan talablar yuzasidan sud boshqaruvchisi e'tirozini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qabul qilingan ajrimga ko'ra bunday shaxslar sud boshqaruvchisi va kreditor hisoblanadi, sud boshqaruvchisi va qarzdor muassislari vakili o'rtasida vujudga kelgan kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qabul qilingan ajrimga asosan tegishlicha sud boshqaruvchisi va muassislar vakili hisoblanadi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish huquqini nazarda tutuvchi IPK normalaridan farqli o'laroq (IPKning 259-moddasi), Qonun bunday huquqni faqat kelishmovchiliklarni ko'rib chiqishda ishtirok etuvchi shaxslarga beradi, chunki, birinchidan, to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishda kelishmovchilik bilan bog'liqlikda ko'rib chiqiladigan masala har doim ham to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishda ishtirok etuvchi barcha shaxslar manfaatlariga daxl qilmaydi va sud hujjati ustidan shikoyat qilish huquqini to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishda ishtirok etuvchi barcha shaxslarga emas, balki faqat to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishdagi kelishmovchilikni ko'rib chiqayotgan ishtirokchilarga berish yetarli hisoblanadi. Ikkinchidan, bu quyidagi jihat bilan bog'liq: agar shikoyat qilish huquqi faqat to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga berilgan bo'lsa, boshqa ishtirokchilar kelishmovchilikni ko'rib chiqishda uni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qabul qilingan sud hujjati ustidan shikoyat qila olmaydi, bu esa ularning huquqini cheklaydi.

Aytish joizki, to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishdagi ushbu kelishmovchilikni ko'rib chiqishda ishtirok etgan shaxslar bunday shikoyatni bevosita kassatsiya instansiyasiga berish huquqiga ega bo'lmasdan, balki apellyatsiya instansiyasiga berishga haqlidir.

Shuni nazarda tutish kerakki, ajrim ustidan shikoyat qilish to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish yuritishga to'sqinlik qilmaydi va ish yuritishni to'xtatish uchun asos bo'lmaydi. Ajrim ustidan shikoyat qilish kreditorlar yig'ilishini o'tkazish va qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash bo'yicha choralarni amalga oshirish uchun ham to'sqinlik qilmaydi.

4. Apellyatsiya instansiyasida ish yuritish IPKning 34-bobida ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi. Biroq, sharhlanayotgan moddada belgilanganidek, Qonunning 60-moddasida ko'rsatilgan ajrimlar ustidan apellyatsiya shikoyati ajrim chiqarilgan paytdan e'tiboran o'n kun ichida berilishi mumkin va u sudga tushgan kundan e'tiboran o'n kun davomida ko'rib chiqilishi lozim. IPK qoidalariga muvofiq, hal qiluv qaror qabul qilingandan e'tiboran bir oylik muddat o'tgach kuchga kiradi (IPKning 192-moddasi). Apellyatsiya shikoyati (protesti) sud hal qiluv qarori qabul qilgandan keyin bir oy ichida beriladi (IPKning 262-moddasi) hamda u sudga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oylik muddatda ko'riladi (IPKning 277-moddasi). Qonun to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishda kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qabul qilingan ajrim ustidan apellyatsiya shikoyati berish uchun qisqartirilgan muddatni belgilaydi, shuningdek, IPK-

da belgilangan sud hujjatlariga qaraganda bunday shikoyatni ko‘rib chiqishning qisqa muddatini belgilaydi. Bu esa, o‘z navbatida, ish yuritish muddatini qisqartirish va kreditorlar talablarini o‘z vaqtida qanoatlantirish maqsadini nazarda tutadi.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismda belgilanganidek, sudning ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan, apellyatsiya tartibida ko‘rilmagan ajrimi ustidan kassatsiya shikoyati ajrim qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran bir oy ichida beriladi va u sudga kelib tushgan paytdan e’tiboran o‘n kun ichida ko‘rib chiqilishi lozimligi belgilangan. Bunday qoida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishda apellyatsiya shikoyati bilan murojaat qilishga imkoni bo‘lmagan yoki muddatni o‘tkazib yuborgan shaxslarga kassatsiya tartibida shikoyat qilish imkoniyatining yaratilganligidir.

I. Shikoyat qilinishi nazarda tutilmagan va shikoyat qilinishi mumkin bo‘lmagan ajrimlar:

sud boshqaruvchisiga haq to‘lashni tasdiqlash to‘g‘risida (Qonun 26-moddasining birinchi qismi;

to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida (Qonun 46-moddasining to‘rtinchi qismi);

kuzatuvni joriy etish va muvaqqat boshqaruvchini tayinlash to‘g‘risida (Qonun 46-moddasining uchinchi qismi);

ekspertiza tayinlash to‘g‘risida (Qonun 49-moddasi yettinchi qismi);

muvaqqat boshqaruvchini tayinlash to‘g‘risida, haq to‘lash miqdori va tartibi to‘g‘risida (Qonunning 82-moddasi);

muvaqqat boshqaruvchiga haq to‘lashni o‘zgartirish to‘g‘risida (Qonunning 82-moddasi);

muvaqqat boshqaruvchini o‘z vazifasini bajarishdan ozod etish to‘g‘risida (Qonunning 82-moddasi);

kuzatuv davrida qarzdorning rahbarini o‘z vazifasini bajarishdan chetlashtirish to‘g‘risida (Qonun 83-moddasi birinchi qismining oltinchi xatboshisi);

kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan talablarga nisbatan qarzni to‘lash jadvaliga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida (Qonunning 101-moddasi);

sud sanatsiyasi tartib-taomilini tugatish yoki tamomlash to‘g‘risida (Qonun 105-moddasining birinchi qismi);

tashqi boshqaruvning tartib-taomili muddatini uzaytirish to‘g‘risida (Qonunning 124-moddasi);

ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan qarzdorning faoliyat ko‘rsatmayotgan obyektlarini konservatsiya qilish to‘g‘risida (Qonun 125-moddasining uchinchi qismi);

kreditorlar bilan hisob-kitoblarga o‘tish haqida, muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash haqida, tashqi boshqaruvchi hisobotini tasdiqlashni rad etish to‘g‘risida (Qonunning 134-moddasi);

sud mol-mulkni sotish tartibi va muddatlarini (jadvalini) tasdiqlash haqida (Qonun 151-moddasining uchinchi qismi);

tugatishga doir ish yuritishni tamomlash haqida (Qonun 160-moddasining birinchi qismi);

YTT qarzlarini uzish rejasini tasdiqlash yoki uzish rejasini o‘zgartirish haqida (Qonunning 229-moddasi);

to‘lov qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartib-taomilini bekor qilish hamda to‘lovga qobiliyatsizlikning umumiy tartib-taomillariga o‘tish to‘g‘risida (Qonun 245-moddasining beshinchi qismi).

II. IPKda shikoyat qilish imkoniyati ko‘rsatilgan ajrimlar, shuningdek, Qonun 51-moddasining birinchi qismi, 108-moddasining ikkinchi qismi va 140-moddasining to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan IPKda belgilangan umumiy tartibda qayta ko‘rilishi mumkin bo‘lgan sud hujjatlari:

arizani qabul qilishni rad etish to‘g‘risida (Qonun 46-moddasining beshinchi qismi);

arizani qaytarish to‘g‘risida (Qonun 46-moddasining oltinchi qismi);

kreditorlar talablarini ta’minlashga doir chora-tadbirlar ko‘rish haqida (Qonun 47-moddasining beshinchi qismi);

kreditorlarning talablari yuzasidan e’tirozlarni ko‘rib chiqish natijalari haqida (Qonunning 49-moddasi);

subsidiar javobgarlikka tortish uchun zarur bo‘lgan barcha dalillar aniqlanguniga va kreditor bilan hisob-kitoblar tugaguniga qadar to‘xtatib turish to‘g‘risida (Qonunning 73-moddasi);

sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risida (Qonunning 95-moddasi);

qarzdorning rahbarini o‘z vazifasini bajarishdan chetlashtirish haqida (Qonunning 96-moddasi);

sanatsiya qiluvchi boshqaruvchini o‘z vazifasidan ayni bir paytda yangi sanatsiya qiluvchi boshqaruvchini tayinlagan holda ozod qilish to‘g‘risida (Qonunning 97-moddasi);

tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida (Qonunning 108-moddasi);

tashqi boshqaruvchini tayinlash to‘g‘risida (Qonunning 112-moddasi);

tashqi boshqaruvchini o‘z vazifasini bajarishdan ozod etish to‘g‘risida (Qonunning 113-moddasi);

kreditorlarning e’tirozlarini ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risida (Qonunning 117-moddasi;

tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili muddatini uzaytirish to‘g‘risida (Qonunning 140-moddasi);

ning 156-moddasi);

sud kelishuv bitimini tasdiqlash rad etilganligi to‘g‘risida (Qonunning 167-moddasi);

to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni qayta tiklash haqida (Qonunning 170-moddasi);

tugatish boshqaruvchisini o‘z vazifasini bajarishdan ozod qilish haqida (Qonun

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini sud tomonidan ko‘rib chiqish haqida (Qonunning 211-moddasi);

o‘zgartishlar kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ma’qullangan taqdirda, mazkur rejaga kiritilgan o‘zgartishlarni tasdiqlash yoki tasdiqlashni rad etish to‘g‘risida (Qonunning 214-moddasi);

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarish muddatini uzaytirish haqida (Qonunning 214-moddasi);

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan o‘zgartishlarni tasdiqlash yoki tasdiqlashni rad etish to‘g‘risida (Qonunning 215-moddasi);

mol-mulk tugatish massasidan chiqarib tashlash to‘g‘risida (Qonunning 219-moddasi);

jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartibi, shartlari va muddatlarini tasdiqlash haqida hamda mol-mulkning boshlang‘ich sotish narxini belgilash to‘g‘risida (Qonunning 220-moddasi);

jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni yuritishni qayta tiklash haqida (Qonunning 223-moddasi);

qarzdor YTTning tugatish massasiga kiritilmaydigan mol-mulk ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida (Qonunning 230-moddasi).

62-modda. Ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ish yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari

Agar qarzdorning ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lsa, sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganligi haqida vakolatli davlat organini xabardor qiladi.

Vakolatli davlat organi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganligi haqidagi xabarnoma olingan kundan e’tiboran ikki haftalik muddat ichida sudga sudgacha sanatsiya qilish o‘tkazilishi maqsadga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi to‘g‘risidagi o‘z munosabatini ma’lum qiladi.

Kreditorlar sudgacha sanatsiya qilish o‘tkazilishiga rozi bo‘lgan taqdirda, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish yuritish tugatiladi.

Kreditorlar sudgacha sanatsiya qilish o‘tkazilishiga rozi bo‘lmagan taqdirda, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish muhokamasi ushbu Qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Sharhlanayotgan moddada ustav fondida davlat ulushi mavjud bo‘lgan qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rishning o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, vakolatli davlat organini xabardor qilish, sudgacha sanatsiya masalasini

ko‘rib chiqish va kreditorlar roziligiga qarab ish yuritishni tugatish yoki davom ettirish tartibi belgilangan.

1. Qarzdor ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lsa, sud vakolatli davlat organini to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilganligi to‘g‘risida xabardor qilishi shart. IPKning 153-moddasiga ko‘ra, ish qo‘zg‘atilishi haqidagi sud ajrimi besh kun mobaynida tomonlarga va davlat organiga bir paytda yuborilishi kerak.

2. Vakolatli davlat organi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilganligi haqidagi xabarni olgan kundan e’tiboran ikki haftalik muddat ichida sudga sudgacha sanatsiya qilish o‘tkazilishi maqsadga muvofiqligi yoki emasligi xususidagi o‘z qarorini ma’lum qiladi. Shu bilan birga, vakolatli davlat organining sudgacha sanatsiya qilish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi qarori to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish o‘z-o‘zidan tugatilishini anglatmaydi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi ma’nosiga muvofiq, vakolatli davlat organining sudgacha sanatsiya qilish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi qarori muvaqqat boshqaruvchi tomonidan chaqiriladigan kreditorlar yig‘ilishida ko‘rilishi lozim. Amaliyotda bu shuni anglatadiki, vakolatli davlat organi sudgacha sanatsiyani o‘tkazishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi qarorni qabul qilgan holda kuzatuv paytida bu masalani birinchi kreditorlar yig‘ilishi e’tiboriga taqdim etishi lozim. Birinchi kreditorlar yig‘ilishi sudgacha sanatsiya qilishga rozilik bersa, ushbu moddaning uchinchi qismiga muvofiq, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish sud tomonidan tugatiladi.

4. Ushbu normaga ko‘ra, agar kreditorlar qarzdorga nisbatan sudgacha sanatsiya o‘tkazish taklifiga rozilik bermasa, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish umumiy qoidalar asosida sud tomonidan ko‘rib chiqilishda davom etadi. Masalan, vakolatli davlat organi qarzdor korxonaning moliyaviy ahvolini sudgacha sanatsiya orqali tiklash mumkin deb hisoblasa-da, kreditorlar bunga qarshi chiqishsa, sud ishni to‘xtatmaydi va qonunda nazarda tutilgan tartibda ko‘rishni davom ettiradi. Bu tartib kreditorlar manfaatlarini inobatga olish, ularning irodasini hurmat qilish va to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini qonun asosida amalga oshirishga xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 742-b.

6-BOB. BITIMLARNING HAQIQIY EMASLIGI

63-modda. Qarzdor tuzgan bitimlarning haqiqiy emasligi

Qarzdor tuzgan har qanday bitim, shu jumladan, qarzdor to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilguniga yoki tashqi boshqaruv yoxud sud sanatsiyasi tartib-taomillari joriy etilguniga qadar tuzgan bitim qonunchilikda nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha sud boshqaruvchisining arizasiga binoan sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Agar bitimlar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilguniga qadar uch yil ichida qarzdor yoki uning vakili tomonidan tuzilgan va ushbu Qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ular O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 115–126-moddalarida va ushbu Qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra haqiqiy emas deb topiladi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan asoslardan tashqari to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilguniga qadar tuzilgan quyidagi bitimlar haqiqiy emas deb topilishi mumkin:

qarzdor tomonidan tuzilgan past qiymatdagi bitimlar, shu jumladan, o‘z tovarlarini ayni shu turdagi tovarlar bilan ayirboshlash yoki hadya qilish orqali tuzilgan bitimlar;

bitim narxi va (yoki) undagi boshqa shartlar aynan shunga o‘xshash tuzilgan bitim bilan solishtirilganda qarzdorning holatini jiddiy ravishda yomonlashtirsa, agar ushbu bitim moliyaviy yo‘qotishlarga olib kelgan bo‘lsa;

shunga o‘xshash yoki ayni shunday mol-mulkning narxidan farq qiladigan va kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazmagan bo‘lsa ham, qarzdorning holatini jiddiy yomonlashtiradigan narx bo‘yicha mol-mulkni tekinga yoki to‘lov asosida (shu jumladan, vaqtinchalik foydalanishga) topshirish to‘g‘risida bitim;

bitim bir kreditorning talablarini boshqa kreditorlarning talablariga nisbatan afzalroq qanoatlantirishga olib kelsa;

qarzdorning mol-mulkini hadya qilish shartnomalari, bundan doimiy tijorat operatsiyalarida tuziladigan shartnomalar mustasno, agar ular to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilishidan bir yil oldin tuzilgan bitimlardan sezilarli darajada farq qilsa.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilganidan keyin yoki to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza berilishidan oldingi o‘ttiz olti oy ichida qarzdor yuridik shaxs tomonidan tuzilgan, qarzdorning ishtirokchisi qarzdorning ishtirokchilari tarkibidan chiqqanligi munosabati bilan unga mol-mulkdagi ulushini to‘lash (ajratib berish) bilan bog‘liq bo‘lgan bitim

sud boshqaruvchisining yoki kreditorning arizasiga binoan sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi va bitimning haqiqiy emasligi oqibatlari qo‘llanilishi mumkin, shunday bitim bo‘yicha olingan barcha mol-mulk (pul mablag‘lari) esa qarzdorga qaytariladi. Bu holda ishtirokchi ushbu Qonunning 150-moddasiga muvofiq to‘rtinchi navbatdagi kreditor deb e’tirof etiladi.

Sharhlanayotgan moddada to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgunga qadar yoki jarayon davomida qarzdor tomonidan kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazuvchi, aktivlarni past narxda sotish yoki ayrim kreditorlarga afzallik berish kabi asoslar bilan tuzilgan bitimlarni sud boshqaruvchisi yoki kreditorlarning arizasiga binoan sud tartibida haqiqiy emas deb topish va olingan mol-mulkni qarzdorga qaytarish mexanizmi belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida sud boshqaruvchining qarzdor tomonidan tuzilgan har qanday bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi talab bilan sudga murojaat qilish huquqi belgilangan. Unga ko‘ra, sud boshqaruvchisi qarzdor tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilishidan oldin ham, keyin ham tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish yuzasidan nizolashishi mumkin. Bunday bitim qarzdor tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilguniga yoki tashqi boshqaruv yoxud sud sanatsiyasi tartib-taomillari joriy etilgunga qadar tuzilganligidan qat’i nazar, sud boshqaruvchisi tomonidan nizolashilishi mumkin. Shuningdek, qarzdor tomonidan kuzatuv yoki sud sanatsiyasi davrida muvaqqat yoki sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining tegishli roziligisiz tuzilgan bitimlar (Qonun 81-moddasining ikkinchi qismi, 98-moddasining yettinchi qismi) ham sud boshqaruvchining talabiga ko‘ra haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Sud boshqaruvchisiga ushbu huquqning berilishidan ko‘zlangan maqsad qarzdor tomonidan qonun talablariga zid ravishda begonalashtirilgan mol-mulkni yoki uning qiymatini qaytarishga qaratilgan.

Ushbu qismda sud boshqaruvchining sudga bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi da’vo arizasi bilan murojaat qilish huquqi belgilangan. Biroq bitim o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmasa, sud boshqaruvchisi bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi talab bilan emas, balki uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llashni so‘rab sudga murojaat qilishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

32. Qarzdorning bitimlarini haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi da’vo arizalari to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasidan tashqari protsessual qonunchilikda belgilangan ishlarning taalluqliligi va sudlovga tegishliligi to‘g‘risidagi umumiy qoidalarga rioya etilgan holda ko‘rib chiqiladi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida sud boshqaruvchisining sudga murojaat qilishi mumkin bo‘lgan muddat belgilangan bo‘lib, ushbu muddat umumiy da’vo muddatiga mos holda uch yil (36 oy) etib belgilangan. Bunda uch yillik muddat to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilgan paytga bog‘langan bo‘lib, muddatning hisoblanishi aynan shu vaqtdan boshlanadi. Biroq Qonunda belgilangan ushbu muddat da’vo muddati hisoblanmaydi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganidan keyin yoki to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza berilishidan oldingi o‘ttiz olti oy ichida qarzdor yuridik shaxs tomonidan tuzilgan, qarzdorning ishtirokchisi qarzdorning ishtirokchilari tarkibidan chiqqanligi munosabati bilan unga mol-mulkdagi ulushni to‘lash (ajratib berish) bilan bog‘liq bitim ham sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Shuningdek, Qonunda yirik bitimlar va sud boshqaruvchisi, kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasining roziligisiz tuzilgan manfaatdorlik mavjud bo‘lgan bitimlar yuzasidan ham nizolashish imkoniyati nazarda tutilgan.

Bunda qarzdor tomonidan tuzilgan bitimni «yirik bitim» deb baholash xo‘jalik yurituvchi subyektning tashkiliy huquqiy shakli va uning ta’sis hujjatlaridan kelib chiqib farqlanishi mumkin. Masalan, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 83-moddasining birinchi qismiga ko‘ra, jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog‘liq bitim (shu jumladan, qarz, kredit, garov, kafillik) yoki o‘zaro bog‘langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o‘n besh foizidan ortig‘ini tashkil etsa, yirik bitim deb hisoblanadi, kundalik xo‘jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar hamda aksiyalarni va boshqa qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan bitimlar bundan mustasno. «Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 44-moddasining birinchi qismida agar jamiyatning ustavida yirik bitimlarning ancha katta miqdori nazarda tutilgan bo‘lmasa, bunday bitimlarni tuzish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinadigan kundan oldingi oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya hisobotlari ma’lumotlari asosida aniqlangan jamiyat mol-mulki qiymatining yigirma besh foizidan ortiq qiymatga ega bo‘lgan mol-mulkni jamiyatning olishi, tasarrufidan chiqarishi yoki jamiyat bevosita yoxud bilvosita mol-mulkni tasarrufidan chiqarishi ehtimoli bilan bog‘liq bo‘lgan bitim yoki o‘zaro bog‘liq bir necha bitim yirik bitim deb hisoblanadi.

Bitimni tuzgan taraflardan biri qarzdorga, sud boshqaruvchisiga yoki kreditorga nisbatan manfaatdor shaxs bo‘lsa, bunday bitimlar manfaatdorlik nazarda tutilgan bitimlar deb e’tirof etiladi.

Bitimni haqiqiy emas deb topish asoslarini shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruh umumiy asoslar bo‘lib, ular o‘z ichiga FKning 115–126-moddalarini qamrab oladi. FKning ushbu normalari to‘lovga qobiliyatsizlikka oid ish yurituvi jarayonida ham bitimni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘ladi.

Ikkinchi guruh maxsus asoslar bo‘lib, ushbu asoslar qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilgan taqdirdagina uning rahbari yoki vakili tomonidan tuzilgan bitim(lar)ni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘ladi. Masalan, Qonunning 63–66-moddalari, 120-moddasining ikkinchi qismi, 140-moddasining yettinchi qismi, 169-moddasi, 219-moddasining beshinchi qismi va 231-moddasining birinchi qismida belgilangan asoslar shular jumlasidandir. Sud boshqaruvchisining umumiy asoslarda bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi da’vo arizasi da’vo muddatining o‘tganligidan qat’i nazar, sudda ko‘rib chiqish uchun qabul qilinadi (FK-ning 153-moddasi). Shuning uchun da’vo arizasini ish yuritishga qabul qilish va ishni sudda ko‘rish uchun tayyorlash paytida da’vo arizasida bildirilgan talab bo‘yicha da’vo muddati o‘tganligi aniqlansa, bu holat da’vo arizasini qabul qilishni rad etish yoki uni qaytarish uchun asos bo‘lmaydi. Da’vo muddati va ushbu institutga oid qonun normalarini qo‘llash umumiy tartibda amalga oshiriladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida sud boshqaruvchisi tomonidan qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilguniga qadar tuzilgan bitimlarni o‘rganish jarayonida aniqlangan muayyan holatlar ham uning tomonidan tuzilgan bitimni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘lishi ko‘rsatilgan. Bitimni haqiqiy emas deb topish uchun bunday maxsus asoslar faqat qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan hollardagina da’vo arizasiga asos sifatida ko‘rsatilishi mumkin.

3.1. *Qarzdor tomonidan tuzilgan past qiymatdagi bitimlar, shu jumladan, o‘z tovarlarini ayni shu turdagi tovarlar bilan ayirboshlash yoki hadya qilish orqali tuzilgan bitimlar.* Odatda, mol-mulk talab va taklifdan kelib chiqib bozor qiymatida realizatsiya qilinadi. Qarzdor tomonidan tuzilgan past qiymatdagi bitim deganda uning bahosi haqiqiy narxdan yoki bozor qiymatidan past bo‘ladi va oqibatda bunday bitimdan jamiyat manfaat ko‘rmaydi. Mol-mulkning past qiymatda realizatsiya qilinganligi baholovchi tashkilotlar xulosasi va/yoki Buxgalteriya hisobotlari milliy standartlarida belgilangan qoidalarga muvofiq aniqlanadi. Xususan, «Baholash faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasiga ko‘ra, baholash obyektining bozor qiymati deganda eng ehtimol tutilgan narxi tushunilib, unga ko‘ra, mazkur baholash obyektining ochiq bozorda raqobat sharoitida, bitimning taraflari barcha zarur axborotga ega bo‘lgan holda o‘z manfaatlari yo‘lida oqilona va ixtiyoriy ravishda harakat qiladi, bitim narxining baland-pastligida esa biron-bir favqulodda holatlar, shu jumladan, taraflardan birining ushbu bitimga qo‘shilish majburiyati aks etmaydi. Ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda qiymat tegishli vakolatga ega bo‘lgan organlar belgilaydigan yoki tartibga soladigan baholar (tariflar, stavkalar va h.k.) bilan solishtirish yo‘li bilan ham aniqlanishi mumkin.

Shu jumladan, qarzdor tomonidan o‘zining tovarlarini ayni shu turdagi tovarlar bilan ayirboshlash yoki hadya qilish yuzasidan tuzilgan bitimlar orqali realizatsiya qilingan hollarda ham bunday bitimlar sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi uchun asos bo‘ladi. Chunki odatda «ayirboshlash» va «hadya qilish» usullari qarzdorning mol-mulkini boshqa shaxslarga (eng ko‘p holda yaqinlariga) noqonuniy ravishda be-

gonalashtirishga yoki moliyaviy holatini yopishga xizmat qiladi. O‘z navbatida, moliyaviy jihatdan qiyin ahvolda bo‘lgan fuqarolik-huquqiy munosabat subyekti tomonidan mol-mulkini, hech qanday foyda ko‘rmaslik evaziga ayirboshlashi yoki tekinga boshqa shaxslarga o‘tkazishi shaxsning fuqarolik huquqlarini amalga oshirishdagi ustuvor bo‘lgan halollik, oqilonalik va adolat tamoyillariga mos kelmaydi.

3.2. Bitim narxi va (yoki) undagi boshqa shartlar aynan shunga o‘xshash tuzilgan bitim bilan solishtirilganda qarzdorning holatini jiddiy ravishda yomonlashtirsa, agar ushbu bitim moliyaviy yo‘qotishlarga olib kelgan bo‘lsa.

Qonunchilikda bitimlarni qiyoslash yo‘li bilan muayyan holatlarga aniqlik kiritish va baho berish mexanizmi mavjud. Masalan, FKning 356-moddasida haq to‘lashni nazarda tutadigan shartnomada baho nazarda tutilmagan va shartnoma shartlari bo‘yicha belgilanishi mumkin bo‘lmagan hollarda shartnomani bajarganlik uchun o‘xshash vaziyatlarda odatda shunday tovarlar, ishlar yoki xizmatlar uchun olinadigan baho bo‘yicha haq to‘lanishi kerakligi belgilangan. Qarzdor tomonidan tuzilgan bitimning narxi va (yoki) undagi boshqa shartlar aynan shunga o‘xshash tuzilgan bitim bilan solishtirilganda bitim qarzdorning holatini yomonlashtirishi va moliyaviy yo‘qotishlarga olib kelishi holatlarida uning haqiqiy emas deb topilishi uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Shartnoma adolatli bo‘lishi va taraflarning manfaatlarini hisobga olishi kerak. Masalan, agar qarzdor mahsulot yetkazib berish to‘g‘risida bitim orqali mahsulotni odatdagi narxlardan yuqori narxlarda xarid qilgan bo‘lsa yoki to‘lovning kechiktirilishi uchun odatdagi stavkalarga qaraganda ancha yuqori stavkalar belgilangan bo‘lsa, qarzdor moliyaviy yo‘qotishlarga uchraydi. Qarzdor o‘zining mahsulotini odatdagi narxdan past bahoda realizatsiya qilsa, to‘lov shartlarini odatdagidan boshqacha, masalan, mahsulot haqi mahsulot qabul qilib olgandan bir yildan keyin (ikki yil ichida) to‘lanishi to‘g‘risidagi shartlar asosida begonalashtirsa va ushbu holat qarzdorning holati jiddiy yomonlashishiga sabab bo‘lsa, bitim haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bu kabi normalar ingliz-amerika huquqi tizimi davlatlarida ham mavjud bo‘lib, «adolat» (fairness) va «tenglik» (equality) shartnomaning muhim ustunlari sifatida ko‘riladi. Agar bir tarafning manfaatlari boshqa tarafning huquqlariga zarar yetkazsa, bu FKning 123-moddasiga asosan asoratli bitim (unconscionable contract) deb baholanishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, shartnomadagi shartlar bir tarafning shaxsiy manfaatlariga qaratilgan va boshqa tarafning moliyaviy yoki huquqiy xavf-xatarlarini og‘irlashtirsa, shartnoma haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Muqobil ijroning bo‘lishiga qarab shartnomalar haq evaziga yoki tekinga tuziladi. Bir tarafning shartnoma asosidagi ashyoviy taqdimotiga ikkinchi tarafning tegishincha ashyoviy taqdimoti muqobil qilib belgilanishi shartnomaning haq evaziga tuzilganligini (mahsulot yetkazib berish, pudrat va h.k.) anglatadi. Muqobil taqdimot faqat pul shaklida emas, har qanday shaklda, xususan, bir xil mol-mulkning o‘rniga teng qiymatdagi boshqa mol-mulk, mulkiy huquqlar, ashyoviy huquqlar, shuningdek, kompensatsiyaning ish bajarish, xizmat ko‘rsatish kabi shakllari taqdim etilishi mumkin. Tekinga tuziladigan shartnomalarda bir taraf ikkinchi tarafga biron narsani hech qanday muqobil majburiyatni talab qilmasdan (hadya, bepul vaqtincha foydalanishga berish va h.k.) topshiradi.

3.3. Shunga o‘xshash yoki ayni shunday mol-mulkning narxidan farq qiladigan va kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazmagan bo‘lsa ham, qarzdorning holatini jiddiy yomonlashtiradigan narx bo‘yicha mol-mulkni tekinga yoki to‘lov asosida (shu jumladan, vaqtinchalik foydalanishga) topshirish to‘g‘risida bitim.

Qarzdor tomonidan tuzilgan bitim orqali realizatsiya qilingan mol-mulk aynan shunga o‘xshash yoki ayni shunday mol-mulk bilan solishtirganda qarzdorning holatini jiddiy yomonlashtiradigan narx bo‘yicha mol-mulkni to‘lov asosida topshirishi bitimni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Ushbu holatda narxning miqdori emas, balki bunday bitim qarzdorning moliyaviy ahvoliga ta’siri inobatga olinadi. Agar bitim natijasida qarzdorning iqtisodiy yoki moliyaviy holati sezilarli darajada yomonlashsa, narx «jiddiy yomonlashtiradigan» deb baholanishi mumkin. «Shunga o‘xshash yoki ayni shunday mol-mulkning narxidan farq qiladigan» deganda mol-mulkning bozor qiymatidan past narxda tuzilgan, «qarzdorning holatini jiddiy yomonlashtiradigan narx» deganda bitimda belgilangan narx qarzdorning qarzlarini qoplash imkoniyatini kamaytirishi tushunilishi lozim.

Shuningdek, bitimlarni solishtirishda bitim tuzilgan vaqt ham inobatga olinishi lozim. Bunda bir paytda yoki bir-biriga yaqin paytda tuzilgan bitimlar solishtirilishi lozim. Har qanday holatda ham bitimning qarzdorning moliyaviy holatiga ta’siri, ya’ni uning jiddiy yomonlashtirilishi sud tomonidan aniqlanadi.

O‘z navbatida mol-mulkni tekinga berish ham shubhali bitim hisoblanishi to‘lovga qobiliyatsizlikka oid ish yuritish jarayonida bitimni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda haqiqiy emas deb topish talab qilingan bitimning kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazgan yoki yetkazmaganligi ahamiyatga ega emas.

3.4. Bitim bir kreditorning talablarini boshqa kreditorlarning talablariga nisbatan afzalroq qanoatlantirishga olib kelsa.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar, shu jumladan, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonlarida ish yuritish ham bir turdagi kreditorlar guruhlariga teng sharoitda to‘lovlar amalga oshirilishini nazarda tutadi. Qarzdor to‘lovga qobiliyatsizlikka sabab bo‘luvchi holatlarda bir necha kreditorlari mavjud bo‘la turib ayrim kreditorlarga ustunlik berib to‘lovni amalga oshirgan bo‘lsa yoki uning foydasiga muayyan majburiyatlarini bajarsa, bu to‘lovlar (harakatlar) shubhali bitimlar deb topilishi mumkin. Shuningdek, bunday bitimlar ortida qarzdor mansabdor shaxslarining huquqlarini suiiste’mol qilishi holatlari kuzatiladi. Ayrim adabiyotlarda bunday bitimlar «afzallikka ega bitimlar» deb yuritiladi va to‘lovga qobiliyatsizlikka oid ish yuritishda bitimning bunday belgilari aniqlangan taqdirda, bu mazkur normaga asosan bitimni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘lishi mumkin. Chunki bir kreditorning talabi afzalroq qanoatlantirilishi qarzdor tomonidan aktivlarning adolatsiz ravishda taqsimlanishiga sabab bo‘ladi. Bu esa boshqa kreditorlarning manfaatlari buzilishiga, ularga zarar yetkazilishiga olib keladi. Vaholanki, FKning 9-moddasiga ko‘ra, fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari huquqlarini halol, oqilona va adolat bilan amalga oshirishi belgilangan. Bitimning haqiqiy emas deb topilishi oqibatida muayyan mol-mulklar, agar ularni qaytarish imkoniyati bo‘lmasa, pul mablag‘lari qarzdorga qaytarilib, tugatish massasiga kiritiladi va barcha kreditorlarga teng tarzda taqsimlanadi.

3.5. Qarzdorning mol-mulkini hadya qilish shartnomalari, bundan doimiy tijorat operatsiyalarida tuziladigan shartnomalar mustasno, agar ular to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilishidan bir yil oldin tuzilgan bitimlardan sezilarli darajada farq qilsa.

Ushbu norma qarzdor tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik holatida yoki unga yaqin vaqtlarda amalga oshirilgan hadya qilish va shunga o‘xshash harakatlarni huquqiy jihatdan tahlil qilish uchun ishlatiladi. Hadya shaxsning o‘z mol-mulkini boshqa shaxsga tekinga berishda ifodalanadigan xatti-harakatidir. Bu odatda shaxsiy munosabatlar asosida amalga oshiriladi.

Biroq tijorat subyektlari bunday shartnomalarni tuzsa va keyinchalik ularda to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlansa, bunday shartnoma shubhali hisoblanadi. Qonun hadya shartnomasining haqiqiyligiga qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilishidan bir yil oldin tuzilgan bitimlar bilan solishtirish orqali baho berishni nazarda tutadi. Bitim qarzdorning tijorat amaliyotidan farqlanib (ajralib) tursa, sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Ammo doimiy tijorat operatsiyalarida tuziladigan shartnomalarni mazkur normaga asosan haqiqiy emas deb topish mumkin emas. Doimiy tijorat operatsiyalarida tuziladigan shartnomalar deganda qarzdorning odatdagi xo‘jalik faoliyati doirasida tuziladigan va muntazam tarzda amalga oshirib kelingan shartnomalar (xatti-harakatlar) tushunilishi lozim. Bunga marketing, bonus, reklama va h.k. holatlari misol bo‘ladi.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismiga ko‘ra, ishtirokchining, jamiyat boshqa ishtirokchilarining roziligidan qat’i nazar, qonunda va jamiyatning ta’sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda istalgan vaqtda jamiyatdan chiqish huquqi mavjud bo‘lib, ishtirokchining ushbu birlamchi huquqini amalga oshirish ishtirokchiga qo‘shimcha huquq, ya’ni ulushining haqiqiy qiymatini talab qilish huquqini beradi.

Jamiyatdan chiqarilgan yoki undan chiqib ketgan jamiyat ishtirokchisining ulushi jamiyatga o‘tadi. Bunda jamiyat jamiyatdan chiqarilgan yoki chiqib ketgan ishtirokchiga ulushining chiqarilish yoki chiqib ketish sanasidan oldingi oxirgi hisobot davri uchun jamiyatning buxgalteriya hisobotlari ma’lumotlari bo‘yicha aniqlanadigan haqiqiy qiymatini to‘lashi yoki jamiyatdan chiqarilgan yoki chiqib ketgan ishtirokchisining roziligi bilan unga xuddi shunday qiymatdagi mol-mulkni asli holida berishi shart.

Lekin jamiyatga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilganda ishtirokchilarning jamiyat tarkibidan chiqib ketishi munosabati bilan jamiyatning mol-mulkidan ulushini ajratish haqidagi talablarini qanoatlantirish taqiqlanadi. Subyektiv huquqning cheklanishi huquqiy munosabatning boshqa subyektlari huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash va himoya qilish zarurati bilan bog‘liq. Huquqni cheklash deganda shaxsning huquqlari formal jihatdan saqlangan holda unga muayyan holatlarda huquqlarini amalga oshirish imkoniyatlarining huquqiy jihatdan chegaralanishi tushuniladi. Masalan, «Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 26-moddasiga asosan, agar to‘lash paytida jamiyat qonunga muvofiq to‘lovga qobiliyatsizlik belgilariga javob bersa yoki agar mazkur belgilar jamiyatda to‘lov natijasida paydo bo‘lsa, jamiyat o‘z ishtirokchilari o‘rtasida taqsim-

lanishi to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda ham, jamiyat ishtirokchilariga foydani to‘lashga haqli emas.

Jamiyatdan ixtiyoriy ravishda chiqib ketgan yoki sudning qarori bilan chiqarib yuborilgan ishtirokchida ulushning qiymatini olib chiqib ketish yoki ajratish imkoniyati bo‘lmaydi. Bunda shuni inobatga olish lozimki, chiqib ketgan ishtirokchi jamiyatning to‘lovga qobiliyatsizlik holatiga kelishiga sabab bo‘lgan qarorni qabul qilishda ishtirok etgan yoki etmaganligi yoxud jamiyatda to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari ishtirokchining jamiyatdan chiqib ketganidan keyin vujudga kelganligi ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Bitim haqiqiy emas deb topilganda, bunday bitim bo‘yicha olingan barcha mol-mulk (pul mablag‘lari) esa qarzdorga qaytariladi. Bu holda ishtirokchi Qonunning 150-moddasiga muvofiq to‘rtinchi navbatdagi kreditor deb e’tirof etiladi.

64-modda. Kreditorlarga zarar yetkazuvchi bitimlarning haqiqiy emasligi

Qarzdor tomonidan manfaatdor shaxs yoki boshqa xo‘jalik yurituvchi subyekt bilan tuzilgan bitim, agar mazkur bitimning bajarilishi natijasida qarzdorga va (yoki) kreditorlarga zarar yetkazilgan bo‘lsa yoki zarar yetkazilishi mumkin bo‘lsa, sud boshqaruvchisining arizasiga binoan sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada tuzilishi oqibatida qarzdorga va (yoki) kreditorlarga zarar yetkazgan yoki zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan bitimlar sud orqali haqiqiy emas deb topilishi mumkinligi asosi belgilangan.

Mazkur norma to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida bitimni haqiqiy emas deb topish uchun maxsus asoslardan biri hisoblanadi va zarar yetkazgan yoki zarar yetkazish ehtimoli mavjud bo‘lgan bitimlarni sud orqali haqiqiy emas deb topish imkoniyatini beradi. Normaning maqsadi qarzdor va kreditorlarning manfaatini himoya qilish hamda qarzdor to‘lovga qobiliyatsizlik holatiga kelib qolgan taqdirda aktivlari asossiz ravishda begonalashtirilishining oldini olishga qaratilgan. Bunda bitimda bir tarafdan qarzdor, ikkinchi tarafdan manfaatdor shaxs yoki boshqa har qanday xo‘jalik yurituvchi subyekt ishtirok etishi mumkin.

Manfaatdor shaxs deganda yuridik shaxs mulkdori, ishtirokchisi, aksiyadori, rahbari yoki uni nazorat qiluvchi shaxslar, qarzdor bilan bog‘liq xo‘jalik yurituvchi subyektlar, affillangan shaxslar tushuniladi. Bitim tuzishdan manfaatdor shaxslarning huquqiy maqomi tegishli qonunlar bilan belgilangan. Bitim tuzishdan manfaatdor shaxslar «Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida»gi Qonunning 43-moddasida, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunning 85-moddasida nazarda tutilgan. Masalan, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunning 85-moddasida jamiyat bitim tuzishdan manfaatdor shaxslar mazkur jamiyatga nisbatan affillangan shaxslar deb e’tirof etilishi belgilangan.

Quyidagilar jamiyatning affillangan shaxslari deb e’tirof etiladi:

1) ushbu jamiyatning yigirma foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga egalik qiluvchi yuridik shaxs;

2) ushbu jamiyatning yigirma foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga yaqin qarindoshlari bilan birgalikda egalik qiluvchi jismoniy shaxs;

3) ushbu jamiyat kuzatuv kengashining a'zosi, jamiyat direktorining yoxud jamiyat boshqaruvi a'zosining vakolatlarini amalga oshirayotgan shaxs;

4) ushbu jamiyat qaysi yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma foizi va undan ortiq foiziga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs;

5) ushbu jamiyatning shu'ba xo'jalik jamiyati bo'lgan yoki ushbu jamiyat qaysi jamiyatning shu'ba xo'jalik jamiyati bo'lsa, o'sha jamiyatning shu'ba xo'jalik jamiyati bo'lgan yuridik shaxs;

6) ushbu jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma foizi va undan ortiq foiziga egalik qiluvchi ayni bir shaxs qaysi yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma foizi va undan ortiq foiziga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs;

7) ushbu jamiyat kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etuvchi ayni bir shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etsa, o'sha yuridik shaxs;

8) ushbu jamiyatning direktori yoxud boshqaruv a'zosi bo'lgan ayni bir shaxs yoki uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs ijroiya organining rahbari vazifasini amalga oshirayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxs;

9) yaqin qarindoshlari bilan birgalikda ushbu jamiyat kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etuvchi shaxs qaysi yuridik shaxs rahbarining yoki ijroiya organi a'zosining vazifasini amalga oshirayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxs;

10) ushbu jamiyat direktorining yoki boshqaruv a'zosining vakolatlarini amalga oshirayotgan shaxs yaqin qarindoshlari bilan birgalikda qaysi yuridik shaxs jamiyat kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etsa, o'sha yuridik shaxs;

11) ushbu jamiyat bilan bitta xo'jalik birlashmasiga kiruvchi yuridik shaxs.

Quyidagilar jamiyatning affillangan shaxsi bo'lgan aksiyador – jismoniy shaxsning affillangan shaxslari deb e'tirof etiladi:

1) ushbu jismoniy shaxs va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma foizi va undan ortiq foiziga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs;

2) ushbu aksiyador yoki uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs kuzatuv kengashining a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxs;

3) ushbu aksiyador yoki uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsda ijroiya organining a'zosi vakolatlarini amalga oshirayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxs.

Ushbu modda ikkinchi qismining 1-, 2-, 4-, 6-bandlari va uchinchi qismining 1-bandi ishonchli boshqaruvchi yoki aksiyadorning vakili sifatida ish yuritayotgan shaxslarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar deganda mulk shaklidan qat'i nazar, tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish, sotish, ularni bir-biriga yoki boshqa faoliyat turlariga almashtirish, boshqa tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi, shuningdek, notijorat tashkilotlar, qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar tushuniladi.

Mazkur asos bilan bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi da’vo arizasida sud boshqaruvchisi sudda qarzdor tomonidan tuzilgan bitim va zarar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishni isbotlashi kerak. Bitimni qarzdorga va/yoki kreditorlarga zarar yetkazuvchi bitim sifatida baholab, uni haqiqiy emas deb topish uchun quyidagi holatlarning mavjudligi aniqlanishi lozim: bitim kreditorlarning mulkiy huquqlariga zarar yetkazish maqsadida tuzilganligi; bitim kreditorlarning mulkiy huquqlariga zarar yetkazilishiga olib kelishi; bitimning boshqa tomoni bitimni amalga oshirish vaqtida qarzdorning bildirilgan niyatini bilganligi yoki bilishi lozimligi.

65-modda. Ba’zi kreditorlarning talablarini boshqa kreditorlarning talablariga nisbatan afzalroq qanoatlantirish bilan bog‘liq bitimlarning haqiqiy emasligi

Qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza qabul qilinganidan keyin qarzdor tomonidan muayyan kreditorga yoki o‘zga shaxsga nisbatan tuzilgan bitim, agar bunday bitim qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha ayrim kreditorlarning talablari boshqa kreditorlarning talablariga nisbatan afzalroq qanoatlantirilishiga olib kelsa, quyidagi shartlardan biri mavjud bo‘lgan taqdirda sud boshqaruvchisining yoki kreditorning arizasiga binoan sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin:

bitim qarzdorning yoki uchinchi shaxsning muayyan kreditor oldidagi majburiyatlari bajarilishini bitim bajarilguniga qadar ta’minlashga qaratilgan bo‘lsa;

bitim tuzilguniga qadar vujudga kelgan majburiyatlar bo‘yicha kreditorlarning talablarini qanoatlantirish navbatining o‘zgarishiga olib kelgan bo‘lsa yoki olib kelishi mumkin bo‘lsa;

bitim boshqa kreditorlar oldida belgilangan muddatda bajarilmagan majburiyatlar mavjud bo‘lganda bitim tuzilgan paytda bajarish muddati kelmagan ba’zi kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga olib kelgan bo‘lsa yoki olib kelishi mumkin bo‘lsa;

agar talablarni qanoatlantirishga nisbatan muayyan kreditorga ko‘proq afzallik berilgan bo‘lsa yoki afzallik berishi mumkin bo‘lsa va ushbu Qonunda nazarda tutilgan kreditorlar bilan hisob-kitob qilish tartibi buzilishiga olib kelsa.

Sharhlanayotgan moddada qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik ishi qo‘zg‘atilganidan keyin qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlarning haqiqiy emas deb topilishi uchun maxsus asoslar belgilangan.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish bu qarzdorning o‘z (mulkiy) majburiyatlarini bajarishga qodir emasligi oqibatida sudga murojaat qilish jarayonidir. Qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilsa, qarzdorning moliyaviy ehtiyojlari va kreditorlar orasidagi huquqiy munosabatlar Qonun talablariga muvofiq qayta ko‘rib chiqiladi. Qarzdor moliyaviy jihatdan og‘ir holatga kelib

qolgan taqdirda, Qonun undan bir kreditorni boshqasidan ustun qo‘yib, undan manfaat ko‘rmasligini talab qiladi. Qarzdorda to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlanganda uning mol-mulki, aktivlari kreditorlar talablarini qanoatlantirishda tartibli ajratiladi. Muayyan kreditorlarga ustunlik berilishi fuqarolik huquqiy munosabatlaridagi halollik, oqillik va adolat talablariga zid hisoblanadi.

Xususan, Qonunning 13-moddasida to‘lovga qobiliyatsizlikka oid ish yuritish jarayonida bir turdagi kreditorlar beshta guruhga bo‘linib, ularning talablarini qanoatlantirish ketma-ketligi belgilangan. Buning asosida agar qarzdordan olingan to‘lovlar yoki tuzilgan bitimlar ba’zi kreditorlarga boshqalarga qaraganda afzallik berishga yoki ularning manfaatlarini o‘zgartirishga olib kelsa, bunday bitimlarning yoki to‘lovlarning haqiqiy emasligini tekshirish va baholash zarur. Odatda, bunday harakatlar sud boshqaruvchisi tomonidan amalga oshiriladi. To‘lovga qobiliyatsizlikka oid ish yuritish taomillari jarayonida ayrim kreditorlarning talablari boshqa kreditorlarning talablariga nisbatan afzalroq qanoatlantirilishiga olib kelganligi aniqlansa, ya’ni Qonunda o‘rnatilgan tartib buzilsa, bu holat mazkur moddada ko‘rsatilgan shartlardan biri mavjud bo‘lgan taqdirda sudga bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi da’vo arizasi bilan murojaat qilish uchun asos bo‘ladi. Bunday da’vo arizasi bilan sudga ikkita subyekt sud boshqaruvchisi yoki kreditor murojaat qilishga haqli.

Bitim qarzdorning yoki uchinchi shaxsning muayyan kreditor oldidagi majburiyatlari bajarilishini bitim bajarilguniga qadar ta’minlashga qaratilgan bo‘lsa. Agar bitim qarzdorning yoki uchinchi shaxsning muayyan kreditor oldidagi majburiyatlari bajarilishini bitim bajarilguniga qadar ta’minlashga qaratilgan bo‘lsa, bu bitimning xususiyati va huquqiy ta’siri baholanishi kerak. Odatda, bitim majburiyatni ta’minlash maqsadida tuziladi, ammo bu afzallik yoki qonunga zidlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bunda qarzdor yoki uchinchi shaxsning majburiyati bitim bajarilishi mumkin bo‘lgan paytigacha to‘lanishi bilan kafolatlanadi va bu kafolat (pul to‘lovi, garov ta’minoti) shaklida bo‘lishi mumkin. Agar bitim natijasida boshqa kreditorlar talablarini qondirish navbati buzilsa, qonuniy cheklovlarga rioya qilish zarur. Sud agar tuzilgan bitimda afzallik yaratilishining aniq belgisini aniqlasa yoki ishni ko‘rish jarayonida afzallik yaratilishi ehtimoli aniqlansa, ushbu Qonunning 150-moddasi bilan belgilangan kreditorlar talablarini qondirish navbati buzilsa, bitim majburiyatni bajarishga ko‘mak bersa ham barcha kreditorlar tengligini buzsa, uni haqiqiy emas deb topishi mumkin. Chunki ushbu navbat kreditorlar tengligi va adolatni ta’minlovchi asosiy mezonlar inobatga olgan holda shakllantirilgan.

Bitim tuzilguniga qadar vujudga kelgan majburiyatlar bo‘yicha kreditorlarning talablarini qanoatlantirish navbatining o‘zgarishiga olib kelgan bo‘lsa yoki olib kelishi mumkin bo‘lsa. Agar qarzdor tomonidan tuzilgan bitim natijasida ayrim kreditorlarning talablari boshqalarnikiga nisbatan oldin qondirilsa yoki ayrim kreditorlarga ustun huquq berilsa (masalan, garov ta’minoti, kafolat, avans to‘lovi), bunday bitim Qonunda belgilangan navbatning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Adabiyotlarda bunday bitimlar «navbatni buzuvchi bitimlar» deb ham yuritiladi. Xususan, qarzdor to‘lovga qobiliyatsizlik arafasida (alomatlari mavjud bo‘lgan holda) bitim tuzib, ayrim kreditor-

lar talabini garov bilan ta’minlasa, ushbu harakatlar ushbu kreditorga ustunlik beradi, natijada talablarni qondirish navbati o‘zgaradi. Shuningdek, qarzdor bir kreditor oldida majburiyatini bajarib, to‘lov qilib yuborishi natijasida boshqa kreditorning talabi qanoatlantirilmasdan qolsa, bu afzallik yaratish deyiladi. Bu holatda ham talablarni qondirish navbati buziladi.

Bitim boshqa kreditorlar oldida belgilangan muddatda bajarilmagan majburiyatlar mavjud bo‘lganda bitim tuzilgan paytda bajarish muddati kelmagan ba’zi kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga olib kelgan bo‘lsa yoki olib kelishi mumkin bo‘lsa. Agar qarzdor ayrim kreditorlar oldidagi qarzlarini o‘z vaqtida to‘lamagan bo‘lsa, shu bilan birga, to‘lov muddati kelmagan boshqa kreditorlar talablarini oldindan qondirsa, bu bitim afzallik asosida tuzilgan bitim sifatida boshqalar manfaatiga zid bo‘ladi va bunday bitim «afzallik yaratuvchi bitim» hisoblanadi. Xorijiy davlatlarda afzallik asosida tuzilgan bitimlar va ushbu holatni amalga oshirishga qaratilgan xatti-harakatlar «Undue preference» yoki «early repayment preference» deb ataladi. Bitimda afzallik borligi yoki bunga ehtimol mavjudligi yetarli bo‘lsa va bu afzallik qonun bilan belgilangan navbat va hisob-kitob tartibini buzsa, bitim sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Chunki qarzdorning to‘lovga qobiliyatsiz bo‘la turib bajarish muddati kelmagan majburiyatlarni oldindan bajarishi navbat va tenglik tamoyilini buzadi. Shu sababli mazkur norma to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonidagi tenglik kafolatini ta’minlovchi mezon hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi qarzdorning oldindan bajarilgan yoki «tanish kreditorlar»ga qilingan to‘lovlarini adolatli qayta taqsimlash, barcha kreditorlar talablarini bir xil navbatda qanoatlantirishni ta’minlash, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonidagi moliyaviy manfaatlarni sog‘lom boshqarishdir.

Sharhlanayotgan norma qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik arafasida «yaqin» kreditorlari yoki «asosiy sherik»lari manfaatlariga ustunlik berib, boshqa kreditorlarning talablarini o‘z vaqtida qondira olmasligi holatining oldini olishga xizmat qiladi. Bunday holatda Qonun faqat to‘lov faktini emas, balki uning vaqti va iqtisodiy oqibatini ham baholaydi. Bunda majburiyat kimning foydasiga bajarilganligi (to‘lov to‘langani) bilan chegaralanib qolmasdan, qachon bajarilganligi (qachon to‘langani) ham huquqiy ahamiyatga ega. Bitim ushbu moddaga asosan haqiqiy emas deb topilganda, bitim orqali berilgan mablag‘ yoki mulk qaytariladi, tegishli kreditorning talabi qaytadan umumiy navbatga kiritiladi, qarzdor va «afzal kreditor»ning munosabati qayta baholanadi.

66-modda. Qarzdorning huquqiy vorislari bilan bog‘liq bitimlarning haqiqiy emasligi

Agar bitimlar qarzdor tomonidan merosxo‘rlari va nizolashilayotgan bitimdan manfaatdor bo‘lgan boshqa huquqiy vorislari foydasiga tuzilgan bo‘lsa, ushbu bitimlar haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada qarzdor tomonidan o‘zining merosxo‘rlari va/yoki huquqiy vorislari foydasiga tuzilgan bitimlarning haqiqiy emas deb topilishi belgilangan.

Umumiy qoidaga koʻra, shartnoma boʻyicha huquqlar va majburiyatlar bevosita shartnoma taraflari uchun vujudga keladi. Biroq qonunchilikda boshqa shaxs foydasiga ham bitim tuzish mumkin. Shartnomaning taraflari shartnomada qarzdorning majburiyati kreditorga emas, balki uchinchi shaxsga nisbatan ijro etilishini belgilab qoʻyishlari mumkin. Xususan, FKning 362-moddasida bunday bitimlarga taraflar qarzdor ijroni kreditorga emas, balki shartnomada koʻrsatilgan yoki koʻrsatilmagan, qarzdordan majburiyatni oʻz foydasiga bajarishni talab qilish huquqiga ega boʻlgan uchinchi shaxsga bajarishi majbur deb belgilab qoʻygan shartnoma uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan shartnoma deyiladi deb ta'rif berilgan. Bunday bitimlar kreditorlar manfaatiga zarar yetkazishi mumkin boʻlgani uchun ham haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Agar qarzdor jismoniy shaxs bankrotlikka olib keluvchi yoki oʻzi bankrot boʻlish arafasida turgan vaqtida merosxoʻrlariga (masalan: farzandi, rafiqasi, aka-ukasi va hokazo) yoki yuridik shaxs bitimdan manfaatdor boʻlgan huquqiy vorislariga (masalan: oʻzi ta'sis qilgan boshqa yuridik shaxs, qarzdor bilan bogʻliq tashkilotlar, affillangan shaxslar) mol-mulk, aktivlar yoki boshqa huquqlarni berish (bitim tuzish) orqali harakat qilgan boʻlsa, bu bitimlar shubhali hisoblanishi mumkin va sud tomonidan haqiqiy emas deb topish uchun asos boʻladi. Bu holatda bitim bir tomonlama ham boʻlishi mumkin. Sudda qarzdor kontragentining manfaati mavjudligini va unga nisbatan qarzdorning bitimiga e'tiroz bildirish toʻgʻrisida ariza beriladigan shaxs uchun universal vorislikning paydo boʻlishini isbotlash lozim.

67-modda. Bitimning haqiqiy emasligi oqibatlari

Qarzdor tuzgan bitim sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan va ushbu bitimning haqiqiy emasligi oqibatlari qoʻllangan taqdirda, taraf bitim boʻyicha olingan barcha narsalarni boshqa tarafga qaytarishi shart, ularni natura shaklida qaytarishning imkoni boʻlmagan (shu jumladan, olingan narsalar mulkdan foydalanish, ishlarni bajarish yoki xizmatlarni koʻrsatish shaklida boʻlsa) taqdirda, agar qonunda bitim haqiqiy emasligining boshqa oqibatlari nazarda tutilmagan boʻlsa, ular qiymatining oʻrnini pul bilan qoplashi kerak.

Bunda qarzdor bilan bitim tuzgan taraf ushbu Qonunga muvofiq qanoatlantirilishi lozim boʻlgan talablarini qarzdorga nisbatan taqdim etishga haqli.

Agar ushbu moddada nazarda tutilgan hollarda mol-mulkning yoʻqotilishi, shikastlantirilishi yoxud uchinchi shaxslar tomonidan asossiz ravishda olinishi munosabati bilan mol-mulkni natura shaklida qaytarish mumkin boʻlmasa, talab qilingan mol-mulkning dastlabki xaridori qarzdor oldida yoʻqotilgan zararning oʻrnini qoplash uchun javobgar boʻladi.

Mol-mulk qiymatini qaytarish mumkin boʻlmagan taqdirda, qarzdorning mol-mulkini boshqa shaxsga berish toʻgʻrisida qaror qabul qilgan shaxs ushbu Qonunda belgilangan tartibda subsidiar tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan bitimning huquqiy oqibatlari belgilangan bo‘lib, bitimning haqiqiy emasligi oqibatini qo‘llash imkoni bo‘lmaganda, uni tuzgan yoki tuzishda ishtirok etgan shaxslarning javobgarligi masalalari belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan bitimning universal huquqiy oqibatlari belgilangan. Bitimlarning haqiqiy emasligi ularning hech qanday ahamiyatga ega emasligi sifatida tushuniladi. Uni ijro etish qonun bilan taqiqlangan. Bunday bitimni bajarish uchun sodir etilgan harakatlar bitim taraflari uchun ham, uchinchi shaxslarga nisbatan ham huquq va majburiyatlarni yuzaga keltirmaydi.

Bitimni haqiqiy emas deb topishning umumiy va maxsus asoslari bo‘lganidek, bitimning haqiqiy emaslik oqibatlarini qo‘llashning umumiy va maxsus oqibatlari farqlanadi. FKning 114-moddasida belgilangan umumiy qoidaga ko‘ra, haqiqiy bo‘lmagan bitim uning haqiqiy emasligi bilan bog‘liq bo‘lgan oqibatlardan tashqari boshqa yuridik oqibatlarga olib kelmaydi va u tuzilgan paytidan boshlab haqiqiy emasdir. Bitim haqiqiy emasligining umumiy oqibatlarini FK 114-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq ikki tomonlama restitutsiya, ya’ni taraflarni ular bitim tuzishdan oldingi holatga keltirishni tashkil qiladi. Unga ko‘ra, bitim haqiqiy bo‘lmaganida taraflarning har biri boshqasiga bitim bo‘yicha olgan hamma narsani qaytarib berishi shart.

Mulkni asl holida qaytarishda uning holati inobatga olinishi lozim. Masalan, mulk shikastlangan bo‘lsa, normal amortizatsiya hisobga olingan holda uning yomonlashishi qoplanishi lozim. Agar mulkdan foydalangan shaxs mulkka uning qiymati oshishiga olib keluvchi o‘zgartirishlar kiritgan bo‘lsa, tegishli summa mulk qaytarilayotgan taraf tomonidan berilishi lozim. Shuni inobatga olish lozimki, mol-mulkning yaxshilanishi uchun qilingan xarajatlarning kompensatsiyasi yuzasidan talab, agar sud tomonidan bitimning haqiqiy emasligi oqibatlari qo‘llanilayotganda kompensatsiya bo‘yicha qarshi talab bildirilmagan bo‘lsa, u nizoli xarakterga ega bo‘lganligi sababli, sud tomonidan alohida ish doirasida ko‘rib chiqiladi.

Olingan narsani aslicha (mol-mulkdan foydalanish, bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmat) qaytarib berish mumkin bo‘lmaganida esa, agar bitim haqiqiy emasligining boshqa oqibatlari qonunda nazarda tutilgan bo‘lmasa, uning qiymati pul bilan to‘lanishi shart. Bunda olingan narsaning o‘rnini to‘ldirish miqdori o‘xshash vaziyatlarda odatda o‘xshash mol-mulkdan foydalanish (ishlar bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish) uchun olinadigan baho bo‘yicha aniqlanadi.

«Bitimni haqiqiy emas deb topish» va «bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash» ikkita mustaqil talab hisoblanadi. Bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash to‘g‘risidagi talab nizoli bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi talab bilan yoki o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi talab bilan birga yoxud alohida da’vo ko‘rinishida bildirilishi mumkin. Bunda nizoli bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini ushbu bitimni haqiqiy emas deb topish haqidagi sudning hal qiluv qarori mavjud bo‘lgan taqdirdagina qo‘llash mumkin. Nizoli bitim sudning qarori bilan haqiqiy emas deb topilmagan taqdirda, uning haqiqiy emaslik oqibatini qo‘llash mumkin emas.

O‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimni haqiqiy emasligi oqibatlari da’vogarning o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi talabi qanoatlantirilganidan keyin ham, bunday qaror mavjud bo‘lmaganda ham qo‘llanilishi mumkin.

Yuqorida ta’kidlanganidek, FKning 114-moddasida belgilangan restitutsiya ko‘rinishidagi bitimning haqiqiy emasligi oqibatlaridan farqli maxsus oqibatlar ham mavjud. Masalan, FK 123-moddasining ikkinchi qismida belgilangan oqibatlar ikki tomonlama restitutsiya qoidalaridan farq qiladi. Agar bitim FKning 123-moddasiga (Aldash, zo‘rlik, qo‘rqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi yoki og‘ir holatlar yuz berishi ta’sirida tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi) asosan haqiqiy emas deb topilsa, ikkinchi taraf jabrlanuvchiga uning bitim bo‘yicha bajargan hamma narsasini qaytarib berishi kerak (asl holicha yoki pul ko‘rinishida), jabrlanuvchi tomonidan bitim bo‘yicha ikkinchi tarafdan olingan mol-mulk (yoki uning qiymati) esa davlat daromadiga o‘tkaziladi.

Manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, ushbu bitimni tuzish natijasida olingan foyda bitim bo‘yicha olingan hamma narsani qaytarib berish to‘g‘risida talab qo‘yilmagan holda sud tartibida davlat daromadiga o‘tkaziladi. Bunday bitimni ijro etish bilan bog‘liq xarajatlarning o‘rni manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ygan shaxsning hisobidan qoplanadi.

Korrupsiyaga yo‘l qo‘yilgan holda tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, bunday bitimni tuzish natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararning o‘rni aybdor shaxslar tomonidan sud tartibida qoplanadi.

2. Mazkur normaning ikkinchi qismida to‘lovga qobiliyatsiz deb topilgan qarzdorga nisbatan u bilan bitim tuzgan tarafning talab qo‘yish huquqi belgilangan. Ya’ni agar qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi ma’lum bo‘lsa, u bilan shartnoma tuzgan shaxs o‘z huquqini yo‘qotmaydi. Bunda bitimning tarafi o‘z talabini dastlabki da’voga nisbatan qarshi da’vo shaklida rasmiylashtirishi yoki umumiy tartibda sudga IPK va FPKda belgilangan qoidalarga rioya qilgan holda sudga da’vo arizasi bilan murojaat etishi mumkin.

Bunda inobatga olish lozimki, Qonun 12-moddasining birinchi qismiga muvofiq, to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari qo‘llanilayotganda barcha kreditorlarning manfaatlarini kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi himoya qiladi va sud qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani ish yuritishga qabul qilib olgan kundan e’tiboran kreditorlar qarzdorga o‘z talablarini yakka tartibda qanoatlantirish maqsadida murojaat etishga haqli emas, bundan mulk huquqini e’tirof etish, ma’naviy ziyonni kompensatsiya qilish, mol-mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olish, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish, bitimlarni haqiqiy emas deb topish va ularning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash, huquqiy ta’sir choralari qo‘llash to‘g‘risidagi talablar, shuningdek, joriy to‘lovlar bo‘yicha talablar mustasno.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida haqiqiy bo‘lmagan bitim asosida qarzdordan olingan mol-mulkni qaytarish imkoniyati mol-mulkning yo‘qotilishi, shikastlanishi yoxud boshqa shaxslar tomonidan asossiz ravishda olinishi munosabati bilan mol-mulkni qarzdorga aslicha qaytarish imkoniyati yo‘qotilgan holatni tartibga solishga

qaratilgan. Mol-mulkni olib ketgan shaxs asossiz olganini bilgan (yoki bilishi lozim bo‘lgan) bo‘lsa, unga javobgarlik yuklanadi. Bunday holatda mol-mulkni qarzdordan olgan xaridorda mol-mulkning qiymatidan tashqari, agar qarzdorga zarar yetkazilgan bo‘lsa, zararning o‘rnini qoplash majburiyati ham vujudga keladi. FK 14-moddasining ikkinchi qismiga ko‘ra, zarar deganda huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo‘lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo‘qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek, bu shaxs o‘z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo‘lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi.

Bunday me’yorlar o‘rnatilishidan ko‘zlangan maqsad shaxs tomonidan qonunga zid ravishda begonalashtirilgan aktivlarning qaytarilmasligi xavfini kamaytirish va kreditorlar manfaatlarini buzishning oldini olishdir.

4. Odatda, bitim haqiqiy bo‘lmaganida taraflarning har biri boshqasiga bitim bo‘yicha olgan hamma narsasini qaytarib berishi shart. Agar haqiqiy bo‘lmagan bitim asosida qarzdordan mol-mulkini olgan shaxs ushbu mol-mulkni boshqa shaxsga begonalashtirganligi (sotganligi, hadya qilganligi va hokazo) oqibatida qarzdorning mol-mulkini yoki uning qiymatini qaytarish imkoniyati bo‘lmagan hollarda ushbu shaxs subsidiar tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin.

Bunda shaxs deganda qarzdor bilan haqiqiy bo‘lmagan bitimni tuzgan yuridik shaxs uchun majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ega bo‘lgan muassis (ishtirokchi) sifatidagi shaxsning yoki yuridik shaxs mol-mulki egasining yoxud qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxs tushunilishi lozim. Ushbu shaxsning subsidiar javobgarligi Qonunning 7-bobida (To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda qarzdor rahbarining va boshqa shaxslarning javobgarligi) belgilangan tartibda hal etiladi.

68-modda. Bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida ariza berish vakolatiga ega bo‘lgan shaxslar

Qarzdor tuzgan bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi da’vo arizasi sudga qarzdorning nomidan sud boshqaruvchisi tomonidan o‘z tashabbusi bilan yoki kreditorlar yig‘ilishining yoxud kreditorlar qo‘mitasining, shuningdek, talablari kreditorning reyestriga kiritilgan bir yoki bir necha kreditorlarning qaroriga ko‘ra berilishi mumkin.

Bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi talab bo‘yicha da’vo muddati sud boshqaruvchisi ushbu Qonunda nazarda tutilgan bitimni haqiqiy emas deb topish uchun asoslar mavjudligini bilgan yoki bilishi shart bo‘lgan kundan e’tiboran hisoblab chiqariladi.

Sharhlanayotgan moddada qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida ariza berish vakolatiga ega bo‘lgan subyektlar doirasi hamda sud boshqaruvchisining bunday talab bilan murojaat qilish borasida da’vo muddati hisoblanishi tartibi belgilangan.

1. FKning 113-moddasiga koʻra, bitimni haqiqiy emas deb topish toʻgʻrisidagi talabni FKda koʻrsatilgan shaxslar qoʻyishlari mumkin. Sud boshqaruvchisi toʻlovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini oʻtkazayotganda qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil qilishi, shuningdek, qarzdorning va kreditorlarning manfaatlarini koʻzlab oqilona ish yuritishi shart. Mazkur majburiyatlarini amalga oshirish, oʻz navbatida, qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlarning qonuniyligiga baho berishni ham taqozo etadi. Shu bois Qonun bilan sud boshqaruvchisiga qarzdor tomonidan toʻlovga qobiliyatsizlik toʻgʻrisida ish qoʻzgʻatilguniga yoki ish qoʻzgʻatilib, tashqi boshqaruv yoxud sud sanatsiyasi tartib-taomillari joriy etilguniga qadar tuzilgan har qanday bitimni qonunchilikda nazarda tutilgan asoslar boʻyicha haqiqiy emas deb topish toʻgʻrisidagi da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilish huquqi berilgan. Bunday bitimlar toʻlovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari joriy etilgandan keyin ham nizolashilishi mumkin. Shuni inobatga olish lozimki, sud boshqaruvchisining bitimni haqiqiy emas deb topish toʻgʻrisidagi talab bilan sudga murojaat qilishi uning oʻziga tegishli boʻlgan huquq boʻlib, ushbu huquqni amalga oshirish uchun kreditorlar yigʻilishining qarori talab etilmaydi. Hatto kreditorlar yigʻilishida taqdim etilgan bitimni haqiqiy emas deb topish toʻgʻrisida da'vo arizasini kiritish masalasi boʻyicha ijobiy qaror qabul qilinmasa ham, sud boshqaruvchisi da'vo arizasini sudga taqdim etishga ham haqli.

«Davlat boji toʻgʻrisida»gi Qonunning 19-moddasiga koʻra, sud boshqaruvchisi toʻlovga qobiliyatsizlik toʻgʻrisidagi ish jarayonida oʻz huquq va majburiyatlarini amalga oshirishi uchun da'vo arizalar hamda boshqa arizalar bilan davlat bojini toʻlamasdan sudga murojaat qiladi. Shuningdek, mazkur mazmundagi norma Qonunning 23-moddasida ham mavjud.

Qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish toʻgʻrisidagi da'vo arizalari toʻlovga qobiliyatsizlik toʻgʻrisidagi ish doirasidan tashqarida, protsessual qonunchilikda (IPK va FPK) belgilangan ishlarning taalluqliligi va sudlovga tegishliligi toʻgʻrisidagi umumiy qoidalarga rioya etilgan holda koʻrib chiqiladi. IPK 149-moddasi ikkinchi qismining 7-bandiga muvofiq, bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini qoʻllash haqidagi talab bildirilganda da'vo arizasida har bir tarafga nisbatan aynan qaysi oqibatlar qoʻllanilishi koʻrsatilishi lozim. Agar bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini faqat da'vogarga nisbatan qoʻllash soʻralgan boʻlsa, FK 114-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq sud oʻz tashabbusi bilan bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini boshqa tarafga nisbatan ham qoʻllashi lozim.

Bankrotlikka oid ish yurituvi jarayonida qarzdorga nisbatan bajariladigan barcha harakatlar kreditorlar nomidan kreditorlar yigʻilishi yoki kreditorlar qoʻmitasi tomonidan amalga oshiriladi. Shu jumladan, sud boshqaruvchisi tomonidan bitimni haqiqiy emas deb topish toʻgʻrisidagi talab bilan murojaat qilish uchun kreditorlar yigʻilishining yoxud kreditorlar qoʻmitasining, shuningdek, talablari kreditorning reyestriga kiritilgan bir yoki bir necha kreditorlarning qarori asos sifatida koʻrsatilgan. Biroq Qonunda bitimni haqiqiy emas deb topish toʻgʻrisidagi talab bilan sud boshqaruvchisiga oʻz tashabbusi bilan ham sudga da'vo arizasi kiritish huquqi berilgan.

2. Da’vo muddati – da’vo talabi qondirilishi mumkin bo‘lgan vaqt davri, ya’ni muddat turi. FKning 149–150-moddalariga asosan, umumiy da’vo muddati uch yilni tashkil etadi va ushbu muddat shaxs o‘zining buzilgan huquqini da’vo qo‘zg‘atish yo‘li bilan himoya qilishi mumkin bo‘lgan muddatdir. FKning 154-moddasiga ko‘ra, da’vo muddati shaxs o‘zining huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan kundan o‘ta boshlaydi. Majburiyatdagi shaxslarning o‘zgarishi (FKning 155-moddasi) da’vo muddati va uni hisoblash tartibining o‘zgarishiga olib kelmaydi. Masalan, tugatilayotgan yuridik shaxsning tugatish komissiyasi (tugatish boshqaruvchisi) tomonidan bildirilgan talablar bo‘yicha da’vo muddati tugatish komissiyasi (tugatish boshqaruvchisi) tayinlangan kundan emas, balki tugatilayotgan yuridik shaxsning o‘z huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan kundan o‘ta boshlaydi. Yangi tayinlangan (saylangan) yuridik shaxs rahbari tomonidan da’vo muddatini o‘ta boshlashi u tayinlangan (saylangan) kundan boshlab hisoblanishi lozimligi haqida vaj bildirilganda ham xuddi shu qoida tatbiq etiladi.

FKda da’vo muddatining o‘ta boshlashi to‘g‘risidagi qoidadan istisnolar boshqa qonunlar bilan ham belgilanishi nazarda tutilgan. Mazkur Qonunda belgilangan da’vo muddatining o‘ta boshlashi aynan FKda nazarda tutilgan istisnolardan biri hisoblanadi. Xususan, odatdagi fuqarolik huquqiy munosabatida muayyan ijro muddatiga ega bo‘lgan majburiyatlar bo‘yicha da’vo muddati ijro muddati tamom bo‘lganidan keyin o‘ta boshlaydi. Biroq bankrotlik jarayonida bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi ish bo‘yicha da’vo muddati shaxs (qarzdor) o‘zining huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan kundan emas, balki sud boshqaruvchisi bitimni haqiqiy emas deb topish uchun asoslar mavjudligini bilgan yoki bilishi shart bo‘lgan kundan e’tiboran hisoblanishi belgilangan.

Qonun 109-moddasi birinchi qismining uchinchi xatboshisida qarzdorning boshqaruv organlari va (yoki) to‘lovga qobiliyatsizlikning ilgarigi tartib-taomilida tayinlangan sud boshqaruvchisi tashqi boshqaruvchi tayinlangan paytdan e’tiboran uch ish kuni ichida qarzdorning buxgalteriya hujjatlari va boshqa hujjatlari, muhrlari va shtamplari (muhrlar va shtamplar mavjud bo‘lgan taqdirda), moddiy va boshqa qimmatliklari tashqi boshqaruvchiga topshirilishini ta’minlashi shartligi belgilangan. Ushbu normadan kelib chiqib sud boshqaruvchisi bitim yuzasidan nizolashish huquqi mavjudligini bilishi lozim bo‘lgan vaqt qarzdorning hujjatlarini qabul qilish va topshirish dalolatnomasida qayd etilgan qarzdorning buxgalteriya hisoboti va boshqa hujjatlarini topshirish vaqti bilan belgilanishi mumkin. Biroq shuni inobatga olish kerakki, buzilgan huquqni himoya qilish talabi, da’vo muddatining o‘tganligidan qat’i nazar, sudda ko‘rib chiqish uchun qabul qilinadi.

7-BOB. TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK TO‘G‘RISIDAGI ISHDA QARZDOR RAHBARINING VA BOSHQA SHAXSLARNING JAVOBGARLIGI

69-modda. Qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxs

Agar ushbu Qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, quyidagi holatlar qarzdorning ishlarini boshqarish deb e’tirof etiladi:

ijro etilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berish huquqiga yoki qarzdorning xatti-harakatlarini boshqacha tarzda belgilash, shu jumladan, bitimlarni bajarish va ularning shartlarini belgilash imkoniyatiga to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari yuzaga kelguniga qadar uch yil mobaynida ega bo‘lish;

to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari paydo bo‘lgan paytdan boshlab va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza sud tomonidan qabul qilingunigacha bo‘lgan davrda ijro etilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berish yoki qarzdorning xatti-harakatlarini boshqacha tarzda belgilash, shu jumladan, bitimlarini bajarish va ularning shartlarini belgilash huquqiga ega bo‘lish.

Qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxslar quyidagilardan iborat:

qarzdorning ijroiya organi rahbari va a’zolari, tugatish komissiyasi yoki qarzdorning tugatuvchisi;

mustaqil ravishda yoki manfaatdor shaxslar bilan birgalikda aksiyadorlik jamiyati aksiyalarining ellik va undan ortiq foiziga ega bo‘lgan shaxslar;

mas’uliyati cheklangan jamiyat yoki boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar ustav fondining (ustav kapitalining) yarmidan ko‘pini tasarruf etish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar;

rahbarni tayinlash (saylash) huquqiga ega bo‘lgan shaxslar.

Sharhlanayotgan moddada qarzdorning ishlarini boshqarish deb e’tirof etiladigan harakatlar va qarzdor yuridik shaxsning ishlarini boshqaruvchi shaxslar ro‘yxati keltirilgan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida «qarzdorning ishlarini boshqarish» tushunchasining mazmuni qayd etilgan. Qarzdor yuridik shaxsning ishlarini ma’lum bir davr ichida va tegishli vakolatga ega bo‘lgan holda boshqargan shaxslarni, agar Qonunning 70-moddasida ko‘rsatilgan shartlarga mos tushsa, subsidiar javobgarlikka tortish mumkin.

1.1. «Qarzdorning ishlarini boshqarish» deganda qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari yuzaga kelguniga qadar uch yil davomida majburiy ko‘rsatmalar berish vakolatiga (huquqiga) ega bo‘lish tushuniladi. «Majburiy ko‘rsatmalar berish» tushunchasi qarzdorning xatti-harakatlarini boshqacha tarzda belgilash, shu jumladan, bitimlarni tuzish, bajarish va ularning shartlarini aniqlash imkoniyatini ham o‘z ichiga oladi. Chunki Qonunning 70-moddasi birinchi qismida kreditorlar talablarining to‘liq qanoatlantiril-

masligi sababli subsidiar javobgarlik faqat majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ega bo‘lgan shaxsning g‘ayriqonuniy harakatlari natijasida yuzaga kelishi qayd etilgan.

Yuridik shaxsning ijroiya organi rahbari va a’zolari, tugatish komissiyasi yoki qarzdorning tugatuvchisi qarzdor nomidan harakat qila olishi sababli yuridik shaxsga majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ega. Masalan, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 79-moddasi oltinchi qismiga muvofiq, jamiyatning direktori (boshqaruv raisi) jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan, uning manfaatlarini ifodalaydi, jamiyat nomidan bitimlar tuzadi, jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlaydi, shtatlarni tasdiqlaydi, jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi. «Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 42-moddasi to‘rtinchi qismiga ko‘ra, jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan, uning manfaatlarini ifodalaydi va bitimlar tuzadi. FKning 54-moddasi uchinchi qismiga ko‘ra, tugatuvchi tayinlangan paytdan e’tiboran yuridik shaxs ishlarini boshqarish bo‘yicha barcha vakolatlar tugatuvchiga o‘tadi hamda u tugatilayotgan yuridik shaxs nomidan sudda ishtirok etadi. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-avgustdagi 704-son qarori bilan tasdiqlangan «Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to‘xtatish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomning 11-bandida tugatuvchi ishonchnomasiz tijorat tashkiloti nomidan vakillik qiladi, tijorat tashkilotining moliyaviy, hisob-kitob va boshqa hujjatlarini imzolaydi hamda tijorat tashkilotining barcha mansabdor shaxslari va xodimlari uchun bajarilishi majburiy bo‘lgan buyruqlar, farmoyishlar va boshqa hujjatlar chiqaradi deb qayd etilgan.

FKning 48-moddasi beshinchi qismiga muvofiq, muassis (ishtirokchi) yoki yuridik shaxs mol-mulkining mulkdori faqat shu yuridik shaxsning ta’sis hujjatlarida bunday huquq nazarda tutilgan taqdirdagina majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ega bo‘ladi. Demak, muassis (ishtirokchi) yoki yuridik shaxs mol-mulkining mulkdori majburiy ko‘rsatmalarni faqat ta’sis hujjatlarida bevosita nazarda tutilgan hollardagina berishi mumkin.

Qarzdorda vaqtinchalik to‘lovga qobiliyatsizlik yoki doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari vujudga kelguniga qadar shaxs qarzdorni uch yil davomida boshqarib kelganligi muhim ahamiyatga ega, uch yildan kam boshqarganlik subsidiar javobgarlikni istisno etadi.

1.2. To‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari paydo bo‘lgan paytdan boshlab va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza sud tomonidan qabul qilingunigacha bo‘lgan davrda ijro etilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berish ham qarzdorning ishlarini boshqarish hisoblanadi. Ushbu vaziyatda qarzdorda vaqtinchalik to‘lovga qobiliyatsizlik yoki doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari vujudga kelgan paytdan to to‘lovga qobiliyatsizlik ishini qo‘zg‘atish haqidagi ariza sud tomonidan qabul qilingungacha qarzdorni boshqargan shaxsni subsidiar javobgarlikka tortish mumkinligi nazarda tutilmoqda.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida qarzdor yuridik shaxsning ishlarini boshqaruvchi shaxslar ro‘yxati keltirilgan.

2.1. Qarzdorning ijroiya organi rahbari va a’zolari, tugatish komissiyasi yoki qarzdorning tugatuvchisi. Har qanday tijoratchi yuridik shaxsning, shuningdek, matlubot kooperativi yoki ijtimoiy fond shaklidagi notijorat tashkilotlarning ijroiya organi rahbari va a’zolari, shuningdek, ixtiyoriy tugatish va majburiy tugatish bosqichida bo‘lgan qarzdor korxonaning tugatish komissiyasi yoki tugatuvchisi qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxslar sifatida tan olinadi.

2.2. Mustaqil ravishda yoki manfaatdor shaxslar bilan birgalikda aksiyadorlik jamiyati aksiyalarining ellik va undan ortiq foiziga ega bo‘lgan shaxslar. «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 85-moddasiga muvofiq, manfaatdor shaxslar bilan birgalikda aksiyadorlik jamiyati aksiyalarining ellik va undan ortiq foiziga ega bo‘lganlik aniqlanadi.

2.3. Mas’uliyati cheklangan jamiyat yoki boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar ustav fondining (ustav kapitalining) yarmidan ko‘p ulushiga ega bo‘lgan shaxslardir. «Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 15-moddasiga ko‘ra, jamiyat ustav fondi (ustav kapitali) jamiyatning ustavida belgilanadi va uning ishtirokchilari ulushlarining nominal qiymatidan iborat bo‘ladi. Boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar – oilaviy korxona, xo‘jalik shirkati, fermer xo‘jaligi va boshqalarning ustav fondidagi (ustav kapitali) ulushlar miqdori tegishli qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadi.

2.4. Rahbarni tayinlash (saylash) huquqiga ega bo‘lgan shaxslar. «Rahbar» deganda qarzdorning ijroiya organi rahbari nazarda tutilmoqda. Odatda, qarzdor korxonaning ta’sis hujjatlarida rahbarni tayinlash (saylash) tartibi va shartlari qayd etiladi. Mazkur rahbarni tayinlash (saylash) tartibi va shartlari «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 79-moddasi va «Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 42-moddasida va boshqa qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan.

«Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 79-moddasi yettinchi qismiga ko‘ra, jamiyatning ijroiya organlarini tuzish hamda ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, agar jamiyat ustavida ushbu masalalarni hal etish jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilmagan bo‘lsa, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi. Jamiyat ustaviga muvofiq yoki aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining yoxud jamiyat kuzatuv kengashining qaroriga ko‘ra jamiyat direktorini yoki boshqaruv a’zolarini tayinlash, odatda, chet ellik menejerlar ishtirok etishi mumkin bo‘lgan tanlov bo‘yicha saralash asosida amalga oshiriladi.

«Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 42-moddasi birinchi qismiga asosan, jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi (direktor) jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishi tomonidan jamiyatning ustavida belgilangan muddatga saylanadi. Jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi uning ishtirokchilari bo‘lmaganlar orasidan ham saylanishi mumkin.

70-modda. Kreditorlarning talablari to‘liq qanoatlantirilmaganligi sababli subsidiar javobgarlik

Agar yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi shu yuridik shaxs uchun majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ega bo‘lgan muassis (ishtirokchi) sifatidagi shaxsning yoki yuridik shaxs mol-mulki egasining yoxud qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxsning g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli yuzaga kelgan bo‘lsa, yuridik shaxsning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda, bunday shaxs zimmasiga uning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin.

Boshqa holatlar isbotlanmaguniga qadar sud hujjati bilan belgilangan quyidagi holatlar g‘ayriqonuniy harakatlar tufayli kreditorlar talablarini to‘liq qanoatlantirishni imkonsiz qilib qo‘ygan deb hisoblanadi:

agar qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxs foydasiga yoxud ushbu shaxs tomonidan qarzdorning bir yoki bir nechta bitimlarini (bunday bitimlar ushbu shaxsning ko‘rsatmasiga ko‘ra tuzilgan bo‘lsa), shu jumladan, ushbu Qonunning 6-bobida nazarda tutilgan bitimlarni tuzish natijasida kreditorlarning mulkiy huquqlariga jiddiy zarar yetkazilgan bo‘lsa;

soxta to‘lovga qobiliyatsizlik, to‘lovga qobiliyatsizlikni yashirish yoki qarzdorni qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelish alomatlari benefitsiarlar va affillangan shaxslarning birgalikdagi xatti-harakatlari bilan aniqlanganligi to‘g‘risida sudning qonuniy kuchga kirgan qarori mavjud bo‘lsa;

qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxslarni qonunchilik hujjatlarini buzganligi uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risida sud hujjati qabul qilinganligi munosabati bilan yuzaga kelgan qarzdorlik kreditorlar talablari reyestriga kiritilgan talablar umumiy miqdorining yetmish foizidan oshgan bo‘lsa.

Agar qarzdorning ishlarini boshqaruvchi bir nechta shaxsning g‘ayriqonuniy harakatlari kreditorlarning talablarini to‘liq qanoatlantirishni imkonsiz qilib qo‘ysa, bunday shaxslar solidar tartibda subsidiar javobgar bo‘ladi.

Agar subsidiar javobgarlikka tortilgan shaxs qarzdor faoliyatiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatganligi isbotlanmagan bo‘lsa, sud shaxsni subsidiar javobgarlikdan ozod qilishi yoki javobgarlik miqdorini kamaytirishi mumkin.

Qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxsning subsidiar javobgarligi miqdori kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan talablar summasi bilan tugatish massasi o‘rtasidagi farqqa teng bo‘ladi.

Agar qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxsning subsidiar javobgarligi miqdori bunday shaxsning aybi bilan kreditorlarning mulkiy huquqlariga yetkazilgan zarar miqdoridan kam ekanligi isbotlangan bo‘lsa, ushbu boshqaruvchi shaxs hisobidan qanoatlantirilishi lozim bo‘lgan talablar miqdori tegishli ravishda kamaytirilishi mumkin.

Agar yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi shu yuridik shaxs uchun majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ega bo‘lgan muassisning (ishtirok-

chining) yoki yuridik shaxs mol-mulki egasining g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli yuzaga kelgan bo‘lsa, ushbu shaxslar qarzdorning kreditorlari oldidagi majburiyatlari qanoatlantirilguniga qadar qarzdor rahbari va (yoki) boshqa yuridik shaxs muassislari (ishtirokchisi) yoki mulkdori sifatida ishtirok etishga haqli emas.

Sharhlanayotgan moddada kreditorlarning talablari to‘liq qanoatlantirilmaganligi sababli subsidiar javobgarlikni qo‘llashning tartibi va asoslari ko‘rsatilgan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida «muassis (ishtirokchi)», «yuridik shaxs mol-mulki egasi» va «qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxs» tushunchalari alohida qayd etilgan bo‘lsa-da, ularni Qonunning 69-moddasi ikkinchi qismida keltirilgan «qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxslar»ga taalluqli deyish mumkin, chunki Qonunda keyingi o‘rinlarda faqat «qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxslar» atamasi qo‘llaniladi, «muassis (ishtirokchi)», «yuridik shaxs mol-mulki egasi» kabi atamalar ishlatilmaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Qonunning 69-moddasi ikkinchi qismida keltirilgan qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxslardan tashqari boshqa shaxslar subsidiar javobgarlikka tortilishi mumkin emas, Qonunning o‘zida (shu jumladan, 69-moddada) istisno holatlar keltirilmagan. Bundan tashqari, Qonunning 73-moddasi ikkinchi qismiga ko‘ra, subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi arizada ko‘rsatilgan shaxs qarzdorning ishlarini boshqaruvchi ekanligi to‘g‘risida yetarli ma’lumot mavjud emasligi aniqlansa, sud subsidiar javobgarlikka tortishni rad etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

13. Sudlarning e’tibori qaratilsinki, Qonunning 38-moddasida ko‘rsatilgan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ro‘yxati tugal hisoblanmaydi. Chunonchi, Qonunga muvofiq quyidagilar ham to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar hisoblanadi:

to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida sudga berilgan ariza asosida subsidiar javobgarlikka tortilayotgan shaxs;

qishloq xo‘jaligi korxonasining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishda – mahalliy davlat hokimiyati organi;

bankning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishda – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi;

sug‘urtalovchining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishda – sug‘urta faoliyatini tartibga solish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi;

qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishda – qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi;

ulush kiritish asosidagi qurilish bo‘yicha quruvchining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishda – qurilish faoliyatini tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organi.

Ushbu normada agar yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi aniqlansa va bu holat qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxslarning g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli yuzaga kelgan bo‘lsa, bunday shaxslarga subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkinligi aytilgan. FK 45-moddasi uchinchi qismiga ko‘ra, qonunga yoki yuridik shaxsning ta’sis hujjatlariga muvofiq yuridik shaxs nomidan ish olib boradigan shaxs o‘zi vakili bo‘lgan yuridik shaxs manfaatlari yo‘lida halol va oqilona ish olib borishi kerak. FK 329-moddasiga ko‘ra, qonunchilik yoki majburiyat shartlariga muvofiq asosiy qarzdor bo‘lgan boshqa shaxsning javobgarligiga qo‘shimcha ravishda javobgar bo‘lgan (subsidiar javobgarlik) shaxsga talablar qo‘yishdan oldin kreditor asosiy qarzdorga talab qo‘yishi kerak. Agar asosiy qarzdor kreditorning talabini qondirishdan bosh tortsa yoki kreditor undan qo‘yilgan talabga oqilona muddatda javob olmagan bo‘lsa, bu talab subsidiar javobgar bo‘lgan shaxsga qo‘yilishi mumkin. Mazkur vaziyatda qarzdor korxonaning o‘zi asosiy qarzdor sifatida e’tirof etilsa, qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxslar qo‘shimcha ravishda javobgar bo‘lishi mumkin.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida «boshqa holatlar isbotlanmaguniga qadar» so‘z birikmasi ishlatiladi va uni subsidiar javobgarlikka tortmaslikning yoki javobgarlikni yengillashtirish asosi sifatida ko‘rsatish mumkin. Bunday asoslarga tashqi omillar (noqulay bozor konyunkturasi, moliyaviy inqiroz, biznes yuritish shartlarining jiddiy o‘zgarishi, avariyalar, tabiiy ofatlar, boshqa hodisalar va shu kabilar) kiradi.

Shuningdek, unda g‘ayriqonuniy harakatlar faqat sudning hujjati bilan o‘z tasdig‘ini topgan bo‘lishiga alohida urg‘u beriladi.

Ushbu normada qarzdorning moliyaviy holatini og‘irlashtiradigan, sud tomonidan o‘z tasdig‘ini topgan g‘ayriqonuniy harakatlar sifatida quyidagi holatlar ko‘rsatilgan.

2.1. Birinchisi, agar qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxs o‘z manfaati uchun yoki o‘z ko‘rsatmalari asosida qarzdor tomonidan bir yoki bir nechta bitimlarni, jumladan, Qonunning 6-bobidagi (Bitimlarning haqiqiy emasligi) bitimlarni tuzishga sababchi bo‘lsa va bu bitimlar kreditorlarning mulkiy huquqlariga jiddiy zarar yetkazgan bo‘lsa, bu holat g‘ayriqonuniy harakat deb hisoblanadi.

2.2. Ikkinchisi, agar soxta to‘lovga qobiliyatsizlik yoki uni yashirish yoki qarzdorni qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelish alomatlari benefitsiarlar va affillangan shaxslarning birgalikdagi xatti-harakatlari bilan aniqlangan bo‘lsa va bu haqida sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bo‘lsa.

2.3. Uchinchisi, agar qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxslar qonunchilikni buzganligi uchun javobgarlikka tortilib, yuzaga kelgan qarzdorlik kreditorlar talablari reyestridagi umumiy talablarning 70 foizidan ortig‘ini tashkil etsa, bu ham g‘ayriqonuniy harakat sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

33. Shaxslarni subsidiar javobgarlikka tortish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

qarzdorning rahbari, tugatish komissiyasi a’zolari yoki tugatuvchi sudga qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza bilan sudga murojaat etishi shart bo‘lib, ular sudga bu haqidagi ariza bilan murojaat etmaganda (Qonunning 10-moddasi);

qarzdor tuzgan bitim sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan va ushbu bitimning haqiqiy emasligi oqibatlari qo‘llangan taqdirda mol-mulk qiymatini qaytarish mumkin bo‘lmaganda (Qonun 67-moddasining to‘rtinchi qismi);

agar yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi shu yuridik shaxs uchun majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ega bo‘lgan muassis (ishtirokchi) sifatidagi shaxsning yoki yuridik shaxs mol-mulki egasining yoxud qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxsning g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli yuzaga kelgan bo‘lsa, yuridik shaxsning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda (FK 48-moddasining uchinchi qismi, Qonun 70-moddasining birinchi qismi);

agar qarzdorning ishlarini boshqaruvchi bir nechta shaxsning g‘ayriqonuniy harakatlari kreditorlarning talablarini to‘liq qanoatlantirishni imkonsiz qilib qo‘ysa (Qonun 70-moddasining uchinchi qismi);

majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslar tomonidan shu ta’minotdan kelib chiqadigan majburiyatlar kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun Qonun 107-moddasining birinchi qismida belgilangan muddatda bajarilmaganligi (Qonun 107-moddasining ikkinchi qismi);

quruvchining mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda, to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelgan quruvchining muassislari (ishtirokchilari), mulkdori va (yoki) rahbarlarining noqonuniy harakatlari (harakatsizligi) (Qonunning 193-moddasi).

3. Ushbu normaga ko‘ra, agar qarzdorning ishini boshqargan bir nechta shaxslar, o‘zining g‘ayriqonuniy harakatlari orqali kreditorlarning talablarini to‘liq qanoatlantirishni imkonsiz qilib qo‘ysa, bu shaxslar solidar tartibda subsidiar javobgarlikka tortiladi. Solidar javobgarlik qarzdorning ishini boshqargan shaxslarning har biriga javobgarlikni to‘liq yoki qisman yuklashni anglatadi, agar qarzdorning mol-mulki yetarli bo‘lmasa, kreditorlar bu shaxslarning har biriga qarzlarni to‘lash talabini qo‘yishi mumkin. FKning 252-moddasiga muvofiq, qarzdorlar sherik bo‘lib majburiyat olganida kreditor hamma qarzdorlardan majburiyatni solidar bajarishni ham, ularning har biridan alohida-alohida bajarishni ham, shu bilan birga, qarzni to‘la yoki uning bir qismini bajarishni ham talab qilishga haqli. Solidar qarzdorlarning biridan to‘liq qanoatlanmagan kreditor ololmagan narsasini boshqa solidar qarzdorlardan talab qilish

huquqiga ega. Solidar qarzdorlar majburiyat to‘la bajarilgunicha burchli bo‘lib qolaveradilar.

4. Ushbu normada shaxsni subsidiar javobgarlikdan ozod qilish yoki uning javobgarlik miqdorini kamaytirish mumkinligi ko‘rsatilgan. Agar subsidiar javobgarlikka tortilgan shaxsning qarzdor faoliyatiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatganligi sudda isbotlanmasa, sud bu shaxsni subsidiar javobgarlikdan ozod qilish yoki uning javobgarlik miqdorini kamaytirish huquqiga ega.

Ushbu vaziyatda «hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatganlik» tushunchasining mazmuniga aniqlik kiritish zarurati bor. Qonunning 69- va 70-moddalarida ko‘rsatilgan subsidiar javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladigan shartlar shaxsga yoki uning harakatlariga (harakatsizligiga) mos tushsa, qarzdor faoliyatiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatgan deb baholanadi. Hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatganlik sudda isbotlanmasa, shaxs subsidiar javobgarlikdan ozod qilinadi.

Bundan tashqari, mazkur moddaning to‘rtinchi qismida subsidiar javobgarlik miqdorini kamaytirish imkoniyati ham nazarda tutilgan bo‘lib, bunday kamaytirish sharhlanayotgan moddaning oltinchi qismida ko‘rsatilgan shartlarga muvofiq amalga oshiriladi (kreditorlarning mulkiy huquqlariga yetkazilgan zarar miqdori subsidiar javobgarlik miqdoridan kam ekanligi sudda isbotlansa).

5. Ushbu normada subsidiar javobgarlikning miqdori nazarda tutilgan bo‘lib, unga ko‘ra, qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxs subsidiar javobgarlikka tortilsa, uning javobgarlik miqdori kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan talablar summasi bilan tugatish massasi o‘rtasidagi farqqa teng bo‘ladi. Bunda kreditorlarning mulkiy huquqlariga yetkazilgan zarar miqdori subsidiar javobgarlik miqdoriga teng kelishi yoki undan ortiq bo‘lishi talab etiladi.

6. Agar qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxsning aybi bilan kreditorlarning mulkiy huquqlariga yetkazilgan zarar miqdori subsidiar javobgarlik miqdoridan kam ekanligi sudda isbotlansa, bunday shaxsning javobgarligi kamaytiriladi. Javobgarlik miqdori zararning haqiqiy miqdoriga mos bo‘lishi kerak.

7. Ushbu normada yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi ushbu yuridik shaxs uchun majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ega bo‘lgan muassis (ishtirokchi) yoki mol-mulk egasining g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli yuzaga kelganligi isbotlanganidan so‘ng yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan boshqa oqibatlar (subsidiar javobgarlikdan tashqari) ko‘rsatilgan. Xususan, sud hujjati bilan g‘ayriqonuniy harakatlar o‘z tasdig‘ini topsa (Qonunning 70-moddasi ikkinchi qismiga ko‘ra), muassis (ishtirokchi) yoki mol-mulk egasi qarzdorning kreditorlari oldidagi majburiyatlari to‘liq qanoatlantirilgunga qadar qarzdorning rahbari yoki boshqa muassislari (ishtirokchilari) yoki mulkdori sifatida ishda qatnasha olmaydilar.

71-modda. Subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar

Qarzdor bankrot deb topilgan va tugatishga doir ish yuritish jarayoni boshlangan kundan e’tiboran to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek, sud boshqaruvchisi o‘z tashabbusiga ko‘ra yoki kreditorlar yig‘ilishining yoxud kreditorlar qo‘mitasining qaroriga muvofiq yoki vakolatli davlat organining ko‘rsatmasiga asosan sudga subsidiar javobgarlikka tortish haqidagi ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Ushbu Qonunning 70-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lganda, tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini tamomlash to‘g‘risida sud ajrimi chiqarilgandan so‘ng qarzdorning xodimlari yoki sobiq xodimlari mol-mulk yetarli emasligi sababli qoplanmay qolgan qarzdorlik masalasi bo‘yicha subsidiar javobgar bo‘ladigan shaxslarni subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida sudga murojaat etishga haqli.

Ushbu Qonunning 70-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida ariza berish huquqiga ega bo‘lgan shaxs subsidiar javobgarlikka tortish uchun tegishli asoslar mavjudligini bilgan yoki bilishi kerak bo‘lgan kundan e’tiboran uch yil ichida, biroq qarzdorni tugatishga doir ish yuritishni tamomlash haqida sud ajrimi chiqarilgandan so‘ng uch yildan kechiktirmay sudga subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarga doir huquqiy asoslar keltirilgan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida kimlar va qachon subsidiar javobgarlikka tortish haqida sudga ariza bilan murojaat qilishi nazarda tutilgan. Unga ko‘ra, qarzdor bankrot deb topilgan va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili boshlangandan so‘nggina ariza taqdim qilish mumkin (Qonunning mazkur moddasi ikkinchi va uchinchi qismlarida, 76-moddasida istisno holatlar keltirilgan). Qonunning 76-moddasiga ko‘ra, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish tamomlangandan keyin talablari to‘liq qanoatlantirilmagan shaxslar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasidan tashqari subsidiar javobgarlikka tortish uchun asoslar mavjud bo‘lganda sudga subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida ariza berish huquqiga ega.

To‘lovga qobiliyatsizlik ishida ishtirok etuvchi shaxslar (kreditorlar, sud boshqaruvchisi va boshqalar) subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat qilish imkoniyatiga ega. Qonunning 72-moddasi birinchi qismiga muvofiq, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida sudga berilgan arizaga asosan subsidiar javobgarlikka tortiladigan shaxs to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritishda ishtirok etuvchi shaxsdir. Demak, o‘zini subsidiar javobgarlikka tortishni so‘rab qarzdor ishlarini boshqaruvchi shaxslar sudga murojaat qilishlari mumkin.

Qonunda kreditorlar yig‘ilishining yoxud kreditorlar qo‘mitasining qarori yoki vakolatli davlat organining ko‘rsatmasi subsidiar javobgarlikka tortish haqidagi arizani

sudga taqdim qilishga asos bo‘luvchi hujjatlar sifatida to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatilmagan, bu hujjatlarsiz ham ishda ishtirok etuvchi shaxslar o‘z tashabbusi bilan sudga murojaat qila oladi.

2. Ushbu normaga ko‘ra, tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini tamomlash to‘g‘risida sud ajrimi chiqarilgandan so‘ng ham qarzdorning xodimlari yoki sobiq xodimlari qoplanmay qolgan qarzdorlik uchun tegishli shaxslarni subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida sudga murojaat etishi mumkin. Bunday imkoniyat qarzdorning xodimlari va sobiq xodimlariga ham berilgan. Shuningdek, mazkur vaziyatda ham sudga murojaat qilish uchun kreditorlar yig‘ilishining yoxud kreditorlar qo‘mitasining qarori yoki vakolatli davlat organining ko‘rsatmasi bo‘lishi talab etilmaydi.

3. Qarzdorning xodimlari va sobiq xodimlari tomonidan subsidiar javobgarlikka tortish bo‘yicha umumiy da’vo muddati mavjud, unga ko‘ra, qarzdorning xodimlari va sobiq xodimlari tegishli shaxslarni subsidiar javobgarlikka tortish uchun tegishli asoslar mavjudligini bilgan yoki bilishi kerak bo‘lgan kundan e’tiboran uch yil ichida, biroq qarzdorni tugatishga doir ish yuritishni tamomlash haqida sud ajrimi chiqarilgandan so‘ng uch yildan kechiktirmay sudga subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

72-modda. Subsidiar javobgarlikka tortiladigan shaxsning huquqlari

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida sudga berilgan arizaga asosan subsidiar javobgarlikka tortiladigan shaxs to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritishda ishtirok etuvchi shaxsdir.

Subsidiar javobgarlikka tortilgan shaxs to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida qarzdorga nisbatan qayta talab qo‘yish (regress) huquqiga ega, uning talablari kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan kreditorlik qarzdorligiga doir barcha boshqa talablar qanoatlantirilganidan so‘ng qanoatlantiriladi.

Sharhlanayotgan moddada subsidiar javobgarlikka tortiladigan shaxsning huquqlari keltirilgan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismiga ko‘ra, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida sudga berilgan arizaga asosan subsidiar javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan shaxs to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxs deb e’tirof etiladi.

2. Subsidiar javobgarlikka tortilgan shaxsning qarzdorga nisbatan regress talablarni qo‘yish huquqi mavjud. Subsidiar javobgarlikka tortilgan shaxs, agar u kreditorlar talablarini qanoatlantirgan bo‘lsa, keyinchalik qarzdorga nisbatan o‘z talabini qayta qo‘yish huquqiga ega. Regress talablarni qo‘yish huquqi kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan kreditorlik qarzdorlik qoplanganidan keyin amalga oshiriladi. Odatda, regress talabi subsidiar javobgarlik qo‘llanilgandan so‘ng qarzdor yuridik shaxsning mol-mulklari aniqlansa yoki qaytarilsa qo‘yiladi.

73-modda. Subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqish

Subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi ariza ushbu bobda belgilangan tartibda sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Arizada ko‘rsatilgan shaxs qarzdorning ishlarini boshqaruvchi ekanligi to‘g‘risida yetarli ma’lumot mavjud emasligi aniqlansa, sud subsidiar javobgarlikka tortishni rad etishi mumkin.

Subsidiar javobgarlikka tortiladigan shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan taqdirda, ushbu shaxsni javobgarlikka tortish masalasi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida ko‘rib chiqiladi.

Agar ushbu Qonunning 70-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqish jarayonida subsidiar javobgarlik miqdorini aniqlash mumkin bo‘lmasa, sud arizani ko‘rib chiqishni subsidiar javobgarlikka tortish uchun zarur bo‘lgan barcha dalillar aniqlanguniga va kreditor bilan hisob-kitoblar tugaguniga qadar to‘xtatib turish to‘g‘risida ajrim chiqaradi. Ushbu ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Agar sud tomonidan arizani ko‘rib chiqish jarayonida da’voni ta’minlash to‘g‘risida ajrim chiqarilgan bo‘lsa, ushbu arizani ko‘rib chiqish to‘xtatib turilgan davrda ham da’voni ta’minlash choralari amal qiladi.

Kreditorlar bilan hisob-kitoblar yakunlanganidan so‘ng qarzdorning mol-mulki yetarli emasligi sababli kreditorlarning talablari qanoatlantirilmagan taqdirda, tugatish boshqaruvchisi tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini o‘tkazish natijalari to‘g‘risidagi hisobotni, shuningdek, kreditorlar yig‘ilishining kreditorlarning qanoatlantirilmagan talablari miqdori to‘g‘risidagi qarorini ilova qilgan holda subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi ishni tiklash haqidagi ariza bilan sudga murojaat qiladi.

Subsidiar javobgarlik miqdorini belgilash to‘g‘risidagi masala va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini o‘tkazish natijalari haqidagi tugatish boshqaruvchisining hisoboti sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Sharhlanayotgan modda subsidiar javobgarlikka tortish jarayonida shaxsning boshqaruv maqomini aniqlash, subsidiar javobgarlik miqdori aniq bo‘lmaganda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni to‘xtatib turish va bu davrda da’voni ta’minlash choralarining amal qilishi hamda qarzdorning mol-mulki yetarli emasligi kreditorlar yig‘ilishining qarorini ilova qilgan holda subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi ishni tiklash tartibini belgilaydi.

1. Ushbu normada subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi ariza faqat Qonunning 7-bobida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq ko‘rib chiqilishiga ko‘rsatma beradi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxslargina subsidiar javobgarlik subyekti hisoblanishini nazarda tutmoqda. Qonunning 69-mod-

dasi ikkinchi qismiga ko‘ra, qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxslar quyidagilardan iborat: qarzdorning ijroiya organi rahbari va a’zolari, tugatish komissiyasi yoki qarzdorning tugatuvchisi; mustaqil ravishda yoki manfaatdor shaxslar bilan birgalikda aksiyadorlik jamiyati aksiyalarining ellik va undan ortiq foiziga ega bo‘lgan shaxslar; mas’uliyati cheklangan jamiyat yoki boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar ustav fondining (ustav kapitalining) yarmidan ko‘pini tasarruf etish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar; rahbarni tayinlash (saylash) huquqiga ega bo‘lgan shaxslar. Agar arizada subsidiar javobgarlikka tortiladigan shaxsning qarzdorning ishini boshqaruvchi ekanligiga oid yetarli ma’lumot mavjud bo‘lmasa, sud subsidiar javobgarlikka tortishni rad etadi.

3. Shaxsni subsidiar javobgarlikka tortish masalasi faqat mazkur to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida ko‘rib chiqilishi, to‘lovga qobiliyatsizlik ishi davom etayotgan paytda subsidiar javobgarlikka tortish masalasi alohida ajratib olib boshqa sudlar (sudyalar) tomonidan ko‘rilmasligi keltirilgan. To‘lovga qobiliyatsizlik ishi tamomlanganidan keyin subsidiar javobgarlikka tortish haqidagi masalani ko‘rib chiqishga ruxsat beriladi. Qonunning 76-moddasi birinchi qismida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish tamomlangandan keyin sudga subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida ariza berish mumkinligi ko‘rsatilgan bo‘lib, unga ko‘ra, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish tamomlangandan keyin talablari to‘liq qanoatlantirilmagan shaxslar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasidan tashqari subsidiar javobgarlikka tortish uchun asoslar mavjud bo‘lganda sudga subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida ariza berish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

33.1. Sudlarning e’tibori qaratilsinki, subsidiar javobgarlikka tortish uchun asoslar mavjud bo‘lganda, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasi yoki undan tashqari sudga tegishli ariza berish huquqiga ega (Qonunning 71- va 76-moddalari).

4. Agar subsidiar javobgarlik miqdorini aniqlash mumkin bo‘lmasa, sud arizani ko‘rib chiqishni to‘xtatib turish to‘g‘risida ajrim chiqaradi. Agar barcha zarur dalillar va ma’lumotlar aniqlanmagan bo‘lsa va kreditorlar bilan hisob-kitoblar tugallanmagan bo‘lsa, sud arizani ko‘rib chiqishni vaqtincha to‘xtatib turadi. Ushbu ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

5. Agar sud ariza ko‘rib chiqish jarayonida da’voni ta’minlash to‘g‘risida qaror chiqargan bo‘lsa, arizani ko‘rib chiqish to‘xtatib turilgan davrda ham da’voni ta’minlash choralari amal qiladi. Bu holda sud ushbu ishni ko‘rib chiqishni to‘xtatgan bo‘lsa ham, da’voni ta’minlashning huquqiy choralari o‘z kuchida qolaveradi. IPKning 93-moddasiga ko‘ra, ishda ishtirok etuvchi shaxsning arizasi da’voni ta’minlash choralarini ko‘rish uchun asos bo‘ladi, da’voni ta’minlashga, agar shunday choralarni ko‘rmaslik sud

hujjatining ijrosini qiyinlashtirishi yoxud bajarib bo‘lmaydigan qilib qo‘yishi mumkin bo‘lsa, iqtisodiy sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida yo‘l qo‘yiladi.

6. Mazkur moddaning oltinchi qismida agar kreditorlar bilan hisob-kitoblar tugatilganidan so‘ng qarzdorning mol-mulki yetarli bo‘lmasa, tugatish boshqaruvchisi subsidiar javobgarlikka tortish haqidagi ishni tiklash to‘g‘risida ariza bilan sudga murojaat qilishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Buning uchun tugatish boshqaruvchisi tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini o‘tkazish natijalari to‘g‘risidagi hisobotni, shuningdek, kreditorlar yig‘ilishining kreditorlarning qanoatlantirilmagan talablari miqdori to‘g‘risidagi qarorini arizaga ilova qiladi.

7. Tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini o‘tkazish natijalari haqidagi hisobot va subsidiar javobgarlik miqdorini belgilash to‘g‘risidagi masala sud tomonidan ko‘rib chiqiladi. Qonunning 158-moddasiga asosan, kreditorlar bilan hisob-kitoblar tamomlanganidan keyin tugatish boshqaruvchisi sudga tugatishga doir ish yuritishni amalga oshirish natijalari to‘g‘risida hisobot taqdim etishi shart, tugatishga doir ish yuritishni amalga oshirish natijalari haqidagi hisobotga quyidagilar ilova qilinadi: qarzdorning mol-mulki sotilganligini tasdiqlovchi hujjatlar; kreditorlarning talablari reyestri, kreditorlar talablarining qanoatlantirilgan miqdorini ko‘rsatgan holda; kreditorlarning talablari qanoatlantirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar; qarzdorning ushbu Qonunning 159-moddasida nazarda tutilgan mol-mulki (qarzdorning kreditorlar talablari qanoatlantirilganidan keyin qolgan mol-mulki) to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

74-modda. Subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi talab qilish huquqidan foydalanish

Tugatish boshqaruvchisi subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida talab qilish huquqidan foydalanish usulini tanlash haqida kreditorlarni qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxslarni subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida qonuniy kuchga kirgan sud hujjati olingan sanadan e’tiboran uch kun ichida xabardor qiladi.

Bunday xabarnoma olingan sanadan e’tiboran o‘n kun ichida kreditor tugatish boshqaruvchisiga subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida quyidagi talab qilish huquqidan foydalanish usullaridan birini tanlashga doir arizani yuborishga haqli:

to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida qarzni undirish;

talab qilish huquqini sotish;

talab qilish huquqidan yoki uning bir qismidan boshqa kreditor foydasiga voz kechish.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan xabarnoma yuborilgan sanadan e’tiboran yigirma kun ichida tugatish boshqaruvchisi sudga kreditorlar tomonidan subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi talab qilish huquqidan foydalanish usulini tanlash natijalari haqidagi hisobotni yuboradi.

Hisobotda har bir kreditorning tanlovi, talablarning miqdori va navbati to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak.

Kreditor ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan muddat ichida ariza taqdim etmagan taqdirda, kreditor ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan usulni tanlagan deb hisoblanadi.

Sudning subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi hujjati asosida sud:

ushbu modda ikkinchi qismining uchinchi xatboshisida nazarda tutilgan usulni tanlagan har bir kreditorga ushbu Qonunning 150-moddasida nazarda tutilgan talabni qanoatlantirish navbati va miqdori ko‘rsatilgan holdagi ijro hujjatini talablarining summasiga muvofiq beradi;

to‘lovga qobiliyatsizlikka doir ijro hujjatini qolgan summani undiruvchi sifatida qarzdorga beradi.

Agar ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan usulni tanlagan kreditorlarning talablari summasi mazkur modda ikkinchi qismining uchinchi va to‘rtinchi xatboshilarida nazarda tutilgan usulni tanlagan kreditorlarning talablari summasidan ortiq bo‘lsa, tugatish boshqaruvchisi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida subsidiar javobgarlik bo‘yicha qarzni undirishni amalga oshiradi. Aks holda, sud boshqaruvchisi talab qilish huquqini sotish va boshqa kreditor foydasiga voz kechish usullarini tasdiqlash uchun kreditorlar yig‘ilishini chaqiradi.

Agar subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi sud hujjatining ijrosini ta’minlash haqidagi ijro varaqasi to‘lovga qobiliyatsizlik doirasidagi ish bo‘yicha undiruvchi sifatida qarzdorning nomiga berilgan bo‘lsa va uning ijrosi ushbu Qonunning 140-moddasida nazarda tutilgan tugatishga doir ish yuritish muddatining oshishiga olib kelsa, qarz boshqa shaxs foydasiga talablardan voz kechish yoki qarzni boshqa shaxsga o‘tkazish orqali undirilishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi sud qarori kuchga kirgandan so‘ng kreditorlarning o‘z talablarini qanoatlantirish usulini tanlash tartibi, xususan, kreditorlar qarzni to‘lovga qobiliyatsizlik ishi doirasida undirish, talab qilish huquqini sotish yoki undan boshqa kreditor foydasiga voz kechish huquqiga egaligi, tugatish boshqaruvchisi ushbu tanlovlar asosida sudga hisobot taqdim etishi va ijro hujjatlarining rasmiylashtirilishini ta’minlashi, kreditor tanlovni amalga oshirmasa, qarzni da’vo tartibida undirishni tanlashi kabi shartlar ko‘rsatilgan.

1. Tugatish boshqaruvchisi qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxslarni subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida sud hujjati olingan sanadan e’tiboran uch kun ichida talab qilish huquqidan foydalanish usulini tanlash haqida kreditorlarni xabardor qilishi kerak.

2. Qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxslarni subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida sud hujjati haqidagi xabarnoma kreditor tomonidan olingandan so‘ng o‘n kun ichida kreditorlar tugatish boshqaruvchisiga subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida quyidagi usullardan birini tanlashga doir ariza yuborishi mumkin: to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida qarzni undirish; talab qilish huquqini sotish; talab qilish huquqidan yoki uning bir qismidan boshqa kreditor foydasiga voz kechish.

3. Ushbu normaga ko‘ra, qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxslarni subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida sud hujjati haqida kreditorlarga xabarnoma yuborilgan sanadan e’tiboran yigirma kun ichida tugatish boshqaruvchisi sudga kreditorlar tomonidan subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi talab qilish huquqidan foydalanish usulini tanlash natijalari haqidagi hisobotni yuboradi.

4. Kreditorlarning qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxslarni subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi talab qilish huquqidan foydalanish usulini tanlash natijalari haqidagi hisobotida quyidagilar ko‘rsatilishi lozim: har bir kreditorning tanlovi; talablarning miqdori; talablarning navbati to‘g‘risida aniq ma’lumotlar.

5. Qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxslarni subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida sud hujjati haqidagi xabarnoma kreditor tomonidan olingandan so‘ng o‘n kun ichida kreditor tugatish boshqaruvchisiga subsidiar javobgarlikka tortish usulini tanlash to‘g‘risida ariza taqdim etmasa, usul tanlangan deb hisoblanadi. Ya’ni qarzni undirish shaklidagi usul avtomatik ravishda tanlangan deb e’tirof etiladi.

6. Sudning subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi hujjati asosida sud usulni tanlagan har bir kreditorga ushbu Qonunning 150-moddasida nazarda tutilgan talabni qanoatlantirish navbati va miqdori ko‘rsatilgan holdagi ijro hujjatini talablarning summasiga muvofiq beradi, qolgan summani undiruvchisi sifatida ijro hujjatini qarzdorga beradi.

7. Agar mazkur modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan usulni (to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida qarzni undirish) tanlagan kreditorlarning talablari summasi mazkur modda ikkinchi qismining uchinchi va to‘rtinchi xatboshilarida nazarda tutilgan usulni (talab qilish huquqini sotish, talab qilish huquqidan yoki uning bir qismidan boshqa kreditor foydasiga voz kechish) tanlagan kreditorlarning talablari summasidan ortiq bo‘lsa, tugatish boshqaruvchisi subsidiar javobgarlik bo‘yicha qarzni undirishni amalga oshiradi. Buni amalga oshirish imkonsiz bo‘lsa, sud boshqaruvchisi talab qilish huquqini sotish va boshqa kreditor foydasiga voz kechish usullarini tasdiqlash uchun kreditorlar yig‘ilishini chaqiradi.

8. Agar subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi ijro varaqasi undiruvchi sifatida qarzdorning nomiga berilgan bo‘lsa va uning ijrosi ushbu Qonunning 140-moddasida nazarda tutilgan tugatishga doir ish yuritish muddatining cho‘zilishiga olib kelsa, qarz boshqa shaxs foydasiga talablardan voz kechish yoki qarzni boshqa shaxsga o‘tkazish orqali undirilishi mumkin. Qonunning 140-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili muddati o‘n ikki oydan oshishi mumkin emas, zarurat bo‘lganda bu muddat to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxsning iltimosnomasiga ko‘ra yoki sudning tashabbusi bilan uch oygacha uzaytirilishi mumkin. FKning 319-moddasiga ko‘ra, kreditorning o‘z talabidan boshqa shaxs foydasiga voz kechishiga, basharti u qonunchilikka yoki shartnomaga zid bo‘lmasa, yo‘l qo‘yiladi. Kreditorning shaxsi qarzdor uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan majburiyat bo‘yicha talabdan qarzdorning roziligisiz boshqa shaxs foydasiga voz kechishga yo‘l qo‘yilmaydi. FKning 322-moddasiga muvofiq, Qarzdorning o‘z qarzini boshqa shaxsga o‘tkazishiga faqat kreditorning roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi. Yangi qarzdor kreditor bilan dastlabki qarzdor o‘rtasidagi munosabatlarga asoslangan barcha e’tirozlarni kreditor talabiga qarshi qo‘yishga haqli.

75-modda. Subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi sud hujjatini ijro etish

Subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi sud hujjatiga ega bo‘lgan har qanday kreditor ijro ishi yuritishni qo‘zg‘atishni talab qilishga haqli. Mazkur ijro ishini yuritish jarayonida undiruvchilarning talablari ushbu Qonunda nazarda tutilgan navbat bo‘yicha qanoatlantirilishi kerak.

Subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi sud hujjatini ijro etish hisobiga kelib tushgan pul mablag‘lari kreditorlar talablarini qanoatlantirish uchun yo‘naltiriladi. Tugatish boshqaruvchisi ushbu qoida talablarini amalga oshirish maqsadida mazkur mablag‘larni sudning maxsus depozit hisobvarag‘iga o‘tkazadi.

Sharhlanayotgan moddada subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi sud hujjatini ijro etish asoslari va tartibi keltirilgan.

1. Subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi sud hujjatiga ega bo‘lgan har qanday kreditor ijro ishi yuritishni qo‘zg‘atishga haqli. Ijro ishi yuritish jarayonida undiruvchilarning talablari ushbu Qonunda belgilangan navbatga rioya qilgan holda qanoatlantirilishi lozim. Shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki, undiruvchilarning talablari «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 80-moddasida keltirilgan navbat bo‘yicha emas, Qonunning 149-, 150-moddalarida belgilangan navbat bo‘yicha qanoatlantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

33.2. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida berilgan subsidiar javobgarlikka tortish haqidagi ariza Qonunda belgilangan tartibda sud tomonidan ko‘rib chiqiladi (Qonunning 73-moddasi).

Arizani ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha sud ajrim chiqaradi, unda subsidiar javobgarlikka tortilgan shaxsdan undirilishi lozim bo‘lgan umumiy summa, shu jumladan, Qonun 74-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan usulni tanlagan kreditorlarning har biri foydasiga va qolgan qismi bo‘yicha qarzdor foydasiga undiriladigan summa ko‘rsatiladi. Ajrimga asosan sud hujjatini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi beriladi.

Subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi sud hujjatini ijro etish jarayonida kelib tushgan pul mablag‘lari kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga yo‘naltiriladi (Qonun 75-moddasining ikkinchi qismi).

2. Subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi sud hujjatini ijro etish hisobiga kelib tushgan pul mablag‘lari kreditorlar talablarini qanoatlantirish uchun yo‘naltiriladi. Har qanday kreditor uchun Qonunning 149-, 150-moddalarida belgilangan navbat bo‘yicha pul mablag‘lari qanoatlantiriladi. Tugatish boshqaruvchisi sudning maxsus depozit hisobvarag‘i subsidiar javobgarlikka tortishdan tushgan mablag‘larni o‘tkazib boradi va shu orqali kreditorlar talablari qanoatlantiriladi.

76-modda. Subsidiar javobgarlik to‘g‘risidagi arizani to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasidan tashqari ko‘rib chiqish

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish tamomlangandan keyin talablari to‘liq qanoatlantirilmagan shaxslar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasidan tashqari subsidiar javobgarlikka tortish uchun asoslar mavjud bo‘lganda sudga subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida ariza berish huquqiga ega.

Agar subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi ariza ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq berilgan bo‘lsa, arizani ko‘rib chiqishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

agar arizada qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxslarni subsidiar javobgarlikka tortishdan manfaatdor bo‘lgan shaxslar ko‘rsatilmagan bo‘lsa, sud bunday arizani harakatsiz qoldiradi va manfaatdor shaxslarni aniqlash maqsadida arizachiga to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bilan tanishish huquqini beradi;

ariza, talab qiluvchi shaxslarning sonidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy va Fuqarolik protsessual kodekslari qoidalariga muvofiq ko‘rib chiqiladi;

shaxsni subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi sud hujjatida har bir kreditor foydasiga undiriladigan summa va talablarni qanoatlantirish navbati ko‘rsatiladi;

qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxslarni subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi sud hujjati asosida berilgan ijro hujjatida sud har bir kreditorga to‘lanishi lozim bo‘lgan summa to‘g‘risidagi ma’lumotlardan tashqari har bir kreditorning talabini qanoatlantirish navbatini ko‘rsatadi.

Sharhlanayotgan moddada subsidiar javobgarlik to‘g‘risidagi arizani to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasidan tashqari ko‘rib chiqish tartibi, shartlari va protsessual xususiyatlari belgilab berilgan bo‘lib, mazkur norma kreditorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini qo‘shimcha ravishda himoya qilishga qaratilgan muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi.

1. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish tamomlangandan keyin talablari to‘liq qanoatlantirilmagan shaxslar subsidiar javobgarlikka tortish uchun asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda sudga tegishli ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Bu

qoida kreditorlarga qarzdorning mol-mulki yetarli bo‘lmagan hollarda uning majburiyatlari uchun javobgar bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa shaxslardan undirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar ushbu talabni ish doirasida yoki undan tashqari tartibda qo‘zg‘atish huquqiga egaligi nazarda tutilgan bo‘lib, bu esa huquqni himoya qilishning muqobil protsessual shakllarini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

33.3. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasidan tashqari subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi ariza to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxs subsidiar javobgarlikka tortish uchun asoslar mavjudligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan kundan e’tiboran uch yil ichida, biroq sudning qarzdorni tugatishga doir ish yuritish tamomlanganligi to‘g‘risidagi ajrimi chiqarilganidan keyin uch yildan kechiktirmay sudga taqdim etilishi mumkin.

2. Agar subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi ariza to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish tamomlangandan keyin berilgan bo‘lsa, sud tomonidan uni ko‘rib chiqishda quyidagi protsessual harakatlar amalga oshiriladi:

2.1. Arizada qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxslarni subsidiar javobgarlikka tortishdan manfaatdor bo‘lgan shaxslar ko‘rsatilmagan taqdirda, sud arizani harakatsiz qoldiradi hamda manfaatdor shaxslarni aniqlash maqsadida arizachiga to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish materiallari bilan tanishish huquqini beradi. Bu orqali sud ishni har tomonlama va to‘liq ko‘rib chiqish uchun zarur ishtirokchilar doirasini shakllantirishga erishadi.

2.2. Ariza, talab qiluvchi shaxslarning sonidan qat’i nazar, IPK va FPK qoidalariga muvofiq ko‘rib chiqiladi, bu esa mazkur toifadagi ishlarga nisbatan yagona protsessual yondashuvni ta’minlaydi.

2.3. Shaxsni subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi sud hujjatida har bir kreditor foydasiga undiriladigan summa, shuningdek, ularning talablarini qanoatlantirish navbati aniq va alohida ko‘rsatilishi shart, bu esa ijro jarayonida noaniqliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

2.4. Qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxslarni subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi sud hujjati asosida berilgan ijro hujjatida ham har bir kreditorga to‘lanishi lozim bo‘lgan summa bilan bir qatorda talablarni qanoatlantirish navbati ko‘rsatiladi, bu esa ijro harakatlarining to‘g‘ri va izchil amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, sharhlanayotgan modda subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi arizani to‘lovga qobiliyatsizlik ishi doirasidan tashqari ko‘rib chiqishning

huquqiy va protsessual asoslarini belgilab, kreditorlarga o‘z talablarini qo‘shimcha himoya qilish imkoniyatini yaratadi hamda sud tomonidan bunday arizalarni ko‘rib chiqish tartibining aniq belgilanishi orqali ijro jarayonining shaffofligi va samaradorligini ta’minlaydi.

77-modda. Subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqishda kelishuv bitimini tuzishning va tasdiqlashning o‘ziga xos xususiyatlari

Subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqish jarayonida kelishuv bitimi tuzilishi mumkin.

Subsidiar javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan kelishuv bitimini bajarish uchun yetarli miqdordagi mol-mulk to‘g‘risida ma’lumotlar taqdim etilgan taqdirda, ushbu kelishuv bitimi sud tomonidan tasdiqlanishi mumkin.

Kelishuv bitimi faqat subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida ariza bergan shaxs hamda subsidiar javobgarlikka tortilgan shaxs o‘rtasida tuzilishi mumkin.

Kelishuv bitimi shartlari (shu jumladan, kompensatsiya berish, talablarni ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarga, aksiyalarga, obligatsiyalarga yoki boshqa qimmatli qog‘ozlarga aylantirilgan aksiyalarga, innovatsion g‘oyalar va boshqalarga almashish) subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida ariza bergan shaxslarning bir ovozdan ma’qullashi asosida tuziladi.

Kelishuv bitimi shartlari belgilangan muddatda bajarilmagan taqdirda, kreditor subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqqan sudga qarzni undirish uchun ijro varaqasini olish maqsadida murojaat etishga haqli.

Sharhlanayotgan modda subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqish jarayonida kelishuv bitimini tuzish va tasdiqlash tartibining o‘ziga xos jihatlarini belgilaydi hamda ushbu institutning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishdagi umumiy kelishuv bitimi institutlaridan farqli tomonlarini ochib beradi.

1. Ushbu normaga muvofiq, subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqish jarayonida kelishuv bitimini tuzishga yo‘l qo‘yiladi. Biroq bunday kelishuv bitimi Qonunning 12-bobida nazarda tutilgan umumiy kelishuv bitimidan farq qiladi, chunki u barcha kreditorlarning ishtirokini talab etmaydi va kreditorlar yig‘ilishi qaroriga bog‘liq emas.

2. Sud kelishuv bitimini faqat subsidiar javobgar shaxs tomonidan uni bajarish uchun yetarli mol-mulk mavjudligi to‘g‘risida ma’lumotlar taqdim etilgan taqdirda tasdiqlaydi. Bu talab kelishuv bitimining real va amalga oshirilishi mumkinligini ta’minlashga qaratilgan.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismiga muvofiq, kelishuv bitimi faqat subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida ariza bergan shaxs hamda subsidiar javobgarlikka tor-

tilgan shaxs o‘rtasida tuziladi. Bu holat mazkur munosabatlarning individual va xususiy-da’vo xususiyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

4. Agar subsidiar javobgarlikka tortish to‘g‘risida ariza bir nechta shaxslar tomonidan berilgan bo‘lsa, kelishuv bitimi shartlari (kompensatsiya berish, talablarni ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarga, aksiyalarga, obligatsiyalarga yoki boshqa qimmatli qog‘ozlarga aylantirilgan aksiyalarga, innovatsion g‘oyalar va boshqalarga almashish) ularning barchasi tomonidan bir ovozdan ma’qullanishi lozim. Bu esa kreditorlar manfaatlarining teng himoya qilinishini ta’minlaydi.

5. Subsidiar javobgarlik bilan bog‘liq kelishuv bitimi shartlari belgilangan muddatda bajarilmagan taqdirda muayyan huquqiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatda kreditor tegishli sudga murojaat qilib, ijro varaqasini olish orqali qarzni undirish choralarini ko‘rish huquqiga ega bo‘ladi. Bu norma kelishuv bitimining ijrosini ta’minlovchi muhim protsessual kafolat hisoblanadi.

8-BOB. KUZATUV TARTIB-TAOMILI

78-modda. Kuzatuv tartib-taomilini joriy etish

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganda kuzatuv tartib-taomili sud qarzdor – yuridik shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani ish yuritishga qabul qilgan sanadan e’tiboran joriy etiladi, bundan ushbu Qonunga muvofiq qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlikning boshqa tartib-taomili qo‘llanilishi kerak bo‘lgan hollar mustasno. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan taqdirda sudning arizani ish yuritishga qabul qilish to‘g‘risidagi ajrimida kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi ko‘rsatiladi.

Sharhlanayotgan moddada sud tomonidan qarzdor-yuridik shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganda kuzatuv tartib-taomili joriy etish tartibi belgilangan.

Ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida kuzatuv tartib-taomilini joriy etishning huquqiy asoslari va boshlanish paytini belgilaydi. U to‘lovga qobiliyatsizlik dastlabki bosqichini tartibga soluvchi muhim protsessual qoida hisoblanadi.

Qonunning 3-moddasida berilgan ta’rifga ko‘ra, kuzatuv tartib-taomili qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning mol-mulki but saqlanishini ta’minlash, moliyaviy ahvolini tahlil qilish, kreditorlar talablari reyestrini shakllantirish hamda kreditorlarning birinchi yig‘ilishini o‘tkazish maqsadida qo‘llaniladigan, ariza ish yurituviga qabul qilingan paytdan boshlab keyingi tartib-taomil joriy etilguniga qadar amal qiladigan sud tartib-taomili hisoblanadi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan paytdan boshlab kuzatuv tartib-taomili avtomatik ravishda joriy etiladi, ya’ni sud arizani ish yuritishga qabul qilgan sana ushbu tartibning boshlanish nuqtasi hisoblanadi.

Shu bilan birga, normada istisno ham nazarda tutilgan: agar qonunga muvofiq boshqa tartib-taomilni qo‘llash zarur bo‘lsa, kuzatuv bosqichi joriy etilmasligi mumkin.

Qonunning 30-moddasida to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, qarzdor yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda kuzatuv, sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv, tugatishga doir ish yuritish tartib-taomillari qo‘llaniladi.

Sud ajrimida kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi alohida ko‘rsatilishi shart. Mazkur yondashuv amaliyotda muhim ahamiyatga ega. Chunki ariza qabul qilinganidan keyin qarzdor aktivlarini chiqarib yuborish, ayrim kreditorlarga afzallik berish yoki majburiyatlar tarkibini o‘zgartirish xavfi paydo bo‘ladi. Kuzatuv tartib-taomilini

darhol joriy etish ana shu xavflarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shu ma’noda, norma kreditorlar tengligi va aktivlarni saqlash tamoyillariga asoslanadi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishda ushbu normani qo‘llash Qonunning 46-moddasi bilan bog‘liq holda talqin qilinishi lozim. Xususan, 46-moddaning uchinchi qismida sud arizani ish yuritishga qabul qilishda kuzatuv tartib-taomilini joriy etish va muvaqqat boshqaruvchini tayinlash to‘g‘risida ajrim chiqarishi mumkinligi belgilangan.

Bir qarashda ushbu norma dispozitiv tusga ega bo‘lib ko‘rinsa-da, mazkur modda bilan tizimli talqin qilinganda kuzatuv tartib-taomilini joriy etish imperativ xarakterga ega ekani ayon bo‘ladi. Agar Qonunda boshqa tartib-taomil nazarda tutilmagan bo‘lsa, ariza qabul qilingan paytdan boshlab kuzatuv avtomatik ravishda joriy etilgan deb hisoblanadi.

Mazkur moddadagi «ajrim chiqarish mumkin»ligi sudga erkin tanlov huquqini emas, balki protsessual rasmiylashtirishni anglatadi, ya’ni sud kuzatuvni joriy etishni mustaqil hal qilmaydi, balki uni arizani qabul qilish ajrimida aks ettiradi.

Mazkur modda moddiy-huquqiy norma sifatida kuzatuv tartib-taomilini joriy etishning majburiyligini belgilaydi, 46-modda esa ushbu jarayonning protsessual rasmiylashtirilish tartibini nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, bu sud amaliyotida kuzatuv tartib-taomilining boshlanish paytini aniq belgilab beruvchi, qarzdorga nisbatan maxsus huquqiy rejimni joriy etuvchi va keyingi barcha bosqichlar uchun huquqiy asos yaratuvchi muhim norma hisoblanadi.

Shu bilan birga, modda dispozitiv elementga ham ega bo‘lib, unda istisno holat nazarda tutilgan. Ya’ni qonunga muvofiq boshqa to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili qo‘llanilishi lozim bo‘lgan hollarda kuzatuv joriy etilmasligi mumkin. Bu holatlar, odatda, jismoniy shaxslar, YTT yoki soddalashtirilgan tartib-taomillarga taalluqli ishlar bilan bog‘liq. Bu esa Qonun 30-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida, shuningdek, 242-moddaning ikkinchi qismida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

53. Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda Qonun 30-moddasining ikkinchi qismida, yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda esa ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan tartib-taomillar qo‘llaniladi.

Bundan tashqari, Qonun qishloq xo‘jaligi korxonalarida (Qonunning 178-moddasi) hamda qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishda (Qonunning 189-moddasi) kuzatuv tartib-taomilining o‘ziga xos xususiyatlari nazarda tutilgan.

Unda nazarda tutilgan yana bir muhim qoida kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi sudning arizani ish yuritishga qabul qilish to‘g‘risidagi ajrimida albatta ko‘rsatilishi shartligidir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

14. Sudya to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni sud majlisida ko‘rishga tayyorlash bilan bir vaqtda kuzatuv taomilini joriy etish masalasini hal qilishi lozim (Qonunning 49- va 78-moddalari). Kuzatuv taomili joriy etilganligi arizani ish yuritishga qabul qilish va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi sudning ajrimida ko‘rsatiladi.

Mol-mulki mavjud bo‘lgan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilinganda unda muvaqqat boshqaruvchining nomzodi ko‘rsatiladi. Arizada muvaqqat boshqaruvchining nomzodi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, sud arizachidan yoki vakolatli davlat organidan yoxud sud boshqaruvchilarining jamoat birlashmasidan tegishli nomzodni taqdim etishni so‘raydi.

Kuzatuv taomili qarzdor – yuridik shaxsga nisbatan uning mol-mulki but saqlanishini ta’minlash, qarzdorning moliyaviy ahvoli tahlilini o‘tkazish, kreditorlar talablari reyestrini tuzish va birinchi kreditorlar yig‘ilishini o‘tkazish maqsadida qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza qabul qilingan paytdan e’tiboran keyingi tartib-taomilga qadar qo‘llaniladi. Ushbu vazifalarning bajarilishi muvaqqat boshqaruvchi zimmasiga yuklanadi.

Ushbu qoidalar jismoniy shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorni, shuningdek, soddalashtirilgan tartib-taomil bo‘yicha qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ishlarga tatbiq etilmaydi.

Shuningdek, kuzatuv boshlangan sana qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlar va amalga oshirilgan to‘lovlarga huquqiy baho berishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Shu sababli mazkur holatni sud ajrimida aniq qayd etish keyinchalik nizolarning oldini olishga xizmat qiladi.Qarang: Xalqaro sharh. 754-b.

79-modda. Kuzatuv tartib-taomilini joriy etish oqibatlari

Kuzatuv tartib-taomili joriy etilgan paytdan e’tiboran:

mulkiy undiruvlar bo‘yicha ijro hujjatlarini ijro etish to‘xtatib turiladi, bundan ish haqi bo‘yicha, mualliflik shartnomalari bo‘yicha haqlarni, alimentlarni to‘lash bo‘yicha qarzdorlikni undirish haqidagi, shuningdek, hayotga yoki sog‘liqqa yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash va ma’naviy ziyon-

ni kompensatsiya qilish to‘g‘risidagi, sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza ish yuritishga qabul qilingan paytga qadar qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari asosida berilgan ijro hujjatlarini ijro etish mustasno. Sudning arizani ish yuritishga qabul qilish va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ajrimi ijro hujjatlarini ijro etishni to‘xtatib turish uchun asos bo‘ladi;

qarzdor yuridik shaxs muassislarining (ishtirokchilarining) uning tarkibidan muassislari (ishtirokchilari) chiqib ketishi munosabati bilan qarzdorning mol-mulkidan ulushni (payni) ajratish haqidagi talablarini qanoatlantirish taqiqlanadi;

emissiya qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha dividendlar va boshqa to‘lovlarni to‘lash taqiqlanadi.

Qarzdordan pul mablag‘larini olish to‘g‘risidagi talablar qarzdorga talablar qo‘yishning faqat ushbu Qonunning 87-moddasida belgilangan tartibiga rioya etilgan holda qo‘yilishi mumkin.

Qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili joriy etilgan sanadan e’tiboran qarzdorning kontragenti tomonidan shartnomalarni bajarishni bir tomonlama rad etishga yoki ularni bir tomonlama o‘zgartirishga, agar bu taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan bo‘lsa ham, yo‘l qo‘yilmaydi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan holatlar bo‘yicha kelishmovchiliklar bo‘lgan taqdirda, qarzdor kontragentining shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi talabi sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida ko‘rib chiqiladi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish jarayonida qarzdor shartnomani bajara olishi va shartnoma bo‘yicha majburiyatlar bajarilishining kechikishini bartaraf etishi mumkinligi to‘g‘risida dalillarni (fuqarolik qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa kreditor yoki uchinchi shaxs tomonidan majburiyatlarning ta’minlanishi shunday dalillar sifatida qabul qilinishi mumkin) taqdim etgan taqdirda, sud shartnomani o‘zgartirishni yoki bekor qilishni rad etishga haqli.

Agar shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish masalasi sud sanatsiyasi rejasini va qarzni to‘lash jadvalini yoki tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, sud kreditorlar yig‘ilishi o‘tkazilishini shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi talab ko‘rib chiqilguniga qadar kechiktirishga haqlidir.

Sharhlanayotgan modda kuzatuv tartib-taomili joriy etilgan paytdan e’tiboran qarzdorga nisbatan muayyan cheklovlar va huquqiy oqibatlarni belgilaydi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismiga muvofiq, kuzatuv joriy etilgan paytdan boshlab mulkiy undiruvlar bo‘yicha ijro hujjatlarini ijro etish to‘xtatib turiladi. Bunga sudning qarzdorni bankrot deb topish haqidagi arizani ish yuritishga qabul qilish va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ajrimi asos bo‘ladi. Chunki

qarzdorga nisbatan mulkiy talablar protsessual qonun hujjatlarida belgilangan tartibda (masalan, da'vo ishini yuritish yoki ijro ishi yuritish doirasida) qo'yilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi 13-son qarori

11. Qonun 12-moddasining birinchi qismiga muvofiq, to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari qo'llanilayotganda barcha kreditorlarning manfaatlarini kreditorlar yig'ilishi yoki kreditorlar qo'mitasi himoya qiladi va sud qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi arizani ish yuritishga qabul qilib olgan kundan e'tiboran kreditorlar qarzdorga o'z talablarini yakka tartibda qanoatlantirish maqsadida murojaat qilishga haqli emas, bundan mulk huquqini e'tirof etish, ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish, mol-mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olish, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish, bitimlarni haqiqiy emas deb topish va ularning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash, huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi talablar, shuningdek, joriy to'lovlar bo'yicha talablar mustasno.

1.1. *«Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 34-moddasi ikkinchi qismining 2-bandida ijro ishi yuritish qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risidagi ish bo'yicha iqtisodiy sud tomonidan ish yuritish qo'zg'atilganda, shu jumladan, kuzatuvni joriy etish, sud sanatsiyasini yoki tashqi boshqaruvni joriy etish va (yoki) ularning muddatini uzaytirish haqida iqtisodiy sud tomonidan ajrim qabul qilinganda davlat ijrochisi tomonidan to'xtatib turilishi shartligi (bundan* Qonunga muvofiq to'xtatib turilishi mumkin bo'lmagan ijro hujjatlari mustasno), 61-moddasining ikkinchi qismida esa qarzdor yuridik shaxsning to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risidagi ish bo'yicha iqtisodiy sudda ish yuritish qo'zg'atilgan bo'lsa, ijro ishi yuritish va undiruv qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilish masala mohiyatan iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqilgunga qadar to'xtatib turilishi nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, qonun ijro harakatlarini to'xtatish qoidasidan muayyan istisnolarni nazarda tutadi. Xususan, ish haqi, alimentlar, mualliflik shartnomalari bo'yicha haqlar, shuningdek, hayot va sog'liqqa yetkazilgan zararni qoplash bilan bog'liq talablar bo'yicha ijro hujjatlari amal qilishda davom etadi. Ushbu istisnolar inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan bo'lib, fuqarolarning hayotiy muhim manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Biroq mazkur talablar faqat to'lovga qobiliyatsizlik ishi qo'zg'atilishidan oldin qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlariga asoslangan bo'lishi shartligi belgilangan.

1.2. Qarzdor yuridik shaxs muassislarining o'z ulushlarini ajratib olish to'g'risidagi talablarini qanoatlantirishning taqiqlanishi mazkur moddaning yana bir muhim kafolati hisoblanadi.

«Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 26-moddasining birinchi qismida agar jamiyat ishtirokchilari o'rtasida taqsim-

lash to‘g‘risida qarorni qabul qilish paytida jamiyat qonunga muvofiq to‘lovga qobiliyatsizlik belgilariga javob bersa yoki agar mazkur belgilar jamiyatda shunday qaror qabul qilinishi natijasida paydo bo‘lsa, jamiyat o‘z foydasini jamiyat ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlash to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli emasligi, ikkinchi qismida esa agar to‘lash paytida jamiyat qonunga muvofiq to‘lovga qobiliyatsizlik belgilariga javob bersa yoki agar mazkur belgilar jamiyatda to‘lov natijasida paydo bo‘lsa, jamiyat o‘z ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlanishi to‘g‘risida qaror qabul qilinganda jamiyat ishtirokchilariga foydani to‘lashga haqli emasligi qayd etilgan.

Bunday talablarni qanoatlantirish qarzdor aktivlarining kamayishiga va kreditorlar manfaatlarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli Qonun korporativ munosabatlarga vaqtincha cheklov kiritish orqali iqtisodiy muvozanatni saqlashni ko‘zda tutadi.

1.3. Shuningdek, dividendlar va boshqa to‘lovlarni to‘lashning taqiqlanishi qarzdorning moliyaviy aktivlarini saqlab qolishga xizmat qiladi. To‘lovga qobiliyatsizlik sharoitida foydani taqsimlashga yo‘l qo‘ymaslik orqali qonun kreditorlar talablarini ustuvor deb tan oladi.

«Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 54-moddasining birinchi qismiga ko‘ra, agar dividendlar to‘lanadigan paytda jamiyatda to‘lovga qobiliyatsizlik belgilari mavjud bo‘lsa yoki jamiyatda shunday belgilar dividendlarni to‘lash natijasida paydo bo‘lsa, jamiyat aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishga hamda dividendlar to‘lashga haqli emas.

2. Kreditorlarning qarzdordan pul mablag‘larini olishi to‘g‘risidagi talablarini belgilangan muddatlarda taqdim etish, ularni tegishli hujjatlar bilan asoslash va vakolatli shaxs tomonidan tekshirish kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Faqat ushbu talablarga rioya etilgan taqdirdagina kreditorning talabi tan olinadi va kreditorlar reyestriga kiritiladi. Bu esa kreditorlar o‘rtasida tenglikni ta’minlashga, ularning talablarini navbatga muvofiq qondirishga hamda ayrim kreditorlarning ustunlikka ega bo‘lib olishining oldini olishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, norma kontragentlarning huquqlarini butunlay cheklamaydi, ular o‘z talablarini Qonun bilan belgilangan to‘lovga qobiliyatsizlik tartibida kreditor sifatida bildirish huquqini saqlab qoladilar. Bu mexanizm kreditorlar tengligi (*pari passu*) va aktivlarni adolatli taqsimlash prinsipini ta’minlaydi.

3. Qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili joriy etilgan paytdan e’tiboran uning kontragentlari shartnomalarni bir tomonlama bekor qilish yoki o‘zgartirish huquqiga ega emas, hatto bunday huquq shartnomada alohida nazarda tutilgan bo‘lsa ham.

FKning 237-moddasiga ko‘ra, majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortish va shartnoma shartlarini bir tomonlama o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi, qonunchilikda yoki shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Ushbu norma fuqarolik huquqidagi shartnomani bir tomonlama bekor qilish imkoniyatidan ustun turadigan imperativ qoida hisoblanadi.

4. Shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish yuzasidan kelishmovchilik yuzaga kelsa, ushbu masala alohida da’vo tartibida emas, balki to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida Qonunning 60-moddasida nazarda tutilgan tartibda sud tomonidan ko‘rib

chiqiladi. Bu qoida nizolarni markazlashtirish va ularni bir sud ishida hal qilish orqali protsessual tejamkorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu yondashuv kreditorlar manfaatlarini kompleks tarzda hisobga olish imkonini beradi, chunki shartnomaning taqdiri butun to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoniga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

5. Qarzdor shartnomani bajarish imkoniyati mavjudligini yoki kechikishni bartaraf etish mumkinligini isbotlasa, sud kontragent talabini rad etishi mumkin. Bunda qarzdor tomonidan taqdim etilgan dalillar qatoriga moliyaviy tiklanish imkoniyati, uchinchi shaxslar tomonidan majburiyatlarni ta’minlash, qarzlarni qayta moliyalashtirish imkoniyatlari kiradi.

6. Shartnoma bo‘yicha nizo to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishning keyingi bosqichlari – xususan, sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni tartibga soladi. Bunday hollarda sud kreditorlar yig‘ilishini o‘tkazishni shartnoma taqdiri hal etilguniga qadar kechiktirishga haqli. Bunda qonun chiqaruvchi iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va qarorlarning asosliligi prinsiplarini ta’minlashga harakat qilgan.

Amaliyotda bu quyidagicha namoyon bo‘ladi, agar qarzdorning asosiy faoliyati muayyan yirik shartnomaga bog‘liq bo‘lsa (masalan, xomashyo yetkazib berish shartnomasi), ushbu shartnomaning saqlanishi yoki bekor qilinishi butun korxonaning kelajagini belgilab berishi mumkin. Shu sababli sud avval mazkur shartnoma taqdirini hal qiladi, shundan keyingina kreditorlar yig‘ilishida keyingi tartib-taomil masalasi ko‘rib chiqiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 754-b.

80-modda. Talablarni o‘zaro hal etish

Qarzdorning pul majburiyatlarini qarama-qarshi muqobil talabni o‘zaro hal etish orqali tugatishga, bundan ushbu moddaning sakkizinchi qismida nazarda tutilgan hol mustasno, faqat quyidagi hollarda yo‘l qo‘yiladi, agar:

qarzdor va kreditorning pul majburiyatlari bo‘yicha talablari to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritishni boshlashdan oldin yuzaga kelgan bo‘lsa;

qarzdor va kreditorning pul majburiyatlari to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish boshlanguniga qadar tuzilgan bitimlar natijasida vujudga kelgan va ushbu majburiyatlarni talab qilish davri to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish boshlanganidan keyin yuzaga kelgan bo‘lsa yoki talablarning vujudga kelish sanasi va muddati ko‘rsatilmagan bo‘lsa.

Ushbu Qonun 150- va 185-moddalarining qoidalari o‘zaro talablarni ko‘rib chiqishda inobatga olinmaydi. Taraflardan biri majburiyatlarni tugatish to‘g‘risida ma’lum qilsa, taraflarning qarama-qarshi talablari bir-biriga mos kelgan kundan e’tiboran kuchga kirgan, ya’ni majburiyatni bajarish muddati o‘tgan paytdan e’tiboran majburiyatlar, to‘lash uchun ariza tushgan-tushmaganligidan yoki qabul qilingan-qilinmaganligidan qat’i nazar, tugatilgan deb hisoblanadi.

Qarzdorning pul majburiyatlarini qarama-qarshi muqobil talabni o‘zaro hal etish orqali tugatishga quyidagi hollarda yo‘l qo‘yilmaydi, agar:

qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgandan keyin yuzaga kelgan pul majburiyatlari bo‘yicha talablari (yoki qarzdorga nisbatan shunday talablar), agar bu kreditorlarning huquqlari buzilishiga olib kelsa;

qarzdorning (yoki qarzdorga) pul majburiyatlari bo‘yicha talablari to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilguniga qadar insofsizlik bilan olingan bo‘lsa. Agar talab qilish huquqini oluvchi shaxs qarzdorda to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari yuzaga kelganligini bilgan yoki bilishi kerak bo‘lgan holda ushbu talab qilish huquqi olingan bo‘lsa, u insofsizlik bilan olingan deb taxmin qilinadi. Aks holda, faktni isbotlash talab qilish huquqini sotib oluvchining zimmasiga yuklatiladi.

Agar majburiyatdagi shaxs o‘zgarganligi natijasida talablar qarama-qarshi talablarga aylangan bo‘lsa, ularning yuzaga kelish vaqti bunday o‘zgarish sanasidan ilgari bo‘lishi mumkin emas.

O‘zaro hisob-kitob orqali qarama-qarshi muqobil talab qilish to‘g‘risidagi ariza kreditor, qarzdor yoki tugatish boshqaruvchisi tomonidan berilishi mumkin.

Qarzdorning qarama-qarshi muqobil talabini o‘zaro hal etish orqali pul majburiyatlarini tugatish to‘g‘risidagi nizolar ushbu Qonunning 60-moddasida nazarda tutilgan tartibda sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Agar o‘zaro hisob-kitoblarning shartlari to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilguniga qadar olti oy ichida yuzaga kelgan bo‘lsa, o‘zaro hisob-kitob yuzasidan faqat kreditorlarning insofsiz harakatlari sodir etilgan taqdirda nizolashish mumkin.

Agar qarzdorning talablari qiymatidan ancha past narx bo‘yicha olinganligi, shuningdek, shaxsning majburiyatlari oqilona pul kompensatsiyasisiz (shu jumladan, qarzni o‘tkazish orqali) zimmaga olinganligi oxir-oqibatda qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilishiga sabab bo‘lsa, bu kreditorning insofsizligi dalili bo‘lishi mumkin.

Sharhlanayotgan modda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishda qarzdor va kreditor o‘rtasidagi pul majburiyatlarini qarama-qarshi muqobil talablarni o‘zaro hisob-kitob qilish orqali tugatish imkoniyati va cheklovlarini belgilaydi. Bu esa FKning 343–345-moddalari qoidalariga to‘g‘ridan to‘g‘ri mos keladi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismiga ko‘ra, qarama-qarshi talablarni o‘zaro hisob-kitob qilish orqali majburiyatlarni tugatishga, odatda, faqat muayyan shartlar mavjud bo‘lgan taqdirdagina yo‘l qo‘yiladi.

1.1. Birinchi asosiy shart – qarzdor va kreditorning pul majburiyatlari to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish boshlanguniga qadar yuzaga kelgan bo‘lishi lozim. Bu qoida to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida yangi talablar orqali sun’iy hisob-kitoblar o‘tkazish va ayrim kreditorlarning ustunlikka erishishini cheklashga qaratilgan.

1.2. Ikkinchi shart – majburiyatlar ish boshlangunga qadar tuzilgan bitimlardan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin, hatto ularning bajarilish muddati keyinroq kelsa ham. Bu yerda qonun huquqiy munosabatning paydo bo‘lish sanasini hal qiluvchi deb biladi, uning ijro muddati emas. Demak, agar huquqiy asos avval yuzaga kelgan bo‘lsa, keyingi muddatning kelishi o‘zaro hisob-kitobni rad etishga asos bo‘lmaydi. Bu yondashuv huquqiy barqarorlik va shartnoma erkinligi tamoyillariga mos keladi.

2. Normada yana bir muhim jihat – o‘zaro talablarni hisobga olishda ayrim umumiy fuqarolik huquqi normalari (Qonunning 150- va 185-moddalari) qo‘llanilmasligi belgilangan. Bu to‘lovga qobiliyatsizlik munosabatlarining maxsus huquqiy tabiati bilan izohlanadi. Ya’ni to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida oddiy fuqarolik huquqiy qoidalari emas, balki kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan maxsus rejim ustuvor hisoblanadi.

2.1. Amaliyotda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qoidaga ko‘ra, agar taraflardan biri o‘zaro hisob-kitob qilish haqida ma’lum qilsa, qarama-qarshi talablar mos kelgan paytdan e’tiboran, ya’ni majburiyat bajarilishi lozim bo‘lgan paytdan boshlab tugatilgan deb hisoblanadi. Bu holatda ariza berilgan-berilmaganligi yoki qabul qilingan-qilinmaganligi ahamiyatga ega emas. Ushbu norma huquqiy jihatdan «*retroaktiv ta’sir*»-ga ega bo‘lib, u talablar mos kelgan paytni hal qiluvchi deb belgilaydi.

3. Shu bilan birga, Qonun mazkur institutni qat’iy cheklaydi va ayrim hollarda o‘zaro hisob-kitobga mutlaqo yo‘l qo‘yilmasligini belgilaydi. Jumladan, agar talablar ish qo‘zg‘atilgandan keyin yuzaga kelgan bo‘lsa va bu holat boshqa kreditorlar huquqlarini buzsa, bunday hisob-kitobga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu qoida to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida «navbat va tenglik» prinsiplarini himoya qilishga qaratilgan.

Shuningdek, talablar insofsiz ravishda olingan bo‘lsa, ya’ni kreditor qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi haqida bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan holda talabni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, bunday hisob-kitobga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunda Qonun «insoflilik» tamoyilini markaziy mezon sifatida belgilaydi. Agar kreditor qarzdorning og‘ir moliyaviy holatidan foydalanib o‘zini ustun holatga qo‘yishga harakat qilgan bo‘lsa, bunday harakat huquqiy himoyaga loyiq emas deb topiladi.

4. Majburiyatdagi shaxs almashganda talablar qarama-qarshi talabga aylangan bo‘lsa, ularning yuzaga kelish vaqti yangi subyekt kirgan sanadan oldin deb hisoblanmasligi ham muhim cheklov hisoblanadi. Bu qoida orqali sun’iy ravishda talablarni «eski» qilib ko‘rsatish va noqonuniy talablarni o‘zaro hal etish bilan tugatishning oldi olinadi.

5. O‘zaro hisob-kitob qilish to‘g‘risida ariza kreditor, qarzdor yoki sud boshqaruvchisi tomonidan berilishi mumkinligi normaning protsessual jihatini belgilaydi. Bu esa ushbu masala bo‘yicha tashabbus faqat bir tomonga bog‘liq emasligini ko‘rsatadi.

6. Ushbu normaga ko‘ra, qarzdorning qarama-qarshi muqobil talabini o‘zaro hal etish orqali pul majburiyatlarini tugatishga oid nizolar umumiy da’vo tartibida emas, balki to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida ko‘rib chiqiladi. Bu to‘g‘ridan to‘g‘ri Qonunning 60-moddasi bilan bog‘liq bo‘lib, unga muvofiq, to‘lovga qobiliyatsizlik ishidagi arizalar, shikoyatlar va kelishmovchiliklar sud tomonidan maxsus tartibda ko‘rib chiqiladi va ular yuzasidan ajrim chiqariladi.

Shu sababli ushbu norma mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, o‘zaro hisob-kitob qilishga doir bahs to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishning o‘zida, yagona

protsessual tartibda va sud nazorati ostida hal etiladi. Bu esa talablarni o‘zaro hal etishning qonuniyligi, uning boshqa kreditorlar manfaatiga ta’siri va to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomiliga mosligini kompleks baholash imkonini beradi.

7. Qonun yana bir muhim cheklovni belgilaydi, ya’ni o‘zaro hisob-kitobga asos bo‘lgan holatlar ish qo‘zg‘atilishidan oldingi olti oy ichida yuzaga kelgan bo‘lsa, bunday hisob-kitob faqat kreditor insofsiz harakat qilgan taqdirdagina nizolashilishi mumkin. Bu norma «shubhali davr» konsepsiyasini ifoda etadi va aynan shu davrda amalga oshirilgan harakatlarga nisbatan alohida e’tibor qaratilganini ko‘rsatadi.

8. Shuningdek, talablarni arzon narxda sotib olish yoki majburiyatlarni oqilona pul kompensatsiyasisiz o‘z zimmasiga olish orqali qarzdorni to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelish holatlari kreditor insofsizligining dalili sifatida baholanishi mumkinligi belgilangan. Bu qoida iqtisodiy manipulyatsiyalarni cheklash va sun’iy to‘lovga qobiliyatsizlik holatlarining oldini olishga qaratilgan. Qarang: Xalqaro sharh. 755-b.

81-modda. Kuzatuv tartib-taomili jarayonida qarzdor huquqlarining cheklanishi

Kuzatuv tartib-taomilining joriy etilishi qarzdorning rahbarini hamda qarzdorning ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida belgilangan cheklovlar bilan o‘z vakolatlarini amalga oshirishni davom ettirayotgan boshqa boshqaruv organlarini chetlashtirish uchun asos bo‘lmaydi.

Qarzdorning boshqaruv organlari:

ko‘chmas mol-mulkni ijaraga, garovga berish bilan yoki shu mol-mulkni boshqa usulda tasarruf etish bilan bog‘liq bitimlarni;

yirik bitimlarni;

zayomlar (kreditlar) olish va berish, kafolat xatlari va kafolatlar berish, talab qilish huquqlaridan o‘zga shaxs foydasiga voz kechish, qarzni boshqa shaxsga o‘tkazish, shuningdek, qarzdorning mol-mulkini ishonchli boshqarish shartnomasini tuzish bilan bog‘liq bitimlarni faqat muvaqqat boshqaruvchining yozma roziligiga binoan tuzishi mumkin.

Qarzdorning boshqaruv organlari quyidagi qarorlarni qabul qilishga haqli emas:

qarzdorni qayta tashkil etish (qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, ajratib chiqarish, bo‘lish, o‘zgartirish) va tugatish to‘g‘risidagi qaror;

yuridik shaxslarni tuzish haqidagi yoki boshqa yuridik shaxslarning ishtiroki to‘g‘risidagi qaror;

vakolatxonalar ochish va filiallar tashkil etish to‘g‘risidagi qaror;

dividendlar to‘lash yoki qarzdorning daromadini (foydasini) uning muassislari (ishtirokchilari) o‘rtasida taqsimlash to‘g‘risidagi qaror;

qarzdor tomonidan obligatsiyalar va boshqa emissiya qog‘ozlarini joylashtirish to‘g‘risidagi qaror, bundan aksiyalar chiqarish haqidagi qaror mustasno;

ilgari chiqarilgan aksiyalarni aksiyadorlardan sotib olish to‘g‘risidagi qaror.

Sharhlanayotgan modda kuzatuv tartib-taomili joriy etilganidan keyin qarzdorning boshqaruv tizimi qanday huquqiy tartibda faoliyat yuritishini, uning rahbari va boshqaruv organlari vakolatlari qaysi holatlarda saqlanishi hamda cheklanishini belgilaydi.

1. Moddaning birinchi qismiga ko‘ra, kuzatuv tartib-taomilining joriy etilishi qarzdor rahbarini, shuningdek, moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida belgilangan cheklovlar doirasida o‘z vakolatlarini amalga oshirishda davom etayotgan boshqa boshqaruv organlarini chetlashtirish uchun asos bo‘lmaydi. Bu qoidadan shu narsa anglashiladiki, kuzatuv tartib-taomili sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv yoki tugatish kabi qarzdorning boshqaruv tizimiga keskin aralashuvchi bosqich emas. Uning vazifasi, avvalo, qarzdor faoliyatini to‘xtatish emas, balki uni kuzatish, nazorat qilish, moliyaviy ahvolini baholash va keyingi tartib-taomilni tanlash uchun zarur ma’lumotlar to‘plashdan iborat. Shu sababli Qonun rahbar va boshqaruv organlarini lavozimidan chetlatishni umumiy qoida sifatida nazarda tutmaydi.

Agar kuzatuv joriy etilgan zahoti qarzdor rahbari va boshqaruv organlari to‘liq chetlatilsa, bu korxonaning kundalik faoliyati izdan chiqishiga, shartnomaviy munosabatlar buzilishiga, ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayoni to‘xtab qolishiga olib kelishi mumkin. Ayni paytda, Qonun ularning vakolatlarini mutlaq erkin qoldirmaydi. Aksincha, aynan mazkur moddaning keyingi qismlari orqali jiddiy cheklovlar joriy etiladi. Demak, normada rahbariyatni saqlab qolish va nazoratni kuchaytirish o‘rtasidagi muvozanat ko‘zlangan.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi qarzdor boshqaruv organlari qaysi bitimlarni faqat muvaqqat boshqaruvchining yozma roziligi bilan tuzishi mumkinligini belgilaydi. Bunda Qonun, avvalo, qarzdorning mulkiy holatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi, uning aktivlarini kamaytirishi yoki majburiyatlarini og‘irlashtirishi mumkin bo‘lgan bitimlarni nazorat ostiga olgan.

2.1. Xususan, ko‘chmas mol-mulkni ijaraga berish, garovga qo‘yish yoki boshqa usulda tasarruf etish bilan bog‘liq bitimlar bunday cheklovga tushadi. Chunki ko‘chmas mol-mulk, odatda, qarzdor aktivlarining eng muhim qismini tashkil etadi. Agar kuzatuv bosqichida qarzdor rahbari ushbu mol-mulkni erkin tasarruf qilish imkoniyatiga ega bo‘lsa, bu kreditorlar talablarini qanoatlantirish manbasini kamaytirib qo‘yishi mumkin.

2.2. Yirik bitimlar ham muvaqqat boshqaruvchining yozma roziligi bilan tuzilishi belgilangan. Qonun 118-moddasining uchinchi qismiga muvofiq, balans qiymati qarzdorning ko‘chmas mol-mulkini yoki bitim tuzish paytidagi aktivlari balans qiymatining o‘n foizidan ko‘prog‘ini tashkil etadigan boshqa mol-mulkini tasarruf etishga olib keladigan bitimlar yirik bitimlar jumlasiga kiradi. Bunda Qonun yirik bitim tushunchasi orqali qarzdorning aktivlari yoki majburiyatlari hajmiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan operatsiyalarni cheklamoqda. Amaliy jihatdan bu juda muhim, chunki to‘lovga qobiliyatsizlik holatida ayrim rahbarlar aktivlarni tezkor tarzda chiqarib yuborish, bozor qiymatidan past narxda sotish yoki boshqa manfaatdor shaxslar foydasiga yirik mulkiy operatsiyalar qilishga urinishi mumkin. Muvaqqat boshqaruvchining yozma roziligi talab etilishi esa bunday harakatlarning oldini olishga qaratilgan protsessual vazifasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

32. Sudlar shuni inobatga olishlari lozimki, Qonunda yirik bitimlar va sud boshqaruvchisi, kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasining roziligisiz tuzilgan manfaatdorlik mavjud bo‘lgan bitimlar yuzasidan ham nizolashish imkoniyati nazarda tutilgan.

Bunda balans qiymati qarzdorning ko‘chmas mol-mulkini yoki bitim tuzish paytidagi aktivlari balans qiymatining o‘n foizidan ko‘prog‘ini tashkil etadigan boshqa mol-mulkini tasarruf etishga olib keladigan bitimlar yirik bitimlarga kiradi.

Bitimni tuzgan taraflardan biri tashqi boshqaruvchiga yoki kreditorga nisbatan manfaatdor shaxs bo‘lsa, bunday bitimlar manfaatdorlik nazarda tutilgan bitimlar deb e’tirof etiladi (Qonun 118-moddasining uchinchi va to‘rtinchi qismi).

2.3. Shuningdek, zayomlar va kreditlar olish yoki berish, kafolat xatlari va kafolatlar berish, talab qilish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish, qarzni boshqa shaxsga o‘tkazish, ishonchli boshqaruv shartnomalarini tuzish kabi bitimlarni tuzish ham nazoratga olingan. Bu bitimlarning barchasini birlashtirib turuvchi umumiy huquqiy belgi shundaki, ular qarzdorning majburiyatlar tarkibini o‘zgartiradi, uning mulkiy holatiga jiddiy ta’sir qiladi yoki aktivlar ustidan nazoratni boshqa shaxslarga o‘tkazishga olib kelishi mumkin. Shu bois Qonun ularni oddiy joriy xo‘jalik harakatlari sifatida emas, balki kreditorlar manfaatlariga bevosita daxl qiladigan bitimlar sifatida baholaydi.

Muvaqqat boshqaruvchining aynan yozma roziligi talab qilinayotgani ham alohida ahamiyatga ega. Bu talab, bir tomondan, nazoratning realligini ta’minlasa, ikkinchi tomondan, keyinchalik nizo yuzaga kelganda rozilik berilgan-berilmaganligini aniq isbotlash imkonini yaratadi. Amaliy nuqtayi nazardan, bu qoida muvaqqat boshqaruvchi va qarzdor rahbariyati o‘rtasidagi munosabatlarning shaffof va hujjatlashtirilgan tarzda amalga oshirilishini ta’minlaydi. Demak, ushbu norma oddiy maslahatlashuvni emas, balki huquqiy ahamiyatga ega oldindan nazorat qilish mexanizmini joriy etmoqda.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi esa qarzdor boshqaruv organlari qanday qarorlarni umuman qabul qilishga haqli emasligini belgilaydi. Bunda Qonun cheklovning yanada qat’iy shaklini qo‘llaydi. Agar mazkur moddaning ikkinchi qismiga ko‘ra ayrim bitimlar muvaqqat boshqaruvchining roziligi bilan tuzilishi mumkin bo‘lsa, uchinchi qismda sanab o‘tilgan qarorlar umuman qabul qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunday yondashuv qonun chiqaruvchi qaysi qarorlarning qarzdor taqdiri va kreditorlar manfaati uchun ayniqsa hal qiluvchi ekanini alohida ajratib ko‘rsatayotganini anglatadi.

3.1. Xususan, qarzdorni qayta tashkil etish yoki tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilish taqiqlangan. Bu qoida mutlaqo asosli, chunki kuzatuv bosqichida qarzdorning kelgusi taqdiri hali sud va kreditorlar yig‘ilishi tomonidan hal etilmagan bo‘ladi. Agar

rahbariyat yoki muassislar shu davrda mustaqil ravishda qayta tashkil etish yoki tugatish haqida qaror qabul qilsa, bu to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi maxsus sud tartib-taomilini chetlab o‘tish, kreditorlar manfaatini buzish va mol-mulkni qayta taqsimlashga urinish sifatida baholanishi mumkin.

3.2. Yuridik shaxslar tuzish yoki boshqa yuridik shaxslarda ishtirok etish haqida qaror qabul qilishning taqiqlanishi ham shu mantiqqa asoslangan. To‘lovga qobiliyatsizlik holatidagi qarzdor o‘zining mavjud moliyaviy muammolarini hal qilish o‘rniga yangi korporativ tuzilmalarga kirishi, aktivlarini yangi yuridik shaxslarga chiqarishi yoki boshqa tarzda mulkiy manfaatlarni chetga surishi mumkin. Bu esa kreditorlar uchun mavjud mulkiy massani kamaytiradi. Shu bois Qonun bunday korporativ kengayish yoki qayta joylashuv harakatlarini taqiqlab, qarzdor aktivlarini saqlash maqsadini ko‘zlaydi.

3.3. Vakolatxonalar va filiallar ochishga doir qarorlarning taqiqlanishi ham xuddi shu tarzda izohlanadi. Bunday qarorlar tashqi tomondan tashkiliy masala bo‘lib ko‘rinsa-da, amalda ular moliyaviy xarajatlarni ko‘paytirishi, yangi mulkiy majburiyatlarni keltirib chiqarishi yoki aktivlarni boshqa hududlarda harakatlantirish imkonini berishi mumkin. To‘lovga qobiliyatsizlik sharoitida esa qonunchilikning asosiy vazifasi yangi tavakkalchiliklarni emas, mavjud mulkiy holatni saqlash va shaffof nazoratni ta’minlashdan iborat.

3.4. Dividendlar to‘lash yoki daromadni muassislar o‘rtasida taqsimlash haqida qaror qabul qilishning taqiqlanishi kreditorlar huquqlarini himoya qilish nuqtayi nazaridan eng muhim cheklovlardan biridir. Chunki to‘lovga qobiliyatsizlik holatidagi qarzdorning mol-mulki, avvalo, kreditorlar talablarini qanoatlantirish manbai hisoblanadi. Agar shu vaziyatda muassislar yoki ishtirokchilar foydani o‘z o‘rtasida taqsimlab olishsa, bu kreditorlar manfaatlarini ochiqdan ochiq buzish bo‘lardi. Shu sababli Qonun korporativ foydani taqsimlashni to‘liq taqiqlaydi va mulkiy massani saqlab qolishga ustuvor ahamiyat beradi.

«Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 54-moddasining birinchi qismiga ko‘ra, agar dividendlar to‘lanadigan paytda jamiyatda to‘lovga qobiliyatsizlik belgilari mavjud bo‘lsa yoki jamiyatda shunday belgilar dividendlarni to‘lash natijasida paydo bo‘lsa, jamiyat aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishga hamda dividendlar to‘lashga haqli emas.

3.5. Qarzdor tomonidan obligatsiyalar va boshqa emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilishning taqiqlanishi ham mantiqan asosli. Chunki bunday harakatlar qarzdorning moliyaviy majburiyatlar tarkibini o‘zgartiradi, yangi investorlar yoki kreditorlar qatlamini shakllantiradi va mavjud kreditorlar manfaatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunda qonun aksiyalar chiqarish haqidagi qarorni istisno sifatida ko‘rsatgan bo‘lsa-da, umumiy qoida shundan iboratki, kuzatuv bosqichida qarzdorning moliyaviy-qimmatli qog‘ozlar bozorida faol kengayishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

«Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 38-moddasining birinchi qismiga ko‘ra, agar

oddiy aksiyalarni olish paytida jamiyatda to‘lovga qobiliyatsizlik belgilari mavjud bo‘lsa yoki bunday belgilar u aksiyalarni olganligi natijasida paydo bo‘lsa, jamiyat o‘zining joylashtirilgan oddiy aksiyalarini olishga haqli emas.

3.6. Ilgari chiqarilgan aksiyalarni aksiyadorlardan sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilishning taqiqlanishi ham kreditorlar manfaatini himoya qilishga qaratilgan. Bu orqali qarzdor o‘z mablag‘larini korporativ ishtirokchilar foydasiga sarflab kreditorlar qanoatlantirilishi mumkin bo‘lgan aktivlarni qisqartirishi mumkin. Qonun ushbu holatda ham aksiyadorlar manfaatini emas, kreditorlar manfaatini ustuvor qo‘ymoqda. Qarang: Xalqaro sharh. 756-b.

82-modda. Muvaqqat boshqaruvchini tayinlash

Muvaqqat boshqaruvchi kreditorlar yoki vakolatli davlat organi yoxud sud boshqaruvchilarining jamoat birlashmasi taklif etgan nomzodlar orasidan sud tomonidan tayinlanadi.

Sudning muvaqqat boshqaruvchini tayinlash to‘g‘risidagi ajrimida unga to‘lanadigan haq miqdori va uni to‘lash tartibi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Muvaqqat boshqaruvchiga to‘lanadigan haq miqdori kreditorlar yig‘ilishining qarori asosida sud tomonidan o‘zgartirilishi mumkin.

Muvaqqat boshqaruvchi uni o‘z vazifasini bajarishdan ozod etish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli.

Muvaqqat boshqaruvchining uni o‘z vazifasini bajarishdan ozod etish to‘g‘risidagi iltimosnomasi qanoatlantirilgan taqdirda sud kreditorlar taklif etgan nomzodlar orasidan yangi muvaqqat boshqaruvchini tayinlaydi. Muvaqqat boshqaruvchining nomzodi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, sud muvaqqat boshqaruvchini vakolatli davlat organi yoki sud boshqaruvchilarining jamoat birlashmasi taklif etgan nomzodlar orasidan tayinlaydi. Muvaqqat boshqaruvchi yangi muvaqqat boshqaruvchi tayinlanguniga qadar o‘z vazifasini bajarishni davom ettiradi.

Sharhlanayotgan modda kuzatuv tartib-taomilining asosiy ishtirokchisi hisoblangan muvaqqat boshqaruvchini tayinlash tartibi, unga haq to‘lash, uni vazifasini bajarishdan ozod etish va yangi muvaqqat boshqaruvchini tayinlash mexanizmini belgilaydi.

1. Muvaqqat boshqaruvchining maqomi Qonunda nazarda tutilgan barcha sud boshqaruvchilari uchun umumiy bo‘lgan talablar bilan belgilanadi.

Qonunning 3-moddasida berilgan ta’rifga ko‘ra, sud boshqaruvchisi (muvaqqat boshqaruvchi, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi, tashqi boshqaruvchi, tugatish boshqaruvchisi, moliyaviy boshqaruvchi) – to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini o‘tkazish uchun sud tomonidan tayinlanadigan shaxs.

Moddaning birinchi qismiga ko‘ra, muvaqqat boshqaruvchi kreditorlar yoki vakolatli davlat organi yoxud sud boshqaruvchilarining jamoat birlashmasi taklif etgan nomzodlar orasidan sud tomonidan tayinlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

14. Mol-mulki mavjud bo‘lgan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilinganda unda muvaqqat boshqaruvchining nomzodi ko‘rsatiladi. Arizada muvaqqat boshqaruvchining nomzodi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, sud arizachidan yoki vakolatli davlat organidan yoxud sud boshqaruvchilarining jamoat birlashmasidan tegishli nomzodni taqdim etishni so‘raydi.

Bu qoidadan ko‘rinadiki, muvaqqat boshqaruvchini tayinlashda bir necha subyektning ishtiroki nazarda tutilgan bo‘lib, ularning har biri muayyan manfaat va funksiyani ifoda etadi. Kreditorlar, avvalo, ushbu ish natijasidan eng manfaatdor shaxslar sifatida muvaqqat boshqaruvchi nomzodi yuzasidan o‘z pozitsiyalarini bildirish huquqiga ega. Vakolatli davlat organining ishtirok etishi esa to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining davlat tomonidan muayyan darajada nazorat qilinishi, qonunchilik talablariga rioya etilishi va kasbiy muvofiqlikni ta’minlashga qaratilgan. Sud boshqaruvchilarining jamoat birlashmasi orqali nomzod ko‘rsatish imkoniyati esa ushbu sohada kasbiy o‘zini o‘zi boshqarish elementlarini kiritadi.

Biroq ushbu subyektlar nomzod taklif etsalar-da, tayinlash vakolati to‘liq sudga tegishli ekani alohida ahamiyatga ega. Bu holat muvaqqat boshqaruvchining huquqiy maqomi faqat kreditorlar ishonchli vakili yoki davlat organining nomzodi bilan cheklanib qolmasligini, balki u sud tomonidan ishga jalb qilinadigan mustaqil protsessual ishtirokchi ekanini anglatadi.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrdagi 838-son qarori bilan tasdiqlangan «Sud boshqaruvchilari malaka attestatini berish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom (4-Ilova) ning 33-bandiga ko‘ra, sud boshqaruvchisi sifatidagi faoliyat vakolatli tashkilot tomonidan quyidagi to‘rt toifaga muvofiq berilgan attestat asosida amalga oshiriladi:

kuzatuv, sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv, tugatishga doir ish yuritish tartib-taomillari va to‘lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartib-taomili va jismoniy shaxs qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va mol-mulkini sotish tartib-taomilini amalga oshirish uchun – birinchi toifadagi attestat;

kuzatuv, sud sanatsiyasi, tugatishga doir ish yuritish tartib-taomillari va to‘lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartib-taomili va jismoniy shaxs qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va mol-mulkini sotish tartib-taomilini amalga oshirish uchun – ikkinchi toifadagi attestat;

kuzatuv, tugatishga doir ish yuritish, to‘lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartib-taomili va jismoniy shaxs qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va mol-mulkini sotish tartib-taomilini amalga oshirish uchun – uchinchi toifadagi attestat;

yuridik shaxslar to‘lovga qobiliyatsizligining soddalashtirilgan tartib-taomili va jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va mol-mulkini sotish tartib-taomilini amalga oshirish uchun – to‘rtinchi toifadagi attestat.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

17. Qonun 22-moddasining birinchi va ikkinchi qismlariga muvofiq, oliy ma’lumotga hamda kamida ikki yillik ish stajiga ega bo‘lgan va vakolatli davlat organida attestatsiyadan o‘tgan shaxslar, shuningdek, ushbu talablarga javob beradigan hamda fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini yuritishga ixtisoslashuvi bo‘yicha litsenziyaga ega bo‘lgan advokatlar sud boshqaruvchilari etib tayinlanishi mumkin.

Vakolatli davlat organi sud boshqaruvchilarining yagona reyestrini yuritadi va undagi ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga idoralararo ma’lumot almashinuvi asosida elektron tarzda taqdim etadi.

Sud boshqaruvchisini tayinlash masalasini hal etishda sud attestat to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yagona reyestrdan olishi va ish hujjatlariga qo‘shib qo‘yishi lozim.

18. Qarzdorga yoki kreditorlarga nisbatan manfaatdor shaxslar, sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar, o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili joriy etilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki jismoniy shaxslar, ilgari sud boshqaruvchisi vazifasini bajarayotganda qarzdorga, kreditorlarga zarar yetkazgan va bu zararning o‘rnini qoplamagan shaxslar, vakolatli davlat organi qarori bilan sud boshqaruvchisi attestatining amal qilish muddati tugatilgan (bekor qilingan) va (yoki) vaqtincha to‘xtatib turilgan (vaqtincha to‘xtatib turilgan muddatga) shaxslar, o‘ziga nisbatan boshqa shaxslarning ishlarini va (yoki) mol-mulkini boshqarish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishiga cheklov belgilangan shaxslar (bunday faoliyat bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum etilgan shaxslar) sud boshqaruvchisi etib tayinlanishi mumkin emas.

Ko‘rsatilgan asoslarga ko‘ra, sud boshqaruvchisi lavozimiga tavsiya etilgan nomzodni sud bu vazifaga tayinlashni rad etishi yoki sud boshqaruvchisini o‘z vazifasini bajarishdan ozod etishi lozim.

Sudlarning e’tibori qaratilsinki, qarzdor va kreditorlarga nisbatan manfaatdor shaxslar deganda Qonunning 21-moddasida ko‘rsatilgan shaxslar tushuniladi.

Shunday qilib, sudning vazifasi taklif etilgan muvaqqat boshqaruvchi nomzodining unga qo‘yiladigan talablarga muvofiqligini tekshirish, tanlov o‘tkazish va ushbu nomzodni taqdim etgan shaxslar tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan suiiste’molliklarning oldini olishdan iboratdir.

2. Ushbu normaga muvofiq, sudning muvaqqat boshqaruvchini tayinlash to‘g‘risidagi ajrimida unga to‘lanadigan haq miqdori va uni to‘lash tartibi ko‘rsatilgan bo‘lishi shart. Bunda, Qonunning 26-moddasi o‘ninchi qismiga muvofiq, ko‘rib chiqilayotgan ish bo‘yicha qo‘shimcha haq ushbu ish bo‘yicha sud boshqaruvchisiga to‘langan umu-

miy summaning yarmidan oshmasligi kerak. Bu qoida muvaqqat boshqaruvchining faoliyati kasbiy, haq evaziga amalga oshiriladigan va huquqiy jihatdan aniq moliyaviy ta’minlangan bo‘lishi lozimligini anglatadi. Muvaqqat boshqaruvchi to‘lovga qobiliyatsizlik ishida katta hajmdagi tashkiliy, tahliliy va huquqiy vazifalarni bajaradi. U qarzdorning moliyaviy ahvolini o‘rganadi, kreditorlar talablarini qabul qilish jarayonida ishtirok etadi, birinchi yig‘ilishni tashkil qiladi, mulkiy holatni nazorat qiladi. Shu sababli uning mehnati aniq va oldindan belgilangan tartibda haq to‘lash bilan ta’minlanishi qonuniy va mantiqiydir.

Bu holat ayniqsa muhim, chunki muvaqqat boshqaruvchi o‘z vazifalarini mustaqil va samarali bajarishi uchun uning haq to‘lanishi masalasi noaniq qolmasligi kerak. Demak, ushbu norma muvaqqat boshqaruvchining protsessual maqomini emas, balki uning moddiy ta’minlanishini ham sud nazorati ostida belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

22. Sud boshqaruvchisiga haq to‘lash miqdori va tartibi kreditorlar yig‘ilishi tomonidan belgilanadi hamda sudning ajrimi yoki hal qiluv qarori bilan tasdiqlanadi, Qonun 26-moddasining ikkinchi, to‘rtinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Sud boshqaruvchisi haqining miqdorini belgilashda qarzdor mol-mulkining qiymati va uning amalga oshiradigan ishlari hajmi hisobga olinishi lozim.

Kreditorlar yig‘ilishining qarori bilan sud boshqaruvchisiga uning faoliyati natijalariga qarab Qonunda belgilangan hollarda va miqdorda qo‘shimcha haq belgilanishi mumkin.

Agar kreditorlar bilan tuzilgan bitimda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, sud boshqaruvchisining haqi va qo‘shimcha haq qarzdorning mol-mulki hisobidan qoplanadi.

Sudlar inobatga olishi lozimki, Qonun 59-moddasining uchinchi qismiga muvofiq, sud qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi alomatlari aniqlanmaganligi munosabati bilan uni bankrot deb topishni rad etish haqida qaror qabul qilgan taqdirda, sud xarajatlari, shu jumladan, to‘lov muddati kechiktirilgan yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lanadigan davlat boji bo‘yicha xarajatlar, Qonunning 53- va 54-moddalarida nazarda tutilgan ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish xarajatlari, sud boshqaruvchilariga haq to‘lash xarajatlari sudga qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza bilan murojaat etgan kreditorlarga tegishli bo‘ladi va kreditorlar o‘rtasida ularning talablariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Ushbu qoida qarzdorning mol-mulki mavjud bo‘lmagan yoki ushbu xarajatlarni qoplashga yetarli bo‘lmagan holda ham qo‘llaniladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida muvaqqat boshqaruvchiga to‘lanadigan haq miqdori kreditorlar yig‘ilishining qarori asosida sud tomonidan o‘zgartirilishi mumkinligi nazarda tutilgan. Bu qoida muvaqqat boshqaruvchi mehnati uchun haq belgilashda ham sud nazorati, ham kreditorlar irodasi inobatga olinishini ko‘rsatadi. Kreditorlar yig‘ilishi ushbu masalada bejiz ishtirok etmaydi, chunki aynan kreditorlar muvaqqat boshqaruvchi faoliyati samaradorligini, ish hajmini, amalga oshirilgan vazifalarning murakkabligini amalda his qiladigan asosiy manfaatdor subyektlar hisoblanadi. Shuning uchun haq miqdorini o‘zgartirishda ularning qarori ahamiyatli omil sifatida qabul qilinadi.

Shu bilan birga, kreditorlar qarori o‘z-o‘zidan yetarli emas, u faqat sud tomonidan o‘zgartirish kiritilishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu ham muhim muvozanatni ta’minlaydi. Agar haq miqdorini o‘zgartirish to‘liq kreditorlar ixtiyoriga topshirilganida, muvaqqat boshqaruvchining mustaqilligiga ta’sir qilish xavfi paydo bo‘lardi. Chunki ayrim hollarda kreditorlar unga bosim o‘tkazish vositasi sifatida haq to‘lash masalasidan foydalanishga urinishlari mumkin. Sud nazoratining saqlanib qolishi esa bu jarayonni qonuniylik va adolat mezonlari doirasida ushlab turishga xizmat qiladi.

Muvaqqat boshqaruvchisiga haq to‘lash to‘g‘risidagi nizolar Qonunning 60-moddasida nazarda tutilgan tartibda sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

4. Ushbu normaga ko‘ra, muvaqqat boshqaruvchi uni o‘z vazifasini bajarishdan ozod etish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishga haqli. Bu norma muvaqqat boshqaruvchining protsessual maqomi majburiy va qaytarib bo‘lmas emasligini, u ham muayyan holatlarda o‘z vazifasidan ozod etilishni so‘rash huquqiga ega ekanini anglatadi. Bu qoida shaxsiy erkinlik, kasbiy xolislik va protsessual adolat tamoyillariga mos keladi. Chunki ayrim vaziyatlarda muvaqqat boshqaruvchida manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi, salomatlik holati yomonlashishi, ishni davom ettirishga obyektiv to‘sqinlik qiluvchi holatlar paydo bo‘lishi mumkin. Bunday sharoitda uni majburan vazifada ushlab turish ishning samaradorligiga ham, qonuniyligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu bilan birga, muvaqqat boshqaruvchining o‘zini o‘zi vazifadan ozod etilgan deb hisoblashi yetarli emas. Bu masala ham sud orqali hal etiladi. Demak, uning arizasi huquqiy ahamiyatga ega tashabbus hisoblanadi, ammo yakuniy qarorni sud qabul qiladi. Bu qoida protsessual barqarorlik nuqtayi nazaridan muhim, chunki aks holda muvaqqat boshqaruvchi istalgan paytda vazifani tashlab ketishi va ishda boshqaruv bo‘shlig‘i vujudga kelishi mumkin edi.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismi muvaqqat boshqaruvchining o‘z vazifasidan ozod etilishi haqidagi iltimosnomasi qanoatlantirilgan taqdirda yangi muvaqqat boshqaruvchini tayinlash tartibini belgilaydi. Unga ko‘ra, sud yangi muvaqqat boshqaruvchini, avvalo, kreditorlar taklif etgan nomzodlar orasidan tayinlaydi. Bu yerda Qonun kreditorlarning manfaatdor subyekt sifatidagi ustuvor rolini saqlab qolgan. Agar kreditorlar nomzod ko‘rsatmagan bo‘lsa, sud muvaqqat boshqaruvchini vakolatli davlat organi yoki sud boshqaruvchilarining jamoat birlashmasi taklif etgan nomzodlar orasidan tayinlaydi. Demak, Qonun yangi muvaqqat boshqaruvchini tayinlashda ham

muayyan ketma-ketlik va manbalar tizimini nazarda tutadi: birinchi navbatda kreditorlar, keyin esa davlat organi va kasbiy birlashma.

Bu mexanizmning amaliy ahamiyati shundaki, muvaqqat boshqaruvchi almashganda ish to‘xtab qolmasligi va vakolatli shaxsni topish masalasi tufayli jarayon kechikib ketmasligi ta’minlanadi. Qonun nomzod ko‘rsatish manbalari doirasini keng belgilash orqali boshqaruv bo‘shlig‘i paydo bo‘lishining oldini oladi. Bu ayniqsa to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarida muhim, chunki vaqt o‘tishi bilan qarzdor mol-mulkining qiymati kamayishi, hujjatlar yo‘qolishi yoki boshqa kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazuvchi holatlar yuzaga kelishi mumkin.

Mazkur moddaning so‘nggi jumlasiga ko‘ra, muvaqqat boshqaruvchi yangi muvaqqat boshqaruvchi tayinlanguniga qadar o‘z vazifasini bajarishni davom ettiradi. Bu qoida protsessual uzluksizlikning muhim kafolati hisoblanadi. Chunki muvaqqat boshqaruvchi ozod etish haqidagi ariza qanoatlantirilgan taqdirda ham, yangi shaxs rasman tayinlangunga qadar muayyan o‘tish davri mavjud bo‘lishi mumkin. Agar shu vaqt ichida hech kim vakolatli bo‘lmasa, qarzdor mol-mulkini saqlash, hujjatlarni nazorat qilish, kreditorlar bilan bog‘liq harakatlarni muvofiqlashtirish kabi masalalar nazoratsiz qolishi mumkin. Qonun bu xavfni bartaraf etish maqsadida avvalgi muvaqqat boshqaruvchining vakolatlarini yangi tayinlovga qadar saqlab qoladi.

Umuman olganda, mazkur modda muvaqqat boshqaruvchining to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishdagi markaziy o‘rnini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi, uning mustaqilligi va kasbiy maqomini ta’minlaydi, ayni paytda, kreditorlar irodasi va sud nazoratini ham uyg‘unlashtiradi. Shu ma’noda, mazkur modda muvaqqat boshqaruvchi institutining samarali ishlashi, kuzatuv bosqichining tartibli kechishi va keyingi tartib-taomiliga o‘tish uchun zarur tashkiliy barqarorlikni ta’minlovchi muhim norma sifatida namoyon bo‘ladi.

83-modda. Muvaqqat boshqaruvchining huquqlari

Muvaqqat boshqaruvchi quyidagilarga haqli:

bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida, shuningdek, qarzdor tomonidan qonunchilikda belgilangan talablar buzilgan holda tuzilgan yoki ijro etilgan o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimlarning haqiqiy emasligi oqibatlarining qo‘llanilishi haqida sudga o‘z nomidan talablar qo‘yishga;

ushbu Qonunning 79-moddasida nazarda tutilgan hollarda kuzatuv tartib-taomili davrida kreditorlarning talablarini bajarishga e’tirozlar bildirishga;

kreditorlarning talablari bo‘yicha qarzdorning taqdim etilgan e’tirozlari asosliligini sudya tomonidan tekshirishda ishtirok etishga;

qarzdorning mol-mulki but saqlanishini ta’minlash yuzasidan qo‘shimcha choralar ko‘rish haqidagi, shu jumladan, ushbu Qonunning 81-moddasida

nazarda tutilmagan bitimlarni muvaqqat boshqaruvchining roziligisiz tuzishni taqiqlash to‘g‘risidagi, mol-mulkni saqlash uchun uchinchi shaxslarga berish haqidagi, shuningdek, bunday choralarni bekor qilish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etishga;

qarzdorning rahbarini vazifalarini bajarishdan chetlashtirish to‘g‘risida sudga iltimosnoma bilan murojaat etishga;

qarzdorning faoliyatiga taalluqli har qanday axborot va hujjatlarni olishga.

Muvaqqat boshqaruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Qarzdorning boshqaruv organlari muvaqqat boshqaruvchining talabiga binoan unga qarzdorning faoliyatiga taalluqli har qanday axborotni taqdim etishi shart.

Sharhlanayotgan modda kuzatuv tartib-taomilida muvaqqat boshqaruvchining protsessual va tashkiliy huquqlarini belgilaydi.

1. Mazkur moddada belgilangan huquqlar muvaqqat boshqaruvchining kuzatuv tartib-taomilida real va samarali nazorat olib borishini ta’minlaydi hamda to‘lovga qobiliyatsizlik ishining qonuniy, xolis va adolatli hal etilishiga xizmat qiladi.

1.1. Muvaqqat boshqaruvchi bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida, shuningdek, qarzdor tomonidan qonunchilikda belgilangan talablar buzilgan holda tuzilgan yoki ijro etilgan o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimlarning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash haqida sudga o‘z nomidan talab qo‘yishga haqli.

FKning 113-moddasiga binoan, bitim ushbu Kodeksda va boshqa qonunlarda belgilab qo‘yilgan asoslarga ko‘ra, sud haqiqiy emas deb topganligi sababli (nizoli bitim) yoki bunday deb topilishidan qat’i nazar, haqiqiy emas deb hisoblanadi (o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitim).

Nizoli bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi talabni ushbu Kodeksda ko‘rsatilgan shaxslar qo‘yishlari mumkin.

O‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitim haqiqiy emasligining oqibatlarini qo‘llanish to‘g‘risidagi talabni har qanday manfaatdor shaxs qo‘yishi mumkin. Sud bunday oqibatlarni o‘z tashabbusi bilan qo‘llashga haqli.

To‘lovga qobiliyatsizlik holatida qarzdor tomonidan oldin tuzilgan yoki amalga oshirilgan ayrim bitimlar kreditorlar manfaatiga zid, aktivlarni chiqarib yuborishga qaratilgan, soxta yoki afzallik beruvchi xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Agar bunday bitimlar o‘z vaqtida bahslashilmasa, qarzdorning mulkiy massasi qisqarib ketadi va kreditorlar talablarini qanoatlantirish imkoniyati kamayadi. Shu bois Qonun muvaqqat boshqaruvchiga mustaqil da’vo qo‘zg‘atish huquqini berib, kreditorlar manfaatlarini real himoya qilish imkonini yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

32. Bitimlar O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (bundan buyon matnda FK deb yuritiladi)da nazarda tutilgan asoslardan tashqari Qonunning 63–66-moddalari, 120-moddasining ikkinchi qismi, 140-moddasining yettinchi qismi, 169-moddasi, 219-moddasining beshinchi qismi va 231-moddasining birinchi qismida belgilangan asoslar bo‘yicha ham sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Sud boshqaruvchisi, talablari kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan kreditorlar, shuningdek, nizolashilayotgan bitim bilan huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan yoki huquqlari va qonuniy manfaatlariga ta’sir qiladigan shaxslar qarzdor tomonidan tuzilgan bitimni (nizoli yoki o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan) haqiqiy emas deb topish va (yoki) uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash to‘g‘risida da’vo taqdim etish huquqiga ega.

Bunday da’volar bo‘yicha da’vo muddati mazkur shaxslar bitimni haqiqiy emas deb topish uchun asoslar mavjudligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan kundan e’tiboran hisoblanadi.

Qarzdorning bitimlarini haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi da’vo arizalari to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasidan tashqarida, protsessual qonunchilikda belgilangan ishlarning taalluqliligi va sudlovga tegishliligi to‘g‘risidagi umumiy qoidalarga rioya etilgan holda ko‘rib chiqiladi.

Qonunning 63-moddasi qoidalariga ko‘ra, bitimlar, agar ular qarzdor yoki uning vakili tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgunga qadar uch yil ichida tuzilgan bo‘lsa va agar Qonunda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday bitimlar to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari joriy etilgandan keyin ham nizolashilishi mumkin.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganidan keyin yoki to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza berilishidan oldingi o‘ttiz olti oy ichida qarzdor yuridik shaxs tomonidan tuzilgan, qarzdorning ishtirokchisi qarzdorning ishtirokchilari tarkibidan chiqqanligi munosabati bilan unga mol-mulkdagi ulushni to‘lash (ajratib berish) bilan bog‘liq bitim ham sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

1.2. Muvaqqat boshqaruvchi Qonunning 79-moddasida nazarda tutilgan hollarda kuzatuv tartib-taomili davrida kreditorlar talablarini bajarishga e’tiroz bildirishga haqli. Bu huquq ham kreditorlar o‘rtasida tenglikni ta’minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. To‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida ayrim kreditorlarning talablarini boshqalarga nisbatan ustun tarzda qanoatlantirishga urinishlar bo‘lishi mumkin. Muvaqqat boshqaruvchining bunday harakatlarga e’tiroz bildirish huquqi aynan shu xavfni bartaraf etishga qaratilgan. Bu vakolatning amaliy mazmuni shundaki, muvaqqat boshqaruvchi talablarning qonuniyligiga, ularni qanoatlantirish navbatiga, kuzatuv

bosqichida muayyan to‘lovni amalga oshirish mumkin yoki mumkin emasligiga huquqiy baho beradi. Agar u muayyan kreditor foydasiga to‘lov amalga oshirilishi boshqa kreditorlar huquqlarini buzadi deb hisoblasa, sud yoki tegishli tartibda e’tiroz bildirishi mumkin. Shu jihatdan mazkur vakolat kreditorlar o‘rtasidagi paritetni himoya qilishning muhim protsessual vositasi hisoblanadi.

1.3. Muvaqqat boshqaruvchi kreditorlar talablari bo‘yicha qarzdor taqdim etgan e’tirozlarning asosliligini sudya tekshirayotganda ishtirok etishga haqli ekani belgilangan.

Qonun 49-moddasining uchinchi qismida kreditorlarning talablari yuzasidan qarzdor yoki muvaqqat boshqaruvchi yoxud davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organda e’tirozlar mavjud bo‘lsa, sudya ularning e’tirozlari asosliligini tekshirishi, to‘rtinchi qismida sudyaning qarzdor yoki muvaqqat boshqaruvchi yoxud davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organ e’tirozlari asosliligini tekshirishi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishning belgilangan muddati tugashiga kamida bir oy qolganda o‘tkazilishi, beshinchi qismida sud qarzdor yoki muvaqqat boshqaruvchi yoxud davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organning e’tirozlari asosliligini ko‘rib chiqish natijalari asosida kreditorlar talablarini kreditorlarning talablari reyestriga kiritish haqida yoki ularni reyestrga kiritishni rad etish to‘g‘risida ajrim chiqarishi, ajrimda kreditorlarning, agar ularga nisbatan e’tirozlar asossiz deb topilgan bo‘lsa, talablari miqdori va ularni qanoatlantirish navbati ko‘rsatilishi belgilangan.

Ushbu qoida kreditor talablari reyestrini shakllantirishda har bir talabning haqiqiyligi, miqdori va huquqiy asosi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur huquq reyestrni to‘g‘ri va adolatli shakllantirishning muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi.

1.4. Muvaqqat boshqaruvchiga qarzdor mol-mulki but saqlanishini ta’minlash uchun qo‘shimcha choralar ko‘rish haqida sudga murojaat qilish huquqini beradi. Bunda Qonun juda keng va amaliy ahamiyatga ega vakolatni nazarda tutgan. Xususan, muvaqqat boshqaruvchi Qonunning 81-moddasida nazarda tutilmagan bitimlarni ham o‘z roziligisiz tuzishni taqiqlashni, mol-mulkni saqlash uchun uchinchi shaxslarga berishni yoki, aksincha, avval ko‘rilgan choralarni bekor qilishni so‘rab sudga murojaat etishi mumkin. Ushbu norma shuni anglatadiki, Qonunning 81-moddasida belgilangan cheklovlar hamma holatlarni qamrab olmasligi mumkin va ishning aniq sharoitiga qarab qo‘shimcha muhofaza choralari talab etilishi ehtimoldan xoli emas.

1.5. Muvaqqat boshqaruvchining qarzdor rahbarini vazifalarini bajarishdan chetlashtirish to‘g‘risida sudga iltimosnoma bilan murojaat qilish huquqi ham nazarda tutilgan. Bu vakolat alohida ahamiyatga ega, chunki Qonunning 81-moddasiga ko‘ra, kuzatuv joriy etilishi rahbarni avtomatik chetlatishga asos bo‘lmaydi. Lekin ayrim holatlarda rahbarning harakatlari mol-mulkni saqlashga, hujjatlarni taqdim etishga, qarzdor faoliyati nazoratini amalga oshirishga yoki kreditorlar manfaatlariga jiddiy to‘sqinlik qilishi mumkin. Bunday vaziyatda muvaqqat boshqaruvchi sud oldida rahbarni chetlashtirish masalasini qo‘yishga haqli. Bunda ham muhim muvozanat saqlangan: muvaqqat boshqaruvchi rahbarni mustaqil ravishda chetlatmaydi, balki sudga murojaat qiladi. Demak, bunday chora sud nazorati ostida qo‘llaniladi va faqat yetarli asoslar mavjud bo‘lganda amalga oshiriladi. Bu kreditorlar manfaatini himoya qilish bilan birga rahbarning huquqlarini ham asossiz cheklashning oldini oladi.

1.6. Moddaning yana bir muhim qoidasiga ko‘ra, muvaqqat boshqaruvchi qarzdor faoliyatiga taalluqli har qanday axborot va hujjatni olishga haqli. Bu uning barcha boshqa vakolatlarini amalga oshirish uchun asosiy vosita hisoblanadi. Bu axborot va hujjatlarsiz moliyaviy tahlil o‘tkazish, bitimlarni huquqiy baholash, mulkni saqlash choralarini ko‘rish, kreditorlar talablarini atroflicha o‘rganib chiqish imkoniyati bo‘lmaydi. Shu sababli bu huquq unga qarzdorning moliyaviy ahvolini xolisona baholash, to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlarini aniqlash va mol-mulkni saqlash choralarini ko‘rish imkonini beradi.

2. Moddaning ikkinchi qismida muvaqqat boshqaruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkinligi qayd etilgan. Muvaqqat boshqaruvchi sud boshqaruvchisi maqomiga ega bo‘lganligi bois, unga nisbatan Qonunning 23-moddasida nazarda tutilgan sud boshqaruvchisining to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha huquqlari ham tatbiq etiladi.

3. Qarzdorning boshqaruv organlari muvaqqat boshqaruvchining talabiga binoan unga qarzdorning faoliyatiga taalluqli har qanday axborotni taqdim etishi shart. Bu qoida amaliyotda juda muhim, chunki to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarida ko‘pincha rahbariyat hujjatlarni yashirish, kechiktirish yoki to‘liq bermaslik orqali nazoratni qiyinlashtirishga harakat qilishi mumkin. Qonun esa bunday harakatlarning oldini olish uchun muvaqqat boshqaruvchining talabini majburiy xarakterga ega qilib qo‘ygan. Qarang: Xalqaro sharh. 757-b.

84-modda. Muvaqqat boshqaruvchining majburiyatlari

Muvaqqat boshqaruvchi:

qarzdorning mol-mulki but saqlanishini ta’minlash choralarini ko‘rishi;

qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil qilishi;

qarzdorning kreditorlarini aniqlashi va kreditorlarning talablari reyestrini yuritishi, qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi haqida kreditorlarni xabardor qilishi;

kreditorning talabiga ko‘ra qarzdorning moliyaviy ahvoli va (yoki) o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni o‘n kunlik muddatda taqdim etishi;

kreditorlarning birinchi yig‘ilishini chaqirishi va o‘tkazishi shart.

Muvaqqat boshqaruvchining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Muvaqqat boshqaruvchi kuzatuv tartib-taomili tugagandan keyin, lekin sud majlisining belgilangan sanasiga kamida besh kun qolganda sudga o‘z faoliyati haqidagi hisobotni, qarzdorning moliyaviy ahvoli to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hamda qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash mumkinligi yoki mumkin emasligi haqidagi takliflarni, kreditorlarning birinchi yig‘ilishi bayonnomasini ushbu Qonunning 16-moddasida nazarda tutilgan hujjatlarni ilova qilgan holda taqdim etishi shart.

Sharhlanayotgan modda muvaqqat boshqaruvchining kuzatuv tartib-taomilidagi asosiy vazifalari va majburiyatlarini belgilaydi.

1. Muvaqqat boshqaruvchining majburiyatlari qarzdor mol-mulkini saqlash, kreditorlar huquqini himoya qilish, moliyaviy ahvolni obyektiv baholash va sudga asoslangan taklif kiritish orqali butun jarayonning qonuniyligi va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan. Muvaqqat boshqaruvchining majburiyatlari uning huquqlari bilan bevosita bog'liqdir.

1.1. Muvaqqat boshqaruvchining majburiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, qarzdorning mol-mulki but saqlanishini ta'minlash choralarini ko'rish majburiyati uning eng birinchi vazifasidir. Bu yerda gap mol-mulkni yashirish, sotib yuborish, boshqa shaxslarga o'tkazish yoki qiymatini kamaytirish xavfining oldini olish haqida ketmoqda. Amaliy jihatdan bu inventarizatsiya o'tkazish, hujjatlarni tekshirish, aktivlar harakatini nazorat qilish kabi choralarda ifodalanadi;

ikkinchidan, qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil qilish majburiyati faqat buxgalteriya hisobotini ko'rib chiqish bilan cheklanmaydi. Bunda qarzdorning aktiv va passivlari, debitorlik va kreditorlik qarzlari, to'lov qobiliyati, likvidlik darajasi, zarar ko'rish sabablari va kelgusida to'lov qobiliyatini tiklash ehtimoli baholanadi. Aynan shu tahlil butun ish taqdirini belgilab beruvchi asosiy xulosalarga olib keladi;

uchinchidan, kreditorlarni aniqlash va talablar reyestrini yuritish majburiyati barcha kreditorlar tengligini ta'minlashga qaratilgan. Bu reyestr kimning, qay miqdorda va qaysi asosda talab qilayotganini rasmiy tarzda qayd etadi. Amaliyotda ushbu bosqichda eng ko'p nizolar talablarning asosliligi, miqdori yoki navbati bo'yicha kelib chiqadi;

to'rtinchidan, kreditorlarni kuzatuv tartib-taomili joriy etilgani haqida xabardor qilish majburiyati protsessual adolatni ta'minlaydi. Chunki kreditor o'z huquqini amalga oshirishi uchun ish qo'zg'atilgani va tegishli tartib joriy etilganidan xabardor bo'lishi shart. Xabar berilmasligi kreditorning talabini o'z vaqtida bildirishiga to'sqinlik qilishi mumkin;

beshinchidan, kreditor talabiga ko'ra o'n kun ichida axborot berish majburiyati muvaqqat boshqaruvchining hisobdorligini ta'minlaydi. Bu qoida uning faoliyatini yopiq emas, balki nazorat qilinishi mumkin bo'lgan jarayonga aylantiradi. Amalda esa bu norma kreditorlarga ishning haqiqiy holatini bilish va o'z pozitsiyasini shakllantirish imkonini beradi;

oltinchidan, kreditorlarning birinchi yig'ilishini chaqirish va o'tkazish majburiyati juda muhim, chunki to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilidagi markaziy institutsional mexanizmlardan biri hisoblangan ushbu yig'ilishda kreditorlar keyingi taomil bo'yicha o'z munosabatini bildiradi.

2. Ushbu normada muvaqqat boshqaruvchining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkinligi nazarda tutilgani ularning faqat shu modda bilan cheklanmasligini anglatadi. Muvaqqat boshqaruvchi sud boshqaruvchisi maqomiga ega bo'lganligi bois, uning zimmasida Qonunning 23-moddasida nazarda tutilgan sud boshqaruvchisining to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish bo'yicha majburiyatlari bo'lishi mumkin.

3. Ushbu normaga ko'ra, muvaqqat boshqaruvchi kuzatuv tugagach, ammo sud majlisiga kamida besh kun qolganda sudga hisobot, moliyaviy ahvol to'g'risidagi ma'lumotlar,

to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyati haqida takliflar va kreditorlarning birinchi yig‘ilishi bayonnomasini Qonunning 16-moddasida nazarda tutilgan hujjatlarni ilova qilgan holda taqdim etishi shart. Bu hujjatlar shunchaki rasmiy qog‘oz emas, balki sudning keyingi qarorini qabul qilishda asos bo‘ladigan muhim manbadir. Qarang: Xalqaro sharh. 757-b.

85-modda. Kuzatuv tartib-taomilini joriy etish haqida xabar qilish

Qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi haqidagi xabarni muvaqqat boshqaruvchi o‘zi tayinlangan paytdan e’tiboran uch kun ichida ommaviy axborot vositalarida ushbu Qonunning 53-moddasida nazarda tutilgan tartibda e’lon qilish uchun yuborishi shart.

Muvaqqat boshqaruvchi ish haqi bo‘yicha qarzni to‘lash talabini qo‘yadigan kreditorlardan tashqari qarzdorning aniqlangan barcha kreditorlarini qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi to‘g‘risida sud ajrim chiqarganligi haqida kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligiga oid xabar e’lon qilingan sanadan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay xabardor qilishi shart.

Qarzdorning rahbari qarzdorning xodimlarini, muassislarini (ishtirokchilarini) yoki qarzdor mol-mulkining egasini qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomilini joriy etish haqidagi sud ajrimini olgan sanadan e’tiboran uch ish kunidan kechiktirmay xabardor qilishi shart.

Ish haqi bo‘yicha qarzni to‘lash talabini qo‘yadigan kreditorlardan tashqari kreditorlarga kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligini xabar qilish kreditor tomonidan xabar olingan sanani belgilay olish imkoniyatini beradigan usulda xabar yuborish orqali amalga oshiriladi.

Ish haqi bo‘yicha qarzni to‘lash talabnomalari yuzasidan kreditorlarni xabardor qilish qarzdor xodimlarining umumiy yig‘ilishini chaqirish va o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

Qarzdorning muassislarini (ishtirokchilarini) xabardor qilish muassislar (ishtirokchilar) umumiy yig‘ilishini chaqirish yoki yuridik shaxsning qonunchilikka yoxud ta’sis hujjatlariga muvofiq muassislarning (ishtirokchilarning) umumiy yig‘ilishini chaqirish huquqiga ega bo‘lgan organiga qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili joriy etish haqida xabar yuborish orqali amalga oshiriladi.

Qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomilini joriy etish haqidagi xabarda quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

qarzdorning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi), joylashgan yeri (pochta manzili), elektron pochta manzili (mavjud bo‘lgan taqdirda);

qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risida ajrim chiqargan sudning nomi, bunday ajrim chiqarilgan sana va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishning tartib raqami;

tayinlangan muvaqqat boshqaruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi va uning pochta manzili;

sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish yuzasidan belgilangan sud majlisining sanasi, vaqti va joyi;

xabarni jo‘natuvchining (muvaqqat boshqaruvchining yoki qarzdor rahbarining) xohishiga ko‘ra boshqa axborot.

Sharhlanayotgan modda kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi haqida manfaatdor shaxslarni xabardor qilish tartibi, muddatlari, usullari va xabar mazmuniga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

Moddaning asosiy maqsadi to‘lovga qobiliyatsizlik ishi doirasida oshkoralikni ta’minlash, barcha manfaatdor shaxslarni o‘z vaqtida xabardor qilish va ularga o‘z huquqlarini amalga oshirish imkonini yaratishdan iborat.

1. Ushbu norma muvaqqat boshqaruvchiga muhim majburiyat yuklaydi, u tayinlangan paytdan e’tiboran uch kun ichida kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi haqidagi xabarni ommaviy axborot vositalarida Qonunning 53-moddasida nazarda tutilgan tartibda e’lon qilish uchun yuborishi shart.

Xususan, mazkur moddaning talablariga ko‘ra, sud tomonidan kuzatuv tartib-taomili joriy etish haqidagi ma’lumotlar ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi. Ommaviy axborot vositalarining ro‘yxati, davriyligi va mazkur ma’lumotlarni e’lon qilish muddati, ko‘rsatiladigan xizmatlarning narxlari hamda moliyalashtirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 11-iyundagi 160-sonli qarori 1-bandida O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Soliq qo‘mitasi hamda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining «Biznes-Daily «Birja» iqtisodiy gazetasi va/yoki Agentlik rasmiy veb-saytida «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan ma’lumotlar e’lon qilinadigan ommaviy axborot vositalari etib belgilanganligi aks ettirilgan.

Sud boshqaruvchisi tegishli sud hujjati olingan sanadan e’tiboran uch kun ichida ommaviy axborot vositasining manziliga mazkur moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan e’lonni yuboradi. E’lon qilish uchun yuborilgan sud hujjatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ular olingan kundan e’tiboran uch kun ichida e’lon qilinadi.

Mazkur moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan ma’lumotlarni e’lon qilish bilan bog‘liq xarajatlarning o‘rnini qoplash, agar Qonunda yoki kreditorlar yig‘ilishining yoxud kreditorlar qo‘mitasining qarorida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qarzdorning pul mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Qarzdorda pul mablag‘lari mavjud bo‘lmasa, bunday ma’lumotlarni e’lon qilish haqini to‘lash to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza bilan sudga murojaat etgan arizachi hisobidan amalga oshiriladi, bu mablag‘larning o‘rni keyinchalik qarzdorning mol-mulki hisobidan qoplanadi.

Qarzdorda e’lon qilish xarajatlarining o‘rnini qoplash uchun yetarli mol-mulk mavjud bo‘lmasa, xarajatlarning o‘rnini qoplash qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan sudga murojaat etgan arizachi hisobidan amalga oshiriladi.

Sud tomonidan chiqarilgan sud hujjatlari haqidagi ma’lumotlar boshqa ommaviy axborot vositalarida ham e’lon qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

22. Sudlar inobatga olishi lozimki, Qonun 59-moddasining uchinchi qismiga muvofiq, sud qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi alomatlari aniqlanmaganligi munosabati bilan uni bankrot deb topishni rad etish haqida qaror qabul qilgan taqdirda, sud xarajatlari, shu jumladan, to‘lov muddati kechiktirilgan yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lanadigan davlat boji bo‘yicha xarajatlar, Qonunning 53- va 54-moddalarida nazarda tutilgan ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish xarajatlari, sud boshqaruvchilariga haq to‘lash xarajatlari sudga qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza bilan murojaat etgan kreditorlarga tegishli bo‘ladi va kreditorlar o‘rtasida ularning talablariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

23. Sudlarga tushuntirilsinki, Qonunning 53- va 54-moddalarida nazarda tutilgan ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 11-iyundagi 160-sonli qarorining 1-bandiga muvofiq «Biznes-Daily «Birja» iqtisodiy gazetasi va (yoki) vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

2. Shu bilan birga, Qonun faqat ommaviy e’lon bilan cheklanib qolmaydi, balki aniqlangan kreditorlarni alohida tartibda xabardor qilishni ham talab etadi. Muvaqqat boshqaruvchi ish haqi bo‘yicha qarzni to‘lash talabini qo‘yadigan kreditorlardan tashqari aniqlangan barcha kreditorlarni e’lon qilingan sanadan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay xabardor qilishi shart. Bunda qonun chiqaruvchi ommaviy xabardor qilish bilan individual xabardor qilishni bir-birini to‘ldiruvchi vositalar sifatida belgilagan. Amaliyotda bu juda muhim, chunki ommaviy e’lon barcha kreditorlarga yetib bormasligi mumkin. Individual xabardor qilish esa muayyan kreditorning haqiqatan ham xabar olganini tasdiqlash imkonini beradi. Shu sababli moddada kreditorlarga xabar yuborish xabar olingan sanani belgilash imkonini beradigan usulda amalga oshirilishi shartligi alohida ko‘rsatilgan. Bu norma keyinchalik protsessual muddatlar, kreditorning talab qo‘yish vaqti yoki uning huquqi buzilgan-buzilmaganligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Ushbu normada qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi haqidagi sud ajrimini olganidan so‘ng qarzdor rahbari uch ish kuni ichida xodimlar, muassislar (ishtirokchilar) va mol-mulk egasini xabardor qilishi shartligi belgilangan. Bu talab to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida shaffoflikni ta’minlash va manfaatdor shaxslarga o‘z huquqlarini himoya qilish imkonini berishga qaratilgan.

4. Ushbu norma kreditorlarni xabardor qilish tartibini aniq belgilaydi. Qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili joriy etilganda ish haqi bo‘yicha talab qo‘yadigan kreditorlardan tashqari barcha kreditorlarga xabar shunday usulda yuborilishi kerakki, ularning xabarni olgan sanasini aniqlash mumkin bo‘lsin (masalan, pochta orqali xabarnoma bilan, elektron tasdiq bilan va h.k.). Bu talab kreditorlarning o‘z huquqlarini amalga oshirish muddatlarini to‘g‘ri hisoblash va keyinchalik nizolar kelib chiqishining oldini olishga xizmat qiladi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad kreditor qachon xabardor bo‘lganini isbotlash imkoniyatini ta’minlashdir.

5. Ushbu normada ish haqi bo‘yicha talab qo‘yadigan kreditorlar uchun alohida tartib nazarda tutilgan. Bunday kreditorlarni xabardor qilish qarzdor xodimlarining umumiy yig‘ilishini chaqirish va o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Bunda Qonun xodimlarning huquqiy maqomini inobatga olgan, chunki ular odatda jamoaviy manfaat egasi sifatida qatnashishadi va ularning talablari ko‘p holatda bir xil tabiatga ega bo‘ladi. Amaliy jihatdan bu usul xodimlarni bir vaqtning o‘zida to‘liq va tartibli ravishda xabardor qilish imkonini beradi.

Shuningdek, qarzdor rahbariga ham mustaqil majburiyat yuklatilgan. U qarzdorning xodimlari, muassislari (ishtirokchilari) yoki mol-mulk egasini sud ajrimini olgan sanadan e’tiboran uch ish kunidan kechiktirmay xabardor qilishi shart. Bu norma shuni anglatadiki, kuzatuv tartib-taomili joriy etilishi haqida xabardor qilish faqat muvaqqat boshqaruvchining vazifasi emas, balki qarzdor rahbarining ham qonuniy majburiyati hisoblanadi.

6. Muassislar (ishtirokchilar)ni xabardor qilish bo‘yicha maxsus tartib ham belgilangan. Bunda yo muassislar umumiy yig‘ilishi chaqiriladi, yo qonunchilik yoxud ta’sis hujjatlariga muvofiq bunday yig‘ilishni chaqirishga vakolatli organga xabar yuboriladi. Bu qoida yuridik shaxsning ichki boshqaruv tuzilmasini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Amaliyotda mazkur tartib muassislarga vaziyatni muhokama qilish, o‘z pozitsiyasini belgilash va kelgusidagi korporativ qarorlarga tayyorgarlik ko‘rish imkonini beradi.

7. Ushbu norma qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomilini joriy etish haqidagi xabar mazmuniga doir aniq talablarni belgilab, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida axborotning to‘liqligi va ishonchliligini ta’minlashga qaratilgan.

7.1. Qarzdorning nomi, joylashgan yeri va (mavjud bo‘lsa) elektron pochta manzilini ko‘rsatish haqidagi talab, avvalo, huquqiy aniqlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Bu orqali qaysi shaxsga nisbatan tartib joriy etilgani aniq belgilanadi hamda manfaatdor shaxslarning noto‘g‘ri subyektga nisbatan harakat qilish ehtimoli bartaraf etiladi. Shu bilan birga, amaliyotda mazkur ma’lumotlar kreditorlar uchun qarzdor bilan aloqa o‘rnatish imkonini beradi.

7.2. Sudning nomi, ajrim chiqarilgan sana va ish raqamini ko‘rsatish to‘g‘risidagi qoida esa protsessual aniqlik va rasmiylikni ta’minlaydi. Bu ma’lumotlar orqali manfaatdor shaxslar ishni identifikatsiya qilishadi, uning qaysi bosqichda ekanligini anglashadi va zarur hollarda sudga murojaat qilish imkoniga ega bo‘lishadi. Natijada sud jarayonining shaffofligi ta’minlanadi.

7.3. Muvaqqat boshqaruvchining shaxsi va manzilini ko‘rsatish haqidagi talab to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida boshqaruv va nazorat mexanizmlarining samarali ish-

lashini ta’minlaydi. Amaliyotda aynan muvaqqat boshqaruvchi kreditorlar bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshiruvchi asosiy subyekt bo‘lib xizmat qiladi.

7.4. Sud majlisi sanasi, vaqti va joyi haqidagi ma’lumotlarni kiritish protsessual kafolatlarni ta’minlashga qaratilgan. Bu orqali taraflar sudda ishtirok etish, o‘z fikrini bildirish va dalillar taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Mazkur qoida adolatli sud muhokamasi prinsiplaridan biri – taraflarni eshitish tamoyilini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

7.5. Xabarga qo‘shimcha axborot kiritish imkoniyati esa normaning dispozitiv xususiyatini ifoda etadi. Bu amaliyotda muayyan ishning o‘ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda qo‘shimcha muhim ma’lumotlarni yetkazish imkonini beradi. Natijada xabarning axboriy qiymati ortib, kreditorlar va boshqa ishtirokchilar uchun yanada qulay sharoit yaratiladi.

Shu tariqa, ushbu norma umumiy holda to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida shaffoflik, axborotga egalik va ishtirokchilar huquqlarini samarali ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim protsessual kafolat sifatida namoyon bo‘ladi.

86-modda. Qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil etish

Qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil etish qarzdorning mol-mulki sud xarajatlarining, sud boshqaruvchilariga haq to‘lash xarajatlarining o‘rnini qoplash uchun yetarliligini, shuningdek, qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash mumkinligini yoki mumkin emasligini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Muvaqqat boshqaruvchi qarzdorning moliyaviy ahvolini, shu jumladan, qarzdorning mol-mulki bo‘lsa, shu mol-mulkni inventarizatsiya qilish natijalarini va mulk huquqining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni tahlil qilish asosida qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash mumkinligi yoki mumkin emasligi to‘g‘risidagi takliflarni, to‘lovga qobiliyatsizlikning keyingi tartib-taomillarini joriy etish maqsadga muvofiqligini asoslantiruvchi ma’lumotlarni tayyorlaydi.

Muvaqqat boshqaruvchi moliyaviy tahlil natijasida qarzdorning moliyaviy ahvoli to‘g‘risida quyidagi xulosalardan birini tayyorlaydi:

to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlanmaganligi to‘g‘risida;

agar vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlansa, to‘lov qobiliyatini tiklash tartib-taomillaridan birini joriy etishning asoslari mavjudligi to‘g‘risida;

agar doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlansa, to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyati mavjudligi yoki mavjud emasligi to‘g‘risida.

Qarzdorning moliyaviy ahvolini aniqlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Muvaqqat boshqaruvchi qarzdorning moliyaviy ahvolini aniqlash uchun ixtisoslashtirilgan tashkilotni jalb etishi mumkin.

Sharhlanayotgan modda muvaqqat boshqaruvchi qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil qilish va buning natijasida xulosani tayyorlash masalasini tartibga soladi.

1. Moliyaviy tahlilning asosiy maqsadi, *birinchidan,* qarzdorning mol-mulki sud xarajatlari hamda sud boshqaruvchilariga haq to‘lash xarajatlarini qoplash uchun yetarli yoki yetarli emasligini aniqlashdan iborat. Bu qoida amaliyotda muhim ahamiyatga ega, chunki to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilining o‘zi ham muayyan xarajatlarni talab qiladi. Agar qarzdorda hech qanday mol-mulk bo‘lmasa yoki u hatto jarayon xarajatlarini ham qoplay olmasa, bu keyingi tartib-taomillarni tanlashda sud uchun muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi. *Ikkinchidan,* tahlil qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash mumkin yoki mumkin emasligini aniqlashga qaratilgan.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida muvaqqat boshqaruvchining vazifasi aniq ifodalangan. U qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil qilishda faqat buxgalteriya hisobotlari yoki qarzdorning o‘z ma’lumotlariga tayanib qolmasligi, balki zarur hollarda qarzdorning mol-mulkini inventarizatsiya qilish natijalarini ham o‘rganishi lozim. Shuningdek, mulk huquqining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlar ham tahlil manbai sifatida ko‘rsatilgan. Bu qoida juda muhim, chunki amaliyotda balansda ko‘rsatilgan mol-mulkning huquqiy maqomi noaniq bo‘lishi, mulk garovda bo‘lishi, xatlangan bo‘lishi yoki umuman qarzdor nomiga rasmiylashtirilmagan bo‘lishi mumkin. Shu sababli moliyaviy tahlil faqat iqtisodiy emas, balki huquqiy jihatdan ham asoslangan bo‘lishi talab qilinadi.

Tahlil asosida muvaqqat boshqaruvchi qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash mumkinligi yoki mumkin emasligi haqida takliflar tayyorlaydi. Bundan tashqari, u to‘lovga qobiliyatsizlikning keyingi tartib-taomillarini joriy etish maqsadga muvofiqligini asoslantiruvchi ma’lumotlarni ham shakllantiradi. Uning xulosasi sud tomonidan sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv yoki tugatishga doir ish yuritish tartib-taomillarini qo‘llash masalasida muhim manba bo‘ladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida muvaqqat boshqaruvchi tomonidan moliyaviy tahlil natijasida tayyorlanadigan quyidagi xulosalar belgilangan:

a) to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlanmaganligi to‘g‘risidagi xulosa. Bu shuni anglatadiki, qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilini qo‘llash uchun yetarli iqtisodiy-huquqiy asos mavjud emas. Bunday vaziyatda ishni davom ettirishning o‘zi maqsadga muvofiq bo‘lmasligi mumkin;

b) vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlanganida, to‘lov qobiliyatini tiklash tartib-taomillaridan birini joriy etish uchun asoslar mavjudligi haqidagi xulosa.

Qonun 5-moddasining ikkinchi xatboshisiga ko‘ra, vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizlik – agar tegishli majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e’tiboran uch oy ichida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo‘lsa, shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxonalar tomonidan esa olti oy ichida bajarilmasa, sudga murojaat etish sanasida qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishga qodir emasligi.

Bunda qonun chiqaruvchi qarzdorning qiyin moliyaviy ahvoli doimiy va qaytarib bo‘lmaydigan holat emasligini e’tirof etadi. Masalan, qarzdorning aylanma mablag‘lari

yetishmasligi, debitorlik qarzlari kechikishi yoki bozordagi vaqtinchalik qiyinchiliklar sababli to‘lov qobiliyati pasaygan bo‘lishi mumkin. Lekin bunday qarzdorning ishlab chiqarish salohiyati, aktivlari, daromad keltirish imkoniyati saqlanib qolgan bo‘lsa, uning to‘lov qobiliyatini tiklash choralari qo‘llanishi mumkin;

d) doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlanganda, to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyati mavjud yoki mavjud emasligi haqidagi xulosa.

Qonun 5-moddasining uchinchi xatboshisiga ko‘ra, doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik – agar sudga ariza berish sanasidagi va ariza berilgan yilning boshidagi hisobot davrida, agarda ariza yilning birinchi choragida berilgan bo‘lsa, o‘tgan yilning boshidagi hisobot davrida qarzdorning majburiyatlari uning aktivlari qiymatidan oshib ketgan bo‘lsa.

Bu holat eng murakkab va eng katta huquqiy oqibatlarga ega xulosadir. Chunki qarzdorning doimiy ravishda to‘lovga qobiliyatsiz ekani aniqlansa ham, baribir uning iqtisodiy faoliyatini qayta tiklash imkoniyati butunlay inkor etilmaydi. Agar iqtisodiy, tashkiliy yoki investitsion choralar orqali uning moliyaviy holatini yaxshilash mumkin bo‘lsa, tiklash tartib-taomillarini qo‘llash masalasi ko‘rib chiqilishi mumkin. Agar bunday imkoniyat mavjud bo‘lmasa, bu holat keyingi bosqichda tugatishga oid tartib-taomillarga o‘tish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

9. Qonun 12-moddasining sakkizinchi qismiga ko‘ra, agar kreditorlar yig‘ilishida qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilingan bo‘lsa, sud muvaqqat boshqaruvchining qarzdorning faoliyatini tiklash uchun imkoniyat mavjudligi to‘g‘risidagi xulosasini inobatga olgan holda qarzdorga nisbatan uning to‘lov qobiliyatini tiklash tartib-taomillaridan birini joriy etishga haqli.

Bunda inobatga olish lozimki, Qonun 92-moddasining uchinchi qismi va 108-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lgandagina sud qarzdorga nisbatan uning to‘lov qobiliyatini tiklash tartib-taomillaridan birini joriy etishi mumkin.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismida qarzdorning moliyaviy ahvolini aniqlash tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi nazarda tutilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 14-avgustdagi 224-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Soxta to‘lovga qobiliyatsizlik, to‘lovga qobiliyatsizlikni yashirish va qasddan to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlarini aniqlash qoidalari»ning 1-bandiga ko‘ra, mazkur qoidalar sud boshqaruvchisi tomonidan qarzdorning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini soxta to‘lovga qobiliyatsizlik, to‘lovga qobiliyatsizlikni yashirish va qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelish alomatlarini aniqlash yuzasidan tahlil qilish (keyingi o‘rinlarda – tahlil qilish) tartibini belgilaydi.

5. Ushbu norma muvaqqat boshqaruvchiga qarzdorning moliyaviy ahvolini aniqlash uchun ixtisoslashtirilgan tashkilotni jalb etish huquqini beradi.

Qonun 23-moddasining oltinchi xatboshisida sud boshqaruvchisi boshqa shaxslarni ular faoliyatiga qarzdorning mablag‘lari hisobidan haq to‘lagan holda, agar kreditorlar bilan tuzilgan bitimda boshqacha qoida belgilangan bo‘lmasa, shartnoma asosida jalb etishga haqliligi qayd etilgan.

Bu qoida amaliyotda ayniqsa katta hajmdagi aktivlarga, murakkab korporativ tuzilmaga yoki baholash qiyin bo‘lgan mol-mulkka ega qarzdorlarga nisbatan muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, audit tashkilotlari, baholovchi tashkilotlar, moliyaviy konsalting subyektlari jalb etilishi mumkin. Bu, bir tomondan, tahlilning sifatini oshiradi, ikkinchi tomondan, sudga taqdim etiladigan xulosaning xolis va asosli bo‘lishiga xizmat qiladi. Biroq bunda muvaqqat boshqaruvchi o‘z vakolatini to‘liq boshqa shaxsga o‘tkazib yubormaydi; jalb etilgan tashkilot faqat yordamchi va maxsus bilim beruvchi subyekt hisoblanadi, yakuniy xulosa uchun mas’uliyat esa baribir muvaqqat boshqaruvchi zimmasida qoladi.

Umuman olganda, qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil qilish nafaqat qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyatini va uning mol-mulki to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish bo‘yicha sud xarajatlarini, shu jumladan, muvaqqat boshqaruvchining haqini qoplash uchun yetarli ekanligini aniqlash uchun, balki soxta to‘lovga qobiliyatsizlik, to‘lovga qobiliyatsizlikni yashirish yoki qasddan to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlarini aniqlash uchun ham o‘tkaziladi. Qarang: Xalqaro sharh. 757-b.

87-modda. Kreditorlar talablarining miqdorini belgilash

Kreditorlarning birinchi yig‘ilishida ishtirok etish uchun qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi to‘g‘risidagi axborot ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan paytdan e’tiboran o‘ttiz kun ichida kreditorlar o‘z talablarini qarzdorga taqdim etishga haqli. Kreditorlarning talablari kreditorlar tomonidan sud hujjatini yoki ushbu talablarning asosliligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni ilova qilgan holda sudga, qarzdorga va muvaqqat boshqaruvchiga yuboriladi.

Kreditorlarning aniqlangan deb e’tirof etish uchun asosga ega bo‘lgan talablariga nisbatan qarzdor o‘z e’tirozlarini sudga quyidagi hollarda yuborishga haqli, agar:

kreditor tomonidan talabni aniqlangan deb hisoblash uchun asos sifatida taqdim etilgan sud hujjatini bekor qiluvchi yoki o‘zgartiruvchi, xuddi shuningdek, uning amal qilishini to‘xtatib turuvchi yoxud ijrosi usulini va tartibini o‘zgartiruvchi qonuniy kuchga kirgan sud hujjati mavjud bo‘lsa;

kreditor tomonidan talabni aniqlangan deb e’tirof etish uchun asos sifatida taqdim etilgan hujjatni (qarzni tan olish, notariusning ijro xati va boshqalar) bekor qiluvchi yoki o‘zgartiruvchi, xuddi shuningdek, uning amal qilishini to‘xtatib turuvchi hujjat mavjud bo‘lsa;

kreditor tomonidan talabni aniqlangan talablar jumlasiga kiritish dalili sifatida taqdim etilgan hujjat bo‘yicha qarzni to‘lash muddatlarini, tartibini va shartlarini o‘zgartirish to‘g‘risida qarzdor va kreditor o‘rtasida bitim tuzilgan bo‘lsa;

qarzdor qarzni to‘liq yoki qisman to‘lagan bo‘lsa;

talab bildirilgan majburiyatdagi shaxsning o‘zgarganligiga dalillar mavjud bo‘lsa.

Muvaqqat boshqaruvchi kreditorlarning ushbu Qonunga muvofiq aniqlangan deb e’tirof etiladigan talablariga o‘z e’tirozlarini, agar muvaqqat boshqaruvchida qarzdorning qarzni tan olish bo‘yicha harakatlari boshqa kreditorlarning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzadi va (yoki) asossiz deb hisoblash uchun yetarli asoslar bo‘lsa, sudga yuborishga haqli.

Qarzdorning, muvaqqat boshqaruvchining kreditorlar talablariga e’tirozlari tegishli talablar olingan paytdan e’tiboran bir haftalik muddat ichida sudga taqdim etilishi mumkin. Kreditorlarning talablari, agar ular ustidan e’tirozlar tushgan bo‘lsa, sud majlisida ko‘rib chiqiladi. Ko‘rib chiqish natijalari asosida mazkur talablarni kreditorlarning talablari reyestriga kiritish yoki kiritishni rad etish to‘g‘risida sudning ajrimi chiqariladi. Kreditorning qarzdor yoki muvaqqat boshqaruvchi tomonidan ko‘rsatilgan muddatda e’tirozlar taqdim etilmagan talabi kreditorlarning talablari reyestriga kreditor tomonidan bildirilgan miqdorda kiritiladi.

Kreditorlarning talablari asossiz yoki lozim darajadagi dalillar bilan tasdiqlanmagan deb topilsa, kreditorlarning tegishli arizalari qaytarilishi lozim. Mazkur talablar to‘lovga qobiliyatsizlikning keyingi tartib-taomillarini amalga oshirish jarayonida taqdim etilishi mumkin.

Kreditor muvaqqat boshqaruvchining yoki sudning o‘z talablarini kreditorlar talablari reyestriga kiritishni rad etish to‘g‘risidagi qarori ustidan shikoyat berishi mumkin.

Sharhlanayotgan modda kreditorlar talablarining tarkibi va miqdorini aniqlash tartibini belgilaydi.

1. Moddaning birinchi qismiga ko‘ra, kreditorlar qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi haqidagi axborot ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan paytdan e’tiboran o‘ttiz kun ichida o‘z talablarini taqdim etishga haqli. Mazkur muddatning huquqiy ahamiyati shundaki, aynan shu davr ichida talab bildirgan kreditorlar birinchi yig‘ilishda ishtirok etish masalasida protsessual imkoniyatga ega bo‘ladilar. Demak, ushbu norma nafaqat kreditorlarning talablarini, balki ularning to‘lovga qobiliyatsizlik ishi doirasidagi protsessual maqomini ham belgilaydi. Amaliyotda ushbu muddatga rioya qilish juda muhim, chunki talab o‘z vaqtida berilmasa, kreditorning huquqi butunlay yo‘qolmaydi, lekin u dastlabki bosqichdagi ta’sir qilish imkoniyatidan mahrum bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

24. Kreditorlarning birinchi yig‘ilishida ishtirok etish uchun kreditorlar Qonun 87-moddasining birinchi qismida belgilangan tartib va muddatlarda o‘z talablarini qarzdorga taqdim etishga haqli. Bunda kreditorlarning talablari reyestriga kiritiladigan pul majburiyatlari va majburiy to‘lovlarning miqdori sud tomonidan qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani ish yuritishga qabul qilish sanasiga belgilanadi.

Qonun talabiga ko‘ra, kreditor o‘z talabini faqat qarzdorga emas, balki sudga va muvaqqat boshqaruvchiga ham yuboradi. Bu qoida uch tomonlama xabardorlik va oshkoralik prinsipiga asoslangan. Sud talabni protsessual jihatdan qabul qilib, uni ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘lsa, qarzdor ushbu talabga nisbatan o‘z munosabatini bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi, muvaqqat boshqaruvchi esa barcha kreditorlar talablari miqdorini aniqlash va reyestrni yuritish nuqtayi nazaridan ushbu ma’lumotdan foydalanadi. Shu bilan birga, kreditor o‘z talabi bilan birga sud hujjatini yoki talabning asosliligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni ham ilova qilishi shart. Bu talabdan ko‘zlangan maqsad reyestrga har qanday talabni emas, balki huquqiy jihatdan asoslangan va tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan talablarni kiritishdir.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi qarzdorning e’tiroz bildirish huquqini tartibga soladi. Bu yerda Qonun kreditor talabini avtomatik tarzda tan olish yo‘lini emas, balki uni tekshirish mexanizmini tanlaydi. Agar kreditorning talabi aniqlangan deb e’tirof etish uchun asosga ega bo‘lsa ham, qarzdor ma’lum huquqiy holatlar mavjud bo‘lganida ushbu talabga qarshi e’tiroz bildirishi mumkin. *Birinchi* holat, kreditor talabiga asos qilib ko‘rsatgan sud hujjatini bekor qiluvchi, o‘zgartiruvchi, uning amal qilishini to‘xtatib turuvchi yoki ijro tartibini o‘zgartiruvchi boshqa qonuniy kuchga kirgan sud hujjati mavjud bo‘lsa, qarzdor talabni shubha ostiga qo‘yishga haqli. Bu qoida ayniqsa sud qarorlari bir necha bosqichda qayta ko‘rib chiqilgan holatlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ilgari qabul qilingan hujjat keyinchalik o‘z kuchini yo‘qotgan bo‘lishi mumkin. *Ikkinchi* holatda, kreditor talabiga asos sifatida taqdim etgan boshqa hujjatlar, masalan, qarzni tan olish to‘g‘risidagi hujjat, notariusning ijro xati va shu kabilar bekor qilingan, o‘zgartirilgan yoki amal qilishi to‘xtatilgan bo‘lsa, qarzdor e’tiroz bildirishi mumkin. Bunda Qonun sud hujjatlarigina emas, balki boshqa ijro yoki tasdiqlovchi hujjatlarni ham baholash zarurligini nazarda tutadi. *Uchinchi* holatda esa qarzdor va kreditor o‘rtasida avvalgi majburiyat bo‘yicha to‘lash muddati, tartibi yoki shartlarini o‘zgartirish haqida bitim tuzilgan bo‘lsa, bu ham talabni dastlabki ko‘rinishda aniqlangan deb hisoblashga to‘sqinlik qilishi mumkin. Chunki bunday bitim majburiyatning o‘zi yoki uning ijro shartlariga huquqiy ta’sir qiladi. *To‘rtinchi* asos – qarzdor qarzni to‘liq yoki qisman to‘lagan bo‘lishi. Bu – juda muhim amaliy qoida. Zero, kreditorlar

reyestriga real mavjud bo‘lmagan yoki allaqachon qisman bajarilgan majburiyatlarni to‘liq hajmda kiritish boshqa kreditorlar manfaatiga jiddiy putur yetkazishi mumkin. *Beshinchi* holatda esa majburiyatdagi shaxs o‘zgarganligiga oid dalillar mavjud bo‘lsa, ya’ni talabning haqiqiy kreditori boshqa shaxs bo‘lib qolgan yoki qarzdor almashgan bo‘lsa, bu holat ham talabning kimga va qay hajmda tegishli ekanini qayta baholashni talab etadi. Ushbu qoidalarning barchasi shuni ko‘rsatadiki, Qonun kreditor talabini formal emas, balki mazmunan va huquqiy jihatdan chuqur tekshirishni talab qiladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi muvaqqat boshqaruvchiga ham e’tiroz bildirish huquqini beradi. Agar u qarzdorning muayyan qarzni tan olish bo‘yicha harakatlari boshqa kreditorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini buzadi yoki ushbu tan olish asossiz deb hisoblash uchun yetarli asoslar mavjud deb topsa, sudga e’tiroz kiritishi mumkin. Demak, Qonun qarzdor va ayrim kreditor o‘rtasidagi ehtimoliy til biriktirish, sun’iy qarzdorlik yaratish yoki bir kreditorga asossiz ustunlik berish kabi holatlarning oldini olishga qaratilgan himoya mexanizmini ham nazarda tutgan.

4. Qarzdor va muvaqqat boshqaruvchining e’tirozlarini taqdim etish uchun bir haftalik muddat belgilangani ham muhim protsessual kafolatdir. Bu muddatning qisqa etib belgilanishi ishning sun’iy ravishda cho‘zilib ketishining oldini olishga qaratilgan. Shu bilan birga, qonun talablar yuzasidan e’tirozlar mavjud bo‘lgan taqdirda ular sud majlisida ko‘rib chiqilishini belgilaydi. Demak, kreditor talabini reyestrga kiritish yoki kiritmaslik masalasi, nizo mavjud bo‘lsa, faqat yozma tartibda emas, balki sud muhokamasi orqali hal etiladi. Sud ko‘rib chiqish natijasida ushbu talabni kreditorlar talablari reyestriga kiritish yoki kiritishni rad etish to‘g‘risida ajrim chiqaradi. Bu ajrimning ahamiyati shundaki, aynan u kreditorning to‘lovga qobiliyatsizlik ishidagi huquqiy maqomini, talab hajmini va ko‘p hollarda ovoz berish imkoniyatini belgilaydi.

Qonun 49-moddasining uchinchi qismida kreditorlarning talablari yuzasidan qarzdor yoki muvaqqat boshqaruvchi yoxud davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organda e’tirozlar mavjud bo‘lsa, sudya ularning e’tirozlari asosliligini tekshirishi, to‘rtinchi qismida sudyaning qarzdor yoki muvaqqat boshqaruvchi yoxud davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organ e’tirozlari asosliligini tekshirishi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishning belgilangan muddati tugashiga kamida bir oy qolganda o‘tkazilishi, beshinchi qismida sud qarzdor yoki muvaqqat boshqaruvchi yoxud davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organning e’tirozlari asosliligini ko‘rib chiqish natijalari asosida kreditorlar talablarini kreditorlarning talablari reyestriga kiritish haqida yoki ularni reyestrga kiritishni rad etish to‘g‘risida ajrim chiqarishi, ajrimda kreditorlarning, agar ularga nisbatan e’tirozlar asossiz deb topilgan bo‘lsa, talablari miqdori va ularni qanoatlantirish navbati ko‘rsatilishi belgilangan.

Ushbu normada yana bir muhim qoida mavjud, agar qarzdor yoki muvaqqat boshqaruvchi belgilangan muddatda kreditor talabi yuzasidan e’tiroz taqdim etmasa, bunday talab kreditor tomonidan bildirilgan miqdorda reyestrga kiritiladi. Amaliyotda bu qoida juda muhim, chunki u taraflarni faol harakat qilishga majbur etadi va sudni har bir talab bo‘yicha alohida tashabbus ko‘rsatish majburiyatidan xalos qiladi. Biroq bu yerda ham talab avvalo qonunga muvofiq ravishda bildirilgan bo‘lishi kerak; ya’ni u zarur hujjatlar bilan asoslantirilgan bo‘lishi shart.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismi kreditor talablari asossiz yoki lozim darajadagi dalillar bilan tasdiqlanmagan deb topilganda tegishli arizalar qaytarilishi lozimligini belgilaydi. Ammo Qonun bunday talablarni mutlaq ravishda bartaraf etmaydi, balki ularni mazkur bosqichda qabul qilish uchun yetarli asos yo‘qligini ko‘rsatadi. Shu bois mazkur talablar to‘lovga qobiliyatsizlikning keyingi tartib-taomillarida qayta taqdim etilishi mumkinligi alohida qayd etilgan. Bu qoida kreditor huquqlarining mutlaq yo‘qolib ketishining oldini oladi va bir vaqtning o‘zida reyestrga faqat yetarli darajada asoslangan talablarni kiritishni ta’minlaydi.

6. Mazkur moddaning oltinchi qismida kreditorga muvaqqat boshqaruvchining yoki sudning o‘z talabini reyestrga kiritishni rad etish to‘g‘risidagi qarori ustidan shikoyat berish huquqi ko‘rsatilgan. Bunday shikoyat Qonunning 60-moddasida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

Reyestrga kiritilmagan kreditor amalda to‘lovga qobiliyatsizlik ishida ishtirok etish, ovoz berish va qanoatlantirish navbatida o‘rin olish kabi muhim huquqlardan mahrum bo‘lishi mumkin. Shu sababli rad etish haqidagi qaror ustidan shikoyat qilish imkoniyati kreditorning protsessual tengligini va uning huquqlarini samarali himoya qilish mexanizmlarini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

27. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud hujjatlari Qonunda nazarda tutilgan xususiyatlarni inobatga olgan holda IPKda belgilangan tartibda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Sudning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida chiqargan, IPKda nazarda tutilmagan ajrimlari ustidan faqat Qonunda belgilangan hollarda va tartibda shikoyat qilish (protest keltirish) mumkin, Qonunning 51-moddasi, 95-moddasining ikkinchi qismi, 108-moddasining ikkinchi qismi va 140-moddasining to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan ajrimlar bundan mustasno, ular ustidan IPKda nazarda tutilgan tartibda shikoyat qilish (protest keltirish) mumkin.

Xususan, Qonunning 60-moddasida ko‘rsatilgan ariza va shikoyatlarni ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan chiqarilgan sudning ajrimlari ustidan Qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin. Ko‘rsatilgan ajrimlar ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) ular chiqarilgan paytdan e’tiboran o‘n kun ichida, apellyatsiya tartibida ko‘rilmagan ajrim ustidan kassatsiya shikoyati ajrim qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran bir oy ichida beriladi (Qonunning 61-moddasi).

Kreditorlar yig‘ilishining qarorini haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi sudning ajrimi ustidan ham shu tartibda shikoyat berish (protest keltirish) mumkin (Qonun 17-moddasining beshinchi qismi).

88-modda. Kreditorlarning birinchi yig‘ilishini chaqirish

Muvaqqat boshqaruvchi kreditorlarning birinchi yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanani belgilaydi va bu haqida barcha aniqlangan kreditorlarni, qarzdor xodimlarining vakilini, shuningdek, kreditorlarning birinchi yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan boshqa shaxslarni (organlarni) xabardor qiladi. Kreditorlarning birinchi yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risida xabardor qilish ushbu Qonunning 14-moddasida nazarda tutilgan tartibda muvaqqat boshqaruvchi tomonidan amalga oshiriladi. Kreditorlarning birinchi yig‘ilishi qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza ish yuritishga qabul qilinganligi to‘g‘risidagi sud ajrimida sud majlisini o‘tkazishning belgilangan sanasiga kamida besh kun muddat qolganida o‘tkazilishi kerak.

Talablari ushbu Qonun 87-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan tartibda taqdim etilgan va kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan kreditorlar kreditorlar birinchi yig‘ilishining ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan ishtirokchilaridir.

Kreditorlarning birinchi yig‘ilishida qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining vakili, qarzdor xodimlarining vakili ovoz berish huquqisiz ishtirok etishi mumkin. Kreditorlar yig‘ilishida mazkur shaxslarning yo‘qligi yig‘ilishni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘lmaydi.

Sharhlanayotgan modda kreditorlarning birinchi yig‘ilishini chaqirish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

1. Kreditorlarining birinchi yig‘ilishi avvalo kreditorlarni qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil qilish natijalari bilan tanishtirish hamda uning to‘lov qobiliyatini tiklash mumkinligi yoki mumkin emasligi xususida takliflar ishlab chiqish maqsadida chaqiriladi.

Kreditorlarning birinchi yig‘ilishini chaqirish, tashkil etish va o‘tkazish muvaqqat boshqaruvchining bevosita vazifasiga kiradi (Qonunning 12-moddasi to‘qqizinchi qismi) hamda Qonunning 14–15-moddalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Muvaqqat boshqaruvchi yig‘ilish o‘tkaziladigan sanani mustaqil ravishda belgilaydi. Bu qoida muvaqqat boshqaruvchining kuzatuv bosqichidagi tashkiliy va muvofiqlashtiruvchi rolini yana bir bor namoyon etadi. U faqat moliyaviy ahvolni tahlil qiluvchi yoki kreditorlar talablarini umumlashtiruvchi shaxs emas, balki kreditorlarning jamoaviy irodasi ifoda etiladigan yig‘inni chaqirish va uning o‘tkazilishi uchun zarur sharoitlarni ta’minlashga ham mas’ul subyekt hisoblanadi. Aynan shu jihatdan birinchi yig‘ilishni chaqirish vakolatining muvaqqat boshqaruvchiga berilgani ishning betaraf va tartibli tashkil etilishini ta’minlashga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

24. Sudlarning e’tibori qaratilsinki, kreditorlar yig‘ilishi o‘tkaziladigan kun deganda to‘lovga qobiliyatsizlikning tegishli tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish haqida kreditorlar yig‘ilishi qarori qabul qilingan sana tushunilishi kerak.

Kreditorlarning birinchi yig‘ilishi o‘tkazilishi lozim bo‘lgan muddatga ham aniqlik kiritadi. Unga ko‘ra, birinchi yig‘ilish qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza ish yuritishga qabul qilinganligi to‘g‘risidagi sud ajrimida belgilangan sud majlisi sanasiga kamida besh kun qolganda o‘tkazilishi kerak. Bu muddatning ahamiyati shundaki, u muvaqqat boshqaruvchini ishni sun’iy ravishda kechiktirmasdan, o‘z vaqtida tashkilotchilik choralarini ko‘rishga majbur qiladi. Boshqacha aytganda, qonun birinchi yig‘ilishni noaniq kelajakka surib qo‘yish imkoniyatini bermaydi. Bu esa kreditorlar manfaatlari uchun muhimdir, chunki to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida vaqt omili alohida ahamiyatga ega: qarzdor aktivlari kamayib ketishi, mol-mulk holati o‘zgarishi yoki boshqa kreditorlar manfaatiga putur yetishi mumkin.

Qonun muvaqqat boshqaruvchi zimmasiga nafaqat sana belgilash, balki bu haqida barcha aniqlangan kreditorlarni, qarzdor xodimlarining vakilini, shuningdek, birinchi yig‘ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan boshqa shaxslar va organlarni xabardor qilish majburiyatini ham yuklaydi. Amaliyotda xabardor qilish tartibiga rioya etilmasligi keyinchalik yig‘ilish qarorlarini haqiqiy emas deb topish haqidagi e’tirozlarga sabab bo‘lishi mumkin. Bu masalani umumiy tarzda emas, balki Qonunning 14-moddasida nazarda tutilgan maxsus tartibga havola qilish orqali mustahkamlaydi.

Qonun 17-moddasining beshinchi qismida kreditorlar yig‘ilishining Qonun va boshqa qonun hujjatlari talablari buzilgan holda qabul qilingan hamda kreditorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan qarori ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan kreditorning arizasiga ko‘ra sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkinligi, oltinchi qismida esa agar kreditorlar yig‘ilishining qarori to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzsa, bunday qaror sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkinligi, kreditor va (yoki) to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxs qabul qilingan qaror haqida bilgan yoki bilishi kerak bo‘lgan kundan e’tiboran yigirma kun ichida ariza berishi mumkinligi belgilangan.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi birinchi yig‘ilishda kimlar ovoz berish huquqiga ega ekanini belgilaydi. Unga ko‘ra, talablari Qonun 87-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan tartibda taqdim etilgan va kreditorlar talablari reyestriga kiritilgan kreditorlar birinchi yig‘ilishning ovoz berish huquqiga ega ishtirokchilari hisoblanadi. Demak, har qanday shaxs o‘zini kreditor deb hisoblagani uchun emas, balki faqat Qonunga muvofiq talab bildirib, ushbu talab reyestrga kiritilgan taqdirdagina ovoz berish huquqiga ega bo‘ladi. Bu yondashuv birinchi yig‘ilishda qaror qabul qilish jarayonini huquqiy jihatdan aniq va barqaror qiladi, shuningdek, bahsli, hali tasdiqlanmagan yoki asossiz talablarga ega shaxslarning kreditorlar irodasiga ta’sir ko‘rsatishining oldini oladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi birinchi yig‘ilishda ovoz berish huquqisiz ishtirok etishi mumkin bo‘lgan shaxslarni belgilaydi. Ular qatoriga qarzdor muassislarining yoki ishtirokchilarining vakili, qarzdor mol-mulki egasining vakili, shuningdek, qarzdor xodimlarining vakili kiradi. Demak, Qonun mazkur shaxslarga ishtirok etish, axborot olish, o‘z munosabatini bildirish imkonini beradi, ammo kreditorlar qaror qabul qilish jarayoniga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatish huquqini bermaydi. Bu yondashuv kreditorlar manfaatlarining ustuvorligini ta’minlaydi, biroq boshqa manfaatdor ishtirokchilarni ham eshitish imkoniyatini saqlab qoladi.

Ushbu normada yana bir muhim qoida belgilangan: qarzdor muassislari, mol-mulk egasi yoki xodimlar vakilining yig‘ilishda ishtirok etmasligi yig‘ilishni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘lmaydi. Bu norma birinchi yig‘ilishning amaliy barqarorligini ta’minlaydi. Agar qonun bu shaxslarning ishtirokini majburiy shart sifatida belgilaganida, ularning kelmasligi yoki turli sabablar bilan qatnashmasligi jarayonni qayta-qayta kechiktirishga olib kelishi mumkin edi. Shu bois Qonun ularga ishtirok etish imkoniyatini beradi, lekin yig‘ilishning haqiqiyligini ularning kelishiga bog‘lab qo‘ymaydi. Bu yechim, ayniqsa, ishni asossiz cho‘zishning oldini olish nuqtayi nazaridan muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

12. Sudlar inobatga olishlari kerakki, kreditorlar yig‘ilishida yoki kreditorlar qo‘mitasida qarzdor xodimlarining vakili, qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining vakili ovoz berish huquqisiz ishtirok etishga haqli. Biroq ularning ishtirok etmaganligi kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi qarorini haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘lmaydi.

Qarang: Xalqaro sharh. 757-b.

89-modda. Kreditorlarning birinchi yig‘ilishida ko‘riladigan masalalar

Kreditorlarning birinchi yig‘ilishida quyidagi masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilinadi:

sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish to‘g‘risida;

qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat etish to‘g‘risida;

kreditorlar qo‘mitasi a’zolarining soni va ularni saylash to‘g‘risida;

sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining, tashqi boshqaruvchining yoki tugatuvchi boshqaruvchining nomzodlarini ma’qullash to‘g‘risida;

ushbu Qonunda nazarda tutilgan boshqa masalalar bo‘yicha.

Sharhlanayotgan modda kreditorlarning birinchi yig‘ilishi mazmunini, ya’ni ushbu yig‘ilish doirasida hal etiladigan asosiy masalalarni belgilaydi.

Kreditorlarning birinchi yig‘ilishi sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Qonunning 3-moddasida berilgan ta’rifga ko‘ra, sudgacha sanatsiya qilish – qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) yoki uning mol-mulki egasi, kreditorlar va boshqa shaxslar tomonidan qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash hamda to‘lovga qobiliyatsizligining oldini olish uchun ko‘riladigan chora-tadbirlar;

tashqi boshqaruv – qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uni moliyaviy jihatdan sog‘lomlashtirish uchun qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini tashqi boshqaruvchiga o‘tkazgan holda sud tomonidan qo‘llaniladigan to‘lov qobiliyatini tiklash tartib-taomili.

Sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruvni joriy etish haqidagi qaror, odatda, qarzdorning moliyaviy ahvoli mutlaq umidsiz emasligi, uning faoliyatini davom ettirish, aktivlarini saqlab qolish, qarzlarni bosqichma-bosqich qoplash va iqtisodiy aylanishni tiklash imkoni borligi haqidagi xulosaga asoslanadi. Bunda kreditorlar birinchi yig‘ilishi muvaqqat boshqaruvchi tomonidan tayyorlangan moliyaviy tahlil natijalariga, qarzdorning amaldagi xo‘jalik imkoniyatlariga va qarzlarni qaytarish istiqboliga tayanib qaror qabul qilishi lozim bo‘ladi.

Sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruvni so‘rash haqida qaror qabul qilinishi kreditorlarning qarzdorga nisbatan ishonchi ma’lum darajada saqlanib qolganini anglatadi. Chunki bunday tartib-taomillar iqtisodiy jihatdan faoliyat yuritish imkoniyati saqlangan subyektlarga nisbatan qo‘llaniladi. Bu qoida juda muhim, chunki to‘lovga qobiliyatsizlik huquqi faqat tugatish huquqi emas, balki iqtisodiy subyektni saqlab qolish va uning faoliyatini sog‘lomlashtirish huquqidir.

Kreditorlarning birinchi yig‘ilishi qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin.

Qonunning 3-moddasida berilgan ta’rifga ko‘ra, bankrot – sudning qaroriga asosan to‘lovga qobiliyatsiz deb topilgan va o‘ziga nisbatan tugatishga doir ish yuritish yoki mol-mulkini sotish tartib-taomili qo‘llaniladigan qarzdor;

tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili – kreditorlarning talablarini mutanosib ravishda qanoatlantirish, qarzdorning majburiyatlardan ozod etilganligini hamda tugatilganligini e’lon qilish maqsadida sud tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan tartib-taomil, bundan jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishlar mustasno.

Qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyati amalda mavjud emas deb topilsa yoki tiklash choralari kreditorlar manfaatiga mos kelmasa, kreditorlar tugatish tartib-taomiliga o‘tishni ma’qul deb topishlari mumkin. Bu holda ular suddan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlashni so‘raydilar.

Birinchi yig‘ilishda kreditorlar qo‘mitasi a’zolarining soni va ularni saylash to‘g‘risida qaror qabul qilinishi ham mumkin.

Qonun 19-moddasining ikkinchi qismida kreditorlar qo‘mitasi tarkibiga kreditorlar yig‘ilishi tomonidan belgilanadigan miqdorda kreditorlar vakillari kiritilishi, 20-moddasining uchinchi qismida eng ko‘p ovoz olgan nomzodlar kreditorlar qo‘mitasi tarkibiga saylangan hisoblanishi, to‘rtinchi qismida kreditorlar qo‘mitasining a’zolari o‘z tarkibidan kreditorlar qo‘mitasining raisini saylashi mumkinligi, beshinchi qismida esa agar kreditorlar qo‘mitasida a’zolar besh kishidan ortiq bo‘lsa, kreditorlar qo‘mitasi raisi majburiy tarzda saylanishi nazarda tutilgan.

Ushbu norma kreditorlarning o‘z-o‘zini tashkil etish mexanizmining muhim ifodasidir. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda barcha kreditorlarning har bir masala yuzasidan doimiy ravishda to‘planib turishi amalda samarali emas. Shu sababli kreditorlar qo‘mitasi kreditorlar yig‘inining doimiy ishlovchi, manfaatlarni ifoda etuvchi va muayyan masalalarda ular nomidan harakat qiluvchi vakillik organi sifatida shakllantiriladi. A’zolar sonini belgilash va ularni saylash masalasining aynan birinchi yig‘ilishga qo‘yilishi qonunchilik nuqtayi nazaridan to‘g‘ri yechimdir, chunki ishning keyingi bosqichlarida kreditorlar manfaatlarini ifoda etadigan organ ilk bosqichdayoq legitim asosda shakllantirilishi lozim.

Birinchi yig‘ilishda sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining, tashqi boshqaruvchining yoki tugatish boshqaruvchisining nomzodlarini ma’qullash to‘g‘risida qaror qabul qilinadi. Bu qoida ham juda muhim, chunki keyingi tartib-taomillar taqdiri ko‘p jihatdan aynan ushbu boshqaruvchilar faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv yoki tugatishga oid ish yuritish faqat qonun normalari orqali emas, balki ularni amalga oshiruvchi shaxslarning malakasi, halolligi, mustaqilligi va professional tajribasi orqali ham samarali amalga oshiriladi. Shu sababli qonun kreditorlarga ushbu nomzodlarni ma’qullash vakolatini berib, ularning ishonchini qozongan sud boshqaruvchisini tayinlash imkoniyatini yaratadi.

Bu yerda ham muhim huquqiy mantiq mavjud: aynan kreditorlar keyingi tartib-taomillar natijasidan eng ko‘p darajada manfaatdor shaxslar hisoblanadi. Shu bois ularning fikrini inobatga olmasdan turib sud boshqaruvchisi nomzodini belgilash to‘liq

adolatli bo‘lmasdi. Biroq bu vakolat ham mutlaq emas, chunki boshqaruvchi tayinlashda sud nazorati va qonun talablari saqlanadi. Demak, kreditorlar nomzodni ma’qullaydilar, sud esa uning qonun talablariga mosligini baholaydi. Bu ham kreditorlar irodasi va sud nazorati o‘rtasidagi muvozanatning yana bir ko‘rinishidir.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lgani uchun, birinchi yig‘ilish doirasida hal etilishi lozim bo‘lgan masalalarni faqat sanab o‘tilgan to‘rtta yo‘nalish bilan cheklab qo‘yish har doim ham maqbul emas. Qonunda nazarda tutilgan boshqa masalalarga murojaat qilish mumkinligi kreditorlarning birinchi yig‘ilishi vakolatini umumiy huquqiy tizim bilan bog‘laydi va zarur hollarda qonunning boshqa normalarida belgilangan masalalarni ham aynan shu yig‘inda hal qilish imkonini beradi.

Mazkur modda kreditorlarning to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonidagi jamoaviy ishtirokini institutsional jihatdan mustahkamlaydi, ularning manfaatlarini tartibli ifoda etishga xizmat qiladi va sudga keyingi tartib-taomilni belgilashda muhim protsessual asos yaratadi.

Kreditorlarning birinchi yig‘ilishida muhokama qilinishi va hal etilishi lozim bo‘lgan asosiy masalalarni belgilash orqali ushbu yig‘inning huquqiy tabiati va amaliy ahamiyatini ochib beradi. Qarang: Xalqaro sharh. 757-b.

90-modda. Kreditorlar birinchi yig‘ilishining sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish haqida sudga murojaat qilish to‘g‘risidagi qarori

Kreditorlar birinchi yig‘ilishining sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish to‘g‘risidagi qarorida sud sanatsiyasi tartib-taomilining taklif qilinayotgan muddati va qarzni to‘lashning ma’qullangan jadvali bo‘lishi kerak.

Sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat etish to‘g‘risida qaror qabul qilgan kreditorlarning birinchi yig‘ilishi muvaqqat boshqaruvchini o‘z vazifalarini bajarishdan ozod qilish haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat etishga haqli. Kreditorlar yig‘ilishining sudga beriladigan mazkur iltimosnomasida sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi etib tayinlash uchun nomzod taklif qilinishi mumkin.

Sharhlanayotgan modda kreditorlar birinchi yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadigan eng muhim qarorlardan biri – sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish haqida sudga murojaat qilish to‘g‘risidagi qarorning mazmuni va huquqiy oqibatlarini belgilaydi.

1. Moddaning birinchi qismiga ko‘ra, kreditorlar birinchi yig‘ilishining sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish to‘g‘risidagi qarorida albatta sud sanatsiyasining taklif etilayotgan muddati va qarzni to‘lashning ma’qullangan jadvali bo‘lishi kerak.

Qonunning 3-moddasida berilgan ta’rifga ko‘ra, sud sanatsiyasi tartib-taomili – qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning to‘lov qobiliyatini tiklash va uning kreditorlar oldi-

dagi qarzini to‘lash uchun qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini sanatsiya qiluvchi boshqaruvchiga o‘tkazmagan holda sud tomonidan qo‘llaniladigan tartib-taomil.

Sud sanatsiyasining taklif qilinayotgan muddati qarorning majburiy elementi sifatida nazarda tutilgani bejiz emas. Chunki har qanday reabilitatsiya tartib-taomili vaqt bilan chegaralangan bo‘lishi lozim. Agar sud sanatsiya muddati noaniq qoldirilsa, bu jarayonning sun’iy cho‘zilishiga, kreditorlar manfaatlarining kechiktirilishiga va qarzdor molmulkining yanada qadrsizlanishiga olib kelishi mumkin. Shu bois Qonun kreditorlardan tiklash tartib-taomilini qo‘llash haqida qaror qabul qilishda uning qancha davom etishi kerakligiga ham aniqlik kiritishni talab qiladi. Bu, bir tomondan, sudga real va nazorat qilinadigan sud sanatsiya rejasini baholash imkonini bersa, ikkinchi tomondan, qarzdorning kelgusi faoliyatini muayyan vaqt chegarasida samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Amaliyotda agar kreditorlar birinchi yig‘ilishi qarorida sanatsiya muddati yoki qarzni to‘lash jadvali ko‘rsatilmagan bo‘lsa, sud bunday iltimosnomani qanoatlantirishni rad etishi mumkin.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismiga ko‘ra, sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat etish to‘g‘risida qaror qabul qilgan kreditorlarning birinchi yig‘ilishi bir vaqtning o‘zida muvaqqat boshqaruvchini o‘z vazifalarini bajarishdan ozod qilish haqida ham iltimosnoma bilan sudga murojaat etishga haqli. Muvaqqat boshqaruvchi asosan kuzatuv, tahlil va dastlabki ma’lumot to‘plash funksiyasini bajaradi. Sud sanatsiyasi esa faol reabilitatsiya choralarini amalga oshirishni, qarzni to‘lash jadvali ijrosini ta’minlashni, xo‘jalik faoliyatini moliyaviy sog‘lomlashtirishni talab qiladi. Shuning uchun Qonun kreditorlarga keyingi bosqichga o‘tishda boshqaruv subyekti masalasini ham qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi. Agar kreditorlar muvaqqat boshqaruvchining keyingi bosqichda samarali ishlay olishiga ishonishmasa yoki sanatsiya uchun boshqa, ko‘proq mos nomzod zarur deb hisoblashsa, ular sudga murojaat qilishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

35. Qonunga ko‘ra, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchilikka nomzod kreditorlarning yig‘ilishi yoki majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslar tomonidan sudga taqdim etiladi (Qonun 97-moddasining birinchi qismi).

Agar kreditorlarning yig‘ilishi yoki majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslar tomonidan sanatsiya qiluvchi boshqaruvchilikka nomzod taqdim etilmasa, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi sudning so‘roviga asosan vakolatli davlat organi yoki sud boshqaruvchilarining jamoat birlashmasi tomonidan taklif etilgan nomzodlar orasidan tayinlashi lozim.

Qarang: Xalqaro sharh. 757-b.

91-modda. Kreditorlar birinchi yig‘ilishining tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish, qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida sudga murojaat qilish to‘g‘risidagi qarori

Kreditorlar birinchi yig‘ilishining tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish to‘g‘risidagi qarorida tashqi boshqaruv tartib-taomilining taklif qilinayotgan muddati va tashqi boshqaruvchilikka nomzod, shuningdek, u haqidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak.

Kreditorlar birinchi yig‘ilishining qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish to‘g‘risidagi qarorida tugatishga doir ish yuritishning taklif qilinayotgan muddati va tugatish boshqaruvchiligiga nomzod, shuningdek, u haqidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak.

Sharhlanayotgan modda kreditorlar birinchi yig‘ilishi tomonidan qabul qilinishi mumkin bo‘lgan tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida sudga murojaat qilish to‘g‘risidagi qaror va qarzdorni bankrot deb topish hamda tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida sudga murojaat qilish to‘g‘risidagi qaror qanday mazmunda bo‘lishi lozimligini tartibga soladi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismiga ko‘ra, kreditorlar birinchi yig‘ilishining tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish to‘g‘risidagi qarorida tashqi boshqaruv tartib-taomilining taklif qilinayotgan muddati, tashqi boshqaruvchilikka nomzod, shuningdek, u haqidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak.

Qonunning 3-moddasida berilgan ta’rifga ko‘ra, tashqi boshqaruv – qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uni moliyaviy jihatdan sog‘lomlashtirish uchun qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini tashqi boshqaruvchiga o‘tkazgan holda sud tomonidan qo‘llaniladigan to‘lov qobiliyatini tiklash tartib-taomili.

Tashqi boshqaruvni joriy etish haqida qaror qabul qilish shunchaki «ushbu tartib-taomilni qo‘llash maqsadga muvofiq» degan umumiy fikr bildirish bilan cheklanmaydi. Aksincha, kreditorlar birinchi yig‘ilishi sudga murojaat qilar ekan, bu murojaat kelgusida qanday tartib-taomil qo‘llanilishi, u qancha muddat davom etishi va uni kim amalga oshirishi haqida aniq tasavvurni ifoda etishi lozim.

Tashqi boshqaruv tartib-taomilining taklif qilinayotgan muddati qarorning majburiy elementi sifatida nazarda tutilgani, avvalo, ushbu tartib-taomilning vaqtinchalik va maqsadli xususiyati bilan izohlanadi. Tashqi boshqaruv qarzdor faoliyatini muqarrar ravishda cheksiz davom ettirish emas, balki uning to‘lov qobiliyatini tiklash, moliyaviy faoliyatini qayta tashkil qilish, xo‘jalik yuritishni samaraliroq shaklga o‘tkazish va kreditorlar manfaatlarini imkon qadar yaxshiroq ta’minlash uchun belgilanadigan maxsus rejali boshqaruv bosqichidir. Shu bois qonun tashqi boshqaruvni aniq vaqt chegarasi bilan bog‘laydi. Bu, bir tomondan, ushbu tartib-taomilning sun’iy cho‘zilib ketishining oldini oladi, ikkinchi tomondan, sudga va kreditorlarga uning natijadorligini baholash imkonini beradi.

Tashqi boshqaruvchilikka nomzod va u haqidagi ma’lumotlarni qarorda ko‘rsatish talabi ham juda muhim. Chunki tashqi boshqaruvning mazmuni oddiy nazoratdan ko‘ra ancha keng bo‘lib, u qarzdorni boshqarishning faol, qayta tashkil etuvchi va amalda antikrizis boshqaruvi xususiyatiga ega shaklini anglatadi. Bunday sharoitda tashqi boshqaruvchining shaxsi, uning professional tayyorgarligi, malakasi, mustaqilligi va ishonchliligi alohida ahamiyat kasb etadi. Qonun kreditorlarga ushbu shaxs yuzasidan o‘z pozitsiyasini bildirish imkonini berish orqali tashqi boshqaruvning samarasi ko‘p jihatdan uni amalga oshiradigan boshqaruvchining salohiyatiga bog‘liq ekanini e’tirof etadi. Nomzod haqidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi shart qilib belgilangani esa sudga ushbu shaxsning qonun talablariga mosligini, uning tayinlanishi maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligini tekshirish imkonini yaratadi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish to‘g‘risidagi qarorga oid talablarni belgilaydi.

Qonunning 3-moddasida berilgan ta’rifga ko‘ra, tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili – kreditorlarning talablarini mutanosib ravishda qanoatlantirish, qarzdorning majburiyatlardan ozod etilganligini hamda tugatilganligini e’lon qilish maqsadida sud tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan tartib-taomil, bundan jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishlar mustasno.

Bunday qarorda tugatishga doir ish yuritishning taklif qilinayotgan muddati va tugatish boshqaruvchiligiga nomzod, shuningdek, u haqidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak. Bu qoidadan ma’lum bo‘ladiki, hatto qarzdorni bankrot deb topish va tugatish kabi keskin huquqiy chorani qo‘llash masalasida ham Qonun kreditorlar yig‘ini qarorini aniq mazmun bilan ta’minlashni talab etadi.

Tugatishga doir ish yuritishning taklif qilinayotgan muddati qarorning majburiy qismi sifatida nazarda tutilishi muhim ahamiyatga ega. Chunki tugatish tartib-taomilining maqsadi qarzdor mol-mulkini aniqlash, saqlash, realizatsiya qilish, tushgan mablag‘larni belgilangan navbatda taqsimlash va yuridik shaxs faoliyatini tugatish bilan bog‘liq barcha harakatlarni huquqiy tartibda yakunlashdan iborat. Bu jarayon ham noaniq va cheklanmagan vaqt davomida cho‘zilib ketmasligi lozim. Qonun tugatish jarayoni uchun taklif etilayotgan muddatni qarorda ko‘rsatishni talab qilish orqali kreditorlarni ham, sudni ham ushbu bosqichni oqilona vaqt chegarasida rejalashtirishga undaydi. Bu ayniqsa kreditorlar manfaati nuqtayi nazaridan muhim, chunki tugatishning asossiz cho‘zilishi mol-mulk qiymatining pasayishiga, saqlash xarajatlarining ortishiga va qanoatlantirish darajasining kamayishiga olib kelishi mumkin.

Tugatish boshqaruvchisiga nomzod va u haqidagi ma’lumotlarni ko‘rsatish talabi ham amaliyotda katta ahamiyatga ega. Tugatish boshqaruvchisi to‘lovga qobiliyatsizlikning yakuniy va eng mas’uliyatli bosqichida mol-mulkni boshqaradigan, aktivlarni yig‘adigan, qarzdorning moliyaviy holatiga yakuniy baho beradigan va kreditorlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishda markaziy figura bo‘lgan shaxsdir. Shu sababli ushbu lavozimga nomzodning to‘g‘ri tanlanishi tugatish jarayonining qonuniyligi, xolisligi va samaradorligida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qonun kreditorlarga bu shaxs yuzasidan taklif berish

huquqini berish orqali tugatish tartib-taomilini ularning ishonchiga sazovor bo‘lgan shaxs orqali amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Qarang: Xalqaro sharh. 757-b.

92-modda. Kuzatuv tartib-taomilini tugatish

Sud kreditorlarning birinchi yig‘ilishi qarori asosida, agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi yoki sud sanatsiyasini yoxud tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida ajrim chiqaradi yoki kelishuv bitimini tasdiqlaydi va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritishni tugatadi.

Agar kreditorlarning birinchi yig‘ilishida to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillaridan birini qo‘llash haqida qaror qabul qilinmagan bo‘lsa yoki sudga uning qarorlaridan hech biri ushbu Qonunning 16-moddasida belgilangan muddatda taqdim etilmagan bo‘lsa, sud doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari bo‘lgan taqdirda, agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud bo‘lmagan taqdirda, sud qarzdorning faoliyatini tiklash tartib-taomillaridan birini joriy etish to‘g‘risidagi masalani kreditorlar yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun taqdim etilgan materiallarni qaytaradi.

Agar kreditorlarning birinchi yig‘ilishi tomonidan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan bo‘lsa yoxud sudga uning qarorlaridan hech biri taqdim etilmagan bo‘lsa, sud qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining, vakolatli davlat organining, shuningdek, uchinchi shaxsning (shaxslarning) iltimosnomasiga binoan, arizachilar tomonidan qarzdorning majburiyatlari ijrosining qarzni to‘lash jadvaliga muvofiq ta’minoti taqdim etilgan taqdirda, sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risida ajrim chiqarishga haqli.

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi yoki tashqi boshqaruvchi yoxud tugatish boshqaruvchisi tayinlanguniga qadar uning vazifasini bajarish ilgari muvaqqat boshqaruvchi vazifasini bajarib turgan shaxs zimmasiga to‘la hajmda yuklatiladi.

Sud tomonidan qarzdor bankrot deb topilgan va tugatishga doir ish yuritish boshlangan yoki sud sanatsiyasi yoxud tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilgan yoki kelishuv bitimi tasdiqlangan paytdan e’tiboran kuzatuv tartib-taomili tugatiladi.

Sharhlanayotgan modda kuzatuv tartib-taomilining yakunlovchi bosqichini va uning qay tarzda tugallanishini belgilaydi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismiga ko‘ra, sud kreditorlarning birinchi yig‘ilishi qarori asosida, agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, qarzdorni

bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi (Qonunning 140-moddasi) yoki sud sanatsiyasini yoxud tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish (Qonunning 93-, 95- va 108-moddalari) haqida ajrim chiqaradi yoxud kelishuv bitimini tasdiqlaydi va ish yuritishni tugatadi (Qonunning 162-, 166-moddalari). Bu qoida, avvalo, kreditorlar birinchi yig‘ilishi qarorining hal qiluvchi protsessual ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Kuzatuv bosqichi yakunlanganidan keyin sud ishni noaniq holatda qoldirmaydi, balki qonun nazarda tutgan keyingi huquqiy yo‘nalishlardan birini tanlaydi. Demak, kuzatuvning vazifasi aynan shu nuqtada tugaydi: u sudga va kreditorlarga qarzdorning kelgusi taqdiri bo‘yicha asosli qaror qabul qilish uchun zarur ma’lumot va protsessual zamin yaratib beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

29. Sudlar inobatga olishlari lozimki, qarzdor sud tomonidan belgilangan muddatda kreditorlarning talablarini qanoatlantirmagan va Qonun 5-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlangan hollarda, agar to‘lovga qobiliyatsizlikka oid tiklash tartib-taomillaridan birini joriy etish, kelishuv bitimini tasdiqlash yoki to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish uchun asoslar mavjud bo‘lmasa, sud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Ushbu normada sudning kreditorlar birinchi yig‘ilishi qaroriga tayanishi belgilangani, to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarida kreditorlar irodasining muhim o‘rin tutishi anglashiladi. Biroq bu yerda sud kreditorlar qaroriga mexanik tarzda ergashuvchi organ sifatida emas, balki qonun doirasida ushbu qarorga huquqiy shakl beruvchi va uning asosliligini baholovchi yurisdiksion organ sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun moddada «agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa» degan izoh mavjud. Bu izoh sud faqat kreditorlar qarori bilan bog‘lanib qolmasdan, muayyan holatlarda qonunda nazarda tutilgan boshqa yechimlarni ham qo‘llashi mumkinligini anglatadi. Demak, mazkur norma kreditorlar jamoaviy irodasi bilan sud nazorati o‘rtasidagi muvozanatni saqlaydi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi birinchi yig‘ilishda to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillaridan birini qo‘llash haqida qaror qabul qilinmagan yoki uning qarorlaridan qonunda belgilangan (Qonun 16-moddasining uchinchi qismi) muddatda sudga taqdim etilmagan holatni tartibga soladi. Bu qoida juda muhim, chunki amaliyotda kreditorlar yig‘ini turli sabablarga ko‘ra aniq pozitsiyaga kelolmasligi, ovozlar bo‘linib ketishi yoki qabul qilingan qaror o‘z vaqtida sudga kiritilmasligi mumkin. Qonun bunday holatda ishni «protsessual bo‘shliq»da qoldirmaydi. Aksincha, sudga musta-

qilroq rol beradi hamda Qonun 5-moddasi birinchi qismining uchinchi xatboshisida nazarda tutilgan doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud bo‘lsa, agar mazkur moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilishini belgilaydi. Bu yerda qonunning huquqiy mantig‘i aniq: agar kreditorlar kelishuvga kelmagan bo‘lsa yoki o‘z protsessual vakolatini amalga oshirmagan bo‘lsa-yu, ish materiallari qarzdorning doimiy to‘lovga qobiliyatsiz ekanini ko‘rsatsa, ishni yana sun’iy ravishda cho‘zib yuborish maqsadga muvofiq emas. Bunday holatda tugatishga o‘tish kreditorlar manfaatlarini himoya qilish, aktivlarni saqlab qolish va qanoatlantirish imkoniyatini yo‘qotmaslik nuqtayi nazaridan asosli yechim bo‘lib ko‘rinadi. Ushbu qoida kreditorlar passivligi yoki ichki kelishmovchiligi qarzdorning obyektiv moliyaviy holatini inkor etishga xizmat qilmasligini anglatadi. Ya’ni obyektiv iqtisodiy haqiqat protsessual sukutdan ustun qo‘yilmoqda.

Shu bilan birga, qonun ushbu vaziyatning muqobil tomonini ham nazarda tutgan. Agar doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud bo‘lmasa, sud qarzdorning faoliyatini tiklash tartib-taomillaridan birini joriy etish masalasini kreditorlar yig‘inida ko‘rib chiqish uchun taqdim etilgan materiallarni qaytaradi. Bu qoida juda nozik muvozanatni ifoda etadi. Chunki kreditorlar birinchi yig‘ilishi qaror qabul qilmagani yoki qaror sudga yetkazilmagani har doim ham qarzdorni tugatish kerak degani emas. Agar ish materiallari qarzdorni hali ham tiklash mumkinligini ko‘rsatsa, sud uni bankrot deb topishga shoshilmasligi kerak. Demak, qonun sudni faqat repressiv yo‘lga emas, balki reabilitatsiya imkoniyatini ham hisobga olishga majbur qiladi. Bu norma to‘lovga qobiliyatsizlik huquqining zamonaviy tamoyiliga – iqtisodiy jihatdan hayotga layoqatli subyektni imkon qadar saqlab qolish g‘oyasiga to‘la mos keladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi yanada muhim va o‘ziga xos mexanizmni nazarda tutadi. Agar kreditorlarning birinchi yig‘ilishi qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida sudga murojaat qilish to‘g‘risida qaror qabul qilgan bo‘lsa yoki sudga uning qarorlaridan hech biri taqdim etilmagan bo‘lsa, sud qarzdor muassislarining, ishtirokchilarining yoki qarzdor mol-mulki egasining, vakolatli davlat organining, shuningdek, uchinchi shaxsning iltimosnomasiga binoan, arizachilar tomonidan qarzdor majburiyatlari ijrosining qarzni to‘lash jadvaliga muvofiq ta’minoti taqdim etilgan taqdirda, sud sanatsiyasini joriy etish to‘g‘risida ajrim chiqarishga haqli. Ushbu qoida to‘lovga qobiliyatsizlik huquqida tiklash imkoniyatini saqlab qolishga qaratilgan eng muhim kafolatlardan biri hisoblanadi. Bu yerda qonun shundan kelib chiqadiki, hatto kreditorlar tugatish tarafdori bo‘lgan taqdirda ham yoki ularning qarori umuman sudga kelib tushmagan taqdirda ham, agar manfaatdor boshqa subyektlar qarzdorni saqlab qolishga tayyor bo‘lsa va bu niyatni shunchaki bayonot emas, balki qarzni to‘lash jadvali bo‘yicha real ta’minot bilan tasdiqlasa, sud sanatsiyasini joriy etish mumkin. Bu, ayniqsa, muassislar, mulkdorlar yoki uchinchi shaxslar qarzdorni sog‘lomlashtirishga real iqtisodiy resurs ajratishga tayyor bo‘lgan vaziyatlarda katta ahamiyat kasb etadi. Qonun bu

bilan, bir tomondan, kreditorlar manfaatini himoya qiladi, chunki sanatsiya faqat ta’minot taqdim etilganda mumkin; ikkinchi tomondan, iqtisodiy subyektni saqlab qolish imkoniyatini sun’iy ravishda yo‘qotib qo‘ymaslikka harakat qiladi.

Ushbu normaning huquqiy mohiyati shundaki, sanatsiyani joriy etish uchun faqat subyektiv istak yetarli emas. Albatta, muassislar yoki uchinchi shaxslar qarzdorni qutqarishni xohlashlari mumkin, lekin qonun bunday xohishni moddiy kafolat bilan mustahkamlashni talab etadi. Ya’ni qarzni to‘lash jadvaliga muvofiq ta’minot taqdim etilmasa, sud sanatsiyani joriy qilishga majbur emas. Bu yondashuv tiklash g‘oyasini kreditorlar uchun xavfli va asossiz eksperimentga aylantirmaslikka xizmat qiladi.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismiga ko‘ra, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi yoki tashqi boshqaruvchi yoxud tugatish boshqaruvchisi tayinlanguniga qadar uning vazifasini bajarish ilgari muvaqqat boshqaruvchi vazifasini bajarib turgan shaxs zimmasiga to‘la hajmda yuklatiladi. Bu qoida protsessual uzluksizlikni ta’minlashga qaratilgan. Chunki kuzatuv tugab, keyingi bosqich boshlangan payt bilan yangi boshqaruvchi rasman tayinlanadigan payt o‘rtasida muayyan vaqt farqi bo‘lishi mumkin. Agar shu oraliqda hech kim mas’ul bo‘lmasa, qarzdor mol-mulkini saqlash, hujjatlarni nazorat qilish, zarur tashkiliy harakatlarni amalga oshirish masalalarida xavfli bo‘shliq yuzaga keladi. Shuning uchun Qonun mazkur o‘tish davrida vakolatlar uzluksizligini ta’minlash maqsadida ularni avvalgi muvaqqat boshqaruvchi zimmasiga yuklaydi. Bu norma amaliyotda juda katta ahamiyatga ega. To‘lovga qobiliyatsizlik ishlarida ayniqsa aynan o‘tish davrida aktivlarni olib chiqib ketish, hujjatlarni yashirish, mol-mulk holatini o‘zgartirish yoki boshqa suiiste’mollar xavfi kuchayadi. Muvaqqat boshqaruvchining vakolatlarini yangi boshqaruvchi tayinlanguniga qadar saqlab qolish bunday xavflarni kamaytiradi va ishni boshqarishda institutsional barqarorlikni ta’minlaydi. Demak, qonun bu orqali nafaqat protsessual, balki moliyaviy va tashkiliy xavfsizlikni ham ta’minlamoqda.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismi kuzatuv tartib-taomili qachon tugashini aniq belgilaydi. Unga ko‘ra, sud tomonidan qarzdor bankrot deb topilgan va tugatishga doir ish yuritish boshlangan yoki sud sanatsiyasi yoxud tashqi boshqaruv joriy etilgan yoki kelishuv bitimi tasdiqlangan paytdan e’tiboran kuzatuv tartib-taomili tugatiladi. Bu qoida huquqiy aniqlikni ta’minlaydi, chunki kuzatuvning tugash paytini belgilash vakolatlar, huquqlar va majburiyatlarning keyingi qayta taqsimlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aynan shu paytdan boshlab ish yangi huquqiy rejimga o‘tadi: yo tugatish bosqichi boshlanadi, yo reabilitatsiya tartib-taomili amal qiladi, yo kelishuv bitimi tufayli ish yuritish tugaydi.

Ushbu normaga ko‘ra, kuzatuv mustaqil uzoq davom etuvchi holat emas, balki qonun bilan qat’iy cheklangan tayyorlov bosqichidir. Uning vazifasi – keyingi yechim uchun asos yaratish; bu maqsadga erishilgandan keyin esa u tugaydi. Mazkur yondashuv to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining bosqichma-bosqich va tizimli tabiatini ko‘rsatadi: har bir bosqich o‘z vazifasiga ega va undan keyin boshqa huquqiy rejim ishga tushadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

34. Qonun 92-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq, agar kreditorlarning birinchi yig‘ilishida to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillaridan birini qo‘llash haqida qaror qabul qilinmagan bo‘lsa yoki sudga ularning qarorlaridan hech biri Qonunning 16-moddasida belgilangan muddatda taqdim etilmagan bo‘lsa, sud doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari bo‘lgan taqdirda, agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud bo‘lmagan taqdirda, sud qarzdorning faoliyatini tiklash tartib-taomillaridan birini joriy etish to‘g‘risidagi masalani kreditorlar yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun taqdim etilgan materiallarni qaytaradi.

Sudlar inobatga olishlari kerakki, taqdim etilgan materiallarni qaytarish to‘g‘risida ajrim chiqariladi va unda qarzdorning faoliyatini tiklash tartib-taomillaridan birini joriy etish to‘g‘risidagi masalani kreditorlar yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun muddat belgilanadi. Agar sud tomonidan belgilangan muddatda kreditorlar yig‘ilishi tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillaridan birini qo‘llash haqida qaror qabul qilinmagan bo‘lsa yoxud sudga uning qarorlaridan hech biri taqdim etilmagan bo‘lsa, sud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Kuzatuv tartib-taomilining yakunlanish asoslari, sudning bu bosqichdan keyingi qarorlari, kreditorlar yig‘ilishi qarori mavjud bo‘lmagan holatlarda qo‘llaniladigan yechimlar, reabilitatsiya imkoniyatini saqlab qolish mexanizmlari, boshqaruv vakolatlarining o‘tish tartibi va kuzatuvning tugash paytini kompleks tarzda tartibga soladi. Ushbu norma kuzatuvni to‘lovga qobiliyatsizlik ishidagi markaziy tayyorlov bosqichi sifatida yakunlab, keyingi tartib-taomilga o‘tishni huquqiy jihatdan aniq va uzluksiz shaklda ta’minlaydi. Shu sababli u butun to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining mantiqiy yakuni va keyingi bosqichlarga o‘tish «ko‘prigi» vazifasini bajaradi.

9-BOB. SUD SANATSIYASI TARTIB-TAOMILI

93-modda. Sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risidagi iltimosnoma

Kuzatuv tartib-taomili jarayonida qarzdor, qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdor mol-mulkining egasi, shuningdek, uchinchi shaxs (shaxslar) sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish haqida sudga murojaat qilish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan kreditorlarning birinchi yig‘ilishiga yoxud sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish haqidagi iltimosnoma bilan bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

Qarzdorning sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risidagi iltimosnomasiga sud sanatsiyasi tartib-taomilining taklif qilinayotgan muddati va qarzni to‘lash jadvali ko‘rsatilgan holda qarzdorning sud sanatsiyasi rejasi ilova qilinishi kerak.

Sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish haqida sudga murojaat etish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan kreditorlarning yig‘ilishiga murojaat qilgan shaxslar mazkur iltimosnomani va unga ilova qilinadigan hujjatlarni kreditorlarga bu hujjatlar bilan tanishish imkoniyatini berish maqsadida kreditorlarning yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanaga kamida ikki hafta qolganida muvaqqat boshqaruvchiga taqdim etishi shart.

Qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish haqidagi iltimosnomasiga sud sanatsiyasining rejasi, qarzni to‘lash jadvali, qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) umumiy yig‘ilishining bayonnomasi ilova qilinishi kerak. Mazkur umumiy yig‘ilishning bayonnomasida sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish uchun ovoz bergan muassislar (ishtirokchilar) ro‘yxati hamda bu shaxslar tomonidan qarzni to‘lash jadvalining bajarilishini ta’minlashga oid hujjatlar ko‘rsatilishi kerak.

Uchinchi shaxsning (shaxslarning) sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risidagi iltimosnomasiga qarzni to‘lash jadvali va qarzdorning qarzni to‘lash jadvalini bajarishi uchinchi shaxs (shaxslar) tomonidan ta’minlanishiga oid hujjatlar ilova qilinishi kerak.

Sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish haqida sudga murojaat qilish to‘g‘risida kreditorlarning yig‘ilishiga ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan shaxslar iltimosnoma bilan murojaat etgan taqdirda qarzdorning qarzni to‘lash jadvalini bajarishi bu shaxslarning har biri tomonidan ta’minlanishi ular o‘rtasidagi bitimga binoan belgilanadi.

Sharhlanayotgan moddada sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risidagi iltimosnomani sudga taqdim qilish tartibi bayon etilgan.

1. Qonunning 3-moddasiga muvofiq, sud sanatsiyasi qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning to‘lov qobiliyatini tiklash va uning kreditorlar oldidagi qarzini to‘lash uchun qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini sanatsiya qiluvchi boshqaruvchiga o‘tkazmagan holda sud tomonidan qo‘llaniladigan tartib-taomildir. Umumiy qoidaga ko‘ra, sud sanatsiyasi rejasi va qarzni uzish (yoki qarzni to‘lash) jadvaliga muvofiq ta’minot (garov, kafillik, kafolat) evaziga qarzdorga qarzlarni to‘lashni kechiktirish va bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati taqdim etiladi. Sud sanatsiyasi tartib-taomili faqat yuridik shaxslarga qo‘llaniladi va qarzdorning ishlarini boshqarish vakolati qarzdor boshqaruv organlarining o‘zida qoldiriladi, shu boisdan sud sanatsiyasi passiv sog‘lomlashtirish taomili deb e’tirof qilinadi. Mazkur taomilda sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi kreditorlarning talablari qarzdor tomonidan o‘z vaqtida bajarilishi ustidan nazoratni olib boradi. Sud sanatsiyasi qarzdorni reabilitatsiya qilishga imkon beradi va kreditorlarning talablari to‘liq qanoatlantirilgan holda qarzdorni saqlab qolishga xizmat qiladi. Sud sanatsiyasi faqat huquqiy asoslar mavjud bo‘lganda joriy qilinishi mumkin: kreditorlarning iltimosnomasi va manfaatdor uchinchi shaxslarning iltimosnomalari (ular tomonidan zarur ta’minot taqdim etilganda). To‘lovga qobiliyatsizlik ishining boshqa taomillaridan farqli o‘laroq, sud sanatsiyasida manfaatdor shaxslarning faol ishtiroki nazarda tutilgan. Bunda uchinchi shaxslar qarzdorni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ta’minot taqdim qiladi.

Qarzdor, qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdor mol-mulkining egasi, vakolatli davlat organi (Qonunning 92-moddasi uchinchi qismiga asosan), shuningdek, uchinchi shaxs (shaxslar) sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish haqidagi iltimosnoma bilan kreditorlar yoki kreditorlar yig‘ilishiga yoxud bevosita sudga murojaat qilishlari mumkin.

2. Ushbu norma sud sanatsiyasini (qarzdorni moliyaviy tiklash bosqichini) joriy etish uchun qo‘yiladigan majburiy talabni belgilaydi.

Qarzdor sudga sud sanatsiyasini joriy etish haqida iltimosnoma kiritar ekan, u shunchaki umumiy so‘rov bilan cheklanib qolmasligi kerak, balki aniq va asoslangan reja taqdim etishi shart. Bunda iltimosnomaga albatta sud sanatsiyasining qancha muddatga taklif etilayotgani va qarzlarni qanday va qay tartibda to‘lash jadvali ko‘rsatilgan sud sanatsiyasi rejasi ilova qilinishi lozim.

Bu talabning maqsadi sud va kreditorlarga qarzdorni tiklash imkoniyati realmi yoki yo‘qligini baholash imkonini berishdir. Agar bunday reja bo‘lmasa yoki u aniq va asoslanmagan bo‘lsa, sud sanatsiyasini joriy etish uchun asos yetarli deb topilmasligi mumkin. Qisqacha aytganda, bu norma qarzdordan «men tuzalaman» degan va’da emas, balki aniq hisob-kitob va amaliy reja talab qiladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida kreditorlarning birinchi yig‘ilishiga sud sanatsiyasini joriy etish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan murojaat qilishning muddati va tartibi ko‘rsatilgan. Kreditorlarning birinchi yig‘ilishiga ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslar kreditorlarning yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanaga kamida ikki

hafta qolganida iltimosnomaning o‘zini va unga ilova qilingan hujjatlarni muvaqqat boshqaruvchiga taqdim etishi shart, shu orqali kreditorlarga hujjatlar bilan tanishish imkoniyati beriladi. Mazkur muddat va tartibga rioya qilmasdan iltimosnoma kiritish sud sanatsiyasini joriy qilish masalasi kreditorlar yig‘ilishida ko‘rib chiqilmasligiga olib keladi. Chunki ular Qonunning 14-moddasida nazarda tutilgan muddatda kreditorlarni xabardor qilish, muvaqqat boshqaruvchiga yuklatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarish, kreditorlar birinchi yig‘ilishining kun tartibini oldindan shakllantirishga imkon bermaydi. Muvaqqat boshqaruvchi kreditorlarga kreditorlarning birinchi yig‘ilishi o‘tkazilgunga qadar mazkur hujjatlar bilan tanishib chiqish imkoniyatini berishi shart.

Iltimosnoma bilan murojaat qilishning belgilangan muddati va tartibi buzilgan taqdirda yoki muddatlar o‘tkazib yuborilganda manfaatdor shaxsda sud sanatsiyasini joriy qilishni suddan so‘rash huquqi saqlanib qoladi.

Kreditorlar birinchi yig‘ilishda iltimosnomani va u bilan birga taqdim etilgan hujjatlarni o‘rganib chiqishadi va sud sanatsiyasini joriy etish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan iqtisodiy sudga murojaat qilish haqida yoki boshqa qaror qabul qilishlari mumkin. Birinchi vaziyatda kreditorlar yig‘ilishining qarori asosida iqtisodiy sud sud sanatsiyasini joriy etish to‘g‘risida ajrim chiqaradi.

Agar kreditorlarning birinchi yig‘ilishi boshqacha taomilni joriy etish zarurligi to‘g‘risida qaror qabul qilgan bo‘lsa, sud sanatsiyasi faqat Qonunning 92-moddasi uchinchi qismida ko‘rsatilgan hollardagina joriy etilishi mumkin. Qonunda belgilangan hollarda manfaatdor shaxslar sud sanatsiyasini joriy etish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan iqtisodiy sudga murojaat qilishlari mumkin. Demak, sud sanatsiyasi kreditorlarning xohish-irodasidan tashqarida ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda faqat manfaatdor shaxslar tomonidan sudga qarzni to‘lash jadvaliga muvofiq ta’minot taqdim etilgan bo‘lishi mumkin.

Sud sanatsiyasini joriy etish to‘g‘risidagi iltimosnoma manfaatdor shaxslar tomonidan kuzatuv tartib-taomili davomida berilishi mumkin. Kuzatuv muddati tugaganidan keyin bunday iltimosnoma berilishi mumkin emas, chunki sud sanatsiyasini joriy etish to‘g‘risidagi ajrim faqat kuzatuv tugaganidan keyin qabul qilinishi mumkin.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismida qarzdor muassislari (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasi tomonidan sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish haqidagi iltimosnomani taqdim qilish tartibi belgilangan. Unga ko‘ra, qarzdor muassislari (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasi sud sanatsiyasining rejasi, qarzni to‘lash jadvali, qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) umumiy yig‘ilishining bayonnomasini iltimosnomaga ilova qilishlari kerak. Demak, ushbu vaziyatda qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) umumiy yig‘ilishi chaqirilgan bo‘lishi va sud sanatsiyasini joriy etishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi masala muhokama qilingan bo‘lishi lozim. Umumiy yig‘ilishning bayonnomasida sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish uchun ovoz bergan muassislar (ishtirokchilar) ro‘yxati hamda bu shaxslar tomonidan qarzni to‘lash jadvalining bajarilishini ta’minlashga oid hujjatlar ko‘rsatiladi.

Agar iltimosnoma qarzdor mol-mulki egasi tomonidan berilgan bo‘lsa, iltimosnomani kiritish haqidagi qaror mol-mulki egasi yoki vakolat berilgan boshqa shaxs tomonidan qabul qilinadi va unda ham qarzni uzish jadvali va ta’minot to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

5. Sud sanatsiyasini joriy etish to‘g‘risidagi iltimosnoma uchinchi shaxs yoki uchinchi shaxslar tomonidan berilishi mumkin. Iltimosnoma uchinchi shaxslar tomonidan taqdim qilinganda qarzdor bilan kelishish lozim. Uchinchi shaxsning (shaxslarning) sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risidagi iltimosnomasiga qarzni to‘lash jadvali va qarzdorning qarzni to‘lash jadvalini bajarishi uchinchi shaxs (shaxslar) tomonidan ta’minlanishiga oid hujjatlar ilova qilinadi. Uchinchi shaxs qarzni uzish jadvaliga muvofiq qarzdor tomonidan majburiyatlarning bajarilishi ta’minotini taqdim etishi shart.

6. Sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish haqida sudga murojaat qilish to‘g‘risida kreditorlarning yig‘ilishiga manfaatdor shaxslar iltimosnoma bilan murojaat etgan taqdirda qarzdorning qarzni to‘lash jadvalini bajarishi bu shaxslarning har biri tomonidan ta’minlanishi ular o‘rtasidagi bitimga binoan belgilanadi. Iltimosnoma bir nechta shaxslar tomonidan berilishi maqsad qilingan bo‘lsa, unda ushbu shaxslar o‘zaro bitim tuzish orqali huquq va majburiyatlarni, ta’minot usulini kelishib olishadi. Qarang: Xalqaro sharh. 759-b.

94-modda. Qarzdor tomonidan majburiyatlarni qarzni to‘lash jadvaliga muvofiq bajarishni ta’minlash

Qarzdor tomonidan majburiyatlarni qarzni to‘lash jadvaliga muvofiq bajarish qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda ta’minlanishi mumkin.

Qarzdorning qarzni to‘lash jadvalini bajarish bo‘yicha majburiyatlari sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish haqida sud ajrim chiqargan paytdan e’tiboran ta’minlangan deb hisoblanadi.

Majburiyatlarni bajarish ta’minoti berilganligi to‘g‘risidagi bitim, agar qonunda boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, yozma shaklda tuziladi. Kreditorlar tarafidan mazkur bitimni kreditorlar yig‘ilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining vakili, sudning tashabbusi bilan sud sanatsiyasi tartib-taomili joriy etilgan taqdirda esa sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi, boshqa tarafdan qarzdorning majburiyatlarni qarzni to‘lash jadvaliga muvofiq bajarishi ta’minotini bergan shaxslar (bundan buyon matnda majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslar deb yuritiladi) imzolaydi.

Majburiyatlarni bajarishning berilgan ta’minoti miqdori qarzdor majburiyatlarining sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish haqidagi masala yuzasidan kreditorlarning yig‘ilishi o‘tkazilishi oldidan oxirgi hisobot sanasidagi holatga ko‘ra balansda aks ettirilgan va kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan talablar asosida tuzilgan qarzni to‘lash jadvalidagi miqdoridan kamida yigirma foiz ortiq bo‘lishi kerak.

Qarzdorga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida tegishli bo‘lgan mol-mulk, shu jumladan, mulkiy huquqlar qarzdorning qarzni to‘lash jadvalini bajarish ta’minotining predmeti bo‘lishi mumkin emas.

Qarzni to‘lash jadvaliga o‘zgartishlar kiritilganligi, shuningdek, qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlikning yangi tartib-taomili joriy etilganligi majburiyatlarni bajarishning berilgan ta’minotini tugatish uchun asos bo‘lmaydi.

Sharhlanayotgan moddada qarzdor tomonidan majburiyatlarni qarzni to‘lash jadvaliga muvofiq bajarishni ta’minlash tartibi va asoslari keltirilgan.

1. Qarzdorning majburiyatlarni qarzni uzish jadvaliga muvofiq bajarishini ta’minlash FKning majburiyatlarni ta’minlash to‘g‘risidagi normalari (22-bobi) asosida amalga oshiriladi. FKning 259-moddasi birinchi qismiga asosan, majburiyatning bajarilishi neustoyka, garov, qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish, kafillik, kafolat, zakalat hamda qonunchilik yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ta’minlanishi mumkin. Shartnoma bo‘yicha ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari hajmi, javobgarligi tanlangan ta’minlash usuliga bog‘liq. Majburiyatning bajarilishini ta’minlash to‘g‘risidagi kelishuvning haqiqiy emasligi ushbu majburiyatning (asosiy majburiyatning) haqiqiy emasligiga olib kelmaydi. Asosiy majburiyatning haqiqiy emasligi uning bajarilishini ta’minlaydigan majburiyatning haqiqiy emasligiga olib keladi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida qachondan boshlab qarzdorning qarzni to‘lash jadvalini bajarish bo‘yicha majburiyatlari uchinchi shaxslar tomonidan ta’minlangan deb hisoblanishi ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish haqida sud ajrim chiqargan paytdan e’tiboran majburiyat ta’minlangan deb hisoblanadi va ta’minot bergan shaxsning majburiyati iqtisodiy sud tomonidan sud sanatsiyasini joriy etish to‘g‘risida ajrim chiqarilgan paytdan boshlab vujudga keladi. Shuni ta’kidlash o‘rinliki, ta’minot taqdim etilganligi to‘g‘risidagi bitim tuzilgan paytda emas, balki sud sanatsiyasini joriy etish to‘g‘risida ajrim chiqarilgan sanada kuchga kiradi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida ta’minot taqdim etilganligi to‘g‘risidagi bitim yozma shaklda tuzilishi ko‘rsatilgan, agar qonunda boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa. Boshqacha tartib deganda ushbu vaziyatda ayrim turdagi bitimlarning notarial tasdiqlanishi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi nazarda tutilmoqda. FKning 366-moddasiga asosan, notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi shart bo‘lgan shartnoma notarial tasdiqlangan yoki ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran, notarial tasdiqlanishi va ro‘yxatdan o‘tkazilishi zarur bo‘lganda esa shartnoma ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran shartnoma tuzilgan hisoblanadi. Agar taraflar shartnomani muayyan shaklda tuzishga kelishgan bo‘lsalar, garchi qonunda bu turdagi shartnomalar uchun bunday shakl talab qilingan bo‘lmasa-da, shartnoma belgilangan shaklga keltirilganidan keyin tuzilgan hisoblanadi.

Shuningdek, ta’minot taqdim etilganligi to‘g‘risidagi bitimni kimlar imzolashi ham ko‘rsatilgan, ya’ni kreditorlar tarafidan kreditorlar yig‘ilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining vakili, sudning tashabbusi bilan sud sanatsiyasi tartib-taomili joriy etilgan taqdirda esa sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi, boshqa tarafdan qarzdorning majburiyatlarni

qarzni to‘lash jadvaliga muvofiq bajarishi ta’minotini bergan shaxslar imzolaydi. Shuni qayd etish lozimki, garchi sud sanatsiyasi rejasi va qarzni uzish jadvalining ijrochisi qarzdorning boshqaruv organlari bo‘lsa-da, mazkur bitimni rasmiylashtirishda ularning roziligi (imzolari) talab qilinmaydi. Bitim ta’minlash usuli, ta’minot miqdori, taraflarning huquqlari va majburiyatlari, javobgarligi va boshqa shartlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismida ta’minotning miqdori aks etgan, ya’ni sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish haqidagi masala yuzasidan kreditorlarning yig‘ilishi o‘tkazilishi oldidan oxirgi hisobot sanasidagi holatga ko‘ra balansda aks ettirilgan va kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan talablar asosida tuzilgan qarzni to‘lash jadvalidagi miqdoridan kamida yigirma foiz ortiq bo‘lishi lozim. Demak, ta’minot kreditorlar talablari reyestriga kiritilgan talablardan kam emas, balki kamida yigirma foizga ko‘p bo‘lishligi talab qilinadi.

5. Ushbu norma qarzni to‘lash jadvalini ta’minlashda qanday mulkdan foydalanish mumkin emasligini belgilaydi. Qarzdorga tegishli bo‘lgan mol-mulk (shu jumladan, mulkiy huquqlar) uning o‘z qarzini to‘lash jadvali ijrosini ta’minlash uchun garov yoki ta’minot sifatida qo‘yilishi mumkin emas. Chunki bu mulk allaqachon qarzdorga tegishli bo‘lib, barcha kreditorlar manfaati uchun umumiy mulkiy massa hisoblanadi. Bunda qarzdor o‘z mol-mulkini «ta’minot» deb ko‘rsata olmaydi – ta’minot sifatida, odatda, uchinchi shaxs mulki yoki qo‘shimcha kafolatlar talab etiladi.

6. Ta’minot bergan shaxsning majburiyatiga to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining o‘zgarishi va qarzni to‘lash jadvaliga o‘zgartishlar kiritilganligi ta’sir qilmaydi va o‘z kuchida qoladi. Agar qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik ishining boshqa tartib-taomili – tashqi boshqaruv yoki tugatishga doir ish yuritish joriy etilgan bo‘lsa, shuningdek, qarzni uzish jadvaliga o‘zgartirishlar kiritilsa, ta’minot taqdim qilgan shaxsning majburiyati bekor bo‘lmaydi. Bunda ta’minot bergan shaxsning javobgarligi vujudga kelishi va ta’minot predmetiga undiruv qaratilishi mumkin. Qarang: Xalqaro sharh. 760-b.

95-modda. Sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish tartibi

Sud sanatsiyasi tartib-taomili sud tomonidan kreditorlar yig‘ilishining qarori asosida joriy etiladi, bundan ushbu Qonun 92-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Sudning sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risidagi ajrimida sud sanatsiyasi tartib-taomilining muddati ko‘rsatilishi, unda sud tomonidan tasdiqlangan qarzni to‘lash jadvali, majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslar haqidagi, bunday ta’minotning miqdori va shakllari to‘g‘risidagi sanatsiya qiluvchi boshqaruvchini tayinlash hamda unga to‘lanadigan haq miqdori haqidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak.

Sudning sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risidagi ajrimi ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin. Mazkur ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) uning ijrosini to‘xtatib qo‘ymaydi.

Sud sanatsiyasi tartib-taomili ko‘pi bilan yigirma to‘rt oy muddatga joriy etiladi.

Sharhlanayotgan moddada sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish asoslari va tartibi belgilanadi, xususan, kreditorlar yig‘ilishi qaroriga ko‘ra sud tomonidan qo‘llanilishi, sud sanatsiyasini joriy etish haqidagi ajrimda ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni hamda sud sanatsiyasi muddatini o‘z ichiga oladi.

1. Iqtisodiy sud quyidagi hollarda sud sanatsiyasini joriy etadi:

a) kreditorlar yig‘ilishining qaroriga muvofiq. Bu holda kreditorlar tomonidan tanlangan taomilni joriy etishning maqsadga muvofiqligi ko‘rib chiqilmaydi, chunki kreditorlar qarzdorning majburiyatlarini kechiktirishga rozi bo‘lgan. Bunda ta’minotning mavjudligi majburiy hisoblanmaydi. Qonunning 92-moddasi birinchi qismiga ko‘ra, sud kreditorlarning birinchi yig‘ilishi qarori asosida, agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi yoki sud sanatsiyasini yoxud tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida ajrim chiqaradi yoki kelishuv bitimini tasdiqlaydi va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritishni tugatadi;

b) manfaatdor shaxslarning iltimosnomasi asosida kreditorlar yig‘ilishi qaroriga muvofiq. Bunda ta’minot taqdim qilish majburiydir;

d) agar kreditorlarning birinchi yig‘ilishi tomonidan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan bo‘lsa yoxud sudga uning qarorlaridan hech biri taqdim etilmagan bo‘lsa, manfaatdor shaxslarning iltimosnomasiga binoan ta’minot taqdim etilgan taqdirda (Qonunning 92-moddasi uchinchi qismi).

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida sudning sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risidagi ajrimda qanday ma’lumotlar aks etishi lozimligi ko‘rsatilgan. Xususan, ushbu ajrimda: sud sanatsiyasi tartib-taomilining muddati; sud tomonidan tasdiqlangan qarzni to‘lash jadvali; majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslar haqidagi, bunday ta’minotning miqdori va shakllari to‘g‘risidagi ma’lumotlar; sanatsiya qiluvchi boshqaruvchini tayinlash hamda unga to‘lanadigan haq miqdori haqidagi ma’lumotlar keltiriladi.

3. Sud sanatsiyasi iqtisodiy sudning sud sanatsiyasini joriy etish to‘g‘risidagi ajrimi bilan joriy etiladi va ushbu ajrim darhol ijro etilishi lozim. Qonunning 108-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, sudning tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqidagi ajrimi darhol ijro etilishi lozim. Tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish uchun belgilangan tartib qonun o‘xshashligi bo‘yicha sud sanatsiyasi tartib-taomiliga nisbatan ham qo‘llaniladi. «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 27-moddasi uchinchi qismida sud hujjati darhol ijro etilishi lozim bo‘lgan hollarda hujjat chiqarilgan kunning ertasidan boshlab ijro etilishi lozimligi ko‘rsatilgan. IPKning 199-moddasi uchinchi qismiga asosan, IPKda boshqa muddat belgilanmagan bo‘lsa, ajrim chiqarilgan kundan e’tiboran bir oydan oshmagan muddatda uning ustidan shikoyat (protest) berilishi mumkin. Sudning sud sanatsiyasini joriy etish to‘g‘risidagi ajrimi ustidan berilgan shikoyat (protest) uning ijrosini to‘xtatmaydi.

4. Sud sanatsiyasi tartib-taomilining muddati yigirma to‘rt oydan ortiq bo‘lishi mumkin emas. Qonunning 108-moddasiga asosan, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv

tartib-taomillarining jami muddati o‘ttiz oydan oshmasligi kerak. Agar sud sanatsiyasi tartib-taomili joriy etilgan sanadan to sud tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish kuniga qadar o‘n sakkiz oydan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsa, sud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qaror chiqaradi. Qarang: Xalqaro sharh. 760-b.

96-modda. Sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish oqibatlari

Sud sanatsiyasi tartib-taomili o‘tkazilayotganda qarzdorning boshqaruv organlari o‘z vakolatlarini ushbu bobda belgilangan cheklovlar bilan amalga oshiradi.

Sud sanatsiyasi tartib-taomili joriy etilgan paytda:

kreditorlarning talablarini ta’minlash bo‘yicha ilgari qabul qilingan choralar bekor qilinadi;

qarzdorning mol-mulkini xatlash va qarzdorga nisbatan uning o‘ziga tegishli mol-mulkni tasarruf etish borasidagi vakolatlarini boshqacha tarzda cheklovlar faqat to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili doirasida joriy etiladi;

to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish jarayonida yuzaga keladigan barcha turdagi joriy soliq to‘lovlarini (bundan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar bo‘yicha soliqlar mustasno) to‘lash to‘xtatib turiladi va sud sanatsiyasi tartib-taomili jarayonining muddati yakunlangach to‘lanadi. Bunday holda sud sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining hisobotini tasdiqlagan va qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni tugatish haqida ajrim chiqargan sanadan e’tiboran mazkur soliq qarzlari olti oy ichida teng miqdorda bo‘lib-bo‘lib to‘lanadi;

sud sanatsiyasi tartib-taomili paytida yuzaga kelgan pul majburiyatlarini va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun neustoyka (jarima, penya) va boshqa iqtisodiy (moliyaviy) sanksiyalar, shuningdek, to‘lanishi lozim bo‘ladigan foizlar qo‘llanilmaydi.

Qarzni to‘lash jadvaliga muvofiq qanoatlantirilishi lozim bo‘lgan pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha kreditorning talablari summasiga O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 327-moddasida nazarda tutilgan tartibda va miqdorda foizlar hisoblanadi. Bu foizlar sud sanatsiyasini joriy etish haqida sud ajrim chiqargan paytdan e’tiboran va kreditorning talabini qanoatlantirish paytigacha, agar bunday qanoatlantirish ro‘y bermasa, unda qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilish paytigacha kreditorning talablari summasiga qo‘shib yozilishi lozim.

Kreditorlar yig‘ilishining, majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslarning yoki sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining qarzdorning rahbari

sud sanatsiyasi rejasini bajarmaganligi yoxud lozim darajada bajarmaganligi haqidagi yoki qarzdorning rahbari qarzdorning, kreditorlarning, majburiyatlarni bajarish ta'minotini bergan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan harakatlar (harakatsizlik) sodir etganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan iltimosnomasiga binoan sud qarzdorning rahbarini o'z vazifasini bajarishdan chetlashtirishga haqlidir. Bunday hollarda sud qarzdorning rahbari vazifasini bajarishni sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining zimmasiga yuklatishga haqli. Sud qarzdorning rahbarini o'z vazifasini bajarishdan chetlashtirish haqida ajrim chiqaradi, bu ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdor mol-mulkining egasi kreditorlar yig'ilishining yoxud kreditorlar qo'mitasining roziligisiz qarzdorni qayta tashkil etish (qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish) va tugatish to'g'risida qaror qabul qilishga, qarzdor esa quyidagi bitimlarni tuzishga haqli emas:

ko'chmas mol-mulkni ijaraga, garovga berish, mazkur mol-mulkni xo'jalik jamiyatlarining ustav fondiga (ustav kapitaliga) ulush sifatida qo'shish yoki bunday mol-mulkni boshqacha usulda tasarruf etish bilan bog'liq bitimlar;

yirik bitimlar;

zayomlar (kreditlar) olish va berish, kafillik berish, talab qilish huquqlaridan o'zganing foydasiga voz kechish, qarzni boshqa shaxsga o'tkazish, shuningdek, qarzdorning mol-mulkini ishonchli boshqarish shartnomasini tuzish bilan bog'liq bitimlar;

sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi yoki kreditorlar muayyan bitimlarning tuzilishidan qonunchilikda belgilangan tartibda manfaatdor bo'ladigan bitimlar.

Sudning sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish haqidagi ajrimi qarzdor to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilguniga qadar tuzgan shartnomalarni bajarishni to'xtatish yoki ularni bajarishni rad etish uchun asos bo'la olmaydi. Qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilguniga qadar tuzilgan, qarzdorning faoliyatini davom ettirish uchun muhim hisoblangan shartnomalarning bajarilishi qarzdor yoki sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi tomonidan davom ettiriladi.

Bunday holda qarzdor tomonidan tuzilgan shartnomalarning bajarilishini qarzdorga nisbatan sud sanatsiyasi tartib-taomili joriy etilganligi munosabati bilan to'xtatish yoki ularni bajarishni rad etish bo'yicha taraflarning kelishuvlari haqiqiy emas deb hisoblanadi, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi va kreditorlar qarzdorning bitimlarini qonunchilikda belgilangan tartibda haqiqiy emas deb topishni talab qilish huquqiga ega.

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi va kreditorlar to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida ish qo'zg'atilganidan keyin yoki qarzdorga nisbatan to'lovga qobi-

liyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza berilishidan oldingi yigirma to‘rt oy ichida tuzilgan hamda butunlay yoki qisman bajarilmagan shartnomalarni bekor qilishni quyidagi holatlardan biri mavjud bo‘lgan taqdirda talab qilish huquqiga ega:

shartnomalarni bajarish qarzdorga zarar yetkazsa va (yoki) qiyosiy holatlarda tuziladigan xuddi shunday shartnomalarga nisbatan qarzdorning, kreditorlarning, qarzdor majburiyatlarining bajarilishini ta’minlovchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzsa;

shartnoma bir yildan ortiq muddatga tuzilgan yoxud qarzdor uchun faqat uzoq istiqbolda ijobiy natijalar olishga mo‘ljallangan bo‘lsa;

shartnoma bir kreditorning talablarini boshqa kreditorlar talablariga nisbatan afzalroq qanoatlantirishga olib kelsa.

To‘liq yoki qisman bajarilmagan shartnomalar bo‘yicha shartnomalarni bekor qilish haqidagi talab qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashga monelik qiladigan boshqa holatlarda ham bildirilishi mumkin.

Sharhlanayotgan modda sud sanatsiyasi tartib-taomilining huquqiy oqibatlarini belgilab, qarzdorning boshqaruv organlari vakolatlarini cheklash, kreditorlar talablarini ta’minlash choralarini bekor qilish, soliq to‘lovlarini to‘xtatib turish va keyinchalik bo‘lib-bo‘lib to‘lash tartibini joriy etish, shuningdek, ayrim shartnomalarni bekor qilish va muhim shartnomalar ijrosini davom ettirish orqali korxonaning to‘lov qobiliyatini tiklash mexanizmlarini o‘z ichiga oladi.

1. Sud sanatsiyasi tartib-taomili davrida qarzdorning boshqaruv organlari o‘z faoliyatini davom ettiradi, faqat ularga cheklangan vakolatlar beriladi. Mazkur cheklovlar umumiy yig‘ilish, kuzatuv kengashi va ijro organlari kabi boshqaruv organlari vakolatlariga kiritiladi. «Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 29-moddasiga muvofiq, jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishi jamiyat boshqaruvining oliy organidir, jamiyatning ustavida jamiyatning kuzatuv kengashini tuzish nazarda tutilishi mumkin, jamiyatning joriy faoliyatiga jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi tomonidan yoki jamiyatning kollegial ijro etuvchi organi tomonidan rahbarlik qilinadi. «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 57-moddasiga ko‘ra, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi jamiyatning boshqaruv organlaridir.

2. Sud sanatsiyasini joriy etish to‘g‘risida ajrim chiqarilgan kundan boshlab muayyan oqibatlar yuzaga keladi, xususan, kreditorlar talablarini qondirishni sud sanatsiyasi davrida kechiktirib va (yoki) bo‘lib-bo‘lib to‘lash mumkin. Mazkur moddaning ikkinchi qismida sud sanatsiyasi joriy qilinishi bilan bir qator oqibatlar paydo bo‘ladi.

2.1. Sud sanatsiyasi tartib-taomili boshlanganda, kreditorlarning talablarini ta’minlash choralari bekor qilinadi. Qonunning 47-moddasiga muvofiq, sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxsning arizasi asosida IPKga mu-

vofiq kreditorlar talablarini ta’minlashga doir chora-tadbirlar ko‘rishga haqli. IPKda nazarda tutilgan chora-tadbirlardan tashqari sud bitimlarni sud boshqaruvchisining roziligisiz tuzishni taqiqlab qo‘yishga, qimmatli qog‘ozlarni, valyuta qimmatliklarini va boshqa mol-mulkni saqlash uchun uchinchi shaxslarga topshirishni qarzdorning zimmasiga yuklatishga hamda qarzdorning mol-mulki but saqlanishini ta’minlashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar ko‘rishga haqli. IPKning 94-moddasiga ko‘ra, quyidagilar da’voni ta’minlash choralari bo‘lishi mumkin: 1) javobgarga tegishli mol-mulkni yoki pul mablag‘larini xatlab qo‘yish; 2) javobgarga muayyan harakatlarni bajarishni taqiqlash; 3) boshqa shaxslarga nizo predmetiga aloqador bo‘lgan muayyan harakatlarni bajarishni taqiqlash; 4) da’vogar nizolashayotgan, undirish so‘zsiz (akseptsiz) tartibda amalga oshiriladigan ijro hujjati yoki boshqa hujjat bo‘yicha undirishni to‘xtatib turish; 5) mol-mulkni xatlashdan ozod qilish to‘g‘risidagi ariza ko‘rib chiqilgan taqdirda, mol-mulkni realizatsiya qilishni to‘xtatib turish; 6) nizoli mol-mulk buzilishining, holati yomonlashishining oldini olish maqsadida javobgarning zimmasiga muayyan harakatlarni bajarish majburiyatini yuklatish; 7) nizoli mol-mulkni uchinchi shaxsga (saqlovchiga) o‘tkazish. Mazkur ta’minlash choralarining bekor qilinishi qarzdorga moliyaviy ahvolini tiklash uchun imkoniyat yaratadi.

2.2. Qarzdor mol-mulkini xatlash va tasarruf etish bo‘yicha cheklovlar faqat to‘lovga qobiliyatsizlik ishi doirasida qo‘llaniladi. Mazkur moddaning beshinchi qismiga asosan, qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdor mol-mulkining egasi kreditorlar yig‘ilishining yoxud kreditorlar qo‘mitasining roziligisiz quyidagi bitimlarni tuzishga haqli emas: ko‘chmas mol-mulkni ijaraga, garovga berish, mazkur mol-mulkni xo‘jalik jamiyatlarining ustav fondiga (ustav kapitaliga) ulush sifatida qo‘shish yoki bunday mol-mulkni boshqacha usulda tasarruf etish bilan bog‘liq bitimlar; yirik bitimlar; zayomlar (kreditlar) olish va berish, kafillik berish, talab qilish huquqlaridan o‘zganing foydasiga voz kechish, qarzni boshqa shaxsga o‘tkazish, shuningdek, qarzdorning mol-mulkini ishonchli boshqarish shartnomasini tuzish bilan bog‘liq bitimlar; sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi yoki kreditorlar muayyan bitimlarning tuzilishidan qonunchilikda belgilangan tartibda manfaatdor bo‘ladigan bitimlar.

Qonunning 118-moddasi uchinchi qismiga muvofiq, balans qiymati qarzdorning ko‘chmas mol-mulkini yoki bitim tuzish paytidagi aktivlari balans qiymatining o‘n foizidan ko‘prog‘ini tashkil etadigan boshqa mol-mulkini tasarruf etishga olib keladigan bitimlar yirik bitimlar jumlasiga kiradi. Shunday ekan, qarzdor mol-mulkini xatlash va tasarruf etish bo‘yicha cheklovlar to‘g‘ridan to‘g‘ri Qonunning o‘zida ko‘rsatilgan bo‘lib, boshqa taqiqlar belgilanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

2.3. Barcha joriy soliq to‘lovlari – to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish jarayonida yuzaga keladigan to‘lovlar (ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar bo‘yicha soliqlar bundan mustasno) sud sanatsiyasida to‘lanishi to‘xtatib turiladi. Bu qarzdorga moliyaviy yukni yengillashtirish uchun zarur. Sud sanatsiyasi yakunlangandan so‘ng qarzdor to‘lov qobiliyati tiklanganligi haqidagi sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining hisoboti tasdiqlanadi va sud tomonidan ish yuritishni tugatish to‘g‘risida ajrim chiqariladi. Shu sanadan boshlab sud sanatsiyasi davrida to‘lanmagan soliqlar olti oy ichida teng qismlarga bo‘lib-bo‘lib to‘lanadi.

2.4. Sud sanatsiyasi tartib-taomili paytida yuzaga kelgan pul majburiyatlarini va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun neustoyka (jarima, penya) va boshqa iqtisodiy (moliyaviy) sanksiyalar, shuningdek, to‘lanishi lozim bo‘ladigan foizlar qo‘llanilmaydi. Bu qarzdorning moliyaviy yukini yengillashtirishga xizmat qiladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismiga ko‘ra, qarzni uzish jadvaliga muvofiq qanoatlantirilishi lozim bo‘lgan pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha kreditorning talablari summasiga FKning 327-moddasida nazarda tutilgan tartibda va miqdorda foizlar hisoblanadi. FKning 327-moddasiga asosan, boshqa shaxslarning pul mablag‘larini g‘ayriqonuniy ushlab qolish, ularni qaytarib berishdan bosh tortish, ularni to‘lashni boshqacha tarzda kechiktirish yoxud boshqa shaxs hisobidan asossiz olish yoki jamg‘arish natijasida ulardan foydalanganlik uchun ushbu mablag‘lar summasiga foiz to‘lanishi kerak. Bu foizlar bank foizining hisob stavkasi bo‘yicha belgilanadi. Shuningdek, moddaning uchinchi qismida mazkur foizlar qay tartibda kreditorlar talablari summasiga qo‘shib yozilishi belgilangan. Bu foizlar sud sanatsiyasini joriy etish haqida sud ajrim chiqargan paytdan e’tiboran va kreditorning talabini qanoatlantirish paytigacha, agar bunday qanoatlantirish ro‘y bermasa, unda qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilish paytigacha kreditorning talablari summasiga qo‘shib yozilishi lozim.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismida sud sanatsiya taomili davrida qarzdor rahbarini vazifasini bajarishdan chetlashtirish bilan bog‘liq qoidalar aks etgan. Unga ko‘ra, qarzdorning rahbari sud sanatsiyasi rejasini bajarmaganligi yoxud lozim darajada bajarmaganligi haqidagi yoki qarzdorning rahbari qarzdorning, kreditorlarning, majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan harakatlar (harakatsizlik) sodir etganligi haqida kreditorlar yig‘ilishi, majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslar yoki sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi tomonidan iltimosnoma sudga taqdim etiladi. Mazkur iltimosnomaga muvofiq sud qarzdorning rahbarini o‘z vazifasini bajarishdan chetlashtirishi mumkin. Agar qarzdorning rahbari sud tomonidan lavozimdan chetlashtirilsa, sud qarzdorning rahbari vazifasini bajarishni sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining zimmasiga yuklashi mumkin. Sud qarzdorning rahbari lavozimdan chetlashtirilganligi va rahbari vazifasini bajarish sanatsiya qiluvchi boshqaruvchiga yuklatilganligi haqida ajrim chiqaradi, bu ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismini ikkiga ajratgan holda izohlash maqsadga muvofiq, ya’ni qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdor mol-mulki egasining sud sanatsiyasi tartib-taomili davrida ayrim vakolatlari cheklanadi, shuningdek, sud sanatsiyasi davrida qarzdorning (o‘zi) cheklangan vakolatlarga ega bo‘ladi.

Agar kreditorlar yig‘ilishi yoxud kreditorlar qo‘mitasi bunga rozi bo‘lsa, qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdor mol-mulkining egasi qarzdorni qayta tashkil etish (qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish, o‘zgartirish) va tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin.

Qarzdorning (o‘zi) esa: a) ko‘chmas mol-mulkni ijaraga, garovga berish, mazkur mol-mulkni xo‘jalik jamiyatlarining ustav fondiga (ustav kapitaliga) ulush sifatida qo‘shish yoki bunday mol-mulkni boshqacha usulda tasarruf etish bilan bog‘liq bitimlarni; b) yirik bitimlarni (Qonunning 118-moddasi uchinchi qismiga muvofiq, balans qiymati qarzdorning ko‘chmas mol-mulkini yoki bitim tuzish paytidagi aktivlari balans qiymatining o‘n foizidan ko‘prog‘ini tashkil etadigan boshqa mol-mulkini tasarruf etishga olib keladigan bitimlar yirik bitimlar jumlasiga kiradi); d) zayomlar (kreditlar) olish va berish, kafillik berish, talab qilish huquqlaridan o‘zganing foydasiga voz kechish, qarzni boshqa shaxsga o‘tkazish, shuningdek, qarzdorning mol-mulkini ishonchli boshqarish shartnomasini tuzish bilan bog‘liq bitimlarni; e) sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi yoki kreditorlar muayyan bitimlarning tuzilishidan qonunchilikda belgilangan tartibda manfaatdor bo‘ladigan bitimlarni tuza olmaydi.

6. Mazkur moddaning oltinchi qismida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilguniga qadar qarzdor tuzgan shartnomalarni bajarish to‘xtatilmasligi yoki bajarish rad etilmasligi ko‘rsatilgan. Sudning sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish haqidagi ajrimi mazkur shartnomalarning bajarilishiga ta’sir qilmaydi. Qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilguniga qadar tuzilgan, qarzdorning faoliyatini davom ettirish uchun muhim hisoblangan shartnomalarning bajarilishi qarzdor yoki sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi tomonidan bajariladi.

7. Qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilguniga qadar tuzilgan shartnomalari bajarilishini qarzdorga nisbatan sud sanatsiyasi tartib-taomili joriy etilganligi munosabati bilan to‘xtatish yoki ularni bajarishni rad etish bo‘yicha taraflarning kelishuvlari haqiqiy emas deb hisoblanadi, ushbu moddaning to‘qqizinchi qismida ko‘rsatilgan holatlar bundan mustasno.

8. Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi va kreditorlar qarzdorning bitimlarini qonunchilikda belgilangan tartibda, shu jumladan, Qonunda (6-bobda – bitimlarning haqiqiy emasligi) nazarda tutilgan asoslarga muvofiq haqiqiy emas deb topishni talab qilish huquqiga ega.

9. Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi va kreditorlar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganidan keyin yoki qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza berilishidan oldingi yigirma to‘rt oy ichida tuzilgan hamda to‘liq yoki qisman bajarilmagan shartnomalarni bekor qilishni quyidagi holatlardan biri mavjud bo‘lgan taqdirda talab qilish huquqiga ega:

shartnomalarni bajarish qarzdorga zarar yetkazsa va (yoki) qiyosiy holatlarda tuziladigan xuddi shunday shartnomalarga nisbatan qarzdorning, kreditorlarning, qarzdor majburiyatlarining bajarilishini ta’minlovchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzsa;

shartnoma bir yildan ortiq muddatga tuzilgan yoxud qarzdor uchun faqat uzoq istiqbolda ijobiy natijalar olishga mo‘ljallangan bo‘lsa;

shartnoma bir kreditorning talablarini boshqa kreditorlar talablariga nisbatan afzalroq qanoatlantirishga olib kelsa.

10. Mazkur moddaning to‘qqizinchi qismida keltirilgan to‘liq yoki qisman bajarilmaydigan shartnomalar bo‘yicha shartnomalarni bekor qilish haqidagi talab qo‘yish-

ning shartlari tugal emas, qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashga monelik qiladigan boshqa holatlarda ham bildirilishi mumkin. Qarang: Xalqaro sharh. 761-b.

97-modda. Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchilikka nomzod kreditorlarning yig‘ilishi yoki majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslar tomonidan sudga taqdim etiladi.

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi sud sanatsiyasi tartib-taomili joriy etilgan paytdan e’tiboran va sud sanatsiyasi tartib-taomili tugaguniga yoki muddatidan ilgari tugatilguniga qadar faoliyat yuritadi.

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi o‘z arizasiga ko‘ra yoki kreditorlar yig‘ilishining yoxud majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslarning iltimosnomasiga binoan, shuningdek, ushbu Qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda sud tomonidan ozod qilinishi mumkin.

Sudning sanatsiya qiluvchi boshqaruvchini o‘z vazifasidan ayni bir paytda yangi sanatsiya qiluvchi boshqaruvchini tayinlagan holda ozod qilish to‘g‘risidagi ajrimi ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin. Mazkur ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) uning ijrosini to‘xtatib qo‘ymaydi.

Sud sanatsiyasi tartib-taomili paytida qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanishi munosabati bilan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishning tugatilishi sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining huquq va majburiyatlari tugashiga sabab bo‘ladi.

Agar tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida sud tomonidan ajrim chiqarilgan yoki qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilingan bo‘lsa, shuningdek, boshqa shaxs tashqi boshqaruvchi yoki tugatuvchi boshqaruvchi etib tayinlangan bo‘lsa, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi ishlar tashqi boshqaruvchiga yoki tugatuvchi boshqaruvchiga o‘tkaziladigan paytga qadar o‘z vazifalarini bajarishni davom ettirib turadi.

Sharhlanayotgan moddada sanatsiya qiluvchi boshqaruvchini tayinlash, ozod etish va vakolatlarini tugatish tartibini belgilangan, uning nomzodi kreditorlar yoki ta’minot bergan shaxslar tomonidan taqdim etilishini, faoliyat muddati sud sanatsiyasi jarayoni bilan bog‘liqligini hamda keyingi boshqaruvchi tayinlangunga qadar o‘z vazifalarini bajarishda davom etishini o‘z ichiga oladi.

1. Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchilikka nomzodni sudga kreditorlarning yig‘ilishi yoki majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslar taqdim eta olishadi. Sud sanatsiyasini joriy etish vaqtida iqtisodiy sud sanatsiya qiluvchi boshqaruvchini tayinlaydi. U iqtisodiy sud tomonidan sud sanatsiyasini joriy etish to‘g‘risida ajrim chiqarish bilan bir vaqtda tasdiqlanadi. Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi sud tomonidan mustaqil

belgilanmaydi, balki kreditorlar yig‘ilishi yoki qarzdorning majburiyatlarini bajarishni kafolatlagan shaxslar nomzod ko‘rsatadi. Sud ular tomonidan taklif etilgan shaxsni ko‘rib chiqib, tayinlaydi.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrdagi 838-son qarori bilan tasdiqlangan Sud boshqaruvchilari malaka attestatini berish tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 12-bandiga ko‘ra, sud boshqaruvchisi quyidagi asosiy malaka talablariga mos kelishi zarur: oliy ma’lumotli bo‘lishi; iqtisod, moliya, buxgalteriya hisobi yoki audit, soliq maslahatchisi yoxud huquq sohasida kamida ikki yil mehnat stajiga ega bo‘lishi; vakolatli tashkilotda malaka imtihonidan o‘tishi. Bundan tashqari, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchiga quyidagi qo‘shimcha malaka talablari qo‘yiladi: sud sanatsiyasi tartib-taomilini amalga oshiruvchilarga – uchinchi toifadagi sud boshqaruvchisi sifatida kamida yigirma to‘rt oydan kam bo‘lmagan mehnat stajiga ega bo‘lishi va sud boshqaruvchilari reytingida yil davomida yetarli darajadan tushmagan bo‘lishi yoki uchinchi toifada sud boshqaruvchisi sifatida o‘n ikki oydan kam bo‘lmagan ish stajiga ega bo‘lishi hamda avval rahbarlik (davlat boshqaruvi yoki mahalliy hokimlik yoxud sud organlarida rahbar va rahbar o‘rinbosari, xo‘jalik jamiyatlarida rahbar va boshqalar) lavozimida yigirma to‘rt oydan kam bo‘lmagan mehnat stajiga ega bo‘lishi va sud boshqaruvchilari reytingida ketma-ket uch chorakda kamida yetarli darajani qayd etgan bo‘lishi lozim.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining faoliyat davri ko‘rsatilmoqda, ya’ni sud sanatsiyasi tartib-taomili joriy etilgan paytdan e’tiboran va sud sanatsiyasi tartib-taomili tugaguniga yoki muddatidan ilgari tugatilguniga qadar faoliyat yuritadi. Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi sud sanatsiyasi tartib-taomilining amal qilish davriga bog‘liq holda ishlaydi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida sanatsiya qiluvchi boshqaruvchini lavozimdan ozod etish haqida murojaat qiluvchi shaxslar va qay tartibda sudga murojaat qilinishi keltirilgan. Bunda sudga sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining o‘zi lavozimdan ozod etish haqida ariza kiritgan bo‘lishi yoki kreditorlar yig‘ilishining yoxud majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslarning iltimosnomasi kiritilgan bo‘lishi talab etiladi. Shuningdek, Qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi sud tomonidan lavozimdan ozod etilishi mumkin. Qonunning 29-moddasi ikkinchi qismiga asosan, vakolatli davlat organi sud boshqaruvchilari faoliyati ustidan qonunchilikka muvofiq nazoratni amalga oshiradi, sud boshqaruvchisining faoliyatida qonunchilik muntazam ravishda yoki bir marta qo‘pol ravishda buzilganligi aniqlangan taqdirda uni vazifasini bajarishdan ozod qilish haqida sudga ariza bilan murojaat etadi.

4. Sudning sanatsiya qiluvchi boshqaruvchini o‘z vazifasidan ayni bir paytda yangi sanatsiya qiluvchi boshqaruvchini tayinlagan holda ozod etish to‘g‘risidagi ajrimi ijroni to‘xtatib qo‘ymaydi, ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

5. Ushbu norma sud sanatsiyasi jarayonining mantiqiy yakunlanishini belgilaydi. Agar sud sanatsiyasi davomida qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklansa va shu asosda sud to‘lovga qobiliyatsizlik ishini tugatsa, demak, qarzdor oddiy xo‘jalik faoliyatiga qaytgan hisoblanadi. Shu holatdan boshlab sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining ishtirokiga ehtiyoj qolmaydi, chunki uning asosiy vazifasi qarzdorni moliyaviy jihatdan

tiklash edi. Natijada ish yuritish tugatilishi bilan bir vaqtda boshqaruvchining barcha huquq va majburiyatlari ham bekor bo‘ladi. Demak, bu norma sanatsiya muvaffaqiyatli yakunlanganda boshqaruvchi vakolatlari avtomatik ravishda tugashini belgilaydi.

6. Ushbu norma sanatsiya bosqichidan keyingi o‘tish davrini tartibga soladi va boshqaruvda uzluksizlikni ta’minlashga qaratilgan. Agar sud tomonidan tashqi boshqaruv joriy etilsa yoki qarzdor bankrot deb topilib, tugatish jarayoni boshlansa, shu bilan birga, yangi boshqaruvchi (tashqi yoki tugatuvchi) tayinlanadi. Biroq yangi boshqaruvchi darhol barcha ishlarni qabul qilib olguncha vaqt talab etiladi. Shu bois sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi o‘z vakolatlarini darhol to‘xtatmaydi, balki ishlar rasman topshirilguncha o‘z vazifalarini bajarishda davom etadi. Bu qoida moliyaviy va tashkiliy uzilishlar, hujjatlar yo‘qolishi yoki boshqaruvda bo‘shliq yuzaga kelishining oldini oladi. Bundan ko‘zlangan maqsad boshqaruvning izchilligi va kreditorlar manfaatlarining uzluksiz himoyasini ta’minlashdir.

98-modda. Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining huquqlari

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi quyidagilarga haqli:

qarzdorning rahbaridan qarzdorning joriy faoliyati, sud sanatsiyasi rejasida nazarda tutilgan tadbirlarning amalga oshirilishi hamda qarzni to‘lash jadvalining bajarilishi jarayoni haqida axborot talab qilishga;

qarzdorning rahbaridan kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun pul mablag‘lari o‘z vaqtida va to‘liq o‘tkazilishini talab qilishga;

qarzdor mol-mulk inventarizatsiyasini o‘tkazgan taqdirda unda ishtirok etishga;

kreditorlarning joriy talablari qarzdor tomonidan o‘z vaqtida bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishga;

ushbu Qonun 96-moddasining beshinchi qismida nazarda tutilgan hollarda qarzdorning bitimlari va qarorlarini kelishib olishga hamda mazkur bitimlar va qarorlar haqida kreditorlarga axborot taqdim etishga;

ushbu Qonunning 63-, 64- va 65-moddalarida belgilangan tartibda qarzdorning bitimlarini haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida sudga ariza berishga;

qarzdorning kreditorlar talablarini tan olishga yoki bunday talablarni aniqlangan deb topish uchun asoslarni tasdiqlashga doir harakatlari yoxud qarzdorning kreditorlar talablarini ko‘rib chiqish borasidagi harakatsizligi ustidan ushbu Qonunning 60- va 87-moddalarida belgilangan hollarda hamda tartibda sudga shikoyat berishga;

ushbu Qonun 96-moddasining to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan hollarda qarzdorning rahbarini o‘z vazifasini bajarishdan chetlashtirish haqidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilishga;

qarzdor rahbaridan, ta’sischilaridan (ishtirokchilaridan) va (yoki) davlat organlaridan qarzdorga taalluqli bo‘lgan axborotni va hujjatlarni so‘rab olishga;

o‘z vakolatlarini amalga oshirishni ta’minlash uchun davlat xizmatlaridan, shu jumladan, davlat xizmatlari markazlari orqali ko‘rsatiladigan xizmatlardan oldindan to‘lovlarni amalga oshirmasdan foydalanishga;

qarzdorning mol-mulki but saqlanishini ta’minlash yuzasidan qo‘shimcha choralar ko‘rish to‘g‘risidagi, shu jumladan, mol-mulkni saqlash uchun uchinchi shaxslarga o‘tkazish, shuningdek, bunday choralarni bekor qilish haqidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilishga.

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining huquqlari keltirilgan.

1. Ushbu norma sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining vakolatlarini belgilab, uning asosiy vazifasi qarzdorni moliyaviy tiklash jarayonini nazorat qilish va kreditorlar manfaatini himoya qilishdan iborat ekanini ko‘rsatadi.

Avvalo, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi qarzdor rahbaridan doimiy ravishda axborot talab etish, pul mablag‘larining o‘z vaqtida o‘tkazilishini nazorat qilish va qarzni to‘lash jadvali bajarilishini ta’minlash huquqiga ega. Shu orqali u qarzdorning joriy faoliyati ustidan tizimli nazorat o‘rnatadi va mablag‘lar noto‘g‘ri yo‘naltirilishining oldini oladi.

Ikkinchidan, u mol-mulkni inventarizatsiya qilishda ishtirok etadi, kreditorlar talablarining o‘z vaqtida qondirilishini kuzatadi, ayrim bitimlarni kelishadi, hatto shubhali yoki qonunga zid bitimlarni sud orqali haqiqiy emas deb toptirish tashabbusi bilan chiqishi mumkin. Shuningdek, u qarzdorning kreditorlar talablarini tan olish yoki ko‘rib chiqishdagi harakatlari (yoki harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqiga ham ega.

Uchinchidan, zarur hollarda sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi qarzdor rahbarini lavozimidan chetlatish masalasini ko‘tarishi, davlat organlari va boshqa manbalardan axborot va hujjatlarni so‘rab olishi, davlat xizmatlaridan to‘lovsiz foydalanishi mumkin. Bu unga jarayonni samarali boshqarish va to‘liq ma’lumot asosida qaror qabul qilish imkonini beradi.

Nihoyat u qarzdor mol-mulkini saqlab qolish uchun qo‘shimcha choralar ko‘rish, jumladan, uni uchinchi shaxslarga saqlashga topshirish yoki bu choralarni bekor qilish bo‘yicha sudga murojaat qilish huquqiga ega. Qisqacha aytganda, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi bu jarayonda nazoratchi, himoyachi va tashabbuskor vakolatlarga ega bo‘lgan markaziy figura hisoblanadi.

2. Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Masalan, Qonunning 23-moddasi birinchi qismiga ko‘ra, sud boshqaruvchisi quyidagi huquqlarga ega:

kreditorlar yig‘ilishini chaqirishga; ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda kreditorlar qo‘mitasi chaqirilishini talab qilishga; oldindan davlat boji to‘lamay turib da’vo arizalari va boshqa arizalar bilan sudga murojaat etishga;

ushbu Qonunning 26-moddasiga muvofiq haq olishga;

boshqa shaxslarni ular faoliyatiga qarzdorning mablag‘lari hisobidan haq to‘lagan holda, agar kreditorlar bilan tuzilgan bitimda boshqacha qoida belgilangan bo‘lmasa, shartnoma asosida jalb etishga;

davlat xizmatlaridan, shu jumladan, davlat xizmatlari markazlari orqali ko‘rsatiladigan xizmatlardan oldindan haq to‘lamasdan foydalanishga;

qarzdorning mulki, hisobvaraqlari va depozitlari, shu jumladan, kredit kartalari, elektron balanslari va elektron pul o‘tkazmalari to‘g‘risida jismoniy va yuridik shaxslardan (shu jumladan, kredit tashkilotlaridan) hamda davlat organlaridan bepul axborot olishga;

qarzdor jismoniy shaxsdan uning jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini amalga oshirishga doir faoliyati to‘g‘risidagi axborotni so‘rab olishga;

o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish uchun davlat soliq xizmati va bojxona organlaridan, byudjetdan tashqari jamg‘armalardan, ko‘chmas mulkka oid hujjatlarni ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlardan hamda qarzdor korxona va unga tegishli mol-mulk to‘g‘risida zarur axborotga ega bo‘lgan boshqa vakolatli organlardan axborot olishga;

o‘z vazifalarini bajarishni muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risida sudga ariza berishga haqli. Qarang: Xalqaro sharh. 763-b.

99-modda. Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining majburiyatlari

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi:

kreditorlarning talablari reyestrini yuritishi;

ushbu Qonunning 12-moddasida nazarda tutilgan hollarda kreditorlarning yig‘ilishini chaqirishi;

qarzdor tomonidan taqdim etilayotgan sud sanatsiyasi rejasi va qarzni to‘lash jadvali bajarilishi jarayoni to‘g‘risidagi hisobotlarni ko‘rib chiqishi hamda kreditorlarning yig‘ilishiga tegishli xulosalarni taqdim etishi;

kreditorning talabiga ko‘ra qarzdorning moliyaviy ahvoli va (yoki) o‘z faoliyati haqidagi axborotni o‘n kunlik muddatda taqdim etishi;

sud sanatsiyasi rejasi amalga oshirilishining borishi to‘g‘risida kreditorlar yig‘ilishiga va (yoki) kreditorlar qo‘mitasiga, shuningdek, agar qarzdorning ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lsa, vakolatli davlat organiga axborot taqdim etishi shart.

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining majburiyatlari keltirilgan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining majburiyatlari keltirilgan bo‘lib, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi qarzdor korxonaning moliyaviy sog‘lomlashtirish jarayonini tashkil etadi va barcha kreditorlarning talablari reyestrini yuritib, qarzdorning majburiyatlarini aniq hisobga oladi. U qonunda nazarda

tutilgan hollarda kreditorlar yig‘ilishini chaqirib, muhim qarorlar qabul qilinishi uchun sharoit yaratadi. Shuningdek, qarzdor tomonidan taqdim etilgan sud sanatsiyasi rejasi va qarzni to‘lash jadvali qanday bajarilayotganini doimiy ravishda nazorat qiladi hamda bu haqida tahliliy xulosalar tayyorlaydi. Ushbu xulosalar kreditorlar yig‘ilishiga taqdim etilib, qaror qabul qilishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Kreditor talab qilganda, boshqaruvchi qarzdorning moliyaviy ahvoli va faoliyati haqidagi ma’lumotlarni o‘n kun ichida taqdim etishi shart.

Bundan tashqari, u sanatsiya rejasining amalga oshirilishi to‘g‘risida kreditorlar yig‘ilishiga, kreditorlar qo‘mitasiga va zarur hollarda vakolatli davlat organiga muntazam axborot berib boradi.

2. Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Bu umumiy qoida bo‘lib, qonunning boshqa moddalarida yoki qonunosti hujjatlarda sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi zimmasiga qo‘shimcha majburiyatlar yuklanishi mumkin. Qonunning 26-moddasi uchinchi qismiga muvofiq, sud boshqaruvchisi:

qarzdorning mol-mulki but saqlanishi yuzasidan choralar ko‘rishi;

kreditorlarning talablari reyestrini shakllantirishi va yuritishi;

qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil qilishi;

qarzdorning moliyaviy ahvoli va (yoki) o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni kreditorning talabiga ko‘ra o‘n kunlik muddatda taqdim etishi;

soxta to‘lovga qobiliyatsizlik, to‘lovga qobiliyatsizlikni yashirish yoki qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelish alomatlarini aniqlashga doir harakatlarni amalga oshirishi va choralar ko‘rishi hamda bunday alomatlar aniqlanganligi haqida kreditorlar yig‘ilishiga, sudga, vakolatli davlat organiga, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishi;

qarzdor jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishi;

qarzdor jismoniy shaxs tomonidan kreditorlarning talablari to‘la hajmda qanoatlantirilishi uchun mablag‘larning o‘z vaqtida to‘liq to‘lanishini nazorat qilishi;

sud hujjatlari bilan o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi shart. Qarang: Xalqaro sharh. 763-b.

100-modda. Sud sanatsiyasi rejasi va qarzni to‘lash jadvali

Sud sanatsiyasi rejasi qarzdorning rahbari, qarzdor muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdor mol-mulkining egasi tomonidan tayyorlanadi.

Sud sanatsiyasi rejasida qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashga doir aniq chora-tadbirlar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Sud sanatsiyasi rejasida quyidagilar nazarda tutilishi kerak:

qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash chora-tadbirlari, mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish shartlari va tartibi, ularni amalga oshirish xarajatlari hamda qarzdorning boshqa xarajatlari;

qarzni to‘lash jadvali;

sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlashga qarshi ovoz bergan kreditorning yoki ushbu rejani tasdiqlash uchun ovoz berish huquqiga ega bo‘lmagan kreditorning qarzdor tugatilgan taqdirda olishi mumkin bo‘lgan kafolatli tovonning miqdori va to‘lash muddati;

qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash davri.

Sud sanatsiyasi rejasida qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash yuzasidan ushbu Qonunning 125-moddasida nazarda tutilgan chora-tadbirlar bo‘lishi mumkin.

Sud sanatsiyasi rejasini amalga oshirish muddati sudning sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risidagi ajrimida nazarda tutilgan muddatdan oshishi mumkin emas.

Sud sanatsiyasi rejasida qarzni to‘lash jadvaliga muvofiq kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larni sud sanatsiyasi jarayonida qarzdor tomonidan olish usullari nazarda tutilishi kerak. Sud sanatsiyasi rejasi kreditorlarning yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlash haqidagi masala ko‘rib chiqilayotganda ovoz berishda birinchi va ikkinchi guruh kreditorlari ishtirok etadi.

Kreditorlar yig‘ilishining sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori, agar birinchi va ikkinchi guruhlarning har biridagi kreditorlarning ko‘pchiligi uni yoqlab ovoz bersa, qabul qilingan deb hisoblanadi. Bunda ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan va sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlashga qarshi ovoz bergan kreditor hamda ushbu rejani tasdiqlash uchun ovoz berish huquqiga ega bo‘lmagan kreditor qarzdor tugatilgan taqdirda eng kamida olishi mumkin bo‘lgan kafolatli to‘lovga teng tovon olish huquqiga ega.

Agar birinchi va ikkinchi guruhlarning har biridagi kreditorlar sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlash haqida qaror qabul qilmasa, shuningdek, ovoz berish chog‘ida guruhlardan biridagi kreditorlarning zarur miqdordagi ovozi to‘planmasa, qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish haqida qaror qabul qilinadi.

Sud sanatsiyasi rejasida qarzdorning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish, ushbu Qonunning 130-moddasiga muvofiq qarzdorning qo‘shimcha emissiyaviy aksiyalarini chiqarish va joylashtirish, ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo‘shimcha ulush kiritish hamda kreditorlarning talablarini aksiyalarga ayirboshlash nazarda tutilishi mumkin.

Sud sanatsiyasi rejasida qarzdorning korxonasi (biznesi) yoki qarzdor mol-mulkining bir qismi ushbu Qonunning 126- va 127-moddalarida nazarda tutilgan tartibda sotilishi nazarda tutilishi mumkin.

Sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlashga qarshi ovoz bergan kreditorlar o‘z huquqlarini himoya qilish maqsadida ekspertlarni:

sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlashga qarshi ovoz bergan kreditor hamda ushbu rejani tasdiqlash uchun ovoz berish huquqiga ega bo‘lmagan kreditor,

qarzdor tugatilgan taqdirda, eng kamida olishi mumkin bo‘lgan kafolatli to‘lovga teng tovon olish huquqiga ega bo‘lishini;

sud sanatsiyasi rejasining muvaffaqiyatli bajarilish imkoniyati mavjudligini;

kreditorlarning boshqa kreditorlarga nisbatan qarzdorning mol-mulki bilan ta’minlangan ustunlik huquqini tekshirish uchun jalb etishi mumkin.

Agar qarzdor sud sanatsiyasi rejasi uchun mol-mulki to‘g‘risida noto‘g‘ri yoki chalg‘ituvchi ma’lumotlarni taqdim etgan yoxud o‘z faoliyatiga va (yoki) ishga taalluqli bo‘lgan axborotni yashirgan bo‘lsa, kreditorlar yig‘ilishi sud sanatsiyasi rejasini bekor qilish va sud sanatsiyasi tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish hamda sudga tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish yoki qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida iltimosnoma kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin.

Sud kreditorlar yig‘ilishining iltimosnomasi asosida sud sanatsiyasi tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish hamda tegishincha tashqi boshqaruvni joriy etish haqida ajrim chiqaradi yoki qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Qarzdorning boshqaruv organi va sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi sud sanatsiyasining tasdiqlangan rejasi amalga oshirilishi uchun mas’uldir.

Kreditorlar yig‘ilishi va (yoki) kreditorlar qo‘mitasi sanatsiya rejasining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Kreditor sanatsiya qiluvchi boshqaruvchidan sud sanatsiyasi rejasining bajarilishi bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday ma’lumotni so‘rab olishga haqlidir.

Sud sanatsiyasi rejasida qarzdorni qarzlardan to‘liq yoki qisman ozod qilish yoxud ularni o‘zgartirish nazarda tutilishi mumkin.

Qarzdorni qarzlardan to‘liq yoki qisman ozod qilish yoxud ularni o‘zgartirish barcha kreditorlarning roziligi bilan amalga oshiriladi.

Agar biror-bir kreditor qarzdorning qarzlardan to‘liq yoki qisman ozod etilishiga yoki ularning o‘zgartirilishiga qarshi bo‘lsa, qolgan kreditorlar unga talabni kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq sotib olish bo‘yicha taklif berishga haqli.

Qarzdorning qarzlardan to‘liq yoki qisman ozod qilinishiga yoki ularning o‘zgartirilishiga qarshi bo‘lgan kreditor qolgan kreditorlar tomonidan taklif etilgan shartlarni qabul qilishi shart.

Qarzni to‘lash jadvali, agar ushbu Qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, barcha kreditorlar oldidagi qarzning to‘lanishini nazarda tutishi kerak. Qarzni to‘lash jadvali sud tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Qarzdorning sud sanatsiyasi tartib-taomili jarayonida yuzaga kelgan joriy to‘lovlar bo‘yicha kreditorlarning talablarini qanoatlantirish ushbu Qonunning 149-, 150- va 185-moddalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qarzdor qarzni to‘lash jadvalini muddatidan ilgari bajarishga haqlidir.

Sharhlanayotgan moddada sud sanatsiyasi rejasi va qarzni to‘lash jadvalini tuzish va tasdiqlash tartibi keltirilgan.

1. Sud sanatsiyasi qarzdorning moliyaviy ahvolini sog‘lomlashtirishga qaratilgan taomil bo‘lib, unda sog‘lomlashtirishning muayyan kafolatlari va shart-sharoitlarini nazarda tutishi lozim. Umumiy qoidaga ko‘ra, bunday kafolatlar qarzdor tomonidan majburiyatlarni bo‘lib-bo‘lib bajarish va kechiktirish hamda manfaatdor shaxslar tomonidan taqdim etilgan ta’minot bo‘lib, uning hisobiga qarzdorning kreditorlar oldidagi majburiyatlari qarzni to‘lash jadvaliga muvofiq bajariladi. Sud sanatsiyasi rejasidan farqli o‘laroq, qarzni to‘lash jadvalini tuzish majburiydir. Sharhlanayotgan moddaning birinchi qismida sud sanatsiyasi rejasi qarzdorning rahbari, qarzdor muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdor mol-mulkining egasi tomonidan tayyorlanishi ko‘rsatilgan.

2. Sud sanatsiya rejasi qarzdorni reabilitatsiya qilishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy usullarini o‘z ichiga olishi mumkin va rejada qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashga doir aniq chora-tadbirlar ko‘rsatilishi shart.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida sud sanatsiyasi rejasida qayd etilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar belgilangan. Unda qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash chora-tadbirlari, mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish shartlari va tartibi, ularni amalga oshirish xarajatlari hamda qarzdorning boshqa xarajatlari; qarzni to‘lash jadvali; sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlashga qarshi ovoz bergan kreditorning yoki ushbu rejani tasdiqlash uchun ovoz berish huquqiga ega bo‘lmagan kreditorning qarzdor tugatilgan taqdirda olishi mumkin bo‘lgan kafolatli tovonning miqdori va to‘lash muddati; qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash davri ko‘rsatilishi lozim. Shuni ta’kidlash o‘rinliki, sud sanatsiyasi rejasi ishlab chiqilganda uning tarkibiga qarzni to‘lash jadvali ham kiritiladi.

4. Sud sanatsiyasi rejasida qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash bo‘yicha Qonunning 125-moddasida nazarda tutilgan quyidagi chora-tadbirlar aks etishi mumkin: ishlab chiqarishni qayta ixtisoslashtirish; norentabel ishlab chiqarishlarni yopish; debitorlik qarzlarini undirish; qarzdor mol-mulkining bir qismini sotish; qarzdorning talabidan o‘zganing foydasiga voz kechish; qarzdorning majburiyatlari uchinchi shaxslar tomonidan bajarilishi; qarzdorning qo‘shimcha aksiyalarini joylashtirish; qarzdorning korxonasini (biznesini) mulkiy majmua sifatida sotish; tijorat banklaridan, moliya institutlaridan qarz olish, shuningdek, qarzdorning faoliyatini davom ettirishidan manfaatdor bo‘lgan shaxslardan mablag‘lar jalb etish; aksiyadorlik jamiyatining ustav fondini (ustav kapitalini) kreditorlik qarzdorligi hisobiga ko‘paytirish (qarzdorlikni aksiyaga ayirboshlash) to‘g‘risidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etayotgan, ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlarning to‘rtdan uch qismidan iborat ko‘pchilik (malakali ko‘pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi; qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish va boshqa tadbirlar.

5. Odatda sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risidagi sudning ajrimida sud sanatsiyasining umumiy muddati ko‘rsatiladi, sud sanatsiyasi rejasini amalga oshirish muddati esa ajrimda keltirilgan muddatdan ko‘p bo‘lmasligi lozim.

6. Sud sanatsiyasi rejasida qarzni to‘lash jadvaliga muvofiq kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larni sud sanatsiyasi jarayonida qarz-

dor tomonidan olish usullari nazarda tutilishi kerak. Qonunning 115-moddasi birinchi qismiga ko‘ra, tashqi boshqaruvchi tashqi boshqaruvni o‘tkazish va kreditorlar bilan hisob-kitoblar qilish uchun maxsus hisobvaraq ochishi kerak.

Shuningdek, Qonunning 148-moddasiga muvofiq, tugatish boshqaruvchisi tugatishga doir ish yuritish jarayonida qarzdorning so‘mda yuritiladigan yagona va valyutada yuritiladigan yagona hisobvaraqlaridan (bundan buyon matnda qarzdorning yagona hisobvaraqlari deb yuritiladi) foydalanishi shart. Qarzdorning bankdagi tugatishga doir ish yuritish boshlanayotgan paytda ma’lum bo‘lgan, shuningdek, tugatishga doir ish yuritish jarayonida aniqlangan boshqa hisobvaraqlari aniqlanishi bilanoq tugatish boshqaruvchisi tomonidan yopilishi lozim. Qarzdorning ana shu hisobvaraqlardagi pul mablag‘lari qoldig‘i qarzdorning yagona hisobvaraqlariga o‘tkazilishi kerak. Tugatishga doir ish yuritish jarayonida kelib tushgan pul mablag‘lari ham qarzdorning yagona hisobvaraqlariga o‘tkaziladi.

Mazkur tashqi boshqaruv va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomillari davrida ochiladigan kreditorlar bilan hisob-kitoblar qilish uchun maxsus hisobvaraq sud sanatsiya tartib-taomilida ham yuritilishi mumkin.

Sud sanatsiyasi rejasi kreditorlarning yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanishi lozim. Sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlash hamda qarzlarni to‘lash jadvalini ma’qullash haqidagi qaror kreditorlar yig‘ilishining mutlaq vakolatlari jumlasiga kiradi. Kreditorlar yig‘ilishida sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlash hamda qarzlarni to‘lash jadvalini ma’qullash haqidagi masala ko‘rilganda, birinchi guruh – qarzdorning garov bilan ta’minlangan majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar va ikkinchi guruh – qarzdorga nisbatan garov bilan ta’minlanmagan shartnomalardan, mahsulot yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek, majburiy sug‘urta va bank kreditlarini sug‘urta qilish shartnomalaridan kelib chiqadigan talablar bo‘yicha kreditorlar ovoz berish huquqiga ega.

7. Mazkur moddaning yettinchi qismida sud sanatsiyasini joriy etish masalasi kreditorlar yig‘ilishda ko‘rilayotganda qaysi kreditorlar guruhi ovoz berishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, kreditorlar yig‘ilishida ovoz berishda birinchi va ikkinchi guruh kreditorlari ishtirok etadi. Ya’ni kreditorlar yig‘ilishida sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlash hamda qarzlarni to‘lash jadvalini ma’qullash haqidagi masala ko‘rilganda, birinchi guruh – qarzdorning garov bilan ta’minlangan majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar va ikkinchi guruh – qarzdorga nisbatan garov bilan ta’minlanmagan shartnomalardan, mahsulot yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek, majburiy sug‘urta va bank kreditlarini sug‘urta qilish shartnomalaridan kelib chiqadigan talablar bo‘yicha kreditorlar ovoz berish huquqiga ega. Uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi guruh kreditorlar ovoz berishda qatnashmaydi. Uchinchi guruh – soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha kreditorlar; to‘rtinchi guruh – mehnat shartnomalariga ko‘ra mehnatga haq to‘lash va kompensatsiyalar to‘lash bo‘yicha, alimentlar undirish to‘g‘risidagi talablarni qanoatlantirish uchun hisobvaraqdan pul mablag‘larini o‘tkazishni yoki berishni nazarda tutuvchi ijro hujjatlari bo‘yicha, mualliflik shartnomalari yuzasidan haq to‘lash bo‘yicha, qarzdorning mehnatga oid va unga tenglashtirilgan huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi majburiyatlarining teng darajada bajarilishini ta’minlovchi to‘lovlar va

talablar, shuningdek, fuqarolarning jinoiy yoki ma'muriy huquqbuzarlik oqibatida o'z mol-mulkiga yetkazilgan zararning o'rnini qoplashga doir talablari bo'yicha kreditorlar; beshinchi guruh – hisoblangan dividendlar bo'yicha qarzdorning aksiyalari egalari.

8. Mazkur moddaning sakkizinchi qismida kreditorlar yig'ilishining sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlash to'g'risidagi qarorni qabul qilish tartibi belgilangan. Agar birinchi va ikkinchi guruhlarning har biridagi kreditorlarning ko'pchiligi uni yoqlab ovoz bersa, sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlash to'g'risidagi qaror qabul qilinadi. Bundan tashqari, ushbu qismda ovoz berish huquqiga ega bo'lgan va sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlashga qarshi ovoz bergan kreditor hamda ushbu rejani tasdiqlash uchun ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan kreditorlar uchun kafolatlar nazarda tutilgan. Ushbu kreditor(lar) qarzdor keyinchalik bankrot deb topilib, tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili qo'llanilgan taqdirda eng kamida olishi mumkin bo'lgan kafolatli to'lovga teng tovon olish huquqiga ega bo'ladi.

9. Kreditorlar yig'ilishida ushbu moddaning sakkizinchi qismida keltirilgan tartibda sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlash haqidagi qaror qabul qilinmasa, qarzdor bankrot deb topiladi. Agar birinchi va ikkinchi guruhlarning har biridagi kreditorlar sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlash haqida qaror qabul qilmasa, shuningdek, ovoz berish chog'ida guruhlardan biridagi kreditorlarning zarur miqdordagi ovozi to'planmasa, qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish haqida qaror qabul qilinadi.

10. Mazkur moddaning o'ninchi qismida qarzdor to'lov qobiliyatini tiklash uchun qarzdorning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish, ushbu Qonunning 130-moddasiga muvofiq qarzdorning qo'shimcha emissiyaviy aksiyalarini chiqarish va joylashtirish, ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shimcha ulush kiritish hamda kreditorlarning talablarini aksiyalarga ayirboshlash shaklidagi choralar sud sanatsiyasi rejasida nazarda tutilishi mumkin.

11. Sud sanatsiyasi rejasida qarzdorning korxonasi (biznesi) yoki qarzdor mol-mulkining bir qismini sotish ham ko'rsatilishi mumkin, mazkur choralarni amalga oshirish tartibi ushbu Qonunning 126- va 127-moddalarida belgilangan. Masalan, Qonunning 126-moddasiga ko'ra, kreditorlarning talablarini qanoatlantirish maqsadida tashqi boshqaruv rejasida qarzdorning korxonasini (biznesini) mulkiy majmua sifatida sotish nazarda tutilishi mumkin. Korxona (biznes) mulkiy majmua sifatida sotilayotganida qarzdorning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga mo'ljallangan barcha turdagi mol-mulki, shu jumladan, yer uchastkalari, binolari, inshootlari, uskunalari, inventari, xomashyosi, mahsuloti, talab qilish huquqlari, shuningdek, qarzdorning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalari (firma nomi, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari), uning tovarlari, ishlari va xizmatlari, qarzdorga tegishli bo'lgan boshqa mutlaq huquqlar o'zga shaxslarga o'tkaziladi, bundan boshqa shaxslarga topshirilishi mumkin bo'lmagan huquq va majburiyatlar mustasno.

12. Sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlashga qarshi ovoz bergan kreditorlar (ushbu rejani tasdiqlash uchun ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan kreditorlar) ekspertlarni jalb qilishlari mumkin. Ushbu kreditorlar ekspertlar orqali qarzdor keyinchalik bankrot deb

topilib, tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili qo‘llanilgan taqdirda, eng kamida olishi mumkin bo‘lgan kafolatli to‘lovga teng tovon olish huquqiga ega bo‘lishini, sud sanatsiyasi rejasining muvaffaqiyatli bajarilish imkoniyati mavjudligini, kreditorlarning boshqa kreditorlarga nisbatan qarzdorning mol-mulki bilan ta’minlangan ustunlik huquqini tekshiradilar.

13. Kreditorlar yig‘ilishi sud sanatsiyasi rejasini bekor qilish va sud sanatsiyasi tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish hamda sudga tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish yoki qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida iltimosnoma kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin, agar qarzdor sud sanatsiyasi rejasi uchun mol-mulki to‘g‘risida noto‘g‘ri yoki chalg‘ituvchi ma’lumotlarni taqdim etgan yoxud o‘z faoliyatiga va (yoki) ishga taalluqli bo‘lgan axborotni yashirgan bo‘lsa.

14. Agar qarzdor sud sanatsiyasi rejasi uchun mol-mulki to‘g‘risida noto‘g‘ri yoki chalg‘ituvchi ma’lumotlarni taqdim etgan yoxud o‘z faoliyatiga va (yoki) ishga taalluqli bo‘lgan axborotni yashirganligi oqibatida sud sanatsiyasi joriy etilgan va kreditorlar yig‘ilishi buni tasdiqlagan bo‘lsa, kreditorlar yig‘ilishining qarori asosida sud tashqi boshqaruvni joriy etish haqida ajrim chiqaradi yoki qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

15. Mazkur moddaning o‘n beshinchi qismiga ko‘ra, sud sanatsiyasi rejasining bajarilishi uchun ikki asosiy subyekt mas’ul qilib belgilangan: qarzdorning boshqaruv organi va sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi. Ular rejaning ijrosini ta’minlash majburiyatini oladi. Demak, qarzdorning boshqaruv organlari ham, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi ham o‘z vazifalarini hamkorlikda bajarish orqali reja samaradorligini kafolatlashi kerak. Bu orqali nazorat va ijroning samarali tizimi yaratiladi.

16. Sud sanatsiyasi rejasining bajarilishi ustidan nazorat kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasiga yuklanadi. Bu normaning maqsadi kreditorlarning o‘z huquqlarini amalga oshirish va talablarni qanoatlantirish jarayonida to‘g‘ridan to‘g‘ri kreditorlar ishtirokini ta’minlashdir. Chunki ularning talabi qanoatlantirilishi sud sanatsiyasi rejasining bajarilishiga bevosita bog‘liq.

17. Kreditorlar o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun sanatsiya qiluvchi boshqaruvchidan sud sanatsiyasi rejasi bajarilishi bilan bog‘liq har qanday ma’lumotni so‘rab olish huquqiga ega. Qonunning 23-moddasi uchinchi qismiga ko‘ra, sud boshqaruvchisi qarzdorning moliyaviy ahvoli va (yoki) o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni kreditorning talabiga ko‘ra o‘n kunlik muddatda taqdim etishi lozim.

18. Ushbu norma shuni anglatadiki, sud sanatsiyasi rejasi doirasida qarzdorning qarzlarini yengillashtirish imkoniyati mavjud, ya’ni rejada qarzdorni ayrim qarzlardan to‘liq ozod qilish yoki ularning ma’lum qismini kechirish ko‘zda tutilishi mumkin. Shu bilan birga, qarz shartlarini o‘zgartirish, masalan, to‘lov muddatini uzaytirish, foiz stavkasini kamaytirish yoki to‘lash tartibini qayta belgilash ham mumkin. Bu choralar qarzdorning moliyaviy ahvolini barqarorlashtirish va uni to‘lovga qobiliyatini saqlab qolishga qaratilgan.

19. Ushbu normaga ko‘ra, qarzdorni qarzlardan to‘liq yoki qisman ozod qilish yoki qarz shartlarini o‘zgartirish bir taraflama tarzda amalga oshirilmaydi. Buning uchun

barcha kreditorlarning aniq va ixtiyoriy roziligi talab etiladi. Bunda har bir kreditor o‘z talabi bo‘yicha qaror qabul qilish huquqiga ega bo‘lib, uning roziligisiz qarzni kechirish yoki o‘zgartirish mumkin emas. Ushbu norma kreditorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Shuningdek, u qarzdorga nisbatan adolatli yondashuvni ta’minlab, barcha taraflar o‘rtasida kelishuvga erishishni talab qiladi. Natijada qaror faqat barcha ishtirokchilarning umumiy kelishuvi asosida qabul qilinadi.

20. Ushbu norma shuni anglatadiki, agar ayrim kreditorlar qarzdorni qarzdan ozod qilish yoki qarz shartlarini o‘zgartirishga rozi bo‘lishmasa, bu jarayon to‘xtab qolmasligi uchun maxsus mexanizm qo‘llaniladi. Bunda rozi bo‘lgan boshqa kreditorlar o‘sha qarshilik bildirgan kreditorning talabini sotib olishni taklif qilishlari mumkin. Bu sotib olish kreditorlarning talablari reyestrida ko‘rsatilgan summa va shartlar asosida amalga oshiriladi. Natijada rozi bo‘lmagan kreditor o‘rniga uning talabini boshqa kreditor egallaydi va u jarayondan chiqib ketadi. Shu tariqa, qolgan kreditorlar o‘rtasida kelishuvga erishish osonlashadi va sanatsiya rejasini amalga oshirishga to‘sqinlik bartaraf etiladi. Bu qoida bir kreditorning qarshiligi butun jarayonni izdan chiqarmasligi uchun joriy etilgan.

21. Qarzdorning qarzdan ozod qilinishiga yoki o‘zgartirilishiga qarshi bo‘lgan kreditor boshqa kreditorlar taklif etgan shartlarni qabul qilishi shart. Bu norma nizoni hal qilish mexanizmini belgilaydi: agar bir kreditor umumiy kelishuvga qarshi chiqsa, uning manfaati pul bilan qoplanadi va u kelishilgan shartlarni qabul qilishga majbur bo‘ladi.

22. Qarzni to‘lash jadvali umumiy qoida sifatida barcha kreditorlar oldidagi qarzlarni qamrab olishi shart. Bu kreditorlar o‘rtasida tenglik prinsipini ta’minlaydi. Shu bilan birga, qarzni to‘lash jadvali sud tomonidan tasdiqlanishi kerak, bu esa uning yuridik kuchini belgilaydi va nazoratni ta’minlaydi.

23. Sud sanatsiyasi jarayonida qarzdorda yangi – joriy to‘lovlar ham vujudga kelishi mumkin. Bunday to‘lovlar bo‘yicha kreditorlar talablari qonunning 149-, 150- va 185-moddalarida belgilangan maxsus tartibda qanoatlantiriladi. Qonunning 150-moddasi birinchi qismiga ko‘ra, sud xarajatlari, sud boshqaruvchilariga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar, joriy kommunal va foydalanish to‘lovlari, qarzdorning mol-mulkini sug‘urta qilish xarajatlari, shuningdek, qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganidan keyin yuzaga kelgan joriy to‘lov majburiyatlari bo‘yicha talablar hamda qarzdor qaysi fuqaroning hayotiga yoki sog‘lig‘iga zarar yetkazilganligi uchun qonunga muvofiq javobgar bo‘lsa, shu fuqaroning talablari navbatdan tashqari qanoatlantiriladi.

24. Ushbu normaga ko‘ra, qarzdor belgilangan to‘lov jadvalidagi majburiyatlarni faqat ko‘rsatilgan muddatlarda emas, balki undan oldin ham bajarishi mumkin. Bunday holatda qarzdor qarzni ertaroq to‘lab, o‘z majburiyatlarini tezroq yakunlash huquqiga ega. Bu qarzdorning moliyaviy imkoniyatlari yaxshilangan hollarda qo‘llaniladi. Muddatidan oldin to‘lash kreditorlar uchun ham manfaatli bo‘lishi mumkin, chunki ular mablag‘ni tezroq olishadi. Shu bilan birga, bu holat qonunga zid emas va qo‘shimcha ruxsat talab etilmaydi, agar boshqa shartlar bilan cheklanmagan bo‘lsa. Natijada qarzdor o‘z qarz yukini tezroq kamaytirish imkoniga ega bo‘ladi. Qarang: Xalqaro sharh. 763-b.

101-modda. Sud sanatsiyasi rejasiga va qarzni to‘lash jadvaliga o‘zgartishlar kiritish

Qarzdor sud sanatsiyasi rejasini va (yoki) qarzni to‘lash jadvalini bajarmagan taqdirda (qarz belgilangan muddatlarda va (yoki) belgilangan hajmlarda to‘lanmaganda), u qarzni to‘lash jadvaliga kiritish mo‘ljallanayotgan o‘zgartishlarni ma’qullash to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan kreditorlarga talablarni bajarish sanasi boshlangan vaqtdan e’tiboran ikki hafta muddat ichida murojaat qilishga haqli. Iltimosnomaning ko‘chirma nusxasi sanatsiya qiluvchi boshqaruvchiga yuboriladi. Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi iltimosnoma olingan paytdan e’tiboran ikki haftadan kechiktirmay ushbu iltimosnoma asosida kreditorlarning yig‘ilishini chaqiradi.

Agar kreditorlar sud sanatsiyasi rejasini va qarzni to‘lash jadvalini to‘liq yoki qisman bajarishning imkoni mavjud emasligini aniqlasa yoxud ularni faqat o‘zgartishlar kiritish orqali amalga oshirish imkoni mavjud deb hisoblasa, sud sanatsiyasi rejasiga va qarzni to‘lash jadvaliga sud o‘zgartish kiritishi mumkin.

Kreditorlar yig‘ilishining sud sanatsiyasi rejasiga va (yoki) qarzni to‘lash jadvaliga o‘zgartishlar kiritish haqidagi qarori ushbu Qonunning 100-moddasida belgilangan tartibda qabul qilinadi.

Agar qarzni to‘lash jadvaliga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilinsa, kreditorlarning yig‘ilishi qarzni to‘lash jadvalidagi o‘zgartishlarni tasdiqlash haqidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganligi haqida o‘z vaqtida xabardor qilinmagan va qarzni to‘lash jadvali sud tomonidan tasdiqlanganidan keyin ishga qo‘shilgan kreditorning talablari yoki ushbu kreditorning qaysi talablari bo‘yicha majburiyatlarni bajarish muddati kuzatuv tartib-taomili jarayonida boshlangan bo‘lsa, o‘sha talablari sudning ajrimiga ko‘ra qarzni uzish jadvaliga kiritiladi.

Sud faqat kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan talablarga nisbatan qarzni to‘lash jadvaliga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida ajrim chiqarishga haqli.

Sharhlanayotgan moddada sud sanatsiyasi rejasiga va qarzni to‘lash jadvaliga o‘zgartishlar kiritish tartibi ko‘rsatilgan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismi qarzdor tomonidan sud sanatsiyasi rejasi yoki qarzni to‘lash jadvali belgilangan muddatlarda yoki belgilangan hajmlarda bajarilmaganda yuzaga keladigan huquqiy oqibatlarni va harakatlarni nazarda tutadi. Qarzdor belgilangan sanada to‘lovlarni amalga oshira olmasa, qarzni to‘lash jadvaliga o‘zgartish kiritish to‘g‘risida kreditorlarga iltimosnoma bilan murojaat qilish huquqiga ega bo‘ladi va bu murojaat qarzni bajarish majburiyati boshlangan vaqtdan e’tiboran ikki

hafta muddat ichida taqdim etilishi shart. Qarzdorning iltimosnomasi ko‘chirma nusxada sanatsiya qiluvchi boshqaruvchiga yuboriladi, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi esa iltimosnoma kelib tushgan kundan boshlab ikki haftadan kechiktirmay kreditorlar yig‘ilishini chaqirishi va unda qarzdor tomonidan taklif etilayotgan o‘zgarishlarni ko‘rib chiqish uchun shart-sharoit yaratishi lozim.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida kreditorlarning sud sanatsiyasi rejasi va qarzni to‘lash jadvaliga bevosita ta’sir ko‘rsatish imkoniyati belgilangan. Agar kreditorlar qarzdor tomonidan tayyorlangan sud sanatsiyasi rejasi yoki qarzni uzish jadvali amalda to‘liq yoki qisman bajarilishi mumkin emasligini aniqlasalar yoxud uning amalga oshirilishi faqatgina ma’lum o‘zgartishlar kiritilganda mumkin deb hisoblasalar, sud ushbu holatni e’tiborga olib tegishli o‘zgartishlarni kiritish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

3. Sud sanatsiyasi rejasiga yoki qarzni to‘lash jadvaliga o‘zgartirish kiritish kreditorlar yig‘ilishi qarori orqali amalga oshiriladi. Bunday o‘zgartirishlar qarzdor yoki sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi tashabbusi bilan emas, balki faqat kreditorlar yig‘ilishida belgilangan tartibda qabul qilinishi mumkin. Qonunning 100-moddasiga havola qilgan holda kreditorlar yig‘ilishida qaror qabul qilinadi. Bu, o‘z navbatida, kreditorlar manfaatlarining ustuvorligini ta’minlaydi, qarzni uzish rejasiga yoki to‘lov qobiliyatni tiklash chora-tadbirlariga o‘zgartirishlar kiritish faqat ularning roziligi va qonuniy tartibdagi ovoz berish jarayonidan keyin amalga oshirilishi mumkin. Demak, ushbu norma mazmuni kreditorlarning nazorati va ishtirokini kuchaytiradi hamda qarzdorning to‘lov majburiyatlari yuzasidan bir tomonlama qaror qabul qilinishi ehtimolini cheklaydi.

4. Mazkur moddaning uchinchi qismi qarzni to‘lash jadvaliga o‘zgartish kiritish jarayonida kreditorlar yig‘ilishining muhim rolini belgilaydi. Agar kreditorlar yig‘ilishi qarzni uzish jadvaliga o‘zgartishlar kiritish zarur deb hisoblasa va tegishli qaror qabul qilsa, yig‘ilish shu o‘zgarishlarni sud tomonidan tasdiqlash uchun iltimosnoma kiritish haqida ham qaror qabul qilishi shart. Demak, kreditorlar yig‘ilishi o‘zgartishlarni ma’qullabgina qolmay, balki ularni qonuniy kuchga kiritish uchun sudga murojaat etishni ham ta’minlashi kerak.

5. To‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida barcha kreditorlarning huquqlari teng himoya qilinadi. Agar kreditor o‘z vaqtida ish qo‘zg‘atilgani haqida xabardor qilinmagan bo‘lsa va shu sababli qarzni uzish jadvali sud tomonidan tasdiqlanganidan keyingina ishga qo‘shilsa, uning talablari chetda qolib ketmaydi. Xususan, agar majburiyatlarni bajarish muddati kuzatuv tartib-taomili jarayonida boshlangan bo‘lsa, sud maxsus ajrim chiqarib, ushbu kreditorning talablarini ham umumiy qarzni uzish jadvaliga kiritadi.

6. Ushbu normaga ko‘ra, sud qarzni to‘lash jadvaliga o‘zgartish kiritish masalasini cheklangan doirada ko‘rib chiqadi. Sud faqat kreditorlarning talablari reyestriga rasman kiritilgan talablarga nisbatangina o‘zgartish kiritish haqida ajrim chiqarishi mumkin. Bu reyestrga kiritilmagan yoki hali rasmiy tan olinmagan talablar bo‘yicha sud hech qanday qaror qabul qilmaydi degani. Mazkur qoida jarayonda aniqlik va huquqiy tartibni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u asossiz yoki bahsli talablar asosida jadvalni o‘zgartirishning oldini oladi. Natijada faqat qonuniy va tasdiqlangan talablar doirasida qaror qabul qilinib, barcha ishtirokchilarning manfaatlari himoya qilinadi.

102-modda. Sud sanatsiyasi tartib-taomilining muddatidan ilgari tamomlanishi

Kreditorlarning qarzni to‘lash jadvalida nazarda tutilgan barcha talablari sud sanatsiyasi tartib-taomilining sud tomonidan belgilangan muddati o‘tishidan oldin qarzdor tomonidan qanoatlantirilgan taqdirda, qarzdorning rahbari sud sanatsiyasi tartib-taomili muddatidan ilgari tamomlanganligi haqida sudga ushbu Qonunning 104-moddasida nazarda tutilgan tartibda hisobot taqdim etadi. Qarzdor rahbarining sud sanatsiyasi tartib-taomili muddatidan ilgari tamomlanganligi to‘g‘risidagi hisoboti, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining qarzdor rahbarining hisobotiga doir xulosasi va kreditorlarning shikoyatlari sud tomonidan majlisda ko‘rib chiqiladi.

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining talablari qarzni to‘lash jadvaliga kiritilgan barcha kreditorlarni qarzdor rahbarining sud sanatsiyasi tartib-taomili muddatidan ilgari tamomlanganligi haqidagi hisobotini ko‘rib chiquvchi sud majlisining sanasi, vaqti va joyi to‘g‘risida xabardor qilishi shart.

Qarzdor rahbarining sud sanatsiyasi tartib-taomili muddatidan ilgari tamomlanganligi to‘g‘risidagi hisobotini, shuningdek, kreditorlarning shikoyatlarini ko‘rib chiqish yakunlari asosida sud:

agar to‘lanmagan qarz mavjud emasligi aniqlansa, kreditorlarning shikoyatlari esa asossiz deb topilsa, qarzdor rahbarining hisobotini tasdiqlaydi va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritishni to‘xtatadi;

agar to‘lanmagan qarz mavjudligi aniqlansa va kreditorlarning shikoyatlari asosli deb topilsa, qarzdor rahbarining hisobotini tasdiqlashni rad etadi.

Qarzdor rahbarining hisobotini tasdiqlash va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritishni tugatish haqida yoki mazkur hisobotni tasdiqlashni rad etish to‘g‘risida sud ajrim chiqaradi, bu ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Sharhlanayotgan moddada sud sanatsiyasi tartib-taomilining muddatidan ilgari tamomlanish tartibi va asoslari ko‘rsatilgan.

1. Agar qarzdor sud sanatsiyasi davrida tuzilgan qarzni to‘lash jadvalidagi barcha kreditorlar talablarini sud belgilagan muddatdan oldin to‘liq qoplasa, qarzdorning rahbari sanatsiya muddati tugamay turib ham ishni yakunlash imkoniga ega bo‘ladi. Buning uchun u Qonunning 104-moddasida nazarda tutilgan maxsus hisobotni sudga taqdim etadi. Qonunning 104-moddasi birinchi qismiga ko‘ra, sud sanatsiyasi tartib-taomilining belgilangan muddati tugashiga kamida o‘n besh kun qolganida qarzdorning rahbari o‘tkazilgan sud sanatsiyasi tartib-taomilining natijalari haqida sudga hisobot taqdim etishi shart. Mazkur hisobotga qarzdorning oxirgi sanadagi holatga ko‘ra buxgalteriya balansi, qarzdorning moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi hisobot, qanoatlantirilgan talablar miqdori va mazkur qanoatlantirishni tasdiqlovchi hujjatlar, shuningdek, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining qarzdor rahbarining hisobotiga doir xulosasi, qanoatlantirilgan talablar miqdori ko‘rsatilgan holda kreditorlarning talablari reyest-

ri, talablari qanoatlantirilmagan kreditorlarning shikoyatlari ilova qilinishi kerak. Sud esa bu hisobotni tekshirish jarayonida faqat qarzdor rahbarining ma'lumotlari bilan cheklanmaydi, balki sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining xulosasini va kreditorlarning shikoyatlarini ham ko‘rib chiqadi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining talablari qarzni to‘lash jadvaliga kiritilgan barcha kreditorlarni qarzdor rahbarining sud sanatsiyasi tartib-taomili muddatidan ilgari tamomlanganligi haqidagi hisobotini ko‘rib chiquvchi sud majlisining sanasi, vaqti va joyi to‘g‘risida xabardor qilishi shartligi ko‘rsatilgan. Bunda kreditorlar ishtirokini ta'minlashga alohida e'tibor berilgan.

3. Sud qarzdor rahbarining hisoboti va kreditorlar shikoyatlarini ko‘rib chiqib, ikki xil qaror chiqarishi mumkin:

agar qarzdorning hech qanday to‘lanmagan qarzi qolmagan bo‘lsa va kreditorlarning shikoyatlari asossiz deb topilsa, sud hisobotni tasdiqlaydi va ish yuritishni tugatadi. Bu holatda sanatsiya muvaffaqiyatli tugagan hisoblanadi;

agar tekshirish jarayonida to‘lanmagan qarzlar mavjudligi aniqlansa va kreditorlarning shikoyatlari asosli deb topilsa, sud hisobotni tasdiqlamaydi. Bu holatda sanatsiya muddatidan oldin tugatilmaydi va jarayon davom ettiriladi.

4. Ushbu normaga ko‘ra, sud qarzdor rahbari tomonidan taqdim etilgan hisobotni ko‘rib chiqib, uni tasdiqlash yoki rad etish bo‘yicha qaror qabul qiladi. Agar hisobot qoniqarli deb topilsa, sud uni tasdiqlab, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritishni tugatish haqida ajrim chiqaradi. Aksincha, agar hisobot yetarli asoslanmagan bo‘lsa yoki qonun talablariga javob bermasa, sud uni tasdiqlashni rad etadi. Bu holatda ish davom ettirilishi yoki boshqa choralar ko‘rilishi mumkin. Shu bilan birga, sud chiqargan ajrim yakuniy va mutlaq emas. Bunda manfaatdor shaxslar ushbu ajrim ustidan shikoyat berishlari yoki prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkin.

103-modda. Sud sanatsiyasi tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish

Sud sanatsiyasi tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

kreditorlar talablarini qanoatlantirishning qarzni to‘lash jadvalida belgilangan muddatlari sud sanatsiyasi tartib-taomili jarayonida qarzdor tomonidan bir necha marta yoki bir marta jiddiy ravishda (bir oydan ortiq muddatga) buzilganligi;

qarzdor qarzni to‘lash jadvalini bajarishga qodir emasligidan dalolat beruvchi holatlarning mavjudligi.

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi sud sanatsiyasi tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish haqidagi masalani ko‘rib chiqish uchun kreditorlarning yig‘ilishini ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan asoslar yuzaga kelgan paytdan e'tiboran ikki hafta ichida o‘z tashabbusiga ko‘ra yoki kreditorlar qo‘mitasining qarori asosida chaqirishi shart.

Qarzdorning rahbari kreditorlarning yig‘ilishiga qarzni to‘lash jadvali va sud sanatsiyasi rejasi bajarilishining yakunlari haqida hisobot taqdim etishi shart. Hisobotga qarzdorning oxirgi hisobot sanasidagi holatga ko‘ra buxgalteriya balansi, qarzdorning daromadlari (foydasi) va zararlari to‘g‘risidagi hisobot, qanoatlantirilgan talablar miqdori ko‘rsatilgan holda kreditorlarning talablari reyestri va kreditorlarning talablari qanoatlantirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi kerak. Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi kreditorlarning yig‘ilishiga qarzdor rahbarining hisoboti bilan bir vaqtda qarzdor rahbarining hisoboti yuzasidan o‘z xulosasini taqdim etadi.

Kreditorlarning yig‘ilishi qarzdor rahbarining hisobotini, shuningdek, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining mazkur hisobot bo‘yicha xulosasini ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risida yoki qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli. Kreditorlar yig‘ilishining iltimosnomasiga kreditorlar yig‘ilishi bayonnomasining ko‘chirma nusxasi, shuningdek, kreditorlar yig‘ilishi tomonidan qabul qilingan qarorga qarshi ovoz bergan yoki ushbu masala yuzasidan ovoz berishda ishtirok etmagan kreditorlarning shikoyatlari ilova qilinadi.

Sud tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida kreditorlar yig‘ilishining iltimosnomasi asosida ajrim chiqaradi yoki qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Sharhlanayotgan moddada sud sanatsiyasi tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish tartibi va asoslari bayon etilgan.

1. Sud sanatsiyasini muddatidan oldin tugatishning asoslari belgilangan. Agar qarzdor qarzni to‘lash jadvalida ko‘rsatilgan talablarni bir necha bor buzsa yoki kamida bir marta jiddiy ravishda, ya’ni bir oydan ortiq muddatga kechiktirsa, sud sanatsiyasi muddatidan oldin tugatilishi mumkin. Shuningdek, qarzdorning moliyaviy ahvoli uning qarzni to‘lash jadvalini bajarishga qodir emasligini ko‘rsatsa, bu ham sud sanatsiyani oldindan tugatish uchun asos hisoblanadi.

2. Sud sanatsiyasini muddatidan ilgari tugatish masalasi kreditorlar yig‘ilishida ko‘rib chiqiladi. Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi ushbu yig‘ilishni chaqirishi shart. U o‘z tashabbusi bilan yoki kreditorlar qo‘mitasining qarori asosida yig‘ilishni tashkil qiladi. Kreditorlar yig‘ilishini chaqirish sud sanatsiyasi tartib-taomili jarayonida qarzdor tomonidan bir necha marta yoki bir marta jiddiy ravishda (bir oydan ortiq muddatga) buzilgan, shuningdek, qarzdor qarzni to‘lash jadvalini bajarishga qodir emasligidan dalolat beruvchi holatlar yuzaga kelganidan ikki hafta ichida amalga oshirilishi lozim.

3. Kreditorlar yig‘ilishida qarzdorning rahbari hisobot taqdim etadi. Unda qarzni uzish jadvali va sud sanatsiyasi rejasi ijrosi haqida ma’lumot beriladi. Hisobotga buxgalteriya balansi, daromad va zararlar to‘g‘risidagi ma’lumot, kreditorlar talablari reyestri va ularning qanoatlantirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar qo‘shilishi shart. Shu bilan birga, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi ham qarzdor rahbarining hisobotiga o‘z xulosasini taqdim etadi.

4. Kreditorlar yig‘ilishi hisobot va xulosalarni ko‘rib chiqqach, ikki yo‘nalishda qaror qabul qilish huquqiga ega: birinchidan, tashqi boshqaruv tartibini joriy etish to‘g‘risida sudga iltimosnoma kiritishi mumkin; ikkinchidan, qarzdorni bankrot deb topish va tugatish jarayonini boshlash haqida sudga murojaat qilishi mumkin. Iltimosnoma kreditorlar yig‘ilishi bayonnomasi, shuningdek, qaroriga qarshi chiqqan yoki ovoz berishda ishtirok etmagan kreditorlarning shikoyatlari bilan birga sudga yuboriladi.

5. Sud kreditorlar yig‘ilishining iltimosnomasini ko‘rib chiqib, ajrim chiqaradi. Sudning qarorlari ikki xil bo‘lishi mumkin: tashqi boshqaruv tartibini joriy etish yoki qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini boshlash. Shu tariqa, sud kreditorlar qarorini yuridik jihatdan amalga oshiradi va to‘lovga qobiliyatsizlik ishining keyingi bosqichini belgilaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 765-b.

104-modda. Sud sanatsiyasi tartib-taomilining tamomlanishi

Sud sanatsiyasi tartib-taomilining belgilangan muddati tugashiga kamida o‘n besh kun qolganida qarzdorning rahbari o‘tkazilgan sud sanatsiyasi tartib-taomilining natijalari haqida sudga hisobot taqdim etishi shart. Mazkur hisobotga qarzdorning oxirgi sanadagi holatga ko‘ra buxgalteriya balansi, qarzdorning moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi hisobot, qanoatlantirilgan talablar miqdori va mazkur qanoatlantirishni tasdiqlovchi hujjatlar, shuningdek, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining qarzdor rahbarining hisobotiga doir xulosasi, qanoatlantirilgan talablar miqdori ko‘rsatilgan holda kreditorlarning talablari reyestri, talablari qanoatlantirilmagan kreditorlarning shikoyatlari ilova qilinishi kerak. Qarzdor rahbarining sud sanatsiyasi tartib-taomilini o‘tkazish natijalari haqidagi hisoboti va kreditorlarning shikoyatlari sud tomonidan majlisda ko‘rib chiqiladi.

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi qarzni to‘lash jadvaliga talablari kiritilgan barcha kreditorlarni qarzdor rahbarining sud sanatsiyasi tartib-taomilini o‘tkazish natijalari haqidagi hisobotini ko‘rib chiquvchi sud majlisining sanasi, vaqti va joyi to‘g‘risida xabardor qilishi shart.

Qarzdor rahbarining sud sanatsiyasi tartib-taomilini o‘tkazish natijalari haqidagi hisobotini, shuningdek, kreditorlarning shikoyatlarini ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra sud:

agar to‘lanmagan qarzi mavjud emasligi aniqlansa, kreditorlarning shikoyatlari esa asossiz deb topilsa, qarzdor rahbarining hisobotini tasdiqlaydi va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritishni to‘xtatish haqida ajrim chiqaradi;

agar to‘lanmagan qarz mavjudligi aniqlansa va kreditorlarning shikoyatlari asosli deb topilsa, qarzdor rahbarining hisobotini tasdiqlashni rad etadi.

Sud qarzdor rahbarining hisobotini tasdiqlashni rad etgan taqdirda tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida ajrim yoki qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror chiqaradi.

Sharhlanayotgan moddada sud sanatsiyasi tartib-taomilining tamomlanish tartibi va asoslari ko‘rsatilgan.

1. Mazkur moddada sud sanatsiyasi tartib-taomili yakunlanishi arafasida qarzdor rahbarining hisobot berish majburiyati nazarda tutilgan. Ya’ni sud sanatsiyasi uchun belgilangan muddat tugashiga kamida o‘n besh kun qolganida qarzdor rahbari sudga hisobot taqdim etishi shart. Hisobotda qarzdorning moliyaviy ahvoli to‘liq yoritilishi lozim: buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar (foyda va zararlar hisoboti), qanoatlantirilgan talablar miqdori va ularni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi zarur. Shuningdek, hisobotga sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining xulosasi, kreditorlar talablari reyestri, qanoatlantirilgan talablar ko‘rsatkichlari ham qo‘shiladi. Agar talablari qanoatlantirilmagan kreditorlar bo‘lsa, ularning shikoyatlari ham ushbu hisobotga ilova qilinishi kerak. Sud esa qarzdor rahbarining hisoboti va kreditorlarning shikoyatlarini ochiq sud majlisida ko‘rib chiqadi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining muhim protsessual majburiyati belgilab qo‘yilgan. Ya’ni u qarzni to‘lash jadvaliga talablari kiritilgan barcha kreditorlarni qarzdor rahbarining sud sanatsiyasi tartib-taomili natijalari haqidagi hisobotini ko‘rib chiqish uchun o‘tkaziladigan sud majlisi to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilishi shart. Bu yerda asosiy maqsad barcha kreditorlarning teng imkoniyatlarini ta’minlash, ularga o‘z manfaatlarini himoya qilish va hisobotni muhokama qilish jarayonida qatnashish imkoniyatini berishdan iborat. Agar sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi kreditorlarni o‘z vaqtida xabardor qilmasa, bu sud majlisida kreditorlarning ishtirok etish huquqini cheklaydi va ularning shikoyat qilish huquqini ham buzishi mumkin.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi sud sanatsiyasi tartib-taomilining tamomlanishi bo‘yicha sudning yakuniy qaror qabul qilish bosqichini belgilaydi. Sud qarzdor rahbarining sud sanatsiyasi tartib-taomili bo‘yicha taqdim etgan hisobotini va kreditorlardan kelib tushgan shikoyatlarni ko‘rib chiqib, ikkita ajrimdan birini chiqarishi mumkin: agar qarzdorning barcha qarzlari to‘liq qoplangan bo‘lsa va kreditorlarning shikoyatlari asossiz deb topilsa, sud hisobotni tasdiqlaydi va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni tugatadi. Bu holatda sanatsiya muvaffaqiyatli yakunlangan hisoblanadi. Ammo agar tekshirish natijasida qarzdorda hali ham to‘lanmagan qarzlar mavjudligi aniqlansa va kreditorlarning shikoyatlari haqli deb topilsa, sud hisobotni tasdiqlamaydi.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismida sudning qarzdor rahbarining hisoboti tasdiqlanmagan taqdirda qo‘llaydigan keyingi choralari belgilab qo‘yilgan. Agar hisobotda ko‘rsatilgan ma’lumotlar ishonchli va yetarli deb topilmasa, qarzdor o‘z majburiyatlarini bajara olmaganligi yoki qarzdorning moliyaviy ahvoli tiklanmagani aniqlansa, sud ikki harakatdan birini tanlaydi: tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish orqali (ajrim chiqargan holda) qarzdorni qo‘shimcha chora-tadbirlar bilan tiklashga harakat qilishi mumkin; agar qarzdorning moliyaviy holati umuman barqarorlashishi mumkin emas deb hisoblansa, unda sud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini boshlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 765-b.

105-modda. Majburiyatlarning ta’minot bergan shaxslar tomonidan bajarilishi

Kreditorlarning ta’minot bergan shaxslardan majburiyatlar bajarilishini talab qilish huquqi sud sanatsiyasi tartib-taomilini tugatish yoki tamomlash to‘g‘risida sud ajrim chiqargan paytdan e’tiboran yuzaga keladi. Majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslarga nisbatan talablar kreditorlar yig‘ilishining (kreditorlar qo‘mitasining) vakili yoki sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi tomonidan taqdim etiladi.

Majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslarning majburiyatlarni bajarishi natijasida olingan pul mablag‘lari kreditorlar bilan hisob-kitob qilish uchun qarzdorning hisobvarag‘iga o‘tkaziladi. Kreditorlar bilan hisob-kitoblar qarzdor tomonidan amalga oshiriladi.

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi kreditorlar talablarining qanoatlantirilganligi dalillari taqdim etilgan paytdan e’tiboran kreditorlarning talablari reyestriga tegishli yozuvni kiritadi.

Sharhlanayotgan moddada ta’minot bergan shaxslar tomonidan qarzdor majburiyatlarining bajarilishi, majburiyatlarni bajarishi natijasida olingan pul mablag‘lari kreditorlar bilan hisob-kitob qilish uchun qarzdorning hisobvarag‘iga o‘tkazilishi va kreditorlar talablarini qanoatlantirish tartibi keltirilgan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismi kreditorlarning majburiyatlar bajarilishi uchun kafolat bergan shaxslarga nisbatan talab qo‘yish huquqi qachon va qanday tartibda vujudga kelishini belgilaydi. Agar sud sanatsiyasi tartib-taomili tugatilsa yoki tamomlansa, shu paytdan boshlab kreditorlar qarzdorning o‘ziga emas, balki uning majburiyatlarini bajarish uchun ta’minot bergan shaxslarga talabini qo‘yish huquqiga ega bo‘ladi. Bu ta’minotchi shaxslar kafillar, garov qo‘yganlar yoki boshqa turdagi ta’minlovchi shaxslar bo‘lishi mumkin. Ularga nisbatan talablarni yakka kreditor emas, balki kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi tomonidan maxsus tayinlangan vakil yoxud sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi taqdim etadi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslar (masalan, kafil yoki garov qo‘ygan shaxs) tomonidan kreditorlar talablarini qanoatlantirish tartibi belgilab qo‘yilgan. Ta’minotchi shaxs qarzdorning majburiyatlarini bajarish uchun pul mablag‘larini qarzdorning hisobvarag‘iga o‘tkazadi. Majburiyatlarni bajarish ta’minoti sifatida garov taqdim qilingan bo‘lsa, tegishli qonun hujjatlariga muvofiq garov narsasi pulga aylantiriladi va qarzdorning hisobvarag‘iga o‘tkaziladi. Shu orqali hisob-kitoblar yagona tartibda va qonunga muvofiq amalga oshirilishi ta’minlanadi. Kreditorlar bilan hisob-kitoblarni esa qarzdorning o‘zi amalga oshiradi.

3. Ushbu qoidada sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining kreditorlar talablari hisobini yuritishdagi muhim vazifasi belgilangan. Agar kreditorning qarzdorga nisbatan talablari qanoatlantirilganligi haqida dalillar taqdim etilsa, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi ushbu holatni rasmiy tarzda tasdiqlab, kreditorlar talablari reyestriga tegishli yozuv kiritishi shart.

106-modda. Ta’minotdan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish yakunlari to‘g‘risidagi hisobot

Kreditorlar bilan hisob-kitoblar tamomlangach yoki sud tomonidan kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun belgilangan muddat o‘tgach, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi qarzdorning majburiyatlarini shaxslar tomonidan ta’minot berilgan holda bajarish yakunlari to‘g‘risida sudga hisobot taqdim etishi shart. Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining hisoboti va kreditorlarning shikoyatlari sud tomonidan majlisda ko‘rib chiqiladi. Hisobotga qo‘yiladigan talablar, shuningdek, uni taqdim etish va ko‘rib chiqish tartibi ushbu Qonunning 132- va 133-moddalarida belgilanadi.

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining hisobotini, kreditorlarning shikoyatlarini ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra sud:

agar to‘lanmagan qarz mavjudligi aniqlansa, kreditorlarning shikoyatlari esa asossiz deb topilsa, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining hisobotini tasdiqlaydi va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish to‘g‘risida ajrim chiqaradi;

agar qoplanmagan qarz borligi aniqlangan va kreditorlarning shikoyatlari asosli deb topilgan bo‘lsa, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining hisobotini tasdiqlashni rad etadi hamda tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida ajrim chiqaradi yoxud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Sharhlanayotgan moddada ta’minotdan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish yakunlari to‘g‘risidagi hisobotni taqdim etish tartibi va hisobot natijalari bo‘yicha sudning harakatlari keltirilgan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining hisobot berish majburiyati va uning tartibi belgilab qo‘yilgan. Kreditorlar bilan hisob-kitoblar to‘liq yakunlanganidan keyin yoki sud tomonidan belgilangan muddat o‘tgach sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi qarzdorning majburiyatlari ta’minot bergan shaxslar orqali bajarilishi natijalari haqida sudga hisobot taqdim etishi shart. Sud ushbu hisobotni kreditorlarning ehtimoliy shikoyatlari bilan birga majlisda ko‘rib chiqadi. Bu tartib hisobotning haqqoniyligi va qonuniyligini ta’minlaydi, shuningdek, kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Hisobotning mazmuniga qo‘yiladigan talablar hamda uni taqdim etish va ko‘rib chiqish tartibi esa Qonunning 132- va 133-moddalarida aniq belgilangan bo‘lib, mazkur normalar sud sanatsiyasi tartib-taomilining shaffofligi va qonuniyligini ta’minlashga qaratilgan.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining hisoboti va kreditorlarning shikoyatlari sud tomonidan qanday tartibda baholanishi hamda unga ko‘ra qanday qaror qabul qilinishi lozimligini belgilaydi. Agar qarzdorning qarzlari to‘liq to‘langan bo‘lsa va kreditorlarning shikoyatlari asossiz deb topilsa, sud sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining hisobotini tasdiqlaydi hamda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘ri-

sidagi ish yuritishni tugatish haqida ajrim chiqaradi. Ammo qarzdorning majburiyatlari to‘liq qoplanmaganligi aniqlansa va kreditorlarning shikoyatlari asosli deb topilsa, sud hisobotni tasdiqlamaydi. Bunday holda sud tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risida ajrim chiqarishi yoki qarzdorni bankrot deb topish va uni tugatish bo‘yicha ish yuritishni boshlash haqida qaror qabul qilishi mumkin. Qarang: Xalqaro sharh. 765-b.

107-modda. Ta’minot bergan shaxslarning majburiyatlarni bajarmasligi oqibatlari

Majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslar tomonidan shu ta’minotdan kelib chiqadigan majburiyatlar kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun sud belgilagan muddatda bajarilmagan hamda tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish uchun asoslar mavjud bo‘lmagan taqdirda, sud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslar tomonidan shu ta’minotdan kelib chiqadigan majburiyatlar kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan muddatda bajarilmaganligi qonunchilikka muvofiq ushbu shaxslarning qarzdorning kreditorlar oldidagi majburiyatlari yuzasidan solidar yoki subsidiar javobgarligiga sabab bo‘ladi.

Bunday holda to‘lovga qobiliyatsizlikning keyingi tartib-taomili jarayonida sud boshqaruvchisi sudga ta’minotni bergan shaxslarga nisbatan da’vo bilan murojaat qilishga haqli.

Sharhlanayotgan moddada ta’minot bergan shaxslarning majburiyatlarni bajarmasligi oqibatlari keltirilgan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismi majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslar zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilmagan hollarda qo‘llaniladi. Agar ular sud tomonidan belgilangan muddat ichida qarzdorning kreditorlar oldidagi majburiyatlarini ta’minlab bermasa, shu bilan birga, tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish uchun zarur asoslar ham mavjud bo‘lmasa, sud qarzdorni bankrot deb topadi. Bunday holatda qarzdorning bankrotligi rasman e’tirof etilib, unga nisbatan tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili boshlanadi. Demak, ushbu qoida kreditorlar manfaatlarini himoya qilish, ta’minot bergan shaxslarning mas’uliyatini ta’minlash hamda to‘lovga qobiliyatsiz qarzdorni o‘z vaqtida bankrot deb topish orqali iqtisodiy tartibni ta’minlashga xizmat qiladi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismiga ko‘ra, agar majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslar o‘z zimmasiga olgan vazifalarni belgilangan muddatda bajarmasa, ularning huquqiy javobgarligi yuzaga keladi. Qonunchilikka muvofiq ular qarzdor bilan bir qatorda kreditorlar oldida solidar yoki subsidiar tarzda javobgar hisoblanadi. Solidar javobgarlik holatida kreditor qarzdordan ham, ta’minot bergan shaxsdan ham

qarzning to‘liq summasini talab qilish huquqiga ega bo‘ladi. Subsidiar javobgarlikda esa kreditor avval qarzdorga murojaat qilib, uning majburiyatlari bajarilmasa, keyin ta’minot bergan shaxsga talab qo‘yishi mumkin. Mazkur qoida ta’minot bergan shaxslarni o‘z zimmasidagi majburiyatlarni o‘z vaqtida va to‘liq bajarishga undaydi hamda kreditorlarning manfaatlari himoyasini kuchaytiradi.

3. Majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslar o‘z zimmasiga olgan vazifalarni belgilangan muddatda bajarmagan taqdirda, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishning keyingi tartib-taomillarida sud boshqaruvchisi ularga nisbatan huquqiy choralar ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Xususan, sud boshqaruvchisi sudga murojaat qilib, ta’minot bergan shaxslarga nisbatan da’vo qo‘zg‘atishi mumkin. Qarang: Xalqaro sharh. 765-b.

10-BOB. TASHQI BOSHQARUV TARTIB-TAOMILI

108-modda. Tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish tartibi

Agar qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashning haqiqiy imkoniyati aniqlansa, tashqi boshqaruv tartib-taomili kreditorlar yig‘ilishining iltimosnomasi, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan qarzdor bo‘yicha esa vakolatli davlat organining arizasi asosida sud tomonidan joriy etiladi.

Sudning tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqidagi ajrimi darhol ijro etilishi lozim va bu ajrim ustidan qonunchilikda belgilangan muddatda shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Tashqi boshqaruv tartib-taomili, agar ushbu Qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, o‘n ikki oydan yigirma to‘rt oygacha muddatga joriy etiladi.

Tashqi boshqaruv tartib-taomili uchun belgilangan muddat ushbu moddaning uchinchi qismida belgilangan muddatlar doirasida kreditorlar yig‘ilishining iltimosnomasiga, vakolatli davlat organining qaroriga yoki tashqi boshqaruvchining arizasiga ko‘ra sud tomonidan qisqartirilishi yoki uzaytirilishi mumkin.

Sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillarining jami muddati o‘ttiz oydan oshmasligi kerak.

Agar sud sanatsiyasi tartib-taomili joriy etilgan sanadan to sud tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish kuniga qadar o‘n sakkiz oydan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsa, sud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qaror chiqaradi.

Sharhlanayotgan modda tashqi boshqaruvni joriy etish asoslari, joriy etish muddati, shuningdek, tashqi boshqaruvning muddatini qisqartirish va uzaytirishga taalluqli bo‘lgan qoidalarni belgilaydi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy qilishning tartibi va asoslari bayon etilgan bo‘lib, unga ko‘ra, qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashning haqiqiy imkoniyati aniqlansa, sudga tashqi boshqaruv tartib-taomili qo‘llash uchun kreditorlar yig‘ilishi iltimosnoma, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan qarzdor bo‘yicha esa vakolatli davlat organi ariza kirita oladi. Tashqi boshqaruvni joriy etishning asosiy shartlaridan biri qarzdor to‘lov qobiliyatini tiklashning haqiqiy imkoniyati borligi hisoblanadi, ya’ni qarzdorda rentabel xo‘jalik faoliyati uchun tegishli shart-sharoitlarning mavjudligi, qulay bozor sharoitlari, kadrlar potensiali va h.k. Bunday imkoniyatlar kreditorlar yig‘ilishi yoki

vakolatli davlat organi tomonidan sudga beriladigan iltimosnomada (arizada) ko‘rsatilishi kerak. Sud mazkur iltimosnoma yoki arizani ko‘rib chiqib, tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy qilishi mumkin. Qonunning 12-moddasi beshinchi qismiga ko‘ra, kreditorlar yig‘ilishining mutlaq vakolatlari jumlasiga sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish va ularning muddatini uzaytirish yoki muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish haqidagi qaror qabul qilish kiradi.

Qonunning 13-moddasi uchinchi qismiga muvofiq, kreditorlar yig‘ilishida sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish va ularning muddatini uzaytirish yoki muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risidagi masalalarni ko‘rib chiqishda birinchi hamda ikkinchi guruh kreditorlari ovoz berish huquqiga ega. Birinchi guruh qarzdorning garov bilan ta’minlangan majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar, ikkinchi guruh qarzdorga nisbatan garov bilan ta’minlanmagan shartnomalardan, mahsulot yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek, majburiy sug‘urta va bank kreditlarini sug‘urta qilish shartnomalaridan kelib chiqadigan talablar bo‘yicha kreditorlardir.

Qonunning 173-moddasi birinchi qismiga ko‘ra, shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxonaning tashqi boshqaruvi sud tomonidan kreditorlar yig‘ilishining qarori asosida, bunday qaror bo‘lmaganda esa mahalliy davlat hokimiyati organining yoki vazirlikning, idoraning va xo‘jalik boshqaruvi organining iltimosnomasiga ko‘ra ham, basharti ular qarzdorning majburiyatlari yuzasidan ta’minot bergan bo‘lsa, joriy etilishi mumkin.

Kreditorlar yig‘ilishi tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risida iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish haqida kuzatuv yoki sud sanatsiyasi yoxud tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili davrida qaror chiqarishi mumkin. Qonunning 89-moddasiga asosan, kreditorlarning birinchi yig‘ilishida (kuzatuv tartib-taomilida) tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi mumkin. Qonunning 103-moddasi to‘rtinchi qismida kreditorlarning yig‘ilishi qarzdor rahbarining hisobotini, shuningdek, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining mazkur hisobot bo‘yicha xulosasini ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risida iltimosnoma bilan sudga murojaat etish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli ekanligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, Qonunning 157-moddasi birinchi qismiga asosan, agar qarzdorga nisbatan sud sanatsiyasi va (yoki) tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilmagan bo‘lsa, tugatishga doir ish yuritish mobaynida esa qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanishi mumkin deb hisoblash uchun asoslar, shu jumladan, moliyaviy tahlil ma’lumotlari bilan tasdiqlangan asoslar paydo bo‘lsa, tugatish boshqaruvchisi mazkur holatlar aniqlangan paytdan e’tiboran bir oylik muddat ichida sudga tugatishga doir ish yuritishni tugatish va tashqi boshqaruv tartib-taomiliga o‘tish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan murojaat etish haqidagi masalani ko‘rib chiqish maqsadida qarzdorning kreditorlari yig‘ilishini chaqirishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

38. Qonun 108-moddasining birinchi qismiga binoan, agar qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashning haqiqiy imkoniyati aniqlangan bo‘lsa, tashqi boshqaruv kreditorlar yig‘ilishining iltimosnomasi, mol-mulkida davlat ulushi bo‘lgan korxonalar bo‘yicha esa vakolatli davlat organining arizasi asosida sud tomonidan joriy etiladi.

Tashqi boshqaruv o‘n ikki oydan (kam emas) yigirma to‘rt oygacha muddatga joriy etilishi mumkin. Sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruvning jami muddati o‘ttiz oydan oshmasligi lozim. Agar qarzdorga nisbatan sud sanatsiyasi joriy etilmagan bo‘lsa, tashqi boshqaruvning eng ko‘p muddati yigirma to‘rt oydan oshmasligi shart (shaharni tashkil etuvchi korxonalar hamda ularga tenglashtirilgan korxonalar bundan mustasno).

Tashqi boshqaruv uchun belgilangan muddatning qisqartirilishiga yoki uzaytirilishiga Qonun 108-moddasining to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan muddatlar doirasida kreditorlar yig‘ilishining iltimosnomasiga, vakolatli davlat organining qaroriga yoki tashqi boshqaruvchining arizasiga binoan yo‘l qo‘yiladi. Tashqi boshqaruv muddatini qisqartirish yoki uzaytirish masalasi ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud majlisining vaqti va joyi to‘g‘risida xabardor qilingan holda sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi sudning tashqi boshqaruvni joriy etish to‘g‘risidagi ajrimi darhol ijro etilishini va tegishli qonun hujjatlarida belgilangan muddatda shikoyat qilinishi mumkinligini belgilaydi. «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 27-moddasi uchinchi qismida sud hujjati darhol ijro etilishi lozim bo‘lgan hollarda hujjat chiqarilgan kunning ertasidan boshlab ijro etilishi ko‘rsatilgan. IPKning 199-moddasi uchinchi qismiga asosan, IPKda boshqa muddat belgilanmagan bo‘lsa, ajrim chiqarilgan kundan e’tiboran bir oydan oshmagan muddatda uning ustidan shikoyat (protest) berilishi mumkin.

3. Tashqi boshqaruv tartib-taomili o‘n ikki oydan yigirma to‘rt oygacha muddatga joriy etiladi. Tashqi boshqaruv tartib-taomili uchun kamida o‘n ikki oylik muddat (bir yil) belgilangan bo‘lib, bunday minimal muddat sud sanatsiyasi tartib-taomili uchun nazarda tutilmagan. Qonunning 174-moddasiga muvofiq, shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxonaning tashqi boshqaruvi mahalliy davlat hokimiyati organining iltimosnomasi (korxona faoliyatiga investitsiya kiritish, xodimlarni ishga joylashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish yo‘li bilan hamda qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashning boshqa usullari bilan korxonani moliyaviy jihatdan sog‘lomlashtirish rejasiga asosan) mavjud bo‘lgan taqdirda sud tomonidan ko‘pi bilan bir yil muddatga uzaytirilishi mumkin. Tegishincha mahalliy davlat hokimiyati organi-

ning, vazirlikning, idoraning va xo‘jalik boshqaruvi organining iltimosnomasiga ko‘ra qarzdorning pul majburiyatlari va (yoki) soliqlari hamda yig‘imlari yuzasidan kafillik berish sharti bilan shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxonaning tashqi boshqaruvi tartib-taomili muddati besh yilgacha uzaytirilishi mumkin.

Qonunning 135-moddasi ikkinchi qismida ko‘rsatilgan kreditorlar bilan hisob-kitob qilish uchun belgilangan olti oylik muddat tashqi boshqaruvning umumiy muddatiga kirmaydi.

4. Kreditorlar yig‘ilishi yoki tashqi boshqaruvchi yoxud vakolatli davlat organining iltimosnomasiga ko‘ra sud qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash bilan bog‘liq bo‘lgan yoki qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyati yo‘qligi fakti aniqlanishi bilan tashqi boshqaruv muddatini qisqartirishi mumkin. Zarurat bo‘lganda kreditorlar yig‘ilishi yoki tashqi boshqaruvchi yoxud vakolatli davlat organining iltimosnomasiga ko‘ra sud mazkur moddaning uchinchi qismida belgilangan bir yildan ikki yilgacha (shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxona uchun bir yildan uch yilgacha yoki kafillik orqali besh yilgacha) bo‘lgan muddat doirasida, undan tashqariga chiqib ketmasdan tashqi boshqaruvning muddatini uzaytirishi mumkin. Qonunning 13-moddasi uchinchi qismiga muvofiq, kreditorlar yig‘ilishida sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish va ularning muddatini uzaytirish yoki muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risidagi masalalarni ko‘rib chiqishda birinchi hamda ikkinchi guruh kreditorlari ovoz berish huquqiga ega.

5. Ushbu normaga ko‘ra, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillari birgalikda cheklangan vaqt davomida amal qilishi kerak, ya’ni bu ikki jarayonning umumiy davomiyligi o‘ttiz oydan ortiq bo‘lishi mumkin emas. Bu cheklov orqali Qonun jarayonlarni sun’iy ravishda cho‘zib yuborishning oldini oladi. Shu bilan birga, qarzdorning taqdiri uzoq vaqt noaniq holatda qolib ketmasligi ta’minlanadi. Agar belgilangan muddat ichida qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanmasa, keyingi bosqich, masalan, tugatishga doir ish yuritish tartib-taomiliga o‘tish masalasi ko‘rib chiqiladi. Natijada mazkur qoida jarayonlarni tezlashtirish va barcha ishtirokchilar manfaatlarini muvozanatlashtirishga xizmat qiladi.

6. Sud sanatsiyasi tartib-taomili joriy etilgan sanadan to sud tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish kuniga qadar o‘n sakkiz oydan ortiq vaqt o‘tganligi keyingi tartib-taomillarni joriy etishda muhim ahamiyatga ega. Qonunning 106-moddasi uchinchi qismiga muvofiq, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining hisobotini, kreditorlarning shikoyatlarini ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra sud, agar qoplanmagan qarz borligi aniqlangan va kreditorlarning shikoyatlari asosli deb topilgan bo‘lsa, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining hisobotini tasdiqlashni rad etib, tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida ajrim chiqarishi mumkin. Mazkur moddaning oltinchi qismida maxsus norma ko‘rsatilgan bo‘lib, unga ko‘ra, sud sanatsiyasi tartib-taomilidan tashqi boshqaruvga o‘tish uchun o‘n sakkiz oydan ortiq vaqt o‘tmagan bo‘lishligi talab etiladi. Ushbu muddat o‘tkazib yuborilsa, sud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qaror chiqaradi. Qarang: Xalqaro sharh. 768-b.

109-modda. Tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish oqibatlari

Tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilgan paytdan e’tiboran:

qarzdorning rahbari o‘z vazifasini bajarishdan chetlashtiriladi, qarzdorning ishlarini boshqarish tashqi boshqaruvchi zimmasiga yuklatiladi. Tashqi boshqaruvchi qarzdorning rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasini tugatish yoki mazkur rahbarni boshqa ishga o‘tkazish to‘g‘risida buyruq chiqarishi shart;

qarzdorning boshqaruv organlari vakolatlari tugatiladi. Qarzdorning rahbari va qarzdorning boshqa boshqaruv organlari vakolatlari tashqi boshqaruvchiga o‘tadi, bundan ushbu Qonunga muvofiq boshqa shaxslarga (organlarga) o‘tadigan vakolatlar mustasno. Qarzdorning boshqaruv organlari va (yoki) to‘lovga qobiliyatsizlikning ilgarigi tartib-taomilida tayinlangan sud boshqaruvchisi, tashqi boshqaruvchi tayinlangan paytdan e’tiboran uch ish kuni ichida qarzdorning buxgalteriya hujjatlari va boshqa hujjatlari, muhrlari va shtamplari (muhrlar va shtamplar mavjud bo‘lgan taqdirda), moddiy va boshqa qimmatliklari tashqi boshqaruvchiga topshirilishini ta’minlashi shart;

kreditorlarning talablarini ta’minlash yuzasidan ilgari ko‘rilgan choratadbirlar bekor qilinadi;

qarzdorning mol-mulkini xatlash va qarzdorga nisbatan uning o‘ziga tegishli mol-mulkni tasarruf etish borasidagi vakolatlarining boshqacha tarzdagi cheklovlari faqat to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari doirasida qo‘llanilishi mumkin;

to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish jarayonida vujudga kelgan barcha turdagi joriy soliq to‘lovlarini (bundan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar bo‘yicha soliqlar mustasno) to‘lash to‘xtatib turiladi va tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayonining muddati yakunlanganidan keyin to‘lanadi. Bunday holda sud tashqi boshqaruvchining hisoboti tasdiqlangan hamda qarzdorga nisbatan qo‘zg‘atilgan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritishni tugatish haqida qaror chiqargan sanadan e’tiboran ushbu soliq qarzlari olti oy davomida teng miqdorda bo‘lib-bo‘lib to‘lanadi;

qarzdorning pul majburiyatlari va (yoki) soliqlari hamda yig‘imlari yuzasidan kreditorlar talablarining qanoatlantirilishiga nisbatan moratoriy joriy etiladi, bundan ushbu Qonunning 110-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilguniga qadar qarzdorning majburiyatlar bajarilishi ta’minoti sifatida berilgan mol-mulkidan foydalanishdan mazkur tartib-taomil joriy etilganidan keyin olingan hosilga, mahsulotga va daromadlarga nisbatan kreditorning o‘z talablarini bajarish ta’minoti sifatidagi huquqi tatbiq etilmaydi.

Tashqi boshqaruv tartib-taomili tugaganidan keyin pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha kreditorlarga qarzdor to‘lashi shart bo‘lgan neustoyka (jarima, penya), shuningdek, yetkazilgan zararning summalari tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish paytidagi mavjud miqdorlarda to‘lash uchun taqdim etilishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilgan paytdan boshlab qarzdor rahbari va boshqaruv organlari vakolatlari tashqi boshqaruvchiga o‘tishi, kreditorlar talablari bo‘yicha moratoriy joriy qilinishi, ayrim soliq to‘lovlari kechiktirilishi hamda qarzdor mol-mulki va majburiyatlarini boshqarish maxsus tartib asosida amalga oshirilishi belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismi tashqi boshqaruvni joriy etish munosabati bilan yuz beradigan bir qator oqibatlarni nazarda tutadi.

1.1. Tashqi boshqaruv joriy etilishi natijasida qarzdorning rahbari o‘z vazifasini bajarishdan chetlashtirilishi, qarzdorning boshqaruv organlari vakolatlari tugatilishi, kreditorlarning talablarini ta’minlash yuzasidan ilgari ko‘rilgan chora-tadbirlar bekor qilinishi, qarzdorning mol-mulkini xatlash va qarzdorga nisbatan uning o‘ziga tegishli mol-mulkni tasarruf etish borasidagi vakolatlarining boshqacha tarzdagi cheklovlari faqat to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari doirasida qo‘llanilishi, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish jarayonida vujudga kelgan barcha turdagi joriy soliq to‘lovlarini to‘lash to‘xtatib turilishi, qarzdorning pul majburiyatlari va (yoki) soliqlari hamda yig‘imlari yuzasidan kreditorlar talablarining qanoatlantirilishiga nisbatan moratoriy joriy etilishi kabi cheklovlar va taqiqlar yuzaga keladi.

1.2. Tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilgan paytdan qarzdorning rahbari o‘z vazifasini bajarishdan chetlashtiriladi, qarzdorning ishlarini boshqarish tashqi boshqaruvchi zimmasiga yuklatiladi. Tashqi boshqaruvchiga mazkur Qonun bilan yuklatilgan vazifalardan biri qarzdorning rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasini tugatish yoki uni boshqa ishga o‘tkazish to‘g‘risida buyruq chiqarish hisoblanadi.

«Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 31-moddasi ikkinchi qismiga asosan, jamiyatning ijro etuvchi organlarini tuzish va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish jamiyat ishtirokchilari umumiy yig‘ilishining mutlaq vakolatlari jumlasiga kiradi. Uning 40-moddasi ikkinchi qismiga ko‘ra, jamiyatning ustavida jamiyatning ijro etuvchi organlarini tuzish, ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish jamiyat kuzatuv kengashining vakolatlari jumlasiga kiritilishi nazarda tutilishi mumkin.

«Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 59-moddasi birinchi qismiga muvofiq, jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash) va rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiradi. Jamiyatning ijroiya organini tuzish,

uning rahbarini saylash (tayinlash), rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish masalalarini hal qilish jamiyat kuzatuv kengashiga berilishi mumkin.

Qarzdorning boshqaruv organlari vakolatlari tugatilishi, qarzdorni boshqarish tashqi boshqaruvchiga o‘tkazilishi munosabati bilan rahbar (ijro etuvchi organ) bilan tuzilgan shartnoma bekor qilinishi yoki uni boshqa ishga o‘tkazish mumkin.

1.3. Tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilgan paytdan e’tiboran qarzdorning boshqaruv organlari vakolatlari tugatiladi, qarzdorning rahbari va qarzdorning boshqa boshqaruv organlari vakolatlari tashqi boshqaruvchiga o‘tadi. Qarzdorning boshqaruv organlari (masalan, aksiyadorlik jamiyatida – aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi – direktor yoki boshqaruv raisi jamiyatning boshqaruv organlari, mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda ishtirokchilarning umumiy yig‘ilishi, kuzatuv kengashi va ijro etuvchi organi) tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilgandan so‘ng faoliyat yuritmaydi.

Agar Qonunning 134-moddasi yettinchi qismiga muvofiq kreditorlar yig‘ilishining qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi iltimosnomasi mavjud bo‘lsa, shuningdek, tashqi boshqaruvchining hisobotini tasdiqlashni sud rad etgan yoki tashqi boshqaruvchining hisoboti tashqi boshqaruv tartib-taomilining belgilangan muddati tugagan paytdan e’tiboran bir oylik muddat ichida taqdim etilmagan yoxud uning ushbu Qonun 133-moddasi to‘rtinchi qismining ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi xatboshilarida nazarda tutilgan qarorlaridan hech biri qabul qilinmagan bo‘lsa, sud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qaror qabul qiladi. Demak, tashqi boshqaruvdan so‘ng tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili qo‘llanilganda qarzdorning boshqaruv organlari o‘z faoliyatini tiklay olmaydi. Biroq, Qonunning 139-moddasiga ko‘ra, agar tashqi boshqaruv tartib-taomili kelishuv bitimini tuzish yoki kreditorlarning talablari qanoatlantirilishi bilan tamomlansa, tashqi boshqaruvchi yangi rahbar saylanguniga (tayinlanguniga) qadar qarzdorning rahbari vazifasini bajarishni davom ettirib turadi, qarzdorning boshqaruv organlari vakolatlari tiklanadi.

Mazkur moddaning birinchi qismi uchinchi xatboshisida qarzdorning boshqaruv organlari vakolatlari tashqi boshqaruv tartib-taomilida tashqi boshqaruvchiga emas, boshqa shaxslarga (organlarga) o‘tishi mumkinligi qayd etilgan bo‘lib, boshqa shaxslar (organlar) deganda kreditorlar yig‘ilishi va kreditorlar qo‘mitasi nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, qarzdorning boshqaruv organlari va (yoki) to‘lovga qobiliyatsizlikning ilgarigi tartib-taomilida tayinlangan sud boshqaruvchisining shunday majburiyati borki, ular tashqi boshqaruvchi tayinlangan paytdan e’tiboran uch ish kuni ichida qarzdorning buxgalteriya hujjatlari va boshqa hujjatlari, muhrlari va shtamplari (muhrlar va shtamplar mavjud bo‘lgan taqdirda), moddiy va boshqa qimmatliklari tashqi boshqaruvchiga topshirishi lozim. Bu muddat qat’iy hisoblanadi va uni buzish tashqi boshqaruv sun’iy kechiktirish deb baholanadi. Bunday holatda sud tashqi boshqaruvchining iltimosiga ko‘ra hujjatlarni majburiy tartibda talab qilib olish yoki aybdor shaxsni javobgarlikka tortish haqida qaror chiqarishi mumkin. Qonun ushbu majbu-

riyatni bajarmaganlik (lozim darajada bajarmaganlik) uchun qonunchilikka muvofiq javobgarlik choralarini nazarda tutadi.

1.4. Tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilgandan so‘ng kreditorlarning talablarini ta’minlash yuzasidan ilgari ko‘rilgan chora-tadbirlar bekor qilinadi. Qonunning 47-moddasiga muvofiq, sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxsning arizasi asosida IPKga muvofiq kreditorlar talablarini ta’minlashga doir chora-tadbirlar ko‘rishga haqli. IPKda nazarda tutilgan chora-tadbirlardan tashqari sud bitimlarni sud boshqaruvchisining roziligisiz tuzishni taqiqlab qo‘yishga, qimmatli qog‘ozlarni, valyuta qimmatliklarini va boshqa mol-mulkni saqlash uchun uchinchi shaxslarga topshirishni qarzdorning zimmasiga yuklatishga hamda qarzdorning mol-mulki but saqlanishini ta’minlashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar ko‘rishga haqli. IPKning 94-moddasiga ko‘ra, quyidagilar da’voni ta’minlash choralari bo‘lishi mumkin: 1) javobgarga tegishli mol-mulkni yoki pul mablag‘larini xatlab qo‘yish; 2) javobgarga muayyan harakatlarni bajarishni taqiqlash; 3) boshqa shaxslarga nizo predmetiga aloqador bo‘lgan muayyan harakatlarni bajarishni taqiqlash; 4) da’vogar nizolashayotgan, undirish so‘zsiz (akseptsiz) tartibda amalga oshiriladigan ijro hujjati yoki boshqa hujjat bo‘yicha undirishni to‘xtatib turish; 5) mol-mulkni xatlashdan ozod qilish to‘g‘risidagi ariza ko‘rib chiqilgan taqdirda, mol-mulkni realizatsiya qilishni to‘xtatib turish; 6) nizoli mol-mulk buzilishining, holati yomonlashishining oldini olish maqsadida javobgarning zimmasiga muayyan harakatlarni bajarish majburiyatini yuklatish; 7) nizoli mol-mulkni uchinchi shaxsga (saqlovchiga) o‘tkazish. Mazkur ta’minlash choralarining bekor qilinishi qarzdorga moliyaviy ahvolini tiklash uchun imkoniyat yaratadi.

1.5. Tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilgach, qarzdorning mol-mulkini xatlash va qarzdorga nisbatan uning o‘ziga tegishli mol-mulkni tasarruf etish borasidagi vakolatlarining boshqacha tarzdagi cheklovlari faqat to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari doirasida qo‘llaniladi.

Qonunning 118-moddasiga muvofiq, agar ushbu Qonunda yoki tashqi boshqaruv rejasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, yirik bitimlar va manfaatdorlik nazarda tutilgan bitimlar tashqi boshqaruvchi tomonidan faqat kreditorlar yig‘ilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining roziligi bilan tuziladi. Balans qiymati qarzdorning ko‘chmas mol-mulkini yoki bitim tuzish paytidagi aktivlari balans qiymatining o‘n foizidan ko‘prog‘ini tashkil etadigan boshqa mol-mulkini tasarruf etishga olib keladigan bitimlar yirik bitimlar jumlasiga kiradi. Bitimni tuzgan taraflardan biri tashqi boshqaruvchiga yoki kreditorga nisbatan manfaatdor shaxs bo‘lsa, bunday bitimlar manfaatdorlik nazarda tutilgan bitimlar deb e’tirof etiladi.

Shunday ekan, qarzdor mol-mulkini xatlash va tasarruf etish bo‘yicha cheklovlar to‘g‘ridan to‘g‘ri Qonunning o‘zida ko‘rsatilgan bo‘lib, boshqa taqiqlar belgilanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

1.6. Tashqi boshqaruv tartib-taomili qo‘llanilgandan keyin to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish jarayonida vujudga kelgan barcha turdagi joriy soliq to‘lovlarini (bundan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar bo‘yicha soliqlar mustasno) to‘lash

to‘xtatib turiladi va tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayonining muddati yakunlanganidan keyin to‘lanadi. Bu qarzdorga moliyaviy yukni yengillashtirish uchun zarur. Tashqi boshqaruv yakunlangandan so‘ng, qarzdor to‘lov qobiliyati tiklanganligi haqidagi tashqi boshqaruvchining hisoboti tasdiqlanadi va sud tomonidan ish yuritishni tugatish to‘g‘risida ajrim chiqariladi. Shu sanadan boshlab tashqi boshqaruv davrida to‘lanmagan soliqlar olti oy ichida teng miqdorda bo‘lib-bo‘lib to‘lanadi.

1.7. Tashqi boshqaruv tartib-taomili qo‘llanilgandan so‘ng qarzdorning pul majburiyatlari va (yoki) soliqlari hamda yig‘imlari yuzasidan kreditorlar talablarining qanoatlantirilishiga nisbatan moratoriy joriy etiladi. Moratoriy qarzdor yuridik shaxs tomonidan pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini to‘xtatib turishdir. Ammo, Qonunning 110-moddasiga muvofiq, quyidagi talablarga moratoriy qo‘llanilmaydi:

qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili va (yoki) sud sanatsiyasi tartib-taomili joriy etilganidan keyin yuzaga kelgan pul majburiyatlariga;

bajarilish muddati tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilganidan keyin boshlangan pul majburiyatlariga va (yoki) soliqlarga hamda yig‘imlarga;

fuqarolarning mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablariga, alimentlar undirishga hamda mualliflik shartnomalari asosida haq to‘lashga doir talablariga, shuningdek, qarzdor qaysi fuqaroning hayotiga yoki sog‘lig‘iga zarar yetkazilganligi uchun javobgar bo‘lsa, ana shu fuqaroning talablariga.

2. FKning 92-moddasiga asosan, ashyodan keladigan hosil va daromadlar, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, ashyo egasiga tegishlidir. Qonunning mazkur moddasi ikkinchi qismida maxsus qoida keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra, tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilguniga qadar qarzdorning majburiyatlar bajarilishi ta’minoti sifatida berilgan mol-mulkidan foydalanishdan mazkur tartib-taomil joriy etilganidan keyin olingan hosilga, mahsulotga va daromadlarga nisbatan kreditorning o‘z talablarini bajarish ta’minoti sifatidagi huquqi tatbiq etilmaydi. Demak, tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilishidan oldin taqdim qilingan ta’minotdan tashqi boshqaruv davrida hosil, mahsulot yaratilsa yoki daromad ko‘rilsa, ularga kreditor talablarini bajarish ta’minoti sifatida qaralmaydi.

3. Qonunning 110-moddasi ikkinchi qismiga ko‘ra, moratoriyning amal qilish muddati davomida pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyat bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun neustoyka (jarima, penya) va boshqa iqtisodiy (moliyaviy) sanksiyalar hisoblanmaydi, bundan qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili va (yoki) sud sanatsiyasi tartib-taomili joriy etilganidan keyin yuzaga kelgan pul majburiyatlari va (yoki) to‘lanishi lozim bo‘lgan foizlar mustasno.

Biroq mazkur neustoyka (jarima, penya) va boshqa iqtisodiy (moliyaviy) sanksiyalarni, shuningdek, yetkazilgan zararning summalarini tashqi boshqaruv joriy etish paytidagi mavjud miqdorlarda tashqi boshqaruv tartib-taomili tugaganidan keyin talab qilish mumkin. Qarang: Xalqaro sharh. 768-b.

110-modda. Kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga doir moratoriy

Kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga doir moratoriy tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilguniga qadar bajarilish muddati kelgan pul majburiyatlariga va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlarga nisbatan tatbiq etiladi, bundan qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili va (yoki) sud sanatsiyasi tartib-taomili joriy etilganidan keyin yuzaga kelgan pul majburiyatlari mustasno.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar yuzasidan moratoriyning amal qilish muddati ichida:

undiruv so‘zsiz (akseptsiz) tartibda amalga oshiriladigan ijro hujjatlari va boshqa hujjatlar bo‘yicha undiruvga yo‘l qo‘yilmaydi;

pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyat bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun neustoyka (jarima, penya) va boshqa iqtisodiy (moliyaviy) sanksiyalar hisoblanmaydi, bundan qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili va (yoki) sud sanatsiyasi tartib-taomili joriy etilganidan keyin yuzaga kelgan pul majburiyatlari va (yoki) to‘lanishi lozim bo‘lgan foizlar mustasno.

Tashqi boshqaruv joriy etilgan paytdagi pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha kreditorlar talablarining summasiga O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 327-moddasida nazarda tutilgan tartibda va miqdorda foizlar hisoblanadi. Bu foizlar bir navbatdagi talablarga qarzdorga nisbatan tashqi boshqaruv joriy etilgan sanadan e’tiboran va sud tomonidan shu navbat talablari bo‘yicha kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash haqida ajrim chiqariladigan sanaga qadar yoki qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilinadigan paytga qadar hisoblanadi. Hisoblangan foizlar summasi kreditorga asosiy qarz summasini to‘lash bilan bir vaqtda to‘lanishi lozim.

Moratoriy kreditorlarning tashqi boshqaruvchi shartnomani bajarishdan ushbu Qonunning 119-moddasiga muvofiq bosh tortganligi oqibatida yetkazilgan zararlarning o‘rnini qoplash haqidagi talablariga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan qoidalar bajarilish muddati tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilganidan keyin boshlangan pul majburiyatlariga va (yoki) soliqlarga hamda yig‘imlarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Moratoriyning amal qilishi fuqarolarning mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablariga, alimentlar undirishga hamda mualliflik shartnomalari asosida haq to‘lashga doir talablariga, shuningdek, qarzdor qaysi fuqaroning hayotiga yoki sog‘lig‘iga zarar yetkazilganligi uchun javobgar bo‘lsa, ana shu fuqaroning talablariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Kreditorning iltimosnomasiga asosan sud qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta'minoti sifatida mazkur kreditorning foydasiga qaysi pul majburiyatlari bo‘yicha mol-mulk berilgan bo‘lsa, o‘sha pul majburiyatlarini moratoriyning ta'sir doirasidan chiqarish to‘g‘risida, agar mol-mulk tashqi boshqaruv tartib-taomilini amalga oshirish uchun zarur bo‘lmasa, ajrim chiqarishi mumkin.

Talablari qarzdorning mol-mulki bilan ta'minlangan kreditorning iltimosnomasiga asosan quyidagi hollarda sud mazkur mol-mulkni moratoriyning ta'sir doirasidan chiqarish to‘g‘risida ajrim chiqarishi mumkin, agar:

qarzdorning mol-mulki bilan ta'minlangan kreditorning yoki kreditorlarning talablari miqdori garov narsasi qiymatidan oshib ketgan bo‘lsa;

garovga qo‘yilgan mol-mulk qiymatini pasayib ketishdan himoya qilish mavjud bo‘lmasa;

tashqi boshqaruv rejasini amalga oshirish qarzdorning mol-mulki bilan ta'minlangan talablarga daxl qilmasa;

garovga qo‘yilgan mol-mulkni tez buziladigan mahsulot sifatida saqlab qolish uchun choralar ko‘rish talab etilsa;

sud sanatsiyasining rejasi yoki tashqi boshqaruv rejasi belgilangan muddatda tasdiqlanmagan bo‘lsa.

Sharhlanayotgan modda kreditorlarning talablarini qondirishda moratoriy qo‘llash tartibi va shartlarini belgilaydi. Moratoriy qarzdor yuridik shaxs tomonidan pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini to‘xtatib turishdir.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida qarzdorning qaysi majburiyatlari to‘xtatib qo‘yilishi ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, moratoriy tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilguniga qadar bajarilish muddati kelgan pul majburiyatlariga va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlarga nisbatan tatbiq etiladi. Moratoriy quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

a) qarzdorga nisbatan kuzatuv va (yoki) sud sanatsiyasi joriy etilgandan so‘ng yuzaga kelgan pul majburiyatlari va (yoki) majburiy to‘lovlarga (mazkur moddaning birinchi qismi), shuningdek, tashqi boshqaruv joriy etilgandan keyin ijro muddati kelgan pul majburiyatlari va majburiy to‘lovlarga (mazkur moddaning beshinchi qismi), ya'ni joriy to‘lovlarga;

b) fuqarolarning mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablariga, alimentlar undirishga hamda mualliflik shartnomalari asosida haq to‘lashga doir talablariga, shuningdek, qarzdor qaysi fuqaroning hayotiga yoki sog‘lig‘iga zarar yetkazilganligi uchun javobgar bo‘lsa, ana shu fuqaroning talablariga (mazkur moddaning oltinchi qismi).

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi tashqi boshqaruvni joriy etish bilan bog‘liq vujudga keladigan va moratoriy amal qilish muddati davomidagi cheklovlar ro‘yxatini belgilaydi. Moratoriyning amal qilish muddati ichida undiruv so‘zsiz (akseptsiz) tar-

tibda amalga oshiriladigan ijro hujjatlari va boshqa hujjatlar bo‘yicha undiruvga yo‘l qo‘yilmaydi; pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyat bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun neustoyka (jarima, penya) va boshqa iqtisodiy (moliyaviy) sanksiyalar hisoblanmaydi (qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili va (yoki) sud sanatsiyasi tartib-taomili joriy etilganidan keyin yuzaga kelgan pul majburiyatlari va (yoki) to‘lanishi lozim bo‘lgan foizlar bundan mustasno).

3. Pul majburiyatlari va (yoki) majburiy to‘lovlar bo‘yicha majburiyat bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun neustoyka (jarima, penya) va boshqa iqtisodiy (moliyaviy) sanksiyalar qo‘llanishini taqiqlash bilan birga shunday tartib o‘rnatilmoqdaki, unga binoan, moratoriy amal qilish ostiga tushgan kreditorlarning talablariga FKning 327-moddasida nazarda tutilgan tartib va miqdorda foizlar hisoblanadi. FK ushbu moddasining talablariga muvofiq foizlar miqdori kreditorning yashash joyida amalda bo‘lgan, agar kreditor yuridik shaxs bo‘lsa, da’vo taqdim etilgan yoki sud qaror qabul qilgan kundan (sud ixtiyoriga ko‘ra) u joylashgan yerda amalda bo‘lgan bank foizlarining hisob stavkasi miqdorida aniqlanadi. Ushbu norma kreditorlarning manfaatini himoya qilishni ta’minlash imkonini beradi. Ko‘rib chiqilayotgan qismda foizlarni hisoblash va to‘lash muddatlari belgilangan. Unga ko‘ra, bu foizlar bir navbatdagi talablarga qarzdorga nisbatan tashqi boshqaruv joriy etilgan sanadan e’tiboran va sud tomonidan shu navbat talablari bo‘yicha kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash haqida ajrim chiqariladigan sanaga qadar yoki qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilinadigan paytga qadar hisoblanadi. Hisoblangan foizlar summasi kreditorga asosiy qarz summasini to‘lash bilan bir vaqtda to‘lanishi lozim.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismiga muvofiq, moratoriy tashqi boshqaruvchi shartnomani bajarishdan ushbu Qonunning 119-moddasiga muvofiq bosh tortganligi oqibatida yetkazilgan zararlarning o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi kreditorlar talablariga ham tatbiq etiladi. Qonunning 119-moddasi to‘rtinchi qismiga ko‘ra, shartnomani tuzgan taraflardan biri, agar unga nisbatan qarzdor rad qilishni bildirgan bo‘lsa, qarzdordan shartnomani bajarishni rad etganlik oqibatida kelib chiqqan haqiqiy zararning o‘rnini qoplashni talab qilishga haqli. Agar shartnomaning ikkinchi tarafi qarzdorning shartnomani bajarishdan bosh tortganligi natijasida kelib chiqqan haqiqiy zarar o‘z isbotini topgan taqdirda ham, unga nisbatan moratoriy amal qiladi. Moratoriyning bunday turdagi talablarga qo‘llanilishi tashqi boshqaruvchiga qarzdorning moliyaviy holatini yomonlashtirmasdan qaysi shartnomaviy majburiyatlarini ijro qilish, qaysi shartnomaviy majburiyatlarini ijro qilishdan voz kechish maqsadga muvofiqligini aniqlash va majburiyatlarni kechiktirish orqali to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyatini beradi.

5. Ushbu norma shuni anglatadiki, moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida belgilangan imtiyozli qoidalar barcha majburiyatlarga bir xil tarzda tatbiq etilmaydi. Bu qoidalar faqat tashqi boshqaruv joriy etilgunga qadar vujudga kelgan pul majburiyatlari va soliqlarga nisbatan amal qiladi. Agar pul majburiyatlari yoki soliqlar tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilganidan keyin paydo bo‘lsa, ularga ushbu yengilliklar tatbiq etilmaydi. Bu yangi yuzaga kelgan qarzlar umumiy qoidalar asosida va o‘z vaqtida bajarilishi shart deganidir. Mazkur tartib qarzdorning yangi majburiyatlarni ortiqcha

kechiktirishi yoki ulardan qochishining oldini olishga qaratilgan. Natijada tashqi boshqaruv davrida ham moliyaviy intizom saqlanishi ta’minlanadi.

6. Mazkur moddaning oltinchi qismida moratoriy amal qilish tatbiq etilmaydigan fuqarolarning pul majburiyatlari sanab o‘tilgan. Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablarga, alimentlar undirishga hamda mualliflik shartnomalari asosida haq to‘lashga doir talablarga, shuningdek, qarzdor qaysi fuqaroning hayotiga yoki sog‘lig‘iga zarar yetkazilganligi uchun javobgar bo‘lsa, ana shu fuqaroning talablariga nisbatan moratoriy qo‘llanilmaydi.

7. Mazkur moddaning yettinchi qismida kreditorning iltimosnomasiga ko‘ra, agar qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta’minoti sifatidagi mol-mulk kreditorning tashqi boshqaruv tartib-taomilini amalga oshirish uchun zarur bo‘lmasa sudning mol-mulkni moratoriyning ta’sir doirasidan chiqarishi mumkinligi keltirilgan. Sud qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta’minoti sifatida mazkur kreditorning foydasiga qaysi pul majburiyatlari bo‘yicha mol-mulk berilgan bo‘lsa, mol-mulkni moratoriyning ta’sir doirasidan chiqarish to‘g‘risida ajrim chiqarishi mumkin, agar mol-mulk tashqi boshqaruv tartib-taomilini amalga oshirish uchun zarur bo‘lmasa. Mol-mulkni moratoriyning ta’sir doirasidan chiqarish shartlari va tartibi 110-moddaning sakkizinchi qismida keltirilgan.

8. Mazkur moddaning sakkizinchi qismida talablari qarzdorning mol-mulki bilan ta’minlangan kreditorning iltimosnomasiga asosan qaysi hollarda sud mazkur mol-mulkni moratoriyning ta’sir doirasidan chiqarish to‘g‘risida ajrim chiqarishi mumkinligi qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

39. Qonunning 110-moddasiga muvofiq, kreditorlar talablarini qondirishga nisbatan moratoriy tashqi boshqaruv joriy etilgunga qadar bajarish muddati kelgan pul majburiyatlariga va (yoki) majburiy to‘lovlarga tatbiq etiladi, qarzdorga nisbatan kuzatuv va (yoki) sud sanatsiyasi joriy qilinganidan keyin vujudga kelgan pul majburiyatlari va (yoki) majburiy to‘lovlar bundan mustasno.

Tashqi boshqaruv joriy etilganidan keyin bajarish muddati boshlangan pul majburiyatlari va (yoki) majburiy to‘lovlar bo‘yicha talablarga moratoriy tatbiq etilmaydi.

Qarzdorning mol-mulki bilan ta’minlangan kreditorning yoki kreditorlarning talablari miqdori garov narsasi qiymatidan oshib ketgan bo‘lsa, mol-mulk moratoriyning ta’sir doirasidan chiqariladi. Qonunning 18-moddasi ikkinchi qismiga asosan, kreditorlarning talablari reyestrida har bir kreditor haqidagi, pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlar yuzasidan kreditor talablarining aniqlangan miqdori, uning har bir talabining qanoatlantirish navbati to‘g‘risidagi

ma’lumotlar ko‘rsatiladi. «Garov to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 5-moddasiga ko‘ra, har qanday mol-mulk, shu jumladan, ashyolar va mulkiy huquqlar (talablar) garov narsasi bo‘lishi mumkin. Demak, garov narsasi qiymatidan ta’minlangan kreditorning yoki kreditorlarning talablari miqdori ortib ketsa, mazkur garov narsasi moratoriydan chiqariladi.

Garovga qo‘yilgan mol-mulk qiymatini pasayib ketishdan himoya qilish mavjud bo‘lmasa ham mol-mulkni moratoriyning ta’sir doirasidan chiqarish haqida ajrim qabul qilinadi. Tashqi boshqaruv rejasini amalga oshirish qarzdorning mol-mulki bilan ta’minlangan talablarga daxl qilmasa, mol-mulk moratoriyning ta’sir doirasidan chiqariladi.

Shuningdek, garovga qo‘yilgan mol-mulkni tez buziladigan mahsulot sifatida saqlab qolish uchun choralar ko‘rish talab etilgan vaziyatlarda ham mol-mulk moratoriyning ta’sir doirasidan chiqariladi. Bundan tashqari, sud sanatsiyasining rejasi yoki tashqi boshqaruv rejasi belgilangan muddatda tasdiqlanmagan bo‘lsa ham mol-mulk moratoriyning ta’sir doirasidan chiqarilishi mumkin. Qarang: Xalqaro sharh. 769-b.

111-modda. Tashqi boshqaruvchilikka nomzod taqdim etish tartibi

Tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy qilish haqida sudga iltimosnoma bilan murojaat etish to‘g‘risida qaror qabul qilgan kreditorlarning yig‘ilishi tashqi boshqaruvchilikka nomzodni ma’qullaydi.

Tashqi boshqaruvchilikka nomzod kreditorlarning yig‘ilishiga har qanday kreditor tomonidan yoki vakolatli davlat organi tomonidan taklif etilishi mumkin.

Kreditorlarning yig‘ilishi tomonidan qaror qabul qilishning ushbu Qonunning 17-moddasida nazarda tutilgan tartibiga muvofiq kreditorlarning eng ko‘p ovozini olgan shaxsning nomzodi sudga taklif etiladi.

Sud tashqi boshqaruv tartib-taomilini kreditorlar yig‘ilishining tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish to‘g‘risidagi qarori mavjud bo‘lmagan holda joriy etayotgan bo‘lsa, kreditorlarning yig‘ilishi tashqi boshqaruvchilikka nomzodni sud tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida ajrim chiqargan paytdan e’tiboran uch haftalik muddat ichida ko‘rib chiqishga, ma’qullashga va sudga taqdim etishga haqli.

Tashqi boshqaruvchilikka nomzod kreditorlarning yig‘ilishi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, sud vakolatli davlat organi tomonidan taklif etilgan nomzodlar orasidan tashqi boshqaruvchini tayinlaydi.

Sharhlanayotgan moddada tashqi boshqaruvchilikka nomzod taqdim etish, bu boradagi vakolatli davlat organining ishtiroki, kreditorlar yig‘ilishi tomonidan nomzodning ma’qullanish tartibi keltirilgan.

1. Moddaning birinchi qismida tashqi boshqaruvchilikka taqdim etilgan nomzodni dastlab tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy qilish uchun sudga iltimosnoma bilan

murojaat etish haqida qaror qabul qilgan kreditorlar yig‘ilishi ma’qullaydi. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrdagi 838-son qarori bilan tasdiqlangan Sud boshqaruvchilari malaka attestatini berish tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 12-bandiga ko‘ra, sud boshqaruvchisi quyidagi asosiy malaka talablariga mos kelishi zarur: oliy ma’lumotli bo‘lishi; iqtisod, moliya, buxgalteriya hisobi yoki audit, soliq maslahatchisi yoxud huquq sohasida kamida ikki yil mehnat stajiga ega bo‘lishi; vakolatli tashkilotda malaka imtihonidan o‘tishi.

Bundan tashqari, tashqi boshqaruvchiga quyidagi qo‘shimcha malaka talablari qo‘yiladi: tashqi boshqaruv tartib-taomilini amalga oshiruvchilarga – ikkinchi toifadagi sud boshqaruvchisi sifatida kamida ikki marta sud sanatsiyasi va (yoki) ikki yil tugatishga doir ishlarni yuritish tartib-taomilini amalga oshirishda sud boshqaruvchisi sifatida mehnat stajiga ega bo‘lishi va sud boshqaruvchilari reytingida yil davomida yuqori darajadan tushmagan bo‘lishi yoki ikkinchi toifada sud boshqaruvchisi sifatida o‘n ikki oydan kam bo‘lmagan mehnat stajiga ega bo‘lishi hamda avval rahbarlik (davlat boshqaruvi yoki mahalliy hokimlik yoxud sud organlarida rahbar va rahbar o‘rinbosari, xo‘jalik jamiyatlarida rahbar va boshqalar) lavozimida besh yildan kam bo‘lmagan mehnat stajiga ega bo‘lishi va sud boshqaruvchilari reytingida ketma-ket uch chorakda kamida yuqori darajani qayd etgan bo‘lishi lozim.

2. Ushbu normaga ko‘ra, tashqi boshqaruvchi lavozimiga nomzodni faqat ayrim shaxslar emas, balki keng doiradagi subyektlar taklif qilishi mumkin. Masalan, har qanday kreditor, kichik yoki yirik bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z nomzodini kreditorlar yig‘ilishiga kiritish huquqiga ega. Shuningdek, vakolatli davlat organi ham tashqi boshqaruvchiga nomzod ko‘rsatishi mumkin.

Bu tartib nomzod tanlash jarayonida ochiqlik va raqobatni ta’minlashga xizmat qiladi. Nomzodlar kreditorlar yig‘ilishida muhokama qilinib, eng munosib deb topilgan shaxs tanlanadi. Natijada tashqi boshqaruvni amalga oshiradigan shaxsni tanlashda turli manfaatlar inobatga olinib samarali boshqaruvga erishish imkoniyati yaratiladi.

3. Kreditorlar yig‘ilishida kreditorlarning eng ko‘p ovozini olgan shaxsning nomzodi sudga taklif etiladi va yig‘ilishda qaror qabul qilish tartibi Qonunning 17-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi. Qonunning 17-moddasi uchinchi qismiga ko‘ra, sud boshqaruvchisini tayinlash, almashtirish yoki vazifasidan ozod qilish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish haqidagi qarorni kreditorlar yig‘ilishi ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan barcha kreditorlarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qiladi. Agar kreditorlarning yig‘ilishida qarorlarni qabul qilish uchun ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan kreditorlarning zarur kvorumi bo‘lmasa, kreditorlarning takroriy yig‘ilishi chaqiriladi, basharti kreditorlarning yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joy to‘g‘risida kreditorlar lozim darajada xabardor etilgan bo‘lsa, ushbu takroriy yig‘ilish bunday qarorlarni ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan va yig‘ilishda hozir bo‘lgan kreditorlar sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilishga vakolatlidir.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismida sud kreditorlar yig‘ilishi qarorisiz tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida qaror chiqargan bo‘lsa, kredi-

torlar yig‘ilishi tashqi boshqaruvchilikka nomzodni sudga taqdim qilish muddati belgilangan. Unga ko‘ra, tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida ajrim chiqargan paytdan e’tiboran uch haftalik muddat ichida kreditorlar yig‘ilishi sudga taqdim etishga haqlidir. Qonunning 12-moddasi sakkizinchi qismiga muvofiq, agar kreditorlar yig‘ilishida qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilingan bo‘lsa, sud muvaqqat boshqaruvchining qarzdorning faoliyatini tiklash uchun imkoniyat mavjudligi to‘g‘risidagi xulosasini inobatga olgan holda qarzdorga nisbatan uning to‘lov qobiliyatini tiklash tartib-taomillaridan birini joriy etishga haqli. Bunday vaziyatda, Qonunning 92-moddasi to‘rtinchi qismiga ko‘ra, tashqi boshqaruvchi tayinlanguniga qadar uning vazifasini bajarish ilgari muvaqqat boshqaruvchi vazifasini bajarib turgan shaxs zimmasiga to‘la hajmda yuklatiladi.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismida kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan tartibda yoki ushbu moddaning to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan uch haftalik muddat ichida tashqi boshqaruvchilikka nomzod taqdim etilmagan bo‘lsa, sud tomonidan tashqi boshqaruvchi qay tartibda lavozimga tayinlanishi ko‘rsatilgan. Unga muvofiq, sud vakolatli davlat organi tomonidan taklif etilgan nomzodlar orasidan tashqi boshqaruvchini tayinlaydi.

112-modda. Tashqi boshqaruvchini tayinlash

Tashqi boshqaruvchi tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish bilan bir paytda sud tomonidan tayinlanadi.

Tashqi boshqaruvchini tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish bilan bir paytda tayinlashning imkoni mavjud bo‘lmasa, sud tashqi boshqaruvchini tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilgan paytdan e’tiboran bir oylik muddat ichida tayinlaydi.

Tashqi boshqaruvchini tayinlash to‘g‘risida sud ajrim chiqaradi.

Tashqi boshqaruvchini tayinlash to‘g‘risidagi sudning ajrimi darhol ijro etilishi lozim va uning ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Sharhlanayotgan moddada tashqi boshqaruvchini tayinlash tartibi, tayinlash to‘g‘risida sudning ajrim chiqarishi va uning ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkinligi ko‘rsatilgan.

1. Ushbu normaga ko‘ra, tashqi boshqaruvchi keyinroq emas, balki tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilgan paytda tayinlanadi. Bunda sud tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida ajrim chiqarar ekan, shu qarorning o‘zidayoq tashqi boshqaruvchini ham tayinlaydi.

Bu tartib boshqaruvda bo‘shliq yuzaga kelmasligini ta’minlaydi. Chunki tashqi boshqaruvchi darhol o‘z vazifalarini bajarishga kirishishi lozim. Shu orqali qarzdor korxonaning faoliyati uzluksiz davom etadi va nazorat tizimi kechiktirilmaydi. Natijada to‘lov qobiliyatini tiklashga qaratilgan choralar tez va samarali amalga oshiriladi.

2. Qonunning 111-moddasi to‘rtinchi qismiga ko‘ra, sud tashqi boshqaruv tartib-taomilini kreditorlar yig‘ilishining tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish to‘g‘risidagi qarori mavjud bo‘lmagan holda joriy etayotgan bo‘lsa, kreditorlarning yig‘ilishi tashqi boshqaruvchilikka nomzodni sud tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida ajrim chiqargan paytdan e’tiboran uch haftalik muddat ichida ko‘rib chiqishga, ma’qullashga va sudga taqdim etishga haqli. Bu vaziyatda tashqi boshqaruvchi sud tomonidan tashqi boshqaruvni joriy etish bilan bir paytda emas, ma’lum muddat o‘tgach tayinlangan hisoblanadi. Qarzdorga nisbatan tashqi boshqaruvni joriy etish bilan bir paytda tashqi boshqaruvchini tayinlash imkoniyati bo‘lmasa, tashqi boshqaruv joriy etilgandan keyin bir oy ichida sud tomonidan tashqi boshqaruvchi tayinlanadi.

3. Tashqi boshqaruvchini tayinlash to‘g‘risida sud tomonidan ajrim chiqariladi. Agar, mazkur moddaning ikkinchi qismida keltirilganidek, tashqi boshqaruvni joriy etish bilan bir paytida tashqi boshqaruvchini tayinlash imkoniyati bo‘lmasa, sud tashqi boshqaruvchini tayinlash haqida alohida ajrim chiqaradi.

4. Sudning tashqi boshqaruvchini tayinlash to‘g‘risidagi ajrimi darhol ijro etiladi. «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 27-moddasi uchinchi qismida sud hujjati darhol ijro etilishi lozim bo‘lgan hollarda hujjat chiqarilgan kunning ertasidan boshlab ijro etilishi lozimligi ko‘rsatilgan. IPKning 199-moddasi uchinchi qismiga asosan, IPKda boshqa muddat belgilanmagan bo‘lsa, ajrim chiqarilgan kundan e’tiboran bir oydan oshmagan muddatda uning ustidan shikoyat (protest) berilishi mumkin.

113-modda. Tashqi boshqaruvchini o‘z vazifasini bajarishdan ozod etish

Tashqi boshqaruvchi o‘z vazifasini bajarishdan quyidagi hollarda sud tomonidan ozod etilishi mumkin:

o‘z arizasiga binoan;

zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorlar yig‘ilishining qarori asosida. Bunday holda kreditorlar yig‘ilishining qarorida tashqi boshqaruvchilikka tavsiya etilayotgan yangi nomzod haqidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak;

vakolatli davlat organining arizasi asosida;

ushbu Qonunning 22-moddasiga muvofiq tashqi boshqaruvchi etib tayinlanishiga monelik qiladigan holatlar aniqlangan taqdirda.

Tashqi boshqaruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa hollarda ham o‘z vazifalarini bajarishdan ozod etilishi mumkin.

Tashqi boshqaruvchini o‘z vazifasini bajarishdan ozod etish to‘g‘risidagi ajrim darhol ijro etilishi kerak va ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin. Mazkur ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) bunday ajrimning ijro etilishini to‘xtatib qo‘ymaydi.

Sharhlanayotgan moddada tashqi boshqaruvchi o‘z arizasiga ko‘ra, vazifalarini lozim darajada bajarmagani, vakolatli organ yoki kreditorlar yig‘ilishi tashabbusi bilan yoxud uni tayinlashga to‘sqinlik qiluvchi holatlar aniqlangan taqdirda sud tomonidan vazifasidan ozod qilinishi hamda bu haqidagi ajrim darhol ijro etilishi belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismi tashqi boshqaruvchini o‘z vazifalarini bajarishdan ozod etish asoslarini hamda tashqi boshqaruvchini o‘z vazifalarini bajarishdan ozod etish to‘g‘risida ariza (iltimosnoma) bilan sudga murojaat etishi mumkin bo‘lgan shaxslar doirasini belgilaydi. Tashqi boshqaruvchi o‘z vazifasini bajarishdan quyidagi hollarda sud tomonidan ozod etilishi mumkin: o‘z arizasiga binoan; zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorlar yig‘ilishining qarori asosida. Bunday holda kreditorlar yig‘ilishining qarorida tashqi boshqaruvchilikka tavsiya etilayotgan yangi nomzod haqidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak; vakolatli davlat organining arizasi asosida; ushbu Qonunning 22-moddasiga muvofiq tashqi boshqaruvchi etib tayinlanishiga monelik qiladigan holatlar aniqlangan taqdirda.

Qonunning 22-moddasida sud boshqaruvchilari etib tayinlanishi mumkin bo‘lmagan shaxslar keltirilgan bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

qarzdorga yoki kreditorlarga nisbatan manfaatdor shaxslar;

sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar;

sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar;

o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili joriy etilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki jismoniy shaxslar;

ilgari sud boshqaruvchisi vazifasini bajarayotganda qarzdorga, kreditorlarga zarar yetkazgan va bu zararning o‘rnini qoplamagan shaxslar;

vakolatli davlat organi qarori bilan sud boshqaruvchisi attestatining amal qilishi tugatilgan (bekor qilingan) va (yoki) vaqtincha to‘xtatib turilgan (sud boshqaruvchisi attestatining amal qilish muddati vaqtincha to‘xtatib turilgan muddatga) shaxslar;

o‘ziga nisbatan boshqa shaxslarning ishlarini va (yoki) mol-mulkini boshqarish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishga cheklov belgilangan shaxslar (bunday faoliyat bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum etilgan shaxslar).

2. Tashqi boshqaruvchi vazifasidan ozod etish mumkin bo‘lgan boshqa holatlar qonunchilikda belgilangan. Qonunning 29-moddasi ikkinchi qismiga asosan, vakolatli davlat organi sud boshqaruvchilari faoliyati ustidan qonunchilikka muvofiq nazoratni amalga oshiradi, sud boshqaruvchisining faoliyatida qonunchilik muntazam ravishda yoki bir marta qo‘pol ravishda buzilganligi aniqlangan taqdirda uni vazifasini bajarishdan ozod qilish haqida sudga ariza bilan murojaat etadi.

3. Ushbu normaga ko‘ra, sud tashqi boshqaruvchini vazifasidan ozod etish haqida ajrim chiqarganida, u darhol kuchga kiradi va kechiktirilmasdan ijro etilishi shart. Bunda tashqi boshqaruvchi shu zahotiyoq o‘z vakolatlarini to‘xtatadi.

Shu bilan birga, manfaatdor shaxslar ushbu ajrimdan norozi bo‘lsa, uning ustidan shikoyat berish yoki prokuror protest keltirish huquqiga ega. Biroq bunday shikoyat berilgan yoki protest keltirilgan taqdirda ham ajrimning ijrosi to‘xtatilmaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 769-b.

114-modda. Tashqi boshqaruvchining huquqlari

Tashqi boshqaruvchi qarzdorning rahbari vakolatlarini amalga oshiradi.

Tashqi boshqaruvchi quyidagilarga haqli:

kreditorlarning yig‘ilishini hamda kreditorlar qo‘mitasini chaqirishga;

ushbu Qonunning 118-moddasida nazarda tutilgan cheklovlarni hisobga olgan holda qarzdorning mol-mulkini tasarruf etishga;

qarzdor nomidan kelishuv bitimi tuzishga;

ushbu Qonunning 26-moddasiga muvofiq haq olishga;

agar ushbu Qonunda yoki kreditorlar bilan kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, o‘z vazifalarini amalga oshirish uchun boshqa shaxslarni ular faoliyatiga qarzdorning mablag‘laridan haq to‘lagan holda shartnoma asosida ishga jalb qilishga;

o‘z vazifalarini bajarishni muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risida sudga ariza berishga;

ushbu Qonunning 63–65-moddalarida belgilangan tartibda qarzdorning shartnomalarini haqiqiy emas deb topish haqida sudga ariza berishga;

qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash maqsadida tijorat banklaridan, moliya tashkilotlaridan qarz olishga, shuningdek, qarzdorning faoliyatini davom ettirishidan manfaatdor bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslardan moliyaviy yordam olishga;

qarzdorga taalluqli bo‘lgan axborotni va hujjatlarni qarzdorning rahbaridan, ta’sischilaridan va (yoki) davlat organlaridan so‘rab olishga;

o‘z huquq va majburiyatlarining amalga oshirilishini ta’minlash uchun davlat xizmatlaridan, shu jumladan, davlat xizmatlari markazlari orqali ko‘rsatiladigan xizmatlardan oldindan to‘lovlarni amalga oshirmasdan foydalanish;

qarzdorning shartnomalarini bajarish ushbu Qonunning 119-moddasida belgilangan tartibda rad etilishini ma’lum qilishga.

Tashqi boshqaruvchi o‘z huquqlari va majburiyatlarini amalga oshirayotganda qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha qonunchilikka muvofiq subsidiar javobgar bo‘ladigan shaxslarga nisbatan ular qarzdorni to‘lovga qobiliyatsizlikka olib borganligi munosabati bilan talablar qo‘yishga haqlidir.

Tashqi boshqaruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Sharhlanayotgan modda tashqi boshqaruvchining qarzdor rahbari vakolatlarini amalga oshirishi hamda kreditorlar yig‘ilishini chaqirish, qarzdor mol-mulkini tasarruf etish, kelishuvlar tuzish, shartnomalarni haqiqiy emas deb topishni so‘rash, moliyaviy resurslar jalb etish, axborot talab qilish, davlat xizmatlaridan foydalanish va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirishga oid huquqlarini belgilaydi.

1. Ushbu normaga ko‘ra, tashqi boshqaruv joriy etilganidan keyin qarzdor korxona rahbarining vakolatlari tashqi boshqaruvchiga o‘tadi, ya’ni tashqi boshqaruvchi korxonani boshqarish, qaror qabul qilish va uning faoliyatini yuritishda rahbar vazifasini bajaradi. Bu holatda amaldagi rahbar o‘z vakolatlarini yo‘qotadi yoki cheklanadi.

Mazkur tartib korxonani mustaqil va xolis boshqaruv orqali moliyaviy tiklashga qaratilgan. Tashqi boshqaruvchi kreditorlar manfaatlarini inobatga olgan holda qarorlar qabul qiladi.

2. Ushbu normada tashqi boshqaruvchining huquqlari keng qamrovda belgilab qo‘yilgan bo‘lib, u qarzdor korxonani to‘liq va samarali boshqarish imkoniyatiga ega ekanini ko‘rsatadi.

Tashqi boshqaruvchi, avvalo, kreditorlar yig‘ilishi va kreditorlar qo‘mitasini chaqirish orqali muhim qarorlarni muhokama qilish va kelishish jarayonini tashkil etadi. Shu bilan birga, u qonunda belgilangan cheklovlarga rioya qilgan holda qarzdorning mol-mulkini tasarruf etish, ya’ni uni boshqarish va foydalanish huquqiga ega.

U qarzdor nomidan kelishuv bitimlari tuzishi, o‘z mehnati uchun haq olishi va zarur hollarda o‘z vazifalarini bajarish uchun boshqa mutaxassislarni shartnoma asosida jalb qilishi mumkin. Shuningdek, tashqi boshqaruvchi istasa, o‘z vakolatlarini muddatidan oldin tugatish haqida sudga murojaat qilish huquqiga ham ega.

Qonun unga qarzdorning ayrim shartnomalarini haqiqiy emas deb topish yoki ularni bajarishdan bosh tortish bo‘yicha sudga murojaat qilish huquqini ham beradi. Bu esa zararli yoki noqulay bitimlardan chiqish imkonini yaratadi.

Moliyaviy jihatdan esa tashqi boshqaruvchi korxonani tiklash maqsadida banklar, moliya tashkilotlari yoki boshqa manfaatdor shaxslardan qarz va moliyaviy yordam jalb qilishi mumkin.

Shuningdek, u qarzdorga oid barcha zarur axborot va hujjatlarni talab qilib olish, davlat xizmatlaridan to‘lovsiz foydalanish kabi huquqlarga ega. Natijada tashqi boshqaruvchiga berilgan ushbu vakolatlar korxonani inqirozdan chiqarish va uning to‘lov qobiliyatini tiklashga xizmat qiladi.

3. Ushbu normaga ko‘ra, tashqi boshqaruvchi faqat qarzdor korxonani boshqarish bilan cheklanib qolmay, balki uning to‘lovga qobiliyatsizlik holatiga sababchi bo‘lgan shaxslarga nisbatan ham huquqiy choralar ko‘rishi mumkin. Agar ayrim shaxslar (masalan, rahbarlar, ta’sischilar yoki boshqa mas’ul shaxslar) o‘z harakatlari yoki harakatsizligi bilan korxonani moliyaviy inqirozga olib kelgan bo‘lsa, tashqi boshqaruvchi ularga nisbatan talab qo‘yish huquqiga ega.

Bu shaxslar qonunchilikka muvofiq subsidiar javobgar hisoblanadi, ya’ni korxonaning qarzlarini qoplashda qo‘shimcha ravishda javob berishlari mumkin. Tashqi boshqaruvchi sudga murojaat qilib ushbu shaxslardan zararni qoplashni yoki qarzlarni undirishni talab etishi mumkin. Mazkur qoida adolatni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, korxonani qasddan yoki noto‘g‘ri boshqaruv orqali muammoga olib kelgan shaxslarni javobgarlikka tortish imkonini beradi. Natijada kreditorlar manfaatlari himoya qilinadi va qarzlarni qoplash uchun qo‘shimcha manbalar yaratiladi.

4. Tashqi boshqaruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘ladi. Masalan, Qonunning 23-moddasi birinchi qismiga ko‘ra, sud boshqaruvchisi quyidagi huquqlarga ega:

kreditorlar yig‘ilishini chaqirishga; ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda kreditorlar qo‘mitasi chaqirilishini talab qilishga; oldindan davlat boji to‘lamay turib da’vo arizalari va boshqa arizalar bilan sudga murojaat etishga;

ushbu Qonunning 26-moddasiga muvofiq haq olishga;

boshqa shaxslarni ular faoliyatiga qarzdorning mablag‘lari hisobidan haq to‘lagan holda, agar kreditorlar bilan tuzilgan bitimda boshqacha qoida belgilangan bo‘lmasa, shartnoma asosida jalb etishga;

davlat xizmatlaridan, shu jumladan, davlat xizmatlari markazlari orqali ko‘rsatiladigan xizmatlardan oldindan haq to‘lamasdan foydalanishga;

qarzdorning mulki, hisobvaraqlari va depozitlari, shu jumladan, kredit kartalari, elektron balanslari va elektron pul o‘tkazmalari to‘g‘risida jismoniy va yuridik shaxslardan (shu jumladan, kredit tashkilotlaridan) hamda davlat organlaridan bepul axborot olishga;

qarzdor jismoniy shaxsdan uning jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini amalga oshirishga doir faoliyati to‘g‘risidagi axborotni so‘rab olishga;

o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish uchun davlat soliq xizmati va bojxona organlaridan, byudjetdan tashqari jamg‘armalardan, ko‘chmas mulkka oid hujjatlarni ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlardan hamda qarzdor korxona va unga tegishli mol-mulk to‘g‘risida zarur axborotga ega bo‘lgan boshqa vakolatli organlardan axborot olishga;

o‘z vazifalarini bajarishni muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risida sudga ariza berishga haqli. Qarang: Xalqaro sharh. 769-b.

115-modda. Tashqi boshqaruvchining majburiyatlari

Tashqi boshqaruvchi:

qarzdorning mol-mulkini qabul qilib olishi va uni inventarizatsiyadan o‘tkazishi;

qarzdorning uchinchi shaxslarda turgan mol-mulkini qidirishga, aniqlashga va qaytarishga qaratilgan choralar ko‘rishi;

tashqi boshqaruvni o‘tkazish va kreditorlar bilan hisob-kitoblar qilish uchun maxsus hisobvaraq ochishi;

tashqi boshqaruv rejasini ishlab chiqishi va kreditorlarning yig‘ilishi tasdiqlashi uchun taqdim etishi;

moliyaviy, buxgalteriya va statistika hisobini yuritishi hamda hisobdorlikni ta’minlashi;

kreditorlarning qarzdorga nisbatan talablari yuzasidan e’tirozlar bildirishi;

qarzdor oldidagi qarzni undirish choralarini ko‘rishi;

kreditorlarning talablari reyestrini yuritishi;

kreditorlarning yig‘ilishiga tashqi boshqaruv rejasi bajarilishining borishi va yakunlari haqida hisobotlar taqdim etishi;

kreditorning talabiga ko‘ra qarzdorning moliyaviy ahvoli va (yoki) o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni o‘n kunlik muddatda taqdim etishi;

tashqi boshqaruv rejasi bajarilishining borishi haqida kreditorlar yig‘ilishiga va kreditorlar qo‘mitasiga, shuningdek, agar qarzdorning ustav fondida (ustav kapitalida) davlatning ulushi bo‘lsa, vakolatli davlat organiga axborot taqdim etishi shart.

Tashqi boshqaruvchining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Sharhlanayotgan modda tashqi boshqaruvchining qarzdor mol-mulkini qabul qilish va inventarizatsiyadan o‘tkazish, mol-mulkni qidirish va qaytarish, maxsus hisobvaraq ochish, tashqi boshqaruv rejasini ishlab chiqish va taqdim etish, hisob-kitob va hisobdorlikni yuritish, kreditorlar talablari bilan ishlash, qarzlarni undirish choralarini ko‘rish, reyestr yuritish hamda kreditorlar va vakolatli organlarga muntazam axborot va hisobotlar taqdim etish kabi majburiyatlarini belgilaydi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida tashqi boshqaruvchining majburiyatlari belgilangan bo‘lib, u qarzdor korxonani to‘liq boshqarish va tiklash uchun mas’ul shaxs ekanini ko‘rsatadi.

Avvalo, tashqi boshqaruvchi qarzdorning barcha mol-mulkini qabul qilib oladi, uni inventarizatsiyadan o‘tkazadi va uchinchi shaxslarda bo‘lgan aktivlarni qidirib, qaytarish choralarini ko‘radi. Shu orqali korxonaning haqiqiy moliyaviy holati aniqlanadi va yo‘qotilgan aktivlar tiklanadi.

U tashqi boshqaruvni amalga oshirish uchun maxsus hisobvaraq ochadi, buxgalteriya, moliyaviy va statistik hisobni yuritadi hamda hisobdorlikni ta’minlaydi. Bu jarayon moliyaviy intizom va shaffoflikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Tashqi boshqaruvchi tashqi boshqaruv rejasini ishlab chiqib, uni kreditorlar yig‘ilishiga tasdiqlash uchun taqdim etadi va keyinchalik uning bajarilishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, u kreditorlar talablariga nisbatan e’tiroz bildirish, qarzdor foydasiga qarzlarni undirish choralarini ko‘rish va kreditorlar talablari reyestrini yuritish huquqiga ega.

U kreditorlar yig‘ilishiga rejaning bajarilishi va natijalari haqida muntazam ravishda hisobot beradi, shuningdek, kreditor talab qilsa, o‘n kun ichida qarzdorning moliyaviy ahvoli haqida axborot taqdim etadi.

Shu bilan birga, tashqi boshqaruvchi tashqi boshqaruv jarayonining borishi to‘g‘risida kreditorlar, kreditorlar qo‘mitasi va zarur hollarda davlat organlarini xabardor qilib boradi. Natijada u korxonani tiklash, kreditorlar manfaatlarini himoya qilish va jarayonning shaffofligini ta’minlashda markaziy rol o‘ynaydi.

2. Tashqi boshqaruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarni ham oladi. Qonunning 26-moddasi uchinchi qismiga muvofiq, sud boshqaruvchisi: qarzdor-

ning mol-mulki but saqlanishi yuzasidan choralar ko‘rishi; kreditorlarning talablari reyestrini shakllantirishi va yuritishi; qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil qilishi; qarzdorning moliyaviy ahvoli va (yoki) o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni kreditorning talabiga ko‘ra o‘n kunlik muddatda taqdim etishi; soxta to‘lovga qobiliyatsizlik, to‘lovga qobiliyatsizlikni yashirish yoki qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelish alomatlarini aniqlashga doir harakatlarni amalga oshirishi va choralar ko‘rishi hamda bunday alomatlar aniqlanganligi haqida kreditorlar yig‘ilishiga, sudga, vakolatli davlat organiga, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishi; qarzdor jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishi; qarzdor jismoniy shaxs tomonidan kreditorlarning talablari to‘la hajmda qanoatlantirilishi uchun mablag‘larning o‘z vaqtida to‘liq to‘lanishini nazorat qilishi; sud hujjatlari bilan o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi shart. Qarang: Xalqaro sharh. 769-b.

116-modda. Kreditorlarning talablari

Kreditorlar qarzdorga nisbatan o‘z talablarini tashqi boshqaruv tartib-taomili amal qilayotgan muddatning istalgan vaqtida taqdim etishga haqli. Mazkur talablar tashqi boshqaruvchiga qarzdorning joylashgan yeri va (yoki) elektron pochta manzili bo‘yicha yuboriladi. Kreditorlarning ushbu moddaning to‘rtinchi qismiga muvofiq aniqlangan deb e’tirof etiladigan talablari bu talablarni aniqlangan deb belgilash imkonini beruvchi hujjatlar ilova qilingan holda tashqi boshqaruvchiga yuboriladi.

Tashqi boshqaruvchi kreditorlarning taqdim etilgan talablarini ko‘rib chiqadi va tegishli talab olinganidan keyin uni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha kreditorlarning talablari reyestriga uzog‘i bilan ikki hafta ichida tegishli yozuv kiritadi. Tashqi boshqaruvchi ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risida tegishli kreditorni kreditorning talablari olingan paytdan e’tiboran uzog‘i bilan bir oylik muddat ichida xabardor qiladi.

Kreditor kreditorlarning talablarini tashqi boshqaruvchi tomonidan ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan e’tirozlarini to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rayotgan sudga bu natijalardan xabardor bo‘lgan paytdan e’tiboran bir oylik muddat ichida bildirishi mumkin.

Kreditorlarning ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan muddatda e’tirozlar bildirilmagan talablari tashqi boshqaruvchi tomonidan aniqlanadigan miqdorda, tarkibda va ularni qanoatlantirish navbatida aniqlangan talablar deb hisoblanadi.

Kreditor mustaqil ravishda qarzdordan talab qilish huquqini notarial tartibda boshqa shaxslarga o‘tkazishi mumkin. Bunda talab qilish huquqini sotib olgan shaxs talabini o‘n kun muddat ichida kreditorlar reyestriga kiritish uchun qarzdorning tashqi boshqaruvchisiga murojaat qilishi kerak.

Sharhlanayotgan modda kreditorlarning qarzdorga nisbatan talablarini tashqi boshqaruv jarayonida taqdim etish, ko‘rib chiqish va reyestrga kiritish tartibi, shuningdek, ushbu talablar yuzasidan e’tiroz bildirish hamda talab qilish huquqini boshqa shaxsga o‘tkazish qoidalarini belgilaydi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismi to‘lovga qobiliyatsizlik ishining oldingi tartib-taomillarida kreditorlar talablari reyestrga kiritilmasdan qolgan talablarni kiritish mumkinligi, tashqi boshqaruv amal qilayotgan muddatning istalgan paytida tashqi boshqaruv tamomlangunga qadar qarzdorga nisbatan o‘z talablarini taqdim etishga haqli ekanligini nazarda tutadi. Kreditorlarning talablari bu talablarni aniqlangan deb belgilash imkonini beruvchi hujjatlar ilova qilingan holda tashqi boshqaruvchiga yuboriladi.

Qonunning 87-moddasi birinchi qismiga ko‘ra, kreditorlarning birinchi yig‘ilishida ishtirok etish uchun qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi to‘g‘risidagi axborot ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan paytdan e’tiboran o‘ttiz kun ichida kreditorlar o‘z talablarini qarzdorga taqdim etishga haqli. Kuzatuv tartib-taomilida o‘z talabini qarzdorga bildirmagan kreditorlar tashqi boshqaruvning istalgan paytida talabini reyestrga kiritish haqida murojaat qila oladi. Qonunda sud sanatsiyasi tartib-taomili davrida kreditorning talablarini reyestrga kiritish mumkinligi yoki mumkin emasligi haqida maxsus qoida belgilanmagan. Ammo, Qonunning 94-moddasi to‘rtinchi qismiga muvofiq, majburiyatlarni bajarishning berilgan ta’minoti miqdori qarzdor majburiyatlarining sud sanatsiyasi tartib-taomilini joriy etish haqidagi masala yuzasidan kreditorlarning yig‘ilishi o‘tkazilishi oldidan oxirgi hisobot sanasidagi holatga ko‘ra balansda aks ettirilgan va kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan talablar asosida tuzilgan qarzni to‘lash jadvalidagi miqdordan kamida yigirma foiz ortiq bo‘lishi kerak. Demak, sud sanatsiyasi tartib-taomilida ta’minot taqdim qilingan holatlarda kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan talablar miqdorini o‘zgartirishga (ko‘paytirishga yoki kamaytirishga) yo‘l qo‘yilmaydi va kreditorlarning aniqlangan yangi talablari ham reyestrga kiritilmaydi.

Qonunning 143-moddasi ikkinchi qismiga asosan, qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida e’lon qilinayotgan ma’lumotlarda kreditorlar talablarini qo‘yishning belgilangan muddati (bu muddat mazkur e’lon chiqqan sanadan e’tiboran bir oydan kam bo‘lishi mumkin emas) ko‘rsatilishi kerak. Qonunning 154-moddasi uchinchi qismiga ko‘ra, kreditorlarning tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi e’londa nazarda tutilgan kreditorlar talablarini taqdim etish muddati tugaganidan keyin bildirilgan talablari, shuningdek, tugatishga doir ish yuritish boshlanganidan keyin yuzaga kelgan soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha talablar, ular qaysi muddatda taqdim etilganidan qat’i nazar, qarzdorning belgilangan muddatda bildirilgan kreditorlar talablari qanoatlantirilganidan keyin ushbu Qonunning 150-moddasida nazarda tutilgan tartibda qanoatlantiriladi.

2. Ushbu norma tashqi boshqaruvchining kreditorlar talablarini ko‘rib chiqishdagi majburiyatlari va muddatlarini aniq belgilab beradi. Unga ko‘ra, tashqi boshqaruvchi kreditor tomonidan taqdim etilgan talabni qabul qilgach, uni tekshirib chiqishi va uzog‘i

bilan ikki hafta ichida kreditorlar talablari reyestriga tegishli yozuv kiritishi shart. Masalan, kreditor 1-avgust kuni qarzdordan 200 million so‘m undirish haqida talab kiritgan bo‘lsa, tashqi boshqaruvchi eng kechi bilan 15-avgustga qadar bu talabni reyestrga kiritishi yoki uning yuzasidan qaror qabul qilishi lozim. Shu bilan birga, tashqi boshqaruvchi talabni ko‘rib chiqish natijalari haqida kreditorni talab olingan kundan boshlab bir oydan kechiktirmay xabardor qilishi kerak, ya’ni yuqoridagi misolda kreditorga uzog‘i bilan 1-sentyabrga qadar rasmiy javob yuborilishi shart. Ushbu norma kreditorlarning talablari o‘z vaqtida va shaffof tarzda ko‘rib chiqilishini ta’minlash, shuningdek, tashqi boshqaruvchi faoliyati ustidan protsessual nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi.

3. Ushbu normaga ko‘ra, agar kreditor tashqi boshqaruvchi tomonidan uning talabi ko‘rib chiqilishi natijasidan norozi bo‘lsa, u to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rayotgan sudga bir oy ichida e’tiroz bildirish huquqiga ega. Bunda mazkur muddat tashqi boshqaruvchi qaror qabul qilgan vaqtdan emas, balki kreditor bu qaror haqida xabardor bo‘lgan paytdan boshlab hisoblanadi. Masalan, tashqi boshqaruvchi kreditorning 500 million so‘mlik talabini 1-iyun kuni rad etgan, ammo kreditor bu haqida 10-iyun kuni xabar topgan bo‘lsa, sudga murojaat qilish muddati 10-iyundan boshlab hisoblanadi. Yoki kreditor talabi qisman tan olinib, masalan, 300 million so‘mdan faqat 100 million so‘mi e’tirof etilgan taqdirda ham u sudga e’tiroz kiritish huquqiga ega bo‘ladi. Ushbu norma kreditorlarning huquqlarini himoya qilish, tashqi boshqaruvchining harakatlari ustidan sud nazoratini ta’minlash hamda protsessual adolatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

4. Ushbu norma mazmuni shundan iboratki, agar kreditorlar belgilangan muddat ichida qarzdorga nisbatan bildirilgan talablarga e’tiroz bildirmasalar, bunday talablar qo‘shimcha tekshiruvsiz qabul qilingan deb hisoblanadi va tashqi boshqaruvchi ularni o‘zi tomonidan belgilangan miqdor, tarkib hamda qanoatlantirish navbatiga muvofiq ravishda tan olib, reyestrga kiritadi.

5. Kreditorlar o‘z talablarini mustaqil ravishda qarzdordan talab qilish huquqini boshqa shaxslarga notarial tartibda o‘tkaza oladi. Bunda talab qilish huquqini qo‘lga kiritgan shaxs o‘n kun ichida talabni kreditorlar reyestriga kiritish uchun tashqi boshqaruvchiga murojaat qilishi kerak bo‘ladi. FKning 313-moddasiga muvofiq, majburiyat asosida kreditorga tegishli bo‘lgan huquq (talab) uning tomonidan bitim bo‘yicha boshqa shaxsga o‘tkazilishi (talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish) yoki qonun asosida boshqa shaxsga o‘tishi mumkin. Kreditorning huquqlari boshqa shaxsga o‘tishi uchun, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, qarzdorning roziligi talab qilinmaydi. Agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, dastlabki kreditorning huquqi yangi kreditorga huquq o‘tish paytida mavjud bo‘lgan hajmda va shartlar asosida o‘tadi. Xususan, yangi kreditorga majburiyatning bajarilishini ta’minlaydigan huquqlar, shuningdek, talab bilan bog‘liq boshqa huquqlar, shu jumladan, to‘lanmagan foizlarga huquq ham o‘tadi. FKning 314-moddasiga ko‘ra, kreditorning shaxsi bilan chambarchas bog‘langan huquqlarning, xususan, alimentlar to‘g‘risidagi va hayotga yoki sog‘liqqa yetkazilgan zararni to‘lash to‘g‘risidagi talablarning boshqa shaxsga o‘tishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

117-modda. Kreditorlarning e’tirozlarini ko‘rib chiqish

Kreditorlarning tashqi boshqaruvchi tomonidan aniqlangan o‘z talablari miqdori, tarkibi va ularni qanoatlantirish navbati xususidagi ushbu Qonunning 116-moddasida belgilangan muddatlarda berilgan e’tirozlari sud tomonidan mazkur e’tirozlar olingan sanadan e’tiboran bir oydan kechiktirmay ko‘rib chiqiladi.

Kreditorlarning e’tirozlarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha sud ajrim chiqaradi, ajrimda kreditorlarning qaysi talablariga nisbatan e’tirozlar asosli deb topilgan bo‘lsa, kreditorlarning shu talablari miqdori, tarkibi va ularni qanoatlantirish navbati ko‘rsatiladi.

Kreditorlarning e’tirozlarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha sud chiqargan ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida kreditorlarning e’tirozlarini ko‘rib chiqish chog‘ida chiqarilgan ajrimlar va boshqa sud hujjatlari alohida ish yuritishda kreditorlarning qarzdorga nisbatan talablarini ko‘rib chiqishda preyuditsial kuchga ega bo‘ladi.

Qarzdor xodimlari vakilining mehnatga haq to‘lash va mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlovchi shaxslarga ishdan bo‘shatish nafaqasi to‘lash bo‘yicha qarzning miqdori va tarkibi haqidagi e’tirozlari ham ushbu moddada belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

Sharhlanayotgan modda kreditorlarning tashqi boshqaruvchi tomonidan aniqlangan talablari miqdori, tarkibi va ularni qondirish navbati xususidagi e’tirozlarini sudda ko‘rib chiqish tartibini belgilaydi.

1. Kreditorlarning tashqi boshqaruvchi tomonidan ularning talablarini ko‘rib chiqish natijasidan rozi bo‘lmay bildirgan e’tirozlari Qonunning 116-moddasi va IPKda belgilangan tartibda sudga taqdim qilingan ariza to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida ko‘rib chiqiladi. Ushbu e’tirozlar sud tomonidan mazkur e’tirozlar olingan sanadan e’tiboran bir oydan kechiktirmay ko‘rib chiqiladi.

2. Ushbu normaga ko‘ra, sud kreditorlar tomonidan bildirilgan e’tirozlarni ko‘rib chiqib, ularning qaysi qismi asosli ekanligi yuzasidan ajrim qabul qiladi va ushbu ajrimda kreditor talabining aniq miqdori, tarkibi hamda uni qaysi navbatda qanoatlantirish lozimligi belgilab qo‘yiladi. Masalan, kreditor qarzdordan 1 milliard so‘m talab qilgan, ammo tashqi boshqaruvchi uning faqat 600 million so‘mini tan olgan bo‘lsa, kreditor sudga e’tiroz kiritishi mumkin. Sud hujjatlar va dalillarni tekshirib, masalan, qo‘shimcha 200 million so‘mlik talabni asosli deb topsa, ajrimda kreditorning 800 million so‘mlik talabi tan olingani va u qaysi navbatda qondirilishi ko‘rsatiladi. Shu tariqa, ushbu norma kreditorlar talablarining qonuniy va adolatli tarzda aniqlanishini hamda ularni qondirish navbatini sud nazorati ostida belgilashni ta’minlaydi.

3. Kreditorlarning e’tirozlarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha sud chiqargan ajrimi ustidan shikoyat yoki protest kiritish mumkin. Qonunda, shuningdek, to‘lovga qobi-

liyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida kreditorlarning e’tirozlarini ko‘rib chiqish chog‘ida chiqarilgan ajrimlar va boshqa sud hujjatlari alohida ish yuritishda kreditorlarning qarzdorga nisbatan talablarini ko‘rib chiqishda preyuditsial kuchga ega ekanligi belgilangan. Bu to‘lovga qobiliyatsizlik ishi doirasida kreditorlarning e’tirozlarini ko‘rib chiqish chog‘ida chiqarilgan ajrimlar va boshqa sud hujjatlari keyingi sud ishlari uchun majburiy kuchga egaligini va uni qo‘shimcha isbotlash talab qilinmasligini anglatadi.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismiga ko‘ra, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida nafaqat kreditorlar, balki qarzdor korxona xodimlarining manfaatlari ham sud tomonidan himoya qilinadi. Agar qarzdor xodimlari vakili ish haqi yoki mehnat shartnomasi asosida ishlovchi shaxslarga to‘lanishi lozim bo‘lgan ishdan bo‘shatish nafaqasi qarzi noto‘g‘ri hisoblangan, kamaytirilgan yoki to‘liq kiritilmagan deb hisoblasa, sudga e’tiroz bildirish huquqiga ega bo‘ladi. Masalan, tashqi boshqaruvchi xodimlar oldidagi ish haqi qarzini 300 million so‘m deb ko‘rsatgan, ammo xodimlar vakili uning aslida 450 million so‘m ekanini asoslasa, sud mazkur e’tirozni ushbu moddada belgilangan tartibda ko‘rib chiqadi. Sud hujjatlar, hisob-kitoblar va dalillarni tekshirib, qarzning haqiqiy miqdori va tarkibini aniqlaydi. Bu norma xodimlarning mehnat huquqlari va ijtimoiy manfaatlarini to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida ham ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

118-modda. Qarzdorning mol-mulkini tasarruf etish

Qarzdor mol-mulkining egasi yoki ta’sis hujjatlari bilan vakolat berilgan organlar qarzdorning mol-mulkini tasarruf etish bo‘yicha qaror qabul qilishga yoxud tashqi boshqaruvchining vakolatlarini boshqacha tarzda cheklashga haqli emas, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Agar ushbu Qonunda yoki tashqi boshqaruv rejasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, yirik bitimlar va manfaatdorlik nazarda tutilgan bitimlar tashqi boshqaruvchi tomonidan faqat kreditorlar yig‘ilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining roziligi bilan tuziladi.

Balans qiymati qarzdorning ko‘chmas mol-mulkini yoki bitim tuzish paytidagi aktivlari balans qiymatining o‘n foizidan ko‘prog‘ini tashkil etadigan boshqa mol-mulkini tasarruf etishga olib keladigan bitimlar yirik bitimlar jumlasiga kiradi.

Bitimni tuzgan taraflardan biri tashqi boshqaruvchiga yoki kreditorga nisbatan manfaatdor shaxs bo‘lsa, bunday bitimlar manfaatdorlik nazarda tutilgan bitimlar deb e’tirof etiladi.

Sharhlanayotgan moddada tashqi boshqaruv jarayonida qarzdorning mol-mulkini tasarruf etish vakolati asosan tashqi boshqaruvchiga tegishli ekani, yirik hamda manfaatdorlik mavjud bo‘lgan bitimlar esa faqat kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasining roziligi bilan tuzilishi belgilangan.

1. Tashqi boshqaruvchi tashqi boshqaruv davrida kreditorlar manfaatlarini ko‘zlab harakat qiladi va ular bilan qarzdorning mol-mulkini tasarruf etish bo‘yicha kelishib

oladi. Qarzdor mol-mulkining egasi yoki ta'sis hujjatlari bilan vakolat berilgan organlar qonunda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, qarzdorning mol-mulkini tasarruf etish bo'yicha qaror qabul qilishga yoki tashqi boshqaruvchining vakolatlarini boshqacha tarzda cheklashga haqli emas. Ushbu qismning qoidalari qarzdorning qarzdor mol-mulkini boshqarish va tasarruf etish sohasidagi vakolatlarini cheklaydi va tashqi boshqaruvchiga o'zining majburiyatlarini samarali va to'laqonli bajarishga imkoniyatlar yaratadi. Qonunning 131-moddasi uchinchi qismiga ko'ra, qarzdorning mol-mulki asosida bitta yoki bir nechta aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish orqali qarzdorning aktivlari o'rnini almashtirish qarzdor mol-mulki egasining yoki qarzdorning tegishli bitimlarni tuzish haqida qaror qabul qilishga ta'sis hujjatlari bilan vakolat berilgan boshqaruv organining qarori asosida tashqi boshqaruv rejasiga kiritilishi mumkin. Qonunda nazarda tutilgan istisno holatga aynan Qonunning 131-moddasi uchinchi qismidagi qoidalar misol bo'la oladi.

2. Ushbu normaga ko'ra, tashqi boshqaruvchi qarzdorning mol-mulki yoki manfaatlariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yirik bitimlar hamda manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimlarni mustaqil ravishda tuzishga haqli emas va bunday bitimlar faqat kreditorlar yig'ilishi yoki kreditorlar qo'mitasining roziligi bilan amalga oshiriladi. Masalan, tashqi boshqaruvchi qarzdor korxonaga tegishli yirik ishlab chiqarish binosini sotmoqchi bo'lsa yoki o'ziga yaqin shaxs bilan shartnoma tuzmoqchi bo'lsa, bu haqida kreditorlarning roziligini olishi shart. Ushbu norma tashqi boshqaruvchi faoliyati ustidan nazoratni ta'minlash, mol-mulkning asossiz chiqarib yuborilishi yoki manfaatlar to'qnashuvining oldini olish hamda kreditorlar huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

3. Ushbu norma qarzdorning mol-mulki bilan bog'liq qaysi bitimlar yirik bitim hisoblanishini aniq belgilab beradi. Unga ko'ra, agar bitim natijasida qarzdorning ko'chmas mol-mulki tasarruf etilsa yoki boshqa mol-mulkning qiymati qarzdor aktivlari balans qiymatining o'n foizidan ortiqni tashkil qilsa, bunday bitim yirik bitim deb e'tirof etiladi. Masalan, qarzdor korxonaning jami aktivlari 10 milliard so'm bo'lsa, qiymati 1 milliard so'mdan yuqori bo'lgan mol-mulkni sotish yoki boshqa shaxsga o'tkazish yirik bitim hisoblanadi. Shuningdek, korxonaga tegishli bino, inshoot yoki yer uchastkasi bilan bog'liq bitimlar ham, qiymatidan qat'i nazar, ushbu toifaga kirishi mumkin. Ushbu norma tashqi boshqaruv jarayonida qarzdorning muhim aktivlari asossiz tasarruf etilishining oldini olish va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

4. Manfaatdorlik nazarda tutilgan bitimlar deb bitimni tuzgan taraflardan biri tashqi boshqaruvchiga yoki kreditorga nisbatan manfaatdor shaxs bo'lgan taqdirdagi bitimlar e'tirof etiladi. Qonunning 21-moddasiga muvofiq, qarzdor yuridik shaxsga nisbatan manfaatdor shaxslar quyidagilardan iborat: qonunchilikka muvofiq qarzdorga nisbatan bosh yoki tobe bo'lgan yuridik shaxs; qarzdorning rahbari, shuningdek, kuzatuv kengashi, kollegial ijroiya organi tarkibiga kiruvchi shaxslar, bosh buxgalter (buxgalter), shu jumladan, ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilmasidan oldingi bir yil davomida bekor qilingan hollarda ham; yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdorning mol-mulki egasi. Ushbu

Qonunda jismoniy shaxsga, shuningdek, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan manfaatdor shaxs deganda uning xotini (eri), nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan o‘zidan oldingi va keyingi qarindoshlari, opa-singillari, aka-ukalari hamda ularning nasl-nasab shajarasi bo‘yicha o‘zidan keyingi qarindoshlari, xotinining (erining) ota-onasi, opa-singillari va aka-ukalari tushuniladi. Sud boshqaruvchilariga, kreditorlarga nisbatan manfaatdor shaxslar yuqorida keltirilgan shaxslardan kelib chiqib aniqlanadi. Qarang: Xalqaro sharh. 770-b.

119-modda. Qarzdorning shartnomalarini bajarishni rad etish

Sudning tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risidagi ajrimi qarzdor to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilguniga qadar tuzgan shartnomalarni bajarishni to‘xtatish yoki ularni bajarishni rad etish uchun asos bo‘la olmaydi. Qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilguniga qadar tuzilgan, qarzdorning faoliyatini davom ettirish uchun muhim bo‘lgan shartnomalarning bajarilishi tashqi boshqaruvchi tomonidan davom ettiriladi, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno. Bunda qarzdor tuzgan shartnomalarni qarzdorga nisbatan tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilganligi munosabati bilan bajarishni to‘xtatish yoki ularni bajarishni rad etish bo‘yicha taraflarning kelishuvlari haqiqiy emas deb hisoblanadi, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Tashqi boshqaruvchi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilguniga qadar qarzdor tuzgan shartnomalarni bajarishni faqat to‘liq yoki qisman bajarilmagan shartnomalarga nisbatan quyidagi holatlardan biri mavjud bo‘lgan taqdirda rad etishga haqli:

shartnomalarni bajarish qarzdor uchun zarar keltirsa va (yoki) qiyosiy holatlarda tuziladigan xuddi shunday shartnomalarga nisbatan qarzdorning, kreditorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzsa;

shartnoma uzoq muddatli (bir yildan ortiq muddatga tuzilgan) bo‘lsa yoki faqat uzoq istiqbolda qarzdor uchun ijobiy natijalar olishga mo‘ljallangan bo‘lsa;

shartnomada bir kreditorning talablarini boshqa kreditorlar talablariga nisbatan afzalroq tarzda qanoatlantirish nazarda tutilgan bo‘lsa;

qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashga monelik qiluvchi boshqa holatlar mavjud bo‘lsa.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollarda shartnoma barcha taraflar tomonidan shunday shartnoma yuzasidan tashqi boshqaruvchining shartnomani bajarishni rad etishi to‘g‘risidagi arizasi olingan paytdan e’tiboran bekor qilingan deb hisoblanadi.

Shartnomani tuzgan taraflardan biri, agar unga nisbatan qarzdor rad qilishni bildirgan bo‘lsa, qarzdordan shartnomani bajarishni rad etganlik oqibatida kelib chiqqan haqiqiy zararning o‘rnini qoplashni talab qilishga haqli.

Sharhlanayotgan moddada tashqi boshqaruvchi qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashga to‘sqinlik qiladigan yoki kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazadigan ayrim shartnomalarni bajarishni rad etish huquqiga ega ekani, biroq qarzdor faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega shartnomalarning bajarilishi davom ettirilishi hamda bunday rad etish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni qoplash talab qilinishi mumkinligi belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismiga ko‘ra, sudning tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqidagi ajrimi qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishi qo‘zg‘atilguniga qadar tuzilgan shartnomalarni bajarishni to‘xtatish yoki rad etish uchun asos bo‘lmaydi. Buning ma’nosi shundaki, qarzdorning faoliyatini davom ettirish uchun muhim bo‘lgan shartnomalar, agar ular qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilmasdan oldin tuzilgan bo‘lsa, tashqi boshqaruvchi tomonidan davom ettirilishi kerak. Istisno holatlar qonunda keltirilishi mumkin. Agar qarzdor va shartnomadagi taraflar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilganidan keyin shartnomani bajarishni to‘xtatish yoki rad etish haqida kelishgan bo‘lsa, bu shartnomalar o‘z-o‘zidan haqiqiy emas. FKning 113-moddasiga asosan, bitim ushbu Kodeksda va boshqa qonunlarda belgilab qo‘yilgan asoslarga ko‘ra, sud haqiqiy emas deb topganligi sababli (nizoli bitim) yoki bunday deb topilishidan qat’i nazar, haqiqiy emas deb hisoblanadi (o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitim). O‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitim haqiqiy emasligining oqibatlarini qo‘llanish to‘g‘risidagi talabni har qanday manfaatdor shaxs qo‘yishi mumkin. Sud bunday oqibatlarni o‘z tashabbusi bilan qo‘llashga haqli. FKning 116-moddasi birinchi qismiga ko‘ra, qonunchilikning talablariga muvofiq kelmaydigan mazmundagi bitim, shuningdek, huquq-tartibot yoki axloq asoslariga atayin qarshi maqsadda tuzilgan bitim o‘z-o‘zidan haqiqiy emasdir.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi qarzdor to‘lovga qobiliyatsizlik ishi qo‘zg‘atilguniga qadar qarzdor tuzgan shartnomalarni to‘liq yoki qisman bajarishni rad etishga (bekor qilishga) haqli bo‘lgan shartlarni belgilaydi. FKning 237-moddasiga asosan, majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortish va shartnoma shartlarini bir tomonlama o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi, qonunchilikda yoki shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Qonunchilikda belgilangan istisno holat sifatida aynan Qonunning mazkur moddasi ikkinchi qismini keltirish mumkin. Shuningdek, Qonunning 382-moddasi to‘rtinchi qismiga ko‘ra, bir taraf shartnomani bajarishdan to‘la yoki qisman bosh tortib, qonun yoxud taraflarning kelishuvida bunga yo‘l qo‘yilsa, shartnoma tegishlicha bekor qilingan yoki o‘zgartirilgan hisoblanadi.

Xususan, agar shartnomani bajarish qarzdorga zarar keltirsa, kreditorlar manfaatlarini buzsa yoki bozor shartlariga nisbatan noqulay bo‘lsa, tashqi boshqaruvchi uni davom ettirmasligi mumkin. Masalan, qarzdor bozor narxidan ancha past bahoda mahsulot yetkazib berish majburiyatini olgan bo‘lsa va bu korxonaga katta moliyaviy zarar keltirayotgan bo‘lsa, tashqi boshqaruvchi mazkur shartnomani bajarishni rad etishi mumkin. Shuningdek, bir yildan ortiq muddatga mo‘ljallangan va faqat uzoq

istiqbolda foyda keltirishi mumkin bo‘lgan shartnomalar ham, agar ular qarzdorning hozirgi moliyaviy ahvolini og‘irlashtirsa, bekor qilinishi mumkin. Bundan tashqari, ayrim kreditorlarga asossiz ustunlik beruvchi yoki qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashga to‘sqinlik qiluvchi shartnomalarni rad etish orqali tashqi boshqaruvchi barcha kreditorlar manfaatlarining teng himoya qilinishini ta’minlaydi.

3. Ushbu normaga ko‘ra, agar tashqi boshqaruvchi qonunda belgilangan asoslar mavjud deb topib, shartnomani bajarishni rad etish haqida ariza yuborsa, ushbu ariza shartnoma taraflari tomonidan olingan paytdan boshlab shartnoma bekor qilingan hisoblanadi. Masalan, tashqi boshqaruvchi qarzdor uchun zarar keltirayotgan yetkazib berish shartnomasini bajarishni rad etsa va bu haqida kontragentga rasmiy xabarnoma yuborsa, xabarnoma olingan kundan e’tiboran shartnoma amal qilishdan to‘xtaydi. Bunda shartnomani bekor qilish uchun qo‘shimcha kelishuv tuzish yoki sud qarorini kutish talab etilmaydi. Norma tashqi boshqaruv jarayonida zararli yoki samarasiz shartnomalarni tezkor ravishda to‘xtatish imkonini beradi. Shu bilan birga, shartnoma bekor qilingan vaqtni aniq belgilash orqali taraflar o‘rtasidagi huquqiy noaniqliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

4. Shartnomani tuzgan taraflardan biri, agar unga nisbatan qarzdor rad qilishni bildirgan bo‘lsa, qarzdordan shartnomani bajarishni rad etganlik oqibatida kelib chiqqan haqiqiy zararning o‘rnini qoplashni talab qilishga haqli. FKning 14-moddasi ikkinchi qismiga asosan, zarar deganda huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo‘lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo‘qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek, bu shaxs o‘z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo‘lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi. Qarang: Xalqaro sharh. 770-b.

120-modda. Qarzdorning tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayonida yuzaga kelgan pul majburiyatlari

Qarzdorning tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayonida yuzaga kelgan pul majburiyatlari miqdori kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq kreditorlar talablari summasining yigirma foizidan ortiqrog‘ini tashkil etgan hollarda qarzdorning yangi pul majburiyatlarini keltirib chiqaruvchi bitimlar, bundan tashqi boshqaruv rejasida nazarda tutilgan bitimlar mustasno, tashqi boshqaruvchi tomonidan faqat kreditorlar yig‘ilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining roziligi bilan tuzilishi mumkin.

Ushbu moddaning birinchi qismi normalari buzilgan holda tuzilgan bitimlar, agar ular ilgari qarzdorning tashqi boshqaruvchisi vazifasini bajargan shaxs tomonidan tuzilgan bo‘lsa, kreditorning, shuningdek, yangi tayinlangan tashqi boshqaruvchining arizasiga ko‘ra sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Sharhlanayotgan modda tashqi boshqaruv jarayonida tashqi boshqaruvchi tomonidan bitim tuzishdagi cheklovlarni, shuningdek, ayrim bitimlarni tuzishda kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasining roziligini olish lozimligini, o‘rnatilgan cheklovlarni buzishning oqibatlarini belgilaydi.

1. Qonun tashqi boshqaruv davrida qarzdorning qarzlari ko‘payishi mumkin bo‘lgan va yo‘l qo‘yilgan nazorat me’yorini o‘z ichiga oladi. Bu me’yor reyestrda qayd etilgan kreditorlar talabi summasi hajmining yigirma foiziga teng. Tashqi boshqaruv joriy etilgach, qarzdorning pul majburiyatlari nazorat me’yoridan ortib ketsa, tashqi boshqaruvchi kreditorlar yig‘ilishi (qo‘mitasi)ning roziligisiz qarzdorga yangi pul majburiyatlari keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan bitimlarni tuzish huquqini yo‘qotadi. Shu bilan birga, ko‘rsatilgan cheklov tashqi boshqaruv rejasida nazarda tutilgan bitimlarga tatbiq etilmaydi, chunki umumiy qoidaga ko‘ra tashqi boshqaruv rejasini kreditorlar yig‘ilishi tasdiqlaydi, tashqi boshqaruv rejasida nazarda tutilgan bitimlar amalda kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ma’qullangan bo‘ladi. Bu cheklovning maqsadi barcha kreditorlar manfaatlarini ta’minlashdir, chunki tashqi boshqaruv jarayonida vujudga keladigan talablar joriy to‘lovlar hisoblanib, ular navbatdan tashqari qanoatlantiriladi. Qonunning 4-moddasiga asosan, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish jarayoni boshlangan sanadan e’tiboran yuzaga kelgan pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar joriy to‘lovlardir. Kreditorlarning joriy to‘lovlar bo‘yicha talablari kreditorlar talablarining reyestrida aks ettirilmaydi. Qonunning 150-moddasiga muvofiq, qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganidan keyin yuzaga kelgan joriy to‘lov majburiyatlari bo‘yicha talablari navbatdan tashqari qanoatlantiriladi.

2. Ushbu normada mazkur moddaning birinchi qismi talablarini buzish oqibatlari ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, kreditorlar yig‘ilishi (qo‘mitasi) roziligisiz tashqi boshqaruvchi tomonidan tuzilgan bitimlar sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday bitimlarni haqiqiy emas deb topish haqidagi arizalar kreditor, shuningdek, yangi tayinlangan tashqi boshqaruvchi tomonidan beriladi. Qonunning 63-moddasi birinchi qismiga muvofiq, qarzdor tuzgan har qanday bitim, shu jumladan, qarzdor to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilguniga yoki tashqi boshqaruv yoxud sud sanatsiyasi tartib-taomillari joriy etilguniga qadar tuzgan bitim qonunchilikda nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha sud boshqaruvchisining arizasiga binoan sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Qonunning 67-moddasiga ko‘ra, qarzdor tuzgan bitim sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan va ushbu bitimning haqiqiy emasligi oqibatlari qo‘llangan taqdirda, taraf bitim bo‘yicha olingan barcha narsalarni boshqa tarafga qaytarishi shart, ularni natura shaklida qaytarishning imkoni bo‘lmagan (shu jumladan, olingan narsalar mulkdan foydalanish, ishlarni bajarish yoki xizmatlarni ko‘rsatish shaklida bo‘lsa) taqdirda, agar qonunda bitim haqiqiy emasligining boshqa oqibatlari nazarda tutilmagan bo‘lsa, ular qiymatining o‘rnini pul bilan qoplashi kerak. Qarang: Xalqaro sharh. 771-b.

121-modda. Qarzdor xarajatlarining tartibga solinishi

Qarzdorning iste'molga, shu jumladan, mehnatga haq to‘lashga sarflanadigan xarajatlarining ko‘payishiga olib keluvchi qarorlar tashqi boshqaruvchi tomonidan faqat kreditorlar yig‘ilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining roziligi bilan qabul qilinishi mumkin, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Sharhlanayotgan modda tashqi boshqaruvchining qarzdorning iste'molga sarflanadigan xarajatlari ko‘payishiga olib keladigan qarorlarni mustaqil qabul qilish vakolatiga cheklovlarni belgilaydi. Iste'molga sarflanadigan xarajatlar korxona yoki tashkilotning joriy faoliyatida kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun ketadigan mablag‘lardir. Bunga, jumladan, xodimlarga ish haqi to‘lash (mehnatga haq to‘lash), mukofotlar, ijtimoiy to‘lovlar, maishiy va xizmat ko‘rsatish xarajatlari kiradi. Ya'ni bu xarajatlar ishlab chiqarish yoki investitsiya emas, balki iste'mol va joriy ehtiyojlarni ta'minlashga qaratilgan mablag‘lar hisoblanadi. Qarzdorning iste'molga, shu jumladan, mehnat haqi to‘lashga bo‘lgan sarflanadigan xarajatlarni ko‘paytirish zarurati tug‘ilgan hollarda mazkur xarajatlarning ko‘payishi to‘g‘risidagi qarorni tashqi boshqaruvchi qonunda ko‘zda tutilgan hollardan tashqari faqatgina kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi roziligi bilan qabul qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 771-b.

122-modda. Tashqi boshqaruv rejasi

Tashqi boshqaruvchi sud tomonidan tayinlangan paytdan e'tiboran bir oylik muddat ichida tashqi boshqaruv rejasini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun kreditorlar yig‘ilishiga taqdim etishi kerak.

Tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish chog‘ida ovoz berishda birinchi va ikkinchi guruh kreditorlari ishtirok etadi.

Kreditorlar yig‘ilishining tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash haqidagi qarori, agar uni birinchi va ikkinchi guruhlarning har biridagi kreditorlarning ko‘pchiligi yoqlab ovoz bersa, qabul qilingan deb hisoblanadi. Bunda ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan va tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlashga qarshi ovoz bergan kreditor yoki kreditorlar qarzdor tugatilgan taqdirda eng kamida olishi mumkin bo‘lgan kafolatli tovonga teng tovon olishga haqlidir.

Agar birinchi va ikkinchi guruhlarning har biridagi kreditorlar tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarorni qabul qilmasa, shuningdek, ovoz berish chog‘ida guruhlardan biridagi kreditorlarning zarur miqdordagi ovozlari to‘planmasa, sudga qarzdorni bankrot deb topish va tugatish to‘g‘risida ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan murojaat qilish haqida qaror qabul qilinadi.

Kreditorlar yig‘ilishining tashqi boshqaruv rejasiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi qarori birinchi va ikkinchi guruh kreditorlari tomonidan, agar har bir alohida guruhning ko‘pchiligi uni yoqlab ovoz bergan bo‘lsa, qabul qilinadi.

Tashqi boshqaruv rejasida quyidagilar nazarda tutilishi kerak:

qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash chora-tadbirlari, mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish shartlari va tartibi, ularni amalga oshirish xarajatlari hamda qarzdorning boshqa xarajatlari;

qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash muddati.

Qarzdorning to‘lov qobiliyati ushbu Qonunning 5-moddasida belgilangan to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud bo‘lmagan va (yoki) kreditorlar tomonidan bildirilgan talablardan voz kechilgan taqdirda tiklangan deb e’tirof etiladi.

Tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlashga qarshi ovoz bergan kreditorlar o‘z huquqlarini himoya qilish maqsadida quyidagilarni tekshirish uchun ekspertlarni jalb etishi mumkin:

tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlashga qarshi ovoz bergan kreditor hamda ushbu rejani tasdiqlash uchun ovoz berish huquqiga ega bo‘lmagan kreditor qarzdor tugatilgan taqdirda eng kamida olishi mumkin bo‘lgan kafolatli to‘lovga teng tovon olish huquqiga ega bo‘lishini;

tashqi boshqaruv rejasini muvaffaqiyatli bajarish imkoniyati mavjudligini;

qarzdorning mol-mulki bilan ta’minlangan kreditorlarning boshqa kreditorlarga nisbatan ustunlik huquqini.

Agar tashqi boshqaruv rejasida qarzdor talabini kamaytirish yoki hisobdan chiqarish nazarda tutilgan bo‘lsa, bu ushbu Qonunning 100-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Tashqi boshqaruvchi kreditorlar yig‘ilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining talabiga binoan tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayoni haqida kreditorlar oldida hisobot beradi.

Tashqi boshqaruv rejasini amalga oshirish qarzdorning xo‘jalik faoliyati tugatilishiga olib kelmasligi kerak, bundan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilganidan keyin yuzaga kelgan pul majburiyatlarini qanoatlantirish va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatni bajarish vazifasi qarzdorning mol-mulkini sotib oluvchiga o‘tadigan hollar mustasno.

Sharhlanayotgan moddada tashqi boshqaruvchi tomonidan qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashga qaratilgan tashqi boshqaruv rejasini ishlab chiqish, uni kreditorlar yig‘ilishi tomonidan tasdiqlash tartibi hamda mazkur rejada nazarda tutilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar belgilangan. Shuningdek, normada tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlashda kreditorlar huquqlarini himoya qilish, rejaning amalga oshirilishi ustidan nazorat o‘rnatish va uni bajarish qarzdorning xo‘jalik faoliyati to‘liq tugatilishiga olib kelmasligi lozimligi mustahkamlangan.

1. Tashqi boshqaruvchi sud tomonidan tayinlanganidan keyin bir oylik muddat ichida kreditorlar yig‘ilishiga tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash uchun taqdim etishi

kerak. Tashqi boshqaruvchi tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish bilan bir paytda sud tomonidan tayinlanadi. Tashqi boshqaruvchini tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish bilan bir paytda tayinlashning imkoni mavjud bo‘lmasa, sud tashqi boshqaruvchini tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilgan paytdan e’tiboran bir oylik muddat ichida tayinlaydi. Tashqi boshqaruvchini tayinlash to‘g‘risida sud ajrim chiqaradi.

2. Tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlashga oid qarorni qabul qilishda birinchi va ikkinchi guruh kreditorlari ishtirok etishi kerak. Qonunning 13-moddasi birinchi qismiga ko‘ra, birinchi guruhga qarzdorning garov bilan ta’minlangan majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar kirsa, ikkinchi guruhga qarzdorga nisbatan garov bilan ta’minlanmagan shartnomalardan, mahsulot yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek, majburiy sug‘urta va bank kreditlarini sug‘urta qilish shartnomalaridan kelib chiqadigan talablar bo‘yicha kreditorlar taalluqlidir.

3. Tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qaror, agar birinchi va ikkinchi guruhlardagi kreditorlarning ko‘pchiligi uni yoqlab ovoz bersa, qabul qilingan deb hisoblanadi. Ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan va tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlashga qarshi ovoz bergan kreditor yoki kreditorlar kelajakda qarzdor bankrot deb topilib, tugatishga doir ish yuritish taomili qo‘llangan taqdirda eng kamida olishi mumkin bo‘lgan kafolatli tovonga teng tovon olishga haqli bo‘ladi. Bu norma shuni anglatadiki, agar kreditor tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlashga qarshi ovoz bergan bo‘lsa, uning manfaatlari himoya qilinadi. Ya’ni agar keyinchalik qarzdor tugatilganida u qancha mablag‘ni olishi mumkin bo‘lsa (kafolatli minimal summa), tashqi boshqaruv rejasi amalga oshirilganda ham kamida shu miqdorda tovon olish huquqiga ega bo‘ladi. Bu qoida kreditorni rejaga qarshi chiqqanligi uchun zarar ko‘rishdan himoya qiladi va uning huquqlarini ta’minlaydi.

4. Agar birinchi va ikkinchi guruhlarning har birida tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash bo‘yicha qaror qabul qilmasa yoki zarur miqdordagi ovozlar to‘planmasa, kreditor yig‘ilishida qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilingan deb hisoblanadi. Qonunning 13-moddasi birinchi qismiga ko‘ra, birinchi guruhga qarzdorning garov bilan ta’minlangan majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar kirsa, ikkinchi guruhga qarzdorga nisbatan garov bilan ta’minlanmagan shartnomalardan, mahsulot yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek, majburiy sug‘urta va bank kreditlarini sug‘urta qilish shartnomalaridan kelib chiqadigan talablar bo‘yicha kreditorlar taalluqlidir. Qonunning 17-moddasi birinchi qismiga ko‘ra, ovozga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha kreditorlar yig‘ilishining qarorlari yig‘ilishda hozir bo‘lgan ovoz berish huquqiga ega kreditorlarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, har bir kreditorlar guruhida ko‘pchilik ovoz bilan ma’qullangan taqdirda tashqi boshqaruv rejasi tasdiqlanadi, aks holda, qarzdor bankrot deb topilib, tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili qo‘llaniladi.

5. Ushbu normaga ko‘ra, tashqi boshqaruv rejasiga o‘zgartish kiritish masalasi bo‘yicha qaror faqat birinchi va ikkinchi guruh kreditorlarining har biri alohida ko‘pchilik ovoz bilan ma’qullagan taqdirdagina qabul qilingan hisoblanadi. Masalan, birinchi guruh kreditorlari o‘zgartishni qo‘llab-quvvatlagan, ammo ikkinchi guruhda ko‘pchilik qarshi

ovoz bergan bo‘lsa, bunday qaror qabul qilinmagan deb hisoblanadi. Bu tartib kreditorlar manfaatlari muvozanatini ta’minlash, ayrim guruhlar manfaatining ustun qo‘yilishiga yo‘l qo‘ymaslik va tashqi boshqaruv rejasiga kiritilayotgan o‘zgartishlarning barcha asosiy kreditorlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

6. Mazkur moddaning oltinchi qismi tashqi boshqaruv rejasida qanday ma’lumotlar aks etishi lozimligini tartibga soladi. Unda qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar, ularni amalga oshirish shartlari, tartibi va xarajatlari hamda qarzdorning boshqa xarajatlari, to‘lov qobiliyatini tiklash muddati nazarda tutilishi kerak.

7. Qarzdorning to‘lov qobiliyati, agar Qonunning 5-moddasida belgilangan to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari bartaraf etilganda va (yoki) kreditorlar talablaridan voz kechganda, tiklangan deb hisoblanadi. Qonunning 5-moddasiga muvofiq, doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik – agar sudga ariza berish sanasidagi va ariza berilgan yilning boshidagi hisobot davrida, agarda ariza yilning birinchi choragida berilgan bo‘lsa, o‘tgan yilning boshidagi hisobot davrida qarzdorning majburiyatlari uning aktivlari qiymatidan oshib ketgan bo‘lsa. Mazkur alomat bartaraf etilganligi qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklangan deb hisoblashga imkon beradi. Vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizlikning bartaraf etilishi to‘lov qobiliyati tiklanganligini anglatmaydi.

8. Ushbu normaga ko‘ra, tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlashga qarshi bo‘lgan kreditorlar o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida mustaqil ekspertlarni jalb etib, tashqi boshqaruv rejasining qonuniyligi va iqtisodiy asoslanganligini tekshirtirish huquqiga ega. Xususan, ekspertlar kreditorlarga qarzdor tugatilgan taqdirda olinishi mumkin bo‘lgan kafolatli to‘lovdan kam bo‘lmagan tovon berilayotganini, tashqi boshqaruv rejasini amalga oshirish real va samarali ekanini hamda garov bilan ta’minlangan kreditorlarning boshqa kreditorlarga nisbatan ustunlik huquqlari saqlanayotganini baholaydi. Masalan, kreditor tashqi boshqaruv rejasi natijasida o‘z talablari kamaytirilishi mumkin deb hisoblasa, u ekspert orqali rejaning iqtisodiy oqibatlarini tahlil qildirishi mumkin. Shu tariqa, ushbu norma kreditorlarga tashqi boshqaruv rejasi yuzasidan mustaqil baholash imkoniyatini berish orqali ularning huquqlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

9. Agar tashqi boshqaruv rejasida qarzdor talabini kamaytirish yoki hisobdan chiqarish nazarda tutilgan bo‘lsa, bu harakat Qonunning 100-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi. Qonunning 100-moddasi o‘n sakkizinchi – yigirma birinchi qismlariga ko‘ra, sud sanatsiyasi rejasida qarzdorni qarzlardan to‘liq yoki qisman ozod qilish yoxud ularni o‘zgartirish nazarda tutilishi mumkin. Qarzdorni qarzlardan to‘liq yoki qisman ozod qilish yoxud ularni o‘zgartirish barcha kreditorlarning roziligi bilan amalga oshiriladi. Agar biror-bir kreditor qarzdorning qarzlardan to‘liq yoki qisman ozod qilinishiga yoki ularning o‘zgartirilishiga qarshi bo‘lsa, qolgan kreditorlar unga talabni kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq sotib olish bo‘yicha taklif berishga haqli. Qarzdorning qarzlardan to‘liq yoki qisman ozod qilinishiga yoki ularning o‘zgartirilishiga qarshi bo‘lgan kreditor qolgan kreditorlar tomonidan taklif etilgan shartlarni qabul qilishi shart.

10. Tashqi boshqaruvchi kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasining talabiga binoan tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayoni haqida kreditorlarga hisobot be-

radi. Qonunning 115-moddasida tashqi boshqaruvchining majburiyatlari qayd etilgan bo‘lib, unga ko‘ra, tashqi boshqaruvchi kreditorlarning yig‘ilishiga tashqi boshqaruv rejasi bajarilishining borishi va yakunlari haqida hisobotlar taqdim etishi shart.

11. Tashqi boshqaruv rejasini amalga oshirish qarzdorning xo‘jalik faoliyati tugatilishiga olib kelmasligi lozim. Bunda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilganidan keyin yuzaga kelgan pul majburiyatlarini qanoatlantirish va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatni bajarish vazifasi qarzdorning mol-mulkini sotib oluvchiga o‘tadigan hollar mustasno. Qonunning 126-moddasida qarzdorning korxonasini (biznesini) mulkiy majmua sifatida sotish nazarda tutilgan bo‘lib, bu kreditorlarning talablarini qanoatlantirish maqsadida amalga oshiriladi. Korxona (biznes) mulkiy majmua sifatida sotilayotganida qarzdorning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga mo‘ljallangan barcha turdagi mol-mulki, shu jumladan, yer uchastkalari, binolari, inshootlari, uskunalari, inventari, xomashyosi, mahsuloti, talab qilish huquqlari, shuningdek, qarzdorning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalari (firma nomi, tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari), uning tovarlari, ishlari va xizmatlari, qarzdorga tegishli bo‘lgan boshqa mutlaq huquqlar o‘zga shaxslarga o‘tkaziladi. Korxona (biznes) mulkiy majmua sifatida sotilayotganda qarzdorning mol-mulkini baholash baholovchi tashkilot tomonidan o‘tkaziladi, uning xizmatiga qarzdorning mol-mulki hisobidan haq to‘lanadi. Qarang: Xalqaro sharh. 772-b.

123-modda. Tashqi boshqaruv rejasini ko‘rib chiqish

Tashqi boshqaruv rejasi kreditorlarning yig‘ilishida ko‘rib chiqiladi, yig‘ilish tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilgan paytdan e’tiboran ikki oydan kechiktirmay tashqi boshqaruvchi tomonidan chaqiriladi. Tashqi boshqaruvchi zaruratga qarab barcha kreditorlarga kreditorlar yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joy haqida xabar qiladi hamda mazkur yig‘ilish o‘tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin ularga tashqi boshqaruv rejasi bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta’minlaydi.

Kreditorlarning yig‘ilishida tashqi boshqaruvchi, qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining vakili hamda qarzdorning xodimlari vakili maslahat ovozi huquqi bilan ishtirok etish huquqiga ega.

Tashqi boshqaruv rejasi, agar yig‘ilishda ishtirok etayotgan kreditorlarning yarmidan ko‘prog‘i uni yoqlab ovoz bergan bo‘lsa, tasdiqlangan deb hisoblanadi.

Kreditorlarning yig‘ilishi quyidagi qarorlardan birini qabul qilishga haqli:

tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qaror;

tashqi boshqaruv rejasini rad etish hamda qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish haqidagi qaror;

tashqi boshqaruv rejasini rad etish hamda tashqi boshqaruvchini o‘z vazifasini bajarishdan bir vaqtning o‘zida tashqi boshqaruvchilikka tavsiya etilayotgan yangi nomzodni tasdiqlagan holda ozod qilish haqidagi tegishli iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish to‘g‘risidagi qaror. Mazkur qarorda tashqi boshqaruvning yangi rejasini ko‘rib chiqish uchun kreditorlarning keyingi yig‘ilishi chaqiriladigan sana nazarda tutilgan bo‘lishi va bu muddat kreditorlarning yig‘ilishi mazkur qarorni chiqargan kundan e’tiboran bir oydan oshmasligi kerak.

Kreditorlar yig‘ilishida tasdiqlangan tashqi boshqaruv rejasi va kreditorlar yig‘ilishining bayonnomasi kreditorlar yig‘ilishi o‘tkazilgan sanadan e’tiboran ikki kundan kechiktirmay tashqi boshqaruvchi tomonidan sudga taqdim etiladi.

Agar ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan muddatlarda sudga tashqi boshqaruv rejasi taqdim etilmagan bo‘lsa, sud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qaror qabul qilishga haqli.

Sharhlanayotgan moddada tashqi boshqaruv rejasini kreditorlar yig‘ilishida ko‘rib chiqish, uni tasdiqlash yoki rad etish tartibi, yig‘ilish ishtirokchilari va ovoz berish qoidalari, shuningdek, reja sudga o‘z vaqtida taqdim etilmagan taqdirda qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash mumkinligi belgilangan.

1. Tashqi boshqaruv rejasi kreditorlarning yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilgan paytdan e’tiboran ikki oydan kechiktirmay tashqi boshqaruvchi tomonidan chaqiriladi. Kreditorlar yig‘ilishi o‘tkazilishidan kamida ikki hafta oldin kreditorlar uchun tashqi boshqaruv rejasi bilan tanishib chiqish imkoniyati yaratiladi. Tashqi boshqaruvchi zaruratga qarab barcha kreditorlarga kreditorlar yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joy haqida xabar qiladi.

2. Kreditorlar yig‘ilishida tashqi boshqaruvchi, qarzdorning muassislari (ishtirokchilarining), mol-mulk egalari va xodimlari vakillari ham maslahat ovozi bilan ishtirok etishi mumkin. Ushbu normaga ko‘ra, kreditorlar yig‘ilishida nafaqat kreditorlar, balki tashqi boshqaruvchi, qarzdorning muassislari (ishtirokchilari), mol-mulk egalari va xodimlar vakillari ham ishtirok etish huquqiga ega. Biroq ularning ishtiroki maslahat ovozi bilan cheklanadi, ya’ni ular muhokamalarda qatnashib, o‘z fikr va takliflarini bildirishi mumkin, lekin qaror qabul qilishda ovoz berish huquqiga ega emas. Bu tartib kreditorlarning manfaatlarini ustuvor deb hisoblashga qaratilgan bo‘lib, ayni paytda, boshqa manfaatdor shaxslarning pozitsiyasi ham inobatga olinishini ta’minlaydi.

3. Tashqi boshqaruv rejasi tasdiqlangan deb hisoblanadi, agar kreditorlar yig‘ilishida qatnashgan kreditorlarning yarmidan ko‘pchiligi uni yoqlab ovoz bergan bo‘lsa. Qonunning 122-moddasi uchinchisi qismiga ko‘ra, kreditorlar yig‘ilishining tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash haqidagi qarori, agar uni birinchi va ikkinchi guruhlarning har biridagi kreditorlarning ko‘pchiligi yoqlab ovoz bersa, qabul qilingan deb hisoblanadi. Bunda ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan va tashqi boshqaruv rejasini

tasdiqlashga qarshi ovoz bergan kreditor yoki kreditorlar qarzdor tugatilgan taqdirda eng kamida olishi mumkin bo‘lgan kafolatli tovonga teng tovon olishga haqlidir.

4. Tashqi boshqaruv rejasini ko‘rib chiqqanidan so‘ng kreditorlar yig‘ilishi quyidagi qarorlardan birini qabul qilishga haqli: tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qaror; tashqi boshqaruv rejasini rad etish hamda qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish haqidagi qaror; tashqi boshqaruv rejasini rad etish hamda tashqi boshqaruvchini o‘z vazifasini bajarishdan bir vaqtning o‘zida tashqi boshqaruvchilikka tavsiya etilayotgan yangi nomzodni tasdiqlagan holda ozod qilish haqidagi tegishli iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish to‘g‘risidagi qaror.

Tashqi boshqaruv rejasini rad etish hamda tashqi boshqaruvchini o‘z vazifasini bajarishdan bir vaqtning o‘zida tashqi boshqaruvchilikka tavsiya etilayotgan yangi nomzodni tasdiqlagan holda ozod qilish haqidagi tegishli iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish to‘g‘risidagi qarorda tashqi boshqaruvning yangi rejasini ko‘rib chiqish uchun kreditorlarning keyingi yig‘ilishi chaqiriladigan sana nazarda tutilgan bo‘lishi va bu muddat kreditorlarning yig‘ilishi mazkur qarorni chiqargan kundan e’tiboran bir oydan oshmasligi lozim.

5. Ushbu normaga ko‘ra, kreditorlar yig‘ilishida ma’qullangan tashqi boshqaruv rejasi hamda yig‘ilish bayonnomasi tashqi boshqaruvchi tomonidan ikki kun ichida sudga taqdim qilinishi shart. Masalan, agar kreditorlar yig‘ilishi 10-may kuni o‘tkazilib, tashqi boshqaruv rejasi tasdiqlangan bo‘lsa, tashqi boshqaruvchi ushbu hujjatlarni eng kechi bilan 12-mayga qadar sudga kiritishi lozim. Bu tartib tashqi boshqaruv jarayoni ustidan sud nazoratini ta’minlash, qabul qilingan qarorlarni rasmiylashtirish va ish yuritishni kechiktirmasdan davom ettirishga xizmat qiladi.

6. Ushbu normaga ko‘ra, agar kreditorlar yig‘ilishida tashqi boshqaruv rejasi tasdiqlangan bo‘lsa-da, tashqi boshqaruvchi uni belgilangan ikki kunlik muddatda sudga kiritmagan taqdirda, sud bu holatni tashqi boshqaruv tartib-taomilining samarasizligi sifatida baholashi mumkin. Bu norma tashqi boshqaruvchi zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarishni ta’minlash, ish yuritishni sun’iy kechiktirishning oldini olish va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 772-b.

124-modda. Tashqi boshqaruvning muddatini uzaytirish

Kreditorlarning yig‘ilishi tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash to‘g‘risida qaror qabul qilgan va unda nazarda tutilgan tashqi boshqaruv tartib-taomilining muddati belgilangan dastlabki muddatdan ortiq bo‘lgan taqdirda, agar tashqi boshqaruv tartib-taomili muddatini uzaytirish yoki tashqi boshqaruvning tasdiqlangan rejasini amalga oshirish qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanishiga olib keladi deb hisoblash uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lsa, sud tashqi boshqaruvning tartib-taomili muddatini uzaytirish haqida ajrim chiqaradi. Bunday hollarda umumiy muddat ushbu Qonunning 108-moddasida belgilangan muddatlardan oshib ketmasligi kerak.

Sharhlanayotgan modda tashqi boshqaruvning muddatini uzaytirish tartibini belgilaydi. Qonunda sud tomonidan belgilangan tashqi boshqaruv muddatidan uzoqroq muddatni tashqi boshqaruv rejasiga kiritishni taqiqlovchi qoida mavjud emas. Kreditorlar yig‘ilishi sud tomonidan belgilangan tashqi boshqaruv muddatidan uzoq muddatni tashqi boshqaruv rejasiga kiritishga haqli. Agar tashqi boshqaruv muddatini uzaytirish tashqi boshqaruv rejasida ko‘zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga va qarzdor to‘lovga qobiliyatini tiklashga imkon beradi degan xulosaga kelinsa, kreditorlar yig‘ilishining iltimosnomasi asosida sud tomonidan tashqi boshqaruv muddati uzaytirilishi mumkin. Biroq bunday uzaytirish Qonunning 108-moddasida belgilangan tashqi boshqaruvning umumiy muddatidan – yigirma to‘rt oydan oshmasligi kerak. Agar tashqi boshqaruv joriy qilingunga qadar qarzdorga nisbatan sud sanatsiyasi tartib-taomili qo‘llanilgan bo‘lsa, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruvning jami muddati o‘ttiz oydan oshmasligi lozim. Qarang: Xalqaro sharh. 772-b.

125-modda. Qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash chora-tadbirlari

Tashqi boshqaruv rejasida qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash yuzasidan quyidagi chora-tadbirlar nazarda tutilishi mumkin:

ishlab chiqarishni qayta ixtisoslashtirish;

norentabel ishlab chiqarishlarni yopish;

debitorlik qarzlarini undirish;

qarzdor mol-mulkining bir qismini sotish;

qarzdorning talabidan o‘zganing foydasiga voz kechish;

qarzdorning majburiyatlarini uchinchi shaxslar tomonidan bajarish;

qarzdorning qo‘shimcha aksiyalarini joylashtirish;

qarzdorning korxonasini (biznesini) mulkiy majmua sifatida sotish;

tijorat banklaridan, moliya institutlaridan qarz olish, shuningdek, qarzdorning faoliyatini davom ettirishidan manfaatdor bo‘lgan shaxslardan mablag‘lar jalb etish;

aksiyadorlik jamiyatining ustav fondini (ustav kapitalini) kreditorlik qarzdorligi hisobiga ko‘paytirish (qarzdorlikni aksiyaga ayirboshlash) to‘g‘risidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etayotgan, ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlarning to‘rtdan uch qismidan iborat ko‘pchilik (malakali ko‘pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi;

qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish.

Tashqi boshqaruv rejasida qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashning boshqa chora-tadbirlari ham nazarda tutilishi mumkin.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan chora-tadbirlardan tashqari vakolatli davlat organining taqdimnomasiga binoan sud ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan qarzdorning faoliyat ko‘rsatmayotgan obyektlarini konservatsiya qilish to‘g‘risida ajrim chiqarishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada tashqi boshqaruv rejasi doirasida qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash uchun ishlab chiqarishni qayta tashkil etish, mol-mulkni sotish, debitorlik qarzlarini undirish, investitsiya va qarz mablag‘larini jalb qilish, qarzdorlikni aksiyalarga ayirboshlash hamda boshqa iqtisodiy va tashkiliy chora-tadbirlarni qo‘llash mumkinligi belgilangan.

1. Ushbu normaga ko‘ra, tashqi boshqaruv rejasida qarzdor korxonaning to‘lov qobiliyatini tiklash va uning moliyaviy ahvolini sog‘lomlashtirish uchun turli iqtisodiy, tashkiliy hamda moliyaviy chora-tadbirlar qo‘llanilishi mumkin. Xususan, zarar bilan ishlayotgan yo‘nalishlarni yopish, ishlab chiqarishni bozor talabiga mos ravishda qayta ixtisoslashtirish, debitorlik qarzlarini undirish yoki qarzdor mol-mulkining bir qismini sotish orqali qo‘shimcha mablag‘ jalb etish nazarda tutilishi mumkin. Masalan, korxona foyda keltirmayotgan sexni yopib, uning uskunalarini sotish hisobiga kreditorlar oldidagi qarzlarni qisman qoplashi mumkin. Shuningdek, qo‘shimcha aksiyalar chiqarish, bank kreditlari yoki investor mablag‘larini jalb qilish, qarzdorlikni aksiyalarga ayirboshlash kabi mexanizmlar orqali korxonaning moliyaviy barqarorligini tiklash imkoniyati yaratiladi. Ushbu norma tashqi boshqaruv jarayonida qarzdorni tugatmasdan, uning faoliyatini saqlab qolish va kreditorlar talablarini imkon qadar qondirishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni belgilaydi.

2. Ushbu normaga ko‘ra, qonunda sanab o‘tilgan chora-tadbirlar tashqi boshqaruv rejasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan yagona vositalar hisoblanmaydi va qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash uchun boshqa samarali iqtisodiy yoki tashkiliy choralar ham nazarda tutilishi mumkin. Masalan, korxonani boshqarish tizimini isloh qilish, yangi investor jalb etish, ijara munosabatlarini qayta ko‘rib chiqish yoki xarajatlarni optimallashtirish kabi chora-tadbirlar ham tashqi boshqaruv rejasiga kiritilishi mumkin. Ushbu norma tashqi boshqaruvchiga va kreditorlarga qarzdorning moliyaviy ahvolidan kelib chiqib eng maqbul va samarali tiklash mexanizmlarini qo‘llash imkonini beradi.

3. Sud vakolatli davlat organining taqdimnomasiga binoan ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan qarzdorning faoliyat ko‘rsatmayotgan obyektlarini konservatsiya qilish to‘g‘risida ajrim chiqarishi mumkin. Faoliyat ko‘rsatmayotgan obyektlarni konservatsiya qilish korxona yoki tashkilotga tegishli ishlab chiqarish binolari, uskunalar yoki boshqa aktivlar vaqtincha ishlatilmayotganda ularni saqlash, buzilishdan himoya qilish va kelgusida qayta foydalanish imkoniyatini saqlab qolishga qaratilgan tashkiliy va texnik chora-tadbirlar majmuasidir. Ya’ni bunda obyekt to‘liq yopib qo‘yilmaydi yoki tugatilmaydi, balki maxsus tartibda «muzlatib qo‘yiladi»: uskunalar tozalanadi, himoyalanadi, kommunikatsiyalar xavfsiz holatga keltiriladi. Qarang: Xalqaro sharh. 772-b.

126-modda. Qarzdorning korxonasini (biznesini) mulkiy majmua sifatida sotish

Kreditorlarning talablarini qanoatlantirish maqsadida tashqi boshqaruv rejasida qarzdorning korxonasini (biznesini) mulkiy majmua sifatida sotish nazarda tutilishi mumkin.

Korxona (biznes) mulkiy majmua sifatida sotilayotganida qarzdorning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga mo‘ljallangan barcha turdagi mol-mulki, shu jumladan, yer uchastkalari, binolari, inshootlari, uskunalari, inventari, xomashyosi, mahsuloti, talab qilish huquqlari, shuningdek, qarzdorning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalari (firma nomi, tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari), uning tovarlari, ishlari va xizmatlari, qarzdorga tegishli bo‘lgan boshqa mutlaq huquqlar o‘zga shaxslarga o‘tkaziladi, bundan boshqa shaxslarga topshirilishi mumkin bo‘lmagan huquq va majburiyatlar mustasno.

Korxona (biznes) mulkiy majmua sifatida sotilayotganda qarzdorning mol-mulkini baholash baholovchi tashkilot tomonidan o‘tkaziladi, uning xizmatiga qarzdorning mol-mulki hisobidan haq to‘lanadi. Baholovchi tashkilot kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Agar qarzdorning hisobvarag‘idagi pul mablag‘i uning mol-mulkini baholash uchun yetarli bo‘lmasa, tashqi boshqaruvchi bu haqida kreditorlarni xabardor qilishi kerak. Bunday holda qarzdorning mol-mulkini baholash bo‘yicha xarajatlar kreditorlar tomonidan amalga oshiriladi va ushbu xarajatlar qarzdor korxona mol-mulkining sotilishi natijasida qarzdorning hisobvarag‘iga kelib tushgan mablag‘lar hisobidan, ushbu Qonun 150-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan tartibda navbatdan tashqari qoplanadi.

Zarur bo‘lgan taqdirda, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar qarzdorning mol-mulkini baholash haqidagi hisobotning haqqoniyligini ekspertizadan o‘tkazishni talab qilishi mumkin.

Tashqi boshqaruvchi korxonani (biznesni) kreditorlar yig‘ilishining roziligi bilan bir yildan ortiq bo‘lmagan muddatda bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan mulkiy majmua sifatida realizatsiya qilishga, basharti xaridor o‘ziga xizmat ko‘rsatuvchi bankning tegishli kafolatini taqdim etsa, haqli bo‘ladi.

Korxona (biznes) mulkiy majmua sifatida sotilayotganda korxona (biznes) sotilayotgan paytda amalda bo‘lgan barcha mehnat shartnomalari o‘z kuchini saqlab qoladi, ish beruvchining huquq va majburiyatlari esa korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotib oluvchi ixtiyoriga o‘tadi.

Korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotish, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi o‘tkazish vositasida amalga oshiriladi. Elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosini o‘tkazish shartlari kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

Agar korxona (biznes) tarkibida muomalada bo‘lishi cheklangan mol-mulk bo‘lsa, korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotish qonunga muvofiq mazkur mol-mulkka mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida ega bo‘la oladigan shaxslar ishtirokida elektron onlayn-auksion shaklidagi yopiq kimoshdi savdolarini o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosiga qo‘yiladigan korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotishning boshlang‘ich narxi, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, korxonaning mol-mulkini baholovchi tashkilot o‘tkazgan baholash hisobga olingan holda kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi qarori bilan belgilanadi.

Elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosini o‘tkazish shartlarida korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotishdan tushgan pul mablag‘larining tashqi boshqaruv tartib-taomili muddati tugashidan kamida o‘ttiz kun oldin qarzdor tomonidan olinishi nazarda tutilishi kerak.

Tashqi boshqaruvchi elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosini tashkil etish uchun ixtisoslashtirilgan tashkilotni jalb etadi va uning xizmatiga qarzdorning mol-mulki hisobidan haq to‘laydi. Elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosini o‘tkazuvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot qarzdorga hamda tashqi boshqaruvchiga nisbatan manfaatdor shaxs bo‘lishi mumkin emas va kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi bilan kelishilgan bo‘lishi kerak.

Ixtisoslashtirilgan tashkilot:

o‘z rasmiy veb-saytida elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi o‘tkazilishi to‘g‘risidagi xabarni e’lon qiladi;

elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida qatnashish uchun ishtirokchilardan elektron buyurtmalarni qabul qiladi;

elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosini tashkillashtirishda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlaydi;

kimoshdi savdosi g‘olibini aniqlaydi va savdo natijalari haqidagi bayonnomani rasmiylashtiradi.

Korxonaning (biznesning) mulkiy majmua sifatida elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida sotilishi to‘g‘risidagi e’lon ommaviy axborot vositalarida kimoshdi savdosi o‘tkaziladigan sanadan kamida o‘ttiz kun oldin berilishi kerak. Korxona (biznes) mulkiy majmua sifatida elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida sotilishi haqidagi e’londa quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

mulkiy majmua sifatida sotilayotgan korxona (biznes) to‘g‘risidagi ma’lumotlar va u bilan tanishish tartibi;

elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida ishtirok etish muddatlari, vaqti va savdolar tashkilotchisining veb-sayti;

korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotishning boshlang‘ich narxi;

elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosini o‘tkazish vaqti va uning yakunlarini chiqarish hamda savdo tashkilotchisining veb-sayti;

oldi-sotdi shartnomasini tuzishning hamda to‘lovlarning shartlari va muddatlari.

Korxonaning (biznesning) mulkiy majmua sifatida elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida sotilishi haqidagi e’londa qonunchilikka muvofiq boshqa axborot ham bo‘lishi mumkin.

Agar korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida sotish to‘g‘risidagi e’londa ko‘rsatilgan muddat ichida bitta ham buyurtma kelib tushmasa yoki bitta ishtirokchidan buyurtma tushgan bo‘lsa, kimoshdi savdosi amalga oshmagan deb topiladi va ushbu moddaning o‘ninchi – o‘n uchinchi qismlarida nazarda tutilgan shartlarda takroriy elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi o‘tkaziladi. Korxona (biznes) mulkiy majmua sifatida birinchi elektron onlayn--auksion shaklidagi kimoshdi savdosida sotilmagan hollarda ham takroriy elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi o‘tkaziladi.

Takroriy elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosini o‘tkazish maqsadida tashqi boshqaruvchi kreditorlar yig‘ilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining qaroriga muvofiq korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotish haqidagi yangi xabarni amalga oshmagan deb topilgan yoki korxona (biznes) mulkiy majmua sifatida sotilmagan elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosining sanasidan e’tiboran o‘n besh kun ichida, ushbu Qonunning mazkur moddasida va 54-moddasida nazarda tutilgan tartibda e’lon qiladi. Bunda elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi xabar e’lon qilingan sanadan e’tiboran kamida o‘n besh kunlik muddat o‘tgach o‘tkaziladi. Korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotish narxi kreditorlar yig‘ilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining qaroriga ko‘ra bosqichma-bosqich pasaytirilishi mumkin, bunda pasaytirish miqdori avvalgi kimoshdi savdosidagi narxning o‘n foizidan ko‘p bo‘lmasligi kerak. Agar mulkiy majmua sifatida sotilayotgan korxona (biznes) dastlabki savdodagi boshlang‘ich narxidan yigirma foizgacha kamaytirilgan narxda sotilmasa, keyingi takroriy savdoning boshlang‘ich narxi kreditorlar yig‘ilishi bilan kelishilgan holda belgilanishi mumkin. Bunda pasaytirish miqdori dastlabki savdodagi boshlang‘ich narxdan ellik foizdan oshmasligi kerak.

Mulkiy majmua sifatida sotilayotgan korxonaning (biznesning) oldi-sotdi shartnomasi elektron onlayn kimoshdi savdosi g‘olibi bilan tashqi boshqaruvchi o‘rtasida elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi yakunlari e’lon qilingan kundan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay tuziladi. Elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida g‘olib chiqqan shaxs va kimoshdi savdosining tashkilotchisi kimoshdi savdosi o‘tkazilgan kuni ana shu savdoning natijalari to‘g‘risidagi bayonnomani rasmiylashtiradi va ushbu bayonnoma shartnoma kuchiga ega bo‘ladi. Elektron onlayn-auksion shaklidagi

kimoshdi savdosida g‘olib chiqqan shaxs elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi bayonnomasini yoki oldi-sotdi shartnomasini imzolashdan bosh tortgan taqdirda o‘zi to‘lagan zakalatdan mahrum bo‘ladi. Zakalat summasi elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi tashkilotchilarining ushbu tadbirni o‘tkazishga ketgan chiqimlari chegirib tashlangan holda qarzdorning aktivlari tarkibiga kiritiladi.

Agar korxona (biznes) ushbu moddaning o‘n to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan shartlar asosida mulkiy majmua sifatida sotilmagan bo‘lsa, tashqi boshqaruvchi, agar ushbu Qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, kreditorlar yig‘ilishi qaroriga binoan korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida ommaviy oferta savdosiga qo‘yishi va ommaviy axborot vositasida ommaviy oferta to‘g‘risidagi taklif e’lon qilingach, kamida o‘n besh kundan keyin uning uchun eng yuqori narxni taklif qilgan shaxs bilan korxonaning (biznesning) oldi-sotdi shartnomasini tuzishi mumkin.

Ommaviy oferta savdosiga qo‘yish haqidagi qaror kreditorlarning uchdan ikki qismi uni yoqlab ovoz bergan taqdirda qabul qilingan deb hisoblanadi, ofertaga taklif etilgan korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotishdagi boshlang‘ich narx esa ilgarigi elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida belgilangan boshlang‘ich narxdan kam bo‘lmasligi kerak.

Korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotishdan olingan summa hisobidan kreditorlarning talablarini qarzdor to‘la hajmda qanoatlantirish imkoniyatiga ega bo‘lgan hollarda, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish tashqi boshqaruvchining arizasiga binoan sud tomonidan tugatilishi lozim.

Agar korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotishdan tushgan summa kreditorlar talablarini to‘la hajmda qanoatlantirish uchun yetarli bo‘lmasa, tashqi boshqaruvchi kreditorlarga kelishuv bitimi tuzishni taklif qiladi. Kelishuv bitimiga erishilmagan taqdirda, sud tashqi boshqaruvchining arizasiga binoan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotishdan olingan mablag‘lar ushbu Qonunning 149-, 150- va 185-moddalarida nazarda tutilgan navbat tartibida taqsimlanadi.

Sharhlanayotgan modda to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida qarzdor korxonasini (biznesini) mulkiy majmua sifatida sotish tartibi, shartlari va huquqiy oqibatlarini belgilaydi. Unga ko‘ra, kreditorlar talablarini qanoatlantirish maqsadida korxonaning barcha aktivlari (mol-mulk, huquqlar, brendlar va boshqalar) yagona kompleks sifatida asosan elektron onlayn-auksion orqali sotiladi, bunda baholash, savdoni tashkil etish, ishtirokchilarni jalb qilish va shaffoflik talablari qat’iy belgilanadi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash yoki kreditorlarning talablarini qanoatlantirish maqsadida qarzdorning korxonasi yoki biznesi butunlay mulkiy majmua sifatida sotilishi mumkinligi ta’kidlanadi. Bunda qarz-

dorning ishlab chiqarish faoliyati va aktivlarini (masalan, bino, uskunalar, mijozlar bazasi) birgalikda sotish orqali moliyaviy zaxiralar to‘plash nazarda tutiladi. Qonunning 125-moddasi birinchi qismiga asosan, tashqi boshqaruv rejasida qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash uchun qarzdorning korxonasini (biznesini) mulkiy majmua sifatida sotish keltirilishi mumkin. FKning 85-moddaga muvofiq, butun korxona mulkiy kompleks sifatida ko‘chmas mulk hisoblanadi. Butun korxona yoki uning qismi olish-sotish, garovga qo‘yish, ijara hamda ashyoviy huquqlarni belgilash, o‘zgartirish va bekor qilish bilan bog‘liq boshqa bitimlarning obyekti bo‘lishi mumkin.

Mol-mulkni bu tarzda sotish qarzdorning qarzlarni to‘lashga yoki moliyaviy holatini yaxshilashga imkon beradi, shu yo‘l bilan kerakli mablag‘lar to‘planishi mumkin.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismga muvofiq, korxona (biznes) mulkiy majmua sifatida sotilayotganida qarzdorning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga mo‘ljallangan barcha turdagi mol-mulki, shu jumladan, yer uchastkalari, binolari, inshootlari, uskunalari, inventari, xomashyosi, mahsuloti, talab qilish huquqlari, shuningdek, qarzdorning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalari (firma nomi, tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari), uning tovarlari, ishlari va xizmatlari, qarzdorga tegishli bo‘lgan boshqa mutlaq huquqlar o‘zga shaxslarga o‘tkaziladi. Biroq ayrim huquqlar va majburiyatlar o‘tkazilmaydi. Masalan, FKning 314-moddasiga ko‘ra, kreditorning shaxsi bilan chambarchas bog‘langan huquqlarning, xususan, alimentlar to‘g‘risidagi va hayotga yoki sog‘liqqa yetkazilgan zararni to‘lash to‘g‘risidagi talablarning boshqa shaxsga o‘tishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotishga xizmat qiluvchi baholovchi tashkilotning zarurligini belgilaydi. Baholovchi tashkilot korxona mol-mulkining bozor qiymatini aniqlaydi. «Baholash faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 7-moddasiga muvofiq, baholash obyektining bozor qiymati deganda eng ehtimol tutilgan narxi tushunilib, unga ko‘ra, mazkur baholash obyektining ochiq bozorda raqobat sharoitida, bitimning taraflari barcha zarur axborotga ega bo‘lgan holda o‘z manfaatlari yo‘lida oqilona va ixtiyoriy ravishda harakat qiladi, bitim narxining baland-pastligida esa favqulodda holatlar, shu jumladan, taraflardan birining ushbu bitimga qo‘shilish majburiyati aks etmaydi. Baholovchi tashkilot xizmat haqi qarzdor mol-mulki hisobidan to‘lanadi. Baholovchi tashkilot kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

4. Agar qarzdorning hisobvarag‘ida uning mol-mulkini baholash uchun yetarli mablag‘ mavjud bo‘lmasa, tashqi boshqaruvchi kreditorlarga bu haqida xabar berishi kerak. Bunday vaziyatda mol-mulkni baholash xarajatlari kreditorlar tomonidan qoplanadi. Ushbu xarajatlar qarzdor korxona mol-mulkining sotilishi natijasida qarzdorning hisobvarag‘iga kelib tushgan mablag‘lar hisobidan, ushbu Qonun 150-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan tartibda navbatdan tashqari qoplanadi. Qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganidan keyin yuzaga kelgan joriy to‘lov majburiyatlari bo‘yicha talablar navbatdan tashqari qanoatlantiriladi.

5. Agar qarzdorning mol-mulkini baholash haqidagi hisobotga ishonchsizlik yuzaga kelsa, ishda ishtirok etuvchi shaxslar baholovchi tashkilotning hisoboti haqqoniyligini tekshirish uchun ekspertizani o‘tkazishni talab qilish huquqiga ega. Qonunning 38-mod-

dasiga asosan, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar quyidagilardan iborat: qarzdor; sud boshqaruvchisi; kreditorlar, ular tomonidan qarzdorga ushbu Qonunda belgilangan tartibda talablar taqdim etilgan paytdan e’tiboran; vakolatli davlat organi; qarzdorning majburiyatlari bo‘yicha ta’minot bergan shaxs.

6. Tashqi boshqaruvchi kreditorlar yig‘ilishining roziligi bilan korxonani mulkiy majmua sifatida bir yildan ortiq bo‘lmagan muddatda bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan mulkiy majmua sifatida realizatsiya qilishi (sotishi) mumkin. Bunday realizatsiya xaridorga xizmat ko‘rsatuvchi bankning kafolati orqali amalga oshiriladi. FKning 299-moddasiga muvofiq, kafolatga binoan bank, boshqa kredit muassasasi yoki sug‘urta tashkiloti (kafil) boshqa shaxs (prinsipal)ning iltimosiga ko‘ra kafil o‘z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq prinsipalning kreditori (benefitsiar) pul summasini to‘lash haqida yozma talabnoma taqdim etsa, pulni unga to‘lash haqida prinsipalga yozma majburiyat beradi.

7. Korxona sotilayotgan paytda barcha amaldagi mehnat shartnomalari o‘z kuchini saqlab qoladi. Bu ishchilarning huquqlarini himoya qilish va ularni noqonuniy uzilishlardan muhofaza qilish uchun zarur. Shu bilan birga, ish beruvchining huquq va majburiyatlari korxonani sotib oluvchiga o‘tadi.

8. Korxona mulkiy majmua sifatida sotiladigan bo‘lsa, bu savdo elektron onlayn-auksion shaklida o‘tkaziladi. Auksion o‘tkazish shartlari kreditorlar yig‘ilishi yoki qo‘mitasi tomonidan belgilanadi, ya’ni ular savdoning qanday tartibda o‘tkazilishini belgilashadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvardagi 18-son qarori bilan tasdiqlangan «E-auksion» elektron savdo platformasida elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 2-bandiga asosan, «E-auksion» elektron savdo platformasi elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o‘tkazish uchun zarur axborotni kiritish, saqlash va qayta ishlash, shuningdek, istagi bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning bunday auksion va tanlovlar jarayoniga kirish hamda ularda qatnashish imkonini ta’minlaydigan axborot tizimidir.

«E-auksion» elektron savdo platformasida elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

elektron onlayn-auksion o‘tkazilishi haqidagi xabarni e’lon qilish, uni o‘tkazish, o‘tkazilmagan deb hisoblash va takroriy auksionni o‘tkazish, elektron onlayn-auksion bo‘yicha hisob-kitob qilish hamda uning natijalarini rasmiylashtirish tartibi;

sud hujjatlari va boshqa organlarning hujjatlari ijrosini ta’minlashda xatlangan mol-mulkni, shuningdek, yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqini «E-auksion» elektron savdo platformasida sotish tartibining o‘ziga xos xususiyatlari;

elektron tanlov o‘tkazilishi haqidagi xabarni e’lon qilish, uni o‘tkazish, o‘tkazilmagan deb hisoblash va takroriy tanlovni o‘tkazish, tanlov natijalarini rasmiylashtirish va hisob-kitob qilish tartibi;

lotni elektron onlayn-auksiondan (tanlovdan) qaytarib olish tartibi va muddatlari.

Agar korxona (biznes) ushbu moddaning o‘n to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan shartlar asosida mulkiy majmua sifatida sotilmagan bo‘lsa, tashqi boshqaruvchi, agar ushbu Qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, kreditorlar yig‘ilishi qaroriga binoan korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida ommaviy oferta savdosi-

ga qo‘yishi va ommaviy axborot vositasida ommaviy oferta to‘g‘risidagi taklif e’lon qilingach, kamida o‘n besh kundan keyin uning uchun eng yuqori narxni taklif qilgan shaxs bilan korxonaning (biznesning) oldi-sotdi shartnomasini tuzishi mumkin.

9. Agar korxona (biznes) tarkibida muomalada bo‘lishi cheklangan mol-mulk bo‘lsa, korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotish qonunga muvofiq mazkur mol-mulkka mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida ega bo‘la oladigan shaxslar ishtirokida elektron onlayn-auksion shaklidagi yopiq kimoshdi savdolarini o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Yopiq kimoshdi savdosida bunga huquqi bo‘lgan shaxslar ishtirok etishlari mumkin. Yopiq auksion yoki tanlovni o‘tkazishda buyurtmachi ruxsat etilgan yuridik va jismoniy shaxslarning ma’lumotlarini (ularning ro‘yxati, shaxsiy ma’lumotlari, yashash hududi va boshqalar) oldindan buyurtmada ko‘rsatadi. Yopiq auksion yoki tanlovga taklif etilgan shaxslar belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tmagani yoxud yopiq auksion yoki tanlov savdolariga oid ma’lumotlar bilan tanishib chiqmagani uchun operator javobgar hisoblanmaydi.

FKning 82-moddasi birinchi qismiga ko‘ra, fuqarolik huquqlarining obyektlari erkin suratda boshqa shaxslarga berilishi yoki universal huquqiy vorislik (meros qilib olish, yuridik shaxsni qayta tashkil etish) tartibida yoxud boshqa usul bilan, agar ular muomaladan chiqarilmagan yoki ularning muomalada bo‘lishi cheklab qo‘yilmagan bo‘lsa, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tishi mumkin.

10. Elektron onlayn-auksionda savdoga qo‘yiladigan korxona (biznes)ning boshlang‘ich narxi korxonaning mol-mulkini baholovchi tashkilot o‘tkazgan baholash hisobga olingan holda kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi qarori bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvardagi 18-son qarori bilan tasdiqlangan «E-auksion» elektron savdo platformasida elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 2-bandiga asosan, boshlang‘ich narx auksion yoki tanlov obyektini savdoga qo‘yishda buyurtmachi tomonidan yoki ushbu Nizomda keltirilgan tartibga asosan belgilangan narxdir.

«Baholash faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 17-moddasiga muvofiq, baholash obyektini baholashdan o‘tkazish natijalari baholash to‘g‘risidagi hisobot bilan rasmiylashtiriladi. Baholash to‘g‘risidagi hisobotning har bir beti baholash obyektini baholashdan o‘tkazgan baholovchi (baholovchilar) tomonidan imzolanadi, hisobot baholovchi tashkilot rahbarining imzosi, mazkur tashkilotning muhri bilan (muhr mavjud bo‘lgan taqdirda) tasdiqlanadi va buyurtmachiga topshiriladi. Baholash obyektining hisobotda ko‘rsatilgan qiymati tavsiya xususiyatiga ega bo‘ladi.

11. Mazkur moddaning o‘n birinchi qismi korxonani sotishdan tushgan pul mablag‘lari qarzdorga qaysi muddatda topshirilishi haqidagi qoidaning savdoni o‘tkazish shartlarida qayd etish lozimligini belgilaydi. Elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosini o‘tkazish shartlarida korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotishdan tushgan pul mablag‘larining tashqi boshqaruv tartib-taomili muddati tugashidan kamida o‘ttiz kun oldin qarzdor tomonidan olinishi nazarda tutilishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvardagi 18-son qarori bilan tasdiqlangan «E-auksion» elektron savdo platformasida elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 8-bandi-

ga asosan, buyurtmachi va operator o‘rtasida ushbu Nizom talablaridan kelib chiqib auksion yoki tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha o‘zaro hamkorlik reglamenti imzolanishi mumkin. Bunda buyurtmachilar, davlatga tegishli bo‘lgan mol-mulk, yer uchastkalari hamda ularga tegishli bo‘lgan huquqlarni savdolarga chiqaruvchi buyurtmachilar bundan mustasno, o‘ziga tegishli bo‘lgan mulk yoki huquqni sotish (ijaraga berish) bo‘yicha auksion yoki tanlovni o‘tkazib berish yuzasidan operator bilan o‘zaro kelishilgan shartlar asosida shartnoma tuzishi mumkin. Mazkur Nizomning 47-bandiga muvofiq, operator auksion yoki tanlov natijalari deb e’tirof etiladigan elektron bayonnoma oldi-sotdi shartnomasi kuchiga ega bo‘lib, mulk va mulkiy huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun hamda oldi-sotdi (ijara) shartnomasi tuzish uchun asos hisoblanadi. Ushbu Nizomning 48-bandiga ko‘ra, auksion natijalari bo‘yicha pul mablag‘lari operatorning maxsus hisobvarag‘ida yig‘iladi va auksion g‘olibi (xaridor) tomonidan obyekt qabul qilinganligi tasdiqlangandan so‘ng buyurtmachining bank hisobvarag‘iga operator xizmat haqi ushlab qolingan holda o‘tkaziladi.

12. Tashqi boshqaruvchi mol-mulk savdosini tashkillashtirish uchun maxsus tashkilotlarni jalb qilish huquqiga ega. Bu tashkilotlar savdoni aniq va yuqori professional darajada tashkil etishga mas’ul. Ular uchun harakat qilish haqqoniy bo‘lishi kerak, ya’ni bu tashkilotlar manfaatdor shaxslar bo‘lmasligi, ya’ni ularning mol-mulk yoki qarzdor bilan bog‘liq manfaatlariga zid kelmasligi lozim. Kreditorlar yoki ularning qo‘mitasi bu tashkilotni tanlashda tasdiqlovchi rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvardagi 18-son qarori bilan tasdiqlangan «E-auksion» elektron savdo platformasida elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 2-bandiga ko‘ra, operator savdo platformasida auksion va tanlovni tashkil etish hamda o‘tkazish vakolati berilgan «Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish» aksiyadorlik jamiyatidir. Mol-mulk savdosini tashkillashtirish uchun maxsus tashkilotlarga haq qarzdor hisobidan amalga oshiriladi. Qonunning 21-moddasiga asosan, qarzdor yuridik shaxsga nisbatan manfaatdor shaxslar quyidagilardan iborat: qonunchilikka muvofiq qarzdorga nisbatan bosh yoki tobe bo‘lgan yuridik shaxs; qarzdorning rahbari, shuningdek, kuzatuv kengashi, kollegial ijroiya organi tarkibiga kiruvchi shaxslar, bosh buxgalter (buxgalter), shu jumladan, ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilmasidan oldingi bir yil davomida bekor qilingan hollarda ham; yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdorning mol-mulki egasi. Ushbu Qonunda jismoniy shaxsga, shuningdek, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan manfaatdor shaxs deganda uning xotini (eri), nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan o‘zidan oldingi va keyingi qarindoshlari, opa-singillari, aka-ukalari hamda ularning nasl-nasab shajarasi bo‘yicha o‘zidan keyingi qarindoshlari, xotinining (erining) ota-onasi, opa-singillari va aka-ukalari tushuniladi.

13. Mazkur moddaning o‘n uchinchi qismida ixtisoslashtirilgan tashkilotning vazifalari va javobgarligi aniq belgilangan. Ular elektron onlayn-auksionni aniq va shaffof tashkil etishga mas’ul. Bundan tashqari, o‘z rasmiy veb-saytida elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi o‘tkazilishi to‘g‘risidagi xabarni e’lon qiladi; elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida qatnashish uchun ishtirokchilardan

elektron buyurtmalarni qabul qiladi; elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosini tashkillashtirishda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlaydi; kimoshdi savdosi g‘olibini aniqlaydi va savdo natijalari haqidagi bayonnomani rasmiylashtiradi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvardagi 18-son qarori bilan tasdiqlangan «E-auksion» elektron savdo platformasida elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 47-bandiga muvofiq, operator auksion yoki tanlov natijalari deb e’tirof etiladigan elektron bayonnoma oldi-sotdi shartnomasi kuchiga ega bo‘lib, mulk va mulkiy huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun hamda oldi-sotdi (ijara) shartnomasi tuzish uchun asos hisoblanadi.

14. Korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida sotishdan oldin ommaviy axborot vositalarida savdo o‘tkazilishidan o‘ttiz kun oldin e’lon qilinadi. Korxona (biznes) mulkiy majmua sifatida elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida sotilishi haqidagi e’londa quyidagilar ko‘rsatilishi kerak: mulkiy majmua sifatida sotilayotgan korxona (biznes) to‘g‘risidagi ma’lumotlar va u bilan tanishish tartibi; elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida ishtirok etish muddatlari, vaqti va savdolar tashkilotchisining veb-sayti; korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotishning boshlang‘ich narxi; elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosini o‘tkazish vaqti va uning yakunlarini chiqarish hamda savdo tashkilotchisining veb-sayti; oldi-sotdi shartnomasini tuzishning hamda to‘lovlarning shartlari va muddatlari.

15. Ushbu normaga ko‘ra, korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida elektron onlayn-auksion orqali sotish haqidagi e’londa faqat qonunda belgilangan majburiy ma’lumotlar emas, balki savdoning shaffofligi va ishtirokchilarning xabardorligini ta’minlash uchun boshqa qo‘shimcha axborotlar ham ko‘rsatilishi mumkin. Masalan, e’londa korxonaning moliyaviy ahvoli, aktivlari tarkibi, ishlab chiqarish quvvati, mavjud shartnomalari yoki investorlar uchun muhim bo‘lgan boshqa ma’lumotlar ham berilishi mumkin. Ushbu norma savdo ishtirokchilariga korxona haqida to‘liqroq ma’lumot olish imkoniyatini yaratish, raqobatni kuchaytirish va mulkni sotish jarayonining ochiqligini ta’minlashga xizmat qiladi.

16. Agar korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida sotish to‘g‘risidagi e’londa ko‘rsatilgan muddat ichida bitta ham buyurtma kelib tushmasa yoki bitta ishtirokchidan buyurtma tushgan bo‘lsa, kimoshdi savdosi amalga oshmagan deb topiladi. Shundan so‘ng takroriy savdo o‘tkaziladi.

17. Takroriy elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosini o‘tkazish maqsadida tashqi boshqaruvchi kreditorlar yig‘ilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining qaroriga muvofiq korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotish haqidagi yangi xabarni amalga oshmagan deb topilgan yoki korxona (biznes) mulkiy majmua sifatida sotilmagan elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosining sanasidan e’tiboran o‘n besh kun ichida, ushbu Qonunning mazkur moddasida va 54-moddasida nazarda tutilgan tartibda e’lon qiladi.

Bunda elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi xabar e’lon qilingan sanadan e’tiboran kamida o‘n besh kunlik muddat o‘tgach o‘tkaziladi.

Korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotish narxi kreditorlar yig‘ilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining qaroriga ko‘ra bosqichma-bosqich pasaytirilishi mumkin, bunda pasaytirish miqdori avvalgi kimoshdi savdosidagi narxning o‘n foizidan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Agar mulkiy majmua sifatida sotilayotgan korxona (biznes) dastlabki savdodagi boshlang‘ich narxidan yigirma foizgacha kamaytirilgan narxda sotilmasa, keyingi takroriy savdoning boshlang‘ich narxi kreditorlar yig‘ilishi bilan kelishilgan holda belgilanishi mumkin. Bunda pasaytirish miqdori dastlabki savdodagi boshlang‘ich narxdan ellik foizdan oshmasligi kerak.

18. Mulkiy majmua sifatida sotilayotgan korxonaning (biznesning) oldi-sotdi shartnomasi elektron onlayn kimoshdi savdosi g‘olibi bilan tashqi boshqaruvchi o‘rtasida elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi yakunlari e’lon qilingan kundan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay tuziladi.

Elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida g‘olib chiqqan shaxs va kimoshdi savdosining tashkilotchisi kimoshdi savdosi o‘tkazilgan kuni ana shu savdoning natijalari to‘g‘risidagi bayonnomani rasmiylashtiradi va ushbu bayonnoma shartnoma kuchiga ega bo‘ladi.

Elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida g‘olib chiqqan shaxs elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi bayonnomasini yoki oldi-sotdi shartnomasini imzolashdan bosh tortgan taqdirda o‘zi to‘lagan zakalatdan mahrum bo‘ladi.

Zakalat summasi elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi tashkilotchilarining ushbu tadbirni o‘tkazishga ketgan chiqimlari chegirib tashlangan holda qarzdorning aktivlari tarkibiga kiritiladi.

19. Agar korxona (biznes) ushbu moddaning o‘n to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan shartlar asosida mulkiy majmua sifatida sotilmagan bo‘lsa, tashqi boshqaruvchi, agar ushbu Qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, kreditorlar yig‘ilishi qaroriga binoan korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida ommaviy oferta savdosiga qo‘yishi va ommaviy axborot vositasida ommaviy oferta to‘g‘risidagi taklif e’lon qilingach, kamida o‘n besh kundan keyin uning uchun eng yuqori narxni taklif qilgan shaxs bilan korxonaning (biznesning) oldi-sotdi shartnomasini tuzishi mumkin.

20. Ommaviy oferta savdosiga qo‘yish haqidagi qaror kreditorlarning uchdan ikki qismi uni yoqlab ovoz bergan taqdirda qabul qilingan deb hisoblanadi, ofertaga taklif etilgan korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotishdagi boshlang‘ich narx esa ilgarigi elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida belgilangan boshlang‘ich narxdan kam bo‘lmasligi kerak.

21. Korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotishdan olingan summa hisobidan kreditorlarning talablarini qarzdor to‘la hajmda qanoatlantirish imkoniyatiga ega bo‘lgan hollarda, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish tashqi boshqaruvchining arizasiga binoan sud tomonidan tugatilishi lozim. Qonunning 57-moddasi birinchi qismiga muvofiq, sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritishni tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayonida qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanganda tugatadi.

22. Agar korxona (biznes)ni sotish orqali olingan mablag‘lar kreditorlarning barcha talablarini qanoatlantirish uchun yetarli bo‘lmasa, tashqi boshqaruvchi kelgusi to‘lov-

lar va talablarni hal qilish uchun kelishuv bitimini taklif etadi. Kelishuv bitimiga erishilmagan taqdirda, tashqi boshqaruvchining arizasiga binoan sud qarzdorni bankrot deb topadi va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini joriy etadi.

23. Korxona (biznes) sotilganidan olingan mablag‘lar qanday tartibda taqsimlanishi qonunchilikda belgilangan bo‘lib, Qonunning tegishli normalariga (149-, 150-, 185-moddalariga) muvofiq navbat bo‘yicha talablar qanoatlantiriladi. Qarang: Xalqaro sharh. 773-b.

127-modda. Qarzdor mol-mulkining bir qismini sotish

Qarzdorning mol-mulki inventarizatsiya qilinganidan va baholanganidan keyin tashqi boshqaruv rejasiga muvofiq mol-mulkning bir qismi sotilishi mumkin.

Mol-mulkning bir qismi, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida sotiladi.

Qarzdor mol-mulkining bir qismi sotilishi qarzdorning o‘z xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishini imkonsiz qilib qo‘ymasligi kerak.

Qarzdorning muomalada bo‘lishi cheklangan mol-mulki qonunga muvofiq mazkur mol-mulkka mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida ega bo‘la oladigan shaxslar ishtirokida elektron onlayn-auksion shaklidagi yopiq kimoshdi savdosi o‘tkazish orqali realizatsiya qilinadi.

Elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosiga qo‘yiladigan mol-mulkning bir qismini sotishda boshlang‘ich narx, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qarzdorning mol-mulkini baholovchi tashkilot o‘tkazgan baholash hisobga olingan holda kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi qarori bilan belgilanadi.

Qarzdor mol-mulkining bir qismini sotish bo‘yicha elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi ushbu Qonunning 126-moddasida nazarda tutilgan tartibda o‘tkaziladi.

Xaridor o‘ziga xizmat ko‘rsatuvchi bankning tegishli kafolatini taqdim etgan taqdirda, tashqi boshqaruvchi qarzdor mol-mulkining bir qismini kreditorlar yig‘ilishining roziligiga ko‘ra bir yildan ortiq bo‘lmagan muddatda bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan realizatsiya qilishga haqli.

Tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayonida tashqi boshqaruvchi kreditorlar yig‘ilishining roziligi bilan qarzdorning arzonbaho va tez ishdan chiqadigan mol-mulkini, shuningdek, xomashyo hamda tayyor mahsulot qoldiqlarini elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi o‘tkazmagan holda, oldi-sotdi shartnomalari asosida to‘g‘ridan to‘g‘ri sotishga haqlidir.

Qarzdor mol-mulkining bir qismini sotishdan tushgan mablag‘lar ushbu Qonunning 149-, 150- va 185-moddalarida nazarda tutilgan navbat tartibida taqsimlanadi.

Sharhlanayotgan moddada qarzdor mol-mulkining bir qismi baholangandan so‘ng tashqi boshqaruv rejasi asosida elektron auksion orqali sotilishi va bu qarzdor faoliyatini to‘xtatmasligi, ayrim hollarda maxsus tartibda yoki auksionsiz sotish mumkinligi, tushgan mablag‘lar esa belgilangan navbatda kreditorlarga yo‘naltirilishi ko‘rsatilgan.

1. Qarzdorning mol-mulki inventarizatsiya va baholanganidan keyin tashqi boshqaruvchi mol-mulkni sotish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-iyundagi 141-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) «Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish» milliy standarti 3-bandiga muvofiq, quyidagilar inventarizatsiyaning asosiy maqsadlari hisoblanadi: mol-mulkning haqiqatda mavjudligini aniqlash; haqiqatda mavjud mol-mulkni buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bilan solishtirish; majburiyatlar buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirilganligini tekshirish.

Tashkilotning joylashgan joyidan qat’i nazar, barcha aktivlari va majburiyatlari inventarizatsiya qilinadi. Bu jarayon tashqi boshqaruv rejasiga muvofiq amalga oshiriladi, ya’ni mol-mulkni sotish va mablag‘larni taqsimlash bilan bog‘liq barcha qarorlar va ishlar maxsus tuzilgan rejaga asosan olib boriladi. Inventarizatsiya va baholash mol-mulkning aniq holatini, qiymatini va taqsimlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni ko‘rib chiqishni talab etadi. Agar mol-mulkning bir qismi sotilishi kerak bo‘lsa, bu qaror qarzdorning qarzlarini qoplashga yo‘naltirilishi kerak.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi qarzdor mol-mulkining bir qismini sotish tartibini belgilaydi. Agar qonunda boshqa shartlar ko‘rsatilmagan bo‘lsa, mol-mulkning bir qismi elektron onlayn-auksion orqali sotiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvardagi 18-son qarori bilan tasdiqlangan «E-auksion» elektron savdo platformasida elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom qoidalariga muvofiq qarzdor mol-mulkining bir qismi auksionda sotiladi.

3. Qarzdorning mol-mulkini sotish qarzdorning faoliyatiga zarar yetkazmasligi kerak. Agar biznesni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan mol-mulk, masalan, ishlab chiqarish jarayonida muhim uskunalar yoki obyektlar bo‘lsa, ular sotilmasligi lozim. Bu qarzdorning ish faoliyatiga to‘sqinlik qilmaslik va uning kelgusidagi biznesni saqlab qolishga yo‘naltirilgan shartdir.

4. Muomalada bo‘lishi cheklangan mol-mulklar maxsus qoidalarga muvofiq sotiladi. Bu mol-mulkni sotish uchun shaxslar bilan faqat qonunga muvofiq shartlarda, ya’ni mol-mulkka huquqi bo‘lgan shaxslar ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, yopiq kimoshdi savdosi (ya’ni auksionda faqat belgilangan shaxslar ishtirok etishi mumkin) orqali sotish amalga oshiriladi. Yopiq auksion yoki tanlovni o‘tkazishda buyurtmachi ruxsat etilgan yuridik va jismoniy shaxslarning ma’lumotlarini (ularning ro‘yxati, shaxsiy ma’lumotlari, yashash hududi va boshqalar) oldindan buyurtmada ko‘rsatadi. Yopiq auksion yoki tanlovga taklif etilgan shaxslar belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tmagani yoxud yopiq auksion yoki tanlov savdolariga oid ma’lumotlar bilan tanishib chiqmaganligi uchun operator javobgar hisoblanmaydi.

5. Mol-mulkning boshlang‘ich narxi baholovchi tashkilot tomonidan olib borilgan baholash natijalariga asoslanadi. Agar qonun boshqa tartibni belgilamagan bo‘lsa, boshlang‘ich narx auksionda mol-mulkning qiymati va baholovchi tashkilotning hisobotiga asosan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvardagi 18-son qarori bilan tasdiqlangan «E-auksion» elektron savdo platformasida elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 2-bandiga asosan, boshlang‘ich narx auksion yoki tanlov obyektini savdoga qo‘yishda buyurtmachi tomonidan yoki ushbu Nizomda keltirilgan tartibga asosan belgilangan narxdir.

6. Elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi belgilangan qonun normalariga muvofiq o‘tkaziladi. Qonunning 126-moddasida auksionning o‘tkazilishi uchun kerakli tartib, jumladan, ishtirokchilar uchun talablar, savdo jarayoni va shartlari ko‘rsatilgan.

7. Xaridor, agar o‘ziga xizmat ko‘rsatuvchi bankning kafolatini taqdim etsa, mol-mulkni bo‘lib-bo‘lib to‘lash shartlari bilan sotib olish imkoniga ega bo‘ladi. Bu shartlar kreditorlar yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanishi va mol-mulkning boshqa shartlarga ko‘ra olish va to‘lash bosqichlari belgilashni talab qiladi. Lekin to‘lov muddati bir yildan oshmasligi kerak.

8. Tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayonida tashqi boshqaruvchi kreditorlar yig‘ilishining roziligi bilan qarzdorning arzonbaho va tez ishdan chiqadigan mol-mulkini, shuningdek, xomashyo hamda tayyor mahsulot qoldiqlarini elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi o‘tkazmagan holda, oldi-sotdi shartnomalari asosida to‘g‘ridan to‘g‘ri sotishga haqli bo‘ladi.

9. Qarzdor mol-mulkining bir qismini sotishdan tushgan mablag‘lar qonunda belgilangan navbat bilan taqsimlanadi. Qonunning 149-, 150- va 185-moddalarida mol-mulkdan tushgan mablag‘larning qaysi kreditorlarga, qanday tartibda va qanday miqdorda to‘lanishini aniqlashga yo‘naltirilgan qoidalar mavjud. Qarang: Xalqaro sharh. 773-b.

128-modda. Qarzdorning talab qilish huquqlaridan o‘zganing foydasiga voz kechish

Qarzdorning talab qilish huquqlaridan o‘zganing foydasiga voz kechish, agar tashqi boshqaruv rejasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, talab qilish huquqlarini tashqi boshqaruvchi tomonidan kreditorlar yig‘ilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining roziligi bilan elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida sotish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Agar tashqi boshqaruv rejasida qarzdorning talab qilish huquqlarini elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi o‘tkazmasdan muayyan xaridorga sotish imkoniyati nazarda tutilgan bo‘lsa yoki talab qilish huquqlari elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida sotilmagan bo‘lsa, kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi talab qilish huquqlarini sotish narxini va bunday sotuvning boshqa shartlarini belgilaydi.

Sharhlanayotgan modda qarzdorning talab qilish huquqlari, ya’ni uning qarzdorlardan yoki boshqa shaxslardan talab qilishi mumkin bo‘lgan mablag‘lar yoki huquqlarini sotish tartibini belgilaydi.

1. Agar tashqi boshqaruv rejasida boshqacha shartlar bo‘lmasa, qarzdorning talab qilish huquqlari tashqi boshqaruvchi tomonidan kreditorlar yig‘ilishi yoki qo‘mitasining roziligi bilan auksion orqali sotilishi kerak. Qarzdorning talab qilish huquqlaridan o‘zganing foydasiga voz kechish deganda talab qilish huquqlarini sotish nazarda tutilmoqda. FKning 313-moddasiga muvofiq, majburiyat asosida kreditorga tegishli bo‘lgan huquq (talab) uning tomonidan bitim bo‘yicha boshqa shaxsga o‘tkazilishi (talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish) yoki qonun asosida boshqa shaxsga o‘tishi mumkin. Kreditorning huquqlari boshqa shaxsga o‘tishi uchun, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, qarzdorning roziligi talab qilinmaydi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida qarzdorning talab qilish huquqlarini auksion orqali sotish emas, balki bevosita muayyan xaridorga sotish imkoniyatini ko‘rsatadi. Agar tashqi boshqaruv rejasida bunday shartlar belgilangan bo‘lsa, ya’ni talab qilish huquqlari auksion orqali emas, balki to‘g‘ridan to‘g‘ri muayyan shaxsga sotiladigan bo‘lsa, bu holda auksion o‘tkazilmaydi. Biroq bunday sotish narxi va shartlari kreditorlar yig‘ilishi yoki qo‘mitasining qarorlari asosida aniqlanadi. Kreditorlar talab qilish huquqlarini sotish uchun aniq narxni va shartlarni belgilashda vakolatga ega. Shuningdek, agar auksion orqali talab qilish huquqi sotilmagan bo‘lsa, bunday sotuvning boshqa shartlari (masalan, to‘lov muddati, to‘lov tartibi va boshqalar) ham kreditorlar tomonidan belgilanishi shart.

129-modda. Qarzdor majburiyatlarining qarzdor mol-mulkining egasi yoki uchinchi shaxs tomonidan bajarilishi

Qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdor mol-mulkining egasi tashqi boshqaruv tartib-taomili tugagunga qadar istalgan vaqtda kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq barcha kreditorlarning talablarini bir yo‘la qanoatlantirishga haqli.

Qarzdorning pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlari uchinchi shaxs (uchinchi shaxslar) tomonidan bajarilishiga, basharti bunday bajarish kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq barcha kreditorlarning talablarini bir yo‘la qanoatlantirsa, yo‘l qo‘yiladi.

Kreditorning o‘zi haqidagi, u bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etish majburiyatlarini buzganligi, xuddi shuningdek, ijroni ta’minlashdan boshqacha tarzda bosh tortganligi oqibatida ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlariga muvofiq kreditorlarning talablarini qanoatlantirish mumkin bo‘lmaganda, pul mablag‘lari qarzdor joylashgan yerdagi (uning yashash joyidagi) notariusning yoki sudning depozitiga kiritilishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada qarzdor majburiyatlarining qarzdor muassislari (ishtirokchilari), mol-mulkining egasi yoki uchinchi shaxs tomonidan bajarilish tartibi ko‘rsatilgan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdor mol-mulkining egasi yoxud uchinchi shaxslarning tashqi boshqaruv tartib-taomili tugagunga qadar istalgan vaqtda kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq barcha kreditorlarning talablarini bir yo‘la qanoatlantirishga haqli ekanligi ko‘rsatiladi. FKning 243-moddasiga muvofiq, agar qonunchilik yoki shartnomada nazarda tutilgan bo‘lsa yoxud majburiyatning mohiyatidan yoinki ish muomalasi odatlaridan yoki odatda qo‘yiladigan boshqa talablardan anglashilsa, qarzdor majburiyatni muddatidan ilgari bajarishga haqli, kreditor esa ijroni muddatidan ilgari qabul qilishi shart. FKning 244-moddasi ikkinchi qismiga ko‘ra, yetarli asoslar mavjud bo‘lganida sud qarzdorga majburiyatni bajarishni kechiktirish yoki uni bo‘lib-bo‘lib bajarish imkonini berishga haqli.

2. Ikkinchi qismda qarzdorning pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlari uchinchi shaxs (uchinchi shaxslar) tomonidan bajarilishiga, basharti bunday bajarish kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq barcha kreditorlarning talablarini bir yo‘la qanoatlantirsa, yo‘l qo‘yilishi belgilangan. Demak, bir yo‘la (to‘liq) qanoatlantirish sharti bilan majburiyatlari bajarilishiga ruxsat beriladi. FKning 241-moddasi ikkinchi qismiga asosan, agar majburiyatni qarzdorning shaxsan o‘zi ijro etishga majburligi qonunchilik, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, kreditor qarzdor uchun uchinchi shaxs tomonidan taklif qilingan ijroni qabul qilishi shart.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismiga muvofiq, agar kreditor o‘zi haqidagi zarur ma’lumotlarni taqdim etmasa yoki hisob-kitoblarni amalga oshirishga to‘sqinlik qilsa yoxud ijroni ta’minlashdan boshqacha tarzda bosh tortsa, Qonun qarzdor muassislari (ishtirokchilari), mol-mulkining egasi yoki uchinchi shaxslarga qarzdor majburiyatlarini bajarish uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratgan. Unga ko‘ra, pul mablag‘lari qarzdor joylashgan yerdagi (uning yashash joyidagi) notariusning yoki sudning depozitiga kiritiladi.

130-modda. Qarzdorning qo‘shimcha aksiyalarini joylashtirish

Qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash maqsadida tashqi boshqaruv rejasida qarzdor aksiyadorlik jamiyatining qo‘shimcha aksiyalarini joylashtirish imkoniyati nazarda tutilishi mumkin. Qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish imkoniyati tashqi boshqaruv rejasiga faqat zaruriy qarorni qabul qilgan qarzdorning aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining iltimosnomasiga binoan, agar bu iltimosnoma tashqi boshqaruvchiga tashqi boshqaruv tartib-taomili tugaydigan sanaga kamida olti oy qolganida yuborilgan bo‘lsa, kiritilishi mumkin.

Qarzdor aksiyadorlik jamiyatining ustav fondini (ustav kapitalini) uning qo‘shimcha aksiyalarini chiqarish yo‘li bilan ko‘paytirish to‘g‘risidagi qaror

kreditorlar yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi. Agar qarzdorning ustav fondini (ustav kapitalini) uning qo‘shimcha aksiyalarini joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirish haqidagi masalani hal qilishda e’lon qilingan aksiyalarning qarzdorning ustavida belgilangan miqdorini ko‘paytirishga oid qismiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish zarur bo‘lsa, u holda qarzdorning ustaviga faqat qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilganidan keyin ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi mumkin bo‘ladi.

Qarzdorning qo‘shimcha aksiyalarini joylashtirish asosan ularning haqini faqat pul mablag‘lari bilan to‘lagan holda ochiq obuna bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin. Qarzdorning aksiyadorlari qarzdorning joylashtiriladigan aksiyalarini aksiyadorlik jamiyatining o‘zlariga tegishli aksiyalari miqdoriga mutanosib miqdorda va ushbu moddaning to‘rtinchi qismiga muvofiq belgilanadigan narxda sotib olishda imtiyozli huquqqa ega bo‘ladi.

Qo‘shimcha aksiyalar aksiyadorlar o‘rtasida joylashtirilayotgan aksiyalarning nominal qiymatidan past bo‘lmagan narxda joylashtiriladi, bunda joylashtirilayotgan aksiyalarning hammasini mazkur narxda sotish barcha kreditorlarning talablarini to‘la qanoatlantirish uchun yetarli pul mablag‘lari to‘planishiga olib kelishi shart. Aksiyalarni aksiyadorlar o‘rtasida joylashtirish narxi qarzdorning tashqi boshqaruvchisi tomonidan belgilanadi va kreditorlarning umumiy yig‘ilishida tasdiqlanadi. Qarzdorning qo‘shimcha aksiyalarini sotib olishda imtiyozli huquqni amalga oshirish uchun qarzdorning aksiyadorlariga beriladigan muddat kreditorlar yig‘ilishi tomonidan belgilanadi, lekin bu muddat aksiyalarni joylashtirish boshlanadigan sanadan e’tiboran o‘ttiz kundan kam bo‘lishi mumkin emas.

Qarzdorning aksiyadorlari o‘rtasida joylashtirilmagan qo‘shimcha aksiyalar tashqi boshqaruvchi tomonidan fond birjasi savdosida realizatsiya qilinadi. Qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qaror qabul qilingan taqdirda, ilgari qarzdorning aksiyadorlari bo‘lmagan, qarzdorning yangi emissiyadagi aksiyalarini sotib olgan shaxslar qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda qarzdorga sotib olingan aksiyalar summasida o‘z talablarini bildirishga haqli.

Sharhlanayotgan moddaga ko‘ra, tashqi boshqaruv jarayonida qarzdor aksiyadorlik jamiyatining to‘lov qobiliyatini tiklash maqsadida qo‘shimcha aksiyalar chiqarish va joylashtirish orqali ustav kapitalini oshirish mumkin, bu aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining iltimosnomasi va kreditorlar yig‘ilishi qarori asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, moddada aksiyalar asosan pul evaziga ochiq obuna yo‘li bilan joylashtirilishi, aksiyadorlarga imtiyozli sotib olish huquqi berilishi, narx tashqi boshqaruvchi tomonidan belgilanib, kreditorlar tomonidan tasdiqlanishi va joylashtirilmagan aksiyalar birjada sotilishi keltirilgan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash va moliyaviy holatini yaxshilash maqsadida, agar qarzdor aksiyadorlik jamiyati hisoblansa, qo‘shimcha aksiyalar joylashtirilishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Dastlab qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish haqidagi qarorni qarzdorning aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi qabul qiladi va ushbu qaror iltimosnoma orqali tashqi boshqaruvchiga taqdim etiladi. Iltimosnoma tashqi boshqaruvchiga tashqi boshqaruv tartib-taomili tugaydigan sanaga kamida olti oy qolganida yuborilgan bo‘lsa, tashqi boshqaruv rejasiga kiritilishi mumkin. Qonunning 109-moddasi birinchi qismida tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilgan paytdan e’tiboran qarzdorning boshqaruv organlari vakolatlari tugatilishi belgilangan. Demak, Qonunning 130-moddasi birinchi qismida keltirilgan qoida istisno holat bo‘lib, unga ko‘ra, qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish haqidagi qarorni qarzdorning aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi qabul qiladi.

«Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 18-moddasiga muvofiq, jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirilishi mumkin. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish to‘g‘risidagi qarorda joylashtiriladigan qo‘shimcha oddiy aksiyalarning va imtiyozli aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari hamda shartlari belgilangan bo‘lishi kerak. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish joylashtirilgan qo‘shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Bunda jamiyat ustavida ko‘rsatilgan, e’lon qilingan muayyan turdagi aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo‘shimcha aksiyalarning soniga kamaytirilishi kerak. Jamiyatning tegishli boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qo‘shimcha aksiyalarni chiqarish haqidagi qaror jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish to‘g‘risidagi qarordir.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida qarzdorning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish uchun qarorni qabul qilish huquqi kreditorlar yig‘ilishiga berilgan. Dastlab qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish haqidagi qarorni qarzdorning aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi qabul qilsada, mazkur qaror iltimosnoma orqali tashqi boshqaruvchiga taqdim etiladi. Shundan so‘ng qarzdorning ustav fondini ko‘paytirish uchun qo‘shimcha aksiyalar joylashtirish haqidagi qarorni kreditorlar yig‘ilishi qabul qiladi va tashqi boshqaruv rejasiga kiritiladi. Agar qarzdorning ustav fondini (ustav kapitalini) uning qo‘shimcha aksiyalarini joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirish haqidagi masalani hal qilishda e’lon qilingan aksiyalarning qarzdorning ustavida belgilangan miqdorini ko‘paytirishga oid qismiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish zarur bo‘lsa, qarzdorning ustaviga faqat qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilganidan keyin ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi. «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 18-moddasiga ko‘ra, jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish to‘g‘risidagi va jamiyat ustaviga tegishli o‘zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan yoki, agar jamiyat usta-

viga yoxud aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga muvofiq jamiyatning kuzatuv kengashiga shunday qarorlar qabul qilish huquqi berilgan bo‘lsa, jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida qarzdorning qo‘shimcha aksiyalarini joylashtirish asosan ularning haqini faqat pul mablag‘lari bilan to‘lagan holda, ochiq obuna bo‘yicha amalga oshirilishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Bu aksiyalar sotuvini faqat moliyaviy resurslar orqali amalga oshirishni nazarda tutadi. Shuningdek, aksiyadorlarga imtiyozli huquqlar beriladi, ya’ni ular o‘zlariga tegishli aksiyalari miqdoriga mutanosib ravishda qo‘shimcha aksiyalarni ushbu moddaning to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan narxda sotib olish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 5-moddasiga asosan, jamiyat o‘zi chiqarayotgan aksiyalarga ularni ommaviy joylashtirish yo‘li bilan qonunchilik talablarini hisobga olgan holda ochiq obuna o‘tkazishga haqli. Bunda jamiyat xodimlari jamiyat tomonidan joriy qilinadigan aksiyalar birlamchi ommaviy joylashtirilganda xodimlarning aksiyalarga egalik qilish rejasi doirasida aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqqa ega.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismida qo‘shimcha aksiyalar aksiyadorlar orasida nominal qiymatidan past bo‘lmagan narxda joylashtirilishi shartligi keltirilgan. Bunda joylashtirilayotgan aksiyalarning hammasini mazkur narxda sotish barcha kreditorlarning talablarini to‘la qanoatlantirish uchun yetarli pul mablag‘lari to‘planishiga olib kelishi shart. Aksiyalarni aksiyadorlar o‘rtasida joylashtirish narxi qarzdorning tashqi boshqaruvchisi tomonidan belgilanadi va bu narx kreditorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadi. Aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqni amalga oshirish uchun aksiyadorlarga berilgan muddat, ya’ni to‘lovning amalga oshirish muddati kreditorlar yig‘ilishi tomonidan belgilanishi kerak va muddat aksiyalarni joylashtirish boshlanadigan sanadan e’tiboran o‘ttiz kundan kam bo‘lishi mumkin emas. «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 5-moddasiga ko‘ra, jamiyat o‘zi chiqarayotgan aksiyalarga ularni ommaviy joylashtirish yo‘li bilan qonunchilik talablarini hisobga olgan holda ochiq obuna o‘tkazishga haqli. Bunda jamiyat xodimlari jamiyat tomonidan joriy qilinadigan aksiyalar birlamchi ommaviy joylashtirilganda xodimlarning aksiyalarga egalik qilish rejasi doirasida aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqqa ega. Ushbu qonunning 6-moddasiga ko‘ra, aksiyadorlar sotilayotgan aksiyalarni olishga doir imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi va muddatlari jamiyat ustavida belgilanadi, bunda imtiyozli huquqdan foydalanish muddati aksiyalar sotuvga qo‘yilgan paytdan e’tiboran o‘n kundan kam va o‘ttiz kundan ko‘p bo‘lishi mumkin emas. Aksiyador tomonidan o‘ziga tegishli aksiyalar imtiyozli huquq buzilgan holda sotilgan taqdirda, jamiyatning istalgan aksiyadori va (yoki) jamiyat bunday qoidabuzarlik to‘g‘risida aksiyador yoki jamiyat bilgan yoxud bilishi lozim bo‘lgan paytdan e’tiboran uch oy ichida o‘ziga sotib oluvchining huquq va majburiyatlari o‘tkazilishini sud tartibida talab qilish huquqiga ega. Aksiyalarni olishga bo‘lgan ushbu imtiyozli huquqdan boshqa shaxs foydasiga voz kechishga yo‘l qo‘yilmaydi.

5. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismida qarzdorning aksiyadorlari o‘rtasida joylashtirilmagan qo‘shimcha aksiyalar fond birjasi orqali savdoga qo‘yilishi va ularga sotish orqali moliyaviy resurslar topilishi mumkinligi belgilangan. Agar qarzdor bankrot deb topilib, tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qaror qabul qilingan taqdirda, yangi aksiyalarini sotib olgan shaxslar, ya’ni yangi aksiyadorlar qonunchilikka muvofiq qarzdorga sotib olingan aksiyalar summasida o‘z talablarini bildirishga haqli bo‘ladi. Ularning talablari navbatdan tashqari qanoatlantiriladi. Qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganidan keyin yuzaga kelgan joriy to‘lov majburiyatlari bo‘yicha talablar navbatdan tashqari qanoatlantiriladi. Qarang: Xalqaro sharh. 773-b.

131-modda. Qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish

Qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish qarzdorning mol-mulki asosida bitta yoki bir nechta aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish imkoniyati, agar shunday qaror qabul qilinishi uchun barcha kreditorlar yoqlab ovoz bergan bo‘lsa, kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq tashqi boshqaruv rejasiga kiritilishi mumkin.

Qarzdorning mol-mulki asosida bitta yoki bir nechta aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish orqali qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish qarzdor mol-mulki egasining yoki qarzdorning tegishli bitimlarni tuzish haqida qaror qabul qilishga ta’sis hujjatlari bilan vakolat berilgan boshqaruv organining qarori asosida tashqi boshqaruv rejasiga kiritilishi mumkin.

Agar tashqi boshqaruv rejasida bitta aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish nazarda tutilgan bo‘lsa, uning ustav fondiga (ustav kapitaliga) qarzdorning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan mol-mulki, shu jumladan, mulkiy huquqlari kiritiladi.

Agar tashqi boshqaruv rejasida bir nechta aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish nazarda tutilgan bo‘lsa, ularning ustav fondlariga (ustav kapitallariga) qarzdorning ayrim faoliyat turlarini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan mol-mulki kiritiladi. Tashkil etilayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining ustav fondlariga (ustav kapitallariga) qarzdorning haq tariqasida kiritilayotgan mol-mulki tarkibi tashqi boshqaruv rejasi bilan belgilanadi.

Tashkil etilayotgan jamiyatlar ustav fondlarining (ustav kapitallarining) miqdori kiritilayotgan mol-mulkning baholovchi tashkilot tomonidan qarzdor mol-mulki egasi yoki qarzdorning tegishli bitimlarni tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilishga ta’sis hujjatlari bilan vakolat berilgan boshqaruv organi takliflari hisobga olingan holda aniqlangan baholash qiymati asosida belgilanadi.

Qarzdor aktivlarining o‘rni almashtirilayotganda bu haqida qaror qabul qilinguniga qadar amalda bo‘lgan barcha mehnat shartnomalari, ish beruv-

chining huquq va majburiyatlari yangi tashkil etilayotgan aksiyadorlik jamiyatiga yoki aksiyadorlik jamiyatlariga o‘tkazilgan holda o‘z kuchini saqlab qoladi. Qarzdorning ayrim faoliyat turlarini amalga oshirishga doir litsenziyalari qonunchilikda belgilangan tartibda qayta rasmiylashtirilishi kerak.

Mol-mulkning baholash qiymati kreditorlar talablarining summasidan ortiq bo‘lgan taqdirda, qarzdorning mol-mulki asosida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyati yoki aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari qarzdorning mol-mulki tarkibiga kiritiladi va fond birjasida sotiladi.

Qarzdorning mol-mulki asosida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatining yoki aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini sotish barcha kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun pul mablag‘lari to‘planishini ta’minlashi kerak.

Qarzdorning mol-mulki asosida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatining yoki aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini fond birjasida sotish qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Tashqi boshqaruv rejasida qarzdorning mol-mulki asosida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatining yoki aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini fond birjasida sotish nazarda tutilishi mumkin.

Kreditorlarning talablarini qanoatlantirish ushbu Qonunning 149- va 150-moddalarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi kerak.

Qarzdor mol-mulkining baholash qiymati kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq talablar summasidan oshmagan taqdirda, qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilishni yoqlab barcha kreditorlar ovoz bergan taqdirda, kreditorlar yig‘ilishi mazkur qarorni qarzdorning barcha mol-mulkini qarzdorning ta’sis hujjatlari bilan vakolat berilgan boshqaruv organining roziligisiz aksiyadorlik jamiyatining ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki bir nechta aksiyadorlik jamiyatining ustav fondlariga (ustav kapitallariga) kiritish yo‘li bilan qabul qilishi mumkin. Bunda mazkur jamiyatlar ustav fondlarining miqdori kiritilayotgan mol-mulkning baholovchi tashkilot aniqlagan baholash qiymati asosida belgilanadi. Mazkur holda qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish amalga oshirilguniga qadar tashqi boshqaruvchi tomonidan ish haqi bo‘yicha, alimentlarni undirish to‘g‘risidagi talablarni qanoatlantirish uchun hisobvaraqdan pul mablag‘larini o‘tkazishni yoki berishni nazarda tutuvchi ijro hujjatlari, mualliflik shartnomalari yuzasidan haq to‘lash bo‘yicha, qarzdorning mehnatga oid munosabatlardan va ularga tenglashtirilgan huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi soliqlar hamda yig‘imlar va talablar bo‘yicha majburiyatlari bajarilishini teng darajada ta’minlaydigan, shuningdek, fuqarolarning jinoyat yoxud ma’muriy huquqbuzarlik oqibatida o‘z mol-mulkiga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplashga doir talablari bo‘yicha qarzlar to‘lanishi shart.

Aksiyadorlik jamiyatining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni kreditorlar o‘rtasida taqsimlash kreditorlarning talablari reyestridagi o‘z

ulushiga mutanosib ravishda, kreditorlarga aksiyadorlik jamiyatining muassislari (aksiyadorlari) bo‘lish huquqi berilgan holda amalga oshiriladi.

Qarzdorning garov narsasini almashtirishni nazarda tutuvchi aktivlari o‘rnini almashtirish tashqi boshqaruv rejasiga kiritilishi mumkin va bunda qarzdor mol-mulkining garovi bilan majburiyatlari ta’minlangan barcha kreditorlar shunday qaror qabul qilinishini yoqlab ovoz berishi shart.

Qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish chog‘ida aksiyadorlik jamiyati yoki bir nechta aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqarilgan aksiyalar uchun kreditorlarning qarzdor mol-mulki bilan ta’minlangan majburiyatlari garov predmetiga nisbatan mutanosib ravishda paydo bo‘ladi.

Garovga berilgan aksiyalarning qiymati aksiyadorlik jamiyatining ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki bir nechta aksiyadorlik jamiyatining ustav fondlariga (ustav kapitallariga) berilgan garov mulkining bozor qiymatiga mutanosib bo‘lishi kerak.

Kreditorlar bilan hisob-kitoblar tamomlanganidan keyin tashqi boshqaruvchi ushbu Qonunning 158-moddasi talablariga muvofiq hisobot tayyorlaydi va ushbu Qonunning 160-moddasida belgilangan tartibda qarzdor korxonaning to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilini tugallaydi.

Qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan banklarga, sug‘urtalovchilarga va qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilariga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Sharhlanayotgan moddaga ko‘ra, qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish tashqi boshqaruv jarayonida uning mol-mulki asosida bir yoki bir nechta aksiyadorlik jamiyati tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Bu chora faqat barcha kreditorlarning roziligi bilan, bunda mol-mulk baholanib, jamiyat ustav kapitaliga kiritiladi. Mehnat shartnomalari va ayrim huquqlar yangi jamiyatlarga o‘tadi, aksiyalar kreditorlar talablarini qoplash uchun birjada sotiladi yoki kreditorlar o‘rtasida ulushiga mutanosib taqsimlanadi, garov bilan bog‘liq talablar ham saqlanadi va ushbu tartib ayrim moliyaviy tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

1. Ushbu normaga ko‘ra, qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish usulida uning mavjud mol-mulki negizida bir yoki bir nechta aksiyadorlik jamiyati tashkil etiladi va qarzdor aktivlari ushbu yangi jamiyatlarga o‘tkaziladi. Masalan, to‘lovga qobiliyatsiz korxonaning ishlab chiqarish binolari, uskunalari va boshqa aktivlari asosida yangi aksiyadorlik jamiyati tuzilishi mumkin. Bunda qarzdorning mol-mulki aksiyalarga aylantirilib, keyinchalik investorlar jalb qilish yoki kreditorlar talablarini qondirish uchun foydalaniladi. Ushbu norma qarzdor korxonani to‘liq tugatmasdan, uning aktivlarini samarali boshqarish va iqtisodiy faoliyatni saqlab qolishga qaratilgan huquqiy mexanizm hisoblanadi.

2. Ushbu normaga ko‘ra, qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish chorasi tashqi boshqaruv rejasiga faqat barcha kreditorlar ushbu qarorni bir ovozdan ma’qullagan taqdirdagina kiritilishi mumkin. Masalan, qarzdor korxonaning mol-mulki asosida

yangi aksiyadorlik jamiyati tashkil etish va aktivlarni unga o‘tkazish rejalashtirilgan bo‘lsa, bunday chorani amalga oshirish uchun kreditorlar talablari reyestriga kiritilgan barcha kreditorlarning roziligi talab etiladi. Bu tartib kreditorlar manfaatlarini teng himoya qilish, ayrim kreditorlar huquqlarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik va aktivlarni qayta tashkil etish masalasida umumiy kelishuvga erishishni ta’minlashga xizmat qiladi.

3. Qarzdorning mol-mulki asosida bitta yoki bir nechta aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish orqali qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish qarzdor mol-mulki egasining yoki qarzdorning tegishli bitimlarni tuzish haqida qaror qabul qilishga ta’sis hujjatlari bilan vakolat berilgan boshqaruv organining qarori asosida tashqi boshqaruv rejasiga kiritilishi mumkin. Demak, qarzdor aktivlar o‘rnini almashtirish qarzdor to‘lov qobiliyatini tiklash bo‘yicha tashqi boshqaruv rejasiga quyidagi shartlar asosida kiritiladi: a) qarzdor mol-mulki egasining yoki qarzdorning tegishli bitimlarni tuzish haqida qaror qabul qilishga ta’sis hujjatlari bilan vakolat berilgan boshqaruv organining qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilishi; b) kreditorlar talablari reyestriga muvofiq barcha kreditorlar ovoz bergan bo‘lsa.

4. Ushbu normaga ko‘ra, agar tashqi boshqaruv rejasida qarzdor asosida bitta aksiyadorlik jamiyati tashkil etish belgilangan bo‘lsa, qarzdorning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan barcha mol-mulki va mulkiy huquqlari ushbu jamiyatning ustav fondiga kiritiladi. Masalan, korxonaning binolari, uskunalari, tovar belgilari, litsenziyalari yoki talab qilish huquqlari yangi tashkil etilayotgan aksiyadorlik jamiyati kapitali tarkibiga o‘tkazilishi mumkin. Bu orqali qarzdorning mavjud aktivlari negizida yangi xo‘jalik yurituvchi subyekt tashkil qilinib, uning iqtisodiy faoliyatini davom ettirish va investorlarni jalb qilish imkoniyati yaratiladi.

5. Ushbu normaga ko‘ra, agar tashqi boshqaruv rejasida qarzdor negizida bir nechta aksiyadorlik jamiyati tashkil etish nazarda tutilgan bo‘lsa, qarzdorning mol-mulki uning alohida faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimlanib, har bir yangi jamiyatning ustav fondiga kiritiladi. Masalan, qarzdor korxona bir vaqtning o‘zida ishlab chiqarish, transport va savdo faoliyati bilan shug‘ullangan bo‘lsa, ushbu yo‘nalishlar asosida alohida aksiyadorlik jamiyatlari tashkil qilinishi va har biriga tegishli mol-mulk o‘tkazilishi mumkin. Bunda qaysi mol-mulk yoki mulkiy huquq qaysi aksiyadorlik jamiyati ustav kapitaliga kiritilishi tashqi boshqaruv rejasida aniq belgilanadi. Ushbu norma qarzdor aktivlarini samarali qayta tashkil etish, faoliyat yo‘nalishlarini mustaqillashtirish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

6. Tashkil etilayotgan jamiyatlar ustav fondlarining (ustav kapitallarining) miqdori kiritilayotgan mol-mulkning baholovchi tashkilot tomonidan qarzdor mol-mulki egasi yoki qarzdorning tegishli bitimlarni tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilishga ta’sis hujjatlari bilan vakolat berilgan boshqaruv organi takliflari hisobga olingan holda aniqlangan baholash qiymati asosida belgilanadi.

7. Qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish mehnat shartnomalariga ta’sir qilmaydi. Qarzdor aktivlarining o‘rni almashtirilayotganda bu haqida qaror qabul qilinguniga qadar amalda bo‘lgan barcha mehnat shartnomalari, ish beruvchining huquq va majbu-

riyatlari yangi tashkil etilayotgan aksiyadorlik jamiyatiga yoki aksiyadorlik jamiyatlariga o‘tkazilgan holda o‘z kuchini saqlab qoladi. Har bir shaxsning mehnat huquqlari va majburiyatlari o‘z kuchini saqlab qoladi. Agar qarzdor litsenziyalanadigan faoliyat turi bilan shug‘ullanib kelgan bo‘lsa, qarzdorning litsenziyalarini qayta rasmiylashtirish talab etiladi.

8. Mol-mulkning baholash qiymati kreditorlar talablarining summasidan ortiq bo‘lgan taqdirda, qarzdorning mol-mulki asosida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyati yoki aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari qarzdorning mol-mulki tarkibiga kiritiladi va fond birjasida sotiladi.

9. Ushbu normaga ko‘ra, qarzdorning mol-mulki negizida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyati yoki jamiyatlari aksiyalarini sotishdan tushadigan mablag‘lar kreditorlarning barcha talablarini imkoni qadar qondirishga yetarli bo‘lishi lozim. Masalan, tashqi boshqaruv jarayonida qarzdor aktivlari asosida yangi aksiyadorlik jamiyati tashkil qilinib, uning aksiyalari investorlarga sotilsa, ushbu savdodan tushgan mablag‘lar kreditorlar oldidagi qarzlarni qoplashga yo‘naltiriladi. Bu norma aksiyalarni sotishdan asosiy maqsad qarzdor faoliyatini qayta tashkil etish bilan birga kreditorlar manfaatlarini ta’minlash ekanini belgilaydi.

10. Ushbu normaga ko‘ra, qarzdorning mol-mulki asosida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyati yoki jamiyatlari aksiyalarini sotish fond birjasi orqali va qonunchilikda belgilangan tartib hamda qoidalarga rioya qilingan holda amalga oshirilishi shart. Masalan, bunday aksiyalar ommaviy savdoga chiqarilganda ularni ro‘yxatdan o‘tkazish, baholash, joylashtirish va sotish jarayonlari qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonunchilik talablari asosida o‘tkaziladi. Ushbu norma aksiyalar savdosining shaffofligini ta’minlash, investorlar huquqlarini himoya qilish va aksiyalarni bozor mexanizmlari orqali adolatli narxda sotishga xizmat qiladi.

11. Tashqi boshqaruv rejasida qarzdorning mol-mulki asosida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatining aksiyalarini fond birjasida sotish ko‘zda tutilgan bo‘lishi mumkin. Bu jarayon fond birjasida amalga oshiriladi va uning moliyaviy natijalari kreditorlar talablarini qanoatlantirishga xizmat qiladi.

12. Qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish bilan bog‘liq ishlarni to‘liq amalga oshirish uchun kreditorlarning talablarini qanoatlantirish tartibi qonunchilikka asoslangan bo‘lishi kerak. Bu, o‘z navbatida, Qonunning 149- va 150-moddalarida ko‘rsatilgan tartibda va navbatlarda amalga oshirilishi lozim.

13. Qarzdor mol-mulkining baholash qiymati kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq talablar summasidan oshmagan taqdirda, qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilishni yoqlab barcha kreditorlar ovoz bergan taqdirda, kreditorlar yig‘ilishi mazkur qarorni qarzdorning barcha mol-mulkini qarzdorning ta’sis hujjatlari bilan vakolat berilgan boshqaruv organining roziligisiz aksiyadorlik jamiyatining ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki bir nechta aksiyadorlik jamiyatining ustav fondlariga (ustav kapitallariga) kiritish yo‘li bilan qabul qilishi mumkin. Bunda mazkur jamiyatlar ustav fondlarining miqdori kiritilayotgan mol-mulkning baholovchi tashkilot aniqlagan baholash qiymati asosida belgilanadi. Mazkur holatda qarzdorning

aktivlari o‘rnini almashtirish amalga oshirilguniga qadar tashqi boshqaruvchi tomonidan ish haqi bo‘yicha, alimentlarni undirish to‘g‘risidagi talablarni qanoatlantirish uchun hisobvaraqdan pul mablag‘larini o‘tkazishni yoki berishni nazarda tutuvchi ijro hujjatlari, mualliflik shartnomalari yuzasidan haq to‘lash bo‘yicha, qarzdorning mehnatga oid munosabatlardan va ularga tenglashtirilgan huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi soliqlar hamda yig‘imlar va talablar bo‘yicha majburiyatlari bajarilishini teng darajada ta’minlaydigan, shuningdek, fuqarolarning jinoyat yoxud ma’muriy huquqbuzarlik oqibatida o‘z mol-mulkiga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplashga doir talablari bo‘yicha qarzlar to‘lanishi shart.

14. Aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitaliga kiritilgan aksiyalar kreditorlar o‘rtasida taqsimlanishi mumkin. Bunda har bir kreditorga ustav kapitalidan aksiyalar ajratiladi va bu ularning talablari reyestridagi ulushiga mos kelishi lozim. Shunga asosan kreditorlar shu jamiyatning aksiyadoriga aylangan holda o‘z talablarini qanoatlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

15. Agar qarzdor mol-mulkining garovi bilan ta’minlangan majburiyatlar mavjud bo‘lsa, mol-mulkning garov narsasi almashtirilishi mumkin. Qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish chog‘ida aksiyadorlik jamiyati yoki bir nechta aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqarilgan aksiyalar uchun kreditorlarning qarzdor mol-mulki bilan ta’minlangan majburiyatlari garov predmetiga nisbatan mutanosib ravishda paydo bo‘ladi. Bunday qaror barcha kreditorlar tomonidan yoqlab ovoz berilib ma’qullanadi.

16. Garovga berilgan aksiyalarning qiymati aksiyadorlik jamiyatining ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki bir nechta aksiyadorlik jamiyatining ustav fondlariga (ustav kapitallariga) berilgan garov mulkining bozor qiymatiga mutanosib bo‘lishi kerak.

17. Garovga berilgan aksiyalar mol-mulkning bozor qiymatiga mos kelishi kerak. Aksiyalarning qiymati ishonchli baholash natijalariga asoslangan bo‘lib, garovni ta’minlaydigan mol-mulkning haqiqiy bozor qiymatiga mos ravishda belgilanishi lozim.

18. Kreditorlar bilan hisob-kitoblar tugatilganidan keyin tashqi boshqaruvchi Qonunning 158- va 160-moddalariga asosan hisobot tayyorlaydi. Bu hisobotda kreditorlar talablari qanoatlantirilishining barcha bosqichlari, ularning umumiy natijalari va tugatish jarayonining amalga oshirilishi ko‘rsatiladi.

19. Ushbu normaga ko‘ra, qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish usuli banklar, sug‘urta tashkilotlari va qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilariga nisbatan qo‘llanilmaydi. Masalan, to‘lovga qobiliyatsiz deb topilgan bankning aktivlari asosida yangi aksiyadorlik jamiyati tashkil etish yoki uning mol-mulkini shu tarzda qayta tashkil qilish mumkin emas. Bu cheklov mazkur tashkilotlar moliyaviy bozor barqarorligi, omonatchilar va investorlar manfaatlari bilan bevosita bog‘liq ekani hamda ular faoliyati maxsus qonunchilik asosida tartibga solinishi bilan izohlanadi. Ushbu norma moliyaviy tizim barqarorligini saqlash va yuqori xavfli sohalarda umumiy tashqi boshqaruv mexanizmlarining qo‘llanilishini cheklashga xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 773-b.

132-modda. Tashqi boshqaruvchining hisoboti

Tashqi boshqaruvchi tashqi boshqaruv tartib-taomili muddatlari tugashi munosabati bilan yoki uni muddatidan ilgari tugatish uchun asoslar mavjud bo‘lganda kreditorlar yig‘ilishini chaqirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarning (organlarning) talabiga binoan, shuningdek, kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq barcha kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun yetarli pul mablag‘lari to‘plangan taqdirda kreditorlar yig‘ilishi ko‘rib chiqishi uchun hisobot taqdim etishi shart.

Tashqi boshqaruvchi, agar kreditorlar yig‘ilishi tomonidan hisobotni ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblar boshlash haqida qaror qabul qilingan bo‘lsa, sudga hisobot taqdim etishi shart.

Tashqi boshqaruvchining hisobotida quyidagilar bo‘lishi kerak:

qarzdorning so‘nggi hisobot sanasidagi holatga ko‘ra buxgalteriya balansi;

pul mablag‘larining harakati to‘g‘risidagi hisobot;

qarzdorning moliyaviy natijalari haqidagi hisobot;

qarzdorning pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga qaratilishi mumkin bo‘lgan bo‘sh pul mablag‘lari bor-yo‘qligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

qarzdorning debitorlik qarzi tafsiloti hamda qarzdorning amalga oshirilmay qolgan talab qilish huquqlari haqidagi ma’lumotlar;

qarzdorning kreditorlik qarzini to‘lash imkoniyati to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlar.

Tashqi boshqaruvchining hisobotiga kreditorlarning talablari reyestri ilova qilingan bo‘lishi kerak.

Tashqi boshqaruvchi hisobotni taqdim etish bilan bir vaqtda kreditorlar yig‘ilishiga quyidagi takliflardan birini kiritadi:

qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanganligi munosabati bilan tashqi boshqaruv tartib-taomilini tugatish va kreditorlar bilan hisob-kitob qilishga o‘tish to‘g‘risidagi;

kelishuv bitimi tuzish haqidagi;

tashqi boshqaruv tartib-taomilining muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi;

tashqi boshqaruvni tugatish hamda qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish haqidagi.

Sharhlanayotgan modda tashqi boshqaruvchining hisobot taqdim etish asoslari, shuningdek, taqdim etiladigan hisobotga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismi tashqi boshqaruvchiga tashqi boshqaruv tartib-taomili tugashi yoki muddatidan oldin tugatish uchun asoslar paydo bo‘lganida kreditorlar yig‘ilishi chaqirish majburiyatini belgilaydi. Bundan tashqari, agar bar-

cha kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun yetarli pul mablag‘lari to‘plangan bo‘lsa, tashqi boshqaruvchi kreditorlar yig‘ilishiga hisobot taqdim qilishi kerak. Tashqi boshqaruvchi tashqi boshqaruv tartib-taomili muddatlari tugashi munosabati bilan yoki uni muddatidan ilgari tugatish uchun asoslar mavjud bo‘lganda kreditorlar yig‘ilishini chaqirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarning (organlarning) talabiga binoan, shuningdek, kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq barcha kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun yetarli pul mablag‘lari to‘plangan taqdirda kreditorlar yig‘ilishi ko‘rib chiqishi uchun hisobot taqdim etishi shart.

2. Ushbu normaga ko‘ra, agar kreditorlar yig‘ilishi tashqi boshqaruvchining hisobotini ko‘rib chiqib, muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash haqida qaror qabul qilsa, tashqi boshqaruvchi bu haqida sudga rasmiy hisobot taqdim etishi shart. Masalan, kreditorlar yig‘ilishi birinchi navbatdagi kreditorlar talablarini qondirishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilgan bo‘lsa, tashqi boshqaruvchi mazkur qaror va amalga oshirilayotgan hisob-kitoblar haqida sudni xabardor qilishi lozim. Bu tartib tashqi boshqaruv jarayoni ustidan sud nazoratini ta’minlash, kreditorlar talablarining qonuniy navbat asosida qondirilishini tekshirish va mablag‘larning shaffof taqsimlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

3. Tashqi boshqaruvchining hisobotida quyidagilar bo‘lishi kerak: qarzdorning so‘nggi hisobot sanasidagi holatga ko‘ra buxgalteriya balansi; pul mablag‘larining harakati to‘g‘risidagi hisobot; qarzdorning moliyaviy natijalari haqidagi hisobot; qarzdorning pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga qaratilishi mumkin bo‘lgan bo‘sh pul mablag‘lari bor-yo‘qligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar; qarzdorning debitorlik qarzi tafsiloti hamda qarzdorning amalga oshirilmay qolgan talab qilish huquqlari haqidagi ma’lumotlar; qarzdorning kreditorlik qarzini to‘lash imkoniyati to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlar.

4. Ushbu normaga ko‘ra, tashqi boshqaruvchi sudga yoki kreditorlar yig‘ilishiga taqdim etadigan hisobotga kreditorlarning talablari reyestri ham majburiy tartibda ilova qilinishi shart. Masalan, tashqi boshqaruvchi qarzdorning moliyaviy ahvoli yoki kreditorlar bilan hisob-kitoblar haqida hisobot berganda qaysi kreditorning qancha talabi mavjudligi va ularning qondirilish navbati ko‘rsatilgan reyestrni ham taqdim etishi lozim. Bu orqali sud va kreditorlar qarzdorning majburiyatlari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘ladi hamda hisob-kitoblarning qonuniy va shaffof tarzda amalga oshirilayotganini tekshirish imkoniyati yaratiladi.

5. Tashqi boshqaruvchi hisobotni taqdim etish bilan bir vaqtda kreditorlar yig‘ilishiga quyidagi takliflardan birini kiritadi: qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanganligi sababli tashqi boshqaruv tartib-taomilini tugatish va kreditorlar bilan hisob-kitob qilishga o‘tish; kelishuv bitimi tuzish; tashqi boshqaruvni tugatish hamda qarzdorni bankrot deb topish. Qarang: Xalqaro sharh. 774-b.

133-modda. Tashqi boshqaruvchining hisobotini ko‘rib chiqish

Tashqi boshqaruvchining hisoboti tashqi boshqaruv tartib-taomili muddati tugaganidan keyin o‘n kundan kechiktirmay yoki tashqi boshqaruv tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish uchun asoslar yuzaga kelganidan keyin o‘n besh kundan kechiktirmay yoxud kreditorlar yig‘ilishini chaqirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarning (organlarning) talabiga binoan kreditorlar yig‘ilishi chaqirilgan taqdirda bir oydan kechiktirmay chaqiriladigan kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Tashqi boshqaruvchi barcha kreditorlarga tashqi boshqaruvchining hisobotini ko‘rib chiqish bo‘yicha kreditorlar yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risida ushbu Qonunning 14-moddasida nazarda tutilgan tartibda xabar berishi shart.

Tashqi boshqaruvchi kreditorlarga tashqi boshqaruv tartib-taomilining muddati tugashiga kamida o‘n besh kun qolganida yoki kreditorlar yig‘ilishini chaqirishning belgilangan sanasiga kamida o‘n kun qolganida tashqi boshqaruvchining hisoboti bilan oldindan tanishish imkoniyatini berishi shart.

Kreditorlar yig‘ilishi tashqi boshqaruvchining hisobotini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qilishga haqli:

qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanganligi va kreditorlar bilan hisob-kitob qilishga kirishganligi munosabati bilan tashqi boshqaruv tartib-taomilini tugatish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish haqidagi;

kelishuv bitimi tuzish to‘g‘risidagi;

tashqi boshqaruv tartib-taomilining muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish haqidagi;

qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish haqidagi.

Sharhlanayotgan moddada tashqi boshqaruvchining hisobotini kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ko‘rib chiqish tartibi, kreditorlarni xabardor qilish va hisobot bilan oldindan tanishtirish muddatlari, shuningdek, hisobot natijalari bo‘yicha tashqi boshqaruvni tugatish, uzaytirish, kelishuv bitimi tuzish yoki qarzdorni bankrot deb topish haqida qaror qabul qilish mumkinligi belgilangan.

1. Tashqi boshqaruvchining hisoboti tashqi boshqaruv tartib-taomili muddati tugaganidan keyin o‘n kundan kechiktirmay yoki shu tartib-taomilni muddatidan ilgari tugatish uchun asoslar yuzaga kelganidan keyin o‘n besh kundan kechiktirmay taqdim etilishi kerak. Agar kreditorlar yig‘ilishi chaqirilsa, bu hisobot bir oydan kechiktirmay ko‘rib chiqilishi zarur. Demak, bu qismda hisobotni vaqtida taqdim etish va tegishli qarorlarni qabul qilish jarayonining aniq muddati belgilangan.

2. Tashqi boshqaruvchi barcha kreditorlarga hisobotni ko‘rib chiqish uchun kreditorlar yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risida xabar berishш shart. Qonunning 14-moddasiga muvofiq, kreditorni yoki kreditorlar yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan

boshqa shaxsni shaxsan xabardor qilish uchun zarur ma'lumotlarni aniqlash imkoni bo'lmaganda yoxud mazkur shaxslarni shaxsan xabardor etish imkonini bermaydigan boshqa holatlar mavjud bo'lgan taqdirda kreditorlar yig'ilishi o'tkazilishi haqidagi xabarning Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda va u belgilagan ommaviy axborot vositasida e'lon qilinishi ana shunday shaxslarni lozim darajada xabardor qilish deb e'tirof etiladi.

Kreditorlar yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabarda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak: qarzdor yuridik shaxsning nomi va joylashgan yeri; kreditorlar yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joy; kreditorlar yig'ilishining kun tartibi; kreditorlar yig'ilishida ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan materiallar bilan tanishish tartibi; kreditorlar yig'ilishi ishtirokchilarini ro'yxatga olish tartibi; qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning yoki jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi va yashash joyi.

3. Ushbu normaga ko'ra, tashqi boshqaruvchi kreditorlarga o'z hisoboti bilan oldindan tanishib chiqish uchun yetarli vaqt ajratishi shart. Xususan, tashqi boshqaruv tartibtaomili tugashiga kamida o'n besh kun qolganda yoki kreditorlar yig'ilishi o'tkazilishidan kamida o'n kun oldin kreditorlar hisobot bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Masalan, kreditorlar yig'ilishi 20-iyun kuniga belgilangan bo'lsa, tashqi boshqaruvchi hisobotni kamida 10-iyunga qadar kreditorlarga taqdim etishi yoki tanishish uchun ochiq qilishi shart. Bu tartib kreditorlarga hisobotni tahlil qilish, tashqi boshqaruv natijalarini baholash va yig'ilishda asoslangan qaror qabul qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

4. Ushbu normaga ko'ra, kreditorlar yig'ilishi tashqi boshqaruvchining hisobotini ko'rib chiqqanidan so'ng qarzdorning moliyaviy ahvoli va tashqi boshqaruv natijalaridan kelib chiqib bir nechta muhim qarorlardan birini qabul qilish huquqiga ega. Xususan, agar qarzdorning to'lov qobiliyati tiklangan va kreditorlar bilan hisob-kitoblar boshlangan bo'lsa, tashqi boshqaruvni tugatish haqida sudga murojaat qilinishi mumkin. Masalan, korxona o'z faoliyatini tiklab, qarzlarni to'lash imkoniyatiga ega bo'lgan taqdirda, kreditorlar tashqi boshqaruvni yakunlashni so'rab sudga murojaat qiladi. Agar taraflar o'zaro kelishuvga erishsa, kelishuv bitimi tuzish, tashqi boshqaruvni davom ettirish zarur bo'lsa, uning muddatini uzaytirish yoki, aksincha, moliyaviy ahvolni tiklash imkoni bo'lmasa, qarzdorni bankrot deb topib tugatish jarayonini boshlash haqida qaror qabul qilinishi mumkin. Ushbu norma kreditorlarga tashqi boshqaruv jarayoni taqdiri bo'yicha hal qiluvchi qarorlarni qabul qilish orqali ularning manfaatlarini himoya qilish imkonini beradi. Qarang: Xalqaro sharh. 774-b.

134-modda. Tashqi boshqaruvchi hisobotining sud tomonidan tasdiqlanishi

Tashqi boshqaruvchining kreditorlar yig'ilishi tomonidan ko'rib chiqilgan hisoboti va kreditorlar yig'ilishining bayonnomasi kreditorlar yig'ilishi o'tkazilgan sanadan keyin ikki kundan kechiktirmay tashqi boshqaruvchi tomonidan sudga yuboriladi.

Tashqi boshqaruvchining hisobotiga kreditorlarning talablari reyestri va kreditorlar yig‘ilishi qabul qilgan qarorga qarshi ovoz bergan yoki ovoz berishda ishtirok etmagan kreditorlarning shikoyatlari ilova qilinishi kerak.

Tashqi boshqaruvchining hisoboti va kreditorlarning shikoyatlari sud tomonidan majlisda ko‘rib chiqiladi. Sud majlisi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joy to‘g‘risida tashqi boshqaruvchi, shuningdek, shikoyat bergan kreditorlar xabardor qilinadi. Xabardor qilingan shaxslarning hozir bo‘lmasligi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rishga monelik qilmaydi.

Tashqi boshqaruvchining hisoboti quyidagi hollarda sud tomonidan tasdiqlanishi lozim, agar:

kreditorlarning barcha talablari kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq qanoatlantirilgan bo‘lsa;

qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanishi va kreditorlar bilan hisob-kitoblarga o‘tilishi munosabati bilan kreditorlar yig‘ilishi tashqi boshqaruv tartib-taomilini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan bo‘lsa;

kreditorlar yig‘ilishi tomonidan muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblar boshlanishi haqida qaror qabul qilingan bo‘lsa;

tashqi boshqaruvchi muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash to‘g‘risida iltimosnoma bergan bo‘lsa;

kreditorlar bilan qarzdor o‘rtasida kelishuv bitimi tuzilgan bo‘lsa;

tashqi boshqaruv tartib-taomili muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish haqida kreditorlar yig‘ilishi tomonidan qaror qabul qilingan bo‘lsa.

Sud, agar quyidagilar aniqlangudek bo‘lsa, tashqi boshqaruvchining hisobotini tasdiqlashni rad etadi:

kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq barcha kreditorlarning talablari qanoatlantirilmaganligi;

qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanishi alomatlari mavjud emasligi;

muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash uchun asoslar mavjud emasligi;

kelishuv bitimini tasdiqlash uchun moneliklar mavjudligi.

Tashqi boshqaruvchining hisobotini ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra sud, agar:

kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq barcha kreditorlarning talablari qanoatlantirilgan bo‘lsa yoki kelishuv bitimi sud tomonidan tasdiqlangan bo‘lsa, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritishni tugatish haqida;

qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanishi munosabati bilan kreditorlar yig‘ilishining tashqi boshqaruv tartib-taomilini tugatish to‘g‘risidagi iltimosnomasi qanoatlantirilgan taqdirda, kreditorlar bilan hisob-kitoblarga o‘tish to‘g‘risida;

kreditorlar yig‘ilishining yoki tashqi boshqaruvchining muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblar qilishni boshlash to‘g‘risidagi iltimos-

nomasi qanoatlantirilgan taqdirda, muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash haqida;

tashqi boshqaruv tartib-taomili muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnoma qanoatlantirilgan taqdirda, tashqi boshqaruv tartib-taomili muddatini uzaytirish to‘g‘risida;

ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan holatlar aniqlangan taqdirda, tashqi boshqaruvchining hisobotini tasdiqlashni rad etish haqida ajrim chiqaradi.

Kreditorlar yig‘ilishining qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi iltimosnomasi mavjud bo‘lsa, shuningdek, tashqi boshqaruvchining hisobotini tasdiqlashni sud rad etgan yoki tashqi boshqaruvchining hisoboti tashqi boshqaruv tartib-taomilining belgilangan muddati tugagan paytdan e’tiboran bir oylik muddat ichida taqdim etilmagan yoxud uning ushbu Qonun 133-moddasi to‘rtinchi qismining ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi xatboshilarida nazarda tutilgan qarorlaridan hech biri qabul qilinmagan bo‘lsa, sud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qaror qabul qiladi.

Sharhlanayotgan moddada tashqi boshqaruvchi hisobotining sud tomonidan tasdiqlanishi tartibi ko‘rsatilgan. Ushbu modda tashqi boshqaruvchi hisobotini sudga taqdim etish va sud tomonidan ko‘rib chiqish tartibini, sud hisobotni tasdiqlash yoki rad etishi mumkin bo‘lgan holatlarni, shuningdek, tashqi boshqaruvchi hisobotini ko‘rib chiqish natijasida sud qabul qilishi mumkin bo‘lgan sud hujjatlari turlarini belgilaydi.

1. Ushbu normaga ko‘ra, tashqi boshqaruvchi kreditorlar yig‘ilishida muhokama qilingan o‘z hisoboti hamda yig‘ilish bayonnomasini yig‘ilish o‘tkazilgan kundan boshlab ikki kun ichida sudga taqdim etishi shart. Masalan, kreditorlar yig‘ilishi 5-avgust kuni o‘tkazilgan bo‘lsa, tashqi boshqaruvchi hisobot va bayonnomani eng kechi bilan 7-avgustga qadar sudga yuborishi lozim. Bu tartib sudning tashqi boshqaruv jarayoni ustidan doimiy nazoratini ta’minlash, kreditorlar qabul qilgan qarorlarni rasmiylashtirish va ish yuritishni kechiktirmasdan davom ettirishga xizmat qiladi.

2. Ushbu normaga ko‘ra, tashqi boshqaruvchi sudga taqdim etadigan hisobotga nafaqat kreditorlar talablari reyestri, balki kreditorlar yig‘ilishida qabul qilingan qarorga qarshi ovoz bergan yoki ovoz berishda ishtirok etmagan kreditorlarning shikoyatlari ham ilova qilinishi shart. Masalan, ayrim kreditorlar tashqi boshqaruvni uzaytirish yoki qarzdorni bankrot deb topish haqidagi qarordan norozi bo‘lsa, ularning e’tiroz va shikoyatlari ham sudga yetkazilishi lozim. Bu orqali sud barcha kreditorlar pozitsiyasini to‘liq o‘rganish, qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi va adolatliligini tekshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

3. Ushbu normaga ko‘ra, tashqi boshqaruvchining hisoboti va kreditorlar tomonidan berilgan shikoyatlar sud majlisida ko‘rib chiqiladi hamda sud majlisi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joy haqida tashqi boshqaruvchi va shikoyat bergan kreditorlar

oldindan xabardor qilinishi shart. Masalan, kreditor tashqi boshqaruvchining hisobotidan norozi bo‘lib shikoyat kiritgan bo‘lsa, sud ushbu masalani ochiq majlisda ko‘rib chiqadi va taraflarga ishtirok etish imkoniyatini beradi. Biroq tegishli tartibda xabardor qilingan shaxslar sud majlisiga kelmagan taqdirda ham ishni ko‘rib chiqish to‘xtatilmaydi. Ushbu norma sud muhokamasining tezkorligini ta’minlash, ish yuritishni sun’iy kechiktirishning oldini olish va taraflarga o‘z pozitsiyasini bildirish uchun teng imkoniyat yaratishga xizmat qiladi.

4. Ushbu normaga ko‘ra, tashqi boshqaruvchining hisoboti muayyan qonunchilik asoslari mavjud bo‘lgan hollarda sud tomonidan tasdiqlanishi shart. Xususan, agar kreditorlarning barcha talablari qondirilgan, qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklangan, kreditorlar bilan hisob-kitoblar boshlangan yoki kreditorlar yig‘ilishi tashqi boshqaruvni tugatish, uzaytirish yoki kelishuv bitimi tuzish haqida qaror qabul qilgan bo‘lsa, sud tashqi boshqaruvchining hisobotini tasdiqlaydi. Masalan, tashqi boshqaruv natijasida qarzdor moliyaviy barqarorlikka erishib, kreditorlar oldidagi qarzlarni to‘lashni boshlagan bo‘lsa, kreditorlar yig‘ilishi tashqi boshqaruvni tugatish haqida qaror qabul qilishi mumkin va bu holda sud hisobotni tasdiqlaydi. Shuningdek, ayrim navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash yoki tashqi boshqaruv muddatini uzaytirish zarurati tug‘ilganda ham sud hisobotni ko‘rib chiqib, tegishli qaror qabul qiladi. Mazkur norma tashqi boshqaruv jarayonining qonuniyligi va samaradorligi ustidan sud nazoratini ta’minlashga xizmat qiladi.

5. Ushbu normaga ko‘ra, sud tashqi boshqaruvchining hisobotini faqat qonunchilikda belgilangan talablar bajarilgan taqdirdagina tasdiqlaydi, aks holda, uni tasdiqlashni rad etadi. Xususan, agar kreditorlarning barcha talablari qondirilmagan, qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanmagan, muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash uchun yetarli asoslar bo‘lmagan yoki kelishuv bitimini tasdiqlashga to‘sqinlik qiluvchi holatlar mavjud bo‘lsa, sud hisobotni tasdiqlamaydi. Masalan, tashqi boshqaruvchi qarzdor moliyaviy ahvoli yaxshilanganini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, amalda kreditorlar talablarining katta qismi qondirilmagan bo‘lsa, sud hisobotni rad etishi mumkin. Bu norma tashqi boshqaruv jarayonining formal emas, balki haqiqiy natijalarga asoslanishini ta’minlash hamda kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

6. Ushbu normaga ko‘ra, sud tashqi boshqaruvchining hisobotini ko‘rib chiqish natijalari asosida qarzdorning moliyaviy ahvoli va kreditorlar bilan hisob-kitoblar holatidan kelib chiqib ish yuritishni tugatish, kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash, tashqi boshqaruv muddatini uzaytirish yoki tashqi boshqaruvchining hisobotini tasdiqlashni rad etish haqida ajrim chiqaradi. Masalan, agar kreditorlarning barcha talablari qondirilgan bo‘lsa yoki kelishuv bitimi tasdiqlangan bo‘lsa, sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni tugatadi. Agar qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklangan bo‘lsa, sud kreditorlar bilan hisob-kitoblarga o‘tish haqida qaror qabul qilishi mumkin. Shuningdek, tashqi boshqaruv samara bermagan yoki qonunda nazarda tutilgan kamchiliklar aniqlangan taqdirda, sud tashqi boshqaruvchining hisobotini tasdiqlashni rad etadi. Mazkur norma tashqi boshqaruv natijalariga huquqiy baho berish va keyingi jarayonni belgilashda sudning hal qiluvchi rolini mustahkamlaydi.

7. Ushbu normaga ko‘ra, agar tashqi boshqaruv jarayoni kutilgan natijani bermagan, tashqi boshqaruvchining hisoboti sud tomonidan rad etilgan, hisobot o‘z vaqtida taqdim etilmagan yoki kreditorlar yig‘ilishi qarzdorning kelgusi taqdiri bo‘yicha zarur qarorlarni qabul qilmagan bo‘lsa, sud qarzdorni bankrot deb topish va tugatish jarayonini boshlash haqida qaror qabul qiladi. Masalan, tashqi boshqaruvchi belgilangan muddatda hisobot taqdim etmasa yoki kreditorlar yig‘ilishi tashqi boshqaruvni uzaytirish, kelishuv bitimi tuzish yoki hisob-kitoblarga o‘tish haqida qaror qabul qilmasa, sud ishni tugatish bosqichiga o‘tkazishi mumkin. Shuningdek, kreditorlar yig‘ilishi o‘zi qarzdorni bankrot deb topishni so‘rab iltimosnoma kiritgan taqdirda ham sud tegishli qaror qabul qiladi. Mazkur norma tashqi boshqaruv jarayoni samarasiz kechgan holatlarda ishni sun’iy ravishda cho‘zib yuborishning oldini olish va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 774-b.

135-modda. Kreditorlar bilan hisob-kitoblarga o‘tish to‘g‘risida ajrim chiqarish oqibatlari

Kreditorlar bilan hisob-kitoblarga o‘tish to‘g‘risida sud tomonidan ajrim chiqarilishi kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq barcha kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash uchun asos bo‘ladi.

Kreditorlar bilan hisob-kitoblarga o‘tish haqidagi sud ajrimida kreditorlar bilan hisob-kitoblarning tamomlanish muddati belgilanadi, bu muddat mazkur ajrim chiqarilgan sanadan e’tiboran olti oydan oshmasligi kerak.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish kreditorlar bilan hisob-kitoblar tugallanganidan va tashqi boshqaruvchining hisoboti kreditorlar bilan hisob-kitoblar yakunlariga ko‘ra sud tomonidan ko‘rib chiqilganidan keyin tugatiladi.

Agar sud tomonidan belgilangan muddatda kreditorlar bilan hisob-kitoblar amalga oshirilmagan bo‘lsa, sud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qaror qabul qiladi.

Sharhlanayotgan moddada sudning kreditorlar bilan hisob-kitoblarga o‘tish haqidagi ajrimi barcha kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash uchun asos bo‘lishi, bunday hisob-kitoblar olti oydan oshmaydigan muddatda yakunlanishi, ular tugagandan so‘ng ish yuritish tugatilishi hamda belgilangan muddatda hisob-kitoblar amalga oshirilmasa, qarzdorni bankrot deb topish va tugatish jarayoni boshlanishi belgilangan.

1. Ushbu normaga ko‘ra, sud tomonidan kreditorlar bilan hisob-kitoblarga o‘tish haqida ajrim chiqarilgan paytdan boshlab qarzdor kreditorlarning talablari reyestrida ko‘rsatilgan tartib va navbat asosida barcha kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlashi shart. Masalan, sud qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklangan deb topib, hisob-kitoblarga o‘tish haqida ajrim chiqarsa, tashqi boshqaruvchi kreditorlar reyestrida belgilangan navbatga muvofiq qarzlarni to‘lash jarayonini boshlaydi. Bu norma kreditorlar talablarini qondirishning huquqiy asosini belgilash, hisob-kitoblarni tartibli va qonuniy amalga oshirish hamda barcha kreditorlarga nisbatan teng munosabatni ta’minlashga xizmat qiladi.

2. Ushbu normaga ko‘ra, sud kreditorlar bilan hisob-kitoblarga o‘tish haqida ajrim chiqarayotganda qarzdorning kreditorlar bilan hisob-kitoblarni qaysi muddatda yakunlashi lozimligini ham belgilaydi va bu muddat olti oydan ortiq bo‘lishi mumkin emas. Masalan, sud 1-mart kuni hisob-kitoblarga o‘tish haqida ajrim chiqargan bo‘lsa, kreditorlar bilan barcha hisob-kitoblar eng kechi bilan 1-sentyabrga qadar tugallanishi kerak. Bu tartib tashqi boshqaruv jarayonini asossiz cho‘zib yuborishning oldini olish, kreditorlar talablarini o‘z vaqtida qondirish va ish yuritishning aniq muddatlar asosida amalga oshirilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida tashqi boshqaruv tartib-taomili davrida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish shartlari ko‘rsatiladi. Bunday shartlarga kreditorlar bilan hisob-kitoblar tugallanishi va tashqi boshqaruvchining hisoboti kreditorlar bilan hisob-kitoblar yakunlariga ko‘ra sud tomonidan ko‘rib chiqilishi kiradi. Mazkur harakatlar amalga oshirilganidan so‘ng tashqi boshqaruv tartib-taomili davrida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish tugatiladi.

4. Ushbu normaga ko‘ra, agar sud belgilagan muddat ichida kreditorlar bilan hisob-kitoblar to‘liq amalga oshirilmasa, sud qarzdorni bankrot deb topish va uni tugatish jarayonini boshlash haqida qaror qabul qiladi. Masalan, sud kreditorlar bilan hisob-kitoblarni olti oy ichida yakunlash muddatini belgilagan bo‘lsa-da, shu muddat oxiriga qadar qarzlar qoplanmasa, tashqi boshqaruv samara bermagan deb hisoblanadi. Bunday holatda sud qarzdorning moliyaviy ahvolini tiklash imkoniyati qolmaganini inobatga olib tugatishga doir ish yuritish bosqichiga o‘tadi. Mazkur norma tashqi boshqaruv jarayonini cheksiz davom ettirishning oldini olish va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 774-b.

136-modda. Muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash to‘g‘risida ajrim chiqarish oqibatlari

Sud tomonidan muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash to‘g‘risida ajrim chiqarilishi kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash uchun asos bo‘ladi.

Sudning muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash to‘g‘risidagi ajrimida quyidagilar belgilanadi:

talablari qanoatlantirilishi boshlanadigan kreditorlarning talablarini qanoatlantirish navbati;

navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni tugallash navbatining mazkur ajrim chiqarilgan sanadan e’tiboran ikki oydan oshmasligi shart bo‘lgan muddati;

bunday navbatdagi kreditorlarning talablarini qanoatlantirish nisbatlari.

Kreditorlarning ular bilan hisob-kitoblarni boshlash haqida ajrim chiqarilgan kreditorlarga nisbatan navbat tartibida qanoatlantirilishi lozim bo‘lgan talablari sud tomonidan aniqlangan taqdirda, sud kreditorlarning talablarini qanoatlantirish tartibini o‘zgartirish to‘g‘risida ajrim chiqarishga haqli.

Agar muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblar sud tomonidan belgilangan muddatda amalga oshirilmagan yoki hisob-kitoblar belgilangan nisbatda amalga oshirilmagan bo‘lsa, kreditor muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash to‘g‘risidagi ajrim chiqarilgan sanadan e’tiboran to uning talablari tegishincha to‘la yoxud belgilangan nisbatda qanoatlantirilgan sanaga qadar to‘lanmagan summaga O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 327-moddasida nazarda tutilgan miqdorda foizlar hisoblanishini talab qilishga haqli.

Sharhlanayotgan moddada sudning muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash haqidagi ajrimi kreditorlar talablarini belgilangan navbat, muddat va nisbatlarda qondirish uchun asos bo‘lishi, hisob-kitoblar tartibi sud tomonidan o‘zgartirilishi mumkinligi hamda belgilangan muddat yoki nisbatlarga rioya etilmagan taqdirda, kreditorlar foiz undirish huquqiga ega ekani belgilangan.

1. Sud tomonidan muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash to‘g‘risida ajrim chiqarilishi kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlashga imkon beradi. Tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayonida muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblar qilish uchun yetarli pul mablag‘lari mavjud bo‘lganda, kreditorlar yig‘ilishi yoki tashqi boshqaruvchi muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblar qilish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilishi mumkin. Sud bunday iltimosnomani ko‘rib chiqqach, uni asosli deb topsa, muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblar qilish bosqichiga o‘tiladi.

2. Ushbu normaga ko‘ra, sud muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash haqida ajrim chiqarganda ushbu hisob-kitoblarni amalga oshirishning asosiy shartlarini aniq belgilab qo‘yadi. Xususan, ajrimda qaysi navbatdagi kreditorlarning talablari qondirilishi boshlanishi, hisob-kitoblar qaysi muddatda yakunlanishi va kreditorlar talablari qanday nisbatda qondirilishi ko‘rsatiladi. Masalan, sud birinchi navbatdagi kreditorlar talablarini ikki oy ichida 70 foiz miqdorida qondirishni belgilashi mumkin. Bu tartib kreditorlar bilan hisob-kitoblarning aniq reja asosida, shaffof va tartibli amalga oshirilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

3. Ushbu normaga ko‘ra, agar sud muayyan kreditorlar bilan hisob-kitoblar boshlanganidan keyin boshqa kreditorlarning talablari ulardan oldingi navbatda qondirilishi lozimligini aniqlasa, sud kreditorlar talablarini qondirish tartibini o‘zgartirish huquqiga ega bo‘ladi. Masalan, dastlab ikkinchi navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitob boshlangan bo‘lsa, keyinchalik birinchi navbatda qondirilishi shart bo‘lgan xodimlar yoki boshqa imtiyozli kreditorlar talablari mavjudligi aniqlansa, sud hisob-kitoblar ketma-ketligini qayta belgilashi mumkin. Bu norma kreditorlar talablarining qonunda belgilangan navbat asosida adolatli qondirilishini ta’minlash va ayrim kreditorlar huquqlari buzilishining oldini olishga xizmat qiladi.

4. Ushbu normaga ko‘ra, agar muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblar sud belgilagan muddatda yoki belgilangan nisbatda amalga oshirilmasa, kreditor to‘-

lanmagan summa uchun qo‘shimcha foiz undirishni talab qilish huquqiga ega bo‘ladi. Masalan, sud kreditor talabining 80 foizini ikki oy ichida qondirishni belgilagan bo‘lsa, ammo ushbu muddatda mablag‘ to‘lanmagan yoki qisman to‘langan bo‘lsa, kreditor to‘lanmay qolgan summaga nisbatan FKning 327-moddasiga muvofiq foiz hisoblanishini talab qilishi mumkin. Bunda foizlar hisob-kitoblarni boshlash haqidagi sud ajrimi chiqarilgan kundan boshlab talab to‘liq yoki belgilangan miqdorda qondirilgan kunga qadar hisoblanadi. Mazkur norma kreditorlarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish va hisob-kitoblarni o‘z vaqtida amalga oshirishga rag‘batlantirishga xizmat qiladi.Qarang: Xalqaro sharh. 774-b.

137-modda. Kreditorlar bilan hisob-kitoblar

Kreditorlar bilan hisob-kitoblarni tashqi boshqaruvchi sud tomonidan kreditorlar bilan hisob-kitoblarga o‘tish to‘g‘risidagi ajrim yoki muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash haqidagi ajrim chiqarilgan kundan e’tiboran kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq amalga oshiradi.

Kreditorlar bilan hisob-kitoblar ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Qarzdorning pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlari bajarilgan paytdan boshlab tashqi boshqaruvchi kreditorlarning talablari reyestriga tegishli yozuvni kiritadi.

Sharhlanayotgan moddada tashqi boshqaruvchi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni sudning tegishli ajrimi chiqqan kundan boshlab kreditorlar talablari reyestri asosida qonunda belgilangan tartibda amalga oshirishi hamda qarzdorning majburiyatlari bajarilganidan keyin bu haqida reyestrga tegishli yozuv kiritishi belgilangan.

1. Ushbu normaga ko‘ra, tashqi boshqaruvchi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni faqat sud tomonidan tegishli ajrim chiqarilganidan keyin va kreditorlar talablari reyestrida belgilangan navbat hamda miqdorlarga muvofiq amalga oshiradi. Masalan, sud kreditorlar bilan umumiy hisob-kitoblarga o‘tish yoki muayyan navbatdagi kreditorlar talablarini qondirishni boshlash haqida ajrim chiqargan kundan boshlab tashqi boshqaruvchi qarzlarni to‘lash jarayonini boshlaydi. Bunda qaysi kreditorga qancha mablag‘ to‘lanishi kreditorlar talablari reyestri asosida aniqlanadi. Mazkur norma hisob-kitoblarning tartibli, shaffof va qonunchilikda belgilangan navbat asosida amalga oshirilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

2. Qonunning 154-moddasida kreditorlar bilan hisob-kitob qilish tartibi va Qonunning 150-moddasida kreditorlarning talablarini qanoatlantirish navbati ko‘rsatilgan bo‘lib, mazkur hisob-kitoblarni amalga oshirish shartlari va navbatlari nafaqat tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilida, balki tashqi boshqaruv davrida ham qo‘llaniladi. Shuningdek, tashqi boshqaruv davrida qarzdorning mol-mulki bilan ta’minlangan kreditorlarning talablarini qanoatlantirish va hisob-kitob qilish Qonunning 149-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi kreditorlarning talablari reyestriga yozuvlarni kiritish jarayonini belgilaydi. Unga ko‘ra, agar qarzdorning pul majburiyatlari, soliqlar yoki yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlar bajarilsa, tashqi boshqaruvchi bu haqidagi yozuvlarni kreditorlar talablari reyestriga kiritishga majbur. Bu yozuvlar kreditorlar bilan hisob-kitoblarning bosqichli va aniq tartibda amalga oshirilishini ta’minlash uchun muhimdir. Qarang: Xalqaro sharh. 774-b.

138-modda. Kreditorlar talablarining qanoatlantirilishi

Kreditorlarning qanoatlantirilgan talablari, shuningdek, qaysi talablar bo‘yicha haq evaziga voz kechish yoki majburiyatlarni yangilash yoxud pul majburiyatlarini o‘zgacha tarzda tugatish to‘g‘risida kelishuvga erishilgan bo‘lsa, o‘sha talablar hamda ushbu Qonunning 150- va 154-moddalariga muvofiq qanoatlantirilgan deb e’tirof etiladigan boshqa talablar qanoatlantirilgan deb hisoblanadi.

Sharhlanayotgan moddada qanoatlantirilgan deb hisoblangan (qayta ko‘rib chiqilmaydigan) kreditorlarning talablari qayd etilgan bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: a) qanoatlantirilgan talablar; b) haq evaziga voz kechilgan yoki majburiyatlar yangilangan yoxud pul majburiyatlarini o‘zgacha tarzda tugatish to‘g‘risida kelishuvga erishilgan talablar; d) Qonunning 150- va 154-moddalariga muvofiq qanoatlantirilgan deb e’tirof etiladigan boshqa talablar. Qonunning 150-moddasi yettinchi qismiga ko‘ra, undirib olinayotgan summa bir navbatning barcha talablarini to‘la qanoatlantirish uchun yetarli bo‘lmasa, bu talablar har bir undiruvchi olishi lozim bo‘lgan summaga mutanosib ravishda qanoatlantiriladi. Shuningdek, Qonunning 154-moddasi beshinchi qismiga muvofiq, kreditorlarning qarzdor mol-mulki yetarli bo‘lmaganligi sababli qanoatlantirilmagan talablari ham qanoatlantirilgan talablar deb hisoblanadi, bundan qarzdor majburiyatlari boshqa shaxslar tomonidan ta’minlangan holatlar mustasno. Tugatish boshqaruvchisi tomonidan kreditorlarning tan olinmagan talablari ham, agar kreditor sudga murojaat etmagan bo‘lsa yoki bunday talablar sud tomonidan asossiz deb topilgan bo‘lsa, qanoatlantirilgan talablar deb hisoblanadi.

Qonunning 128-moddasiga muvofiq, qarzdorning talab qilish huquqlaridan o‘zganing foydasiga voz kechish, agar tashqi boshqaruv rejasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, talab qilish huquqlarini tashqi boshqaruvchi tomonidan kreditorlar yig‘ilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining roziligi bilan elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida sotish orqali amalga oshirilishi mumkin. FKning 342-moddasiga muvofiq, qarzdor va kreditor o‘rtasida voz kechish haqidagi kelishuvga ko‘ra majburiyat uni bajarish o‘rniga voz kechish haqini berish (pul to‘lash, mol-mulk berish va shu kabilar) bilan bekor qilinishi mumkin.

Majburiyatni yangilash haqida bitim imzolanishi FKning 347-moddasi bilan tartibga solinadi. Majburiyatni yangilash haqida bitimga ko‘ra, taraflar o‘z o‘rtalaridagi dastlabki majburiyatni boshqa narsani yoki boshqacha ijro etish usulini nazarda tu-

tuvchi yangi majburiyat bilan almashtirish haqida kelishib olsalar, majburiyat bekor bo‘ladi. Hayot yoki sog‘liqqa yetkazilgan zararni qoplash va alimentlarga nisbatan majburiyatlar xususida yangilashni amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Agar taraflarning kelishuviga muvofiq boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, majburiyatni yangilash dastlabki majburiyat bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shimcha majburiyatlarni ham bekor qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 774-b.

139-modda. Tashqi boshqaruvchining vakolatlarini tugatish tartibi

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish tugatilganligi yoki sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qaror qabul qilinganligi tashqi boshqaruvchining vakolatlari tugashiga olib keladi.

Agar tashqi boshqaruv tartib-taomili kelishuv bitimini tuzish yoki kreditorlarning talablari qanoatlantirilishi bilan tamomlansa, tashqi boshqaruvchi yangi rahbar saylanguniga (tayinlanguniga) qadar qarzdorning rahbari vazifasini bajarishni davom ettirib turadi.

Tashqi boshqaruvchi qarzdorning rahbarini saylash (tayinlash) to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish uchun qarzdorning boshqaruv organini o‘z tashabbusi bilan chaqirishga haqli. Qarzdorning va qarzdor mol-mulki egasining boshqa boshqaruv organlari vakolatlari tiklanadi.

Agar sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilingan hamda tugatish boshqaruvchisi etib boshqa shaxs tayinlangan bo‘lsa, tashqi boshqaruvchi tugatish boshqaruvchisiga ishlarni topshirguniga qadar o‘z vazifasini bajarishni davom ettirib turadi. Tashqi boshqaruvchi tugatish boshqaruvchisi tayinlangan sanadan e’tiboran uch ish kunidan kechiktirmay ishlarni unga topshirishi shart.

Sharhlanayotgan moddada to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish tugatilishi yoki qarzdorni bankrot deb topish haqida qaror qabul qilinishi tashqi boshqaruvchining vakolatlari tugashiga asos bo‘lishi, biroq ayrim hollarda u yangi rahbar yoki tugatish boshqaruvchisiga ishlar topshirilguniga qadar o‘z vazifasini davom ettirishi belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida tashqi boshqaruvchining vakolatlarini tugatish mumkin bo‘lgan ikki holat qayd etilgan. Birinchisi, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish tugatilganda, ya’ni Qonunning 57-moddasi birinchi qismiga muvofiq tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayonida qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanganda sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritishni tugatadi. Ikkinchisi, sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qaror qabul qilinganida, ya’ni bunda kreditorlar talablarini qanoatlantirish imkonsizligi va tashqi boshqaruv rejasini lozim darajada bajarib bo‘lmasligi oqibatida tashqi boshqaruvdan tugatishga doir ish yuritish tartib-taomiliga, bir taomildan ikkinchi taomilga o‘tiladi. Sudning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tuga-

tish haqidagi ajrimi yoki tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini qo‘llash haqidagi qarori qabul qilingan paytdan tashqi boshqaruvchining vakolatlari tugatiladi.

2. Ushbu normaga ko‘ra, agar tashqi boshqaruv jarayoni kreditorlar bilan kelishuv bitimi tuzish yoki ularning talablarini qondirish orqali muvaffaqiyatli yakunlansa, tashqi boshqaruvchi darhol o‘z vakolatini to‘xtatmaydi, balki qarzdorga yangi rahbar saylanguniga yoki tayinlanguniga qadar uning rahbari vazifasini vaqtincha bajarib turadi. Masalan, korxonaning to‘lov qobiliyati tiklanib, tashqi boshqaruv tugatilgan bo‘lsada, yangi direktor hali tayinlanmagan holatda tashqi boshqaruvchi korxona faoliyatida uzilish bo‘lmasligi uchun boshqaruvni davom ettiradi. Bu tartib korxona faoliyatining barqarorligini saqlash, boshqaruvda bo‘shliq yuzaga kelishining oldini olish va yangi rahbarga ishlar tartibli topshirilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismiga ko‘ra, tashqi boshqaruvchi, agar qarzdorning rahbarini qayta tayinlash yoki saylash lozim bo‘lsa, bu haqida o‘zi tashabbus ko‘rsatishi mumkin. Ushbu vaziyatda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish to‘g‘risidagi sudning ajrimi kuchga kirgandan so‘ng tashqi boshqaruvchi amaldagi qonunchilik va qarzdorning ta’sis hujjatlariga muvofiq qarzdorning rahbarini saylash (tayinlash) to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish uchun qarzdorning boshqaruv organlarini chaqiradi. Shuni ta’kidlash o‘rinliki, qonun chiqaruvchi tashqi boshqaruvchi zimmasiga yuklatilgan quyidagi majburiyatlarni bajarish uchun aniq muddatlar belgilamagan: qarzdor korxonaning boshqaruv organini chaqirish va unda rahbarni saylash (tayinlash) masalasini ko‘rib chiqish hamda qarzdor korxona rahbari vakolatlarini mulkdor tomonidan yangi saylangan yoki tayinlangan rahbarga o‘tkazish. Qarzdorning rahbari saylangach (tayinlangach), «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq joriy etilgan huquq layoqatidagi cheklovlar bekor qilinadi, binobarin, qarzdor boshqaruv organlari vakolatlari ham to‘liq hajmda tiklanadi.

4. Ushbu normaga ko‘ra, agar sud qarzdorni bankrot deb topib, tugatish jarayonini boshlash haqida qaror qabul qilsa va tugatish boshqaruvchisi sifatida boshqa shaxs tayinlansa, tashqi boshqaruvchi ishlar to‘liq topshirilguniga qadar o‘z vazifalarini bajarishda davom etadi. Masalan, tugatish boshqaruvchisi tayinlanganidan keyin korxona hujjatlari, mol-mulki, muhrlari va boshqa ish yuritish materiallari unga rasmiy tartibda topshirilishi lozim. Bunda tashqi boshqaruvchi ushbu ishlarni tugatish boshqaruvchisi tayinlangan kundan boshlab uch ish kuni ichida amalga oshirishi shart. Mazkur norma boshqaruv vakolatlarini uzluksiz va tartibli tarzda o‘tkazish, hujjatlar yo‘qolishi yoki boshqaruvda bo‘shliq yuzaga kelishining oldini olishga xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 774-b.

11-BOB. TUGATISHGA DOIR ISH YURITISH TARTIB-TAOMILI

140-modda. Tugatishga doir ish yuritishni boshlash

Sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi tugatishga doir ish yuritishning boshlanishiga sabab bo‘ladi.

Tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili muddati o‘n ikki oydan oshishi mumkin emas. Zarurat bo‘lganda bu muddat to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxsning iltimosnomasiga ko‘ra yoki sudning tashabbusi bilan uch oygacha uzaytirilishi mumkin.

Tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili muddatini uzaytirish uchun quyidagilar asos bo‘lishi mumkin:

sud ishini va ijro ishini yuritishda qarzdorning yoki uning kreditorlarining mulkiy manfaatiga daxl qiluvchi ishning mavjudligi;

qarzdorning realizatsiya qilinmagan mol-mulki mavjudligi, bundan ushbu Qonunning 57-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno;

soxta to‘lovga qobiliyatsizlik, to‘lovga qobiliyatsizlikni yashirish va qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelish, qarzdorning mansabdor shaxslari tomonidan qarzdor yuridik shaxsning va uning kreditorlari manfaatlariga qarshi boshqa huquqbuzarliklar yoki jinoyatlar sodir etilganligi alomatlari bo‘yicha jinoyat ishining mavjudligi;

qonunchilikning tugatish boshqaruvchisining tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini o‘tkazish natijalari to‘g‘risidagi hisobotini tasdiqlash rad etilganligi haqidagi sud ajrimida ko‘rsatilgan buzilishlarini bartaraf etish zarur bo‘lganda;

qonunchilikning vakolatli davlat organi tomonidan aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish zarur bo‘lganda.

Sudning tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ajrimi ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Sud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqidagi qarorida qarzdor yuridik shaxs faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kreditorlar yig‘ilishining, tugatish boshqaruvchisining va (yoki) tegishli davlat hamda xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining iltimosnomasiga ko‘ra tugatishga doir ish yuritish qarzdorning faoliyatini to‘xtatmasdan amalga oshirilishini ko‘rsatishi mumkin. Bunda qarzdorning to‘lovga qo-

biliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilguniga qadar tuzilgan va faoliyatini davom ettirish uchun zarur bo‘lgan shartnomalarini bajarishni to‘xtatishga yoki ularni bajarishni rad etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tugatish boshqaruvchisi tomonidan qarzdorning faoliyatini davom ettirish uchun muhim deb topilgan va qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish yurituv qo‘zg‘atilguniga qadar tuzilgan shartnomalarning bajarilishi davom ettiriladi. Bunda taraflarning shartnomalarni bajarishni to‘xtatish yoki ularni bajarishni rad etish to‘g‘risidagi kelishuvlari qarzdor bankrot deb topilganligi va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili boshlanganligi munosabati bilan haqiqiy emas deb hisoblanadi, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza qabul qilinganidan keyin qarzdor tomonidan alohida kreditor yoki boshqa shaxs bilan tuzilgan bitim, agar bunday bitim bir kreditorning boshqa kreditor oldidagi pul majburiyatlari bo‘yicha talablarini afzalroq tarzda qanoatlantirishga olib kelsa, tugatish boshqaruvchisining yoki kreditorning arizasiga binoan sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Qarzdorning faoliyatini to‘xtatmasdan turib uni tugatishga doir ish yuritishni amalga oshirish, agar ikki hisobot choragi yakunlariga ko‘ra faoliyatdan ketma-ket zarar ko‘rilgan bo‘lsa, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas deb topiladi.

Qarzdorning faoliyatini to‘xtatmasdan turib uni tugatishga doir ish yuritishni amalga oshirish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas deb topilgan taqdirda, sud qarzdorning faoliyatini to‘xtatmasdan turib uni tugatishga doir ish yuritishni bekor qilishi va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilining umumiy tartibiga o‘tish to‘g‘risida ajrim chiqarishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada qarzdorni bankrot deb topish tugatishga doir ish yuritishni boshlashga asos bo‘lishi, uning muddati o‘n ikki oydan oshmasligi va zarurat bo‘lsa, uch oygacha uzaytirilishi mumkinligi, uzaytirish ayrim holatlarda – mulkiy manfaatlar yoki qonunbuzilishlar mavjud bo‘lganda qo‘llanilishi, ayrim shartnomalar bajarilishini to‘xtatmasligi, lekin kreditorlar manfaatlariga zid bitimlar haqiqiy emas deb topilishi, shuningdek, faoliyat ketma-ket zarar ko‘rsatsa, umumiy tugatish tartibiga o‘tilishini sud hal qilishi belgilangan.

1. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha sud qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlangandan keyin uni bankrot deb topish to‘g‘risida hal qiluv qarori qabul qiladi. Mazkur qaror qabul qilingan paytdan boshlab tugatishga doir ish yuritish qonun bilan belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi. Sudning qarzdor – yuridik shaxsni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qarorida qarzdorni bankrot deb topish, tugatishga

doir ish yuritishni boshlash, tugatish boshqaruvchisini tayinlash va unga haq to‘lash haqidagi ko‘rsatmalar aks ettirilishi lozim.

2. Qonunda tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili muddatining belgilanishi tugatish jarayonining samaradorligi va tezkorligini ta’minlashga qaratilgan. Bu kreditorlar manfaatlarini himoya qilish, qarzdorning mol-mulki yaroqsiz holatga kelib qolmasligi hamda iqtisodiy faoliyatdagi noaniqlik uzoqqa cho‘zilmasligi uchun zarur. Agar tugatish jarayonida qo‘shimcha vaqt talab etilsa, ishda ishtirok etuvchi shaxslar (qarzdor, sud boshqaruvchisi, kreditorlar, vakolatli davlat organi yoki qarzdorning majburiyatlari bo‘yicha ta’minot bergan shaxs) iltimosnomasiga ko‘ra yoki sudning tashabbusi bilan muddat uch oygacha uzaytirilishi mumkin va bu haqida ajrim chiqariladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

40. Qonunning 140-moddasiga muvofiq, tugatishga doir ish yuritish muddati o‘n ikki oydan oshishi mumkin emas. Shundan kelib chiqib sudning bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi hal qiluv qarorida tugatish boshqaruvchisi tomonidan tugatishga doir ish yuritish natijalari haqidagi hisobotni taqdim etishning aniq muddatini belgilash lozim.

Zarurat bo‘lganda Qonun **140-moddasining uchinchi qismida** sanab o‘tilgan holatlar mavjud bo‘lsa, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxsning iltimosnomasiga ko‘ra yoki sudning tashabbusi bilan bu muddat ko‘pi bilan uch oyga uzaytirilishi mumkin.

Demak, ushbu norma, bir tomondan, iqtisodiy tezkorlikni, ikkinchi tomondan, qonuniylik va manfaatdor shaxslar huquqlarini himoya qilish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi.

3. Tugatishga doir ish yuritish jarayonining belgilangan muddatdan ortiq davom etishiga yo‘l qo‘yilmasligi qonunning asosiy talablaridan biridir. Biroq amaliyotda ayrim holatlarda ishni belgilangan muddatda tugatish imkoni bo‘lmaydi. Shuning uchun mazkur moddaning uchinchi qismida tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili muddatini uzaytirish asoslari aniq belgilangan bo‘lib, tugatish jarayonini adolatli va to‘liq amalga oshirish imkoniyati yaratilgan.

4. Qonunda sudning tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ajrimi ustidan ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan shikoyat berilishi, prokuror tomonidan esa protest keltirilishi mumkinligi to‘g‘risidagi norma belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

27. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud hujjatlari Qonunda nazarda tutilgan xususiyatlarni inobatga olgan holda, IPKda belgilangan tartibda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Sudning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida chiqargan, IPKda nazarda tutilmagan ajrimlari ustidan faqat Qonunda belgilangan hollarda va tartibda shikoyat qilish (protest keltirish) mumkin, Qonunning 51-moddasi, 95-moddasining ikkinchi qismi, 108-moddasining ikkinchi qismi va **140-moddasining to‘rtinchi qismida** nazarda tutilgan ajrimlar bundan mustasno, ular ustidan IPKda nazarda tutilgan tartibda shikoyat qilish (protest keltirish) mumkin.

Bu norma tugatishga doir ish yuritish jarayonida shaffoflik va qonuniylikni ta’minlash, shuningdek, sud hujjatlari ustidan samarali nazorat o‘rnatishga xizmat qiladi.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismida tugatishga doir ish yuritish qarzdor yuridik shaxsning faoliyatini qanday asoslar va tartibda to‘xtatmasdan amalga oshirilishi belgilangan.

Birinchidan, unda sudga kimlar bunday iltimosnomani kiritish huquqiga ega ekanligi; *ikkinchidan,* sud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqidagi qarorida iltimosnoma qanoatlantirilganligi ko‘rsatilishi; *uchinchidan,* to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilguniga qadar tuzilgan va qarzdorning faoliyatini davom ettirish uchun zarur bo‘lgan shartnomalarni bajarishni to‘xtatishga yoki ularni bajarishni rad etishga yo‘l qo‘yilmasligi qayd qilingan. Bunda qarzdor yuridik shaxs faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari sifatida uning strategik yoki ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mexanizm yuridik shaxs aktivlarini saqlab qolish, ishchi-xizmatchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda tugatishga doir ish yuritishni samarali yakunlashga xizmat qiladi.

6. Ushbu moddaning oltinchi qismida tugatishga doir ish yurituv qo‘zg‘atulguniga qadar qarzdor bilan tuzilgan shartnomalarning bajarilishini davom ettirish shartlari belgilangan.

Masalan, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish yurituv qo‘zg‘atilguniga qadar xomashyo yetkazib berish, elektr energiyasi ta’minoti to‘g‘risidagi shartnomalar qarzdorning faoliyatini davom ettirish uchun muhim deb topilishi va tugatish boshqaruvchisi tomonidan ularning bajarilishi davom ettirilishi mumkin.

Shuningdek, qarzdor bankrot deb topilganligi va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili boshlanganligi holati taraflarning shartnomalarni bajarishni to‘xtatish yoki

ularni bajarishni rad etish to‘g‘risidagi kelishuv tuzishlari uchun asos bo‘lmaydi. Bunday kelishuv tuzilgan paytdan haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Shu bilan birga, Qonunda bundan mustasno hollar ham nazarda tutilgan. Xususan, Qonunning 144-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, tugatish boshqaruvchisi qarzdorning shartnomalarini bajarishni Qonunning 119-moddasida belgilangan tartibda rad etishga haqli.

Tugatish boshqaruvchisi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilguniga qadar qarzdor tuzgan shartnomalarni bajarishni faqat to‘liq yoki qisman bajarilmagan shartnomalarga nisbatan, quyidagi holatlardan biri mavjud bo‘lgan taqdirda rad etishga haqli:

birinchi, shartnomalarni bajarish qarzdor uchun zarar keltirsa va (yoki) qiyosiy holatlarda tuziladigan xuddi shunday shartnomalarga nisbatan qarzdorning, kreditorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzsa;

ikkinchi, shartnoma uzoq muddatli (bir yildan ortiq muddatga tuzilgan) bo‘lsa yoki faqat uzoq istiqbolda qarzdor uchun ijobiy natijalar olishga mo‘ljallangan bo‘lsa;

uchinchi, shartnomada bir kreditorning talablarini boshqa kreditorlar talablariga nisbatan afzalroq tarzda qanoatlantirish nazarda tutilgan bo‘lsa;

to‘rtinchi, qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashga monelik qiluvchi boshqa holatlar mavjud bo‘lsa.

Ushbu normaning ahamiyati shundaki, qarzdorning faoliyati to‘xtab qolmasa, u moliyaviy barqarorlikka erishishi va kreditorlar oldidagi majburiyatlarni qisman yoki to‘liq bajarishi mumkin. Chunki faoliyatdan tushgan daromad tugatish jarayonidagi hisob-kitoblarni ta’minlaydi.

7. Qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza sud tomonidan qabul qilingan sanadan keyin ham qarzdor kreditorlar yoki boshqa shaxslar bilan fuqarolik-huquqiy bitimlar tuzish huquqiga ega.

Biroq bunday bitimlar natijasida qarzdorning moliyaviy majburiyatlari bo‘yicha hisob-kitoblarda ayrim kreditorlarning talablari boshqa kreditorlarga nisbatan afzal tarzda qondirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Xususan, qarzdorning bir nechta kreditorlar oldidagi umumiy qarzi mavjud bo‘lgan holda, aktivlarni realizatsiya qilish yoki topshirish orqali ayrim kreditorlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish buxgalteriya hisobida kreditorlar o‘rtasida mutanosiblik tamoyiliga zid bo‘lmasligi shart.

Masalan, qarzdorning o‘nta kreditor oldidagi jami qarzi 10 milliard so‘mni tashkil etib, shundan 5 milliard so‘mi tijorat bankiga tegishli bo‘lsa, ariza qabul qilinganidan keyin ushbu bank foydasiga garov bilan ta’minlanmagan 3 milliard so‘mlik ko‘chmas mulkni topshirish bo‘yicha bitim tuzilishi boshqa kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin.

Bunday hollarda mazkur operatsiyalar tugatish boshqaruvchisi yoki manfaatdor kreditorning da’vosi asosida sud tartibida qayta ko‘rib chiqilishi mumkin. Sud qaroriga ko‘ra bitim haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, aktiv va majburiyatlar avvalgi (bitim tuzilgunga qadar) holatiga qaytarilishi ta’minlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

32. Bitimlar O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (bundan buyon matnda FK deb yuritiladi)da nazarda tutilgan asoslardan tashqari Qonunning 63–66-moddalari, 120-moddasining ikkinchi qismi, 140-moddasining yettinchi qismi, 169-moddasi, 219-moddasining beshinchi qismi va 231-moddasining birinchi qismida belgilangan asoslar bo‘yicha ham sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Bu norma to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgandan keyin qarzdor ayrim kreditorlarga imtiyozli shart-sharoit yaratish orqali ularning talablarini boshqalarga nisbatan afzalroq qanoatlantirishiga chek qo‘yadi va kreditorlar tengligi tamoyilini ta’minlaydi.

8. Qonunga ko‘ra, tugatishga doir ish yuritish jarayonida qarzdorning faoliyati ma’lum muddat davom ettirilishi mumkin. Bunda qarzdor faoliyati to‘g‘risida har chorak hisobot taqdim etilishi shart. Agar ikki hisobot choragi yakunlariga ko‘ra qarzdor faoliyatidan ketma-ket zarar ko‘rilgan bo‘lsa, uning faoliyati iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas deb hisoblanadi.

Masalan: ishlab chiqarish korxonasida xomashyodan tayyorlangan mahsulot sotuvga chiqarilsa-da, tushgan mablag‘ ishlab chiqarish xarajatlarini qoplamasa; xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxona tugatish jarayonida ishini davom ettirsa, ammo mijozlardan tushgan tushum ish haqi va ijara xarajatlarini qoplamasa, bu holatda ikki hisobot choragi yakunlariga ko‘ra faoliyatdan ketma-ket zarar ko‘rilganligi sababli, uni davom ettirish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas deb topiladi.

9. Mazkur moddaning to‘qqizinchi qismi tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilining umumiy tartibiga o‘tish qoidalarini belgilaydi. Bunda sud quyidagi harakatlarini amalga oshiradi: *birinchi,* qarzdorning faoliyatini to‘xtatmasdan turib uni tugatishga doir ish yuritishni amalga oshirish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas deb topilganligini aniqlaydi; *ikkinchi,* qarzdorning faoliyatini to‘xtatmasdan turib uni tugatishga doir ish yuritishni bekor qiladi; *uchinchi,* tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilining umumiy tartibiga o‘tkazish to‘g‘risida to‘xtamga keladi; *to‘rtinchidan,* yuqoridagi barcha aniqlangan holatlar va xulosani sud ajrimida ko‘rsatadi.

Sud mazkur masala yuzasidan ajrim chiqarish jarayonida buxgalteriya hisobotlari, auditorlik xulosalari, moliyaviy tahlillar va tugatish boshqaruvchisining hisobotini o‘rganishi, qarzdor faoliyatini davom ettirgan taqdirda ham zarardan chiqish imkoniyati yo‘qligini aniqlashi lozim.

Bu mexanizm tugatishga doir ish yuritish jarayonida iqtisodiy foydali va adolatli yo‘nalishni ta’minlash, aktivlarni tejash va barcha kreditorlar uchun teng huquqiy sharoit yaratish maqsadida qo‘llaniladi. Qarang: Xalqaro sharh. 776-b.

141-modda. Tugatishga doir ish yuritishni boshlash oqibatlari

Sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilingan paytdan e’tiboran:

qarzdorning mol-mulkini boshqa shaxsga o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan yoki uning mol-mulkini uchinchi shaxslarga foydalanish uchun topshirishga sabab bo‘luvchi bitimlar tuzishga faqat ushbu bobda belgilangan tartibda yo‘l qo‘yiladi;

qarzdorning barcha pul majburiyatlarini bajarish muddati, shuningdek, kechiktirilgan soliqlar hamda yig‘imlarni to‘lash muddati boshlangan deb hisoblanadi;

qarzdorning barcha turdagi qarzlari bo‘yicha neustoyka (jarima, penya) va foizlarni hisoblash tugatiladi;

mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, shuningdek, soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlar yuzasidan avval hisoblangan va undirilmagan penyalar va jarimalar hisoblash to‘xtatib turiladi;

qarzdor mol-mulkini sotishdan tushgan mablag‘larning qarzdorlikni to‘lashga yo‘naltirilgan qismi qo‘shilgan qiymat va daromad solig‘idan ozod etiladi;

qarzdorning moliyaviy ahvoli haqidagi ma’lumotlar maxfiylik toifasiga, shu jumladan, tijorat siriga mansubligini yo‘qotadi;

undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratishga doir barcha cheklovlar olib tashlanadi;

ijro hujjatlarini ijro etish tugatiladi. Pul majburiyatlari, soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha barcha talablar, boshqa mulkiy talablar faqat tugatishga doir ish yuritish doirasida qarzdorga taqdim etilishi mumkin, bundan mulk huquqini e’tirof etish, ma’naviy ziyonni kompensatsiya qilish, mol-mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olish, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish, bitimlarni haqiqiy emas deb topish va ularning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash to‘g‘risidagi talablar, shuningdek, joriy to‘lovlar bo‘yicha talablar mustasno.

Tugatishga doir ish yuritish boshlanguniga qadar qarzdorning majburiyatlarini bajarish ta’minoti sifatida berilgan mol-mulkdan foydalanishdan mazkur ish yuritish boshlanganidan keyin olinadigan hosilga, mahsulotga va daromadlarga nisbatan kreditorning o‘z talablarini bajarish ta’minoti sifatidagi huquqi tatbiq etilmaydi.

Ijro etilishi ushbu modda birinchi qismining to‘qqizinchi xatboshisiga muvofiq tugatilgan ijro hujjatlari qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ijrochilari tomonidan tugatish boshqaruvchisiga o‘tkazilishi lozim. Qarzdorning barcha majburiyatlarini bajarishga faqat tugatishga doir ish yuritish doirasida yo‘l qo‘yiladi.

Sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran qarzdorning boshqaruv organlari qarzdorning mol-mulkini boshqarish va tasarruf etish vazifalarini bajarishdan, agar ilgari chetlashtirilmagan bo'lsa, chetlashtiriladi, qarzdor rahbarining vakolatlari tugatiladi (qarzdorning rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi tugatiladi), qarzdorning ishlarini boshqarish tugatish boshqaruvchisining zimmasiga yuklatiladi, shuningdek, mulkdorning qarzdor mol-mulkini boshqarish va tasarruf etishga doir vakolatlari tugatiladi. Tugatish boshqaruvchisi qarzdorning rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasini tugatish yoki mazkur rahbarni boshqa ishga o'tkazish to'g'risida buyruq chiqaradi.

Ushbu bobda belgilangan hollarda tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili jarayonida qarzdorning ishtirokchilari (muassislari) to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlariga ega bo'ladi.

Sharhlanayotgan moddada qarzdor bankrot deb topilib, tugatishga doir ish yuritish boshlanishi natijasida uning barcha majburiyatlari va bitimlari faqat ushbu tartib doirasida amalga oshirilishi, moliyaviy ma'lumotlari maxfiylikdan chiqarilishi, qarzdorning rahbar va boshqaruv organlari vakolatlari tugatilishi hamda uning ishlarini boshqarish tugatish boshqaruvchisi zimmasiga o'tishi belgilab qo'yilgan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topib, tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risida qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran: qarzdorning mol-mulki bilan bog'liq bitimlar faqat ushbu bob tartibida yo'l qo'yilishi, barcha pul majburiyatlari, soliqlar va yig'imlar muddatlari boshlangan hisoblanishi, neustoyka va foizlarni hisoblash tugatilishi, soliqlar hamda yig'imlar bo'yicha penyalar va jarimalar to'xtatilishi, mol-mulkni sotishdan tushgan mablag'lar qo'shimcha qiymat va daromad solig'idan ozod etilishi, moliyaviy ma'lumotlar maxfiylikni yo'qotishi, undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratishga doir barcha cheklovlar olib tashlanishi, ijro hujjatlari ijrosi tugatilishi hamda barcha mulkiy talablar qarzdorga faqat tugatish jarayoni doirasida taqdim etilishi (ayrim istisnolar bilan) belgilangan.

1.1. Qarzdorning mol-mulkini boshqa shaxsga o'tkazish deganda mol-mulk olish-sotish, ayirboshlash, hadya qilish shartnomalari, hamda qonun bilan taqiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib boshqa shaxsga topshirish tushuniladi.

Qarzdorning mol-mulkini uchinchi shaxslarga foydalanish uchun topshirish deganda mol-mulkni boshqa shaxslarga haq evaziga vaqtincha egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish uchun topshirish, shuningdek, uni vaqtincha tekin foydalanish (ssuda)ga berish tushuniladi.

Qarzdorning mol-mulkini boshqa shaxsga o'tkazishga yoki foydalanishga topshirishga sabab bo'luvchi bitimlar Qonunning 11-bobida belgilangan quyidagi tartibda tuzilishi mumkin: *birinchidan,* bunday bitimlarni tuzish tugatish boshqaruvchisi vakolatiga kiradi (*Qonunning 144-moddasi*); *ikkinchidan,* mol-mulk elektron onlayn-auksi-

on shaklidagi kimoshdi savdosida sotilishi shart; *uchinchidan,* yirik bitimlar va manfaatdorlik nazarda tutilgan bitimlar tugatish boshqaruvchisi tomonidan faqat kreditorlar yig‘ilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining roziligi bilan tuziladi; *to‘rtinchidan,* mol-mulkni sotish tartibi va muddatlari (jadvali) kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi tomonidan ma’qullangan bo‘lishi kerak (*Qonunning 151-moddasi*).

1.2. Majburiyat fuqarolik-huquqiy munosabat bo‘lib, unga asosan qarzdor kreditor foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi, mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, pul to‘lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o‘zini saqlashga majbur bo‘ladi, kreditor esa qarzdordan o‘zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo‘ladi (*FKning 234-moddasi*).

O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlar belgilangan: 1) qo‘shilgan qiymat solig‘i; 2) aksiz solig‘i; 3) foyda solig‘i; 4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i; 5) yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq; 6) foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘i; 7) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; 8) mol-mulk solig‘i; 9) yer solig‘i; 10) ijtimoiy soliq (*SKning 17-moddasi*).

Yig‘imlar jumlasiga quyidagilar kiradi: 1) chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im; 2) yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk avtotransporti vositalari va tirkamalarining avtomobil yo‘llari bo‘ylab harakatlanishi huquqi uchun yig‘im; 3) alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlar, jumladan: alkogol mahsulotlarini chakana sotish huquqi uchun yig‘im; umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun yig‘im; 4) pivo va pivo ichimliklari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘im; 5) tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘im (*SKning 455-moddasi).*

Soliq to‘lashni kechiktirish shu soliq bo‘yicha bir yo‘la qarz summasini to‘lagan holda ushbu soliqni to‘lash muddatini o‘zgartirishdan iboratdir. Soliq to‘lashni kechiktirish soliqlarni to‘lashni kechiktirish imkoniyatini berish to‘g‘risida qaror qabul qilinguniga qadar yuzaga kelgan qarz summasiga yoki kelgusida yuzaga keladigan qarz summasiga nisbatan berilishi mumkin. Soliq to‘lashni kechiktirish davlat organlari vakolati doirasida uch yildan oshmagan muddatga beriladi *(SKning 97–100-moddalari).*

Ushbu normada faqat pul majburiyatlarini bajarish hamda kechiktirilgan soliqlar hamda yig‘imlarni to‘lash muddati boshlanishi to‘g‘risida so‘z boradi. Shu sababli qarzdorning boshqa majburiyatlari bajarish muddati kelgan deb hisoblanmaydi.

1.3. Qonunchilik yoki shartnoma bilan belgilangan, qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga to‘lashi shart bo‘lgan pul summasi neustoyka hisoblanadi. Neustoyka jarima yoki penya shaklida bo‘ladi. Qarzdor majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan hollarda to‘laydigan va odatda qat’iy pul summasida hisoblanadigan neustoyka jarima hisoblanadi. Qarzdor majburiyatlarning bajarilishini kechiktirib yuborganida to‘laydigan va o‘tkazib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun majburiyatning bajarilmagan qismiga nisbatan foiz bilan hisoblanadigan neustoyka penya hisoblanadi (*FK 260–261-moddalari*).

Pul majburiyatini bajarmaganlik, ya’ni boshqa shaxslarning pul mablag‘larini g‘ayriqonuniy ushlab qolish, ularni qaytarib berishdan bosh tortish, ularni to‘lashni bosh-

qacha tarzda kechiktirish yoxud boshqa shaxs hisobidan asossiz olish yoki jamg‘arish natijasida ulardan foydalanganlik uchun ushbu mablag‘lar summasiga foiz to‘lanishi kerak (*FK 327-moddasi*).

Ushbu normada aynan yuqorida qayd qilingan neustoyka va foiz nazarda tutilgan bo‘lib, ularni hisoblash tugatiladi.

1.4. Ushbu normada ikki jihatga alohida e’tibor qaratish lozim: *birinchidan*, faqat mol-mulk solig‘i va yer solig‘ini hisoblash to‘xtatib qo‘yiladi, boshqa soliqlar (foyda solig‘i, ijtimoiy soliq va boshqalar) bundan mustasno; *ikkinchidan*, barcha turdagi soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha mavjud majburiyatlardan kelib chiqqan holda avval hisoblangan, ammo hali undirilmagan penya va jarimalarni hisoblash to‘xtatiladi.

Bu yangi soliq majburiyatlarining yuzaga kelishini to‘xtatish orqali qarzdorning soliq yuki sun’iy ravishda ortib ketmasligi va kreditorlar o‘rtasida tenglik buzilmasligi uchun joriy etilgan. Amalda esa soliq organlari qarzdorning mavjud qarzlarini reyestrga kiritadi va ular tugatish massasi hisobidan belgilangan navbatda qoplanadi. Shu tariqa norma tugatishga doir ish yuritish jarayonida kreditorlar huquqlarini himoya qilish va adolatli taqsimotni ta’minlashga qaratilgan.

1.5. Ushbu normada qo‘shilgan qiymat va daromad solig‘idan ozod etishning sharti sifatida qarzdor mol-mulkini sotishdan tushgan mablag‘larning qarzdorlikni to‘lashga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozimligi qayd etilgan. Agar tushgan mablag‘lar boshqa maqsadlarga yo‘naltirilsa, bunday soliq imtiyozi qo‘llanilmaydi.

Ushbu norma tugatishga doir ish yuritish jarayonida soliqqa tortishning maxsus tartibini belgilaydi. Tugatish boshqaruvchisi qarzdorning mol-mulkini sotganda tushumdan qo‘shilgan qiymat solig‘i yoki daromad solig‘ini hisoblab to‘lamaydi; barcha mablag‘lar to‘g‘ridan to‘g‘ri kreditorlarning talablarini qondirishga yo‘naltiriladi; soliq organlari bu mablag‘larni soliq bazasi sifatida qayd etmasdan, ularni to‘lovga qobiliyatsizlik tartibining predmeti deb tan oladi; sud amaliyotida bu norma kreditorlar o‘rtasida tenglikni ta’minlash va davlatning soliq manfaati bilan kreditorlar manfaati o‘rtasida balansni saqlash vositasi sifatida qo‘llaniladi.

1.6. Ushbu norma tugatishga doir ish yuritish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Odatda, qarzdorning moliyaviy holati, aktiv va passivlari, daromadlari va majburiyatlari tijorat siri yoki xizmat siri sifatida saqlanadi. Biroq sud tomonidan bankrot deb topilgan qarzdorga nisbatan tugatishga doir ish yuritish boshlangan paytdan e’tiboran ushbu ma’lumotlar maxfiylik maqomini yo‘qotadi va ochiqlanishi lozim bo‘ladi. Chunki, Qonunning 23-moddasiga muvofiq, tugatish boshqaruvchisi qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil qilishi hamda qarzdorning moliyaviy ahvoli to‘g‘risidagi axborotni kreditorning talabiga ko‘ra o‘n kunlik muddatda taqdim etishi lozim. Shuningdek, «Tijorat siri to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasiga ko‘ra, sudga tijorat siri mulkdorining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganda tijorat siridan cheklanmagan holda foydalanishiga ruxsat berilgan.

Bu o‘z navbatida kreditorlar, davlat organlari va jamoatchilik uchun qarzdorning haqiqiy moliyaviy ahvolini xolis baholash imkoniyatini yaratadi. Natijada tugatishga doir ish yuritish jarayonida kreditorlar manfaatlari himoya qilinadi, adolatli taqsimot va hisob-kitob jarayoni ta’minlanadi.

Biroq shuni ta’kidlash lozimki, ushbu norma faqat qarzdorning moliyaviy ahvoli haqidagi ma’lumotlarga taalluqli bo‘lib, qarzdorning fan-texnika, texnologiya, ishlab chiqarish va boshqa sohalardagi tijorat sirlari maxfiyligicha qolishi mumkin.

1.7. Ushbu norma undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratishga doir barcha cheklovlar olib tashlanishini nazarda tutgan. Ammo bu har qaysi kreditor yakka tartibda yoki birgalikda qarzdorning mol-mulkiga undiruvni qaratishi mumkin degani emas. Bunda mol-mulkni saqlab turishni ta’minlash bo‘yicha avval ko‘rilgan barcha choralar o‘z kuchini yo‘qotishi ko‘zda tutiladi, chunki kreditorlar talablarini qondirish tugatish boshqaruvchisi tomonidan mol-mulkni realizatsiya qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

1.8. «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 39-moddasiga muvofiq, davlat ijrochisi sudning ijro ishi yuritishni tugatish to‘g‘risidagi ajrimi asosida, shuningdek, davlat ijrochisining ijro ishi yuritishni tugatish to‘g‘risidagi qarorida ijro etish bo‘yicha o‘zi tayinlagan barcha majburiy ijro choralarini, shu jumladan, mol-mulkni xatlashni, shuningdek, qarzdor uchun belgilangan cheklovlarni bekor qiladi. Ayni vaqtda, davlat ijrochisi qarzdorning hisobvaraqlariga qo‘yilgan inkasso topshiriqnomalarini chaqirib oladi, shuningdek, cheklovlarni ijro etayotgan organlarni ushbu cheklovlar bekor qilinganligi to‘g‘risida yozma yoki elektron shaklda xabardor qiladi.

Shuningdek, yuqorida qayd qilingan Qonunning 62-moddasiga muvofiq, iqtisodiy sudning qarzdor yuridik shaxsni bankrot deb topish va tugatish ishini yuritishni ochish to‘g‘risidagi qarori ko‘chirma nusxasi olinganda davlat ijrochisi ijro ishi yuritishni tamomlaydi, bundan undiruvni garov bilan ta’minlangan mol-mulkka qaratish haqidagi, mulk huquqini e’tirof etish to‘g‘risidagi, ma’naviy ziyonni kompensatsiya qilish haqidagi, mol-mulkni o‘zga shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olish to‘g‘risidagi, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish haqidagi, bitimlarni haqiqiy emas deb topish va ularning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash to‘g‘risidagi ijro ishi yuritishlar mustasno. Ijro ishi yuritishni tugatish bilan bir vaqtda davlat ijrochisi ijro ishi yuritish davomida qarzdorning mol-mulkiga o‘zi qo‘ygan xatlovlarni va ushbu mol-mulkni tasarruf qilishga doir boshqa cheklovlarni olib tashlaydi.

Ijro ishini yuritish tamomlangan ijro hujjatlari davlat ijrochisining ijro ishini yuritishni tamomlash to‘g‘risidagi qarorining ko‘chirma nusxasi bilan birgalikda ijro ishini yuritish tamomlangan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida tugatish boshqaruvchisi yuboriladi. Davlat ijrochisi ijro hujjatini tugatish boshqaruvchisiga yuborilganligi haqida undiruvchiga ma’lum qiladi.

Bu norma sud va ijro organlari ishini uyg‘unlashtirib, ortiqcha takrorlanishni bartaraf qilish, shuningdek, kreditorlar tengligini ta’minlash va ayrimlari afzallikka ega bo‘lib qolishining oldini olishga qaratilgan. Shu tariqa qarzdorning mol-mulki bir joyda jamlanib, adolatli taqsimotga yo‘naltiriladi.

Agar ijro ishi mulk huquqini e’tirof etish, ma’naviy ziyonni kompensatsiya qilish, mol-mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olish, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish, bitimlarni haqiqiy emas deb topish va ularning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash to‘g‘risidagi talablar, shuningdek, joriy to‘lovlar bo‘yicha talab-

larga oid bo‘lsa, davlat ijrochisi ijroni tugatmasdan, sud hujjati ijrosini bajarish choralarini ko‘rishni davom ettiradi.

2. Ushbu norma tugatishga doir ish yuritish jarayonida kreditorlar manfaatlarini mutanosib himoya qilish maqsadida belgilangan bo‘lib, agar qarzdor ushbu jarayon boshlanguniga qadar o‘z majburiyatlarini bajarish uchun mol-mulkni garov yoki boshqa ta’minot sifatida bergan bo‘lsa, mazkur ish yuritish boshlangandan keyin mol-mulkdan olinadigan hosil, mahsulot yoki daromadlar endi faqatgina o‘sha kreditorning talabini qoplashga yo‘naltirilmaydi. Bu boyliklar umumiy tugatish massasiga qo‘shiladi va barcha kreditorlar o‘rtasida Qonunda belgilangan navbatda qanoatlantiriladi.

Masalan, qarzdor transport kompaniyasi tugatishga doir ish yuritish boshlanguniga qadar tijorat bankidan olgan krediti ta’minoti uchun avtobuslarni garov sifatida qo‘ygan. Tugatishga doir ish yuritish jarayoni boshlanganidan keyin garovdagi avtobuslardan foydalanib yo‘lovchi tashish xizmatidan daromad olingan. Bunday holatda olingan daromad kredit qarzdorligini qoplashga emas, balki tugatish massasiga qo‘shiladi va barcha kreditorlar talablariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

3. Qonunga ko‘ra, pul majburiyatlari, soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha barcha talablar, boshqa mulkiy talablar faqat tugatishga doir ish yuritish doirasida qarzdorga taqdim etilishi mumkinligi belgilanganligi sababli ijro hujjatlarini ijro etish tugatiladi. Shu sababli ijro hujjatlari qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ijrochilari tomonidan tugatish boshqaruvchisiga o‘tkazilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

41. Qonun **141-moddasi birinchi qismining to‘qqizinchi xatboshisiga** muvofiq, sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilingan paytdan e’tiboran ijro hujjatlarini ijro etish tugatiladi. Ijro hujjatlari qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ijrochilari tomonidan tugatish boshqaruvchisiga o‘tkazilishi lozim. Sud xarajatlarini undirish to‘g‘risidagi ijro hujjatlari ham sud tomonidan tugatish boshqaruvchisiga yuboriladi.

Bu qoida kreditorlarning talablarini bir tizim orqali adolatli va navbatga rioya etgan holda qondirish uchun joriy qilingan. Agar har bir kreditor o‘zicha ijro ishini davom ettirsa, avvalgi garov egasi yoki «kuchliroq» kreditorlar pul mablag‘ini avval olib qo‘yadi, qolganlar esa mutlaqo qoplamasiz qolib ketishi mumkin.

Masalan, soliq organlari qarzdordan 1 mlrd so‘m qarzni undirish uchun ijro hujjatini chiqargan bo‘lsa va bank ham kredit shartnomasi asosida 5 mlrd so‘m talab qilsa, har ikkalasi o‘zicha ijro qilib, mol-mulkni tortib olib ketsa, boshqa kreditorlar huquqi buziladi. Shuning uchun barcha ijro hujjatlari tugatish boshqaruvchisiga beriladi va u ularni umumiy reyestrga kiritadi. Shunga qaramay, davlat ijrochisi qarzdorning hisobi-

dan to‘g‘ridan to‘g‘ri pul mablag‘ini undirishga kirishsa, bu qonunga zid hisoblanadi. Chunki to‘lovlar endi faqat tugatish ishini yuritish jarayonida belgilangan navbatga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismida sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qaror qabul qilingan paytdan e’tiboran qarzdorning boshqaruv organlari (masalan, aksiyadorlik jamiyatida – aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi – direktor yoki boshqaruv raisi jamiyatning boshqaruv organlari) qarzdorning mol-mulkini boshqarish va tasarruf etish (xususan, dividendlarni to‘lash; mol-mulkni ijaraga, garovga berish, sotish, hadya qilish, tekin foydalanishga berish yoki shu mol-mulkni boshqa usulda tasarruf etish bilan bog‘liq bitimlarni tuzish) vazifalarini bajarishdan, agar ilgari (sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv jarayonida) chetlashtirilmagan bo‘lsa, chetlashtiriladi hamda qarzdor rahbarining vakolatlari tugatiladi. Shu paytdan boshlab qarzdorning boshqaruv organlari mol-mulk bilan bog‘liq hech qanday bitim tuzish, aktivlarni sotish yoki qarzdor nomidan majburiyat olish huquqiga ega bo‘lmaydi.

Tugatishga doir ishlarni yuritish jarayonida qarzdorning ishlarini boshqarish tugatish boshqaruvchisining zimmasiga yuklatiladi. Bu tugatish boshqaruvchisi qarzdorning mol-mulkini boshqarish va tasarruf etish vazifalarini bajaruvchi yagona huquqiy subyekt sifatida faoliyat yuritishini anglatadi.

Shuningdek, mulkdorning qarzdor mol-mulkini boshqarish va tasarruf etishga doir vakolatlari ham tugatiladi. Bunda aksiyadorlar mulkdor sifatida o‘z aksiyalariga egalik qilish huquqini saqlab qoladi, ammo ularning boshqaruv jarayoniga ta’sir ko‘rsatish huquqi (masalan, umumiy yig‘ilish chaqirish, qaror qabul qilish, dividend belgilashda ishtirok etish) bevosita tugatiladi. Chunki bu bosqichda qarzdorning asosiy vazifasi foyda olish emas, balki qarzdorlikni bartaraf etish va kreditorlar manfaatlarini qondirishdir.

Tugatish boshqaruvchisiga Qonun bilan yuklatilgan vazifalardan biri qarzdorning rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasini tugatish yoki uni boshqa ishga o‘tkazish to‘g‘risida buyruq chiqarish hisoblanadi.

Mehnat shartnomasini bekor qilish deganda MKda nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha xodim va ish beruvchi o‘rtasidagi yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni tugatish tushuniladi. Ushbu holatda mehnat shartnomasini bekor qilish asosi sifatida MKning 155-moddasi ikkinchi qismi 11-bandi normasini keltirish mumkin: «Ushbu Kodeks yoxud boshqa qonunlar alohida toifadagi xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalarida mehnatga oid munosabatlarni tugatishning qo‘shimcha asoslari to‘g‘risidagi shartni nazarda tutish imkoniyatini mustahkamlaydigan hollarda mehnat shartnomasida nazarda tutilgan asoslar» *(MKning 155-moddasi).*

Xodim aynan o‘sha ish beruvchida ishni davom ettirganda uning mehnat vazifalarini o‘zgartirish xodimni boshqa ishga o‘tkazish hisoblanadi *(MKning 155-moddasi).*

Mehnat shartnomasini bekor qilish ishga qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar (ushbu norma talabi bo‘yicha bunday shaxs tugatish boshqaruvchisi hisoblanadi) tomonidan amalga oshiriladi va ish beruvchining (tugatish boshqaruvchisining) buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi. Oxirgi ish kuni mehnat shartnomasi bekor qilingan kun-

dir. Agar oxirgi ish kuni dam olish kuniga yoxud ishlanmaydigan bayram kuniga yoki boshqa ishlanmaydigan kunga to‘g‘ri kelsa, undan keyin keladigan birinchi ish kuni oxirgi ish kuni deb hisoblanadi. Ish beruvchining buyrug‘ida mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari MK yoxud tegishli qonunning (*Qonunning 141-moddasi to‘rtinchi qismi*) moddasiga (bandiga) havola qilingan holda ushbu MK yoki mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlar moddalarining (bandlarining) ta’riflariga aniq muvofiq tarzda ko‘rsatilishi kerak *(MKning 155-moddasi).*

5. Mazkur moddaning beshinchi qismida qarzdorning ishtirokchilari (muassislari) Qonunning 11-bobi, ya’ni tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili jarayonida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlariga ega bo‘lishi belgilangan.

Masalan, Qonun 150-moddasining to‘rtinchi qismiga ko‘ra, aksiyalar egalarining hisoblangan dividendlar bo‘yicha talablari uchinchi navbatda qanoatlantirilishi, to‘qqizinchi qismiga muvofiq esa mol-mulk qiymatining kreditorlar talablari qanoatlantirilganidan keyingi va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish xarajatlari to‘langanidan keyingi qoldig‘ini, shuningdek, tugatish jarayonida sotilmay qolgan mol-mulkni tugatilayotgan qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) olish huquqiga ega.

Ushbu normalar tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili jarayonining shaffofligi, adolatliligi va qonuniyligini ta’minlaydi hamda mol-mulk taqsimoti ustidan jamoaviy nazoratni amalga oshirishga xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 777-b.

142-modda. Tugatish boshqaruvchisi

Sud qarzdorni bankrot deb topish haqida qaror qabul qilayotganda tugatish boshqaruvchisini tashqi boshqaruvchini tayinlash uchun nazarda tutilgan tartibda tayinlaydi. Ustav fondida (ustav kapitalida) davlatning ulushi bo‘lgan korxona bankrot deb topilgan taqdirda, vakolatli davlat organi ham tugatish boshqaruvchiligiga nomzod taqdim etishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada sud tomonidan tugatish boshqaruvchisini tayinlash tartibi belgilangan.

Tugatish boshqaruvchisi sud boshqaruvchisi bo‘lib, qarzdor yuridik shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini o‘tkazish uchun sud tomonidan tayinlanadi.

Qonunning 22-, 23-, 25- va 26-moddalarida belgilangan sud boshqaruvchisiga qo‘yiladigan asosiy talablar, uning huquq va majburiyatlari, javobgarligi, shuningdek, haq to‘lash shartlari tugatish boshqaruvchisiga ham tatbiq etiladi.

Tugatish boshqaruvchiligiga nomzodni taqdim etish tartibi tashqi boshqaruvchilikka nomzod taqdim etish uchun nazarda tutilgan Qonunning 111-moddasi qoidalari asosida amalga oshiriladi. Bunda tugatish boshqaruvchiligiga nomzod kreditorlarning yig‘ilishiga har qanday kreditor tomonidan yoki vakolatli davlat organi tomonidan taklif etilishi mumkin. Kreditorlarning yig‘ilishi tugatish boshqaruvchiligiga nomzodni ma’qullaydi va kreditorlarning eng ko‘p ovozini olgan shaxsning nomzodi sudga taklif etiladi.

Sud kreditorlar yig‘ilishining qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini boshlash haqidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish to‘g‘risidagi qarori mavjud bo‘lmagan holda tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini boshlayotgan bo‘lsa, kreditorlarning yig‘ilishi tugatish boshqaruvchiligiga nomzodni sud tugatishga doir tartib-taomilini joriy etish haqida ajrim chiqargan paytdan e’tiboran uch haftalik muddat ichida ko‘rib chiqishga, ma’qullashga va sudga taqdim etishga haqli.

Tugatish boshqaruvchiligiga nomzod kreditorlarning yig‘ilishi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, sud vakolatli davlat organi tomonidan taklif etilgan nomzodlar orasidan tugatish boshqaruvchisini tayinlaydi.

Tugatish boshqaruvchisi tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili boshlashi bilan bir paytda sud tomonidan tayinlanadi. Tugatish boshqaruvchisi tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili boshlashi bilan bir paytda sud tomonidan tayinlashning imkoni mavjud bo‘lmasa, sud tugatish boshqaruvchisini tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili boshlangan paytdan e’tiboran bir oylik muddat ichida tayinlaydi.

Tugatish boshqaruvchisini tayinlash to‘g‘risida sud ajrim chiqaradi. Tugatish boshqaruvchisini tayinlash to‘g‘risidagi sudning ajrimi darhol ijro etilishi lozim va uning ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Mazkur moddada ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan korxona bankrot deb topilganda, vakolatli davlat organi, ya’ni Agentlik ham tugatish boshqaruvchiligiga nomzod taqdim etishi mumkinligi alohida ta’kidlangan. Bu qoida davlat manfaatlarini himoya qilish va davlat ishtirokidagi korxonalarni tugatish jarayonida shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan.

Ushbu modda tugatish boshqaruvchisining tayinlanish tartibini belgilab, uning shaxsiga, malakasiga va vakolatlariga doir muhim kafolatlarni o‘rnatadi. Sud qarori bilan tayinlangan tugatish boshqaruvchisi tugatishga doir ish yuritish jarayonining markaziy ishtirokchisi bo‘lib, uning faoliyati qarzdor mol-mulkini realizatsiya qilish, kreditorlar talablarini qondirish va adolatli taqsimotni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

143-modda. Qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini boshlash to‘g‘risidagi ma’lumotlarni e’lon qilish

Qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi ma’lumotlarni e’lon qilishni tugatish boshqaruvchisi ushbu Qonunning 53- va 54-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiradi.

Qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida e’lon qilinayotgan ma’lumotlarda quyidagilar bo‘lishi kerak:

qarzdorning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi) va boshqa rekvizitlari;

to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritayotgan sudning nomi va ishning tartib raqami;

qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida sud qaror qabul qilgan sana;

kreditorlar talablarini qo‘yishning belgilangan muddati, bu muddat mazkur e’lon chiqqan sanadan e’tiboran bir oydan kam bo‘lishi mumkin emas;

kreditorlar tomonidan qarzdorga o‘z talablarini bildirish uchun qarzdorning joylashgan yeri (pochta manzili) va (yoki) elektron pochta manzili (mavjud bo‘lgan taqdirda);

tugatish boshqaruvchisi to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqidagi ma’lumotlarni tugatish boshqaruvchisi boshqaruvchilikka tayinlangan paytdan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish uchun yuborishi kerak.

Sharhlanayotgan modda qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritish boshlanganligi haqidagi ma’lumotlarni tugatish boshqaruvchisi sud qarori qabul qilinganidan so‘ng ommaviy axborot vositalarida e’lon qilishi shartligi hamda e’lon mazmunida qarzdor va sud to‘g‘risidagi asosiy ma’lumotlar, kreditorlar talablarini taqdim etish muddati va tugatish boshqaruvchisi haqidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi lozimligini belgilaydi.

1. Tugatish boshqaruvchisi qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish shart. Ma’lumotlar e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ommaviy axborot vositalarining ro‘yxati, davriyligi va mazkur ma’lumotlarni e’lon qilish muddati, ko‘rsatiladigan xizmatlarning narxlari hamda moliyalashtirish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 11-iyundagi 160-son qaroriga muvofiq, Agentlik, Soliq qo‘mitasi hamda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining «Biznes-Daily «Birja» iqtisodiy gazetasi va/yoki Agentlik rasmiy veb-sayti – to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar e’lon qilinadigan ommaviy axborot vositalari etib belgilangan. Sud hujjatlari va tugatishga doir ish yuritish jarayoni haqidagi ma’lumotlar boshqa ommaviy axborot vositalarida ham e’lon qilinishi mumkin.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida e’londa qanday ma’lumotlar bo‘lishi kerakligi belgilangan. Bu talab tugatish boshqaruvchisi uchun majburiy hisoblanadi, ammo e’longa tugatishga doir ish yuritish to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlar ham kiritilishi mumkin. Masalan, agar qarzdorning kreditorlari soni ellik nafardan ortiq bo‘lsa yoki ularning sonini aniqlash mumkin bo‘lmasa, qarzdorga nisbatan qo‘llaniladigan har bir to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili boshlanishi haqidagi ma’lumotlar ham ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinishi shart *(Qonunning 54-moddasi uchinchi qismi).*

E’londa kreditorlar e’tibor berishi lozim bo‘lgan asosiy ma’lumotlardan biri tugatish boshqaruvchisi tomonidan belgilanadigan kreditorlar talablarini qo‘yishning muddati hisoblanadi, bu muddat mazkur e’lon chiqqan sanadan e’tiboran bir oydan kam bo‘lishi mumkin emas.

Ushbu ma’lumotlar kreditorlar va manfaatdor shaxslar uchun tugatishga doir ish yuritish jarayoni haqida to‘liq axborot taqdim etish maqsadida beriladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi tugatish boshqaruvchisining qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqidagi ma'lumotlarni boshqaruvchilikka tayinlangan paytdan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish uchun yuborishi vazifasini belgilaydi. Mazkur o'n kunlik muddat Qonunning 53-moddasi ikkinchi qismida ko'rsatilgan sud boshqaruvchisi tegishli sud hujjati olingan sanadan e'tiboran uch kun ichida ommaviy axborot vositasining manziliga e'lonni yuborishi lozimligi talabidan farq qiladi.

Tugatish boshqaruvchisi ushbu vazifani bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun qonunga muvofiq javobgar bo'ladi (*Qonunning 21-moddasi*).

Xususan, tugatish boshqaruvchisi tomonidan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida ma'lumotlar «Birja» gazetasiga berilgan bo'lsa, u quyidagi tartibda e'lon qilinadi:

«Birja» gazetasi O'zbekiston Respublikasining butun hududida kamida 1000 nusxada tarqatiladi va to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ma'lumotlarning har haftada e'lon qilinishini ta'minlaydi. To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ma'lumotlar matnlari davlat tilida e'lon qilinadi va boshqa tillarga tarjima qilinishi mumkin;

«Birja» gazetasi to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ma'lumotlarni ular manfaatdor shaxslardan olingandan va e'lon qilinganlik haqi to'liq hajmda to'langandan keyin uch kun mobaynida e'lon qiladi;

to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ma'lumotlarning «Birja» gazetasining Internetdagi saytida qo'shimcha haq undirilmasdan joylashtirilishini, shuningdek, saytda joylashtirilgan ma'lumotlardan bepul foydalanilishini ta'minlaydi.

Shuningdek, Agentlik rasmiy veb-saytining alohida sahifasiga tugatish boshqaruvchisi tomonidan o'zining elektron raqamli imzosi bilan to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi e'lon qilinadigan ma'lumotlarni o'z kabineti orqali bepul joylashtirishi mumkin.

Mazkur moddada belgilangan normalar qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritish jarayonida axborotni e'lon qilishning huquqiy mexanizmlarini belgilaydi. Bu norma tugatish boshqaruvchisining mas'uliyatini kuchaytiradi, kreditorlarning xabardorlik darajasini oshiradi va tugatishga doir ish yuritish jarayonidagi adolat, oshkoralik hamda huquqiy aniqlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

144-modda. Tugatish boshqaruvchisining huquqlari va majburiyatlari

Tugatish boshqaruvchisi tayinlangan kundan e'tiboran unga qarzdorning ishlarini boshqarish hamda qarzdorning mol-mulkini tasarruf etish bo'yicha barcha vakolatlar o'tadi.

Tugatish boshqaruvchisi quyidagilarga haqli:

qarzdorning mol-mulkini ushbu Qonunning 118-moddasiga muvofiq tasarruf etishga;

xodimlar bilan, shu jumladan, qarzdorning rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini tugatishga;

qarzdorning shartnomalarini bajarishni ushbu Qonunning 119-moddasiga belgilangan tartibda rad etishga;

tugatishga doir ish yuritish bilan bog‘liq bo‘lgan joriy xarajatlarni moliyalashtirish uchun kreditorlarning yig‘ilishi bilan kelishuvga muvofiq kreditlar olishga;

qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlarni, agar qonunchilikda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lsa, haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida da’volar taqdim etishga;

davlat xizmatlaridan, shu jumladan, davlat xizmatlari markazlari orqali ko‘rsatiladigan xizmatlardan oldindan to‘lovlarni amalga oshirmasdan foydalanishga;

oldindan to‘lovlarni amalga oshirmasdan qarzdorlarning ko‘chmas mulkiga oid kadastr hujjatlarini tayyorlashni, qayta tayyorlashni va davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshirishga;

qarzdor korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan, davlat soliq xizmati organlari uchun ochiq bo‘lgan hisobotlardan, tekshirish dalolatnomalaridan va ishi bilan bog‘liq boshqa materiallardan foydalanishga;

qarzdorni to‘lovga qobiliyatsizlik holatiga olib kelganligi munosabati bilan uning pul majburiyatlari va (yoki) soliqlari hamda yig‘imlari yuzasidan subsidiar javobgar bo‘ladigan shaxslarga nisbatan talablar qo‘yishga. Mazkur talablarning miqdori kreditorlar talablarining summasi bilan tugatish massasi o‘rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlanadi. Undirilgan summalar tugatish massasiga qo‘shiladi va ulardan faqat kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun ushbu Qonunning 149-, 150- va 185-moddalarida belgilangan tartibda foydalanilishi mumkin.

Tugatish boshqaruvchisi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Tugatish boshqaruvchisi:

qarzdorning mol-mulkini o‘z tasarrufiga qabul qilishi, uni inventarizatsiya qilishi va baholashdan o‘tkazishni tashkil etishi, uning but saqlanishi choralarini ko‘rishi;

qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil etishi;

kreditorlar yig‘ilishini va kreditorlar qo‘mitasini chaqirishi;

qarzdor oldidagi qarzlarni undirish choralarini ko‘rishi;

qarzdor tugatilganda uning xodimlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi hamda ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalari kelgusida tugatilishi to‘g‘risida ularni xabardor etishi;

kreditorlarning talablari reyestrini yuritishi va ularning talablarini ko‘rib chiqishi;

qarzdorning moliyaviy ahvoli va (yoki) o‘z faoliyati haqidagi axborotni kreditorning talabiga ko‘ra o‘n kunlik muddatda taqdim etishi;

qarzdorning uchinchi shaxslarda turgan mol-mulkini qidirishga, aniqlashga va qaytarishga qaratilgan choralarni ko‘rishi;

qarzdorning saqlanishi lozim bo‘lgan hujjatlarini saqlashga topshirishi shart.

Tugatish boshqaruvchisining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Qarzdorning boshqaruv organlari (tashqi boshqaruvchi) tugatish boshqaruvchisi tayinlangan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida qarzdorning buxgalteriya hujjatlari va boshqa hujjatlari, muhrlari va shtamplari (muhrlar va shtamplar mavjud bo‘lgan taqdirda), moddiy va boshqa qimmatliklari tugatish boshqaruvchisiga topshirilishini ta’minlaydi. Mazkur majburiyatni bajarishdan bosh tortilgan taqdirda, qarzdorning boshqaruv organlari (tashqi boshqaruvchi), shu jumladan, qarzdor yuridik shaxsning rahbari, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor qonunchilikka muvofiq javobgar bo‘ladi.

Sharhlanayotgan modda tugatish boshqaruvchisining huquq va majburiyatlarini belgilab, unga qarzdorning mol-mulkini boshqarish, inventarizatsiya va baholash ishlarini amalga oshirish, kreditorlar bilan hisob-kitoblarni tashkil etish, qarzdorni to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelgan shaxslarga nisbatan talab qo‘yish hamda qarzdor faoliyatiga oid barcha hujjat va ma’lumotlarni qabul qilish, saqlash va taqdim etish vakolatlarini beradi.

1. Qonunga muvofiq sud qarzdorni bankrot deb topgan paytdan boshlab uning boshqaruv organlari (masalan, aksiyadorlik jamiyatida kuzatuv kengashi va direktor (boshqaruv raisi) yoki mas’uliyati cheklangan jamiyatda ishtirokchilar yig‘ilishi va direktor) o‘z vakolatlarini yo‘qotadi. Ular tomonidan bajariladigan barcha boshqaruv va tasarruf etish funksiyalari endilikda tugatish boshqaruvchisi zimmasiga o‘tadi. Bu mulkiy mas’uliyatning markazlashuvini, kreditorlar manfaatlarini teng muhofaza qilishni va tugatish jarayonida mol-mulk nazoratsiz sarflanishining oldini olishni ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

41. Tugatish boshqaruvchisi tayinlangan kundan e’tiboran unga qarzdorning ishlarini boshqarish va qarzdorning mol-mulkini tasarruf etish bo‘yicha barcha vakolatlar o‘tadi.

Shu munosabat bilan qarzdorning boshqaruv organlari (tashqi boshqaruvchi), shu jumladan, qarzdor yuridik shaxsning rahbari, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor tugatish boshqaruvchisi tayinlangan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida qarzdorning buxgalteriya hujjatlari va boshqa hujjatlari, muhrlari va shtamplari (muhrlar va shtamplar mavjud bo‘lgan taqdirda), moddiy va boshqa qimmatliklari tugatish boshqaruvchisiga topshirilishini ta’minlaydi (**Qonun 144-moddasining oltinchi qismi**).

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida tugatish boshqaruvchisining huquqlari belgilangan bo‘lib, qarzdor bankrot deb topilgandan so‘ng uning mulkiy, mehnat va shartnomaviy munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2.1. Tugatish boshqaruvchisi mol-mulkni sotish, ijaraga berish yoki boshqa tarzda realizatsiya qilish, tasarruf etish huquqiga ega. Bu faoliyat faqat tugatish boshqaruvchisi tomonidan Qonunning 118-moddasida belgilangan tartibda, ya’ni yirik va manfaatdorlik bo‘lgan bitimlarni faqat kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasining roziligi bilan tuzilishi, boshqa barcha hollarda esa qarzdor mol-mulkini boshqarish huquqi faqat qonun bilan belgilangan tartibda amalga oshirilishini nazarda tutadi.

2.2. Tugatish boshqaruvchisi qarzdorning barcha xodimlari, shu jumladan, rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini bekor qilish huquqiga ega. Bu normaning maqsadi qarzdorning faoliyatini to‘liq tugatish va yangi majburiyatlar yuzaga kelmasligini ta’minlashdir. Bunda mehnat kodeksidagi kafolatlar (masalan, ishdan bo‘shatish haqida ikki oy oldin xabardor qilish, kompensatsiya to‘lovlari) saqlanishi shart.

2.3. Tugatish boshqaruvchisi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilguniga qadar qarzdor tuzgan shartnomalarni bajarishni faqat to‘liq yoki qisman bajarilmagan shartnomalarga nisbatan quyidagi holatlardan biri mavjud bo‘lgan taqdirda rad etishga haqli: *birinchidan,* shartnomalarni bajarish qarzdor uchun zarar keltirsa va (yoki) qiyosiy holatlarda tuziladigan xuddi shunday shartnomalarga nisbatan qarzdorning, kreditorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzsa; *ikkinchidan,* shartnoma uzoq muddatli (bir yildan ortiq muddatga tuzilgan) bo‘lsa yoki faqat uzoq istiqbolda qarzdor uchun ijobiy natijalar olishga mo‘ljallangan bo‘lsa; *uchinchidan,* shartnomada bir kreditorning talablarini boshqa kreditorlar talablariga nisbatan afzalroq tarzda qanoatlantirish nazarda tutilgan bo‘lsa; *to‘rtinchidan,* qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashga monelik qiluvchi boshqa holatlar mavjud bo‘lsa.

Bunday hollarda shartnoma barcha taraflar tomonidan shunday shartnoma yuzasidan tugatish boshqaruvchisining shartnomani bajarishni rad etishi to‘g‘risidagi arizasi olingan paytdan e’tiboran bekor qilingan deb hisoblanadi.

2.4. Tugatishga doir ish yuritish jarayonida joriy xarajatlar – audit, baholash, reklama, yuridik xizmatlar va boshqa sarflar uchun mablag‘ talab etiladi. Shu maqsadda tugatish boshqaruvchisi kreditorlar yig‘ilishi roziligi bilan kredit olishi mumkin. Ushbu kredit summalarini qaytarish uchun sarflanadigan mablag‘lar joriy to‘lov majburiyatlari bo‘yicha talablar hisoblanadi va navbatdan tashqari qanoatlantiriladi.

2.5. Agar qarzdor to‘lovga qobiliyatsizlikdan oldin mol-mulkini asossiz ravishda boshqa shaxslarga o‘tkazgan yoki manfaatdor shaxslar bilan qarzdorlikni yashirish maqsadida bitimlar tuzgan bo‘lsa, tugatish boshqaruvchisi sudga da’vo kiritish orqali bunday bitimlarni haqiqiy emas deb topishni so‘rashi mumkin. Bu kreditorlar manfaatlarini himoya qilishning muhim kafolati hisoblanadi.

2.6. Tugatish boshqaruvchisi davlat xizmatlarini (masalan, kadastr, ro‘yxatdan o‘tkazish, arxiv, statistika va h.k.) oldindan to‘lovsiz amalga oshirishi mumkin. Bu imtiyoz tugatish jarayonini to‘xtatib qo‘ymaslik va uni tezlashtirish uchun joriy etilgan.

2.7. Tugatish boshqaruvchisi qarzdorning ko‘chmas mulkiga oid kadastr hujjatlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish ishlarini amalga oshirishi mumkin. Bu, ayniqsa, ko‘chmas mulkni sotish yoki realizatsiya qilishda tegishli hujjatlarni yuridik jihatdan to‘g‘ri rasmiylashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2.8. Tugatish boshqaruvchisi soliq organlarida mavjud hisobotlar, tekshiruv dalolatnomalari va moliyaviy hujjatlar bilan tanishish huquqiga ega. Bu orqali u qarzdorning haqiqiy moliyaviy ahvolini aniqlab, tugatish rejasini asosli ravishda shakllantiradi.

2.9. Qonunga muvofiq agar yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi muassis, mulkdor yoki boshqaruvchi shaxsning g‘ayriqonuniy harakatlari natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, ular qarzdorning mol-mulki yetmagan taqdirda uning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgar bo‘ladi.

Mazkur normani belgilanishi quyidagi ahamiyatga ega.

Birinchidan, tugatish boshqaruvchisi qarzdorni to‘lovga qobiliyatsizlik holatiga olib kelgan shaxslarga (masalan, muassis, rahbar yoki boshqaruv organi a’zolariga) nisbatan subsidiar javobgarlik talabini qo‘yish huquqiga ega. Bu huquq faqat to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida amal qiladi va uning asosiy maqsadi qarzdorning mol-mulki yetarli bo‘lmaganda kreditorlar manfaatlarini qoplashdir.

Ikkinchidan, talab miqdori obyektiv iqtisodiy hisob-kitob asosida belgilanadi, ya’ni kreditorlar talablarining umumiy summasi bilan tugatish massasidagi real mablag‘lar o‘rtasidagi farq aniqlanadi. Bu tugatish boshqaruvchisi faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlovchi muhim mezondir.

Uchinchidan, undirilgan mablag‘lar tugatish massasiga qo‘shiladi, ya’ni ular kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun belgilangan tartibda – Qonunning 149-, 150- va 185-moddalarida nazarda tutilgan navbat asosida taqsimlanadi. Bu holat to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida mulkiy adolat va tenglik tamoyilini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu norma tugatish boshqaruvchisini faqat mulkni taqsimlovchi emas, balki adolatli kompensatsiyani ta’minlovchi faol subyekt sifatida namoyon etadi va to‘lovga qobiliyatsizlik tizimining huquqiy barqarorligini kafolatlaydi.

3. Tugatish boshqaruvchisi mazkur moddaning ikkinchi qismida belgilangan huquqlaridan tashqari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ega bo‘lishi mumkin. Chunki tugatishga oid ish yuritish jarayonida ko‘plab o‘zgaruvchi omillar (iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy) mavjud bo‘lib, ularning barchasini qonunda to‘liq ro‘yxatga olish mumkin emas. Shu sababli «boshqa huquqlar» iborasi tugatish boshqaruvchisiga muayyan vaziyatlarda qonun doirasida faoliyat yuritish uchun yetarlicha erkinlik beradi. Bu norma huquqiy tizimdagi «umumiy normalar» va «maxsus normalar» o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlaydi.

Masalan, tugatish boshqaruvchisi sudga da’vo arizasi taqdim etganda sud ishlarini yuritish jarayonida da’vogarning barcha huquqlaridan foydalanishi mumkin. Tugatish boshqaruvchisini bunday huquqlariga quyidagilarni kiritish mumkin: ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko‘chirmalar olish, ko‘chirma nusxa olish, rad qilish to‘g‘risida ariza berish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, savollar berish, iltimosnomalar kiritish, arz qilish, sudga og‘zaki va yozma tushuntirishlar be-

rish, ishni ko‘rish davomida yuzaga keladigan barcha masalalar bo‘yicha o‘z vajlarini, xulosalarini taqdim qilish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomalari, vajlariga e’tiroz bildirish, sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish kabi protsessual huquqlar shular jumlasiga kiradi.

Ushbu norma amaliyotda tugatishga doir ish yuritish jarayonining samaradorligini oshirish, kreditorlar va qarzdorlar manfaatlarini muvofiqlashtirish hamda qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

4. Tugatish boshqaruvchisi tugatishga doir ish yuritish jarayonida qarzdorning mol-mulkini qabul qilish, saqlash, baholash, undirish va kreditorlar talablarini qanoatlantirishga qaratilgan barcha tashkiliy, moliyaviy va huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga mas’ul hisoblanadi.

4.1. Ushbu norma tugatishga doir ish yuritish jarayonida tugatish boshqaruvchisining asosiy va dastlabki majburiyatini belgilaydi.

Birinchi navbatda, qarzdor bankrot deb topilgandan keyin uning mol-mulki ustidan boshqaruv vakolati tugatish boshqaruvchisiga o‘tadi. Shu bois u barcha aktivlarni (bino-inshootlar, uskunalar, hisobraqamlaridagi mablag‘lar, tovarlar va boshqalarni) tasarrufiga qabul qilishi shart. Bu holat mol-mulkni yashirish yoki yo‘qotish xavfining oldini oladi.

Ikkinchidan, qabul qilingan mulk inventarizatsiya qilinadi, ya’ni har bir aktiv aniqlanib, hujjatlashtiriladi. Bu jarayon tugatish massasini belgilashda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi va keyinchalik kreditorlar talablarini qoplashda aniq hisob-kitobni ta’minlaydi.

Uchinchidan, tugatish boshqaruvchisi mol-mulkni baholashdan o‘tkazishni tashkil etadi, ya’ni uning bozor qiymati mustaqil baholovchilar orqali aniqlanadi. Bu kreditorlar manfaatlarini himoya qilishning muhim huquqiy kafolatidir, chunki mulkni adolatli baholash orqali ularning qanoatlantirish darajasi aniqlanadi.

Nihoyat tugatish boshqaruvchisi mol-mulkning but saqlanishi choralarini ko‘rishi lozim, ya’ni hujjatlar, obyektlar va aktivlarni saqlash, himoya qilish, sug‘urtalash yoki qo‘riqlash ishlarini amalga oshiradi.

Shu tariqa, ushbu norma tugatish boshqaruvchisining faoliyatida mol-mulkni muhofaza qilish va hisobga olish prinsipini amalga oshirishga xizmat qiladi hamda tugatishga doir ish yuritish jarayonida iqtisodiy adolat va shaffoflikni ta’minlaydi.

4.2. Ushbu norma tugatish boshqaruvchisining faoliyatidagi iqtisodiy tahlil va moliyaviy nazorat funksiyasini belgilaydi.

Birinchidan, tugatishga doir ish yuritish jarayonining samarali kechishi uchun qarzdorning haqiqiy moliyaviy holatini aniqlash zarur. Shuning uchun tugatish boshqaruvchisi qarzdorning buxgalteriya hujjatlari, balans, moliyaviy hisobotlar, kreditor va debitor qarzdorliklar, aktivlar va passivlar tuzilishi bo‘yicha to‘liq tahlil o‘tkazishi shart.

Ikkinchidan, bu tahlil orqali qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelgan sabablari, xususan, g‘ayriqonuniy harakatlari yoki samarasiz boshqaruv harakatlari, ortiqcha majburiyatlar yoki zarar keltiruvchi bitimlar aniqlanishi mumkin. Bu ma’lumotlar keyinchalik subsidiar javobgarlik belgilanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Uchinchidan, moliyaviy tahlil natijalari tugatishga doir ish yuritish jarayonidagi strategik qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi: aktivlarni sotish, kreditorlar talablarini qoplash navbatini belgilash hamda qarzdorning mol-mulkini saqlashga doir choralar shu ma’lumotlar asosida belgilanadi.

To‘rtinchidan, ushbu norma tugatish boshqaruvchisidan faqat mulkni boshqarish emas, balki iqtisodiy tahlilchi sifatida ham faol bo‘lishni, ya’ni barcha qarorlarni aniq hisob-kitob va tahlilga tayangan holda qabul qilishni talab etadi.

4.3. Ushbu norma tugatishga doir ish yuritish jarayonida kreditorlar ishtirokini ta’minlovchi demokratik va nazorat mexanizmini belgilaydi.

Birinchidan, kreditorlar tugatishga doir ish yuritish jarayonining asosiy ishtirokchilari bo‘lib, ularning manfaatlari tugatish jarayonida to‘liq himoya qilinishi kerak. Shu bois tugatish boshqaruvchisi kreditorlar yig‘ilishini chaqirishi shart, bu orqali ular ishning borishi, qarzdor mol-mulkining holati, sotish tartibi va taqsimot masalalari yuzasidan axborot oladi hamda o‘z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, kreditorlar yig‘ilishida kreditorlar qo‘mitasi tuzilishi mumkin. Bu qo‘mita tugatish boshqaruvchisining faoliyatini doimiy nazorat qiladi, tugatish rejasini ko‘rib chiqadi va muhim qarorlar bo‘yicha o‘z xulosasini beradi. Bu amaliyotda jamoaviy nazorat va shaffoflik tamoyilini ta’minlaydi.

Uchinchidan, tugatish boshqaruvchisining bunday yig‘ilish va qo‘mita faoliyatini tashkil etishi bir tomonlama qaror qabul qilishning oldini oladi, ya’ni kreditorlar ham tugatish jarayonining teng ishtirokchisi sifatida qaror qabul qilishda ishtirok etadi.

Nihoyat ushbu norma tugatishga doir ish yuritish jarayonida hisobdorlik, shaffoflik va manfaatlar muvozanatini ta’minlaydi. Tugatish boshqaruvchisi kreditorlar bilan doimiy muloqotda bo‘lishi, ularning qarorlarini inobatga olishi va shu orqali ishning qonuniy hamda adolatli yechimini ta’minlashi shart.

Xulosa qilib aytganda, ushbu norma tugatish boshqaruvchisini faqat texnik ijrochi emas, balki kreditorlar bilan hamkorlikda ishlaydigan mas’ul va ochiq tugatish boshqaruvchisi sifatida namoyon etadi.

4.4. Ushbu norma tugatishga doir ish yuritish jarayonida tugatish boshqaruvchisining debitor qarzdorlariga nisbatan huquqiy talablarni amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Birinchidan, bankrot deb topilgan qarzdorning o‘zi ham boshqa shaxslar oldida talabgor bo‘lishi mumkin. Bunday holda tugatish boshqaruvchisi qarzdorning debitorlariga nisbatan undirish choralarini ko‘rishga majbur, ya’ni qarzdorga tegishli bo‘lgan pul mablag‘lari, mol-mulk yoki boshqa majburiyatlarni qonuniy yo‘l bilan qaytarish choralarini ko‘radi.

Ikkinchidan, undirish choralari faqat ixtiyoriy emas, balki sud tartibida ham amalga oshirilishi mumkin. Agar debitor qarzdor to‘lovni rad etsa yoki majburiyatni bajarmasa, tugatish boshqaruvchisi sudga da’vo arizasi kiritish huquqiga ega. Bu holda u qarzdor nomidan harakat qiladi va undirilgan mablag‘lar tugatish massasiga qo‘shiladi.

Uchinchidan, bu norma tugatish boshqaruvchisidan faqat hisobchi yoki texnik ijrochi sifatida emas, balki huquqiy va iqtisodiy faol shaxs sifatida ish olib borishni talab qiladi. U undirish jarayonida dalillar to‘plashi, hujjatlarni tahlil qilishi va kreditorlar manfaatini himoya qiluvchi qarorlar qabul qilishi kerak.

To‘rtinchidan, ushbu norma kreditorlar talablarini qanoatlantirishning asosiy manbaini yaratadi. Chunki debitor qarzdorlardan undirilgan mablag‘lar tugatish massasini ko‘paytirib, kreditorlar talablarini tez va to‘liq qoplash imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

43.1. Qonunga muvofiq, tugatish boshqaruvchisi debitorlik qarzlarini undirish choralarini ko‘rishi lozim.

Sudlarga tushuntirilsinki, debitorlik qarzlarini undirish huquqi elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi o‘tkazish orqali realizatsiya qilinishi mumkin.

Qarzdorning sotishga taklif qilingan, lekin tugatishga doir ish yuritish mobaynida realizatsiya qilinmagan debitorlik qarzlarini undirish huquqi tugatish boshqaruvchisi tomonidan kreditorlarga kreditorlik qarzlarini to‘lash hisobiga qabul qilishni taklif etiladi. Kreditorlar mazkur huquqini o‘z talablarini qanoatlantirish uchun qabul qilishga rozilik bildirganida, debitorlik qarzlarini undirish huquqi talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish haqidagi kelishuvga asosan kreditorlarga o‘tadi (FKning 23-bobi).

4.5. Ushbu norma tugatishga doir ish yuritish jarayonida qarzdor tashkilotning xodimlari mehnat huquqlarini himoya qilishni ta’minlovchi ijtimoiy-huquqiy kafolat sifatida xizmat qiladi.

Birinchidan, qarzdor tashkilot tugatilayotganda uning faoliyati to‘xtaydi, demak, u bilan tuzilgan mehnat shartnomalari ham bekor qilinadi. Shu bois tugatish boshqaruvchisi xodimlarning huquq va qonuniy manfaatlarini davlat va mehnat qonunchiligi asosida himoya qilish majburiyatini oladi. Bu faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy mas’uliyatdir.

Ikkinchidan, xodimlarni oldindan xabardor etishi shart, ya’ni mehnat shartnomalari kelgusida tugatilishi haqida belgilangan muddatlarda rasmiy bildirishnomalar yuborishi kerak. Bu xodimlarning o‘z mehnat huquqlarini amalga oshirish, yangi ish joyi topish yoki davlat yordamini olish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, tugatish boshqaruvchisi mehnat munosabatlariga oid barcha hisobkitoblarni, jumladan, ish haqi, kompensatsiya, ta’til puli, to‘lanmagan mablag‘lar va boshqa to‘lovlarni to‘liq hisoblab chiqishi va to‘lashni ta’minlashi lozim. Bu kreditorlar talablari qondirilishidan avvalgi birinchi navbatdagi to‘lovlar qatoriga kiradi (*Qonunning 149-moddasi).*

To‘rtinchidan, ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida faqat kreditorlar manfaatlariga emas, balki xodimlarning ijtimoiy adolatini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, u davlatning ijtimoiy yo‘naltirilgan siyosatini ifoda etadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu norma tugatish boshqaruvchisining faoliyatidagi inson omili va mehnat huquqlarini hurmat qilish prinsipini amalga oshiradi hamda tugatish jarayonining qonuniy, insofli va ijtimoiy adolatli kechishini ta’minlaydi.

4.6. Kreditorlar talablari reyestrini yuritish tugatish boshqaruvchisining mas’uliyatli majburiyatlaridan biri bo‘lib, u kreditorlar ishonchi va huquqiy himoyasining garovi hisoblanadi.

Ushbu norma tugatishga doir ish yuritish jarayonida kreditorlar huquqlarini ta’minlash va ularning talablarini tizimli hisobga olish mexanizmini belgilaydi.

Birinchidan, tugatishga doir ish yuritish jarayonining asosiy maqsadi qarzdorning mol-mulki hisobidan kreditorlar talablarini qanoatlantirishdir. Shuning uchun tugatish boshqaruvchisi kreditorlar talablari reyestrini yuritishi shart, ya’ni har bir kreditorning talabini qabul qilib, uning haqiqiyligi, asoslari va miqdorini aniqlab, yagona reyestrga kiritadi. Bu reyestr tugatish jarayonining asosiy moliyaviy hujjati hisoblanadi.

Ikkinchidan, tugatish boshqaruvchisi kreditorlar tomonidan yuborilgan talablarni qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqishi kerak. Bu jarayonda u hujjatlarning haqqoniyligini, qarzning kelib chiqish asoslarini, talablar miqdorining qonuniyligini tekshiradi. Agar talab asossiz bo‘lsa, uni rad etish yoki qisman tan olish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Uchinchidan, reyestrda talablarning navbatlari belgilanadi (birinchi navbatda xodimlar to‘lovlari, keyin soliq va boshqa majburiyatlar, so‘ngra boshqa kreditorlar). Bu tartib kreditorlar manfaatlarining teng va adolatli taqsimlanishini ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, ushbu norma tugatish boshqaruvchisidan yuqori darajadagi hisobdorlik, huquqiy savodxonlik va xolislikni talab etadi, chunki reyestrning to‘g‘ri yuritilishi kreditorlar talablarining qonuniy qondirilishi uchun asos bo‘ladi.

4.7. Ushbu normada tugatish boshqaruvchisining hisobdorlik va oshkoralik majburiyati belgilab qo‘yilgan. Bunda u bankrot deb topilgan va tugatishga doir ish yuritish jarayonida bo‘lgan qarzdorning moliyaviy ahvoli haqidagi ma’lumotlarni kreditorlardan yashirishga haqli emas.

Birinchidan, tugatish boshqaruvchisi qarzdorning moliyaviy ahvoli va faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kreditorlar talabiga ko‘ra taqdim etishi uning qonuniy burchidir. Bu talab tugatishga doir ish yuritish jarayonining shaffofligi va kreditorlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.

Ikkinchidan, Qonunda axborotni taqdim etishning aniq 10 kunlik muddati belgilangan. Bu muddat tugatish boshqaruvchisining faoliyatida kechiktirishlar yoki ma’lumotlarni yashirish holatlarining oldini olish uchun joriy etilgan.

Uchinchidan, ushbu axborotda qarzdorning moliyaviy hisobotlari, aktiv va passivlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, debitor va kreditor qarzdorliklari, joriy to‘lovlar, mulk holati va boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlar ko‘rsatilishi lozim. Shu bilan birga, qarzdor-

ning faoliyati to‘xtatilmagan bo‘lsa, u olib borayotgan ishlab chiqarish yoki savdo faoliyati haqidagi ma’lumotlar ham kiritilishi mumkin.

To‘rtinchidan, ushbu norma kreditorlarga tugatishga doir ish yuritish jarayonining qay tarzda kechayotgani, qarzdorning mol-mulkidan qanchalik samarali foydalanilayotgani haqida real va xolis tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Shu orqali kreditorlar o‘z talablarini qonun doirasida himoya qilishda faol ishtirok eta oladilar.

Beshinchidan, agar tugatish boshqaruvchisi belgilangan muddatda axborotni taqdim etmasa yoki to‘liq ma’lumot bermasa, bu holat uning faoliyati ustidan sud yoki vakolatli organlar tomonidan nazorat tekshiruvini o‘tkazish uchun asos bo‘ladi. Zarur hollarda uni almashtirish yoki javobgarlikka tortish masalasi ham ko‘rib chiqilishi mumkin.

4.8. Tugatish boshqaruvchisining ushbu normada qayd qilingan majburiyati tugatishga doir ish yuritish jarayonida mol-mulkni yashirish, yo‘qotish yoki boshqa shaxslar nomiga o‘tkazish holatlarining oldini olishga qaratilgan muhim huquqiy talabni amalga oshirishga qaratilgan. Bu norma qarzdor mol-mulkini to‘liq hisobga olish va kreditorlar manfaatini ta’minlashni kafolatlaydi.

Birinchidan, tugatish boshqaruvchisi qarzdorning mol-mulkini faqat uning balans yoki hisob-kitoblarida emas, balki uchinchi shaxslar qo‘lida saqlanayotgan, vaqtincha foydalanishga berilgan yoki noqonuniy ravishda egallab olingan aktivlarni ham aniqlashi va ularni qaytarish bo‘yicha chora ko‘rishi shart.

Ikkinchidan, tugatish boshqaruvchisi: mol-mulkni izlash uchun davlat organlariga (soliq, bank, kadastr, notariat va boshqalarga) so‘rovlar yuboradi; debitorlardan qarzdorga tegishli bo‘lgan mol-mulkni qaytarishni talab qiladi; zarur holda sud orqali da’vo kiritib, mol-mulkni undirish yoki qaytarish choralarini ko‘radi.

Uchinchidan, agar tugatish boshqaruvchisi bu vazifani bajarmasa yoki yetarli chora ko‘rmasa, bu holat uning faoliyatidagi kamchilik sifatida baholanadi. Sud yoki vakolatli organ uning hisobotini rad etishi yoki tugatish boshqaruvchisini almashtirishi mumkin.

4.9. Ushbu norma tugatish boshqaruvchisining muhim huquqiy majburiyatlaridan biri bo‘lib, qarzdorning hujjat aylanmasi, hisobotlari va huquqiy dalillarini muhofaza qilish vazifasini belgilaydi.

Birinchidan, tugatish boshqaruvchisi qarzdorning faoliyatiga doir buxgalteriya, moliyaviy, shartnoma, kadrlar va huquqiy hujjatlarini qabul qilib, ularning but saqlanishini ta’minlashi va belgilangan tartibda arxiv yoki tegishli davlat organlariga topshirishi shart. Bu orqali qarzdor faoliyatining barcha bosqichlari haqidagi axborot saqlanib qoladi;

Ikkinchidan, saqlanishi lozim bo‘lgan hujjatlarga quyidagilar kiradi: buxgalteriya hisobotlari, balanslar, soliq deklaratsiyalari; tuzilgan shartnomalar va ularning ijrosiga oid materiallar; kreditorlar va debitorlar bilan hisob-kitob hujjatlari; kadrlar bo‘yicha shaxsiy ish jadvallari, buyruqlar, mehnat daftarchalari; mulkka oid huquqiy hujjatlar (kadastr, notarial yozuvlar, litsenziyalar va h.k.); elektron shakldagi axborotlar (hisob raqamlari, bazalar, arizalar va boshqalar);

Uchinchidan, bu talabning asosiy maqsadi huquqiy shaffoflik va mas'uliyatli tugatishga doir ish yuritish jarayonini ta'minlash, ya'ni keyinchalik moliyaviy tekshiruvlar yoki sud nazorati o'tkazilganda dalillar yo'qolmasligi; davlat organlari (soliq, arxiv, sud, prokuratura) uchun ishonchli manba saqlanishi; qarzdor faoliyatida qonun buzilish holatlari bo'lgan taqdirda ularni aniqlash imkoniyati bo'lishidir;

To'rtinchidan, agar tugatish boshqaruvchisi hujjatlarni yo'qotsa, ularni topshirmasa yoki o'z vaqtida rasmiylashtirmasa, bu holat ma'muriy yoki moddiy javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin. Sud bunday holda uning hisobotini qabul qilmasligi yoki boshqaruvchini almashtirishi mumkin;

Beshinchidan, tugatish boshqaruvchisi hujjatlarni qabul qilgan paytda maxsus reyestr yoki topshirish-qabul qilish dalolatnomasini tuzishi kerak. Hujjatlar arxiv talablariga muvofiq joylashtiriladi va belgilangan muddatlarda davlat arxiviga yoki qarzdorning huquqiy vorisiga topshiriladi.

5. Tugatish boshqaruvchisi faqat mazkur moddaning to'rtinchi qismida ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarish bilan cheklanmaydi. Qonun chiqaruvchi uning faoliyatini keng huquqiy tizimga bog'lab, boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni ham yuklagan. Bu norma qonun ustuvorligi prinsipiga asoslanib, tugatish boshqaruvchisini faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy, moliyaviy va huquqiy munosabatlarning barcha sohalarida mas'ul shaxs sifatida belgilaydi.

Amalda tugatish boshqaruvchisining boshqa majburiyatlari qator qonunchilik hujjatlaridan kelib chiqadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (15- va 65-moddalari) unga qonun doirasida ish yuritish va mulk daxlsizligini ta'minlash vazifasini yuklaydi; IPK uning sud oldida hisobdorligi va protsessual normalarga rioya etishini belgilaydi; «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni to'liq taqdim etish majburiyatini yuklaydi; MK tugatishga doir ish yuritish jarayonida xodimlar huquqlarini himoya qilishni talab etadi; «Arxiv ishi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni esa qarzdor hujjatlarini davlat arxiviga topshirish majburiyatini belgilaydi. Shuningdek, SK va FK tugatish boshqaruvchisini moliyaviy hisobdor shaxs sifatida davlat byudjeti va kreditorlar oldida mas'ul etib belgilaydi.

Shu tarzda, ushbu norma tugatish boshqaruvchisining huquqiy maqomini faqat «ijrochi» darajasidan yuqori qo'yadi. U sud oldida hisobdor, davlat manfaatlarini himoya qiluvchi va kreditorlar manfaatlarini ta'minlovchi javobgar shaxs sifatida faoliyat yuritishi lozim. Shu bilan birga, bu norma tugatishga doir ish yuritish jarayonining zamonaviy talablariga mos ravishda qonunchilikning dinamikasini aks ettiradi, ya'ni iqtisodiy munosabatlar rivojlanishi bilan tugatish boshqaruvchisining majburiyatlari ham kengayib boradi.

6. Mazkur moddaning oltinchi qismi tugatishga doir ish yuritish jarayonida hisobdorlik, qonuniylik va shaffoflikni ta'minlovchi muhim protsessual qoida sifatida amal qiladi. Uning mazmuni shundan iboratki, tugatish boshqaruvchisi faoliyatini samarali boshlash uchun qarzdorning moliyaviy va huquqiy holatini to'liq aks ettiruvchi hujjatlar hamda moddiy qimmatliklar unga o'z vaqtida topshirilishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

41. Mazkur bandning uchinchi va to‘rtinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan majburiyatni bajarishdan bosh tortilgan taqdirda, tugatish boshqaruvchisi qarzdorning boshqaruv organlari (tashqi boshqaruvchi) va qarzdor jismoniy shaxs zimmasiga **Qonun 144-moddasining oltinchi qismi** va 219-moddasining oltinchi qismida nazarda tutilgan mol-mulk va hujjatlarni topshirish majburiyatini yuklash to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli. Tugatish boshqaruvchisining ushbu mazmundagi arizasi u sudga kelib tushganidan keyingi kundan kechiktirmay ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilmasdan ko‘rib chiqilishi va natijasi bo‘yicha ajrim chiqarilishi lozim.

Sud ajrimining ijrosi sud tomonidan beriladigan ijro varaqasi asosida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining tegishli bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunga ko‘ra, tugatish boshqaruvchisi tayinlangan paytdan boshlab uch ish kuni ichida qarzdorning boshqaruv organlari (yoki tashqi boshqaruvchi) barcha moliyaviy, buxgalteriya va huquqiy hujjatlarni, muhr va shtamplarni, moddiy qimmatliklarni (mulk, asosiy vositalar, naqd pul va boshqalar) unga topshirishi shart. Bu muddat qat’iy hisoblanadi va uni buzish tugatish jarayonini sun’iy kechiktirish deb baholanadi.

Bunday holatda sud tugatish boshqaruvchisining iltimosiga ko‘ra hujjatlarni majburiy tartibda talab qilib olish yoki aybdor shaxsni javobgarlikka tortish haqida qaror chiqarishi mumkin.

Qonun ushbu majburiyatni bajarmaslik holatlariga qonunchilikka muvofiq javobgarlik choralarini nazarda tutadi.

Ushbu norma tugatish boshqaruvchisining ishini samarali boshlash, kreditorlar manfaatlarini himoya qilish va mol-mulkni yashirish holatlariga barham berishga xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 779-b.

145-modda. Tugatish rejasi

Tugatish rejasida quyidagilar bo‘lishi kerak:

qarzdorning moliyaviy ahvoli to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

kreditorlarning talablarini qanoatlantirish shartlari, tartibi, navbati va nisbati;

qarzdor mol-mulki egasining, mehnat jamoasining manfaatlari hisobga olinganligi;

sotilishi lozim bo‘lgan mol-mulk ro‘yxati;

mol-mulkni sotish sanasi, vaqti, joyi va usuli;

sud xarajatlarini to‘lash, tugatish boshqaruvchisiga, ekspertlarning va boshqa shaxslarning faoliyatiga haq to‘lash shartlari.

Tugatish rejasi kreditorlarning yig‘ilishi bilan kelishib olinishi kerak va, agar reja talablar jami summasining kamida uchdan ikki qismini ifoda etuvchi kreditorlar tomonidan qo‘llab-quvvatlansa, ma’qullangan deb hisoblanadi. Agar tugatish rejasi ma’qullanmagan bo‘lsa, kreditorlar esa tugatish rejasini bir hafta muddatda taqdim etmagan bo‘lsa, tugatish boshqaruvchisi o‘z rejasini tasdiqlaydi.

Agar qarzdorning o‘zi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish tashabbuskori bo‘lsa, u o‘z tugatish rejasini taqdim etishga haqli.

Tugatish rejasi asosida mol-mulk sotiladi hamda kreditorlarning qarzdorga qo‘yadigan talablari ushbu Qonunning 149-, 150-, 154- va 185-moddalarida belgilangan tartibda qanoatlantiriladi.

Sharhlanayotgan modda qarzdorning moliyaviy ahvoli, mol-mulkni sotish tartibi va kreditorlar talablarini qanoatlantirish shartlari ko‘rsatilgan, kreditorlar yig‘ilishi tomonidan kamida uchdan ikki qismi qo‘llab-quvvatlagan taqdirda ma’qullanadigan, shu asosda mol-mulkni sotish va qarzdor majburiyatlarini qoplashni ta’minlaydigan tugatish rejasini belgilaydi.

1. Ushbu norma tugatish jarayonining eng muhim bosqichi – tugatish rejasining mazmun va tarkibiy qismlarini belgilaydi. Tugatish rejasi qarzdorning barcha moliyaviy resurslarini aniqlash, baholash, sotish va ulardan tushgan mablag‘ni kreditorlar talablarini qoplashga yo‘naltirish bo‘yicha kompleks hujjatdir. Normada belgilangan har bir element tugatishga doir ish yuritish jarayonida qonuniylik, oshkoralik va adolatli taqsimotni ta’minlashga qaratilgan.

Birinchidan, qarzdorning moliyaviy ahvoli to‘g‘risidagi ma’lumotlar tugatish rejasining asosiy qismini tashkil etadi. Bu ma’lumotlar tugatish boshqaruvchisi, kreditorlar va sud uchun qarzdorning real to‘lovga qobiliyatlilik darajasini belgilash, mol-mulkni to‘g‘ri baholash hamda kreditorlar talablarini haqqoniy tarzda qanoatlantirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, kreditorlar talablarini qanoatlantirish shartlari, tartibi, navbati va nisbatini aniq ko‘rsatish orqali barcha manfaatdor shaxslar huquqlari kafolatlanadi. Bu iqtisodiy sud amaliyotidagi asosiy adolat mezoni bo‘lib, qarzdorning barcha kreditorlariga teng munosabatda bo‘lishni ta’minlaydi.

Uchinchidan, qarzdor mol-mulki egasi hamda mehnat jamoasining manfaatlari hisobga olinganligi normada alohida ta’kidlangan. Bu, bir tomondan, mulk egasi huquqlarini himoya qilishga, ikkinchi tomondan, xodimlarning ijtimoiy kafolatlarini saqlab qolishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, sotilishi lozim bo‘lgan mol-mulk ro‘yxati, uning sotilish sanasi, vaqti, joyi va usulining tugatish rejasida ko‘rsatilishi esa iqtisodiy aniqlik va shaffoflikni ta’minlaydi. Bu orqali tugatishga doir ish yuritish jarayonida mol-mulkni arzonlashtirish, manfaatdor shaxslar tomonidan suiiste’mol qilish holatlarining oldi olinadi.

Beshinchidan, sud xarajatlari, tugatish boshqaruvchisi, ekspertlar va boshqa shaxslarga haq to‘lash shartlarini belgilash tugatishga doir ish yuritish jarayonida ishtirok etuvchi barcha shaxslar mehnatining qonuniy va adolatli qoplanishini ta’minlaydigan mexanizmdir.

Demak, ushbu norma tugatish rejasini faqat texnik hujjat sifatida emas, balki tugatishga doir ish yuritish jarayonida iqtisodiy manfaatlar, huquqiy kafolatlar va ijtimoiy mas’uliyat muvozanatini ta’minlaydigan, tugatish boshqaruvchisining faoliyati uchun amaliy «yo‘l xaritasi» vazifasini bajaradigan asosiy huquqiy dastur sifatida belgilaydi.

2. Ushbu norma tugatishga doir ish yuritish jarayonida kreditorlar manfaatlarining ustuvorligi va tugatish boshqaruvchisining protsessual vakolatlarini muvozanatlashtirishga qaratilgan. Unda tugatish rejasini ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlashning huquqiy tartibi belgilangan.

Tugatish rejasini kreditorlar yig‘ilishi bilan kelishib olish talabining belgilanishi kreditorlar jamoaviy irodasini ifoda etish hamda ularning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Bu tamoyil «tenglik va manfaatlar muvozanati» prinsipiga asoslanadi. Kreditorlar yig‘ilishidagi qaror qabul qilish uchun kvorum sifatida «talablar jami summasining kamida uchdan ikki qismi» nazarda tutilgani kreditorlar manfaatlarini adolatli ifoda etishni ta’minlaydi.

Tugatish boshqaruvchisi tayyorlagan reja kreditorlar yig‘ilishida muhokama qilinadi, kreditorlar o‘z taklif va e’tirozlarini bildirish huquqiga ega. Tugatish rejasi ma’qullanmagan taqdirda, qonun tugatish jarayonining cho‘zilib ketmasligi uchun kafolat mexanizmini nazarda tutadi. Bunda kreditorlar bir hafta ichida o‘z rejasini taklif etmasalar, tugatish boshqaruvchisi o‘z rejasini tasdiqlash huquqiga ega bo‘ladi. Kreditorlar tugatish rejasini ma’qullashda ishtirok etish imkoniyatiga ega, ammo ularning passivligi tugatish boshqaruvchisining faoliyatini to‘xtatib qo‘ymaydi.

3. Ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida qarzdorning faol huquqiy maqomini belgilaydi. Unda qarzdor faqat passiv ishtirokchi emas, balki tugatish jarayonining tashabbuskori va undagi muhim subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish tashabbuskori bo‘lishi uning qonunda belgilangan huquqidir. Bu holatda u o‘z moliyaviy ahvolini real baholaydi va suddan tugatishga doir ish yuritish jarayonini boshlashni so‘raydi.

Ushbu normada «**q**arzdor o‘z tugatish rejasini taqdim etishga haqli» deyilgani uning faol ishtirokini rag‘batlantirishga qaratilganidan dalolat beradi. Chunki qarzdor o‘z mol-mulkining holatini hammadan yaxshi biladi, majburiyatlarni qanday va qay tartibda qoplash mumkinligini hisoblab chiqishi mumkin, kreditorlar bilan kelishuv asosida moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga harakat qiladi. Tugatishga doir ish yuritish jarayonida qarzdor o‘z qarzlarini yashirishga emas, balki ochiqlik bilan hal qilishga intiladi.

Agar qarzdorning o‘zi sudga murojaat qilgan bo‘lsa, u tugatish rejasi loyihasini ilova qilish huquqiga ega. Bu rejada mol-mulkni sotish, talablarni qoplash tartibi, aktivlarning taqsimoti va tugatish muddatlari ko‘rsatiladi. Sud ishni ko‘rib chiqish jarayonida qarzdor tomonidan taqdim etilgan tugatish rejasini kreditorlar yig‘ilishiga muhokama uchun yuboradi. Agar kreditorlar rejani ma’qullashsa, u sud tasdig‘i uchun asos bo‘ladi; agar ma’qullashmasa, tugatish boshqaruvchisi o‘z rejasini ishlab chiqishi mumkin.

Shu tariqa, qarzdorning reja taklif etish huquqi uning faol va mas'uliyatli ishtirokini ta'minlaydi, shu bilan birga, tugatish jarayonini tezlashtiradi.

4. Mazkur moddaning to'rtinchi qismi tugatishga doir ish yuritish jarayonining eng muhim bosqichi – qarzdorning mol-mulkini sotish va kreditorlar talablarini qanoatlantirish tugatish rejasi asosida amalga oshirilishi lozimligini huquqiy jihatdan belgilaydi. Tugatish rejasi tasdiqlangandan so'ng tugatish boshqaruvchisi uni qonun doirasida amalga oshirishga majbur. Ushbu normaga muvofiq, mol-mulk sotilib, tushgan mablag' hisobidan kreditorlar talablari Qonunning 149-, 150-, 154- va 185-moddalarida belgilangan tartibda qanoatlantiriladi, ya'ni qarzdorning mol-mulki bilan ta'minlangan kreditorlar talablarini ustuvor tarzda qoplash, talablarni qanoatlantirish navbatiga qat'iy rioya etish, kreditorlar bilan hisob-kitoblarni belgilangan tartibda amalga oshirish hamda sug'urtalovchining kreditorlari talablarini qanoatlantirish qoidalariga rioya etish nazarda tutiladi.

Shunday qilib, ushbu norma: tugatish rejasi ijrosini huquqiy kuchga ega mexanizm sifatida belgilaydi; mol-mulkni sotish va mablag'ni taqsimlash tartibini aniq huquqiy asosga bog'laydi; kreditorlar manfaatlarini qonun doirasida va ustuvorlik navbati asosida himoya qiladi.

Bu norma amalda tugatish jarayonining puxta, tizimli va adolatli yakunlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi asosiy huquqiy kafolatlardan biridir. Qarang: Xalqaro sharh. 780-b.

146-modda. Tugatish massasi

Qarzdorning barcha aktivlari, ular balanslarda ko'rsatilganligidan yoki ko'rsatilmaganligidan qat'i nazar, tugatish massasini shakllantirish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Tugatish massasiga quyidagilar kirmaydi:

qarzdor xodimlariga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk;

ishonchli boshqaruvdagi, qarzdor ijara huquqi asosida foydalanayotgan mol-mulk;

garov narsasi, shu jumladan, garovga berilgan talab qilish huquqlari hamda garov xatlari, bundan ushbu Qonun 149-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno;

qarzdorga javobgarlik asosida saqlash uchun berilgan tovarlar;

qonunchilikka muvofiq qarzdorning mulki bo'lmagan boshqa mol-mulk.

Qarzdorning balansida bo'lgan, lekin uning ustav fondiga (ustav kapitaliga) kiritilmagan, shuningdek, qarzdorga foydalanish uchun berilgan davlatga tegishli ijtimoiy infratuzilma obyektlari va umumiy foydalanishdagi kommunal soha obyektlari qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili boshlangan paytdan e'tiboran bir oylik muddat ichida ularning qoldiq qiymati bo'yicha tugatish boshqaruvchisi tomonidan tegishincha mahalliy davlat hokimiyati organlariga va (yoki) tashkilotlarga ularning funksional mansubligiga ko'ra topshiriladi.

Sharhlanayotgan modda tugatish massasining huquqiy mohiyatini belgilab, qarzdorning barcha aktivlari uning mol-mulki sifatida tugatish massasiga kirishi, ayni paytda, ishonchli boshqaruvdagi, ijaradagi, garovdagi hamda davlatga tegishli infratuzilma obyektlari kabi mulklar unga kirmasligi va ular belgilangan muddatda tegishli organlarga topshirilishi lozimligini nazarda tutadi.

1. Ushbu norma tugatishga doir ish yuritish jarayonida qarzdorning mol-mulk bazasini aniqlash va uni qonuniy asosda tugatish massasiga kiritish bo‘yicha asosiy huquqiy qoidani belgilaydi. Uning mazmunida to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida kreditorlar manfaatlarini to‘liq ta’minlash va mulkiy shaffoflikni ta’minlash g‘oyasi mujassam.

Birinchidan, qarzdorning barcha aktivlari deganda uning mulk huquqi asosida egalik qilayotgan, tasarruf etish vakolatiga ega bo‘lgan barcha mol-mulki, mulkiy huquqlari va moddiy boyliklari tushuniladi. Bu yerda «aktivlar» atamasi keng ma’noda qo‘llanilgan bo‘lib, faqat balansda qayd etilgan asosiy vositalar emas, balki qarzdorning yashirin yoki hisobga olinmagan, ammo aniqlanishi mumkin bo‘lgan mol-mulklari ham nazarda tutiladi.

Ikkinchidan, «balanslarda ko‘rsatilgan yoki ko‘rsatilmaganligidan qat’i nazar» degan qoida mulkni tugatish massasiga kiritishda buxgalteriya hisobotining formal holatiga emas, balki mulkning huquqiy mansubligi va real mavjudligiga e’tibor qaratilishini anglatadi. Agar mol-mulk real ravishda qarzdorga tegishli bo‘lib, buxgalteriyada aks etmagan bo‘lsa ham, u tugatish massasiga kiritilishi shart. Bu norma tugatish jarayonida mulkni yashirish, tugatish massasini sun’iy ravishda kamaytirish holatlarining oldini oladi.

Uchinchidan, bu qoida tugatish boshqaruvchisining majburiyatini belgilaydi – u qarzdorning barcha aktivlarini aniqlab, ularni to‘liq ro‘yxatga olishi va tugatish massasi tarkibiga kiritish uchun mas’ul hisoblanadi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi tugatish massasining huquqiy chegarasini belgilaydi, unga ko‘ra, tugatish massasi faqat qarzdorning haqiqiy mol-mulkidan tashkil topadi va unga xodimlar xususiy mulki, ijara yoki ishonchli boshqaruvdagi mol-mulk, garovdagi aktivlar, saqlash uchun berilgan tovarlar hamda qonunchilikka muvofiq qarzdorga tegishli bo‘lmagan boshqa mol-mulklar kiritilmaydi.

Birinchidan, tugatish massasiga xodimlarning xususiy mulk huquqi asosida egalik qilayotgan ashyolari, masalan, shaxsiy kiyim-kechak, noutbuk, telefon yoki mehnat shartnomasi asosida ularga tegishli qilib berilgan va ularning shaxsiy mulkiga aylangan mol-mulklar kirmaydi.

Demak, ushbu qoida tugatishga doir ish yuritish jarayonida mulkiy adolat va shaxsiy huquqlarni himoya qilishga xizmat qiladi, ya’ni xodimlarning shaxsiy mulki qarzdorning majburiyatlarini qoplash manbai sifatida foydalanilmasligi kafolatlanadi.

Ikkinchidan, ushbu normadagi ikki turdagi mol-mulk ham tugatish massasiga kiritilmaydi.

Ishonchli boshqaruvdagi mol-mulk, ya’ni qarzdor faqat boshqaruvchi sifatida harakat qilayotgan, lekin uning mulkdor emasligi tufayli bu mol-mulk tugatish jarayonida qarzdorning aktivi sifatida qaralmaydi. Mol-mulk ishonchli boshqaruv shartnomasi asosida boshqa shaxsning (buyurtmachining) mulki hisoblanadi.

Ijara asosida foydalanilayotgan mol-mulk – qarzdor uni vaqtincha foydalanish uchun ijaraga olgan bo‘ladi, biroq uning mulkdori emas. Shu bois bu mol-mulkni tugatish boshqaruvchisi sotishi yoki kreditorlar talabini qoplash uchun ishlatishi mumkin emas.

Ushbu norma mulk huquqi va foydalanish huquqi o‘rtasidagi aniq huquqiy farqni belgilaydi. Bunda tugatish massasi faqat qarzdorning mulk huquqi asosidagi aktivlaridan shakllanadi. Shu tariqa, ushbu qoida tugatish jarayonida begona mulkning daxlsizligini ta’minlaydi, mulkdorlar manfaatlarini himoya qiladi va tugatish boshqaruvchisining vakolatlarini qonuniy chegarada ushlab turadi.

Uchinchidan, garov narsasi**, shu jumladan,** garovga berilgan talab qilish huquqlari va garov xatlari odatda tugatish massasiga kirmaydi**,** chunki ularda garovga oluvchining ustuvor huquqi mavjud.

Garov institutining mohiyati shundaki, qarzdor o‘z majburiyatini bajarishni ta’minlash maqsadida garov shaklida mol-mulk yoki talab qilish huquqini taqdim etadi. Shu bois tugatishga doir ish yuritish jarayoni boshlanganda ham bu mol-mulk qarzdorning erkin tasarrufida emas – u belgilangan garovga oluvchining manfaatiga bog‘langan bo‘ladi.

Ammo normada «bundan ushbu Qonun 149-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno» degan qayd orqali istisno holat ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, agar garov bilan ta’minlangan talablar belgilangan tartibda qanoatlantirilgan bo‘lsa yoki garov narsasi sotilib, uning qiymati qarzdorning umumiy tugatish massasiga qaytarilsa, bu aktivlar ma’lum darajada tugatish jarayoniga jalb etilishi mumkin.

Demak, ushbu norma garov bilan ta’minlangan mulkni tugatish massasidan ajratish orqali kreditorlar manfaatlarining adolatli tartibini ta’minlaydi**,** mulk huquqining daxlsizligini saqlaydi va to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida mol-mulkni hisobga olishning aniq chegaralarini belgilaydi.

To‘rtinchidan, qarzdorga javobgarlik asosida saqlash uchun berilgan tovarlar tugatish massasiga kirmaydi, chunki bunday tovarlar qarzdorning o‘z mulki hisoblanmaydi – ular faqat vaqtincha saqlash uchun berilgan bo‘ladi. Qarzdor bu yerda mulkdor sifatida emas, saqlovchi sifatida ishtirok etadi. Demak, u bu tovarlardan foyda ko‘rish, ularni sotish yoki tasarruf etish huquqiga ega emas.

Shu sababli tugatish jarayonida bu turdagi mol-mulkni qarzdorning aktivlari sifatida baholash mumkin emas. Ular faqat mulkdorga qaytarilishi lozim bo‘lgan begona mol-mulk hisoblanadi.

Beshinchidan, qonunchilikka muvofiq tugatish massasiga qarzdorning mulki hisoblanmagan, ya’ni mulk huquqi o‘tmagan aktivlar – ijara, ishonchli boshqaruv, lizing, komissiya, agentlik, saqlash, buyurtmachi xomashyosi bo‘yicha pudrat (ishlab chiqarish) shartnomalari asosida foydalanilayotgan mol-mulklar kiritilmaydi. Bu qoida FKning mulk huquqiga oid normalari hamda sohaviy qonunlarda belgilab qo‘yilgan holatlarga tayanadi. Shu tariqa, ushbu norma tugatishga doir ish yuritish jarayonida faqat qarzdorga tegishli aktivlar hisobidan hisob-kitob qilishni va boshqa shaxslarning mulk huquqi buzilmasligini ta’minlaydi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi tugatishga doir ish yuritish jarayonida davlat mulkining daxlsizligi va funksional mansubligini saqlashni ta’minlovchi muhim

huquqiy kafolat hisoblanadi. Unga ko‘ra, agar qarzdorning balans hisobida davlatga tegishli, lekin ustav kapitaliga kiritilmagan ijtimoiy yoki kommunal soha obyektlari mavjud bo‘lsa (masalan, maktab, bolalar bog‘chasi, issiqlik tarmog‘i, suv ta’minoti yoki yo‘l infratuzilmasi kabi), ular qarzdorning mustaqil mol-mulki hisoblanmaydi va tugatish massasiga kiritilmaydi.

Bu normaning huquqiy mohiyati shundaki, u FKning «Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida»gi va «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari normalari bilan uyg‘un holda davlat mulkini xususiylashtirish yoki noqonuniy realizatsiya qilishning oldini oladi. Tugatish boshqaruvchisi ushbu obyektlarning qoldiq (balans) qiymatini aniqlab, bir oy muddatda tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlariga va (yoki) tashkilotlarga ularning funksional mansubligiga ko‘ra topshirishi shart, bu esa davlat infratuzilmasi uzluksiz faoliyatini ta’minlaydi.

Amalda bu qoida ijtimoiy ahamiyatga molik obyektlar faoliyati (issiqlik, suv, yo‘l va boshqalar) to‘xtab qolishining oldini oladi, tugatishga doir ish yuritish jarayonida iqtisodiy manfaat ustuvorligi davlat va jamiyat manfaatlariga zarar yetkazmasligini kafolatlaydi. Shu bilan birga, bu norma tugatish boshqaruvchisining vazifasi va mas’uliyatini aniq belgilaydi – u faqat qarzdor mulkini emas, balki davlat mulkini ham qonun doirasida to‘g‘ri tasarruf etishi lozim. Qarang: Xalqaro sharh. 780-b.

147-modda. Qarzdorning mol-mulkini baholash

Tugatishga doir ish yuritish jarayonida tugatish boshqaruvchisi qarzdorning mol-mulkini inventarizatsiya qiladi va uning qiymatini belgilaydi. Tugatish boshqaruvchisi mazkur faoliyatni amalga oshirish uchun baholovchi tashkilotni va boshqa mutaxassislarni ularning xizmatlari uchun qarzdorning mol-mulki hisobidan haq to‘lagan holda jalb etishga, agar kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi tomonidan haq to‘lashning boshqa manbai belgilanmagan bo‘lsa, haqli. Ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan qarzdorning mol-mulki baholanayotganda baholovchi tashkilot jalb etilishi shart. Qarzdorning kreditorlari yig‘ilishi yoki kreditorlari qo‘mitasi mazkur xizmatlar haqini to‘lash majburiyati zimmasiga yuklatiladigan, qilgan xarajatlarining o‘rni keyinchalik qarzdorning mol-mulki hisobidan navbatdan tashqari qoplanadigan shaxsni, agar uning o‘zi rozi bo‘lsa, tayinlashga haqli.

Agar tugatishga doir ish yuritish jarayonida haq to‘lash ko‘chmas mol-mulk bilan amalga oshirilayotgan bo‘lsa, mazkur mol-mulk, agar kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi tomonidan boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, uni sotishdan oldin baholovchi tashkilot tomonidan baholanadi.

Qarzdorning majburiyatlar bajarilishining ta’minoti sifatida turgan mol-mulkini baholash baholovchi tashkilot tomonidan majburiy tartibda o‘tkaziladi.

Sharhlanayotgan modda tugatish boshqaruvchisining qarzdor mol-mulkini inventarizatsiya qilish va baholash majburiyatini belgilab, baholash faqat baholovchi tashkilot va boshqa mutaxassislar orqali amalga oshirilishi, ayniqsa davlat ulushi mavjud korxonalarda bu tartib majburiy ekanligi hamda baholash xarajatlarini qoplash manbalari kreditorlar yoki qarzdor mol-mulki hisobidan belgilanishini nazarda tutadi.

1. Ushbu norma tugatishga doir ish yuritish jarayonida qarzdorning mol-mulkini aniqlash va uning qiymatini belgilash tartibini belgilaydi hamda bu jarayonda aniqlik, xolislik va qonuniylik tamoyillariga amal qilishni ta'minlashga qaratilgan. *Birinchidan,* tugatish boshqaruvchisi qarzdorning barcha aktivlarini inventarizatsiya qilish orqali tugatish massasi tarkibini belgilaydi, bu esa keyingi bosqichda aktivlarni sotish va qarzdorning majburiyatlarini qoplash uchun huquqiy asos yaratadi. *Ikkinchidan,* mol-mulkni baholash faqat litsenziyaga ega baholovchi tashkilot orqali amalga oshirilishi mumkin, chunki bu baholash natijalarining obyektivligi va huquqiy kuchini kafolatlaydi; ayniqsa, ustav fondida davlat ulushi mavjud korxonalarda baholovchi jalb etilishi majburiy hisoblanadi. *Uchinchidan,* baholash va mutaxassislarni jalb qilish xarajatlarini to‘lash manbai sifatida qarzdorning mol-mulki belgilanadi, ammo kreditorlar yig‘ilishi yoki qo‘mitasi bu majburiyatni boshqa shaxs zimmasiga yuklatishi ham mumkin, bunda u shaxsning roziligi va keyinchalik xarajatlarni navbatdan tashqari tartibda qoplash shartligi belgilangan. Shu tariqa, norma tugatish jarayonida shaffoflik, manfaatdor taraflar huquqlarining himoyasi va davlat manfaatlarining ta'minlanishini kafolatlovchi muhim huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Ushbu norma tugatishga doir ish yuritish jarayonida haq to‘lash shakli sifatida ko‘chmas mol-mulkdan foydalanish holatlarida qonuniy aniqlik va iqtisodiy adolatni ta'minlashga qaratilgan. *Birinchidan*, agar tugatish boshqaruvchisi yoki boshqa jalb etilgan mutaxassislarga haq to‘lash pul shaklida emas, balki ko‘chmas mol-mulk bilan amalga oshirilayotgan bo‘lsa, bu mol-mulkning bahosi xolis va bozor qiymatiga mos bo‘lishi shart. Shu bois uning qiymati litsenziyaga ega baholovchi tashkilot tomonidan baholanishi talab etiladi. Bu mol-mulk haqqoniy qiymatda hisobga olinishini, kreditorlar yoki qarzdor manfaatlariga zarar yetmasligini kafolatlaydi. *Ikkinchidan,* bu talab tugatishga doir ish yuritish jarayonida aktivlarning qadrsizlanishi, arzon bahoga berilishi yoki manfaatdor shaxslar tomonidan suiiste'mol qilish holatlarining oldini olishni ko‘zlaydi. Shu tariqa, ushbu norma ko‘chmas mol-mulkni adolatli baholash, kreditorlar manfaatlarini himoya qilish va mol-mulk bilan hisob-kitob qilishda shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan muhim huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi qarzdorning majburiyatlarini ta'minlovchi mol-mulkni baholashda obyektivlik va huquqiy kafolatni ta'minlashga qaratilgan. Agar qarzdorning mol-mulki garov, ipoteka yoki boshqa turdagi ta'minot sifatida xizmat qilsa, uning qiymatini baholovchi tashkilot majburiy tartibda belgilashi lozim. Bu yerda qonun ijodkorining asosiy maqsadi baholash jarayonida subyektiv yoki manfaatdor shaxslar ta'sirida qiymatni sun'iy ravishda oshirish yoki pasaytirish holatlarining oldini olishdir.

Baholovchi tashkilot faoliyati litsenziya asosida amalga oshiriladi va u bozor sharoiti, aktivning fizik holati hamda huquqiy cheklovlarni hisobga olgan holda qiymatni aniqlaydi. Shu tariqa, mazkur talab tugatishga doir ish yuritish jarayonida kreditor-

lar huquqlarini himoya qilish, ta’minotga qo‘yilgan mol-mulkning haqiqiy qiymatini belgilash hamda keyinchalik uning sotilishi yoki taqsimlanishida shaffof va adolatli tartibni ta’minlash uchun xizmat qiladi.

Amalda bu norma garovga qo‘yilgan mol-mulkni baholashda kelishmovchiliklarni kamaytiradi va sud nazoratidagi tugatish jarayonining iqtisodiy asoslanganligi hamda huquqiy barqarorligini ta’minlaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 780-b.

148-modda. Qarzdorning hisobvaraqlari

Tugatish boshqaruvchisi tugatishga doir ish yuritish jarayonida qarzdorning so‘mda yuritiladigan yagona va valyutada yuritiladigan yagona hisobvaraqlaridan (bundan buyon matnda qarzdorning yagona hisobvaraqlari deb yuritiladi) foydalanishi shart. Qarzdorning bankdagi tugatishga doir ish yuritish boshlanayotgan paytda ma’lum bo‘lgan, shuningdek, tugatishga doir ish yuritish jarayonida aniqlangan boshqa hisobvaraqlari aniqlanishi bilanoq tugatish boshqaruvchisi tomonidan yopilishi lozim. Qarzdorning ana shu hisobvaraqlardagi pul mablag‘lari qoldig‘i qarzdorning yagona hisobvaraqlariga o‘tkazilishi kerak.

Tugatishga doir ish yuritish jarayonida kelib tushgan pul mablag‘lari ham qarzdorning yagona hisobvaraqlariga o‘tkaziladi.

Qarzdorning yagona hisobvaraqlaridan kreditorlarga to‘lovlar ushbu Qonunning 149-, 150- va 185-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi hamda quyidagilar to‘lanadi:

tugatish boshqaruvchisiga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar;

qarzdorning kommunal xizmatlarga va foydalanish xarajatlariga oid joriy to‘lovlari;

to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari jarayonidagi ma’lumotlarni e’lon qilish, shuningdek, qarzdorning kreditorlarini xabardor qilish bilan bog‘liq xarajatlar;

tugatishga doir ish yuritishni amalga oshirish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar.

Tugatish boshqaruvchisi qarzdorning pul mablag‘laridan foydalanganlik to‘g‘risidagi hisobotni kreditorlar yig‘ilishiga yoki kreditorlar qo‘mitasiga ushbu Qonunning 155-moddasida nazarda tutilgan tartibda taqdim etadi.

Sharhlanayotgan modda qarzdorning barcha hisobvaraqlari yagona hisobvaraqlarda birlashtirilishi, ular orqali to‘lovlar faqat qonun bilan belgilangan tartibda amalga oshirilishi hamda tugatish boshqaruvchisining mablag‘lardan foydalanish ustidan kreditorlar nazorati ta’minlanishini nazarda tutadi.

1. Ushbu norma tugatishga doir ish yuritish jarayonida moliyaviy intizom va mablag‘lar harakatining shaffofligini ta’minlashga qaratilgan muhim huquqiy talabni belgilaydi. Qarzdorning barcha hisobvaraqlarini yagona (so‘mda va valyutadagi) hisobvaraqlarda

birlashtirish tugatish boshqaruvchisining moliyaviy nazoratini kuchaytiradi, mablag‘lar sarfini markazlashtiradi va kreditorlar manfaatlarining himoyasiga xizmat qiladi.

Tugatish boshqaruvchisi qarzdorga tegishli barcha bank hisobvaraqlarini tez va to‘liq identifikatsiya qilib, ularni yopish va o‘sha mablag‘larni qarzdorning yagona (so‘mda va valyutadagi) hisobvaraqlariga birlashtirishga majburlash orqali moliyaviy xarajatlarni markazlashtirish, mablag‘larni yashirish yoki suiiste’mol qilishning oldini olish va kreditorlarga adolatli taqsimot uchun asos yaratadi.

Tugatish boshqaruvchisi barcha banklardan va kredit tashkilotlaridan qarzdorga tegishli hisobvaraqlarning ro‘yxatini, oxirgi bank bildiruvlari va operatsiyalar reyestrini talab qilishi kerak. Hisobvaraqlar faqat «so‘mda yagona» va «valyutada yagona» shaklda mavjud bo‘lishi lozim – boshqa barcha hisobvaraqlar aniqlanishi bilan yopiladi. Har bir yopilayotgan hisobdagi qoldiq to‘liq majburiy ravishda yagona hisobvaraqqa o‘tkazilishi lozim. Kassadagi naqd pullar, agar mavjud bo‘lsa, inventarizatsiya qilinib, amaldagi qoidalarga muvofiq bankka o‘tkazilishi yoki boshqacha adolatli tarzda saqlanishi zarur. Valyutada hisobga olingan tushumlar va ularning mablag‘lari alohida qayd etilishi kerak. Barcha yopish/o‘tkazish operatsiyalari to‘g‘risidagi hujjatlar (bank topshiriqnomalari, dalolatnomalar, chek-kvitansiyalar) saqlanishi va kreditorlar yig‘ilishi yoki qo‘mitasiga belgilangan tartibda taqdim etilishi lozim.

2. Ushbu norma tugatish jarayonidagi pul aylanmasining markazlashuvi va moliyaviy nazoratni ta’minlash maqsadida joriy etilgan bo‘lib, u kreditorlar manfaatlarini himoya qilish, moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni kafolatlaydi. Moliyaviy huquq nazariyasi nuqtayi nazaridan, yagona hisobvaraq qonun bilan belgilangan moliyaviy markazlashtirish vositasi, ya’ni tugatish jarayonidagi barcha pul operatsiyalari aynan shu hisob orqali o‘tishi lozim bo‘lgan yagona pul aylanma nuqtasidir.

Xususan, tugatishga doir ish yuritish jarayonida qarzdorning mol-mulkini sotishdan, debitorlik qarzlarini undirish natijasida, ijara, kompensatsiya, sug‘urta yoki boshqa shartnomalardan ijrosi yuzasidan, shuningdek, sud va arbitraj qarorlari bo‘yicha mablag‘lar kelib tushishi mumkin. Bu mablag‘larning barchasi bevosita yagona hisobvaraqqa kiritilishi shart.

Tugatish boshqaruvchisi mablag‘larni qabul qilish, hujjatlashtirish va bankka o‘tkazish bo‘yicha qat’iy tartib o‘rnatishi kerak. Har bir tushum manbai aniq ko‘rsatilgan holda tegishli hisobotlar bilan rasmiylashtiriladi. Tushgan mablag‘larning harakati bo‘yicha hisobotlar tugatish boshqaruvchisi tomonidan kreditorlar qo‘mitasi yoki yig‘ilishiga taqdim etiladi. Bu orqali kreditorlar tugatish jarayonidagi pul aylanmasi shaffofligini kuzatib borish imkoniga ega bo‘lishadi. Agar kelib tushgan mablag‘lar to‘g‘ridan to‘g‘ri yagona hisobga o‘tkazilmasa, bu holat tugatish boshqaruvchisining qonunbuzarligi hisoblanadi va u tegishli tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin.

Ushbu norma tugatishga doir ish yuritish jarayonining adolatli, nazoratli va qonun doirasida amalga oshirilishini kafolatlaydi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi tugatishga doir ish yuritish jarayonida qarzdorning moliyaviy mablag‘laridan foydalanish tartibini belgilaydi. Unda qarzdorning barcha pul tushumlari va to‘lovlari faqat yagona hisobvaraqlar orqali amalga oshirili-

shi belgilangan. Bu orqali tugatish boshqaruvchisi mablag‘lar harakati ustidan nazorat o‘rnatadi, mablag‘larning taqsimlanishida shaffoflik va qonuniylik ta’minlanadi. Qonunning 149-, 150- va 185-moddalarida kreditorlar talablarini qondirishning navbati va ustuvorligi belgilangan bo‘lib, unga muvofiq, qarzdorning mablag‘lari birinchi navbatda tugatishga doir ish yuritish jarayoni bilan bog‘liq majburiyatlarni qoplash uchun yo‘naltiriladi. Bu to‘lovlar kreditorlar oldidagi qarzlardan ham ustuvor hisoblanadi va ularning ro‘yxati ushbu normada nazarda tutilgan.

Xususan, tugatish boshqaruvchisiga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar tugatish boshqaruvchisi faoliyatining moddiy ta’minlanishi uchun; kommunal va foydalanish xarajatlari qarzdor faoliyatini yakunlash uchun zarur shart-sharoitni saqlashga qaratilgan; ma’lumotlarni e’lon qilish va kreditorlarni xabardor qilish bilan bog‘liq xarajatlar tugatishga doir ish yuritish jarayoni ochiqligi va ishtirokchilarning xabardorligi uchun; boshqa xarajatlar esa, masalan, ekspertiza, baholash, hujjat aylanmasi, notarial xizmatlar va boshqalarni nazarda tutadi.

Ushbu tartib nafaqat kreditorlar manfaatlarini himoya qiladi, balki davlat va jamiyat oldidagi hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflikni ham ta’minlaydi.

4. Ushbu norma tugatishga doir ish yuritish jarayonida moliyaviy hisobdorlik va nazorat mexanizmlarini ta’minlashga qaratilgan protsessual qoida hisoblanadi. U Qonunning 155-moddasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, tugatish boshqaruvchisining mas’uliyatini, kreditorlarning nazorat huquqini va moliyaviy shaffoflikni amaliy jihatdan kafolatlaydi.

Tugatish boshqaruvchisi qarzdorning barcha mol-mulki, hisobvaraqlari va pul mablag‘larini boshqarish vakolatiga ega shaxs sifatida pul mablag‘laridan foydalanish ustidan hisobdor hisoblanadi. Shuning uchun u belgilangan muddatlarda qarzdorning pul mablag‘laridan foydalanganlik to‘g‘risida hisobot tayyorlab, uni kreditorlar yig‘ilishiga yoki kreditorlar qo‘mitasiga taqdim etishi shart.

Bunday hisobot: *birinchidan,* huquqiy hujjat bo‘lib, moliyaviy harakatlarning qonuniyligi, maqsadliligi va to‘g‘riligi haqidagi asosiy dalillardan biri hisoblanadi; *ikkinchidan*, kreditorlar manfaatlarini himoya qilish vositasi bo‘lib, ular qarzdorning mablag‘lari qanday sarflanganini aniq ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishadi; *uchinchidan,* tugatish boshqaruvchisining mas’uliyatini baholash mezoni bo‘lib xizmat qiladi. Agar hisobotda kamchilik yoki qonun buzilish aniqlansa, kreditorlar uning faoliyatini qayta ko‘rib chiqishni yoki sudga murojaat qilishni talab etishlari mumkin.

Qonunning 155-moddasida kreditorlar yig‘ilishi va qo‘mitasining vakolatlari belgilab berilgan. Unga ko‘ra, kreditorlar tugatish boshqaruvchisining hisobotini tinglash, tasdiqlash yoki rad etish, uning faoliyatini nazorat qilish, zarur hollarda tugatish boshqaruvchisini almashtirish huquqiga egalar. Demak, ushbu norma tugatish boshqaruvchisi faoliyatini jamoaviy nazoratga bog‘laydi.

Tugatish boshqaruvchisining pul mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha hisobot taqdim etish majburiyati Qonunning moliyaviy shaffoflik, kreditorlar nazorati va adolatli boshqaruvni ta’minlovchi asosiy mexanizmidir. U tugatish jarayonida korrupsiya, suiiste’mollar va manfaatlar to‘qnashuvining oldini oladi hamda kreditorlar huquqlarini amaliy jihatdan himoya qiladi.

149-modda. Qarzdorning mol-mulki bilan ta’minlangan kreditorlarning talablarini qanoatlantirish

Qarzdorning mol-mulki bilan ta’minlangan kreditorlarning talablarini qanoatlantirish ushbu mol-mulk sotilganidan keyin tushgan mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi. Bu mablag‘larning qoldig‘i ushbu Qonunning 150-moddasiga muvofiq kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun yo‘naltiriladi.

Agar qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta’minoti sifatida berilgan mol-mulkini sotishdan tushgan summa kreditorlarning mazkur mol-mulk bilan ta’minlangan talablarini to‘la qanoatlantirish uchun yetarli bo‘lmasa, talablarning qolgan qismi ushbu Qonunning 150-moddasida belgilangan navbatga muvofiq qanoatlantiriladi.

Qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta’minoti sifatida berilgan mol-mulkini realizatsiya qilish bo‘yicha elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi va (yoki) takroriy elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda, mazkur mol-mulk talablari ushbu mol-mulk bilan ta’minlangan kreditorlarga o‘z talablari hisobiga o‘tkazish uchun belgilangan tartibda qabul qilish uchun taklif etiladi. Agar qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta’minoti sifatida berilgan mol-mulkining bozor qiymati kreditorlarning ushbu mol-mulk bilan ta’minlangan talablaridan ko‘p bo‘lsa, bunda yuzaga kelgan farqning o‘rni mazkur mol-mulkni o‘z talablari hisobiga qabul qilayotgan kreditorlar tomonidan pul shaklida qoplanadi.

Agar qarzdorning butun mol-mulki majburiyatlar bajarilishining ta’minoti sifatida qabul qilingan bo‘lsa va mazkur mol-mulkni sotishdan tushgan summa kreditorlarning qarzdorning barcha mol-mulki bilan ta’minlangan talablari summasidan kam yoki unga teng bo‘lib qolsa, u holda ushbu kreditorlarning talablarini qanoatlantirish ushbu Qonun 150-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan xarajatlarning o‘rni qoplanganidan va talablar qanoatlantirilganidan keyin hamda ish haqi to‘lash uchun pul mablag‘lari berilishini nazarda tutuvchi to‘lov hujjatlari bo‘yicha talablar qanoatlantirilganidan keyin amalga oshiriladi.

Sharhlanayotgan moddada qarzdorning mol-mulki bilan ta’minlangan kreditorlarning talablarini mol-mulk sotilganidan keyin tushgan mablag‘lar hisobidan qanoatlantirish tartibi, elektron onlayn-auksion amalga oshmagan taqdirda, mol-mulkni kreditorga o‘z talablari hisobiga berish shartlari, ortiqcha qiymatni pul shaklida qoplash hamda barcha mol-mulk ta’minotda bo‘lgan holda talablarni qanoatlantirish navbatliligi belgilangan.

1. Ushbu norma qarzdorning majburiyatlari ta’minlanishini huquqiy tartibga solishning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Uning mazmuniga ko‘ra, talablari qarzdorning muayyan mol-mulki bilan kafolatlangan shaxslar boshqa kreditorlarga nisbatan ustun huquqqa ega bo‘lib, ularning talablari avvalo ta’minot sifatida berilgan mol-mulk sotilib, tushgan mablag‘lar hisobidan qanoatlantiriladi. Agar mol-mulkni sotishdan tush-

gan mablag‘ qarzdorning mol-mulki bilan ta’minlangan kreditorning talabini to‘liq qoplasa, qolgan qismi umumiy kreditorlar talablarini qanoatlantirish uchun Qonunning 150-moddasida nazarda tutilgan navbat asosida taqsimlanadi.

Bunday tartib kreditorlar o‘rtasidagi huquqiy muvozanatni ta’minlaydigan mexanizm sifatida xizmat qiladi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismiga ko‘ra, qarzdorning mol-mulki bilan ta’minlangan kreditorning talablari avval ta’minot obyektidan tushgan mablag‘ hisobiga qoplanadi, ammo bu mablag‘ yetarli bo‘lmagan taqdirda, qolgan qismi boshqa kreditorlar bilan teng huquqli tarzda Qonunning 150-moddasida nazarda tutilgan navbat asosida qanoatlantiriladi.

Qarzdorning mol-mulki bilan ta’minlangan kreditor o‘zining ustun huquqidan foydalangan holda mol-mulkka nisbatan birinchi navbatdagi manfaatini amalga oshiradi, biroq ushbu ustunlik faqat ta’minot obyektining qiymati doirasida amal qiladi. Qolgan qarz miqdori bo‘yicha esa u boshqa kreditorlar bilan teng asosda ishtirok etadi. Masalan, agar garovga oluvchi mol-mulk sotilib, uning qiymati qarzning 70 foizini qoplasa, qolgan 30 foiz miqdori umumiy navbatdagi talab sifatida hisobga olinadi va boshqa kreditorlar bilan birgalikda qanoatlantiriladi.

Shunday qilib, ushbu norma ustuvorlik va tenglik prinsiplarini uyg‘unlashtirgan holda qarzdorning mol-mulki bilan ta’minlangan kreditorlarning huquqlarini himoya qilish bilan birga boshqa kreditorlar manfaatlarining ham buzilmasligini ta’minlaydi.

3. Ushbu norma qarzdorning ta’minot sifatida berilgan mol-mulki elektron onlayn-auksion orqali sotilmagan yoki takroriy elektron onlayn-auksion ham natija bermagan holatlar uchun huquqiy tartibni belgilaydi. Bunda mol-mulkning sotilishi imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, u qarzdorning mol-mulki bilan ta’minlangan kreditorlar talablari hisobiga o‘tkazish tartibida taqdim qilinadi. Unda, shuningdek, agar mol-mulkning bozor qiymati kreditorning talabidan yuqori bo‘lsa, ya’ni kreditor talabidan ortiqcha mablag‘ yuzaga kelsa, bu farq pul shaklida to‘lanishi lozimligi belgilangan. Bu qoidalar kreditorlarning manfaatini himoya qilish va mol-mulkni iqtisodiy qiymatda adolatli taqsimlash prinsiplarini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

37. Sudlarning e’tibori qaratilsinki, **Qonunning 149-moddasiga** ko‘ra, qarzdorning mol-mulki bilan ta’minlangan kreditorlarning talablarini qanoatlantirish ushbu mol-mulk elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida sotilganidan keyin tushgan mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi.

Savdo va (yoki) takroriy elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda, mazkur mol-mulk talablari ushbu mol-mulk bilan ta’minlangan kreditorlarga o‘z talablari hisobiga o‘tkazish uchun

belgilangan tartibda qabul qilish uchun taklif etiladi. Agar qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta’minoti sifatida berilgan mol-mulkining bozor qiymati kreditorlarning ushbu mol-mulk bilan ta’minlangan talablaridan ko‘p bo‘lsa, bunda yuzaga kelgan farqning o‘rni mazkur mol-mulkni o‘z talablari hisobiga qabul qilayotgan kreditorlar tomonidan pul shaklida qoplanadi.

«Baholash faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 7-moddasining birinchi qismiga muvofiq, baholash obyektining bozor qiymati deganda eng ehtimol tutilgan narxi tushunilib, unga ko‘ra, mazkur baholash obyekti ochiq bozorda raqobat sharoitida, bitimning taraflari barcha zarur axborotga ega bo‘lgan holda o‘z manfaatlari yo‘lida oqilona va ixtiyoriy ravishda harakat qiladi, bitim narxining baland-pastligida esa biron-bir favqulodda holatlar, shu jumladan, taraflardan birining ushbu bitimga qo‘shilish majburiyati aks etmaydi.

Xuddi shunday norma O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 28-dekabrda 3487-son bilan ro‘yxatga olingan **O‘zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standartining** 76-bandida ham qayd etilgan.

Shunga ko‘ra, kimoshdi savdosi va (yoki) takroriy elektron onlayn-auksion shaklidagi savdo amalga oshmagan deb topilgan taqdirda, garovdagi mol-mulk mazkur mol-mulk talablari ushbu mol-mulk bilan ta’minlangan kreditorlarga o‘z talablari hisobiga o‘tkazish uchun belgilangan tartibda so‘nggi kimoshdi savdosida belgilangan narxda qabul qilish uchun taklif etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

37. Sudlarning e’tibori qaratilsinki, **Qonunning 149-moddasiga** ko‘ra, qarzdorning mol-mulki bilan ta’minlangan kreditorlarning talablarini qanoatlantirish ushbu mol-mulk elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida sotilganidan keyin tushgan mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi.

Savdo va (yoki) takroriy elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda, mazkur mol-mulk talablari ushbu mol-mulk bilan ta’minlangan kreditorlarga o‘z talablari hisobiga o‘tkazish uchun belgilangan tartibda qabul qilish uchun taklif etiladi. Agar qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta’minoti sifatida berilgan mol-mulkining bozor qiymati kreditorlarning ushbu mol-mulk bilan ta’minlangan talablaridan ko‘p bo‘lsa, bunda yuzaga kelgan farqning o‘rni mazkur mol-mulkni o‘z talablari hisobiga qabul qilayotgan kreditorlar tomonidan pul shaklida qoplanadi.

«Baholash faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 7-moddasining birinchi qismiga muvofiq, baholash obyektining bozor qiymati deganda eng ehtimol tutilgan narxi tushunilib, unga ko‘ra, mazkur baholash obyekti ochiq

bozorda raqobat sharoitida, bitimning taraflari barcha zarur axborotga ega bo‘lgan holda o‘z manfaatlari yo‘lida oqilona va ixtiyoriy ravishda harakat qiladi, bitim narxining baland-pastligida esa biron-bir favqulodda holatlar, shu jumladan, taraflardan birining ushbu bitimga qo‘shilish majburiyati aks etmaydi.

Xuddi shunday norma O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 28-dekabrda 3487-son bilan ro‘yxatga olingan **O‘zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standartining** 76-bandida ham qayd etilgan.

Shunga ko‘ra, kimoshdi savdosi va (yoki) takroriy elektron onlayn-auksion shaklidagi savdo amalga oshmagan deb topilgan taqdirda, garovdagi mol-mulk mazkur mol-mulk talablari ushbu mol-mulk bilan ta’minlangan kreditorlarga o‘z talablari hisobiga o‘tkazish uchun belgilangan tartibda so‘nggi kimoshdi savdosida belgilangan narxda qabul qilish uchun taklif etiladi.

4. Ushbu norma qarzdorning butun mol-mulki majburiyatlar bajarilishining ta’minoti sifatida qabul qilingan va uni sotishdan tushgan mablag‘i kreditorlarning barcha qarzdorning mol-mulki bilan ta’minlangan talablarini to‘liq qoplamasa, qarzdor va kreditorlar o‘rtasida huquqiy va iqtisodiy manfaatlar balansi qanday ta’minlanishini belgilaydi.

Unga ko‘ra, avvalo, Qonunning 150-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan xarajatlar (masalan, sud xarajatlari, sud boshqaruvchilariga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar, joriy kommunal va foydalanish to‘lovlari, qarzdorning mol-mulkini sug‘urta qilish xarajatlari) qoplanadi. Keyin qarzdorning mol-mulki bilan ta’minlangan kreditorlar talablari qanoatlantiriladi va faqat shundan so‘ng ish haqi to‘lash uchun pul mablag‘lari berilishini nazarda tutuvchi to‘lov hujjatlari bo‘yicha talablar qanoatlantiriladi. Qarang: Xalqaro sharh. 780-b.

150-modda. Kreditorlarning talablarini qanoatlantirish navbati

Sud xarajatlari, sud boshqaruvchilariga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar, joriy kommunal va foydalanish to‘lovlari, qarzdorning mol-mulkini sug‘urta qilish xarajatlari, shuningdek, qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganidan keyin yuzaga kelgan joriy to‘lov majburiyatlari bo‘yicha talablar hamda qarzdor qaysi fuqaroning hayotiga yoki sog‘lig‘iga zarar yetkazilganligi uchun qonunga muvofiq javobgar bo‘lsa, shu fuqaroning talablari navbatdan tashqari qanoatlantiriladi, bundan ushbu Qonun 154-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan talablar mustasno.

Ish haqi to‘lash uchun pul mablag‘lari berilishini nazarda tutuvchi to‘lov (ijro) hujjatlari bo‘yicha, alimentlar undirish to‘g‘risidagi talablarni qanoatlantirish uchun qarzdorning yagona hisobvarag‘idan pul mablag‘larini o‘tkazishni yoki berishni nazarda tutuvchi ijro hujjatlari bo‘yicha, mualliflik shartnomalariga ko‘ra haq to‘lash bo‘yicha, qarzdorning mehnatga oid

munosabatlardan va ularga tenglashtirilgan huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi to‘lovlar hamda talablar bo‘yicha majburiyatlari teng darajada bajarilishini ta’minlaydigan talablar, shuningdek, fuqarolarning jinoyat yoki ma’muriy huquqbuzarlik oqibatida o‘z mol-mulkiga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplashga doir talablari birinchi navbatda qanoatlantiriladi.

Soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha, majburiy sug‘urta bo‘yicha, banklarning kreditlari va bank kreditlari sug‘urtasi bo‘yicha talablar, shuningdek, kreditorlarning garov bilan ta’minlangan talablarining garovga qo‘yilgan mol-mulkni (garov narsasini) sotishdan tushgan summa yetarli bo‘lmaganligi oqibatida qoplanmay qolgan qarzdorlikka taalluqli qismi hamda kreditorlarning garov bilan ta’minlanmagan talablari ikkinchi navbatda qanoatlantiriladi.

Aksiyalar egalarining hisoblangan dividendlar bo‘yicha talablari uchinchi navbatda qanoatlantiriladi.

Qolgan barcha talablar to‘rtinchi navbatda qanoatlantiriladi.

Har qaysi keyingi navbat bo‘yicha talablar oldingi navbat talablari to‘la qanoatlantirilganidan keyin qanoatlantiriladi.

Undirib olinayotgan summa bir navbatning barcha talablarini to‘la qanoatlantirish uchun yetarli bo‘lmasa, bu talablar har bir undiruvchi olishi lozim bo‘lgan summaga mutanosib ravishda qanoatlantiriladi.

Oxirgi to‘lov amalga oshirilganligi to‘g‘risida ommaviy axborot vositalarida maxsus xabar e’lon qilinadi.

Mol-mulk qiymatining kreditorlar talablari qanoatlantirilganidan keyingi va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish xarajatlari to‘langanidan keyingi qoldig‘ini, shuningdek, tugatish jarayonida sotilmay qolgan mol-mulkni tugatilayotgan qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) yoki tugatilayotgan qarzdor mol-mulkining egasi oladi, bundan ushbu Qonunning 159-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Sharhlanayotgan modda qarzdorning mol-mulkini sotish natijasida tushgan mablag‘lar qanday tartibda va qaysi navbat asosida kreditorlar talablarini qanoatlantirishga yo‘naltirilishini belgilaydi, ya’ni avvalo sud va boshqaruv xarajatlari hamda inson hayoti yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zarar uchun to‘lovlar, keyin mehnat, aliment va mulkiy zararga oid talablar, shundan so‘ng soliq, bank va garov bilan bog‘liq talablar, undan keyin dividendlar, eng oxirgi navbatda esa boshqa barcha talablar qoplanishi nazarda tutilgan.

1. Ushbu norma sud amaliyoti va tugatish boshqaruvchilari faoliyati uchun muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, u to‘lov navbatida ustuvorlik tamoyilini belgilaydi. Bu tamoyilga ko‘ra, tugatishga doir ish yuritish jarayonida u bilan bog‘liq majburiy xarajatlar qoplanishi shart, chunki aynan shu xarajatlar bu jarayonni qonuniy va samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Bunda, bir tomondan, tugatishga doir ish yuritish jarayonida ishtirok etuvchi shaxslar (sud, tugatish boshqaruvchisi, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar)ning mehnati va xiz-

matlari moddiy jihatdan kafolatlanadi; ikkinchi tomondan, jamiyatda inson hayoti va sog‘lig‘i ustuvor qadriyat sifatida himoya qilinadi.

Ushbu qoida amaliy jihatdan tugatishga doir ish yuritish jarayoni to‘xtab qolishining oldini oladi, tugatish boshqaruvchisi faoliyatini qonuniy mablag‘ bilan ta’minlaydi va fuqarolarning shaxsiy huquqlarini himoya qilishni kafolatlaydi.

2. Ushbu norma birinchi navbatda qanoatlantiriladigan talablarni belgilaydi va ijtimoiy adolat hamda fuqarolarning moddiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Unga ko‘ra, ish haqi, aliment, mualliflik haqi, mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan to‘lovlar va fuqarolarga yetkazilgan mulkiy zararni qoplash talablari boshqa barcha qarzdorliklardan ustuvor hisoblanadi. Bu qoida sud amaliyotida shaxsiy mehnat, ijtimoiy ta’minot va moddiy zarar bilan bog‘liq majburiyatlar davlat himoyasi ostida ekanligini anglatadi hamda tugatish boshqaruvchisidan avvalo bunday talablarni qoplashni talab qiladi.

3. Ushbu norma ikkinchi navbatda qanoatlantiriladigan talablar doirasini belgilaydi va davlat hamda tijorat tashkilotlarining moliyaviy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Soliq va yig‘imlar bo‘yicha talablar davlat byudjeti barqarorligini, bank kreditlari va majburiy sug‘urta bo‘yicha talablar esa moliya tizimi barqarorligini ta’minlash maqsadida ustuvor hisoblanadi. Shuningdek, garov bilan ta’minlangan talablar bo‘yicha yetmay qolgan qarzdorlik va garovsiz kreditorlar talablarining ikkinchi navbatda joylashtirilishi tugatish jarayonida huquqiy muvozanatni saqlab, davlat va kreditorlar manfaatlarini o‘zaro mutanosib ravishda ta’minlaydi.

4. Ushbu normada aksiyadorlarning hisoblangan, ammo to‘lanmagan dividendlar bo‘yicha talablari uchinchi navbatda qanoatlantirilishi belgilanib, bu orqali qarzdor aksiyadorlari manfaatlari kreditorlar talablaridan keyingi darajaga qo‘yilgan. Bunday tartib aksiyadorlik munosabatlarining iqtisodiy tabiati, ya’ni foyda olishga da’vo huquqi tavakkal bilan bog‘liq ekanligini aks ettiradi. Amaliyotda bu qoida tugatishga doir ish yuritish jarayonida avval majburiy to‘lovlar va kreditorlar qarzlari qoplanib bo‘lgandan keyingina dividendlar bo‘yicha hisob-kitob qilish mumkinligini belgilaydi.

5. Ushbu normada «qolgan barcha talablar» to‘rtinchi navbatga kiritilishi orqali to‘lov navbatining yakuniy bosqichi belgilab qo‘yilgan bo‘lib, bu toifaga qonun yoki shartnoma bilan alohida ustuvorlik berilmagan, umumiy majburiyatlar kiradi. Bu qoida kreditorlar o‘rtasida tenglik va mutanosiblik prinsiplarini ta’minlaydi, ya’ni birinchi – uchinchi navbatga kirmaydigan barcha da’volar so‘nggi tartibda qanoatlantiriladi.

Xususan, to‘rtinchi navbat talablariga quyidagilarni kiritish mumkin: qarzdorning mahsulot yetkazib beruvchilar oldidagi tijorat qarzlari; ijara to‘lovlari bo‘yicha qarzdorlik; fuqarolik-huquqiy shartnomalardan kelib chiquvchi, lekin ustuvor bo‘lmagan pul majburiyatlari.

6. Ushbu norma to‘lov navbatlarini amalga oshirishdagi izchillik va qat’iylik tamoyilini belgilaydi. Unga ko‘ra, har bir navbatdagi talablar to‘liq qoplanmaguncha keyingi navbatga o‘tish mumkin emas, bu esa kreditorlar o‘rtasidagi ustuvorlik tartibini buzmaslikni ta’minlaydi. Bu qoida tugatish boshqaruvchisi uchun huquqiy majburiyat hisoblanib, mablag‘lar taqsimotida adolat, shaffoflik va qonun ustuvorligini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

42. Kreditorlar talablarini qondirish tartibi (navbati) Qonunning 150-, 185-, 192-, 221-, 236-moddalarida belgilangan. Bunda har qaysi keyingi navbat bo‘yicha talablar oldingi navbat talablari to‘la qanoatlantirilganidan keyin qanoatlantiriladi.

Qarzdorning mol-mulki yetarli bo‘lmaganligi sababli qondirilmagan kreditorlarning talablari ham qanoatlantirilgan deb hisoblanadi, qarzdor majburiyatlari boshqa shaxslar tomonidan ta’minlangan holatlar bundan mustasno.

Kreditorlarning tugatish boshqaruvchisi tomonidan tan olinmagan talablari ham, agar kreditor sudga murojaat qilmagan bo‘lsa yoki bunday talablar sud tomonidan asossiz deb topilgan bo‘lsa, qanoatlantirilgan deb hisoblanadi.

7. Ushbu normada proporsional taqsimot tamoyili nazarda tutilgan bo‘lib, u bir navbatdagi kreditorlar talablarini adolatli va teng asosda qanoatlantirishni ta’minlaydi. Agar mavjud mablag‘ barcha talablarni to‘liq qoplashga yetarli bo‘lmasa, har bir kreditor o‘z da’vosiga mutanosib miqdorda to‘lov oladi. Bu qoida amaliyotda tugatish boshqaruvchisidan mablag‘larni aniq hisob-kitob bilan taqsimlashni, kreditorlar o‘rtasida imtiyozsiz, teng huquqli munosabatni ta’minlashni talab etadi hamda qonun oldida tenglik va adolat prinsiplarining amaliy ifodasidir.

8. Ushbu norma tugatishga doir ish yuritish jarayonining yakuniy bosqichi – barcha to‘lovlar amalga oshirilganini rasman e’lon qilish tartibini belgilaydi. Bu qoida ochiqlik va jamoatchilik nazorati tamoyillariga asoslanib, kreditorlar, ishtirokchilar hamda manfaatdor shaxslarga ishning tugallangani haqida aniq axborot yetkazishni ta’minlaydi. Amaliyotda bunday xabarni ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish tugatish boshqaruvchisining javobgarligi doirasida bo‘lib, bu tugatishga doir ish yuritish jarayoni shaffofligi va qonuniyligining kafolati hisoblanadi.

9. Ushbu norma tugatish jarayonining yakuniy natijasi – qarzdorning qolgan mol-mulki taqdirini huquqiy jihatdan belgilaydi. Unga ko‘ra, barcha kreditorlar talablari qanoatlantirilgandan va tugatish bilan bog‘liq xarajatlar qoplanganidan keyin qolgan mol-mulk yoki uning qiymati qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) yoki mulk egasi ixtiyoriga qaytariladi. Bu qoida mulk huquqi daxlsizligi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tamoyillariga asoslanadi. Amaliyotda esa bu tartib tugatish boshqaruvchisining hisobot davridagi so‘nggi amallaridan biri bo‘lib, faqat Qonunning 159-moddasida nazarda tutilgan maxsus holatlar (masalan, qarzdor mol-mulkini davlat mulkiga o‘tkazish hamda uni mahalliy davlat hokimiyati organlarining balansiga topshirish) mavjud bo‘lganda bunday qoldiq mol-mulk muassislarga berilmaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 781-b.

151-modda. Qarzdorning mol-mulkini sotish

Qarzdorning mol-mulki inventarizatsiya qilinganidan va baholanganidan keyin tugatish boshqaruvchisi ushbu mol-mulkni elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida sotishga kirishadi.

Qarzdorning mol-mulkini sotish tartibi va muddatlari (jadvali) kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi tomonidan ma’qullangan bo‘lishi kerak.

Agar tugatish boshqaruvchisi qarzdorning mol-mulkini sotish tartibi va muddatlari to‘g‘risidagi o‘z takliflarini kreditorlarga taqdim etgan paytdan e’tiboran bir oy ichida qarzdorning mol-mulkini sotish tartibi va muddatlari (jadvali) kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi tomonidan ma’qullanmagan bo‘lsa, kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi yoxud tugatish boshqaruvchisi yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni hal qilish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilishga haqlidir. Mazkur kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqish yakunlariga qarab sud mol-mulkni sotish tartibi va muddatlarini (jadvalini) tasdiqlaydi yoki tugatish boshqaruvchisini vazifasini bajarishdan ozod qiladi.

Tugatishga doir ish yuritish jarayonida mol-mulkni sotish muddatlariga (jadvaliga) o‘zgartirishlar kiritishni talab etuvchi holatlar yuzaga kelsa, tugatish boshqaruvchisi mazkur holatlar yuzaga kelgan paytdan e’tiboran bir oylik muddat ichida muddatlarni (jadvalni) o‘zgartirish yuzasidan tegishli takliflarni ishlab chiqishi va kreditorlar yig‘ilishiga yoki kreditorlar qo‘mitasiga taqdim etishi shart.

Qarzdorning muomalada bo‘lishi cheklangan mol-mulki faqat elektron onlayn-auksion shaklidagi yopiq kimoshdi savdosida sotilishi mumkin. Elektron onlayn-auksion shaklidagi yopiq kimoshdi savdosida qonunga muvofiq mazkur mol-mulkka mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida ega bo‘la oladigan shaxslar ishtirok etadi.

Tugatish boshqaruvchisi elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosini ixtisoslashtirilgan tashkilot bilan shartnoma asosida amalga oshiradi. Elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosini o‘tkazuvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot qarzdorga va tugatish boshqaruvchisiga nisbatan manfaatdor shaxs bo‘lishi mumkin emas.

Qarzdorning korxonasini (biznesini) yoki uning mol-mulkining bir qismini sotish ushbu Qonunning 126- va 127-moddalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Sharhlanayotgan modda qarzdorning mol-mulkini inventarizatsiya va baholashdan keyin elektron onlayn-auksion orqali sotish tartibini, bu jarayonni kreditorlar yig‘ilishi yoki sud tomonidan tasdiqlash mexanizmlarini hamda sotuv jarayonining qonuniyligi, ochiqligi va manfaatdorlikdan xoli bo‘lishini ta’minlovchi huquqiy asoslarni belgilaydi.

1. Ushbu norma tugatish jarayonidagi qarzdor mol-mulkini sotishning asosiy bosqichini belgilaydi hamda uning shaffofligi va iqtisodiy samaradorligini ta’minlashga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi «Bankrotlik taomillarini yanada soddalashtirish va sud boshqaruvchilari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4146-son qarorining 1-bandiga muvofiq, to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari qo‘llanilgan qarzdorlarning mol-mulki sud boshqaruvchilari tomonidan «E-auksion» elektron savdo platformasida elektron onlayn-auksion orqali yoki qonun hujjatlarida belgilangan hollarda mazkur platformaning tanlov savdolari orqali sotiladi.

Bu jarayonda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim.

Birinchidan, mol-mulkni sotishga faqat u inventarizatsiya va baholash ishlari to‘liq yakunlanganidan keyin kirishish mumkin. Inventarizatsiya va baholash tugatish jarayonining tayyorlov bosqichi hisoblanadi. Bu talab mol-mulkning aniq hajmi, tarkibi va qiymati yuzasidan ishonchli ma’lumotlar mavjud bo‘lishini ta’minlaydi, bu esa kreditorlar talablarini adolatli qanoatlantirish uchun huquqiy kafolat hisoblanadi.

Ikkinchidan, normada mol-mulkni elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi orqali sotish belgilangani zamonaviy raqamli tizimlar orqali ochiqlik, raqobat va manfaatdor shaxslarning teng ishtirokini ta’minlaydi. Bu vosita korrupsiya yoki maxfiy kelishuvlar xavfini kamaytiradi va bozor narxiga yaqin bahoda sotish imkonini yaratadi.

Uchinchidan, «kimoshdi savdosi» tushunchasi mol-mulkni eng yuqori narx taklif qilgan ishtirokchiga sotishni nazarda tutadi. Bu, o‘z navbatida, qarzdorning moliyaviy qiymatini oshiradi va kreditorlar talablarini yuqori darajada qoplash imkonini beradi.

Natijada ushbu norma tugatish boshqaruvchisining faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solib, mol-mulkni sotish jarayonida oshkoralik, iqtisodiy manfaat va tenglik tamoyillarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

2. Ushbu norma tugatish jarayonida qarzdorning mol-mulkini sotish masalasi bir tomonlama emas, balki jamoaviy qaror asosida hal etilishini belgilaydi. Sotish tartibi va muddatlari (jadvali)ni kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi ma’qullashi kreditorlar manfaatlarini himoya qilishning muhim kafolatidir. Bu talab tugatish boshqaruvchisining harakatlarini nazorat ostida ushlab, adolatli va shaffof jarayonni ta’minlaydi. Shu bilan birga, mol-mulkni shoshma-shosharlik bilan yoki past bahoda sotib yuborish xavfining oldini oladi.

Demak, ushbu norma kreditorlar ishtirokini ta’minlab, tugatish jarayonining qonuniy va iqtisodiy asosli amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

3. Ushbu norma tugatish jarayonidagi muhim muvozanat – tugatish boshqaruvchisining vakolati va kreditorlar nazorati o‘rtasidagi huquqiy munosabatni tartibga soladi.

Birinchidan, agar kreditorlar yig‘ilishi yoki qo‘mitasi tugatish boshqaruvchisining mol-mulkni sotish bo‘yicha takliflarini bir oy ichida ma’qullamasa, bu holat qaror qabul qilishda kechikish yoki kelishmovchilik mavjudligini anglatadi.

Ikkinchidan, ushbu norma har ikki tomon – ham kreditorlar, ham tugatish boshqaruvchisiga sudga murojaat etish huquqini beradi, bu esa huquqiy tenglik va manfaatlar balansi prinsipiga mos keladi.

Uchinchidan, sud bunday holatda neytral arbitr sifatida chiqib, kelishmovchilikni hal etadi va adolatli yechimni belgilaydi. Sud mol-mulkni sotish tartibi va muddatlarini tasdiqlaydi yoki tugatish boshqaruvchisini vazifasidan ozod etadi.

Demak, ushbu norma tugatish jarayonidagi tugatish boshqaruvchisi va kreditorlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni huquqiy tarzda hal qilish mexanizmidir, u shaffoflikni ta’minlaydi va mol-mulkni samarali sotishni kafolatlaydi.

4. Ushbu norma tugatish jarayonidagi dinamik boshqaruv va kreditorlar bilan kelishilgan qaror qabul qilish tartibini ifoda etadi.

Birinchidan, tugatish jarayonida vaziyat o‘zgarishi, masalan, bozor narxlarining tushishi, sotuvchi yoki xaridorning o‘zgarishi, huquqiy to‘siqlar yoki yangi moliyaviy holat yuzaga kelishi mumkin. Shu bois mol-mulkni sotish muddatlariga o‘zgartirish kiritish ehtiyoji tug‘ilishi tabiiy holdir.

Ikkinchidan, ushbu norma tugatish boshqaruvchisining faol va mas’ul pozitsiyasini talab etadi. U har qanday o‘zgarish yuz berganda bir oy ichida yangi takliflarni ishlab chiqib, kreditorlar yig‘ilishi yoki qo‘mitasiga taqdim etishi shart. Bu uning hisobdorligi va javobgarligini belgilaydi.

Uchinchidan, mazkur talab kreditorlar manfaatlarini himoya qiladi, chunki har qanday o‘zgartirish faqat ularning roziligi bilan amalga oshiriladi.

Shu tariqa, u tugatish jarayonida mol-mulkni sotish rejasi faqat bir marta belgilab qo‘yilmaydi, balki qonun doirasida qayta ko‘rib chiqilishi mumkin bo‘lgan «harakatchan hujjat» ekanini ko‘rsatadi.

5. Ushbu norma qonunchilikda mol-mulk aylanishining huquqiy cheklovlari va xavfsizlik kafolatlarini ta’minlashga qaratilgan.

Birinchidan, «muomalada bo‘lishi cheklangan mol-mulk» deganda davlat xavfsizligi, jamoat tartibi yoki maxsus litsenziya talab etuvchi sohalar bilan bog‘liq aktivlar (masalan, qurol-yarog‘, strategik xomashyo, davlat siriga oid obyektlar va boshqalar) nazarda tutiladi. Shu sababli ularning sotilishi umumiy ochiq auksion emas, yolg‘iz maxsus ruxsatga ega shaxslar ishtirok etadigan yopiq savdo orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, «elektron onlayn-auksion shakli» tartibning ochiq va shaffof amalga oshirilishini ta’minlaydi, ammo «yopiq» shakl ishtirokchilar doirasini cheklaydi, ya’ni faqat qonun bilan ruxsat etilgan subyektlargina qatnashishi mumkin. Bu huquqbuzarliklar va noqonuniy mulk aylanmasining oldini oladi.

Uchinchidan, ushbu norma tugatish boshqaruvchisidan mol-mulk aylanishining huquqiy xususiyatlarini chuqur bilishni talab etadi, chunki u faqat qonuniy subyektlarga sotish imkonini berishi shart.

Demak, ushbu qoida to‘g‘ridan to‘g‘ri davlat xavfsizligi, iqtisodiy barqarorlik va huquqiy nazoratni ta’minlovchi mexanizm sifatida xizmat qiladi.

6. Ushbu norma tugatish asnosidagi savdo jarayonlarining xolisligi, shaffofligini ta’minlab, manfaatlar to‘qnashuvining oldini oladi.

Birinchidan, tugatish boshqaruvchisi elektron onlayn-auksionni mustaqil o‘tkazmaydi, balki ixtisoslashtirilgan tashkilot bilan shartnoma asosida amalga oshiradi. Bu savdo jarayonining texnik, huquqiy va axborot jihatidan to‘g‘ri tashkil etilishi uchun zarur bo‘lgan kafolatdir.

Ikkinchidan, mazkur tashkilot qarzdorga yoki tugatish boshqaruvchisiga nisbatan manfaatdor shaxs bo‘lmasligi shart. Bunda u qarzdor korxona bilan hamkorlik qilmagan, uning ta’sischilari yoki boshqaruvida ishtirok etmagan bo‘lishi va tugatish boshqaruvchisining shaxsiy yoki moliyaviy manfaati bilan bog‘liq bo‘lmasligi kerak. Bu talab korrupsiya, kelishilgan narx yoki soxta savdo holatlarining oldini olishga qaratilgan.

Uchinchidan, ushbu tartibning amalga oshirilishi sud amaliyotida tugatish boshqaruvchisining mas’uliyatini belgilaydi. Agar u manfaatdor tashkilotni tanlasa yoki savdo jarayonida xolislik buzilsa, sud bu holatni tugatish jarayonini bekor qilish yoki tugatish boshqaruvchisini vazifasidan ozod etish uchun asos sifatida baholaydi.

Shuning uchun ushbu norma tugatishga doir ish yuritish jarayonidagi elektron savdolarning adolatli, raqobatbardosh va huquqiy asosda o‘tishi uchun muhim protsessual kafolat hisoblanadi.

7. Ushbu norma tugatish jarayonida qarzdorning korxonasi yoki uning mol-mulkining bir qismini sotish tartibini aniq huquqiy asosga bog‘laydi va uning tartibini 126–127-moddalarga havola qilish orqali izchillikni ta’minlaydi.

Qarzdorning korxonasi mulkiy majmua sifatida sotilayotganida qarzdorning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga mo‘ljallangan barcha turdagi mol-mulki, shu jumladan, yer uchastkalari, binolari, inshootlari, uskunalari, inventari, xomashyosi, mahsuloti, talab qilish huquqlari, shuningdek, qarzdorning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalari (firma nomi, tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari), uning tovarlari, ishlari va xizmatlari, qarzdorga tegishli bo‘lgan boshqa mutlaq huquqlar o‘zga shaxslarga o‘tkaziladi, bundan boshqa shaxslarga topshirilishi mumkin bo‘lmagan huquq va majburiyatlar mustasno.

Buning o‘ziga xos jihatlari quyidagilarda o‘z ifodasini topadi.

Birinchidan, korxonani (biznesni) sotish oddiy mol-mulkni sotishdan farq qiladigan murakkab huquqiy amaliyot bo‘lib, u faqat ashyoviy obyekt emas, balki korxona tarkibidagi aktivlar, majburiyatlar, xodimlar va shartnomalarni ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun uning tartibi alohida moddalar (126- va 127-moddalar)da belgilangan.

Ikkinchidan, mazkur havola tugatish boshqaruvchisining faoliyatini huquqiy aniqlikka olib kiradi. U korxonani sotishda to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining umumiy qoidalariga emas, balki korxona aktivlarini butun tizim sifatida sotishga oid maxsus tartibga amal qilishi kerak.

Uchinchidan, ushbu norma ishlab chiqarish yoki tijorat faoliyatini saqlab qolish, ya’ni to‘liq tugatish o‘rniga korxonani yangi mulkdorga sotish orqali iqtisodiy faoliyatni davom ettirish imkonini beradi. Bu kreditorlar uchun ham foydali, chunki aktivlar qiymati shunday tarzda yuqori baholanishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 18-apreldagi «Amalga oshirilayotgan iqtisodiy nochor korxonalarni tarkibiy o‘zgartirish va moliyaviy sog‘lomlashtirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 188-son qarorining 4-bandida Vazirlar Mahkamasining yoki Agentlik hay’atining qaroriga ko‘ra iqtisodiy sudning qarori bilan ularga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili qo‘llanilgan korxonalarning mol-mulkini xalqaro metodikaga muvofiq mol-mulkning real bozor, investitsiya va tugatish qiymatini hisobga oluvchi baholovchi tashkilot tomonidan amalga oshirilgan

baholash kimoshdi savdolarida va oshkora taklif asosida mol-mulkni sotishda belgilangan tartibda boshlang‘ich baho sifatida qo‘llanilishi mumkin ekanligi belgilangan.

Shuningdek, mazkur qaror bilan «Tarkibiy o‘zgartiriladigan korxonalarning, shuningdek, ularga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili qo‘llanilgan korxonalarning mol-mulkini baholash va sotish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom tasdiqlangan. Qarang: Xalqaro sharh. 782-b.

152-modda. Tugatishga doir ish yuritish jarayonida qarzdorning talab qilish huquqlarini sotish

Tugatish boshqaruvchisi qarzdorning talab qilish huquqlarini, agar kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi tomonidan qarzdorning talab qilish huquqlarini sotishning boshqacha tartibi belgilanmagan bo‘lsa, elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosiga qo‘yishga haqli.

Qarzdorning talab qilish huquqlarini elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida sotish ushbu Qonunning 128-moddasida nazarda tutilgan normalarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Sharhlanayotgan moddada tugatish boshqaruvchisining qarzdorning talab qilish huquqlarini, agar kreditorlar yig‘ilishi yoki qo‘mitasi boshqacha tartib belgilamagan bo‘lsa, elektron onlayn-auksion orqali sotish vakolati hamda bu jarayon Qonunning 128-moddasida belgilangan talablarga muvofiq amalga oshirilishi belgilangan.

1. Ushbu norma tugatish jarayonida qarzdorning talab qilish huquqlarini (ya’ni qarzdorning boshqa shaxslardan talab qila oladigan pul yoki mulkiy da’volarini) sotish tartibini belgilaydi. Unga ko‘ra, agar kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi bu huquqlarni sotishning boshqacha usulini belgilamagan bo‘lsa, tugatish boshqaruvchisi ularni elektron onlayn-auksion orqali kimoshdi savdosiga chiqarish vakolatiga ega.

Bu qoida amaliyotda bir nechta muhim maqsadlarga xizmat qiladi: *birinchidan*, mol-mulkni sotish jarayonida shaffoflik va raqobat muhitini ta’minlaydi; *ikkinchidan,* qarzdorning talab qilish huquqlaridan eng yuqori iqtisodiy samara olish imkonini yaratadi; *uchinchidan*, tugatish boshqaruvchisining harakatlarini kreditorlar qarorlariga muvofiq ravishda cheklab, huquqiy nazorat va manfaatlar muvozanatini ta’minlaydi.

Shu tariqa, ushbu norma tugatish jarayonida talab qilish huquqlarini sotishning umumiy mexanizmini belgilab, uning qonuniylik, shaffoflik va iqtisodiy maqsadga muvofiqlik tamoyillariga asoslanishini kafolatlaydi.

2. Ushbu norma tugatish jarayonida qarzdorning talab qilish huquqlarini sotish tartibini huquqiy jihatdan aniq belgilab, uni 128-modda bilan uzviy bog‘laydi.

Birinchidan, ushbu huquqlarni elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi orqali sotish qonun bilan belgilangan ochiq, raqobatli va adolatli usul hisoblanadi. Bu orqali talab qilish huquqlari bozor qiymatida baholanib, manfaatdor shaxslar orasida teng imkoniyat yaratiladi.

Ikkinchidan, Qonunning 128-moddasiga muvofiq, tugatish rejasida qarzdorning talab qilish huquqlarini elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi o‘tkaz-

masdan muayyan xaridorga sotish imkoniyati nazarda tutilgan bo‘lsa yoki talab qilish huquqlari elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida sotilmagan bo‘lsa, kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi talab qilish huquqlarini sotish narxini va bunday sotuvning boshqa shartlarini belgilaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 782-b.

153-modda. Tugatishga doir ish yuritish jarayonida qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish

Tugatishga doir ish yuritish jarayonida kreditorlar yig‘ilishining qarori asosida qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish, basharti shunday qaror qabul qilinishini yoqlab barcha kreditorlar kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq ovoz bersa, amalga oshirilishi mumkin.

Tugatishga doir ish yuritish jarayonida qarzdorning aktivlarini joylashtirish uchun qarzdor mol-mulki egasining yoki qarzdorning tegishli bitimlar tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilishga ta’sis hujjatlari bilan vakolat berilgan boshqaruv organining roziligi talab qilinmaydi.

Qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish ushbu Qonunning 131-moddasida belgilangan tartibda va shartlar asosida amalga oshiriladi.

Sharhlanayotgan modda tugatish jarayonida qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish tartibini belgilab, bu faqat barcha kreditorlar roziligi bilan amalga oshirilishi, bunda qarzdor yoki uning boshqaruv organining alohida roziligi talab etilmasligi hamda jarayon Qonunning 131-moddasida nazarda tutilgan qoidalar asosida bajarilishi mumkinligini belgilaydi.

1. Ushbu norma tugatish jarayonida qarzdorning mol-mulki asosida yangi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni – bitta yoki bir nechta aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish orqali aktivlar o‘rnini almashtirishning huquqiy mexanizmlarini belgilaydi.

Bu holda: a) aktivlar o‘rnini almashtirish, aslida, qarzdorning mol-mulkini yangi aksiyadorlik jamiyati ustav kapitaliga qo‘shish orqali uning qiymatini saqlab qolish va kreditorlar manfaatlarini ta’minlash usuli hisoblanadi; b) bunday qaror faqat barcha kreditorlar yakdil rozi bo‘lgan taqdirda qabul qilinadi, chunki mol-mulkni aksiyadorlik jamiyati shaklida qayta tashkil etish kreditorlar mulkiy manfaatlariga bevosita ta’sir qiladi; d) biror-bir kreditor norozi bo‘lgan taqdirda ham, bunday almashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu kreditorlar tengligi va manfaatlari himoyasi tamoyilining ifodasidir; e) amalda bu mexanizm tugatish o‘rniga iqtisodiy faoliyatni qayta tiklashga xizmat qilishi mumkin, ya’ni mol-mulk yo‘qolib ketmasdan, aksiyadorlik jamiyati shaklida saqlanib qoladi.

2. Ushbu norma qarzdorning mol-mulki asosida aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish jarayonida qarzdorning o‘zi yoki uning boshqaruv organi roziligi talab etilmasligini belgilaydi.

Buning mohiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: *birinchidan,* tugatish jarayoni boshlangach, qarzdorning mulkiy huquqlarini amalga oshirish vakolati uning rahbariyatidan tugatish boshqaruvchisiga o‘tadi; *ikkinchidan,* aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish kabi qarorlar ham ana shu tugatish boshqaruvchisi yoki kreditorlar yig‘ilishi tomonidan

qabul qilinadi; *uchinchidan,* bu qoida byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, ya’ni qarzdor tomonidan tugatish jarayoniga to‘sqinlik qilish imkoniyatini yo‘qotishga qaratilgan; *to‘rtinchidan,* amalda bu hol mol-mulkni samarali saqlab qolish va uning qiymatini aksiyadorlik jamiyati shaklida kreditorlar manfaati yo‘lida ishlatish imkonini yaratadi.

3. Ushbu norma aktivlarning o‘rnini almashtirish (ya’ni mol-mulkni aksiyadorlik jamiyati shaklida qayta tashkil etish) Qonunning 131-moddasida belgilangan qonunchilik tartiblariga qat’iy rioya etgan holda amalga oshirilishini belgilaydi.

Unga ko‘ra: a) aksiyadorlik jamiyati tashkil etishda ham mol-mulkning bozor qiymati aniqlanishi shart; b) aksiyadorlar ulushlari aniq va asosli tarzda taqsimlanishi lozim; d) barcha harakatlar kreditorlar manfaati va tengligi tamoyillariga mos bo‘lishi zarur.

Demak, qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish instituti mol-mulkni sotib yuborish emas, balki uni yangi aksiyadorlik jamiyati shaklida saqlab qolish va kreditorlar manfaatida faoliyatga qayta joylashtirish mexanizmidir. Qarang: Xalqaro sharh. 782-b.

154-modda. Kreditorlar bilan hisob-kitoblar

Tugatish boshqaruvchisi kreditorlar bilan kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq hisob-kitob qiladi.

Pul mablag‘larini kreditorning hisobvarag‘iga o‘tkazish imkoniyati bo‘lmasa, unga tegishli summa qarzdor joylashgan yerdagi (uning yashash joyidagi) notariusning yoki sudning depozit hisobvarag‘iga tugatish boshqaruvchisi tomonidan o‘tkazilib, bu haqida kreditorga xabar qilinadi. Mazkur summa notariusning yoki sudning depozit hisobvarag‘iga o‘tkazilgan paytdan e’tiboran uch yil ichida kreditor tomonidan olinmagan taqdirda, bu summa tegishli notarius yoki sud tomonidan O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetiga o‘tkaziladi.

Kreditorlarning tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi e’londa nazarda tutilgan kreditorlar talablarini taqdim etish muddati tugaganidan keyin bildirilgan talablari, shuningdek, tugatishga doir ish yuritish boshlanganidan keyin yuzaga kelgan soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha talablar, ular qaysi muddatda taqdim etilganidan qat’i nazar, qarzdorning belgilangan muddatda bildirilgan kreditorlar talablari qanoatlantirilganidan keyin ushbu Qonunning 150-moddasida nazarda tutilgan tartibda qanoatlantiriladi.

Qanoatlantirilgan talablar, shuningdek, qaysi talablar bo‘yicha qarzdan voz kechish to‘g‘risida bitimga erishilgan bo‘lsa, o‘sha talablar yoki tugatish boshqaruvchisi tomonidan hisobga olinishi bildirilgan yoxud majburiyatlarni tugatishning boshqa asoslari bo‘lgan talablar kreditorlarning qanoatlantirilgan talablari deb hisoblanadi. Talabni hisobga olish, shuningdek, qarzdan voz kechish orqali talabni qanoatlantirishga faqat bildirilgan talablarni qanoatlantirishning navbati va nisbati prinsipiga rioya etilgan taqdirda yo‘l qo‘yiladi. Qarzdan voz kechish haqida bitim imzolash yo‘li bilan kreditorlar

talablarini qanoatlantirishga mazkur bitim kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi bilan kelishilgan taqdirda yo‘l qo‘yiladi. Tugatishga doir ish yuritishda qarzdorning majburiyatlarini yangilash to‘g‘risida bitim tuzish yo‘li bilan kreditorlar talablarini qanoatlantirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kreditorlarning qarzdor mol-mulki yetarli bo‘lmaganligi sababli qanoatlantirilmagan talablari ham qanoatlantirilgan talablar deb hisoblanadi, bundan qarzdor majburiyatlari boshqa shaxslar tomonidan ta’minlangan holatlar mustasno. Tugatish boshqaruvchisi tomonidan kreditorlarning tan olinmagan talablari ham, agar kreditor sudga murojaat etmagan bo‘lsa yoki bunday talablar sud tomonidan asossiz deb topilgan bo‘lsa, qanoatlantirilgan talablar deb hisoblanadi.

Tugatish boshqaruvchisi kreditorlarning talablari reyestriga kreditorlar talablari qanoatlantirilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kiritadi.

Sharhlanayotgan moddada tugatish jarayonida qarzdorning kreditorlar oldidagi majburiyatlarini qanoatlantirish tartibi, hisob-kitob usullari, depozit hisobvarag‘i orqali to‘lovni amalga oshirish, keyin taqdim etilgan talablarni qanoatlantirish sharoiti hamda qaysi hollarda talablar qanoatlantirilgan deb hisoblanishi belgilangan.

1. Ushbu normaga ko‘ra, tugatish boshqaruvchisi kreditorlar oldidagi hisob-kitoblarni tasodifiy yoki ixtiyoriy tarzda emas, balki kreditorlarning talablari reyestrida belgilangan tartib va navbat asosida amalga oshiradi. Bu esa hisob-kitob jarayonida adolat, tenglik va shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan. Reyestrda har bir kreditorning talab miqdori, turi va qanoatlantirish navbati aniq ko‘rsatilgan bo‘lib, tugatish boshqaruvchisi ushbu ma’lumotlarga tayanib to‘lovlarni amalga oshiradi. Shu bilan u kreditorlar o‘rtasidagi huquqiy muvozanatni saqlaydi va biron-bir kreditorning manfaati asossiz ravishda buzilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

2. Ushbu norma tugatish jarayonida kreditorlarga to‘lovni amalga oshirishning qo‘shimcha huquqiy kafolatini belgilaydi. Agar qandaydir sabablarga ko‘ra (masalan, kreditorning hisobvarag‘i mavjud bo‘lmasa, yopilgan bo‘lsa yoki u aniqlanmagan bo‘lsa) pul mablag‘larini to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘tkazish imkoni bo‘lmasa, tugatish boshqaruvchisi tegishli summani notarius yoki sudning depozit hisobvarag‘iga joylashtirish orqali o‘z majburiyatini bajargan hisoblanadi.

Bu mexanizm kreditorning manfaatlarini himoya qilish bilan birga tugatish jarayoni cho‘zilib ketishidan saqlaydi. Shuningdek, uch yillik muddat belgilangan bo‘lib, agar kreditor mazkur davr mobaynida pulni talab qilib olmasa, mablag‘ davlat daromadi sifatida O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetiga o‘tkaziladi.

Shunday qilib, ushbu normada, bir tomondan, kreditorning huquqlari, ikkinchi tomondan, davlat manfaatlari va tugatish jarayonining yakunlanishini ta’minlovchi muvozanatli huquqiy mexanizm nazarda tutilgan.

3. Ushbu norma tugatish jarayonida kreditorlar talablarini qanoatlantirishning navbat va vaqt jihatidan izchil tartibini belgilaydi. Unga ko‘ra, agar kreditor o‘z talabini qonun bilan belgilangan muddatda taqdim etmagan bo‘lsa yoki tugatish jarayoni bosh-

langanidan keyin yangi majburiyatlar (masalan, soliqlar, yig‘imlar) vujudga kelgan bo‘lsa, bu talablar asosiy kreditorlar bilan hisob-kitob to‘liq amalga oshirilgandan keyingina qanoatlantiriladi.

Boshqacha aytganda, asosiy (o‘z vaqtida bildirilgan) kreditorlar talablari birinchi navbatda qondiriladi, keyinchalik yuzaga kelgan yoki kech taqdim etilgan talablar Qonunning 150-moddasida belgilangan qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Bu huquqiy mexanizm tugatish jarayonida adolat va ustuvorlik prinsiplarini ta’minlaydi, ya’ni avvaldan aniqlangan, o‘z vaqtida talab bildirgan kreditorlar manfaati himoya qilinadi, keyin esa orqadan kelgan talablar belgilangan tartibda qanoatlantiriladi. Shu tariqa, ushbu norma kreditorlar o‘rtasidagi hisob-kitoblarda tartib, shaffoflik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan.

4. Ushbu norma tugatish jarayonida kreditorlar talablarini qanoatlantirishning huquqiy shakllari va chegaralarini belgilaydi hamda qaysi hollarda talab «qanoatlantirilgan» deb hisoblanishi mumkinligini aniq ko‘rsatadi.

Quyidagi holatlarda talablar qanoatlantirilgan deb e’tirof etiladi: a) qarzdor tomonidan kreditor oldidagi majburiyat lozim darajada bajarilganda (masalan, pul yoki mol-mulk bilan to‘lov amalga oshirilgan bo‘lsa); b) talabdan voz kechish to‘g‘risidagi bitim imzolagan bo‘lsa; d) tugatish boshqaruvchisi mazkur talabni hisobga olganligini bildirgan bo‘lsa, ya’ni muddati to‘lgan yoki muddati ko‘rsatilmagan yoxud talab qilish payti bilan belgilangan muqobil o‘xshash talab hisobga o‘tkazilishi bilan majburiyat to‘liq yoki qisman bekor bo‘lganda; e) majburiyatlarni tugatishning boshqa asoslari (masalan, qarzdor bilan kreditor bir shaxs bo‘lib qolganida; kreditor qarzdan voz kechganda; majburiyatni bajarish mumkin bo‘lmay qolsa; davlat organining hujjati chiqishi natijasida majburiyatni bajarish to‘liq yoki qisman mumkin bo‘lmay qolsa; shaxsiy majburiyatlar bo‘yicha jismoniy shaxs bo‘lgan qarzdor yoki kreditor vafot etganda; yuridik shaxs tugatilishi bilan majburiyat bekor bo‘lganda) bo‘lgan talablar kreditorlarning qanoatlantirilgan talablari deb hisoblanadi.

Shu bilan birga, qarzdan voz kechish yoki hisobga olish orqali talabni qanoatlantirish faqat Qonun bilan belgilangan navbat va nisbat prinsiplariga qat’iy rioya qilingan holdagina amalga oshirilishi mumkin. Bu tugatish jarayonida barcha kreditorlar uchun tenglik va adolatni ta’minlashning muhim shartidir.

Bundan tashqari, FKning 342-moddasiga ko‘ra, taraflar kelishuvi bilan majburiyatni bajarish o‘rniga voz kechish haqini berish orqali bekor qilishlari mumkin. Masalan, qarzdor pul to‘lash o‘rniga muayyan mol-mulk beradi yoki boshqa qiymatga ega bo‘lgan aktivni topshiradi. Bu fuqarolik muomalasidagi ixtiyoriy va teng huquqli taraflar o‘rtasidagi munosabatlar uchun mos institutdir. Biroq tugatishga doir ish yuritishda bu qoida cheklangan. Sababi shundaki, tugatish jarayonida qarzdorning majburiyatlari shaxsiy kelishuv emas, balki umumiy kreditorlar manfaatini hisobga olgan holda hal etiladi. Agar tugatish boshqaruvchisi yoki ayrim kreditor qarzdor bilan «voz kechish haqi» to‘g‘risida bitim tuzsa, bu boshqa kreditorlarga zarar yetkazishi yoki ularning talablarini qanoatlantirish darajasini asossiz ravishda pasaytirishi mumkin. Shuning uchun qonun «qarzdan voz kechish haqidagi bitim»ni faqat kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi bilan kelishilgan taqdirda amalga oshirishni talab qiladi.

Ushbu normaga ko‘ra, qarzdor va kreditor o‘rtasida majburiyatlarni yangilash, ya’ni boshqa narsani yoki boshqacha ijro etish usulini nazarda tutuvchi yangi majburiyat bilan almashtirish orqali talabni qanoatlantirishga yo‘l qo‘yilmaydi *(O‘zR FK 347-moddasi).* Chunki bu holat tugatish jarayonining mohiyati, ya’ni qarzdorning barcha majburiyatlarini aniq hisobga olib, yakuniy tarzda tugatish prinsipiga zid hisoblanadi.

Shuningdek, qarzdorning majburiyatlarini yangilash to‘g‘risida bitim tuzish tugatish jarayonining maqsadiga zid hisoblanadi. Bu kreditorlar tengligini buzishi, ayrimlariga asossiz imtiyoz berishga yoki tugatish jarayonini sun’iy ravishda cho‘zishga olib kelishi mumkin.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismi tugatish jarayonida kreditorlar talablarining huquqiy taqdirini aniq belgilab beradi va «qanoatlantirilgan talab» tushunchasini keng ma’noda talqin qiladi.

Unga ko‘ra, agar qarzdorning mol-mulki yetarli bo‘lmaganligi sababli ayrim kreditorlar talablari amalda pul yoki mol-mulk bilan qoplanmasa ham, ular qonuniy tugatish tartibida hal etilgan bo‘lsa, ya’ni tugatish boshqaruvchisi tomonidan talablar reyestriga kiritilib, navbatiga ko‘ra ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, bunday talablar ham qanoatlantirilgan deb hisoblanadi. Buning ma’nosi shundaki, tugatish jarayonida mol-mulk yetishmasligi kreditorning aybi emas, shuning uchun ham bunday holatda uning talabi rasmiy ravishda tugallangan hisoblanadi. Bunda qarzdorning moliyaviy imkoniyati cheklangan bo‘lsa ham, huquqiy jihatdan majburiyat tugaydi.

Agar qarzdorning majburiyatlari uchinchi shaxslar (kafil, garovga qo‘yuvchi, sug‘urtalovchi va boshqalar) tomonidan ta’minlangan bo‘lsa, bunday holda kreditorning huquqi saqlanib qoladi, ya’ni tugatilgan qarzdorning o‘zida mablag‘ bo‘lmasa ham, kreditor ta’minlovchi shaxsga nisbatan talabni ilgari surishi mumkin. Shu sababli bu holatlarda talab «qanoatlantirilgan» deb hisoblanmaydi.

Shuningdek, Qonun tugatish boshqaruvchisi tomonidan tan olinmagan talablar taqdiriga ham oydinlik kiritadi. Agar kreditor o‘z talabi rad etilganidan keyin sudga murojaat qilmagan bo‘lsa yoki sud bu talabni asossiz deb topgan bo‘lsa, bu holatda ham talab qanoatlantirilgan deb hisoblanadi. Bu yuridik jihatdan «talabning huquqiy yakunlanishi»ni anglatadi, ya’ni kreditorning talab qilish huquqi tugaydi, u kelgusida bu masala bo‘yicha qayta da’vo qilolmaydi.

Bu qoida tugatish jarayonida aniqlik va barqarorlikni ta’minlaydi. Agar qanoatlantirilmagan yoki rad etilgan talablar ochiq qolsa, tugatish jarayoni hech qachon yakunlanmasdi. Shuning uchun qonun, muayyan shartlar bajarilganda, barcha talablar huquqiy jihatdan qanoatlantirilgan deb hisoblanishini belgilaydi – bu yuridik shaxs tugatilishi uchun zarur asos hisoblanadi.

6. Ushbu norma tugatish jarayonida hisobdorlik va shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan. Bu jarayonda tugatish boshqaruvchisi har bir kreditorning talabi qay darajada qanoatlantirilganini yoki qoplanmaganini aniq tarzda kreditorlar talablari reyestriga kiritishi shart. Bu ma’lumotlar keyinchalik huquqiy baholash, hisobot tayyorlash va tugatish ishlarini yakunlashda asosiy manba vazifasini o‘taydi. Natijada kreditorlar o‘rtasida adolatli taqsimot ta’minlanadi va tugatish boshqaruvchisining faoliyati ustidan jamoatchilik hamda sud nazorati amalga oshirilishi uchun huquqiy asos yaratiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 782-b.

155-modda. Tugatish boshqaruvchisining faoliyatini nazorat qilish

Tugatish boshqaruvchisi har oyda kamida bir marta kreditorlar yig‘ilishiga yoki kreditorlar qo‘mitasiga o‘z faoliyati to‘g‘risida hisobot, qarzdorning moliyaviy ahvoli hamda uning tugatishga doir ish yuritish boshlangan paytdagi va ish yuritish jarayonidagi mol-mulki haqida axborot, shuningdek, boshqa axborot taqdim etadi.

Tugatish boshqaruvchisining hisobotida quyidagilar bo‘lishi kerak:

shakllantirilgan tugatish massasi to‘g‘risidagi, shu jumladan, qarzdorning mol-mulkini inventarizatsiya qilish jarayoni va yakunlari haqidagi, qarzdorning mol-mulkini baholash jarayoni hamda natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

qarzdorning yagona hisobvarag‘iga tushgan va ishlatilgan pul mablag‘larining summasi hamda tushumlarning manbalari haqidagi ma’lumotlar;

qarzdorning mol-mulkini realizatsiya qilish jarayoni to‘g‘risidagi ma’lumotlar, mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan summalar ko‘rsatilgan holda;

uchinchi shaxslarga nisbatan qarzni undirish haqida tugatish boshqaruvchisi tomonidan qo‘yilgan talablar, shu jumladan, sud tartibida qo‘yilgan talablarning miqdori va summasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

qarzdorning mol-mulki but saqlanishini ta’minlash, shuningdek, qarzdorning uchinchi shaxslar egaligida turgan mol-mulkini aniqlash va talab qilib olish chora-tadbirlari haqidagi ma’lumotlar;

qarzdorning bitimlarini haqiqiy emas deb topish, shuningdek, qarzdorning shartnomalarini bajarishdan bosh tortilishini bildirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

qarzdorning kreditorlarning talablari reyestrini yuritishga oid ishi haqidagi ma’lumotlar, kreditorlarning reyestrga kiritilgan talablarining umumiy miqdorini va har bir navbat bo‘yicha talablari miqdorini alohida-alohida ko‘rsatgan holda;

qarzdorning tugatishga doir ish yuritish davrida o‘z faoliyatini davom ettirayotgan xodimlarining hamda o‘zi bilan tuzilgan mehnat shartnomalari tugatishga doir ish yuritish davrida tugatilgan xodimlarning soni haqidagi ma’lumotlar;

qarzdorning hisobvaraqlarini yopish bo‘yicha tugatish boshqaruvchisi amalga oshirgan ishlar va ularning natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

tugatishga doir ish yuritishni amalga oshirish xarajatlarining summasi haqidagi ma’lumotlar, ularning maqsadini ko‘rsatgan holda.

Tugatish boshqaruvchisining hisobotida qarzdorga nisbatan tugatishga doir ish yuritish jarayoni to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlar ham bo‘lishi kerak, ularning tarkibi tugatish boshqaruvchisining o‘zi tomonidan, shuningdek, kreditorlar yig‘ilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining yoxud sudning talablari bilan belgilanadi.

Tugatish boshqaruvchisi sudning talabiga ko‘ra ushbu sudga tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini amalga oshirishga taalluqli barcha ma’lumotlarni taqdim etishi shart.

Sharhlanayotgan moddada tugatish boshqaruvchisining faoliyati ustidan nazorat tartibi belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, u har oyda kamida bir marta kreditorlar yig‘ilishiga yoki kreditorlar qo‘mitasiga o‘z faoliyati, qarzdorning moliyaviy ahvoli va tugatish jarayoni haqida hisobot hamda zarur axborotlarni taqdim etishi, shuningdek, sud talabi bilan tugatish ishlariga oid barcha ma’lumotlarni taqdim etishi shartligi nazarda tutilgan.

1. Ushbu normada tugatish boshqaruvchisining hisobdorlik va oshkoralik prinsiplariga asoslangan majburiyatlari ifoda etilgan. Bunda u har oyda kamida bir marta kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi oldida hisobot berishi shart. Bu hisobot orqali kreditorlar qarzdorning moliyaviy ahvoli, tugatish jarayonining borishi va mol-mulk holati haqida doimiy ravishda xabardor qilinadi. Ushbu norma tugatish boshqaruvchisining mas’uliyatini kuchaytiradi, kreditorlar nazoratini ta’minlaydi va tugatish jarayonida shaffoflikni kafolatlaydi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida tugatish boshqaruvchisining hisoboti mazmun jihatidan qanchalik to‘liq va aniq bo‘lishi lozimligi belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, hisobot shunchaki rasmiy ma’lumot emas, balki kreditorlar va sud uchun tugatish jarayonining haqiqiy holatini aks ettiruvchi asosiy hujjat hisoblanadi.

Birinchidan, hisobotda tugatish massasining shakllanishi, ya’ni qarzdorning barcha mol-mulkini aniqlash, inventarizatsiya qilish va baholash jarayonlari to‘g‘risida batafsil ma’lumot bo‘lishi shart. Bu kreditorlarga mol-mulkning aniq hajmini va uning real bahosini bilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, hisobotda qarzdorning yagona hisobvarag‘idagi pul mablag‘lari harakati, mol-mulkni sotishdan tushgan mablag‘lar hamda tushum manbalari ko‘rsatiladi – bu moliyaviy shaffoflikni ta’minlaydi.

Uchinchidan, hisobotda tugatish boshqaruvchisining amalga oshirgan chora-tadbirlari, masalan, qarzdorning qarzlarini undirish, bitimlarni haqiqiy emas deb topish, mol-mulkni talab qilib olish yoki shartnomalarni bekor qilish bo‘yicha harakatlari ham yoritiladi.

Shuningdek, kreditorlar talablari reyestri, xodimlar bilan bog‘liq masalalar, hisobvaraqlarni yopish ishlari va tugatish jarayonidagi xarajatlar ham hisobotning ajralmas qismi sifatida kiritilishi lozim.

Qisqasi, ushbu norma tugatish boshqaruvchisining hisobotini kompleks boshqaruv, moliyaviy va huquqiy axborotni o‘z ichiga olgan shaffof va javobgarlikka asoslangan hisobot sifatida belgilaydi. Bu kreditorlar ishonchini ta’minlash, tugatish jarayonida suiiste’mollarning oldini olish va sud nazoratini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

3. Ushbu norma tugatish boshqaruvchisining hisoboti faqat qonun bilan belgilangan ma’lumotlar bilan cheklanib qolmasligini, balki ishning holati va manfaatdor shaxslarning ehtiyojlaridan kelib chiqib qo‘shimcha ma’lumotlarni ham o‘z ichiga olishi lozimligini nazarda tutadi.

Birinchidan, bu tugatish jarayonining shaffofligi va nazoratini ta’minlab, kreditorlar yoki sud so‘ragan har qanday ma’lumotni tugatish boshqaruvchisi hisobotga kiritishini majburiy qiladi.

Ikkinchidan, «boshqa ma’lumotlar» deganda tugatish jarayonining individual xususiyatlariga bog‘liq holda yuzaga keladigan qo‘shimcha axborot tushuniladi. Masalan, ayrim holatlarda qarzdorning aktivlarini saqlash bo‘yicha xarajatlar, nizoli bitimlar bo‘yicha sud ishlari yoki mulkni baholashda uchragan qiyinchiliklar haqidagi ma’lumotlar ham muhim bo‘lishi mumkin.

Uchinchidan, ushbu norma tugatish boshqaruvchisiga ma’lum erkinlik beradi – u faqat talab qilingan ma’lumotlarni emas, balki ishning xolis baholanishi uchun zarur deb hisoblagan ma’lumotlarni ham hisobotga kiritishi mumkin. Bu esa uning mas’uliyatli va manfaatlar muvozanatini ta’minlovchi shaxs sifatidagi rolini mustahkamlaydi.

Shuningdek, hisobot tarkibini belgilashda kreditorlar yig‘ilishi, kreditorlar qo‘mitasi yoki sud ishtirok etishi tugatish jarayoni ustidan har tomonlama nazoratni amalga oshirish imkonini beradi. Bu tugatishning adolatli, ochiq va samarali kechishini ta’minlovchi muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi.

4. Ushbu norma tugatish jarayoni ustidan sud nazoratini ta’minlaydi, ya’ni tugatish boshqaruvchisi sud talab qilgan holda ish yuritish tartib-taomiliga oid barcha ma’lumotlarni to‘liq va haqqoniy ravishda taqdim etishi shart bo‘lib, bu orqali uning faoliyati qonuniylik, xolislik va ochiqlik tamoyillariga muvofiq baholanadi. Qarang: Xalqaro sharh. 784-b.

156-modda. Tugatish boshqaruvchisini ozod etish

Tugatish boshqaruvchisi o‘z vazifasini bajarishdan quyidagi hollarda sud tomonidan ozod etilishi mumkin:

o‘z arizasiga binoan;

zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorlar yig‘ilishining qarori asosida. Bunday holda kreditorlar yig‘ilishining qarorida tugatish boshqaruvchilikka tavsiya etilayotgan yangi nomzod haqidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak;

vakolatli davlat organining arizasi asosida;

ushbu Qonunning 22-moddasiga muvofiq tugatish boshqaruvchi etib tayinlanishiga monelik qiladigan holatlar aniqlangan taqdirda.

Tugatish boshqaruvchisi o‘z vazifasini bajarishdan qonunchilikka muvofiq boshqa hollarda ham sud tomonidan ozod etilishi mumkin.

Sud tugatish boshqaruvchisini o‘z vazifasini bajarishdan ozod qilish bilan bir vaqtda yangi tugatish boshqaruvchisini ushbu Qonunning 142-moddasida nazarda tutilgan tartibda tayinlaydi.

Tugatish boshqaruvchisini o‘z vazifasini bajarishdan ozod qilish haqidagi sudning ajrimi darhol ijro etilishi lozim va ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Sharhlanayotgan moddada tugatish boshqaruvchisini o‘z arizasi, vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi, vakolatli organning yoki sudning talabi asosida, shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda sud tomonidan ozod etish tartibi hamda yangi tugatish boshqaruvchisini tayinlash va ajrimning ijro etilishi tartibi belgilangan.

1. Ushbu norma tugatish boshqaruvchisini o‘z vazifasini bajarishdan ozod etishning huquqiy asoslarini belgilaydi va uning faoliyati ustidan nazoratning muhim mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi.

1.1. Agar tugatish boshqaruvchisi o‘z xohishiga ko‘ra vazifasini davom ettirishni istamasa, u sudga murojaat qilib, o‘z vazifasini bajarishdan ozod etilishni so‘rash huquqiga ega. Bunday holatda sud uning arizasini ko‘rib chiqib, obyektiv sabablar – sog‘lig‘ining yomonlashishi, manfaatlar to‘qnashuvi yoki boshqa asosli sabablar mavjud bo‘lsa, tugatish boshqaruvchisini o‘z vazifasini bajarishdan ozod etish haqida qaror qabul qiladi. Shu bilan birga, tugatish boshqaruvchisining o‘z vazifasini bajarishdan ozod qilinishi tugatish jarayonini izdan chiqarmasligi uchun sud yangi tugatish boshqaruvchisini tayinlash chorasini ham ko‘radi.

1.2. Tugatish boshqaruvchisi o‘z zimmasiga Qonunning 144-moddasi va boshqa qonunchilikka muvofiq yuklatilgan vazifalarni bajarmasa yoki ularni lozim darajada amalga oshirmasa (masalan, qarzdorning mol-mulkini to‘liq inventarizatsiya qilmasa va baholashdan o‘tkazmasa, qarzdorning moliyaviy ahvoli va o‘z faoliyati haqidagi axborotni kreditorning talabiga ko‘ra taqdim etmasa, qarzdorning uchinchi shaxslarda turgan mol-mulkini qidirishga, aniqlashga va qaytarishga qaratilgan choralarni ko‘rmasa), kreditorlar yig‘ilishning qarori asosida sud tomonidan o‘z vazifasini bajarishdan ozod etilishi mumkin.

Shu bilan birga, kreditorlar yig‘ilishining qarorida tugatish boshqaruvchilikka tavsiya etilayotgan yangi nomzod haqidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak, chunki tugatish jarayonining uzluksizligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

1.3. Agentlik vakolatli davlat organi sifatida tugatish boshqaruvchisi faoliyati ustidan qonunchilikka muvofiq nazoratni amalga oshiradi, uning faoliyatida qonunchilik muntazam ravishda yoki bir marta qo‘pol ravishda buzilganligi aniqlangan taqdirda tugatish boshqaruvchisini vazifasini bajarishdan ozod qilish haqida sudga ariza bilan murojaat etadi. Bu mexanizm tugatish jarayonining qonuniyligi, davlat manfaatlari va kreditorlar huquqlarining himoya qilinishiga xizmat qiladi.

1.4. Agar tugatish boshqaruvchisini tayinlashdan keyin uning shaxsiga oid ma’lumotlar tekshiruv jarayonida yoki faoliyati davomida Qonunning 22-moddasida ko‘rsatilgan monelik qiladigan holatlardan biri mavjudligi aniqlansa, sud uni o‘z vazifasini bajarishdan ozod etishi mumkin.

Xususan, quyidagi holatlar, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxslar taqdim etgan dalillar bo‘lgan taqdirda, tugatish boshqaruvchisini o‘z vazifasini bajarishdan ozod etishga asos bo‘ladi: 1) qarzdorga yoki kreditorlarga nisbatan manfaatdor shaxs ekanligi; 2) sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmaganligi; 3) sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganligi; 4) o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili joriy etilgan YTT yoki jismoniy

shaxs ekanligi; 5) ilgari sud boshqaruvchisi vazifasini bajarayotganda qarzdorga, kreditorlarga zarar yetkazganligi va bu zararning o‘rnini qoplamaganligi; 6) vakolatli davlat organi qarori bilan sud boshqaruvchisi attestatining amal qilishi tugatilgan (bekor qilingan) va (yoki) vaqtincha to‘xtatib turilganligi; 7) o‘ziga nisbatan boshqa shaxslarning ishlarini va (yoki) mol-mulkini boshqarish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishga cheklov belgilanganligi aniqlanganda.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida tugatish boshqaruvchisini o‘z vazifasini bajarishdan sud tomonidan ozod etishning yuqorida ko‘rsatilgan to‘rtta asosiga qo‘shimcha ravishda qonunchilikda boshqa holatlar ham mavjud bo‘lishi mumkinligi belgilab qo‘yilgan.

Boshqacha aytganda, agar tugatish boshqaruvchisining faoliyati qonun talablariga, adolat va xolislik prinsiplariga zid kelsa yoki uning vazifalarini to‘liq va vijdonan bajarishiga to‘sqinlik qiluvchi huquqiy yoki axloqiy omillar aniqlansa, sud bu holatni qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa normalarga tayanadigan asos sifatida baholashga haqlidir.

Bunday holatlarga, masalan, tugatish boshqaruvchisiga nisbatan ma’muriy yoki jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi, uning sud ishlarida ishtirok etishda protsessual qoidalarni buzishi, ish yuritishni suiiste’mol qilishi yoki tugatish jarayonini asossiz kechiktirishi kabi holatlar kirishi mumkin.

Shu tariqa, ushbu norma sudga vaziyatdan kelib chiqib qonun ustuvorligi va adolat tamoyillarini ta’minlash maqsadida mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini beruvchi muhim huquqiy mexanizm sifatida xizmat qiladi.

3. Ushbu norma yuridik shaxsni tugatishning huquqiy tizimidagi muhim bo‘g‘ini bo‘lib, uning asosiy maqsadi tugatish jarayonida qonuniylik, xolislik va uzluksizlikni ta’minlashdir.

Bunda quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, sudning tugatish boshqaruvchisini o‘z vazifasini bajarishdan ozod etish va yangi shaxsni tayinlash bo‘yicha vakolati yuridik shaxsni tugatish jarayonida davlat nazoratini amalga oshirishning asosiy kafolati hisoblanadi. Sud bu jarayonda faqat ariza beruvchi tarafning xohishi bilan cheklanib qolmay, balki tugatishning umumiy manfaatlarini, ya’ni kreditorlar, ta’sischilar va davlatning qonuniy talablarini inobatga olgan holda qaror qabul qilishi lozim.

Ikkinchidan, tugatish boshqaruvchisining almashishi yuridik shaxsning huquq va majburiyatlariga ta’sir qilmaydi. Bunda faqat protsessual shaxs almashadi xolos. Shu bilan birga, tugatish ishining huquqiy natijalari – mol-mulkni sotish, hisob-kitoblarni amalga oshirish, debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini aniqlash kabi vazifalar o‘zgarishsiz qoladi.

Uchinchidan, yangi tugatish boshqaruvchisi tayinlangan paytdan boshlab avvalgi tugatish boshqaruvchisi barcha moliyaviy, huquqiy va buxgalteriya hujjatlarini qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida topshirishi shart. Bu dalolatnoma tugatish ishlarining uzluksizligini ta’minlaydigan asosiy protsessual hujjat sifatida ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, sud yangi tugatish boshqaruvchisini tayinlashda uning kasbiy malakasini, manfaatlar to‘qnashuvining mavjud yoki mavjud emasligini, shuningdek, uning avvalgi faoliyati natijalarini hisobga olishi lozim. Agar sud mazkur mezonlarga rioya etma-

sa, keyinchalik kreditorlar yoki ta’sischilar bu qaror ustidan shikoyat berish huquqiga ega bo‘lishadi, bu esa tugatish jarayonida qonuniylikning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Beshinchidan, ushbu normaning amaliyotdagi ahamiyati shundaki, u tugatish jarayonida har qanday to‘xtalish yoki boshqaruvsizlik holatining oldini oladi. Agar tugatish boshqaruvchisini o‘z vazifasini bajarishdan ozod etish va yangi shaxsni tayinlash orasida vaqt bo‘shlig‘i yuzaga kelsa, yuridik shaxs mol-mulkining yo‘qolishi, uni noqonuniy ravishda tasarruf etish yoki kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazish xavfi paydo bo‘ladi. Shu sababli qonun sudga bir vaqtning o‘zida ikki harakatni – amaldagi tugatish boshqaruvchisini o‘z vazifasini bajarishdan ozod qilish va yangi tugatish boshqaruvchisini tayinlashni – amalga oshirish majburiyatini yuklaydi.

4. Sudning tugatish boshqaruvchisini o‘z vazifasini bajarishdan ozod qilish haqidagi ajrimi qabul qilingan paytdan boshlab darhol ijro etilishi lozim. Bu talab tugatish jarayonidagi uzluksizlikni ta’minlaydi, mol-mulkning yo‘qotilishi va kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazilishi ehtimolini bartaraf etadi. Shu bilan birga, ajrim ustidan shikoyat qilish yoki protest keltirish huquqi saqlanib qoladi, ammo bu uning ijrosini to‘xtatib turish asosi bo‘lolmaydi. Sud ajrimidan so‘ng amaldagi tugatish boshqaruvchisining vakolatlari tugaydi va sud zaruratga ko‘ra yangi yoki vaqtinchalik tugatish boshqaruvchisini tayinlaydi. Ushbu norma sud qarorlarining tez va samarali ijrosini, davlat nazorati hamda qonun ustuvorligi prinsipini ta’minlashga xizmat qiladi.

157-modda. Tashqi boshqaruv tartib-taomiliga o‘tish imkoniyati

Agar qarzdorga nisbatan sud sanatsiyasi va (yoki) tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilmagan bo‘lsa, tugatishga doir ish yuritish mobaynida esa qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanishi mumkin deb hisoblash uchun asoslar, shu jumladan, moliyaviy tahlil ma’lumotlari bilan tasdiqlangan asoslar paydo bo‘lsa, tugatish boshqaruvchisi mazkur holatlar aniqlangan paytdan e’tiboran bir oylik muddat ichida sudga tugatishga doir ish yuritishni tugatish va tashqi boshqaruv tartib-taomiliga o‘tish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan murojaat etish haqidagi masalani ko‘rib chiqish maqsadida qarzdorning kreditorlari yig‘ilishini chaqirishi shart.

Tugatishga doir ish yuritishni tugatish va tashqi boshqaruv tartib-taomiliga o‘tish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish haqidagi qaror shunday qarorni qabul qilish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqayotgan kreditorlar yig‘ilishi o‘tkazilayotgan paytdagi holatga ko‘ra qanoatlantirilmagan kreditorlar talablari umumiy miqdorining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Tugatishga doir ish yuritishni tugatish va tashqi boshqaruv tartib-taomiliga o‘tish haqidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish to‘g‘risidagi kreditorlar yig‘ilishining qarorida tashqi boshqaruv tartib-taomilining taklif qilinayotgan muddati va tashqi boshqaruvchilikka nomzod, shuningdek, bu nomzod haqidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak.

Sharhlanayotgan moddada tugatish jarayonida qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanishi mumkinligi asosli ravishda aniqlansa, tugatish boshqaruvchisi bir oy ichida kreditorlar yig‘ilishini chaqirib, ular roziligi bilan suddan tugatishni to‘xtatib, tashqi boshqaruv tartib-taomiliga o‘tishni so‘rash haqida qaror qabul qilish huquqi belgilangan.

1. Ushbu normada tugatishga doir ish yuritish jarayonining muhim kafolat mexanizmlaridan biri – qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanishi ehtimoli mavjud bo‘lgan holatlarda uni iqtisodiy faoliyatdan butunlay chetlatmasdan, qayta tiklanish imkoniyatini yaratish tartibi huquqiy jihatdan mustahkamlangan.

Bu tugatishga doir ish yuritishning reabilitatsiya vazifasini ifoda etadi. Bunda u faqat tugatish emas, balki barqaror ishlab chiqarishni tiklash, kreditorlar manfaatini to‘liqroq ta’minlash va mehnat jamoasini saqlab qolishni ham maqsad qiladi. Shuning uchun qonun chiqaruvchi tugatish jarayonida ham qarzdorning to‘lov qobiliyatini baholash imkoniyatini ochiq qoldirgan.

Tugatish boshqaruvchisi mazkur holatlarni aniqlaganda, ularni subyektiv emas, moliyaviy tahlil ma’lumotlari bilan asoslantirishi shart. Bu talab sud va kreditorlar oldida ishonchli dalil sifatida xizmat qiladi. Tahlilda qarzdorning aktivlari, qarz yuki, ishlab chiqarish salohiyati va kelgusi daromad manbalari aniq ko‘rsatilishi lozim.

Ushbu normadagi «bir oylik muddat» imperativ, ya’ni majburiy xarakterga ega. Bu muddat tugatish boshqaruvchisining mas’uliyatini kuchaytiradi va tugatishga doir ish yuritish jarayonida qonun buzilish holatlarining oldini olishga qaratilgan. Shu bilan birga, kreditorlar yig‘ilishi chaqirilishi orqali qaror qabul qilishning kollegial va oshkora mexanizmi ta’minlanadi.

2. Ushbu normada tugatishga doir ish yuritish jarayonida muhim qaror, ya’ni tugatishni to‘xtatib, tashqi boshqaruv tartib-taomiliga o‘tish haqida sudga iltimosnoma kiritish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish tartibi va shartlari belgilangan.

Birinchi navbatda, unda ushbu qaror faqat kreditorlar yig‘ilishida qabul qilinishi mumkinligi qayd etilgan. Bu, o‘z navbatida, tugatish jarayonidagi boshqaruv qarorlarining kollegial, shaffof va manfaatlar muvozanatiga asoslangan tarzda qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Qaror qabul qilish mezoni sifatida «qanoatlantirilmagan kreditorlar talablari umumiy miqdorining ko‘pchilik ovozi» belgilangan. Bu esa amaliy jihatdan qaror qabul qilishda shaxsiy manfaatlar emas, balki iqtisodiy salmoq hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini anglatadi. Bunda har bir kreditor ovozining qiymati uning talab miqdoriga mutanosib hisoblanadi.

Ushbu normaning huquqiy mazmunidan shunday xulosa chiqadiki, tugatish boshqaruvchisi yoki qarzdor tashabbusi bilan tashqi boshqaruvga o‘tish taklif etilganda, bu qarorni sudga iltimosnoma sifatida kiritishdan oldin, kreditorlar jamoaviy tarzda o‘z manfaatlaridan kelib chiqib ushbu imkoniyatni iqtisodiy jihatdan maqbul yoki nomaqbul deb baholashlari lozim.

Shu tariqa, ushbu norma tugatish jarayonida kreditorlar manfaatlarini himoya qilish bilan birga tashqi boshqaruvga o‘tish bo‘yicha qaror qabul qilishda demokratik va iqtisodiy asoslangan yechim chiqarishni ta’minlaydi. Bu tugatish jarayonida sudning

bir yoqlama qaror qabul qilish ehtimolini kamaytiradi va barcha manfaatdor tomonlar ishtirokida adolatli qaror shakllanishiga xizmat qiladi.

3. Ushbu normada tugatishga doir ish yuritish jarayonida tashqi boshqaruvga o‘tish to‘g‘risidagi qarorni sudga iltimosnoma sifatida kiritish uchun kreditorlar yig‘ilishining qarorida qanday ma’lumotlar bo‘lishi lozimligi aniq belgilab berilgan.

Birinchidan, kreditorlar yig‘ilishining qarorida tashqi boshqaruv tartib-taomilining taklif qilinayotgan muddati ko‘rsatilishi shartligi belgilangan. Bu talab tashkiliy va huquqiy jihatdan muhimdir, chunki sudga taqdim etilayotgan iltimosnoma aniq muddatli bo‘lmasa, tashqi boshqaruv jarayoni cheksiz yoki nazoratsiz holatga aylanishi xavfi yuzaga keladi. Taklif etilayotgan muddat orqali kreditorlar ham, sud ham qarzdorni tiklash imkoniyatlari va amaliy natijaga erishish istiqbolini baholay oladi.

Ikkinchidan, mazkur qarorda tashqi boshqaruvchilikka nomzod va ushbu nomzod haqidagi ma’lumotlar, ya’ni u oliy ma’lumotga hamda kamida ikki yillik ish stajiga ega ekanligi, vakolatli davlat organida attestatsiyadan o‘tganligi yoki fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini yuritishga ixtisoslashuvi bo‘yicha litsenziyaga ega bo‘lgan advokat ekanligi ko‘rsatilishi kerak. Bu sudga nomzodning tashqi boshqaruvchi sifatida ish olib borishga loyiqligini baholash imkonini beradi. Chunki tashqi boshqaruvchi tugatishga doir ish yuritish jarayonida qarzdorni moliyaviy jihatdan tiklash uchun javobgar bo‘ladi va uning faoliyati bevosita kreditorlar manfaatiga ta’sir ko‘rsatadi. Qarang: Xalqaro sharh. 784-b.

158-modda. Tugatish boshqaruvchisining tugatishga doir ish yuritishni amalga oshirish natijalari to‘g‘risidagi hisoboti

Kreditorlar bilan hisob-kitoblar tamomlanganidan keyin tugatish boshqaruvchisi sudga tugatishga doir ish yuritishni amalga oshirish natijalari to‘g‘risida hisobot taqdim etishi shart.

Tugatishga doir ish yuritishni amalga oshirish natijalari haqidagi hisobotga quyidagilar ilova qilinadi:

qarzdorning mol-mulki sotilganligini tasdiqlovchi hujjatlar;

kreditorlarning talablari reyestri, kreditorlar talablarining qanoatlantirilgan miqdorini ko‘rsatgan holda;

kreditorlarning talablari qanoatlantirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar;

qarzdorning ushbu Qonunning 159-moddasida nazarda tutilgan mol-mulki to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Sharhlanayotgan moddada tugatish boshqaruvchisining vazifasi qarzdorning mol-mulkini sotish va kreditorlar bilan hisob-kitoblar yakunlangandan so‘ng barcha amalga oshirilgan harakatlar va natijalarni hujjatlar bilan tasdiqlagan holda sudga hisobot shaklida taqdim etish majburiyatidan iborat ekani belgilab qo‘yilgan.

1. Ushbu normaga ko‘ra, kreditorlar bilan hisob-kitoblar to‘liq yakunlangach, tugatish boshqaruvchisi sud oldida hisobot taqdim etishi shart. Bu hisobot tugatish jarayo-

nida amalga oshirilgan barcha harakatlarni – qarzdorning mol-mulkini aniqlash, baholash, sotish, tushgan mablag‘larni taqsimlash va kreditorlar talablarini qanoatlantirish holatini – to‘liq aks ettirishi lozim.

Hisobot taqdim etish majburiyatining huquqiy mohiyati shundaki, u tugatish boshqaruvchisining faoliyati ustidan sud nazoratini amalga oshirish imkonini beradi. Sud ushbu hisobot orqali tugatish jarayoni qonun talablariga muvofiq bajarilganmi, kreditorlar manfaatlari ta’minlanganmi va mol-mulkni sotish jarayonida huquqbuzarliklar sodir etilmaganmi, shularni baholaydi. Agar hisobotda kamchiliklar yoki qonun buzilishlari aniqlansa, sud tugatish boshqaruvchisidan qo‘shimcha tushuntirish talab qilishi yoki hatto uning mas’uliyati masalasini ko‘rib chiqishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

44. **Qonunning 158-moddasiga** muvofiq, tugatish boshqaruvchisi tomonidan taqdim etilgan tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini o‘tkazish natijalari to‘g‘risidagi hisobot zarur hollarda sud tomonidan IPK 168-moddasining birinchi qismi talablariga rioya etilgan holda sud majlisida ko‘rib chiqiladi. Tugatish boshqaruvchisining hisoboti asosli deb topilgan taqdirda, sud tugatishga doir ish yuritishni tamomlash to‘g‘risida ajrim chiqaradi, hisobot asossiz deb topilgan taqdirda esa, sud tugatishga doir ish yuritishni tamomlashni rad etish to‘g‘risida ajrim chiqaradi. Bunday holatda tugatishga doir ish yuritishni tamomlash masalasi kamchiliklar bartaraf etilib, yangi hisobot taqdim etilgandan so‘ng ko‘rib chiqiladi.

Sudlar nazarda tutishlari lozimki, qarzdorning sotishga taklif qilingan, lekin tugatishga doir ish yuritish mobaynida realizatsiya qilinmagan mol-mulki kreditorlar tomonidan qabul qilinganda sudning tugatishga doir ish yuritishni tamomlash to‘g‘risidagi ajrimida kreditorlarning nomi va ular tomonidan kreditorlik qarzlarini to‘lash hisobiga qabul qilingan mol-mulk ko‘rsatilishi lozim.

2. Ushbu norma tugatishga doir ish yuritish jarayoni yakunlangandan so‘ng sudga taqdim etiladigan hisobotga ilova qilinadigan hujjatlarni aniq belgilaydi. Bundan ko‘zlangan maqsad tugatish boshqaruvchisining faoliyatini to‘liq, isbotlangan va shaffof holda baholash imkonini yaratishdir.

Birinchi, qarzdorning mol-mulki sotilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilish. Bu hujjatlar (auksion bayonnomalari, oldi-sotdi shartnomalari, hisob-kitob hujjatlari va h.k.) tugatish boshqaruvchisining amalda mol-mulkni sotganini, ya’ni aktivlarni pul shakliga aylantirganini tasdiqlaydi. Ular mol-mulk sotilishida qonunga rioya etilganligini ham ko‘rsatadi.

Ikkinchi, kreditorlar talablari reyestrini, ya’ni barcha kreditorlar, ularning talab miqdori va qay darajada qanoatlantirilgani haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan

rasmiy ro‘yxatni ilova qilishdir. Bu reyestr tugatish jarayonida talablar qay tartibda qondirilganini ko‘rsatib, sud uchun asosiy nazorat vositasi vazifasini o‘taydi.

Uchinchi, kreditorlar talablari qanoatlantirilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish. Ularga to‘lov topshiriqnomalari, kvitansiyalar, bank yozuvlari yoki qabul qilingan pul haqidagi dalillar kiradi. Bu hujjatlar kreditorlar oldidagi majburiyatlar haqiqatda bajarilganini isbotlaydi.

To‘rtinchi, qarzdorning kreditorlar talablari qanoatlantirilganidan keyin qolgan mol-mulki haqidagi ma’lumotlar. Xususan, kreditorlar talablari qanoatlantirilganidan keyin qolgan mol-mulki qarzdorning muassislariga (ishtirokchilariga) yoki qarzdorning mol-mulki egasiga berilganligi; realizatsiya qilinmagan mol-mulki tugatish boshqaruvchisi tomonidan kreditorlarga kreditorlik qarzlarini to‘lash hisobiga taklif etilganligi haqidagi ma’lumotlar sudga taqdim qilinishi lozim. Qarang: Xalqaro sharh. 785-b.

159-modda. Qarzdorning kreditorlar talablari qanoatlantirilganidan keyin qolgan mol-mulki

Qarzdorning kreditorlar talablari qanoatlantirilganidan keyin qolgan mol-mulki qarzdorning muassislariga (ishtirokchilariga) yoki qarzdorning mol-mulki egasiga beriladi.

Qarzdorning sotishga taklif qilingan, lekin tugatishga doir ish yuritish mobaynida realizatsiya qilinmagan mol-mulki tugatish boshqaruvchisi tomonidan kreditorlarga kreditorlik qarzlarini to‘lash hisobiga taklif etiladi. Kreditor ushbu mol-mulkni qabul qilishga rozilik berish yoki uni rad etish yoxud ushbu masalani qonunda belgilangan hollarda kreditorning kuzatuv kengashiga yoki muassislarining (ishtirokchilarining) umumiy yig‘ilishiga ko‘rib chiqish uchun kiritish to‘g‘risida tugatish boshqaruvchisini realizatsiya qilinmagan mol-mulk haqida taklif olingan kundan e’tiboran o‘n kun ichida yozma shaklda xabardor qiladi. Kreditor tomonidan xabarning belgilangan muddatda yozma shaklda taqdim etilmaganligi mol-mulkni qabul qilish rad etilishiga tenglashtiriladi.

Tugatish boshqaruvchisi qarzdorning sotishga taklif qilingan, lekin tugatishga doir ish yuritish mobaynida realizatsiya qilinmagan mol-mulki to‘g‘risida kreditorlar mazkur mol-mulkni o‘z talablarini qanoatlantirish uchun qabul qilishni rad etgan taqdirda mahalliy davlat hokimiyati organlarini yozma shaklda xabardor qiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari xabarnoma olingan paytdan e’tiboran o‘n besh kun ichida mol-mulkni balansga oladi va uni saqlab turishga doir barcha xarajatlarni to‘laydi.

Mol-mulkni qabul qilish rad etilgan yoki uni qabul qilishdan bo‘yin tovlangan taqdirda tugatish boshqaruvchisi tegishli organni mazkur mol-mulkni qabul qilishga undash haqidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli. Sud

mol-mulk topshirilganligi to‘g‘risidagi hujjatlar asosida tugatishga doir ish yuritishni tamomlash haqida ajrim chiqaradi.

Ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan korxonaning sotishga taklif qilingan, lekin tugatishga doir ish yuritish mobaynida realizatsiya qilinmagan mol-mulki, agar kreditorlar mazkur mol-mulkni o‘z talablarini qanoatlantirish uchun qarzdor yuridik shaxsni tugatishga doir ish yuritishning belgilangan muddatida qabul qilishni rad etgan bo‘lsa, davlat mulkiga o‘tadi hamda tugatish boshqaruvchisi uni mahalliy davlat hokimiyati organlarining balansiga topshiradi. Sud mol-mulk topshirilganligi to‘g‘risidagi hujjatlar asosida tugatishga doir ish yuritishni tamomlash haqida ajrim chiqaradi.

Sharhlanayotgan moddada qarzdorning kreditorlar talablari qanoatlantirilgandan keyin qolgan yoki sotilmagan mol-mulkini taqsimlash va uning keyingi huquqiy taqdirini – muassislarga qaytarish, kreditorlarga taklif etish yoki davlat mulki sifatida mahalliy hokimiyat balansiga o‘tkazish tartibi belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismiga muvofiq kreditorlarning talablari, xususan, sud xarajatlari, sud boshqaruvchilariga haq to‘lanadigan haq, joriy kommunal va foydalanish to‘lovlari, ijro hujjatlari bo‘yicha to‘lovlar, soliqlar va yig‘imlar, majburiy sug‘urta, bank kreditlari va garov bilan bog‘liq hamda bog‘liq bo‘lmagan talablar, aksiya egalarining hisoblangan dividendlari bo‘yicha talablar qanoatlantirilganidan keyin qolgan mol-mulki qarzdorning muassislariga (ishtirokchilariga) yoki qarzdorning mol-mulki egasiga berilishi lozim. Xususan, qarzdorning muassisi yoki ishtirokchisi deganda mas’uliyati cheklangan jamiyatda ishtirokchilar, aksiyadorlik jamiyatida aksiyadorlar tushunilsa, qarzdorning mol-mulki egasiga deganda xususiy yoki oilaviy korxona egasi tushuniladi.

2. Ushbu norma tugatishga doir ish yuritish mobaynida qarzdorning realizatsiya qilinmagan mol-mulki taqdirini huquqiy jihatdan tartibga soladi va kreditorlar manfaatini himoya qilish hamda tugatish boshqaruvchisining vazifalarini aniq belgilashga qaratilgan.

Agar tugatish jarayonida qarzdorga tegishli ayrim aktivlar (transport vositalari, binolar, asbob-uskunalar va boshqalar) sotishga qo‘yilgan bo‘lsa, ammo ularni sotib oluvchi topilmagan bo‘lsa, tugatish boshqaruvchisi bu mol-mulkni kreditorlarga taklif qiladi.

Tugatish boshqaruvchisining ushbu taklifi bo‘yicha kreditor quyidagi uchta yo‘ldan birini tanlashi lozim: 1) mol-mulkni qabul qilishga rozilik berish; 2) mol-mulkni qabul qilishni rad etish; 3) masalani kuzatuv kengashi yoki muassislar (ishtirokchilar) umumiy yig‘ilishiga ko‘rib chiqish uchun kiritish.

Kreditor tugatish boshqaruvchisining mol-mulk bo‘yicha taklifi yuzasidan javobni uni olgan kundan e’tiboran 10 kun ichida yozma shaklda xabardor qilishi shart. Agar kreditor ushbu muddat ichida taklifga yozma shaklda javob bermasa, qonun bu holatni kreditor tomonidan mol-mulkni qabul qilish rad etilishiga tenglashtiradi, ya’ni bunda «sukut» rozilik alomati hisoblanmaydi.

Bunday tartib tugatish jarayonining cho‘zilib ketishining oldini oladi va mol-mulk «o‘lik aktiv»ga aylanib qolmasligini ta’minlaydi, shuningdek, kreditorlar huquqlarining tengligini kafolatlab, tugatish boshqaruvchisining faoliyatida aniqlik va tezkorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

43. Qarzdorning sotishga taklif qilingan, lekin tugatishga doir ish yuritish mobaynida realizatsiya qilinmagan mol-mulki tugatish boshqaruvchisi tomonidan so‘nggi savdoda belgilangan narxda kreditorlarga kreditorlik qarzlarini to‘lash hisobiga qabul qilish uchun taklif etiladi.

Agar kreditorning ijro organi tugatish boshqaruvchisini ushbu masalani qonunda yoki kreditorning ustavida belgilangan hollarda kreditorning kuzatuv kengashiga yoki muassislarining (ishtirokchilarining) umumiy yig‘ilishiga ko‘rib chiqish uchun kiritilishi lozimligi to‘g‘risida xabardor qilsa, sud boshqaruvchisi kreditorga kuzatuv kengashi yoki muassislarining (ishtirokchilarining) umumiy yig‘ilishi qarorini taqdim qilish uchun oqilona muddat beradi. Kreditor tomonidan qaror belgilangan muddatda taqdim etilmaganligi mol-mulkni qabul qilish rad etilishiga tenglashtiriladi.

Agar kreditor ushbu mol-mulkni qabul qilishga rozilik bersa va mol-mulkining qiymati kreditorning talablaridan ko‘p bo‘lsa, yuzaga kelgan farqning o‘rni mazkur mol-mulkni o‘z talablari hisobiga qabul qilayotgan kreditor tomonidan pul shaklida qoplanadi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismiga muvofiq, kreditorlar realizatsiya qilinmagan mol-mulkini o‘z talablarini qanoatlantirish uchun qabul qilishni rad etgan taqdirda, mol-mulkning keyingi taqdiri davlat ishtirokini talab etadi.

Shu sababli qonunga muvofiq tugatish boshqaruvchisi ushbu holat haqida mahalliy davlat hokimiyati organlarini yozma ravishda xabardor qilishi shart. Mahalliy davlat hokimiyati organlari deganda xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashi (davlat hokimiyatining vakillik organlari) hamda viloyat, tuman, shahar hokimi (ijro etuvchi hokimiyat organlari) tushuniladi. Xalq deputatlari kengashi, hokim viloyat, tuman, shahar mulki obyektlarini O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan doirada boshqaradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlariga yuborilgan xabarnoma mol-mulkni keyinchalik balansga olish, saqlash yoki davlat ehtiyojlari uchun foydalanish bo‘yicha qaror qabul qilish uchun huquqiy asos vazifasini o‘taydi. Shunday qilib, ushbu norma tugatish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan «bo‘sh mol-mulk» masalasini huquqiy tartibga soladi hamda tugatish boshqaruvchisining hisobdorligini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

43. Kreditorlar mazkur mol-mulkni o‘z talablarini qanoatlantirish uchun qabul qilishni rad etgan yoki belgilangan muddatda ulardan xabar kelmagan taqdirda tugatish boshqaruvchisi mahalliy davlat hokimiyati organini mol-mulkni balansga olish haqida yozma shaklda xabardor qiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organi mol-mulkni qabul qilishni rad etgan yoki uni qabul qilishdan bo‘yin tovlagan taqdirda, tugatish boshqaruvchisi tegishli organni mazkur mol-mulkni qabul qilishga undash haqidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli.

Sudlar tomonidan tugatish boshqaruvchisining arizasi u kelib tushganidan keyingi kundan kechiktirmay ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilmasdan ko‘rib chiqilishi va natijasi bo‘yicha ajrim chiqarilishi lozim. Sudning ajrimi bilan mahalliy davlat hokimiyati organining zimmasiga qarzdorning mol-mulkini qabul qilish majburiyati yuklatiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organi tomonidan sudning ajrimini bajarishdan bo‘yin tovlangan taqdirda sudning ajrimi uning asosida berilgan ijro varaqasiga asosan davlat ijrochisi tomonidan qonunda belgilangan tartibda ijro etiladi.

4. Ushbu norma tugatish jarayonida mol-mulkning huquqiy va iqtisodiy aylanmadan chiqib ketmasligini ta’minlashga qaratilgan muhim kafolat mexanizmi bo‘lib, mahalliy davlat hokimiyati organlariga xabarnoma olingan paytdan boshlab o‘n besh kun ichida mol-mulkni o‘z balansiga olish majburiyatini yuklaydi.

«Balansga olish» deganda mol-mulkni davlat hokimiyati organining balansida aktiv sifatida qayd etish, uning moliyaviy qiymatini belgilash va tegishli mulkiy javobgarlikni zimmasiga olish tushuniladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organi nafaqat mol-mulkni balansga oladi, balki uning saqlanishi bilan bog‘liq barcha xarajatlarni to‘lash majburiyatini ham oladi. Bu xarajatlarga saqlash joyini ta’mirlash, muhofaza qilish, xizmat ko‘rsatish va amalda foydalanish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar kiradi.

Ushbu tartib mol-mulkning qarovsiz yoki yo‘qolib ketishi, ya’ni «bosqichli mulkiy yo‘qotish» holatlarining oldini oladi. Shu bilan birga, davlat organlariga mol-mulkdan samarali foydalanish yoki uni keyinchalik davlat ehtiyojlari uchun ishlatish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, ushbu norma tugatish jarayonining yakuniy bosqichida davlatning mulkiy kafolatchi sifatidagi rolini belgilaydi, ya’ni kreditorlar va tugatish boshqaruvchisidan keyingi bosqichda mol-mulk uchun javobgarlik davlat zimmasiga o‘tadi.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismi tugatish jarayonidagi mol-mulkning huquqiy taqdirini to‘liq hal etish, uning egasiz holatda qolib ketmasligi va mulkiy munosabatlarda aniqlikni ta’minlash maqsadini ko‘zlaydi.

Birinchidan, agar kreditorlar ham, mahalliy davlat hokimiyati organlari ham qarzdorning sotilmagan yoki realizatsiya qilinmagan mol-mulkini qabul qilishdan bosh tortgan bo‘lsa, bu holat tugatish boshqaruvchisini qiyin vaziyatga solib qo‘yadi. Chunki u tugatishga doir ish yuritishni tamomlash uchun barcha mulkiy masalalarni hal etishi shart. Shu sababli qonun unga sudga murojaat qilish huquqini beradi.

Ikkinchidan, tugatish boshqaruvchisi sudga «mol-mulkni qabul qilishga undash haqidagi ariza» bilan chiqishi mumkin. Bu arizaga ma’muriy chora sifatida qaraladi va suddan tegishli davlat hokimiyati organini mulkni qabul qilish majburiyatini yuklatishni so‘raydi. Bu bilan mulkning huquqiy bo‘shliqda qolib ketishining oldini oladi.

Uchinchidan, sud ushbu masalani ko‘rib chiqar ekan, mol-mulk topshirilganligi to‘g‘risidagi hujjatlar, ya’ni inventarizatsiya dalolatnomalari, baholash hisobotlari, tugatish boshqaruvchisining hisobotlari, kreditorlar yig‘ilishi qarorlari va boshqa tegishli hujjatlar asosida qaror qabul qiladi.

To‘rtinchidan, agar sud tegishli davlat hokimiyati organining mol-mulkni qabul qilishdan asossiz ravishda bo‘yin tovlaganini aniqlasa, sud ajrim chiqarib, mazkur organni mol-mulkni qabul qilishga majbur qiladi. Bu davlat hokimiyati organlari zimmasiga mulkiy javobgarlik yuklaydi va ular mol-mulkni saqlash hamda foydalanish bilan bog‘liq barcha vazifalarni bajarishga majbur bo‘ladi.

Beshinchidan, sud ajrimi chiqarilishi tugatish jarayonining oxirgi bosqichini anglatadi, ya’ni sud mol-mulkning taqdiri to‘liq hal etilganini hisobga olib tugatishga doir ish yuritishni tamomlash haqida rasmiy ajrim chiqaradi. Bu bilan yuridik shaxs faoliyati huquqiy jihatdan yakunlanadi.

Oltinchidan, ushbu norma sud nazorati mexanizmini kuchaytiradi, ya’ni tugatish jarayonida davlat organlari yoki boshqa ishtirokchilarning mas’uliyatsizligi yoki sustligi sababli mol-mulk «huquqiy noaniq holatda» qolmasligi ta’minlanadi.

Yettinchidan, amalda bu qoida mol-mulkning har bir birligi bo‘yicha hisobdorlikni mustahkamlaydi, uning egasi yoki boshqaruvchisi aniq bo‘lishiga xizmat qiladi va tugatish jarayonini huquqiy aniqlik asosida yakunlash imkonini beradi.

6. Mazkur moddaning oltinchi qismi tugatish jarayonida davlat ulushi bo‘lgan korxona mol-mulkining huquqiy taqdirini va mulkiy manfaatlar muvozanatini ta’minlashga qaratilgan muhim tartibni belgilaydi. Uning mazmuni davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar faoliyati yakunlanganda, ularning aktivlari yo‘qolib ketmasligi yoki huquqiy noaniq holatda qolmasligini kafolatlaydi.

Birinchidan, ushbu norma faqat ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarga taalluqli. Bu davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar yoki boshqa turdagi xo‘jalik yurituvchi subyektlardir.

Ikkinchidan, agar bunday korxona tugatilayotgan paytda uning ayrim aktivlari sotishga taklif qilingan, lekin realizatsiya qilinmagan bo‘lsa, ya’ni bozorda xaridor topilmagan yoki savdo yakunlanmagan bo‘lsa, bu mol-mulk «muallaq holatda» qoladi. Qonun bunday holatda aniq yo‘lni belgilaydi – u mol-mulk davlat mulkiga o‘tishi kerak.

Uchinchidan, bu holat faqat kreditorlar ushbu mol-mulkni o‘z talablarini qanoatlantirish sifatida qabul qilishni rad etgan taqdirda yuzaga keladi. Demak, qonun mol-

mulkni davlat mulkiga o‘tkazishni so‘nggi chora sifatida belgilaydi, ya’ni avval kreditorlarga taklif qiladi, so‘ng mahalliy davlat hokimiyati organlari balansiga topshiradi. Bu mulkiy munosabatlarda xronologik va huquqiy izchillikni ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, mol-mulk davlat mulkiga o‘tgach, uni mahalliy davlat hokimiyati organi balansiga topshirish tugatish boshqaruvchisining majburiyati hisoblanadi. Bu bilan u mol-mulkni davlat mulkiga topshiradi va tegishli moliyaviy hamda boshqaruv javobgarligini mahalliy davlat hokimiyati organiga o‘tkazadi.

Beshinchidan, ushbu tartib davlat mulkini muhofaza qilish va undan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Agar bunday aktivlar balansga olinmasa, ular qarovsiz qolib, iqtisodiy aylanmadan chiqib ketishi mumkin. Shu bois mahalliy davlat hokimiyati organi uni saqlash, qayta ishlatish yoki davlat ehtiyojlariga moslashtirish bo‘yicha tegishli choralar ko‘radi.

Oltinchidan, sud mol-mulk topshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar, ya’ni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, tugatish boshqaruvchisining hisoboti, mahalliy davlat hokimiyati organining mol-mulkni qabul qilish to‘g‘risidagi qarori va boshqa tegishli materiallar asosida ishni ko‘rib chiqadi. Bu hujjatlar asosida sud tugatishga doir ish yuritishni tamomlash haqida ajrim chiqaradi.

Yettinchidan, sud ajrimi chiqarilishi bilan yuridik shaxsning huquqiy faoliyati rasman yakunlanadi, mol-mulkning taqdiri esa aniq belgilangan holda davlat mulkiga o‘tadi. Bu mulkiy munosabatlarda davlat kafolatini ta’minlab, iqtisodiy tizimdagi barqarorlikni mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu norma davlat ishtirokidagi korxonalar tugatilganda mulkiy masalalardagi huquqiy aniqlikni, davlat mulkining yo‘qolib ketmasligini va tugatish jarayonining qonuniy yakunlanishini ta’minlaydigan muhim huquqiy mexanizmdir.

160-modda. Tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini tamomlash

Tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilini o‘tkazish natijalari to‘g‘risida tugatish boshqaruvchisi tomonidan taqdim etilgan hisobot ko‘rib chiqilganidan keyin sud tugatishga doir ish yuritish tamomlanganligi haqida ajrim chiqaradi va tugatish boshqaruvchisining zimmasiga mazkur ajrimni yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organga o‘n kun ichida taqdim etish majburiyatini yuklaydi.

Sudning ajrimi yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga qarzdor tugatilganligi to‘g‘risida yozuv kiritilishi uchun asos bo‘ladi. Yagona davlat reyestriga tegishli yozuv sudning mazkur ajrimi taqdim etilgan paytdan e’tiboran uch ish kunidan kechiktirmay kiritilishi kerak.

Yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga qarzdor tugatilganligi haqidagi yozuv kiritilgan paytdan e’tiboran tugatish boshqaruvchisining vakolatlari tugatiladi, tugatishga doir ish yuritish tamomlangan, qarzdor esa tugatilgan deb hisoblanadi.

Sharhlanayotgan moddada tugatish boshqaruvchisining hisoboti asosida sud ajrim chiqarishi, ushbu ajrim yuridik shaxsning tugatilganligi to‘g‘risida davlat reyestriga yozuv kiritish uchun asos bo‘lishi va shu bilan yuridik shaxs faoliyati rasman yakunlanishi belgilab qo‘yilgan.

1. Ushbu norma tugatish jarayonining yakuniy bosqichini tartibga soladi hamda yuridik shaxs faoliyatining rasman tugatilishi uchun asos bo‘ladigan huquqiy mexanizmni belgilaydi. Ushbu moddaning mazmunini batafsil tahlil etganda quyidagi asosiy jihatlar ko‘zga tashlanadi:

Birinchidan, tugatish jarayonidagi eng muhim bosqich tugatish boshqaruvchisining hisoboti sud tomonidan ko‘rib chiqilishidir. Hisobotda tugatish davomida amalga oshirilgan barcha chora-tadbirlar – mol-mulkni sotish, qarzdorlikni qoplash, kreditorlar talablarini qanoatlantirish, debitorlik qarzlarni undirish, moliyaviy hisob-kitoblar va qolgan aktivlarning taqdiri to‘liq bayon etilishi lozim. Bu hisobot sud uchun ishning haqiqatan ham tugatilganligini baholash imkonini beradi.

Ikkinchidan, sud hisobotni ko‘rib chiqqach, agar tugatish boshqaruvchisi qonun talablariga rioya qilgan bo‘lsa va hech qanday yechilmagan masala qolmagan bo‘lsa, tugatishga doir ish yuritish tamomlanganligi haqida ajrim chiqaradi.

Uchinchidan, ushbu norma tugatish boshqaruvchisi zimmasiga muhim protsessual majburiyat yuklaydi – u sudning ajrimini o‘n kun ichida yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organga taqdim etishi shart. Bu muddat yuridik aniqlik va tezkorlikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, tugatish jarayoni sun’iy cho‘zilib ketishidan saqlaydi.

2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-fevraldagi 66-son qarori bilan tasdiqlangan «Tadbirkorlik subyektlarining yagona davlat reyestrini yuritish tartibi to‘g‘risida Nizom»ga muvofiq, mazkur reyestr tadbirkorlik subyektlarini – yuridik shaxslarni tuzish, qayta tashkil etish, tugatish to‘g‘risidagi, jismoniy shaxslar tomonidan YTT maqomi olingani, jismoniy shaxslarning YTT sifatidagi faoliyatini to‘xtatib turishlari va tugatishlari to‘g‘risidagi asosiy ma’lumotlarni hamda boshqa ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan, hamma tanishib chiqishi uchun ochiq bo‘lgan davlat elektron axborot resursi hisoblanadi.

Ushbu reyestr Davlat xizmatlari markazlari tomonidan shakllantiriladi va yuritiladi hamda undagi ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga joylashtiriladi. Quyidagilar reyestrga yozuv kiritish uchun asos bo‘ladi: a) tadbirkorlik subyektini reyestrdan chiqarish; b) tadbirkorlik subyekti bankrot deb topilganda. Yozuv reyestrga quyidagicha kiritiladi: a) avtomatlashtirilgan dasturiy-apparat vositalari orqali – avtomatik tarzda real vaqt rejimida; b) Davlat xizmatlari markazi tomonidan – yozuv kiritilishi uchun asos yuzaga kelganda ikki ish kuni mobaynida.

Sudning tugatishga doir ish yuritish tamomlanganligi haqida ajrimi yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga yozuv kiritish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Tugatish boshqaruvchisi tomonidan sud ajrimi davlat xizmatlari markaziga taqdim qilinganidan keyin Yagona davlat reyestriga tegishli yozuv uch ish kunidan kechiktirmay kiritilishi kerak. Bu muddat davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organning mas’uliyatini va yuridik munosabatlardagi tezkorlikni ta’minlovchi muhim huquqiy talabdir.

Yozuv kiritilishi tugatishning amaliy huquqiy oqibatini anglatadi. Shu paytdan boshlab yuridik shaxs faoliyati to‘xtaydi, uning nomi davlat ro‘yxatidan chiqariladi va u huquq subyekti sifatida mavjud bo‘lmaydi.

3. Ushbu normada yuridik shaxsning faoliyatini tugatishning yuridik va amaliy nuqtayi nazardan yakunlovchi bosqichi aniq belgilangan. Sud ajrimi asosida yagona davlat reyestriga qarzdor tugatilganligi haqida yozuv kiritilgan payt tugatish jarayonining rasmiy tugash nuqtasi hisoblanadi.

Birinchidan, tugatish boshqaruvchisining vakolatlari ham aynan shu paytdan, yagona davlat reyestriga yozuv kiritilgan vaqtdan boshlab avtomatik ravishda tugashini nazarda tutadi. Bu tugatish boshqaruvchisi endi qarzdor nomidan hech qanday harakatni amalga oshirolmaydi, mol-mulkni boshqarish, hisobot taqdim etish yoki kelishuv tuzish kabi vakolatlardan mahrum bo‘ladi degani.

Ikkinchidan, «tugatishga doir ish yuritish tamomlangan» degan ifoda bu jarayonning faqat sudda emas, balki barcha ijro va ma’muriy bosqichlarda ham yakunlanganini anglatadi. Amaliyot nuqtayi nazaridan bu qoidalar huquqiy munosabatlarni bartaraf etish, moliyaviy hisoblarni yopish va arxivlashtirish jarayonlariga aniq mezon yaratib beradi. Demak, tugatish hisoboti sud tomonidan qabul qilingan, aktivlar taqsimlangan, kreditorlar bilan hisob-kitoblar amalga oshirilgan va mol-mulkning huquqiy taqdiri hal qilingan bo‘ladi.

Uchinchidan, yuridik shaxsning tugatilganligi haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritib qo‘yilganidan so‘ng yuridik shaxsni tugatish tamomlangan, yuridik shaxsning faoliyati esa tugagan hisoblanadi. Shuningdek, yuridik shaxsni tugatish uning huquq va burchlari huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxsga o‘tmasdan bekor qilinishiga olib keladi.

«Qarzdor tugatilgan deb hisoblanadi» degan huquqiy ibora uning faoliyati tugashi to‘g‘risidagi qonuniy prezumpsiyani belgilaydi. Bunda davlat organlari, kreditorlar va boshqa subyektlar uchun ushbu yozuv yuridik shaxsning mavjud emasligi haqida rasmiy va majburiy axborot hisoblanadi.

Ushbu yozuv yuridik shaxsni huquq layoqati tugatilgan deb hisoblashga asos bo‘ladi. Bu esa uni o‘z mulkida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lish hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob berish, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lish va ularni amalga oshirish, majburiyatlarni bajarish, sudda da’vogar va javobgar bo‘lish huquqidan mahrum yeadi. Qarang: Xalqaro sharh. 785-b.

12-BOB. KELISHUV BITIMI

161-modda. Kelishuv bitimini tuzish tartibi

Qarzdor va kreditorlar sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishning har qanday bosqichida kelishuv bitimini tuzishga haqli.

Kreditorlar nomidan kelishuv bitimini tuzish haqidagi qaror kreditorlar yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi. Kreditorlar yig‘ilishining kelishuv bitimini tuzish to‘g‘risidagi qarori birinchi, ikkinchi va uchinchi guruh kreditorlarining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi hamda qaror, basharti qarzdorning garov bilan ta’minlangan mol-mulki majburiyatlari bo‘yicha barcha kreditorlar uni yoqlab ovoz bergan bo‘lsa, qabul qilingan deb hisoblanadi. Kreditor vakilining kelishuv bitimini tuzish masalasi to‘g‘risida ovoz berishga doir vakolatlari uning ishonchnomasida alohida nazarda tutilgan bo‘lishi kerak.

Kelishuv bitimi qarzdor nomidan tegishincha qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor yoki qarzdorning rahbari, tashqi boshqaruvchi, tugatish boshqaruvchisi yoxud moliyaviy boshqaruvchi tomonidan tuziladi.

Kelishuv bitimida nazarda tutilgan huquqlar va majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladigan uchinchi shaxslarning kelishuv bitimida ishtirok etishiga yo‘l qo‘yiladi.

Kelishuv bitimi sud tomonidan tasdiqlanishi lozim bo‘lib, bu haqida ajrim chiqariladi, unda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish ko‘rsatiladi. Agar kelishuv bitimi tugatishga doir ish yuritish jarayonida tuzilgan bo‘lsa, sud kelishuv bitimini tasdiqlash haqida ajrim chiqaradi, unda qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qaror bajarilmasligi ko‘rsatiladi.

Kelishuv bitimi qarzdor, kreditorlar, shuningdek, kelishuv bitimida ishtirok etayotgan uchinchi shaxslar uchun sud tomonidan tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi va ular uchun majburiydir. Kuchga kirgan kelishuv bitimini bajarishni bir tomonlama rad etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kelishuv bitimi tuzishni yoqlab ovoz bergan kreditor, qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdor mol-mulkining egasi kelishuv bitimini tuzishga qarshi ovoz bergan yoxud ovoz berishda ishtirok etmagan kreditorlar oldida qarzdorning pul majburiyatlarini va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatini bajarishga haqli. Bu holda kreditor qarzdor uchun taklif etilgan

ijroni qabul qilishi shart, qarzdorning majburiyatlarini bajargan shaxsga esa kreditorning majburiyat bo‘yicha talab qilish huquqlari o‘tadi.

Uchinchi shaxslar kelishuv bitimi bo‘yicha qarzdor tomonidan pul majburiyatlari qanoatlantirilishi va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyati bajarilishi kafilligini yoki kafolatini berishga, xuddi shuningdek, uning lozim darajada bajarilishini boshqacha tarzda ta’minlashga haqli. Agar kelishuv bitimining sharti qarzdorning mol-mulkini uchinchi shaxs foydasiga o‘tkazishdan iborat bo‘lsa, bitim faqat mazkur mol-mulk uchinchi shaxs tomonidan kreditorlarning talablari qanoatlantirilishini ta’minlovchi garovga berilishi sharti bilan tuzilishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada kelishuv bitimini tuzish tartibi, uni tuzish to‘g‘risidagi kreditorlar yig‘ilishining qarorini qabul qilish tartibi, kelishuv bitimini qarzdor nomidan tuzish vakolatiga ega bo‘lgan shaxslar, kelishuv bitimining sud tomonidan tasdiqlanish tartibi va huquqiy oqibatlari, uchinchi shaxslarning kelishuv bitimida ishtirok etish holatlari belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish ishtirokchilariga har qanday bosqichda kelishuv bitimini tuzish huquqini beradi va shu bilan ishtirokchilar hamda sud uchun vaqt va resurslarni tejash imkoni yaratiladi. Qonunning 3-moddasiga muvofiq, kelishuv bitimi deganda taraflarning o‘zaro yon berish asosida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish yuritishni tugatish haqidagi bitimi tushuniladi. Ushbu ta’rif ham qarzdor, ham kreditorlar tarafidan yon berishlarni nazarda tutadi. Masalan, qarzni bo‘lib-bo‘lib to‘lash, muddatini uzaytirish yoki bir qismidan voz kechish kabi. Shunday qilib, qonun chiqaruvchi sud tizimining minimal ishtiroki bilan qarzdorning to‘lovga qobiliyatini tiklash mexanizmini o‘rnatgan.

2. Kelishuv bitimining huquqiy tabiati nuqtayi nazaridan u bir vaqtning o‘zida protsessual oqibatlarga olib keladigan fuqarolik-huquqiy bitim bo‘lib, uni tasdiqlash bilan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish tugatiladi.

Ushbu norma kreditorlar tomonidan kelishuv bitimini tuzish tartibini belgilaydi, bunda qaror Qonunning 13-moddasida ko‘rsatilgan birinchi, ikkinchi va uchinchi guruh kreditorlari tomonidan ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Bunday qarorga qarshi ovoz bergan yoki ovoz berishda ishtirok etmagan kreditorlar ham kelishuv bitimining shartlariga rioya qilishlari shart degan xulosaga kelish mumkin. Bu kelishuv bitimni barcha taraflarning roziligini talab qiladigan boshqa fuqarolik-huquqiy bitimlardan ajratib turadi.

Agar qarzdorning majburiyati mol-mulk garovi bilan ta’minlangan bo‘lsa, kelishuv bitimini tuzish to‘g‘risidagi qaror faqat barcha kreditorlar uni yoqlab ovoz bergandagina qabul qilingan hisoblanadi.

Kelishuv bitimining yana bir xususiyati unda soliq va boshqa vakolatli organlar – ommaviy-huquqiy munosabatlar subyektlarining ishtirok etishidir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

49. Qonunga muvofiq, tuzilgan kelishuv bitimining shartlari faqat uni tuzish haqida qaror qabul qilgan kreditorlar yig‘ilishi o‘tkazilgan sanaga kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan talablarga nisbatan tatbiq etiladi.

Kreditorlarning talablari reyestriga talablari kiritilmagan kreditorlar kelishuv bitimi tasdiqlangan va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish yuritish tugatilgandan so‘ng kelishuv bitimi shartlarini hisobga olmagan holda o‘z talablarini umumiy tartibda taqdim etishga haqli.

Sudlar e’tiborga olishi kerakki, kelishuv bitimini tuzish masalasi ko‘rilayotgan kreditorlar yig‘ilishida birinchi, ikkinchi va uchinchi guruh kreditorlari ovozga ega va qaror, basharti kreditorlar yig‘ilishida ishtirok etayotgan ushbu guruhlar kreditorlarining ko‘pchiligi uni yoqlab ovoz bergan bo‘lsa, qabul qilingan deb hisoblanadi.

Kelishuv bitimini tuzish muhim protsessual harakatdir, shuning uchun qonun chiqaruvchi u kreditor vakilining ishonchnomasida alohida ko‘rsatilishini talab qiladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining bosqichiga qarab qarzdor nomidan kelishuv bitimini imzolashga haqli bo‘lgan mas’ul shaxslarning aniq doirasi belgilangan.

Xususan, qarzdor YTT jismoniy shaxs sifatida o‘z nomidan ish ko‘radi va bitimni shaxsan o‘zi imzolaydi. Qarzdorning rahbari esa kuzatuv tartib-taomilini qo‘llash bosqichida o‘z vakolatlarini saqlab qolgani sababli kelishuv bitimini imzolash huquqiga ega bo‘ladi.

Tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilganda korxona rahbari vakolatlari to‘xtatiladi va boshqaruv tashqi boshqaruvchiga o‘tadi. Demak, bu bosqichda bitimni tuzish vakolati faqat unga tegishli bo‘ladi. Tugatishga doir ish yuritish boshlanganda qarzdorni tugatish va mol-mulkni sotish jarayonini boshqarayotgan shaxs, ya’ni tugatish boshqaruvchisi kelishuv bitimini imzolaydi. Moliyaviy boshqaruvchi esa asosan jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish yuritish jarayonida kelishuv bitimini tuzish vakolatiga ega bo‘ladi.

Mazkur qoida kelishuv bitimining qonuniyligini ta’minlashga xizmat qilib, vakolatsiz shaxslar tomonidan hujjat imzolanishining oldini oladi.

4. Qonun chiqaruvchi kelishuv bitimida protsess ishtirokchisi bo‘lmagan, kelishuv bitimida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarni o‘z zimmasiga olgan uchinchi shaxslarning ishtirok etishiga ruxsat beradi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishda qo‘llaniladigan «uchinchi shaxslar» tushunchasini sud ishlarini yuritish ishtirokchilari bo‘lgan nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi yoki nizoning predmetiga nisbatan

mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan «uchinchi shaxslar»dan farqlash kerak. Birinchi holatda uchinchi shaxslarning nizoli huquqiy munosabatlarda qarzdor bilan hech qanday aloqasi bo‘lmasa, ikkinchi holatda uchinchi shaxslar nizo bo‘yicha da’vogar va javobgar bilan moddiy huquqiy munosabatlarga ega.

Qarzdorning uning kreditorlari oldidagi majburiyatlarini bajaruvchi yoki qarzdorning qarzini so‘ndirayotgan shaxslar uchinchi shaxslar bo‘lishi mumkin. Uchinchi shaxslar ishtirokining usullari quyida sharhlanayotgan ushbu moddaning 8-qismida belgilangan.

5. Qonunning 57-moddasiga muvofiq, taraflar o‘rtasida kelishuv bitimi tuzilib, u sud tomonidan tasdiqlangan taqdirda, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish sudning ajrimi bilan tugatiladi. Shu munosabat bilan sud kelishuv bitimini tasdiqlash va ish yuritishni tugatish to‘g‘risida ajrim chiqaradi, mazkur ajrimda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish yuritish tugatilganligi ko‘rsatilishi lozim.

Bunday ajrimning protsessual ta’siri majburlov choralari bilan ta’minlangan sud qaroriga tengdir. Agar tugatishga doir ish yuritish jarayonida taraflar kelishuv bitimini tuzgan bo‘lsa, sud kelishuv bitimini tasdiqlash to‘g‘risida ajrim chiqaradi, unda qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qaror bajarilmasligi ko‘rsatiladi.

6. Kelishuv bitimi sud tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab qarzdor, kreditorlar va jarayondagi uchinchi shaxslar uchun qonuniy kuchga ega bo‘lgan majburiy hujjatga aylanadi. Ushbu hujjat majburiyatlarni bajarishning yangi tartibini belgilaydi va uning shartlariga rioya qilish barcha ishtirokchilar uchun qat’iy hisoblanadi.

Demak, kelishuv bitimi faqat taraflar o‘rtasidagi kelishuv emas, balki sud hujjati bilan mustahkamlangan va ijro etilishi shart bo‘lgan huquqiy majburiyatni vujudga keltiradi.

Kelishuv bitimi sud tomonidan tasdiqlangach, taraflardan hech biri o‘z xohishi bilan undan chekinishga yoki ijro etishni rad etishga haqli emas. Bu esa taraflardan biri o‘z xohishiga ko‘ra bitim shartlarini bajarmaslik yoki ulardan voz kechish huquqiga ega emasligini anglatadi. Kelishuv bitimi faqat qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda, tegishli protsessual asoslar mavjud bo‘lgan taqdirdagina bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin.

7. Qonun chiqaruvchi qarzdorni ma’lum bir shaxslar guruhi – kelishuv bitimini tuzishni yoqlab ovoz bergan kreditor, shuningdek, qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdor mol-mulkining egasi bilan almashtirish imkonini beradi, bunda qarzdorning kelishuv bitimini tuzishga qarshi ovoz bergan yoki ovoz berishda ishtirok etmagan kreditorlar oldidagi pul majburiyatlari va/yoki soliq va yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlari bajariladi.

Bu qoida kelishuv bitimini qo‘llab-quvvatlagan shaxslarga uning amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida qarzdor o‘rniga majburiyatni bajarish imkonini beradi. Natijada kelishuv bitimiga qarshi bo‘lgan kreditorlar manfaatlari ham kafolatlanadi.

Bunday shaxslarning o‘zgarishida kreditor qarzdor nomidan taklif qilingan ijroni qabul qiladi, ya’ni u majburiyatni kim bajarayotganiga qarab ijroni rad etish huquqiga ega emas. Qarzdorning majburiyatlarini bajargan shaxsga FKning 23-bobi qoidalariga muvofiq kreditorning majburiyat bo‘yicha talab qilish huquqlari o‘tadi. Boshqacha

aytganda, qarzdorning majburiyatlarini bajargan shaxsga kreditorning ushbu majburiyat bo‘yicha talab qilish huquqi o‘tadi (subrogatsiya). Bu esa majburiyatni bajargan shaxsning regress tartibida qarzdorga nisbatan talab qo‘yish imkoniyatini ta’minlaydi.

8. Kelishuv bitimida uchinchi shaxslar qarzdorning pul majburiyatlari va (yoki) soliq va yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlarini bajarish majburiyatlarini (kafillik, kafolat) ta’minlashga haqli. Ushbu qismning ma’nosidan kelib chiqadiki, bu to‘liq ro‘yxat emas, majburiyatni ta’minlashning qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa usullaridan foydalanish ham mumkin. «Lozim darajada bajarilishi»ga kelsak, qonun bunga ta’rif bermaydi. FKning 236-moddasiga ko‘ra, majburiyatlar majburiyat shartlariga va qonunchilik talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo‘lmaganida esa ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo‘yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi kerak. Binobarin, kelishuv bitimida nazarda tutilgan majburiyatlar shu tartibda bajarilishi lozim.

Kelishuv bitimi shartlariga muvofiq qarzdor tomonidan mol-mulk uchinchi shaxs foydasiga o‘tkazilsa, kreditorlar talablarini qanoatlantirish uchun ko‘rsatilgan mol-mulk garovga o‘tkazish sharti bilan tuzilishi mumkin. Qarang: Xalqaro sharh. 788-b.

162-modda. To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari chog‘ida kelishuv bitimini tuzishning o‘ziga xos xususiyatlari

Qarzdor tomonidan kelishuv bitimini tuzish to‘g‘risidagi qaror kuzatuv va sud sanatsiyasi tartib-taomillari chog‘ida qarzdorning rahbari, mazkur rahbar o‘z majburiyatlarini bajarishdan chetlashtirilgan taqdirda esa sud boshqaruvchisi tomonidan qabul qilinadi.

Agar kelishuv bitimi qarzdor uchun qonunchilikka yoki ta’sis hujjatlariga muvofiq qarzdorning boshqaruv organlari qaroriga (ma’qullashiga) ko‘ra tuziladigan bitim bo‘lsa, qarzdor nomidan kelishuv bitimini tuzish haqidagi qaror tegishli qarordan (ma’qullashdan) keyin qabul qilinishi mumkin. Tashqi boshqaruv va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomillarida kelishuv bitimini tuzish chog‘ida bunday qaror (ma’qullash) talab etilmaydi.

Qarzdorga, sud boshqaruvchisiga yoki kreditorga nisbatan manfaatdor bo‘lgan uchinchi shaxslar ishtirokida kelishuv bitimi tuzilayotganda kelishuv bitimida uning tuzilishidan manfaatdorlik mavjud bo‘lgan bitim ekanligi haqidagi, bunday manfaatdorlikning xususiyati ko‘rsatilgan axborot bo‘lishi kerak. Kelishuv bitimi kreditorlarning bajarilish muddati to‘lovga qobiliyatsizlikning tegishli tartib-taomili joriy etilgan sanada boshlangan talablariga nisbatan tatbiq etiladi, bundan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilganidan keyin yuzaga kelgan majburiyatlar mustasno.

Sharhlanayotgan moddada to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari chog‘ida kelishuv bitimini tuzishning o‘ziga xos xususiyatlari, qarzdor tomonidan kelishuv bitimini tuzish to‘g‘risidagi qaror qabul qilishga vakolatli shaxslar, kelishuv bitimini tuzishda

qarzdorning boshqaruv organlari vakolatlari, manfaatdor bo‘lgan uchinchi shaxslar ishtirokida kelishuv bitimini tuzish tartibi belgilangan.

1. Kuzatuv va sud sanatsiyasi vaqtida kelishuv bitimini tuzish to‘g‘risidagi qaror qarzdorning rahbari tomonidan, ular lavozimidan chetlashtirilgan taqdirda esa sud boshqaruvchisi tomonidan qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

50. Agar kuzatuv taomilida qarzdor – yuridik shaxs boshqaruv organining vakolatlari sudning ajrimi bilan tugatilgan va muvaqqat boshqaruvchining zimmasiga yuklatilgan bo‘lsa, qarzdor nomidan kelishuv bitimi muvaqqat boshqaruvchi tomonidan imzolanadi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi qonun hujjatlariga yoki qarzdorning ta’sis hujjatlariga muvofiq qarzdorning boshqaruv organlaridan kelishuv bitimini tuzishda tegishli rozilik olish tartibini belgilaydi.

Tashqi boshqaruvda qarzdorning rahbari o‘z vazifasini bajarishdan chetlashtiriladi, qarzdorning ishlarini boshqarish tashqi boshqaruvchi zimmasiga yuklatiladi (109-modda), sud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qaror qabul qilingan paytdan e’tiboran qarzdorning boshqaruv organlari qarzdorning mol-mulkini boshqarish va tasarruf etish vazifalarini bajarishdan chetlashtiriladi (141-modda), kelishuv bitimini tuzish bo‘yicha qaror (ma’qullash) talab qilinmaydi.

3. Qarzdor – yuridik shaxs, sud boshqaruvchisi yoki kreditorga nisbatan manfaatdor shaxslar doirasi 21-moddada belgilangan bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: a) qonunchilikka muvofiq qarzdorga nisbatan bosh yoki tobe bo‘lgan yuridik shaxs; b) qarzdorning rahbari, shuningdek, kuzatuv kengashi, kollegial ijroiya organi tarkibiga kiruvchi shaxslar, bosh buxgalter (buxgalter), shu jumladan, ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilmasidan oldingi bir yil davomida bekor qilingan hollarda ham; d) yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdorning mol-mulki egasi.

Ushbu Qonunda jismoniy shaxsga, shuningdek, qarzdor YTTga nisbatan manfaatdor shaxs deganda uning xotini (eri), nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan o‘zidan oldingi va keyingi qarindoshlari, opa-singillari, aka-ukalari hamda ularning nasl-nasab shajarasi bo‘yicha o‘zidan keyingi qarindoshlari, xotinining (erining) ota-onasi, opa-singillari va aka-ukalari tushuniladi.

Qonun chiqaruvchi bunday manfaatdorlikning xususiyatini kelishuv bitimida qayd etishni talab qiladi.

Kelishuv bitimi kreditorlarning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilgan paytda to‘lash muddati o‘tgan talablarga tatbiq etiladi. Bu shuni anglatadiki, kelishuv

bitimi faqat ish qo‘zg‘atilgunga qadar yoki tegishli ish yuritish sanasidan oldin shakllangan qarzdorning kreditorlar oldidagi mavjud va bajarilishi shart bo‘lgan majburiyatlarni o‘z ichiga oladi. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish qo‘zg‘atilganidan keyin yuzaga keladigan majburiyatlar uning doirasidan chiqariladi. Ushbu majburiyatlar joriy to‘lovlar deb ataladi. Mazkur Qonunning 4-moddasiga muvofiq, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish jarayoni boshlangan sanadan e’tiboran yuzaga kelgan pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar joriy to‘lovlardir.

Bunday farqlash qarzdorning kelishuv bitimi orqali o‘zini to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish jarayonida yuzaga kelgan majburiyatlardan ozod qilishi mumkin bo‘lgan suiiste’molliklarning oldini oladi. Shuningdek, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish boshlanganidan keyin qarzdor bilan huquqiy munosabatlarga kirishgan shaxslarning huquqlari himoya qilinishini kafolatlaydi.

163-modda. Kelishuv bitimini rasmiylashtirish

Kelishuv bitimi yozma shaklda tuziladi.

Qarzdor nomidan kelishuv bitimi tegishincha qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor, qarzdorning rahbari yoki sud boshqaruvchisi tomonidan imzolanadi. Kreditorlar nomidan kelishuv bitimini kreditorlar yig‘ilishi tomonidan vakolat berilgan shaxs imzolaydi.

Agar kelishuv bitimida uchinchi shaxslar ishtirok etayotgan bo‘lsa, ularning nomidan kelishuv bitimi ushbu shaxslar yoki ularning vakillari tomonidan imzolanadi.

Sharhlanayotgan moddada kelishuv bitimini rasmiylashtirish, uni qarzdor, kreditorlar va uchinchi shaxslar nomidan imzolash vakolati berilgan shaxslar belgilangan.

1. Kelishuv bitimi fuqarolik-huquqiy bitim sifatida yozma shaklda tuziladi. Bu talab uning yuridik kuchga ega bo‘lishi, mazmuni aniq ifodalanishi va sud tomonidan tasdiqlanishi imkonini ta’minlaydi.

Yozma shakl kelishuv bitimining shartlari, taraflarning huquq va majburiyatlari, ijro tartibi hamda muddatlari aniq va ravshan bayon etilishini talab qiladi. Shu orqali keyinchalik uni talqin qilishda yoki ijrosi yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda huquqiy aniqlik ta’minlanadi. Bitimlar tuzishning umumiy tartibi FKning 9-bobi bilan tartibga solinadi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi qarzdor nomidan kelishuv bitimini tuzishga vakolatli shaxslar doirasini belgilaydi.

Qarzdor nomidan kelishuv bitimi tegishincha qarzdor YTT tomonidan, yuridik shaxs bo‘lgan qarzdorning rahbari tomonidan yoki qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda sud boshqaruvchisi tomonidan imzolanadi.

Kreditorlar nomidan esa kelishuv bitimini kreditorlar yig‘ilishi tomonidan tegishli tarzda vakolat berilgan shaxs imzolaydi. Shu orqali kreditorlarning umumiy irodasi rasmiy ravishda ifoda etiladi va bitimning qonuniyligi ta’minlanadi.

Mazkur Qonunning 12-moddasiga muvofiq, kelishuv bitimini tuzish to‘g‘risidagi qaror kreditorlar yig‘ilishining mutlaq vakolatiga kiradi. Kreditorlar yig‘ilishi tomonidan kelishuv bitimini imzolashga vakolat berilgan shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlar kreditorlar yig‘ilishi bayonnomasiga kiritilishi mumkin.

3. Uchinchi shaxslar nomidan kelishuv bitimi ushbu shaxslar yoki ularning vakillari tomonidan imzolanishi belgilangan.

Uchinchi shaxslarning kelishuv bitimi shartlariga roziligi ular zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni ixtiyoriy ravishda qabul qilganligini tasdiqlaydi. Shuningdek, vakil tomonidan imzolangan taqdirda, uning tegishli vakolatga egaligi qonunchilikka muvofiq hujjatlar bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim.

164-modda. Kelishuv bitimining mazmuni

Kelishuv bitimida qarzdor pul majburiyatlarining miqdorlari, ularni bajarish tartibi va muddatlari to‘g‘risidagi va (yoki) voz kechish haqini berish, majburiyatlarni yangilash, qarzni kechib yuborish yo‘li bilan yoxud qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa usullar bilan qarzdorning pul majburiyatlarini tugatish haqidagi qoidalar bo‘lishi kerak.

Kelishuv bitimida:

pul majburiyatlarining bajarilishini kechiktirish yoki ularni bo‘lib-bo‘lib to‘lash to‘g‘risidagi;

qarzdorning talab qilish huquqlaridan boshqa shaxs foydasiga voz kechish haqidagi;

qarzdorning pul majburiyatlarini uchinchi shaxslar tomonidan bajarish to‘g‘risidagi;

qarzlardan siylov berish haqidagi;

soliqlar hamda yig‘imlarni to‘lash muddatlari va tartibini o‘zgartirish to‘g‘risidagi;

kreditorlarning talablarini qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa usullar bilan qanoatlantirish haqidagi shartlar ko‘rsatilishi mumkin.

Kelishuv bitimini tuzish to‘g‘risidagi masala bo‘yicha ovoz berishda ishtirok etmagan, shuningdek, uni tuzishga qarshi ovoz bergan kreditorlar uchun kelishuv bitimining shartlari uni tuzishni yoqlab ovoz bergan, xuddi o‘sha navbatning kreditorlari uchun belgilangan shartlardan yomon bo‘lishi mumkin emas.

Agar kelishuv bitimida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qarzdorning o‘z zimmasiga olgan majburiyatlari bajarilishini ta’minlovchi mol-mulk garovi saqlanib qoladi.

Sharhlanayotgan moddada kelishuv bitimining mazmuniga qo‘yiladigan talablar, kelishuv bitimini tuzish to‘g‘risidagi masala bo‘yicha ovoz berishda ishtirok etmagan, uni tuzishga qarshi ovoz bergan kreditorlarning huquqlari, mol-mulk garovi bilan bog‘liq holatlar belgilangan.

1. Ushbu norma kelishuv bitimida qarzdorning pul majburiyatlarini bajarishning miqdori, tartibi (bir martalik, bo‘lib-bo‘lib to‘lash, natura va boshqalar) va muddatlari, shuningdek, majburiyatlarni tugatish usullari (voz kechish haqi, majburiyatni yangilash, qarzdan voz kechish, qonun hujjatlarida ruxsat etilgan boshqa usullar) to‘g‘risidagi qoidalarni o‘z ichiga olishini talab qiladi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida taraflar foydalanishi mumkin bo‘lgan kelishuv bitimining qo‘shimcha shartlari mavjud: 1) kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash; 2) talab qilish huquqlaridan boshqa shaxs foydasiga voz kechish (sessiya); 3) uchinchi shaxslar tomonidan majburiyatlarning bajarilishi; 4) qarzlardan siylov berish; 5) soliq va yig‘imlarni to‘lash shartlari va tartibiga o‘zgartirishlar; 6) qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan talablarni qanoatlantirishning boshqa usullari.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

51. Qarzdorga qarzni to‘lash muddatini uzaytirish, bo‘lib-bo‘lib to‘lashga ruxsat berish va (yoki) kreditorlarga tegishli qarzni kamaytirish yo‘li bilan moliyaviy yordam ko‘rsatilishi qarzdorning moliyaviy ahvolini to‘lovga qobiliyatsizlikning boshqa taomilida tiklash bo‘yicha chora sifatida emas, balki kelishuv bitimining predmeti sifatida qabul qilinishi lozim.

3. Ushbu normaga ko‘ra, kelishuv bitimi tuzilayotganda ovoz berishda ishtirok etmagan yoki bitimga qarshi ovoz bergan kreditorlarning huquqlari kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunda ular uchun belgilanadigan shartlar shu navbatdagi va kelishuv bitimini qo‘llab-quvvatlagan kreditorlarga nisbatan og‘irroq yoki noqulayroq bo‘lishi mumkin emas. Masalan, bir navbatdagi kreditorlardan biri kelishuv bitimini yoqlab ovoz berib, qarzining 70 foizini olishi belgilangan bo‘lsa, qarshi ovoz bergan boshqa kreditorga 50 foiz to‘lash kabi kamroq shart belgilanishi mumkin emas. Bu norma kreditorlar o‘rtasida tenglik va adolat prinsipini ta’minlashga, ayrim kreditorlarning huquqlari cheklanishining oldini olishga xizmat qiladi.

4. Ushbu normaga ko‘ra, agar kelishuv bitimida alohida tartib belgilanmagan bo‘lsa, qarzdorning majburiyatlari bajarilishini ta’minlash uchun qo‘yilgan garov o‘z kuchini saqlab qoladi, ya’ni kelishuv bitimi tuzilganining o‘zi garov huquqini avtomatik ravishda bekor qilmaydi. Masalan, qarzdor bank oldidagi qarzini ta’minlash uchun binoga garov qo‘ygan bo‘lsa, kelishuv bitimi tuzilganidan keyin ham ushbu garov saqlanib turadi, agar bitimda uni bekor qilish yoki o‘zgartirish nazarda tutilmagan bo‘lsa. Bu norma kreditorning talablari ta’minlanganligini saqlab qolish, qarzdorning majburiyatlarni bajarishini kafolatlash va garov bilan ta’minlangan kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 788-b.

165-modda. Kelishuv bitimini sud tomonidan tasdiqlash shartlari

Kelishuv bitimi faqat xarajatlarning o‘rni qoplanganidan va ushbu Qonun 150-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan talablar hamda ish haqini to‘lash uchun pul mablag‘lari berilishini nazarda tutuvchi to‘lov hujjatlariga doir talablar qanoatlantirilganidan keyin sud tomonidan tasdiqlanishi mumkin.

Qarzdor, tashqi boshqaruvchi yoki tugatish boshqaruvchisi kelishuv bitimi imzolangan paytdan e’tiboran besh kun ichida sudga kelishuv bitimini tasdiqlash to‘g‘risidagi arizani taqdim etishi kerak.

Kelishuv bitimini tasdiqlash haqidagi arizaga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

kelishuv bitimining matni;

kelishuv bitimi tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilgan kreditorlar yig‘ilishining bayonnomasi;

qarzdor kreditorlarining talablari reyestri;

ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan xarajatlar qoplanganligini va talablar qanoatlantirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar;

kelishuv bitimi tuzish haqidagi masala bo‘yicha ovoz berishda ishtirok etmagan yoki kelishuv bitimini tuzishga qarshi ovoz bergan kreditorlarning yozma e’tirozlari.

Kelishuv bitimini tasdiqlash to‘g‘risidagi arizaga qonunchilikka muvofiq boshqa hujjatlar ham ilova qilinishi mumkin.

Sud kelishuv bitimi ko‘rib chiqiladigan sana haqida manfaatdor taraflarni xabardor qiladi. Xabardor qilingan shaxslarning kelmaganligi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishga to‘sqinlik qilmaydi.

Sharhlanayotgan moddada kelishuv bitimini sud tomonidan tasdiqlash shartlari, kelishuv bitimini tasdiqlash to‘g‘risidagi arizani taqdim etish muddatlari va unga ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxati, kelishuv bitimining sud tomonidan ko‘rib chiqilishi tartibi belgilangan.

1. Ushbu normaga ko‘ra, kelishuv bitimini sud tomonidan tasdiqlash ish haqini to‘lash uchun pul mablag‘lari berilishini nazarda tutuvchi to‘lov hujjatlariga doir talablar bilan birga Qonunning 150-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan xarajatlarning qoplanishi va talablarning navbatdan tashqari qanoatlantirilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: 1) sud xarajatlari; 2) sud boshqaruvchilariga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar; 3) joriy kommunal va foydalanish to‘lovlari; 4) qarzdorning mol-mulkini sug‘urta qilish xarajatlari; 5) qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganidan keyin yuzaga kelgan joriy to‘lov majburiyatlari bo‘yicha talablar; 6) qarzdor qaysi fuqaroning hayotiga yoki sog‘lig‘iga zarar yetkazilganligi uchun qonunga muvofiq javobgar bo‘lsa, shu fuqaroning talablari.

2. Ushbu normaga ko‘ra, kelishuv bitimi imzolanganidan keyin qarzdor, tashqi boshqaruvchi yoki tugatish boshqaruvchisi ushbu bitimni qonuniy kuchga kiritish uchun

besh kun ichida sudga uni tasdiqlash haqida ariza kiritishi shart. Masalan, kreditorlar va qarzdor o‘rtasida qarzlarni to‘lash tartibi bo‘yicha kelishuvga erishilib, bitim imzolangan bo‘lsa, u avtomatik tarzda kuchga kirmaydi, balki sud tomonidan tasdiqlanishi talab etiladi. Agar belgilangan muddatda sudga murojaat qilinmasa, kelishuv bitimini rasmiylashtirish jarayoni kechikishi yoki uning ijrosi bilan bog‘liq huquqiy muammolar yuzaga kelishi mumkin. Mazkur norma kelishuv bitimini tezkor ravishda sud nazoratiga taqdim etish va to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonini tartibli yakunlashga xizmat qiladi.

3. Ushbu normaga ko‘ra, kelishuv bitimini sud tasdiqlashi uchun sudga faqat arizaning o‘zi emas, balki kelishuv bitimining qonuniy va asosli tuzilganligini tasdiqlovchi zarur hujjatlar ham taqdim etilishi shart. Xususan, arizaga kelishuv bitimining matni (Qonunning 164-moddasi), uni tuzish haqida qaror qabul qilingan kreditorlar yig‘ilishi bayonnomasi (Qonunning 16-moddasi), kreditorlar talablari reyestri (Qonunning 18-moddasi), belgilangan xarajatlar qoplangani va talablar qanoatlantirilganini tasdiqlovchi hujjatlar, shuningdek, kelishuv bitimiga qarshi bo‘lgan yoki ovoz berishda ishtirok etmagan kreditorlarning yozma e’tirozlari ilova qilinishi lozim. Masalan, sud ushbu hujjatlar orqali kreditorlar huquqlari buzilmaganini va kelishuv bitimi qonun talablariga muvofiq tuzilganini tekshiradi. Mazkur norma kelishuv bitimini shaffof va qonuniy tartibda tasdiqlash, barcha ishtirokchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

4. Ushbu normaga ko‘ra, kelishuv bitimini tasdiqlash haqidagi arizaga qonunda to‘g‘ridan to‘g‘ri sanab o‘tilgan hujjatlardan tashqari ish holatidan kelib chiqib qonunchilikka muvofiq boshqa qo‘shimcha hujjatlar ham ilova qilinishi mumkin. Masalan, sud qarzdorning moliyaviy ahvolini, kreditorlar talablarining asosliligini yoki kelishuv bitimining bajarilish imkoniyatini aniqlash uchun qo‘shimcha buxgalteriya hujjatlari, auditorlik xulosalari yoki kafolat xatlarini talab qilishi mumkin. Bu norma sudga kelishuv bitimini har tomonlama va xolis baholash imkonini berish, shuningdek, kreditorlar va qarzdor manfaatlarini to‘liq himoya qilishga xizmat qiladi.

5. Ushbu normaga ko‘ra, sud kelishuv bitimini ko‘rib chiqish vaqti va joyi haqida ishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslarni oldindan xabardor qilishi shart, ammo ularning sud majlisiga kelmasligi ishni ko‘rib chiqishni to‘xtatib qo‘ymaydi. Masalan, kreditorlardan biri yoki qarzdor vakili sud majlisiga kelmagan taqdirda ham, agar ular tegishli tartibda xabardor qilingan bo‘lsa, sud kelishuv bitimini ko‘rib chiqishni davom ettiradi. Bu norma ish yuritishning sun’iy ravishda cho‘zilishiga yo‘l qo‘ymaslik, sud jarayonining tezkorligi va samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 789-b.

166-modda. Kelishuv bitimini sud tomonidan tasdiqlash oqibatlari

Kuzatuv, sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomillari jarayonida sud tomonidan kelishuv bitimining tasdiqlanishi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishning tugatilishi uchun asos bo‘ladi.

Kelishuv bitimi sud tomonidan tasdiqlangan kundan e’tiboran sud boshqaruvchilarining vakolatlari tugatiladi. Qarzdor yuridik shaxsning tashqi

boshqaruvchisi va tugatish boshqaruvchisi qarzdorning rahbari saylanguniga (tayinlanguniga) qadar o‘z vakolatlarini bajarishni davom ettiradi.

Kelishuv bitimi tasdiqlangan kundan e’tiboran tegishincha qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor yoki qarzdorning rahbari, tashqi boshqaruvchi yoki tugatish boshqaruvchisi yoxud uchinchi shaxs kreditorlar oldidagi qarzni to‘lashga kirishadi.

Sharhlanayotgan moddada kelishuv bitimini sud tomonidan tasdiqlash oqibatlari, uning sud boshqaruvchilarining vakolatlariga bo‘lgan huquqiy ta’siri, qarzdor yoki uchinchi shaxs kreditorlar oldidagi qarzni to‘lashga kirishish payti belgilangan.

1. Ushbu normaga ko‘ra, agar kuzatuv, sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv yoki tugatishga doir ish yuritish bosqichlarida kreditorlar va qarzdor o‘rtasida tuzilgan kelishuv bitimi sud tomonidan tasdiqlansa, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish tugatiladi. Masalan, tashqi boshqaruv jarayonida qarzdor va kreditorlar qarzlarni to‘lash tartibi bo‘yicha kelishuvga erishib, sud ushbu kelishuv bitimini tasdiqlasa, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonini davom ettirishga ehtiyoj qolmaydi. Bu norma taraflarga nizoni o‘zaro kelishuv asosida hal qilish imkonini berish, qarzdorning faoliyatini saqlab qolish va sud tartib-taomillarini qisqartirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

50. Kelishuv bitimi tuzilgan taqdirda, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining bajarilishi, shuningdek, kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga doir moratoriyning amal qilishi tugatiladi (Qonun 225-moddasining to‘rtinchi qismi).

Agar kuzatuv taomilida qarzdor – yuridik shaxs boshqaruv organining vakolatlari sudning ajrimi bilan tugatilgan va muvaqqat boshqaruvchining zimmasiga yuklatilgan bo‘lsa, qarzdor nomidan kelishuv bitimi muvaqqat boshqaruvchi tomonidan imzolanadi.

Tugatishga doir ish yuritish jarayonida tuzilgan kelishuv bitimi tasdiqlanganda, sudning ajrimida Qonun 161-moddasining beshinchi qismiga asosan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi hal qiluv qarori ijro etilmasligi, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish esa IPK 110-moddasining 7-bandiga asosan tugatilishi ko‘rsatilishi lozim.

2. Ushbu normaga ko‘ra, kelishuv bitimi sud tomonidan tasdiqlangan paytdan boshlab sud boshqaruvchilarining vakolatlari tugaydi, chunki to‘lovga qobiliyatsizlik

jarayoni yakunlangan hisoblanadi. Biroq tashqi boshqaruvchi yoki tugatish boshqaruvchisi qarzdor yuridik shaxsning yangi rahbari saylanguniga yoki tayinlanguniga qadar o‘z vazifalarini vaqtincha bajarib turadi. Masalan, kelishuv bitimi tasdiqlanganidan keyin korxonada hali yangi direktor tayinlanmagan bo‘lsa, tashqi boshqaruvchi korxona faoliyati to‘xtab qolmasligi uchun boshqaruvni davom ettiradi. Bu norma boshqaruvda uzilish yuzaga kelmasligini ta’minlash, ishlar va hujjatlarni tartibli topshirish hamda qarzdor faoliyatining barqarorligini saqlashga xizmat qiladi.

3. Ushbu normaga ko‘ra, kelishuv bitimi sud tomonidan tasdiqlangan kundan qarzdor, tashqi boshqaruvchi, tugatish boshqaruvchisi yoki zimmasiga majburiyat olgan uchinchi shaxs kreditorlar oldidagi qarzlarni kelishuv bitimida belgilangan tartib va shartlar asosida to‘lashni boshlashi shart. Masalan, kelishuv bitimiga muvofiq qarzdor qarzlarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash majburiyatini olgan bo‘lsa, sud tasdig‘idan keyin ushbu to‘lovlar amalga oshirila boshlanadi. Agar qarzni uchinchi shaxs qoplashni zimmasiga olgan bo‘lsa, u ham shu kundan boshlab majburiyatlarni bajarishga kirishadi. Mazkur norma kelishuv bitimining amaliy ijrosini ta’minlash va kreditorlar talablarini qondirish jarayonini boshlashga xizmat qiladi.

167-modda. Kelishuv bitimini tasdiqlashni sud tomonidan rad etish

Ushbu Qonun 165-moddasining birinchi qismida ko‘rsatilgan xarajatlarning o‘rnini qoplashga va talablarni qanoatlantirishga doir majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, sud kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etadi.

Sud quyidagi hollarda ham kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etadi:

kelishuv bitimini tuzishning ushbu Qonunda belgilangan tartibi buzilganda;

kelishuv bitimining shakliga rioya etilmaganda;

uchinchi shaxslarning huquqlari buzilganda;

kelishuv bitimining shartlari qonunchilikka zid bo‘lganda.

Sud kelishuv bitimini tasdiqlash rad etilganligi to‘g‘risida ajrim chiqaradi, ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Sharhlanayotgan moddada sudning kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etishi asos va holatlari, kelishuv bitimini tasdiqlash rad etilganligi to‘g‘risida ajrim chiqarish tartibi va oqibatlari belgilangan.

1. Ushbu normaga ko‘ra, agar kelishuv bitimi tuzishdan oldin qonunda nazarda tutilgan sud xarajatlari, sud boshqaruvchisi haqi va boshqa majburiy to‘lovlar qoplanmagan yoki belgilangan talablar qanoatlantirilmagan bo‘lsa, sud kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etadi. Masalan, qarzdor kreditorlar bilan kelishuvga erishgan bo‘lsa-da, ish yuritish xarajatlarini to‘lamagan yoki birinchi navbatda qondirilishi shart bo‘lgan talablarni bajarmagan bo‘lsa, sud bitimni tasdiqlamaydi. Bu norma kelishuv bitimining qonun talablariga muvofiq tuzilishini ta’minlash, majburiy to‘lovlar va imtiyozli kreditorlar huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

50. Sudlarning e’tibori shunga qaratilsinki, ish haqi bo‘yicha qarzning mavjudligi sud tomonidan kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etish uchun asos bo‘ladi.

2. Qonun sud kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etadigan boshqa holatlar ro‘yxatini belgilaydi. Ushbu holatlarga kelishuv bitimini tuzish tartibini buzish (masalan, qarzdorning mol-mulki garovi bilan ta’minlangan majburiyatlar bo‘yicha ovoz berishga barcha kreditorlarni jalb qilmaslik), kelishuv bitimi shakliga rioya qilmaslik (yozma shaklning mavjud emasligi), uchinchi shaxslarning huquqlarini buzish (kelishuv bitimining shartlari unda ishtirok etmagan taraflarning huquq va majburiyatlariga ta’sir qilsa), kelishuv bitimining shartlari qonunchilikka zid bo‘lishi (masalan, valyutani tartibga solish qonunchiligi talablariga) kabi holatlar kiritilgan.

3. Ushbu normaga ko‘ra, agar sud kelishuv bitimini qonun talablariga muvofiq emas deb topsa, uni tasdiqlashni rad etish haqida ajrim chiqaradi. Bunday ajrim ustidan manfaatdor shaxslar, jumladan, qarzdor yoki kreditorlar yuqori turuvchi sudga shikoyat berish yoki prokuror protest keltirish huquqiga ega. Masalan, sud kelishuv bitimi kreditorlar huquqlarini buzadi yoki majburiy talablar bajarilmagan deb hisoblasa, bitimni tasdiqlamaydi va bu haqida ajrim chiqaradi. Ushbu norma sud qarorlarining qonuniyligi ustidan nazoratni ta’minlash va taraflarga o‘z huquqlarini himoya qilish imkonini beradi.

168-modda. Kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etish oqibatlari

Sud tomonidan kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etish haqida ajrim chiqarilgan taqdirda bitim tuzilmagan deb hisoblanadi.

Sud tomonidan kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etish to‘g‘risidagi ajrimning chiqarilishi yangi kelishuv bitimini tuzishga to‘sqinlik qilmaydi.

Sharhlanayotgan moddada sud kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etgan taqdirda bitim tuzilmagan deb hisoblanishi, biroq bu holat taraflarning keyinchalik yangi kelishuv bitimi tuzish huquqini cheklamasligi belgilangan.

1. Sudning kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etishining asosiy oqibati bitim tuzilmagan deb hisoblanishidir. Kelishuv bitimini tuzish paytida taraflar kutgan barcha moddiy va protsessual oqibatlar amalga oshmay qoladi. Qarzdor va kreditorlar kelishuv bitimi tuzilgan paytdagi holatida, hech qanday o‘zgarishlarsiz qoladi. Sudning kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etishining protsessual xususiyati shundan iboratki, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish davom ettiriladi.

2. Ushbu normaga ko‘ra, sudning kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etishi taraflarni keyinchalik yangi kelishuv bitimi tuzish huquqidan mahrum qilmaydi. Bunda qarzdor va kreditorlar sud rad etgan kelishuv bitimidagi kamchiliklarni bartaraf etib,

qonun talablariga mos bo‘lgan yangi kelishuv bitimi tuzishlari mumkin. Masalan, sud avvalgi kelishuv bitimini ayrim kreditorlar huquqlari buzilgani yoki majburiy talablar bajarilmagani uchun tasdiqlamagan bo‘lsa, taraflar ushbu holatlarni tuzatib, qaytadan kelishuv bitimi tuzishga haqli bo‘ladi.

169-modda. Kelishuv bitimining haqiqiy emasligi

Qarzdorning, kreditorning, shuningdek, huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan shaxslarning arizasiga ko‘ra kelishuv bitimi quyidagi hollarda sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin:

agar kelishuv bitimi ayrim kreditorlar uchun afzalliklar berilishini yoki ayrim kreditorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishini nazarda tutuvchi shartlarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa;

bitimlar haqiqiy emasligining qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa asoslari mavjud bo‘lganda.

Sharhlanayotgan moddada kelishuv bitimi ayrim kreditorlarga asossiz afzallik bergan, boshqalarning huquq va manfaatlarini kamsitgan yoki qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkinligi belgilangan.

Mazkur modda kelishuv bitimini haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida sudga ariza berishi mumkin bo‘lgan shaxslar doirasini belgilaydi. Bu shaxslarga qarzdor, kreditor, huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan shaxslar kiradi.

Kelishuv bitimini haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi da’vo bo‘yicha ishni sudda ko‘rishga tayyorlash paytida sud bitimning barcha taraflari va boshqa manfaatdor shaxslarni ishga jalb qilish masalasini ko‘rib chiqishi lozim.

Kelishuv bitimi fuqarolik-huquqiy bitim sifatida FKda nazarda tutilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topishning umumiy qoidalariga bo‘ysunadi. Kelishuv bitimini haqiqiy emas deb topishning o‘ziga xos asoslari qatorida kelishuv bitimida ayrim kreditorlar uchun afzalliklarni nazarda tutuvchi yoki ayrim kreditorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsituvchi shartlar mavjud bo‘lgan holatlar keltirilgan. Boshqacha aytganda, agar kelishuv bitimi mazmunida kreditorlar tengligi prinsipiga zid ravishda ayrim kreditorlarga asossiz afzalliklar berilishi, boshqa kreditorlarning esa huquq va qonuniy manfaatlari kamsitilishi nazarda tutilgan bo‘lsa, da’vogarning da’vo arizasi asosida kelishuv bitimi haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Bunda, ayniqsa, bir xil navbatdagi kreditorlar o‘rtasida asossiz farq qo‘yilishi yoki ayrim talablarning ustuvor qondirilishi nazarda tutilgan holatlar sud tomonidan sinchiklab tekshiriladi.

Ushbu moddada keltirilgan kelishuv bitimining haqiqiy emaslik hollari ro‘yxati tugal emas, balki qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa asoslari ham mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan, yuridik oqibatlar tug‘dirish niyati bo‘lmagan holda nomigagina (qalbaki bitim) yoki boshqa bitimni niqoblash maqsadida (ko‘zbo‘yamachilik bitimi) tuzilgan kelishuv bitimi FKning 124-moddasiga asosan haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Sud tomonidan mazkur kelishuv bitimini haqiqiy emas deb topishga doir nizolar to‘lovga qobiliyatsizlik ishi doirasida emas, mustaqil iqtisodiy nizo sifatida ko‘rib chiqiladi va ishning natijasi bo‘yicha da’vo talabi qanoatlantirilganda hal qiluv qarori qabul qilinadi. Ya’ni agar qarzdor, kreditor yoki huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan boshqa shaxsning arizasi asosli deb topilsa, sud kelishuv bitimini to‘liq yoki qisman haqiqiy emas deb topish haqida hal qiluv qarori qabul qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 789-b.

170-modda. Kelishuv bitimini haqiqiy emas deb topish oqibatlari

Kelishuv bitimining haqiqiy emas deb topilishi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni qayta tiklash uchun asos bo‘ladi. Sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni qayta tiklash haqida ajrim chiqaradi, ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Kelishuv bitimi haqiqiy emas deb topilgan taqdirda kreditorlarning qaysi talablari bo‘yicha ularga tegishli bo‘lgan to‘lovlarni kechiktirish va (yoki) bo‘lib-bo‘lib to‘lash yoki qarzlardan siylov berish amalga oshirilgan bo‘lsa, o‘sha talablari ularning qanoatlantirilmagan qismi bo‘yicha tiklanadi.

Kelishuv bitimining haqiqiy emas deb topilishi qarzdorga qoplangan xarajatlarni qaytarish va ushbu Qonun 165-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan talablarni qanoatlantirish majburiyatini keltirib chiqarmaydi.

Ushbu modda bilan tartibga solinmagan qismda bitimlar haqiqiy emasligining qonunchilikda nazarda tutilgan oqibatlari yuzaga keladi.

Kelishuv bitimi haqiqiy emas deb topilgan taqdirda qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritishni qayta tiklash haqidagi xabar sud tomonidan ommaviy axborot vositalarida qarzdorning mol-mulki hisobidan ushbu Qonunning 53- va 54-moddalarida nazarda tutilgan tartibda e’lon qilinadi.

Kreditorlarning kelishuv bitimi shartlari asosida hisob-kitob qilib bo‘lingan, ushbu Qonunga zid bo‘lmagan talablari qanoatlantirilgan deb hisoblanadi. Qaysi kreditorlarning talablari kelishuv bitimining muayyan kreditorlarning ustunligini yoki boshqa kreditorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishini nazarda tutuvchi shartlariga muvofiq qanoatlantirilgan bo‘lsa, ushbu kreditorlar kelishuv bitimini bajarish tartibida olingan barcha narsalarni qaytarishi shart. Bunda mazkur talablar kreditorlarning talablari reyestrida tiklanadi.

Sharhlanayotgan moddada kelishuv bitimini haqiqiy emas deb topish oqibatlari, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni qayta tiklash, u haqidagi xabarni sud tomonidan ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish, kreditorlar kelishuv bitimini bajarish tartibida olingan barcha narsalarni qaytarish majburiyati belgilangan.

1. Ushbu normaga ko‘ra, agar sud kelishuv bitimini haqiqiy emas deb topsa, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qaytadan davom ettiriladi, chunki kelishuv bitimi asosida ishni tugatish uchun huquqiy asos qolmaydi. Masalan, kelishuv bitimi ayrim kreditorlarga noqonuniy afzallik bergani aniqlansa va sud uni haqiqiy emas deb top-

sa, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish jarayoni qayta tiklanadi. Bunday holda sud ish yuritishni qayta tiklash haqida ajrim chiqaradi va ushbu ajrim ustidan manfaatdor shaxslar shikoyat berish yoki prokuror protest keltirish huquqiga ega bo‘ladi. Mazkur norma kreditorlar huquqlarini himoya qilish, noqonuniy kelishuvlarning huquqiy oqibatlarini bartaraf etish va to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonini qonun talablari asosida davom ettirishga xizmat qiladi.

2. Agar kelishuv bitimi haqiqiy emas deb topilsa, kreditorlarning qaysi talablari bo‘yicha ularga tegishli bo‘lgan to‘lovlarni kechiktirish va (yoki) bo‘lib-bo‘lib to‘lash yoki qarzlardan siylov berish amalga oshirilgan bo‘lsa, o‘sha talablari ularning qanoatlantirilmagan qismi bo‘yicha tiklanadi. Shu bois kreditorlar tomonidan oldindan qabul qilingan to‘lovlar yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash amaliyotlari hisobga olingan holda ularning qanoatlantirilmagan qismi bo‘yicha huquqi tiklanadi. Masalan, agar kreditorga 100 mln so‘m to‘lash mo‘ljallangan bo‘lib, kelishuv asosida 60 mln so‘m olgan bo‘lsa, bitim haqiqiy emas deb topilganidan so‘ng unga qolgan 40 mln so‘mlik talabi tiklanadi.

3. Kelishuv bitimi haqiqiy emas deb topilgan taqdirda qarzdorga qoplangan xarajatlarni qaytarish va Qonun 165-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan talablarni qanoatlantirish majburiyatini keltirib chiqarmaydi. Ya’ni bitim haqiqiy emas deb topilganligi qarzdorga qoplangan xarajatlarni qaytarish yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa talablarni qanoatlantirish majburiyatini avtomatik ravishda yuklamaydi. Qarzdor oldindan qilgan xarajatlarni sud avtomatik ravishda qoplashga majburlamasligi bois, alohida nizo sifatida ariza va huquqiy asos talabiga ko‘ra nizolashish mumkin bo‘ladi.

4. Bitim haqiqiy emasligining oqibatlariga oid umumiy qoidalar FKning 114-moddasida belgilangan. Unga ko‘ra, haqiqiy bo‘lmagan bitim uning haqiqiy emasligi bilan bog‘liq bo‘lgan oqibatlardan tashqari boshqa yuridik oqibatlarga olib kelmaydi va u tuzilgan paytidan boshlab haqiqiy emasdir.

Bitim haqiqiy bo‘lmaganida taraflarning har biri boshqasiga bitim bo‘yicha olgan hamma narsani qaytarib berishi, olingan narsani aslicha (shu jumladan, olingan narsa mol-mulkdan foydalanish, bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmat bilan ifodalanganda) qaytarib berish mumkin bo‘lmaganida esa, agar bitim haqiqiy emasligining boshqa oqibatlari qonunda nazarda tutilgan bo‘lmasa, uning qiymatini pul bilan to‘lashi shart.

Manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, ushbu bitimni tuzish natijasida olingan foyda bitim bo‘yicha olingan hamma narsani qaytarib berish to‘g‘risida talab qo‘yilmagan holda sud tartibida davlat daromadiga o‘tkaziladi. Bunday bitimni ijro etish bilan bog‘liq xarajatlarning o‘rni manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ygan shaxsning hisobidan qoplanadi.

Korrupsiyaga yo‘l qo‘yilgan holda tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, bunday bitimni tuzish natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararning o‘rni aybdor shaxslar tomonidan sud tartibida qoplanadi.

Shuningdek, sudlar ushbu toifadagi ishlarni ko‘rishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 2014-yil 28-noyabrdagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi fuqarolik qonunchiligi normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 269-son qaroridagi tushuntirishlarni e’tiborga olishi tavsiya etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 2014-yil 28-noyabrdagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi fuqarolik qonunchiligi normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 269-son qarori

20. Haqiqiy bo‘lmagan bitim uning haqiqiy emasligi bilan bog‘liq bo‘lgan oqibatlardan tashqari boshqa yuridik oqibatlarga olib kelmasligini inobatga olib sudlar nazarda tutishlari kerakki, bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llashda taraflar bitim tuzishdan oldingi holatga keltirilishlari lozim.

21. Bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash to‘g‘risidagi talab nizoli bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi talab bilan yoki o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi talab bilan birga yoxud alohida da’vo ko‘rinishida bildirilishi mumkin.

Bunda nizoli bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini ushbu bitimni haqiqiy emas deb topish haqidagi sudning hal qiluv qarori mavjud bo‘lgan taqdirdagina qo‘llash mumkin.

22. O‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimni haqiqiy emasligi oqibatlari da’vogarning o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi talabi qanoatlantirilganidan keyin ham, bunday qaror mavjud bo‘lmaganda ham qo‘llanilishi mumkin. Bunday qaror mavjud bo‘lmaganda, sudlar bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llashni qarorning asoslantiruvchi qismida o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitim fakti mavjudligi to‘g‘risidagi xulosalari bilan asoslab berishlari lozim.

23. Sudlarning e’tibori shunga qaratilsinki, o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini o‘z tashabbusi bilan qo‘llash sudning majburiyati emas, balki huquqidir. Bunda inobatga olish lozimki, nizoli bitimlarga nisbatan sudlarga bunday huquq berilmagan.

5. Ushbu normaga ko‘ra, agar kelishuv bitimi sud tomonidan haqiqiy emas deb topilib, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qayta tiklansa, bu haqidagi xabar sud tomonidan ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinishi shart. Bunda e’lon qilish bilan bog‘liq xarajatlar qarzdorning mol-mulki hisobidan qoplanadi va ushbu jarayon qonunning 53- va 54-moddalarida belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi. Masalan, kreditorlar va boshqa manfaatdor shaxslar ish yuritish qayta boshlanganidan xabardor bo‘lishi uchun sud rasmiy e’lon beradi. Mazkur norma to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining oshkoraligini ta’minlash va barcha manfaatdor shaxslarni o‘z vaqtida xabardor qilishga xizmat qiladi.

6. Kelishuv bitimi shartlari bo‘yicha hisob-kitoblar amalga oshirilgan kreditorlarning ushbu Qonunga zid bo‘lmagan talablari qanoatlantirilgan deb hisoblanadi. Biroq agar kelishuv bitimi shartlariga muvofiq talablari qanoatlantirilgan kreditorlar o‘z imtiyozlarini nazarda tutuvchi yoki boshqa kreditorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitilishini nazarda tutuvchi shartlariga muvofiq qanoatlantirilgan bo‘lsa, ular kelishuv bitimi bo‘yicha olingan barcha narsalarni qaytarishlari shart. Bunday holat dastavval ushbu Qonunning 169-moddasiga muvofiq kelishuv bitimini haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunda ushbu talablar kreditorlarning talablari reyestrida tiklanadi.

171-modda. Kelishuv bitimini bajarmaslik oqibatlari

Kelishuv bitimi qarzdor tomonidan bajarilmagan taqdirda, kreditorlar kelishuv bitimida nazarda tutilgan hajmda talablar taqdim etishga haqli.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida yangi ish qo‘zg‘atilgan taqdirda, kelishuv bitimi qaysi kreditorlarga nisbatan tuzilgan bo‘lsa, o‘sha kreditorlar talablarining hajmi kelishuv bitimida nazarda tutilgan shartlariga ko‘ra aniqlanadi.

Sharhlanayotgan moddada kelishuv bitimini qarzdor tomonidan bajarmaslik oqibatlari, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida yangi ish qo‘zg‘atilgan taqdirda kreditorlar talablarining hajmini aniqlash tartibi belgilangan.

1. Ushbu normaga ko‘ra, agar qarzdor kelishuv bitimida zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmasa, kreditorlar kelishuv bitimida belgilangan miqdor va shartlar asosida o‘z talablarini qayta qo‘yish huquqiga ega bo‘lishadi. Masalan, qarzdor qarzni bo‘lib-bo‘lib to‘lash majburiyatini olgan bo‘lsa-da, belgilangan muddatlarda to‘lovlarni amalga oshirmasa, kreditorlar bitimda ko‘rsatilgan summada qarzni undirishni talab qilishlari mumkin. Bu norma kelishuv bitimining majburiyligini ta’minlash, qarzdorni o‘z majburiyatlarini vijdonan bajarishga undash va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

2. Ushbu normaga ko‘ra, agar qarzdorga nisbatan keyinchalik yana to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida yangi ish qo‘zg‘atilsa, avval tuzilgan kelishuv bitimi ishtirokchisi bo‘lgan kreditorlarning talablari o‘sha bitimda belgilangan shartlar asosida hisoblanadi. Masalan, kelishuv bitimiga ko‘ra kreditor qarzning ma’lum qismi kechirilishiga yoki uni bo‘lib-bo‘lib to‘lashga rozi bo‘lgan bo‘lsa, yangi ish qo‘zg‘atilganda uning talabi aynan shu shartlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bu norma kelishuv bitimi shartlarining barqarorligini saqlash, kreditorlar va qarzdor o‘rtasida erishilgan kelishuvga rioya etilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

50. Kelishuv bitimining shartlari buzilganligi munosabati bilan jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi haqidagi ish yuritish qayta tiklangan taqdirda, jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili joriy etiladi (Qonun 225-moddasining oltinchi qismi).

Qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida yangi ish qo‘zg‘atilgan taqdirda, kelishuv bitimi qaysi kreditorlarga nisbatan tuzilgan bo‘lsa, o‘sha kreditorlar talablarining hajmi kelishuv bitimida nazarda tutilgan shartlariga ko‘ra aniqlanadi.

13-BOB. QARZDOR YURIDIK SHAXSLAR AYRIM TOIFALARI TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

172-modda. Shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxona to‘lovga qobiliyatsizligining o‘ziga xos xususiyatlari

Shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxonaning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish ushbu Qonunning 5-moddasida nazarda tutilgan to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud bo‘lgan taqdirda sud tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin.

Shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxonaning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish ko‘rilayotganda tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi va (yoki) tegishli vazirlik, idora, xo‘jalik boshqaruvi organi ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida e’tirof etiladi.

Korxonalarni shaharni tashkil etuvchi hamda ularga tenglashtirilgan korxonalar jumlasiga kiritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Sharhlanayotgan moddada shaharni tashkil etuvchi yoki unga tenglashtirilgan korxonaning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish sud tomonidan qo‘zg‘atilib, bu jarayonda mahalliy davlat hokimiyati organi va (yoki) tegishli vazirlik, idora, xo‘jalik boshqaruvi organi ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida jalb etilishi hamda bunday korxonalar ro‘yxati Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda aniqlanishi qayd qilingan.

1. Shaharni tashkil etuvchi korxona va unga tenglashtirilgan korxona deganda xodimlari, ularning oila a’zolarini ham qo‘shib hisoblaganda tegishli aholi punkti aholisining kamida yarmini tashkil etuvchi yoki xodimlarining soni kamida uch ming kishi bo‘lgan yoxud davlatning mudofaa qobiliyati va xavfsizligi saqlab turilishini ta’minlaydigan, shuningdek, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yoki tabiiy monopoliyalar subyekti bo‘lgan yuridik shaxs tushuniladi.

Shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxonalarning to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari quyidagilardan iborat: a) vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizlik – agar tegishli majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e’tiboran qarzdor tomonidan olti oy ichida bajarilmasa, sudga murojaat etish sanasida qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishga qodir emasligi; b) doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik – agar sudga ariza berish sanasidagi va ariza berilgan yilning boshidagi hisobot davrida,

agarda ariza yilning birinchi choragida berilgan bo‘lsa, o‘tgan yilning boshidagi hisobot davrida qarzdorning majburiyatlari uning aktivlari qiymatidan oshib ketgan bo‘lsa.

Yuqoridagi alomatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, sud tomonidan shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxonaning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilishi mumkin.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, ya’ni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, shahar, tuman hokimliklari, shuningdek, vazirlik (masalan, Transport vazirligi), idora (masalan, Telekommunikatsiyalarni tartibga solish agentligi), xo‘jalik boshqaruv organi (masalan, «O‘zavtosanoat» aksiyadorlik jamiyati) shaharni tashkil etuvchi yoki unga tenglashtirilgan korxonaning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishi ko‘rilayotganda ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida e’tirof etilishi belgilangan. Chunki mazkur organlar korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini hisobga olgan holda sudga zarur ma’lumot va xulosalarni taqdim etib, qaror qabul qilish jarayonida davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qiladi.

Xususan, bu jarayonda mahalliy davlat hokimiyati organining ishtirok etishi ijtimoiy barqarorlik, ish o‘rinlarini saqlash, shahar infratuzilmasiga zarar yetmaslik maqsadlariga xizmat qilsa, vazirlik va idoralar ishtiroki korxona ko‘pincha muayyan tarmoq (energetika, transport, kommunal xo‘jalik) bilan bevosita bog‘liq ekanligidadir.

3. Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 30-apreldagi 107-son qarori bilan «Korxonalarni shaharni tashkil etuvchi korxonalar va ularga tenglashtirilgan korxonalar jumlasiga kiritish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom tasdiqlangan. Ushbu Nizomning 3-bandiga muvofiq, shaharni tashkil etuvchi korxonalar va ularga tenglashtirilgan korxonalar jumlasiga quyidagi mezonlardan bittasiga javob beradigan yuridik shaxslar kiritiladi: a) korxonaning xodimlari soni ularning oila a’zolarini ham qo‘shib hisoblaganda tegishli aholi punkti aholisining kamida yarmini tashkil qiladi; b) korxona xodimlarining soni kamida uch ming kishini tashkil qiladi; d) korxona davlatning mudofaa qobiliyatini va xavfsizligini saqlashni ta’minlaydi; e) korxona tabiiy monopoliya subyekti hisoblanadi; f) strategik ahamiyatga ega bo‘lgan korxona.

Xususan, *tabiiy monopoliya subyekti* tabiiy monopoliya sharoitlarida tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish bo‘yicha faoliyatni asosiy faoliyat turi sifatida amalga oshiradigan xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi. Qarang: Xalqaro sharh. 791-b.

173-modda. Shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxonaning tashqi boshqaruvi

Shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxonaning tashqi boshqaruvi sud tomonidan kreditorlar yig‘ilishining qarori asosida, bunday qaror bo‘lmaganda esa, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organining yoki vazirlikning, idoraning va xo‘jalik boshqaruvi organining iltimosnomasiga ko‘ra ham, basharti ular qarzdorning majburiyatlari yuzasidan ta’minot bergan bo‘lsa, joriy etilishi mumkin.

Shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxonaning tashqi boshqaruvi rejasi u kreditorlar yig‘ilishiga taqdim etilguniga qadar mahalliy davlat hokimiyati organi bilan, davlat mudofaa buyurtmasini amalga oshiruvchi korxonalar bo‘yicha esa vazirlik, idora va xo‘jalik boshqaruvi organi bilan kelishilgan bo‘lishi kerak.

Tegishincha mahalliy davlat hokimiyati organining hamda vazirlikning, idoraning, xo‘jalik boshqaruvi organining iltimosnomasiga ko‘ra ular tomonidan qarzdorning majburiyatlarni bajarishi ta’minoti ta’minlangan taqdirda, shu jumladan, davlat kafolatlarini berish yo‘li bilan ta’minlanganda, sud qarzdorning sud sanatsiyasi tartib-taomiliga o‘tishi to‘g‘risida, agar ilgari bunday tartib-taomil qarzdorga nisbatan qo‘llanilmagan bo‘lsa, qaror qabul qilishi mumkin.

Sharhlanayotgan modda shaharni tashkil etuvchi yoki unga tenglashtirilgan korxonaga tashqi boshqaruv joriy etish kreditorlar yig‘ilishi qarori yoxud mahalliy hokimiyat va tegishli vazirlik-idoralar iltimosnomasi asosida amalga oshirilishi, tashqi boshqaruv rejasi ushbu organlar bilan oldindan kelishilishi hamda ular qarzdor majburiyatlarini ta’minlagan hollarda sud tomonidan korxonani sud sanatsiyasiga o‘tkazish mumkinligini ifoda etadi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismi shaharni tashkil etuvchi va unga tenglashtirilgan korxonalarning strategik ahamiyatini inobatga olgan holda tashqi boshqaruvni joriy etishning maxsus mexanizmlarini belgilaydi.

Birinchidan, tashqi boshqaruvning joriy etilishi umumiy qoida sifatida kreditorlar yig‘ilishining qaroriga bog‘langan. Bu to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida kreditorlar manfaatlari ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan an’anaviy qoida hisoblanadi.

Ikkinchidan, agar kreditorlar bunday qarorni qabul qilmagan bo‘lsa, ushbu norma maxsus istisno sifatida mahalliy davlat hokimiyati organi yoki tegishli vazirlik, idoralar, xo‘jalik boshqaruvi organining iltimosnomasiga asosan ham tashqi boshqaruv joriy etilishi mumkinligini belgilaydi. Bu holat ushbu korxonalarning shahar iqtisodiyoti, infratuzilmasi va aholi bandligi uchun katta ahamiyatga egaligi bilan izohlanadi.

Uchinchidan, bunday imtiyoz faqat bitta shart bilan beriladi: ushbu organlar qarzdorning majburiyatlari yuzasidan ta’minot (kafolat, kafillik, subsidiya yoki boshqa moliyaviy yordam) bergan bo‘lishi kerak**.** Ya’ni davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari korxonani saqlab qolish uchun moliyaviy javobgarlikka kirgan taqdirdagina ular tashabbusi bilan tashqi boshqaruv qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda**,** ushbu norma tashqi boshqaruvni joriy etishda kreditorlar manfaatlari, korxona faoliyatining strategik ahamiyati va davlatning moliyaviy mas’uliyati o‘rtasida muvozanatni belgilaydi hamda iqtisodiy xavfsizlikka doir maxsus tartibni nazarda tutadi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi shaharni tashkil etuvchi va unga tenglashtirilgan korxonalar uchun tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlashda odatiy to‘lovga qobiliyatsizlik tartibidan muhim farq qiluvchi normani joriy qiladi.

Birinchidan, tashqi boshqaruv rejasi kreditorlar yig‘ilishiga taqdim etilishidan oldin mahalliy davlat hokimiyati organi bilan majburiy ravishda kelishilishi shart. Bu talab bunday korxonaning faoliyati to‘xtashi yoki o‘zgarishi shahar infratuzilmasi, aholining bandligi va iqtisodiy barqarorlikka jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi bilan bog‘liq. Davlat hokimiyati organi reja ijtimoiy-iqtisodiy xavflarni qanday bartaraf etishini baholaydi.

Ikkinchidan, agar korxona davlat mudofaa buyurtmasini bajaradigan strategik subyekt bo‘lsa, korxonaning tashqi boshqaruvi rejasi nafaqat mahalliy davlat hokimiyati organi bilan, balki vazirlik, idora yoki xo‘jalik boshqaruvi organi bilan ham kelishilgan bo‘lishi lozim. Bu mudofaa buyurtmasi – davlat xavfsizligi va mudofaa salohiyatiga daxldor jarayon bo‘lgani uchun tashqi boshqaruv rejasining har bir bandi yuqori organlar tomonidan tahlil qilinishi zarur.

Uchinchidan, ushbu norma korxonaning tashqi boshqaruvi rejasini ishlab chiqishda strategik sektorlarda davlat ishtirokini kuchaytiradi va kreditorlar manfaatlari bilan davlatning xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikka oid manfaatlari o‘rtasida muvozanatni ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu norma korxonaning tashqi boshqaruvi rejasini faqat qarzdor va kreditorlar manfaatlaridan kelib chiqib emas, balki shahar, hudud va davlat xavfsizligi manfaatlarini inobatga olgan holda shakllantirishni talab etadi.

3. Ushbu norma shaharni tashkil etuvchi va unga tenglashtirilgan korxonalarni saqlab qolishga qaratilgan davlat kafolatiga asoslangan maxsus huquqiy mexanizmni belgilaydi.

Birinchidan, mahalliy davlat hokimiyati organi yoki tegishli vazirlik, idora, xo‘jalik boshqaruvi organi qarzdor korxonaning majburiyatlarini bajarishini ta’minlab bergan, ya’ni ular muayyan shaklda (kafolat, moliyaviy yordam, subsidiya, kafillik va boshqalar) korxonaning qarzlarini qoplashni o‘z zimmasiga olgan bo‘lsa, ular sudga iltimosnoma kiritish huquqiga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, ana shunday ta’minot mavjud bo‘lganda sud, agar bu korxonaga nisbatan avval sud sanatsiyasi tartibi qo‘llanilmagan bo‘lsa, uni sud sanatsiyasiga o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin. Bu to‘lovga qobiliyatsizlikdan chiqishning bevosita davlat ishtirokidagi dastakli mexanizmi hisoblanadi.

Uchinchidan, ushbu norma sud sanatsiyasi tartibini qo‘llash uchun asos sifatida faqat moliyaviy inqirozni emas, balki davlat va xo‘jalik boshqaruv organlarining korxonani qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha real javobgarligini talab qiladi. Bu orqali davlat resurslari maqsadli, strategik ahamiyatga ega korxonalarni saqlab qolishda samarali qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu norma davlat tomonidan qo‘shimcha kafolat berilgan hollarda to‘lovga qobiliyatsizlik holatidagi strategik korxonani sud sanatsiyasiga o‘tkazish imkoniyatini yaratadi, bu esa korxonani saqlab qolish, ish o‘rinlarini himoya qilish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 791-b.

174-modda. Shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxonaning tashqi boshqaruvi tartib-taomili muddatini uzaytirish

Shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxonaning tashqi boshqaruvi mahalliy davlat hokimiyati organining iltimosnomasi mavjud bo‘lgan taqdirda sud tomonidan ko‘pi bilan bir yil muddatga uzaytirilishi mumkin.

Shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxona faoliyatiga investitsiya kiritish, xodimlarni ishga joylashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish yo‘li bilan hamda qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashning boshqa usullari bilan korxonani moliyaviy jihatdan sog‘lomlashtirish rejasi tashqi boshqaruv tartib-taomilini ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan muddatga uzaytirish uchun asos bo‘ladi.

Tegishincha mahalliy davlat hokimiyati organining, vazirlikning, idoraning va xo‘jalik boshqaruvi organining iltimosnomasiga ko‘ra qarzdorning pul majburiyatlari va (yoki) soliqlari hamda yig‘imlari yuzasidan kafillik berish sharti bilan shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxonaning tashqi boshqaruvi tartib-taomili muddati besh yilgacha uzaytirilishi mumkin. Bu holda qarzdor va uning kafili kreditorlar bilan hisob-kitob qilishga ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlardan kechiktirmay kirishishi shart.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan talablarga rioya etilmasligi qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash uchun asos bo‘ladi.

Sharhlanayotgan modda shaharni tashkil etuvchi yoki unga tenglashtirilgan korxonaning tashqi boshqaruvi muddati mahalliy davlat hokimiyati organi iltimosnomasiga asosan, investitsiya va moliyaviy sog‘lomlashtirish rejasi mavjud bo‘lsa, bir yilga hamda davlat organlari va xo‘jalik boshqaruv organlari tomonidan kafillik berilgan hollarda esa besh yilgacha uzaytirilishi, aks holda esa korxonani bankrot deb topish va tugatish jarayoni boshlanishi mumkinligini ifoda etadi.

1. Tashqi boshqaruv tartib-taomili odatda o‘n ikki oydan yigirma to‘rt oygacha muddatga joriy etiladi.

Ushbu norma shaharni tashkil etuvchi va unga tenglashtirilgan korxonalarning strategik ahamiyatini inobatga olgan holda tashqi boshqaruv tartib-taomili muddatini uzaytirish bo‘yicha maxsus qoidani belgilaydi.

Birinchidan, tashqi boshqaruv odatda belgilangan muddat doirasida amalga oshiriladi, ammo bunday korxonalarning shahar iqtisodiyoti, infratuzilmasi va aholi bandligi uchun muhim o‘rni tufayli sud ushbu muddatni bir yilgacha uzaytirish huquqiga ega.

Ikkinchidan, uzaytirish avtomatik emas, faqat mahalliy davlat hokimiyati organining iltimosnomasi mavjud bo‘lgan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin. Bu talab mahalliy davlat hokimiyati organining korxonani tiklashga real qiziqishi va mas’uliyatini namoyon etadi.

Uchinchidan, ushbu norma mahalliy davlat hokimiyati organlarining korxona faoliyatini saqlab qolishdagi rolini kuchaytiradi, chunki ularning iltimosnomasi korxonaning moliyaviy holati, ijtimoiy ahamiyati va tiklanish istiqbollarini baholagan holda beriladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu norma strategik korxonalarni tiklash va ularni tezda tugatishdan saqlash uchun mahalliy davlat hokimiyati organi ishtirokida tashqi boshqaruv muddatini bir yilgacha uzaytirishga huquqiy asos yaratadi.

2. Ushbu norma shaharni tashkil etuvchi va unga tenglashtirilgan korxonalarda tashqi boshqaruv muddatini uzaytirish uchun amaliy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslarni belgilaydi.

Birinchidan, tashqi boshqaruv muddati faqat formal iltimosnoma asosida emas, balki korxonani moliyaviy jihatdan sog‘lomlashtirishga qaratilgan aniq va ishonchli reja mavjud bo‘lgan taqdirda uzaytirilishi mumkin. Bu talab korxonani tiklash imkoniyati real ekanligini isbotlashga qaratilgan.

Ikkinchidan, ushbu normaning o‘zi sog‘lomlashtirish rejasi qay tarzda bo‘lishi mumkinligini misollar bilan ko‘rsatadi: a) investitsiya kiritilishi**,** ya’ni korxona infratuzilmasi, texnologiyasi yoki ishlab chiqarish quvvatlarini tiklash uchun qo‘shimcha mablag‘ jalb etilishi; b) xodimlarni ishga joylashtirish**,** bu korxona barqarorlashishi uchun kadrlar siyosati ahamiyatli ekanini anglatadi; d) yangi ish o‘rinlarini yaratish**,** bu esa korxona faoliyati tiklanishining ijtimoiy samaradorligini ko‘rsatadi; e) to‘lov qobiliyatini tiklashning boshqa usullari**,** masalan, restrukturizatsiya, ishlab chiqarishni optimallashtirish, kreditorlar bilan kelishuvlar kabi choralar.

Uchinchidan, ushbu normada aytilishicha, ana shunday asosli va amalga oshiriladigan reja mavjud bo‘lsa, sud tashqi boshqaruv muddatini moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan muddatgacha uzaytirishi mumkin. Demak, uzaytirishning asosiy mezoni korxonani tiklash imkoniyati aniq va iqtisodiy jihatdan asoslangan bo‘lishi lozimligidir.

Xulosa qilib aytganda, ushbu norma tashqi boshqaruvni uzaytirishni investitsiya, kadrlar siyosati va to‘lov qobiliyatini tiklash choralariga bog‘lash orqali korxonani saqlab qolishga qaratilgan amaliy mexanizm bo‘lib xizmat qiladi.

3. Ushbu norma strategik ahamiyatga ega shaharni tashkil etuvchi yoki unga tenglashtirilgan korxonalarda tashqi boshqaruv muddatini kafolat asosida maksimal darajada uzaytirish imkoniyatini belgilaydi.

Birinchidan, tashqi boshqaruv muddati besh yilgacha uzaytirilishi mumkin, lekin bu faqat mahalliy davlat hokimiyati organi, vazirlik, idora yoki xo‘jalik boshqaruvi organi tomonidan qarzdorning pul majburiyatlari va soliqlari hamda yig‘imlari bo‘yicha kafolat berilgan taqdirda amalga oshiriladi**.** Bu talab korxonani uzoq muddatli moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va to‘lovga qobiliyatsizlikdan saqlashni ta’minlaydi.

Ikkinchidan, unda kreditorlar bilan hisob-kitob qilishda qarzdor va uning kafili kechiktirmasdan mazkur moddada ko‘rsatilgan muddatlarda harakat qilishlari shartligi belgilangan. Bu korxonaning moliyaviy barqarorligini tiklashda va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, ushbu norma davlat kafolati va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashi asosida strategik korxonalarda tashqi boshqaruv muddatini uzaytirish va shu bilan ularni to‘lovga qobiliyatsizlik holatidan chiqarish uchun huquqiy mexanizm yaratadi.

4. Ushbu norma strategik ahamiyatga ega korxonalarda tashqi boshqaruv tartib-taomilida belgilangan majburiyatlarni bajarish talablariga rioya qilinmasligining oqibatini belgilaydi.

Birinchidan, korxona va uning kafili mazkur moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan shartlarga amal qilmasa, masalan, kreditorlar bilan hisob-kitoblarni belgilangan muddatlarda bajarmasa yoki davlat kafolati asosida belgilangan majburiyatlarni bajarmasa, bu qarzdorni bankrot deb topish uchun asos hisoblanadi.

Ikkinchidan, ushbu norma sudga korxonani tugatish va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish yuritishni boshlash huquqini beradi, ya’ni tashqi boshqaruvdan keyin ham moliyaviy barqarorlikni tiklash imkoniyati samarasiz bo‘lgan taqdirda, korxona faoliyati tugatilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ushbu norma tashqi boshqaruv davomida belgilangan majburiyatlar ijrosi kafolatlanmagan va rioya qilinmagan taqdirda, korxonani bankrot deb topish va uni tugatish uchun huquqiy asos yaratadi, bu orqali kreditorlar va davlat manfaatlari himoya qilinadi. Qarang: Xalqaro sharh. 791-b.

175-modda. Shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxonani sotish shartlari

Tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayonida kreditorlarning talablarini qanoatlantirish maqsadida shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxona mulkiy majmua sifatida sotilishi mumkin. Shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxonani sotish tanlov yoki elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxonani tanlovda sotish uchun majburiy shartlar quyidagilardan iborat:

shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxona sotilayotgan paytda unda ishlab turgan xodimlarning kamida yetmish foizi uchun ish o‘rinlarini saqlab qolish;

shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxonaning faoliyat sohasi o‘zgartirilgan taqdirda, sotib oluvchining xodimlarni qayta o‘qitish yoki ishga joylashtirish majburiyati.

Davlatning mudofaa qobiliyati va xavfsizligi saqlab turilishini ta’minlovchi, shuningdek, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan korxonani tanlovda sotish uchun majburiy shartlar quyidagilardan iborat:

davlatning mudofaa qobiliyati va xavfsizligi saqlab turilishini ta’minlovchi korxona mulkiy majmuasining, shuningdek, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan korxona mol-mulkining hamda safarbarlik maqsadidagi mol-mulk-

ning belgilangan maqsadi, shuningdek, strategik ahamiyatdagi mol-mulkning muayyan maqsadi saqlab qolinishini ta'minlash;

qarzdorning davlat mudofaasiga oid buyurtmaga, davlatning mudofaa qobiliyati va xavfsizligi sohasidagi davlat ehtiyojlarini ta'minlashga doir ishlarni amalga oshirish bilan bog'liq shartnomalarini bajarish.

Tabiiy monopoliyalarning subyekti bo'lgan korxonani tanlovda sotish uchun majburiy shartlar quyidagilardan iborat:

tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonunchilikning tartibga solish predmeti bo'lgan tovarlar yetkazib berish shartnomalari bo'yicha qarzdorning majburiyatlarini sotib oluvchi o'z zimmasiga olishga roziligi, ishlab chiqarilayotgan va (yoki) realizatsiya qilinayotgan tovarlardan (ishlardan, xizmatlardan) iste'molchilarning erkin foydalana olishi ta'minlanganligi;

agar qarzdorning faoliyati litsenziyalanishi lozim bo'lsa, tegishli faoliyat turini amalga oshirish uchun sotib oluvchida litsenziyaning mavjud bo'lishi.

Tanlovning mazkur moddaning ikkinchi, uchinchi va **to'rtinchi qismlarida nazarda tutilmagan shartlari faqat kreditorlar yig'ilishining roziligi bilan ushbu Qonunning 17-moddasida nazarda tutilgan tartibda belgilanishi mumkin.**

Agar shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxona tanlov shartlarida sotilmagan bo'lsa, korxona elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida sotilishi lozim.

Agar davlat mudofaasiga oid buyurtmani bajaruvchi korxonaning mol-mulki tarkibida muomalada bo'lishi cheklangan mol-mulk mavjud bo'lsa, bunday korxonani sotish faqat yopiq kimoshdi savdosida tanlov shaklida amalga oshirilib, qonunga muvofiq faqat mazkur mol-mulkka mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida ega bo'la oladigan shaxslar bunday savdoning ishtirokchilari bo'lishi mumkin.

Davlat mudofaasiga oid buyurtmani bajaruvchi sotilayotgan korxonaning muomaladan chiqarilgan mol-mulki mol-mulkning egasiga u shunday mol-mulk mavjudligi haqida tashqi boshqaruvchi tomonidan xabardor qilingan paytdan e'tiboran uch oydan kechiktirmay topshiriladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari yoki vazirliklar, idoralar va xo'jalik boshqaruvi organlari elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi yakunlari to'g'risidagi bayonnoma imzolanganidan keyin bir oy ichida elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosini o'tkazish natijasida belgilangan narx bo'yicha davlat mudofaasiga oid buyurtmani bajaruvchi korxonani, strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarni va (yoki) tabiiy monopoliya subyektlarini sotib olishda imtiyozli huquqqa ega.

Sharhlanayotgan moddada shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxonani sotish tartibi, uni amalga oshirish shakllari va bunda qo'llaniladigan majburiy shartlar belgilab berilgan, ayniqsa ish o'rinlarini saqlab qolish, strategik va mudo-

faa ahamiyatiga ega obyektlarning maqsadli faoliyatini ta’minlash, tabiiy monopoliya subyektlari bo‘yicha majburiyatlarni sotib oluvchi zimmasiga yuklatish hamda ayrim hollarda davlat organlarining imtiyozli sotib olish huquqini kafolatlash kabi talablar mustahkamlangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismiga muvofiq tashqi boshqaruv amalga oshirilayotgan davrda kreditorlar talablarini qondirishning ta’sirli usullaridan biri sifatida shaharni tashkil etuvchi yoki unga tenglashtirilgan korxonani FKning 489–496-moddalarida belgilangan tartibda mulkiy majmua sifatida sotish imkoniyati nazarda tutiladi. Bunda korxonani sotishni ochiq va raqobatli tartibda – tanlov o‘tkazish yoki elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi orqali amalga oshirish shart qilib belgilangan. Bu esa, bir tomondan, korxona aktivlarining eng yuqori bahoda sotilishi, ikkinchi tomondan, kreditorlar manfaatlarining maksimal darajada himoya qilinishiga xizmat qiladi.

2. Ushbu norma shaharni tashkil etuvchi va unga tenglashtirilgan korxonalarni tanlov orqali sotishda ijtimoiy kafolatlar ustuvor ekanini ko‘rsatadi. Birinchi talab – sotish vaqtida mavjud xodimlarning kamida yetmish foizi uchun ish o‘rinlarini saqlab qolish – korxona faoliyatida keskin o‘zgarishlar bo‘lsa ham, mahalliy aholi bandligini ta’minlash va ijtimoiy larzalarning oldini olishga qaratilgan. Ikkinchi talabga ko‘ra, agar sotib oluvchi korxona faoliyatining yo‘nalishini o‘zgartirsa, u mavjud xodimlarni qayta tayyorlash yoki ularni boshqa ishga joylashtirish bo‘yicha majburiyat oladi. Bu esa mehnat munosabatlarining uzluksizligini, xodimlar manfaatlarining himoya qilinishini hamda korxonaning yangi sohada barqaror ishga tushishini ta’minlashga xizmat qiladi.

3. Ushbu norma strategik va mudofaa ahamiyatiga ega korxonalarni sotishda davlat xavfsizligi ustuvor qoida ekanini belgilaydi. Birinchi talabga ko‘ra, bunday korxonaning mulkiy majmuasi, strategik obyekt yoki safarbarlik uchun mo‘ljallangan mol-mulki faqat o‘zining belgilangan maqsadiga mos holda saqlab qolinishi shart, ya’ni sotib oluvchi uni o‘zgartirib yoki boshqa maqsadda foydalanib yubora olmaydi – bu davlat xavfsizligiga ta’sir etmasligi uchun zarur. Ikkinchi talab esa qarzdor korxona oldindan olgan harbiy buyurtmalar va davlat mudofaa ehtiyojlariga doir shartnomalar sotib oluvchi tomonidan to‘liq va uzluksiz bajarilishi kerakligini nazarda tutadi – bu mudofaa tizimidagi muhim loyihalarning to‘xtab qolmasligini va davlat manfaatlarining uzluksiz ta’minlanishini kafolatlaydi.

4. Ushbu norma tabiiy monopoliya subyektlari bo‘lgan korxonalarni sotishda bozor barqarorligi va iste’molchi huquqlarini himoya qilish asosiy talab ekanini belgilaydi. Birinchi shartga ko‘ra, sotib oluvchi qarzdor korxonaning tabiiy monopoliya sohasidagi tovarlar yetkazib berish bo‘yicha olingan majburiyatlarini to‘liq o‘z zimmasiga oladi hamda aholi va korxonalar ushbu tovarlar va xizmatlardan uzluksiz va erkin foydalanishini ta’minlashi shart – bu monopol xizmatlarning to‘xtab qolmasligi, narxlarning asossiz o‘zgarmasligi va iste’molchilar manfaatlarining saqlanishi uchun zarur. Ikkinchi shart esa, agar mazkur faoliyat litsenziya talab etsa, sotib oluvchida tegishli litsenziyaning mavjud bo‘lishi shartligini ko‘rsatadi – bu monopol faoliyatni amalga oshirish qonun doirasida va mutaxassislik talablariga muvofiq davom ettirilishini ta’minlaydi.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismi tanlovda korxonani sotish uchun qo‘shimcha shartlar belgilashda cheklov va tartibni aniq belgilaydi. Unga ko‘ra, mazkur mod-

daning ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi qismlarda ko‘rsatilgan majburiy talablardan tashqari har qanday yangi shartni faqat kreditorlar yig‘ilishi unda hozir bo‘lgan ovoz berish huquqiga ega kreditorlarning ko‘pchilik ovozi bilan qaror qabul qilingan taqdirda belgilash mumkin. Bu esa sotish jarayonida mutanosiblikni ta’minlaydi, kreditorlar manfaatlari buzilmasligiga va shartlar bir tomonlama yoki asossiz tarzda qat’iylashtirib yuborilmasligiga xizmat qiladi.

6. Ushbu norma shaharni tashkil etuvchi yoki unga tenglashtirilgan korxonani sotishda izchil va bosqichma-bosqich tartibni belgilaydi. Agar tanlov orqali, ya’ni belgilangan majburiy shartlar asosida korxonani sotish imkoni bo‘lmasa, sotish elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosi orqali amalga oshirilishi shart. Bu mexanizm sotish jarayonining to‘xtab qolmasligini, aktivlar eng yaxshi taklif beruvchiga ochiq va shaffof tarzda sotilishini va kreditorlar talabi maksimal darajada qondirilishini ta’minlaydi.

7. Ushbu norma davlat mudofaasiga oid buyurtmani bajaruvchi korxonalar tarkibida muomalasi cheklangan mol-mulk mavjud bo‘lgan hollarda sotish tartibini maxsus ravishda qat’iylashtiradi. Bunday aktivlar milliy xavfsizlik bilan bog‘liq bo‘lgani uchun korxonani ochiq auksionda sotishga ruxsat berilmaydi, sotish faqat yopiq kimoshdi savdosi shaklidagi tanlov orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, bunday savdolarda ishtirok etishi mumkin bo‘lgan shaxslar doirasi ham cheklangan bo‘lib, qonunga muvofiq aynan ushbu cheklangan mol-mulkka mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida ega bo‘lishga haqli subyektlargina ishtirokchi bo‘la oladi. Bu talab muomaladan chiqarilgan yoki cheklangan mol-mulk tasodifiy shaxslarga o‘tib ketishining oldini oladi va davlat xavfsizligiga doir funksiyalarning uzluksiz saqlanishini ta’minlaydi.

8. Ushbu norma davlat mudofaasiga oid buyurtmalarni bajaruvchi korxona tarkibida muomaladan chiqarilgan (erkin foydalanish va oborotga kiritilishi taqiqlangan) mol-mulk mavjud bo‘lgan holatlarda uning taqdiri aniq tartibda hal etilishini belgilaydi. Qoidaga ko‘ra tashqi boshqaruvchi bunday aktivlar mavjudligi haqida mulk egasini xabardor qilgan paytdan boshlab uch oydan ortiq muddat o‘tkazmasdan uni tegishli egasiga topshirishi shart. Bu talab mudofaa obyektlari yoki maxsus rejimdagi mol-mulkning nazoratsiz qolishiga yo‘l qo‘ymaslik, uning huquqiy maqomini mustahkamlash va xavfsiz saqlanishini ta’minlash maqsadida belgilangan.

9. Mazkur moddaning to‘qqizinchi qismi davlat va strategik manfaatlar ustuvorligini ta’minlashda imtiyozli huquq mexanizmidan foydalanishni tartibga soladi. Ma’lum qilinishicha, mahalliy davlat hokimiyati organlari, vazirliklar, idoralar yoki xo‘jalik boshqaruvi organlari elektron onlayn-auksion natijalari to‘g‘risidagi bayonnomani imzolaganidan so‘ng bir oy ichida auksionda belgilangan narxda davlat mudofaasiga oid buyurtmani bajaruvchi korxonani, strategik ahamiyatga ega korxonalarni va (yoki) tabiiy monopoliya subyektlarini sotib olishda imtiyozli huquqqa ega bo‘ladi. Bu esa davlat va strategik obyektlar uchun mol-mulk sotib olish jarayonida ustuvorlikni ta’minlaydi, ularning o‘z vaqtida va belgilangan shartlarda davlat ehtiyojlarini qondirishiga kafolat beradi hamda bozordagi ochiq raqobat ta’sirini cheklab, davlat va strategik manfaatlar ustuvorligini saqlaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 791-b.

176-modda. Shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan, bankrot deb topilgan korxonaning mol-mulkini sotish

Shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxonaning mol-mulki sotilayotganda tugatish boshqaruvchisi korxonani elektron onlayn-auksion shaklidagi dastlabki kimoshdi savdosida mulkiy majmua sifatida sotishga taklif etishi kerak.

Agar shaharni tashkil etuvchi hamda unga tenglashtirilgan korxonaning mol-mulki mulkiy majmua sifatida sotilmagan bo‘lsa, qarzdorning mol-mulkini sotish ushbu Qonunning 127-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Tabiiy monopoliya subyekti bo‘lgan qarzdor korxonaning tovarlarni ishlab chiqarish (ishlarni, xizmatlarni bajarish) va (yoki) realizatsiya qilish jarayonida foydalanadigan mol-mulki elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosiga faqat mulkiy majmua sifatida qo‘yiladi.

Tugatish boshqaruvchisi tugatishga doir ish yuritish amalga oshiriladigan davrda tabiiy monopoliya subyekti bo‘lgan qarzdor korxonaning tovarlarini (ishlarini, xizmatlarini) yetkazib berish shartnomalarini bajarishni bunday shartnomalarning bajarilishini tugatish aholining hayot faoliyati yoki uzluksiz ishlab chiqarish jarayoniga ega bo‘lgan korxonalar faoliyati sharoitlarini buzadigan hollarda ta’minlashi shart.

Tabiiy monopoliya subyekti bo‘lgan qarzdor korxonani tugatishga doir ish yuritish sudning qarori qabul qilingan va tugatish boshqaruvchisi tayinlangan sanadan e’tiboran olti oydan kechiktirmay tamomlanishi kerak. Agar mazkur muddat tugaganidan keyin korxonaning mol-mulki sotilmay qolsa, tugatish boshqaruvchisi kreditorlar yig‘ilishining qaroriga binoan, yig‘ilish rad etgan taqdirda esa mahalliy davlat hokimiyati organining qaroriga binoan ushbu Qonunning 131-moddasida nazarda tutilgan tartibga muvofiq aktivlar o‘rnini almashtirish yo‘li bilan tugatishga doir ish yuritishni tamomlaydi.

Sharhlanayotgan moddada shaharni tashkil etuvchi va unga tenglashtirilgan, to‘lovga qobiliyatsizlikka uchragan korxonalarni mol-mulkini sotish tartibi va tugatish boshqaruvchisi mas’uliyati aniq belgilangan bo‘lib, avvalo elektron onlayn-auksion orqali mulkiy majmua sifatida sotish ustuvorligi, tabiiy monopoliya subyektlari uchun esa yetkazib berish shartnomalari uzluksiz bajarilishini ta’minlash zarurligi va agar aktivlar sotilmasa, kreditorlar yoki mahalliy davlat hokimiyati organi qarorlari asosida ularni almashtirish yo‘li bilan tugatish jarayoni amalga oshirilishini ko‘zda tutadi.

1. Ushbu normadan ko‘rinib turibdiki, shaharni tashkil etuvchi va unga tenglashtirilgan korxonaning mol-mulkini sotishda tugatish boshqaruvchisi uchun birinchi va ustuvor vazifa korxonani elektron onlayn-auksion shaklidagi dastlabki kimoshdi savdosida mulkiy majmua sifatida taklif qilishdir. Bu tartibning maqsadi korxona aktivla-

rini bir butunlikda, ochiq va raqobatli muhitda sotish orqali ularning eng yuqori narxda baholanishi hamda kreditorlar talablari maksimal darajada qondirilishini ta’minlashdir. Shu bilan birga, mulkiy majmua sifatida sotish korxonaning faoliyat yuritish qiymatini saqlab qolish va uzluksiz ishlash imkoniyatini ta’minlashga xizmat qiladi.

2. Ushbu normaga ko‘ra, agar shaharni tashkil etuvchi va unga tenglashtirilgan korxonaning mol-mulki elektron onlayn-auksionda mulkiy majmua sifatida sotilmasa, qarzdorning mol-mulkini sotishda muqobil tartib qo‘llaniladi va bu tartib Qonunning 127-moddasida belgilangan qoidalarga muvofiq qarzdorning mol-mulki inventarizatsiya qilinganidan va baholanganidan keyin mol-mulkning bir qismi sotilishi orqali amalga oshirilishi shart. Bu mexanizm korxona aktivlari sotilmagan taqdirda ham kreditorlar talablarini qondirishni ta’minlash va mol-mulkni sarflashda huquqiy asosni yaratishni maqsad qilib qo‘ygan.

3. Ushbu norma tabiiy monopoliya subyektlari bo‘lgan qarzdor korxonalar aktivlarini sotishda uzluksizlik va bozor barqarorligini ta’minlashga qaratilgan. Aniqroq qilib aytganda, korxonaning tovarlar ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yoki ularni realizatsiya qilish jarayonida foydalaniladigan mol-mulki elektron onlayn-auksionda faqat mulkiy majmua sifatida taklif qilinadi. Bu talab shundan dalolat beradiki, aktivlarni alohida qismlarga bo‘lib sotish orqali korxona faoliyatidagi barqarorlik ta’minlanadi va iste’molchilarning uzluksiz xizmat olish huquqi buzilishining oldi olinadi, ya’ni sotish korxonaning barqaror ishlashini ta’minlaydigan tartibda amalga oshirilishi shart.

4. Ushbu norma tugatish boshqaruvchisiga tabiiy monopoliya subyektlari bo‘lgan qarzdor korxonalarning faoliyatida muhim ijtimoiy va iqtisodiy kafolatlarni ta’minlash majburiyatini yuklaydi. Aniqroq qilib aytganda, tugatish jarayonida tugatish boshqaruvchisi, agar shartnomalarni to‘xtatish aholi hayot faoliyatiga yoki uzluksiz ishlab chiqarishga ega korxonalarning faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatsa, ushbu korxonaning tovarlarini, xizmatlarini yoki ishlarini yetkazib berish bo‘yicha shartnomalarini bajarishni davom ettirishi kerak. Bu esa tugatish jarayonida ham tabiiy monopoliya subyektlari orqali aholi va ijtimoiy ahamiyatga ega korxonalar uchun zarur xizmatlar uzluksiz ta’minlanishini kafolatlaydi va iqtisodiy hamda ijtimoiy barqarorlikni saqlaydi.

5. Ushbu norma tugatish jarayonining aniq muddat va nazoratini belgilaydi. Tabiiy monopoliya subyektlari bo‘lgan qarzdor korxonani tugatish ishi sud qarori chiqarilgan va tugatish boshqaruvchisi tayinlangan sanadan e’tiboran olti oy ichida yakunlanishi shart. Bu muddat korxonaning faoliyatini uzluksiz ta’minlash va mol-mulkni samarali sotish uchun belgilangan. Agar olti oylik muddat tugaganidan keyin ham mol-mulk sotilmagan bo‘lsa, tugatish boshqaruvchisi kreditorlar yig‘ilishining qaroriga asosan, agar yig‘ilish rad etsa, mahalliy davlat hokimiyati organi qaroriga muvofiq Qonunning 131-moddasida nazarda tutilgan tartibda aktivlarni almashtirish, ya’ni qarzdorning mol-mulki asosida bitta yoki bir nechta aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish orqali tugatish ishini yakunlaydi. Bu qoida mol-mulkning o‘z vaqtida va huquqiy tartibda taqsimlanishini, shuningdek, tugatish jarayonida barqarorlik va nazoratni ta’minlaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 791-b.

177-modda. Qishloq xo‘jaligi korxonalari to‘lovga qobiliyatsizligining o‘ziga xos xususiyatlari

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilguniga qadar ularga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda sudgacha sanatsiya qilish qo‘llanilishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi korxonasining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish ko‘rib chiqilayotganida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari ham ishda ishtirok etuvchi shaxslar bo‘lishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada qishloq xo‘jaligi korxonalari to‘lovga qobiliyatsizlik holatiga tushgan taqdirda, ularni sud tartibida to‘lovga qobiliyatsiz deb topishdan oldin sudgacha sanatsiya qilish orqali sog‘lomlashtirish choralari qo‘llanilishi va ishni ko‘rish jarayonida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari ham ishtirok etishi mumkinligi kabi o‘ziga xos xususiyatlari belgilangan.

1. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish jarayonida Qonun ularning maxsus subyekt sifatida o‘ziga xos huquqiy kafolatlarini ifoda etadi. Xususan, agar korxonada to‘lovga qobiliyatsizlik belgilarini kuzatish mumkin bo‘lsa ham, sud ishini qo‘zg‘atishdan oldin unga nisbatan sudgacha sanatsiya qilish, ya’ni moliyaviy sog‘lomlashtirish choralarini qo‘llashi mumkin. Bu choralar korxonaning qarzdorlikni qisqartirish, ishlab chiqarish faoliyatini tiklash va bankrotlikka yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan bo‘lib, davlat tomonidan qishloq xo‘jaligi sohasini qo‘llab-quvvatlash va uning ijtimoiy ahamiyatini saqlab qolish maqsadini ko‘zlaydi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari turlari Qonunda qishloq xo‘jaligi kooperativi, fermer xo‘jaligi va yuridik shaxs tashkil etgan holdagi dehqon xo‘jaligi, shuningdek, faoliyatining asosiy turi qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqarishdan iborat bo‘lgan boshqa yuridik shaxslar tarzida ifodalangan. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining to‘lovga qobiliyatsizligi, shu jumladan, sudgacha sanatsiya qilish tartibi va asoslari bilan bog‘liq masalalar mazkur Qonun, shu bilan birga, **«Qishloq xo‘jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni** bilan tartibga solinadi.

Qonun talablariga binoan sudlar tomonidan qishloq xo‘jaligi korxonalarining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishning o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, sudlar mazkur ish qo‘zg‘atilguniga qadar qishloq xo‘jaligi korxonalariga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda sudgacha sanatsiya qilish masalasi qo‘llanilganligi bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganishi lozim. Chunki qishloq xo‘jaligi korxonalariga nisbatan sudgacha sanatsiya qilish chorasi qo‘llanilishi to‘lovga qobiliyatsizlikka doir ishning muhim xususiyatlaridan biri sifatida belgilangan. Zarar ko‘rib ishlovchi, to‘lovga qobiliyatsiz va iqtisodiy jihatdan nochor ahvoldagi qishloq xo‘jaligi korxonalari sanatsiya qilish obyektlari, ushbu korxonalar mol-mulkining mulkdorlari, kreditorlar yoki boshqa yuridik va jismoniy shaxslar sanatsiya subyektlari bo‘lishi mumkin.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha korxonalarga nisbatan qo‘llaniladigan sudgacha sanatsiya qilish muddatlaridan farqli ravishda, «Qishloq xo‘jali-

gi korxonalarini sanatsiya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 13-moddasiga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi korxonasini sudgacha sanatsiya qilish muddati yigirma to‘rt oy muddatgacha joriy etiladi. Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, xususan, tabiiy ofatlar, iqlim o‘zgarishi va boshqa fors-major holatlar tufayli qishloq xo‘jaligi korxonasining ishlab chiqarishida pasayish va moliyaviy ahvolining yomonlashishiga bevosita ta’sir etgan bo‘lsa, ushbu muddatning o‘n ikki oyga uzaytirilishiga yo‘l qo‘yiladi. Qishloq xo‘jaligi korxonasi bo‘lmagan subyektlarga nisbatan esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-oktyabrdagi 708-son qarori bilan tasdiqlangan «Sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomning 5-bandida o‘n ikki oydan yigirma to‘rt oygacha muddatga joriy etilishi belgilangan bo‘lib, mazkur muddatni uzaytirish ushbu qoidalarda nazarda tutilmagan. Bu muddatlar maxsus tarzda belgilanishi esa aynan qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik subyektlarini saqlab qolish va sog‘lomlashtirish choralarini ko‘rish mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta’minlash, aholini ish bilan ta’minlash, ijtimoiy himoyalash va turmush farovonligini oshirishda g‘oyatda muhim soha ekanligi bilan izohlanadi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarini sudgacha sanatsiya qilish davlat mablag‘larini jalb etgan yoki jalb etmagan holda o‘tkazilishi mumkin. Sudgacha sanatsiya qilish jarayonida davlat mablag‘lari qaytarib berish asosidagina jalb etiladi. Bunda qishloq xo‘jaligi korxonalariga davlat yordami iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning eng muhim yo‘nalishlariga qarab, tarmoqni rivojlantirish, shuningdek, mehnat bozori va ish o‘rinlarini vujudga keltirish uchun korxonaning qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olgan holda vakolatli davlat organi tomonidan sanatsiyaning muhimligi va ahamiyatiga qaratib quyidagi bir yoki bir nechta choralar qo‘llaniladi. Jumladan, o‘zaro qarz surishishni tashkil etish; to‘lash muddati o‘tkazib yuborilgan qarzlarni to‘liq yoki qisman sotib olish; qonunchilikka muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash hamda davlat kreditlarini qaytarish muddatlarini sanatsiya muddatiga uzaytirish; korxonani raqobatbardosh mahsulotlar chiqarishga moslab qayta ixtisoslashtirish; tashqaridan yuqori malakali mutaxassislar jalb etish; xodimlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash; qishloq xo‘jaligi korxonasining to‘lov qobiliyatini tiklash va uning o‘z faoliyatini davom ettirishidan manfaatdor bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan moliyaviy yordam ko‘rsatilishi; korxona o‘z faoliyatini davom ettirishi uchun kreditorlarga tegishli qarzlarni to‘lash muddatini uzaytirish va (yoki) ularni bo‘lib-bo‘lib to‘lash yoki qarzlarning muayyan qismidan kechish to‘g‘risida korxona va kreditor (kreditorlar) o‘rtasida bitim tuzish; tashqaridan boshqarishni joriy etish; korxonani qayta tashkil etish qo‘llanilishi mumkin.

Vakolatli organning qishloq xo‘jalik yili yakunlari bo‘yicha moliyaviy va xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish natijasida qishloq xo‘jaligi korxonasining to‘lov qobiliyatini va iqtisodiy quvvatini tiklash uchun real imkoniyatlar mavjudligi to‘g‘risidagi xulosasi qishloq xo‘jaligi korxonasini sanatsiya qilish haqida qaror chiqarish uchun asos bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligi korxonasini sanatsiya qilish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda vakolatli organ korxonaning ijro muddati sanatsiya o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul

qilinguniga qadar boshlangan pul majburiyatlari, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlariga moratoriy joriy etadi. Moratoriyning amal qilish muddati davomida moliyaviy (iqtisodiy) jazolar qo‘llanilmaydi. Moratoriy fuqarolarning mehnatga doir huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan, alimentlar undirish va mualliflik shartnomalari bo‘yicha haq to‘lash yuzasidan qo‘yadigan talablariga, shuningdek, fuqarolarning o‘z hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazilganligi uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo‘lgan qishloq xo‘jaligi korxonasiga nisbatan qo‘yadigan talablariga daxl qilmaydi.

2. Qishloq xo‘jaligi korxonasining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rishda mahalliy ijro organlarining ishtirok etishi qishloq xo‘jaligi sohasining ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati bilan izohlanadi. Bunday korxonalar faqat iqtisodiy subyekt sifatidagina emas, balki aholi bandligi, oziq-ovqat xavfsizligi va hududiy infratuzilmani ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Shu bois mahalliy hokimiyat organlari ishda qatnashib, korxonani saqlab qolish, uning faoliyatini barqarorlashtirish va ijtimoiy oqibatlarni yumshatish bo‘yicha tashabbus ko‘rsatishi mumkin. Masalan, ular qarzdor korxonani qo‘llab-quvvatlash choralarini taklif qilish, yer va mulk munosabatlari bo‘yicha axborot taqdim etish yoki sudgacha yoki sud sanatsiyasi jarayonida ham ishtirok etish orqali ishni samarali hal etishga yordam beradi. Demak, mahalliy ijro organlarining ishtirok etishi to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Xususan, «Qishloq xo‘jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 19-, 20-moddalari talablariga ko‘ra, sudgacha sanatsiya qilishda tashqaridan boshqarish asosida sanatsiya qilinishi lozim bo‘lgan qishloq xo‘jaligi korxonasining faoliyatini boshqarishni tashkil etish, ya’ni yuridik shaxsni boshqarish va uning mol-mulkini tasarruf etish bo‘yicha huquq hamda majburiyatlar tashqaridan tayinlangan boshqaruvchiga o‘tgan holatda ham tashqaridan boshqaruvchi tuman hokimi tomonidan vakolatli organ, qishloq xo‘jaligi korxonasi mol-mulkining mulkdori, kreditor (kreditorlar) bilan kelishilgan holda tayinlanadi. Mazkur qishloq xo‘jaligi korxonasining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rishda mahalliy ijro organlarining ishtirok etishi qoidasini to‘lovga qobiliyatsizlikning barcha taomillariga nisbatan tatbiq etish mumkin.

Qishloq xo‘jaligi korxonasining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishda mahalliy ijro organlarining ishtirok etishining protsessual tartibi quyidagicha izohlanadi. Qishloq xo‘jaligi korxonasining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish sud tomonidan ko‘rib chiqilayotganida taraflardan tashqari mahalliy ijro organlarini ham nizo yuzasidan mustaqil talab bilan arz qilmaydigan (yoki qiladigan) uchinchi shaxs sifatida ishga jalb qilish chorasini ko‘rish mumkin. Bu haqida sud alohida ajrim chiqaradi va IPKda belgilangan ishda ishtirok etuvchi shaxslarni jalb etishga oid normalariga muvofiq amalga oshiriladi. Ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida mahalliy ijro organi to‘lovga qobiliyatsizlik ishidagi barcha protsessual huquqlarga ega bo‘ladi, ya’ni sud majlislarida ishtirok etish, izoh va xulosalar berish, dalillar taqdim etish, ariza yoki iltimosnoma kiritish, sud hujjatlaridan nusxa olish va boshqa huquqlar. Mahalliy ijro organining ishtirok etishidan asosiy maqsad – u korxonaning iqtisodiy ahvolini, hududiy ahamiyatini va faoliyati to‘xtashi orqali yuzaga keladigan ijtimoiy oqibatlarni

baholash uchun zarur ma’lumotlarni berishi mumkin. Sud ushbu ma’lumotlar asosida qaror qabul qilishda hudud manfaatlarini hisobga oladi. Mahalliy ijro organlari sud tomonidan protsessual tartibda ishga jalb etilishi va ularning ishda qatnashishi sudga qishloq xo‘jaligi korxonasini to‘lovga qobiliyatsiz deb topishda ijtimoiy-iqtisodiy omillarni to‘liq baholash imkonini beradi.

Qishloq xo‘jaligi korxonasining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi barcha ishlarda ham mahalliy ijro organlarining ishtirok etishi majburiy xarakterga ega emas, balki fakultativ (ixtiyoriy) tarzda amalga oshiriladi. Bu shundan dalolat beradiki, iqtisodiy sud har bir holatda ishning xususiyatini, korxonaning ahamiyatini va to‘lovga qobiliyatsiz deb topishning hududiy iqtisodiy oqibatlarini inobatga olgan holda mahalliy hokimiyat organini ishga jalb etish yoki etmaslik haqida mustaqil qaror qabul qiladi. Agar iqtisodiy sud qishloq xo‘jaligi korxonasining faoliyati aholi bandligi, oziq-ovqat xavfsizligi yoki hududiy iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega deb topsa, mahalliy ijro organining ishtiroki zarur deb hisoblanadi. Demak, bu norma mahalliy hokimiyat organlarining ishdagi ishtirokini imkoniyat sifatida nazarda tutadi, ya’ni qonun bo‘yicha majburiy talab emas, balki ularning ishtirok etishi sud tashabbusi yoki manfaatdor taraflarning iltimosnomasi asosida amalga oshiriladi. Qarang: Xalqaro sharh. 791-b.

178-modda. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillarining o‘ziga xos xususiyatlari

Qishloq xo‘jaligi korxonasida kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillari yetishtirilgan tovar qishloq xo‘jaligi mahsulotini realizatsiya qilish uchun zarur vaqtni hisobga olgan holda qishloq xo‘jaligi ishlarining tegishli davri tugagunga qadar bo‘lgan muddatga joriy etiladi. Bunda kuzatuv tartib-taomili muddati uch oydan, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillari muddati esa ushbu Qonun 108-moddasining uchinchi qismida belgilangan muddatdan oshishi mumkin emas.

Agar sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv tartib-taomili muddati mobaynida tabiiy ofatlar va boshqa fors-major holatlar tufayli qishloq xo‘jaligi korxonasining ishlab chiqarishida pasayish va moliyaviy ahvolida yomonlashish sodir bo‘lgan bo‘lsa, sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv tartib-taomili muddati o‘n ikki oyga uzaytirilishi mumkin.

Ushbu Qonunning 103-moddasi talablariga muvofiq, sud sanatsiyasi tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish faqat qishloq xo‘jaligi ishlarining tegishli davri tugaydigan muddatni hamda yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotini realizatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan vaqtni hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Tashqi boshqaruv tartib-taomili yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan qishloq xo‘jaligi korxonasiga nisbatan joriy etilmaydi.

Sharhlanayotgan modda qishloq xo‘jaligi korxonalarining to‘lovga qobiliyatsizligi jarayonida kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillarini joriy etish va amalga oshirishda qishloq xo‘jaligi sohasida ishlab chiqarishning mavsumiy va boshqa xususiyatlarini inobatga olishni nazarda tutadi.

1. To‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida tartib-taomillarga qo‘yilgan umumiy qoidalardan farqli ravishda, qishloq xo‘jaligi korxonalariga nisbatan joriy etiladigan kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillari yetishtirilgan tovarlar, qishloq xo‘jaligi mahsulotini realizatsiya qilish uchun zarur vaqtni hisobga olgan holda qishloq xo‘jaligi ishlarining tegishli davri tugagunga qadar bo‘lgan muddatga joriy etiladi. Ushbu qoida qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatining mavsumiy xususiyatini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan, ya’ni kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillari ularning ishlab chiqarish davri bo‘lgan ekish, parvarishlash, hosil olish va yetishtirilgan mahsulotni sotish davri to‘liq yakunlanguncha amal qilishi lozimligini nazarda tutadi. Buning sababi shundaki, qishloq xo‘jaligida daromad asosan mavsum oxirida, mahsulot realizatsiya qilingach olinadi. Agar sanatsiya yoki boshqaruv muddati hosil yetishtirish davridan oldin tugasa, korxona o‘z daromad manbaidan mahrum bo‘lib, moliyaviy tiklanish imkonini boy beradi. Shuning uchun mazkur norma korxonaning ish jarayonini uzluksiz saqlash, mahsulotni bozorga chiqarish uchun zarur vaqt berish va to‘lov qobiliyatini tiklashga qaratilgan amaliy kafolat hisoblanadi.

Ushbu norma qishloq xo‘jaligi korxonalarida to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni davomida qo‘llaniladigan kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillarining maksimal muddatlarini belgilaydi. Kuzatuv taomili qarzdor korxonani to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza sud tomonidan ish yuritishga qabul qilingan kundan e’tiboran boshlanib, ushbu davrda qarzdorning mol-mulki but saqlanishini ta’minlash, qarzdorning moliyaviy ahvoli tahlilini o‘tkazish, kreditorlar talablari reyestrini tuzish va unda aniqlangan holatdan kelib chiqib birinchi kreditorlar yig‘ilishi natijasi bo‘yicha keyingi to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomiliga qadar davom etadi. Kuzatuv tartib-taomili odatda qishloq xo‘jaligi ishlarining tegishli mavsumi tugaguncha amal qilsa-da, uning umumiy muddati uch oydan ortiq bo‘lishi mumkin emas. Bu to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarining cho‘zilib ketmasligi va nazorat jarayoni samarali bo‘lishi uchun joriy etilgan cheklovdir. Shuningdek, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillari ham qishloq xo‘jaligi mavsumini hisobga olgan holda belgilanadi, ammo ularning muddati mazkur Qonunning 108-moddasi uchinchi qismida ko‘rsatilgan chegaradan oshmasligi kerak. Ushbu modda sanatsiya va tashqi boshqaruvning umumiy eng ko‘p muddatini belgilaydi (odatda 30 oygacha). Demak, bu norma qishloq xo‘jaligi faoliyatining mavsumiy xususiyatini inobatga olib to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonlari asossiz cho‘zilib ketishidan muhofaza qiladi.

2. Qonun qishloq xo‘jaligi korxonasi to‘lovga qobiliyatsizlikning sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv tartib-taomili muddati mobaynida tabiiy ofatlar va boshqa fors-major holatlar tufayli qishloq xo‘jaligi korxonasining ishlab chiqarishida pasayish va moliyaviy ahvolida yomonlashish sodir bo‘lgan bo‘lsa, sud sanatsiyasi yoki tashqi

boshqaruv tartib-taomili bo‘yicha belgilangan muddat o‘n ikki oyga uzaytirilishi mumkinligini nazarda tutadi. Ushbu qoida qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatining tabiat va tashqi omillarga yuqori darajada bog‘liq ekanligini inobatga olgan holda joriy etilgan. Ya’ni agar sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv amalga oshirilayotgan davrda tabiiy ofatlar yoki boshqa fors-major holatlar tufayli korxona faoliyatida pasayish, ishlab chiqarish hajmining kamayishi va moliyaviy holatining yomonlashishi kuzatilsa, sud ushbu holatlarni inobatga olib sanatsiya yoki tashqi boshqaruv muddatini uzaytiradi.

Tabiiy ofatlar va boshqa fors-major holatlar inson irodasiga bog‘liq bo‘lmagan, oldindan ko‘rib bo‘lmaydigan va oldini olish mumkin bo‘lmagan vaziyatlar bo‘lib, ular yuz berganda qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatidagi vaqtinchalik qiyinchiliklar qonunan hisobga olinadi. Tabiiy ofatlar tabiat kuchlari ta’sirida inson irodasidan tashqarida sodir bo‘ladigan, iqtisodiy faoliyatga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi holatlar bo‘lib, ularga qurg‘oqchilik, sel, suv toshqini, dovul, bo‘ron, zilzila, hosilga yomon ta’sir etuvchi kasalliklar yoki zararkunandalarning ko‘payishi, epizootiyalar (chorva orasida tarqalgan kasalliklar) kabilar kiradi. Fors-major holatlar esa tabiiy ofatlardan tashqari inson irodasidan mustaqil ravishda yuzaga keladigan va majburiyatlarni bajarish imkonini vaqtinchalik yo‘qotadigan vaziyatlar bo‘lib, ularga harbiy harakatlar, terrorchilik, epidemiya yoki pandemiyalar, davlat organlari tomonidan joriy etilgan cheklovlar (masalan, karantin, embargo, eksport-import taqiqi), elektr energiyasi, suv ta’minoti yoki transport tizimidagi favqulodda uzilishlar va h.k. bo‘lishi mumkin.

FKning 333-moddasi qoidalarida fors-major holatlar yuridik javobgarlikdan ozod qiluvchi asos sifatida qayd etilgan. Fors-major holatlar yuz berganligini tasdiqlovchi sertifikat taqdim etish vakolati esa O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasiga berilgan. Bu holat sud jarayonlarida yoki shartnoma majburiyatlarini bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunda (ayniqsa, qishloq xo‘jaligi korxonalariga oid normalarda) fors-major holatlar sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv muddatini uzaytirish uchun asos sifatida qayd etilgan. Bu qoida korxonaning tabiiy ofatlar sababli vaqtinchalik to‘lov qobiliyatini yo‘qotishi holatida unga iqtisodiy tiklanish imkonini yaratishga, yuzaga kelgan vaqtinchalik qiyinchiliklarni yengib o‘tish uchun qo‘shimcha vaqt berishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi korxonalarining tabiiy va iqtisodiy xatarlar ta’siridagi noqulay sharoitlarda ham faoliyatini davom ettirishini va iqtisodiy barqarorligini saqlab qolishga ko‘maklashuvchi huquqiy asos hisoblanadi.

3. Qonunning 103-moddasida sud sanatsiyasi tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish shartlari belgilangan bo‘lib, ushbu qoidaning qishloq xo‘jaligi korxonalariga nisbatan qo‘llanishida bir qator o‘ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda amalga oshirish lozimligini nazarda tutadi. Ya’ni agar iqtisodiy sud tomonidan ariza, ish hujjatlari va boshqa asoslar bilan sud sanatsiyasi tartib-taomilini muddatidan oldin tugatish rejalashtirilsa, bu faqat quyidagilarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin. *Birinchidan*, qishloq xo‘jaligi ishlarining tegishli davri, ya’ni ekinlarini ekish, parvarishlash va hosil olish vaqti tugagan bo‘lishi kerak. Chunki sud sanatsiyasi muddatidan oldin tugatilsa, mavsumiy ishlarning buzilishi va hosil yo‘qotilishi xavfi yuzaga keladi. *Ikkinchidan*, yetishtirilgan mahsulotni realizatsiya qilish uchun zarur vaqt, ya’ni sud

sanatsiyasi tugatilganida korxona hosilni sotish va mablag‘ni qaytarish imkoniga ega bo‘lishi kerak. Bu talab mahsulotning bozorga vaqtli chiqarilishini va moliyaviy tiklanishni ta’minlaydi. Qonun sudning sanatsiyani muddatidan oldin tugatishi faqat ushbu shartlarni hisobga olib, iqtisodiy va mavsumiy manfaatlar inobatga olingan holda amalga oshirilishi kerakligini belgilaydi, ya’ni korxonaning ishlab chiqarish jarayoni va hosil realizatsiyasi uchun kerakli imkoniyat saqlanishi shartligini nazarda tutadi.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismi qishloq xo‘jaligi sohasidagi tashqi boshqaruv tartib-taomilining doirasi va joriy etish obyektini belgilaydi. Tashqi boshqaruv korxonaning moliyaviy barqarorligini tiklash va kreditorlar manfaatini muhofaza qilish uchun sud tomonidan tayinlanadigan maxsus nazorat va boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu norma qoidalari ta’kidlaydiki, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan qishloq xo‘jaligi korxonalariga tashqi boshqaruv tartib-taomili tatbiq etilmaydi. Buning asosiy sababi shundaki, yuridik shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar qonun va moliyaviy hisobotlar asosida allaqachon huquqiy va moliyaviy nazorat tizimiga ega hisoblanadi, shuning uchun ularda tashqi boshqaruvni qo‘llashga zaruriyat bo‘lmaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 791-b.

179-modda. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining mol-mulkini va mulkiy huquqlarini sotishning (ulardan boshqa shaxs foydasiga voz kechishning) o‘ziga xos xususiyatlari

Qarzdorning mol-mulkini sotishda (undan boshqa shaxs foydasiga voz kechishda) sud boshqaruvchisi yoki qarzdorning rahbari qishloq xo‘jaligi korxonasini elektron onlayn-auksion shaklidagi dastlabki kimoshdi savdosida mulkiy majmua sifatida sotishga qo‘yishi kerak.

Qarzdorning mol-mulkini sotib olishda imtiyozli huquqqa, shuningdek, yerga egalik qilish huquqiga qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirish bilan shug‘ullanayotgan va qarzdorning yer uchastkasiga bevosita tutash yer uchastkasiga egalik qiluvchi shaxslar ega bo‘ladi. Sud boshqaruvchisi yoki qarzdorning rahbari mazkur mol-mulkni, shuningdek, mulkiy huquqlarni sotishda (ulardan boshqa shaxs foydasiga voz kechishda) mazkur mol-mulk va mulkiy huquqlar qiymatini baholashdan o‘tkazishni tashkil etishi hamda shaxslarga ushbu mol-mulkni baholangan qiymati bo‘yicha olishni taklif etishi shart.

Agar ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslar bir oy ichida qishloq xo‘jaligi korxonasining mol-mulkini va mulkiy huquqlarini sotib olish istagini bildirmagan bo‘lsa, sud boshqaruvchisi yoki qarzdorning rahbari mol-mulk qonunchilikka muvofiq realizatsiya qilinishini amalga oshiradi.

Qishloq xo‘jaligi korxonasi to‘lovga qobiliyatsizlik oqibatida tugatilgan taqdirda, mazkur korxonaga berilgan yer uchastkalaridan foydalanish huquqi qonunchilikda belgilangan tartibda boshqa shaxsga berilishi yoki o‘zga shaxsga o‘tishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada qishloq xo‘jaligi korxonasining to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida uning mol-mulkini va mulkiy huquqlarini adolatli va samarali tarzda sotish tartibi, ulardan boshqa shaxs foydasiga voz kechishning o‘ziga xos xususiyatlari belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismiga muvofiq, qishloq xo‘jaligi korxonasi to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida dastlabki kimoshdi savdosida elektron onlayn-auksion shaklida mulkiy majmua sifatida sotuvga qo‘yilishi shart. Mazkur qoida imperativ xarakterga ega bo‘lib, u qishloq xo‘jaligi korxonalarining mol-mulkini realizatsiya qilish jarayonida oshkoralik, adolatli raqobat va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashga qaratilgan.

Bunda qishloq xo‘jaligi korxonasi alohida aktivlar kesimida emas, balki yagona mulkiy majmua sifatida, ya’ni binolar, inshootlar, texnika vositalari, yer uchastkalari hamda boshqa ishlab chiqarish aktivlari bilan birgalikda sotuvga chiqariladi. Ushbu yondashuv qishloq xo‘jaligi korxonasining ishlab chiqarish salohiyatini saqlab qolishga, uning uzluksiz faoliyatini tiklash imkoniyatini ta’minlashga hamda aktivlar parchalanib ketishining oldini olishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, elektron auksion shakli savdolarning ochiqligini ta’minlab, barcha manfaatdor shaxslar uchun teng ishtirok imkoniyatini yaratadi. Natijada mol-mulk bozor qiymatiga yaqin narxda sotilishiga erishiladi, uni sun’iy ravishda arzonlashtirib sotish holatlari, shuningdek, korrupsion kelishuvlar ehtimoli sezilarli darajada kamayadi. Bu esa, o‘z navbatida, sud boshqaruvchisining kreditorlar manfaatlarini samarali himoya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

2. Ushbu norma qishloq xo‘jaligi korxonasining mol-mulkini realizatsiya qilish jarayonida imtiyozli huquqlarni belgilashga qaratilgan. Unga ko‘ra, qarzdorning mol-mulki sotuvga qo‘yilgan taqdirda, qonun qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanayotgan hamda qarzdorga tegishli yer uchastkasiga bevosita tutash yer uchastkalariga egalik qiluvchi shaxslarga ustuvor sotib olish huquqini beradi. Ushbu imtiyozli huquq mazkur shaxslarga mol-mulkni boshqa ishtirokchilarga nisbatan ustuvor ravishda sotib olish imkoniyatini ta’minlash, shuningdek, qarzdorning yer uchastkasi bilan bog‘liq mulkiy huquqlarni qo‘lga kiritish imkonini yaratish orqali amalga oshiriladi.

Mazkur huquqiy tartibning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan bevosita shug‘ullanayotgan va yer resurslari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan subyektlar tomonidan ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlash, yerdan oqilona va samarali foydalanishni rag‘batlantirishdan iborat. Shu orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini saqlab qolish, agrar sohada moliyaviy barqarorlikni ta’minlash hamda qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga erishiladi.

Shu bilan birga, Qonunga muvofiq, sud boshqaruvchisi yoki qarzdorning rahbari qarzdor – qishloq xo‘jaligi korxonasining mol-mulkini, shuningdek, mulkiy huquqlarini sotishda (yoki ulardan boshqa shaxs foydasiga voz kechishda) ushbu aktivlarni majburiy tartibda baholashni tashkil etishi hamda ularni baholangan qiymatida taklif etishi shart. Mazkur talablar qishloq xo‘jaligi korxonalari aktivlarini realizatsiya qilish jarayonida adolatlilik, oshkoralik va iqtisodiy asoslanganlikni ta’minlashga qaratilgan. Xususan, aktivlarni baholash jarayonining tashkil etilishi ularning bozor qiymatiga

yaqin narxda sotilishini ta’minlaydi. Shuningdek, mol-mulk va mulkiy huquqlarning baholangan qiymatda taklif etilishi, avvalo, imtiyozli huquqqa ega bo‘lgan shaxslar tomonidan ularni sotib olish imkoniyatini kafolatlaydi.

Ayni paytda, qarzdor mol-mulkini boshqa shaxs foydasiga voz kechish jarayoni ham adolatli va shaffof tartibda amalga oshirilishi lozim bo‘lib, bunda aktivlarning baholangan qiymati asosiy mezon sifatida qo‘llaniladi. Bu esa aktivlarni asossiz ravishda arzon narxlarda realizatsiya qilish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida qarzdor – qishloq xo‘jaligi korxonasining mol-mulkini sotib olish hamda yerga egalik qilishda imtiyozli huquqqa ega bo‘lgan shaxslar tomonidan ushbu huquqni amalga oshirish muddati aniq belgilanadi. Boshqacha aytganda, ushbu norma qishloq xo‘jaligi korxonasi mol-mulkini realizatsiya qilish jarayonida imtiyozli huquqqa ega shaxslarning manfaatlarini himoya qilish bilan birga ular tomonidan tegishli qarorni belgilangan muddat doirasida qabul qilishini ta’minlashga qaratilgan. Unga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan hamda qarzdorning yer uchastkasiga tutash yer uchastkalariga egalik qiluvchi shaxslar bir oy ichida mol-mulk va mulkiy huquqlarni sotib olish istagini bildirmagan taqdirda, sud boshqaruvchisi yoki qarzdor rahbari mazkur aktivlarni qonunchilikda belgilangan umumiy tartibda realizatsiya qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Buning mohiyati shundan iboratki, imtiyozli huquqqa ega shaxslarga mol-mulkni ustuvor tartibda sotib olish imkoniyati taqdim etiladi, biroq ular ushbu huquqdan belgilangan bir oylik muddat ichida foydalanmagan hollarda aktivlar bozor tamoyillari asosida, adolatli va qonuniy tartibda boshqa shaxslarga sotiladi hamda bozor qiymatiga yaqin narxlarda samarali realizatsiya qilinishi ta’minlanadi.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismi qishloq xo‘jaligi korxonasining to‘lovga qobiliyatsizligi natijasida faoliyati tugatilgan hollarda yer uchastkalari bilan bog‘liq huquqiy mexanizmlarni belgilaydi. Xususan, qishloq xo‘jaligi korxonasi tugatilgan taqdirda, unga ajratilgan yer uchastkalari qonunchilik talablariga muvofiq boshqa shaxslarga berilishi yoki ularga o‘tishi mumkinligi nazarda tutiladi.

Ushbu qoida yer uchastkasiga egalik huquqini o‘zgartirish faqat qonunchilikda belgilangan tartib va rasmiy protseduralar asosida amalga oshirilishi lozimligini anglatadi.

Shu bilan birga, yer uchastkalariga nisbatan imtiyozli huquqlar ham hisobga olinadi. Jumladan, qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanayotgan va qarzdorning yer uchastkasiga bevosita tutash yer uchastkalariga egalik qiluvchi shaxslarga yer uchastkalari ustuvor tartibda berilishi mumkin. Mazkur yondashuv yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta’minlash, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining uzluksizligini saqlash hamda kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Shu tariqa, ushbu norma qishloq xo‘jaligi korxonasining to‘lovga qobiliyatsizligi oqibatida yer uchastkasiga egalik huquqining qonunchilik doirasida maqbul va adolatli tarzda qayta taqsimlanishini kafolatlaydi hamda agrar sohada ishlab chiqarish faoliyatining barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 791-b.

180-modda. Bankni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish asosi

Sud majburiy tugatilayotgan bankni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ishni Markaziy bank tomonidan tayinlangan tugatuvchi tomonidan ariza taqdim etilganda ko‘rib chiqish uchun qabul qiladi.

Sharhlanayotgan modda majburiy tugatilayotgan bankni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish jarayoni faqat O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (bundan buyon matnda Markaziy bank deb yuritiladi) tayinlagan tugatuvchi ariza bilan murojaat etgandagina sud tomonidan qonuniy asosda boshlanishini belgilaydi.

Bank faoliyatini tugatish va bankni tugatish ixtiyoriy tugatish yoki majburiy tugatish shaklida amalga oshirilishi mumkin. Bankni majburiy tugatish Markaziy bank boshqaruvining litsenziyani chaqirib olish va bankni majburiy tugatish to‘g‘risidagi qarori asosida amalga oshiriladi. Bank majburiy tugatilayotganda tugatuvchi Markaziy bank tomonidan tayinlanadi. Tugatuvchi majburiy tugatilayotgan bankning yagona vakili hisoblanadi.

Tugatuvchi oraliq tugatish balansi Markaziy bank tomonidan tasdiqlanganidan keyin Markaziy bankni xabardor qilgan holda sudga majburiy tugatilayotgan bankni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish haqidagi ariza bilan quyidagi hollarda murojaat qilishga haqli: a) bankni majburiy tugatish to‘g‘risidagi qaror bankning to‘lovga qobiliyatsizligi munosabati bilan qabul qilinganda; b) bankni majburiy tugatish jarayonida **«Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni** 20-moddasining ikkinchi qismida ko‘rsatilgan to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari yuzaga kelganda.

Arizaga tugatuvchi tomonidan quyidagilar ilova qilinadi: 1) bankni majburiy tugatish to‘g‘risidagi qaror; 2) bankning oraliq tugatish balansi; 3) bank kreditorlarining tan olingan talablari reyestri.

Shu tariqa, mazkur modda bank tizimi barqarorligini saqlash, sudga asossiz murojaatlar kelib tushishining oldini olish va to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni professional nazorat ostida amalga oshishini kafolatlaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 792-b.

181-modda. Bankning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari

Qarzdor bank kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga qodir bo‘lmagan taqdirda yuzaga keladigan munosabatlar hamda banklarning to‘lovga qobiliyatsizligi bilan bog‘liq masalalar «Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Bankka nisbatan sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillari joriy etilmaydi.

Ushbu Qonunning 38-moddasida nazarda tutilgan shaxslardan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Omonatlarni kafolatlash agentligi ham bankning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslardir.

Sharhlanayotgan modda bank to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lgan hollarda yuzaga keladigan munosabatlar «Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to‘g‘risida»gi Qonun bilan tartibga solinishini, bankka nisbatan sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillari qo‘llanilmasligini, shuningdek, Markaziy bank hamda Omonatlarni kafolatlash agentligi ishda ishtirok etuvchi shaxslar sifatida qatnashishini nazarda tutadi.

1. Ushbu norma banklar to‘lovga qobiliyatsizlik holatiga tushganda vujudga keladigan huquqiy munosabatlar nafaqat umumiy to‘lovga qobiliyatsizlik qoidalariga, balki maxsus tartib – «Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq ham hal etilishini belgilaydi.

Quyidagi holatlardan biri yuzaga kelganda bank to‘lovga qobiliyatsiz deb hisoblanadi: a) bank o‘z mijozlarining talablarini mablag‘lar yetarli emasligi sababli yetti kun ichida qanoatlantirishga qodir bo‘lmaganda; b) bankning majburiyatlari uning aktivlaridan ortib ketganda; d) bank kapitali monandligi koeffitsiyentlari va (yoki) ustav kapitalining miqdori qonunchilikda belgilangan eng kam miqdordan ellik va undan ko‘p foizga kamayganda; e) bankning moliyaviy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarning hisobotlarda to‘g‘ri aks ettirilishi yuqorida ko‘rsatilgan asoslarning yuzaga kelishiga olib keladigan hollar Markaziy bank tomonidan aniqlanganda; f) omonatchilar va kreditorlar tomonidan bankka ishonib topshirilgan pul mablag‘larining but saqlanishiga xavf soluvchi holatlar mavjud bo‘lganda.

Bunda sud Markaziy bankning bankni majburiy tugatish to‘g‘risidagi qaroriga asosan bankni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida yoki buni rad etish haqida qaror qabul qiladi. Bankni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritish «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 11-bobi talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bunda majburiy tugatishni boshlash oqibatlariga nisbatan «Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 59-moddasining qoidalari qo‘llaniladi, kreditorlarning talablarini qanoatlantirish esa uning 64- va 65-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Bankni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida sud tomonidan qaror qabul qilingan paytdan e’tiboran tugatuvchining bankni majburiy tugatishga doir vazifalari va Markaziy bankning bu boradagi vakolatlari tugatiladi.

2. Ushbu norma banklarga nisbatan umumiy to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari hisoblangan sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv choralari qo‘llanilmasligini qat’iy belgilaydi. Boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlardan farqli o‘laroq, bank faoliyatida omonatchilar mablag‘i, to‘lov va hisob-kitob tizimi barqarorligi, moliyaviy xavfsizlik kabi umumiy iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta’sir etuvchi omillar mavjud bo‘lgani uchun, ularni muvaqqat boshqaruv organiga o‘tkazish yoki sud tomonidan sanatsiya qilish samarasiz va xavfli deb hisoblanadi. Shu sababli banklar faqat maxsus qonunchilik – «Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni bilan belgilangan alohida mexanizmlar asosida barqarorlashtiriladi yoki tugatiladi, bu esa tizim barqarorligini, omonatchilar huquqlarini va moliyaviy xavflarni kamaytirishni ta’minlaydi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi bank to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish muhim ahamiyatga ega bo‘lgan maxsus huquqiy munosabat ekanini inobatga olgan holda ishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasini kengaytiradi. Unga ko‘ra, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar sifatida nafaqat qarzdor – bank, sud boshqaruvchisi, kreditorlar, vakolatli davlat organi, qarzdorning majburiyatlari bo‘yicha ta’minot bergan shaxs, balki Markaziy bank hamda Omonatlarni kafolatlash agentligi ham belgilanadi.

Buning sababi shundaki, Markaziy bank banklar faoliyati ustidan nazorat qiluvchi asosiy regulyator sifatida bankning haqiqiy moliyaviy holati, likvidligi va barqarorligi to‘g‘risida to‘laqonli ma’lumotlarga ega. Omonatlarni kafolatlash agentligi esa omonatchilarning manfaatlarini himoya qilish, kompensatsiya to‘lovlari va bank tugatilishidagi muhim moliyaviy qarorlarda ishtirok etadi. Omonatlarni kafolatlash agentligi davlat muassasasi bo‘lib, u banklardagi omonatlarning himoya qilinishini kafolatlash sohasidagi vakolatli organ hisoblanadi. Uning asosiy vazifalari **«Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida** belgilangan.

Shu tariqa, ushbu norma sud ishining samaradorligini, qarorlarning asosli va xolis qabul qilinishi, shuningdek, bank tizimi barqarorligi va omonatchilar manfaatlarining ta’minlanishini kafolatlaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 792-b.

182-modda. Sug‘urtalovchining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish

Ushbu Qonunning 38-moddasida nazarda tutilgan shaxslardan tashqari sug‘urta faoliyatini tartibga solish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi ham sug‘urtalovchining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxsdir.

Sharhlanayotgan modda sug‘urta sohasi yuqori xavf darajasiga ega ekanini inobatga olib to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida maxsus vakolatli davlat organining ishtirokini majburiy deb belgilaydi.

«Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 47-moddasiga muvofiq, vakolatli davlat organi sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshiradi.

Vakolatli davlat organi, jumladan: a) bajarilishi majburiy bo‘lgan to‘lovga qobiliyatlilik normativlarini hamda ularni aniqlash tartibini, ayrim tavakkalchiliklar bo‘yicha sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) majburiyatlarining yo‘l qo‘yiladigan eng ko‘p yoki eng kam miqdorini va majburiyatlarning jami miqdorini hisoblab chiqarish uslubini, sug‘urtalovchilarning (qayta sug‘urtalovchilarning) to‘lovga qobiliyatliligiga doir axborotni taqdim etish tartibi va muddatlarini belgilaydi; b) sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishini, to‘lovga qobiliyatlilikning belgilangan normativlari va ularning moliyaviy barqarorligining boshqa talablari ta’minlanishini nazorat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi «Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-291-son qarorining 8-bandiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi sug‘urta tashkilotlari faoliyati ustidan nazorat qiluvchi, ushbu sohada tartibga solish, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini amalga oshirish bo‘yicha vakolatli davlat organi etib belgilangan.

Bu vakolatli davlat organi sug‘urtalovchining moliyaviy barqarorligi, rezervlarni shakllantirish, sug‘urta to‘lovlarining ta’minlanganligi va litsenziyaviy talablarga rioya qilinishi bo‘yicha eng to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lgani uchun, sudda qabul qilinadigan qarorlar xolis, asosli va sohaning o‘ziga xos xatarlarini hisobga olgan holda chiqarilishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, mazkur talab sug‘urtalanuvchilar manfaatlarini himoya qilish, kompensatsiya to‘lovlari uzluksizligini saqlash va sug‘urta bozori barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 792-b.

183-modda. Sug‘urtalovchining mulkiy majmuasini sotish

Sug‘urtalovchining mulkiy majmuasini sotish tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayonida ushbu Qonunning 126-moddasiga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Faqat sug‘urta tashkiloti qarzdor sug‘urtalovchining mulkiy majmuasini sotib oluvchi bo‘lishi mumkin.

Sug‘urtalovchining mulkiy majmuasi tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayonida sotilgan taqdirda sug‘urtalovchining mulkiy majmuasi sotilayotgan sanadagi sug‘urta hodisasi yuzaga kelmagan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha barcha huquq va majburiyatlar majmuasini sotib olgan shaxsga o‘tadi.

Tugatishga doir ish yuritish o‘tkazilayotganida sug‘urtalovchining mulkiy majmuasi sotib oluvchi faqat sug‘urtalovchi bankrot deb topilgan sanaga qadar sug‘urta hodisasi yuzaga kelmagan sug‘urta shartnomalarini o‘z zimmasiga olishga rozi bo‘lganda sotilishi mumkin.

Sharhlanayotgan modda sug‘urtalovchining mulkiy majmuasi faqat maxsus tartibda va faqat sug‘urta tashkilotiga sotilishi hamda sug‘urta hodisasi yuz bermagan shartnomalar bo‘yicha huquq va majburiyatlar sotib oluvchiga o‘tishi shartligini belgilaydi.

1. Ushbu normaga ko‘ra, sug‘urtalovchining mulkiy majmuasini sotish umumiy erkin ish yuritish tartibida emas, balki faqat tashqi boshqaruv tartib-taomili doirasida va Qonunning 126-moddasida belgilangan maxsus qoidalarga qat’iy rioya etilgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Bu talab sug‘urta tashkilotining aktivlari va majburiyatlari yuqori ijtimoiy xavf darajasiga ega bo‘lgani uchun, ularni sotish jarayoni professional nazorat ostida, shaffof va qonuniy tartibda amalga oshirilishini ta’minlaydi. Tashqi boshqaruvda maxsus menejer sug‘urtalovchining moliyaviy ahvolini barqarorlashtirish, uning aktivlarini saqlab qolish va eng maqbul shartlarda sotish imkoniyatlarini baholaydi.

Shu tariqa, ushbu norma sug‘urtalanuvchilar manfaatlari, sug‘urta portfelining yaxlitligi va bozor barqarorligini ta’minlashga xizmat qilib, aktivlarni sotish jarayoni manfaatdor taraflardan mustaqil, huquqiy nazorat ostida amalga oshirilishini kafolatlaydi.

2. Ushbu norma sug‘urtalovchining mulkiy majmuasi, ya’ni uning sug‘urta portfeli, aktivlari, majburiyatlari va shartnomalar majmuasi oddiy xo‘jalik yurituvchi subyektga emas, faqat sug‘urta tashkilotiga sotilishi mumkinligini belgilaydi.

Bunday talabning joriy etilishi sug‘urta faoliyatining o‘ziga xosligi va yuqori ijtimoiy ahamiyati bilan bog‘liq. Sug‘urtalovchining mulkiy majmuasi tarkibida yuzlab, hatto minglab sug‘urta shartnomalari, ular bo‘yicha ehtimoliy to‘lovlar, rezervlar mujassam bo‘ladi. Shu sababli bunday majmuani faqat sug‘urta sohasida litsenziyaga, malakali mutaxassislarga va moliyaviy barqarorlikka ega bo‘lgan tashkilot boshqarishi mumkin.

Ushbu norma sug‘urta xizmatlarining uzluksizligini ta’minlashga, sug‘urtalanuvchilar huquqlarini himoya qilishga, sug‘urta portfelining noto‘g‘ri boshqarilishi yoki xavfli investor qo‘liga o‘tib ketishining oldini olishga xizmat qiladi. Shunday qilib, majmuani faqat sug‘urta tashkiloti sotib olishi mumkinligi sug‘urta bozori barqarorligini va sug‘urtalanuvchilar manfaatlarini kafolatlaydi.

3. Ushbu normaga ko‘ra, agar sug‘urtalovchining mulkiy majmuasi tashqi boshqaruv davrida sotilsa, sotish sanasiga qadar sug‘urta hodisasi yuz bermagan barcha sug‘urta shartnomalari bo‘yicha huquq va majburiyatlar to‘liq tarzda yangi sug‘urtalovchiga o‘tadi. Bu majmuani sotib olgan sug‘urta tashkiloti: a) sug‘urta mukofotlarini qabul qilish; b) sug‘urta hodisasi yuz berganda to‘lovlarni amalga oshirish; d) shartnomalarni bajarish va ularni saqlab qolish; e) sug‘urtalanuvchilar bilan munosabatlarni davom ettirish kabi barcha funksiyalarni o‘z zimmasiga oladi degani.

Ushbu normaning maqsadi sug‘urtalanuvchilarning huquqiy va moliyaviy manfaatlarini himoya qilish, sug‘urta xizmatlari uzluksizligini ta’minlash va sug‘urta portfelini yangi, barqaror tashkilotga to‘g‘ri va shaffof tarzda o‘tkazishdir. Bu amaliyot sug‘urtalanuvchilarni sug‘urtalovchi almashganiga qaramay himoyasiz qolib ketishdan saqlaydi hamda bozor barqarorligini ta’minlaydi.

4. Ushbu norma to‘g‘ridan to‘g‘ri sug‘urtalovchiga nisbatan tugatish jarayoni olib borilayotgan holatda mulkiy majmuani sotishning qo‘shimcha, yanada qat’iy shartlarini belgilaydi. Bu talab sug‘urta sohasidagi ijtimoiy ahamiyat va xavf darajasini inobatga olgan holda sug‘urtalanuvchilar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Chunki to‘lovga qobiliyatsizlik sharoitida sug‘urtalovchining sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish imkoniyati keskin cheklanadi va sug‘urtalanuvchilar ehtimoliy xavf ostida qoladi.

Shu sababli majmuani sotib oluvchi yangi sug‘urta tashkiloti ushbu shartnomalar bo‘yicha: a) sug‘urta hodisasi yuz berganda to‘lovlarni amalga oshirish; b) shartnomalarni amaliy jihatdan davom ettirish; d) sug‘urtalanuvchilar bilan munosabatlarni saqlash kabi majburiyatlarni to‘liq qabul qilishi shart.

Ushbu mexanizm sug‘urta xizmatlarining uzluksizligini ta’minlaydi, aholining moliyaviy manfaatlarini muhofaza qiladi va sug‘urta bozori barqarorligini saqlashga xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 792-b.

184-modda. Sug‘urtalovchi to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lgan taqdirda sug‘urta qildiruvchilarning (naf oluvchilarning) talab qilish huquqi

Sud sug‘urtalovchini bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilgan taqdirda, mazkur qaror qabul qilingan sanaga qadar qaysi sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta hodisasi yuzaga kelmasa, o‘sha barcha sug‘urta shartnomalari bekor qilinadi, bundan ushbu Qonunning 183-moddasining uchinchi va to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Sug‘urta qildiruvchilar (naf oluvchilar) ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra bekor qilingan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urtalovchiga to‘langan sug‘urta mukofotining sug‘urta shartnomasining amal qilish muddati va mazkur shartnoma bekor qilingan muddat o‘rtasidagi farqqa mutanosib ravishdagi qismini, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qaytarishi shart.

Sug‘urta qildiruvchilar (naf oluvchilar) sud sug‘urtalovchini bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilguniga qadar sug‘urta hodisasi yuzaga kelgan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta tovoni (sug‘urta puli) to‘lanishini tugatish boshqaruvchisidan talab qilish huquqiga ega.

Sharhlanayotgan modda sug‘urtalovchi bankrot deb topilganda, sug‘urta hodisasi yuzaga kelmagan barcha shartnomalar (ayrim istisnolardan tashqari) bekor qilinishi, sug‘urta qildiruvchilarga to‘langan mukofotning tegishli qismi qaytarilishi va bankrot deb topish to‘g‘risidagi qarorgacha sug‘urta hodisasi yuz bergan shartnomalar bo‘yicha sug‘urta to‘lovini talab qilish huquqi saqlanib qolishini belgilaydi.

1. Ushbu normaga ko‘ra, agar sud sug‘urtalovchini bankrot deb topib, tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilsa, shu sanagacha sug‘urta hodisasi yuzaga kelmagan barcha sug‘urta shartnomalari bekor qilinadi. Bu bilan qonun tugatishga doir ish yuritish jarayonida sug‘urtalovchining kelgusi majburiyatlarini cheklab, kreditorlar manfaatlarini himoya qiladi. Biroq Qonun 183-moddasining uchinchi va to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan quyidagi holatlar bundan mustasno: 1) sug‘urtalovchining mulkiy majmuasi tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayonida sotilgan taqdirda sug‘urtalovchining mulkiy majmuasi sotilayotgan sanadagi sug‘urta hodisasi yuzaga kelmagan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha barcha huquq va majburiyatlar majmuani sotib olgan shaxsga o‘tadi; 2) tugatishga doir ish yuritish o‘tkazilayotganida sug‘urtalovchining mulkiy majmuasi sotib oluvchi faqat sug‘urtalovchi bankrot deb topilgan sanaga qadar sug‘urta hodisasi yuzaga kelmagan sug‘urta shartnomalarini o‘z zimmasiga olishga rozi bo‘lganda sotilishi mumkin.

2. Ushbu normaga ko‘ra, agar sug‘urtalovchi bankrot deb topilganligi sababli sug‘urta shartnomasi bekor qilingan bo‘lsa, sug‘urta qildiruvchi (yoki naf oluvchi) o‘zining to‘lagan sug‘urta mukofotidan foydalanilmagan qismiga nisbatan pulni qaytarib olish

huquqiga ega. Qaytariladigan summa shartnomaning amal qilgan davri bilan bekor qilingan paytgacha bo‘lgan davr o‘rtasidagi farqqa mutanosib ravishda hisoblanadi, ya’ni faqat «ishlatilmagan» muddat uchun to‘langan qism qaytariladi. Agar qonunchilikda boshqacha qoida belgilangan bo‘lsa, mazkur tartib o‘sha maxsus qoidaga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismiga muvofiq, agar sud sug‘urtalovchini bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qarorni qabul qilgunga qadar sug‘urta hodisasi yuzaga kelgan bo‘lsa, sug‘urta qildiruvchi yoki naf oluvchi sug‘urta to‘lovini olish huquqini saqlab qoladi. Bunda sug‘urtalovchining bankrot deb topilganligi, avvaldan yuz bergan va qonuniy asosga ega sug‘urta hodisalari bo‘yicha to‘lov majburiyatini yo‘qqa chiqarmaydi. Bunday hollarda sug‘urta tovonini to‘lash vazifasi tugatish boshqaruvchisi zimmasiga o‘tadi va u umumiy to‘lovga qobiliyatsizlik tartibiga muvofiq to‘lovlarni amalga oshirishi lozim. Qarang: Xalqaro sharh. 792-b.

185-modda. Sug‘urtalovchining kreditorlari talablarini qanoatlantirish

Sud sug‘urtalovchini bankrot deb topgan taqdirda kreditorlarning talablari quyidagi tartibda qanoatlantiriladi:

birinchi navbatda – sug‘urta qildiruvchilarning hayotni sug‘urta qilish sohasidagi majburiy sug‘urta shartnomalari bo‘yicha talablari;

ikkinchi navbatda – sug‘urta qildiruvchilarning boshqa majburiy sug‘urta shartnomalari bo‘yicha talablari;

uchinchi navbatda – boshqa sug‘urta qildiruvchilarning (naf oluvchilarning) talablari;

to‘rtinchi navbatda – soliqlar hamda yig‘imlarni nazarda tutuvchi to‘lov (ijro) hujjatlari bo‘yicha talablar. Mazkur talablar to‘liq qanoatlantirilganidan keyin ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha talablar va fuqarolarning jinoyat yoki ma’muriy huquqbuzarlik oqibatida o‘z mol-mulkiga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha talablari qanoatlantiriladi;

beshinchi navbatda – sug‘urtalovchining boshqa kreditorlari talablari.

Sharhlanayotgan modda sud sug‘urtalovchini bankrot deb topgan taqdirda kreditorlarning talablarini qanoatlantirish tartibini belgilaydi.

Ushbu norma Qonunning 150-moddasida belgilangan tartibdan farq qilgan holda sug‘urta qildiruvchilarni ham toifalarga ajratgan holda ularning talablarini qanoatlantirish navbatini belgilaydi. Bunday navbat kreditorlar o‘rtasidagi talablarni qondirishda ustuvorlik tartibini aniq belgilash orqali manfaatlar muvozanatini ta’minlashga qaratilgan.

Shunday bo‘lsa-da, ushbu beshta navbatdagi kreditorlarning talablarini qanoatlantirish Qonunning 150-moddasida belgilangan sud xarajatlari, sud boshqaruvchilariga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar, joriy kommunal va foydalanish to‘lovlari, qarzdorning mol-mulkini sug‘urta qilish xarajatlari, shuningdek, qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganidan keyin yuzaga kelgan joriy to‘lov majbu-

riyatlari bo‘yicha talablar hamda qarzdor qaysi fuqaroning hayotiga yoki sog‘lig‘iga zarar yetkazilganligi uchun qonunga muvofiq javobgar bo‘lsa, shu fuqaroning talablari navbatdan tashqari qanoatlantirilgandan keyingina amalga oshiriladi.

Shu tariqa, ushbu norma sug‘urtalovchi bankrotligi holatida kreditorlar talablarini qondirishda aniq iyerarxiyani belgilab, avvalo, ijtimoiy ahamiyatga ega va majburiy sug‘urta bilan bog‘liq talablarni himoya qilishni ta’minlaydi. Natijada inson hayoti va sog‘lig‘i, jamoat manfaatlari hamda davlat majburiyatlari ustuvor tarzda ta’minlanib, qolgan talablar esa qoldiq prinsipi asosida qanoatlantiriladi. Qarang: Xalqaro sharh. 792-b.

186-modda. Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilari to‘lovga qobiliyatsizligining o‘ziga xos xususiyatlari

Ushbu Qonunning 38-moddasida nazarda tutilgan shaxslardan tashqari qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi ham qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxsdir.

Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarining to‘lovga qobiliyatsizligi tartib-taomillarining ushbu Qonun bilan tartibga solinmagan o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar bozorida investorlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlari qonunchilik hujjatlarida belgilanishi mumkin.

Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilari to‘lovga qobiliyatsizligining oldini olish va ularning to‘lov qobiliyatini tiklashning sudga qadar tartib-taomillarini o‘tkazish tartibi qonunchilikda belgilanadi.

Sharhlanayotgan modda qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilari to‘lovga qobiliyatsizligi ishlarida vakolatli davlat organining ishtirokini belgilaydi hamda ushbu sohadagi o‘ziga xos tartib-taomillar, investorlar huquqlarini himoya qilish choralari va sudga qadar amalga oshiriladigan tartib-taomillar mexanizmlarini qonunchilik bilan tartibga solish mumkinligini nazarda tutadi.

1. Ushbu normada nazarda tutilgan qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchisi deganda qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs tushuniladi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyat quyidagilar sifatida amalga oshiriladi: 1) investitsiya vositachisi; 2) investitsiya maslahatchisi; 3) investitsiya fondi; 4) investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi; 5) qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi.

Investitsiya vositachisi mijozning topshirig‘iga binoan mijoz nomidan va uning hisobidan qimmatli qog‘ozlarga doir bitimlar hamda operatsiyalarni amalga oshiruvchi qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchisidir.

Investitsiya maslahatchisi qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi, qimmatli qog‘ozlar bozori va uning ishtirokchilari holatini tahlil etish

hamda prognoz qilish masalalariga doir maslahat xizmatlari, transfer-agent xizmatlarini ko‘rsatuvchi, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar bozori mutaxassislarini qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir.

Investitsiya fondi investorlarning pul mablag‘larini va qo‘yilmalarini investitsiya aktivlariga jalb qilish maqsadida aksiyalar chiqaradigan yuridik shaxs – aksiyadorlik jamiyatidir.

Investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi o‘ziga egalik qilish uchun topshirilgan va boshqa shaxsga tegishli bo‘lgan: a) qimmatli qog‘ozlarni, shu jumladan, investitsiya aktivlarini boshqarish jarayonida olinadigan qimmatli qog‘ozlarni; b) qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilish uchun mo‘ljallangan va investitsiya aktivlarini boshqarish jarayonida olinadigan pul mablag‘larini shu shaxsning yoki u ko‘rsatgan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab, o‘z nomidan ishonchli boshqaruvni belgilangan muddat mobaynida amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir.

Qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi investorlarga vositachilarni jalb etmay turib savdoda ishtirok etish imkoniyatini beruvchi, qimmatli qog‘ozlar savdosini tashkil etish bo‘yicha faoliyatni buyurtmalar qabul qilish punktlaridan, maxsus kompyuter savdo tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir.

«Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri) 55-moddasiga muvofiq, qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi «Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-291-son qarorining 8-bandiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi etib belgilangan.

Qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi, jumladan: a) qimmatli qog‘ozlar bozorini shakllantirish, rivojlantirish, nazorat qilish va tartibga solish sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi; b) qimmatli qog‘ozlar bozoridagi professional faoliyatni litsenziyalaydi, mazkur sohada ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillarini amalga oshiradi; d) investorlarning hamda qimmatli qog‘ozlar egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlaydi.

Shu sababli qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi ham qarzdor, sud boshqaruvchisi, kreditorlar, boshqa davlat organi, qarzdorning majburiyatlari bo‘yicha ta’minot bergan shaxs kabi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxs ekanligi ushbu normada alohida qayd qilingan.

2. Ushbu normaga muvofiq, qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilariga oid to‘lovga qobiliyatsizlik masalalari Qonunda belgilangan qoidalar bilan cheklanib qolmaydi. Unda nazarda tutilmagan maxsus tartib-taomillar va sohaviy xususi-

yatlar qimmatli qog‘ozlar bozoriga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab qo‘yilishi mumkin. Bunday hujjatlar qatoriga «Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi «Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5630-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi «Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-291-son, 2023-yil 24-martdagi «Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-101-son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 23-son, 2024-yil 26-apreldagi «Qimmatli qog‘ozlar bozorida mijozlarni masofadan turib raqamli identifikatsiya qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 238-son qarorlarini kiritish mumkin.

Yuqorida qayd qilingan va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarini tashkil qilish, faoliyati, vakolatlari hamda investorlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish tartibi kompleks ta’minlanishi belgilangan. Shuningdek, ushbu norma qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilari to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lgan vaziyatda sud va boshqa organlar ushbu sohani tartibga soluvchi maxsus qonunchilik normalariga murojaat qilishlari shartligini belgilaydi. Bu esa qimmatli qog‘ozlar bozoridagi to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonlarini milliy qonunchilikning to‘liq va o‘zaro bog‘liq tizimi asosida amalga oshirilishini ta’minlaydi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida: *birinchidan,* qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilari to‘lovga qobiliyatsizlik xavfi paydo bo‘lganda uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rishi; *ikkinchidan,* ularning to‘lov qobiliyatini tiklashning sudga qadar tartib-taomillarini o‘tkazish tartibi qonunchilikda belgilanishi lozimligi nazarda tutilgan.

Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-oktyabrdagi 708-son qarori bilan «Sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom tasdiqlangan. Mazkur Nizom to‘lovga qobiliyatsizlik alomatiga ega bo‘lgan korxonalarni, shu jumladan, qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarini moliyaviy sog‘lomlashtirish hamda ularning to‘lov qobiliyatini tiklash uchun sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish masalalarini tartibga soladi.

Sudgacha sanatsiya qilish davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda to‘lovga qobiliyatsizlik alomatiga ega bo‘lgan korxonaga nisbatan sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilguniga qadar o‘tkaziladi va korxonaning to‘lov qobiliyatini tiklash hamda kelgusida samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun sharoitlar yaratishni nazarda tutadi. Qarang: Xalqaro sharh. 792-b.

187-modda. Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishda sud boshqaruvchilariga qo‘yiladigan talablar

Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish bo‘yicha sud boshqaruvchisi faoliyatni sud boshqaruvchisi sifatida amalga oshirish uchun attestatsiyadan o‘tishi, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan beriladigan qimmatli qog‘ozlar bozori mutaxassisining malaka guvohnomasiga ega bo‘lishi kerak.

Sharhlanayotgan modda qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining to‘lovga qobiliyatsizligi bo‘yicha ishda sud boshqaruvchisi ham attestatsiyadan o‘tgan, ham qimmatli qog‘ozlar bozori bo‘yicha vakolatli organ bergan malaka guvohnomasiga ega bo‘lishi shartligini belgilaydi.

Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish bo‘yicha sud boshqaruvchisi sud boshqaruvchisi malaka attestati va qimmatli qog‘ozlar bozori mutaxassisining malaka sertifikatini qonunchilikda belgilangan tartibda olishi lozim.

Bunday tartib Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 30-noyabrdagi 635-son qarori bilan tasdiqlangan Ayrim turdagi malaka sertifikatini berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning yagona Ma’muriy reglamentida o‘rnatilgan. Mazkur Ma’muriy reglament jismoniy shaxslarga ayrim turdagi malaka sertifikatini berish uchun malaka imtihonini o‘tkazish, malaka sertifikatini rasmiylashtirish, to‘xtatib turish va bekor qilish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatish tartibini belgilaydi. Uning 6-ilovasida sud boshqaruvchisi malaka attestatini berish va 10-ilovasida qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini olish uchun jismoniy shaxslarni attestatsiyadan o‘tkazish tartibi belgilangan. Qarang: Xalqaro sharh. 792-b.

188-modda. Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining bitimlar tuzishiga doir cheklovlar

Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining bitimlar tuzishiga doir cheklovlar mazkur ishtirokchiga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari qo‘llanilayotganida o‘z mijozlarining qimmatli qog‘ozlar bozorida investorlarning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilganidan keyin investorlar tomonidan tasdiqlangan topshiriqlari bo‘yicha tuziladigan qimmatli qog‘ozlarga doir bitimlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Sharhlanayotgan modda to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari qo‘llashda qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisiga nisbatan bitimlar tuzishiga doir cheklovlarning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Qonunning 81-, 96-, 118-, 141-moddalarida kuzatuv, sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv va tugatish jarayonida bitimlar tuzishga qo‘yilgan cheklovlar qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisiga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari qo‘llanilayotganida o‘z mijozlarining qimmatli qog‘ozlarga doir bitimlariga nisbatan tatbiq etilmaydi. Bunday bitimlar: *birinchidan,* qimmatli qog‘ozlar bozorida investorlarning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilganidan keyin, *ikkinchidan,* investorlar tomonidan tasdiqlangan topshiriqlari bo‘yicha tuzilgan bo‘lishi shart. Qarang: Xalqaro sharh. 792-b.

189-modda. Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarining to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishda kuzatuv, tashqi boshqaruv va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomillarining o‘ziga xos xususiyatlari

Kuzatuv tartib-taomili joriy etilgan paytdan e’tiboran muvaqqat boshqaruvchi qimmatli qog‘ozlar bozorining qarzdor professional ishtirokchisiga o‘zlariga tegishli bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarni boshqaruvga topshirgan qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investorlarga to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganligi va muvaqqat boshqaruvchi o‘z huquqini amalga oshira boshlaganligi haqidagi xabarnomani o‘zi tayinlangan paytdan e’tiboran o‘n kunlik muddat ichida yuborishi shart. Mijozlarning qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisi tasarrufida bo‘lgan qimmatli qog‘ozlari va boshqa mol-mulki tugatish massasiga kiritilmaydi.

Agar tashqi boshqaruvchining yoki tugatish boshqaruvchisining mijozlar bilan kelishuvida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, tashqi boshqaruv yoki tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili joriy etilgan paytdan e’tiboran mijozlarning qolgan qimmatli qog‘ozlari mijozlarga qaytarilishi lozim.

Agar mijozlarning o‘ziga tegishli bir turdagi (bir emitent chiqargan, bir toifadagi, bir turkumdagi, bir seriyadagi) qimmatli qog‘ozlarni qaytarishga doir talablari qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining ixtiyoridagi mazkur qimmatli qog‘ozlar miqdoridan ortiq bo‘lsa, mazkur qimmatli qog‘ozlarni mijozlarga qaytarish mijozlarning talablariga mutanosib ravishda amalga oshiriladi. Mijozlar talablarining qanoatlantirilmagan qismi pul majburiyatlari deb e’tirof etiladi va ushbu Qonunning 11-bobida nazarda tutilgan tartibda qanoatlantiriladi (to‘lanadi).

Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining tashqi boshqaruvi tartib-taomili chog‘ida tashqi boshqaruvchi o‘ziga mijozlar tomonidan boshqaruvga topshirilgan qimmatli qog‘ozlarni mijozlarning roziligi bilan va ularning nomidan qimmatli qog‘ozlar bozorining boshqa professional ishtirokchisiga topshirishi mumkin.

Sharhlanayotgan modda qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining to‘lovga qobiliyatsizligi ishlarida kuzatuv, tashqi boshqaruv va tugatish tartib-taomil-

lari mijozlarni xabardor qilish, ularning qimmatli qog‘ozlarini tugatish massasidan mustasno etish, qolgan qimmatli qog‘ozlarni qaytarish, talablar ortiq bo‘lsa, mutanosib taqsimlash va tashqi boshqaruvchiga mijozlar roziligi bilan qimmatli qog‘ozlarni boshqa professional ishtirokchiga o‘tkazish huquqini nazarda tutadi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismiga ko‘ra, kuzatuv tartib-taomili boshlanganidan keyin muvaqqat boshqaruvchi qimmatli qog‘ozlar bozorining qarzdor professional ishtirokchisiga o‘z qimmatli qog‘ozlarini boshqaruvga topshirgan barcha investorlarni to‘lovga qobiliyatsizlik ishi qo‘zg‘atilgani va muvaqqat boshqaruvchi o‘z vakolatlarini amalga oshirishga kirishgani to‘g‘risida o‘zi tayinlangan sanadan boshlab o‘n kun ichida yozma ravishda xabardor qilishi shart. Bu talab investorlarning huquqiy axborotga ega bo‘lishini va ularning o‘z vaqtida harakat qilish imkoniyatini ta’minlashga qaratilgan. Bunda mijozlarning professional ishtirokchi tasarrufida saqlanayotgan qimmatli qog‘ozlari va boshqa mol-mulki tugatish massasiga kiritilmaydi, ya’ni ularga qarzdorning aktivi sifatida qaralmaydi va kreditorlar talablarini qondirish uchun ishlatilishi mumkin emas. Bu qoida investorlar manfaatlarini himoya qilishning kafolati bo‘lib, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida mijoz aktivlarining mustaqil maqomda saqlanishini ta’minlaydi.

2. Ushbu normaga ko‘ra, agar tashqi boshqaruvchi yoki tugatish boshqaruvchisi mijozlar bilan tuzgan kelishuvda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, tashqi boshqaruv yoki tugatish tartib-taomili joriy etilgan paytdan boshlab professional ishtirokchi tasarrufida saqlanayotgan mijozlarning qolgan qimmatli qog‘ozlari ularga qaytarilishi shart. Bu qoida mijozlar mulkining huquqiy maqomi qarzdorning aktivlaridan alohida ekanini yana bir bor tasdiqlaydi va to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida mijozlarning qimmatli qog‘ozlari kreditorlar talablarini qondirish uchun ishlatilishi mumkin emasligini kafolatlaydi. Ushbu norma mijozlarning qimmatli qog‘ozlari ularning shaxsiy mulki sifatida himoya qilinishini ta’minlab, to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili boshlanishi bilan ularni o‘z vaqtida qaytarish majburiyatini belgilaydi.

3. Ushbu normaga ko‘ra, agar mijozlar tomonidan qaytarib berish talab qilingan bir xil turdagi qimmatli qog‘ozlar miqdori professional ishtirokchi tasarrufida amalda mavjud bo‘lgan miqdordan ko‘p bo‘lib qolsa, mavjud qimmatli qog‘ozlar barcha mijozlar talablariga mutanosib ravishda taqsimlab qaytarilishi shart. Bunda har bir mijoz o‘z talabi nisbatida ulushli tarzda qondiriladi. Shu bilan birga, qimmatli qog‘ozlar yetishmasligi sababli qondirilmagan qolgan qismi pul majburiyati sifatida e’tirof etiladi va ular Qonunning 11-bobiga muvofiq to‘lovga qobiliyatsizlikdagi kreditorlar talablarini qanoatlantirish umumiy tartibida to‘lanadi. Bu mexanizm amalda mijozlarning mulkiy huquqlarini qonunan himoya qilishni, shuningdek, aktivlar yetishmagan holatda adolatli va mutanosib taqsimotni ta’minlashni maqsad qiladi.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismiga ko‘ra, qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining tashqi boshqaruvi amalga oshirilayotgan davrda tashqi boshqaruvchi mijozlar tomonidan unga boshqaruvga topshirilgan qimmatli qog‘ozlarni faqat mijozlarning roziligi bilan va ularning nomidan qimmatli qog‘ozlar bozorining boshqa professional ishtirokchisiga o‘tkazishi mumkin. Bu qoida mijoz qimmatli qog‘ozlari-

ning mustaqil mulk maqomiga egaligini, ular faqat mijoz manfaatlari yo‘lida boshqarilishi lozimligini va tashqi boshqaruvchining bu masalada bir tomonlama, ixtiyoriy qaror qabul qilish huquqiga ega emasligini belgilaydi. Shu bilan birga, ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida mijoz aktivlarini xavfsiz va professional boshqaruv ostida saqlash imkonini berib, bozordagi boshqa litsenziyalangan ishtirokchiga ularni vaqtincha o‘tkazish orqali mijozlar huquqlarini himoya qilish mexanizmini ta’minlaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 792-b.

190-modda. Ulush kiritish asosidagi qurilish bo‘yicha quruvchining to‘lovga qobiliyatsizligining o‘ziga xos xususiyatlari

Agar ushbu bobda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, quruvchining to‘lovga qobiliyatsizligi bilan bog‘liq munosabatlar ushbu Qonunda belgilangan, qarzdor yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligini tartibga soladigan qoidalar bilan tartibga solinadi.

Ushbu Qonunning 38-moddasida nazarda tutilgan shaxslardan tashqari qurilish faoliyatini tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organi ham ulush kiritish asosidagi qurilish bo‘yicha quruvchining (bundan buyon matnda quruvchi deb yuritiladi) to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxsdir.

Qurilish obyektini mulk huquqi asosida olish maqsadida ulush kiritish asosida qurilishda ishtirok etish shartnomasini tuzgan shaxsni (bundan buyon matnda ulushdor deb yuritiladi) sud boshqaruvchisi o‘zi tayinlangan kundan e’tiboran o‘n kun ichida quruvchiga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganligi haqida yozma ravishda xabardor qiladi.

Qurilish ishtirokchilarining mablag‘lari va (yoki) ulush kiritish asosidagi qurilish bo‘yicha ishtirokchilarining mablag‘lari jalb etilgan qurilishi tugallanmagan obyektlar (ko‘p kvartirali uylar), infratuzilma obyektlari va (yoki) ularga qo‘shilgan muhandislik-texnologik obyektlar kreditorlar yig‘ilishi qaroriga asosan Ulush kiritish asosida qurish uchun mablag‘larni jalb etuvchi quruvchilarning elektron ro‘yxatiga belgilangan tartibda kiritilgan boshqa qurilish tashkilotiga (bundan buyon matnda boshqa qurilish tashkiloti deb yuritiladi) qurilish ishlarini tugallash maqsadida topshirilishi mumkin. Bunda quruvchining ulushdorlar bilan tuzilgan shartnoma bo‘yicha huquq va majburiyatlari ushbu obyektlarni qurilishni tugallash maqsadida qabul qilib olgan boshqa qurilish tashkilotiga o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qurilish faoliyatini tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organining takliflari asosida qurilish obyektini Ulush kiritish asosida qurish uchun mablag‘larni jalb etuvchi quruvchilarning elektron ro‘yxatiga belgilangan tartibda kiritilgan boshqa qurilish tashkilotiga topshirish tartibi belgilanadi.

Quruvchiga, boshqa qurilish tashkilotiga topshiriladigan qurilish obyektlarining (ko‘p kvartirali uylarning), infratuzilma obyektlarining va (yoki) ularga qo‘shilgan muhandislik-texnologik obyektlarning qiymati tugatish boshqaruvchisi qarzdor quruvchining mablag‘lari hisobidan jalb etgan baholovchi tomonidan aniqlanadi.

Sharhlanayotgan moddada ulush kiritish asosidagi qurilishda qatnashgan ulushdorlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida quruvchining to‘lovga qobiliyatsizligi umumiy qoidalarga muvofiq ko‘rilishi, bu jarayonga vakolatli davlat organi ham jalb etilishi, ulushdorlar sud boshqaruvchisi tomonidan o‘z vaqtida xabardor qilinishi, qurilishi tugallanmagan obyektlar boshqa qurilish tashkilotiga topshirilishi va undagi huquq hamda majburiyatlar o‘sha tashkilotga o‘tkazilishi, shuningdek, obyektlar qiymati baholovchi tomonidan aniqlanishi tartibi belgilangan.

1. Ushbu normaga ko‘ra, agar ulush kiritish asosidagi qurilishga oid maxsus bobda alohida tartib belgilanmagan bo‘lsa, quruvchi to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lgan holatlarda unga nisbatan umumiy qoidalar, ya’ni qarzdor yuridik shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligini tartibga soluvchi umumiy normalar qo‘llaniladi. Boshqacha aytganda, bunday hollarda quruvchi oddiy yuridik shaxs sifatida umumiy to‘lovga qobiliyatsizlik tartibiga bo‘ysunadi.

2. Ushbu norma shuni anglatadiki, umumiy holatlarda to‘lovga qobiliyatsizlik ishida ishtirok etuvchi shaxslar (38-moddada belgilangan subyektlar)dan tashqari ulush kiritish asosida qurilishda ishtirok etgan qurilish tashkilotining to‘lovga qobiliyatsizligi ko‘rilayotganda ushbu sohani nazorat va tartibga soluvchi tegishli vakolatli davlat organi, ya’ni **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-apreldagi «Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5392-son Farmoni** 5-bandiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi ham ishda majburiy tarzda ishtirok etadi. Bu esa qurilish sohasidagi manfaatlar, ulushdorlar huquqlari va obyektlarni tugallash masalalarining davlat tomonidan alohida nazorat qilinishiga xizmat qiladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismiga ko‘ra, agar quruvchiga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik ishi qo‘zg‘atilgan bo‘lsa, sud boshqaruvchisi tayinlangan kundan boshlab o‘n kun ichida ulush kiritish shartnomasi asosida qurilishda ishtirok etgan va obyektni mulk huquqi bilan olishga da’vo qilishi mumkin bo‘lgan barcha ulushdorlarni yozma ravishda xabardor qilishi shart. Bu ulushdorlarning huquq va qonuniy manfaatlari buzilib qolmasligi, ular o‘z talablarini o‘z vaqtida bildirishi va jarayonda faol ishtirok etishi uchun kafolat yaratadi.

4. Ushbu normaga ko‘ra, agar qurilishda ulushdorlar mablag‘lari ishlatilgan bo‘lib, obyektlar qurilishi tugallanmagan holda quruvchi to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lib qolsa, kreditorlar yig‘ilishi qarori bilan bunday obyektlar belgilangan tartibda elektron ro‘yxatga kiritilgan boshqa qurilish tashkilotiga topshirilishi mumkin. Quruvchi-

larni elektron ro‘yxatga kiritish tartibi **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-maydagi PQ-4732-son qarori bilan tasdiqlangan «Ko‘p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurish to‘g‘risida»gi Nizomda** belgilangan. Unga ko‘ra, quruvchi har bir qurilish majmuasi bo‘yicha elektron ro‘yxatga alohida kiritilgan bo‘lishi shart. Quruvchi elektron ro‘yxatga kirish uchun vakolatli davlat organiga elektron platforma orqali quyidagi hujjatlarni elektron shaklda taqdim etadi: 1) quruvchi va qurilish-pudrat tashkiloti (bosh pudratchi) bilan tuzilgan bosh pudrat shartnomasi nusxasi (agar bosh pudratchi jalb qilinadigan bo‘lsa); 2) yer uchastkasi ajratish haqidagi va qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishga birlamchi ruxsat beruvchi hujjatlar (loyihalashtirish topshirig‘i va arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i) nusxalari; 3) loyiha-smeta hujjatlari va ijobiy ekspertiza xulosasi nusxasi («fast-track» usulida amalga oshiriladigan loyihalar bundan mustasno); 4) qurilish majmuasi qurilishi bo‘yicha texnik va mualliflik nazoratini hamda qurilish-montaj ishlari jarayonida davlat nazoratini amalga oshirish bo‘yicha tegishli hududiy nazorat tashkiloti bilan tuzilgan shartnomalar nusxalari; 5) quruvchining soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorligi mavjud emasligi haqidagi ma’lumotnoma; 6) quruvchida qurilish majmuasi qiymatining 20 foizidan kam bo‘lmagan miqdordagi o‘z moliyaviy resurslari mavjudligini tasdiqlovchi hujjat yoki mazkur mablag‘larga yoxud uning yetishmayotgan qismiga kredit ajratish haqida bank kafolat xati. Bunda qurilish majmuasiga sarflangan xarajatlar summasi hisobga olinadi; 7) ulushdorlarning mablag‘larini jamlashga mo‘ljallangan tijorat bankida ochilgan alohida hisobvaraq haqidagi ma’lumotnoma.

Elektron ro‘yxatda barcha uchun ochiq bo‘lgan quruvchining nomi, STIR, manzili, ta’sischilari va boshqa ma’lumotlar ko‘rsatiladi. Elektron ro‘yxatga kiritilmagan quruvchilar ulush kiritish asosida qurilishga ulushdorlarning mablag‘larini jalb qilish huquqiga ega emas.

Qurilishi tugallanmagan obyektni tugallash maqsadida qabul qilib olgan bunday qurilish tashkilotiga avvalgi quruvchining ulushdorlar bilan tuzilgan shartnomalardan kelib chiqadigan barcha huquq va majburiyatlari ham o‘tadi, ya’ni ulushdorlar bilan munosabatlarni yangi qurilish tashkiloti davom ettiradi.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismiga muvofiq, qurilishi tugallanmagan obyektlarni boshqa qurilish tashkilotiga topshirishning aniq mexanizm va tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Bu tartibni ishlab chiqishda tegishli vakolatli davlat organining takliflari asos bo‘ladi va elektron ro‘yxatga kiritilgan tashkilotlar orqali qurilishni adolatli va shaffof tarzda davom ettirish ta’minlanadi.

6. Ushbu normaga ko‘ra, boshqa qurilish tashkilotiga topshirilishi belgilanayotgan tugallanmagan uy-joy, infratuzilma yoki injenerlik obyektlarining qiymati mustaqil baholovchi tomonidan aniqlanadi. Baholovchi tugatish boshqaruvchisi tomonidan qarzdor quruvchining mablag‘lari hisobidan jalb etiladi. Bunday usul bilan obyektning real qiymati xolis tarzda aniqlanadi va bunda moliyaviy xarajatlar to‘liq quruvchining zimmasiga yuklatiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 792-b.

191-modda. Ulush kiritish asosidagi qurilish ishtirokchilariga yetkazilgan zararlarni aniqlash

Ulushdorning pul talablari miqdorini belgilashda quruvchining turarjoy binolarini topshirish bo‘yicha majburiyatni buzishi natijasida yetkazilgan haqiqiy zarar ko‘rinishidagi yo‘qotishlar miqdori, quruvchining ulushdorga topshirishi kerak bo‘lgan turarjoy binosining (quruvchiga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilgan sana bo‘yicha aniqlangan) qiymati va qurilish shartnomasiga asosan ulushdorlar tomonidan to‘langan pul summasi o‘rtasidagi farq shaklida hisobga olinadi.

Turarjoy binolarini topshirishni nazarda tutuvchi shartnoma bo‘yicha to‘langan pul miqdori ulushdorga berilishi kerak bo‘lgan turarjoy binosining qiymatidan oshib ketishi (quruvchiga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilgan sana bo‘yicha aniqlanadi) ulushdorning pul talablari miqdorini o‘zgartirishga olib kelishi mumkin emas.

Agar ulushdor tomonidan turarjoy qiymatini to‘lash majburiyati to‘liq bajarilmagan bo‘lsa, aniqlangan haqiqiy zarar miqdori majburiyatning bajarilgan qismiga mutanosib ravishda hisobga olinadi.

Sharhlanayotgan moddada ulushdorning pul talabi miqdori qurilish shartnomasi bo‘yicha to‘lagan mablag‘lari bilan quruvchi topshirishi kerak bo‘lgan turarjoyning to‘lovga qobiliyatsizlik ishi qo‘zg‘atilgan sanadagi qiymati o‘rtasidagi farq asosida aniqlanishi, to‘langan summa obyekt qiymatidan oshib ketgan bo‘lsa ham, talab miqdori o‘zgarmasligi va majburiyat qisman bajarilgan hollarda zarar miqdori bajarilgan qismiga mutanosib hisoblanishi belgilab qo‘yilgan.

1. Bu qoida qurilish shartnomasi doirasida quruvchining ulushdorlarga topshirishi kerak bo‘lgan turarjoy binolari bo‘yicha majburiyatini buzishi natijasida kelib chiqadigan haqiqiy moddiy zararni hisoblash tartibiga oydinlik kiritadi. Agar quruvchi o‘z majburiyatini bajarmasa, ulushdorlar tomonidan to‘langan pul summasi va qurilish shartnomasi asosida topshirilishi kerak bo‘lgan turarjoyning qiymati o‘rtasidagi farq shaklida zarar belgilanadi. Bunda ulushdorning talablari haqiqiy yo‘qotishlar miqdori, qurilish obyektining qiymati va to‘langan mablag‘ solishtirilgan holda aniqlanadi va bu qonunchilikda ulushdorlarning huquqlarini himoya qilish hamda moliyaviy yo‘qotishlarni qoplash mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

2. Ushbu normaga ko‘ra, turarjoy binolarini topshirishni nazarda tutuvchi shartnoma bo‘yicha ulushdor tomonidan to‘langan mablag‘ miqdori, agar u ulushdorga berilishi lozim bo‘lgan turarjoy binosining qiymatidan yuqori bo‘lsa ham, quruvchiga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan sana holatiga ko‘ra aniqlangan ushbu qiymat doirasidan ortiq miqdorda ulushdorning pul talablarini oshirish uchun asos bo‘lolmaydi. Bunda ulushdorning pul talabi turarjoy binosining haqiqiy qiymati bilan cheklanadi va ortiqcha to‘langan mablag‘ to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarida talab miqdorini o‘zgartirmaydi.

3. Ushbu normaga muvofiq, agar ulushdor turarjoy qiymatini to‘lash majburiyatini to‘liq bajarmagan bo‘lsa, qurilish majburiyati bajarilmagani natijasida yuzaga kelgan

haqiqiy zarar ulushdor tomonidan amalda to‘langan mablag‘ hajmiga mutanosib ravishda hisobga olinadi. Bunda ulushdor faqat o‘zi bajargan majburiyat qismi doirasida zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega bo‘lib, to‘lanmagan qismi uchun zarar miqdori uning pul talablariga kiritilmaydi. Bu qoida ulushdorning manfaatlarini himoya qilish bilan birga to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarida kreditorlar o‘rtasida adolatli mutanosiblikni ta’minlashga xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 792-b.

192-modda. Ulush kiritish asosidagi qurilishda kreditorlarning talablarini qanoatlantirish tartibi

Kreditorlarning talablarini qanoatlantirishdan oldin to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha sud xarajatlarining o‘rni qoplanadi, shuningdek, fuqarolarning hayotiga yoki sog‘lig‘iga zarar yetkazganlik uchun qarzdorning javobgarligi haqidagi fuqarolarning talablari qanoatlantiriladi.

Kreditorlarning talablari quyidagi tartibda qanoatlantiriladi:

birinchi navbatda – alimentlar undirish, mualliflik shartnomalari, shuningdek, mehnatga haq to‘lash uchun pul mablag‘larini berishni nazarda tutuvchi to‘lov (ijro) hujjatlari yuzasidan haq to‘lash bo‘yicha talablar;

ikkinchi navbatda – ulushdorlarga yetkazilgan zararlarni undirish bo‘yicha talablar;

uchinchi navbatda – quruvchining boshqa kreditorlari talablari.

Kreditorlarning bir navbatdagi talablari bildirilgan talablarning kalendar navbati tartibida qanoatlantiriladi.

Har bir navbatdagi talablar oldingi navbatdagi talablar to‘liq qanoatlantirilganidan keyin qanoatlantiriladi.

Sharhlanayotgan moddada ulush kiritish asosidagi qurilishda kreditorlarning talablari sud xarajatlari va hayotiga yoki sog‘lig‘iga zarar uchun talablardan boshlab, keyin aliment va mehnat haqi, ulushdorlarga yetkazilgan zarar, so‘ngra boshqa kreditorlar talablari kalendar tartibida va navbatma-navbat qanoatlantirilishi belgilangan.

1. Ushbu normaga muvofiq, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida qarzdorning mol-mulkidan mablag‘lar taqsimlanishidan oldin, avvalo, ushbu ishni ko‘rib chiqish va yuritish bilan bog‘liq sud xarajatlari qoplanadi, shuningdek, qarzdorning harakatlari yoki harakatsizligi natijasida fuqarolarning hayotiga yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni qoplash haqidagi talablar qanoatlantiriladi. Faqat shundan keyingina qolgan mol-mulk boshqa kreditorlarning talablarini qonun hujjatlarida belgilangan navbat va tartibda qanoatlantirish uchun yo‘naltiriladi.

Ushbu normaning huquqiy va ijtimoiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: a) inson hayoti va sog‘lig‘i eng oliy qadriyat ekanini e’tirof etadi; b) to‘lovga qobiliyatsizlik holati qarzdorni shaxsiy javobgarlikdan ozod qilmasligini ko‘rsatadi; d) iqtisodiy manfaatlardan ko‘ra insonparvarlik prinsiplariga ustuvorlik beradi; e) sud xarajatlarini qoplash orqali ishni samarali va qonuniy yakunlash imkonini yaratadi.

2. Ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarida qarzdor (quruvchi)ning mol-mulki va pul mablag‘larini taqsimlashda kreditorlar talablarini qanoatlantirishning qat’iy navbat tartibini belgilaydi hamda ijtimoiy adolat, insonparvarlik va manfaatlar muvozanati prinsiplariga asoslanadi.

Bunda, birinchi navbatda, fuqarolarning hayotiy muhim manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lgan talablar, ya’ni aliment undirish to‘g‘risidagi, mualliflik shartnomalari bo‘yicha haq to‘lashni, shuningdek, mehnatga haq to‘lash, ish haqi, kompensatsiya va boshqa mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan to‘lovlarni nazarda tutuvchi ijro hujjatlari bo‘yicha talablar qanoatlantiriladi. Ushbu talablarga ustuvorlik berilishi fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta’minlash va ularni daromad manbaisiz qolib ketishdan asrashga qaratilgan.

Ikkinchi navbatda, turarjoy qurilishida ishtirok etgan ulushdorlarga yetkazilgan zararlarni undirish haqidagi talablar qanoatlantiriladi. Bu qoida ulushdorlarning, odatda, o‘z shaxsiy mablag‘larini qurilishga yo‘naltirganligi va qurilishning to‘xtab qolishi yoki tugallanmasligi ularga jiddiy moliyaviy va ijtimoiy zarar yetkazishini hisobga olgan holda ularning huquqlarini alohida tarzda himoya qilishni ko‘zda tutadi.

Uchinchi navbatda esa birinchi va ikkinchi navbatga kirmaydigan, ya’ni banklar, moliya tashkilotlari, pudratchilar, ta’minotchilar va boshqa yuridik hamda jismoniy shaxslardan iborat bo‘lgan quruvchining barcha boshqa kreditorlari talablari qanoatlantiriladi. Ushbu talablar faqat yuqori navbatdagi talablar to‘liq yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qanoatlantirilgandan keyin qolgan mol-mulk hisobidan bajariladi.

3. Ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarida kreditorlarning talablarini qanoatlantirishda qo‘llaniladigan muhim protsessual qoidani belgilaydi. Unga ko‘ra, agar kreditorlarning talablari qonun hujjatlarida belgilangan bir xil navbatga kiritilgan bo‘lsa, ya’ni ularning huquqiy maqomi va talab turi jihatidan ustuvorlik darajasi teng hisoblansa, bunday talablar o‘rtasida qanoatlantirish navbati ularning bildirilgan vaqtiga, aniqrog‘i, talablar sudga yoki tegishli organga qaysi sanada va qaysi ketma-ketlikda taqdim etilganiga qarab belgilanadi.

Bu holatda kreditorlar o‘rtasida qanoatlantirishning yagona mezoni sifatida kalendar navbati qo‘llaniladi, ya’ni avval talab bildirgan kreditorning talabi keyin talab bildirgan kreditorga nisbatan ustuvor hisoblanadi. Qarzdorning mol-mulki yoki pul mablag‘lari barcha bir navbatdagi talablarni to‘liq qanoatlantirish uchun yetarli bo‘lmagan taqdirda, mablag‘lar avval talabni ertaroq bildirgan kreditorga yo‘naltiriladi, shundan keyingina qolgan mablag‘lar keyingi kalendar navbatda turgan kreditorlar talablarini qoplashga sarflanadi.

Mazkur qoida kreditorlar o‘rtasida asossiz imtiyozlar berilishining oldini olishga, talablarni qanoatlantirishda shaffoflik va aniqlikni ta’minlashga, shuningdek, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida tortishuvlar va suiiste’mollar xavfini kamaytirishga qaratilgan. Shu bilan birga, u kreditorlarni o‘z talablarini belgilangan muddatlarda va o‘z vaqtida bildirishga rag‘batlantiradi hamda sud va boshqaruv amaliyotida yagona, barqaror va prognoz qilinadigan tartibni shakllantiradi.

Shu tariqa, ushbu norma bir navbatga mansub kreditorlar talablarini qanoatlantirishda vaqt omiliga asoslangan adolatli mexanizmni joriy etib, to‘lovga qobiliyatsizlik institutida manfaatlar muvozanatini ta’minlashga xizmat qiladi.

4. Ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida kreditorlarning talablarini qanoatlantirishda navbat prinsipini qat’iy belgilaydi va mol-mulk taqsimotining adolatli hamda prognoz qilinadigan mexanizmini ta’minlaydi. Unga ko‘ra, qarzdorning mol-mulki yetarli bo‘lmagan hollarda, har bir navbatdagi kreditorlar talablari faqat oldingi navbatdagi talablar to‘liq qanoatlantirilgandan keyin qoplanishi mumkin. Bu qoida kreditorlar o‘rtasida asossiz ustunlik berishning oldini olib, qonunchilikdagi ustuvorlik va adolat prinsiplarini ta’minlaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 792-b.

193-modda. Ulush kiritish asosidagi qurilish bo‘yicha quruvchining javobgarligi

Quruvchining mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda, noqonuniy harakatlari (harakatsizlik) to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelgan quruvchining muassislari (ishtirokchilari), mulkdori va (yoki) rahbarlari quruvchining yetkazilgan zararni qoplash bo‘yicha majburiyatlari yuzasidan subsidiar yoki solidar javobgar bo‘ladi hamda haqiqiy zarar summasi to‘liq qoplanguniga qadar qurilish faoliyati bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum etiladi.

Sharhlanayotgan moddada ulush kiritish asosidagi qurilishda quruvchining mol-mulki yetarli bo‘lmagan holda zararni qoplash uchun uning muassislari, mulkdori va rahbarlari subsidiar yoki solidar ravishda javobgar bo‘lib, haqiqiy zarar to‘liq qoplangunga qadar qurilish faoliyati bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum etilishi belgilangan.

Ushbu normaga ko‘ra, agar quruvchining mol-mulki kreditorlar talablari va yetkazilgan zararni qoplash uchun yetarli bo‘lmasa va bu holat quruvchining noqonuniy harakatlari yoki harakatsizligi natijasida kelib chiqqan bo‘lsa, quruvchining muassislari, ishtirokchilari, mulkdori va (yoki) rahbarlari subsidiar yoki solidar javobgarlikka tortiladi.

Subsidiar javobgarlik asosiy qarzdorning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda, shaxsning shaxsiy aktivlari hisobidan zararni qoplash majburiyati yuklanishi demakdir. Bunda zarar birinchi navbatda qurilish kompaniyasi mol-mulki hisobidan qoplanadi, faqat ushbu mol-mulk yetarli bo‘lmasa, yuqoridagi shaxslarning shaxsiy mablag‘lari ishlatiladi.

Solidar javobgarlikda bir necha shaxslar birgalikda zararni to‘liq qoplash uchun barobar javobgarlikka ega bo‘ladi. Bu holatda kreditor talabini istalgan solidar javobgardan to‘liq talab qilishi mumkin va solidarlar keyin o‘z o‘rtasida mablag‘ni taqsimlashadi.

Shuningdek, mazkur shaxslar haqiqiy zarar summasi to‘liq qoplangunga qadar qurilish faoliyati bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum etiladi, bu esa ularni zararni zudlik bilan qoplashga majbur qiladi.

Bu qoida orqali: a) quruvchining mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda kreditorlar manfaati himoya qilinadi; b) muassislar va rahbarlar shaxsiy moliyaviy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga majbur qilinadi; d) moliyaviy huquqbuzarliklar va firibgarlik harakatlari oqibatlari uchun samarali cheklovlar qo‘llanadi; e) to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida adolatli va barqaror mexanizm yaratiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 792-b.

14-BOB. JISMONIY SHAXSNING TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIGI

194-modda. Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligini tartibga solish

Agar ushbu bobda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi bilan bog‘liq munosabatlarga nisbatan ushbu Qonun 1-, 2-, 3-, 5-, 6- va 7-boblarining tegishli qoidalari qo‘llaniladi.

Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar fuqarolarning ham qarzdorlik munosabatlarida faol qatnashishini taqozo etmoqda. Bu holat, avvalo, kredit bozorining kengayishi, mikromoliya institutlari faoliyatining rivojlanishi, iste’mol kreditlari va ipoteka munosabatlarining ommalashuvi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan, jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsizlik munosabatlarining mustaqil subyekti sifatida qonun doirasiga kiritish huquqning ijtimoiy adolat va iqtisodiy realizm prinsiplariga asoslangan muhim doktrinal qadam sifatida baholanadi.

Sharhlanayotgan moddada jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi munosabatlarini tartibga solishda qo‘llaniladigan umumiy qoidalar belgilangan. Unga ko‘ra, jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi bilan bog‘liq munosabatlar alohida bobda tartibga solingan bo‘lsa-da, mazkur bobda maxsus qoida belgilanmagan holatlarda Qonunning 1-, 2-, 3-, 5-, 6- va 7-boblaridagi umumiy qoidalar ham qo‘llanilishini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

47. Yuridik shaxslarning ayrim toifalari, yakka tartibdagi tadbirkor, **jismoniy shaxs,** tugatilayotgan yuridik shaxs va hozir bo‘lmagan qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishlar ko‘rilayotganda, qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, Qonunning **umumiy qoidalari qo‘llaniladi.**

53. Qonunning 194-moddasiga muvofiq, agar Qonun 14-bobining maxsus normalarida jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligini tartibga soluvchi boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi bilan bog‘liq munosabatlarga nisbatan Qonun 1-, 2-, 3-, 5-, 6- va 7-boblarining tegishli umumiy qoidalari qo‘llaniladi.

Mazkur qoida jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi instituti mustaqil huquqiy tartibga ega bo‘lgan holda uni umumiy to‘lovga qobiliyatsizlik huquqi tizimidan

uzib qo‘ymaslikka qaratilgan. Bunda qonun chiqaruvchi jismoniy shaxslarga nisbatan maxsus qoidalar belgilangan bo‘lsa-da, umumiy prinsiplar, tushunchalar va ish yuritish qoidalari saqlanib qolishi lozimligi nazarda tutiladi.

Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligiga oid munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan bunday ishlarni yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, uning mulkiy va protsessual huquqiy maqomini belgilab beruvchi qoidalar o‘z ifodasini topgan. Bunda jismoniy shaxsning pul majburiyatlari va (yoki) majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini belgilangan muddatda bajara olmasligi to‘lovga qobiliyatsizlik alomati sifatida e’tirof etiladi.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu modda umumiy va maxsus normalar o‘rtasidagi nisbatni huquqiy jihatdan muvozanatlashtirish vazifasini bajaradi. Agarda jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligiga oid masala mazkur bobda bevosita tartibga solinmagan bo‘lsa, ishni ko‘rib chiqishda Qonunning umumiy qismi hamda yuridik shaxslar to‘lovga qobiliyatsizligiga doir protsessual va moddiy huquqiy qoidalar qo‘llanilishini nazarda tutadi.

Bunda ushbu modda qoidalari jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligiga nisbatan umumiy qoidalarni mexanik qo‘llashni emas, balki jismoniy shaxsning huquqiy tabiati, uning ijtimoiy maqomi hamda konstitutsiyaviy huquqlarini inobatga olgan holda mutanosib va maqsadga muvofiq talqin qilishni taqozo etadi.

Qonunning 1-bobida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilikning umumiy qoidalari belgilab berilgan bo‘lib, unda mazkur sohadagi qonunchilik manbalari, asosiy tushunchalar hamda huquqiy kategoriyalar o‘z ifodasini topgan. Xususan, kreditor, to‘lov qobiliyatini tiklash, to‘lovga qobiliyatsizlikni yashirish, qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelish kabi atamalarning huquqiy mazmuni aniq belgilangan. Jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish yuritishda ham ushbu ta’riflar to‘liq qo‘llaniladi, agar mazkur bobda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa.

Jismoniy shaxs ham soxta to‘lovga qobiliyatsizlik, to‘lovga qobiliyatsizlikni yashirishi yoki uni qasddan yuzaga keltirishi mumkin bo‘lib, bunday hollarda u qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli javobgarlikka tortiladi. Mazkur yondashuv kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga, shuningdek, noinsof qarzdorlarni «ikkinchi imkoniyat» (fresh start) mexanizmini suiiste’mol qilishdan cheklashga qaratilgan.

Qonunning 2-bobida nazarda tutilgan qoidalar ham jismoniy shaxsga nisbatan ish yuritishda umumiy tartib sifatida amal qiladi. Jumladan, kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasini tashkil etish, kreditorlar talablari reyestrini yuritish, ovoz berish tartibi, xabardor qilish mexanizmi, sud boshqaruvchisining huquq va majburiyatlari jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizligi ishlarida ham qo‘llaniladi. Shu bilan birga, ayrim normalar, xususan, 12-moddada yuridik shaxslarga nisbatan belgilangan «mutlaq vakolat» qoidalarining jismoniy shaxslarga tatbiq etilmasligi 194-moddada nazarda tutilgan «maxsus normalar ustunligi» prinsipiga to‘liq mos keladi. Masalan, jismoniy shaxsga nisbatan ham kreditorlar talablari maxsus reyestrga kiritiladi, talablar navbati va ularni qanoatlantirish tartibi hamda kalendar navbati prinsipi umumiy qoidalar asosida qo‘llaniladi.

Qonunning 3-bobida nazarda tutilgan institutsional mexanizmlar, ya'ni Vazirlar Mahkamasining tartib-taomillarni belgilash vakolati, sud boshqaruvchilarini attestatsiya qilish va reyestr yuritish, mol-mulkni realizatsiya qilishning yagona tartibi, vakolatli organning nazorat funksiyalari jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi ishlariga ham tatbiq etiladi. Bu esa jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizligi jarayonida ishtirok etuvchi sud boshqaruvchilarining malakasi, mol-mulkni sotish jarayonlarining shaffofligi va davlat nazoratining ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Jismoniy shaxsga nisbatan ishni qo‘zg‘atish tartibi mazkur bobning maxsus normalarida (195–201-moddalar) aniq belgilangan bo‘lsa-da, Qonunning 5-bobida nazarda tutilgan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rishga oid umumiy protsessual qoidalar, ya'ni ariza mazmuni, sudning arizani qabul qilishi yoki qaytarishi, sud ajrimlari, ish ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari jismoniy shaxs ishlariga nisbatan ham qo‘llaniladi. Bu, bir tomondan, sud amaliyotida bir xillikni ta'minlasa, ikkinchi tomondan, jismoniy shaxslar uchun yetarli protsessual kafolatlarni beradi.

Qonunning 6-bobida nazarda tutilgan normalar jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu normalar qarzdor tomonidan mol-mulkni qasddan chiqarib yuborish, kreditorlardan yashirish yoki ayrim shaxslarga asossiz ustuvorlik berish holatlarini bartaraf etishga qaratilgan. Amaliyotda qarzdor jismoniy shaxs moliyaviy qiyin ahvolga tushgan paytda mol-mulkni qarindoshlariga hadya qilish yoki uni bozor qiymatidan ancha arzon narxda sotish orqali kreditorlar talablaridan qochishga urinishi mumkin. Mazkur bob qoidalari aynan shunday shubhali bitimlarni haqiqiy emas deb topish orqali kreditorlar manfaatlarini tiklash mexanizmlarini nazarda tutadi. Sud tomonidan bunday bitim haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, olingan mol-mulk qarzdor mulki tarkibiga qaytariladi va keyinchalik kreditorlar talablarini qanoatlantirish uchun yo‘naltiriladi.

Qonunning 7-bobida belgilangan normalarga muvofiq, agar to‘lovga qobiliyatsizlik qarzdorning yoki uning moliyaviy faoliyatiga ta'sir ko‘rsatgan shaxslarning aybi bilan kelib chiqqan bo‘lsa, ular kreditorlar oldida subsidiar javobgarlikka tortiladi. Jismoniy shaxs ishlarida ham, agar u yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lsa yoki boshqa shaxslar uning moliyaviy qarorlariga hal qiluvchi ta'sir ko‘rsatgan bo‘lsa, ushbu normalar qiyosan qo‘llanilishi mumkin. Bu to‘lovga qobiliyatsizlik orqali javobgarlikdan qasddan qochish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Shu tariqa, bu qonunchilikning faqat mol-mulkni emas, balki ushbu moliyaviy holat ortida turgan shaxslarning ham mas'uliyatini qamrab olishini anglatadi.

Umuman olganda, sharhlanayotgan 194-modda huquqiy tabiatiga ko‘ra «ko‘prik norma» hisoblanadi. U, bir tomondan, jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligiga oid maxsus tartib-taomillar alohida bobda belgilanganligini e'tirof etsa, ikkinchi tomondan, mazkur institutni qonunning umumiy normalaridan ajratib qo‘ymasdan, ular bilan uzviy bog‘laydi.

Shu bilan birga, moddadagi «agar ushbu bobda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa» degan qoida maxsus normalar ustuvorligini belgilaydi. Xususan, bu va bundan keyingi normalar jismoniy shaxsga xos bo‘lgan o‘ziga xos shartlar: majburi-

yatlar hajmi, muddatlar, ariza berish subyekti, qayta murojaat qilishga oid cheklovlarni bevosita tartibga soladi va bunday hollarda aynan ushbu maxsus qoidalar qo‘llaniladi. Maxsus normalar ma’lum masalani to‘liq qamrab olmagan hollardagina Qonunning 1-, 2-, 3-, 5-, 6- va 7-boblaridagi umumiy qoidalar yordamchi normalar sifatida to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llaniladi.

Mazkur qoidalar jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligi munosabatlarini huquqiy jihatdan barqaror, tizimli va samarali tartibga solishga xizmat qiladi.

195-modda. Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi alomatlari

Qarzdor jismoniy shaxsning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatini to‘liq hajmda bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to‘lov majburiyatlari yuzaga kelgan kundan e’tiboran uch oy ichida qarzdor jismoniy shaxs tomonidan bajarilmagan hamda qarzdor jismoniy shaxsga nisbatan talablar bazaviy hisoblash miqdorining kamida ikki yuz barobarini tashkil etsa, qarzdor jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi alomatlari hisoblanadi.

Sharhlanayotgan moddada jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsiz deb e’tirof etilishi uchun zarur bo‘lgan huquqiy alomatlar belgilangan. Ushbu qoidalar mazmunida jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi obyektiv mezonlar asosida aniqlanishi nazarda tutilgan bo‘lib, bunda qarzdorning moliyaviy ahvolini baholash subyektiv omillarga emas, balki qonun bilan belgilangan aniq ko‘rsatkichlarga tayanish tamoyili ustuvor hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu norma jismoniy shaxsning «to‘lovga qobiliyatsizlik holati»ni nafaqat iqtisodiy, balki huquqiy kategoriya sifatida ham belgilaydi.

Darhaqiqat, AQSh, Germaniya, Fransiya, Rossiya kabi qator davlatlarda uzoq yillardan buyon qo‘llanib kelinayotgan «halol, ammo omadsiz qarzdor» (honest but unfortunate debtor) konsepsiyasiga asoslangan jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligi instituti orqali fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar hamda chet el fuqarolari muayyan shartlar mavjud bo‘lganda qarz majburiyatlaridan ozod etilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Jumladan, qarzdorning harakatlarida aldov, qasddan mol-mulkni yashirish yoki boshqa suiiste’mol holatlari mavjud bo‘lmagan taqdirda, u «moliyaviy tozalanish» (fresh start) prinsipi asosida iqtisodiy faolligini qayta tiklash va normal moliyaviy muomalalarga qaytish huquqiga ega bo‘ladi.

Mazkur modda qoidalari ham aynan shu yondashuvga uyg‘un holda jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligini aniqlashda huquqiy aniqlik mezonlarini belgilashga qaratilgan normalarni belgilaydi.

Ushbu normalar mazmuniga ko‘ra, jismoniy shaxsning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini to‘liq hajmda bajarishga qodir emasligi to‘lovga qobiliyatsizlikning asosiy alomati sifatida belgilangan. Bunda mazkur majburiyatlarning yuzaga kelgan kundan e’tiboran uch oy ichida bajarilmasligi vaqt mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, qonun chiqaruvchi to‘lovga qobiliyatsizlikni kichik qarzdorlik holatlaridan farqlash maqsadida miqdoriy mezonni ham joriy etadi. Unga ko‘ra, qarzdor jismoniy shaxsga nisbatan talablar summasi bazaviy hisoblash miqdorining kamida ikki yuz barobarini tashkil etgan taqdirda, ushbu holat to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjudligini anglatadi.

Doktrinal jihatdan, ushbu normada belgilangan alomatlar to‘lovga qobiliyatsizlikni vaqtinchalik to‘lov qiyinchiligidan ajratib turuvchi huquqiy chegara bo‘lib xizmat qiladi. Uch oylik muddat va talablar hajmining minimal miqdori jismoniy shaxsning moliyaviy holatida barqaror to‘lovga qobiliyatsizlik yuzaga kelganligini ko‘rsatuvchi kompleks mezonlar hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu modda qoidalari jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligini aniqlashda universal yondashuvni ta’minlab, keyingi moddalarda nazarda tutilgan maxsus tartib-taomillarni qo‘llash uchun huquqiy asos yaratadi. Aynan mazkur moddada ko‘rsatilgan alomatlar mavjud bo‘lgan taqdirdagina jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish mumkin bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

53. Ta’kidlash joizki, jismoniy shaxsning, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish Qonunning 195- va 228-moddalarida nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo‘lgan taqdirdagina sud tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin.

Shunday qilib, ushbu normada jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligini huquqiy jihatdan aniqlashda boshlang‘ich va hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, u qarzdor va kreditorlar manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga qaratilgan bazaviy norma sifatida namoyon bo‘ladi. Qarang: Xalqaro sharh. 801-b.

196-modda. Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish uchun asoslar

Qarzdor jismoniy shaxs, kreditor, shuningdek, davlat soliq xizmati va boshqa vakolatli organlar jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish ushbu Qonunning 195-moddasida nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo‘lgan taqdirda sud tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish chog‘ida ushbu Qonun 30-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan tartib-taomillar qo‘llaniladi.

Sharhlanayotgan moddada qarzdor jismoniy shaxs, kreditorlar hamda vakolatli davlat organlari jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish haqida sudga murojaat qilish huquqiga ega ekanligi, bunday ish faqat qonunda belgilangan to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud bo‘lgan taqdirda qo‘zg‘atilishi va uni ko‘rib chiqishda belgilangan tartib-taomillar qo‘llanilishi nazarda tutilgan.

1. Ushbu norma jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risida sudga murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar doirasini belgilaydi. Unga ko‘ra, qarzdor jismoniy shaxsning o‘zi, uning kreditorlari, shuningdek, davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlar jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish haqida ariza bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Qarzdor jismoniy shaxsga mazkur huquqning berilishi uning moliyaviy ahvolini huquqiy tartibda hal etish, qarzdorlik holatini ochiq va qonuniy yo‘l bilan bartaraf etish hamda to‘lovga qobiliyatsizlik institutida nazarda tutilgan reabilitatsion mexanizmlardan foydalanish imkonini ta’minlaydi. Bu holat jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida passiv obyekt emas, balki mustaqil huquq subyekti sifatida e’tirof etishga xizmat qiladi.

Kreditorlarga sudga murojaat qilish huquqining berilishi esa ularning qonuniy talablarini himoya qilish, qarzdorning moliyaviy ahvoliga huquqiy baholash hamda qarzlarni qanoatlantirishning umumiy tartibini ishga tushirishga qaratilgan. Bu kreditorlar manfaatlarini samarali himoya qilishning muhim protsessual kafolati hisoblanadi.

Davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlarning mazkur huquq bilan ta’minlanishi jismoniy shaxsning soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha davlat oldidagi majburiyatlarini ta’minlashga, shuningdek, jamoat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Boshqa vakolatli organlarga davlat soliq va bojxona xizmati organlari, moliya organlari, davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalariga soliqlar va yig‘imlarning undirilishi ustidan nazorat olib boruvchi vakolatli boshqa organlar kiradi. Ushbu organlarning ishtirok etishi to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarida davlatning moliyaviy intizomni ta’minlashga qaratilgan nazorat funksiyasini amalga oshirishini ifoda etadi.

Shunday qilib, ariza berish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar doirasining keng va aniq belgilanishi jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atishda xususiy va ommaviy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga, shuningdek, mazkur institutni samarali va adolatli qo‘llashga xizmat qiladi.

2. Ushbu norma jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish uchun asosiy moddiy-huquqiy shartni belgilaydi. Unga ko‘ra, sud faqat ushbu normada nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo‘lgan taqdirdagina jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘ata oladi.

Mazkur belgilangan alomatlar – qarzdor jismoniy shaxsning pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishga qodir emasligi, majburiyatlar yuzaga kelgan kundan e’tiboran to‘lov kechiktirilishi kamida uch oydan iborat bo‘lishi hamda qarzdorlikning umumiy miqdori bazaviy hisoblash miqdorining kamida 200 baravari yoki undan ortiq bo‘lishi shartlari birgalikda mavjud bo‘lganda sud tomonidan ish qo‘zg‘atilishi huquqiy jihatdan asosli hisoblanadi. Bu

mexanizm to‘lovga qobiliyatsizlik institutini faqat haqiqiy va asosli holatlarda qo‘llashni ta’minlaydi, ortiqcha yoki asossiz ariza qo‘zg‘atilishining oldini oladi.

Agarda ushbu normada nazarda tutilgan to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud bo‘lmasa, jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza sud tomonidan Qonun 46-moddasining beshinchi qismiga asosan ish yuritishga qabul qilish rad etiladi. Agar ariza ish yuritishga qabul qilingan bo‘lsa, Qonun 55-moddasiga muvofiq, qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to‘g‘risidagi sudning qarori qabul qilinadi.

Umuman, ushbu norma jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligini sud tartibida aniqlashda asosiy moddiy-huquqiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu normada belgilangan alomatlar mavjudligi qarzdorning haqiqiy moliyaviy ahvolini baholash va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni qonuniy asosda ro‘yobga chiqarish uchun sudga huquqiy asos yaratadi. Bu qarama-qarshi taraflar – qarzdor va kreditorlar o‘rtasida adolatli muvozanatni ta’minlash, faqat obyektiv va huquqiy jihatdan asosli holatlarda qo‘llash hamda qonunchilikda belgilangan tartib-taomillarning barqarorligini ta’minlashga qaratilgan.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish jarayonida qo‘llaniladigan tartib-taomillarni belgilaydi. Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda ikkita tartib-taomil, ya’ni qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish (restrukturizatsiya) hamda bankrotlikni tan olish va mol-mulkni sotish tartib-taomillari qo‘llaniladi.

Bu tartib-taomillar jismoniy shaxsga nisbatan ish yuritishda sudning standart mexanizmlarini belgilangan tartibda ishga tushirishga xizmat qiladi. Xususan, arizani qabul qilish, uni qaytarish yoki qabul qilishni rad etish, ishtirokchilarning xabardor qilinishini ta’minlash, sudning ijro harakatlari va boshqa protsessual harakatlar Qonunning 30-moddasida ko‘rsatilgan tartib-taomillarga muvofiq amalga oshiriladi.

Bu, bir tomondan, ishlarning huquqiy barqarorligi va adolatlilik kafolatini ta’minlasa, ikkinchi tomondan, jismoniy shaxsning hamda kreditorlar va davlat organlarining huquq va majburiyatlari muvofiq tartibda ta’minlanishiga xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 801-b.

197-modda. Qarzdor jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza

Ushbu Qonun 9-moddasi birinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan hollarda, agar jismoniy shaxs barcha majburiyatlarining umumiy summasi bazaviy hisoblash miqdorining kamida ikki yuz baravarini tashkil etsa, bunday holat yuzaga kelgan kundan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay jismoniy shaxs o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilishi kerak.

Jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza ushbu Qonun 195-moddasida nazarda tutilgan to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud bo‘lgan taqdirda sudga berilishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada qarzdor jismoniy shaxsning o‘zi tomonidan sudga to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat qilish tartibi belgilangan.

1. Ushbu normaga ko‘ra, agar jismoniy shaxsning barcha majburiyatlari bazaviy hisoblash miqdorining kamida ikki yuz baravariga teng bo‘lsa, bu holat yuzaga kelgan kundan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay qarzdor o‘zini to‘lovga qobiliyatsiz deb topish uchun sudga ariza bilan murojaat qilishi shart.

Bunda Qonunning 9-moddasida belgilangan holat, ya’ni bir yoki bir nechta kreditorning talabini qanoatlantirish orqali boshqa kreditorlar oldidagi majburiyatlarini to‘liq bajara olmaslik holati yuzaga kelgan bo‘lishi lozim.

Shuningdek, jismoniy shaxsning barcha pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha umumiy summasi bazaviy hisoblash miqdorining kamida ikki yuz baravariga teng yoki undan ortiq bo‘lsa, moddiy-huquqiy shartlar amalga oshirilgan hisoblanadi. Bu qarzdorning haqiqiy moliyaviy ahvolini baholash va ish qo‘zg‘atish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bunday holat yuzaga kelgan kundan e’tiboran jismoniy shaxs o‘ttiz kundan kechiktirmay sudga ariza bilan murojaat qilishi talab etiladi. Bu muddat qarzdorning o‘z moliyaviy ahvolini qonuniy tarzda barqarorlashtirish va to‘lovga qobiliyatsizlik institutidan samarali foydalanishini ta’minlaydi.

Shu tariqa, ushbu norma ariza berish muddatini, moddiy-huquqiy shartlarni va protsessual kafolatlarni aniqlaydi hamda jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizlik institutidan qonuniy, barqaror va ochiq tarzda foydalanishini kafolatlaydi.

2. Jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza faqat Qonunning 195-moddasida nazarda tutilgan to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud bo‘lgan taqdirda sudga berilishi mumkin.

Qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani ish yuritishga qabul qilish masalasini hal etishda sudya bunday ariza bilan sudga murojaat qilish uchun Qonun 37-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan asoslar mavjudligini tekshirishi lozim.

Bunday asoslar, ya’ni to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud bo‘lmagan va uning mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinmagan taqdirda, sudya Qonun 46-moddasining beshinchi qismiga asosan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etadi. Agar mazkur holat to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilganidan keyin aniqlansa, sud qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topishni rad etish to‘g‘risida hal qiluv qarori qabul qiladi.

Ushbu norma moddiy-huquqiy va protsessual ahamiyatga ega bo‘lib, arizaning asosliligini ta’minlaydi va to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining qonuniy tartibda qo‘zg‘atilishini kafolatlaydi. Bu bilan qarzdorning haqiqiy moliyaviy ahvoli baholanadi va to‘lovga qobiliyatsizlik institutidan faqat haqiqiy to‘lov qobiliyatsizlik holatlarida foydalanish imkoni yaratiladi.

198-modda. Qarzdor jismoniy shaxsning arizasiga ilova qilinadigan hujjatlar

Qarzdor jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi arizaga ushbu Qonunning 40-moddasida nazarda tutilgan hujjatlardan tashqari quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

yakka tartibdagi tadbirkor maqomining mavjudligini yoki yo‘qotilganligini tasdiqlovchi ma’lumot (agar bunday faoliyat bilan shug‘ullangan bo‘lsa);

qarzdor jismoniy shaxs kreditorlar talablarini qanoatlantirish uchun taqdim etishga tayyor bo‘lgan mol-mulki ro‘yxati (narxi ko‘rsatilgan holda), garov predmeti bo‘lgan mol-mulk joylashgan yoki saqlanadigan joy, mol-mulk egasining nomi yoki ismi, familiyasi va otasining ismi ko‘rsatilgan holda;

jismoniy shaxsning mol-mulkka egalik qilish huquqini tasdiqlovchi va jismoniy shaxsning intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan mutlaq huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlarning (mavjud bo‘lgan taqdirda) ko‘chirma nusxalari;

ko‘chmas mulkka, qimmatli qog‘ozlarga, yuridik shaxsning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarga, transport vositalariga oid hujjatlarning, shuningdek, ariza berilgan sanaga qadar uch yil ichidagi davrda jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan bitimlarning ko‘chirma nusxalari;

jismoniy shaxs aksiyador (ishtirokchi) bo‘lgan yuridik shaxs aksiyadorlarining (ishtirokchilarining) reyestridan (mavjud bo‘lgan taqdirda) ko‘chirma;

jismoniy shaxs tomonidan olingan daromadlar, jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza berilgan sanaga qadar bo‘lgan uch yil ichidagi davrda hisoblangan va to‘langan soliqlar hamda yig‘imlar haqidagi ma’lumotlar;

tijorat banklaridagi hisobvaraqlar va ulardagi pul mablag‘larining qoldiqlari, jamg‘armalar (depozitlar) to‘g‘risida tijorat banki tomonidan berilgan ma’lumotnoma, shuningdek, jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish haqidagi ariza berilgan sanaga qadar uch yil ichidagi davr uchun jismoniy shaxsning, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorning hisobvaraqlaridagi operatsiyalar, omonatlar (depozitlar) bo‘yicha ma’lumotlar (mavjud bo‘lgan taqdirda);

sug‘urtalangan shaxs shaxsiy hisobvarag‘ining holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar (mavjud bo‘lgan taqdirda);

bandlik va mehnat munosabatlari hududiy boshqarmasining jismoniy shaxsni ishsiz deb topish haqidagi qarorining ko‘chirma nusxasi (mavjud bo‘lgan taqdirda);

nikoh tuzilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning (agar nikoh ariza topshirilgan sanada tuzilgan bo‘lsa yoki nikohdan ajralish qayd etilmagan bo‘lsa) va (yoki) nikohdan ajralish haqidagi guvohnomaning (agar guvohnoma ariza berilguniga qadar uch yil ichida berilgan bo‘lsa) ko‘chirma nusxasi, shuningdek, nikoh shartnomasining ko‘chirma nusxasi (mavjud bo‘lgan taqdirda);

ariza berilgan sanaga qadar uch yil ichida tegishincha tuzilgan va qabul qilingan, er-xotinning umumiy mol-mulki to‘g‘risidagi shartnomaning yoki sud hujjatining ko‘chirma nusxasi (mavjud bo‘lgan taqdirda).

Jismoniy shaxs o‘z arizasida moliyaviy boshqaruvchining nomzodini ko‘rsatishi mumkin.

Sharhlanayotgan modda jismoniy shaxsning o‘zini to‘lovga qobiliyatsiz deb topish haqida sudga bergan arizasiga ilova qilishi shart bo‘lgan hujjatlarni to‘liq belgilab beradi. Uning asosiy maqsadi sudga qarzdorning yuridik, moliyaviy, muomalalarga oid, oilaviy va mulkka oid haqiqiy holatini aniqlash imkonini berishdir.

1. Mazkur moddaning birinchi qismi nafaqat arizani qabul qilish uchun zarur hujjatlar ro‘yxatini belgilaydi, balki qarzdorning moliyaviy harakatlarini, mol-mulkni yashirish ehtimolini va uning haqiqiy to‘lov qobiliyatini aniqlashni ta’minlaydi.

Qonunning 40-moddasida barcha qarzdorlar (yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor va jismoniy shaxs) uchun umumiy hujjatlar ro‘yxati keltirilgan. Mazkur moddada esa faqat jismoniy shaxslar uchun qo‘shimcha talab qilinadigan hujjatlar ro‘yxati keltirilgan. Agarda jismoniy shaxs tomonidan to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza berilsa, unda 40-moddadagi umumiy talab etiladigan hujjatlar bilan birga ushbu moddadagi maxsus nazarda tutilgan hujjatlar taqdim etishi lozim bo‘ladi.

Qarzdor jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasiga Qonunning mazkur moddasi va IPKning 151-moddasida nazarda tutilgan hujjatlar ilova qilinadi. Ushbu hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda, ariza va unga ilova qilingan hujjatlar IPKning 155-moddasi va Qonunning 46-moddasi oltinchi qismiga asosan qaytariladi.

Amaliyotda ushbu modda birinchi qismida belgilangan hujjatlarning muhim ahamiyati shu bilan izohlanadiki, sud qarzdorning mol-mulkini yashirmaganini, bank operatsiyalarini shubhali ravishda amalga oshirmaganini va uning moliyaviy imkoniyatlari haqiqatan yetishmasligini aniq bilishi shart. Shuningdek, ariza bilan ilova qilingan hujjatlar orqali nikoh, turli «bitimlar» va omonatlar orqali to‘lovdan qochish holatlari yo‘qligi ham tekshiriladi.

Shu ma’noda, qarzdor jismoniy shaxsning to‘liq moliyaviy holatini, ya’ni uning moliyaviy «rentgen tasviri»ni taqdim etadi va to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida sudga ishni to‘g‘ri, oshkora va adolatli tarzda yuritish imkonini beradi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat qilganda u o‘z arizasida moliyaviy boshqaruvchining nomzodini ko‘rsatish huquqiga ega ekanligi belgilangan. Bu norma to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida qarzdorning shaxsiy huquqlari va mol-mulk manfaatlarini muhofaza qilish, shuningdek, protsessual va moddiy huquqiy kafolatlarni ta’minlash maqsadida belgilangan.

Moliyaviy boshqaruvchini o‘zi ko‘rsatish orqali jismoniy shaxs sud tomonidan boshqaruvchi tayinlanishi bilan bog‘liq kechikish va noaniqliklarni kamaytiradi. Shu

tariqa, jismoniy shaxs o‘z nomzodini ko‘rsatish bilan to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida to‘liq huquqiy va moddiy kafolatlarga ega bo‘ladi.

Sud qarzdor arizasida ko‘rsatilgan nomzodning malakalari, xolisligi va ishlash qobiliyatini tekshirib, uni moliyaviy boshqaruvchi sifatida tasdiqlash masalasini hal etadi va bu haqida ajrim qabul qiladi. Sud qarzdor jismoniy shaxsning nomzodini ma’qullamasligi va nomzodni rad etishi mumkin.

Bu mexanizmning ahamiyati shundaki, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida qarzdorning va kreditorlar manfaatlari hamda mol-mulkning to‘g‘ri va adolatli taqsimlanishi ta’minlanadi. Sud tomonidan nomzod rad etilganda, sud boshqaruvchisini qayta tayinlash yoki boshqa vakolatli shaxsni moliyaviy boshqaruvchi sifatida tanlash tartibi qonun va protsessual qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi. Qarang: Xalqaro sharh. 801-b.

199-modda. Kreditorning, davlat soliq xizmatining yoki boshqa vakolatli organning jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi arizasi

Jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza kreditor, davlat soliq xizmati yoki boshqa vakolatli organ tomonidan kreditorlarning pul majburiyatlari va soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlariga doir talablarini tasdiqlovchi sudning qonuniy kuchga kirgan qarori mavjud bo‘lgan taqdirda berilishi mumkin, bundan ushbu modda ikkinchi qismining qoidalari mustasno.

Mazkur moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan sud qarori mavjud bo‘lmagan taqdirda, jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish haqidagi ariza kreditor tomonidan quyidagi talablar bo‘yicha berilishi mumkin:

notarial tarzda tasdiqlangan bitimlar asosidagi talablar;

notariusning ijro yozuvi bilan tasdiqlangan talablar;

jismoniy shaxs tomonidan tan olingan, ammo bajarilmagan pul majburiyatlari bo‘yicha kreditor taqdim etgan hujjatlar asosidagi talablar;

otalikni belgilash, otalikni (onalikni) rad etish yoki boshqa manfaatdor shaxslarni jalb etish zarurati bo‘lmagan voyaga yetmagan bolalar uchun alimentlar undirish to‘g‘risidagi talablar.

Jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish haqidagi arizaga ushbu Qonunning 41–43-moddalarida nazarda tutilgan hujjatlar bilan birga yakka tartibdagi tadbirkor maqomi mavjudligini yoki yo‘qotilganligini tasdiqlovchi ma’lumotlar (agar bunday faoliyat bilan shug‘ullangan bo‘lsa) ilova qilinadi.

Sharhlanayotgan moddada kreditor, davlat soliq xizmati yoki boshqa vakolatli organ jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risida sudga murojaat qilishi uchun, odatda, qonuniy kuchga kirgan sud qarori mavjud bo‘lishi lozimligi, ayrim hollarda esa bunday ariza sud qarorisiz ham muayyan hujjatlar asosida berilishi mumkinligi hamda arizaga qonunda nazarda tutilgan hujjatlar ilova qilinishi shartligi belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish uchun kreditor, davlat soliq xizmati yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan sudga ariza berishning huquqiy asoslari belgilangan. Ushbu normaga ko‘ra, mazkur subyektlar tomonidan ariza faqat kreditorlarning pul majburiyatlari hamda soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha talablari, odatda, sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan tasdiqlangan taqdirda beriladi.

Kreditorning qarzdor jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasi sudga yozma yoki elektron shaklda beriladi. Kreditor jismoniy shaxs qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani turli majburiyatlar bo‘yicha birlashtirilgan qarzdorlikka asoslangan holda taqdim etishi mumkin. Kreditorlar o‘z talablarini birlashtirib, iqtisodiy sudga bitta ariza bilan murojaat qilishga haqli bo‘lib, bunday ariza barcha birlashtirilgan kreditorlar tomonidan imzolanadi. Kreditorning qarzdor jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasiga ilova qilinadigan umumiy hujjatlar ro‘yxati Qonunning 43-moddasida belgilangan.

Davlat soliq xizmati organining hamda boshqa vakolatli organning qarzdor jismoniy shaxsga nisbatan soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasi Qonunning 41- va 43-moddalarida nazarda tutilgan talablarga javob berishi kerak. Agar davlat soliq xizmati organining hamda boshqa vakolatli organning qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizasiga qonunchilikka muvofiq soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha qarzni qaytarib olishga doir chora-tadbirlar ko‘rilganligiga oid dalillar ilova qilinmagan bo‘lsa, ariza sud ajrimi bilan qaytariladi va ariza sud tomonidan xatoga yo‘l qo‘yilib, ish yuritishga qabul qilingan bo‘lsa (IPK 107-moddasining 5-bandiga asosan), sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani ko‘rmasdan qoldiradi.

Shu bilan birga, normada «bundan ushbu modda ikkinchi qismining qoidalari mustasno» degan qoida kiritilgan bo‘lib, bu holat qonunda nazarda tutilgan ayrim maxsus vaziyatlarda sud qarori mavjud bo‘lmagan taqdirda ham ariza berish imkoniyati saqlanib qolishini anglatadi. Bunday istisno holatlar to‘lovga qobiliyatsizlik institutining samarali ishlashini ta’minlash va huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish maqsadida belgilangan.

Umuman olganda, ushbu norma jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atishda protsessual intizomni ta’minlashga, kreditorlar va davlat manfaatlarini himoya qilishga hamda to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining qonuniy va asosli tarzda amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Bu qoidalar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida asossiz yoki bahsli talablar asosida ish qo‘zg‘atilishining oldini olishga, shuningdek, jismoniy shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Sud qarori mavjudligi kreditor yoki vakolatli organ talablarining haqiqiyligi, miqdori va huquqiy asosini oldindan aniqlab beradi hamda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish uchun yetarli protsessual kafolat bo‘lib xizmat qiladi.

2. Ushbu norma jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atishda sud qarori mavjud bo‘lishi haqidagi umumiy qoidadan istisno holatlarni belgilaydi. Unga ko‘ra, agar moddaning birinchi qismida nazarda tutilganidek, kreditor

talablarini tasdiqlovchi sudning qonuniy kuchga kirgan qarori mavjud bo‘lmasa ham, ayrim hollarda kreditor to‘g‘ridan to‘g‘ri sudga murojaat qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Bunday istisno holatlar faqat talabning bahssizligi va aniqligi bilan tavsiflanadigan majburiyatlarga nisbatan qo‘llaniladi. Xususan, notarial tarzda tasdiqlangan bitimlar yoki notariusning ijro yozuvi bilan tasdiqlangan talablar qonunan e’tirof etilgan va ijro etilishi shart bo‘lgan hujjatlar hisoblanadi. Shuningdek, jismoniy shaxs tomonidan tan olingan, ammo bajarilmagan pul majburiyatlari bo‘yicha taqdim etilgan hujjatlar ham qarzdorlik mavjudligini aniq tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, ushbu normada shunga alohida e’tibor qaratilganki, voyaga yetmagan bolalar uchun aliment undirishga oid talablar ham mazkur toifaga kiritilgan. Bu holda otalikni belgilash yoki rad etish yoxud boshqa manfaatdor shaxslarni jalb etish zarurati mavjud bo‘lmasligi shart qilib qo‘yilgan bo‘lib, bu aliment majburiyatining bahssizligini ta’minlashga qaratilgan.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismidagi qoidalar kreditorning, davlat soliq xizmatining yoki boshqa vakolatli organning jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi arizasiga ilova qilinadigan hujjatlar tarkibini aniqlashga qaratilgan.

Unga ko‘ra, bunday arizaga ushbu Qonunning 41–43-moddalarida nazarda tutilgan umumiy hujjatlar bilan bir qatorda jismoniy shaxsning YTT maqomi mavjudligini yoki ushbu maqomni yo‘qotganligini tasdiqlovchi ma’lumotlar ham taqdim etilishi shart, agar u avval shunday faoliyat bilan shug‘ullangan bo‘lsa.

Ushbu talab jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi bilan bog‘liq munosabatlarni to‘g‘ri huquqiy kvalifikatsiya qilish, uning iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq majburiyatlari mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash hamda to‘lovga qobiliyatsizlik ishi doirasida qo‘llaniladigan maxsus qoidalarni belgilash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Qarang: Xalqaro sharh. 801-b.

200-modda. Jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish va ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari

Qarzdor jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza kelib tushgan kundan e’tiboran besh kundan kechiktirmay sudya arizani qabul qilish va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish yoxud arizani qabul qilishni rad etish yoki qaytarish haqidagi ajrimni chiqaradi.

Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish haqidagi ajrimda sud qarzdor jismoniy shaxsning zimmasiga sudning ajrimi olingan kundan e’tiboran o‘n besh kunlik muddat ichida sudga ushbu Qonunning 198-moddasida nazarda tutilgan hujjatlar ilova qilingan holdagi yozma fikrini taqdim etish majburiyatini yuklaydi. Agar jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ariza qarzdor jismoniy shaxs tomonidan berilgan bo‘lsa, bu qoida qo‘llanilmaydi.

Sud jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra quyidagi sud hujjatlaridan birini qabul qiladi:

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini joriy etish haqidagi ajrimni;

jismoniy shaxsni bankrot deb topish va jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash to‘g‘risidagi qarorni;

arizani qanoatlantirishni rad etish haqidagi qarorni.

Agar boshqacha holat isbotlanmagan bo‘lsa, quyidagi holatlardan loaqal bittasi mavjud bo‘lgan taqdirda, jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsiz deb hisoblanadi:

pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha majburiyatlar umumiy summasining o‘n foizidan ko‘prog‘i bunday majburiyatlar bajarilishi kerak bo‘lgan kundan e’tiboran bir oydan ortiq vaqt davomida bajarilmaganda;

jismoniy shaxs qarzining miqdori uning mol-mulki qiymatidan ortiq bo‘lganda;

ijroga doir ish yuritishni jismoniy shaxsda mol-mulk mavjud emasligi munosabati bilan tugatish to‘g‘risida qaror mavjud bo‘lganda.

Jismoniy shaxsga nisbatan meros ochilganligi haqida ma’lumotlar mavjud bo‘lgan taqdirda, sud jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritishni merosning taqdiri haqidagi masala hal qilinguniga qadar to‘xtatib turishga haqli.

Sharhlanayotgan moddada jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi arizani qabul qilish va ishni qo‘zg‘atish tartibi, sud muhokamasida ko‘rib chiqish hamda uning natijasi bo‘yicha qaror qabul qilish kabi masalalar belgilangan.

1. Ushbu norma qarzdor jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi arizani sud tomonidan ko‘rib chiqishning dastlabki protsessual bosqichini hamda uni amalga oshirish muddatlarini belgilaydi. Unga ko‘ra, ariza sudga kelib tushgan kundan e’tiboran besh kundan kechiktirmay sudya tomonidan uni qabul qilish va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish yoki arizani qabul qilishni rad etish yoxud arizani qaytarish haqida ajrim chiqarilishi shart.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlash sudya tomonidan Qonunning 49-moddasida belgilangan xususiyatlar inobatga olingan holda IPKning 19-bobida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani ish yuritishga qabul qilish masalasini hal etishda sudya bunday ariza bilan sudga murojaat qilish uchun Qonun 37-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan asoslar mavjudligini tekshirishi kerak. Bunda Qonunning 195-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lmagan taqdirda, sudya tomonidan jismoniy shaxsni to‘lovga qo-

biliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi arizani Qonun 46-moddasining beshinchi qismiga asosan ish yuritishga qabul qilish rad etilishi lozim.

Agarda mazkur holatlar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilganidan keyin aniqlansa, sud qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topishni rad etish to‘g‘risida hal qiluv qarori qabul qiladi.

Ushbu qoidalar sud jarayonining tezkorligi va samaradorligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, jismoniy shaxsning moliyaviy ahvoli bilan bog‘liq holatlarni sun’iy ravishda cho‘zishga yo‘l qo‘ymaslikni maqsad qiladi. Shu bilan birga, mazkur muddat sudyaga arizaning qonun talablariga muvofiqligini, zarur hujjatlar ilova qilinganligini hamda ish qo‘zg‘atish uchun moddiy-huquqiy va protsessual asoslar mavjudligini birlamchi baholash imkonini beradi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismidagi qoidalar jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilganidan keyingi qarzdorning protsessual majburiyatlarini belgilaydi.

Unga ko‘ra, agar ish qarzdor jismoniy shaxsning tashabbusi bilan emas, balki kreditor yoki vakolatli organlar tomonidan qo‘zg‘atilgan bo‘lsa, sud ishni qo‘zg‘atish haqidagi ajrimda qarzdorga qo‘shimcha protsessual majburiyat yuklaydi. Xususan, sud qarzdor jismoniy shaxsni sud ajrimi olingan kundan e’tiboran o‘n besh kunlik muddat ichida sudga yozma fikr taqdim etish majburiyati yuklanadi. Ushbu yozma fikrga Qonunning 198-moddasida nazarda tutilgan, ya’ni qarzdorning moliyaviy ahvolini, mol-mulkini, daromadlarini, bank hisobvaraqlarini, bitimlarini hamda boshqa ahamiyatli holatlarni aks ettiruvchi hujjatlar ilova qilinishi lozim.

Bu talab sudga qarzdor jismoniy shaxsning haqiqiy moliyaviy holatini to‘liq va xolis baholash, to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash, shuningdek, kreditorlar manfaatlarini himoya qilish uchun zarur axborotlarni o‘z vaqtida olish imkonini beradi. Ayni paytda, mazkur qoida qarzdorning ish yuritishda faol ishtirok etishini ta’minlashga ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, agar jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ariza to‘g‘ridan to‘g‘ri qarzdorning o‘zi tomonidan berilgan bo‘lsa, ushbu qoida qo‘llanilmaydi. Bu holatda qarzdor ariza berish paytidayoq Qonunning 198-moddasida nazarda tutilgan hujjatlarni taqdim etgan deb hisoblanadi va qo‘shimcha yozma fikr talab etilmaydi.

Shu tariqa, norma ish qo‘zg‘atish bosqichida protsessual tartib-intizomni ta’minlashga, sudga to‘liq va ishonchli ma’lumot taqdim etish orqali to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarining vaqtida va samarali ko‘rib chiqilishiga xizmat qiladi.

3. Ushbu norma jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish yakunida sud tomonidan qabul qilinishi mumkin bo‘lgan sud hujjatlarining turlarini belgilaydi. Unga ko‘ra, sud ish bo‘yicha barcha dalillar va taqdim etilgan materiallarni har tomonlama, to‘liq va xolis baholagan holda uch xil protsessual qarordan birini qabul qiladi.

Birinchidan, agar sud jismoniy shaxsning moliyaviy ahvolini tiklash imkoniyati mavjud deb hisoblasa, u jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini joriy etish haqida ajrim chiqaradi. Ushbu ajrim qarzdorning daromad

manbalari, mulkiy holati va ijtimoiy ahvolini inobatga olgan holda uning to‘lov qobiliyatini bosqichma-bosqich tiklashga qaratilgan.

Ikkinchidan, agar sud qarzdor jismoniy shaxsning to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyati yo‘q deb topsa, u jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash to‘g‘risida hal qiluv qarori qabul qiladi. Bu holda qarzdorning mol-mulki belgilangan tartibda realizatsiya qilinib, olingan mablag‘lar kreditorlar talablarini qanoatlantirishga yo‘naltiriladi.

Uchinchidan, agar sud to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud emasligi yoki arizani qanoatlantirish uchun qonun bilan nazarda tutilgan asoslar yetarli emasligini aniqlasa, arizani qanoatlantirishni rad etish haqida hal qiluv qarori chiqaradi.

Mazkur sud hujjatlari ustidan protsessual qonunchilikka muvofiq shikoyat qilinishi yoki protest keltirilishi mumkin.

Bu norma sud tomonidan qabul qilingan sud hujjatlarining qayta ko‘rib chiqilishi mumkinligini kafolatlaydi va ishtirokchilarga apellyatsiya tartibida yoki kassatsiya tartibida tegishli instansiyaga shikoyat qilish, qonunchilikda belgilangan hollarda prokuror tomonidan protest kiritish huquqlarini beradi. Ushbu mexanizm sud qarorlari ustidan nazoratni ta’minlash, huquqiy xatoliklar yoki protsessual buzilishlar yuz bergan taqdirda ularni bartaraf etishga xizmat qiladi va ishtirokchi shaxslarning protsessual huquqlarini kafolatlaydi.

Shu tariqa, norma sudga jismoniy shaxsning haqiqiy moliyaviy holatidan kelib chiqib adolatli, mutanosib va maqsadga muvofiq sud hujjatini qabul qilish imkonini beruvchi huquqiy mexanizmni belgilaydi.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismida jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligini aniqlashda qo‘llaniladigan qonuniy prezumpsiya belgilangan. Unga ko‘ra, agar boshqacha holat isbotlanmagan bo‘lsa, qonunda sanab o‘tilgan holatlardan kamida bittasi mavjud bo‘lgan taqdirda, jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsiz deb hisoblanadi.

Birinchidan, agar jismoniy shaxsning pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlari umumiy summasining o‘n foizidan ko‘prog‘i ular bajarilishi lozim bo‘lgan kundan e’tiboran bir oydan ortiq muddat davomida bajarilmagan bo‘lsa, bu holat jismoniy shaxsning to‘lov intizomi izdan chiqqanini va uning joriy majburiyatlarni bajarish imkoniyati cheklanganini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, agar jismoniy shaxsning qarzlari miqdori unga tegishli mol-mulkning umumiy qiymatidan ortiq bo‘lsa, ya’ni passivlari aktivlaridan oshib ketgan holatda, bunday moliyaviy nomutanosiblik to‘lovga qobiliyatsizlikning muhim alomati sifatida baholanadi.

Uchinchidan, ijroga doir ish yuritishni jismoniy shaxsda undiruv qaratiluvchi mol-mulk mavjud emasligi sababli tugatish to‘g‘risida qaror mavjud bo‘lishi ham uning to‘lovga qobiliyatsizligini tasdiqlovchi holatdir. Bu holat qarzdorning majburiyatlarini majburiy ijro etish imkoniyati amalda mavjud emasligini anglatadi.

Shu bilan birga, normada «agar boshqacha holat isbotlanmagan bo‘lsa» degan qoida nazarda tutilgan bo‘lib, u jismoniy shaxsga yoki boshqa manfaatdor shaxslarga mazkur holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda ham to‘lovga qobiliyatsizlik yo‘qligini isbot-

lash imkonini beradi. Bu esa sudga ishni ko‘rib chiqishda barcha holatlarni individual va xolis baholash imkonini yaratadi.

5. Ushbu norma jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritishda meros huquqi bilan bog‘liq munosabatlarni hisobga olishga qaratilgan. Unga ko‘ra, agar jismoniy shaxsga nisbatan meros ochilganligi haqida ma’lumotlar mavjud bo‘lsa, sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishni merosning taqdiri masalasi hal etilguniga qadar to‘xtatib turish huquqiga ega bo‘ladi.

Bu qoida jismoniy shaxsning mol-mulk holatini to‘g‘ri va to‘liq aniqlash zaruratidan kelib chiqadi. Chunki meros ochilishi natijasida qarzdorning mol-mulk tarkibi o‘zgarishi, uning aktivlari ko‘payishi yoki qarz majburiyatlarini qoplash imkoniyati yuzaga kelishi mumkin. Shu bois merosning qabul qilinishi yoki rad etilishi, shuningdek, meros tarkibi va qiymati aniqlanmasdan turib jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi haqida yakuniy xulosa chiqarish asossiz bo‘lishi mumkin.

Ushbu normadagi qoidalar sudga majburiyat yuklamaydi, balki unga ixtiyoriy vakolat beradi. Bunda sud ish yuritishni to‘xtatib turish masalasini ishning aniq holatlarini, meros bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarning ahamiyatini hamda ularning ishni hal etishga ta’sirini inobatga olgan holda hal qiladi.

Bu haqida sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishni merosning taqdiri masalasi hal etilguniga qadar to‘xtatib turish bo‘yicha ajrim chiqaradi va uning ustidan norozi taraf protsessual tartibda shikoyat keltirishi mumkin.

Shu tariqa, ushbu norma jismoniy shaxsning haqiqiy moliyaviy holatini xolis baholashga, kreditorlar va qarzdor manfaatlarining muvozanatini ta’minlashga hamda asossiz ravishda to‘lovga qobiliyatsiz deb topishning oldini olishga xizmat qiladi.

201-modda. Sud tomonidan arizani qanoatlantirish va jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini joriy etish

Sudning jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi arizani qanoatlantirish va uning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini joriy etish haqidagi ajrimi, agar bunday ariza ushbu Qonunning 196-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra berilgan bo‘lsa, agar jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi alomatlari isbotlangan hamda ushbu Qonunning 200-moddasida nazarda tutilgan holatlardan loaqal bittasi sodir bo‘lsa, chiqariladi.

Moliyaviy boshqaruvchi qarzdor jismoniy shaxs yoki kreditorlar yoxud vakolatli davlat organi yoki sud boshqaruvchilarining jamoat birlashmasi taklif etgan nomzodlar orasidan sud tomonidan tayinlanadi.

Sharhlanayotgan moddada qarzdor jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish natijasida sud tomonidan qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini joriy etishning huquqiy asoslari, moliyaviy boshqaruvchi tayinlanishi tartibi belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismiga ko‘ra, sud jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsiz deb topish haqidagi arizani qanoatlantirish va mazkur tartib-taomilni joriy etish haqida ajrim chiqarishi uchun bir vaqtning o‘zida qator shartlar mavjud bo‘lishi talab etiladi.

Avvalo, jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza ushbu Qonunning 196-moddasida nazarda tutilgan asoslarga muvofiq berilgan bo‘lishi lozim. Bunda arizani berishning qonuniyligi va protsessual talablarga rioya etilganligi tekshiriladi.

Ikkinchidan, jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi alomatlari isbotlangan bo‘lishi shart. Bunda sud qarzdorning moliyaviy holatini baholab, u o‘z pul majburiyatlari va (yoki) soliq hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlarni bajarishga layoqatsiz ekanligini tasdiqlovchi dalillar mavjudligini aniqlaydi.

Uchinchidan, Qonunning 200-moddasida nazarda tutilgan holatlardan kamida bittasining mavjudligi talab etiladi. Bu holatlar jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligini huquqiy jihatdan asoslovchi qo‘shimcha mezonlar bo‘lib xizmat qiladi.

Shu tariqa, mazkur qoidalar jismoniy shaxsni darhol bankrot deb topmasdan, avvalo uning moliyaviy ahvolini tiklashga qaratilgan qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini qo‘llash imkoniyatini nazarda tutadi hamda jismoniy shaxs va kreditorlar manfaatlarining muvozanatini ta’minlashga qaratilgan.

2. Ushbu normada moliyaviy boshqaruvchini tayinlash tartibi belgilangan. Unga ko‘ra, moliyaviy boshqaruvchi qarzdor jismoniy shaxs yoki kreditorlar, shuningdek, vakolatli davlat organi yoki sud boshqaruvchilarining jamoat birlashmasi tomonidan taklif qilingan nomzodlar orasidan sud tomonidan tayinlanadi.

Sud moliyaviy boshqaruvchini mustaqil ravishda, qonun hujjatlari va taklif qilingan nomzodlar ro‘yxati asosida tayinlaydi. Mazkur tartib moliyaviy boshqaruv jarayonining adolatli va samarali bo‘lishini, qarzdor va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishni ta’minlash maqsadida belgilangan. Moliyaviy boshqaruvchining vakolatlari va majburiyatlari qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Qarang: Xalqaro sharh. 801-b.

202-modda. Jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi arizani qanoatlantirishni rad etish

Sudning jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi arizani qanoatlantirishni rad etish haqidagi qarori quyidagi shartlardan biri mavjud bo‘lgan taqdirda qabul qilinadi:

jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risida boshqa ish mavjud bo‘lsa;

jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi alomatlari yo‘q bo‘lsa;

ushbu Qonun 200-moddasining to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan asoslar bo‘lmasa;

kreditorning yoki tegishli vakolatli organning arizasida ko‘rsatilgan talablar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ariza berilgan sanada sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan tasdiqlanmagan bo‘lsa hamda kreditor yoki tegishli vakolatli organ va jismoniy shaxs o‘rtasida da’vo ishi tartibida hal etilishi lozim bo‘lgan huquqqa oid nizo mavjud bo‘lsa.

Sharhlanayotgan moddada sudning jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi arizani qanoatlantirishni rad etish asoslari belgilangan.

Mazkur moddadagi har bir asos to‘lovga qobiliyatsizlik institutining maqsadi – qarzdor jismoniy shaxsni qonuniy yo‘l bilan himoya qilish va kreditorlar huquqini saqlash bilan bevosita bog‘liq. Ushbu normada sudning jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi arizani qanoatlantirmaslik (rad etish) asoslari qat’iy va cheklangan holda belgilangan. Unga ko‘ra, sud quyidagi holatlarda jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi arizani qanoatlantirishni rad etish haqida hal qiluv qarori qabul qiladi.

Birinchidan, jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risida boshqa ish sudda ko‘rib chiqilayotgan bo‘lsa, ya’ni qonun bir shaxsga nisbatan bir vaqtning o‘zida bir nechta to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarini yuritishni taqiqlaydi. Xalqaro amaliyotdagi bu umumiy prinsip «yagona to‘lovga qobiliyatsizlik protsessi» deb nomlanadi.

Ikkinchidan, jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi alomatlari mavjud bo‘lmasa, ya’ni Qonunning 195-moddasida belgilangan jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi alomatlari aniqlanmasa (ariza beruvchi ularni dalillar bilan isbotlamasa), sud to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud degan xulosaga kela olmaydi va arizani qanoatlantirish rad etiladi.

Uchinchidan, Qonunning 200-moddasining to‘rtinchi qismida belgilangan uchta alomatdan birortasi ham isbotlanmasa, sud arizani qanoatlantirishni rad etish haqida xulosa qiladi.

To‘rtinchidan, kreditor yoki tegishli vakolatli organning arizasida ko‘rsatilgan talablar ariza berilgan sanada sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan tasdiqlanmagan bo‘lsa va qarzdor bilan kreditor yoki vakolatli organ o‘rtasida huquqiy nizo mavjud bo‘lsa, sud arizani rad etadi. Buning sababi shundaki, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni asosan ijro mexanizmi hisoblanadi, huquqqa oid nizolarni hal qiluvchi jarayon emas. Shuning uchun qarzdor bilan kreditor yoki vakolatli organ o‘rtasidagi huquqiy nizolar avval da’vo ishi tartibida hal qilinishi shart.

Mazkur qoidalar sudga arizani rad etish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi va qarzdorning huquqiy maqomi, kreditorlar talablari hamda tegishli vakolatli organlarning arizalarini qonuniy tartibda himoya qilishni ta’minlaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 802-b.

203-modda. Jismoniy shaxsning garov bilan ta’minlangan talablari

Sudning jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tasdiqlash to‘g‘risidagi ajrimi yoki jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash to‘g‘risidagi qarori chiqarilguniga qadar undiruvni garovga qo‘yilgan mol-mulkka qaratishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sud tomonidan jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi tasdiqlanganidan keyin ushbu reja uchun jismoniy shaxsning mol-mulk garovi bilan ta’minlangan majburiyatlari bo‘yicha ovoz bermagan kreditor undiruvni jismoniy shaxsning garovga qo‘yilgan mol-mulkiga qaratish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilishga haqli bo‘lib, bu iltimosnoma, agar undiruvni mazkur mol-mulkka qaratish jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarishga to‘sqinlik qilishi isbotlanmagan bo‘lsa, sud tomonidan qanoatlantirilishi mumkin.

Kreditorlarning jismoniy shaxsning mol-mulk garovi bilan ta’minlangan talablarini qanoatlantirish shartlari jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida ko‘rsatilishi kerak. Bu shartlar garov bilan ta’minlangan kreditorlar tomonidan ma’qullanadi.

Sharhlanayotgan moddada jismoniy shaxsning garov bilan ta’minlangan majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini qondirish tartibi, garovga qo‘yilgan mol-mulkka undiruv qaratish shartlari hamda bunday talablarni jismoniy shaxs qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida aks ettirish va garov kreditorlari tomonidan ma’qullash zarurligi belgilangan.

1. Ushbu normaga ko‘ra, sud tomonidan jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tasdiqlash to‘g‘risidagi ajrim yoki jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash to‘g‘risidagi hal qiluv qarori chiqarilguniga qadar undiruvni garovga qo‘yilgan mol-mulkka qaratishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida garovli kreditorlar, oddiy kreditorlardan farqli ravishda, maxsus norma himoyasiga ega. Biroq ularning huquqlari ham cheklanadi va muayyan protsessual tartibga bo‘ysunadi.

Bu tartib qarzdorning mol-mulkidan adolatli foydalanish va garovli kreditorlarning huquqlarini himoya qilish maqsadida belgilangan. Bunda garov bilan ta’minlangan mol-mulk undiruv uchun foydalanishdan himoya qilinadi va to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni boshlangunga qadar undiruvni ushbu mol-mulkka qaratish mumkin emas. Bu normaning maqsadi to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida qarzdorning mol-mulkidan adolatli va qonuniy foydalanishni ta’minlash hamda garovli kreditorlarning huquqlarini muhofaza qilishdan iborat.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismidagi norma jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi tasdiqlanganidan keyin garovli kreditorlar huquqlarini tartibga solishga oid huquqiy mexanizmni belgilaydi.

Unga ko‘ra, sud tomonidan jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi tasdiqlanganidan so‘ng ushbu rejaga muvofiq jismoniy shaxsning mol-mulk garovi bilan ta’minlangan majburiyatlari bo‘yicha ovoz bermagan kreditorlar sudga iltimosnoma bilan murojaat qilishga haqlidir. Iltimosnoma, agar undiruvni garovga qo‘yilgan mol-mulkka qaratish qarzdorning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarishga to‘sqinlik qilmasligi isbotlangan bo‘lsa, sud tomonidan qanoatlantirilishi mumkin.

Ushbu qoida ikki asosiy maqsadni amalga ko‘zlaydi: *birinchidan*, garovli kreditorlarning huquqlarini himoya qilish, ular mol-mulkdan o‘z talabini qonuniy tarzda qondirish imkoniga ega bo‘lishadi; *ikkinchidan*, qarzdorning tarkibiy o‘zgartirish rejasini bajarish jarayonida mol-mulkning to‘sqinliksiz va adolatli ravishda taqsimlanishi ta’minlanadi.

Agar kreditor iltimosnoma bilan sudga murojaat qilsa, sud mol-mulk garovi bilan ta’minlangan talablar haqiqatan borligini undiruv garovga qaratish orqali tarkibiy o‘zgartirish rejasini buzmasligini tekshirishi lozim. Mazkur qoida kreditorlarga garovli mol-mulk bo‘yicha talablarini himoya qilish imkonini bergan holda qarzdorning tarkibiy o‘zgartirish rejasi bajarilishini ham ta’minlaydi.

3. Ushbu normada jismoniy shaxsning mol-mulk garovi bilan ta’minlangan talablarni qanoatlantirish shartlari tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida ko‘rsatilishi va garovli kreditorlar tomonidan ma’qullanishi belgilangan.

Unga ko‘ra, tarkibiy o‘zgartirish rejasida garovli kreditor talablarini qanoatlantirishning aniq shartlari belgilansa, undiruv jarayonida mol-mulk taqsimoti va qarzdorning rejasi bajarilishi to‘sqinliksiz ta’minlanadi. Shu bilan birga, kreditorlar huquqlari himoya qilinadi va to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida mol-mulk garovi bilan ta’minlangan talablar qonuniy tarzda qondirilishi kafolatlanadi. Qarang: Xalqaro sharh. 802-b.

204-modda. Kreditorlar yig‘ilishining jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishga doir mutlaq vakolatlari

Kreditorlar yig‘ilishining mutlaq vakolatlari jumlasiga:

kreditorlar qo‘mitasi a’zolarini saylash, qo‘mitaning miqdoriy tarkibini belgilash va a’zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risidagi qarorni;

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tasdiqlash to‘g‘risidagi yoki tasdiqlashni rad etish haqidagi qarorni;

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritiladigan o‘zgartishlarni tasdiqlash haqidagi yoki tasdiqlashni rad etish to‘g‘risidagi qarorni;

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bekor qilish haqidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish to‘g‘risidagi qarorni, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno;

jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash haqidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish to‘g‘risidagi qarorni, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno;

kelishuv bitimini tuzish haqidagi qarorni qabul qilish kiradi.

Sharhlanayotgan modda jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi jarayonida kreditorlar yig‘ilishining mutlaq vakolatlari va huquqiy maqomiga doir huquqiy tartibni belgilaydi.

Ushbu normaga ko‘ra, kreditorlar yig‘ilishi jismoniy shaxsning butun to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida hal qiluvchi organ hisoblanadi va uning qarorlari sud, moliyaviy boshqaruvchi hamda qarzdorga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu qoida to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonidagi demokratik va iqtisodiy balansni ta’minlaydi.

Kreditorlar qo‘mitasi kreditorlar yig‘ilishining asosiy va operativ boshqaruv organi hisoblanadi. Normada kreditorlar yig‘ilishining mutlaq vakolatlari jumlasiga qo‘mitaning a’zolarini saylash, qo‘mitaning miqdoriy tarkibini belgilash, a’zolar vakolatini muddatidan ilgari tugatish haqida qaror qabul qilish belgilangan. Buning yuridik ahamiyati shundaki, qo‘mita moliyaviy boshqaruvchining hisobotlarini ko‘rib chiqadi, sarf-xarajatlarni nazorat qiladi, qonun buzilish holatlari aniqlansa, sudga murojaat etadi.

Kreditorlar yig‘ilishining eng muhim vakolatlaridan biri jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tasdiqlash yoki rad etish sanaladi. Reja qarzdorning moliyaviy faoliyati, daromad manbalari, to‘lov tartibi va aktivlar holatini belgilaydi. Agar kreditorlar rejani ma’qullashsa, sud odatda uni tasdiqlaydi, lekin rad etilsa, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi mexanizmi ishlamaydi va ko‘p hollarda jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomiliga o‘tiladi. Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi doimiy ravishda o‘zgarishi mumkin. Qarzdorning moliyaviy holati yoki kreditorlar tarkibida o‘zgarishlar bo‘lganda, rejaga o‘zgartishlar kiritish talab etiladi. Bu o‘zgarishlar faqat kreditorlar tomonidan ma’qullangan holda qonuniy kuchga ega bo‘ladi.

Kreditorlar yig‘ilishi qarzdor rejani bajarmayotganini aniqlagan taqdirda, sudga rejani bekor qilish haqida iltimosnoma bilan murojaat etish haqida qaror qabul qilishi mumkin. Sud rejani bekor qilib, ishni jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili bosqichiga o‘tkazishi mumkin.

Kreditorlar jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi imkonsiz deb hisoblashganda, qarzdor aktivlari yetarli bo‘lmasa, jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash haqida sudga murojaat qilishga qaror qabul qilishlari mumkin. Bu kreditorlar yig‘ilishining muhim strategik vakolati hisoblanadi.

Kelishuv bitimi qarzdor va kreditorlar o‘rtasida moliyaviy nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish mexanizmi hisoblanadi. Unda qarzlarni qisman kechish, to‘lov muddatlarini uzaytirish, foizlarni pasaytirish yoki to‘lov tartibini o‘zgartirish kabi shartlar bo‘lishi mumkin. Bunday kelishuv faqat kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ma’qullanganidan keyin huquqiy kuchga ega bo‘ladi.

Umuman, kreditorlar yig‘ilishi to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida asosiy boshqaruv va nazorat organiga aylanadi. Qarzdor jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi, bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomiliga o‘tish yoki o‘tmaslik, mulkni sotish va kelishuv bitimi kabi strategik masa-

lalar faqat kreditorlar yig‘ilishi orqali hal qilinadi. Bu norma kreditorlar huquqlarini muhofaza qilish va protsessning adolatli tarzda olib borilishini ta’minlaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 802-b.

205-modda. Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini joriy etish oqibatlari

Sud tomonidan jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi arizani qanoatlantirish va jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini joriy etish haqida ajrim chiqarilgan kundan e’tiboran:

kreditorlarning pul majburiyatlari va soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha qarziga doir talablarini qanoatlantirishga nisbatan moratoriy joriy etiladi;

kreditorlarning pul majburiyatlari, soliqlar hamda yig‘imlarni to‘lash to‘g‘risidagi talablar (bundan joriy to‘lovlar mustasno), shuningdek, mulk huquqini e’tirof etish, mol-mulkni boshqa shaxsning qonunga xilof egaligidan talab qilib olish hamda bitimlarni haqiqiy emas deb topish haqidagi, o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmaydigan bitimlarning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash to‘g‘risidagi talablar faqat ushbu Qonunda belgilangan tartibda taqdim etilishi mumkin;

jismoniy shaxsning taqiq qo‘yilgan mol-mulkiga nisbatan ilgari belgilangan cheklovlar olib tashlanadi, jismoniy shaxsning mol-mulkiga nisbatan taqiq qo‘yish va uning mol-mulkiga nisbatan boshqa cheklovlar faqat jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish doirasida qo‘llanilishi mumkin;

ijro hujjatlarini, xususan, undiruvni jismoniy shaxsning mol-mulkiga qaratish bo‘yicha ijro hujjatlarini bajarish to‘xtatib turiladi, bundan hayotga yoki sog‘liqqa yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash, mol-mulkni boshqa shaxsning qonunga xilof egaligidan talab qilib olish, mazkur mol-mulkka egalik qilishga doir taqiqlarni olib tashlash, ushbu mol-mulkka nisbatan mulk huquqini tan olish, alimentlarni undirish, shuningdek, garovga qo‘yilgan mol-mulkni undirish haqidagi ijro hujjatlari mustasno.

Sud kreditorning yoki moliyaviy boshqaruvchining iltimosnomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga muvofiq kreditorlar talablarini va jismoniy shaxs manfaatlarini ta’minlashga doir choralar ko‘rishga, shu jumladan, jismoniy shaxs mol-mulkining bir qismini tasarruf etishga nisbatan taqiq qo‘yishga, jumladan, jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish bo‘yicha elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosini o‘tkazishga nisbatan taqiq qo‘yishga haqli.

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilining joriy etilishi jismoniy shaxs tomonidan muayyan kreditorning talabi pul shaklida bajarilishini nazarda tutgan shartnomani bajarishni bir tomonlama rad etish uchun asos bo‘ladi. Bunday shartnomalarni bir tomonlama rad

etish to‘g‘risida jismoniy shaxsga nisbatan kreditorning talablarini belgilash jarayonida ma’lum qilinishi mumkin.

Agar kredit tashkiloti jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlari va banklardagi omonatlari bo‘yicha, shu jumladan, bank kartalaridagi hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni ushbu moddada belgilangan qoidalarni buzgan holda amalga oshirayotgan bo‘lsa, kredit tashkiloti, agar u jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish joriy etilganligi haqida xabardor qilingan yoki bu haqida bilgan bo‘lsa, qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Sharhlanayotgan moddada jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili joriy etilgan paytdan boshlab kreditorlar talablarini qondirishga nisbatan moratoriy qo‘llanilishi, ijro harakatlari va mol-mulkka oid cheklovlarning maxsus tartibda amalga oshirilishi, ayrim shartnomalarni bir tomonlama bekor qilish imkoniyati hamda ushbu tartib-qoidalarni buzgan kredit tashkilotlarining javobgarligi belgilangan.

1. Ushbu norma jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili joriy etilgan paytdan boshlab vujudga keladigan asosiy huquqiy oqibatlarni belgilaydi va ular orqali to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishning maxsus rejimini o‘rnatadi.

Birinchidan, moratoriy joriy etilishi nazarda tutilgan. Bu qoida kreditorlarning pul majburiyatlari, soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha talablarini majburiy ijro orqali qanoatlantirishni vaqtincha to‘xtatadi. Moratoriyning joriy etilishi qarzdorning mulkiy ahvolini saqlab qolish, uning aktivlari alohida kreditorlar manfaati yo‘lida parchalanib ketishining oldini olish hamda keyinchalik qarzni qayta tuzish rejasini ishlab chiqish uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Ikkinchidan, kreditorlar talablarini bildirishning yagona tartibi o‘rnatilgan. Qarzdorga nisbatan pul talablari, soliq va yig‘imlar, shuningdek, mulk huquqini e’tirof etish, mol-mulkni qonunga xilof egalikdan talab qilib olish yoki bitimlarni haqiqiy emas deb topishga doir talablar faqat mazkur Qonunda belgilangan tartibda taqdim etilishi mumkin. Bu norma to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni markazlashtirishga, parallel da’volar va alohida sud yoki ijro ishlari orqali umumiy tartib-taomilni chetlab o‘tish holatlarini bartaraf etishga qaratilgan.

Uchinchidan, jismoniy shaxsning mol-mulkiga nisbatan ilgari qo‘yilgan taqiq va cheklovlarni olib tashlash hamda yangi cheklovlarning faqat to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida qo‘llanilishi belgilab qo‘yilgan. Bu orqali mol-mulk ustidan nazorat yagona protsessual maydonga sud va moliyaviy boshqaruvchi faoliyati doirasiga jamlanadi, bu esa mol-mulkning saqlanishi va shaffof boshqarilishini ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, ijro hujjatlarini bajarishni to‘xtatib turish qoidasi mustahkamlangan. Shu bilan birga, qonun hayot yoki sog‘liqqa yetkazilgan zararni qoplash, alimentlarni undirish, garovga qo‘yilgan mol-mulkni undirish kabi ustuvor va ijtimoiy ahamiyatga ega talablar bo‘yicha istisnolarni belgilaydi. Bu holat jismoniy shaxs to‘lovga qobili-

yatsizligi institutida ham ijtimoiy adolat va zaif manfaatlarni himoya qilish tamoyili saqlanib qolishini ko‘rsatadi.

Umuman, ushbu norma qoidalari jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili joriy etilganidan keyin yuzaga keladigan huquqiy rejimni belgilab, qarzdorni asossiz bosimdan himoya qilish, kreditorlar talablarini tartibli va teng asosda ko‘rib chiqish hamda ish yuritishning samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

2. Ushbu norma jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritishda sudning ta’minlovchi choralar qo‘llashga oid vakolatlarini belgilaydi va ularning protsessual-huquqiy ahamiyatini ochib beradi.

Avvalo, sudning bunday choralarni qo‘llashi kreditorning yoki moliyaviy boshqaruvchining iltimosnomasi asosida amalga oshirilishi nazarda tutilgan bo‘lib, ushbu ta’minlovchi choralar IPK qoidalariga muvofiq qo‘llaniladi. Bu holat sudning tashabbusi cheklanganligini, ta’minlovchi choralar faqat manfaatdor subyektlar murojaatiga ko‘ra qo‘llanilishini anglatadi hamda protsessual raqobat va taraflar tengligi tamoyillariga mos kelishi, shu bilan birga, jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritishda ham umumiy iqtisodiy protsessual talablarga rioya etilishini ta’minlaydi.

Mazkur choralarning maqsadi kreditorlar talablarini hamda jismoniy shaxs manfaatlarini bir vaqtning o‘zida himoya qilishdan iborat. Shu bois sud tomonidan qo‘llaniladigan cheklovlar qarzdor faoliyatini to‘liq faoliyatsiz qilmasligi, biroq mol-mulkning asossiz ravishda chiqib ketishi yoki qadrsizlanishining oldini olishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Shuningdek, ushbu normada ta’minlovchi choralarning ayrim turlari misol tariqasida sanab o‘tilgan. Xususan, jismoniy shaxs mol-mulkining bir qismini tasarruf etishga nisbatan taqiq qo‘yish, shuningdek, mol-mulkni sotish bo‘yicha elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosini o‘tkazishga nisbatan taqiq joriy etish mumkinligi ko‘rsatilgan. Bu holat sudga mol-mulkning taqdiriga doir eng samarali va maqsadga muvofiq chorani tanlash imkonini beradi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismidagi qoidalar jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili joriy etilgan sharoitda shartnomaviy majburiyatlarni qayta ko‘rib chiqishga oid maxsus huquqiy mexanizmni nazarda tutadi.

Unga ko‘ra, qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilining joriy etilishi jismoniy shaxsga muayyan kreditor oldidagi pul majburiyatini bajarishni nazarda tutuvchi shartnomani bir tomonlama rad etish uchun mustaqil huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu holat umumiy fuqarolik-huquqiy qoidadan istisno sifatida namoyon bo‘ladi, chunki odatda shartnomani bir tomonlama bekor qilish yoki rad etish faqat qonun yoki shartnomaning o‘zida bevosita nazarda tutilgan hollarda mumkin.

Ushbu norma qarzdorga barcha shartnomalardan emas, balki ayrim kreditorning talabi pul shaklida bajarilishini nazarda tutgan shartnomalardan voz kechish imkonini beradi. Bu orqali qonun chiqaruvchi qarzdorning moliyaviy tiklanishiga to‘sqinlik qilayotgan, uning umumiy qarz tuzilmasini izdan chiqarayotgan majburiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan maqsadni ko‘zlagan.

Shartnomani bir tomonlama rad etish haqidagi ma’lumot kreditor talablarini belgilash jarayonida bildirilishi mumkinligi qoidasi muhim protsessual ahamiyatga ega. Bu holat rad etish yashirin yoki keyinchalik asossiz ravishda bildirilishining oldini oladi hamda kreditorning talablari miqdori va huquqiy tabiatini aniq belgilashga xizmat qiladi.

Ushbu norma talablarida kreditor manfaatlarini ham e’tiborsiz qoldirmaydi. Chunki shartnomadan bir tomonlama rad etish natijasida yuzaga keladigan talablar (masalan, zararni qoplash yoki boshqa oqibatlar) to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida umumiy tartibda kreditor talablari sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin.

Shu tariqa, ushbu qoida jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizligi jarayonida shartnomaviy munosabatlarni qayta balanslash, qarzdorning moliyaviy barqarorlashuvi uchun shart-sharoit yaratish va bir vaqtning o‘zida kreditorlar talablarini adolatli tartibda hisobga olishga qaratilgan muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi.

4. Ushbu norma qoidalarida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili joriy etilgan sharoitda kredit tashkilotlarining majburiyatlari va javobgarligiga oid maxsus qoidani belgilagan.

Kredit tashkilotlari tomonidan jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlari va banklardagi omonatlari, shu jumladan, bank kartalari bilan bog‘liq hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirishda qonunga qat’iy rioya etish majburiyati belgilanadi. Qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili joriy etilgan paytdan boshlab ushbu hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalar maxsus huquqiy rejimga o‘tadi va ular bilan bog‘liq harakatlar faqat qonunda belgilangan cheklovlar doirasida amalga oshirilishi mumkin.

Javobgarlik masalasi kredit tashkilotining xabardorlik darajasi bilan bog‘langan. Agar bank yoki boshqa kredit tashkiloti qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili joriy etilganligi haqida rasman xabardor qilingan yoki ushbu holat to‘g‘risida aniq bilgan bo‘lsa, qoidalarni buzgan holda amalga oshirilgan operatsiyalar uchun javobgarlikka tortilishi mumkin. Bu qoida banklarning aybsiz javobgarligini emas, balki aybga asoslangan javobgarlik tamoyilini ta’minlaydi.

Ushbu norma kredit tashkilotlarining noqonuniy harakatlari orqali qarzdor molmulkining kamayib ketishi yoki alohida kreditorlar manfaatida asossiz ustunlik yaratilishining oldini olishga qaratilgan. Bank hisobvaraqlari tugatish massasining muhim qismi ekanini inobatga olganda, ular ustidan nazoratni ta’minlash to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili samaradorligining zarur sharti hisoblanadi.

Javobgarlikning turi va ko‘lami «qonunchilikda belgilangan tartibda» qo‘llanilishi qayd etilgan bo‘lib, bu fuqarolik-huquqiy, ma’muriy yoki boshqa huquqiy javobgarlik choralarini qo‘llash imkonini istisno qilmaydi.

Umuman, ushbu norma kredit tashkilotlarini jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining faol ishtirokchisi sifatida mas’uliyatli xulq-atvorga undaydi, qarzdor moliyaviy manfaatlarini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qarang: Xalqaro sharh. 802-b.

206-modda. Qarzdor jismoniy shaxsning vakolatlarini cheklash

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish jarayonida qarzdor jismoniy shaxs kreditorlar yig‘ilishining roziligi bilan quyidagi bitimlarni tuzishi mumkin:

bazaviy hisoblash miqdorining qirq baravaridan oshmagan miqdordagi mol-mulkni, qimmatli qog‘ozlarni, ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarni va transport vositalarini to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita boshqa shaxsga o‘tkazish yoxud sotib olishga qaratilgan;

ssudalar olish va berish, kreditlar olish, kafilliklar va kafolatlar berish, talab qilish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish, qarzni o‘tkazish, shuningdek, jismoniy shaxsning mol-mulkini ishonchli boshqaruvga topshirish haqidagi;

jismoniy shaxsning mol-mulkini garovga berish haqidagi.

Mazkur moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan bitimlarni amalga oshirish bilan bog‘liq nizolar sud tomonidan hal etiladi.

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili joriy etilgan sanadan e’tiboran jismoniy shaxs o‘z mol-mulkini yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki ulush sifatida berishga, ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushni olishga, shuningdek, beg‘araz bitimlarni tuzishga haqli emas, mazkur moddaning birinchi qismida belgilangan hollar bundan mustasno.

Jismoniy shaxs maxsus bank hisobvarag‘ini ochishga va unga qo‘yilgan pul mablag‘larini moliyaviy boshqaruvchining roziligisiz tasarruf etishga haqli. Jismoniy shaxs tomonidan maxsus bank hisobvarag‘iga qo‘yilgan pul mablag‘larini tasarruf etish yuzasidan amalga oshirilgan operatsiyalar summasi kreditorlar yig‘ilishi tomonidan belgilanadi va sud tomonidan tasdiqlanadi.

Agar kreditorlar yig‘ilishi jismoniy shaxs tomonidan pul mablag‘larini tasarruf etish yuzasidan amalga oshiriladigan operatsiyalarning eng ko‘p miqdorini belgilamagan bo‘lsa yoki qarzdor jismoniy shaxs belgilangan miqdordan qanoatlanmagan bo‘lsa, bunday miqdor qarzdor jismoniy shaxsning arizasiga ko‘ra sud tomonidan belgilanishi va tasdiqlanishi mumkin.

Sud qarzdor jismoniy shaxsning arizasiga ko‘ra uning bank hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini tasarruf etishga doir eng ko‘p miqdorni ko‘paytirish huquqiga ega.

Qarzdor jismoniy shaxs boshqa hisobvaraqlarga (omonatlarga) qo‘yilgan mablag‘larni moliyaviy boshqaruvchining oldindan berilgan yozma roziligi asosida tasarruf etadi.

Sharhlanayotgan moddada jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish jarayonida uning ayrim bitimlar tuzish, mol-mulk va pul mablag‘larini tasarruf etish vakolatlari kreditorlar yig‘ilishi, moliyaviy boshqaruvchi va sud nazorati ostida cheklanishi hamda ayrim harakatlarni amalga oshirish taqiqlanishi belgilangan.

1. Ushbu norma jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili amal qilayotgan davrda qarzdor jismoniy shaxsning bitim tuzish vakolatlarini cheklash va nazorat ostiga olishga qaratilgan. Unga ko‘ra, qarzdor jismoniy shaxs muayyan turdagi bitimlarni faqat kreditorlar yig‘ilishining oldindan berilgan roziligi asosida tuzishi mumkin. Bu talab qarzdor tomonidan mol-mulkning asossiz ravishda chiqib ketishi, qarz majburiyatlarining ortib ketishi yoki ayrim kreditorlar manfaatlariga ziyon yetkazilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida joriy etilgan.

Birinchidan, rozilik talab qilinadigan bitimlar doirasi qonunda aniq belgilab qo‘yilgan. Jumladan, bazaviy hisoblash miqdorining qirq baravaridan oshmagan qiymatdagi mol-mulkni, qimmatli qog‘ozlarni, ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarni va transport vositalarini to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita boshqa shaxsga o‘tkazish yoxud sotib olishga qaratilgan bitimlar ushbu toifaga kiradi. Bu yerda qiymat chegarasining belgilanishi bitimlarning iqtisodiy ahamiyatini inobatga olgan holda nazoratni mutanosiblashtirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, qarzdor tomonidan ssudalar olish va berish, kreditlar olish, kafilliklar va kafolatlar berish, talab qilish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish, qarzni o‘tkazish hamda mol-mulkni ishonchli boshqaruvga topshirish kabi bitimlar ham faqatgina kreditorlar yig‘ilishining roziligi asosida amalga oshirishni talab qiladi. Ushbu bitimlar qarzdorning majburiyatlarini ko‘paytirishi yoki uning mulkiy holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi sababli ularni nazoratsiz amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Uchinchidan, jismoniy shaxsning mol-mulkini garovga berish to‘g‘risidagi bitimlar ham kreditorlar yig‘ilishining roziligisiz tuzilishi mumkin emasligini belgilaydi. Bu orqali garovga berishda alohida kreditorga ustuvorlik berilishining oldi olinadi va kreditorlar o‘rtasidagi tenglik tamoyilini saqlashga xizmat qiladi.

Umuman, ushbu norma qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish jarayonida qarzdor jismoniy shaxsning bitim tuzish erkinligini cheklab, kreditorlar yig‘ilishi orqali kollegial nazorat mexanizmni joriy etadi.

2. Ushbu norma talablariga ko‘ra, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili davomida tuziladigan, moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan bitimlar bo‘yicha yuzaga keladigan nizolarni hal etish vakolatini sudga yuklaydi.

Unga binoan, qarzdor jismoniy shaxs va kreditorlar yig‘ilishi o‘rtasida, shuningdek, qarzdor bilan alohida kreditorlar yoki uchinchi shaxslar o‘rtasida ushbu bitimlarni tuzish, bajarish yoki haqiqiyligi masalalari bo‘yicha kelib chiqadigan barcha nizolar sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Sud tomonidan nizolarni hal etish tartibi kreditorlar yig‘ilishi qarorlarining qonuniyligi va asosliligi, qarzdor jismoniy shaxs tomonidan bitimlarni tuzishda belgilangan cheklovlarga rioya etilgan-etilmagani, shuningdek, uchinchi shaxslar huquq va qonuniy manfaatlarining buzilgan-buzilmaganini tekshirish imkonini beradi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi qoidalarida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili joriy etilgan paytdan boshlab qarzdor jismoniy shaxsning mulkiy vakolatlarini qo‘shimcha cheklashga qaratilgan maxsus huquqiy

normani ifoda etadi. Unga muvofiq, qarzdor jismoniy shaxs o‘z mol-mulkini yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki ulush sifatida berishga, shuningdek, ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushni olishga haqli emas. Shu bilan birga, qarzdor jismoniy shaxsga beg‘araz bitimlar tuzishning taqiqlanishi ham nazarda tutilgan. Bu cheklov qarzdor mol-mulkining korporativ munosabatlar orqali mulkiy massasidan chiqib ketishi, uning qaytarilishini qiyinlashtirishi yoki kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazishining oldini olish maqsadida joriy etilgan. Qarzdor bitimlar orqali mol-mulkning haq evazi olmasdan boshqa shaxslar foydasiga o‘tkazilishi mumkin bo‘lgani sababli, ushbu taqiq kreditorlar talablarini ta’minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, ushbu normada belgilangan cheklovlar mutlaq xarakterda emas. Mazkur moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan hollarda, ya’ni kreditorlar yig‘ilishining roziligi bilan ayrim bitimlarni amalga oshirishga yo‘l qo‘yilishi mumkin. Bu holat qonun chiqaruvchining qarzdor manfaatlarini to‘liq inkor etmasdan, ularni kreditorlar manfaatlari bilan mutanosib ravishda muvofiqlashtirishga intilganini ko‘rsatadi.

Boshqacha aytganda, ushbu norma qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish jarayonida qarzdor jismoniy shaxsning mol-mulkini saqlab qolish, uning asossiz ravishda chiqib ketishining oldini olish hamda kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan muhim huquqiy kafolat hisoblanadi.

4. Ushbu norma jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili amal qilayotgan davrda qarzdor jismoniy shaxsning kunlik moliyaviy faoliyatini ta’minlashga qaratilgan maxsus mexanizmni belgilaydi. Xususan, qarzdor jismoniy shaxsga maxsus bank hisobvarag‘ini ochish huquqini beradi. Mazkur hisobvaraq jismoniy shaxsning kundalik ehtiyojlari bilan bog‘liq pul mablag‘larini saqlash va ulardan foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uning ochilishi qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili davrida ham minimal iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu normada jismoniy shaxs mazkur maxsus bank hisobvarag‘iga qo‘yilgan pul mablag‘larini moliyaviy boshqaruvchining oldindan roziligisiz tasarruf etishga haqli ekani belgilangan. Bu qoida qarzdorning kundalik hayotiy ehtiyojlarini tezkor va to‘siqsiz qondirish imkonini yaratadi hamda ortiqcha ma’muriy cheklovlarni bartaraf etadi.

Shu bilan birga, norma nazorat mexanizmini ham nazarda tutadi. Xususan, maxsus bank hisobvarag‘i orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarning eng ko‘p umumiy summasi kreditorlar yig‘ilishi tomonidan belgilanadi va mazkur qaror sud tomonidan tasdiqlanadi. Bu tartib qarzdorga berilgan erkinlikning suiiste’mol qilinmasligini, pul mablag‘larining mulkiy massasiga zarar yetkazmasligini ta’minlashga qaratilgan.

Umuman, ushbu norma qoidalari, bir tomondan, qarzdor jismoniy shaxsning kundalik hayot faoliyatini ta’minlash, ikkinchi tomondan, kreditorlar manfaatlarini himoya qilish o‘rtasidagi muvozanatni saqlovchi huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismi jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili davrida bank hisobvarag‘idan pul mablag‘larini tasarruf etishda maksimal miqdorni belgilovchi mexanizmni tartibga soladi.

Normaning mazmuniga ko‘ra, kreditorlar yig‘ilishi jismoniy shaxs tomonidan pul mablag‘larini tasarruf etish yuzasidan amalga oshiriladigan operatsiyalarning eng ko‘p miqdorini aniqlamasa yoki belgilangan miqdor qarzdorning hayotiy va iqtisodiy ehtiyojlariga yetarli bo‘lmasa, qarzdor jismoniy shaxs sudga ariza topshirish huquqiga ega. Sud ushbu ariza asosida miqdorni belgilash yoki oldingi miqdorni oshirish to‘g‘risida ajrim qabul qilishi mumkin.

Ushbu norma qarzdorning hayotiy va iqtisodiy talablari, kundalik ehtiyojlarini qondirish imkonini saqlab qolish, kreditorlar talablari bilan mutanosiblikni ta’minlash va sud nazorati orqali muvozanatli moliyaviy tartibni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan muhim protsessual kafolat sifatida xizmat qiladi.

6. Ushbu norma jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili davrida bank hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini tasarruf etishda eng ko‘p miqdorni sud orqali ko‘paytirish huquqini belgilaydi. Xususan, agar qarzdor jismoniy shaxs hisobvarag‘idan pul mablag‘larini foydalanishda belgilangan eng ko‘p miqdor uning hayotiy va iqtisodiy ehtiyojlariga yetarli bo‘lmasa, u sudga ariza topshirish orqali ushbu limitni o‘z ehtiyojlariga muvofiq ko‘paytirishni talab qilish imkoniga ega.

Qarzdorning sud qarori orqali pul mablag‘larini tasarruf etishga doir eng ko‘p miqdorni ko‘paytirish kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazmaslikni ta’minlaydi.

7. Mazkur moddaning yettinchi qismida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilida bank hisobvaraqlari va omonatlardagi pul mablag‘larini nazoratli tarzda tasarruf etish mexanizmi belgilangan.

Ushbu normaning mazmuniga ko‘ra, qarzdor jismoniy shaxs maxsus hisobvaraqdan tashqari boshqa bank hisobvaraqlari va omonatlardagi mablag‘larni foydalanishda moliyaviy boshqaruvchining oldindan berilgan yozma roziligini olishga majbur ekanligi nazarda tutiladi.

Bu qoida pul oqimlarining shaffofligini ta’minlash va mulkiy tugatish massasiga tegishli mablag‘larning zararsiz saqlanishini kafolatlaydi. Ya’ni qarzdor o‘z xohishi bilan omonatlar yoki boshqa hisobvaraqlardagi mablag‘lardan foydalanishi mumkin emas, faqat moliyaviy boshqaruvchining yozma roziligi asosida ruxsat berilgan hollarda harakat qila oladi.

Mazkur mexanizm sud va kreditorlar yig‘ilishi uchun ham nazorat vositasi hisoblanadi. Moliyaviy boshqaruvchi roziligi orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar qonuniylik, adolat va kreditorlar manfaatlari bilan mutanosiblikni ta’minlaydi. Shuningdek, moliyaviy boshqaruvchining roziligi ariza yoki qarzdorning shaxsiy qarorlari asosida amalga oshirilayotgan harakatlarni nazorat qilish imkonini beradi. Qarang: Xalqaro sharh. 802-b.

207-modda. Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini taqdim etish tartibi

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish jarayonida qarzdor jismoniy shaxs va (yoki) kreditor ushbu Qonunning 143-moddasida nazarda tutilgan muddat tugagan sanadan e’tiboran o‘n kun ichida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini moliyaviy boshqaruvchiga taqdim etishga haqli.

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining loyihasi hamda unga ilova qilinadigan hujjatlar bilan tanishish tartibi va joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ushbu Qonunda belgilangan tartibda e’lon qilinadi.

Agar moliyaviy boshqaruvchi mazkur moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan ikki yoki undan ortiq shaxsdan jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejalarining loyihalarini olgan bo‘lsa, u bunday loyihalarni kreditorlar yig‘ilishiga ko‘rib chiqish uchun kiritadi.

Agar jismoniy shaxsning moliyaviy boshqaruvchisi ushbu moddada ko‘rsatilgan muddat ichida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining birorta ham loyihasini olmagan bo‘lsa, u qarzdor jismoniy shaxs bilan hamkorlikda jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini ishlab chiqish choralarini ko‘radi. Agar qarzdor jismoniy shaxs bunday rejani ishlab chiqishga monelik qilayotgan bo‘lsa, qarzdor jismoniy shaxsning moliyaviy boshqaruvchisi kreditorlar yig‘ilishiga jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini joriy etish haqida taklif kiritadi.

Moliyaviy boshqaruvchi jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini, taqdim etilgan rejaga oid e’tirozlarni va (yoki) uni qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflarni (bunday e’tirozlar mavjud bo‘lganda), shuningdek, o‘z faoliyati to‘g‘risidagi hisobotni, kreditorlar reyestrini, qarzdor jismoniy shaxsning moliyaviy holati haqidagi ma’lumotlarni kreditorlarning birinchi yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun taqdim etishi shart.

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining loyihasi ushbu Qonunda belgilangan tartibda kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Jismoniy shaxsning moliyaviy boshqaruvchisi jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish bo‘yicha sud muhokamasi sanasidan kamida besh kun avval sudga o‘z faoliyati haqidagi hisobotni, jismoniy shaxsning moliyaviy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining loyihasi ko‘rib chiqilgan kreditorlar yig‘ilishining bayonnomasini ushbu Qonunning 16-moddasida nazarda tutilgan hujjatlarni ilova qilgan holda taqdim etishi shart.

Sharhlanayotgan moddada jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tayyorlash, taqdim etish, kreditorlar yig‘ilishida ko‘rib chiqish va sudga

kiritish tartibi, shuningdek, moliyaviy boshqaruvchining bu jarayondagi vazifalari va vakolatlari belgilangan.

1. Ushbu norma jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilida qarzni qayta tuzish rejasini ishlab chiqish va taqdim etishning aniq protsessual chegaralarini belgilashga qaratilgan. Unga muvofiq, qarzdor jismoniy shaxs va (yoki) kreditor ushbu Qonunning 143-moddasida nazarda tutilgan muddat tugaganidan e’tiboran o‘n kun ichida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini moliyaviy boshqaruvchiga taqdim etish huquqiga ega bo‘ladi.

Ushbu qoida, avvalo, qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar – qarzdor va kreditorlarning tashabbuskorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Qonun rejani taqdim etish huquqini faqat qarzdorga emas, balki kreditorga ham berish orqali qayta tuzish mexanizmining muqobil va raqobatli modellarini shakllantirish imkonini yaratadi. Bu esa qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashga qaratilgan eng maqbul va iqtisodiy jihatdan asoslangan yechimni tanlashga shart-sharoit hosil qiladi.

Shu bilan birga, o‘n kunlik muddatning belgilab qo‘yilishi qarzni qayta tuzish rejasini ishlab chiqish jarayoni sun’iy ravishda cho‘zilishidan himoya qiladi hamda ish yuritishning oqilona muddatlarda amalga oshirilishini ta’minlaydi. Moliyaviy boshqaruvchi esa ushbu muddat doirasida taqdim etilgan rejalarni qabul qilish, umumlashtirish va keyinchalik kreditorlar yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun tayyorlash imkoniga ega bo‘ladi.

Umumiy aytganda, ushbu norma jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini shakllantirishning protsessual asosini belgilab, qarzdor va kreditorlar manfaatlarining mutanosibligini, shuningdek, to‘lovga qobiliyatsizlik ish yuritishining samaradorligini ta’minlashga qaratilgan muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi qoidalari jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini ko‘rib chiqish jarayonida oshkoralik va axborotdan xabardorlik prinsiplarini ta’minlashga qaratilgan. Unga ko‘ra, qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining loyihasi hamda unga ilova qilinadigan hujjatlar bilan tanishish tartibi va joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar qonunda belgilangan tartibda e’lon qilinishi shart.

Mazkur talab, avvalo, kreditorlar va boshqa manfaatdor shaxslarni rejaning mazmuni bilan o‘z vaqtida tanishish, uning iqtisodiy va huquqiy asoslanganligini baholash, shuningdek, asosli e’tirozlar yoki takliflar kiritish imkoniyati bilan ta’minlaydi.

Shu bilan birga, ma’lumotlarning e’lon qilinishi qarzdor jismoniy shaxsning harakatlari ustidan jamoatchilik va kreditorlar nazoratini kuchaytiradi hamda qayta tuzish rejasini yashirin yoki manfaatdor shaxslar foydasiga moslashtirish ehtimolini kamaytiradi. Qonunda belgilangan rasmiy e’lon qilish tartibiga rioya etilishi rejaning barcha ishtirokchilar uchun huquqiy ahamiyatga ega hujjat sifatida qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Demak, ushbu norma jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash jarayonida ochiqlik, teng xabardorlik va adolatli qaror qabul qilish prinsiplarini ta’minlovchi muhim kafolat hisoblanadi.

3. Ushbu norma jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tanlash jarayonida kreditorlar yig‘ilishining hal qiluvchi rolini belgilaydi. Qoidaga muvofiq, agar moliyaviy boshqaruvchi qarzdor jismoniy shaxs va (yoki) kreditorlar tomo-

nidan taqdim etilgan ikki yoki undan ortiq qayta tuzish rejalari loyihalarini olgan bo‘lsa, u mazkur loyihalarning barchasini kreditorlar yig‘ilishi muhokamasiga kiritishi shart.

Bu talab moliyaviy boshqaruvchining vakolatlarini cheklab, unga rejalarni mustaqil ravishda saralash yoki rad etish huquqini bermaydi. Shu orqali qonun qayta tuzishning turli variantlarini teng shartlarda ko‘rib chiqish, eng maqbul va iqtisodiy jihatdan asoslangan yechimni aynan kreditorlar yig‘ilishi tomonidan tanlash imkoniyatini ta’minlaydi.

Mazkur qoida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilida kollegiallik, oshkoralik va manfaatlar muvozanatini ta’minlovchi muhim protsessual mexanizm hisoblanadi.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismi qoidalari jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilida moliyaviy boshqaruvchining faol va tashabbuskor rolini, shuningdek, qarzdorning hamkorlik qilish majburiyatini belgilaydi.

Unga ko‘ra, agar qonunda belgilangan muddat ichida moliyaviy boshqaruvchiga jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining birorta ham loyihasi taqdim etilmagan bo‘lsa, moliyaviy boshqaruvchi qarzdor jismoniy shaxs bilan hamkorlikda bunday rejani ishlab chiqish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rishi shart. Bu qoida qayta tuzish tartib-taomilining asosiy maqsadi qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyatini maksimal darajada saqlab qolishga qaratilgan. Moliyaviy boshqaruvchiga rejani ishlab chiqish tashabbusini yuklash orqali qonun ish yuritishning formal to‘xtab qolishiga yo‘l qo‘ymaydi va qarzdorga qayta tiklanish imkoniyatini beradi.

Shu bilan birga, norma qarzdor jismoniy shaxsning insofli xatti-harakat qilishi talabini ham mustahkamlaydi. Agar qarzdor rejani ishlab chiqishga monelik qilsa, ya’ni moliyaviy boshqaruvchi bilan hamkorlik qilishdan bosh tortsa yoki jarayonni sun’iy ravishda cho‘zsa, qonun bunday holatni to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyati yo‘qligining belgisi sifatida baholaydi. Natijada moliyaviy boshqaruvchi kreditorlar yig‘ilishiga jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini joriy etish haqida taklif kiritish huquqiga ega bo‘ladi.

Demak, ushbu norma qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va mol-mulkni sotish tartib-taomillari o‘rtasida muqobillik va ketma-ketlikni ta’minlab, qarzdorning insofliligiga bog‘liq ravishda ish yuritishning keyingi yo‘nalishini belgilashga xizmat qiladi.

5. Ushbu norma jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilida moliyaviy boshqaruvchining axborot taqdim etishga oid majburiyatlarini belgilaydi.

Unga ko‘ra, moliyaviy boshqaruvchi kreditorlarning birinchi yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini, ushbu rejaga nisbatan bildirilgan e’tirozlar va (yoki) uni qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflarni (agar mavjud bo‘lsa), shuningdek, o‘z faoliyati to‘g‘risidagi hisobotni, kreditorlar reyestrini hamda qarzdor jismoniy shaxsning moliyaviy holati haqidagi ma’lumotlarni taqdim etishi shart.

Ushbu talab kreditorlar yig‘ilishini qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan to‘liq va ishonchli axborot bilan ta’minlashga qaratilgan. Qayta tuzish rejasi, unga nisbatan

e’tirozlar va takliflarning taqdim etilishi kreditorlarga rejaning iqtisodiy maqbulligini va amalga oshirilishi mumkinligini baholash imkonini beradi. Kreditorlar reyestri va qarzdorning moliyaviy holati haqidagi ma’lumotlar esa talablar tarkibi, hajmi hamda qondirish imkoniyatlarini aniqlashda asosiy ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, moliyaviy boshqaruvchining o‘z faoliyati to‘g‘risidagi hisoboti uning vakolatlarini qanday amalga oshirayotganligi ustidan nazoratni ta’minlaydi hamda kreditorlar yig‘ilishining ishonchli va asoslangan qaror qabul qilishiga xizmat qiladi.

6. Ushbu norma jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini ko‘rib chiqish va baholashda kreditorlar yig‘ilishining vakolatini belgilaydi.

Unga muvofiq, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining loyihasi faqat ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ko‘rib chiqiladi. Bu qoida qayta tuzish rejasi bo‘yicha qaror qabul qilishni yakka tartibda emas, balki kreditorlar irodasini ifodalovchi kollegial organ kreditorlar yig‘ilishi vakolatiga kiritish orqali manfaatlar muvozanatini ta’minlaydi. Kreditorlar yig‘ilishi rejaning mazmuni, iqtisodiy asoslanganligi, amalga oshirish imkoniyati hamda kreditorlar talablarini qondirish darajasi nuqtayi nazaridan baholash huquqiga ega.

Shu bilan birga, «ushbu Qonunda belgilangan tartibda» degan qoida yig‘ilishni chaqirish, ovoz berish, qaror qabul qilish va bayonnoma rasmiylashtirish kabi protsessual talablarga qat’iy rioya etilishini nazarda tutadi. Bu esa rejani ko‘rib chiqish natijalariga huquqiy asoslantiradi hamda keyinchalik sud tomonidan baholanishini ta’minlaydi.

Umuman, ushbu norma jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini ko‘rib chiqishda kollegiallik, qonuniylik va ochiqlik prinsiplarini mustahkamlaydi.

7. Mazkur moddaning yettinchi qismi qoidalari jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni sudda ko‘rib chiqish jarayonida moliyaviy boshqaruvchining hisobot berish va axborot taqdim etish majburiyatini belgilaydi.

Unga muvofiq, moliyaviy boshqaruvchi sud muhokamasi sanasidan kamida besh kun avval sudga o‘z faoliyati to‘g‘risidagi hisobotni, qarzdor jismoniy shaxsning moliyaviy holati haqidagi ma’lumotlarni, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining loyihasi ko‘rib chiqilgan kreditorlar yig‘ilishining bayonnomasini, shuningdek, Qonunning 16-moddasida nazarda tutilgan hujjatlarni ilova qilgan holda taqdim etishi shart.

Ushbu talab sudni ish bo‘yicha qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan to‘liq va ishonchli ma’lumotlar bilan o‘z vaqtida ta’minlashga qaratilgan. Moliyaviy boshqaruvchining faoliyati haqidagi hisobot uning vakolatlarini qanday amalga oshirayotganini baholash imkonini bersa, qarzdorning moliyaviy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar qayta tuzish rejasini tasdiqlash yoki keyingi tartib-taomilga o‘tish masalasini hal qilishda asosiy ahamiyat kasb etadi.

Kreditorlar yig‘ilishi bayonnomasining taqdim etilishi esa qayta tuzish rejasi bo‘yicha kreditorlar irodasining shakllanganligini, qaror qabul qilish tartibiga rioya etilganligini hamda yig‘ilish natijalarining qonuniyligini tasdiqlaydi. Besh kunlik mud-

datning belgilanishi sud muhokamasiga tayyorgarlik ko‘rish, taqdim etilgan hujjatlarni o‘rganish va xolis xulosa chiqarish imkonini ta’minlaydi.

Shu tariqa, ushbu norma jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda protsessual intizom, oshkoralik va sud nazorati samaradorligini ta’minlovchi muhim huquqiy kafolat hisoblanadi. Qarang: Xalqaro sharh. 802-b.

208-modda. Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga qo‘yiladigan talablar

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi taqdim etilgan sanada qarzdor jismoniy shaxs daromad manbaiga ega bo‘lishi kerak;

jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza qabul qilingan sanaga qadar jismoniy shaxsni mayda o‘g‘rilik sodir etganligi uchun, mol-mulkni qasddan yo‘q qilish, unga zarar yetkazish yoki uni shikastlash yoxud soxta to‘lovga qobiliyatsizlik yoki qasddan to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari bo‘yicha ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortish haqidagi ishlar bo‘yicha ish yuritish tugatilgan bo‘lishi, shuningdek, jismoniy shaxsning iqtisodiy sohada qasddan jinoyat sodir etganligi uchun sudlanganlik holati olib tashlangan yoki tugatilgan bo‘lishi;

qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi taqdim etilishidan oldingi besh yil davomida jismoniy shaxs bankrot deb topilmaganligi va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili qo‘llanilmaganligi;

ushbu reja taqdim etilishidan oldingi sakkiz yil davomida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi tasdiqlanmagan bo‘lishi.

Qarzdor jismoniy shaxs kreditorlarni:

mayda o‘g‘rilik, mol-mulkni qasddan yo‘q qilish, unga zarar yetkazish yoki uni shikastlash, to‘lovga qobiliyatsizlik vaqtida g‘ayriqonuniy harakatlar sodir etilganligi, soxta to‘lovga qobiliyatsizlik yoki qasddan to‘lovga qobiliyatsizlik uchun ma’muriy yoxud jinoiy javobgarlikka tortilganligi faktlari haqida;

jismoniy shaxsga ma’lum bo‘lgan jinoyat ishlari va ma’muriy ishlar haqida, shuningdek, sudlanganlik holati olib tashlanganligi yoki sudlanganligi tugatilganligi to‘g‘risida;

ilgari besh yil mobaynida qabul qilingan jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini qo‘llash haqidagi qaror yoki uning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi taqdim etilishidan oldingi sakkiz yil ichida qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejalari to‘g‘risida xabardor qilishi shart.

Mazkur moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan ma’lumotlar jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida ko‘rsatiladi.

Sharhlanayotgan moddada jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga qo‘yiladigan shartlar, jumladan, qarzdorning daromad manbai mavjud bo‘lishi, muayyan huquqbuzarliklar va bankrotlik holatlari bo‘yicha cheklovlar hamda kreditorlarni xabardor qilish majburiyati belgilangan.

1. Ushbu normada jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini qo‘llash uchun zarur bo‘lgan shaxsiy, moliyaviy va huquqiy mezonlar belgilab berilgan. Ushbu talablar qayta tuzish institutidan foydalanish imkoniyatini faqat to‘lov qobiliyatini tiklashga real salohiyati mavjud bo‘lgan hamda insofli qarzdorlar bilan cheklashga qaratilgan. Unga ko‘ra, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

Avvalo, reja taqdim etilgan sanada qarzdor jismoniy shaxsning daromad manbaiga ega bo‘lishi shartligi belgilangan. Bu talab qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining deklarativ xarakterda qolib ketmasligini, uning amaliy ijrosi uchun iqtisodiy asos mavjud bo‘lishini ta’minlaydi. Daromad manbaining mavjudligi kreditorlar talablarini belgilangan jadval asosida qondirish imkoniyatiga ishonch uyg‘otadi.

Ikkinchidan, ushbu normada qarzdorning huquqiy xulq-atvoriga oid cheklovlar nazarda tutilgan. Xususan, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ariza qabul qilinguniga qadar mayda o‘g‘rilik, mol-mulkni qasddan yo‘q qilish yoki shikastlash, soxta yoki qasddan to‘lovga qobiliyatsizlik kabi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortishga oid ishlar tugatilgan bo‘lishi, shuningdek, iqtisodiy sohada qasddan jinoyat sodir etganligi uchun sudlanganlik holati olib tashlangan yoki tugatilgan bo‘lishi shartligi belgilangan. Bu talab qayta tuzish mexanizmining insofli qarzdor prinsipiga asoslanishini ta’minlaydi.

Uchinchidan, ushbu norma talablarida vaqt bo‘yicha cheklovlar o‘rnatilgan bo‘lib, ular to‘lovga qobiliyatsizlik va qayta tuzish institutlaridan takroriy hamda suiiste’mol yo‘li bilan foydalanishning oldini olishga xizmat qiladi. Jumladan, reja taqdim etilishidan oldingi besh yil mobaynida jismoniy shaxs bankrot deb topilmagan va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili qo‘llanilmagan bo‘lishi, shuningdek, oldingi sakkiz yil davomida qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi tasdiqlanmagan bo‘lishi talab etiladi.

Mazkur talablar jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini qo‘llash uchun iqtisodiy asoslanganlik, huquqiy to‘g‘rilik va insoflilik mezonlari asosida belgilangan bo‘lib, kreditorlar manfaatlarini himoya qilish hamda jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining barqaror ishlashini ta’minlashga qaratilgan.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida qarzdor jismoniy shaxs tomonidan qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi bo‘yicha kreditorlarni to‘liq va xolis axborot bilan ta’minlash majburiyati belgilangan. Unga ko‘ra, qarzdor quyidagi ma’lumotlarni kreditorlarga taqdim etishi shart:

Qayta tuzish jarayonidagi huquqbuzarliklar va javobgarlik holatlari – jismoniy shaxs mayda o‘g‘rilik, mol-mulkka qasddan zarar yetkazish yoki uni shikastlash, to‘lovga qobiliyatsizlik vaqtida sodir etilgan g‘ayriqonuniy harakatlar, soxta yoki qasddan to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari bo‘yicha ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka

tortilganligi haqida ma’lumot taqdim etadi. Bu talab kreditorlarga qarzdorning moliyaviy va huquqiy to‘g‘rilik darajasini baholash imkonini beradi.

Jinoyat va ma’muriy huquqbuzarlik ishlari to‘g‘risida axborot – jismoniy shaxsga ma’lum bo‘lgan, shuningdek, sudlanganlik holati olib tashlanganligi yoki sudlanganligi tugatilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etishi lozim. Bu qayta tuzish rejasining ishonchliligi va kreditorlar qarorining asosliligini ta’minlaydi.

To‘lovga qobiliyatsizlik va qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish, qayta tuzish tarixi haqida xabardor qilish – qarzdor so‘nggi besh yil mobaynida bankrot deb topilganligi va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili qo‘llanilganligi yoki so‘nggi sakkiz yil ichida qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi taqdim etilgan bo‘lishi haqida kreditorlarni xabardor qilishi shart. Bu talab takroriy va suiiste’mol yo‘li bilan qayta tuzish institutidan foydalanishning oldini olish maqsadini ko‘zlaydi.

Shu tariqa, ushbu qoidalar qarzdorning oshkoralik, mas’uliyat va kreditorlarning haqli manfaatlarini himoya qilish prinsiplarini amalga oshiruvchi huquqiy kafolat hisoblanadi. U kreditorlarga qarzdorning moliyaviy va huquqiy holatini xolis baholash imkonini beradi hamda qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining ishonchli va samarali ijrosini ta’minlaydi.

3. Ushbu normada belgilanishicha, qarzdor jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tayyorlayotganda hamma muhim axborotlar rejada aks ettirilishi lozim.

Mazkur talab jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi to‘liq, xolis va kreditorlar uchun ishonchli axborot manbai sifatida xizmat qilishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, ushbu norma qarzdorning ochiqlik va hisobot berish majburiyatini mustahkamlab, kreditorlar va sud organlari uchun rejaning qonuniyligi va amaliy ijro etilishi bo‘yicha asosli baholash imkoniyatini yaratadi. Qarang: Xalqaro sharh. 802-b.

209-modda. Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining mazmuni

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida jismoniy shaxs kreditorlarining talablari, shuningdek, talablarni qanoatlantirish tartibi va muddatlari ko‘rsatilishi kerak.

Kreditorlarni va tegishli vakolatli organni jismoniy shaxsning mulkiy holatida jiddiy o‘zgarishlar mavjudligi to‘g‘risida xabardor qilish tartibi uning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida belgilanadi.

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini amalga oshirish muddati uch yildan oshishi mumkin emas.

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida jismoniy shaxsning garov bilan ta’minlangan majburiyatlari bo‘yicha talablarni garov bilan ta’minlangan mol-mulkni sotishdan tushgan mablag‘lar hisobidan to‘liq hajmda qanoatlantirish nazarda tutilishi kerak.

Qarzdor jismoniy shaxsning fuqarolar hayotiga yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash, shuningdek, alimentlar undirish, mehnatga oid va ularga tenglashtirilgan huquqiy munosabatlardan, intellektual faoliyat natijalariga ko‘ra muallifga haq to‘lashga doir talablardan kelib chiquvchi to‘lovlar bo‘yicha talablari jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritiladi.

Kreditorlarning va tegishli vakolatli organning jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan talablarini mutanosib ravishda qanoatlantirish belgilanadi.

Kreditorning va (yoki) tegishli vakolatli organning alohida roziligi bilan jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida bunday rozilikni bergan shaxsning talablarini to‘liq bo‘lmagan hajmda qanoatlantirish ko‘rsatilishi mumkin.

Ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida garov narsasi bo‘lgan mol-mulkni sotish tartibi va muddatlari to‘g‘risidagi qoidalar bo‘lishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida kreditorlar talablari, ularni qondirish tartibi va muddatlari, garov bilan ta’minlangan talablar, majburiy to‘lovlar hamda qarzdorning mulkiy holatiga oid ma’lumotlardan xabardor qilish tartibi aks ettirilishi shartligi belgilangan.

1. Ushbu normada jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida kreditorlar talablari hamda ularni qondirish tartibi va muddatlari aniq ko‘rsatilishi lozimligi nazarda tutilgan. Bu talab qarzdor va kreditorlar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarning ochiqligi va barqarorligini ta’minlashga qaratilgan.

Rejada har bir kreditorning talablari, shuningdek, ularning qonuniy asosi va qondirilish muddatlari ko‘rsatilishi zarur. Bu kreditorlarga o‘z huquqlarini himoya qilish, qarzdorning moliyaviy majburiyatlarini to‘liq va adolatli baholash imkonini beradi. Shuningdek, talablarning rejada aniq belgilanishi sud va tegishli vakolatli organlar uchun rejaning qonuniyligi va amaliy ijrosini ta’minlaydi.

2. Ushbu norma mazmunida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida kreditorlar va tegishli vakolatli organni mulkiy holatda jiddiy o‘zgarishlar yuzaga kelganligi haqida xabardor qilish tartibini belgilash talab qilingan. Bu qoida qarzdor va kreditorlar o‘rtasidagi munosabatlarning ochiqligini ta’minlaydi.

Aniqroq qilib aytganda, agar qarzdorning mulkiy holatida tahdidli yoki muhim o‘zgarishlar yuzaga kelsa, kreditorlar va tegishli vakolatli organ bu haqida o‘z vaqtida xabardor qilinishi shart. Bu, o‘z navbatida, kreditorlarga moliyaviy xavflarni baholash va tegishli choralar ko‘rish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ushbu talab rejada aniq ko‘rsatilgan tartibda amalga oshirilishi kerak, ya’ni xabardor qilish mexanizmi va muddati belgilangan bo‘lishi lozim. Bu norma qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish jarayonida huquqiy barqarorlik va nazo-

ratni ta’minlaydi, hamda qarzdorning moliyaviy holatini adolatli baholash imkoniyatini yaratadi.

3. Ushbu norma mazmunida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini amalga oshirish muddati ustuvorlik bilan belgilanadi va u uch yildan oshmasligi lozimligi qayd etilgan. Bu qoida qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish jarayonining samaradorligi va uni nazoratini ta’minlashga qaratilgan.

Boshqacha qilib aytganda, muddatni cheklash orqali qarzdorning moliyaviy barqarorlikka erishish jarayonining uzoq va noaniq muddatlarga cho‘zilishi oldi olinadi, shuningdek, kreditorlar va tegishli vakolatli organlar uchun rejaning amaliy ijrosi va nazorati osonlashtiriladi. Shu bilan birga, uch yillik muddat qarzdor va kreditorlar uchun rejaning ijro etilishini rejalashtirishda asosiy me’yor bo‘lib xizmat qiladi.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida garov bilan ta’minlangan majburiyatlar bo‘yicha talablarning to‘liq qanoatlantirilishi kafolatlanishi lozimligi belgilab qo‘yilgan. Bu garov obyekti sifatidagi mol-mulkni sotishdan tushgan mablag‘lar miqdori qarzdorning garov bilan ta’minlangan majburiyatlari bo‘yicha barcha qarzlarni to‘liq qoplash uchun sarflanishi kerakligini anglatadi.

Shu tariqa, norma kreditorlar huquqlarini himoya qilish va ularning talablarini adolatli qondirishni ta’minlaydi. Ushbu tartib qarzdor tomonidan garov bilan ta’minlangan majburiyatlarni bajarishda mas’uliyatni oshiradi va mol-mulkdan tushgan mablag‘lar taqsimotida adolatli mexanizm yaratadi. Boshqacha qilib aytganda, qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida garov majburiyatlariga oid qoidalar to‘liqlik va aniqlik talablariga mos bo‘lishi zarur, bu esa kreditorlar va tegishli vakolatli organlar uchun nazoratni ta’minlaydi hamda huquqiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

5. Ushbu norma mazmuniga ko‘ra, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga fuqarolar hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning qoplanishi, alimentlar undirish, mehnatga oid va ularga tenglashtirilgan huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi to‘lovlar hamda intellektual faoliyat natijalariga ko‘ra muallifga haq to‘lash kabi majburiyatlarning kiritilishi lozimligi belgilangan.

Bu talabning asosiy maqsadi qarzdorning ijtimoiy va fuqarolik majburiyatlarini adolatli tarzda bajarishini ta’minlashdir. Qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi shu majburiyatlarning amalga oshirilish tartibi va muddatlarini aniq belgilash orqali kreditorlar, zarar ko‘rgan shaxslar va tegishli vakolatli organlar uchun huquqiy barqarorlikni kafolatlaydi.

Shuningdek, protsessual jihatdan, mazkur majburiyatlarni rejada aniq ko‘rsatish, ularning amalga oshirilishini nazorat qilish va ijro intizomini ta’minlash imkonini beradi. Bu esa sud va moliyaviy boshqaruvchi tomonidan qarzdorning majburiyatlari bajarilishini kuzatish va nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu norma qarzdorning moliyaviy va ijtimoiy majburiyatlari, shuningdek, kreditorlar va zarar ko‘rgan shaxslarning huquqlari adolatli tarzda himoya qilinishini ta’minlaydi.

6. Ushbu normaning talablariga muvofiq, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida ko‘rsatilgan talablar kreditorlar va tegishli vakolatli organning manfaatlari mutanosib ravishda qondirilishi lozim.

Bu talab qarzdorning moliyaviy imkoniyatlari va uning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini amalga oshirish qobiliyatini hisobga olib to‘lovlarni adolatli taqsimlashni ta’minlaydi. Mutanosiblik prinsipi kreditorlar o‘rtasida imkon qadar teng muomala va huquqiy barqarorlikni ta’minlaydi, shu bilan birga, qarzdorning iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda majburiyatlarni qonuniy va samarali bajarishni kafolatlaydi.

Shu tariqa, ushbu norma qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish jarayonida qonuniylik, adolat va ijro samaradorligini ta’minlash mexanizmining asosiy elementlaridan birini tashkil qiladi.

7. Mazkur moddaning yettinchi qismida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida shaxsiy kelishuv asosida talablarni qisman qondirish imkoniyati belgilangan. Bu kreditor yoki tegishli vakolatli organ alohida rozilik bergan taqdirda, ularning kiritilgan talablari to‘liq qanoatlantirilmasdan, qisman bajarilishi mumkin degani.

Mazkur qoida qarzdorning moliyaviy holatini va to‘lov qobiliyatini hisobga olib, qarzdor va kreditorlar o‘rtasida adolatli va muvofiqlashtirilgan tarzda qarz majburiyatlarini taqsimlashni ta’minlaydi. Shuningdek, norma protsessual nazorat mexanizmi orqali rejaning kreditorlar yig‘ilishi va sud tomonidan tasdiqlanishi, shu bilan uning ijro etilishi samaradorligini ta’minlashni nazarda tutadi. Boshqacha aytganda, ushbu qoida qarzdor va kreditorlar uchun moliyaviy samaradorlik hamda huquqiy muvozanatni saqlash imkonini yaratadi va tarkibiy o‘zgarish rejasining manfaatli amalga oshirilishini ta’minlaydi.

8. Ushbu normada jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida garovga qo‘yilgan mol-mulkni sotish bilan bog‘liq huquqiy mexanizmlar va ularning amal qilish muddatlari belgilanishi mumkinligi nazarda tutilgan. Jumladan, agar qarzdorning majburiyatlari garov bilan ta’minlangan bo‘lsa, rejada garov narsasini sotish tartibi va muddatlari ko‘rsatilishi mumkin. Bu tartib va muddatlar kreditorlar va tegishli vakolatli organ bilan kelishilgan holda belgilanadi, shu bilan birga, qarzni tarkibiy o‘zgartirish rejasini amalga oshirishda samaradorlik va adolatli taqsimot ta’minlanadi.

Protsessual jihatdan bu norma sud va moliyaviy boshqaruvchi nazorati ostidagi qoidalar sifatida qo‘llaniladi, ya’ni garovga qo‘yilgan mol-mulkni sotish yuzasidan qaror va amaliy qadamlar rejada ko‘rsatilishi lozimligini nazarda tutadi.

Qisqacha qilib aytganda, ushbu qoida garov bilan ta’minlangan qarzlarni to‘liq qondirish mexanizmlari rejada aks etishi va ularning amal qilish muddatlari belgilanishi mumkinligini huquqiy jihatdan ta’minlaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 803-b.

210-modda. Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga ilova qilinadigan hujjatlar

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga quyidagilar ilova qilinadi:

jismoniy shaxs mol-mulkining va mulkiy huquqlarining ro‘yxati;

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi sudga taqdim etilishidan oldingi olti oy uchun uning daromad manbalari haqidagi ma’lumotlar;

kreditorlik qarzi, shu jumladan, joriy majburiyatlarga doir to‘lovlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

garovlar reyestrini yuritadigan tashkilotdan olingan kredit hisoboti va jismoniy shaxsning kredit tarixi haqidagi ma’lumotlar;

kreditor yoki tegishli vakolatli organ qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini taqdim etganda, agar jismoniy shaxsning e’tirozlari bo‘lsa, uning arizasi.

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga uning mol-mulkini va mulkiy huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlarning (mavjud bo‘lgan taqdirda) ko‘chirma nusxalari ham ilova qilinadi.

Sharhlanayotgan moddada jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi bo‘yicha ilovada sudga taqdim etilishi lozim bo‘lgan hujjatlar belgilangan.

1. Ushbu normada belgilangan jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi kreditorlar manfaatlarini, qarzdorning to‘lov qobiliyatini hamda qarzni qonuniy va asoslangan tarzda qayta tuzish imkoniyatlarini baholashga qaratilgan bo‘lib, uni sud tomonidan ko‘rib chiqish jarayonida muayyan hujjatlar majburiy ravishda taqdim etiladi. Mazkur hujjatlarning rejaga ilova etilishi qarzdorning moliyaviy ahvoli to‘g‘risida xolis, aniq va ishonchli ma’lumot taqdim etilishini ta’minlaydi.

1.1. Jismoniy shaxs mol-mulkining va mulkiy huquqlarining ro‘yxati bu qarzdorning real aktivlari va mulkiy imkoniyatlarini to‘la aks ettirishi kerak. Unda ko‘chmas mulk, transport vositalari, qimmatbaho ashyolar, ulushlar, aksiyalar, talab huquqlari va boshqa mulkiy huquqlar ko‘rsatilishi zarur. Mazkur ma’lumot sud hamda kreditorlar tomonidan qarzdorning qarzni qoplash imkoniyatlarini baholashga xizmat qiladi.

1.2. Sudga taqdim etilishidan oldingi 6 oylik daromad manbalari haqidagi ma’lumotlar bu reja real va amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan tarzda tuzilishi uchun qarzdorning yaqin olti oydagi mehnat daromadi, tadbirkorlikdan tushumlar, ijaradan daromad, pensiya, nafaqa va boshqa barcha daromad manbalari to‘liq yoritilishi lozim. Bu ma’lumotlar qarzdorning reja doirasida o‘z majburiyatlarini bajarish salohiyatini aniqlashda asosiy mezon hisoblanadi.

1.3. Kreditorlik qarzi va joriy majburiyatlarga doir to‘lovlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘lib, reja sud tomonidan ko‘rib chiqilishi uchun qarzdorning barcha qarzlari,

shu jumladan, asosiy qarzlar, foizlar, penya va sanksiyalar, joriy kommunal va ijtimoiy to‘lovlar, ijtimoiy to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik kabilar sanalib, aniq summalar bilan ko‘rsatilishi lozim. Bu ma’lumotlar kreditorlar talablarining ustuvorligi va to‘lovlar taqsimotini belgilashda zarur.

1.4. Garovlar reyestrini yuritadigan tashkilotdan olingan kredit hisoboti va kredit tarixi, ya’ni qarzdorning kredit hisoboti uning qo‘shimcha qarzlari, mavjud shartnomaviy majburiyatlari va moliyaviy intizomi haqida xolis ma’lumot beradi. Kredit tarixini taqdim etish sudga qarzdorning moliyaviy intizomi va restrukturizatsiya rejasining ishonchliligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

1.5. Kreditor yoki vakolatli organ tomonidan taqdim etilgan rejaga jismoniy shaxsning e’tirozlari mavjud bo‘lsa, uning arizasi, ya’ni agar reja qarzdorning o‘zi emas, balki kreditor yoki vakolatli organ tomonidan taqdim etilgan bo‘lsa, qarzdor uning mazmuniga norozi bo‘lgan taqdirda, o‘z e’tirozlarini asoslangan ravishda ariza ko‘rinishida taqdim etishi mumkin. Bunday ariza qarzdorning protsessual huquqlarini ta’minlash va uning qonuniy manfaatlarini himoya qilish vositasi hisoblanadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan hujjatlar jismoniy shaxs qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining mazmunan to‘g‘ri, obyektiv va qonuniy asoslarda tuzilishini ta’minlaydi. Ular sudga qarzdorning moliyaviy holatini kompleks baholash va kreditorlar talablari adolatli tarzda qondirilishini ta’minlash imkonini beradi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida belgilangan qoidalarga ko‘ra, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga uning mol-mulkini va mulkiy huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlarning (mavjud bo‘lgan taqdirda) ko‘chirma nusxalarini ilova qilish talabi qarzdorning moliyaviy ahvoli to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hujjatli shaklda tasdiqlashga qaratilgan qonuniy talab hisoblanadi. Ushbu norma qarzdor tomonidan taqdim etilgan mol-mulk va mulkiy huquqlar ro‘yxati deklarativ hisoblanib qolmasligi, balki ularni tasdiqlaydigan rasmiy hujjatlar bilan mustahkamlanishini ta’minlaydi. Bu sudga qarzdorning mulkiy holatini xolis va aniq baholash, tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining amaliy ijrosiga baho berish imkonini beradi, shu bilan birga, kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Ushbu normada «mavjud bo‘lgan taqdirda» degan qo‘shimcha qayd etilgani qarzdorda ayrim hujjatlar obyektiv sabablarga ko‘ra mavjud bo‘lmasligi mumkinligini e’tirof etadi, ammo mavjud bo‘lgan barcha tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish qarzdorning majburiyatidir. Tasdiqlovchi hujjatlarning taqdim etilishi mulk huquqining qayd etilganligi, uning hajmi, qiymati va unga nisbatan cheklovlar mavjudligi kabi muhim holatlarni rasman isbotlaydi.

Shuningdek, hujjatlarni yashirish yoki taxminga asoslangan ma’lumot berish restrukturizatsiya jarayonining qonuniyligiga shubha tug‘diradi va qarzdorning mas’uliyatini yuzaga keltirishi mumkin. Qarang: Xalqaro sharh. 803-b.

211-modda. Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini sud tomonidan ko‘rib chiqish

Agar ushbu Qonunning 221-moddasiga muvofiq qanoatlantirilishi kerak bo‘lgan joriy majburiyatlarga doir talablarning, kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan birinchi va ikkinchi navbatdagi kreditorlar talablarining to‘liq qanoatlantirilishi nazarda tutilgan bo‘lsa, kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ma’qullangan jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi sud tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Agar kreditorlar yig‘ilishi tomonidan jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi ma’qullanmagan bo‘lsa, jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxs mazkur rejani maromiga yetkazish uchun qo‘shimcha muddat berish haqidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etganda, sud jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tasdiqlash haqidagi masalani ko‘rib chiqishni keyinga qoldirishi mumkin.

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini maromiga yetkazish uchun sud tomonidan taqdim etilgan qo‘shimcha muddat ikki oydan ko‘p bo‘lishi mumkin emas.

Sud jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tasdiqlash to‘g‘risidagi ajrimni;

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tasdiqlashni rad etish haqidagi, shuningdek, jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risidagi qarorni.

Agar jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ma’qullanmasa, sud ushbu rejani quyidagi holatlarda tasdiqlashga haqli:

rejani amalga oshirish jismoniy shaxsning barcha kreditorlari talablarini to‘liq hajmda qanoatlantirish imkonini berganda;

jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish natijasida, shuningdek, uning o‘rtacha olti oylik daromadi miqdori kreditor va tegishli vakolatli organ talablarining kamida ellik foizini qanoatlantirganda.

Ushbu moddada nazarda tutilgan sud hujjatlari ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Sharhlanayotgan moddada jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini sud tomonidan ko‘rib chiqish tartibi nazarda tutilgan bo‘lib, ushbu protsessual jarayonlarda sud tomonidan ko‘riladigan masalalar va ularning o‘ziga xos jihatlari hamda sud qarorlari ustidan shikoyat berilishi mumkinligi belgilangan.

1. Ushbu normaga muvofiq, agar jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida Qonunning 221-moddasida nazarda tutilgan joriy majburiyatlar, shuningdek, kreditorlar talablari reyestrida birinchi va ikkinchi navbatda joylashgan kreditorlar talablarini to‘liq hajmda qanoatlantirish mexanizmlari belgilangan bo‘lsa, bunday reja kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ma’qullanganidan keyin sud tomonidan majburiy tarzda tasdiqlanishi lozim bo‘ladi.

Ushbu norma rejadagi ustuvor va qonuniy tarzda qondirilishi shart bo‘lgan talablar to‘liq ta’minlangan taqdirda sudning bu rejani tasdiqlashi lozimligini nazarda tutadi. Shunday qilib, norma qarzdorning tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi qonun talablariga to‘la muvofiq kelganda va kreditorlar tomonidan ma’qullanganda sudning rejani tasdiqlashi shart ekanini belgilaydi, bu esa kreditorlar manfaatlarini himoya qilish, qarzdorning moliyaviy barqarorligini tiklash va protsessning huquqiy aniqligini ta’minlashga qaratilgan.

2. Kreditorlar yig‘ilishi tomonidan jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish (restrukturizatsiya) rejasi ma’qullanmagan hollarda ishda ishtirok etuvchi shaxslardan biri ushbu rejani takomillashtirish va kreditorlar talablariga muvofiqlashtirish uchun qo‘shimcha muddat berish to‘g‘risida sudga iltimosnoma kiritish huquqiga ega.

Ushbu iltimosnoma berilgan taqdirda, sud ishning ushbu bosqichi bo‘yicha protsessual tartib-qoidalardan kelib chiqib jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tasdiqlash masalasini ko‘rib chiqishni keyinga qoldirish imkoniyatiga ega. Boshqacha qilib aytganda, kreditorlar tomonidan ma’qullanmagan rejaning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishi uchun qo‘shimcha vaqt talab etilsa, sud bu holatni inobatga olgan holda masalani darhol hal qilish o‘rniga reja qayta shakllantirilishiga sharoit yaratib, uni tasdiqlash to‘g‘risidagi muhokamani belgilangan qonunchilik me’yorlari doirasida keyingi muddatga ko‘chirishi mumkin. Sud ushbu iltimosnomani ko‘rishni keyinga qoldirish haqida ajrim chiqaradi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini takomillashtirish (maromiga yetkazish) uchun sud tomonidan qo‘shimcha muddat berishi mumkinligi belgilangan bo‘lib, ushbu muddatning huquqiy chegarasi qonunchilikda aniq belgilab qo‘yilgan.

Qonun normasiga muvofiq, sud tomonidan taqdim etilishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha muddatning eng yuqori miqdori ikki oyni tashkil etadi. Bundan kelib chiqadiki, sud iltimosnoma asosida qo‘shimcha vaqt berishi mumkin, biroq bu muddat qonunga muvofiq ikki oydan oshmasligi shart, sud mazkur chegaralovchi muddatdan ortiq muddat belgilashiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ushbu tartib protsessual intizomni ta’minlaydi, tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining asossiz cho‘zilib ketishining oldini oladi va kreditorlar hamda qarzdorning huquqlari muvozanatini saqlashga xizmat qiladi.

4. Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish (restrukturizatsiya) rejasi sud tomonidan ko‘rib chiqilganda, sud qonun bilan belgilangan protsessual vakolatida faqat ikki turdagi qarorlardan birini qabul qilish vakolatiga ega bo‘ladi. Ushbu qarorlar mazkur taomilning keyingi bosqichlarini belgilab beradi va jismoniy shaxs-

ning to‘lovga qobiliyatsizlik holati yuzasidan huquqiy oqibatlarni shakllantiradi. Sud quyidagi qarorlardan birini qabul qilishi mumkin:

4.1. Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tasdiqlash to‘g‘risidagi ajrim. Bunday qaror qabul qilinganida tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi qonuniy kuchga ega bo‘ladi, debitor va kreditorlar uchun majburiy hisoblanadi va rejada nazarda tutilgan chora-tadbirlar belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4.2. Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tasdiqlashni rad etish hamda jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risidagi qaror. Sud rejani tasdiqlash uchun qonuniy va iqtisodiy asoslar mavjud emas deb topgan holda rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi, shu bilan birga, qonun talabiga muvofiq qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligini rasman belgilab, mol-mulkni sotish taomilini boshlaydi. Bu holat qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish imkoniyati tugaganini, bankrot deb topilganligi va mol-mulkni sotish taomiliga o‘tganini anglatadi.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismidagi qoidalar jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ma’qullanmagan holatning o‘zi rejani avtomatik ravishda rad etishga olib kelmasligini, sudga muayyan holatlarda kreditorlar yig‘ilishi qarorini chetlab o‘tish va rejani mustaqil tarzda tasdiqlash vakolatini berishi mumkinligini belgilaydi. Sud quyidagi shartlar mavjud bo‘lgan hollarda kreditorlar ma’qullamasdan turib ham rejani tasdiqlashga haqli.

1.1. Rejani amalga oshirish jismoniy shaxsning barcha kreditorlari talablarini to‘liq hajmda qanoatlantirish imkonini berganda, ya’ni bu holatda qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi kreditorlar uchun iqtisodiy jihatdan to‘liq manfaatli hisoblanadi. Hatto kreditorlar yig‘ilishi uni ma’qullamasa ham, reja ularning barcha talablarini qondirishga olib keladiganligidan kelib chiqib sud uni tasdiqlashi mumkin bo‘ladi.

1.2. Jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish natijasida, shuningdek, qarzdorning o‘rtacha olti oylik daromadi miqdori kreditor va tegishli vakolatli organ talablarining kamida 50 foizini qanoatlantirganda. Bunda agarda qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi amalga oshirilsa, debitorning mavjud mol-mulkini sotishdan tushadigan mablag‘ va uning olti oylik o‘rtacha daromadi birgalikda kreditorlar talablarining kamida yarmini qoplash imkonini bersa, sud, rejani ma’qullamaslik haqidagi kreditorlar qaroriga qaramay, uni tasdiqlash huquqiga ega bo‘ladi.

Ushbu huquqiy mexanizmning maqsadi kreditorlar tomonidan asossiz rad etish orqali qarzdorni bankrot deb topish va mol-mulkni sotish bosqichiga majburiy o‘tkazilishining oldini olish va iqtisodiy jihatdan maqbul bo‘lgan qayta tiklanish (restrukturizatsiya) imkoniyatini saqlab qolishdir.

6. Ushbu normada belgilangan qoidaga ko‘ra, mazkur moddada nazarda tutilgan sud hujjatlari – jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tasdiqlash, tasdiqlashni rad etish, bankrot deb tan olish va mol-mulkni sotish tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risidagi sud qarorlari hamda ajrimlari protsessual qonunchilikka muvofiq shikoyat qilish yoki protest keltirish mumkin bo‘lgan sud hujjatlari qatoriga kiradi.

Bu norma sud tomonidan qabul qilingan protsessual hujjatlarning qayta ko‘rib chiqilishi mumkinligini kafolatlaydi va ishtirokchilarga apellyatsiya tartibida yoki kassat-

siya tartibida tegishli instansiyaga shikoyat qilish, qonunchilikda belgilangan hollarda prokuror tomonidan protest kiritish huquqlarni beradi. Ushbu mexanizm sud qarorlari ustidan nazoratni ta’minlash, huquqiy xatoliklar yoki protsessual buzilishlar yuz bergan taqdirda ularni bartaraf etishga xizmat qiladi va ishtirokchi shaxslarning protsessual huquqlarini kafolatlaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 803-b.

212-modda. Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tasdiqlashni rad etish uchun asoslar

Sud quyidagi hollarda jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tasdiqlashni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi, agar:

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi ushbu Qonunning 208-moddasi talablariga javob bermasa;

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida kreditorlarni va tegishli vakolatli organni ushbu shaxsning mulkiy holatida yuz bergan jiddiy o‘zgarishlar haqida xabardor qilish tartibi belgilanmagan bo‘lsa;

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi ushbu Qonun talablariga muvofiq kreditorlar yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanmagan bo‘lsa, bundan ushbu Qonunning 211-moddasi beshinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno;

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida va unga ilova qilinadigan hujjatlarda noto‘g‘ri ma’lumotlar mavjud bo‘lsa;

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining shartlari ushbu Qonunga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga zid bo‘lsa.

Sharhlanayotgan moddada jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini iqtisodiy sudlar tomonidan tasdiqlashni rad etishga asos bo‘luvchi holatlar belgilab berilgan.

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini sud tomonidan tasdiqlash yoki tasdiqlamaslik masalasi qonunchilikda belgilangan aniq mezonlar asosida hal etiladi. Qonunchilik sudga bir qator holatlarda ushbu rejani tasdiqlashni rad etish bo‘yicha majburiy tartibda qaror qabul qilish mumkinligini belgilaydi.

Sud quyidagi vaziyatlar mavjud bo‘lganda jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tasdiqlashni rad etadi. Reja Qonunning 208-moddasi talablariga javob bermasa. Bunda jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining tarkibi, shakli va mazmuni qonun talablariga muvofiq kelmasa, sud uni tasdiqlay olmaydi. Bu rejimning huquqiy va iqtisodiy asoslanganligi ta’minlanmaganini anglatadi. Rejada kreditorlarni va tegishli vakolatli organni debitorning mulkiy holatidagi jiddiy o‘zgarishlar haqida xabardor qilish tartibi nazarda tutilmagan bo‘lsa, sud tasdiqlashni rad etadi, chunki qonun jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish jarayonida nazoratni ta’minlash maqsadida majburiy axborot berish mexanizmlarini talab qiladi. Ushbu mexanizmlar jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida aks etmagan bo‘lsa, sud uni tasdiqlamaydi.

Kreditorlar tomonidan tasdiqlanmagan jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi rad etilishi lozim, ammo qonun sudga mustaqil tasdiqlash huquqi bergan ayrim istisno holatlar (masalan, talablarning to‘liq yoki 50 foizdan kam bo‘lmagan qismi qoplanishi) bundan mustasno.

Shuningdek, debitorning mulkiy holati, daromadlari yoki majburiyatlari haqidagi xato yoki qasddan buzib ko‘rsatilgan ma’lumotlar sud uchun jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini rad etishga asos bo‘ladi, chunki bunday holat kreditorlar manfaatlariga xavf tug‘diradi. Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining huquqiy asoslari amaldagi qonunchilik normalari bilan uyg‘un bo‘lishi zarur va bunda qonunga xilof shartlar aks etgan hollar mavjud bo‘lsa, sud uni tasdiqlamasligi zarur.

Umuman, yuqoridagi talablar jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining qonuniyligi, iqtisodiy asoslanganligi va kreditorlar manfaatlarining muhofaza qilinishiga qaratilgan bo‘lib, sudning ushbu sohadagi nazorat funksiyasini ta’minlaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 803-b.

213-modda. Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tasdiqlash oqibatlari

Sud tomonidan jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi tasdiqlangan sanadan e’tiboran quyidagi oqibatlar yuzaga keladi:

kreditorlarning rejaga kiritilgan talablari jismoniy shaxsga faqat ushbu rejada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda taqdim etiladi;

kreditorlarning rejaga kiritilmagan talablari jismoniy shaxsga ushbu Qonunda belgilangan tartibda taqdim etilishi mumkin;

kreditorlar reja tasdiqlanganidan keyin o‘zi ko‘rgan zararning o‘rnini qoplash to‘g‘risida talablar qo‘yishga haqli bo‘lmaydi;

jismoniy shaxsning pul majburiyatlari bo‘yicha talablarini qarama-qarshi talabni o‘zaro hisobga olish yo‘li bilan tugatishga, agar rejada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, yo‘l qo‘yilmaydi;

pul majburiyatlarini va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun neustoykalar (jarimalar, penyalar) va boshqa sanksiyalar, shuningdek, rejaga kiritilgan, biroq bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan haq to‘lash shartlari bo‘yicha foizlar hisoblanmaydi, bundan joriy to‘lovlar mustasno;

jismoniy shaxs o‘z qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirishning belgilangan rejasiga nisbatan o‘z mulkiy holatining muhim o‘zgarishi to‘g‘risida bunday o‘zgarish yuz bergan sanadan e’tiboran o‘n besh kun ichida kreditorni va tegishli vakolatli organni yozma shaklda xabardor qilishi shart. Jismoniy shaxs mulkiy holatining muhim o‘zgarishi mezonlari uning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida belgilanadi.

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarish muddati davomida qarzdor jismoniy shaxs qarz olish uchun murojaat qilganda, shuningdek, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qarzga olayotganda ushbu reja amalga oshirilganligini yashirishga haqli emas.

Talablari jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilmagan kreditorlar va (yoki) tegishli vakolatli organ mazkur talablarni ushbu Qonunda belgilangan tartibda rejani tasdiqlash vaqtida taqdim etishga haqli. Kreditorlar talablarining reyestriga kiritilgan bunday talablar jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida nazarda tutilgan umumiy shartlar asosida qanoatlantiriladi.

Sharhlanayotgan moddada sud tomonidan jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi tasdiqlanganidan keyin kreditorlar talablarini qondirish tartibi, foizlar hisoblanmasligi, qarzdorning mulkiy holatidagi muhim o‘zgarishlar haqida xabardor qilish majburiyati hamda qarzdorning o‘z moliyaviy ahvoli haqida axborot berish vazifasi belgilangan.

1. Sud tomonidan jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi tasdiqlangan sanadan e’tiboran yuzaga keladigan oqibatlar ushbu normada huquqiy aniqlik va barqarorlikni ta’minlash maqsadida belgilab qo‘yilgan. Unga muvofiq, avvalo, qarzdor jismoniy shaxs reja amal qilish davrida yangi qarz majburiyatlarini qabul qilishda yoxud tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni qarzga olishda mazkur reja mavjudligini oshkora ma’lum qilish majburiyatini yuklaydi.

1.1. Kreditorlarning jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan talablari qarzdor tomonidan faqat mazkur rejada belgilangan tartib va shartlarga qat’iy rioya etilgan holda qanoatlantirilishi lozim. Boshqacha aytganda, kreditor rejaga o‘z talabini kiritganidan keyin uning qanoatlantirilishi umumiy qonunchilik qoidalariga ko‘ra emas, balki sud tomonidan tasdiqlangan rejada aniq ko‘rsatilgan muddatlar, usullar va miqdorlar asosida amalga oshiriladi. Bu esa qarzdorning majburiyatlarini izchil va nazorat qilinadigan tartibda bajarishini, kreditorlar o‘rtasida teng va adolatli munosabatlarni ta’minlashni hamda tarkibiy o‘zgartirish rejasining barqaror va vaqtida ijro etilishini kafolatlaydi.

1.2. Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilmagan kreditorlar talablari uchun alohida huquqiy tartib belgilangan bo‘lib, bunday talablar umumiy reja doirasida avtomatik tarzda qamrab olinmaydi. Shuning uchun kreditor yoki vakolatli organ o‘ziga tegishli talabni qonunchilikda nazarda tutilgan maxsus tartib-qoidalarga amal qilgan holda alohida tartibda taqdim etishi mumkin. Bunda talabning ko‘rib chiqilishi, reyestrga kiritilishi va keyinchalik qanoatlantirilishi mazkur Qonunda belgilangan tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu norma rejaga kiritilmagan talablarni ham huquqiy muomala doirasida saqlab qolish, kreditorlarning huquqlarini cheklab qo‘ymaslik va barcha talablarni huquqiy aniqlik asosida tartibga solishga qaratilgan.

1.3. Qonunchilikda jismoniy shaxsning pul majburiyatlariga doir talablarni o‘zaro hisobga olish orqali tugatishga umumiy qoida tariqasida yo‘l qo‘yilmaydi. Bu, avvalo, tarkibiy o‘zgartirish rejasining yaxlit va nazorat qilinadigan tarzda amalga oshirilishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, qarzdor va alohida kreditor o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblar natijasida kreditorlar o‘rtasida tengsizlik vujudga kelib qolishining oldini oladi. Agar rejada mazkur masala bo‘yicha boshqacha, maxsus qoida nazarda tutilgan bo‘lsa, shunga muvofiq harakat qilinishi mumkin, aks holda, har qanday o‘zaro hisobga olish man etiladi. Mazkur tartib qarzdorning majburiyatlari rejada belgilangan umumiy mexanizm asosida adolatli tarzda qanoatlantirilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

1.4. Mazkur qoida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi amal qilayotgan davrda kreditorlar bilan hisob-kitoblarni barqaror, boshqariladigan va qarzdorni ortiqcha qarz yukidan himoya qilgan holda amalga oshirishga qaratilgan. Qoidaga ko‘ra, rejaga kiritilgan pul majburiyatlari yoki soliq va yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, ular bo‘yicha qo‘shimcha neustoyka, jarima, penya va boshqa sanksiyalar hisoblanmaydi. Shuningdek, rejaga kiritilgan, ammo o‘z vaqtida to‘lanmagan majburiyatlar bo‘yicha qo‘shimcha foizlar ham yuritilmaydi. Bu qarzdorning moliyaviy holatini barqarorlashtirish, uning yukini og‘irlashtirmaslik va rejaning samarali bajarilishiga shart-sharoit yaratishga qaratilgan. Biroq mazkur imtiyoz joriy to‘lovlarga taalluqli emas, ya’ni reja tasdiqlanganidan keyin yuzaga keladigan majburiyatlar (joriy to‘lovlar) o‘z vaqtida bajarilmasa, ular bo‘yicha neustoyka va sanksiyalarni hisoblashga yo‘l qo‘yiladi.

1.5. Ushbu norma jismoniy shaxsning tarkibiy o‘zgartirish rejasi doirasidagi mas’uliyati va oshkoralik majburiyatini belgilaydi. Qoidaga muvofiq, agar qarzdor jismoniy shaxsning mulkiy holatida rejaning amal qilishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan muhim o‘zgarish yuz bersa, u bu haqida o‘zgarish sodir bo‘lgan kundan e’tiboran o‘n besh kun ichida kreditorni hamda tegishli vakolatli organni yozma ravishda xabardor etishi shart. Bu talab qarzdorning moliyaviy imkoniyatlarini o‘z vaqtida qayta baholash, rejaga zarur o‘zgartishlar kiritish va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Mulkiy holatning qaysi o‘zgarishlari «muhim» hisoblanishi esa har bir holatda bir xil emas, balki bevosita qarzdorning tarkibiy o‘zgartirish rejasida aniq belgilab qo‘yiladi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida jismoniy shaxsning tarkibiy o‘zgartirish rejasi amal qilayotgan davrdagi barcha moliyaviy munosabatlarda oshkoralik va mas’uliyat prinsipini ta’minlashga qaratilgan. Qoidaga ko‘ra, qarzdor jismoniy shaxs reja amal qilish muddati davomida yangi qarz olish uchun murojaat etganda yoki tovarlar, ishlar va xizmatlarni qarzga olayotganda o‘zining qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi mavjudligini yashirishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu talab kreditorlar, tovar yetkazib beruvchilar va boshqa kontragentlar uchun qarzdorning haqiqiy moliyaviy holati to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborotga ega bo‘lish imkonini yaratadi, ularning xatarni baholash va tegishli qarorlar qabul qilishda adolatli sharoitda faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Norma, shu bilan birga, qarzdorning oqilona bo‘lmagan harakat yoki aldov

yo‘li bilan yangi majburiyatlar olib, moliyaviy barqarorlikka erishish jarayonini qiyinlashtirishining oldini oladi hamda tarkibiy o‘zgartirish rejasining samarali amalga oshirilishiga kafolat bo‘lib xizmat qiladi.

3. Ushbu normada jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi tasdiqlanganidan keyin rejaga kiritilmagan kreditorlar talablarining huquqiy maqomini belgilaydi. Qoidalarga muvofiq, agar kreditor yoki tegishli vakolatli organning talabi rejaga kiritilmagan bo‘lsa, ular rejani tasdiqlash vaqtida ushbu talablarni qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda taqdim etish huquqiga ega. Bu mexanizm barcha kreditorlarga teng huquq yaratish, ularning talablarini chetda qoldirmaslik va qarzdorning haqiqiy majburiyatlarini to‘liq qamrab olishga qaratilgan.

Reyestrga kiritilgan bunday talablar esa alohida tartibda qanoatlantirilmaydi, balki jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida nazarda tutilgan umumiy shartlar asosida, ya’ni barcha kreditorlarga teng tatbiq etiladigan mexanizmlar va nisbatlarda qanoatlantiriladi. Qarang: Xalqaro sharh. 805-b.

214-modda. Qarzdor jismoniy shaxsning tashabbusi bilan jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga o‘zgartishlar kiritish va mazkur rejani bajarish muddatini uzaytirish

Qarzdor jismoniy shaxs qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga o‘z qarzlari bo‘yicha o‘zgartishlar kiritish haqidagi takliflarni moliyaviy boshqaruvchiga yuborishga haqli.

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi taklif moliyaviy boshqaruvchi tomonidan olingan sanadan e’tiboran o‘n besh kun ichida mazkur reja unga kiritilgan o‘zgartishlar bilan birga kreditorlarga va tegishli vakolatli organga yuborilishi kerak.

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan o‘zgartishlarni ma’qullash haqidagi masalani ko‘rib chiqish uchun kreditorlar yig‘ilishi mazkur reja unga kiritilgan o‘zgartishlar bilan birga kreditorlarga va tegishli vakolatli organga yuborilgan sanadan e’tiboran bir oy ichida moliyaviy boshqaruvchi tomonidan chaqiriladi.

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan o‘zgartishlarni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra kreditorlar yig‘ilishi ushbu o‘zgartishlarni ma’qullash yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan o‘zgartishlar kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan kreditorlar ovozlari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan ma’qullanishi kerak.

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan o‘zgartishlar sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan o‘zgartishlarni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra sud quyidagi ajrimlardan birini qabul qiladi:

o‘zgartishlar kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ma’qullangan taqdirda, mazkur rejaga kiritilgan o‘zgartishlarni tasdiqlash haqida;

rejaga kiritilgan o‘zgartishlarni tasdiqlashni rad etish to‘g‘risida.

Mazkur moddaning yettinchi qismida nazarda tutilgan sud ajrimlari ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Agar jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarish muddati kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ma’qullangan bo‘lsa, sud jismoniy shaxsning iltimosnomasiga ko‘ra ushbu muddatni uzaytirishi mumkin.

Agar jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini unda ko‘rsatilgan muddat ichida bajarishning imkoni bo‘lmaganligi isbotlansa, sud qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarish muddatini kreditorlar yig‘ilishining ma’qullashisiz ko‘pi bilan olti oy muddatga uzaytirishi mumkin.

Sudning jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarish muddatini uzaytirish haqidagi ajrimi ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Sharhlanayotgan moddada qarzdor jismoniy shaxsning tashabbusi bilan qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga o‘zgartishlar kiritish, ularni kreditorlar yig‘ilishi va sud tomonidan ko‘rib chiqish hamda ayrim hollarda mazkur rejani bajarish muddatini uzaytirish tartibi belgilangan.

1. Ushbu normada qarzdor jismoniy shaxsning sud tomonidan tasdiqlangan tarkibiy o‘zgartirish rejasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha tashabbus ko‘rsatish huquqi qonuniy jihatdan mustahkamlangan.

Qoidaga ko‘ra, qarzdor o‘zining moliyaviy ahvoli, daromadlari yoki mulkiy holatida reja ijrosiga ta’sir etadigan ahamiyatli o‘zgarishlar yuz bergan taqdirda, rejaga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi taklifni to‘g‘ridan to‘g‘ri kreditorlarga emas, balki maxsus vakolatga ega bo‘lgan moliyaviy boshqaruvchiga taqdim etishi lozim bo‘ladi. Bu tartib o‘zgartishlar kiritish bo‘yicha takliflarining rasmiy qayd qilinishi, ularning huquqiy va iqtisodiy asoslari to‘liq o‘rganilishi hamda keyinchalik kreditorlar va vakolatli organga qonunchilikda belgilangan tartibda yetkazilishini ta’minlaydi.

Moliyaviy boshqaruvchining bunday takliflarni qabul qilgan sanadan e’tiboran ularni belgilangan muddatda kreditorlarga yuborish majburiyati o‘zgartishlarning qonuniy va ochiq muhokama qilinishi uchun kafolat vazifasini o‘taydi. Shu tariqa, norma tarkibiy o‘zgartirish rejasini amalga oshirish jarayonida qarzdor tashabbusi, kreditorlar manfaatlari va sud nazorati o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlab, rejaning adolatli va asosli tarzda yangilanib borishiga xizmat qiladi.

2. Sharhlanayotgan moddaning ikkinchi qismida belgilangan qoidalarga ko‘ra, moliyaviy boshqaruvchining jismoniy shaxs tomonidan taqdim etilgan tarkibiy o‘zgarti-

rish rejasiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi taklifni belgilangan muddatda rasmiy tarzda ko‘rib chiqish va tegishli subyektlarga yetkazish majburiyatini belgilaydi. Qoidaga ko‘ra, moliyaviy boshqaruvchi qarzdordan ushbu taklifni olgan sanadan boshlab o‘n besh kun ichida rejaning o‘zgartirilgan variantini, ya’ni kiritilishi taklif etilgan o‘zgartishlar bilan birga kreditorlarga hamda tegishli vakolatli organga yuborishi lozim.

Bu tartib o‘zgartirishlar yuzasidan kreditorlarning o‘z vaqtida, to‘liq va ishonchli ma’lumot asosida qaror qabul qilishini ta’minlashga qaratilgan. Moliyaviy boshqaruvchining ushbu vazifasi tarkibiy o‘zgartirish rejasini amalga oshirishdagi muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi vakolatining muhim elementi bo‘lib, barcha ishtirokchilarning xabardorlik darajasini ta’minlaydi va rejani o‘zgartirish masalasini qonuniy muhokama jarayoniga kiritadi.

3. Ushbu norma qoidalarida jismoniy shaxs qarzini tarkibiy o‘zgartirish rejasiga kiritilgan o‘zgartishlarni ma’qullash jarayonini huquqiy jihatdan aniqlaydi va kreditorlar ishtirokida qaror qabul qilishning rasmiy mexanizmi belgilangan.

Qoidaga muvofiq, moliyaviy boshqaruvchi qarzdordan olingan takliflar asosida rejaga kiritilgan o‘zgartishlar bilan birga hujjatlarni kreditorlarga va tegishli vakolatli organga yuborilgan sanadan e’tiboran bir oy ichida kreditorlar yig‘ilishini chaqirishi shart. Bunda bir oylik muddat qonuniy, iqtisodiy va amaliy jihatdan protsessni samarali va adolatli yuritish uchun kerak bo‘lgan minimal vaqt sifatida belgilangan.

Bu tartib kreditorlarga o‘zgartishlarni atroflicha muhokama qilish va adolatli qaror qabul qilish imkonini yaratadi, shu bilan birga, moliyaviy boshqaruvchining nazorat va muvofiqlashtiruvchi funksiyalari orqali jarayonning qonuniyligini ta’minlaydi. Norma shu tariqa tarkibiy o‘zgartirish rejasining to‘g‘ri va barqaror bajarilishini, kreditorlar manfaatlari himoyasini va huquqiy barqarorlikni kafolatlaydi.

4. Ushbu normada kreditorlar yig‘ilishining tarkibiy o‘zgartirish rejasiga kiritilgan o‘zgartishlarni muhokama qilish va ular bo‘yicha qaror qabul qilish mexanizmi belgilangan. Qoidaga ko‘ra, kreditorlar yig‘ilishi rejada taklif etilgan o‘zgartishlarni ko‘rib chiqib, ularni ma’qullash yoki rad etish to‘g‘risida rasmiy qaror qabul qiladi. Boshqacha aytganda, kreditorlar yig‘ilishi muhokama natijasiga ko‘ra ikki yo‘ldan birini tanlaydi, ya’ni ma’qullash – o‘zgartishlar kreditorlar uchun qonuniy va iqtisodiy jihatdan maqbul deb topilganda, ular rejaga kiritiladi va tarkibiy o‘zgartirish jarayonida amalga oshiriladi hamda rad etish – o‘zgartishlar kreditorlar manfaatiga zid yoki qarzdorning moliyaviy barqarorligini xavf ostiga qo‘yishi mumkin deb topilsa, ular rad etilishi mumkin.

Bu jarayonlar kreditorlarning adolatli ishtirokini, rejaning ijro etilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi o‘zgartishlarning shaxsiy va moliyaviy manfaatlar bilan muvofiqligi hamda qarorlar qonuniy va nazoratli tarzda qabul qilinishini kafolatlaydi. Shu tariqa, norma tarkibiy o‘zgartirish rejasining oshkora va barqaror amalga oshirilishi, kreditorlar manfaatlarining himoya qilinishi hamda qaror qabul qilish jarayonining huquqiy barqarorligini ta’minlaydi.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy o‘zgartirish rejasiga kiritilayotgan o‘zgartishlarni qabul qilishda kreditorlar irodasini shakllantirishning huquqiy mezoni belgilanadi. Qoidaga muvofiq, rejaga taklif etil-

gan o‘zgartishlar kreditorlar yig‘ilishida ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan kreditorlar umumiy ovozlar sonining ko‘pchilik qismi tomonidan ma’qullangan taqdirda qabul qilingan deb hisoblanadi.

Ovoz berish huquqiga ega kreditorlar deganda tarkibiy o‘zgartirish rejasi bo‘yicha ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan va yig‘ilishda ishtirok etayotgan kreditorlar tushuniladi. Ularning ovoz berishi rejaga kiritilgan o‘zgartishlarni ma’qullash yoki rad etishda asosiy mezon sifatida qabul qilinadi. Umumiy ovozlar soni esa ovoz berish huquqiga ega barcha kreditorlarning yig‘ilishda amalga oshirilgan ovozlarining yig‘indisi sanaladi, bu yerda faqat ishtirok etayotgan va ovoz bergan kreditorlar hisobga olinadi. Ko‘pchilik ovoz bilan, ya’ni reja o‘zgartishlari ma’qullanishi uchun ovoz berish huquqiga ega kreditorlar ovozlarining yarmidan ko‘pi tarafidan ma’qullanishi shart bo‘ladi. Bu talablar kreditorlar manfaatlarining teng va adolatli tarzda himoya qilinishi, qaror qabul qilish jarayonida bir nechta kreditor emas, balki umumiy kreditorlar jamlanmasi pozitsiyasi inobatga olinishini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, ushbu tartib sud nazorati uchun aniq me’yor yaratib, sudga kreditorlar pozitsiyasining legitimligini baholash imkonini beradi. Natijada tarkibiy o‘zgartirish rejasini amalga oshirishda qonuniylik va kreditorlar o‘rtasidagi muvozanat ta’minlanadi.

6. Mazkur moddaning oltinchi qismi qoidalarida jismoniy shaxsning qarzdorligini tarkibiy o‘zgartirish rejasiga kiritilgan o‘zgartishlarni sud tomonidan ko‘rib chiqish jarayonini huquqiy jihatdan tartibga soladi va uning maqsadini aniqlaydi. Qoidaga ko‘ra, kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ma’qullangan yoki rad etilgan o‘zgartishlar sudga taqdim qilinadi.

Sud bu o‘zgartishlarni qonuniylik va adolatlilik nuqtayi nazaridan tekshirish davomida, *avvalo*, norma qonuniylik va rasmiy nazoratni ta’minlaydi, ya’ni sud o‘z qarori orqali tarkibiy o‘zgartirish rejasiga kiritilgan o‘zgartishlar qonun talablari va rasmiy tartiblariga muvofiq ekanligini tekshiradi. Bu kreditorlar va qarzdorning huquqiy manfaatlarini muhofaza qilish uchun asosiy kafolat hisoblanadi.

Ikkinchidan, sud kreditorlar qaroriga qonuniy baho beradi. Bunda kreditorlar yig‘ilishida qabul qilingan ma’qullash yoki rad etish qarorlari sud tomonidan huquqiy asoslari va qonuniylik darajasi bo‘yicha tekshiriladi, bu qarorlarning adolatli va barqaror bo‘lishini ta’minlaydi.

Uchinchidan, sud tarkibiy o‘zgartirish rejasining samarali amalga oshirilishini nazorat qiladi. Bu nazorat o‘zgartishlarning amalda bajarilishini ta’minlaydi, qarzdorning majburiyatlari rejada belgilangan shartlar asosida bajarilishi va kreditorlar uchun huquqiy barqarorlik saqlanishini kafolatlaydi.

To‘rtinchidan, sud orqali ko‘rib chiqish jarayoni barcha ishtirokchilar uchun aniq tartibda amalga oshiriladi. Bu moliyaviy boshqaruvchi va qarzdorning harakatlarini qonuniy va nazoratli tarzda yuritishni ta’minlaydi hamda o‘zgartishlar natijasida nizo va bahs-munozaralar yuzaga kelishi ehtimolini kamaytiradi.

Umuman olganda, ushbu norma tarkibiy o‘zgartirish rejasini o‘z vaqtida va qonuniy tarzda yangilash, qarzdorning majburiyatlari va kreditorlar manfaatlari o‘rtasida muvozanatni saqlash hamda jarayonning yuridik barqarorligini ta’minlashga qaratilgan muhim huquqiy mexanizmdir.

7. Mazkur moddaning yettinchi qismida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan o‘zgartishlarni ko‘rib chiqish jarayonidagi sudning huquqiy vakolatini belgilaydi. Qoidaga ko‘ra, sud kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ma’qullangan o‘zgartishlarni qonuniy deb topsa, ularni rejaga kiritishni tasdiqlash haqida ajrim chiqaradi, aks holda, agar o‘zgartishlar ma’qullanmagan yoki qonuniy talablarga javob bermaydi deb topilgan holatlarda sud ularni tasdiqlashni rad etish haqida ajrim bilan o‘z huquqiy bahosini beradi.

8. Qoidaga ko‘ra, sud qaroriga norozi bo‘lgan har qanday ishtirokchi, jumladan, qarzdor yoki kreditor ushbu ajrimga nisbatan shikoyat qilish huquqiga ega. Bu huquq ularga sudning qarorini qayta ko‘rib chiqishni, o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta’minlaydi. Shuningdek, normaning mazmunida prokurorning ham manfaatdor shaxs yoki umumiy qonunchilik manfaatlari nuqtayi nazaridan protest keltirish huquqi belgilangan.

Bu protsessual tartiblar sud jarayonlarining qonuniyligi va adolatliligini ta’minlaydi, ishtirokchilarning huquqiy manfaatlarini himoya qiladi hamda sud qarorlarini nazorat qilish mexanizmini mustahkamlaydi.

9. Ushbu norma qoidalar jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarish muddatni uzaytirish masalasini sud nazoratida amalga oshirilishini belgilaydi. Qoidaga ko‘ra, agar tarkibiy o‘zgartirish rejasi kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ma’qullangan bo‘lsa, jismoniy shaxs sudga murojaat qilish orqali rejani bajarish muddatini uzaytirish haqida iltimos qilish huquqiga ega.

Sud esa mazkur iltimosnoma bo‘yicha ushbu murojaatni ko‘rib chiqish jarayonida qarzdorning moliyaviy holati, daromadlari va rejaning samarali bajarilishiga ta’sir qiluvchi boshqa sharoitlarni tahlil etadi, shuningdek, kreditorlar manfaatlari va barcha ishtirokchilarning huquqiy himoyasini inobatga oladi.

Sud tomonidan ushbu iltimosnoma qanoatlantirilib, mazkur muddat uzaytirilishi mumkin. Chunki sud ajrimi bilan protsessual muddatning uzaytirilishi qarzdorga o‘z majburiyatlarini rejada belgilangan shartlar asosida barqaror va adolatli tarzda bajarish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu tartib kreditorlar manfaatlarini himoya qilish, qarzdorning moliyaviy qiyinchiliklarini e’tiborga olish va tarkibiy o‘zgartirish rejasining qonuniy hamda samarali amalga oshirilishini ta’minlashga qaratilgan.

Umuman, ushbu tarkibiy o‘zgartirish rejasini bajarish muddatini uzaytirishda sud nazorati orqali huquqiy barqarorlik, adolatlilik va ishtirokchilarning manfaatlarini muvozanatli himoya qilishni ta’minlaydi.

10. Mazkur moddaning o‘ninchi qismida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy o‘zgartirish rejasini bajarish muddatini uzaytirishning qonuniy va huquqiy jihatdan tartibga solingan holatini belgilaydi. Qoidaga ko‘ra, agar jismoniy shaxs rejada ko‘rsatilgan muddat ichida qarz majburiyatlarini bajarishning imkoniyati yo‘qligini isbotlasa, sud tarkibiy o‘zgartirish rejasini bajarish muddatini kreditorlar yig‘ilishining ma’qullashini talab qilmasdan, bir martalik asosda olti oyga uzaytirishi mumkin. Bunda sud qarzdorning moliyaviy qiyinchiliklarini e’tiborga olish, kreditorlar manfaatlarini himoya qilish, protsessning qonuniyligi va barqarorligini ta’minlashni ham inobatga olishi lozim.

Umuman, qarzdorning real moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda rejani bajarish muddatini qonuniy asosda uzaytirish sud nazoratini saqlash va kreditorlar hamda qarzdorning huquqiy manfaatlarini muvozanatli tarzda himoya qilishni maqsad qiladi.

11. Qonunchilik jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi sud ajrimini shikoyat qilinishi mumkin bo‘lgan protsessual hujjatlar qatoriga kiritishni aniq belgilaydi. Biroq muddatni uzaytirishni rad etish to‘g‘risidagi ajrim bo‘yicha alohida qoida nazarda tutilmagan.

Shunga qaramay, har ikki turdagi ajrim – ham uzaytirish, ham rad etish protsessual jihatdan mustaqil ahamiyatga ega bo‘lib, taraflarning huquq va majburiyatlariga bevosita ta’sir etuvchi huquqiy hujjat hisoblanadi. Ushbu ajrimlar qarzdorning moliyaviy holati, kreditorlarning qanoatlantirish darajasi va tartib-taomilning davom etishiga daxldor bo‘lgani sababli, ularni shikoyat qilinadigan ajrimlar turiga mantiqan va protsessual mazmunan kiritish lozim.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur ajrimlar ustidan qarzdor, kreditor yoki prokuror tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda apellyatsiya shikoyati yoki protest keltirilishi mumkin. Bu esa sud nazoratining to‘liq amalga oshirilishi, protsessual adolat va taraflar huquqlarining samarali himoya qilinishiga xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 805-b.

215-modda. Kreditorlar yig‘ilishining tashabbusiga ko‘ra jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga o‘zgartishlar kiritish

Jismoniy shaxsning mulkiy holati yaxshilangan taqdirda, kreditorlar yig‘ilishi jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilishga haqli.

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga o‘zgartishlar kiritish haqidagi iltimosnomada quyidagilar ko‘rsatiladi:

kreditorlarning jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan talablarini mazkur rejaga nisbatan rejalashtirilganidan qisqaroq muddatda va (yoki) ko‘proq muddatda qanoatlantirish imkoniyati;

jismoniy shaxsning mulkiy holati uning jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi tasdiqlangan sanadagi mulkiy holatiga nisbatan yaxshilanganligi dalillari aniqlanganligi;

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga o‘zgartishlar kiritishga doir takliflar.

Kreditorlar yig‘ilishining jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish haqidagi qarori ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan kreditorlarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Sud jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi haqidagi ishda ishtirok etayotgan shaxslarni jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgarti-

rish rejasiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi kreditorlar yig‘ilishining iltimosnomasi ko‘rib chiqiladigan sana haqida xabardor qiladi. Xabardor qilingan shaxslarning hozir bo‘lmasligi iltimosnomani ko‘rib chiqishga to‘sqinlik qilmaydi.

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi kreditorlar yig‘ilishining iltimosnomasini ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra sud quyidagi ajrimlardan birini qabul qiladi:

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan o‘zgartishlarni tasdiqlash haqida;

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan o‘zgartishlarni tasdiqlashni rad etish to‘g‘risida.

Mazkur moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan sud ajrimlari ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Sharhlanayotgan moddada jismoniy shaxsning mulkiy holati yaxshilangan taqdirda, kreditorlar yig‘ilishi tashabbusi bilan qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga o‘zgartishlar kiritish, ularni sud tomonidan ko‘rib chiqish va tasdiqlash tartibi belgilangan.

1. Jismoniy shaxsning mulkiy holati yaxshilangan taqdirda, kreditorlar yig‘ilishi tarkibiy o‘zgartirish rejasiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida sudga murojaat qilish huquqiga ega ekanligi to‘g‘risidagi norma qarzdor va kreditorlar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashga qaratilgan. Ushbu qoidaga ko‘ra, mulkiy holat yaxshilanishi qarzdorning daromadlari ortishi, yangi aktivlar paydo bo‘lishi, qarzdorning moliyaviy barqarorligi oshishi kabi holatlarni o‘z ichiga oladi.

Mulkiy holat yaxshilangani aniqlanganidan so‘ng kreditorlar yig‘ilishi amaldagi rejaning kreditorlar talablarini qondirish darajasiga mos kelmasligini baholash vakolatiga ega. Agar amaldagi reja qarzdorning yangilangan moliyaviy imkoniyatlarini inobatga olmagan bo‘lsa, kreditorlar yig‘ilishi rejaga o‘zgartish kiritish uchun sudga iltimosnoma bilan murojaat qilish huquqini amalga oshiradi.

Sud ariza yuborilganidan so‘ng rejaga o‘zgartish kiritishning asoslari mavjudligini, mulkiy holatning yaxshilanganini va kreditorlar manfaatlari bilan bog‘liq oqibatlarni mustaqil baholaydi.

Ushbu norma kreditorlar manfaatlarining kamayib qolmasligi, balki qarzdorning yaxshilangan iqtisodiy holati evaziga qarzlar to‘liqroq va adolatli tarzda qoplanishini ta’minlashga xizmat qilishga qaratilgan.

2. Ushbu norma jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi iltimosnomaga qo‘yiladigan majburiy talablarni belgilaydi. Unga muvofiq, taqdim etilgan iltimosnoma sud tomonidan ko‘rib chiqilishi uchun quyidagi ma’lumotlar albatta bayon etilgan bo‘lishi kerak.

Birinchidan, kreditorlar talablarini qanoatlantirish imkoniyati, ya’ni bunda sudga taqdim etilgan iltimosnomada kreditorlar talablarini amaldagi rejada belgilangan muddatga nisbatan qisqaroq davrda yoki ko‘proq hajmda qanoatlantirish imkoniyati mavjudligi asoslangan tarzda ko‘rsatilishi lozim.

Ikkinchidan, qarzdorning mulkiy holati yaxshilanganligi to‘g‘risidagi dalillar, ya’ni reja tasdiqlangan sanaga nisbatan jismoniy shaxsning mulkiy va moliyaviy holati yaxshilangani haqida aniq, tekshirish mumkin bo‘lgan dalillar iltimosnoma mazmunida bayon etilishi shart.

Uchinchidan, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga o‘zgartishlar kiritishga doir takliflar, ya’ni amaldagi tarkibiy o‘zgartirish rejasini qayta ko‘rib chiqish uchun taklif etilayotgan o‘zgartishlar, ularning mazmuni va qo‘llanilishi rejaga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar iltimosnomada yozma ravishda ifoda etilishi lozim.

Ushbu ma’lumotlar sudga rejaga o‘zgartish kiritish uchun qonunchilikda nazarda tutilgan huquqiy asoslar mavjud yoki mavjud emasligini baholash imkonini beradi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi iltimosnomaning kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ovoz berish orqali ko‘rib chiqilishi tartibini belgilaydi. Unga ko‘ra, kreditorlar yig‘ilishi tomonidan jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida sudga iltimosnoma bilan murojaat qilish haqida qaror qabul qilishda, ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan kreditorlar ishtirok etadi.

Kreditorlar yig‘ilishi qarori qonuniy va amaliy kuchga ega bo‘lishi uchun ko‘pchilik ovoz talab qilinadi. Bunda ovoz beruvchi kreditorlar orasida ko‘pchilik tarafdan ma’qullangan qarorgina qabul qilingan hisoblanadi. Qaror qabul qilinishi jarayonida har bir kreditorning ovoz berish huquqi teng asosda ta’minlanadi.

Bu tartib kreditorlar manfaatlarini muhofaza qilish va qarzdorning moliyaviy imkoniyatlariga muvofiq tarkibiy o‘zgartirish rejasini amalga oshirishda adolatli qaror qabul qilishni ta’minlaydi.

4. Ushbu normaga ko‘ra, sud jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxslarni kreditorlar yig‘ilishining jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi iltimosnomasi ko‘rib chiqiladigan sana haqida vaqtida xabardor qilish majburiyatiga ega.

Mazkur qoida asosida sud tomonidan ishda ishtirok etayotgan shaxslar sud majlisining vaqti va joyi haqida xabardor qilinadi. Ushbu chora-tadbirning asosiy maqsadi ishtirokchilarga protsess haqida ma’lumot berish va ularga o‘z huquqlarini sud jarayonida samarali qo‘llash imkonini yaratishdan iborat.

Xabardor qilingan shaxslar sud majlisida hozir bo‘lmasa ham, bu holat sud iltimosnomani ko‘rib chiqishiga to‘sqinlik qilmaydi. Sudning vazifasi taraflarni vaqtida va to‘liq xabardor qilish hamda iltimosnomani qonuniy va o‘z vaqtida muhokama qilish jarayonini ta’minlashdan iborat.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi kreditorlar yig‘ilishining iltimosnomasi sud tomonidan ko‘rib chiqilganda qabul qilinadigan sud ajrimlarini va ularning huquqiy oqibatlarini belgilaydi. Sud tomonidan ko‘rib chiqiladigan iltimosnoma natijasiga ko‘ra qabul qilinadigan ajrimda quyidagi ikki qarordan biri chiqariladi:

Birinchisi jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan o‘zgartishlarni tasdiqlash haqidagi ajrimi bo‘lib, ushbu qaror jismoniy shaxsning

qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan o‘zgartishlarni qonuniy va asosli deb topishni hamda ularning amalga oshirilishini tasdiqlaydi. Sud ajrimidan so‘ng rejadagi o‘zgartishlar rasmiy tarzda amal qila boshlaydi.

Ikkinchisi jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan o‘zgartishlarni tasdiqlashni rad etish to‘g‘risidagi ajrim bo‘lib, bu holatda sud o‘zgartishlarni qonuniy va asosli deb topmaydi yoki ularning kreditorlar manfaatlariga mos kelmasligini baholaydi va tasdiqlamaslik to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Iltimosnomani rad etish haqidagi sud ajrimi ham qonunchilikda belgilangan asoslar bilan asoslanishi shart.

6. Mazkur moddaning oltinchi qismida ko‘rsatilganidek, sud tomonidan qabul qilingan ushbu ajrimlar ustidan ishtirokchilar apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat qilish (prokuror protest keltirish) huquqiga ega. Qonunchilik bu norma orqali sudning ushbu qarori ustidan shikoyat bilan murojaat qilish huquqini belgilashi ishtirokchilarga qonuniy tartibda o‘z huquqini himoya qilish va norozilik bildirish imkonini beradi. Bu qarzdor va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish hamda sud qarorlarining adolatli va qonuniy bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

216-modda. Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarish

Qarzdor jismoniy shaxs moliyaviy boshqaruvchisi talabiga ko‘ra jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining bajarilishi to‘g‘risida axborot taqdim etadi.

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarish muddati tugashidan kamida bir oy oldin moliyaviy boshqaruvchi jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarish natijalari to‘g‘risida hisobot tayyorlashi shart.

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarish haqidagi hisobot kreditorlarning talablari qanoatlantirilganligini tasdiqlovchi hujjatlarning ko‘chirma nusxalari ilova qilingan holda talablari jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan kreditorlarga va tegishli vakolatli organga, shuningdek, sudga yuboriladi.

Agar kreditorlarning jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan talablari mazkur moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan hisobot ko‘rib chiqiladigan sanada qanoatlantirilmagan bo‘lsa yoki hisobot mazkur moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan muddatda taqdim etilmagan bo‘lsa, moliyaviy boshqaruvchi, kreditor yoki tegishli vakolatli organ kreditorlar yig‘ilishini chaqiradi.

Agar kreditorlarning jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan talablari hisobot ko‘rib chiqiladigan sanada qanoatlantirilmagan bo‘lsa, kreditorlar yig‘ilishi jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish hamda jismo-

niy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish haqidagi masalani ko‘rib chiqadi.

Kreditorlar yig‘ilishi jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining bajarilish muddati tugashidan kamida o‘n to‘rt kun oldin o‘tkazilishi kerak.

Hisobot va (yoki) kreditorlar yig‘ilishining jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish hamda jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash to‘g‘risidagi iltimosnomasi, shuningdek, kreditorlarning shikoyatlari sud majlisida ko‘rib chiqiladi. Sud ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra quyidagi sud hujjatlaridan birini qabul qiladi:

kreditorlarning rejada nazarda tutilgan talablari qanoatlantirilgan va (yoki) kreditorlarning shikoyatlari asossiz deb topilgan taqdirda, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini tamomlash haqidagi ajrimni;

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish haqidagi hamda jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash to‘g‘risidagi qarorni.

Sharhlanayotgan moddada jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarish to‘g‘risida axborot taqdim etish tartibi va muddati, unga rioya qilmaslik oqibatlari belgilangan.

1. Qarzdor jismoniy shaxs moliyaviy boshqaruvchisi talabiga muvofiq jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining bajarilishi to‘g‘risida axborot taqdim etishga majbur. Bu axborotning yozma shaklda taqdim etilishi moliyaviy boshqaruvchi va kreditorlar tomonidan uni solishtirib o‘rganish, qayd qilish hamda keyinchalik tekshirish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu normaning asosiy maqsadi moliyaviy boshqaruvchi va kreditorlarga qarzdorning moliyaviy ahvoli hamda rejaning amalda bajarilishini aniq va ochiq tarzda nazorat qilish imkonini berishdan iborat.

Axborot taqdim etish orqali moliyaviy boshqaruvchi rejaning bajarilishidagi kamchiliklarni aniqlay oladi, zarur hollarda tegishli chora-tadbirlarni ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, bu jarayon kreditorlar va moliyaviy boshqaruvchi uchun oshkoralikni ta’minlaydi, qarzdorning moliyaviy holati va rejaning samaradorligi to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish imkonini beradi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarish natijalari to‘g‘risida hisobot tayyorlash va taqdim etish muddati belgilanadi. Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarish muddati tugashidan kamida bir oy oldin moliyaviy boshqaruvchi jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarish natijalari to‘g‘risida hisobot tayyorlashi shart. Hisobot yozma shaklda tayyorlanadi va tegishli shaxslarga

taqdim etiladi, bu esa qarzdorning majburiyatlari va moliyaviy boshqaruvchining nazorat funksiyasini qonuniy tarzda amalga oshirishni kafolatlaydi. Shuningdek, hisobotning reja tugashidan kamida bir oy oldin tayyorlanishi moliyaviy boshqaruvchi va kreditorlarga rejaning bajarilishi haqida o‘z vaqtida ma’lumot olish va zarur choralarni ko‘rish imkonini beradi.

Bu normaning asosiy maqsadi tarkibiy o‘zgartirish rejasining bajarilishi jarayonida nazorat va hisobdorlikni ta’minlashdir. Hisobot moliyaviy boshqaruvchiga rejaning amaliy samaradorligini baholash, qarzdorning moliyaviy ahvoli va kreditorlar talablarini qondirish darajasini aniqlash imkonini beradi.

3. Ushbu normada jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarish haqidagi hisobot kreditorlarning talablari qanoatlantirilganligini tasdiqlovchi hujjatlarning ko‘chirma nusxalari ilova qilingan holda ushbu rejaga kiritilgan kreditorlarga, tegishli vakolatli organga hamda sudga yuborilishi tartibi belgilangan. Qoidaga ko‘ra, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarish haqidagi hisobotga kreditorlarning talablari qanoatlantirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi shart. Bunday hujjatlarga odatda bank to‘lov hujjatlari (to‘lov topshiriqnomalari, bank ko‘chirmalari), naqd pul to‘langan taqdirda, kassa orderlari yoki qabul qilish-berish dalolatnomalari, kreditor bilan hisob-kitob to‘liq amalga oshirilganini tasdiqlovchi dalolatnoma, qarzdorning majburiyati bekor qilingani yoki o‘zgarganini tasdiqlovchi kreditor yozma roziligi, qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa moliyaviy yoki hisob-kitob hujjatlari kirishi mumkin. Ushbu hujjatlar kreditorlar talablarining qay tartibda, qay muddatlarda va qay hajmda qanoatlantirilganini aniq tasdiqlab berishi lozim.

Hisobot va unga ilova qilingan hujjatlar jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan kreditorlarga, shuningdek, qonunchilikda belgilangan tegishli vakolatli organga va sudga yuboriladi.

Bu yerda «tegishli vakolatli organ» deganda jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi sohasida davlat nazoratini amalga oshiruvchi, qonunchilik bilan belgilangan vakolatli davlat organi tushuniladi. Qonunning 29-moddasida binoan, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi vakolatli davlat organi sifatida belgilangan. Ushbu organ hisobotni qabul qilish orqali tarkibiy o‘zgartirish rejasining bajarilishi ustidan belgilangan tartibda nazoratini amalga oshiradi.

Mazkur tartib hisobotning kreditorlarga, vakolatli organga va sudga yuborilishi tarkibiy o‘zgartirish rejasining bajarilishi ustidan samarali nazoratni ta’minlaydi, shuningdek, sudga ish yuzasidan yakuniy huquqiy baho berish imkonini yaratadi.

4. Ushbu norma jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarish jarayoni ustidan nazoratni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, unda kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiluvchi muhim protsessual mexanizm belgilangan. Xususan, agar kreditorlarning jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan talablari hisobot ko‘rib chiqiladigan sanaga qadar to‘liq qanoatlantirilmagan bo‘lsa yoki jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarish to‘g‘risidagi hisobot qonunchilikda belgilangan muddatda taqdim etilmagan bo‘lsa, bunday holat rejaning lozim darajada bajarilmayotganini anglatadi.

Shu munosabat bilan, normada moliyaviy boshqaruvchi, alohida kreditor yoki tegishli vakolatli organga kreditorlar yig‘ilishini chaqirish huquqi berilgan. Bu huquq rejaning bajarilishi holatini muhokama qilish, qarzdorning harakatlariga huquqiy baho berish, shuningdek, keyingi protsessual chora-tadbirlarni belgilash maqsadida amalga oshiriladi.

Kreditorlar yig‘ilishida, odatda, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini o‘zgartirish, uni bekor qilish, ishni keyingi bosqichga o‘tkazish yoki qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa choralarni qo‘llash masalalari ko‘rib chiqilishi mumkin.

Ushbu norma jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritishda protsessual intizomni ta’minlash, moliyaviy boshqaruvchi va qarzdorning mas’uliyatini oshirish hamda kreditorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishga qaratilgan.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismida agar jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan kreditorlar talablari hisobot ko‘rib chiqiladigan sanaga qadar qanoatlantirilmagan bo‘lsa, bu holatda jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining bajarilishi ustidan samarali nazoratni ta’minlash va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan muhim huquqiy mexanizm belgilangan.

Xususan, agar jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasiga kiritilgan kreditorlar talablari hisobot ko‘rib chiqiladigan sanada to‘liq qanoatlantirilmagan bo‘lsa, bu holat tarkibiy o‘zgartirish rejasi shartlarining bajarilmaganligini yoki samarasizligini anglatadi. Bunday vaziyatda qonunchilik kreditorlar yig‘ilishiga jismoniy shaxsga nisbatan qo‘llanilayotgan qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish masalasini muhokama qilish vakolatini beradi.

Shu bilan birga, kreditorlar yig‘ilishi jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash to‘g‘risida sudga iltimosnoma bilan murojaat qilish zaruratini ham ko‘rib chiqadi.

Ushbu norma kreditorlarga passiv kuzatuvchi emas, balki jarayonning faol ishtirokchisi sifatida harakat qilish imkonini beradi. Kreditorlar yig‘ilishi tomonidan tegishli qaror qabul qilinishi qarzdorning to‘lov intizomini kuchaytirish, rejaning bajarilishini ta’minlash yoki, aksincha, uni davom ettirish maqsadga muvofiq emas deb topilgan hollarda to‘lovga qobiliyatsizlik ishini keyingi bosqichga o‘tkazish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu tariqa, mazkur qoida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili samara bermagan taqdirda, kreditorlar huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning ta’sirchan vositasi bo‘lib xizmat qiladi hamda sudga jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi masalasini ko‘rib chiqish uchun asos yaratadi.

6. Ushbu normaga ko‘ra, kreditorlar yig‘ilishi jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining bajarilish muddati tugashidan kamida o‘n to‘rt kun oldin o‘tkazilishi shartligi belgilangan. Bu me’yor kreditorlar yig‘ilishining samarali va qonuniy o‘tkazilishini ta’minlashga qaratilgan.

Mazkur muddatning belgilanishi qator huquqiy va amaliy vazifalarni hal etishga xizmat qiladi. Xususan, kreditorlarga yig‘ilishda muhokama qilinadigan masalalarni oldindan tahlil etish, hujjatlarni ko‘rib chiqish va o‘z pozitsiyasini aniqlash imkonini

beradi. Qarzdor, moliyaviy boshqaruvchi va boshqa ishtirokchilar yig‘ilish vaqti va joyidan o‘z vaqtida xabardor qilingan bo‘lishi lozim. Belgilangan muddat kreditorlar va moliyaviy boshqaruvchi uchun rejaning bajarilishini kuzatish, talablarni baholash va zarur hollarda tegishli choralarni ko‘rish imkonini yaratadi.

Ushbu qoidalar jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi bilan bog‘liq qarorlarni qabul qilish jarayonini tartibli, adolatli va samarali tashkil etishga qaratilgan.

7. Mazkur moddaning yettinchi qismida jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritishning muhim protsessual qoidalarini, sud tomonidan jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili bo‘yicha yakuniy qaror qabul qilish mexanizmini belgilaydi. Unga muvofiq, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bajarish to‘g‘risidagi hisobot, kreditorlar yig‘ilishining ushbu tartib-taomilni muddatidan ilgari tugatish, jismoniy shaxsni bankrot deb topish hamda uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash haqidagi iltimosnomasi, shuningdek, kreditorlar tomonidan berilgan shikoyatlar sud majlisida ko‘rib chiqilishi shartligi nazarda tutiladi.

Bu qoida ushbu masalalar yopiq yoki soddalashtirilgan tartibda emas, balki aynan ochiq sud majlisida, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlarini ta’minlagan holda hal etilishini belgilab beradi. Sababi, sud majlisida ishda ishtirok etuvchi har bir shaxs o‘z fikr-mulohazalarini bildirish, dalillar keltirish, e’tirozlar bildirish va o‘z huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Sud hisobot, kreditorlar yig‘ilishining iltimosnomasi hamda kreditorlar shikoyatlarini sud majlisida ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra ishning holatidan kelib chiqqan holda ikki xil sud hujjatidan birini qabul qiladi.

Birinchidan, agar sud kreditorlarning jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida nazarda tutilgan talablari to‘liq qanoatlantirilganini va (yoki) kreditorlar tomonidan berilgan shikoyatlar asossiz ekanini aniqlasa, u jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini tamomlash to‘g‘risida ajrim qabul qiladi. Ushbu ajrim mazkur tartib-taomilning muvaffaqiyatli yakunlanganini, jismoniy shaxs o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarganini hamda ishning keyingi bosqichga o‘tkazilishiga ehtiyoj yo‘qligini anglatadi.

Ikkinchidan, agar sud jismoniy shaxs tomonidan qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi shartlari bajarilmaganini, kreditorlar talablari qanoatlantirilmaganini yoki ularning shikoyatlari asosli ekanini aniqlasa, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish haqida qaror qabul qiladi. Ayni paytda, sud jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash to‘g‘risida qaror chiqaradi.

Shu tariqa, ushbu norma sudga ishning haqiqiy holatidan kelib chiqib qarzdor va kreditorlar manfaatlari o‘rtasida adolatli muvozanatni ta’minlaydigan yakuniy protsessual qaror qabul qilish vakolatini beradi hamda jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritishda huquqiy aniqlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 805-b.

217-modda. Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish

Sud jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini quyidagi hollarda muddatidan ilgari tugatadi:

rejada va unga ilova qilingan hujjatlarda noto‘g‘ri ma’lumotlar mavjud bo‘lganda;

agar kreditorning yoki tegishli vakolatli organning shikoyatlari (arizalari) mavjud bo‘lsa, jismoniy shaxsning kreditorlarni mulkiy holatining muhim o‘zgarishlari to‘g‘risida xabardor qilishga doir majburiyati rejada belgilangan tartibda bajarilmaganda;

kreditor yoki tegishli vakolatli organ oldidagi rejaga kiritilgan majburiyatlar jismoniy shaxs tomonidan bajarilmaganda.

Mazkur moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan hollarda kreditor yoki tegishli vakolatli organ jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risida sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Kreditorning yoki tegishli vakolatli organning jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish haqidagi arizasiga ushbu arizaning ko‘chirma nusxalari to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yuborilganligini tasdiqlovchi dalillar ilova qilinishi kerak.

Kreditorning yoki tegishli vakolatli organning jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish haqidagi arizasi mazkur ariza olingan sanadan e’tiboran o‘n kunlik muddat ichida sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Agar kreditorning yoki tegishli vakolatli organning jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risidagi shikoyatini (arizasini) ko‘rib chiqish chog‘ida jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining shartlariga muvofiq jismoniy shaxs o‘zining kreditor yoki tegishli vakolatli organ oldidagi majburiyatlarini bajarmaganligi aniqlansa, sud jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish hamda jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash haqida qaror qabul qiladi.

Sharhlanayotgan moddada jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili noto‘g‘ri ma’lumotlar taqdim etilganda, kreditorlarni xabardor qilish majburiyati bajarilmaganda yoki rejadagi majburiyatlar bajarilmaganda sud tomonidan muddatidan ilgari tugatilishi va bunda jismoniy shaxsni bankrot deb topish hamda uning mol-mulkini sotish tartib-taomili boshlanishi mumkinligi belgilangan.

1. Ushbu norma jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilining adolatli, oshkora va vijdonan amalga oshirilishini ta’minlashga qaratilgan

muhim kafolat sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu norma sudga belgilangan muddat tugamasidan oldin ham mazkur tartib-taomilni tugatish vakolatini beruvchi quyidagi huquqiy asoslarni belgilaydi.

Birinchidan, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida yoki unga ilova qilingan hujjatlarda noto‘g‘ri, yolg‘on yoki chalg‘ituvchi ma’lumotlarning mavjud bo‘lishi sudni ish yuritishda asossiz uzaytirishga, kreditorlarning haqiqiy moliyaviy holati haqida noto‘g‘ri tasavvur hosil qilishga olib kelishi mumkin. Shu bois bunday holat qarzdorning nopok harakati sifatida baholanib, tartib-taomilni muddatidan ilgari tugatish uchun mustaqil va yetarli huquqiy asos hisoblanadi.

Ikkinchidan, agar kreditor yoki tegishli vakolatli organ tomonidan shikoyat (ariza) berilgan bo‘lsa va jismoniy shaxs rejada belgilangan tartibda o‘z mulkiy holatidagi muhim o‘zgarishlar to‘g‘risida kreditorlarni xabardor qilish majburiyatini bajarmagan bo‘lsa, bu holat ochiqlik prinsipi buzilganini ko‘rsatadi. Bunday axborotni yashirish kreditorlarning o‘z huquqlarini o‘z vaqtida amalga oshirish imkoniyatini cheklaydi hamda sud tomonidan tartib-taomilni davom ettirish maqsadga muvofiq emas deb topilishiga asos bo‘ladi.

Uchinchidan, jismoniy shaxs tomonidan rejaga kiritilgan majburiyatlarni, jumladan, kreditor yoki tegishli vakolatli organ oldidagi to‘lov, hisobot taqdim etish yoki boshqa shartlarni bajarmaslik rejaning amalga oshirilmasligini anglatadi. Bu esa qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilining maqsadlariga erishilmaganini ko‘rsatib, sudga uni muddatidan ilgari tugatish huquqini beradi.

Umuman olganda, ushbu norma jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilidan vijdonsiz yoki suiiste’mol tarzida foydalanishning oldini olishga, kreditorlar huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga hamda to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarida qonuniylik va protsessual adolat prinsiplarini ta’minlashga qaratilgan.

2. Ushbu norma jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili ustidan samarali sud nazoratini ta’minlashga qaratilgan muhim protsessual mexanizmni belgilaydi. Unga ko‘ra, agar mazkur moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan holatlar, ya’ni jismoniy shaxs tomonidan tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi shartlarining qo‘pol yoki tizimli ravishda buzilishi, noto‘g‘ri ma’lumotlar taqdim etilishi, majburiyatlarni bajarmaslik yoki kreditorlar manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazuvchi boshqa holatlar aniqlansa, kreditor yoki tegishli vakolatli organ sudga murojaat qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Bu huquq kreditor yoki vakolatli organga (Davlat aktivlarini boshqarish agentligi) qarzdorning nopok yoki samarasiz harakatlariga nisbatan passiv kuzatuvchi bo‘lib qolmasdan, sud orqali faol ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi. Sudga murojaat qilish orqali ular tartib-taomilni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligini asoslab berish, reja bajarilmaganini yoki qonun talablari buzilganini dalillar bilan ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Sud ushbu murojaatni ko‘rib chiqish jarayonida ish materiallarini, qarzdor va moliyaviy boshqaruvchining tushuntirishlarini, kreditorlar fikrlarini hamda boshqa dalillarni baholaydi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risida sudga murojaat qilishda protsessual tartibga qat’iy rioya etilishini ta’minlashga qaratilgan. Unga ko‘ra, kreditor yoki tegishli vakolatli organ tomonidan berilgan arizaga ushbu arizaning ko‘chirma nusxalari to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan barcha shaxslarga yuborilganligini tasdiqlovchi dalillar majburiy tartibda ilova qilinishi lozimligi nazarda tutiladi. Bu talab protsessual tenglik va tortishuv prinsiplarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bunda ishda ishtirok etuvchi shaxslar, jumladan, qarzdor, moliyaviy boshqaruvchi va boshqa kreditorlar sudga kiritilayotgan talablar haqida oldindan xabardor bo‘lishi, arizaning mazmuni bilan tanishishi hamda o‘z e’tirozlari yoki tushuntirishlarini tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Ariza ko‘chirma nusxalarining yuborilganligini tasdiqlovchi dalillar sifatida, odatda, pochta kvitansiyalari, elektron sud tizimi orqali yuborilgani haqidagi elektron tasdiqnomalar yoki qonunchilikda ruxsat etilgan boshqa rasmiy hujjatlar qabul qilinadi. Bunday dalillar arizaning protsessual talablarga muvofiq rasmiylashtirilganini ko‘rsatadi.

4. Ushbu norma kreditor yoki tegishli vakolatli organ tomonidan jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risida sudga taqdim etilgan arizani ko‘rib chiqish muddatini belgilaydi. Unga ko‘ra, ariza sudga kelib tushgan sanadan e’tiboran o‘n kunlik muddat ichida ko‘rib chiqilishi lozim. Bu qoida protsessual tezkorlik va samaradorlikni ta’minlashga qaratilgan. Arizaning tezkor ko‘rib chiqilishi sudga jismoniy shaxsning moliyaviy holati va kreditorlar manfaatlari ustidan samarali nazoratni amalga oshirish, ishda ishtirok etayotgan barcha shaxslarga o‘z huquq va manfaatlarini o‘z vaqtida himoya qilish imkonini beradi.

Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish haqidagi arizani ko‘rib chiqish uchun belgilangan o‘n kunlik muddat ham ayrim holatlarda, sud tomonidan asosli deb topilgan sabablar mavjud bo‘lsa, uzaytirilishi mumkin. Masalan, arizada ko‘rsatilgan holatlarni qo‘shimcha tekshirish zarur bo‘lsa, ishda ishtirok etayotgan shaxslarning xabardor qilinganligi va ularning huquqlarini himoya qilish uchun qo‘shimcha vaqt talab etilsa yoki jismoniy shaxsning moliyaviy holati yoxud hujjatlarni to‘liq taqdim etishda kechikish yuz bersa, sud ushbu protsessual muddatni uzaytirishi istisno etilmaydi.

Shu bilan birga, sud muddatni uzaytirishda protsessual adolat, barcha ishtirokchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish prinsiplarini hisobga olishi shart. Uzaytirish sud tomonidan rasmiy ajrim bilan belgilanadi va ishtirokchilarga xabardor qilinadi.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismi sudga kreditor yoki tegishli vakolatli organ tomonidan berilgan jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risidagi shikoyat (ariza)ni ko‘rib chiqishda muhim huquqiy mexanizmni nazarda tutadi.

Agar sud tekshirish jarayonida jismoniy shaxs tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasida o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmaganini aniqlasa, bu holat kreditorlar manfaatlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi va tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilining maqsadlari amalga oshmaydi. Mazkur holatda sud qonunchilikda nazarda tutilgan mexanizmlardan foydalanib tartib-taomilni muddatidan ilgari tugatish haqida qaror qabul qiladi.

Bundan tashqari, sud jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash haqida ham qaror chiqarishi mumkin. Bu jarayon kreditorlar huquqlarini himoya qilish va qarzdorning nopok harakatlariga nisbatan samarali huquqiy oqibatlar qo‘llashga xizmat qiladi.

Ushbu norma, shuningdek, protsessual adolatni ta’minlaydi: ishda ishtirok etayotgan shaxslar, shu jumladan, kreditorlar, tegishli vakolatli organ va moliyaviy boshqaruvchi o‘z huquqlarini sud orqali himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Sudning qarorlari qonuniy va asosli bo‘lishi, tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilidan suiiste’mol qilishning oldi olinishi ushbu norma maqsadlariga kiradi.

Shu tariqa, mazkur qoida qarzdor va kreditorlar o‘rtasidagi huquqiy muvozanatni saqlash, sud nazoratini samarali amalga oshirish va to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarida qonuniylikni ta’minlashga xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 805-b.

218-modda. Jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotishni boshlash

Sud jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash to‘g‘risida quyidagi hollarda qaror qabul qiladi, agar:

jismoniy shaxs sud tomonidan ushbu Qonun 200-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq zimmasiga yuklatilgan majburiyatni uzrli sabablarsiz bajarmagan bo‘lsa;

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi ushbu Qonunning 207-moddasida belgilangan muddatda taqdim etilmagan bo‘lsa;

jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tasdiqlash sud tomonidan rad etilgan bo‘lsa.

Jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili ko‘pi bilan olti oy muddatga joriy etiladi. Zarur bo‘lganda bu muddat to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxslarning iltimosnomasiga ko‘ra yoki sudning tashabbusi bilan ko‘pi bilan uch oy muddatga uzaytirilishi mumkin.

Agar kreditorlar yig‘ilishi tomonidan jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomilini o‘tkazish uchun uning moliyaviy boshqaruvchisi nomzodi taqdim etilmagan bo‘lsa, sud jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini o‘tkazgan moliyaviy boshqaruvchini tayinlaydi.

Jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomili boshlangan taqdirda, sud jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketishga bo‘lgan huquqini vaqtincha cheklash haqida ajrim chiqarishga haqli.

Jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqishga bo‘lgan huquqi jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini tamomlash yoki tugatish haqida, shuningdek, kelishuv bitimini tasdiqlash to‘g‘risida ajrim chiqariladigan kunga qadar cheklanadi.

Jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketishi talab etiladigan uzrli sabab mavjud bo‘lgan taqdirda, sud jismoniy shaxsning iltimosnomasiga ko‘ra hamda kreditorlarning va moliyaviy boshqaruvchining fikrlarini inobatga olgan holda jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketishga bo‘lgan huquqini vaqtincha cheklash to‘g‘risidagi ajrimni muddatidan ilgari bekor qilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketishga bo‘lgan huquqiga vaqtincha cheklov belgilash va uni bekor qilish to‘g‘risidagi ajrimlarning ko‘chirma nusxalari jismoniy shaxsga hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo‘shinlariga yuboriladi.

Jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash jarayonida kreditorlarning hamda tegishli vakolatli organning talablari ushbu Qonunda belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishi lozim. Kreditor kreditorlarning talablari reyestriga kiritish uchun o‘z talablarini belgilangan muddatda uzrli sabablarga ko‘ra bildirmagan, moliyaviy boshqaruvchi tomonidan kreditorlarning talablari reyestriga kiritilmaganligidan yoki reyestrning talablarini qanoatlantirish navbatidan norozi bo‘lgan hollarda sudga murojaat qilishga haqli.

Kredit tashkilotlari jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili boshlanganda to‘lovga qobiliyatsiz deb topilgan jismoniy shaxsning mavjud omonatlari, hisobvaraqlari va mablag‘lari haqida, shuningdek, boshqa mol-mulki hamda bank yacheykasining (seyfning) ijara shartnomasi to‘g‘risida moliyaviy boshqaruvchining so‘rovi asosida axborot taqdim etishi shart.

Sharhlanayotgan moddada sud tomonidan jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish taomilini boshlash asoslari, muddatlari, ushbu taomil joriy etilishining huquqiy oqibatlari, jismoniy shaxsning harakatlanishi cheklanishi, kreditorlar talablarini ko‘rib chiqish tartibi kabilar belgilangan.

1. Jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili samara bermagan yoki qarzdor tomonidan reja shartlari lozim darajada bajarilmagan hollarda qo‘llaniladigan eng qat’iy huquqiy oqibat jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash masalasidir.

Ushbu norma sudga jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun aniq va cheklangan huquqiy asoslarni nazarda tutadi.

Birinchidan, agar jismoniy shaxs sud tomonidan ushbu Qonunning 200-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni uzrli sabablarsiz bajarmagan bo‘lsa, sud jismoniy shaxsni bankrot deb topish masalasini hal qilishga haqli bo‘ladi. Bu holat qarzdorning sud bilan hamkorlik qilmasligi, ishni ko‘rib chiqish uchun zarur axborot va hujjatlarni taqdim etmasligi yoki qonun bilan belgilangan talab-

larni bajarishdan bo‘yin tovlashi bilan ifodalanishi mumkin. Mazkur asos qarzdorning vijdonli ishtirokchi sifatida harakat qilmasligiga huquqiy baho berishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasi Qonunning 207-moddasida belgilangan muddatda taqdim etilmagan bo‘lsa, sud bunday harakatsizlikni qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashdan voz kechishi yoki buni amalga oshirish imkoniyati yo‘qligi sifatida baholaydi. Bu holatda qonun tarkibiy o‘zgartirish mexanizmini qo‘llashni maqsadga muvofiq emas deb hisoblab, to‘g‘ridan to‘g‘ri bankrot deb topish va mol-mulkni sotish tartib-taomiliga o‘tish imkoniyatini nazarda tutadi.

Uchinchidan, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tasdiqlash sud tomonidan rad etilgan taqdirda ham jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash uchun huquqiy asos vujudga keladi. Bunday rad etish, odatda, rejaning qonun talablariga javob bermasligi, uning amaliy jihatdan bajarib bo‘lmasligi yoki kreditorlar manfaatlarini yetarli darajada ta’minlamasligi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Umuman olganda, ushbu norma jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi ishida tartib-taomillar ketma-ketligini va ularning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlaydi. Sud jismoniy shaxsni bankrot deb topish to‘g‘risida qaror qabul qilish orqali qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish imkoniyatlari amalda samara bermaganini e’tirof etadi. Bu esa, bir tomondan, kreditorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, ikkinchi tomondan, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining asossiz cho‘zilib ketishiga chek qo‘yishga xizmat qiladi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilining muddat jihatidan cheklangan ekanligini hamda uning sun’iy ravishda cho‘zib yuborilishining oldini olishga qaratilgan muddatlarni belgilaydi.

Qonunga muvofiq, jismoniy shaxsni bankrot deb topish va mol-mulkini sotish tartib-taomili ko‘pi bilan olti oy muddatga joriy etiladi. Ushbu muddat to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonini oqilona va samarali tarzda amalga oshirish, shuningdek, kreditorlar talablarini o‘z vaqtida qanoatlantirishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Mazkur olti oylik muddat davomida qarzdor jismoniy shaxsning mol-mulkini aniqlash, uni baholash, realizatsiya qilish hamda tushgan mablag‘larni qonunchilikda belgilangan navbatlar bo‘yicha taqsimlash bilan bog‘liq asosiy protsessual harakatlar amalga oshirilishi lozim. Shu orqali sud hamda moliyaviy boshqaruvchi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni belgilangan vaqt doirasida bajarish majburiyati yuzaga keladi.

Shu bilan birga, qonun mazkur tartib-taomilning muddatini istisno tariqasida uzaytirish imkoniyatini ham nazarda tutadi. Agar ishning murakkabligi, mol-mulk tarkibining ko‘pligi, baholash yoki sotish jarayonlarining obyektiv sabablarga ko‘ra yakunlanmaganligi kabi holatlar mavjud bo‘lsa, tartib-taomil muddati ko‘pi bilan uch oygacha uzaytirilishi mumkin. Bunday uzaytirish to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxslarning asosli iltimosnomasiga ko‘ra yoki sudning o‘z tashabbusi bilan amalga oshiriladi.

Ushbu normaning huquqiy ahamiyati shundan iboratki, u bir vaqtning o‘zida ham protsessual cheklangan muddatni, ham ish ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta’minlaydi. Bunda bankrot deb topish va mol-mulkni sotish tartib-

taomili belgilangan muddatlar doirasida amalga oshirilishi shart bo‘lib, muddatning asossiz ravishda uzaytirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi, zarurat tug‘ilgan hollarda esa faqat qonun bilan cheklangan doirada uzaytirishga ruxsat etiladi.

3. Ushbu norma jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini samarali hamda uzluksiz amalga oshirishni ta’minlashga qaratilgan muhim tashkiliy-huquqiy qoidani belgilaydi. Qonunchilik talabiga ko‘ra, odatda jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomilini o‘tkazish uchun moliyaviy boshqaruvchi bo‘yicha nomzod masalasi kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ko‘rib chiqilib, hal etiladi. Biroq amalda bunday vakolat hamisha ham ta’minlanmasligi mumkin. Ushbu normada belgilanganidek, agarda kreditorlar yig‘ilishi tomonidan jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomilini o‘tkazish uchun moliyaviy boshqaruvchining muayyan nomzodi taqdim etilmagan bo‘lsa, sud bo‘shliq holati yuzaga kelishining oldini olish maqsadida moliyaviy boshqaruvchini mustaqil ravishda tayinlash imkoniyatini ko‘rib chiqadi.

Bunda sud tomonidan tayinlanadigan moliyaviy boshqaruvchi sifatida, odatda, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomilini amalga oshirgan moliyaviy boshqaruvchi belgilanadi. Bu yechim to‘lovga qobiliyatsizlik ishida muntazamlik va izchillik tamoyillarini ta’minlaydi, chunki mazkur moliyaviy boshqaruvchi qarzdorning moliyaviy holati, aktivlari, majburiyatlari hamda kreditorlar tarkibi bilan avvaldan tanish bo‘ladi.

Mazkur qoida, bir tomondan, kreditorlarning moliyaviy boshqaruvchi nomzodini taklif etish huquqini saqlab qolsa, ikkinchi tomondan, ular tomonidan ushbu huquq amalga oshirilmagan taqdirda, sudga tartib-taomilni to‘xtab qolmasdan davom ettirish imkonini beradi. Shu orqali jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish jarayonining kechikishi, kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazilishi yoki protsessual muddatlar buzilishining oldi olinadi.

Shu bilan birga, sud tomonidan avvalgi moliyaviy boshqaruvchining tayinlanishi uning professional javobgarligi va hisobdorligini oshiradi, chunki u avval boshlangan tartib-taomillarni mantiqan davom ettirish hamda ularning natijasi uchun javob berish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. Demak, ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarida samaradorlik, protsessual uzluksizlik va adolat tamoyillarini ta’minlashga qaratilgan.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismida jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilining samarali amalga oshirilishini ta’minlashga qaratilgan sud tomonidan ta’minlovchi protsessual chorani qo‘llash mumkinligi belgilanadi. Unga muvofiq, jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomili boshlangan taqdirda, sud jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketishga bo‘lgan huquqini vaqtincha cheklash to‘g‘risida ajrim chiqarish huquqiga ega bo‘ladi.

Mazkur cheklov jismoniy shaxsning harakat erkinligini butunlay bekor qilishni emas, balki to‘lovga qobiliyatsizlik ishi doirasida qonunchilikda belgilangan maqsadlarga erishish uchun vaqtinchalik va mutanosib chora sifatida qo‘llaniladi. Ushbu choraning asosiy maqsadi qarzdorning mol-mulkni sotish jarayonidan qochib ketishi, sud va moliyaviy boshqaruvchi talablarini bajarmasligi yoxud to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilini suiiste’mol qilishining oldini olishdan iborat.

Sud tomonidan bunday ajrim chiqarish qarzdorning ishda ishtirok etishini ta’minlash, mol-mulkni aniqlash va realizatsiya qilish jarayonida uning ishtirokini zarur darajada kafolatlash hamda kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Ayni paytda, ushbu cheklov qonunchilikka muvofiq belgilangan asoslar mavjud bo‘lgandagina qo‘llanilishi va tartib-taomil yakunlanganidan so‘ng yoki unga ehtiyoj qolmagan taqdirda sud bekor qilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomili boshlangan taqdirda, uning O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish huquqini vaqtincha cheklash to‘g‘risida sud tomonidan chiqarilgan ajrim shaxsning konstitutsiyaviy huquqlariga daxl qiladigan protsessual hujjat hisoblanadi. Shu sababli u qonunchilikda belgilangan tartibda apellyatsiya shikoyati yoki protesti tartibida yuqori turuvchi sudga shikoyat qilinishi mumkin. Ushbu norma, bir tomondan, kreditorlar huquqlarini ishonchli himoya qilishga, ikkinchi tomondan, jismoniy shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari bilan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili manfaatlari o‘rtasida muvozanatni saqlashga qaratilgan muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi.

5. Ushbu norma jismoniy shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqish huquqini vaqtincha cheklash chorasining huquqiy tabiati, amal qilish doirasi va tugash asoslarini aniq belgilaydi. Unga ko‘ra, mazkur cheklov jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili amal qilayotgan butun davr mobaynida saqlanadi hamda ushbu tartib-taomilni tamomlash yoki tugatish to‘g‘risida sud ajrimi qabul qilingan kunga qadar amal qiladi.

Shuningdek, taraflar o‘rtasida kelishuv bitimi tuzilib, u sud tomonidan tasdiqlangan taqdirda ham jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqish huquqiga nisbatan qo‘llanilgan cheklov bekor qilinishi lozimligi nazarda tutilgan. Bu holat kelishuv bitimi qarzdor va kreditorlar o‘rtasidagi nizoni tinch yo‘l bilan hal etishga qaratilgan huquqiy natija sifatida e’tirof etilishini va to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilining keyingi bosqichlariga ehtiyoj qolmasligini anglatadi.

Mazkur cheklovning aniq muddat bilan bog‘lanishi uning vaqtinchalik, istisno va ta’minlovchi chora ekanligini ko‘rsatadi. Bunda sud qarzdorning chiqish huquqini faqatgina to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilining qonuniy maqsadlariga erishish uchun, jumladan, mol-mulkni aniqlash, baholash, realizatsiya qilish hamda kreditorlar talablarini qanoatlantirish jarayonini ta’minlash maqsadida cheklaydi. Ushbu maqsadlarga erishilgandan so‘ng cheklov saqlanib qolishiga huquqiy asos mavjud bo‘lmaydi.

6. Ushbu norma jismoniy shaxsga nisbatan qo‘llanilgan O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish huquqini vaqtincha cheklash chorasini istisno holatlarda muddatidan ilgari bekor qilish imkoniyatini ham nazarda tutadi. Unga ko‘ra, agar jismoniy shaxsning mamlakat hududidan chiqib ketishi obyektiv va uzrli sabablar bilan bog‘liq bo‘lsa, sud uning asosli iltimosnomasiga ko‘ra mazkur cheklovni sud tomonidan belgilangan muddatidan oldin bekor qilishi mumkin.

Ushbu normaning mazmuniga ko‘ra, «uzrli sabab» deganda jismoniy shaxsning shaxsiy xohishiga bog‘liq bo‘lmagan, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish yoki qonun bilan kafolatlangan majburiyatlarni bajarish zaruratidan kelib chiqadigan holatlar tushuniladi. Bunday sabablarga, xususan, og‘ir kasallik munosabati bilan davola-

nish zarurati, yaqin qarindoshining og‘ir ahvoli yoki vafoti, xorijda xizmat safari yoki ish faoliyati bilan bog‘liq majburiyatlarni bajarish kabi holatlar kiritilishi mumkin.

Shu bilan birga, sud mazkur masalani hal etishda faqat jismoniy shaxsning iltimosnomasi bilan cheklanib qolmaydi, balki kreditorlarning hamda moliyaviy boshqaruvchining fikrlarini inobatga olishi shart. Bu talab to‘lovga qobiliyatsizlik ishida ishtirok etuvchi barcha taraflar manfaatlarining o‘zaro muvozanatini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, cheklovning bekor qilinishi kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazmasligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Sud ushbu cheklovni muddatidan ilgari bekor qilish masalasini hal etar ekan, jismoniy shaxsning chiqib ketishi to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilining borishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi, mol-mulkni aniqlash va sotish jarayoniga to‘sqinlik qilmasligi hamda qarzdorning keyinchalik sud va moliyaviy boshqaruvchi talablarini bajarishini kafolatlovchi omillar mavjudligini baholaydi. Demak, ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarida qat’iy cheklovlarni mutlaq qoida sifatida emas, balki inson huquqlariga hurmat va adolat tamoyillari asosida moslashuvchan tarzda qo‘llash imkoniyatini ta’minlaydi.

7. Ushbu norma jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish huquqiga vaqtincha cheklov qo‘yish va uni bekor qilish to‘g‘risida sud tomonidan qabul qilingan ajrimlarning amalga oshirilish tartibini va ijro kafolatini belgilaydi. Unga ko‘ra, sud ajrimining ko‘chirma nusxasi jismoniy shaxsga mustaqil ravishda taqdim etiladi, shuningdek, uning ijrosini ta’minlash uchun Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo‘shinlariga ham yuboriladi.

Bu talab cheklovning samarali ijrosini kafolatlash va to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilidagi mol-mulkni sotish hamda kreditorlar talablarini qonuniy qanoatlantirish jarayonida qarzdorning hududdan chiqib ketishining oldini olish maqsadini ko‘zlaydi.

Shu bilan birga, ushbu norma jismoniy shaxsga ham ajrim mazmuni haqida to‘liq ma’lumot olish imkonini beradi va uning huquqiy manfaatlarini himoya qiladi. Chegara qo‘shinlari esa bu ma’lumotga asosan shaxsning chiqishini cheklash yoki cheklovni bekor qilish choralarini amalga oshirish vazifasini yuklatilgan holda ado etadi. Mazkur qoida to‘lovga qobiliyatsizlik ishida jismoniy shaxsning huquqlari bilan kreditorlar va davlat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi muhim protsessual mexanizm hisoblanadi.

8. Ushbu normada jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash jarayonida kreditorlar va tegishli vakolatli organ talablarining to‘liq va qonuniy tartibda ko‘rib chiqilishini belgilaydi. Ushbu qoida to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilida ishtirok etayotgan barcha taraflar huquqlarini himoya qilish va jarayonning ochiqligini ta’minlashga qaratilgan mexanizmdir.

Ushbu norma bir necha asosiy jihatlarni belgilaydi. Xususan, kreditor to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilida o‘z talabini belgilangan muddatda bildirishi va moliyaviy boshqaruvchi tomonidan talablari reyestrga kiritilishi talab qilinadi.

Agar kreditor o‘z talabini belgilangan muddatda uzrli sabablarga ko‘ra bildirmagan bo‘lsa, sudga murojaat qilish huquqiga ega bo‘ladi. Shuningdek, agar moliyaviy bosh-

qaruvchi tomonidan kreditorning talablari reyestrga kiritilmagan bo‘lsa, kreditor ham sudga murojaat qilish orqali o‘z huquqini himoya qilishi mumkin. Bundan tashqari, agar kreditor reyestrda belgilangan qanoatlantirish navbati bilan rozi bo‘lmasa, ya’ni undan norozi bo‘lsa, u ham sud orqali o‘z huquqlarini himoya qilish imkoniyatidan foydalanishi mumkin.

Mazkur qoidalar kreditorning huquqlarini himoya qiladi va to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilidagi manfaatlarini ta’minlaydi. Sud ariza asosida bu holatni tahlil qiladi va kreditor talablarining qonuniy va asosli tarzda himoya qilinishini ta’minlaydi.

9. Mazkur moddaning to‘qqizinchi qismida jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili boshlangan holatda kredit tashkilotlari va moliyaviy boshqaruvchi o‘rtasidagi axborot almashish tartibi belgilangan. Ushbu normaning maqsadi to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilida mol-mulkni aniqlash uni samarali boshqarish va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishni ta’minlashdir.

Jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili boshlanganda kredit tashkilotlari moliyaviy boshqaruvchining so‘roviga muvofiq quyidagi ma’lumotlarni taqdim etishi shart: a) to‘lovga qobiliyatsiz deb topilgan jismoniy shaxsning omonatlari, hisobvaraqlari va mablag‘lari; b) jismoniy shaxsga tegishli boshqa mol-mulk, shu jumladan, qozonish imkoniyatiga ega bo‘lgan aktivlar; d) bank yacheykasi (seyf) ijara shartnomasi va unda saqlanayotgan mol-mulk to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Taqdim etilgan axborot moliyaviy boshqaruvchiga jismoniy shaxsning mol-mulkini to‘liq va aniq aniqlash, to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilida uni sotish yoki qonuniy qo‘llanishini ta’minlash imkonini beradi. Bu jarayon kreditorlar manfaatlarini himoya qilish, mol-mulkning noqonuniy qo‘llanilishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda to‘lovga qobiliyatsizlik ishida ochiqlik va hisobdorlik prinsiplarini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi. Shuningdek, axborot moliyaviy boshqaruvchi so‘rovi asosida taqdim etiladi, uning taqdim etilishi kreditorlar va sudning huquqiy nazorati ostida bo‘ladi. Kredit tashkilotlari ma’lumotlarni taqdim etishdan bo‘yin tovlamasligi lozim, aks holda, qonunchilikda belgilangan majburiyatlarni buzgan hisoblanadi.

Umuman, mazkur qoida to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilida kreditorlar manfaatlarini himoya qilishni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, jismoniy shaxsning mol-mulki to‘g‘risidagi axborotni taqdim etishda kredit tashkilotlari va moliyaviy boshqaruvchining huquq va majburiyatlarini aniqlaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 805-b.

219-modda. Jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish

Jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilingan paytdan e’tiboran jismoniy shaxsning aniqlangan yoki mazkur tartib-taomil boshlanganidan keyin sotib olingan barcha mol-mulki tugatish massasini tashkil etadi, bundan «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 52-moddasida nazarda tutilgan hamda undiruvni qaratish mumkin bo‘lmagan mol-mulk mustasno.

Agar undiruvni qaratish mumkin bo‘lmagan mol-mulk tugatish massasiga kiritilgan bo‘lsa, jismoniy shaxsning yoki to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomasiga ko‘ra sudning ajrimi bilan bu mol-mulk tugatish massasidan chiqarib tashlanadi. Sudning mazkur ajrimi ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Jismoniy shaxsning va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning asoslantirilgan iltimosnomasiga ko‘ra sud qonunchilikka muvofiq ijro hujjatlari bo‘yicha undiruv qaratilgan mol-mulkni tugatish massasidan chiqarib tashlashga haqli hamda uni realizatsiya qilishdan tushgan mablag‘larning kreditorlar talablarini qanoatlantirishga aloqasi bo‘lmaydi.

Qarzdor jismoniy shaxsning fuqarolik va oila to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq uning umumiy mol-mulkdagi ulushini tashkil etuvchi mol-mulki tugatish massasiga kiritilishi mumkin. Kreditor qarzdor jismoniy shaxsning ulushini umumiy mol-mulkdan ajratish haqida talab qo‘yishga haqli.

Qarzdor jismoniy shaxs bankrot deb topilgan va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili boshlangan kundan e’tiboran:

tugatish massasini tashkil etuvchi mol-mulkka nisbatan barcha huquqlar, shu jumladan, uni tasarruf etishga doir huquq jismoniy shaxs nomidan faqat moliyaviy boshqaruvchi tomonidan amalga oshiriladi;

tugatish massasini tashkil etuvchi mol-mulkka nisbatan jismoniy shaxs tomonidan (moliyaviy boshqaruvchining ishtirokisiz) tuzilgan bitimlar o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmaydi. Jismoniy shaxsning o‘zi (moliyaviy boshqaruvchining ishtirokisiz) shaxsan tuzgan bitimlari bo‘yicha kreditorlarning talablari tugatish massasi hisobidan qanoatlantirilmaydi;

jismoniy shaxsning mol-mulkiga ilgari qo‘yilgan taqiqlar va jismoniy shaxsning mol-mulkini tasarruf etishga doir boshqa cheklovlar olib tashlanadi;

neustoykalarni (jarimalarni, penyalarni) va boshqa moliyaviy sanksiyalarni, shuningdek, jismoniy shaxsning barcha majburiyatlari bo‘yicha foizlarni hisoblash tugatiladi, bundan joriy to‘lovlar mustasno.

Qarzdor jismoniy shaxs moliyaviy boshqaruvchisi tayinlangan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida o‘z egaligidagi barcha mol-mulklarni, shu jumladan, bunday mol-mulklar bo‘yicha mulkiy huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlarni moliyaviy boshqaruvchisiga topshirishi shart, qonunchilikka muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo‘lmagan mol-mulklar bundan mustasno. Mazkur majburiyatni bajarishdan bosh tortgan qarzdor jismoniy shaxs qonunchilikka muvofiq javobgar bo‘ladi.

Moliyaviy boshqaruvchi jismoniy shaxsning nomidan mol-mulkni sotish paytida:

jismoniy shaxsning banklardagi va boshqa kredit tashkilotlaridagi hisobvaraqlari hamda omonatlari mablag‘larini boshqaradi;

jismoniy shaxsning banklardagi hamda boshqa kredit tashkilotlaridagi hisobvaraqlarini ochadi va (yoki) yopadi;

yuridik shaxs ishtirokchisining qarzdor jismoniy shaxsga tegishli bo‘lgan huquqini, shu jumladan, ishtirokchilarning umumiy yig‘ilishida ovoz berish huquqini amalga oshiradi;

jismoniy shaxsning mulkiy huquqlariga taalluqli bo‘lgan, shu jumladan, jismoniy shaxsning mol-mulkini boshqa shaxsga o‘tkazish yoki qaytarish, uni o‘zga shaxsning egaligidan talab qilib olish haqidagi ishlarni sudlarda ko‘rib chiqishda ishtirok etadi.

Qarzdor jismoniy shaxs bankrot deb topilgan va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili boshlangan kundan e’tiboran:

qarzdor jismoniy shaxsning mol-mulkka, shu jumladan, ko‘chmas mulkka va qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqini boshqa shaxsga o‘tkazishni yoki boshqa shaxs zimmasiga yuklatishni ro‘yxatdan o‘tkazish faqat moliyaviy boshqaruvchining arizasi asosida amalga oshiriladi. Jismoniy shaxsning ushbu sanaga qadar berilgan arizalari ijro etilmaydi;

qarzdor jismoniy shaxsning majburiyatlarini bajarish maqsadida pul mablag‘larini yoki mol-mulkni kreditorlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri uchinchi shaxs tomonidan ixtiyoriy ravishda berishga yo‘l qo‘yilmaydi, bu mablag‘lar va mol-mulk tugatish massasiga kiritiladi;

qarzdor jismoniy shaxs banklarda va boshqa kredit tashkilotlarida bank hisobvaraqlarini hamda omonatlarni ochishga va ulardan pul mablag‘larini olishga haqli emas, bundan ushbu Qonun 206-moddasining to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Banklar va boshqa kredit tashkilotlari, agar ular qonunchilik hujjatlariga muvofiq jismoniy shaxsga nisbatan bankrotlik va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili joriy etilganligi to‘g‘risida lozim darajada xabardor qilingan bo‘lsa, qarzdor jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili boshlangan kundan e’tiboran qarzdor jismoniy shaxsning mol-mulkini tasarruf etishga doir yoxud ular tomonidan jismoniy shaxsga berilgan ishonchnoma, depozit shartnomasi va (yoki) bank hisobvarag‘i shartnomasi, shu jumladan, bank kartasi bo‘yicha operatsiyalar amalga oshirilishi uchun javobgar bo‘ladi.

Jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan kundan keyingi bir ish kunidan kechiktirmay jismoniy shaxs o‘zida mavjud bo‘lgan barcha bank kartalarini (PIN-kodni ko‘rsatgan holda) moliyaviy boshqaruvchiga topshirishi shart. Ular olingan kundan keyingi bir ish kunidan kechiktirmay moliyaviy boshqaruvchi pul mablag‘larini qarzdor jismoniy shaxsning alohida hisobvarag‘iga o‘tkazish uchun o‘zi olgan bank kartalari bilan bog‘liq operatsiyalarni to‘xtatib turish choralarini ko‘rishi shart.

Ko‘p kvartirali uylarning va (yoki) boshqa ko‘chmas mulk obyektlarining ulush kiritish asosidagi qurilishida ishtirok etish to‘g‘risidagi qonun-

chilikka muvofiq ulush kiritish asosidagi qurilishda ishtirok etish haqidagi bitimga doir hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun tuzilgan shartnoma bo‘yicha garovga qo‘yilgan jismoniy shaxsning mol-mulki alohida hisobga olinadi va mazkur bitim bo‘yicha talab qilish huquqi tugatish massasiga kiritiladi.

Sharhlanayotgan moddada jismoniy shaxs bankrot deb topilganda uning aniqlangan va keyinchalik orttirilgan mol-mulki tugatish massasini tashkil etishi, mol-mulkni boshqarish va sotish vakolatlari moliyaviy boshqaruvchiga o‘tishi hamda qarzdorning mol-mulkni tasarruf etishiga doir huquqlari qonunchilikda belgilangan tartibda cheklanishi nazarda tutilgan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilida tugatish massasining yuridik tarkibi va istisnolar belgilangan.

Tugatish massasi tarkibiga sudning jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilini boshlash to‘g‘risidagi qarori qabul qilingan paytdan e’tiboran jismoniy shaxsning barcha aniqlangan mol-mulki, ya’ni ish ochilgan paytgacha egalik qilingan aktivlari, shuningdek, jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili boshlanganidan keyin sotib olingan mol-mulklar ham tugatish massasiga kiradi. Barcha aniqlangan va jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili davomida sotib olingan mol-mulk tugatish massasiga kiritilishi kreditorlar uchun teng qonuniy huquqiy asos yaratadi.

Qonunchilik talablariga ko‘ra, tugatish massasiga istisno tariqasida quyidagi mol-mulklar kiritilmaydi.

Birinchidan, «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 52-moddasida nazarda tutilgan aktivlar, ya’ni Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 14-apreldagi 110-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Qarzdor va uning oilasining normal turmush kechirishi uchun zarur bo‘lgan, ijro hujjatlari bo‘yicha undiruv qaratilishi mumkin bo‘lmagan uy anjomlari va jihozlari, kiyimlar hamda boshqa buyumlar» ro‘yxatida ko‘rsatilgan mulklar hisoblanadi.

Ikkinchidan, sud tomonidan ajrim bilan ko‘rsatilgan yoki qonunda maxsus nazarda tutilgan undiruvni qaratish mumkin bo‘lmagan boshqa mulklar ham bo‘lishi mumkin va bu mol-mulklar jismoniy shaxsning ijtimoiy himoyasini ta’minlash, uni eng zarur hayotiy vositalardan mahrum qilmaslik uchun belgilanadi.

Uchinchidan, qarzdor jismoniy shaxsga ijara huquqi asosida foydalanishdagi mulk, unga saqlash uchun ishonib topshirilgan tovar va qarzdorning mulki bo‘lmagan boshqa mulklar, qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari garov narsasi kabilar bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

53. Qonunning 219- va 230-moddalariga muvofiq, qarzdor jismoniy shaxsning, shu jumladan, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 52-moddasiga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo‘lmagan mol-mulki tugatish massasiga kiritilmaydi.

Jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishda sudlar kreditorlarning mulkiy manfaatlari va qarzdorning konstitutsiyaviy, shu jumladan, shaxsiy huquqlari o‘rtasidagi adolatli muvozanatni ta’minlash zarurligini inobatga olishlari lozim.

Bu istisnolar jismoniy shaxsning qonuniy huquqlari va minimal moliyaviy himoyasini ta’minlaydi, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida uning ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli uchun asosiy muhim mol-mulklardan mahrum bo‘lishining oldini oladi.

2. Ushbu norma jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilida qonun bilan himoya qilingan mol-mulkni saqlab qolishga qaratilgan muhim protsessual kafolatni belgilaydi. Unga ko‘ra, agar qonunga muvofiq undiruvni qaratish mumkin bo‘lmagan mol-mulk (masalan, yagona turarjoy, kundalik hayot uchun zarur buyumlar, ijtimoiy ahamiyatga ega vositalar) xatolik yoki noto‘g‘ri baholash natijasida tugatish massasi tarkibiga kiritilgan bo‘lsa, bu holat qonuniy deb hisoblanmaydi.

Mazkur holatda jismoniy shaxsning o‘zi, shuningdek, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar (kreditorlar, moliyaviy boshqaruvchi, tegishli vakolatli organ) sudga iltimosnoma bilan murojaat qilish huquqiga ega. Sud ushbu iltimosnomani ko‘rib chiqib, mol-mulkning huquqiy maqomini, uning qonunga muvofiq undiruvdan mustasno ekanligini tekshiradi hamda asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda ajrim chiqarish orqali mazkur mol-mulkni tugatish massasidan chiqariladi.

Sud tomonidan qabul qilinadigan ushbu ajrimning huquqiy oqibati shundan iboratki, tegishli mol-mulk sotilishi mumkin bo‘lgan aktivlar tarkibidan chiqariladi va u qarzdor jismoniy shaxsning ixtiyorida qoladi. Bu esa jismoniy shaxsning minimal ijtimoiy va maishiy ehtiyojlarini ta’minlash, uning inson sifatidagi qadr-qimmatini himoya qilishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, norma sudning mazkur ajrimi ustidan norozi taraf tomonidan apellyatsiya shikoyati yoki protest keltirish imkoniyatini ham nazarda tutadi. Bu qoida sud nazorati va protsessual adolat prinsipini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ishda ishtirok etuvchi shaxslarga sud xulosalarining qonuniyligi va asosliligini yuqori sud instansiyasida tekshirish imkonini beradi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilida ijro hujjatlari bo‘yicha undiruv qaratilgan mol-

mulkning huquqiy maqomini aniq belgilashga qaratilgan maxsus qoidani nazarda tutadi. Unga koʻra, jismoniy shaxsning oʻzi yoki toʻlovga qobiliyatsizlik toʻgʻrisidagi ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan asoslantirilgan iltimosnoma kiritilgan taqdirda, sud ajrimi bilan qonunchilik talablariga muvofiq ravishda undiruv qaratilgan mol-mulkni tugatish massasi tarkibidan chiqarish huquqiga ega.

Ushbu norma qoʻllanilishi uchun iltimosnoma asoslantirilgan boʻlishi, ya'ni mol-mulkka nisbatan ijro hujjatlari asosida undiruv qaratilganligi, ushbu undiruv toʻlovga qobiliyatsizlik ishi qoʻzgʻatilgunga qadar yoki qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirilganligi dalillar bilan tasdiqlanishi lozim. Sud ushbu holatlarni tekshirib, mol-mulkni tugatish massasiga kiritish qonunga zid deb topilsa, tegishli ajrim chiqaradi.

Ushbu normaning muhim jihati shundaki, sud tomonidan tugatish massasidan chiqarib tashlangan bunday mol-mulk toʻlovga qobiliyatsizlik jarayoni doirasida kreditorlar talablarini qanoatlantirish manbai hisoblanmaydi. Shuningdek, agar mazkur mol-mulk allaqachon realizatsiya qilingan boʻlsa, uni sotishdan tushgan mablagʻlar ham kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga yoʻnaltirilmaydi. Bu holat mazkur mablagʻlar toʻlovga qobiliyatsizlik ishi doirasidagi umumiy hisob-kitoblarga kiritilmasligini anglatadi.

Ushbu qoida ijro ishlari bilan toʻlovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari oʻrtasidagi vakolatlar va mulkiy manbalarning chegarasini aniq belgilash, shuningdek, ikki xil undiruv mexanizmi oʻzaro toʻqnashishining oldini olishga qaratilgan. Mazkur qoida, bir tomondan, ijro hujjatlari boʻyicha undiruvning qonuniyligini himoya qilsa, ikkinchi tomondan, toʻlovga qobiliyatsizlik jarayonida kreditorlar manfaatlari asossiz ravishda buzilishidan saqlashga xizmat qiladi.

4. Ushbu norma jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomilida umumiy mulkdagi ulushning huquqiy taqdirini tartibga solishga qaratilgan. Unga muvofiq, qarzdor jismoniy shaxsning fuqarolik va oila toʻgʻrisidagi qonunchilikka asosan unga tegishli boʻlgan umumiy mol-mulkdagi ulushi tugatish massasiga kiritilishi mumkin.

Ushbu norma qoʻllanilishida, avvalo, umumiy mol-mulk tushunchasi fuqarolik qonunchiligi hamda nikoh-oila munosabatlarini tartibga soluvchi normalar asosida aniqlanadi. Xususan, nikoh davomida orttirilgan mol-mulk, agar nikoh shartnomasida boshqacha qoida belgilanmagan boʻlsa, er-xotinning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi. Toʻlovga qobiliyatsizlik jarayonida esa ushbu umumiy mulkdan faqat qarzdor jismoniy shaxsga tegishli ulush tugatish massasiga kiritilishi mumkin, qolgan qismi esa boshqa mulkdorning qonuniy mulki sifatida saqlab qolinadi.

Ushbu norma kreditorlarga umumiy mol-mulkdan qarzdorning ulushini ajratish toʻgʻrisida talab qoʻyish huquqini beradi. Bu talab, odatda, sud tartibida koʻrib chiqiladi va uni qanoatlantirish uchun sud mol-mulkning huquqiy maqomini, uning kelib chiqish manbasini, ulushlar nisbatini, nikoh shartnomasi mavjud yoki mavjud emasligini, shuningdek, taraflar oʻrtasidagi boshqa huquqiy kelishuvlarni chuqur tahlil qiladi. Bu orqali sud qarzdorga haqiqatan tegishli boʻlgan ulushni aniqlab, uni boshqa mulkdorlarning huquqlariga zarar yetkazmagan holda ajratish imkoniyatini baholaydi.

Ushbu norma, shuningdek, qarzdor jismoniy shaxs tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilidan qochish maqsadida umumiy mol-mulk orqali mol-mulkni yashirish holatlarining oldini olishga qaratilgan. Kreditorlarga ulushni ajratish huquqining berilishi qarzdorning mulkiy holatini oshkora qilish, aktivlarni aniqlash va ularni qonuniy tarzda realizatsiya qilish imkonini yaratadi.

5. Ushbu norma jismoniy shaxs bankrot deb topilib, uning mol-mulkini sotish tartib-taomili boshlangan paytdan e’tiboran qarzdorning huquqiy maqomi va mulkiy munosabatlarida yuzaga keladigan oqibatlarni belgilashga qaratilgan. Mazkur sana to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida muhim yuridik fakt hisoblanib, aynan shu kundan qarzdor jismoniy shaxsga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan maxsus cheklovlar va tartiblar amal qila boshlaydi.

5.1. Jismoniy shaxs bankrot deb topilib, uning mol-mulkini sotish tartib-taomili boshlangan paytdan e’tiboran tugatish massasiga kiritilgan mol-mulkka nisbatan huquqlarni amalga oshirish tartibiga ko‘ra, tugatish massasini tashkil etuvchi mol-mulkka nisbatan barcha huquqlar, jumladan, unga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish bilan bog‘liq vakolatlar jismoniy shaxs nomidan faqat moliyaviy boshqaruvchi tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur qoidaga muvofiq, jismoniy shaxsga tugatish massasiga kiritilgan mol-mulk bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish, bitimlar tuzish, mol-mulkni sotish, hadya qilish, garovga qo‘yish yoki boshqa har qanday tarzda tasarruf etish huquqidan mahrum bo‘ladi. Uning mazkur vakolatlari qonun asosida moliyaviy boshqaruvchiga o‘tadi va moliyaviy boshqaruvchi ularni jismoniy shaxs nomidan, ammo kreditorlar manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshiradi.

Bu tartib moliyaviy boshqaruvchining to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonidagi markaziy rolini belgilaydi. Moliyaviy boshqaruvchi tugatish massasini saqlash, uni to‘liq va haqqoniy shakllantirish, mol-mulkni baholash va realizatsiya qilish hamda tushgan mablag‘larni qonunchilikda belgilangan navbatga muvofiq kreditorlar talablarini qanoatlantirish uchun javobgar hisoblanadi. Shu bilan birga, u o‘z vakolatlarini suiiste’mol qilmasligi, mol-mulkka zarar yetkazmasligi va barcha harakatlarni sud nazorati ostida amalga oshirishi shart sanaladi.

5.2. Tugatish massasini tashkil etuvchi mol-mulkka nisbatan jismoniy shaxs tomonidan moliyaviy boshqaruvchining ishtirokisiz tuzilgan bitimlar qonun kuchiga ko‘ra o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb hisoblanadi va ular alohida sud qarori bilan bekor qilinishi talab etilmaydi.

Mazkur qoidadan kelib chiqadiki, jismoniy shaxs tugatish massasiga kiritilgan mol-mulk bo‘yicha mustaqil ravishda bitimlar tuzish vakolatiga ega emas. Ushbu vakolat faqat moliyaviy boshqaruvchiga berilgan bo‘lib, har qanday tasarruf harakatlari aynan uning ishtirokida va nazorati ostida amalga oshirilishi lozim. Aks holda, mazkur qoidaga amal qilinmay tuzilgan bunday bitimlar huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi.

Shuningdek, jismoniy shaxsning moliyaviy boshqaruvchining ishtirokisiz shaxsan tuzgan bitimlari bo‘yicha vujudga kelgan kreditorlar talablarining huquqiy maqomi ham aniq belgilab qo‘yilgan. Bunday talablar tugatish massasi hisobidan qanoatlantirilmaydi, ya’ni ular umumiy kreditorlar talablari qatoriga kiritilmaydi. Bu esa bunday

kreditorlarning talablari to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida ustuvor yoki navbat asosida qanoatlantirish huquqiga ega emasligini anglatadi.

Ushbu norma, bir tomondan, kreditorlar o‘rtasida adolatli va teng munosabatni ta’minlashga, ikkinchi tomondan, jismoniy shaxs tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonidan so‘ng mol-mulkni noqonuniy ravishda begonalashtirish, yashirish yoki ayrim shaxslarga ustunlik berish orqali kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazish xavfini bartaraf etishga qaratilgan.

5.3. Belgilangan qoidaga ko‘ra, jismoniy shaxs bankrot deb topilib, uning mol-mulkini sotish tartib-taomili boshlangan paytdan e’tiboran jismoniy shaxsning mol-mulkiga nisbatan ilgari qo‘yilgan barcha taqiqlar, shu jumladan, uni tasarruf etishga doir boshqa cheklovlar olib tashlanadi.

Mazkur qoida jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomili samarali amalga oshirilishini ta’minlashga qaratilgan. Chunki ushbu tartib-taomili boshlangan paytdan e’tiboran mol-mulk tugatish massasi tarkibiga kiritiladi va uni boshqarish hamda realizatsiya qilish vakolati moliyaviy boshqaruvchiga o‘tadi. Agar ilgari qo‘yilgan taqiqlar yoki cheklovlar saqlanib qolsa, bu mol-mulkni sotish, uni baholash va kreditorlar talablarini qanoatlantirish jarayonini sun’iy ravishda qiyinlashtirgan bo‘lardi.

Ushbu norma mazmuniga ko‘ra, olib tashlanadigan cheklovlarga quyidagilar kiradi: ijro ishlari doirasida qo‘yilgan taqiqlar, mol-mulkni begonalashtirishni cheklash choralari, garovdan tashqari bo‘lgan tasarruf taqiqlari va boshqa shunga o‘xshash cheklovlar. Bunda shuni alohida ta’kidlash lozimki, garov bilan ta’minlangan talablar bo‘yicha kreditorlarning huquqlari saqlanib qoladi va ular qonunchilikda belgilangan tartibda inobatga olinadi.

5.4. Norma jismoniy shaxs bankrot deb topilib, uning mol-mulkini sotish tartib-taomili boshlangan paytda qonuniy majburiyatlar bo‘yicha qarz va moliyaviy sanksiyalar ustidan hisob-kitobni to‘xtatish tartibini belgilaydi. Unga muvofiq, jismoniy shaxsning neustoykalarini (jarimalarni, penyalarni) va boshqa moliyaviy sanksiyalarni, shuningdek, barcha majburiyatlar bo‘yicha foizlarni hisoblash tugatiladi. Biroq qonunchilikda belgilangan tartibda amal qiladigan joriy to‘lovlar (masalan, jismoniy shaxsning ijtimoiy soliqlari, kommunal to‘lovlar va ijro hujjatlari asosida amalga oshiriladigan to‘lovlar) hisoblashdan mustasno qilinadi va ular o‘z vaqtida amalga oshirilishi zarur.

Ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida kreditorlar manfaatlarini himoya qilish bilan birga qarzdor jismoniy shaxsning moliyaviy yukini barqarorlashtirish va uning mol-mulkini samarali tarzda taqsimlashni ta’minlaydi. Neustoyka va foizlarning hisoblanishini to‘xtatish kreditorlar bilan qarzdor o‘rtasidagi asosiy bahs masalalarini qisqartirishga va tugatish massasi asosida adolatli qanoatlantirishni ta’minlashga qaratilgan muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi.

6. Qarzdor jismoniy shaxsga moliyaviy boshqaruvchi tayinlangan kundan e’tiboran qarzdor jismoniy shaxs uch ish kuni ichida o‘z egaligidagi barcha mol-mulkni moliyaviy boshqaruvchiga topshirishi shart. Bu majburiyatga mol-mulk, ya’ni to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomiliga kiritiladigan va kreditorlar talablarini qanoatlantirish uchun ishlatiladigan barcha aktivlar va mulkiy huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar – mol-

mulkka nisbatan huquqiy asosni ko‘rsatuvchi barcha hujjatlar (masalan, mulk huquqini tasdiqlovchi pasportlar, shartnomalar, xarid-sotiq hujjatlari va boshqalar) kiradi.

Biroq qonunchilikda belgilangan holatlarda undiruv qaratilishi mumkin bo‘lmagan mol-mulklar (masalan, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy buyumlar, oila a’zolari uchun zarur bo‘lgan mulk va boshqa mustasno obyektlar) bu majburiyatdan chiqarib tashlanadi. Mazkur majburiyatni bajarishdan bosh tortgan qarzdor jismoniy shaxs qonunchilikka muvofiq javobgar bo‘ladi. Ammo ushbu javobgarlik qarzdorni sud orqali mol-mulkni majburiy ravishda topshirishning ta’minlanishidan ozod etmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

41. Qarzdor jismoniy shaxs moliyaviy boshqaruvchisi tayinlangan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida o‘z egaligidagi barcha mol-mulklarni, shu jumladan, bunday mol-mulklar bo‘yicha mulkiy huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlarni moliyaviy boshqaruvchisiga topshirishi shart, qonunchilikka muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo‘lmagan mol-mulklar bundan mustasno (Qonun 219-moddasining oltinchi qismi).

Qarzdor boshqaruvchisining ushbu mazmundagi arizasi u sudga kelib tushganidan keyingi kundan kechiktirmay ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilmasdan ko‘rib chiqilishi va natijasi bo‘yicha ajrim chiqarilishi lozimligi belgilangan.

Sud ajrimining ijrosi sud tomonidan beriladigan ijro varaqasi asosida Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosining tegishli bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi.

7. Moliyaviy boshqaruvchi qarzdorning nomidan mol-mulkni sotish va uni boshqarish jarayonida bir qator muhim vakolatlarga ega bo‘ladi. Ushbu vakolatlar moliyaviy boshqaruvchining qarzdorning manfaatlarini va kreditorlar huquqlarini samarali himoya qilishini ta’minlash maqsadida belgilangan.

Birinchidan, moliyaviy boshqaruvchi jismoniy shaxsning banklardagi va boshqa kredit tashkilotlaridagi hisobvaraqlari hamda omonatlaridagi mablag‘larni nazorat qiladi va ulardan foydalanishni muvofiqlashtiradi. Bu faoliyat kreditorlarning talablari qanoatlantirilishini ta’minlash va mol-mulkni tartibli taqsimlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, moliyaviy boshqaruvchi jismoniy shaxsning nomidan hisobvaraqlarni ochish yoki yopish vakolatiga ega bo‘ladi. Bu qarzdorning mol-mulki to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilida to‘liq nazoratda bo‘lishi va mablag‘lardan foydalanishda adolatli taqsimlashga yordam beradi.

Uchinchidan, agarda qarzdor yuridik shaxs ishtirokchisi (ta’sischisi) bo‘lsa, moliyaviy boshqaruvchi uning huquqlarini, shu jumladan, umumiy yig‘ilishda ovoz berish huquqini jismoniy shaxs nomidan amalga oshiradi. Bu yuridik shaxsdagi qarzdorning huquqlari buzilishiga yo‘l qo‘ymaslikni ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, moliyaviy boshqaruvchi jismoniy shaxsning mol-mulkiga taalluqli huquqlarni himoya qiladi. Masalan, jismoniy shaxsning mulkiy huquqlariga taalluqli

ishlar doirasiga uning mol-mulkini boshqa shaxsga o‘tkazish yoki qaytarish, shuningdek, mol-mulkni o‘zga shaxsning noqonuniy egaligidan talab qilib olish (vindikatsiya) to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud ishlarida ishtirok etadi. Mazkur ishlar bo‘yicha sud muhokamasi jarayonida ishtirok etish deganda da’vo qo‘zg‘atish, da’vo talablarini qo‘llab-quvvatlash yoki rad etish, dalillar taqdim etish, iltimosnomalar kiritish, tushuntirishlar berish, sud qarorlari va ajrimlaridan shikoyat qilish kabi protsessual huquq va majburiyatlarni amalga oshirish tushuniladi.

Umuman, moliyaviy boshqaruvchining vakolatlari jismoniy shaxs mol-mulkini samarali boshqarish, kreditorlar huquqlarini himoya qilish va to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilini adolatli hamda qonuniy amalga oshirishga qaratilgan.

8. Mazkur moddaning sakkizinchi qismi qarzdor jismoniy shaxsni bankrot deb topib, uning mol-mulkini sotish tartib-taomili boshlangan paytdan e’tiboran mol-mulkka oid munosabatlarni qat’iy tartibga solishga qaratilgan. Ushbu sana huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi boshlang‘ich nuqta hisoblanadi.

8.1. Qarzdor jismoniy shaxsga tegishli bo‘lgan mol-mulkka, shu jumladan, ko‘chmas mulkka va qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqni boshqa shaxsga o‘tkazish yoki mazkur huquqlarni boshqa shaxs zimmasiga yuklatish bilan bog‘liq davlat ro‘yxatidan o‘tkazish harakatlari faqat moliyaviy boshqaruvchining arizasi asosida amalga oshirilishi mumkin. Bu qoida jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida mol-mulk ustidan mustaqil ravishda tasarruf etish huquqi cheklanishini anglatadi. Chunki mol-mulkni sotish tartib-taomili boshlanganidan so‘ng qarzdorning barcha mol-mulki tugatish massasini tashkil etadi va u kreditorlar talablarini qanoatlantirishning yagona manbai hisoblanadi. Shu sababli mol-mulkka oid har qanday huquqiy harakatlar yagona vakolatli shaxs – moliyaviy boshqaruvchi tomonidan, sud nazorati ostida amalga oshirilishi ta’minlanadi.

Shuningdek, normada jismoniy shaxs tomonidan ushbu sanaga qadar berilgan arizalarning ijro etilmasligi belgilanishi alohida huquqiy ahamiyatga ega. Bunday yondashuv mol-mulkni yashirish, arzonlashtirib o‘tkazish yoki ayrim shaxslar foydasiga chiqarib yuborish ehtimolini bartaraf etishga qaratilgan.

8.2. Qarzdor jismoniy shaxsning majburiyatlarini bajarish maqsadida pul mablag‘larini yoki mol-mulkni kreditorlarga uchinchi shaxs tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri, ixtiyoriy ravishda berishga yo‘l qo‘yilmaydi. Ushbu cheklovning joriy etilishi kreditorlar o‘rtasida tenglik va mutanosiblik tamoyillarini ta’minlash bilan izohlanadi. Chunki ayrim kreditorlarga uchinchi shaxslar orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri qanoatlantirish imkoniyati berilishi boshqa kreditorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini kamsitishi, qonunchilikda belgilangan talablar navbatiga rioya etilmasligiga olib kelishi mumkin.

Qoidaga muvofiq, uchinchi shaxs tomonidan qarzdorning majburiyatlarini bajarish maqsadida berilgan pul mablag‘lari yoki mol-mulk qarzdorning tugatish massasiga kiritiladi. Bu esa mazkur aktivlar barcha kreditorlar manfaatlarini hisobga olgan holda, belgilangan navbat va tartibga muvofiq taqsimlanishini ta’minlaydi. Bunda uchinchi shaxs tomonidan mablag‘ yoki mol-mulk berish qarzdorning ayrim kreditorlar oldidagi qarzini to‘g‘ridan to‘g‘ri uzish sifatida emas, balki tugatish massasini ko‘paytirishga qaratilgan harakat sifatida baholanadi.

8.3. Qarzdor jismoniy shaxsni bankrot deb topib, uning mol-mulkini sotish tartib-taomili boshlangan paytdan e'tiboran qarzdorning moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirish huquqi cheklanadi. Bunda qarzdor jismoniy shaxs banklarda va boshqa kredit tashkilotlarida bank hisobvaraqlarini hamda omonatlarni ochishga, shuningdek, mavjud hisobvaraqlar va omonatlardan pul mablag'larini olishga haqli emas. Ushbu cheklov qarzdor tomonidan moliyaviy aktivlar mustaqil ravishda tasarruf etilishining oldini olish, mol-mulkni yashirish yoki kreditorlar manfaatlariga zid ravishda chiqarib yuborish xavfini bartaraf etish maqsadida joriy etilgan.

Mazkur cheklov banklar va boshqa kredit tashkilotlari uchun ham majburiy ahamiyatga ega bo'lib, ular qarzdor jismoniy shaxs nomidan yangi hisobvaraqlar yoki omonatlar ochishga, shuningdek, unga pul mablag'larini berishga haqli emas. Barcha moliyaviy operatsiyalar qonunchilikda belgilangan tartibda moliyaviy boshqaruvchi orqali amalga oshirilishi lozim.

Shu bilan birga, qoidada istisno tarzida ushbu Qonun 206-moddasining to'rtinchi qismida nazarda tutilgan hollar qayd etilgan. Bunday hollarda qarzdor jismoniy shaxsga muayyan turdagi pul mablag'laridan foydalanish yoki alohida moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga ruxsat etilishi mumkin. Ushbu istisnolar qarzdorning kundalik ehtiyojlarini ta'minlash, ijtimoiy to'lovlar yoki qonunchilikda maxsus belgilangan mablag'lar bilan bog'liq holatlarni qamrab oladi.

9. Mazkur qoida banklar va boshqa kredit tashkilotlarining jismoniy shaxsni bankrot deb topib, uning mol-mulkini sotish tartib-taomili joriy etilganidan keyingi huquqiy javobgarligini belgilashga qaratilgan. Unga ko'ra, agar banklar va boshqa kredit tashkilotlari qonunchilik hujjatlariga muvofiq jismoniy shaxsga nisbatan bankrot deb topib, uning mol-mulkini sotish tartib-taomili joriy etilganligi to'g'risida lozim darajada xabardor qilingan bo'lsa, ular mazkur sanaga oid huquqiy oqibatlar uchun mas'ul hisoblanadi. Bunda qarzdor jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili boshlangan kundan e'tiboran qarzdorning mol-mulkini tasarruf etish bilan bog'liq har qanday operatsiyalar, shu jumladan, banklar tomonidan ilgari berilgan ishonchnomalar, depozit shartnomalari va (yoki) bank hisobvarag'i shartnomalari, bank kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar qonunchilik talablariga muvofiq ravishda cheklanishi lozim.

Ushbu normada banklar va boshqa kredit tashkilotlarining alohida javobgarligining belgilab qo'yilishi to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida ushbu subyektlarning faol va mas'uliyatli ishtirokini ta'minlashga qaratilgan. Bunda tegishli tartib-taomil joriy etilganligi to'g'risida rasman va o'z vaqtida xabardor qilingan bank yoki kredit tashkiloti qarzdor jismoniy shaxsga nisbatan mazkur cheklovlarga rioya etmagan holda mol-mulkni tasarruf etishga doir operatsiyalarga yo'l qo'ysa, bunday harakatlardan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

10. Mazkur moddaning o'ninchi qismi jismoniy shaxsni bankrot deb topib, uning mol-mulkini sotish tartib-taomili boshlanganidan so'ng bank kartalari orqali amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar ustidan to'liq nazoratni ta'minlashga qaratilgan. Unga ko'ra, jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-tao-

milini boshlash to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan kundan keyingi bir ish kunidan kechiktirmay qarzdor jismoniy shaxs o‘zida mavjud bo‘lgan barcha bank kartalarini, ularga tegishli PIN-kodlarni ko‘rsatgan holda moliyaviy boshqaruvchiga topshirishi shartligi belgilanadi. Ushbu majburiyat qarzdor tomonidan bank kartalari orqali pul mablag‘larini yashirincha olish, uchinchi shaxslar foydasiga o‘tkazish yoki to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomiliga zid ravishda tasarruf etish ehtimolini bartaraf qilish maqsadida joriy etilgan. Bank kartalarining o‘z vaqtida topshirilishi moliyaviy boshqaruvchiga qarzdorning pul mablag‘lari harakatini to‘liq qamrab olish va nazorat qilish imkonini beradi.

Ushbu normada moliyaviy boshqaruvchining majburiyatlari ham aniq belgilab qo‘yilgan. Unga muvofiq, moliyaviy boshqaruvchi bank kartalarini olgan kundan keyingi bir ish kunidan kechiktirmay ushbu kartalar bilan bog‘liq barcha operatsiyalarni to‘xtatib turish choralarini ko‘rishi shart. Bundan asosiy maqsad bank kartalarida mavjud yoki keyinchalik tushishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘larini qarzdor jismoniy shaxsning alohida hisobvarag‘iga o‘tkazishni ta’minlashdir.

11. Mazkur qoida jismoniy shaxsning ko‘p kvartirali uylarning va boshqa ko‘chmas mulk obyektlarining ulush kiritish asosidagi qurilishida ishtirok etish bilan bog‘liq moliyaviy munosabatlarini to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida qanday tarzda hisobga olish va nazorat qilishni belgilaydi.

Agarda jismoniy shaxs ulush kiritish asosidagi qurilishda ishtirok etish to‘g‘risidagi bitim tuzgan va shu bitim bo‘yicha mol-mulk, pul mablag‘lari yoki boshqa aktivlar garovga qo‘yilgan bo‘lsa, ushbu mol-mulk alohida hisobga olinadi. Bu bitimga asosan garovga qo‘yilgan aktivlar umumiy tugatish massasidan mustaqil ravishda nazarda tutiladi va ularning qonuniy tartibda taqsimlanishi ta’minlanadi degani. Biroq bitim bo‘yicha qarzdorning talab qilish huquqi tugatish massasiga kiritiladi, ya’ni kreditorlar uchun qonuniy qanoatlantirish obyekti sifatida hisobga olinadi. Bu tartib kreditorlar o‘rtasida adolatli taqsimlashni ta’minlash, mol-mulkdan kelib chiqadigan huquqiy va moliyaviy manfaatlarni aniqlash imkonini beradi.

Mol-mulk alohida hisobga olingan bo‘lsa ham, bitimning huquqiy ta’sirlari va qarzdorning ulush kirish huquqlari himoya qilinadi. Mazkur aktivlar va ulardan kelib chiqadigan talablar to‘lovga qobiliyatsizlik tartibida kreditorlar manfaatlarini mutanosib qanoatlantirish maqsadida taqsimlanadi.

Ushbu mexanizm ulush kirish asosidagi qurilishda ishtirok etuvchi qarzdorning huquqlarini saqlaydi va to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilida mol-mulk noqonuniy chiqib ketishining oldini oladi. Qarang: Xalqaro sharh. 805-b.

220-modda. Jismoniy shaxsning mol-mulkini sotishning o‘ziga xos xususiyatlari

Jismoniy shaxsning mol-mulki xatlovdan va baholashdan o‘tkazilgan sanadan e’tiboran bir oy muddat ichida moliyaviy boshqaruvchi jismoniy shaxsning mol-mulkini sotishning tartibi va shartlarini mol-mulkni sotishning boshlang‘ich narxini ko‘rsatgan holda sudga taqdim etishi shart. Jis-

moniy shaxsning mol-mulkini sotish tartibi, shartlari va muddatlari sud tomonidan tasdiqlanadi hamda qarzdor jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish ushbu Qonunning 126-, 127- va 151-moddalarida belgilangan qoidalarga muvofiq bo‘lishi kerak. Jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartibi, shartlari va muddatlarini tasdiqlash haqida hamda mol-mulkning boshlang‘ich sotish narxini belgilash to‘g‘risida sudning ajrimi chiqariladi. Mazkur ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan mol-mulkka nisbatan sudning alohida ajrimi chiqariladi, uning ijrosi ushbu mol-mulk o‘z hududida joylashgan davlatning protsessual qonunchiligi qoidalariga ko‘ra yoki O‘zbekiston Respublikasining ushbu mol-mulk o‘z hududida joylashgan davlat bilan tuzilgan xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxsning tugatish massasiga kiritilgan mol-mulkini baholash moliyaviy boshqaruvchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. O‘tkazilgan baholash yuzasidan jismoniy shaxs, kreditorlar, jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishda vakolatli bo‘lgan organ tomonidan nizolashilishi mumkin.

Kreditorlar yig‘ilishi qarzdor jismoniy shaxsning mol-mulkini baholashni ushbu Qonunga muvofiq baholovchi tashkilotni jalb etgan va ushbu baholashni o‘tkazishga doir xarajatlar uchun tegishli qaror qabul qilinishini yoqlab ovoz bergan shaxslar hisobidan haq to‘lagan holda o‘tkazish haqida qaror qabul qilishga haqli.

Agar kreditorlar yig‘ilishining qarorida yoki sudning ajrimida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, jismoniy shaxsning mol-mulki, ushbu mol-mulkning bir qismi mazkur Qonunda belgilangan tartibda elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida sotiladi. Garov narsasini sotish ushbu Qonunning 126-moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Agar moliyaviy boshqaruvchi jismoniy shaxsga tegishli bo‘lgan mol-mulkni va (yoki) uchinchi shaxslardan talab qilish huquqini belgilangan tartibda sota olmasa hamda kreditorlar ushbu mol-mulkni yoki talab qilish huquqini o‘z talablarini qanoatlantirish uchun qabul qilishni rad etgan taqdirda, jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish ishlari yakunlangandan keyin uning ushbu mol-mulkni va (yoki) talab qilish huquqini tasarruf etish huquqi tiklanadi. Bu holda tugatish massasini tashkil etuvchi va moliyaviy boshqaruvchi tomonidan sotilmagan mol-mulk dalolatnoma bo‘yicha jismoniy shaxsga topshiriladi.

Moliyaviy boshqaruvchi jismoniy shaxsning mol-mulkini inventarizatsiya qilish, baholash va sotish haqida jismoniy shaxsni, kreditorlarni hamda tegishli vakolatli organni ularning talabiga ko‘ra xabardor qilishi, shuningdek, kreditorlar yig‘ilishida hisobot taqdim etishi shart.

Jismoniy shaxsning eri (xotini) (sobiq eri (xotini)) bilan umumiy mulk huquqi asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulki jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishning ushbu moddada nazarda tutilgan umu-

miy qoidalari bo‘yicha sotiladi. Bunday hollarda er (xotin) (sobiq er (xotin)) jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi haqidagi ishda umumiy mol-mulkni sotish bilan bog‘liq masalalarni hal etishda ishtirok etishga haqli.

Tugatish massasiga er-xotinning (sobiq er-xotinning) umumiy mulkini sotishdan tushgan mablag‘larning qarzdor jismoniy shaxsning bunday mol-mulkdagi ulushiga muvofiq bo‘lgan qismi kiritiladi, ushbu mablag‘larning qolgan qismi qarzdor jismoniy shaxsning eriga yoki xotiniga (sobiq eriga yoki xotiniga) to‘lanadi.

Bunda agar erning yoki xotinning (sobiq erning yoki xotinning) umumiy majburiyatlari mavjud bo‘lsa (shu jumladan, solidar majburiyatlar mavjud bo‘lganda yoxud er-xotinning biri boshqasi uchun kafillik yoki garov taqdim etganda), mablag‘larning erga yoki xotinga (sobiq erga yoki xotinga) tegishli bo‘lgan qismi erning yoki xotinning (sobiq erning yoki xotinning) majburiyati qanoatlantirilganidan keyin to‘lanadi.

Sharhlanayotgan moddada jismoniy shaxsning mol-mulkini baholash, sotish va realizatsiya qilish tartibi, moliyaviy boshqaruvchining bu jarayondagi vazifalari, umumiy mulkni sotishning o‘ziga xos xususiyatlari hamda sotilmagan mol-mulkka nisbatan jismoniy shaxsning huquqlari tiklanishi belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida jismoniy shaxsning mol-mulki xatlovdan va baholashdan o‘tkazilgan sanadan e’tiboran bir oy muddat ichida moliyaviy boshqaruvchi jismoniy shaxsning mol-mulkini sotishning tartibi va shartlarini, shu jumladan, mol-mulkni sotishning boshlang‘ich narxini ko‘rsatgan holda sudga taqdim etishi shartligi nazarda tutiladi. Ushbu talab moliyaviy boshqaruvchi zimmasiga mol-mulkni sotish jarayonini o‘z vaqtida tashkil etish hamda sotuvning iqtisodiy asoslangan va adolatli bo‘lishini ta’minlash majburiyatini yuklaydi. Boshlang‘ich sotish narxining ko‘rsatilishi mol-mulkning baholash natijalariga muvofiq ravishda realizatsiya qilinishiga, uning sun’iy ravishda arzonlashtirib yuborilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Qoidaga muvofiq, jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartibi, shartlari va muddatlari sud tomonidan tasdiqlanadi. Sud bu jarayonda taqdim etilgan takliflarning qonun talablariga, adolat va mutanosiblik tamoyillariga muvofiqligini tekshiradi.

Shu bilan birga, qarzdor jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish ushbu Qonunning 126-, 127- va 151-moddalarida belgilangan qoidalarga muvofiq amalga oshirilishi shart. Mazkur moddalar mol-mulkni sotishning asosiy usullari, uni tashkil etish va o‘tkazish tartibi, sotuv jarayonining oshkoraligi hamda ishtirokchilarning tenghuquqliligini ta’minlovchi qoidalarni belgilaydi. Shu orqali mol-mulkning auksion yoki boshqa qonunda nazarda tutilgan shakllarda, raqobat muhitida va adolatli narxda realizatsiya qilinishi kafolatlanadi.

Qonunning 126-moddasi odatda mol-mulkni sotishning asosiy usuli sifatida ochiq savdolar (auksion) o‘tkazilishini nazarda tutadi hamda qarzdor jismoniy shaxsning mol-mulkini sotuv jarayonining oshkoraligi, barcha manfaatdor shaxslar uchun teng ishti-

rok etish imkoniyatini ta’minlashga qaratilgan talablarni belgilaydi. Bu orqali mol-mulk bozor qiymatiga yaqin narxda realizatsiya qilinishiga erishiladi. Qonunning 127-moddasi mazmuni asosida qarzdor jismoniy shaxsning mol-mulkini sotishni tashkil etish va o‘tkazish tartibini, shu jumladan, savdolarni o‘tkazish to‘g‘risida e’lon berish, ishtirokchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish, boshlang‘ich narxni belgilash va savdolar natijalarini rasmiylashtirish bilan bog‘liq protsessual qoidalarni belgilaydi. Ushbu talablarga rioya etilishi mol-mulkni sotish natijalarining qonuniyligini ta’minlaydi. Shuningdek, Qonunning 151-moddasi talablariga asoslangan holda jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizligiga xos bo‘lgan maxsus qoidalariga rioya etilishi talab qilinadi. Unda jismoniy shaxsning mol-mulkini sotishda uning ijtimoiy ahvoli, minimal yashash ehtiyojlari va qonun bilan muhofaza qilingan mol-mulkini hisobga olish zarurligi nazarda tutiladi.

Shu tariqa, 126-, 127- va 151-moddalarning birgalikda qo‘llanilishi qarzdor jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish jarayonida qonuniylik, oshkoralik, adolat va mutanosiblik tamoyillarini ta’minlaydi. Moliyaviy boshqaruvchi ushbu talablarga rioya etgan holdagina mol-mulkni sotishni amalga oshirishi mumkin bo‘lib, aks holda, sotuv natijalarining haqiqiy emas deb topilishi yoki uning javobgarligiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, ushbu norma talablariga ko‘ra, jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartibi, shartlari va muddatlarini tasdiqlash, shuningdek, mol-mulkning boshlang‘ich sotish narxini belgilash masalalari sud tomonidan alohida protsessual hujjat – ajrim chiqarish orqali hal etiladi. Sudning ajrimi mol-mulkni sotish jarayonining huquqiy asosini tashkil etadi. Unda moliyaviy boshqaruvchi taklif etgan sotuv tartibi va shartlarining qonun talablariga muvofiqligi, boshlang‘ich narxning baholash natijalariga asoslanganligi hamda kreditorlar va qarzdor manfaatlarining mutanosibligi tekshirilib, rasman tasdiqlanadi.

Ushbu norma sud tomonidan chiqarilgan ajrim ustidan yuqori turuvchi sud instansiyasiga shikoyat berish yoki belgilangan tartibda protest keltirish imkoniyatini nazarda tutadi. Bu qoida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasida qabul qilinadigan sud ajrimlarining qonuniyligi va asosliligini tekshirishga qaratilgan muhim protsessual kafolat hisoblanadi.

Shikoyat berish yoki protest keltirish huquqining belgilanishi ishda ishtirok etuvchi shaxslar, jumladan, qarzdor jismoniy shaxs, kreditorlar, moliyaviy boshqaruvchi hamda boshqa manfaatdor shaxslarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Ular sud tomonidan mol-mulkni sotish tartibi, shartlari yoki boshlang‘ich sotish narxini belgilashda qonun talablariga rioya etilmagan deb hisoblagan taqdirda, ushbu ajrimni qayta ko‘rib chiqishni so‘rash huquqiga ega bo‘lishadi. Ushbu norma sud qarorlari ustidan instansion nazoratni ta’minlaydi, sud amaliyotida xatolarni bartaraf etishga va to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilining qonuniy hamda adolatli amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qarzdor jismoniy shaxsga, kreditorlarga va boshqa manfaatdor shaxslarga sud tomonidan belgilangan sotuv tartibi yoki boshlang‘ich narxning qonuniyligi va asosliligini yuqori sud instansiyasida tekshirish imkoniyatini beradi.

2. Ushbu norma qarzdor jismoniy shaxsga tegishli bo‘lgan, mamlakatdan tashqarida joylashgan mol-mulkka nisbatan sud qarorlarini qabul qilish va ijro etishning o‘ziga

xos tartibini belgilaydi. Unga koʻra, bunday mol-mulk yuzasidan sud tomonidan alohida ajrim chiqarilishi nazarda tutiladi.

Alohida ajrim chiqarilishi mazkur mol-mulkning Oʻzbekiston hududidan tashqarida joylashganligi bilan bogʻliq boʻlib, bu holatda uning realizatsiya qilinishi yoki boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirish umumiy tartibda emas, balki xalqaro huquq normalari va chet davlat qonunchiligi talablarini hisobga olgan holda oʻtkazilishi talab etiladi.

Ushbu normaga muvofiq, bunday ajrimning ijrosi ikki xil huquqiy asosga tayanadi: birinchidan, mol-mulk joylashgan davlatning amaldagi protsessual qonunchiligi qoidalariga muvofiq; ikkinchidan, agar mavjud boʻlsa, Oʻzbekiston Respublikasi bilan mazkur mol-mulk joylashgan davlat oʻrtasida tuzilgan xalqaro shartnomalarga muvofiq.

Bu tartib sud qarorlarini hududiy suverenitet tamoyiliga rioya etgan holda amalga oshirishni ta’minlaydi hamda chet el davlatlarining ichki huquqiy tartibiga daxl qilmaslikni koʻzda tutadi. Shu bilan birga, xalqaro shartnomalar qoʻllanilgan taqdirda, sud qarorlarini oʻzaro tan olish va ijro etish mexanizmi orqali mol-mulkni toʻlovga qobiliyatsizlik jarayoni doirasida realizatsiya qilish imkoniyati yaratiladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi jismoniy shaxs toʻlovga qobiliyatsizligi toʻgʻrisidagi ish doirasida tugatish massasiga kiritilgan mol-mulkni baholash tartibini hamda ushbu baholash natijalari boʻyicha nizolashish imkoniyatini belgilaydi. Unga koʻra, qarzdor jismoniy shaxsga tegishli mol-mulkni baholash vakolati moliyaviy boshqaruvchiga yuklatilgan boʻlib, u mazkur baholashni mustaqil ravishda amalga oshiradi.

Moliyaviy boshqaruvchining mustaqil baholash oʻtkazishi uning toʻlovga qobiliyatsizlik tartib-taomilidagi asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi hamda mol-mulkning bozor qiymatini xolis va asosli aniqlashga qaratilgan. Bunda moliyaviy boshqaruvchi qonunchilik talablari, baholash faoliyatiga oid me’yoriy hujjatlar hamda bozor konyunkturasini inobatga olishi shart.

Shu bilan birga, norma baholash natijalari ustidan protsessual nazoratni ta’minlash maqsadida ularni nizolashish huquqini belgilaydi. Xususan, jismoniy shaxsning oʻzi, kreditorlar, shuningdek, jismoniy shaxsning toʻlovga qobiliyatsizligi toʻgʻrisidagi ishda ishtirok etuvchi vakolatli davlat organi oʻtkazilgan baholashni qonunchilikka zid yoki asossiz, mol-mulk bozor qiymatidan sezilarli darajada farq qiladi deb hisoblagan taqdirda, uni natijalarini belgilangan tartibda nizolashishi mumkin.

Baholash natijalariga rozi boʻlmagan shaxslar sudga murojaat qilib, moliyaviy boshqaruvchining baholashini qonuniy asoslar boʻyicha qayta koʻrib chiqishni soʻrashlari mumkin. Vakolatli organ baholash natijalarini tekshirib, mol-mulk qiymatini qayta baholashni moliyaviy boshqaruvchidan talab qilishi mumkin. Nizo boʻyicha ariza sudga berilganda, sud baholashning huquqiy asoslari, mol-mulkni baholash usuli, hisob-kitobning asosliligi va bozor qiymatiga muvofiqligi tekshiriladi. Agar sud arizani qanoatlantirsa, mol-mulk qiymatini qayta baholash yoki boshlangʻich narxni oʻzgartirish boʻyicha qaror qabul qiladi. Baholash natijalarini nizolashish mexanizmining mavjudligi moliyaviy boshqaruvchi faoliyatining ochiqligini ta’minlaydi, mol-mulkni sun’iy ravishda

past yoki yuqori baholash holatlarining oldini oladi hamda kreditorlar hamda qarzdor jismoniy shaxsning qonuniy manfaatlarini muvozanatli himoya qilishga xizmat qiladi.

4. Ushbu norma kreditorlar yig‘ilishining qarzdor jismoniy shaxsning mol-mulkini baholash jarayonidagi huquq va vakolatlarini belgilaydi. Unga ko‘ra, kreditorlar yig‘ilishi qarzdor jismoniy shaxsning mol-mulkini baholash uchun Qonunga muvofiq baholovchi tashkilotni jalb etish haqida qaror qabul qilish huquqiga ega. Bu qaror mol-mulkni adolatli va haqqoniy qiymatda baholash, shu orqali kreditorlar talablarini qonuniy va mutanosib qanoatlantirish maqsadida qabul qilinadi.

Qaror qabul qilinganda baholashni amalga oshirish xarajatlari shaxsan o‘z roziligi bilan ovoz bergan kreditorlar hisobiga to‘lanadi. Bu tartib kreditorlar manfaatlari va moliyaviy mas’uliyatini balanslashtirishga qaratilgan bo‘lib, baholash xarajatlari faqat qarorni qo‘llab-quvvatlagan kreditorlar zimmasiga yuklanadi.

Ushbu norma kreditorlar yig‘ilishidagi qarorning qonuniyligini ta’minlaydi va mol-mulkni baholash jarayonida adolatli mexanizm yaratish barobarida mol-mulk qiymatini belgilash jarayonida xarajatlarning kim tomonidan qoplanishi aniq ko‘rsatilishi orqali xarajatlar bo‘yicha ixtiloflarning oldini oladi. Kreditorlar yig‘ilishining bunday vakolatlari baholash jarayonida barcha kreditorlar manfaatlarini hisobga olish va baholash natijasining haqiqiy bozor qiymatiga yaqin bo‘lishini ta’minlaydi.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismida jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish doirasida mol-mulkni sotish usulini belgilaydi va elektron onlayn-auksion tartibida sotishning huquqiy asosini ta’minlaydi.

Agar kreditorlar yig‘ilishining qarori yoki sudning ajrimida boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, jismoniy shaxsning mol-mulki, shu jumladan, uning bir qismi Qonunda nazarda tutilgan elektron onlayn-auksion shaklidagi kimoshdi savdosida sotiladi. Bu tartib mol-mulkni sotishda shaffof va adolatli raqobat muhitini ta’minlashga qaratilgan.

Ma’lumki, garov obyektiga kiritilgan mol-mulk qarzdor jismoniy shaxs tomonidan kreditorlar manfaatini kafolatlash maqsadida garovga qo‘yilgan mol-mulk sanaladi va bunday mol-mulkni sotishda uning huquqiy maqomi va garov shartlari hisobga olinadi. Agarda sotilayotgan mol-mulk garov obyektiga taalluqli bo‘lsa, uning sotilishi Qonunning 126-moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bu modda garov mulkini sotishda auksion o‘tkazish qoidalari, e’lon berish, ishtirokchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish va boshlang‘ich narxni belgilash talablarini o‘z ichiga oladi. Bu qoidalar garov obyekti sotilishida oshkoralik, tenglik va adolat tamoyillari bo‘lishi bilan birga mol-mulkni sotish jarayonida garov huquqlarini himoya qiladi va kreditorlar uchun qonuniy kafolat yaratadi.

6. Ushbu norma jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizligi doirasida mol-mulkni sotish va kreditorlar manfaatlarini ta’minlash tartibidagi muhim huquqiy mexanizmlarni belgilaydi.

Agarda moliyaviy boshqaruvchi jismoniy shaxsga tegishli mol-mulkni va (yoki) uchinchi shaxslardan talab qilish huquqini belgilangan tartibda sota olmasa yoki kreditorlar ushbu mol-mulkni yoki talab qilish huquqini o‘z talablarini qanoatlantirish uchun qabul qilishni rad etsa, mol-mulkdan to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida foydalanilmaydi.

Bu holatda sotish ishlari yakunlanganidan so‘ng jismoniy shaxsning ushbu mol-mulkni va (yoki) talab qilish huquqini tasarruf etish huquqi qayta tiklanadi. Ushbu tartib qarzdorning qonuniy huquqlarini himoya qiladi va mol-mulk noto‘g‘ri yo‘naltirilishining oldini oladi.

Shuningdek, tugatish massasini tashkil etuvchi va moliyaviy boshqaruvchi sotilmagan mol-mulkni dalolatnoma asosida jismoniy shaxsga topshirishi shart bo‘ladi. Dalolatnoma mol-mulk kimga va qanday asosda topshirilganini rasmiylashtiruvchi huquqiy hujjat bo‘lib xizmat qiladi va qarzdor uchun huquqiy xavfsizlikni ta’minlaydi.

Ushbu qoidalar to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilida kreditorlar va qarzdor jismoniy shaxs manfaatlarini muvozanatlashtiradi, sotilmagan mol-mulk uchun qarzdorning huquqini tiklaydi va mol-mulkning qonuniy tarzda qayta taqdim etilishini ta’minlaydi.

7. Ushbu norma moliyaviy boshqaruvchining jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizlik doirasida mol-mulkni inventarizatsiya qilish, baholash va sotish jarayonidagi vakolatlari va majburiyatlarini belgilaydi. Moliyaviy boshqaruvchi jismoniy shaxsning mol-mulkini inventarizatsiya qilish, baholash va sotish jarayonida jismoniy shaxsni, kreditorlarni hamda tegishli vakolatli organni ularning talabiga ko‘ra xabardor qilishi shart. Bu majburiyat ushbu jarayonning ochiqligi va barcha ishtirokchilarning huquqlari himoya qilinishiga qaratilgan.

Moliyaviy boshqaruvchi inventarizatsiya va baholash natijalari hamda mol-mulkni sotish ishlari haqida kreditorlar yig‘ilishida hisobot taqdim etishi shart bo‘ladi. Hisobotda mol-mulkning tarkibi, baholangan qiymati, sotish jarayoni va natijalar to‘liq va xolis ravishda aks ettirilishi kerak. Mazkur qoida to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilida mol-mulk bilan bog‘liq barcha jarayonlarni oshkora va nazoratli amalga oshirishni ta’minlaydi. Jismoniy shaxs va kreditorlar mol-mulkning qiymati va sotish jarayoniga oid axborotdan xabardor bo‘lib, o‘z huquq va manfaatlarini qonuniy tarzda himoya qilish imkoniga ega bo‘lishadi.

8. Mazkur moddaning sakkizinchi qismida jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizligi tartibida uning o‘z va oilaviy mulki bilan bog‘liq huquqiy masalalarni tartibga solishga qaratilgan.

Qoidaga muvofiq, jismoniy shaxsning eri (xotini) yoki sobiq eri (xotini) bilan umumiy mulk huquqi asosida bo‘lgan mol-mulki qarzdor jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish doirasida ushbu moddada nazarda tutilgan umumiy qoidalarga muvofiq sotiladi. Bu qoidalar mol-mulkning shaffof va qonuniy tarzda baholanishi va realizatsiya qilinishiga xizmat qiladi.

Er (xotin) yoki sobiq er (xotin) jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishda umumiy mol-mulkni sotish bilan bog‘liq masalalarni hal etishda ishtirok etishga haqli sanaladi. Bu huquq egasi mol-mulkning baholanishi, sotish tartibi va boshlang‘ich narxiga oid qarorlarda o‘z manfaatlarini himoya qilish imkoniga ega bo‘ladi.

9. Ushbu norma jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizligi doirasida er-xotin yoki sobiq er-xotinning umumiy mulkini sotishdan tushgan mablag‘larni taqsimlash tartibini belgilaydi. Unga ko‘ra, tugatish massasiga ushbu mol-mulkdan tushgan mablag‘larning qarzdor jismoniy shaxsning bunday mol-mulkdagi ulushiga muvofiq bo‘lgan

qismi kiritiladi. Bu ulush qarzdorning kreditorlar oldidagi majburiyatlarini qanoatlantirish maqsadida hisobga olinadi va to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilidagi asosiy mablag‘ hisoblanadi.

Umumiy mulkning qarzdorga tegishli bo‘lmagan qismi eriga yoki xotiniga (sobiq eriga yoki xotiniga) to‘lanadi. Bu tartib oilaviy mulkning qonuniy egalarini himoya qiladi va mol-mulkni adolatli taqsimlashni ta’minlaydi.

10. Mazkur moddaning o‘ninchi qismi jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizligi doirasida er-xotin yoki sobiq er-xotinning umumiy mulkidan tushgan mablag‘larni taqsimlash jarayonidagi maxsus holatlarni tartibga soladi.

Unga ko‘ra, agarda erning yoki xotinning (sobiq erning yoki xotinning) umumiy majburiyatlari mavjud bo‘lsa, masalan, solidar majburiyatlar yoki bir taraf boshqasi uchun kafillik yoki garov taqdim etgan bo‘lsa, ushbu holat mol-mulkdan tushgan mablag‘larning taqsimlanishiga ta’sir qiladi. Bu holda mablag‘larning erga yoki xotinga (sobiq erga yoki xotinga) tegishli bo‘lgan qismi, avvalo, ushbu shaxsning umumiy majburiyatlari qanoatlantirilganidan keyin to‘lanadi.

Ushbu tartib orqali umumiy majburiyatlar adolatli tarzda qondiriladi, mol-mulkdan tushgan mablag‘lar to‘g‘ri taqsimlanadi, er-xotinning huquqlari va to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilidagi kreditorlarning manfaatlari muvozanati ta’minlanadi. Qarang: Xalqaro sharh. 806-b.

221-modda. Jismoniy shaxs kreditorlarining talablarini qanoatlantirish tartibi

Kreditorlarning joriy to‘lovlarga doir talablari jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza qabul qilinguniga qadar yuzaga kelgan talablarga nisbatan ustunlikka ega bo‘ladi va bu talablar navbatdan tashqari qanoatlantiriladi.

Kreditorlarning joriy to‘lovlarga doir talablari quyidagi tartibda qanoatlantiriladi:

birinchi navbatda – alimentlar to‘lash, jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishga oid sud xarajatlari, moliyaviy boshqaruvchiga, jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish bo‘yicha o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni ta’minlash uchun moliyaviy boshqaruvchi tomonidan jalb etilgan shaxslarga haq to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan joriy to‘lovlar;

ikkinchi navbatda – mehnatga oid munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lgan joriy to‘lovlar;

uchinchi navbatda – kommunal to‘lovlar, shuningdek, ko‘p kvartirali uylarni boshqarish bo‘yicha uy-joy mulkdorlarining shirkatlariga to‘lanadigan majburiy to‘lovlar;

to‘rtinchi navbatda – boshqa joriy to‘lovlarga doir talablar qanoatlantiriladi.

Kreditorlarning joriy to‘lovlarga doir bitta navbatga taalluqli bo‘lgan talablari kalendar navbat tartibida qanoatlantiriladi.

Kreditorlar talablarining reyestriga kiritilgan talablar quyidagi tartibda qanoatlantiriladi:

birinchi navbatda – fuqarolarning hayotiga yoki sog‘lig‘iga zarar yetkazganlik uchun javobgarlik bo‘yicha talablar, shuningdek, alimentlar undirishga doir talablar;

ikkinchi navbatda – mehnatga oid munosabatlardan kelib chiqadigan talablar;

uchinchi navbatda – boshqa kreditorlarning talablari.

Kreditorlar bilan hisob-kitoblar ushbu Qonunning 150- va 154-moddalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Garov narsasini sotishdan tushgan pul mablag‘lari kreditorlarning garov bilan ta’minlangan talablarini qanoatlantirishga yo‘naltiriladi. Garovga qo‘yilgan mulk sotilganidan keyin kreditorlarning garov bilan ta’minlangan talablari to‘liq qanoatlantirilganidan so‘ng qolgan qismi tugatish massasiga kiritiladi.

Garov narsasining qiymati hisobidan qanoatlantirilmagan, jismoniy shaxsning mol-mulki garovi bilan ta’minlangan majburiyatlar kreditorlarning uchinchi navbatdagi talablari tarkibida qanoatlantiriladi.

Agar qarzdorning barcha mol-mulki garov bo‘lsa va (yoki) qarzdorning mol-mulklari kreditorlarning talablarini to‘liq hajmda qanoatlantirish uchun yetarli bo‘lmasa, garov narsasini sotishdan tushgan pul mablag‘lari quyidagi tartibda taqsimlanadi:

kreditorning birinchi va ikkinchi navbatdagi talablarini qanoatlantirish uchun, biroq pul mablag‘larining o‘n foizdan ortiq bo‘lmagan qismi doirasida;

moliyaviy boshqaruvchiga haq to‘lash, boshqaruvchi tomonidan jalb etilgan shaxslarning xizmatlariga haq to‘lash va garov narsasini sotish bilan bog‘liq xarajatlar, shuningdek, sud xarajatlarini hamda boshqa joriy to‘lovlarning o‘rnini qoplash, biroq pul mablag‘larining o‘n foizdan ortiq bo‘lmagan qismi doirasida qoplash uchun;

qolgan pul mablag‘lari kreditorlarning garov bilan ta’minlangan talablarini qanoatlantirishga yo‘naltiriladi.

Kreditorlarning jismoniy shaxsning mol-mulki yetarli emasligi sababli qanoatlantirilmagan talablari qanoatlantirilgan deb hisoblanadi, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Sharhlanayotgan moddada jismoniy shaxs kreditorlarining joriy va reyestrga kiritilgan talablarini qanoatlantirish navbati, garov bilan ta’minlangan talablarni qoplash tartibi hamda qarzdor mol-mulki yetarli bo‘lmagan hollarda mablag‘larni taqsimlash qoidalari belgilangan.

1. Ushbu norma qarzdor jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha kreditorlarning joriy to‘lovlarga doir talablari bo‘yicha nisbatan ustunlik berib, ushbu talablarni navbatdan tashqari qanoatlantirishni nazarda tutadi. Kreditorlarning joriy to‘lovlarga doir talablari – masalan, ish haqi, pensiya, ijtimoiy to‘lovlar va boshqa joriy majburiyatlar – ariza qabul qilingan vaqtgacha yuzaga kelgan talablarga nisbatan ustunlikka ega hisoblanadi. Bu to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili boshlanganidan avval yuzaga kelgan joriy to‘lovlar kreditorlari o‘z talablarini navbatdan tashqari qanoatlantirish huquqiga ega bo‘ladi degani.

Navbatdan tashqari qanoatlantirish joriy talablar kreditorlariga mol-mulkdan birinchi bo‘lib mablag‘ ajratilishini ta’minlaydi. Bu tartib orqali jismoniy shaxsning ijtimoiy va hozirgi iqtisodiy majburiyatlari birinchi darajada qondiriladi, ya’ni joriy to‘lovlar ustuvorligi kafolatlanadi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizlik tartibida kreditorlarning joriy to‘lovlarga doir talablarini qanoatlantirish tartibi belgilangan.

2.1. Birinchi navbatda qanoatlantiriladigan talablar to‘lovga qobiliyatsizlik tartibida qarzdor jismoniy shaxsning mol-mulkidan birinchi bo‘lib mablag‘ ajratilishi lozim bo‘lgan joriy talablardir. Bu talablar ijtimoiy yoki qonuniy ahamiyatga ega bo‘lib, ularning qondirilishi qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik natijasidagi kreditorlar va jismoniy shaxsning huquqiy manfaatlarini himoya qilish uchun birinchi o‘rinda amalga oshiriladi. Qolgan, ya’ni navbatli talablar esa birinchi navbat talablari qondirilgandan so‘ng qanoatlantiriladi.

«Birinchi navbatda qanoatlantiriladigan talablar» tushunchasi to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilida ustuvorlik prinsipini belgilaydi. Bu tartib orqali jismoniy shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega va qonuniy majburiyatlari birinchi navbatda qondiriladi, qolgan kreditorlar talablari esa keyingi bosqichlarda qanoatlantiriladi.

Birinchi navbat talablarga to‘lovlar: a) aliment to‘lovlari, ya’ni bolalar va ijtimoiy jihatdan qaramog‘ida bo‘lgan shaxslar uchun jismoniy shaxsning majburiyatlari; b) sud xarajatlari, ya’ni to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha ish yuritilishi bilan bog‘liq sud xarajatlari; d) moliyaviy boshqaruvchi bilan bog‘liq to‘lovlar, ya’ni jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligida moliyaviy boshqaruvchi tomonidan amalga oshiriladigan va o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni ta’minlash uchun jalb etilgan shaxslarga haq to‘lash bilan bog‘liq joriy to‘lovlardan iborat bo‘ladi.

2.2. Ikkinchi navbatda qanoatlantiriladigan talablar to‘lovga qobiliyatsizlik tartibida qarzdor jismoniy shaxsning mol-mulkidan birinchi navbat talablari qondirilgandan so‘ng mablag‘ ajratilishi lozim bo‘lgan joriy talablardir. Mehnatga oid joriy to‘lovlar bo‘lib, bu talablar jismoniy shaxsning mehnatga haq to‘lash majburiyatlari bilan bog‘liq mablag‘larni o‘z ichiga oladi. Masalan, ish haqi, mehnat shartnomasiga muvofiq to‘lanishi lozim bo‘lgan bonuslar, kompensatsiyalar va shu kabi mablag‘lar. Ikkinchi navbat talablari jismoniy shaxsning mehnatga oid huquqlarini himoya qilishga qaratilganligi to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilida ishchilarning moliyaviy manfaatlarini saqlash va adolatli taqsimlashni ta’minlaydi.

2.3. Uchinchi navbatda qanoatlantiriladigan talablar jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish doirasida birinchi va ikkinchi navbatdagi joriy to‘lovlar to‘liq qondirilgandan so‘ng qanoatlantirilishi lozim bo‘lgan talablar hisoblanadi. Bular, avvalo, kommunal to‘lovlar, ya’ni elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv ta’minoti, issiqlik ta’minoti, chiqindilarni olib chiqish hamda shu kabi hayotiy zarur xizmatlar uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan joriy to‘lovlardir. Ularning ushbu navbatga kiritilishi jismoniy shaxsning minimal yashash sharoitlarini ta’minlashga qaratilgan. Shuningdek, ushbu navbatga ko‘p kvartirali uylarni boshqarish bo‘yicha uy-joy mulkdorlarining shirkatlariga to‘lanadigan majburiy to‘lovlar ham kiritiladi. Bunday to‘lovlar umumiy mulkni saqlash, ta’mirlash va boshqarish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash maqsadida belgilanadi hamda barcha mulkdorlar uchun majburiy hisoblanadi.

Uchinchi navbat talablarining qanoatlantirilishi to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilida jismoniy shaxsning yashash sharoitlarini uzluksiz saqlash, shu bilan birga, ko‘p kvartirali uyning umumiy mulkidan foydalanish va uni saqlashga doir jamoaviy manfaatlarni himoya qilishni ta’minlaydi.

2.4. To‘rtinchi navbatda qanoatlantiriladigan talablar jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish doirasida birinchi, ikkinchi va uchinchi navbatlarda nazarda tutilgan joriy to‘lovlar to‘liq qondirilgandan keyingina qanoatlantirilishi mumkin bo‘lgan talablar hisoblanadi. Ushbu navbatga boshqa joriy to‘lovlarga doir talablar kiritiladi. Bular qonunchilikda alohida navbatlarga ajratilmagan, biroq jismoniy shaxsni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza qabul qilinganidan keyin vujudga kelgan va joriy xarakterga ega bo‘lgan majburiyatlardir. Masalan, xizmat ko‘rsatish shartnomalari bo‘yicha to‘lovlar, joriy ijara to‘lovlari, alohida shartnoma asosida yuzaga kelgan boshqa to‘lov majburiyatlari shular jumlasidandir.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish doirasida bir xil navbatga mansub bo‘lgan joriy to‘lovlarni qanoatlantirish tartibini belgilaydi. Unga ko‘ra, agar kreditorlarning talablari bir xil navbatga tegishli bo‘lsa, bunday talablar kalendar navbat tartibida, ya’ni ularning vujudga kelgan vaqtiga qarab qanoatlantiriladi. Kalendar navbat tartibi talablar qaysi sanada yoki qaysi vaqtda yuzaga kelgan bo‘lsa, aynan shu xronologik ketma-ketlikka muvofiq ravishda to‘lanishini anglatadi. Ilgariroq vujudga kelgan joriy talablar keyinroq yuzaga kelgan talablarga nisbatan ustuvor hisoblanadi.

Bu qoida bir xil navbat doirasidagi kreditorlar o‘rtasida tenglik va adolat prinsipini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, moliyaviy boshqaruvchi tomonidan mablag‘larni taqsimlashda ixtiyoriylik yoki tanlab to‘lash holatlarining oldini oladi.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismida jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish doirasida kreditorlar talablarining reyestriga kiritilgan talablarni qanoatlantirishda qo‘llaniladigan uchta navbat tartibi belgilangan. Ushbu tartib kreditorlar manfaatlarini ijtimoiy ahamiyatiga va huquqiy tabiatiga qarab ketma-ketlikda qanoatlantirishga qaratilgan.

Birinchi navbatda qanoatlantiriladigan talablar fuqarolarning hayotiga yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikdan kelib chiqadigan talablar hamda ali-

mentlar undirishga doir talablar sanaladi. Bu talablarning ustuvorligi ularning ijtimoiy ahamiyati yuqori ekani, inson hayoti, sog‘lig‘i va oilaviy ta’minot bilan bevosita bog‘liq ekani bilan izohlanadi.

Ikkinchi navbatda qanoatlantiriladigan talablar mehnatga oid munosabatlardan kelib chiqadigan talablar hisoblanadi. Bular ish haqi, mehnat shartnomasi asosida to‘lanishi lozim bo‘lgan kompensatsiyalar va boshqa mehnat huquqiy majburiyatlardan iborat bo‘lib, xodimlarning ijtimoiy himoyasini ta’minlashga qaratilgan.

Uchinchi navbatda qanoatlantiriladigan talablar yuqoridagi navbatlarga kiritilmagan boshqa barcha kreditorlarning talablarini o‘z ichiga oladi. Ularga shartnoma asosidagi qarz majburiyatlari, bank kreditlari, fuqarolik-huquqiy bitimlardan kelib chiqadigan talablar va shu kabi talablar kiradi.

Mazkur navbat tartibi to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida kreditorlar talablarini adolatli va ijtimoiy ahamiyat darajasiga muvofiq ravishda qanoatlantirishni ta’minlaydi hamda jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi holatida huquqiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

5. Ushbu norma jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish doirasida kreditorlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishning umumiy huquqiy asosini belgilaydi. Unga ko‘ra, kreditorlar bilan hisob-kitoblar to‘g‘ridan to‘g‘ri ushbu Qonunning 150- va 154-moddalarida nazarda tutilgan tartib va qoidalarga qat’iy rioya etilgan holda amalga oshirilishi lozim.

Ushbu qoida kreditorlar talablarini qanoatlantirish jarayonida ixtiyoriylikka yo‘l qo‘ymaslik, moliyaviy boshqaruvchi faoliyatini aniq huquqiy chegaralar bilan belgilash hamda to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilining barcha ishtirokchilari uchun yagona va majburiy mexanizmni ta’minlashga qaratilgan.

Qonunning 150-moddasida kreditorlar talablarini qanoatlantirishning umumiy prinsiplari, navbat tartibi va mablag‘larni taqsimlash qoidalari belgilangan bo‘lsa, 154-moddada kreditorlar bilan hisob-kitoblarni amalda yakunlash, to‘lovlarni amalga oshirish tartibi, shuningdek, hisob-kitoblar tugaganidan keyingi huquqiy oqibatlar tartibga solinadi.

Ushbu norma kreditorlar bilan hisob-kitoblar jarayonida qonuniylik prinsipiga rioya etilishini kafolatlaydi hamda jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizligi tartib-taomilining izchil va to‘liq amalga oshirilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

6. Mazkur moddaning oltinchi qismida jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish doirasida garovga qo‘yilgan mol-mulkni sotishdan tushgan pul mablag‘larini taqsimlash tartibi belgilangan. Unga muvofiq, garov narsasini realizatsiya qilish natijasida olingan pul mablag‘lari, avvalo, kreditorlarning garov bilan ta’minlangan talablarini qanoatlantirishga yo‘naltiriladi. Bu garov huquqining ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, garovga ega kreditorning qonuniy manfaatlarini himoya qiladi.

Garovga qo‘yilgan mulk sotilganidan keyin, agar garov bilan ta’minlangan kreditorlarning talablari to‘liq hajmda qondirilsa, ushbu sotuvdan tushgan pul mablag‘larining qolgan qismi tugatish massasiga kiritiladi. Bu mablag‘lar keyinchalik to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilida belgilangan navbat asosida boshqa kreditorlar talablarini qanoatlantirish uchun ishlatiladi.

Shu bilan birga, agar garov narsasini sotishdan tushgan mablag‘ garov bilan ta’minlangan talablarni to‘liq qoplash uchun yetarli bo‘lmasa, qoplanmagan qismi umumiy tartibda, ya’ni tegishli navbatga muvofiq holda qanoatlantiriladi.

7. Ushbu norma jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish doirasida garov bilan ta’minlangan majburiyatlarni qanoatlantirishning keyingi huquqiy tartibini belgilaydi. Unga ko‘ra, jismoniy shaxsning mol-mulki garovi bilan ta’minlangan majburiyatlar garov narsasini sotishdan tushgan mablag‘lar hisobidan to‘liq qondirilmagan taqdirda, qanoatlantirilmagan qismi alohida ustuvorlikka ega bo‘lmaydi.

Aniqroq qilib aytganda, garov narsasining qiymati hisobidan qanoatlantirilmagan talablar kreditorlarning uchinchi navbatdagi talablari tarkibiga kiritiladi va ular boshqa garov bilan ta’minlanmagan kreditorlarning talablari bilan bir qatorda, umumiy navbat tartibida qanoatlantiriladi.

Bu qoida garov huquqining amal qilish chegaralarini belgilab beradi: garov kreditorga faqat garov narsasining qiymati doirasidagina ustuvorlik beradi. Ushbu qiymat yetarli bo‘lmagan hollarda esa kreditor qolgan qismi bo‘yicha oddiy kreditor maqomiga ega bo‘ladi.

Ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida kreditorlar o‘rtasida adolatli muvozanatni ta’minlash, garov huquqini asossiz ravishda kengaytirib yuborishning oldini olish hamda tugatish massasini taqsimlashda aniq qoidalarni belgilashga xizmat qiladi.

8. Mazkur moddaning sakkizinchi qismi jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish doirasida alohida holat, ya’ni qarzdorning barcha mol-mulki garovga qo‘yilgan yoki mavjud mol-mulk kreditorlarning talablarini to‘liq qondirish uchun yetarli bo‘lmagan vaziyatda garov narsasini sotishdan tushgan pul mablag‘larini taqsimlashning maxsus huquqiy tartibini belgilaydi.

Ushbu holatda qonun garov bilan ta’minlangan kreditorlar manfaatlarini himoya qilish bilan bir qatorda ijtimoiy ahamiyatga ega talablar hamda to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilini amalga oshirish bilan bog‘liq zarur xarajatlarni qoplash uchun cheklangan miqdorda ustuvorlik belgilaydi.

Birinchidan, garov narsasini sotishdan tushgan pul mablag‘larining o‘n foizdan ortiq bo‘lmagan qismi kreditorlarning birinchi va ikkinchi navbatdagi talablarini qanoatlantirishga yo‘naltiriladi. Bunda birinchi navbatga hayot yoki sog‘liqqa yetkazilgan zarar hamda alimentlar bo‘yicha talablar, ikkinchi navbatga esa mehnatga oid munosabatlardan kelib chiqadigan talablar kiradi. Mazkur cheklov ijtimoiy ahamiyatga ega majburiyatlarni minimal darajada ta’minlashga qaratilgan.

Ikkinchidan, pul mablag‘larining yana o‘n foizdan ortiq bo‘lmagan qismi moliyaviy boshqaruvchiga haq to‘lash, u tomonidan jalb etilgan shaxslarning xizmatlari uchun haq to‘lash, garov narsasini sotish bilan bog‘liq xarajatlar, sud xarajatlari hamda boshqa joriy to‘lovlarni qoplashga yo‘naltiriladi. Bu qoida to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilining amaliy ijrosini ta’minlash, ya’ni jarayonning o‘zini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadini ko‘zlaydi.

Uchinchidan, yuqoridagi ikki yo‘nalish bo‘yicha belgilangan cheklangan miqdordagi to‘lovlar amalga oshirilgandan keyin qolgan barcha pul mablag‘lari kreditorlar-

ning garov bilan ta’minlangan talablarini qanoatlantirishga yo‘naltiriladi. Bu orqali garov huquqining asosiy mazmuni saqlab qolinadi va garovga ega kreditorlarga ustuvor huquq beriladi.

Shu tariqa, ushbu norma garov bilan ta’minlangan kreditorlar manfaatlarini asosiy tarzda himoya qilgan holda bir vaqtning o‘zida ijtimoiy ahamiyatga ega talablarni va to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilini amalga oshirish bilan bog‘liq zarur xarajatlarni cheklangan miqdorda qondirish orqali manfaatlar muvozanatini ta’minlashga qaratilgan.

9. Mazkur moddaning to‘qqizinchi qismi jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yakunida yuzaga keladigan muhim huquqiy oqibatni belgilaydi. Unga muvofiq, agar jismoniy shaxsning mol-mulki kreditorlar talablarini qanoatlantirish uchun yetarli bo‘lmagan va shu sababli ayrim talablar amalda qondirilmay qolgan bo‘lsa, bunday talablar qonuniy jihatdan qanoatlantirilgan deb hisoblanadi.

Bu qoida jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilining asosiy maqsadlaridan biri uni moliyaviy majburiyatlardan ozod qilish va iqtisodiy hayotda «yangi sahifa»dan faoliyat boshlash imkoniyatini berishga qaratilgan. Bunda to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili to‘liq yakunlanganidan keyin jismoniy shaxs qoplanmagan qarzlar bilan umrbod bog‘lanib qolmasligi, yangi iqtisodiy faoliyatni boshlash va moliyaviy hayotini qayta tiklash imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Shu bilan birga, normada «bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno» degan qoida nazarda tutilgan. Bu esa barcha talablar avtomatik ravishda kechiriladi degani emasligini anglatadi. Qonun ayrim holatlarda qanoatlantirilmagan talablarni saqlab qolishni nazarda tutishi mumkin. Masalan, qonunga ko‘ra, jismoniy shaxsning aybi bilan yetkazilgan hayot yoki sog‘liqqa zarar uchun javobgarlik; aliment majburiyatlari; qonunni qasddan buzish natijasida yuzaga kelgan majburiyatlar; to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida qarzdorning vijdonsiz xulq-atvori aniqlangan holatlar kabi talablar qanoatlantirilgan deb hisoblanmasligi mumkin.

Shu tariqa, ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlik institutining ijtimoiy yo‘naltirilganligini namoyon etadi: bir tomondan, kreditorlar qonun doirasida imkoni boricha qanoatlantiriladi, ikkinchi tomondan, jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari tugagandan keyin qolgan qarzlar yukidan ozod etiladi va iqtisodiy faol hayotga qaytish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Qarang: Xalqaro sharh. 806-b.

222-modda. Kreditorlar bilan hisob-kitoblarni tamomlash va jismoniy shaxsni majburiyatlardan ozod etish

Kreditorlar bilan hisob-kitoblar tamomlanganidan keyin moliyaviy boshqaruvchi sudga jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish natijalari to‘g‘risidagi hisobotni, jismoniy shaxsning mol-mulki sotilganligini va kreditorlarning talablari qanoatlantirilganligini tasdiqlovchi hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini, shuningdek, kreditorlarning qanoatlantirilgan talablari miqdorini ko‘rsatgan holda kreditorlarning talablari reyestrini taqdim etishi shart.

Jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish yakunlari haqidagi hisobotni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra sud jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomilini tamomlash to‘g‘risida ajrim chiqaradi.

Jismoniy shaxs kreditorlar bilan hisob-kitoblar tamomlanganidan keyin jismoniy shaxsning mol-mulki yetarli emasligi sababli kreditorlarning qanoatlantirilmagan talablarini, shu jumladan, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish yoki jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili joriy etilayotganda kreditorlarning bildirilmagan talablarini bajarish majburiyatidan ozod etiladi (bundan buyon matnda jismoniy shaxsni majburiyatlardan ozod etish deb yuritiladi).

Jismoniy shaxsni majburiyatlardan ozod etish mazkur moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan holatlarga, shuningdek, jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilganligi haqida xabardor bo‘lmagan yoki xabardor bo‘lishi mumkin bo‘lmagan kreditorlarning talablariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Jismoniy shaxsni majburiyatlardan ozod etishga quyidagi hollarda yo‘l qo‘yilmaydi, agar:

to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda jismoniy shaxsning g‘ayriqonuniy harakatlari oqibatida qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikni vujudga keltirganligi yoki to‘lovga qobiliyatsizlikni yashirganligi uchun ushbu shaxsni jinoiy yoki ma’muriy javobgarlikka tortish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan hujjati mavjud bo‘lsa;

jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligini ko‘rib chiqayotgan sudga jismoniy shaxs zarur ma’lumotlarni taqdim etmaganligi yoki bila turib soxta ma’lumotlar taqdim etganligi dalillari aniqlangan va bu dalillar jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish chog‘ida qabul qilingan tegishli sud hujjati bilan tasdiqlangan bo‘lsa;

kreditorning yoki tegishli vakolatli organning talablari yuzaga kelgan yoki bajarilayotgan davrda qarzdor jismoniy shaxsning qonunga xilof harakatlari, shu jumladan, firibgarlik, qarzlarni to‘lashdan asossiz ravishda bo‘yin tovlash, soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash, shuningdek, kredit olayotganda kreditorga bila turib soxta ma’lumotlar taqdim etish, mol-mulkni yashirish yoki qasddan yo‘q qilish isbotlangan bo‘lsa.

Mazkur moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan hollarda sud jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomilini tamomlash to‘g‘risidagi ajrimda jismoniy shaxsga nisbatan majburiyatlarni bajarishdan ozod etish haqidagi qoida qo‘llanilmasligini ko‘rsatadi, agar ushbu hollar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish tamomlanganidan keyin aniqlangan bo‘lsa, sud qarzdor jismoniy shaxsni majburiyatlardan ozod etish haqidagi qoida qo‘llanilmasligi to‘g‘risida ajrim chiqaradi.

Kreditorlarning joriy to‘lovlarga doir, hayotiga yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash haqidagi talablari, mehnatga oid munosabatlardan kelib chiqadigan, alimentlar undirish to‘g‘risidagi talablar, shuningdek, kreditorning shaxsi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan (shu jumladan, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda berilmagan) da’volar o‘z kuchida qoladi hamda ularning qanoatlantirilmagan qismi bo‘yicha jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish tamomlanganidan keyin qonunchilikda belgilangan tartibda taqdim etilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomili tamomlanganidan keyin sud kreditorlarning mazkur moddaning yettinchi qismida nazarda tutilgan va kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan qanoatlantirilmagan talablariga qonunchilikda belgilangan tartibda ijro varaqasini beradi.

Ushbu modda beshinchi qismining qoidalari:

jismoniy shaxsni subsidiar javobgarlikka tortilgan mas’ul shaxs sifatida jalb etish to‘g‘risidagi;

jismoniy shaxs tomonidan uning kollegial organlarining ishtirokchisi yoki a’zosi bo‘lgan yuridik shaxsga qasddan yoki beparvolik oqibatida yetkazilgan zararlarning o‘rnini qoplash haqidagi;

jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish bo‘yicha o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar moliyaviy boshqaruvchi tomonidan bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida qasddan, beparvolik oqibatida yetkazilgan zararlarning o‘rnini qoplash haqidagi;

jismoniy shaxs tomonidan o‘zganing mol-mulkiga qasddan yoki beparvolik oqibatida yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi;

ushbu Qonun talablariga muvofiq haqiqiy emas deb topilgan bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash haqidagi talablarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Sharhlanayotgan moddada moliyaviy boshqaruvchi tomonidan jismoniy shaxsning qarzdorligi bo‘yicha kreditorlar bilan hisob-kitoblarni tamomlash va jismoniy shaxsni majburiyatlardan ozod etish shartlari, shu bilan birga, jismoniy shaxsni majburiyatlardan ozod etishni istisno qiluvchi holatlar belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismi mazmuni shuni anglatadiki, jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomili doirasida kreditorlar bilan hisob-kitoblar to‘liq yakunlanganidan so‘ng moliyaviy boshqaruvchining vakolatlari hisobot berish bosqichiga o‘tadi. Ushbu bosqichda moliyaviy boshqaruvchi sud oldida o‘z faoliyati natijalarini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish majburiyatini oladi. Qoidaga ko‘ra, moliyaviy boshqaruvchi sudga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart: 1) jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish natijalari to‘g‘risidagi hisobot bo‘lib, u orqali mol-mulkni realizatsiya qilish jarayonining qonuniyligi, ochiqligi va samaradorligi baholanadi;

2) jismoniy shaxsning mol-mulki sotilganligini tasdiqlovchi hujjatlarning ko‘chirma nusxalari – mol-mulkni sotish fakti va uning amalga oshirilgan usulini tasdiqlash maqsadida; 3) kreditorlarning talablari qanoatlantirilganligini tasdiqlovchi hujjatlarning ko‘chirma nusxalari – bu hujjatlar hisob-kitoblar amalda bajarilganligini tasdiqlash uchun; 4) kreditorlarning qanoatlantirilgan talablari miqdori ko‘rsatilgan kreditorlar talablari reyestri, ya’ni har bir kreditor bo‘yicha talablar qay darajada va qay miqdorda qanoatlantirilganini aniq belgilash uchun.

Ushbu talablarning belgilanishi sudga jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish natijalarini, moliyaviy boshqaruvchining harakatlari qonun talablariga muvofiqligini hamda kreditorlar manfaatlarining himoya qilinganlik darajasini baholash imkonini beradi. Shuningdek, moliyaviy boshqaruvchining hisobdorligi va mas’uliyatini ta’minlashga, sud nazoratini kuchaytirishga hamda jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilining yakuniy bosqichini rasmiy ravishda yakunlashga xizmat qiladi.

2. Ushbu norma mazmuniga ko‘ra, sud jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomili doirasida moliyaviy boshqaruvchi tomonidan taqdim etilgan hisobotni ko‘rib chiqib, uning qonun talablariga muvofiqligi va asosliligini baholaydi. Hisobotda mol-mulkni realizatsiya qilish natijalari, kreditorlar bilan hisob-kitoblar holati hamda belgilangan tartib-taomilga rioya etilganligi aks ettirilishi lozim.

Hisobotni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra agar sud mol-mulkni sotish jarayoni qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshirilgan, kreditorlarning talablari belgilangan navbat va miqdorda qanoatlantirilgan, shuningdek, moliyaviy boshqaruvchi tomonidan qonun buzilishlarga yo‘l qo‘yilmagan deb topsa, u jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomilini tamomlash to‘g‘risida ajrim chiqaradi.

Hisobot asossiz deb topilgan taqdirda esa sud jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomilini tamomlashni rad etish to‘g‘risida ajrim chiqaradi. Bunday holatda jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomilini tamomlash masalasi kamchiliklar bartaraf etilib, yangi hisobot taqdim etilgandan so‘ng ko‘rib chiqiladi.

Sudning jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomilini tamomlash haqidagi ajrimi mazkur tartib-taomilning yakunlanganligini rasmiy ravishda tasdiqlaydi hamda moliyaviy boshqaruvchining ushbu bosqichdagi vakolatlari tugashiga, jismoniy shaxsga nisbatan qo‘llanilgan mol-mulkni sotish tartib-taomilining huquqiy oqibatlari yuzaga kelishiga, keyingi protsessual qarorlarni qabul qilish uchun huquqiy asos vujudga kelishiga xizmat qiladi.

Jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomilini tamomlash to‘g‘risidagi sud ajrimi protsessual qaror hisoblanadi hamda u manfaatdor shaxslar, jumladan, qarzdor, kreditorlar va moliyaviy boshqaruvchining huquq va qonuniy manfaatlariga daxl qiladi deb hisoblashi mumkin. Lekin bunday ajrimga nisbatan e’tirozlar bildirilishi masalasi nazariy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Biroq qonunchilikda jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomilini tamomlash to‘g‘risidagi sud ajrimi ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat qilish imkoniyati to‘g‘ridan to‘g‘ri nazarda tutilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

27. Sudlarning e’tibori qaratilsinki, sudning tugatishga doir ish yuritish tamomlanganligi haqidagi ajrimi ustidan shikoyat qilinmaydi (protest keltirilmaydi). Biroq bunday ajrim IPKning 327-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lsa, shu jumladan, tugatishga doir ish yuritish tamomlanganidan keyin qarzdorning mol-mulki aniqlansa, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga muvofiq yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rib chiqilishi mumkin. Tugatishga doir ish yuritish tamomlanganligi haqidagi ajrim yangi ochilgan holatlar bo‘yicha bekor qilingan taqdirda, sudning ajrimida tugatishga doir ish yuritish tiklanganligi ko‘rsatiladi.

Ushbu holatlarni inobatga olgan holda huquq normalarini analogiya bo‘yicha qo‘llash natijasida jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomilini tamomlash to‘g‘risidagi sud ajrimi ham apellyatsiya tartibida shikoyat qilinmaydi degan xulosaga kelish mumkin.

Shu bilan birga, mazkur ajrim sudning yakuniy protsessual qarori sifatida baholanishiga qaramay, u mutlaq daxlsiz hisoblanmaydi. Xususan, IPKning 327-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, jumladan, mol-mulkni sotish tartib-taomili tamomlanganidan keyin qarzdorning ilgari ma’lum bo‘lmagan mol-mulki aniqlansa, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga muvofiq mazkur ajrim yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Demak, jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomilini tamomlash to‘g‘risidagi sud ajrimi ustidan shikoyat qilish qonuniy jihatdan cheklangan bo‘lsa-da, protsessual adolatni ta’minlash maqsadida uni qayta ko‘rib chiqishning istisno mexanizmi sifatida yangi ochilgan holatlar instituti saqlab qolingan.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili yakunlanganidan keyin qarz majburiyatlarining huquqiy taqdirini belgilash nazarda tutilgan.

Ushbu normaga muvofiq, kreditorlar bilan hisob-kitoblar tamomlanganidan keyin, agar jismoniy shaxsning mol-mulki kreditorlarning barcha talablarini qanoatlantirish uchun yetarli bo‘lmagan bo‘lsa, jismoniy shaxs qanoatlantirilmay qolgan talablarni bajarish majburiyatidan ozod etiladi. Bu qoida jismoniy shaxsning moliyaviy holati obyektiv ravishda yetarli emasligi sababli qarzlarni to‘liq qoplash imkoniyati mavjud bo‘lmagan holatlarda qo‘llaniladi. Shuningdek, ushbu norma jismoniy shaxsga nisbatan qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili joriy etilganda, jismoniy shaxsni bankrot deb topib, uning mol-mulkini sotish tartib-taomili qo‘llanilganda kreditorlar tomonidan belgilangan tartibda bildirilmagan talablar ham qarzdor tomonidan bajarilishi shart emasligini nazarda tutadi. Bu esa kreditorlarning talablarni o‘z vaqtida va qonun talablariga muvofiq bildirish majburiyatini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, mazkur ozod etish mutlaq xususiyatga ega emas. Qonunchilikda aliment majburiyatlari, hayot yoki sog‘liqqa yetkazilgan zararni qoplash, jinoyat natijasida yetkazilgan zarar kabi ayrim majburiyatlar bo‘yicha qarzlarni saqlab qolish istisnolari nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismi mazmuni jismoniy shaxsni majburiyatlardan ozod etish institutining qo‘llanilish chegaralarini belgilashga qaratilgan bo‘lib, uning mutlaq xarakterga ega emasligini ifoda etadi. Normaga muvofiq, jismoniy shaxsni majburiyatlardan ozod etish quyidagi ikki toifadagi holatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

Birinchisi, mazkur moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan holatlar, ya’ni qonun chiqaruvchi tomonidan alohida belgilab qo‘yilgan istisnolar bo‘lib, ularda jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili yakunlangan taqdirda ham muayyan majburiyatlarni bajarishdan ozod etilmaydi. Bu holatlar, odatda, ijtimoiy ahamiyatga ega yoki alohida huquqiy himoyani talab etuvchi majburiyatlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ikkinchisi, jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilganligi haqida xabardor bo‘lmagan yoki xabardor bo‘lishi mumkin bo‘lmagan kreditorlarning talablari bo‘lib, mazkur qoida kreditorlarning protsessual huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Agar kreditor ish qo‘zg‘atilgani haqida xabardor bo‘lmagan yoki obyektiv sabablarga ko‘ra bunday axborotga ega bo‘lishi mumkin bo‘lmagan bo‘lsa, u o‘z talabini o‘z vaqtida bildirish imkoniyatidan mahrum qilingan deb hisoblanmaydi.

Ushbu istisnoning huquqiy mohiyati shundaki, jismoniy shaxsni majburiyatlardan ozod etish natijasida bunday kreditorlarning talablari avtomatik ravishda bekor qilinmasligi, ularning qonuniy manfaatlari ustuvor ravishda himoya qilinishi ta’minlanadi.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismi jismoniy shaxsni majburiyatlardan ozod etishga yo‘l qo‘yilmaydigan holatlarni belgilab bergan bo‘lib, unga ko‘ra: a) agar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda jismoniy shaxsning g‘ayriqonuniy harakatlari oqibatida qasddan to‘lovga qobiliyatsizlik yuzaga keltirilganligi yoki yashirilganligi uchun sud tomonidan jismoniy shaxsni jinoiy yoki ma’muriy javobgarlikka tortish haqida qonuniy kuchga kirgan hujjat mavjud bo‘lsa, majburiyatlardan ozod etish tatbiq qilinmaydi. Bu esa qarzdorning g‘arazli harakatlari oqibatida adolatni ta’minlash va kreditorlarning huquqlarini himoya qilish maqsadida qo‘llaniladi; b) agar jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizlikni ko‘rib chiqayotgan sudga zarur ma’lumotlarni taqdim etmagan yoki bila turib soxta ma’lumotlar taqdim qilganligi aniqlangan va bu dalillar tegishli sud hujjati bilan tasdiqlangan bo‘lsa, unga majburiyatlardan ozod etish qo‘llanilmaydi. Bu norma qarzdorning sud jarayonidagi mas’uliyatini ta’minlash va protseduraning oshkoraligini himoya qilishga qaratilgan; d) qarzdorning qonuniy majburiyatlarini bajarmaslik yoki firibgarlik qilayotgani isbotlangan hollarda, ya’ni soliqlar, yig‘imlar yoki kreditlarni to‘lashdan asossiz ravishda bo‘yin tovlash, kredit olayotganda kreditorga bila turib soxta ma’lumot taqdim qilish, mol-mulkni yashirish

yoki qasddan yo‘q qilish kabi ushbu harakatlar sud yoki tegishli vakolatli organ tomonidan isbotlangan bo‘lsa, jismoniy shaxs majburiyatlardan ozod qilinmaydi. Bu esa qarzdorning qasdli qonuniy huquqbuzarliklari oqibatida uni himoya qilishni cheklaydi va kreditorlarning manfaatlarini ta’minlaydi.

Ushbu norma jismoniy shaxsning majburiyatlardan ozod etilishi institutidagi adolatni ta’minlaydi, qarzdorning g‘arazli va soxta harakatlari oqibatida qonuniy mexanizmlardan foydalanishga yo‘l qo‘ymaydi.

6. Mazkur moddaning oltinchi qismida jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomilini tamomlash to‘g‘risidagi sud ajrimida jismoniy shaxsga nisbatan majburiyatlarni bajarishdan ozod etish qoidasi qo‘llanilmasligi asoslari belgilab qo‘yilgan.

Unga ko‘ra, mazkur moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan istisno holatlar aniqlangan taqdirda, sud jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomilini tamomlash to‘g‘risidagi ajrimda majburiyatlardan ozod etish qoidasi qo‘llanilmasligi haqida ko‘rsatadi. Agar bu istisno holatlar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish tamomlanganidan keyin aniqlangan bo‘lsa, sud qarzdor jismoniy shaxsni majburiyatlardan ozod etish haqidagi qoida qo‘llanilmasligi to‘g‘risida alohida ajrim chiqaradi.

Agar ushbu istisno holatlar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish tamomlanganidan keyin aniqlangan bo‘lsa, sud alohida ajrim chiqaradi. Bu ajrimda qonunchilikda belgilangan tartibda qarzdor jismoniy shaxsni majburiyatlardan ozod etish qoidasi qo‘llanilmasligi, ya’ni istisno holatlar sababli qarzdorning talablardan ozod qilinmasligi ko‘rsatiladi.

Shu tariqa, ushbu qoida sudga istisno holatlar aniqlangan taqdirda qarzdorni majburiyatlardan ozod qilish qoidasini qo‘llamaslik orqali adolatli va barqaror qaror chiqarish imkonini beradi. Bu ham qarzdor, ham kreditorlar manfaatlarini muvozanatli tarzda himoya qilishni ta’minlaydi, shu bilan birga, to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilining huquqiy aniqligi va samaradorligini mustahkamlaydi.

7. Mazkur moddaning yettinchi qismida kreditorlarning ayrim da’volari hamda ularning qanoatlantirilmagan qismi bo‘yicha talablar jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish tamomlanganidan keyin qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli tarzda kreditor tomonidan bildirilishi va taqdim etilishi mumkinligi ifodalangan. Qoidaga ko‘ra, kreditorlarning quyidagi turdagi talablari jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi tartib-taomilidan mustasno qilinadi va o‘z kuchida qoladi: 1) joriy to‘lovlarga doir talablar, ya’ni qarzdorning kundalik ehtiyojlari, kommunal xizmatlar, ijara haqi kabi muntazam to‘lovlar; 2) hayotiga yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash haqidagi talablar (bu qarzdorning harakatlari oqibatida boshqa shaxsga yetkazilgan zararni qoplashni nazarda tutadi); 3) mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan talablar, shu jumladan, mehnat haqi, kompensatsiyalar va boshqa mehnat huquqlariga doir to‘lovlar; 4) alimentlar undirish to‘g‘risidagi talablar, ya’ni bolalar va boshqa ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi lozim bo‘lgan shaxslar uchun belgilangan majburiyatlar; 5) kreditorning shaxsi bilan chambarchas bog‘liq da’volar,

shu jumladan, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda berilmagan va faqat shaxsiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar.

Shu bilan birga, ushbu talablarning qanoatlantirilmagan qismi jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish tamomlanganidan keyin qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli tarzda kreditor tomonidan bildirilishi (talab qilinishi) va taqdim etilishi mumkin.

8. Ushbu normada jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomilini tamomlashdan keyin ijro qilish tartibi belgilangan. Unga ko‘ra, jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomili tamomlanganidan keyin sud kreditorlarning mazkur moddaning yettinchi qismida nazarda tutilgan va talablar reyestriga kiritilgan qanoatlantirilmagan talablari bo‘yicha qonunchilikda belgilangan tartibda ijro varaqasini berishi mumkin.

Bu qoida kreditorlarning qanoatlantirilmagan talablarini mol-mulk sotilishidan keyin ham qonuniy tartibda ijro qilish imkonini ta’minlaydi. Ijro varaqasi orqali kreditorlar talablari amaliy va rasmiy usulda bajariladi, qarzdorning majburiyatlari qonuniy asosda ta’minlanadi.

9. Sharhlanayotgan moddaning to‘qqizinchi qismida jismoniy shaxsning majburiyatlardan ozod etilishiga yo‘l qo‘yilmaydigan holatlar qatoriga jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomilidagi mas’uliyati va uning g‘arazli yoki beparvo harakatlari oqibatida yuzaga kelgan zararlarni qoplash masalalari ham kiritilgan.

Unga ko‘ra, ushbu norma quyidagilarga nisbatan qo‘llaniladi: 1) jismoniy shaxsni subsidiar javobgarlikka tortish, ya’ni shaxsni moliyaviy mas’uliyatni boshqa shaxslar oldida ham olishga jalb qilish; 2) jismoniy shaxs tomonidan uning kollegial organlari ishtirokchisi yoki a’zosi bo‘lgan yuridik shaxsga qasddan yoki beparvolik oqibatida yetkazilgan zararni qoplash – bu holat shaxsning yuridik shaxs faoliyatidagi harakatlari natijasida yuzaga kelganda; 3) jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish bo‘yicha o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar moliyaviy boshqaruvchi tomonidan bajarilmaganligi yoki kerakli darajada bajarilmaganligi oqibatida qasddan yoki beparvolik bilan yetkazilgan zararni qoplash bo‘lib, bu qoida qarzdorning moliyaviy majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarmagan holatlarida; 4) jismoniy shaxs tomonidan o‘zganing mol-mulkiga qasddan yoki beparvolik oqibatida yetkazilgan zararni qoplash – shaxsning shaxsiy harakatlari oqibatida boshqa shaxs mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatida; 5) haqiqiy emas deb topilgan bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash haqidagi talablarda.

Mazkur qoidalar jismoniy shaxsning shaxsiy va moliyaviy mas’uliyatini aniqlaydi hamda uning g‘arazli yoki beparvo harakatlari oqibatida yuzaga kelgan zararlarni qoplashni ta’minlaydi. Subsidiar javobgar shaxslar yuridik shaxslar bilan bog‘liq va moliyaviy boshqaruvchi orqali bajarilishi lozim bo‘lgan majburiyatlarni ham qamrab oladi, bu esa kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ushbu norma qarzdorning shaxsiy harakatlari oqibatidagi va haqiqiy bo‘lmagan bitimlardan kelib chiqqan zararlarni qoplashga huquqiy asos sifatida xizmat qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 807-b.

223-modda. Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni qayta tiklash

Qarzdor jismoniy shaxsning mol-mulki yashirilganligi yoki jismoniy shaxsning mol-mulki qonunga xilof ravishda uchinchi shaxslarga berilganligi dalillari aniqlangan taqdirda, jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi tartib-taomili jarayonida talablari qanoatlantirilmagan kreditor yoki tegishli vakolatli organ sudga to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilini tamomlash haqidagi ajrimni qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat etishga haqli.

Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi tartib-taomilini tamomlash haqidagi ajrim ushbu ajrim chiqarilgan sanada kreditorga yoki tegishli vakolatli organga ma’lum bo‘lmagan yangidan ochilgan holatlar bo‘yicha mazkur moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan tartibda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Kreditor yoki tegishli vakolatli organ ushbu moddada belgilangan asoslarga ko‘ra jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi tartib-taomilini tamomlash haqidagi ajrimni qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi arizani sud tomonidan mazkur ajrimni qayta ko‘rib chiqish uchun asos bo‘lgan holatlar aniqlangan kundan e’tiboran bir oy ichida berishga haqli.

Sudning jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi tartib-taomilini tamomlash haqidagi ajrimini bekor qilish to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni qayta tiklash uchun asos bo‘ladi. Sud jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni yuritishni qayta tiklash haqida ajrim chiqaradi, ushbu ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi haqidagi ishni yuritish qayta tiklanganda uning mol-mulkini sotish tartib-taomili joriy etiladi.

Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi tartib-taomilini tamomlash to‘g‘risidagi ajrim bekor qilingan taqdirda, jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni yuritishni qayta tiklash haqidagi xabarni e’lon qilish ushbu Qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni yuritish qayta tiklanganda, jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi tartib-taomilini tamomlash haqidagi ajrim bekor qilingan kundan e’tiboran to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili tamomlanguniga qadar kreditorlarning talablari reyestridagi qanoatlantirilmagan qarzning bir qismi tiklanadi. Boshqa kreditorlar yoki tegishli vakolatli organ o‘z talablarini ushbu Qonunda belgilangan tartibda bildirish huquqiga ega.

Kreditorlar va (yoki) tegishli vakolatli organ talablarining tarkibi va miqdori jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritish qayta tiklangan sanaga ko‘ra aniqlanadi.

Sharhlanayotgan moddada jismoniy shaxsning yashirilgan yoki qonunga xilof ravishda boshqa shaxslarga o‘tkazilgan mol-mulki aniqlangan taqdirda, to‘lovga qobili-

yatsizlik to‘g‘risidagi ishni qayta tiklash, tegishli sud ajrimini qayta ko‘rib chiqish va kreditorlar talablarini qayta tiklash tartibi belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida qarzdor jismoniy shaxsning mol-mulki yashirilganligi yoki mol-mulki qonunga xilof ravishda uchinchi shaxslarga berilganligi dalillari aniqlangan taqdirda, sudga to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilini tamomlash haqidagi ajrimni qayta ko‘rib chiqish uchun ariza berish huquqiga ega shaxslar belgilangan. Unga ko‘ra, qonuniy tartibda ariza berish huquqiga ega shaxslar sifatida talablari qanoatlantirilmagan kreditorlar, ya’ni mol-mulk sotilishi va majburiyatlardan ozod qilinishi natijasida o‘z huquqini to‘liq qoplay olmagan kreditorlar hamda tegishli vakolatli organlar (qonunchilikda belgilangan holatlarda), ular ham suddan ishni qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha murojaat qilish huquqiga ega.

Ushbu subyektlar sudga ariza bilan murojaat qiladi va to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilini tamomlash haqidagi ajrimni qayta ko‘rib chiqish uchun asos sifatida yangi ochilgan holatlarni ko‘rsatadi.

Qayd etish lozimki, iqtisodiy sudlar o‘zlari qabul qilgan sud hujjatlarini tashabbus asosida yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rishi mumkin emas, shu bois yuqorida qayd etilgan subyektlar bunday ariza bilan sudga murojaat qilishi mumkin. Shuningdek, sudning hujjati yangi ochilgan holatlar bo‘yicha faqat qonuniy kuchga kirganidan keyin qayta ko‘rib chiqilishi mumkin. Bu qoida darhol ijro etiladigan sud hujjatlariga ham taalluqlidir.

Sudga ariza berish huquqi qarzdorning g‘arazli yoki beparvo harakatlari oqibatida yuzaga kelgan zararni qoplash va kreditorlarning huquqlarini himoya qilish maqsadida qo‘llaniladi. Sud tomonidan ishni qayta ko‘rib chiqish orqali qarzdorning mol-mulki yashirilgan yoki qonunga xilof ravishda berilgan holatlarda adolatli qaror qabul qilinishi va to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilida barqarorlik saqlanishi ta’minlanadi.

2. Ushbu normada jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi tartib-taomilini tamomlash haqidagi sud ajrimini qayta ko‘rib chiqish imkoniyatlari belgilangan. Unga ko‘ra, agar ajrim chiqarilgan sanada kreditorga yoki tegishli vakolatli organga ma’lum bo‘lmagan yangi ochilgan holatlar aniqlansa, sud mazkur moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan tartibda ishni qayta ko‘rib chiqishi mumkin.

Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi tartib-taomilini tamomlash haqidagi sud ajrimini qayta ko‘rib chiqish uchun asos bo‘lgan «yangi ochilgan holatlar» mazmuni IPKning 327-moddasiga va ushbu Qonun normalarida belgilangan qoidalarga muvofiq aniqlanadi.

Yangi ochilgan holatlar deganda sudda ish ko‘rib chiqilganda hisobga olina olmagan, aslida mavjud bo‘lgan faktik holatlar tushuniladi. Bunday holatlar: arizachiga va sudga ish yuritilishi paytida noma’lum bo‘lgan yoki ma’lum bo‘lishi mumkin bo‘lmagan; sud hujjatlari qabul qilingandan keyin ma’lum bo‘lgan; ishni ko‘rib chiqishda tekshirish predmeti bo‘lmagan va mavjudligi arizachiga ma’lum bo‘lmagan hamda ma’lum bo‘lishi mumkin bo‘lmagan yuridik faktni tasdiqlovchi yangi dalillarni o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilida yangi ochilgan holatlar sifatida qarzdorning mol-mulki yashirilganligi, mol-mulkning qonunga xilof ravishda

uchinchi shaxslarga berilganligi kabi noqonuniy holatlarni tasdiqlovchi boshqa dalillar ham e'tirof etilishi mumkin.

Yangi ochilgan holatlar Qonun hamda IPKning 327-moddasi asosida to'lovga qobiliyatsizlik ishini yuritgan sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Sud yangi dalillarni va faktlarni inobatga olib ishni qayta tiklash, ajrimni o'zgartirish yoki bekor qilish haqida qaror qabul qilishi mumkin. Bu norma qarzdorning mol-mulki bilan bog'liq g'arazli yoki noqonuniy harakatlarni aniqlash, kreditorlar huquqlarini himoya qilish va to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilida adolatni ta'minlashga qaratilgan.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida jismoniy shaxsning to'lovga qobiliyatsizligi tartib-taomilini tamomlash haqidagi sud ajrimini qayta ko'rib chiqish to'g'risida ariza berish muddatlari va huquqiy asoslar belgilangan.

Unga ko'ra, kreditor yoki tegishli vakolatli organ jismoniy shaxsning to'lovga qobiliyatsizligi tartib-taomilini tamomlash haqidagi sud ajrimini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi arizani sud tomonidan mazkur ajrimni qayta ko'rib chiqish uchun asos bo'lgan yangi ochilgan holatlar aniqlangan kundan e'tiboran bir oy ichida berishga haqli ekanligi belgilangan.

Belgilangan ariza berishning bir oylik muddati protsessual muddat bo'lib, ariza qayta ko'rish uchun asos bo'ladigan holatlar ochilgan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirib berilganda Qonunda bunday muddatni tiklash masalasi belgilanmagan. Biroq IPKda yangi ochilgan holatlar bo'yicha arizani berish muddatni sud o'tkazib yuborish sabablarini uzrli deb topilsa, ushbu muddat tiklanishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Shu bois IPK talablariga muvofiq, o'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risidagi iltimosnoma qanoatlantirilganda, bu haqida sudning arizani ish yuritishga qabul qilish haqidagi ajrimda ko'rsatilishi, o'tkazib yuborilgan muddatni tiklashni rad etilganda esa bu haqida arizani qaytarish to'g'risidagi ajrimda ko'rsatilishi lozim.

4. Ushbu normada jismoniy shaxsning to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risidagi ishni qayta tiklashning huquqiy asosi va protsessual tartibi belgilangan.

Unga ko'ra, sud tomonidan jismoniy shaxsning to'lovga qobiliyatsizligi tartib-taomilini tamomlash haqida chiqarilgan ajrim bekor qilingan taqdirda, mazkur holat to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish yuritishni qayta tiklash uchun qonuniy asos hisoblanadi. Bunda ish yuritish avtomatik tarzda emas, balki sudning alohida protsessual hujjati – jismoniy shaxsning to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risidagi ishni yuritishni qayta tiklash haqidagi ajrim chiqarilishi orqali amalga oshiriladi.

Sud jismoniy shaxsning to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risidagi ishni yuritishni qayta tiklash haqida ajrim chiqararkan, qarzdorning mol-mulki, kreditorlar talablari hamda boshqa muhim holatlar qaytadan ko'rib chiqilishi mumkin bo'ladi.

Sud hujjati yangi ochilgan holatlar bo'yicha bekor qilingan taqdirda, ilgari o'zi qabul qilgan sud hujjatini bekor qilgan sudning o'zi ishni IPKdagi umumiy tartib va Qonunda belgilangan qoidalar asosida ko'radi.

Yangi ochilgan holat bo'yicha sud ajrimi bekor qilingan taqdirda, iqtisodiy sud imkoniyat mavjud bo'lganda hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual huquqlarini qat'iy ta'minlagan, ya'ni ularni sud majlisi vaqti va joyi haqida tegishli

tartibda xabardor qilgan holda dastlabki sud ajrimini bekor qilish haqida ajrim chiqarilgandan so‘ng bevosita shu sud majlisida ishni mazmunan ko‘rib chiqishga haqlidir.

Shuningdek, qonun mazkur jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni yuritishni qayta tiklash haqidagi ajrimning protsessual kafolatlarini ta’minlab, uning ustidan belgilangan tartibda shikoyat berilishi yoki prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkinligini ham nazarda tutadi. Bu esa sud qarorlarining qonuniyligi va asosliligi ustidan yuqori sud instansiyalari nazoratini ta’minlashga xizmat qiladi.

5. Ushbu norma jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritish qayta tiklangan holatda qo‘llaniladigan tartib-taomilni belgilaydi. Unga ko‘ra, sud jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni yuritishni qayta tiklagan paytdan boshlab qarzdorning mol-mulkini sotish tartib-taomili qayta joriy etiladi.

Bu norma ish yuritish qayta tiklanishini to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining navbatdagi bosqichi sifatida emas, balki avval amalga oshirilgan tartib-taomilning davom ettirilishi sifatida baholashga asos bo‘ladi. Bunda ish yuritish qayta tiklanishi bilan qarzdor jismoniy shaxsga nisbatan uning mol-mulkini aniqlash, xatlash, saqlash va qonunchilikda belgilangan tartibda realizatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar qaytadan qo‘llaniladi.

Shu bilan birga, mol-mulkni sotish tartib-taomilining joriy etilishi kreditorlarning huquqlarini real ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, qarzdor tomonidan yashirilgan yoki qonunga xilof ravishda boshqa shaxslarga o‘tkazilgan mol-mulkni aniqlash va undan kreditorlar talablarini qanoatlantirish imkoniyatini yaratadi.

Demak, ushbu qoida to‘lovga qobiliyatsizlik ishi qayta tiklangan taqdirda, kreditorlar manfaatlarini himoya qilish hamda ish yuritishning maqsadlariga erishish uchun mol-mulkni sotish tartib-taomilining majburiy tarzda qayta joriy etilishini nazarda tutadi.

6. Ushbu normaga ko‘ra, jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi tartib-taomilini tamomlash to‘g‘risidagi sud ajrimi bekor qilingan holatda qo‘llaniladigan axborot berish bilan bog‘liq protsessual majburiyat belgilangan.

Unga ko‘ra, agar sud jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi tartib-taomilini tamomlash haqidagi ajrimni bekor qilsa, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish qayta tiklanganligi haqidagi xabar ushbu Qonunda belgilangan tartibda rasman e’lon qilinishi shart. Bunday e’lon ish yuritishning qayta tiklangani haqida barcha manfaatdor shaxslar, xususan, kreditorlar, vakolatli organlar hamda boshqa ishtirokchilarni o‘z vaqtida xabardor qilishga qaratilgan.

Xabarni belgilangan tartibda e’lon qilish to‘lovga qobiliyatsizlik ishida oshkoralik va ochiqlik tamoyillarini ta’minlaydi, kreditorlarga o‘z huquqlarini amalga oshirish, yangi aniqlangan mol-mulk yoki holatlar yuzasidan talab va e’tirozlar bildirish imkoniyatini beradi.

7. Mazkur moddaning yettinchi qismi qoidalari jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritish qayta tiklangan holatda kreditorlar talablarining huquqiy taqdiri va ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Qoidalarga ko‘ra, jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi tartib-taomilini tamomlash to‘g‘risidagi sud ajrimi bekor qilingan kundan e’tiboran to‘lovga qobiliyat-

sizlik tartib-taomili qaytadan tamomlanguniga qadar kreditorlarning talablari reyestrida qayd etilgan va avval qanoatlantirilmagan qarzning tegishli qismi huquqiy kuchga ega holda tiklanadi. Bu holat kreditorlarning avval mavjud bo‘lgan talablarini yo‘qqa chiqarmaydi, balki ish yuritish qayta tiklangani sababli ularni yana amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Shu bilan birga, ushbu norma ish yuritish qayta tiklanganidan so‘ng faqatgina avval reyestrga kiritilgan kreditorlar emas, balki boshqa kreditorlar hamda tegishli vakolatli organlar uchun ham huquqiy kafolatlarni belgilaydi. Bunda ular to‘lovga qobiliyatsizlik ishi qayta tiklanganidan keyin o‘z talablarini ushbu Qonunda belgilangan umumiy tartibda bildirish huquqiga ega bo‘ladi.

Demak, ushbu qoida to‘lovga qobiliyatsizlik ishini qayta tiklash jarayonida kreditorlar huquqlarining uzviy davomiyligini, manfaatlar muvozanatini hamda ish yuritishning adolatli amalga oshirilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

8. Ushbu norma jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritish qayta tiklangan holatda kreditorlar hamda tegishli vakolatli organlar talablarini aniqlashning vaqt nuqtasini belgilaydi. Unga ko‘ra, kreditorlar va (yoki) tegishli vakolatli organ talablarining tarkibi va miqdori ish yuritish qayta tiklangan sanaga qarab belgilanadi.

Bu qoidaga muvofiq, sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritishni qayta tiklash haqida ajrim chiqarilgan paytda mavjud bo‘lgan holatlar hisobga olinadi. Xususan, kreditorlarning talablari tarkibiga qayta tiklash sanasigacha qanoatlantirilmagan asosiy qarz, hisoblangan foizlar, penya va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa to‘lovlar kiritiladi.

Shu bilan birga, ilgari qanoatlantirilgan yoki qonunga muvofiq to‘xtatilgan talablar mazkur hisob-kitobga kiritilmaydi.

Ushbu norma huquqiy aniqlikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ish yuritish qayta tiklanganidan keyin talablar hajmini asossiz ravishda o‘zgartirish yoki orqaga qaytib qayta hisoblashga yo‘l qo‘ymaslikka xizmat qiladi. Shu orqali kreditorlar manfaatlari bilan qarzdor huquqlari o‘rtasida muvozanat saqlanadi hamda qayta tiklangan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili doirasida adolatli hisob-kitoblar amalga oshirilishi ta’minlanadi. Qarang: Xalqaro sharh. 807-b.

224-modda. Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni tamomlash oqibatlari

Jismoniy shaxsga nisbatan mol-mulkni sotish tartib-taomili tamomlangan yoki to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish tugatilgan sanadan e’tiboran besh yil ichida ushbu shaxs o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilganligi haqidagi faktni ma’lum qilmasdan turib o‘z zimmasiga kredit shartnomalari va (yoki) qarz shartnomalari bo‘yicha majburiyatlarni qabul qilishga haqli emas.

Jismoniy shaxsga nisbatan mol-mulkni sotish tartib-taomili tamomlangan yoki to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish tugatilgan sanadan e’tiboran besh yil ichida ushbu jismoniy shaxsning iltimosnomasiga ko‘ra to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilishi mumkin emas.

Besh yil davomida jismoniy shaxs kreditorning yoki tegishli vakolatli organning arizasi asosida takroran to‘lovga qobiliyatsiz deb topilgan taqdirda, jismoniy shaxsga nisbatan ushbu Qonun 222-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan jismoniy shaxsni majburiyatlardan ozod etish to‘g‘risidagi qoida qo‘llanilmaydi.

Jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomili tamomlanganidan keyin sud to‘lov muddati yetib kelgan, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish jarayonida bildirilmagan talablar bo‘yicha ijro varaqasini qonunchilikda belgilangan tartibda beradi.

Sharhlanayotgan moddada jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili yakunlanganidan keyin qo‘llaniladigan huquqiy cheklovlar, istisnolar hamda huquqiy oqibatlar majmuyi belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismi jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili yakunlanganidan keyin uning fuqarolik-huquqiy majburiyatlar qabul qilishiga qo‘yilgan cheklovni belgilaydi.

Unga ko‘ra, jismoniy shaxsga nisbatan mol-mulkni sotish tartib-taomili tamomlangan yoki to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish tugatilgan sanadan e’tiboran besh yil davomida ushbu shaxs o‘zining avval to‘lovga qobiliyatsiz deb topilganligi haqidagi faktni ma’lum qilmasdan turib kredit shartnomalari va (yoki) qarz shartnomalari bo‘yicha majburiyatlar qabul qilish huquqiga ega emas.

Ushbu norma kreditorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, qarz oluvchining moliyaviy holati to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborot taqdim etilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Jismoniy shaxsning avval to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilida ishtirok etgani kreditor uchun muhim huquqiy ahamiyatga ega holat hisoblanadi va u kredit berish yoki qarz shartnomasi tuzish haqida qaror qabul qilishda inobatga olinishi lozim.

Shu bilan birga, ushbu cheklov jismoniy shaxsni umuman kredit yoki qarz olish huquqidan mahrum etmaydi, balki unga nisbatan oshkoralik va halollik talabini qo‘yadi. Bunda besh yillik muddat ichida jismoniy shaxs kredit yoki qarz shartnomasini tuzishda o‘zining to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilganligi faktini kreditorga oldindan ma’lum qilgan taqdirda, bunday majburiyatlarni qabul qilishiga qonun to‘sqinlik qilmaydi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili yakunlanganidan keyin uning tashabbusi bilan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish imkoniyatiga qo‘yilgan vaqtinchalik cheklovni belgilaydi. Unga ko‘ra, jismoniy shaxsga nisbatan mol-mulkni sotish tartib-ta-

omili tamomlangan yoki to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish tugatilgan sanadan e’tiboran besh yil davomida ushbu jismoniy shaxsning iltimosnomasiga (arizasiga) ko‘ra to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ushbu norma jismoniy shaxs tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik institutidan takroran va asossiz ravishda foydalanishning oldini olishga, shuningdek, mazkur huquqiy mexanizmdan noqonuniy yoki suiiste’mol tarzida foydalanish holatlarini cheklashga qaratilgan. Bu orqali fuqarolik muomalasida barqarorlikni ta’minlash hamda kreditorlar manfaatlarini himoya qilish maqsad qilingan.

Shu bilan birga, ushbu cheklov mutlaq xarakterga ega emas. Bunda besh yillik muddat davomida jismoniy shaxsning o‘zi tashabbuskor bo‘lishi mumkin emas, biroq qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda kreditorning yoki tegishli vakolatli organning arizasi asosida jismoniy shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilishiga to‘sqinlik qilinmaydi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizlik holati takroran aniqlanganda uning huquqiy maqomi va majburiyatlarini tartibga soluvchi maxsus cheklovlar belgilangan. Mazkur cheklovga ko‘ra, besh yillik davr ichida jismoniy shaxs kreditorning yoki tegishli vakolatli organning arizasi asosida takroran to‘lovga qobiliyatsiz deb topilsa, unga nisbatan Qonunning 222-moddasi uchinchi qismida belgilangan jismoniy shaxsni majburiyatlardan ozod etish qoidasi qo‘llanilmaydi. Bu qoida qonunchilikdagi adolatli muvozanatni ta’minlashga qaratilgan.

Takroran to‘lovga qobiliyatsizlik holati aniqlangan taqdirda, jismoniy shaxsni majburiyatlardan ozod qilish huquqiy mexanizmidan foydalanish unga nisbatan qonunga xilof yoki mas’uliyatsiz xatti-harakatlar oqibatida bo‘lgan zararlarni kamaytirishga xizmat qilmasligi belgilanadi.

Boshqacha aytganda, agar jismoniy shaxsning takroran to‘lovga qobiliyatsiz deb topilishi mol-mulkni yashirish, firibgarlik yoki qasddan yoki beparvolikdan kelib chiqqan zararlarga asoslangan bo‘lsa, u majburiyatlardan ozod etish institutidan foydalanishi mumkin emas. Bu norma kreditorlar huquqlarini himoya qilish va qonun bilan belgilangan moliyaviy mas’uliyatni ta’minlash maqsadida joriy etilgan.

Shu tariqa, ushbu qoida kreditorlar va vakolatli organlarga huquqiy kafolat yaratadi va takroran to‘lovga qobiliyatsizlik holatlari yuzaga kelgan taqdirda, jismoniy shaxsning huquqiy imtiyozlarini cheklaydi.

4. Ushbu norma jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomili yakunlanganidan keyin ham kreditorlar huquqlarini ta’minlash mexanizmlarini belgilaydi. Unga ko‘ra, agar to‘lov muddati yetib kelgan bo‘lsa va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish jarayonida ayrim talablar bildirilmagan bo‘lsa, sud qonunchilikda belgilangan tartibda ijro varaqasini berish huquqiga ega bo‘ladi.

Ushbu norma kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, to‘lovga qobiliyatsizlik ishi doirasida ko‘rib chiqilmagan talablarni qonuniy tartibda undirish imkoniyatini ta’minlaydi. Shu tariqa, jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomili tugaganidan keyin ham barcha qonuniy talablar ijro etilishi kafolatlanadi.

Ijro varaqasi berish orqali kreditorlarning qarzdorga bo‘lgan qonuniy talablari rasmiy ravishda amalga oshiriladi, shu bilan birga, jismoniy shaxsning mol-mulkini sotish tartib-taomilini yakunlashdan so‘ng ham kreditorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmining qonuniy asosi mustahkamlanadi.

225-modda. Kelishuv bitimi tuzilganligi munosabati bilan jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari

Kelishuv bitimini tuzish jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni yuritishni tugatish uchun asos bo‘ladi.

Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi haqidagi ishni yuritish jarayonida tuzilgan kelishuv bitimi tegishli vakolatli organning va (yoki) kreditorlarning kreditorlar talablari reyestriga kelishuv bitimini tuzish haqida qaror qabul qilgan kreditorlar yig‘ilishi o‘tkazilgan sanada kiritilgan talablariga nisbatan tatbiq etiladi.

Kelishuv bitimi sud tomonidan tasdiqlanadi.

Kelishuv bitimi tuzilgan taqdirda jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining bajarilishi, shuningdek, kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga doir moratoriyning amal qilishi tugatiladi.

Kelishuv bitimi tuzilganligi munosabati bilan jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni yuritish tugatilganda:

moliyaviy boshqaruvchining vakolatlari tugatiladi;

jismoniy shaxs yoki kelishuv bitimida ishtirok etayotgan uchinchi shaxs kreditorlar oldidagi qarzni to‘lashga kirishadi.

Kelishuv bitimining shartlari buzilganligi munosabati bilan to‘lovga qobiliyatsizlik haqidagi ish yuritish qayta tiklangan taqdirda, jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili joriy etiladi.

Sharhlanayotgan moddada jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritish jarayonida kelishuv bitimi tuzilishi ish yuritishni tugatishga asos bo‘lishi, kelishuv bitimi sud tomonidan tasdiqlanishi, moliyaviy boshqaruvchining vakolatlari tugatilishi hamda bitim shartlari buzilgan taqdirda, ish yuritish qayta tiklanib, jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili joriy etilishi belgilangan.

1. Kelishuv bitimi jismoniy shaxs va kreditorlar o‘rtasida qarz majburiyatlarini qonuniy tartibda hal qilishga qaratilgan, sud tomonidan tasdiqlangan yozma kelishuvdir. Boshqacha aytganda, o‘zaro kelishishga asoslangan, talablariga nisbatan aniqlikka erishishga qaratilgan, nizoni hal qilish to‘g‘risidagi taraflarning yozma kelishuvi sifatida qarzdor jismoniy shaxs va kreditorlar o‘rtasida qarz majburiyatlarini adolatli va qonuniy tarzda hal qilishning samarali huquqiy mexanizmi hisoblanadi.

Uning asosiy maqsadi jismoniy shaxsning qarzlarini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va kreditorlar talablarini qonuniy asosda qanoatlantirishdan iborat.

Jismoniy shaxs va kreditorlar ishning har qanday bosqichi davomida, qarzdorning moliyaviy vaziyati aniqlangach, kelishuv bitimi tuzishi mumkin. Bu jarayonda kelishuv bitimi faqat kreditorlar talablari reyestriga kiritilgan talablarga nisbatan amal qiladi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarda ishda ishtirok etmagan shaxslar ham nizoni hal qilish to‘g‘risidagi kelishuv bitimida qatnashishi mumkin. Sud tomonidan tasdiqlangandan so‘ng kelishuv bitimi to‘lovga qobiliyatsizlik ishini yuritishni tugatish uchun asos bo‘ladi.

2. Ushbu norma talablarida kelishuv bitimi tuzishning huquqiy ta’siri va qo‘llanilish doirasi belgilangan. Unga ko‘ra, jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi haqidagi ishni yuritish jarayonida tuzilgan kelishuv bitimi faqat tegishli vakolatli organning va (yoki) kreditorlarning qarzdorning mol-mulki bilan bog‘liq qarzlarini tartibga solishga qaratilgan qaror qabul qilgan kreditorlar yig‘ilishi o‘tkazilgan sanada kreditorlar talablari reyestriga kiritilgan talablarga nisbatan amal qiladi.

Boshqacha aytganda, jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi haqidagi ishni yuritish jarayonida tuzilgan kelishuv bitimi faoliyat yurituvchi yoki qaror qabul qilgan kreditorlar talablari doirasidagi, kreditorlar reyestriga kiritilgan aniq talablarga nisbatan qonuniy kuchga ega bo‘ladi, ya’ni u umumiy kreditorlar talablariga tatbiq etilmaydi.

Bu kelishuv bitimi faqat qaror qabul qilingan kreditorlar ishtirok etgan yig‘ilishda kiritilgan talablar va ushbu talablar kreditorlar reyestrida qayd etilgan summalar bo‘yicha amal qiladi va keyinchalik chiqadigan yoki reyestrga kiritilmagan kreditor talablariga ta’sir etmaydi degani.

Kelishuv bitimini tuzish masalasi ko‘rilayotgan kreditorlar yig‘ilishida birinchi, ikkinchi va uchinchi guruh kreditorlari ovozga ega va qaror, basharti kreditorlar yig‘ilishida ishtirok etayotgan ushbu guruhlar kreditorlarining ko‘pchiligi uni yoqlab ovoz bergan bo‘lsa, qabul qilingan deb hisoblanadi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi haqidagi ishni yuritish jarayonida tuzilgan kelishuv bitimining sud tomonidan tasdiqlanishi belgilangan.

Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi haqidagi ishni yuritish jarayonida tuzilgan kelishuv bitimi sud tomonidan ko‘rib chiqilishi va tasdiqlanishi to‘lovga qobiliyatsizlik ishini yuritishni tugatishning asosiy va zarur bosqichidir. Sud ishni ko‘rish jarayonida taraflarning kelishuvga erishish choralarini qonuniy tartibda ta’minlaydi va kelishuv bitimi shartlarini tekshiradi.

Agar taraflar ishni ko‘rish jarayonida, har qanday sud majlisida kelishuv bitimi tuzish istagini bildirsa, sud ularga kelishuv bitimi tuzish uchun imkoniyat berish, shartlarni muhokama qilish yoki ishni boshqa muddatga qoldirish huquqiga ega.

Kelishuv bitimini tasdiqlash masalasi sud majlisida ko‘rib chiqiladi va ishda ishtirok etayotgan shaxslar sud majlisining vaqti va joyi to‘g‘risida qonuniy tartibda xabardor qilinadi.

Sudning vazifasi kelishuv bitimining shakli va mazmuni, uni tuzish tartibiga qo‘yiladigan talablarga rioya etilishini, bitimning qonunchilikka muvofiqligini va boshqa shaxslar huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligini tekshirishdan iborat. Bu

tekshirish sudning huquqi emas, balki majburiyati hisoblanadi. Shartli yoki qonunga zid tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi haqidagi ishni yuritish jarayonida tuzilgan kelishuv bitimi yozma shaklda rasmiylashtiriladi va qarzdor nomidan moliyaviy boshqaruvchi, kreditor vakillari yoki ishonchnoma asosida ishtirok etgan uchinchi shaxslar tomonidan imzolanadi. Ishonchnoma kelishuv bitimiga ilova qilinadi va ish hujjatlariga qo‘shib qo‘yiladi.

Kelishuv bitimi bir nechta nusxada tuziladi va imzolanadi, bittasi sudning ish hujjatlariga qo‘shiladi. Sud bitimni tasdiqlaganda uning qonunchilikka muvofiqligini, boshqa shaxslar huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzmasligini tekshiradi. Agar qonunga zidlik yoki huquq buzilish holati aniqlansa, sud kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etadi va ishni mazmunan ko‘rib chiqadi.

Sud tomonidan tasdiqlangan kelishuv bitimi faqat tasdiqdan so‘ng qonuniy kuchga ega bo‘ladi. Sud tasdiqlamagan bitim e’tiborga olinmaydi. Tasdiqlangan bitim qarzdorning majburiyatlari va kreditorlar huquqlarini aniq belgilaydi hamda uni ijro etish imkonini qonuniy asosda ta’minlaydi.

Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi haqidagi ishni yuritish jarayonida tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlash va ish yuritishni tugatish to‘g‘risidagi sud ajrimi qabul qilinadi va undan norozi taraf IPKda belgilangan tartibda shikoyat qilish yoki protest keltirish huquqiga ega.

Ushbu qoidalar kelishuv bitimi tuzish va uni tasdiqlash jarayonida qonuniylikni, taraflar huquqlarini va manfaatlarini himoya qiladi hamda to‘lovga qobiliyatsizlik ishini yuridik jihatdan adolatli tugatish imkonini ta’minlaydi.

4. Ushbu norma jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritishda kelishuv bitimining tuzilishi muhim huquqiy oqibatlarga ega ekanini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

50. Kelishuv bitimini tasdiqlash haqida sud ajrim chiqaradi va unda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish yuritish tugatilganligi ko‘rsatilishi lozim.

Kelishuv bitimi tuzilgan taqdirda, jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasining bajarilishi, shuningdek, kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga doir moratoriyning amal qilishi tugatiladi (Qonun 225-moddasining to‘rtinchi qismi).

Shu bilan birga, kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga doir moratoriyning amal qilishi ham bekor qilinadi. Bu esa kreditorlarning o‘z talablarini kelishuv bitimi shartlariga muvofiq amalga oshirish huquqini tiklaydi hamda qarzdorga nisbatan ilgari joriy etilgan cheklovlarning qo‘llanilishiga barham beradi.

Shuningdek, jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkni sotish tartib-taomili jarayonida kelishuv bitimi tasdiqlanganda, sudning ajrimida Qonun 161-moddasining beshinchi qismiga asosan qarzdorni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi hal qiluv qarori ijro etilmasligi, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish esa IPK 110-moddasining 7-bandiga asosan tugatilishi ko‘rsatilishi lozim.

Mazkur qoida kelishuv bitimini to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni tugatishga qaratilgan mustaqil va ustuvor huquqiy mexanizm sifatida e’tirof etadi hamda uning tasdiqlanishi bilan avvalgi tartib-taomillar o‘z ahamiyatini yo‘qotishini ta’minlaydi.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismida jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritish kelishuv bitimi tuzilganligi munosabati bilan tugatilganda yuzaga keladigan huquqiy oqibatlar belgilangan. Xususan, ish yuritish tugatilishi bilan moliyaviy boshqaruvchining ushbu ish doirasidagi barcha vakolatlari bekor qilinadi, u jismoniy shaxsning mol-mulki va moliyaviy faoliyatini boshqarish, nazorat qilish hamda bitimlar tuzishga rozilik berish huquqidan mahrum bo‘ladi.

Shu bilan birga, ish yuritish tugatilganidan so‘ng jismoniy shaxs yoki kelishuv bitimida ishtirok etayotgan uchinchi shaxs kreditorlar oldidagi qarz majburiyatlarini bevosita kelishuv bitimi shartlariga muvofiq ravishda bajarishga kirishadi. Bu holatda qarzlarni to‘lash tartibi, muddatlari va usullari kelishuv bitimi bilan belgilanadi hamda ularni ijro etish qarzdor (yoki uchinchi shaxs) zimmasiga yuklanadi.

Ushbu norma kelishuv bitimini to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni tugatishning hal qiluvchi huquqiy asosi sifatida mustahkamlaydi hamda sud tomonidan joriy etilgan boshqaruv va cheklov mexanizmlaridan odatiy fuqarolik-huquqiy majburiyatlar tizimiga o‘tishni ta’minlaydi.

6. Mazkur moddaning oltinchi qismidagi qoidalar kelishuv bitimining shartlari bajarilmagan yoki buzilgan taqdirda yuzaga keladigan huquqiy oqibatlarni belgilaydi. Agar kelishuv bitimi shartlari qarzdor jismoniy shaxs yoki bitimda ishtirok etuvchi uchinchi shaxs tomonidan lozim darajada ijro etilmasa va shu asosda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish qayta tiklansa, sud tomonidan jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili joriy etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

50. Kelishuv bitimining shartlari buzilganligi munosabati bilan jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi haqidagi ish yuritish qayta tiklangan taqdirda, jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili joriy etiladi (Qonun 225-moddasining oltinchi qismi).

Bunda kelishuv bitimi orqali nazarda tutilgan sog‘lomlashtirish va murosaviy mexanizmlar o‘z ahamiyatini yo‘qotib, ish yuritish to‘lovga qobiliyatsizlikning tugatuvchi bosqichiga o‘tadi.

Jismoniy shaxsni bankrot deb topish qarori uning mol-mulkini qonuniy tartibda sotish, tushgan mablag‘lar hisobidan kreditorlar talablarini belgilangan navbat va qoidalar asosida qanoatlantirishga huquqiy asos yaratadi.

Ushbu norma kelishuv bitimining majburiy kuchga ega ekanini ta’minlaydi hamda uning shartlari buzilgan taqdirda qarzdorga nisbatan qat’iy huquqiy oqibatlar qo‘llanilishini belgilash orqali kreditorlar manfaatlarini himoya qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 807-b.

226-modda. Qarzdor jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan bitimni bajarishdan bo‘yin tovlashning o‘ziga xos xususiyatlari

Qarzdor jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi ariza moliyaviy boshqaruvchi tomonidan ushbu Qonunning 63-, 64- va (yoki) 65-moddalariga asosan sudga o‘z tashabbusiga ko‘ra yoxud kreditorlar yig‘ilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining qaroriga binoan, shuningdek, kreditor yoki tegishli vakolatli organ tomonidan berilishi mumkin.

Qarzdor jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish haqidagi arizani berish huquqi jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili joriy etilgan sanadan e’tiboran ushbu Qonunning 63-, 64- va (yoki) 65-moddalariga asosan yuzaga keladi.

Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish bo‘yicha erxotinning umumiy mol-mulkiga nisbatan qarzdor jismoniy shaxsning eri (xotini) tomonidan tuzilgan bitimlarning haqiqiy emasligi haqidagi ariza oila to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra beriladi.

Sharhlanayotgan moddada qarzdor jismoniy shaxs yoki uning eri (xotini) tomonidan tuzilgan bitimlarni qonunda belgilangan asoslarga ko‘ra haqiqiy emas deb topish haqidagi ariza kimlar tomonidan, qaysi paytdan boshlab va qanday tartibda sudga berilishi mumkinligi belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritish doirasida qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topishga qaratilgan protsessual mexanizm belgilangan. Unga muvofiq, qarzdor jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi ariza, avvalo, moliyaviy boshqaruvchi tomonidan sudga berilishi mumkin. Moliyaviy boshqaruvchi ushbu arizani o‘z tashabbusiga ko‘ra kiritish huquqiga ega bo‘lib, bu uning tugatish massasini shakllantirish, qarzdorning mol-mulki asossiz kamayib ketishining oldini olish hamda qarzdorning noinsof harakatlariga chek qo‘yish vazifalari bilan bevosita bog‘liqdir. Shu tariqa, moliyaviy boshqaruvchi mazkur munosabatlarda faol va mustaqil subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, ushbu norma moliyaviy boshqaruvchining tashabbusini kreditorlar irodasi bilan bog‘laydigan mexanizmni ham nazarda tutadi. Xususan, kreditorlar yig‘-ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi tomonidan tegishli qaror qabul qilingan taqdirda, moliyaviy boshqaruvchi qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida sudga ariza kiritishga majbur bo‘ladi. Bu qoida kreditorlarning to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida ishtirok etishini kuchaytiradi hamda moliyaviy boshqaruvchining faoliyati ustidan jamoaviy nazoratni ta’minlaydi.

Bundan tashqari, ushbu norma kreditorlarga hamda tegishli vakolatli organlarga mustaqil ravishda sudga murojaat qilish huquqini beradi. Bu huquq moliyaviy boshqaruvchi tomonidan ariza berilmagan yoki uni berish asossiz ravishda kechiktirilgan hollarda kreditorlar manfaatlarini qo‘shimcha himoya qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Tegishli vakolatli organlar (masalan, soliq yoki bojxona organlari)ning ishtirok etishi esa ommaviy-huquqiy talablarni himoya qilishni ta’minlaydi.

Mazkur normada ariza berishning huquqiy asosi sifatida ushbu Qonunning 63-, 64- va 65-moddalariga havola qilinishi alohida ahamiyatga ega. Bu moddalar, odatda, qarzdor tomonidan kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazish maqsadida tuzilgan, afzallik beruvchi, asossiz yoki soxta bitimlarni haqiqiy emas deb topish asoslarini belgilaydi. Demak, ariza berish ixtiyoriy emas, balki qonunda aniq nazarda tutilgan holatlar bilan chegaralangan bo‘lib, bu huquqni qo‘llashda qonuniylik va asoslilik tamoyillariga rioya etilishini ta’minlaydi.

Shu tariqa, ushbu norma qarzdor jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish institutini to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining samarali huquqiy vositasi sifatida mustahkamlaydi, ariza berish huquqiga ega subyektlar doirasini keng belgilaydi hamda kreditorlar va davlat manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan kompleks mexanizmni nazarda tutadi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi qarzdor jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida sudga murojaat qilish huquqining paydo bo‘lish vaqtini aniq belgilaydi hamda ushbu huquqni amalga oshirishni muayyan huquqiy holat bilan bog‘laydi.

Ushbu normaga muvofiq, bunday arizani berish huquqi jismoniy shaxsning qarzini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili joriy etilgan sanadan e’tiboran yuzaga keladi. Bu qoida to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida qarzdorning moliyaviy faoliyati ustidan sud nazorati rasman o‘rnatilgan paytdan boshlab uning avval tuzgan bitimlarini qayta baholash imkoniyatini nazarda tutadi. Shu orqali qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik holatigacha yoki uning oldidan tuzilgan, kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazuvchi bitimlar aniqlanishi va bekor qilinishiga huquqiy asos yaratiladi.

Bunda ariza berish huquqi ixtiyoriy emas, balki ushbu Qonunning 63-, 64- va 65-moddalarida nazarda tutilgan aniq asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda amalga oshirilishi mumkin. Mazkur moddalar, odatda, qarzdor tomonidan kreditorlarga zarar yetkazish maqsadida tuzilgan bitimlar, ayrim kreditorlarga asossiz ustunlik beruvchi bitimlar, shuningdek, soxta yoki iqtisodiy mazmunga ega bo‘lmagan bitimlarni haqiqiy emas deb topish shartlarini belgilaydi. Demak, tarkibiy o‘zgartirish tartib-taomilining

joriy etilishi ushbu huquqni yuzaga keltiruvchi protsessual omil bo‘lsa, 63–65-moddalar uning moddiy-huquqiy asosini tashkil etadi.

Ushbu norma qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonidan oldingi davrda mol-mulkni yashirish, uni boshqa shaxslarga o‘tkazish yoki majburiyatlardan qasddan bo‘yin tovlashga qaratilgan harakatlarini cheklashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u qarzdorning halol va oqilona harakatlarini ham asossiz ravishda shubha ostiga qo‘ymaslikka qaratilgan bo‘lib, bitimlarni haqiqiy emas deb topish faqat qonunda belgilangan shartlar mavjud bo‘lgandagina mumkinligini kafolatlaydi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritish doirasida er-xotinning umumiy mol-mulki bilan bog‘liq bitimlarni haqiqiy emas deb topishning o‘ziga xos tartibini belgilaydi hamda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilik bilan oila qonunchiligi o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlikni ta’minlashga qaratilgan.

Ushbu normaga muvofiq, agar qarzdor jismoniy shaxsning eri (xotini) tomonidan er-xotinning umumiy mol-mulkiga nisbatan bitim tuzilgan bo‘lsa, bunday bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi ariza to‘lovga qobiliyatsizlik qonunchiligiga emas, balki oila to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra beriladi. Bu qoida er-xotin o‘rtasidagi mulkiy munosabatlarning maxsus huquqiy tabiatini e’tirof etishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv, bir tomondan, qarzdorning turmush o‘rtog‘i to‘lovga qobiliyatsizlik ishida ishtirok etuvchi shaxs hisoblanmasligini, ikkinchi tomondan, uning oilaviy-huquqiy maqomidan kelib chiqadigan mustaqil huquq va majburiyatlarga ega ekanini hisobga oladi. Shu sababli er-xotinning umumiy mol-mulkiga nisbatan tuzilgan bitimlarni avtomatik tarzda to‘lovga qobiliyatsizlik qoidalari asosida haqiqiy emas deb topishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ariza berishda oila to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan asoslar, jumladan, er-xotinning umumiy mol-mulkini tasarruf etishda turmush o‘rtog‘ining roziligi talab etiladigan holatlar, bunday rozilik mavjud bo‘lmagani, shuningdek, bitim oila manfaatlariga yoki turmush o‘rtog‘ining huquqlariga zid ekanligi kabi holatlar inobatga olinadi. Bu esa qarzdorning turmush o‘rtog‘i huquqlari asossiz cheklanib qolishining oldini oladi.

Protsessual tartibga ko‘ra, nizo da’vo ariza tartibida, manfaatdor shaxslarni (turmush o‘rtoq, kontragent, moliyaviy boshqaruvchi) ishga jalb etgan holda sud majlisida dalillar tekshirilib ko‘rib chiqiladi. Bunda moliyaviy boshqaruvchi to‘lovga qobiliyatsizlik nuqtayi nazaridan, sud esa oila qonunchiligi nuqtayi nazaridan baholashni amalga oshiradi. Ish natijasiga ko‘ra sud bitimni haqiqiy emas deb topish yoki da’vo arizani rad etish to‘g‘risida hal qiluv qarori qabul qiladi.

Shu tariqa, ushbu norma jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritishda er-xotinning umumiy mol-mulkiga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy rejimni aniq belgilab, to‘lovga qobiliyatsizlik qonunchiligi normalarini oila qonunchiligi bilan uyg‘unlashtirishga, shuningdek, kreditorlar manfaatlari bilan oila a’zolarining qonuniy huquqlari o‘rtasida muvozanatni ta’minlashga qaratilgan.

15-BOB. YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORNING TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIGI

227-modda. Yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligini tartibga solish

Agar ushbu bobda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligi bilan bog‘liq munosabatlarga nisbatan mazkur Qonunning 1-, 2-, 4- va 5-boblari qoidalari qo‘llaniladi.

Ushbu bobning qoidalari avvalgi tadbirkorlik faoliyatidan kelib chiqadigan majburiyatlar munosabati bilan yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligi munosabatlariga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Sharhlanayotgan moddada YTTning to‘lovga qobiliyatsizligi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishning umumiy huquqiy asoslari belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismiga ko‘ra, YTTning to‘lovga qobiliyatsizligi bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar ushbu bobda belgilangan qoidalar asosida tartibga solinadi. Shuningdek, agar boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, Qonunning 1-, 2-, 4- va 5-boblaridagi umumiy normalar ham bevosita qo‘llanilishi mumkin. Bu esa YTTning to‘lovga qobiliyatsizligiga oid munosabatlarni tartibga solishda maxsus va umumiy normalar o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Bunda ushbu bobda nazarda tutilgan maxsus qoidalar ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, ular bilan tartibga solinmagan masalalar Qonunning tegishli umumiy normalari asosida hal etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

47. Yuridik shaxslarning ayrim toifalari, yakka tartibdagi tadbirkor, **jismoniy shaxs,** tugatilayotgan yuridik shaxs va hozir bo‘lmagan qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishlar ko‘rilayotganda, qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, Qonunning **umumiy qoidalari qo‘llaniladi.**

53. Qonunning 227-moddasiga muvofiq, agar Qonun 15-bobining maxsus normalarida yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligini tartibga soluvchi boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligi bilan bog‘liq munosabatlarga Qonunning 1-, 2-, 4- va 5-boblarida nazarda tutilgan umumiy xarakterga ega qoidalar qo‘llaniladi.

Mazkur yondashuv huquqni qo‘llash amaliyotida bo‘shliqlarni bartaraf etish, huquqiy tartibga solishning izchilligi va tizimliligini ta’minlash, shuningdek, YTT ishtirokidagi to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarini ko‘rib chiqishda huquqiy aniqlik va bir xil amaliyotni shakllantirishga qaratilgan.

YTT fuqarolik va tadbirkorlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan hamda o‘zining moliyaviy va iqtisodiy majburiyatlari bo‘yicha shaxsan javobgar bo‘lgan jismoniy shaxsdir.

«Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasiga ko‘ra, YTT kichik tadbirkorlik subyektlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, mazkur qonunning 6-moddasiga muvofiq, jismoniy shaxs tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirishi yakka tartibdagi tadbirkorlik sifatida baholanadi. YTT faoliyati mustaqil ravishda, mulk huquqi asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanish huquqini beruvchi boshqa ashyoviy huquqlar asosida amalga oshiriladi.

YTT kreditorlarning pul majburiyatlari bo‘yicha talablarini to‘liq hajmda qanoatlantirishga va (yoki) soliq hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishga qodir bo‘lmagan taqdirda, sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsiz deb topilishi mumkin.

Shuningdek, YTT maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxs ham agar uning qarzdorlik majburiyatlari ilgarigi tadbirkorlik faoliyatidan kelib chiqqan bo‘lsa, belgilangan tartibda sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsiz deb topilishi mumkin (FKning 26-moddasi).

Ushbu subyektning o‘ziga xos jihati shundaki, YTT yuridik shaxs maqomiga ega emas, balki shaxsiy huquqiy maqomi asosida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi. Uning moliyaviy mas’uliyati shaxsiy xarakterga ega bo‘lib, uning qarzdorligi va to‘lov majburiyatlari odatda shaxsiy mol-mulki hisobidan ta’minlanadi.

YTTning to‘lovga qobiliyatsizligi uning moliyaviy majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajara olmaslik holatlaridir. Uning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha ifodalanadi.

Birinchidan, majburiyatlarning shaxsiy mol-mulk bilan bog‘liqligi, ya’ni uning qarzlari va majburiyatlari asosan uning shaxsiy mol-mulki hisobidan qoplanadi. Bu jihat uni yuridik shaxslardan farqlaydi, chunki yuridik shaxs asosan o‘z majburiyatlari bo‘yicha faqat o‘z mol-mulki bilan javob beradi.

Ikkinchidan, qarzdorlik miqdori va muddat kechiktirilishi to‘lovga qobiliyatsizlik belgilari sifatida e’tirof etiladi: agar YTT uch oy davomida qarzlarini to‘lamasa va qarz miqdori bazaviy hisoblash miqdorining kamida 200 baravarini tashkil etsa, sud tartibida to‘lovga qobiliyatsiz deb topilishi mumkin.

Uchinchidan, qonunchilikda maxsus tartiblar mavjud, ya’ni ularga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni uchun alohida qoidalar belgilangan, ammo ularda nazarda tutilmagan hollarda umumiy to‘lovga qobiliyatsizlik qonunchiligi normalari qo‘llaniladi.

To‘rtinchidan, faoliyati tugagan YTTlarga ham tatbiq etilishi, ya’ni agar jismoniy shaxs YTT maqomini yo‘qotgan bo‘lsa ham, uning qarzdorligi oldingi tadbirkorlik faoliyatidan kelib chiqqan bo‘lsa, unga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik tartibi qo‘llanilishi mumkin.

Agar YTTning to‘lovga qobiliyatsizligiga oid bobda maxsus, ya’ni faqat unga xos alohida qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, uning to‘lovga qobiliyatsizligi bilan bog‘liq munosabatlarga Qonunning 1-, 2-, 4- va 5-boblarida belgilangan umumiy qoidalar tatbiq etiladi. Shuningdek, YTT to‘lovga qobiliyatsiz deb topilgan holda u yuridik shaxslar uchun belgilangan umumiy tartibga bo‘ysunadi. Ya’ni ishni sudda ko‘rish, kreditorlar talablarini qanoatlantirish, mol-mulkni taqsimlash, to‘lovga qobiliyatsiz deb topish asoslari va buning huquqiy oqibatlari umumiy to‘lovga qobiliyatsizlik qonunchiligi normalariga muvofiq amalga oshiriladi.

YTTning to‘lovga qobiliyatsizligi holati yuridik shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligiga o‘xshash bo‘lsa-da, YTTga nisbatan qonunchilikka muvofiq, faqatgina tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili nazarda tutilgan. Unga nisbatan kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv taomillari qo‘llanilmaydi, chunki ular faqat yuridik shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan tartib-taomillar bo‘lib, korxona faoliyatini vaqtincha boshqarish, aktivlarni muhofaza qilish yoki qayta tiklashni nazarda tutadi. YTT esa jismoniy shaxs bo‘lgani uchun unga bunday boshqaruvchi tayinlanmaydi va tashqi nazorat o‘rnatilmaydi. Shu sababli to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida faqat qarzlarni to‘lash rejasi hamda tugatish taomili qo‘llaniladi, ular esa jismoniy shaxs sifatidagi tadbirkorning huquqiy maqomidan kelib chiqqan holda soddalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi.

2. Ushbu normaga ko‘ra, mazkur bob qoidalari faqat amalda YTT maqomiga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan emas, balki ilgari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan, biroq keyinchalik mazkur maqomni yo‘qotgan jismoniy shaxslarga ham tatbiq etilishi nazarda tutiladi. Bu normadan ko‘rinib turibdiki, YTT faoliyatini tugatishi uning oldingi tadbirkorlik faoliyati davomida yuzaga kelgan qarzdorlik va majburiyatlari uchun shaxsiy javobgarligini bartaraf etmaydi.

Avvalgi tadbirkorlik faoliyatidan kelib chiqadigan majburiyatlar deganda YTTning faoliyat yuritgan davrida yuzaga kelgan shartnomaviy, soliq va boshqa majburiyatlar tushuniladi. Ya’ni faoliyati rasman yakunlanganidan keyin ham ushbu majburiyatlar uchun YTT shaxsan javobgar bo‘lib qoladi va qarzdorlik tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan taqdirda, bunday shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi masalalari ushbu normalar asosida ko‘rib chiqiladi. Misol uchun, fuqaro A. YTT sifatida savdo faoliyati bilan shug‘ullangan va tadbirkorlik faoliyati doirasida tovar yetkazib beruvchilar yoki bank oldida YTT sifatida olgan kredit bo‘yicha bank oldida qarzdor bo‘lib qolgan. Keyinchalik u YTT sifatidagi davlat ro‘yxatidan chiqqan (guvohnomasi muddati tugab), tadbirkorlik faoliyatini tugatgan. Biroq u tugatilganidan so‘ng ham avvalgi tadbirkorlik faoliyatidan kelib chiqqan qarz majburiyatlarini bajarmagan. Natijada kreditorlar uning to‘lovga qobiliyatsizligi bo‘yicha sudga murojaat qilishadi. Shu holatda, garchi fuqaro A. endilikda YTT maqomiga ega bo‘lmasa-da, uning qarzlari aynan tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgani sababli, mazkur bob qoidalari ushbu shaxsga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Bu qoidalar kreditorlar huquqlarini himoya qilish, tadbirkorlik munosabatlarida mas’uliyatni ta’minlash va majburiyatlarning to‘liq bajarilishini kafolatlash maqsadini ko‘zlaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 811-b.

228-modda. Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligi alomatlari va uni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza

Agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to‘lov majburiyatlari yuzaga kelgan kundan e’tiboran uch oy ichida qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan bajarilmasa hamda qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan talablar bazaviy hisoblash miqdorining kamida ikki yuz baravarini tashkil etsa, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini qanoatlantirish va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish imkoniyati yo‘qligi qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsiz ekanligining alomatlari bo‘ladi.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza sudga qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor, kreditor, shuningdek, davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlar tomonidan berilishi mumkin, bundan hayotga yoki sog‘liqqa yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash, alimentlarni undirish haqidagi talablar, shuningdek, shaxsiy xususiyatga ega boshqa talablar bildiradigan kreditorlar mustasno.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish tartib-taomili amalga oshirilayotganda kreditorlar hayotiga yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash, alimentlarni undirish to‘g‘risidagi talablar, shuningdek, shaxsiy xususiyatga ega boshqa talablar yuzasidan o‘z talablarini taqdim etishga haqli. Mazkur kreditorlarning talablari, agar ular to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili qo‘llanilayotganda taqdim etilmagan bo‘lsa, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni yuritish tamomlanganidan keyin ham o‘z kuchini saqlab qoladi.

Sharhlanayotgan moddada YTTning uch oy davomida kamida BHMning ikki yuz baravari miqdoridagi qarz majburiyatlarini bajara olmasligi uning to‘lovga qobiliyatsizligi alomati ekanligi, bunday ishni qarzdor, kreditor yoki vakolatli organlar qo‘zg‘atishi mumkinligi hamda shaxsiy xususiyatga ega talablar bo‘yicha kreditorlar talablari ish yakunlanganidan keyin ham saqlanib qolishi nazarda tutilgan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida qarzdor YTTning to‘lovga qobiliyatsiz alomatlari nazarda tutilgan bo‘lib, ularning yuzaga kelish asoslari va shartlari belgilab berilgan.

Unga ko‘ra, agar YTTning pul majburiyatlari va (yoki) majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzlari ular yuzaga kelgan kundan e’tiboran uch oy davomida bajarilmasa hamda ushbu majburiyatlarning umumiy miqdori bazaviy hisoblash miqdorining kamida ikki yuz baravariga teng bo‘lsa, mazkur holat qarzdor YTTning kreditorlar talablarini qondirish va soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish imkoniyati mavjud emasligini anglatadi.

YTTning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish faqat ushbu moddada nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo‘lgan taqdirdagina sud tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin.

Agarda YTTga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza Qonunning 39–45-moddalarida belgilangan talablarga muvofiq bo‘lmasa, sud tomonidan ajrim asosida arizachining arizasi ish qo‘zg‘atilmasdan qaytariladi.

YTTning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlashda sud tomonidan Qonunning 49-moddasida belgilangan xususiyatlar inobatga olingan holda IPKning 19-bobida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi arizani ish yuritishga qabul qilish masalasini hal etishda sud Qonunning 37-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan asoslar va ushbu moddasida belgilangan alomatlar mavjudligini tekshiradi.

Agarda mazkur asoslar va alomatlar mavjud bo‘lmasa, sud Qonunning 46-moddasi beshinchi qismiga muvofiq arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etadi. Mazkur holat ariza qabul qilinib, ish qo‘zg‘atilganidan keyin aniqlangan taqdirda esa sud Qonunning 55-moddasi birinchi qismining ikkinchi xatboshisiga asosan qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topishni rad etish to‘g‘risida hal qiluv qarori qabul qiladi.

Shu tariqa, mazkur mezonlar qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligini aniqlashda rasmiy-huquqiy alomatlar sifatida xizmat qiladi. Ular to‘lovga qobiliyatsizlikni baholashda yagona va aniq mezonlarni belgilab, sud va vakolatli organlar uchun tegishli tartib-taomillarni boshlashga huquqiy asos yaratadi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismi talablariga ko‘ra, YTT to‘lovga qobiliyatsiz ekanligini sud tomonidan aniqlash uchun ariza berish huquqi qonun bilan belgilangan shaxslar doirasi belgilab berilgan. Unga ko‘ra, bunday arizani quyidagi subyektlar taqdim etishi mumkin.

Birinchidan, qarzdor YTT o‘zi bo‘lib, o‘zining moliyaviy holatini rasman tan olib, to‘lovga qobiliyatsizlik tartibini sud orqali boshlash maqsadida ariza berishi mumkin. Bu holatda YTT mas’uliyatini tan olgan holda o‘z tashabbusi bilan to‘lovga qobiliyatsizligini tartibga solish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Agarda ariza bilan murojaat qilish YTT uchun majburiy hisoblangan hollarda va arizaga Qonunning 40-moddasida nazarda tutilgan hujjatlar to‘liq ilova qilinmagan bo‘lsa, bunday ariza sud tomonidan ish yuritishga qabul qilinadi. Bunda yetishmayotgan hujjatlar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlash bosqichida sud tomonidan talab qilib olinadi.

Ikkinchidan, kreditorlar, ya’ni YTT oldidagi qarzdorlik talablarini qondirish maqsadida pul yoki boshqa majburiyatlar bo‘yicha talab qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar ariza berishi mumkin. Bu kreditorlar YTTning moliyaviy imkoniyatlarini baholagan holda o‘z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish huquqiy vositasidan foydalanadi.

Uchinchidan, soliq xizmati va boshqa vakolatli organlar – agarda YTTning soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha majburiyatlari bajarilmayotgan bo‘lsa, qonunda nazarda tutilgan holatlar mavjud bo‘lganda vakolatli organlar ham sudga ariza berishi mumkin. Bu davlat manfaatlarini himoya qilish va soliq majburiyatlari to‘liq bajarilishini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Qonunda istisno holatlar ham nazarda tutilgan bo‘lib, unga binoan, ariza berish huquqi hayotga yoki sog‘liqqa yetkazilgan zararni qoplash, alimentlarni undirish hamda shaxsiy xususiyatga ega boshqa talablarni bildiradigan kreditorlar uchun tatbiq etilmaydi. Bu istisnolar shaxsiy tabiatga ega, ya’ni qarzdorning moliyaviy holati bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan majburiyatlar bo‘yicha yuzaga keladi. Shu bois to‘lovga qobiliyatsizlik tartibi ularga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Ushbu qoidalar qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligini sud orqali rasman aniqlash uchun kimlar ariza topshirishi mumkinligini va qanday istisnolar mavjudligini belgilaydi. Bu norma to‘lovga qobiliyatsizlik tartibi faqat moliyaviy va tadbirkorlik majburiyatlari bilan bog‘liq qarzdorlikka nisbatan qo‘llanilishini kafolatlaydi va shaxsiy xususiyatdagi talablar bilan aloqasizligini belgilaydi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismiga ko‘ra, qarzdor YTTning to‘lovga qobiliyatsizligi bo‘yicha sud tartibida to‘lovga qobiliyatsizlik borasida ish qo‘zg‘atilgan va to‘lovga qobiliyatsizlik amalga oshirilayotganda qarzdorning pul majburiyatlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy talablar uchun ham kreditorlar o‘z da’volarini sud orqali taqdim etish huquqiga egaligi belgilab berilgan.

YTTning to‘lovga qobiliyatsizlik tartibi faqat moliyaviy va tadbirkorlik majburiyatlariga taalluqli bo‘ladi. Shaxsiy xarakterga ega talablar, masalan: qarzdorning shaxsiy harakatlari yoki mas’uliyati natijasida moddiy va ma’naviy zararni qoplash; aliment majburiyatlari (bolalar yoki oila a’zolari uchun); shaxsiy munosabatlardan kelib chiqqan boshqa talablar to‘lovga qobiliyatsizlik tartibiga kiritilmaydi. Bunday talablar kreditorlar tomonidan alohida sud tartibida himoya qilinishi mumkin. Muhimi shundaki, qarzdor YTTning to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili tugallanganidan keyin ham u shaxsiy tusdagi majburiyatlar bo‘yicha javobgarlikdan ozod etilmaydi. Bu esa mazkur talablarning uzviy ravishda shaxsning o‘zi bilan bog‘liq ekanligini anglatadi.

229-modda. Qarzlarni to‘lash rejasi

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsiz deb topish haqidagi arizasiga qarzlarni to‘lash rejasi ilova qilinishi mumkin bo‘lib, rejaning ko‘chirma nusxasi kreditorlarga va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga yuboriladi.

Kreditorlarning e’tirozlari bo‘lmagan taqdirda, sud qarzlarni to‘lash rejasini tasdiqlashi mumkin, bu esa to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritishni ko‘pi bilan ikki oy muddatga to‘xtatib turish uchun asos bo‘ladi.

Qarzlarni to‘lash rejasi:

qarzni to‘lash manbalarini;

rejani amalga oshirish muddatini;

qarzdorga yoki uning oila a’zolariga iste’mol uchun har oyda qoldiriladigan summalar miqdorlarini;

kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun har oyda yuborish nazarda tutilgan summalar miqdorlarini o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak.

Sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxslarning asoslantirilgan iltimosnomasiga ko‘ra ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan muddatda qarzlarni to‘lash rejasini o‘zgartirishga, shu jumladan, uni amalga oshirish muddatini, qarzdorga yoki uning oila a’zolariga iste’mol uchun har oyda qoldiriladigan summalar miqdorlarini ko‘paytirishga yoki kamaytirishga haqli.

Agar qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor qarzlarni to‘lash rejasini bajarganligi natijasida kreditorlarning talablari to‘liq hajmda qanoatlantirilgan bo‘lsa, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish tugatilishi lozim.

Sharhlanayotgan moddada qarzdor YTT to‘lovga qobiliyatsizligi tartibida kreditorlar talablarini qondirishga qaratilgan qarzlarni to‘lash rejasini tuzishi va uning bajarilishi bilan bog‘liq huquqiy oqibatlar belgilangan.

1. Ushbu normaga muvofiq, qarzdor YTTning o‘zining to‘lovga qobiliyatini tiklash maqsadida to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi arizasiga qarzlarni to‘lash rejasi ilova qilinishi mumkin. Bunda ushbu rejaning nusxasi kreditorlar hamda ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga yuborilishi lozim va buni tasdiqlovchi pochta kvitansiyasi va boshqa asoslovchi dalillar sudga taqdim etiladi. Bu rejaning ushbu shaxslarga yuborilishi ularga reja mazmuni bilan tanishish, e’tirozlari va boshqa munosabatlarini bildirish va uni nazorat qilish imkoniyatini yaratadi. Bunda qarzlarni to‘lash rejasi aynan qarzdorning tashabbusi bilan odatda sudga berilgan ariza bilan bir vaqtda taqdim etiladi. Mazkur holat qarzdorning o‘z moliyaviy ahvolini tiklashga intilayotganligini, shuningdek, kreditorlar oldidagi majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarishga tayyor ekanligini ko‘rsatadi.

Agarda rejaning nusxasi kreditorlar va ishda ishtirok etayotgan shaxslarga yuborilmasa, bu qoida talablari buzilgan hisoblanadi va kreditorlar o‘z huquqlarini himoya qilishda kerakli ma’lumotdan mahrum bo‘ladi, bu esa to‘lov rejasining tasdiqlanishi va uning nazorat qilinishi jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

2. Agarda qarzdorning to‘lov rejasiga kreditorlardan hech qanday e’tiroz kelib tushmasa, sud majlisi davomida sud tomonidan arizaga ilova qilingan qarzlarni to‘lash rejasi tasdiqlanishi yoki tasdiqlanmasligi mumkin va bu haqida sud ajrim chiqaradi. Agarda sud tomonidan tasdiqlansa, bu qarzdorning moliyaviy barqarorligini tiklash uchun sud nazorati ostida reja bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Sud rejani tasdiqlagan taqdirda, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish ikki oy muddatga to‘xtatilishi mumkin. Ushbu vaqtincha to‘xtatish YTTga reja bo‘yicha to‘lov majburiyatlarni amalga oshirish va kreditorlar talablarini qondirish imkoniyatini beradi. Qarzlarni to‘lash rejasini bajarish muddati to‘lovga qobiliyatsizlik ishini ko‘rish muddatiga qo‘shilmaydi. Qarzlarni to‘lash rejasi sud tomonidan tasdiqlangandan so‘ng u ishda ishtirok etuvchi shaxslar uchun majburiy xarakterga ega bo‘ladi.

Ushbu qarzlarni to‘lash rejasidan asosiy maqsad qarzdor YTTning to‘lov imkoniyatini tiklash, sud va kreditorlar uchun ish yuzasidan adolatli va tartibli nazoratni ta’minlash, moliyaviy majburiyatlar tartibli bajarilganda to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining ortiqcha uzaytirilishiga yo‘l qo‘ymaslik kabilardan iborat bo‘ladi.

Sud tomonidan qarzdor YTT taqdim etgan qarzlarni to‘lash rejasi belgilangan talablarga javob bermagan yoki kreditorlarning manfaatlariga zid deb topilgan hollarda sud qarzlarni to‘lash rejasini tasdiqlashni rad qilish haqida ajrim chiqaradi. Bu jarayonda har qanday e’tirozlar u sud tomonidan tasdiqlangunga qadar taqdim etilishi mumkin. Bunday e’tirozlar kreditorlar tomonidan bildirilgan bo‘lsa, rejada to‘lov manbalari yoki amalga oshirish muddati aniq ko‘rsatilmagan bo‘lsa, reja kreditorlar talablarini kam hajmda yoki noqonuniy tarzda qanoatlantirishni nazarda tutsa, qarzdorning haqiqiy moliyaviy imkoniyatlari inobatga olinmagan bo‘lsa, qarzdor tomonidan ma’lumotlar yolg‘on yoki to‘liq bo‘lmagan holda taqdim etilgan bo‘lsa, sud bularni inobatga oladi. Qarzlarni to‘lash rejasi sud tomonidan tasdiqlash rad etilganda to‘lovga qobiliyatsizlik ishini yuritish davom ettiriladi va qarzdorni tugatish tartib-taomili (realizatsiya) jarayoniga o‘tish mumkin bo‘ladi.

Qisqacha aytganda, kreditorlar e’tirozsiz bo‘lsa, sud to‘lov rejasini tasdiqlaydi va bu to‘lov jarayonini reja bo‘yicha amalga oshirish uchun to‘lovga qobiliyatsizlik ishini vaqtincha, ko‘pi bilan ikki oyga to‘xtatishi mumkin bo‘ladi. Bu YTTning moliyaviy barqarorligini tiklash va kreditorlarning huquqini tartibli ta’minlashga sabab bo‘ladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismi belgilangan qoidalarga ko‘ra qarzlarni to‘lash rejasi qarzdor YTTning moliyaviy majburiyatlarini tartibli bajarishini ta’minlash uchun tuzilish tartibi va uning qanday elementlarni o‘z ichiga olishi lozimligi belgilab berilgan.

Birinchidan, qarzni to‘lash manbalari, ya’ni har oydagi to‘lovlar qaysi moliyaviy manbalardan amalga oshirilishi ko‘rsatilishi lozim.

Ikkinchidan, rejani amalga oshirish muddati, ya’ni qarzdor qancha vaqt davomida to‘lovlarni bajarishi bo‘yicha rejaning umumiy muddati belgilanadi.

Uchinchidan, iste’mol uchun qoldiriladigan summalar, ya’ni qarzdorga va uning oila a’zolariga hayotiy ehtiyojlari uchun har oyda qoldiriladigan mablag‘lar miqdori ko‘rsatiladi.

To‘rtinchidan, kreditorlarni qondirish uchun yuboriladigan summalar, ya’ni kreditorlar talablarini qanoatlantirish uchun har oyda rejaga muvofiq yuborilishi lozim bo‘lgan mablag‘lar miqdori belgilab qo‘yiladi.

Qarzlarni to‘lash rejasi sud tomonidan tasdiqlangan taqdirda, mazkur ajrim ustidan shikoyat keltirilishi mumkin. Buning sababi shundaki, qarzlarni to‘lash rejasi tasdiqlanishi bilan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish to‘xtatilib, ishning keyingi harakati qarzdor tomonidan rejaning ijrosiga bog‘liq bo‘lib qoladi. Shu bois bunday ajrim kreditorlar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar huquq va qonuniy manfaatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va ularga uni qayta ko‘rib chiqishni so‘rab shikoyat qilish huquqi beriladi.

Ayni paytda, qarzlarni to‘lash rejasini tasdiqlashni rad etish haqidagi ajrim ustidan shikoyat qilish imkoniyati qonunchilikda nazarda tutilmagan. Chunki bunday holatda ish yuritish to‘xtatilmaydi, aksincha, to‘lovga qobiliyatsizlik ishi qarzdorni tugatish tartib-taomili asosida davom ettiriladi.

Qisqacha qilib aytganda, qarzlarni to‘lash rejasi qarzdorning hayotiy ehtiyojlari va kreditorlar talablarini muvozanatli tartibda ta’minlash mexanizmi sifatida xizmat qilishi lozim.

4. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxslar, masalan, kreditorlar yoki qarzdorning oila a’zolari asoslantirilgan iltimosnoma bilan murojaat qilgan taqdirda, sud qarzlarni to‘lash rejasini o‘zgartirish haqida qaror chiqarishi mumkin. Iltimosnoma asosli bo‘lishi, uzish muddati tugagunga qadar berilishi va rejadagi o‘zgarishlarning zarurligi sabablari aniq ko‘rsatilishi lozim.

Sud qarzlarni to‘lash rejasini amalga oshirish muddatini, ya’ni qarzdorning to‘lov majburiyatlari qaysi davr mobaynida bajarilishini, ushbu muddatni uzaytirish yoki qisqartirish imkoniyatini, shuningdek, qarzdor va uning oilasi uchun iste’mol maqsadida qoldiriladigan, hayotiy ehtiyojlar uchun zarur mablag‘lar miqdorini kamaytirish yoki ko‘paytirish masalalarini inobatga olgan holda o‘zgartirishga haqli.

To‘xtatilgan to‘lovga qobiliyatsizlik ishi tiklanib, iltimosnomalarni sud majlisida ko‘rib chiqishga tayinlanadi, sud majlisida ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda ko‘rib chiqiladi va ishni ko‘rish natijasi bo‘yicha ajrim chiqariladi. Sud iltimosnomani asosli deb topsa, qarzlarni to‘lash rejasiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida ajrim chiqaradi va ushbu talabni rejaga kiritadi. Mazkur qarzlarni to‘lash rejasiga o‘zgartish kiritish haqidagi iltimosnomalarni rad etish haqidagi ajrim ustidan shikoyat qilinmaydi.

Bu qarzlarni to‘lash rejasi bilan bog‘liq mexanizmlar qarzdorning hayotiy ehtiyojlari va kreditorlarning moliyaviy huquqlarini muvozanatli ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, sudning qaror chiqarishi qarzlarni to‘lash rejasini amalga oshirishni soddalashtiradi va to‘lovga qobiliyatsizlik tartibini samarali yuritish imkonini beradi.

5. Mazkur moddaning beshinchi qismidagi qoidalar shundan dalolat beradiki, agar qarzdor YTT tuzilgan va sud tomonidan tasdiqlangan qarzlarni to‘lash rejasini to‘liq bajarsa, ya’ni barcha kreditorlarning talablarini to‘liq hajmda qoplasa, to‘lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) jarayonini davom ettirishga hojat qolmaydi. Shu asosda sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Bu holat quyidagi huquqiy ahamiyatga ega, ya’ni qarzdor to‘lovga qobiliyatsiz deb hisoblanmaydi, uning huquqiy maqomi va faoliyati cheklanmaydi, to‘lov qobiliyati tiklangan hisoblanishi bois tadbirkorlik faoliyatini davom ettirishi mumkin bo‘ladi.

Umuman olganda, mazkur qoida talablariga ko‘ra, qarzdor YTT qarzlarni to‘lash rejasida nazarda tutilgan majburiyatlarni to‘liq bajarib, kreditorlarning talablari to‘liq hajmda qanoatlantirilgan taqdirda, sud ajrimi bilan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish tugatilishi lozimligi belgilanadi. Qarang: Xalqaro sharh. 811-b.

230-modda. Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning tugatish massasiga kiritilmaydigan mol-mulklari

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning undiruvni qaratish mumkin bo‘lmagan mol-mulklari tugatish massasiga kiritilmaydi.

Sud qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning hamda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarning asoslantirilgan iltimosnomasiga ko‘ra qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning undiruvni qaratish mumkin bo‘lmagan nolikvid bo‘lgan mol-mulkini yoxud realizatsiya qilinishidan olingan daromad kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga jiddiy ta’sir etmaydigan mol-mulkini tugatish massasidan chiqarishga haqli.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning ushbu modda ikkinchi qismining qoidalariga muvofiq tugatish massasidan chiqariladigan mol-mulkining umumiy qiymati bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan ortiq bo‘lmasligi kerak. Bunday mol-mulkning ro‘yxati sud tomonidan tasdiqlanib, bu haqida ajrim chiqariladi, ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Sharhlanayotgan moddada qarzdor YTTning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritish doirasida tugatish massasiga kiritilmaydigan mol-mulklarning huquqiy rejimi belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismiga ko‘ra, qarzdor YTTning undiruvni qaratish mumkin bo‘lmagan mol-mulki, ya’ni qonunchilikka muvofiq to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida tortib olinishi yoki sotilishi mumkin bo‘lmagan shaxsiy yoki ijtimoiy zarur mol-mulklar tugatish massasi (to‘lovga qobiliyatsizlikdagi mulkiy massa) tarkibiga kiritilmasligi belgilangan. Shu bilan birga, Qonunning 146-moddasi birinchi qismiga muvofiq, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning barcha aktivlari, ular buxgalteriya balanslarida aks ettirilgan yoki ettirilmaganligidan qat’i nazar, tugatish massasini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Demak, qonun chiqaruvchi tomonidan umumiy qoida sifatida qarzdorning barcha mol-mulki tugatish massasiga kiritilishi belgilangan bo‘lsa-da, ayrim toifadagi mol-mulklar ijtimoiy himoya nuqtayi nazaridan mazkur massa tarkibidan chiqarib tashlanadi.

Boshqacha aytganda, bunday mulklar tadbirkorning shaxsiy hayoti va tirikchilik vositalari bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, ularni qarzdorning qarzlarini qoplash uchun ishlatishga yo‘l qo‘yilmaydi. Masalan, bu turkumga odatda uy-joyning belgilangan qismi, asosiy maishiy jihozlar, zarur kiyim-kechak va oziq-ovqat zaxirasi, mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan vositalar (masalan, ish qurollari va h.k.) kiradi.

«Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 52-moddasida belgilangan qoidalar YTTlarga ham tatbiq etiladi, ya’ni ularning to‘lovga qobiliyatsizligi jarayonida undiruv faqat tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq mol-mulkka qaratilgan holda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, mazkur moddaga muvofiq, YTTning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan turarjoyi, maishiy buyumlari, mehnat faoliyati uchun zarur vositalari va in-

sonning munosib yashashi uchun kerakli boshqa mulki undiruvdan mustasno qilinadi. Bu norma YTTning iqtisodiy faoliyati cheklansa ham, uning shaxsiy va oilaviy hayoti uchun zarur minimal mulkiy asos saqlanib qolishini ta'minlaydi hamda YTTning va oilasining hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan mulkni qarzdorlik tartibida yo‘qotib qo‘yishdan muhofaza qiladi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismiga ko‘ra, qarzdor YTTning hamda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarning asoslantirilgan iltimosnomasiga asosan qarzdor YTTning undiruvni qaratish mumkin bo‘lmagan mol-mulkini tugatish massasidan chiqarish mumkinligini belgilaydi. Bu holat ikki turdagi mulklarga taalluqli bo‘lishi mumkinligi nazarda tutiladi.

Birinchisi, undiruvni qaratish mumkin bo‘lmagan nolikvid mol-mulklar, ya'ni bozorda sotilishi amalda ilojsiz yoki iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lgan mulklar (masalan, haddan tashqari eski, qiymati past yoki sotish uchun talab yo‘q aktivlar).

Ikkinchisi, kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga jiddiy ta'sir etmaydigan mulklar, ya'ni ularni sotishdan tushadigan mablag‘ qarzlarni to‘lash jarayoniga sezilarli ta'sir ko‘rsatmaydigan hollarda tugatish massasidan chiqarish mumkin.

Bunday qaror faqat sud tomonidan qabul qilingan ajrim asosida qarzdorning, kreditorning yoki boshqa manfaatdor shaxsning asoslangan iltimosnomasiga binoan (mol-mulkning qiymati haqidagi dalil sifatida baholovchi tashkilot xulosasi) amalga oshiriladi.

Sud chiqargan ajrim protsessual hujjat hisoblanadi va u qonunga muvofiq shikoyat qilinishi yoki protest keltirilishi mumkin. Bu, ayniqsa, tugatish massasidan mol-mulkni chiqarish yoki uni undiruvdan mustasno qilish to‘g‘risidagi ajrimlarga taalluqli bo‘lib, ishtirokchilar bu qarordan norozi bo‘lgan taqdirda, belgilangan tartibda yuqori turuvchi sud instansiyasiga shikoyat berish huquqiga egadir.

Bu norma to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga, ortiqcha va ma'nosiz sotuv jarayonlarining oldini olishga hamda sud ishini optimallashtirishga qaratilgan.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida qoida qarzdor YTTning tugatish massasidan chiqarilishi mumkin bo‘lgan mol-mulk qiymatiga cheklov o‘rnatadi, ya'ni undiruvdan ozod qilinadigan mol-mulkning umumiy qiymatini belgilaydi. Unga ko‘ra, qarzdor YTTning tugatish massasidan chiqarilishi mumkin bo‘lgan mol-mulkning umumiy qiymati bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan oshmasligi kerak.

Sud faqat qarzdorning ijtimoiy yoki iqtisodiy ahvolidan kelib chiqqan holda tugatish massasidan ayrim mulkni chiqarish haqida qaror qabul qilishi mumkin, biroq bunday mulkning umumiy qiymati belgilangan chegaradan ortiq bo‘lmasligi lozim.

Bu qoidalar to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida sudning vakolatlarini huquqiy jihatdan cheklaydi va mol-mulkni chiqarish masalasida aniq iqtisodiy me'yor o‘rnatadi. Shu bilan birga, mazkur qoida kreditorlar manfaatlarini himoya qilish, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining adolatli va mutanosib tarzda amalga oshishini ta'minlashga qaratilgan.

Qarzdor YTTning tugatish massasidan chiqarilishi belgilangan mol-mulkning aniq ro‘yxati sud tomonidan tasdiqlanadi va bu haqida ajrim shaklidagi protsessual qaror

qabul qilinadi. Sud ajrimida qaysi mol-mulk tugatish massasidan chiqarilayotgani, uning qiymati va mazkur qarorning asoslari ko‘rsatiladi.

Shu bilan birga, qonun ushbu ajrim ustidan shikoyat berish yoki prokuror protest keltirish huquqini nazarda tutadi. Bu esa ishtirokchilar, xususan, kreditorlar yoki boshqa manfaatdor shaxslarning huquqiy manfaatlarini himoya qilishni ta’minlaydi. Qarang: Xalqaro sharh. 812-b.

231-modda. Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor bitimlarining haqiqiy emasligi

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza sudga berilganidan keyin qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning o‘z mol-mulkini boshqa shaxsga o‘tkazish yoki manfaatdor shaxslarga boshqacha usulda berish bilan bog‘liq bitimlari o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmaydi.

Kreditorning talabiga ko‘ra sud o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmaydigan bitim haqiqiy emasligining oqibatlarini qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning bitim predmeti bo‘lgan mol-mulkini qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning mol-mulki tarkibiga qaytarish tariqasida yoki undiruvni manfaatdor shaxslarda turgan tegishli mol-mulkka qaratish tariqasida qo‘llaydi.

Sharhlanayotgan moddada qarzdor YTTni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risida ariza sudga berilganidan keyin uning mol-mulkni boshqa shaxslarga o‘tkazishga qaratilgan bitimlari o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb hisoblanishi hamda sud bunday bitim oqibatlarini mol-mulkni qaytarish yoki undiruvni tegishli mol-mulkka qaratish orqali qo‘llashi nazarda tutilgan.

1. Bitimlarning o‘z-o‘zidan haqiqiy emasligi va sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi tushunchalari fuqarolik qonunchiligida alohida-alohida tartibga solingan. Ya’ni FKda belgilangan ayrim holatlarda bitimlar o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb hisoblanadi, boshqa holatlarda esa ularning haqiqiy emasligi faqat sud tartibida nizolashiladi (aniqlanadi). Shu bilan birga, YTTning to‘lovga qobiliyatsizligi holatida ushbu tushunchalar umumiy qoidalardan farq qiluvchi maxsus tartib asosida qo‘llaniladi.

Agar qarzdor YTTga nisbatan to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza sudga berilgan bo‘lsa, ushbu paytdan boshlab qarzdor tomonidan o‘z mol-mulkini boshqa shaxslarga o‘tkazish yoki manfaatdor shaxslarga boshqacha tarzda berish bilan bog‘liq barcha bitimlar o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Ariza sudga berilgan paytdan boshlab tadbirkorning mulkiy huquqlari cheklanadi, u o‘z mol-mulkini boshqa shaxslarga o‘tkazish, hadya qilish yoki manfaatdor shaxslarga berish huquqiga ega bo‘lmaydi.

Qarzdor YTTga nisbatan manfaatdor shaxslar deganda uning xotini (eri), nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan o‘zidan oldingi va keyingi qarindoshlari, opa-singillari, aka-ukalari hamda ularning nasl-nasab shajarasi bo‘yicha o‘zidan keyingi qarindoshlari, xotinining (erining) ota-onasi, opa-singillari va aka-ukalari tushuniladi (Qonunning 21-moddasi, ikkinchi qismi).

Agar shunday bitim tuzilgan bo‘lsa, u qonun bo‘yicha (o‘z-o‘zidan) haqiqiy emas deb hisoblanadi, ya’ni uni haqiqiy emas deb topish uchun alohida sud hujjati zarur bo‘lmaydi. O‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitim, uni sud tomonidan bunday deb topilishidan qat’i nazar, haqiqiy emas hisoblanadi (FKning 113-moddasi). Bunda bitimning oqibatlari faqat kreditorning talabiga ko‘ra sud tomonidan qo‘llaniladi, ya’ni sud qaror chiqarish orqali mol-mulkni qarzdorning tarkibiga qaytarish yoki tegishli shaxslarda turgan aktivlarga qaratish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Mazkur qoidalar kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni boshlanganidan so‘ng mulkini yashirish, boshqa shaxslarga o‘tkazish yoki turli usullarda chiqarib yuborish orqali majburiyatlarini bajarmaslikka urinishining oldini oladi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida qarzdor YTTning to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi arizasi sudga berilgandan keyin tuzilgan ayrim bitimlar bo‘yicha huquqiy oqibatlarni belgilaydi.

Ya’ni qarzdor o‘zining mol-mulkini boshqa shaxslarga, ayniqsa manfaatdor shaxslarga o‘tkazish, sotish yoki boshqa usulda berish orqali kreditorlardan mol-mulkni yashirishga urinishi mumkin. Shu sababli qonun bunday bitimlarni o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb e’tirof etadi, ya’ni ularni haqiqiy emas deb topish uchun alohida sud qarori talab etilmaydi.

Shu bilan birga, bunday bitimlar bo‘yicha amaliy oqibatlarni qo‘llash faqat kreditorning talabiga ko‘ra sud tomonidan amalga oshiriladi. Qarzdor YTT tuzgan bitimlar haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishlar iqtisodiy sud tomonidan protsessual belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi. Bunda kreditorning arizasi asosida bitimning haqiqiy emasligi to‘g‘risidagi da’vo faqat kreditor tomonidan sudga taqdim etilishi mumkin. Sud tekshirishi, ya’ni sud da’vo ariza asosida bitimning haqiqiy emasligi masalasini ko‘rib chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

32. Qarzdorning bitimlarini haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi da’vo arizalari to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish doirasidan tashqari, protsessual qonunchilikda belgilangan ishlarning taalluqliligi va sudlovga tegishliligi to‘g‘risidagi umumiy qoidalarga rioya etilgan holda ko‘rib chiqiladi.

Sud ushbu holda tegishli qarori asosida ikki xil chora ko‘rishi, ya’ni bitim predmeti bo‘lgan mol-mulkni qarzdorning mol-mulki tarkibiga qaytarish yoki undiruvni bitim natijasida mulkni olgan shaxsda turgan tegishli mol-mulkka qaratishni belgilashi mumkin. Bunday oqibatlarni qo‘llashdan maqsad kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun tugatish massasini (hajmini) shakllantirishdir.

YTTning qarzdorlik bilan bog‘liq bitimlari haqiqiy emas deb topilganda bunday bitimlar bo‘yicha amaliy huquqiy oqibatlar faqat kreditorning sudga bo‘lgan talabiga asosan qo‘llanadi. Sud qarorida bitimning haqiqiy emasligi, mol-mulkning qaytarilishi yoki tegishli aktivlarga qaratilishi belgilab qo‘yiladi. Shuningdek, sud tomonidan chiqarilgan qaror ustidan qarzdor, kreditor yoki boshqa manfaatdor shaxslar belgilangan tartibda shikoyat qilish imkoniga ega bo‘ladi, bu esa qarorning qonuniyligini va protsessual adolatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Bu qoidalar qarzdor tomonidan noqonuniy ravishda aktivlarni chiqarib yuborish orqali kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazish holatlarining oldini olishga va to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida mulkiy adolatni ta’minlashga qaratilgan samarali mexanizm sanaladi.

232-modda. Sud tomonidan qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish

Sud qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi arizani qabul qilish bilan bir vaqtda uning mol-mulkini xatlaydi, bundan qonunchilikka muvofiq undiruvni qaratish mumkin bo‘lmagan mol-mulk mustasno. Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning pul majburiyatlari bajarilishining asoslangan kafilligi yoki kafolatlangan boshqa ta’minoti uchinchi shaxslar tomonidan taqdim etilgan taqdirda, sud mazkur qarzdorning iltimosnomasiga ko‘ra uning mol-mulkini (mol-mulkining bir qismini) xatlovdan chiqarishi mumkin.

Sud qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor kreditorlar bilan hisob-kitob qilishi yoki kelishuv bitimiga erishilishi uchun to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishni qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning arizasiga ko‘ra ko‘pi bilan bir oyga kechiktirishi mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lgan fuqaroga nisbatan meros ochilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud bo‘lgan taqdirda, sud yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni yuritishni meros taqdiri haqidagi masala hal etilguniga qadar to‘xtatib turishga haqli.

Agar qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor ushbu moddaning ikkinchi qismida belgilangan muddatda kreditorlarning talablari qanoatlantirilganligi dalillarini taqdim etmagan va belgilangan muddatda kelishuv bitimi tuzilmagan bo‘lsa, sud qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qaror qabul qiladi.

Sharhlanayotgan moddada sud tomonidan qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish jarayonida uning mol-mulkini xatlash, ishni muayyan muddatga kechiktirish yoki to‘xtatib turish hamda kreditorlar talablari qanoatlantirilmagan taqdirda qarzdorni bankrot deb topib, tugatish tartib-taomilini boshlash asoslari belgilangan.

1. Ushbu normaga ko‘ra, sud tomonidan qarzdor YTTning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishlar, ya’ni qarzdorga nisbatan berilgan arizalar uning yashash joyidagi sud tomonidan ko‘rib chiqiladi (IPKning 36-moddasi, Qonunning 6-moddasi ikkinchi qismi). Bunda qarzdor YTTning yashash joyi deganda uning doimiy yoki asosan yashab turgan joy tushuniladi.

Ushbu belgilangan qoidaga zid ravishda sudga tegishlilik qoidalari buzilgan holda berilgan arizalar sudning ajrimi bilan IPK 155-moddasi birinchi qismining 3-bandiga asosan qaytariladi.

Agarda sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilgandan keyin ushbu ish qo‘zg‘atilgunga qadar qarzdor YTTning yashash joyi o‘zgarganligi aniqlansa, sudlar IPK 39-moddasi ikkinchi qismining 1-bandiga asosan ishni ko‘rib chiqish uchun sudlovga tegishlilik bo‘yicha tegishli sudga o‘tkazishi lozim. Agar sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilganidan keyin qarzdor YTTning yashash joyi o‘zgarsa, ish mazkur sud tomonidan mazmunan ko‘riladi (IPK 39-moddasining birinchi qismi).

Sud qarzdor YTTni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi arizani qabul qilgan paytda uning mol-mulkiga nisbatan himoya choralarini qo‘llaydi, ya’ni mol-mulk xatlanadi. Bu xatlash qarzdorning aktivlariga nisbatan uning moliyaviy imkoniyatlarini saqlash va kreditorlar huquqlarini himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi.

Xatlash jarayonida qonunchilikda maxsus ko‘rsatilgan holatlarda undiruvga qaratilmaydigan mol-mulk (masalan, shaxsiy iste’mol uchun zarur buyumlar, ijtimoiy ahamiyatga ega aktivlar va boshqa belgilangan mustasno aktivlar) isbotlangan holda xatlashdan chetlab o‘tilishi mumkin. Bu protsess to‘lovga qobiliyatsizlik ishini yuritishda huquqiy barqarorlik va adolatli muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, agar qarzdor YTTning pul majburiyatlari uchinchi shaxslar tomonidan kafolatlangan yoki boshqa shaklda asoslangan ta’minot bilan ta’minlangan bo‘lsa, sud uning iltimosnomasiga ko‘ra mol-mulkning bir qismini xatlovdan ozod qilishga haqli. Bu mexanizmning mohiyati quyidagilardan iborat:

Himoya va kafolatning mavjudligi – qarzdorning moliyaviy majburiyatlari ijro qilinishi uchun uchinchi shaxslar (masalan, shaxsiy kafillar, bank yoki boshqa moliyaviy tashkilot) tomonidan kafolat yoki aktivlar taqdim etilishi kerak. Bu mol-mulkning xatlanishiga hujjatli asos bo‘lib xizmat qiladi.

Iltimosnoma asosida qo‘llanilishi – qarzdorning huquqiy himoyasini ta’minlash maqsadida sud faqat qarzdorning o‘z iltimosnomasiga binoan mol-mulkni xatlovdan chiqaradi. Sud mustaqil ravishda bunday qadam qo‘ymaydi, bu qonunchilikda belgilangan protsessual tartib talabidir.

Xatlovdan chiqarishning ta’siri – mol-mulk xatlovdan chiqarilsa, u kreditorlar talabini qondirish uchun majburiy ijro hududidan tashqari bo‘ladi. Lekin qarzdorning pul majburiyatlari kafolatlangani bois kreditorlar uchun kafolatli ta’minot mavjud bo‘ladi va ularning huquqlari buzilmaydi.

Huquqiy ahamiyati shundaki, bu norma YTTning shaxsiy mol-mulkidan ratsional va adolatli foydalanishni ta’minlaydi, faoliyatni davom ettirish uchun zarur moliya-

viy imkoniyatlarni saqlaydi, shu bilan birga, kreditorlar manfaatlarini ham himoya qiladi.

2. Sud qarzdor YTTning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishini uning asoslantirilgan arizasi va uning vajlarini tasdiqlovchi ma’lumotlar taqdim etilganda, ya’ni qarzdorning kreditorlar bilan hisob-kitob qilish yoki kelishuv bitimiga erishish maqsadi aniq ko‘rsatilganda sud arizani ko‘rib chiqib, ishni bir oygacha kechiktirish to‘g‘risida ajrim chiqarishi mumkin. Bu tartibning maqsadi qarzdorga kreditorlar bilan hisob-kitoblarni o‘tkazish yoki to‘lov shartlari bo‘yicha kelishuv bitimiga erishish uchun amaliy vaqt taqdim etishdan iborat.

Sudning kechiktirish qarori bilan ish yuritish jarayonini uzaytirishi ishning mazmun-mohiyatiga ta’sir qilmaydi, uning qonuniy asosini o‘zgartirmaydi, ya’ni ish sudda ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan holatda ham bir oydan ortiq muddatga kechiktirish qoidasi qo‘llanilmaydi. Shu tariqa, ushbu norma YTTning moliyaviy mas’uliyatini o‘z vaqtida bartaraf etish imkoniyatini yaratish bilan birga kreditorlar huquqlarining himoya qilinishiga ham xizmat qiladi.

Agar qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning arizasiga asosan to‘lovga qobiliyatsizlik ishi bir oyga kechiktirilgan bo‘lsa-da, bu muddat mobaynida kreditorlar talablari qanoatlantirilmagan yoki kelishuv bitimi tuzilmagan bo‘lsa, ushbu moddaning to‘rtinchi qismida belgilangan oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Kelishuv bitimi tuzish kreditorlar yig‘ilishining mutlaq vakolati hisoblanib, uni tuzish to‘g‘rida Qonunda belgilangan tartibda qaror qabul qilingach, kelishuv bitimi tuzilgan va sud tomonidan tasdiqlangan hollarda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish tugatiladi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida YTT bo‘lgan fuqaroga nisbatan sud YTTning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni meros taqdiri haqida qaror qabul qilinishiga qadar vaqtincha to‘xtatib turish huquqiga ega ekanligi belgilangan.

To‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rish jarayonida YTTga nisbatan meros taqdiri bilan bog‘liq ma’lumotlar mavjud bo‘lsa, sud meros masalasi haqida qaror qabul qilinishiga qadar ish yuritishni vaqtincha to‘xtatib turish huquqiga ega. Chunki sudga meros ochilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar taqdim qilinganda, YTTning mol-mulki va qarzdorlik majburiyatlari merosni qabul qiluvchi shaxslar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Qonunchilikda YTTning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni meros taqdiri hal etilgunga qadar to‘xtatib turish mumkin deb belgilangan. Ya’ni to‘xtatish muddati aniq kun bilan cheklanmagan, u meros masalasi sud tomonidan rasmiy ravishda hal qilinishiga qadar davom etadi.

Meros taqdiri hal qilinishi sudning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni davom ettirishiga asos bo‘ladi. Agarda qarzdor YTT meros olsa, merosdan tushgan mol-mulk uning shaxsiy mol-mulki sifatida qaraladi va to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida YTTning tugatish massasiga kiritiladi yoki kreditorlarga taqsimlanadi.

Sudning ishni yuritishni to‘xtatish haqidagi ajrimi YTTning kreditorlar uchun to‘lovga qobiliyatsizligiga oid ish yuritilishini kechiktiradi, biroq kreditorlar huquqlari

yo‘qotilmaydi, ular meros masalasi hal qilinganidan keyin o‘z talablarini amalga oshirish imkoniga ega bo‘lishadi.

Shuningdek, YTTga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelgan harakatlari (harakatsizligi) uchun jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan taqdirda ham to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish yuritish to‘xtatib turilishi mumkin. Bunday holatda sudning qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi bo‘yicha chiqarilgan sud hujjati qonuniy kuchga kirgandan yoki tergov harakatlari tugagandan so‘ng to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish yuritish tiklanadi.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismiga ko‘ra, agarda qarzdor YTT qarzlarni to‘lash rejasi yoki kreditorlar bilan kelishuv bitimi tuzish bo‘yicha belgilangan muddatda zarur dalillarni taqdim qilmasa, sud tomonidan uning qarzdorlik majburiyatlarini bajara olmasligini rasmiy ravishda e’tirof etiladi.

Sud kreditorlarning talablari bajarilmaganligi asosida YTTning mol-mulkini xatlovdan chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi va mol-mulkni tugatish (realizatsiya) taomilini boshlaydi.

Sud bu haqida qarzdor YTTni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qaror qabul qiladi.

Qarzdorning mol-mulki kreditorlar talablarini qanoatlantirish uchun sud nazoratida taqsimlanadi, shu jumladan, zarur bo‘lsa, undiruvni qaratish mumkin bo‘lmagan mol-mulk istisno qilinadi.

Bu YTTning moliyaviy mas’uliyatini rasmiylashtirish, kreditorlar huquqlarini himoya qilish va qarzdorlik majburiyatlarini bartaraf etish jarayonini tizimli tashkil etish maqsadini ko‘zlaydi. Ya’ni qarzdor belgilangan muddatda o‘z majburiyatlarini bajarishda kamchilikka yo‘l qo‘ysa, uning mol-mulki tugatilishi sud tomonidan rasmiy ravishda boshlanadi.

Agarda qarzdor YTT to‘lov rejasi yoki kreditorlar bilan kelishuv bitimi asosida o‘z majburiyatlarini to‘liq bajarib, kreditorlarning talablari qanoatlantirilsa, sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni tugatadi, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni rasman yakunlanadi.

YTTning mol-mulkiga nisbatan undiruv choralari bekor qilinadi, ya’ni mol-mulk egalariga qaytariladi va to‘lovlar bilan bog‘liq cheklovlar olib tashlanadi. Kreditorlar huquqlari himoya qilinadi, ya’ni ular o‘z talablari to‘liq qondirilganligini rasman tasdiqlashadi, bu qarzdorning moliyaviy mas’uliyatini tugatadi.

Qarzdor YTTga nisbatan to‘lovga qobiliyatsiz deb topish haqidagi ish bo‘yicha kreditorlar bilan kelishuv bitimiga erishilganda va ushbu bitim tuzilganda sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish to‘g‘risida ajrim chiqaradi. Kreditorlar talablari to‘liq qanoatlantirilgan va ularni tasdiqlovchi dalillar sudga taqdim etilgan hollarda esa sud qarzdor YTTga nisbatan to‘lovga qobiliyatsiz deb topish haqidagi arizani qanoatlantirishni rad etish haqida hal qiluv qarori qabul qiladi. Qarang: Xalqaro sharh. 812-b.

233-modda. Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish oqibatlari

Sud tomonidan qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan paytdan e’tiboran:

qarzdorning pul majburiyatlarini bajarish muddatlari boshlangan deb hisoblanadi;

qarzdorning barcha majburiyatlari bo‘yicha neustoykalar (jarima, penya), foizlar hisoblash va boshqa iqtisodiy (moliyaviy) sanksiyalar bekor qilinadi;

qarzdordan barcha ijro hujjatlari bo‘yicha undiruv bekor qilinadi, bundan alimentlar undirish haqidagi talablarga oid, shuningdek, hayotiga yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi talablarga oid ijro hujjatlari mustasno.

Sud qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqidagi qarorni barcha ma’lum bo‘lgan kreditorlarga kreditorlar tomonidan talablar taqdim etiladigan muddatni ko‘rsatgan holda yuboradi, bu muddat bir oydan oshmasligi kerak. Sudning ushbu qarorini yuborish qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor hisobidan amalga oshiriladi.

Sud tomonidan qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan paytdan e’tiboran ushbu tadbirkorning yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tganligi o‘z kuchini yo‘qotadi, shuningdek, faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish uchun unga berilgan litsenziyalarning amal qilishi tugatiladi.

Sud qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish haqidagi qarorning ko‘chirma nusxasini ushbu shaxsni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatga olgan organga va litsenziyalovchi organga yuboradi.

Ushbu moddaning uchinchi va to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan qoidalar yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan qarzdor jismoniy shaxsni bankrot deb topish chog‘ida qo‘llanilmaydi.

Sharhlanayotgan moddada qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor bankrot deb topilganda uning majburiyatlari bo‘yicha to‘lov muddatlari boshlangan deb hisoblanishi, sanksiyalar va ayrim ijro harakatlari bekor qilinishi, tadbirkorlik maqomi hamda litsenziyalari tugatilishi va bu haqida tegishli organlar xabardor qilinishi nazarda tutilgan.

1. YTTning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish Qonunning 50-moddasida belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqilishi lozim. Sud tomonidan YTTni bankrot deb topish va uni tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan paytdan e’tiboran ushbu hal qiluv qarori yagona huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan protsessual hujjat sifatida e’tirof etiladi. Ushbu qaror qabul qilinishi bilan YTTning huquqiy va mulkiy holatida qator muhim huquqiy oqibatlar yuzaga keladi.

Birinchidan, qarzdorning barcha mulkiy majburiyatlari umumiy tartibda emas, balki to‘lovga qobiliyatsizlik ishi doirasida ko‘rib chiqiladi va qanoatlantiriladi. Ya’ni kreditorlar faqat sud belgilangan tartibda talab qo‘yish huquqiga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, qarzdorning mol-mulki tugatish massasiga aylanadi, ya’ni unga kreditorlar talablarini qanoatlantirish uchun mo‘ljallangan mulkiy majmua sifatida qaraladi. Bu mulkni tasarruf etish huquqi qarzdorning o‘zi tomonidan emas, balki sudning qarori bilan belgilangan vakolatli shaxs (masalan, sud boshqaruvchisi) tomonidan amalga oshiriladi.

Uchinchidan, qarzdorning mol-mulkka nisbatan tasarruf qilish huquqi cheklanadi, ya’ni u endilikda o‘z mulkini sotish, hadya qilish, garovga qo‘yish yoki boshqa mulkiy bitimlar tuzish huquqiga ega emas hisoblanadi.

To‘rtinchidan, kreditorlar talablarini qanoatlantirish tartibi faqat to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun normalari asosida amalga oshiriladi, ya’ni ular navbat asosida va belgilangan tartibda taqsimlanadi.

Beshinchidan, mazkur qaror qabul qilingan paytdan YTTning tadbirkorlik faoliyati rasman yakunlangan deb hisoblanadi, shuningdek, u litsenziya, ruxsatnoma yoki boshqa huquqiy asosda amalga oshirgan faoliyatni davom ettirolmaydi.

Shu tariqa, sudning mazkur qarori YTTning faoliyatidagi yangi huquqiy bosqichni, ya’ni tugatish jarayonini boshlaydi va uning barcha moliyaviy munosabatlari to‘lovga qobiliyatsizlik qonunchiligi doirasida tartibga solinadi.

1.1. Sud qarori bilan YTT bankrot deb topilgan va tugatishga doir ish yuritish boshlangan paytdan qarzdorning barcha pul majburiyatlarini bajarish muddatlari boshlangan deb hisoblanadi. Bu qoida muhim huquqiy va protsessual ahamiyatga ega bo‘lib, bir nechta amaliy oqibatlarni keltirib chiqaradi:

Birinchidan, barcha qarz majburiyatlari bir vaqtda amalga oshishi deb qabul qilinadi. Ya’ni qarzdorning kreditorlar oldidagi barcha pulli majburiyatlari (qarzlar, soliqlar, yig‘imlar, jarimalar va boshqalar) bo‘yicha to‘lov muddatlari kelgan deb hisoblanadi. Bu kreditorlarga o‘z talablarini to‘liq hajmda to‘lovga qobiliyatsizlik ishi doirasida taqdim etish imkonini beradi.

Ikkinchidan, muddati yetmagan talablar ham amalga oshgan deb hisoblanadi. Masalan, agar qarzdor 6 oydan keyin to‘lovni amalga oshirishi kerak bo‘lgan bo‘lsa ham, sud qaroridan so‘ng bu majburiyat hozir amalga oshirilishi lozim bo‘lgan deb hisoblanadi va kreditorlar o‘z talabini darhol to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida qo‘yish huquqiga ega bo‘ladi.

Uchinchidan, qarzdorning moliyaviy holati umumiy tartibda emas, to‘lovga qobiliyatsizlik ishi jarayonida baholanadi. Barcha majburiyatlar «bir vaqtda» amalga oshgan deb e’tirof etilishi tufayli, qarzdorning mol-mulki yetarli yoki yetarli emasligi haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi.

Shu tariqa, mazkur qoida barcha kreditorlarning talablarini teng asosda qanoatlantirish hamda qarzdorning moliyaviy munosabatlarini yagona huquqiy jarayon doirasida tartibga solishni ta’minlaydi.

1.2. Qarzdor YTT bankrot deb topilgan va tugatishga doir ish yuritish boshlangan paytdan e'tiboran, qonunga muvofiq, qarzdorning barcha majburiyatlari bo'yicha neustoykalar (jarima, penya), foizlar va boshqa iqtisodiy (moliyaviy) sanksiyalarni hisoblash to'xtatiladi va bekor qilinadi.

Uning huquqiy mohiyati shundaki, avvalo, qarzdor haddan ortiq moliyaviy yukdan himoya qilinadi, sud qarori qabul qilinganidan keyin qarzdorning moliyaviy holati to'liq nazorat ostiga olinadi. Agar bu vaqtda foizlar yoki penyalar hisoblanishda davom etsa, qarzdorning majburiyatlari sun'iy ravishda ortib boradi, bu esa kreditorlar manfaatiga ham zid bo'ladi. Shu sababli qonun ularni bekor qiladi. Ikkinchidan, to'lovga qobiliyatsizlik ishida hisob-kitoblar to'xtatilgan sanaga ko'ra aniqlanadi. Foizlar va neustoykalar to'xtatilishi natijasida sud va tugatish boshqaruvchi tomonidan kreditorlar talablarining hajmi qarzdor YTT bankrot deb topilgan va tugatishga doir ish yuritish boshlangan sanaga nisbatan hisoblanadi. Ushbu qoidaning uchinchi ahamiyati shundaki, qarzdorning mol-mulki real holatiga ko'ra taqsimlanadi, ya'ni moliyaviy sanksiyalar bekor qilinishi natijasida tugatish massasi doirasidagi taqsimot adolatli va haqiqiy iqtisodiy holatga mos ravishda amalga oshiriladi.

Shu bilan ushbu norma to'lovga qobiliyatsizlik jarayonining adolatli va barqaror iqtisodiy tartibini ta'minlaydi hamda qarzdorning keyingi moliyaviy faoliyatini to'liq tugatish jarayonini yengillashtiradi.

1.3. Qarzdordan barcha ijro hujjatlari bo'yicha undiruv bekor qilinadi, ya'ni sud qarori bilan qarzdor YTT bankrot deb topilishi bilan u bilan bog'liq barcha ijro hujjatlari bo'yicha undiruv amaliyotlari to'xtatiladi va bekor qilinadi. Bu qarzdorning mol-mulki to'lovga qobiliyatsizlik ishi doirasida yagona tartibda taqsimlanishi uchun zarur chora hisoblanadi.

Biroq qonun talabida mazkur qoida bo'yicha ayrim ijtimoiy ahamiyatga ega talablar uchun istisnolar nazarda tutiladi, ya'ni aliment undirish haqidagi talablar shaxsiy va davomiy majburiyat hisoblanib, ular to'lovga qobiliyatsizlik jarayoni bilan cheklanmaydi. Qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi bolalar, ota-onalar yoki boshqa boquvchilarga nisbatan moddiy javobgarligini bartaraf etmaydi. Shuningdek, hayotga yoki sog'liqqa yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablar ham shaxsiy xarakterga ega majburiyat bo'lib, insonning sog'lig'i va hayoti bilan bog'liq bo'lganligi uchun mazkur talablarga oid ijro hujjatlari bo'yicha undiruv bekor qilinmaydi. Bunday talablar ijro hujjatlari asosida alohida tartibda qanoatlantiriladi.

Boshqa barcha talablar, jumladan, soliqlar, kreditlar, tijorat shartnomalari bo'yicha qarzlar kabi moliyaviy majburiyatlar tugatish massasi tarkibida umumiy tartibda qanoatlantiriladi.

2. Ushbu norma sud qarorining ijro etilishi va kreditorlarning xabardor qilinishiga oid protsessual tartibni belgilaydi. Unga muvofiq, agar sud qarzdor YTTni bankrot deb topish va uni tugatish jarayonini boshlash to'g'risida qaror qabul qilgan bo'lsa, ushbu qaror nusxasi sudga ma'lum bo'lgan barcha kreditorlarga yuborilishi shart. Bu talab qonunchilikda kreditorlarning huquqlarini himoya qilish va ularga to'lovga qobiliyatsizlik ishida ishtirok etish imkoniyatini yaratish maqsadida belgilangan.

Qarorda kreditorlar o‘z talablarini sudga taqdim etishlari uchun belgilangan muddat ham ko‘rsatilishi lozim, bu muddat bir oydan oshmasligi kerak. Mazkur muhlat kreditorlarning talablarini to‘plash va ularni rasmiy ravishda ro‘yxatga olishning huquqiy chegarasidir. Qolaversa, to‘lovga qobiliyatsizlik ishining oshkoraligini va barcha manfaatdor shaxslar uchun teng huquqli ishtirok etish imkoniyatini ta’minlashga xizmat qiladi. Ya’ni mazkur tartib to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida kreditorlar doirasini aniqlash, ularning talablarini rasmiylashtirish va tugatish massasidan adolatli qanoatlantirish uchun huquqiy asos yaratadi.

Qarzdor YTTni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qarorni barcha ma’lum bo‘lgan kreditorlarga yuborish bilan bog‘liq xarajatlar qarzdor YTTning hisobidan amalga oshiriladi. Bu qoida to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonidagi umumiy tamoyilga muvofiq bo‘lib, unga ko‘ra, to‘lovga qobiliyatsizlikda tugatish jarayoni bilan bog‘liq barcha protsessual va tashkiliy xarajatlarni qoplash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. Xususan, kreditorlarga xabarnomalar yuborish uchun tegishli sarf-xarajatlar (pochta, axborot e’lonlari va h.k.) qarzdor YTTning hisobidan to‘lanadi (agar uning hisobida mablag‘ bo‘lmasa, tugatish massasidan qoplanadi).

Ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlik ishining moliyaviy yukini qarzdorning o‘ziga ortish orqali sud jarayonini davlat mablag‘lari hisobiga yuritishdan saqlaydi va to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining iqtisodiy mas’uliyatini ta’minlaydi.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida YTTning bankrot deb topilishi bilan bog‘liq huquqiy oqibatlarning muhim qismini belgilaydi.

Qarzdor YTTni to‘lovga qobiliyatsiz (bankrot) deb topish haqida sud qarori qabul qilingan paytdan boshlab uning tadbirkor sifatida faoliyat yuritish huquqi tugaydi. Bu sudning qarori bilan YTT maqomi bekor qilinadi degani. Davlat ro‘yxatida tadbirkor sifatida qayd etilganlik haqidagi ma’lumot huquqiy ahamiyatini yo‘qotadi va reyestrda tegishli belgi qo‘yiladi.

Faoliyatning ayrim turlari uchun berilgan litsenziyalarning amal qilishi tugatiladi. Agar YTT faoliyati litsenziya talab qiladigan sohada bo‘lgan bo‘lsa (masalan, dorixona, transport xizmatlari, qurilish ishlari va h.k.), unga berilgan litsenziyalar sud qarori qabul qilinishi bilan bekor qilinadi.

Huquqiy oqibat sifatida YTTning to‘lovga qobiliyatsiz (bankrot) deb topilishi uning tadbirkor sifatidagi barcha huquq va majburiyatlarini tugatadi, tadbirkor sifatida yangi shartnoma tuzish, kredit olish, ishga yollash kabi huquqiy harakatlarni amalga oshirish imkonini yo‘qotadi, keyinchalik faqat qarzdor to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni yakunlanganidan so‘ng va belgilangan cheklovlar muddati o‘tgandan keyingina qayta ro‘yxatdan o‘tish huquqiga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, YTTning to‘lovga qobiliyatsizlik deb topilishi uning faoliyatining to‘liq tugatilishiga, iqtisodiy subyekt sifatidagi maqomini yo‘qotishiga va litsenziyali faoliyat bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum bo‘lishiga olib keladi.

4. Qarzdor bo‘lgan YTTni to‘lovga qobiliyatsiz (bankrot) deb topish haqida sud tomonidan hal qiluv qarori chiqarilganda ushbu qarorning ko‘chirma nusxasi YTTni ro‘yxatdan o‘tkazgan organga, ya’ni tadbirkor davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan vakolatli

organ (odatda tuman yoki shahar davlat xizmatlari markazi)ga hamda litsenziyalovchi organga, agarda tadbirkorning faoliyati litsenziya talab qiladigan faoliyat turiga kirsa, o‘sha litsenziya bergan davlat organiga yuborilishi sharhlanayotgan moddaning to‘rtinchi qismida belgilangan.

Bu talab amalda shunga xizmat qiladiki, davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi va litsenziya beruvchi organlar tadbirkorning bankrot bo‘lgani haqida xabardor qilinadi, natijada tadbirkorlik faoliyatini to‘xtatish yoki bekor qilish, litsenziyani amaldan chiqarish, statistik va huquqiy ma’lumotlarni yangilash kabi harakatlar amalga oshiriladi.

5. Agar qarzdor YTT maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxs bo‘lsa, unga nisbatan ushbu moddaning uchinchi va to‘rtinchi qismlarida YTT faoliyatiga doir nazarda tutilgan maxsus qoidalar qo‘llanilmasligi mumkin. Bu YTT maqomini yo‘qotgan shaxs to‘lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) jarayonida mazkur moddaning uchinchi va to‘rtinchi qismlarida belgilangan maxsus cheklovlar hamda alohida tartiblarga bo‘ysunmasligini anglatadi. Biroq ushbu holat to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan umumiy qoidalar qarzdorni bankrot deb topish, kreditorlarning talablarini ko‘rib chiqish va qanoatlantirish, mol-mulkni taqsimlash hamda boshqa tegishli tartiblar qo‘llanilmasligini anglatmaydi.

Shu munosabat bilan amalda sud yoki vakolatli organ tomonidan hujjatni ko‘rib chiqish jarayonida qarzdor YTT maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxs sifatida ishtirok etsa, ushbu moddaning uchinchi va to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan maxsus qoidalarni unga nisbatan avtomatik ravishda qo‘llash mumkin emas. Chunki ushbu normalar mazmunan faqat YTT maqomini saqlab turgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarga nisbatan tatbiq etilishi ko‘zlangan.

Demak, sud yoki vakolatli organ ushbu normalarni tatbiq etish masalasini har bir ish bo‘yicha alohida, qarzdorning haqiqiy huquqiy maqomi va ishning aniq holatlaridan kelib chiqqan holda baholashi lozim.

Amaliyotda bu yondashuv huquqiy aniqlikni ta’minlaydi, qonun normalarini maqsadga zid ravishda keng talqin qilishning oldini oladi hamda YTT maqomini yo‘qotgan shaxsga nisbatan asossiz ravishda tadbirkorlarga xos bo‘lgan qo‘shimcha cheklovlar yuklatilishini bartaraf etadi. Qarang: Xalqaro sharh. 812-b.

234-modda. Sudning bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qarorini bajarish

Sudning qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qarori hamda undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratish haqidagi ijro varaqasi qarzdorning mol-mulki sotilishini amalga oshirish uchun davlat ijrochisiga yuboriladi. Ushbu Qonunga muvofiq tugatish massasiga kiritilmaydigan mol-mulkdan tashqari quyidagilar sotilishi lozim:

qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning barcha mol-mulki;

yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan qarzdor jismoniy shaxsning o‘zining avvalgi tadbirkorlik faoliyati natijasida olingan mol-mulki. Bunda jismoniy shaxs mol-mulkining uning avvalgi tadbirkorlik faoliyatida olingan mol-mulk jumlasiga taalluqliligi yoki avvalgi tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq emasligi sud tomonidan belgilanadi.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning ko‘chmas mulkini yoki qimmatli ko‘char mol-mulkini doimiy boshqarish zarur bo‘lganda sud mazkur maqsadlar uchun tugatish boshqaruvchisini tayinlaydi va unga to‘lanadigan haq miqdorini belgilaydi. Bu holda qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning mol-mulki tugatish boshqaruvchisi tomonidan sotiladi.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning bank hisobvarag‘idagi va bank plastik kartalaridagi pul mablag‘larining qoldig‘i, mol-mulkni sotishdan tushgan pul mablag‘lari, shuningdek, naqd pul mablag‘lari qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish to‘g‘risida qaror qabul qilgan sudning depozit hisobvarag‘iga kiritiladi.

Sharhlanayotgan moddada sudning qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qarorini ijro etish tartibi, sotilishi lozim bo‘lgan mol-mulk tarkibi, tugatish boshqaruvchisini tayinlash hamda mol-mulkni sotishdan tushgan mablag‘larni sud depozit hisobvarag‘iga kiritish qoidalari belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida sud qarzdorni YTT sifatida bankrot deb topish va uni tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qaror hamda ijro varaqasining mol-mulkni sotish uchun davlat ijrochisiga jo‘natilishini belgilaydi.

Ijro varaqasi qarzdor YTTning barcha molmulkini topish, baholash va realizatsiya qilish jarayonlarini bajarish uchun asos bo‘ladi. Shu bois sudning qarori bilan birga ijro varaqasi davlat ijrochisiga yoki tegishli ijro tashkilotiga rasmiy ravishda yuboriladi.

Bu tartib qarzdorning mol-mulki sotilishi jarayonini huquqiy jihatdan rasmiylashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ushbu qoida mol-mulkka sud tomonidan ijro varaqasining undiruv uchun yuborilishi va mol-mulkni realizatsiya qilish mexanizmini ochiqlaydi, ya’ni sud qarori va ijro hujjatlari ijro nazoratiga olinadi, mol-mulkni topish, baholash, sotish va kreditorlarning talablarini qondirish jarayonlari tashkil etiladi.

Ushbu normada qarzdor YTTni tugatish massasiga kiritilmaydigan mol-mulkdan tashqari barcha mol-mulklarining sotilishi lozimligi belgilanadi. Bu YTTning barcha mol-mulklari kreditorlarning talablarini qoplash maqsadida to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida realizatsiya qilinadi degani. Sud yoki tugatish boshqaruvchisi mol-mulkning turi va hajmini aniqlaydi, baholash ishlarini amalga oshiradi va sotish jarayonini qonuniy asosda ta’minlaydi.

Shu tariqa, qarzdorning barcha mol-mulki kreditorlar talabini qoplash uchun yuridik jihatdan taqdim etilishi ta’minlanadi.

Qarzdor YTTning tugatish massasiga kiritilgan mol-mulkini sotish sud ijrochisi tomonidan «Sud hujjatlari va boshqa organlari hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq amalga oshiriladi.

Agar qarzdor YTT maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxs bo‘lsa, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida faqat uning avvalgi tadbirkorlik faoliyati natijasida olingan mol-mulki sotilishi mumkin.

Bu yerda sudning asosiy vazifasi mol-mulkning avvalgi tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liqligini yoki bog‘liq emasligini aniqlash va tegishli qaror chiqarishdir. Shu tariqa, shaxsning shaxsiy faoliyatida olingan mol-mulkdan farqli ravishda, faqat tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq mol-mulk to‘lovga qobiliyatsizlik uchun sotish obyekti hisoblanadi. Bu qoida kreditorlar huquqini himoya qilish va shaxsning shaxsiy mol-mulkidan ortiqcha ta’sirlanishining oldini olish maqsadida belgilangan.

Shuningdek, sud tomonidan jismoniy shaxs mol-mulkining uning avvalgi tadbirkorlik faoliyatida olingan mol-mulk jumlasiga taalluqliligi yoki avvalgi tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq emasligi tekshiriladi. Shu asosda faqat avvalgi tadbirkorlik faoliyati natijasida olingan mol-mulk sotish obyektiga kiritiladi.

Bunda sud mol-mulkning tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq yoki bog‘liq emasligi, hisob-kitoblar va buxgalteriya ma’lumotlari, mol-mulkning paydo bo‘lish tarixi, ya’ni shaxsiy daromadlardan olingan mol-mulk yoki tadbirkorlikdan olingan mol-mulk ekanligi o‘rganiladi, shuningdek, qarzdorning bayonotlari va boshqa hujjatlar, ya’ni aktivlar qaysi manbadan olinganligi aniqlanadi.

Sud adolatli va qonuniy sotish jarayonini ta’minlaydi, ya’ni agar mol-mulk tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmasa, u sotilmaydi va tugatish massasiga kiritilmaydi.

2. Odatda qarzdor YTTning tugatish massasini tashkil etuvchi mulkni sotish sud ijrochisi tomonidan amalga oshiriladi. Lekin qarzdor YTTning ko‘chmas mulki yoki qimmatli ko‘char mol-mulkiga doimiy boshqaruv zaruriyati bo‘lganligi sababli tugatish jarayonida alohida e’tibor talab qilinadi. Agar ushbu mol-mulkni doimiy boshqarish zarur bo‘lsa, sud tugatish boshqaruvchisini tayinlaydi.

Yuridik shaxslarni tugatishdan farqli ravishda, qarzdor YTTni mol-mulkini boshqarish uchun sud o‘z tashabbusi bilan tugatish boshqaruvchisi tayinlashi mumkin.

Tugatish boshqaruvchisi sud tomonidan rasmiy ravishda tayinlangan shaxsdir, u mol-mulkni samarali boshqarish, uni sotish va to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida kreditorlarning manfaatini ta’minlash uchun mas’ul bo‘lib, unga to‘lanadigan haq miqdorini sud belgilaydi.

Bu holatning o‘ziga xos tomoni shundaki, tugatish boshqaruvchi tayinlanganda qarzdorning mol-mulki sud ijrochisi tomonidan emas, balki ushbu tugatish boshqaruvchisi tomonidan sotiladi.

Boshqaruvchi sotuvni qonunda belgilangan usullarda amalga oshiradi (auksion, savdo yoki boshqa qonuniy usullarda). Sotuvdan tushgan mablag‘lar belgilangan tartibda kreditorlarga taqsimlanadi va bu jarayonda qarzdorning shaxsiy huquqlari ham himoya qilinadi.

Bu qoidalar qarzdor mol-mulkining samarali boshqarilishi va kreditorlar manfaatini himoya qilish maqsadida joriy etilgan.

3. Mazkur moddaning uchinchi qismida qarzdor YTTning barcha pul mablag‘larini (bank hisobvarag‘idagi, plastik kartalardagi, naqd va mol-mulkni sotishdan tushgan mablag‘lar) sud depozit hisobvarag‘iga kiritish tartibi belgilangan.

Sud ijrochisi (yoki tugatish boshqaruvchisi, agar maxsus holatlar qo‘llanilsa) pul mablag‘larini yagona depozit hisobvarag‘iga kiritadi. Tugatish boshqaruvchi tomonidan amalga oshirilgan qarzdor YTTning mol-mulkini sotishdan tushgan pul mablag‘lari ham ushbu depozitga olinadi.

Ushbu pul mablag‘lari sudning nazorati ostida taqsimlanadi, ya’ni qarzdor, kreditor yoki boshqa shaxslar mustaqil ravishda mablag‘larni olib qo‘yolmaydi. Sud ijrochisi yoki zarur bo‘lgan hollarda tugatish boshqaruvchisi pul mablag‘larini sud nazorati ostida depozit hisobvarag‘iga kiritish va taqsimlash jarayonini amalga oshiradi.

Mazkur tartib to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida pul mablag‘larini markazlashtirish va kreditorlarga adolatli taqsimlash maqsadida belgilangan.

235-modda. Kreditorlarning talablarini ko‘rib chiqish

Sud kreditorlar tomonidan bildirilgan talablarni ushbu Qonun 233-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan muddatda ko‘rib chiqadi. Ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra sud kreditorlarning talablarini qanoatlantirish tartibi va miqdori haqida ajrim chiqaradi.

Sharhlanayotgan moddada sud kreditorlar tomonidan belgilangan muddatda bildirilgan talablarni ko‘rib chiqishi va ko‘rib chiqish natijasiga ko‘ra ularni qanoatlantirish tartibi hamda miqdori haqida ajrim chiqarishi nazarda tutilgan.

Ma’lumki, har bir kreditor to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lgan qarzdordan o‘z qarzini talab qilib chiqish huquqiga ega. Sud esa ularning talablarini belgilangan muddat ichida tekshirib, haqli yoki haqsizligini aniqlashi kerak. Kreditorlar, Qonunning 233-moddasi ikkinchi qismida belgilanganidek, o‘z talablarini qarzdor to‘lovga qobiliyatsiz deb topilganligi haqidagi e’lon chop etilgan kundan e’tiboran bir oy ichida sudga taqdim etishlari lozim. Bu muddat kreditorlarning talablarini umumiy ro‘yxatga kiritish uchun belgilangan.

Sud kreditorlardan kelib tushgan talablarni qabul qiladi, har bir talabni hujjatlar asosida tekshiradi (qarz shartnomasi, hisob-faktura, dalolatnoma va h.k.), asossiz yoki nomuvofiq talablarni rad etadi hamda asosli deb topilgan talablarni qanoatlantirish navbatiga kiritadi.

Sud bu bosqichda faqat nizo hal qiluvchi organ sifatida emas, balki to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonini qonun doirasida muvofiqlashtiruvchi organ sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Agarda kreditor o‘z talabini belgilangan muddatdan keyin bildirsa, sud uni asosiy kreditorlar ro‘yxatiga kiritmasligi mumkin. Shu sababli muddatdan keyin kelgan talablar umumiy kreditorlar yig‘ilishida ishtirok etish huquqini bermaydi va mulkiy massasidan to‘g‘ridan to‘g‘ri qanoatlantirish asosi bo‘lolmaydi. Ular faqat tugatish massasi

qoldig‘i bo‘lganda, keyingi navbatda qanoatlantirilishi mumkin. Boshqacha aytganda, bunday kreditorning huquqiy maqomi cheklangan bo‘ladi.

Iqtisodiy sud amaliyotida kechiktirib talab bildirgan kreditorlar o‘z talablarini muddatni o‘tkazib yuborish sabablarini asoslab, alohida ariza bilan sudga taqdim etishi mumkin. Sud, agarda kechikish huquqiy asosli sabablar bilan bog‘liq deb topilsa (masalan, ma’lumot yetkazilmagan, hujjatlar kechikib topshirilgan va h.k.), talabni ko‘rib chiqishga ruxsat berishi mumkin. Biroq bu holat istisno hisoblanadi, ya’ni, qoida bo‘yicha, kechiktirilgan talablar asosiy ro‘yxatga kiritilmaydi.

Sud tomonidan kreditorlar tomonidan taqdim etiladigan talablar ko‘rib chiqilishi natijasi bo‘yicha ajrim chiqaradi. Sudning bunday ajrimi ustidan manfaatdor shaxslar (qarzdor, kreditor yoki boshqa ishtirokchi) belgilangan muddatda apellyatsiya tartibida shikoyat berish huquqiga ega.

Qonunning 51-moddasiga ko‘ra, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha sudning qarorlari va ajrimlari darhol ijro etiladi. Lekin ularning ustidan IPKda nazarda tutilgan tartibda shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Sudlar inobatga olishlari lozimki, Qonun 61-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishdagi kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra chiqarilgan sud ajrimi, agar uning ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat qilinmagan (protest keltirilmagan) bo‘lsa, u chiqarilgan paytdan e’tiboran o‘n kun o‘tgach qonuniy kuchga kiradi. Apellyatsiya shikoyati (protesti) berilgan taqdirda ajrim, agar u bekor qilinmagan bo‘lsa, apellyatsiya instansiyasi sudining qarori qabul qilingan kundan e’tiboran qonuniy kuchga kiradi.

Ushbu qoidalarning asosiy maqsadi to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonini cho‘zmaslik va kreditorlar o‘rtasida tenglik va aniqlikni ta’minlash bo‘lib, hamma kreditorlar bir vaqtda o‘z talabini taqdim etishlari mumkin, sud ushbu talablarni bir xil mezon asosida ko‘rib chiqadi va tugatish massasini taqsimlashda bahslar yuzga kelishining oldi olinadi.

236-modda. Kreditorlarning talablarini qanoatlantirish tartibi

Kreditorlarning talablarini qanoatlantirishdan oldin sudning depozit hisobvarag‘iga kiritilgan pul mablag‘lari hisobidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish va sudning qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish haqidagi qarorini bajarish bilan bog‘liq xarajatlarning o‘rni qoplanadi, fuqarolarning hayotiga yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararlarni qoplash haqidagi talablari qonunchilikka muvofiq qanoatlantiriladi.

Kreditorlarning talablari quyidagi navbatda qanoatlantiriladi:

birinchi navbatda – alimentlar undirish haqidagi talablar, shuningdek, mehnatga haq to‘lashga oid va mualliflik shartnomalari bo‘yicha haq to‘lashga oid hisob-kitoblarni nazarda tutadigan talablar;

ikkinchi navbatda – soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha talablar, kreditorlarning garov bilan ta’minlangan talablarining garovga qo‘yilgan mol-mulkni

(garov narsasini) sotishdan tushgan summa yetarli bo‘lmaganligi oqibatida qoplanmay qolgan qarzga oid qismi va kreditorlarning garov bilan ta’minlanmagan talablari;

uchinchi navbatda – boshqa kreditorlar bilan hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Har bir navbat talablari oldingi navbatdagi talablar to‘liq qanoatlantirilganidan keyin qanoatlantiriladi.

Agar sudning depozit hisobvarag‘ida mablag‘lar yetarli bo‘lmasa, bu mablag‘lar tegishli navbatdagi kreditorlar o‘rtasida ular talablarining summasiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Sharhlanayotgan moddada qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning bankrotligida kreditorlar talablarini qanoatlantirish navbati, avval qoplanadigan xarajatlar hamda mablag‘lar yetarli bo‘lmagan holda ularni kreditorlar o‘rtasida mutanosib taqsimlash tartibi belgilangan.

1. Mazkur moddaning birinchi qismida kreditorlar talablarini qanoatlantirishda navbatdan tashqari qanoatlantiriladigan talablar nazarda tutilgan bo‘lib, navbatdan tashqari qanoatlantiriladigan talablar bu qonunchilikka muvofiq barcha boshqa kreditorlar talablaridan oldin qoplanadigan ustuvor talablar hisoblanadi.

Qonun kreditorlar talablarini qanoatlantirishdan oldin sudning depozit hisobvarag‘iga kiritilgan pul mablag‘lari hisobidan quyidagi xarajatlar navbatdan tashqari qoplanishini belgilaydi. Xususan, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq xarajatlar, tugatish boshqaruvchiga to‘lanadigan oylik to‘lovi, sudning qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish haqidagi qarorini bajarish bilan bog‘liq xarajatlar hamda fuqarolarning hayoti yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararlarni qoplash haqidagi talablar.

To‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi sud qarorini bajarish bilan bog‘liq xarajatlar sud qarori qabul qilinganidan so‘ng uni amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan amaliy hamda tashkiliy sarf-xarajatlardan iborat. Qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotiga ko‘ra, bunday xarajatlarning asosiy turlari quyidagilar hisoblanadi:

birinchidan, sud ijrochisi xarajatlari, ya’ni sud qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida sud ijrochisi tomonidan amalga oshirilgan ijro harakatlari uchun belgilangan to‘lovlar;

ikkinchidan, e’lon qilish va ma’lumot tarqatish xarajatlari, ya’ni qarzdorning to‘lovga qobiliyatsiz deb topilgani haqidagi ma’lumotlarni rasmiy nashrlarda yoki vakolatli veb-saytlarda e’lon qilish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar;

uchinchidan, tugatish boshqaruvchisini tayinlash va unga haq to‘lash xarajatlari, ya’ni qarzdorning mol-mulkini boshqarish, baholash va sotish bilan bog‘liq vazifalarni bajargan shaxsga to‘lanadigan haq;

to‘rtinchidan, mol-mulkni baholash va saqlash xarajatlari, ya’ni qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorga tegishli aktivlarni baholash, muhofaza qilish hamda saqlab turish uchun zarur bo‘lgan to‘lovlar;

beshinchidan, texnik va pochta xarajatlari, ya’ni ish yuritish jarayonida rasmiy hujjatlar va xabarnomalarni tayyorlash, yuborish va yetkazib berish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar.

Mazkur xarajatlar sud qarori ijrosini amalga oshirish uchun majburiy xarajatlar hisoblanadi va qonunga muvofiq kreditorlar talablarini qanoatlantirishdan oldin navbatdan tashqari tartibda qoplanadi. Umuman, qarzdor YTTni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish haqidagi qarorini bajarish bilan bog‘liq xarajatlar, fuqarolarning hayotiga yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararlarni qoplash haqidagi talablari to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida ustuvor tartibda qoplanadigan to‘lovlar hisoblanadi.

2. Mazkur moddaning ikkinchi qismida kreditorlarning talablarini qanoatlantirishning navbati belgilangan.

Qarzdor YTT kreditorlarining navbat bo‘yicha to‘lovlari deganda bu to‘lovga qobiliyatsiz deb topilgan tadbirkorning mol-mulki (tugatish massasi) hisobidan kreditorlar talablarini qonunchilikda belgilangan navbat asosida qanoatlantirish tartibi tushuniladi. Ya’ni barcha kreditorlar talablari teng emas, balki ular qonunda belgilangan navbatlarga bo‘linadi va har bir navbat faqat undan oldingi navbat talablari to‘liq qoplanganidan so‘ng to‘lanadi.

2.1. Birinchi navbatda qanoatlantiriladigan talablar YTTning to‘lovga qobiliyatsizligida tugatish massasidan, barcha boshqa kreditorlar talablaridan oldin qoplanadigan ustuvor talablar hisoblanadi.

Qonunchilikka ko‘ra, birinchi navbatdagi talablari quyidagilarni o‘z ichiga oladi. Avvalo, aliment undirish bo‘yicha talablar, ya’ni YTT fuqarolarga, farzandlariga yoki boshqa oila a’zolariga aliment to‘lash majburiyatini bajarmagan taqdirda, ushbu to‘lovlarning tugatish massasidan qoplanishi, mehnatga haq to‘lash bo‘yicha talablar, ya’ni YTTning xodimlariga to‘lanmagan mehnat haqi, kompensatsiyalar va boshqa ish haqiga oid to‘lovlari, mualliflik shartnomalari bo‘yicha haq to‘lash talablari, ya’ni YTT tomonidan tuzilgan shartnomalar asosida mualliflik huquqi, litsenziya yoki ijodiy faoliyat natijalari uchun to‘lanadigan haqlar sanaladi.

Ushbu talablar birinchi navbatga kiritilishi bilan ijtimoiy himoya va shaxsiy huquqlarni ustuvor tartibda ta’minlash maqsad qilinadi. Ya’ni inson hayoti, mehnat huquqlari va ijodiy mehnat bilan bog‘liq to‘lovlar iqtisodiy kreditorlar talablaridan oldin qoplanadi.

2.2. Ikkinchi navbatdagi talablarga qarzdor YTTning to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida tugatish massasidan birinchi navbat talablari qoplangandan so‘ng, qonunchilikda belgilangan tartibda qoplanadigan kreditorlar talablari kiritiladi. Ushbu navbatda qoplanadigan talablar asosan davlat va moliyaviy manfaatlarga tegishli bo‘lib, ularning qonuniy ustuvorligi ta’minlangan.

Ushbu navbatga quyidagilar kiradi, avvalo, soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha talablar, ya’ni YTT tomonidan to‘lanmagan soliqlar, bojlar, majburiy davlat yig‘imlari va boshqa soliq-qonunchilik majburiyatlari sanalib, ushbu to‘lovlar davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari manfaatini ta’minlash uchun birinchi navbatdan keyin qoplanadi. Kreditorlarning garov bilan ta’minlangan talablari, ya’ni agar garovga qo‘yilgan mol-mulkning sotilishidan tushgan mablag‘ talabni to‘liq qoplamasa, garovga qo‘yil-

gan miqdordan tashqari qolgan qarzning qismini ikkinchi navbatda qoplash mumkin bo‘ladi. Kreditorlarning garov bilan ta’minlanmagan talablari, ya’ni bu YTT mol-mulki orqali himoyalanmagan kreditorlar talablari sanalib, ular ham ikkinchi navbatga kiradi va faqat tugatish massasi yetarli bo‘lganda qoplanadi.

Ikkinchi navbat talablarining ahamiyati shundaki, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida davlatning iqtisodiy manfaatlari va moliyaviy barqarorligini ta’minlash, shu bilan birga, garov bilan ta’minlangan va ta’minlanmagan kreditorlar uchun qonuniy navbat va ustuvorlikni belgilaydi.

2.3. Uchinchi navbat talablari qarzdor YTTning to‘lovga qobiliyatsizligida tugatish massasidan birinchi va ikkinchi navbat talablari qoplangandan so‘ng barcha qolgan kreditorlar bilan hisob-kitoblar amalga oshiriladigan talablar hisoblanadi. Ushbu navbatga kiritiladigan kreditorlar talablari birinchi va ikkinchi navbat talablariga kiritilmagan, davlat yoki ustuvor ijtimoiy talablar bilan bog‘liq bo‘lmagan qarzlardan iborat.

Bular jumlasiga qonuniy tartibda qoplanadigan qarzlar kiritilib, ular asosan garovsiz va ustuvor talablarga kirmaydigan kreditorlar qarzlaridan iborat. Masalan, yetkazib beruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi, kreditorlar tomonidan berilgan pul yoki tovar qarzi.

Kreditorlar ushbu navbatda bir-biriga teng asosda qanoatlantiriladi, ya’ni tugatish massasi yetarli bo‘lsa, barcha talablar proporsional tartibda qoplanadi. Ushbu navbat talablari birinchi va ikkinchi navbat talablariga nisbatan ustuvorlikka ega emas va to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida qoldiq mablag‘lar orqali qoplanadi.

Umuman, uchinchi navbat talablari iqtisodiy kreditorlar huquqlarini adolatli taqsimlashni ta’minlaydigan umumiy tartib hisoblanib, uning o‘ziga xos tomoni barcha ustuvor talablar qoplanganidan so‘ng qoldiq mablag‘lardan kreditorlar talablari proporsional ravishda qanoatlantiriladi.

3. YTTda har bir navbat talablari avvalgi navbat talablari to‘liq qoplangandan so‘ng qanoatlantiriladi. Ya’ni tugatish massasidan mablag‘lar bir necha bosqichda taqsimlanadi: birinchi navbat talablari qoplanadi, so‘ngra ikkinchi navbat va oxirida uchinchi navbat talablari qoplanadi.

Uning mazmunida ustuvorlik prinsipi mavjud, ya’ni barcha talablar teng emas. Ayrim talablar, xususan, inson hayoti, sog‘lig‘i va ijtimoiy to‘lovlar bilan bog‘liq talablar ustuvor hisoblanadi (birinchi navbat). Navbat asosida qoplash qoidasi ustuvor, ya’ni birinchi navbat talablari (aliment, mehnat haqi, mualliflik haqi), ikkinchi navbat (soliqlar, davlat yig‘imlari, garov bilan ta’minlangan qarzlardan qolgan qismi) va uchinchi navbat (garovsiz va ustuvorlikka kirmaydigan boshqa kreditorlar qarzi) talablariga amal qilinadi. Shu bilan birga, proporsional qoplash qoidalariga ham tayaniladi, ya’ni agarda bir navbat talablari to‘liq qoplanmasa, keyingi navbat talablari qoplanmaydi.

Umuman, YTTda navbat prinsipi yanada qat’iy va soddalashtirilgan bo‘lib, barcha mol-mulk va tugatish massasi shaxsga tegishli bo‘lgani uchun har bir navbat talablari aniq tartibda va to‘liq qoplanishidan keyingi navbatga o‘tadi. Bu qoida to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida kreditorlar va ijtimoiy ustuvor talablar manfaatlarini ta’minlaydi, yuridik shaxs to‘lovga qobiliyatsizligiga nisbatan soddalashtirilgan va qat’iy tartibda amalga oshiriladi.

4. Mazkur moddaning to‘rtinchi qismida sudning depozit hisobvarag‘ida YTT qarzdorliklarini qoplashga mablag‘lar yetarli bo‘lmaganda yuzaga keladigan holatlarni huquqiy tartibga solish belgilangan.

Agarda sudning depozit hisobvarag‘idagi mablag‘lar tugatish massasi talablarga yetarli bo‘lmasa, kreditorlar talablari to‘liq qoplanmaydi. Shu holda qolgan mablag‘lar tegishli navbatdagi kreditorlar o‘rtasida proporsional tartibda taqsimlanadi, ya’ni har bir kreditorga uning talablari miqdoriga mutanosib qism beriladi.

Uning mohiyati shundaki, proporsional qoplash prinsipiga ko‘ra, qoldiq mablag‘lar har bir kreditorning talablari nisbatida taqsimlanadi. Masalan, agar ikki kreditorning talablari 60% va 40% bo‘lsa va mablag‘ yetarli bo‘lmasa, ular ham shunga muvofiq qisman qoplanadi. Proporsional taqsimlash faqat bir navbat kreditorlari o‘rtasida amalga oshiriladi va bunda keyingi navbat talablari mablag‘lardan foydalanishdan oldin qoplanmaydi.

Bu tartibning ahamiyati shundaki, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida tenglik, adolat va qonuniy ustuvorlikni ta’minlaydi, ya’ni barcha kreditorlar tegishli navbatda summasiga mutanosib ravishda qanoatlantiriladi, biron-bir kreditorga adolatsiz afzallik berilmaydi.

237-modda. Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni majburiyatlardan ozod etish

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili tamomlanganda qarzdor to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish jarayonida kreditorlarning talablarini kelgusida bajarishdan ozod etiladi, bundan quyidagilar mustasno:

kreditorlarning hayotiga yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi talablari;

alimentlarni undirish haqidagi talablar, shuningdek, shaxsiy xususiyatga ega boshqa talablar;

sudning qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi qarorini ijro etish tartibida qanoatlantirilmagan yoki qisman qanoatlantirilgan talablar;

qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish tartib-taomili amalga oshirilganda bildirilmagan talablar;

qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni yuritish jarayonida bildirilmagan boshqa talablar.

Bajarilishdan ozod etilmagan talablar o‘z kuchini saqlab qoladi va qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligi tartib-taomili tamomlanganidan keyin tegishincha to‘liq hajmda yoki ularning qanoatlantirilmagan qismi hajmida taqdim etilishi mumkin.

Mazkur sharhlanayotgan modda qoidalarida qarzdor YTTni tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili tamomlanganidan so‘ng qarzdor to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risi-

dagi ish yuritish jarayonida kreditorlar talablarini kelgusida bajarishdan ozod etilishi nazarda tutilgan.

1. Qarzdor YTTga nisbatan tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili tamomlanganda qarzdor to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish jarayonida kreditorlarning talablarini kelgusida bajarishdan qonuniy ravishda ozod qilinadi, ya’ni uning qarzlarini kelgusida to‘lash majburiyati tugatiladi.

Boshqacha aytganda, YTTni tugatishga doir ish yuritish tartibi tugagandan so‘ng kreditorlar talablaridan ozod qilinadi, ya’ni bu to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida asosiy qarzlarning yoki qarz majburiyatlarining kelgusida ijro etilishidan qonuniy ravishda ozod qilinishini anglatadi.

Tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilidan o‘tgan YTT kreditorlar bilan hisobkitoblar yakunlanganidan keyin qondirilmay qolgan talablarni bajarishdan ozod etiladi va bu haqida YTTga nisbatan sudning tugatish ishlari yakunlanganligi to‘g‘risidagi ajrimda ko‘rsatiladi.

Lekin bu qoida barcha talablarga nisbatan ham tatbiq etilmaydi, ya’ni qonunchilikda muayyan talablar bo‘yicha istisnolar belgilangan.

1.1. YTT tugatishga doir ish yuritish tartibi tugagandan so‘ng asosiy qarzlardan ozod qilinganda ham kreditorlarning hayotiga yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni qoplash to‘g‘risidagi talablar ustuvor hisoblanadi va bajarilishdan ozod qilinmaydi. Agar YTTning harakatlari yoki harakatsizligi sababli kreditor fuqarolarga moddiy yoki ma’naviy zarar yetkazilgan bo‘lsa, bu zararni qoplash talablari qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik majburiyatlaridan ozod qilinishiga qaramay, qonunda belgilangan tartibda zararlar kompensatsiya qilinishi lozim. Bu talablar shaxsiy huquqlarni himoya qilish maqsadida ustuvor etib belgilanadi.

Bu normaning asosiy maqsadi to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida ham inson hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zararlarning adolatli qoplanishini ta’minlash va ijtimoiy himoyani kafolatlashdir.

1.2. YTT bo‘lgan shaxsning farzandlari yoki oila a’zolari oldidagi aliment to‘lov majburiyati bajarilishidan ozod qilinmaydi, ya’ni YTTni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritish tartibi tugagandan so‘ng ham aliment to‘lov majburiyati saqlanadi. Chunki bu talab ustuvor hisoblanadi va tugatish massasidan oldin qoplanishi lozim, zero, farzandlar va oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish ta’minlanishi kerak.

Shuningdek, shaxsiy xususiyatga ega boshqa talablar ham saqlanib, bu moliyaviy qiyinchilik yoki to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida YTT shaxsining shaxsiy huquqlariga doir, ustuvor bo‘lgan majburiyatlar sanaladi. Masalan, ijtimoiy himoya bilan bog‘liq to‘lovlar to‘lovga qobiliyatsizlik orqali ozod qilinmaydi, ya’ni qarzdordan to‘lanishi kerak, ushbu talablar iqtisodiy qarzlardan ustun qoplanadi.

Umuman, aliment va shaxsiy xususiyatga ega talablar YTT to‘lovga qobiliyatsizligida birinchi navbat talablari sifatida qonuniy ustuvorlikka ega bo‘lib, ular to‘liq qoplanishi shart. YTTni to‘lovga qobiliyatsizligi orqali ushbu majburiyatlardan ozod qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

1.3. Qonunda belgilangan talablarga ko‘ra, sud qaroriga asosan qarzdor YTTning qarzlari va majburiyatlari tugatish massasi orqali qoplanishi rejalashtirilganda va ushbu qarzlar yoki talablar sud qarori ijrosi jarayonida to‘liq qoplanmagan yoki qisman qoplangan bo‘lsa, ular to‘lovga qobiliyatsizlik orqali ozod qilinmaydi.

Qarzdorni tugatish massasidan sud qarori ijrosi uchun ajratilgan mablag‘lar to‘liq qoplanmagan qarzlar ijro qilinishda davom etadi.

Bu sud qarori ijrosi jarayonida qoplanmagan qarzlarning qonuniy adolat asosida bajarilishini ta’minlash, to‘lovga qobiliyatsizlik orqali ozod qilish orqali ulardan qochib qutulishining oldini olishga qaratilgan.

Umuman, sudning qarori ijrosida to‘lanmagan yoki qisman to‘lanmagan qarzlar YTT to‘lovga qobiliyatsizligida ustuvor talab sifatida saqlanadi va ular qonuniy tartibda to‘lanishi shart.

1.4. Normaning ushbu qismida qarzdor YTTning qarzdorlikdan ozod qilmaydigan majburiyatlariga bankrot deb topish (tugatishga doir ish yuritish) tartib-taomili amalga oshirilganda bildirilmagan talablar kirishi belgilangan. Darhaqiqat, qarzdor YTTni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili amalga oshirilganda, ba’zi kreditorlar o‘z talablarini rasmiy bildirmagan bo‘lishi mumkin. Bunday bildirilmagan talablar ham to‘lovga qobiliyatsizlik orqali qarzdor zimmasidan olib tashlanmaydi va keyinchalik qonuniy tartibda qoplanishi mumkin.

To‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida ustuvorlik qoidasiga ko‘ra, bildirilmagan talablar, agar ular birinchi navbat talablariga kirsa (masalan, aliment, hayot va sog‘lig‘iga yetkazilgan zarar), ustuvor talab sifatida qaraladi va qarzdorlikdan to‘lovga qobiliyatsizlik orqali ozod qilinmaydi, qarzdor to‘lovga qobiliyatsizlikdan keyin ham ushbu talablarni qonuniy tartibda qoplashi kerak.

Qonundagi bunday qoidalar kreditorlarning to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida o‘z huquqini ma’lum qilishda kechiktirgan holatlarda ham ularning huquqlari himoya qilinishini ta’minlash va adolatli qoplashni kafolatlashga qaratilgan.

1.5. Qarzdor YTTning sud qarori chiqarilayotganda kreditorlar tomonidan rasmiy bildirilmagan qarzlardan farqli ravishda, ba’zida kreditorlarning qarzdor YTTga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritish jarayonida ham ba’zi kreditorlar o‘z talablarini rasmiy bildirmagan holatlar kuzatilishi mumkin.

Boshqacha aytganda, bu talablar YTTning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish davomida kreditorlar tomonidan rasmiy bildirilmagan qarzlardir. Farqi shundaki, «bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili amalga oshirilganda bildirilmagan talablar» sud qarori chiqarish paytida kreditorlar tomonidan bildirilmagan talablar bo‘lib, ular to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan vaqtga qadar mavjud bo‘lgan, lekin sudga taqdim etilmagan majburiyatlardir.

«To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish jarayonida bildirilmagan boshqa talablar» esa ish yuritishning butun davrida bildirilmagan, biroq sud qarori chiqarilgandan keyin ham amal qilishi mumkin bo‘lgan talablardir.

Ya’ni birinchi holda talablar sud qarori chiqarish bosqichida bildirilmagan bo‘ladi, ikkinchi holda ish yuritishning butun jarayonida bildirilmagan bo‘ladi va ular keyin

ham amal qilishda davom etadi. Ular ham to‘lovga qobiliyatsizlik orqali ozod qilinmaydi va to‘lovga qobiliyatsizlik tartibi tugagandan keyin qonuniy tartibda qoplanishi kerak.

2. Tugatishga doir ish yuritish tartib-taomilidan o‘tgan qarzdor YTT kreditorlar bilan hisob-kitoblar yakunlangach, qanoatlantirilmay qolgan talablarini bajarish majburiyatidan ozod etiladi va bu haqida tugatishga doir ish yuritishni tamomlash haqidagi ajrimda ko‘rsatiladi. Lekin shaxsiy tusdagi majburiyatlar istisno etiladi. To‘lovga qobiliyatsizligi tartib-taomili tamomlanganidan keyin ham qarzdor YTTning bajarishdan ozod etilmagan talablariga oid majburiyatlari tugatilmaydi. Ya’ni bunday talablar (masalan, aliment, hayot yoki sog‘liqqa yetkazilgan zarar, shaxsiy xususiyatdagi talablar va h.k.) o‘z huquqiy kuchini saqlab qoladi va ular bo‘yicha qarzdor to‘lovga qobiliyatsizlikdan keyin ham javobgar bo‘lib qoladi.

Bu qoidalar kreditorlarning ayrim talablari (axloqiy va ijtimoiy jihatdan muhim bo‘lgan) to‘lovga qobiliyatsizlik orqali bekor qilinib ketmasligini ta’minlaydi. Agar to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida ular qisman qoplangan bo‘lsa, qarzdor undan keyin qolgan qismini ham to‘lashi kerak bo‘ladi. Bu orqali davlat huquqiy adolat va ijtimoiy himoya tamoyillarini ta’minlaydi, ya’ni insonning hayoti, sog‘lig‘i va shaxsiy huquqlariga doir talablar, iqtisodiy yoki moliyaviy holatdan qat’i nazar, to‘liq bajarilishi lozim bo‘ladi.

Qisqacha aytganda, bunday talablar to‘lovga qobiliyatsizlik bilan tugamaydi, balki qarzdorning keyingi moliyaviy imkoniyatlari paydo bo‘lganda ham qonun asosida undirilishi mumkin. Bu tartibni amalga oshirish uchun kreditorlar to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni yakunlangandan keyin ham huquqni amalga oshirish uchun alohida tartibda murojaat qilishadi.

Agar talab sud hujjati (ijro varaqasi, sud buyrug‘i) asosida bo‘lsa, kreditor majburiy ijro byurosiga murojaat qiladi. So‘ralayotgan talab avval to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida rasmiy bildirilmagan bo‘lsa, kreditor sudga murojaat qilib, talabni tasdiqlovchi hujjatlar bilan qarzdorga nisbatan talabni da’vo tartibida qayta ko‘rib chiqishni so‘raydi.

Sud yoki majburiy ijro byurosi qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlikdan keyingi mulkini, daromadini yoki boshqa aktivlarini aniqlab, qonunchilikda belgilangan navbat bo‘yicha undirishni amalga oshiradi. Bu holatda ham aliment yoki zararni qoplash talablari birinchi navbatda bajariladi. Qarang: Xalqaro sharh. 812-b.

16-BOB. TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIKNING SODDALASHTIRILGAN TARTIB-TAOMILLARI

238-modda. Tugatilayotgan yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi

Agar qonunchilikda belgilangan muddatlarda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmaganligi va (yoki) o‘z ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirmaganligi munosabati bilan tugatish to‘g‘risida o‘ziga nisbatan qaror qabul qilingan yuridik shaxsning mol-mulki qiymati kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun yetarli bo‘lmasa, bunday yuridik shaxs ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda tugatiladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan holatlar aniqlangan taqdirda, tugatish komissiyasi (tugatuvchi) yuridik shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan sudga yoki qonunchilikda nazarda tutilgan tegishli choralar ko‘rilishi uchun davlat soliq xizmati organlariga murojaat etishi shart.

Sharhlanayotgan moddada tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan yuridik shaxsning mol-mulki kreditorlar talablarini qanoatlantirish uchun yetarli bo‘lmagan taqdirda, u to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilik asosida tugatilishi hamda tugatish komissiyasi yoki tugatuvchi sudga yoki vakolatli organlarga murojaat qilishi shartligi nazarda tutilgan.

1. Sharhlanayotgan moddaning birinchi qismida agar yuridik shaxs belgilangan muddatlarda moliya-xo‘jalik faoliyatini olib bormaganligi yoki ustav fondini shakllantirmaganligi natijasida uning mol-mulki kreditorlar talablarini qondirish uchun yetarli bo‘lmasa, bu belgilangan tartibda uning tugatilishi zarurligini belgilaydi. Tugatilayotgan yuridik shaxsning qarzdorlik summasi miqdori, uning kelib chiqish muddati va asoslari sud qarori bilan tasdiqlanishi shart emas, faqat tugatilish to‘g‘risida qaror qabul qilingan yuridik shaxsning mol-mulki qiymati kreditorlarning talablarini qondirish uchun yetarli bo‘lmasligining o‘zi kifoya bo‘ladi.

Mazkur modda tugatilayotgan yuridik shaxs to‘lovga qobiliyatsizligining uchta belgisini nazarda tutadi: 1) belgilangan muddatlarda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmaganligi va (yoki) o‘z ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirmaganligi; 2) mol-mulki kreditorlar talablarini qondirish uchun yetarli bo‘lmasligi; 3) shu munosabat bilan tugatish to‘g‘risida o‘ziga nisbatan qaror qabul qilingan bo‘lishi.

Vazirlar Mahkamasining «Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlik subyektlarini davlat reyestridan chiqarish tartibi to‘g‘risida»gi 2019-yil 21-avgustdagi 704-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga ko‘ra, moliya-xo‘jalik fao-

liyati deganda tadbirkorlik subyektlarining mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, savdo va xizmat ko‘rsatish, shuningdek, buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarni yuritish bilan bog‘liq faoliyati tushuniladi.

Qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmaganligi va (yoki) o‘z ustav fondini shakllantirmaganligi munosabati bilan tugatish ishlarini qachon to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qoidalar bo‘yicha va qachon boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bo‘yicha amalga oshirishni farqlash lozim bo‘ladi.

Yuqorida qayd etilgan Nizomda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlik subyektlarini davlat reyestridan chiqarish tartibi belgilangan.

Tijorat tashkilotlarini moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan deb e’tirof etish uchun quyidagilar asos bo‘ladi: 1) davlat ro‘yxatidan o‘tgan sanadan boshlab uch oy mobaynida bank hisobvaraqlarini ochmaganligi; 2) bank hisobvaraqlarini ochgan, biroq olti oy mobaynida; 3) moliya-xo‘jalik faoliyati bo‘yicha bank hisobvaraqlariga mablag‘lar tushirmaganligi; 4) elektron hisobvaraq-fakturalarni rasmiylashtirmaganligi; 5) onlayn nazorat-kassa mashinalari, virtual kassa yoki marketpleys to‘lov tizimidan foydalanilmaganligi; 6) tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirmaganligi.

Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tijorat tashkilotlari muassislariga (qatnashchilariga) tijorat tashkilotini ixtiyoriy tugatish taklif etiladi. Soliq xizmati organlari tomonidan o‘tkazilgan tahlillar va o‘rganishlar natijasida soliq qarzdorliklari aniqlangan taqdirda, ularni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda undirish choralari ko‘riladi. Tijorat tashkilotining debitorlik-kreditorlik qarzdorliklarini undirish manfaatdor shaxslar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

54. Sudlarning e’tibori shunga qaratilsinki, qarzdorni to‘lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan taomili bo‘yicha bankrot deb topish (tugatilayotgan yoki hozir bo‘lmagan qarzdor) haqidagi arizani qabul qilishda kreditorlik qarzlarining miqdori ahamiyatga ega emas.

Shuningdek, mazkur moddada yuridik shaxsning o‘z ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirmaganligi uni tugatishning asosi sifatida nazarda tutilgan. Ustav fondi (ustav kapitali) yuridik shaxs ta’sis etilganida ta’sischilar tomonidan kiritilgan mablag‘lar (pul yoki mol-mulk), yuridik shaxs faoliyatini boshlash va uning majburiyatlarini bajarish uchun kerak bo‘ladigan boshlang‘ich resurs hisoblanadi. Bundan tashqari u yana kreditorlar uchun kafolat vazifasini ham bajaradi, ya’ni jamiyatda kamida shuncha aktiv borligini anglatadi.

Ustav kapitalini shakllantirish tartibi, hisobga olish qoidalari va uning minimal hajmi bo‘yicha qo‘yiladigan talablar tashkil etiladigan korxona tashkiliy-huquqiy shakliga bog‘liq va O‘zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari bilan tartibga solinadi. Ustav kapitalining hajmi tashkilot tashkil etilayotgan birinchi bosqichda o‘tkaziladigan ta’sischilar yig‘ilishi bayonnomasi bilan belgilanadi, keyin esa ta’sis hujjatlari va ustavda tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ayrim yuridik shaxslar uchun ustav fondini (kapitalini) shakllantirishning muayyan miqdori belgilangan. Jumladan, «Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga ko‘ra, ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdori: a) kafolatlar berish tashkiloti uchun yuz milliard so‘mni; b) ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti uchun yigirma besh milliard so‘mni; d) mikromoliya tashkiloti va faktoring tashkiloti uchun ikki milliard so‘mni; e) lombard uchun besh yuz million so‘mni tashkil etishi kerak.

«Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan, jamiyat ustav fondi (ustav kapitali) jamiyatning ustavida belgilanadi va uning ishtirokchilari ulushlarining nominal qiymatidan iborat bo‘ladi. Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdori litsenziya talablarida belgilanishi mumkin.

Nominal qiymat – ulushning jamiyat ustavida belgilangan dastlabki qiymati. Ustav fondi ishtirokchilar ulushlarining aynan mana shu nominal qiymatlari yig‘indisidan tashkil topadi. Masalan, «Turon» MChJ 2024-yili tashkil qilingan. Dastlab 200 mln so‘m ustav fondi bo‘lgan. Uning 3 ta ishtirokchisi bor edi. A.ning ulushi 20%, B.ning ulushi 30%, D.ning ulushi 50%. Bunda A. ulushining nominal qiymati 40 mln; B. ulushining nominal qiymati 60 mln; D. ulushining nominal qiymati 100 mln so‘mni tashkil qiladi.

Qonunda yuridik shaxsning har bir ishtirokchisi ta’sis hujjatlarida belgilangan va jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab bir yildan oshmaydigan muddat mobaynida jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) o‘z hissasini to‘liq kiritishi kerakligiga oid talab nazarda tutilgan.

«Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga ko‘ra, jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdori litsenziya talablarida belgilanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495-son Farmoniga ko‘ra, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdorini 15 foiz – 400 mln so‘m etib belgilangan.

Ustav fondi yuridik shaxsni ro‘yxatdan o‘tkazish vaqtida ta’sischilar tomonidan qo‘yilgan ulushlar, ularning nominal qiymatidan iborat bo‘ladi va qo‘yilgan mablag‘larni qaytarish huquqlarining kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

2. Sharhlanayotgan moddaning ikkinchi qismida mazkur moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan holatlar aniqlansa, tugatish komissiyasi (tugatuvchi) yuridik shaxsning moliyaviy barqarorligini baholash, kreditorlar talablarini qondirish maqsadida to‘lovga

qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi arizani sudga yoki tegishli davlat organlariga, jumladan, soliq xizmati organlariga rasmiy ravishda kiritishi shartligi nazarda tutiladi.

Bu chora-tadbirlar yuridik shaxsning qonuniy asoslarda tugatilishini va kreditorlar manfaatlarining himoya qilinishini kafolatlaydi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-avgustdagi 704-son qarori bilan tasdiqlangan «Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to‘xtatish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomning 30-bandiga ko‘ra, kreditorlarning talablarini to‘liq hajmda qondirishning mumkin emasligi aniqlangan taqdirda, tugatuvchi tijorat tashkilotini to‘lovga qobiliyatsizlik haqida ish qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi ariza bilan iqtisodiy sudga murojaat qilishi shart. Xo‘jalik yurituvchi subyekt bankrot deb e’tirof etilgan vaqtdan boshlab ixtiyoriy tugatish to‘xtatiladi va bundan keyingi tartibot to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Qonun tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki qiymati yetarli emaslik fakti aniqlanganda, tugatish komissiyasi(tugatuvchi) iqtisodiy sudga tugatilayotgan yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi ariza bilan yoxud davlat soliq xizmati organlariga qonunchilikda nazarda tutilgan tegishli choralarni qo‘llash uchun tegishli murojaat qilishga majburligini belgilaydi.

Tugatilayotgan yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ariza sudga taqdim etilganda, albatta, tugatilish to‘g‘risida qaror qabul qilingan yuridik shaxsning mol-mulki qiymati kreditorlarning talablarini qondirish uchun yetarli bo‘lmasligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi lozim. Qonunda tugatilayotgan yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi arizani rasmiylashtirish tartibi va ilova qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlar ro‘yxati keltirilmagan. Mazkur holatda, tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki qiymatining kreditorlarning talablarini qondirish uchun yetarli emasligi fakti buxgalteriya hisoboti, shuningdek, mustaqil baholovchi tashkilotning xulosasi yoki hisoboti bo‘lishi mumkin.

239-modda. Tugatilayotgan yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Sud tugatilayotgan yuridik shaxsni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi, tugatish boshqaruvchisini tayinlaydi.

Tugatilayotgan yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligida kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillari qo‘llanilmaydi.

Kreditorlar tugatilayotgan yuridik shaxsga nisbatan o‘z talablarini tugatilayotgan yuridik shaxsni bankrot deb topish haqidagi e’lon chiqarilgan paytdan e’tiboran bir oylik muddatda taqdim etishga haqli.

Sharhlanayotgan moddada tugatilayotgan yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda sud tomonidan darhol bankrotlik va tugatish tartib-taomili joriy qilinishi, tugatish boshqaruvchisi tayinlanishi, ayrim tartib-

taomillar qo‘llanilmasligi hamda kreditorlar talablarini bir oy ichida taqdim etish tartibi belgilangan.

1. Sharhlanayotgan moddaning birinchi qismida sud tomonidan tugatish jarayonida bo‘lgan yuridik shaxsni bankrot deb topish va unga nisbatan rasmiy to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilini boshlash haqida qaror qabul qilinishi hamda bu jarayonni amalga oshirish uchun maxsus vakolatli shaxs – tugatish boshqaruvchisini tayinlashi belgilanadi, bu esa tugatish jarayonining qonuniy va nazorat ostida amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Sud tomonidan tugatilayotgan yuridik shaxsni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilingan paytdan boshlab tugatilayotgan yuridik shaxs tugatuvchisining vakolatlari to‘xtatiladi, tugatish jarayonida bo‘lgan yuridik shaxsni tugatish ishlarini olib borish sud tomonidan tayinlangan tugatish boshqaruvchisi tomonidan amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-avgustdagi 704-son qaroriga 1-ilovaga muvofiq tasdiqlangan «Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to‘xtatish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomning 13-bandida ixtiyoriy tugatish jarayonida bo‘lgan tadbirkorlik subyekti tugatuvchisining vakolatlari to‘xtatilishi asoslari keltirilgan bo‘lib, xususan, tadbirkorlik subyekti bankrot deb e’tirof etilganda tadbirkorlik subyekti bankrot deb e’tirof etilganligi va tugatish ishlari boshlanganligi to‘g‘risida sud qarori qabul qilingan kunda tugatuvchining vakolatlari to‘xtatilishi belgilangan. Tugatilayotgan yuridik shaxsni bankrot deb topish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilinganda tugatish boshqaruvchiligiga nomzodni arizachi taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

54. Tugatilayotgan yuridik shaxsni bankrot deb topish haqida ariza taqdim etilganda tugatish boshqaruvchisining nomzodi arizachi tomonidan ko‘rsatiladi.

Qonunning 142-moddasiga ko‘ra, sud qarzdorni bankrot deb topish haqida qaror qabul qilayotganda tugatish boshqaruvchisini tashqi boshqaruvchini tayinlash uchun nazarda tutilgan tartibda tayinlaydi. Ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan korxona bankrot deb topilgan taqdirda, vakolatli davlat organi ham tugatish boshqaruvchiligiga nomzod taqdim etishi mumkin.

Qonunda tashqi boshqaruvchi nomzodi kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ma’qullanishi, kreditorlar yig‘ilishiga nomzod har qanday kreditor yoki vakolatli davlat organi tomonidan taklif etilishi, kreditorlar yig‘ilishi tomonidan nomzod taqdim etilmagan hollarda sud vakolatli davlat organi tomonidan taklif etilgan nomzodlar orasidan tashqi boshqaruvchini tayinlashi, shuningdek, tashqi boshqaruvchini tayinlash tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish bilan bir paytda amalga oshirilishi, agar tashqi boshqa-

ruv tartib-taomilini joriy etish bilan bir paytda tayinlashning imkoni mavjud bo‘lmasa, sud tashqi boshqaruvchini tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilgan paytdan e’tiboran bir oylik muddat ichida tayinlashi qayd etilgan.

Tugatish boshqaruvchisi tayinlangan paytdan boshlab qarzdor – tugatilayotgan yuridik shaxsning ishlarini boshqarish tugatish boshqaruvchisining zimmasiga yuklatiladi, shuningdek, mulkdorning qarzdor mol-mulkini boshqarish va tasarruf etishga doir vakolatlari tugatiladi.

2. Tugatilayotgan yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligida odatda qo‘llanadigan kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv kabi sog‘lomlashtirishga qaratilgan tartib-taomillar qo‘llanilmaydi. Ushbu qoidaga muvofiq, qonunchilik asosida tugatilayotgan yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligida unga nisbatan kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillari qo‘llanilmasligining o‘ziga xos huquqiy ahamiyati mavjud.

Mazkur tartib-taomillar, odatda, xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyatini saqlab qolish, tiklash yoki iqtisodiy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan. Biroq tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan yuridik shaxsning huquqiy maqomi uning faoliyatini qayta tiklash imkoniyati yo‘qligini anglatadi. Shu bois faoliyatni davom ettirish ehtimoli mavjud bo‘lmagan subyektga nisbatan bunday mexanizmlarni tatbiq etish huquqiy va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas.

Mazkur sharhlanayotgan modda to‘g‘ridan to‘g‘ri tugatish jarayonini amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, kreditorlar huquqlarini tez va aniq tarzda himoya qilish, korrupsiyaviy xavflarni, sarf-xarajatlarni kamaytirish hamda to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

3. Sharhlanayotgan moddaning uchinchi qismida kreditorlar uchun huquqiy kafolatni ta’minlaydigan muhim mexanizm belgilangan. E’lon chiqarilgan paytdan boshlab kreditorlarga bir oylik muddat berilishi, bir tomondan, barcha kreditorlarga teng sharoit yaratishga xizmat qiladi, ya’ni har bir kreditor o‘z talabini o‘z vaqtida taqdim etishi, mol-mulkka bo‘lgan huquqini qonuniy asosda himoya qilishi mumkin bo‘ladi, ikkinchidan, aniq muddatning belgilanishi tugatish jarayonining samaradorligini ta’minlaydi: tugatish boshqaruvchisi mol-mulkni taqsimlash, qarzdorning aktivlarini baholash va kreditorlar doirasini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan vaqtni oldindan bilib harakat qiladi.

Qonunning 53- va 54-moddalarida nazarda tutilgan ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 11-iyundagi 160-sonli qarorining 1-bandiga muvofiq «Biznes-Daily «Birja» iqtisodiy gazetasi va (yoki) vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

Shuningdek, mazkur moddadagi bir oylik muddat kreditorlar tomonidan talablarni kechiktirib taqdim etish va mol-mulkdan o‘z huquqini kafolatlantirish imkoniyati yo‘qligidan kelib chiqadigan nomuvofiqliklarning oldini oladi. Bu yuridik shaxsni bankrot deb topish jarayonida moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi, tugatish jarayonining qonuniyligi va shaffofligini kafolatlaydi, shuningdek, moliyaviy munosabatlarda barqarorlikni saqlaydi.

240-modda. Yuridik shaxsni to‘lovga qobiliyatsizlik tartibida tugatishni rad etish oqibatlari

Ushbu Qonun 238-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan talablarning buzilganligi yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga yuridik shaxs tugatilganligi to‘g‘risidagi yozuvni kiritishni rad etish uchun asos bo‘ladi.

Ushbu Qonun 238-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan talablarning buzilishiga yo‘l qo‘ygan tugatish komissiyasining raisi yoki tugatuvchi tugatilayotgan yuridik shaxsning pul majburiyatlari va (yoki) soliqlari hamda yig‘imlari yuzasidan qanoatlantirilmagan talablar bo‘yicha subsidiar javobgar bo‘ladi.

Sharhlanayotgan modda tugatish komissiyasi yoki tugatuvchi tomonidan belgilangan talablarning buzilganligi yuridik shaxs tugatilganligi to‘g‘risidagi yozuvni yagona davlat reyestriga kiritishni rad etish uchun asos bo‘lishini va tugatilayotgan yuridik shaxsning qanoatlantirilmagan pul majburiyatlari, soliq va yig‘imlari bo‘yicha tugatish komissiyasi raisi yoki tugatuvchiga subsidiar javobgarlik yuklanishini belgilaydi.

1. Ushbu normaga ko‘ra, qonunchilikda belgilangan muddatlarda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmaganligi va (yoki) o‘z ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirmaganligi munosabati bilan tugatish to‘g‘risida o‘ziga nisbatan qaror qabul qilingan yuridik shaxsning mol-mulki qiymati kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun yetarli bo‘lmagan holatlar aniqlangan taqdirda, tugatish komissiyasi (tugatuvchi) yuridik shaxsga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan sudga yoki qonunchilikda nazarda tutilgan tegishli choralar ko‘rilishi uchun davlat soliq xizmati organlariga murojaat etishi shart.

Agar tugatish komissiyasi yoki tugatuvchi tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish uchun sudga yoki soliq organlariga belgilangan tartibda murojaat qilinmagan hollarda yuridik shaxsni tugatilgan deb hisoblash huquqiy jihatdan mumkin emas. Shu bois yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga tugatilganlik to‘g‘risidagi yozuvni kiritish rad etiladi.

Bu talabning huquqiy ahamiyati shundaki, to‘lovga qobiliyatsizlik belgilarini yashirish yoki tugatish tartibini noqonuniy tarzda yengillashtirishning oldi olinadi, kreditorlar manfaatlari himoya qilinadi va tugatish jarayonining shaffofligi ta’minlanadi. Ya’ni to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud bo‘lgan yuridik shaxs qonun talab qilgan tartibda to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonidan o‘tishi shart, aks holda, uning tugatilgan deb e’tirof etilishi qonuniy kuchga ega bo‘lmaydi.

2. Sharhlanayotgan modda ikkinchi qismining mazmuni tugatilayotgan yuridik shaxsning moliyaviy majburiyatlari va kreditorlar talablarini qondirish jarayonida tugatish komissiyasi raisi yoki tugatuvchining shaxsiy mas’uliyatini belgilaydi.

Qonunchilikda nazarda tutilgan talablar, ya’ni belgilangan muddatlarda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmaganligi va (yoki) o‘z ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirmaganligi munosabati bilan tugatish to‘g‘risida o‘ziga nisbatan qaror qabul qilingan yuridik shaxsning mol-mulki qiymati kreditorlarning talablarini qanoatlantirish

uchun yetarli bo‘lmagan holatda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish uchun sudga yoki soliq organlariga belgilangan tartibda murojaat qilishi hisoblanadi.

Ushbu norma yuridik shaxsni majburiy tartibda tugatish jarayonida kreditorlar manfaatlarini himoya qilish va tugatish komissiyasi zimmasidagi mas’uliyatni kuchaytirishga qaratilgan bo‘lib, unga ko‘ra, agar yuridik shaxsning mol-mulki kreditorlar talablarini qanoatlantirishga yetarli bo‘lmasa va shunday vaziyatda tugatish komissiyasi raisi yoki tugatuvchi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish uchun sudga yoki soliq organlariga murojaat qilish bo‘yicha qonun talablariga rioya etmasa, ular kreditor oldida subsidiar javobgarlikka tortiladi.

Bu normaning asosiy maqsadi tugatish jarayonida yuridik shaxsning mol-mulkini noto‘g‘ri taqsimlash, kreditorlar talablarini qondirmaslik yoki soliq va yig‘imlarni belgilangan muddatda to‘lamaslik kabi huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan.

Tugatuvchining shaxsiy subsidiar javobgarligi uning malakali, shaffof va qonuniy harakat qilishini ta’minlaydi, moliyaviy nazoratni kuchaytiradi va kreditorlar, davlat soliq organlari hamda boshqa manfaatdor shaxslar huquqlarini himoya qiladi. Bunda tugatish komissiyasining raisi yoki tugatuvchining shaxsiy mol-mulki hisobidan yuridik shaxsning to‘lanmay qolgan qarzlari undirilishi mumkin.

241-modda. Hozir bo‘lmagan qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risida ariza berishning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘z faoliyatini tugatgan qarzdor YTT yoki tugatilayotgan yuridik shaxsning rahbari hozir bo‘lmagan va ularning joylashgan yerini (yashash joyini) aniqlashning imkoni bo‘lmagan taqdirda, hozir bo‘lmagan qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza, kreditorlik qarzi miqdoridan qat’i nazar, kreditor, vakolatli davlat organi, davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan berilishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddada faoliyati tugagan va rahbarining joylashgan yeri yoki yashash joyini aniqlab bo‘lmaydigan qarzdor YTT yoki tugatilayotgan yuridik shaxsni, kreditorlik qarzi miqdoridan qat’i nazar, kreditorlar yoki vakolatli organlar tomonidan to‘lovga qobiliyatsiz deb topish haqida ariza berish mumkinligi nazarda tutilgan.

Mazkur holatda qarzdorning rahbari hozir bo‘lmagan hollarda arizaning kreditordan tashqari vakolatli davlat organlari, davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan ham berilishiga ruxsat etiladi. Bu mexanizm qarzdorning noma’lumligi yoki faoliyatining tugagani tufayli paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan huquqiy bo‘shliqni bartaraf qiladi va to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonini kechiktirmasdan boshlashni ta’minlaydi.

Hozir bo‘lmagan qarzdorlar toifasini ajratish ularning maxsus huquqiy normalarini qo‘llashga olib keladigan vaziyatlarning xususiyatlari bilan belgilanadi.

Qonunning 16-bobida tugatilayotgan yuridik shaxsning hamda hozir bo‘lmagan qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishlar soddalashtirilgan tartib-tao-

millar asosida ko‘rilishi haqidagi normalar birlashtirilgan, biroq ular o‘rtasida bog‘liqlik mavjud emas.

«Tugatilayotgan yuridik shaxs» deganda o‘z faoliyatini amalga oshirmayotgan yuridik shaxsni tushunish lozim, negaki tugatilayotgan yuridik shaxs nomidan rahbar emas, balki tugatish komissiyasi ish olib boradi.

Hozir bo‘lmagan qarzdor deganda esa o‘z faoliyatini tugatgan YTTning, ya’ni tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullangan jismoniy shaxsning yoki yuridik shaxs rahbarining turgan joyi noma’lumligi va uning qayerdaligini aniqlashning iloji yo‘qligi, shu bilan birga, yuridik shaxs o‘z faoliyatini to‘xtatganligi tushuniladi. Shunga ko‘ra, agar rahbar hozir bo‘lmasa-yu, korxona faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ariza iqtisodiy sudga umumiy tartibda beriladi. Bunday holda yuridik shaxs o‘z faoliyatini to‘xtatmaguncha muassislar to‘lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartib-taomillarini qo‘llamaslik uchun yangi rahbarni tayinlash choralarini ko‘rishi kerak.

Tugatilayotgan yuridik shaxsning rahbari hozir bo‘lmagani va ularning turgan joyini (yashash joyini) aniqlashning imkoni bo‘lmagani qarzdorning moliya-xo‘jalik faoliyatini haqiqatan ham to‘xtatgani, (hisob raqamida) pul aylanmasi bo‘yicha harakati bo‘lmagan yuridik shaxsni kiritish mumkin, ushbu yuridik shaxsning ta’sis hujjatlarida ko‘rsatilgan manzilda va yuridik ro‘yxatga olingan joyda joylashmagan bo‘lishi hamda uning joylashgan manzilini belgilash imkonsiz deb qaralishidir. Agar hozir bo‘lmagan qarzdor YTT bo‘lsa, unda tegishlicha jismoniy shaxs tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishini to‘xtatgani, yashash joyida bo‘lmagani va turgan joyi noma’lum bo‘lganini tushunish lozim.

Qonunda qo‘llanilgan «hozir bo‘lmagan qarzdor» tushunchasining fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish instituti bilan hech qanday aloqasi yo‘q. FKning 33-moddasiga ko‘ra, agar fuqaroning qarzdorligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma’lumotlar bo‘lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topishi mumkin.

Qarzdorning hozir emasligi to‘g‘risidagi dalillarga, ya’ni YTT yoki YTT maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxs yoxud qarzdor yuridik shaxsning hozir emasligini tasdiqlovchi va uning joylashgan manzilini belgilashning imkoni yo‘qligini tasdiqlovchi hujjatlarga quyidagilarni kiritish lozim: a) manzil ma’lumot byurosi tomonidan shaxsning ro‘yxatdan chiqib, boshqa hududga ketganligi haqida berilgan ma’lumotnoma; b) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi, uy-joy mulkdorlarining shirkati vakillari ishtirokida shaxsning ro‘yxatga olingan manzilda yashamasligi to‘g‘risida tuzilgan dalolatnoma, shaxsning vafot etganligi yoki ozodlikdan mahrum etish joylarida ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar.

Hozir bo‘lmagan qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi (shu jumladan, mol-mulki mavjud bo‘lmagan qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi) ariza iqtisodiy sudga kreditor, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha vakolatli davlat organi, davlat soliq xizmati organlari yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan taqdim etilishi mumkin.

Agar arizachi tomonidan qarzdorning yoki uning mol-mulkining hozir emasligiga dalillar keltirilmagan bo‘lsa, arizachi tomonidan arizani umumiy tartibda ish yuritish

uchun qabul qilish shartlariga rioya qilingan bo‘lsa, iqtisodiy sud qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizani hozir bo‘lmagan qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi qoidalarini qo‘llamay turib, umumiy asoslarga ko‘ra qabul qilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

54. Hozir bo‘lmagan qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risida ariza berilganda qarzdor – o‘z faoliyatini tugatgan YTT yoki tugatilayotgan yuridik shaxs rahbarining hozir bo‘lmaganligini, shuningdek, ularning turarjoyini aniqlashning imkoniyati yo‘qligini tasdiqlovchi dalillar sudga taqdim etilishi kerakligi yuzasidan tushuntirish berilgan.

Bunday dalillar manzil ma’lumot byurosi tomonidan shaxsning ro‘yxatdan chiqib, boshqa hududga ketganligi haqida berilgan ma’lumotnoma, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi, uy-joy mulkdorlarining shirkati vakillari ishtirokida shaxsning ro‘yxatga olingan manzilda yashamasligi to‘g‘risida tuzilgan dalolatnoma bo‘lishi mumkin.

Nafaqat qarzdor rahbarining yo‘qligi, balki xo‘jalik yurituvchi subyekt mol-mulkining yo‘qligini ham hozir bo‘lmagan qarzdor sifatida tushunish lozim. Bu holat qarzdor – yuridik shaxs turgan joyi (pochta manzili) bo‘yicha fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi, uy-joy mulkdorlarining shirkati, turarjoy yoki noturarjoyning mulkdori vakillari va (yoki) sud boshqaruvchisi ishtirokida tuzilgan dalolatnoma yoxud qarzdorning mol-mulki mavjud emasligi sababli ijro hujjatini ijrosiz qaytarish to‘g‘risidagi davlat ijrochisining qarori bilan tasdiqlanishi mumkin.

Qarzdorning hozir emasligiga dalillarga yana vafot etganlik holatini yoki shaxsni ozodlikdan mahrum etish joylarida ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar ham kiradi.

Qarzdor mol-mulkining hozir emasligi fakti qarzdorning joylashgan joyi (pochta manzili) bo‘yicha fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari vakillari, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati, turarjoy yoki noturarjoy binolari egalari va (yoki) arizachi (kreditor) ishtirokida tuzilgan hujjatga yoxud sud ijrochisining ijro hujjatini qarzdorda mol-mulk bo‘lmaganligi bois ijrosiz qaytarish to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq tasdiqlanishi mumkin.

Agar arizachi tomonidan qarzdorning yoki uning mol-mulkining hozir emasligiga oid dalillar keltirilmagan bo‘lsa, arizachi tomonidan arizani umumiy tartibda ish yuritish uchun qabul qilish shartlariga rioya qilingan bo‘lsa, iqtisodiy sud qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizani hozir bo‘lmagan qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi qoidalarni qo‘llamay turib, umumiy asoslarga ko‘ra qabul qilishi mumkin.

Agar qarzdorning rahbari yoki YTT hozir bo‘lsa-yu, mol-mulki hozir bo‘lmasa ham to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risidagi ish soddalashtirilgan tartibda ko‘rish uchun tegishli bo‘ladi.

242-modda. Hozir bo‘lmagan qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish

Sud hozir bo‘lmagan qarzdorni bankrot deb topish haqidagi arizani o‘z ish yurituviga qabul qilib olgan kundan e’tiboran ikki haftalik muddat ichida hozir bo‘lmagan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Hozir bo‘lmagan qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishda kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillari qo‘llanilmaydi.

Sudning qarori vakolatli davlat organiga yuboriladi, bu organ mazkur qaror olingan kundan e’tiboran bir haftalik muddatda sudga tugatish boshqaruvchiligiga nomzodni taqdim etadi.

Tugatish boshqaruvchisi o‘ziga ma’lum bo‘lgan barcha kreditorlarni hozir bo‘lmagan qarzdorning bankrotligi haqida yozma shaklda xabardor qiladi, ular xabarnomani olgan kundan e’tiboran bir oylik muddatda tugatish boshqaruvchisiga o‘z talablarini taqdim etishi mumkin.

Tugatish boshqaruvchisi hozir bo‘lmagan qarzdorning mol-mulkini aniqlagan taqdirda, sud mazkur boshqaruvchining iltimosnomasiga ko‘ra to‘lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartib-taomilini tugatish hamda to‘lovga qobiliyatsizlikning ushbu Qonunda nazarda tutilgan umumiy tartib-taomillariga o‘tish haqida ajrim chiqarishi mumkin.

Sharhlanayotgan modda hozir bo‘lmagan qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik ishini ko‘rishning soddalashtirilgan tartibini belgilab, ishni ko‘rish muddatlari, qo‘llanilishi mumkin bo‘lmagan tartib-taomillar, tugatish boshqaruvchisini taqdim etish tartibi, to‘lovga qobiliyatsizlikning umumiy tartib-taomillariga o‘tishi bilan bog‘liq tartibni belgilaydi.

1. Mazkur moddaning birinchi qismi hozir bo‘lmagan qarzdorlarning to‘lovga qobiliyatsizligi jarayonlarini tezkor va samarali tarzda boshlashni ta’minlashga qaratilgan. Sud arizani o‘z ish yurituviga qabul qilgan kundan e’tiboran ikki hafta ichida qaror qabul qilishi shartligi nazarda tutilgan. Ya’ni qarzdorni bankrot deb topish masalasini hal qilish hamda tugatish tartib-taomilini boshlash to‘g‘risida protsessual qaror qabul qilishi shart bo‘lgan muddat belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

16. Sudlar inobatga olishlari lozimki, «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi Qonunning 50-moddasida nazarda tutilgan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rish muddatlari hozir bo‘lmagan qarzdorni bankrot deb topish haqidagi arizani ko‘rib chiqishda qo‘llanilmaydi.

Bu muddat to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining uzoq vaqtga kechiktirilishiga yo‘l qo‘ymaslik, kreditorlar va vakolatli organlar manfaatlarini tezkor himoya qilish, shuningdek, qarzdorning noma’lumligi yoki joyi aniqlanmagan holatda huquqiy bo‘shliqning yuzaga kelmasligini ta’minlaydi.

2. Hozir bo‘lmagan qarzdorlar bilan bog‘liq to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida maxsus soddalashtirilgan tartibni belgilovchi huquqiy me’yor hisoblanadi. Hozir bo‘lmagan qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishda kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillari qo‘llanilmasligi bir necha jihatdan asoslanadi:

birinchidan, ushbu tartib-taomillarni mazkur jarayonda qo‘llash maqsadga muvofiq emas, chunki ular qarzdorning faol ishtirokini talab qiladi. Kuzatuv va sud sanatsiyasi to‘lov qobiliyatini tiklash, moliyaviy barqarorlikni qayta tiklash va kreditorlar bilan muzokara qilishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, tashqi boshqaruv ham qarzdorning faoliyatini nazorat qilish va uning boshqaruvini vaqtincha vakolatli shaxsga topshirishni ko‘zda tutadi. Qarzdorning joyi noma’lum yoki hozir bo‘lmaydigan holatda bu mexanizmlarni qo‘llash mumkin emas, chunki uning faol ishtirokisiz restrukturizatsiya va nazorat ishlarini amalga oshirish imkoni yo‘q;

ikkinchidan, bu cheklov kreditorlar va vakolatli organlar uchun ish yuritishni tezkor va sodda shaklda olib borish imkonini beradi. Kreditorlar hozir bo‘lmagan qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligini sud orqali aniqlash va uning mol-mulkini qonuniy tarzda taqsimlash imkoniga ega bo‘ladi. Shu tartibda ish yuritish jarayoni samarali, uzluksiz va qonuniy asosda amalga oshiriladi.

3. Sharhlanayotgan moddaning uchinchi qismi hozir bo‘lmagan qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligiga oid ishlarda sud, vakolatli davlat organi va tugatish boshqaruvchisi o‘rtasida aniq va tizimli munosabatlarni ta’minlashga qaratilgan. Sud qarori vakolatli davlat organiga yuboriladi va organ ushbu qaror olingan kundan e’tiboran bir haftalik muddat ichida sudga tugatish boshqaruvchisi lavozimiga nomzodni taqdim etishi lozimligi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 13-son qarori

54. Hozir bo‘lmagan qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ish ko‘rib chiqilayotganda tugatish boshqaruvchiligiga nomzodni vakolatli davlat organi sudning hal qiluv qarori olingan kundan e’tiboran bir haftalik muddat ichida taqdim etadi.

Bu tartibning asosiy maqsadi hozir bo‘lmagan qarzdorning mol-mulki va kreditorlar manfaatlari bilan bog‘liq ish yuritish jarayonini uzluksiz, tezkor va samarali amalga oshirishdir. Shuningdek, nomzodni tezkorlik bilan tayinlash mol-mulkni saqlash,

uning qiymatini minimal yo‘qotish bilan kreditorlar talablarini qondirish, shu bilan birga, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonini qonuniy tarzda ta’minlash imkonini beradi. Ya’ni ushbu norma sud va davlat organlariga aniq vazifalar belgilab, ish yuritish samaradorligi, kreditorlar va davlat manfaatlarini himoya qilish uchun zarur huquqiy mexanizm bo‘lib xizmat qiladi.

4. Hozir bo‘lmagan qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi jarayonida kreditorlarning huquqlarini ta’minlash va ma’lumotlar oshkoraligini kafolatlashga qaratilgan. Tugatish boshqaruvchisi o‘z vakolati doirasida barcha ma’lum kreditorlarni yozma shaklda xabardor qiladi, bu esa kreditorlarning o‘z talablarini aniq vaqtda va to‘liq ko‘rsatishiga imkon beradi.

Kreditorlar xabarnomani olgan kundan e’tiboran bir oylik muddatda o‘z talablarini taqdim etishi mumkinligi belgilanishi to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida teng imkoniyatlarni ta’minlaydi. Bu tartib bankrotlik jarayonini samarali tashkil qilish, mol-mulkni tez va qonuniy tarzda taqsimlash hamda kreditorlar talablarini qonuniy asosda qondirishni kafolatlaydi.

5. Hozir bo‘lmagan qarzdorning mol-mulki aniqlangan taqdirda, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonini samarali va maqsadli tarzda boshqarish imkoniyati mavjud. Tugatish boshqaruvchisi sudga iltimosnoma taqdim etganda, sud soddalashtirilgan tartib-taomillardan umumiy tartib-taomillarga o‘tish haqida qaror chiqarishi mumkin. Bunda to‘lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan taomili bo‘yicha ish ko‘rilayotganda tugatish boshqaruvchisi tomonidan tugatishga doir ish yuritish jarayonida qarzdorning mol-mulki mavjudligi aniqlansa, sud tugatish boshqaruvchisining iltimosnomasiga asosan to‘lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan taomilini bekor qilib, ishni to‘lovga qobiliyatsizlikning umumiy taomili bo‘yicha ko‘rib chiqadi.

Hozir bo‘lmagan qarzdorning mol-mulki deganda uning tasarrufidagi begonalashtirilishi mumkin bo‘lgan barcha moddiy va nomoddiy fuqarolik huquqlari obyektlari (shu jumladan, qimmatli qog‘ozlar, yer, debitorlik qarzlari) tushunilishi lozim. Debitorlik qarzi mavjudligining aniqlanganligi soddalashtirilgan tartib-taomilni tugatish va to‘lovga qobiliyatsizlikning umumiy tartib-taomillariga o‘tish uchun asos bo‘lmaydi. Bu mexanizmning asosiy mohiyati hozir bo‘lmagan qarzdorning aktivlari aniqlanganida uning mol-mulki kreditorlar talablarini qondirish uchun samarali tarzda taqsimlanishiga qaratilgan.

Ushbu qoidalar jismoniy shaxs va YTTning, shuningdek, soddalashtirilgan tartib-taomil bo‘yicha qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ishlarga tatbiq etilmaydi.

Amaliy jihatdan, soddalashtirilgan tartib-taomillardan umumiy tartib-taomillarga o‘tish kreditorlarga kengroq huquqiy himoya va to‘lovlarni qonuniy tarzda qondirish imkoniyatini beradi, shu bilan birga, sud va tugatish boshqaruvchisi uchun nazoratni kuchaytirib, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonini shaffof va samarali qiladi.

17-BOB. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

243-modda. To‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelgan g‘ayriqonuniy harakatlar

To‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelgan g‘ayriqonuniy harakatlar deganda qarzdorga yoki kreditorlarga zarar yetkazgan mansabdor shaxslarning yoki qarzdor mol-mulki egasining yoxud kreditorlarning yoki boshqa shaxslarning qasddan qilgan harakatlari bilan bog‘liq qoidabuzarliklar tushuniladi.

G‘ayriqonuniy harakatlar jumlasiga quyidagilar ham kiradi:

qarzdor mol-mulkining yoki majburiyatlarining hammasini yoxud bir qismini yashirish;

qarzdorning xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq hisobga olishga oid har qanday hujjatini yashirish, yo‘q qilish, buzib ko‘rsatish, soxtalashtirish;

mol-mulkni (shu jumladan, pul mablag‘larini) yashirish maqsadida boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga berib yuborish;

buxgalteriya hujjatlariga zarur yozuvni kiritmaslik;

qarzdorning kreditga olingan va haqi to‘lanmagan mol-mulkining hammasini yoki bir qismini sotish, yo‘q qilish, garov sifatida kiritish;

mansabdor shaxslarning yoki qarzdor mol-mulki egasining shaxsiy manfaatlarini yoxud uchinchi shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligini oshirish;

aylanma mablag‘larni qaytarmay boshqa maqsadlarga ishlatish;

kreditorlarga zarar yetkazish maqsadida qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelish;

kreditorning talablarini boshqa kreditorlarning zarar ko‘rishi hisobiga afzalroq qanoatlantirish, shunday qanoatlantirishga rozilik berish;

qarzdorning pul majburiyatlarini va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlarini bajarishdan qochish maqsadida qasddan o‘zini o‘zi tugatish.

Sharhlanayotgan modda «to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelgan g‘ayriqonuniy harakatlar» tushunchasini aniqlaydi hamda qonunchilikda g‘ayriqonuniy deb e’tirof etilgan harakatlar ro‘yxatini belgilaydi.

1. Ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelgan g‘ayriqonuniy harakatlarning huquqiy mazmunini ochib beradi. Normaga ko‘ra, agar mansabdor shaxslar, qarzdor mol-mulki egasi, kreditorlar yoki boshqa shaxslar qasddan harakat qilib qarzdorning moliyaviy ahvolini yomonlashtirsa yoki kreditorlarga zarar yetkazsa, bunday harakatlar to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelgan g‘ayriqonuniy harakatlar deb baholanadi.

Bunda asosiy e’tibor harakatning qasddan sodir etilganligiga va uning oqibatida qarzdor yoki kreditorlarga zarar yetkazilganligiga qaratilgan. Shuning uchun bunday harakatlar oddiy xo‘jalik tavakkali yoki xato emas, balki ongli ravishda qonun talablarini buzish orqali to‘lovga qobiliyatsizlik holatini keltirib chiqarish yoki og‘irlashtirish sifatida baholanadi.

2. Ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlikka olib keladigan yoki kreditorlar huquqlariga zarar yetkazadigan g‘ayriqonuniy harakatlarning asosiy turlarini belgilaydi. Unda qarzdorning mol-mulkini, majburiyatlarini yoki buxgalteriya hujjatlarini yashirish, soxtalashtirish, mol-mulkni boshqa shaxslarga o‘tkazish, aylanma mablag‘lardan maqsadsiz foydalanish, ayrim kreditorlarga asossiz ustunlik berish yoki qasddan to‘lovga qobiliyatsizlik holatini keltirib chiqarish kabi harakatlar g‘ayriqonuniy deb e’tirof etilgan.

Mazkur harakatlar qarzdorning haqiqiy moliyaviy ahvolini yashirishga, aktivlarni kamaytirishga yoki kreditorlarning qonuniy talablarini qanoatlantirish imkoniyatini cheklashga qaratilgan bo‘ladi. Shu sababli qonun bunday harakatlarni kreditorlar manfaatlariga tajovuz qiluvchi va to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining adolatli amal qilishini buzuvchi harakatlar sifatida baholaydi.

244-modda. Nizolarni hal etish

To‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida yuzaga kelgan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

Sharhlanayotgan modda to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari jarayonida yuzaga keladigan barcha nizolar qonunchilikda belgilangan protsessual tartib va vakolatli organlar tomonidan hal etilishini belgilaydi.

Ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlik bilan bog‘liq munosabatlarda qonuniylik, taraflar huquqlarining himoya qilinishi va nizolarni belgilangan huquqiy mexanizmlar orqali ko‘rib chiqish prinsipini mustahkamlaydi. Bunda nizolar sud tartibida yoki qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa tartiblarda hal qilinishi mumkin. Qarang: Xalqaro sharh. 813-b.

245-modda. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Sharhlanayotgan modda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik to‘g‘risidagi havolaki normadan iborat.

Ushbu norma to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini buzgan shaxslarga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan javobgarlik choralari qo‘llanilishini belgilaydi. Norma universal xususiyatga ega bo‘lib, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida ishtirok etuvchi barcha shaxslarga – qarzdorga, mansabdor shaxslarga, mulk egalariga, kreditorlarga, sud boshqaruvchilariga va boshqa ishtirokchilarga tatbiq etilishi mumkin.

Ushbu normaga ko‘ra, agar shaxs to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini amalga oshirishda qonun talablarini buzsa, masalan, mol-mulkni yashirsa, hujjatlarni soxtalashtirsa, kreditorlar huquqlarini buzsa, aktivlarni asossiz chiqarib yuborsa yoki sud va sud boshqaruvchisi talablarini bajarmasa, belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin. Bunday javobgarlikning turi huquqbuzarlikning xususiyati va og‘irligiga qarab fuqarolik-huquqiy, ma’muriy, iqtisodiy, jinoiy va intizomiy bo‘lishi mumkin.

Normada «belgilangan tartibda» degan ibora qo‘llanilgani javobgarlik masalasi faqat mazkur Qonun bilan emas, balki boshqa qonun hujjatlari, jumladan, Fuqarolik kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, Jinoyat kodeksi va iqtisodiy protsessual qonunchilik asosida ham hal etilishini anglatadi. Shu orqali qonun chiqaruvchi to‘lovga qobiliyatsizlik sohasida qonuniylik, halollik va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishni ta’minlashni maqsad qilgan.

Sharhlanayotgan modda bankrotlik to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik to‘g‘risidagi havolaki normadan iborat. Ta’kidlash joizki, nafaqat Qonunning normalarini, balki bankrotlik to‘g‘risidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni buzganlik uchun ham huquqiy javobgarliklar mavjud. Huquqbuzarliklarning tabiatidan kelib chiqib javobgarlikning jinoiy, ma’muriy, fuqarolik va intizomiy shakllari mavjud.

Masalan, iqtisodiy sudning sudyasi, Qonunning 96-moddasining to‘rtinchi qismiga muvofiq, kreditorlar yig‘ilishining, majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslarning yoki sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining qarzdorning rahbari sud sanatsiyasi rejasini bajarmaganligi yoxud lozim darajada bajarmaganligi haqidagi yoki qarzdorning rahbari qarzdorning, kreditorlarning, majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan harakatlar (harakatsizlik) sodir etganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan iltimosnomasiga binoan sud qarzdorning rahbarini o‘z vazifasini bajarishdan chetlashtirish ko‘rinishidagi intizomiy javobgarlik chorasini qo‘llashga haqli.

Aybdor shaxslarning ma’muriy javobgarligiga MJtKning 215[1]-moddasida belgilangan javobgarlikni misol qilib keltirish mumkin. Unga muvofiq, korxonalarning moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi materiallarni mansabdor shaxslar tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha davlat organlariga taqdim etmaslik yoki vaqtida taqdim etmaslik uchun bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda, xuddi shunday huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Qonunning 10-moddasi qarzdor rahbarining, tugatish komissiyasi a’zolarining yoki tugatuvchining subsidiar javobgarligini belgilaydi. Mazkur normaga asosan qarzdorning rahbari, tugatish komissiyasi a’zolari yoki tugatuvchi tomonidan sudga qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza taqdim etilmaganligi Qonunning 9-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan muddat tugaganidan keyin qarzdorning yuzaga kelgan pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlari qarzdor rahbarining, tugatish komissiyasi a’zolarining yoki tugatuvchining subsidiar javobgarligiga sabab bo‘ladi. Yoxud FK 48-moddasining to‘rtinchi qismiga ko‘ra, agar yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi shu yuridik shaxs

uchun majburiy ko‘rsatmalarni berish huquqiga ega bo‘lgan muassis (ishtirokchi) sifatidagi shaxsning yoki yuridik shaxs mol-mulki mulkdorining yoxud yuridik shaxsning boshqaruv organi tarkibiga kiruvchi shaxsning yoki qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxsning g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga keltirilgan bo‘lsa, yuridik shaxsning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda, bunday shaxs zimmasiga qonunga muvofiq uning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin. Yuqoridagi holatlarni aybdor shaxslarning fuqarolik-huquqiy javobgarligiga misol sifatida keltirish mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 14-avgustdagi 224-son qaroriga ilova sifatida tasdiqlangan «Soxta to‘lovga qobiliyatsizlik, to‘lovga qobiliyatsizlikni yashirish va qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelish alomatlarini aniqlash Qoidalari» to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslarni aniqlash va ularning xatti-harakatiga huquqiy baho berish uchun muhim manba hisoblanadi.

Jinoyat qonunchiligi sohasida bankrotlik to‘g‘risidagi normani buzganlik uchun javobgarlik JKning 180–181[1]-moddalarida nazarda tutilgan. JKning 180-moddasi soxta to‘lovga qobiliyatsizlik, ya’ni yuridik yoki jismoniy shaxsning yoxud yakka tartibdagi tadbirkorning kreditorlar oldidagi pul majburiyatlarini va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlarini iqtisodiy jihatdan bajara olishi haqida bila turib ularni to‘liq hajmda bajara olmasligi to‘g‘risida e’lon berishi kreditorlarga ko‘p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan ikki yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi deb belgilaydi.

JKning 181-moddasiga ko‘ra, yuridik yoki jismoniy shaxsning yoxud yakka tartibdagi tadbirkorning haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotlar va hujjatlarni taqdim etish, buxgalterlik hisobotlarini buzib ko‘rsatish yoki boshqacha tarzda o‘zining to‘lovga qobiliyatsizligini qasddan yashirish yo‘li bilan kreditorlarga ko‘p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan ikki yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. JK 181[1]-moddasida yuridik shaxsning mansabdor shaxsi, muassisi (ishtirokchisi) yoxud mol-mulkining mulkdori yoki jismoniy shaxs yoxud yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan shaxsiy manfaatlarini yoki boshqa shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelish, ya’ni to‘lovga qobiliyatsizlikni qasddan yuzaga keltirish yoki ko‘paytirish ushbu yuridik shaxsning yoki jismoniy shaxsning yoxud yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligiga olib kelsa, kreditorlarga ko‘p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan ikki yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan.

246-modda. O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini yoki ularning ayrim qismlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish

Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

1) O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 5-mayda qabul qilingan «Bankrotlik to‘g‘risida»gi 1054-XII-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-yil, №5, 130-modda);

2) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994-yil 5-mayda qabul qilingan «Bankrotlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqida»gi 1055-XII-sonli qarori (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-yil, №5, 131-modda);

3) O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 281-I-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, №9, 144-modda) VI bo‘limi;

4) O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 30-avgustda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 485-I-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, №9, 241-modda) X bo‘limi;

5) O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-mayda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 621-I-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, №5-6, 102-modda) 7-bandi;

6) O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 28-avgustda qabul qilingan «Bankrotlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi 668-I-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, №9, 168-modda);

7) O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 832-I-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, №9, 229-modda) X bo‘limi;

8) O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-mayda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 82-II-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-yil, №5-6, 153-modda) XIV bo‘limi;

9) O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ayrimlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida»gi 175-II-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, №1-2, 23-modda) 8-bandi;

10) O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan «Bankrotlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar

va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi 474-II-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, №5, 63-modda);

11) O‘zbekiston Respublikasining 2005-yil 20-dekabrda qabul qilingan «Bankrotlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 110-, 111-, 133- va 135-moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi O‘RQ-15-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, №12, 414-modda);

12) O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 31-dekabrda qabul qilingan «Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi O‘RQ-197-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-yil, №12, 640-modda) 8-moddasi;

13) O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 14-yanvarda qabul qilingan «Ijro ishi yuritish takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-199-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2009 yil, №1, 1-modda) 10-moddasi;

14) O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 7-aprelda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-206-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2009-yil, №4, 133-modda) 1-moddasi;

15) O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 9-sentyabrda qabul qilingan «Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish haqida»gi O‘RQ-216-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2009-yil, №9, 330-modda) 5-moddasi;

16) O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 17-sentyabrda qabul qilingan «Baholash faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-257-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2010-yil, №9, 337-modda) 3-moddasi;

17) O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 3-oktyabrda qabul qilingan «Bankrotlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi O‘RQ-300-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2011-yil, №10, 270-modda);

18) O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrda qabul qilingan «Soliq va byudjet siyosatining 2013-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi, shuningdek, soliq hisobotini taqdim etish davriyligi qisqartirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-343-

sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2012-yil, №12, 334-modda) 1-moddasi;

19) O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-mayda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida»gi O‘RQ-372-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2014-yil, №5, 130-modda) 6-moddasi;

20) O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-sentyabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-373-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2014-yil, №9, 244-modda) 6-moddasi;

21) O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 11-dekabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-381-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2014-yil, №12, 343-modda) 6-moddasi;

22) O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-391-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2015-yil, №8, 312-modda) 4-moddasi;

23) O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentyabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida»gi O‘RQ-446-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017-yil, №9, 510-modda) 17-moddasi;

24) O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 16-oktyabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-448-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017-yil, №10, 605-modda) 3-moddasi;

25) O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 30-dekabrda qabul qilingan «Soliq ma’muriyatchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-455-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017-yil, №12, 773-modda) 1-moddasi;

26) O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 29-yanvarda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimcha-

lar kiritish, shuningdek, ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida»gi O‘RQ-463-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, №1, 5-modda) 1-moddasi;

27) O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martda qabul qilingan «Mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-531-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, №3, 166-modda) 1-moddasi;

28) O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktyabrda qabul qilingan «Kreditorlarni huquqiy jihatdan himoya qilish kuchaytirilishi hamda tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-572-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, №10, 671-modda) 2-moddasi;

29) O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda qabul qilingan «Mehnatga haq to‘lash, pensiyalar va boshqa to‘lovlar miqdorlarini aniqlash tartibi takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-586-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, №12, 880-modda) 14-moddasi;

30) O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 13-dekabrda qabul qilingan «Bankrotlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi O‘RQ-594-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, №12, 888-modda);

31) O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-683-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, 4-songa ilova) 44-moddasi.

Sharhlanayotgan moddada to‘lovga qobiliyatsizlik sohasida ilgari amal qilgan qonun hujjatlari va ularning ayrim normalari o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilishi belgilangan.

247-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta’minlash

O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

Sharhlanayotgan modda mazkur Qonunning amaliy ijrosini ta’minlash bilan birga uning mazmun-mohiyatini aholiga, manfaatdor tashkilotlarga va huquqni qo‘llovchi subyektlarga yetkazish vazifasini vakolatli davlat organlari zimmasiga yuklaydi. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar Qonun normalarining to‘g‘ri va samarali qo‘llanilishini ta’minlashi, uni ijrochilarga yetkazishi hamda aholi o‘rtasida uning mazmuni, maqsadi va ahamiyati bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borishi shart.

Ushbu norma qonunning faqat qabul qilinishi bilan cheklanib qolmasdan, uning amalda to‘g‘ri tatbiq etilishi, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish orqali samaradorligini ta’minlashga qaratilgan.

248-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:
hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;
davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

Sharhlanayotgan modda Qonun qabul qilinishi munosabati bilan amaldagi qonunchilik va qonunosti hujjatlarini mazkur Qonun talablariga muvofiqlashtirish vazifasini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zimmasiga yuklaydi. Unga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasi hukumat qarorlarini ushbu Qonunga moslashtirishi, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilingan va mazkur Qonunga zid bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish choralarini ta’minlashi shart.

Ushbu norma qonunchilik tizimidagi izchillik va uyg‘unlikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, Qonun normalarining to‘liq va samarali amal qilishi uchun huquqiy asos yaratadi.

249-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.
Ushbu Qonunning 14-bobi 2023-yil 1-yanvardan e’tiboran amalga kiritiladi.

Sharhlanayotgan modda mazkur Qonunning amal qilish boshlanish sanasini belgilaydi. Unga ko‘ra, Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi, ya’ni shu sanadan uning qoidalari yuridik kuchga ega bo‘ladi va qo‘llanila boshlanadi. Shu bilan birga, Qonunning 14-bobi uchun alohida amalga kiritish muddati belgilanib, ushbu bob qoidalari 2023-yil 1-yanvardan boshlab qo‘llanilishi nazarda tutilgan.

Ushbu norma qonun normalarini bosqichma-bosqich joriy etish orqali huquqni qo‘llovchi organlar va ishtirokchilarga yangi tartiblarga moslashish imkonini berishga qaratilgan.

1-ILOVA

«TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK TO‘G‘RISIDA»GI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNIGA XALQARO SHARH

KIRISH

Mazkur xalqaro sharh O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 12 apreldagi «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘RQ-763-son Qonuniga bag‘ishlangan. Ushbu Qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 16-avgustda qabul qilingan va Senat tomonidan 2021-yil 30-sentyabrda ma’qullangan, so‘ngra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolanib, 2022-yil 13 apreldan kuchga kirgan.

Sharhda Qonunning 2026-yil 1-aprel holatiga ko‘ra amalda bo‘lgan tahriri asos qilib olingan.

Xalqaro sharhning maqsadi

To‘lovga qobiliyatsizlik ham tadbirkorlik faoliyatida, ham jismoniy shaxslar hayotida dunyo miqyosida keng uchraydigan huquqiy va iqtisodiy hodisadir. To‘lovga qobiliyatsizlikka oid huquqiy tartibga solish institutlari Qadimgi Rim huquqi davridan ma’lum bo‘lib, keyinchalik iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan birga izchil takomillashib borgan. Zamonaviy davrda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilik, ayniqsa, 1990-yillardagi Osiyo moliyaviy inqirozi, 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz hamda COVID-19 pandemiyasi oqibatlaridan keyin ko‘plab davlatlarda tubdan qayta ko‘rib chiqildi va takomillashtirildi.

Turli davlatlarning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchiligi ularning huquqiy tizimi, iqtisodiy modeli, milliy an’analari va tarixiy taraqqiyoti xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda mazkur sohada xalqaro miqyosda yaqinlashuv jarayonlari kuzatilmoqda. Bugungi kunda to‘lovga qobiliyatsizlik munosabatlarini tartibga solishda qo‘llaniladigan ko‘plab huquqiy mexanizmlar, institutlar va yondashuvlar xalqaro miqyosda e’tirof etilgan ilg‘or amaliyot sifatida shakllangan.

Xususan, ko‘pgina sohalarda ma’lum tuzilmalar, vositalar va amaliyotlar «*xalqaro miqyosda keng tan olingan va yaxshi amaliyot sifatida qabul qilingan*».[2] So‘nggi misollar orasiga tadbirkorlarning to‘lovga qobiliyatsizligini muayyan tartibga solish[3] va «kreditorlarga qulay» tuzilmalardan «qiymatni saqlashga qulay» tuzilmalar tomoniga sezilarli siljish kiradi. Natijada an’anaviy ravishda faqat kreditorlar manfaatlarini hi-

[2] The World Bank. 2021. Principles for Effective Insolvency and Creditor/Debtor Regimes, 2021 Revised Edition. P. 4.

[3] Bunga MSE (O‘KK – o‘rta va kichik korxonalar) to‘lovga qobiliyatsizligi (ba’zan MSME (MKO‘K – mikro, kichik va o‘rta korxonalar) to‘lovga qobiliyatsizligi deb ataladi) kiradi.

moya qilishga qaratilgan modellardan iqtisodiy qiymatni saqlash va biznesni tiklashga yo‘naltirilgan zamonaviy modellarga o‘tish tendensiyasi kuchaymoqda.

Albatta, har bir davlat ushbu umume’tirof etilgan tamoyillar va mexanizmlarni milliy huquqiy tizimiga mos holda joriy etadi. Shu sababli to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilikdagi ayrim institutlar, tartib-taomillar va huquqiy yechimlar mamlakatlar kesimida farq qilishi mumkin. Biroq ularning asosida yotuvchi fundamental tamoyillar, maqsadlar va huquqiy standartlar, odatda, o‘zaro mushtarak hisoblanadi. Mazkur tamoyillarni anglash milliy qonunchilik normalarini to‘g‘ri talqin qilish va samarali qo‘llash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi Qonuni ham zamonaviy xalqaro yondashuvlar va ilg‘or xorijiy tajribaga asoslangan qator huquqiy institutlar va mexanizmlarni o‘z ichiga olgan. Qonunda biznes subyektlari hamda jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishning zamonaviy huquqiy asoslari yaratilgan.

Mazkur xalqaro sharhning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasining «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi Qonunini qo‘llashda xalqaro tajriba, qiyosiy huquqshunoslik yutuqlari hamda xalqaro standartlar nuqtayi nazaridan qo‘shimcha huquqiy tushuntirish va tahliliy materiallar taqdim etishdan iborat. Sharhda to‘lovga qobiliyatsizlik sohasida keng qo‘llanilayotgan xalqaro yondashuvlar, umume’tirof etilgan huquqiy tamoyillar va ilg‘or amaliyotlar yoritiladi.

Ushbu sharh sudyalar, advokatlar, sud boshqaruvchilari, buxgalterlar, auditorlar, huquqshunos olimlar, tadqiqotchilar, davlat organlari vakillari, tadbirkorlik subyektlari hamda to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarida ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga Qonun normalarini to‘g‘ri talqin qilish va amaliyotda samarali qo‘llash uchun zarur huquqiy ma’lumot va tahliliy asos bo‘lib xizmat qilishi ko‘zda tutilgan.

Xalqaro sharh uchun manbalar

Mazkur xalqaro sharhni tayyorlashda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Osiyo taraqqiyot banki (**OTB)**, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi (**XVJ)**ning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilik siyosatiga doir batafsil tadqiqoti katta yordam bergan va mazkur sharhda quyidagi havola qilingan matnlarda o‘z aksini topgan:[4]

– UNCITRAL **qo‘llanmasi**[5]
– OTB **qo‘llanmasi**[6]
– XVJ **qo‘llanmasi**[7]

[4] Mazkur Xalqaro sharhda keltirilgan XVJ va Jahon banki matnlari va ulardan iqtiboslarga kelsak, ushbu nashrlarda ifodalangan qarashlar Yuridik departamenti (XVJga nisbatan) va Jahon bankining tashqi hissa qo‘shgan xodimlarining (Jahon bankiga nisbatan) qarashlari ekanligini va bu organlarning o‘z qarashlarini aks ettirishi shart emasligini e’tiborga oling.

[5] Birlashgan Millatlar Tashkiloti. UNCITRAL Legislative Guide on Insolvency Law, 2004-yil 25-iyunda (1- va 2-qismlar), 2010-yil 1-iyulda (3-qism), 2014-yil 18-iyulda (4-qism) va 2013-yil 18-iyulda (5-qism, 2-nashr) qabul qilingan qismlar.

[6] OTB. 2008. Promoting Regional Cooperation in the Development of Insolvency Law Reforms.

[7] XVJ. 1999. Orderly and Effective Insolvency Procedures.

– Jahon **banki qo‘llanmasi**[8]
– Jahon **bankining O‘KK bo‘yicha qo‘llanmasi**[9]
– Jahon **bankining O‘KK bo‘yicha takliflari**[10]

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunning maqsadlari

Qonunni to‘g‘ri tushunishda uning qabul qilinishiga asos bo‘lgan huquqiy va iqtisodiy kontekst muhim ahamiyatga ega. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunda nazarda tutilgan ko‘plab jarayonlar va huquqiy vositalarning maqsadi hamda vazifalarini anglash uchun, avvalo, quyidagi ikki masalani tushunib olish zarur:

a) bozor iqtisodiyoti sharoitida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun xizmat qiladigan maqsadlar;

b) samarali va barqaror faoliyat ko‘rsatuvchi to‘lovga qobiliyatsizlik tizimining asosini tashkil etuvchi hamda uni qo‘llab-quvvatlaydigan xalqaro miqyosda tan olingan tamoyillar.

Xalqaro amaliyotda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilik muayyan huquqiy vazifani bajarish bilan bir qatorda muhim iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarga ham xizmat qilishi tan olingan.

Muayyan maqsad

Zamonaviy iqtisodiyotda iqtisodiy munosabatlarning katta qismi kredit asosida amalga oshiriladi. Qarzdor bozor iqtisodiyotida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyekti yoki shaxsiy ehtiyojlari uchun aktivlarni kredit hisobidan sotib oluvchi jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin. Biroq har qanday kredit munosabati qarzdor o‘z majburiyatlarini bajara olmasligi xavfi bilan bog‘liq. Qarzdor qarzni to‘lay olmasligi yoki bir qarzni to‘lagan taqdirda ham, boshqa moliyaviy majburiyatlarini bajara olmasligi mumkin. Bunday vaziyatlarda qarzdorga nisbatan mavjud barcha talablarni tartibli va adolatli hal qilish uchun maxsus huquqiy mexanizm talab etiladi.

Aynan mamlakatning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchiligi moliyaviy qiyinchilik holatlarini hal qilish uchun huquqiy va institutsional asoslarni yaratadi. Bu asoslar erta aralashuv choralari, to‘lov qobiliyatini tiklash (reabilitatsiya) yoki tugatish tartib-taomillari orqali amalga oshiriladi. Ularning umumiy maqsadi haqdor manfaatdor taraflar manfaatlarini ta’minlagan holda iqtisodiy qiymatni saqlab qolish va imkoni qadar oshirishdan iborat.[11]

Kengroq maqsadlar

To‘lovga qobiliyatsizlik tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishi nafaqat mazkur jarayon ishtirokchilari uchun muhim ahamiyatga ega, u mamlakat iqtisodiyoti, investitsiya muhiti va kredit munosabatlarining barqarorligi uchun ham muhim hisoblanadi. Shu sababli mamlakatning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchiligi kengroq davlat siyosatini amalga oshirish vositasi sifatida ham qaraladi.

---

[8] 1-iqtibos.

[9] Jahon banki. 2017. Report on the Treatment of MSME Insolvency

[10] Jahon banki. 2018. Saving Entrepreneurs, Saving Enterprises: Proposals on the Treatment of MSME Insolvency.

[11] Muhim tushuncha bo‘lgan «qiymat» 8-bobning kirish qismida, 36-betda batafsil muhokama qilinadi.

Ushbu huquqiy mexanizm turli ishtirokchilarning manfaatlarini hisobga olishi lozim. Bular jumlasiga: qarzdor; qarzdorning mulkdorlari va rahbariyati; turli darajada ta'minlangan yoki ta'minlanmagan kreditorlar (shu jumladan, soliq organlari va boshqa davlat kreditorlari); xodimlar; kafillar; tovarlar yetkazib beruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar; shuningdek, to'lovga qobiliyatsizlik tizimining samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy institutlar kiradi.

Umuman olganda, mazkur mexanizm nafaqat turli manfaatdor shaxslar manfaatlari o'rtasida, balki ushbu manfaatlar bilan to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilikning iqtisodiy va huquqiy maqsadlari, shuningdek, tegishli ijtimoiy, siyosiy va boshqa siyosat yo'nalishlari o'rtasida ham muvozanatni ta'minlashi lozim.[12]

Ushbu kengroq maqsadlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Moliyaviy tizim barqarorligi – UNCITRAL[13], Jahon banki[14] va XVJ[15] mamlakat moliya tizimining barqarorligi uchun to'g'ri ishlaydigan to'lovga qobiliyatsizlik tizimining muhimligini ta'kidlaydi. UNCITRAL kuzatganidek:

To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunlar va institutlar davlatlarga milliy moliya tizimlarini xalqaro moliya tizimi bilan integratsiya qilishdan kelib chiqadigan foydani olish va xavf-xatarlardan qochish imkonini berish uchun juda muhimdir. Ushbu qonunlar va institutlar istiqbolli biznesni qayta qurish va muvaffaqiyatsiz bizneslarning aktivlarini samarali sotish va boshqa shaxslarga o'tkazishni rag'batlantirishi, biznesni boshlash va qayta tashkil etish uchun moliyalashtirishni osonlashtirishi hamda kredit xavfini ham ichki, ham xalqaro miqyosda baholash imkonini berishi kerak.[16]

XVJ mamlakat bank tizimiga katta miqdordagi muammoli kredit portfellari yetkazishi mumkin bo'lgan zarar borasida kuchli iqtisodiy va moliyaviy tizimning muhimligini ta'kidlaydi:

Masalan, samarali to'lovga qobiliyatsizlik tizimi banklarga sud tomonidan tasdiqlangan tarkibiy jihatdan o'zgartirish yoki zarur bo'lganda samarali tugatish orqali korporativ sektorga qo'yiladigan talablar sifatining yomonlashishini cheklash imkonini berish orqali mahalliy bank tizimini qo'llab-quvvatlashning muhim ustunini ta'minlaydi.[17]

Mutanosib kredit va ijro tizimlari – Kreditorlar va investorlar mamlakatning moliyaviy qiyinchiliklarni hal qilish qobiliyatiga ishonchi bo'lmaganda, buning oqibatlari uzoqqa cho'ziladi. Investorlar kapitalni ushlab qolishadi yoki uni joylashtirishni kamaytirishadi. Banklar va boshqa kreditorlar yangi kredit yoki qarz ajratishga ehtiyotkorlik bilan yondashishadi; ular yuqori foiz stavkalari va qisqaroq muddatlarni yoki ikkalasini ham belgilashlari mumkin. XVJ kuzatganidek:

Barqaror va prognoz qilinadigan tarzda qo'llaniladigan samarali tartib-taomillarsiz kreditorlar o'z talablarini undira olmasliklari mumkin, bu esa kelajakda kredit mavjudligiga salbiy ta'sir qiladi. Tartibga tushirilgan tartib-taomillarsiz qarzdorlarning (va

[12] 4-iqtibos, 9-bet (ta'kid qo'shilgan).
[13] 4-iqtibos, 10-bet.
[14] 1-iqtibos, 1-bet.
[15] 6-iqtibos, vii betdagi so'zboshi.
[16] 4-iqtibos, 10-bet.
[17] 6-iqtibos, vii betdagi so'zboshi.

ularning xodimlarining) huquqlari yetarlicha himoya qilinmasligi va turli kreditorlarga adolatli munosabatda bo‘lmasligi mumkin. Aksincha, tartibli va samarali to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini izchil qo‘llash o‘sish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi va moliyaviy inqirozlarning oldini olish va hal qilishga yordam berishi mumkin: bunday tartib-taomillar qarzdorlar tomonidan majburiyatlarni o‘z zimmasiga olishda ko‘proq ehtiyotkorlikni va kredit berishda yoki talablarini qayta rejalashtirishda kreditorlarga ko‘proq ishonchni keltirib chiqaradi.[18]

Shunday qilib, kreditga asoslangan iqtisodiyot «*qarzlarni undirishning samarali, shaffof va ishonchli usullarini ta’minlaydigan mexanizmlar bilan qo‘llab-quvvatlanishi kerak»*[19] va mamlakatning ushbu mexanizmlarni belgilovchi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunining qoidalari bunday qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydigan tarzda qo‘llanilishi kerak.

Nihoyat mazkur tizimlar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunda nazarda tutilgan tartib-taomillar bilan bir qatorda sud qarorlarini ijro etish kabi boshqa huquqiy mexanizmlar bilan ham o‘zaro uyg‘un holda faoliyat yuritishi lozim.

Ta’minlangan kreditlarni qo‘llab-quvvatlash. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) mamlakatlarining rivojlangan bozorlaridan farqli ravishda, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda moliyalashtirishning asosiy qismi banklar va boshqa kreditorlar tomonidan taqdim etiladigan ta’minlangan kreditlarga to‘g‘ri keladi. Bunday kreditlashda qarzning qaytarilmaslik xavfini kamaytirish maqsadida garov ta’minoti muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilik kreditorlar tomonidan olingan garov huquqlarining samarali himoya qilinishini ta’minlashi lozim.

Xalqaro tashkilotlar ta’kidlaganidek, ta’minlangan kredit munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy normalar kreditorlarning xavflarini kamaytiradi, kapital oqimini rag‘batlantiradi hamda moliyaviy resurslardan arzonroq foydalanish imkonini yaratadi. Ayniqsa, garov huquqlarini tartibga soluvchi huquqiy asoslardagi noaniqlik va ziddiyatlar rivojlanayotgan mamlakatlarda kredit resurslarining qimmatlashishi va ularning cheklanishiga olib keluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.[20]

Moliyaviy inqirozlardan himoyalanish. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilikning samarali va ta’sirchan faoliyat yuritishi muhim ahamiyatga ega. *Chunki «tartibli va samarali to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining mavjud emasligi iqtisodiy hamda moliyaviy inqirozlarni yanada chuqurlashtirishi mumkin».*[21]

XVJ ta’kidlaganidek, iqtisodiy siyosat nuqtayi nazaridan sanatsiya tartib-taomillarining muhim vazifalaridan yana biri moliyaviy inqiroz davrida xususiy kreditorlarning inqirozni bartaraf etish jarayonida ishtirokini ta’minlashdan iborat. Bu esa davlat xarajatlarini cheklashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kreditorlarning o‘zlari qabul qilgan xavflar oqibatlari uchun iqtisodiy javobgarligini oshiradi va uzoq muddatli istiqbolda moliyaviy tizim barqarorligini mustahkamlaydi.[22]

---

[18] 6-iqtibos, 1-bet.
[19] 1-iqtibos, 5-bet.
[20] 1-iqtibos, 5-bet.
[21] 6-iqtibos, 1-bet.
[22] 6-iqtibos, 53-bet.

Kapital bozorlarini rivojlantirish. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilikning samarali amal qilishi kapital bozorlarining rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, mazkur qonunchilik normalari barqaror va oldindan prognoz qilish mumkin bo‘lgan tarzda qo‘llanilganda qarz majburiyatlarining ikkilamchi bozori rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi. Bu esa moliya institutlariga o‘z kredit talablarini qarzlarni restrukturizatsiya qilishga ixtisoslashgan boshqa subyektlarga o‘tkazish imkonini beradi.[23]

Mamlakat to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchiligining mazkur umumiy maqsadlari ushbu institutning milliy huquqiy va tijorat infratuzilmasidagi strategik ahamiyatini namoyon etadi. Shu munosabat bilan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilikni «prognoz qilinadigan, adolatli va shaffof»[24] tarzda talqin qilish hamda qo‘llash yuqorida qayd etilgan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Xalqaro miqyosda tan olingan tamoyillar

Ushbu aniqlangan maqsadlarga erishish uchun To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonun huquqiy asos va institutsional asosni yaratib beradi. Ikkala asos tizimlari ham asosan xalqaro miqyosda qabul qilingan tamoyillar va amaliyotlarni aks ettiradi, shu bilan birga, O‘zbekistonning huquqiy, ijtimoiy, tarixiy va madaniy sharoitlariga moslashtirilgan.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunning asosini tashkil etuvchi uchta asosiy tamoyillar tizimi quyidagilardir:

(a) yaxlitlik tamoyillari

(b) ta’minlangan qarz/garovlarga e’tibor tamoyili

(c) qiymat tushunchasi tamoyili

Dastlabki ikki tamoyillar quyida keltirilgan. «Qiymat» tushunchasi 8-bobning kirish qismida bayon etilgan va muhokama qilingan, chunki «qiymat» o‘sha bobning asosiy mavzusi bo‘lib xizmat qiladi.

Yaxlitlik tamoyillari

Jahon banki ta’kidlaganidek, «*to‘lovga qobiliyatsizlikka doir tizimning yaxlitligi uning muvaffaqiyatining asosiy garovidir*».[25] Yaxlitlik keng tushuncha bo‘lib, quyidagi tamoyillarni qamrab oladi:

Ishtirokchilarning yaxlitligi

Jahon bankining qo‘llanmasi to‘lovga qobiliyatsizlik qonunchiligi, amaliyoti va tartib-taomillari bo‘yicha xalqaro eng ilg‘or amaliyotlarni aks ettiruvchi bir qator tamoyillarni o‘z ichiga oladi. D 6.3-tamoyilida shunday deyilgan:

Ishtirokchilarning yaxlitligi. Sud jarayoni ishtirokchilari firibgarlik, boshqa noqonuniy faoliyat va to‘lovga qobiliyatsizlik va kreditorlar huquqlari tizimidan suiis-

[23] 6-iqtibos, 8-bet.

[24] 6-iqtibos, 5-bet.

[25] 1-iqtibos, 9-bet.

te’mol qilishning oldini olishga qaratilgan qoidalar va sud qarorlariga bo‘ysunishlari kerak. Bundan tashqari, sud o‘z qarorlarini bajarish va sud jarayoni bilan bog‘liq holda sudda ishtirok etayotgan taraflar yoki shaxslarning noto‘g‘ri yoki noqonuniy harakatlari bilan bog‘liq masalalarni hal etish uchun tegishli vakolatlarga ega bo‘lishi kerak.[26]

Shaffoflik tamoyili

Shaffoflik *«bashorat qilinadigan, adolatli va shaffof»* ishlash uchun yuritiladigan siyosat maqsadining asosiy elementidir. Jahon banki tomonidan ta’riflanganidek, bu tamoyil «*aniq xavflarni taqsimlash qoidalari va ma’lumot to‘plash va tarqatish uchun rag‘batlantiruvchi omillarni o‘z ichiga olgan va doimiy ravishda qo‘llaniladigan shaffof tartib-taomil»ni* talab qiladi.[27]

Bashorat qilish tamoyili

Bashorat qila olish va ishonchlilik to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunning *«bashorat qilinadigan, adolatli va shaffof»* ishlashi uchun belgilangan siyosat maqsadining asosiy elementlari hisoblanadi. Har bir mamlakat o‘z qonunchiligiga qaysi qoidalar kiritilganligi borasida turli xil tanlovlar va normalarni qabul qilsa-da, ushbu qoidalar «*ularni amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan shaxslar va muassasalar tomonidan izchil qo‘llanilishi kerak... qoidalar yoki ularning qo‘llanilishi noaniq bo‘lganda, bunday noaniqlik barcha ishtirokchilarning ishonchini kamaytiradi va ularning kredit berish va investitsiya kiritishga oid qarorlar qabul qilishga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi»*.[28]

Jahon banki bu fikrni quyidagicha ta’kidlaydi:

Islohotlarni amalga oshirish, barcha tomonlarga adolatli munosabatda bo‘lishni ta’minlash va nomaqbul amaliyotlarning oldini olish uchun oldindan aytib bo‘ladigan, ishonchli huquqiy asos va sud jarayoni zarur.[29]

UNCITRAL ushbu tamoyillarga rioya qilmaslik bilan bog‘liq xavflarni aniqlaydi:

[Shaffoflik va bashorat qilish mumkinligi] potensial qarz beruvchilar va kreditorlarga to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari qanday ishlashini tushunish va to‘lovga qobiliyatsizlik holatida kreditor sifatidagi mavqei bilan bog‘liq xavfni baholash imkonini beradi. Bu tijorat munosabatlarida barqarorlikni ta’minlaydi va pastroq tavakkalchilik mukofotlari bilan kredit berish va investitsiyalarni rag‘batlantiradi. Shaffoflik va bashorat qilish, shuningdek, kreditorlarga ustuvorliklarni aniqlashtirish, nisbiy huquqlar va xavflarni baholash mumkin bo‘lgan zamin yaratish orqali nizolarning oldini olish va ixtiyoriy qarorlar qabul qilinishiga chek qo‘yishga yordam beradi. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunning oldindan aytib bo‘lmaydigan tarzda qo‘llanilishi nafaqat barcha ishtirokchilarning to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillariga bo‘lgan ishonchini, balki ularning to‘lovga qobiliyatsizlikdan oldin kredit va boshqa investitsiya qarorlarini qabul qilishga tayyorligini ham yo‘q qilishi mumkin.[30]

---

[26] 1-iqtibos, 33-bet.

[27] 1-iqtibos, 7-bet.

[28] 6-iqtibos, 5–6-betlar.

[29] 1-iqtibos, 9-bet.

[30] 4-iqtibos, 13-bet.

Jahon banki ushbu tamoyilning ahamiyatini kreditorlar noaniqlik sharoitida foiz stavkalarini oshirishga moyil ekanligini ta'kidlash bilan izohlaydi. Bundan tashqari, kamroq rivojlangan bozor iqtisodiyotida moliyaviy inqiroz yuzaga kelganda, bashorat qilish va ishonchlilikni yetishmasligi kredit mablag'larining qaytarib olinishiga olib kelishi mumkin, bu esa iqtisodiyotda kengroq miqyosda moliyaviy qiyinchiliklarni kuchaytiradi.

Samaradorlik tamoyili

Samaradorlik to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi Qonunning «*oldindan aytib bo'ladigan, adolatli va shaffof*» ishlashi uchun belgilangan siyosat maqsadining asosiy elementidir. Bu qarzdorning aktivlarini himoya qilish va saqlash uchun juda muhimdir. To'lovga qobiliyatsiz qarzdor masalasining muvaffaqiyatli hal etilishi samarasizlik tufayli yuzaga kelgan kechikishlar sababli xavf ostida qolishi mumkin. Surunkali samarasizlik to'lovga qobiliyatsizlik tizimiga bo'lgan ishonchga putur yetkazishi mumkin.

Xolislik tamoyili

Jahon banki[31], XVJ[32] va UNCITRAL[33] to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunni amalga oshirishda xolislikning muhimligini ta'kidlaydi. Xolislik bashorat qilish tamoyilini mustahkamlaydi.

Adolatli munosabat tamoyili

Bu tamoyil bir nechta muhim elementlarni o'z ichiga olgan. Ular to'lovga qobiliyatsizlik jarayoni jamoaviy xarakterga ega bo'lgani uchun yuzaga keladi va «*...jarayonning jamoaviy mohiyati kreditorlarga muammolar tartibli va adolatli tarzda hal qilinishiga ishonch berishi mumkin»*.[34]

Bunday ishonchni ta'minlashning birinchi elementi shundaki, to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonun «*barcha kreditorlarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydi».* Bu har bir kreditorga bir xil munosabatda bo'lish kerak degani emas. Kreditorlarning ayrim toifalari, masalan, ta'minlangan kreditorlar va xodimlar qonunda belgilangan ustuvorlikka ega bo'ladilar. Biroq, muhimi, bir xil joylashgan kreditorlarga teng munosabatda bo'lish kerak. Masalan, ayrim kreditorlar o'z talablarining qonunda belgilangan ustuvorlik darajasiga tayanib qarzdor bilan huquqiy munosabatlarga kirishganligi bois, to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilida ushbu ustuvorlikka rioya etilishi adolat tamoyilining ajralmas qismi hisoblanadi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi adolatli munosabat tamoyilining ikkinchi elementini quyidagicha ifodaladi:

Biroq barcha kreditorlar manfaati uchun to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi Qonun moliyaviy qiyinchiliklar sharoitida ko'pincha yuzaga keladigan firibgarlik va tarafkashlik muammosini hal qilishi kerak.[35]

---

[31] 1-iqtibos, 7-bet.

[32] 6-iqtibos, 11- ва 76-betlar.

[33] 4-iqtibos, 12-bet.

[34] 6-iqtibos, 6-bet.

[35] 6-iqtibos, 6-bet.

Ya’ni adolatli munosabat ushbu muammolarni hal qilishni talab qiladi. Masalan, UNCITRAL qo‘llanmasida ta’kidlanganidek:

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun mulkni saqlab qolishi va qarzdor mulkining individual kreditorlarning individual qarzlarni undirish bo‘yicha harakatlari natijasida muddatidan oldin bo‘linib ketishining oldini olishi kerak.[36]

Jahon bankining qo‘llanmasida ham xuddi shunday fikr ta’kidlangan.[37] Adolatli munosabat tamoyilining bu jihati To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonunning 6-bobida ko‘rib chiqilgan.

Nihoyat, XVJ ta’kidlaganidek, xalqaro investitsiyalar va xalqaro manbalardan olingan kreditlarning ahamiyatini tan olgan holda xorijiy kreditorlarga nisbatan kamsitish adolatli munosabat tamoyilini buzadi.[38]

Ta’minlangan qarz/garovlarga e’tibor tamoyili

Garov bilan ta’minlangan kreditorlarga munosabat **(ta’minlangan kreditorlar)** va umumiy kreditorlarning to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonidagi manfaatlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat raqobatlashayotgan tamoyillar o‘rtasida ziddiyatni keltirib chiqarishi mumkin. Bir tomondan, qarzdorning aktivlarini himoya qilish va qiymatini maksimal darajada oshirish to‘lovga qobiliyatsizlik tartibining asosiy tamoyilidir. Boshqa tomondan, ta’minlangan kreditorlar foydasiga garovlarni tan olish va himoya qilish, shubhasiz, yanada muhim tamoyildir, chunki u kengroq ko‘lamdagi iqtisodiyot manfaatlariga xizmat qiladi. XVJ qo‘llanmasida ta’kidlanganidek:

... garovga olingan manfaatlarining qiymatini kamaytiradigan har qanday choralarni joriy etish ehtiyotkorlik bilan ko‘rib chiqishni talab qiladi. Bunday kamaytirish oxir-oqibat [mamlakat iqtisodiyotida] arzon kreditlarning mavjudligiga putur yetkazadi: garovga olingan manfaatlar bilan ta’minlanadigan himoya kamaygan sari, kattaroq tavakkalchilikni qoplash uchun kredit narxi albatta oshishi kerak bo‘ladi. Darhaqiqat, ma’lum bozor sharoitlarida kreditorlar, narxdan qat’i nazar, hatto ta’minlangan kreditni ham berishni istamasliklari mumkin.[39]

Garov va to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir ko‘p jihatdan ham tugatish, ham sanatsiya jarayonlarida sodir bo‘ladi.

Sanatsiya tartib-taomillarida mazkur manfaatlar muvozanatini ta’minlash, odatda, ancha murakkab hisoblanadi. Shuningdek, bu tugatish jarayonlarida ham qiyin bo‘lishi mumkin. XVJ qo‘llanmasida buning sababi quyidagicha tushuntirilgan:

Qarzdorning biznesini yuritish uchun zarur bo‘lgan mulk aktivlari garov huquqidan kelib chiqadigan manfaatlar bilan band qilingan hollarda ta’minlangan kreditorlar sanatsiya jarayoni boshlanishidayoq o‘z talablarini darhol ijroga qaratishlari qarzdorning sanatsiya rejasini tuzayotgan paytda o‘z biznesini yuritishini imkonsiz qilishi mumkin.

[36] 4-iqtibos, 12-bet.
[37] 1-iqtibos, 7-bet.
[38] 6-iqtibos, 6-bet.
[39] 6-iqtibos, 30-bet.

Biroq bu tugatish jarayoniga ham taalluqli – kamroq darajada bo‘lsa ham – ta’minlangan kreditorlarni kreditorlarning harakatlarini umumiy to‘xtatib turishdan chetlatish tugatuvchining taqsimlashdan oldin mulk qiymatini maksimal darajada oshirish qobiliyatiga putur yetkazishi mumkin. Xususan, agar muhim aktivlar garov sifatida xizmat qilsa, tugatuvchi qarzdorning biznesini – yoki biron bir biznes bo‘linmasini – faoliyat yuritayotgan korxona sifatida sota olmaydi. Bundan tashqari, qarzdorning aktivlarini faoliyat yuritayotgan korxona sifatida sotishning iloji bo‘lmasa ham, vaqtinchalik to‘xtatib turish tugatuvchiga barcha ta’minlanmagan kreditorlar manfaati uchun eng yuqori daromad keltiradigan sotuvni tashkil qilish uchun vaqt beradi.[40]

Barcha aktivlarning qiymatini himoya qilish uchun garovga qo‘yilgan aktivlarni tasarruf etishni cheklash zarurati va garovga qo‘yilgan aktivlarga nisbatan ta’minlangan kreditorning huquqlarini himoya qilish o‘rtasida muvozanatga erishish kerak.

Xalqaro miqyosda ushbu o‘zaro ta’sirni hal qilishning universal yondashuvi mavjud emas. Biroq «tegishli himoya» tushunchasi odatda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunlarda qo‘llaniladigan minimal standart hisoblanadi. Mamlakatlar bo‘ylab ko‘lami va qo‘llanilishi jihatidan farq qiladigan ushbu konsepsiya qarzdor aktivlarining umumiy qiymatini oshirish uchun tugatish yoki sanatsiya jarayonida ta’minlangan kreditorlarga cheklovlar qo‘yishga imkon beradi. Biroq cheklovlar garov qiymatini kamaytirmasligi uchun qonunga himoya vositalari kiritilgan. Masalan, sud boshqaruvchisi garovga qo‘yilgan aktivlarni tasarruf etish yoki ularga nisbatan cheklovlar qo‘llash zarurligini, bunday harakatlar garov qiymatini kamaytirmasligini sudda isbotlash orqali asoslab berishi talab qilinishi mumkin. Boshqa mumkin bo‘lgan himoya vositalariga ta’minlangan kreditorning garovga qo‘yilgan aktivlarga nisbatan har qanday taklif qilingan muomalaga e’tiroz bildirish uchun sudga ariza berish huquqi va agar taklif qilingan harakat garovga qo‘yilgan aktivlar qiymatini kamaytirishiga ishonch hosil qilsa, sud tomonidan tegishli himoya choralarini qo‘llash huquqi kiradi.

Ushbu masalaga xalqaro miqyosda yondashishdagi umumiy yo‘nalish ta’minlangan kreditorning tegishli himoyalanganligini ta’minlashdir. Bu, masalan, moratoriy kabi choralar garovga qo‘yilgan aktivlardan foydalanish imkonini vaqtincha cheklaganda yoki ta’minlangan kreditor garovga qo‘yilgan aktivlarga ta’sir qiluvchi sanatsiya jarayoniga rioya qilishga majbur bo‘lganda tegishlidir. Ushbu himoya usuli va ko‘lami mamlakatning milliy to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonuni belgilaydigan masalalardir.

Ushbu muhim masalaning To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonunda tartibga solinishi uni o‘z ichiga olgan moddalarning aniq shartlariga muvofiq talqin qilinishi kerak. Ushbu moddalar O‘zbekiston parlamenti umuman olganda ta’minlangan kreditor va ta’minlanmagan kreditorlar o‘rtasidagi raqobatlashuvchi manfaatlarni qanday muvozanatlashni tanlaganini aks ettiradi.

[40] 6-iqtibos, 31-bet.

1-BOB
UMUMIY QOIDALAR

Moddalar bo‘yicha sharh

3-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonunning 3-moddasida «*to‘lovga qobiliyatsizlik»* tushunchasi ta’riflangan. Mazkur xalqaro sharh maqsadlari uchun «to‘lovga qobiliyatsizlik» haqidagi munozara 5-moddadagi «to‘lovga qobiliyatsizlik belgilari» ostida keltirilgan.

3-moddada *«kreditorlar»* atamasi ham ta’riflangan. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunda kreditorlar tushunchasini aniqlashda xalqaro amaliyot haqida ikkita mulohaza qilish mumkin.

Birinchidan, xalqaro to‘lovga qobiliyatsizlik standartlari ayrim turdagi talablar to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha ish yuritishdan chiqarib tashlanishi kerakligini tan oladi. Ushbu turdagi talablar to‘lovga qobiliyatsizlikda yoki dividendlar olishda yoxud har ikki holatda ham saqlab qolinadi. Bunga odatda ikkita usuldan biri bilan erishiladi: da’vogarni «kreditor» ta’rifidan chiqarib tashlash yoki To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonunda «da’volar» (yoki uning ekvivalenti, masalan, «pul majburiyatlari») ta’rifidan da’vo turini chiqarib tashlash orqali.

Ikkinchidan, «kreditor» odatda qarzdorga qarshi da’volari bo‘lgan barcha taraflarni qamrab olish maqsadida keng ta’riflanadi (uzil-kesil chiqarib tashlanmagan taqdirda). Ushbu inklyuziv yondashuv ikkita sababga ko‘ra juda muhimdir:

(i) agar qarzdor tugatiladigan bo‘lsa, jarayon oxirida qarzdordan dividend olishning boshqa imkoniyati bo‘lmaydi;

(ii) agar qarzdorning to‘lovga qobiliyati tiklansa, muvaffaqiyatli natija barcha tegishli taraflarning talablarini ko‘rib chiqish jarayoniga bog‘liq bo‘ladi.

Muhimi, ayrim talablar huquqiy siyosat nuqtayi nazaridan dividendlar taqsimlashda ishtirok etmasligi, hisobdan chiqarilmasligi yoki murosaga kelish obyekti bo‘lmasligi lozim deb e’tirof etilganligi sababli, xalqaro ilg‘or amaliyot qonunchilikda bunday talablarni to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining ayrim bosqichlari yoki barchasidan chiqarib tashlashga oid maxsus qoidalar mavjud bo‘lishini talab qiladi.

3-moddada «*qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili»* ta’rifi berilgan. Ushbu ta’rifga berilgan sharhda qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish bo‘yicha xalqaro amaliyotga mos keladigan bunday tartib-taomillarning misollari keltirilgan.

Xalqaro amaliyotda qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili odatda qarzdorning kreditorlar oldidagi majburiyatlarini sezilarli darajada kamaytirishni o‘z ichiga oladi. Bu mulohaza yuridik shaxslar, tadbirkorlar va jismoniy shaxslar ishtirokidagi

to‘lovga qobiliyatsizliklarga ham tegishli. Qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini ma’qullash yoki rad etish yuzasidan ovoz beruvchi kreditorlar mazkur rejaning ehtimoliy natijalarini qarzdorni tugatish tartib-taomilining ehtimoliy oqibatlari bilan taqqoslaydilar. Kreditorlar qarzni sezilarli darajada kamaytirishni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan tarkibiy jihatdan o‘zgartirish uchun ovoz berganda buni oqilona asosda amalga oshiradilar, xususan, tugatish (qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirishga muqobil bo‘lib) ancha yomon natijaga olib kelishi kutiladi. Bu ko‘pincha tugatish jarayoni qiymatga putur yetkazadigan holatlarda yuz beradi.[41] Bu, shuningdek, qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish tartib-taomili bo‘yicha qayta kapitalizatsiya qilish qarzdorga o‘z biznes faoliyatini davom ettirishga imkon beradigan, ammo yangi kapital faqat kreditorlar ularga tegishli qarzni kamaytirishni qabul qilgan taqdirdagina taklif etiladigan holat bo‘lishi mumkin.

4-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – «Joriy to‘lovlar» deganda qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish qo‘zg‘atilganidan keyin yuzaga kelgan pul majburiyatlari, soliq majburiyatlari va boshqa majburiy to‘lovlar tushuniladi. 4-modda (shuningdek, 150-modda)ga muvofiq, joriy to‘lovlar birinchi navbatda qondiriladi. Mazkur ustuvorlik xalqaro amaliyotga mos bo‘lib, u qarzdorning cheklangan moliyaviy resurslari hisobidan o‘z vaqtida qondirilish kafolati mavjud bo‘lmagan taqdirda, yangi kredit beruvchilarning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish boshlanganidan keyin qarzdor bilan huquqiy munosabatlarga kirishish ehtimoli juda past bo‘lishi haqidagi yondashuvga asoslanadi. Shu sababli joriy to‘lovlarga ustuvorlik berish xalqaro amaliyotda to‘lovga qobiliyatsizlik tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etiladi.

5-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 3-moddada «to‘lovga qobiliyatsizlik» atamasi quyidagicha ta’riflangan:

to‘lovga qobiliyatsizlik deganda sud tomonidan e’tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini to‘la hajmda qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini to‘la hajmda bajarishga qodir emasligi tushuniladi.

Bundan tashqari, 5-moddada 14-bob (jismoniy shaxslar), 15-bob (yakka tartibdagi tadbirkorlar) va 16-bobda (soddalashtirilgan tartib-taomillar) nazarda tutilgan holatlardan tashqari To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonunga muvofiq barcha jarayonlarga nisbatan qo‘llaniladigan ikkita «*to‘lovga qobiliyatsizlik belgisi»* ta’riflangan. Bu belgilar «vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizlik» va «doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik» deb tasniflanadi.

[41] 8-bobga kirish qismidagi 36–40-betlardagi xalqaro sharhga qarang, bu yerda qiymat asosiy tushuncha sifatida muhokama qilinadi.

5-moddadagi ta’rif xalqaro miqyosda e’tirof etilgan to‘lovga qobiliyatsizlikni aniqlashning ikkita asosiy mezonini aks ettiradi. Bunda vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizlik pul oqimi mezoniga (cash-flow test), doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik esa balans mezoniga (balance-sheet test) asoslanadi.

To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilini qo‘llash uchun yagona universal mezon mavjud bo‘lmasa-da, xalqaro amaliyotda pul oqimi mezoni eng keng qo‘llaniladi. Chunki qarzdorning qarzlarini o‘z vaqtida to‘lay olmasligi, odatda, balans bo‘yicha to‘lovga qobiliyatsizlik holatidan oldin yuzaga keladi. Bu esa moliyaviy qiyinchiliklarni erta aniqlash va sanatsiya choralarini samarali qo‘llash imkonini beradi.

6-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilgandan so‘ng sud tomonidan ko‘rib chiqilishi kerak. Qanday *turdagi* ish qo‘zg‘atilishi mumkinligi borasida universal xalqaro amaliyot mavjud emas. UNCITRAL qo‘llanmasida quyidagi tushuntirish berilgan:

Boshlash standartining ikkinchi mezoni – boshlanishi mumkin bo‘lgan sud jarayonining turi... Ba’zi qonunlarda boshlash standarti qayta tashkil etish yoki tugatish jarayonini boshlash uchun asos yaratadi. Kreditor tomonidan tugatish to‘g‘risidagi ariza berilgan taqdirda, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun qarzdorga sud jarayonini tugatishdan qayta tashkil etishga o‘tkazish uchun ariza berishga ruxsat berishi mumkin. Qayta tashkil etish afzal ko‘riladigan boshqa to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunlarga ko‘ra, qayta tashkil etish jarayoni boshlanishi kerak, ammo qarzdorni qayta tashkil etish mumkin emasligi isbotlanganda, uni tugatishga o‘tkazish mumkin. Boshqa yondashuvga ko‘ra, ariza huquqiy oqibatlari jihatidan neytral xususiyatga ega bo‘lib, qayta tashkil etish va tugatish o‘rtasida tanlov faqat qarzdorning moliyaviy holatini baholash davridan keyin amalga oshiriladi.[42]

So‘nggi aniqlangan yondashuvga muvofiq, To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonunning 8-bobida «Kuzatuv tartib-taomili»ning boshlanishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, UNCITRAL qo‘llanmasida «*qarzdorning moliyaviy ahvolini baholash davri»* deb ta’riflangan holatni amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa qarzdorning moliyaviy holatini baholash natijalariga asoslanib sanatsiya yoki tugatish tartib-taomilini tanlash bo‘yicha asoslangan qaror qabul qilish imkonini yaratadi.

7-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 7-moddada to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish uchun sudga murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan taraflar belgilangan. Taraflar boshqalar qatori qarzdor va uning kreditorlarini o‘z ichiga oladi.

Kreditor ariza berganida, xalqaro miqyosda keng tarqalgan masala sud uchun «*to‘lovning amalga oshirilmaganligi kreditor bilan bo‘lgan nizoning natijasimi yoki likvid aktivlarning yetishmasligi tufayli to‘lovning amalga oshirilmaganligining umumiy*

[42] 4-iqtibos, 48-bet.

ko‘rinishining bir qismimi yoki yo‘qligini aniqlash» hisoblanadi.[43] Bu muhim. Agar bu shunchaki nizoning natijasi bo‘lsa, albatta to‘lovga qobiliyatsizlikni anglatmaydi.

7-moddada, shuningdek, ariza berishning tegishli mezoni «*moliyaviy majburiyatlarni bajarmaslik»* ekanligi belgilangan. Bu «pul oqimi mezoni» bilan mos keladi[44] va XVJ qo‘llanmasidan quyidagi qism ushbu yondashuvning muhim asoslaridan birini tushuntiradi:

Mamlakatlar ko‘pincha «to‘lovlarni umumiy to‘xtatish»[45] to‘g‘risidagi qaror asosida tugatish jarayonini[46] ochishga ruxsat berishining asosiy sabablaridan biri ushbu jarayonning maqsadlari nuqtayi nazaridan eng yaxshi tarzda tushuntirilishi mumkin. Tugatish jarayoni qarzdorni kreditorlarning jamoaviy manfaatlariga zarar yetkazadigan holda qismlarga ajratishga olib keladigan individual kreditorlar tomonidan «tortib olish poygasi»ning oldini olish uchun mo‘ljallanganligi sababli, qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligini kutish ko‘pincha[47] faqat boshlanib ketgan tortib olish poygasini to‘xtatadi. Bundan tashqari, balans bo‘yicha to‘lovga qobiliyatsizlikni isbotlash kreditorlar uchun ko‘pincha qiyin, chunki ularda ichki ma’lumotlar yo‘q.

Boshqa tomondan, «to‘lovlarni to‘xtatishning umumiy mezoni»ga tayanish qarzdorning moliyaviy qiyinchiliklari yuzaga kelgan paytda sud jarayonini yetarli darajada erta boshlash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bu poyganing oldini oladi.[48]

Qarzdor moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelganda erta aralashuvni rag‘batlantirishning yana bir afzalligi – muvaffaqiyatli sanatsiya ehtimolining yuqoriligi. 7-modda qarzdorga yoki ariza beruvchi kreditorga sudga taqdim etadigan arizasida sanatsiya yoki tugatish tartib-taomilini qo‘llash zarurligini ko‘rsatish imkonini beradi.

8-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 8-moddada qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni boshlash uchun ariza berishi mumkin bo‘lgan asoslar, xususan, 5-moddada belgilanganidek, «vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizlik» belgilari mavjud bo‘lgan taqdirda, bayon etilgan. Bu shuni anglatadiki, balans hisoboti to‘lovga qobiliyatsizligini (ya’ni, 5-moddada belgilanganidek, «doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik») isbotlashi shart emas. Shunday qilib, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish qarzdor tomonidan moliyaviy qiyinchilikning nisbatan erta bosqichida boshla-

[43] 6-iqtibos, 23-bet.

[44] 5-modda, 11-betga oid xalqaro sharhga qarang.

[45] XVJ qo‘llanmasining oldingi paragraflaridan ko‘rinib turibdiki, bu ibora bilan nimani nazarda tutish kerak: «qarzdor o‘z majburiyatlarini ularning odatdagi muddati kelganida bajarishni to‘xtatganida». XVJ qo‘llanmasining 21-betiga, 6-iqtibosga qarang.

[46] Ushbu parchada tugatish jarayoni aniq ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, u hali tugatish jarayoni bo‘lmasa ham, To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunga muvofiq to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni boshlash bilan ham bog‘liq.

[47] XVJ qo‘llanmasining oldingi paragraflaridan ko‘rinib turibdiki, bu yerda «to‘lovga qobiliyatsiz» so‘zi bilan bu yerda ishlatilganda quyidagilar nazarda tutilgan: «korxona balansida kompaniya majburiyatlari qiymati uning aktivlaridan oshib ketganligi ko‘rsatilganda». XVJ qo‘llanmasining 6-iqtibosining 22-betiga qarang.

[48] 6-iqtibos, 22-bet.

nishi mumkin. Bu, yuqoridagi 7-moddaga sharhda ko‘rsatilganidek, xalqaro amaliyotga mos keladi.

9- va 10-moddalar

Xalqaro nuqtayi nazar – 9-moddada aniqlangan taraflar belgilangan muddat ichida belgilangan shartlar asosida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni boshlash uchun ariza berishlari shart ekanini belgilaydi. 10-moddada bunday taraflar ariza topshirmagan taqdirda yuzaga keladigan huquqiy oqibatlar bayon etilgan.

Mazkur qoidalarni to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilikka kiritish yoki kiritmaslik masalasi murakkab huquqiy siyosat masalasi hisoblanadi. Bu borada yagona umume’tirof etilgan xalqaro yondashuv mavjud emas. Bunday qoidalar mamlakatning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonuniga kiritilgan hollarda, UNCITRAL qo‘llanmasida quyidagi atamalarda asoslab berilgan:

Qarzdorlarning arizalari bilan bog‘liq masala – qarzdorning moliyaviy qiyinchiliklari ma’lum bir bosqichida sud jarayonini boshlash uchun ariza berish majburiyati bo‘lishi kerakmi yoki yo‘qmi degan savol. Bu masalaga keng tarqalgan yondashuv mavjud emas. Ba’zi to‘lovga qobiliyatsizlik yoki biznesni boshqarish to‘g‘risidagi qonunlarda qarzdorning qarzlarini to‘lash muddati kelganda to‘lay olmaganidan keyin yoki uning balans hisobotiga asoslanib aniqlangan ortiqcha qarzdorligi haqida bilganidan keyin ma’lum muddatda (ikki haftadan 60 kungacha) murojaat qilishini talab etadigan qoidalar mavjud.... Tugatish holatida bunday majburiyatni yuklash qarzdor aktivlari noqonuniy tasarruf etilishining oldini olish orqali kreditorlarning manfaatlarini himoya qilishi va qayta tashkil etish holatida erta choralar ko‘rishni rag‘batlantirish orqali muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshirishi mumkin. Bu jarayon boshlash uchun tayanadigan faol kreditorlar toifasi bo‘lmagan mamlakatlarda muhim bo‘lishi mumkin.[49]

[49] 4-iqtibos, 49–50-betlar.

2-BOB
TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK TO‘G‘RISIDAGI ISHNI YURITISH ISHTIROKCHILARINING, KREDITORLAR YIG‘ILISHINING, JAMOAT BIRLASHMALARINING, SUD BOSHQARUVCHILARINING HUQUQLARI, MAJBURIYATLARI VA JAVOBGARLIGI

Kirish

Xalqaro nuqtayi nazar – Kreditorlar to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida muhim rol o‘ynaydi. XVJ qo‘llanmasida quyidagilar qayd etilgan:

Kreditorlar to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining asosiy manfaatdorlari ekanligini hisobga olsak, qonun ularga ushbu jarayonda faol rol o‘ynash imkonini beradigan tarzda ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi kerak. Ular odatda bir qator muhim sohalarda qaror qabul qiluvchilar bo‘lishlari kerak... Bundan tashqari, qonun ularga suddan choralar ko‘rishni so‘rash yoki tavsiya qilishda rol berishi kerak...[50]

UNCITRAL qo‘llanmasida kreditorlar to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida muhim rol o‘ynashining qo‘shimcha sabablari keltirilgan:

Bir qator sabablarga ko‘ra ko‘plab to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunlar kreditorlarning sud jarayonlarida bevosita ishtirok etishiga sharoit yaratib beradi. To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili natijasida asosiy iqtisodiy manfaatdor shaxslar bo‘lgan kreditorlar sud boshqaruvchisi tayinlanish tartibiga ko‘ra qarzdorning faoliyat sohasi bo‘yicha yetarli tajriba yoki bilimga ega emas yoxud mustaqilligi ta’minlanmagan deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan hollarda ular bilan maslahatlashilmasdan qabul qilinadigan muhim qarorlarga nisbatan ishonchini yo‘qotishi mumkin. Kreditorlar, odatda, qarzdorning faoliyati yuzasidan maslahat va amaliy yordam ko‘rsatish, sud boshqaruvchisining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish, to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarida ortiqcha ma’muriy xarajatlar va suiiste’mollarning oldini olish, shuningdek, axborot almashinuvini ta’minlash uchun eng qulay mavqega ega hisoblanadi.[51]

Xalqaro standartlar kreditorlarning to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida ishtirok etishining muhimligini ta’kidlasa-da, ular ehtiyotkorlik bilan qo‘llanishi lozim. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunni samarali amalga oshirish asosiy, ammo ba’zan qarama-qarshi bo‘lgan tamoyillar va mulohazalarni sinchkovlik bilan muvozanatlashni talab qiladi:

Kreditorlarning to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarida faol ishtirokini ta’minlash zarurati kreditorlarning vakillik mexanizmi samarali va tejamkor bo‘lib qolishi

[50] 6-iqtibos, 74-bet.
[51] 4-iqtibos, 190-bet.

hamda kreditorlarning o‘z manfaatlariga ta’sir qilmaydigan masalalarga aralashishiga yo‘l qo‘ymaslik zarurati bilan muvozanatlashtirilishi kerak (garchi ko‘pincha bunday ta’sirga ega bo‘lgan va ta’sir qilmaydigan masalalar o‘rtasida aniq farqni aniqlash qiyin bo‘lishi mumkin).[52]

Kreditorlarning ishtirokini osonlashtirishda xalqaro miqyosda turli xil yondashuvlar mavjud. UNCITRAL qo‘llanmasida ushbu muqobil yondashuvlar bo‘yicha quyidagi mulohazalar keltirilgan:

Ishtirok etish mexanizmlari nuqtayi nazaridan, ba’zi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunlar kreditorlarning to‘liq yig‘ilishlarini sud jarayonining asosiy bosqichlarida chaqirishni nazarda tutadi. Boshqa qonunlar qo‘mita tuzishga ruxsat beradi, unda kreditorlar ba’zan mulk egalari va ehtimol manfaatdor boshqa taraflar bilan vakillikni bo‘lishishlari mumkin, bunda mulkni boshqarishda ishtirok etishni osonlashtirish uchun ozroq miqdordagi kreditorlar (bu raqam to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunda ko‘rsatilishi mumkin) ishtirok etadi. Birinchi yondashuv kreditorlar soni kam bo‘lgan yoki kreditorlar bir xil geografik mintaqada joylashgan hollarda eng foydalidir. Ikkinchisi ko‘p sonli kreditorlar bo‘lgan yoki kreditorlar turli mintaqalarda yoki hatto turli mamlakatlarda joylashgan hollarda foydaliroq bo‘lishi mumkin. Ishtirok etish uchun ishlatiladigan mexanizm kreditorlar oldida turgan dolzarb masalaga ham bog‘liq bo‘ladi. Ko‘pgina to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunlar ushbu ikkala yondashuvni ham o‘z ichiga oladi, kreditorlar yig‘ilishlarida ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan qayta tashkil etish rejasini tasdiqlash kabi muhim masalalarni ham.[53]

Moddalar bo‘yicha sharh

12-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 12-moddaning beshinchi qismida kreditorlar yig‘ilishining «mutlaq vakolati»ga kiradigan qarorlar doirasi belgilangan.

Kreditorlar yig‘ilishida kreditorlar tomonidan amalga oshiriladigan vakolatlar doirasiga oid yagona xalqaro amaliyot mavjud emas. Ushbu bobning kirish qismidagi sharhlardan tashqari UNCITRAL qo‘llanmasida quyidagilar qayd etilgan:

Kreditorlar tomonidan bajarilishi kerak bo‘lgan funksiyalarga qarab kreditorlarning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishda ishtirok etishining turli darajalari mavjud. Umuman olganda, kreditorlarga qaysi funksiyalar berilishi kerakligini aniqlash to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunning umumiy tuzilishini va sud, to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil, qarzdor va kreditorlarning rollari o‘rtasida, xususan, nazorat va kuzatuv nuqtayi nazaridan erishilishi kerak bo‘lgan muvozanatni ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi. Ma’lum darajada, kreditorlarga berilgan turli funksiyalar turli to‘lovga qobiliyatsizlik madaniyati va an’analarini, xususan, kreditorlarning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishda ishtirok etish da-

[52] 4-iqtibos, 190-bet.
[53] 4-iqtibos, 194-bet.

rajasiga nisbatan turlicha kutishlarni aks ettiradi. Biroq kreditorlarning ishtirokiga tobora ko‘proq to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunning muhim elementi sifatida qaralmoqda, ayniqsa, qonun bo‘yicha boshqa ishtirokchilarga berilgan rollarga qarshi muvozanat va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishning muhim vositasi sifatida.[54]

Vakolatlarning bunday taqsimlanishi kreditorlar yig‘ilishi bilan sud boshqaruvchisi o‘rtasida muayyan kelishmovchiliklar kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday kelishmovchiliklar to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilining tabiiy xususiyati hisoblanadi, chunki moliyaviy qiyinchiliklar holatlarida muhim qarorlar qabul qilish uchun kamdan kam hollarda bitta «to‘g‘ri» yondashuv mavjud. Shuning uchun sud boshqaruvchisi va kreditorlar yig‘ilishi o‘rtasidagi kelishmovchiliklar keng tarqalgan. UNCITRAL qo‘llanmasida ta’kidlanganidek:

Agar rejim to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilning harakatlari yoki qarorlarini odatda kreditorlar, kreditorlar qo‘mitasi yoki boshqa kreditorlar vakili nazorat qilishi yoki tasdiqlashini nazarda tutsa, kreditorlarning yuqori darajadagi himoyasi yuzaga kelishi mumkin. Biroq agar ushbu nazorat yoki tasdiqlash tugatish massasini boshqarishga qo‘shimcha choralar qo‘shsa, bu ma’muriy jarayonning narxi va samaradorligiga ta’sir qilishi mumkin. To‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil va individual kreditorlar o‘rtasidagi ma’lum darajadagi kelishmovchiliklardan qochish deyarli imkonsiz, xususan, to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil barcha kreditorlar manfaati uchun harakat qilishi va individual kreditorlar qo‘llab-quvvatlamasligi yoki rozi bo‘lmasligi mumkin bo‘lgan choralarni ko‘rishi kerak bo‘ladi. Ammo odatiy holatlarda bunday norozilik sudga to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilni almashtirish uchun asos bermaydi yoki kreditorga to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilga qarshi da’vo qo‘zg‘atish uchun asos bo‘lmaydi. Shu sababli qonun kreditorlar tomonidan qaysi harakatlar va qarorlar nazorat qilinishi yoki tasdiqlanishi lozimligini belgilashda sud boshqaruvchisining mustaqilligi hamda to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilining tezkorligi va iqtisodiy samaradorligi o‘rtasida muvozanatni ta’minlashi lozim.[55]

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun kreditorlar va sud boshqaruvchisi o‘rtasidagi ehtimoliy kelishmovchiliklarni hal qiladi, raqobatdosh manfaatlar va To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonunda aks ettirilgan tamoyillar o‘rtasida (sud qarori orqali) muvozanatga erishishga intiladi. Masalan, 12-moddaning sakkizinchi qismi sudga muvaqqat boshqaruvchining fikrini eshitgandan so‘ng, hatto kreditorlar yig‘ilishi tugatish uchun ovoz bergan taqdirda ham, sanatsiya jarayonini boshlash vakolatini beradi.

12-moddaning o‘n birinchi qismida individual kreditorlarning shikoyat berish huquqi belgilangan. Ushbu huquqning mavjudligi va shikoyat qilinadigan masalalarning doirasi kengligi xalqaro amaliyotga mos keladi. Mazkur huquqlar to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilining shaffofligi va yaxlitligini ta’minlashga, muhim qarorlar qabul qilinishida kreditorlarning fikri eshitilishi huquqini kafolatlashga hamda to‘lovga qobiliyatsizlik tizimiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

[54] 4-iqtibos, 190–191-betlar.
[55] 4-iqtibos, 192-bet.

13-, 14-, 15-, 16- va 17-moddalar

Xalqaro nuqtayi nazar – Kreditorlar yig‘ilishlari, uni chaqirish va o‘tkazish bo‘yicha aniq qoidalarni (shu jumladan, ovoz berish tartiblarini) belgilash orqali ushbu moddalar yaxlitlik, xolislik va shaffoflik tamoyillarini aks ettiradi, to‘g‘ri ishlaydigan to‘lovga qobiliyatsizlik tizimi uchun ularning barchasi muhimdir. Xalqaro valyuta jamg‘armasi qo‘llanmasida xalqaro amaliyot bo‘yicha tegishli mulohazalar keltirilgan:

Qonunda kreditorlarga qanday rol berilganidan qat’i nazar, ular bu rolni faqat sud jarayoni shaffof tarzda olib borilgan taqdirdagina samarali tarzda bajara oladilar. Shuning uchun ular muhim yig‘ilishlar va qarorlar haqida yetarlicha xabardor bo‘lishlari va to‘liq asoslangan qarorlar qabul qilish uchun yetarli ma’lumot olishlari juda muhimdir.[56]

17-moddaning oltinchi qismida kreditorlar yig‘ilishining qarori to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzsa, ular sudga ariza berish orqali sud tomonidan bunday qarorning haqiqiy emas deb topilishini so‘rashlari mumkin. Mazkur huquqning mavjudligi xalqaro amaliyotga mos keladi. Bu jarayonning yaxlitligini va kreditorlarning muhim qarorlar qabul qilishda fikrlari eshitilishi huquqini himoya qiladi, to‘lovga qobiliyatsizlik tizimiga ishonchni mustahkamlaydi.

18-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu moddaning kreditorlar talablari reyestrini shakllantirish, yuritish va tekshirish tartibiga qo‘yilgan talablar xalqaro miqyosda tan olingan shaffoflik[57] va yaxlitlik tamoyillariga mos keladi.

18-moddaning oltinchi qismida kreditorlarning talablari reyestrini tuzishda yuzaga keladigan kelishmovchiliklar sud tomonidan ko‘rib chiqilishi belgilangan. Bunday tartibning mavjudligi xalqaro amaliyotga mos keladi. Bu jarayonning yaxlitligini va muhim qarorlar qabul qilishda kreditorlarning fikri eshitilishi huquqini himoya qiladi, to‘lovga qobiliyatsizlik tizimiga ishonchni mustahkamlaydi.

19-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu moddaga muvofiq kreditorlar qo‘mitasini tuzish va qo‘mitaga vakolatlarni berish XVJ qo‘llanmasida ko‘rsatilgan xalqaro amaliyotga mos keladi:

Kreditorlar soni ko‘p bo‘lgan hollarda, kreditorlar manfaatlarini ifoda etuvchi kreditorlar qo‘mitasining tuzilishi jarayonning izchilligi va samaradorligini ta’minlaydi.

[…]

Kreditorlar qo‘mitasi qaror qabul qilish jarayonida faqat maslahat vazifasini bajarsa-da (ularga, odatda, barcha kreditorlar nomidan majburiy qarorlar qabul qilish vako-

[56] 6-iqtibos, 74-bet.
[57] 1-iqtibos, 16-bet.

lati berilmaydi), bunday vazifa amaliyotda juda muhim bo‘lishi mumkin. Kreditorlar qo‘mitasi odatda kreditorlarga asosiy qarorlarni qanday qabul qilish bo‘yicha tavsiyalar beradi (masalan, rejani tasdiqlash) va sudga muhim masalalar yuzasidan tavsiyalar taqdim etadi. Sud qaror qabul qilishdan oldin barcha kreditorlarni tinglashi kerak bo‘lsa-da, odatda qo‘mitaning fikrlariga katta e’tibor beriladi.

Qaror qabul qilish jarayonini osonlashtirishdan tashqari samarali kreditorlar qo‘mitasi sanatsiya rejasini muhokama qilishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, turli manfaatlarga ega bo‘lgan ko‘p sonli kreditorlar mavjud bo‘lgan hollarda, eng muhim to‘siqlardan biri kreditorlararo muammolarni hal qilishdir. Kreditorlar qo‘mitasi tarkibiga moliyaviy maslahatchini jalb etish mazkur muammolarni hal etishni sezilarli darajada yengillashtirishi mumkin. Moliyaviy maslahatchining asosiy vazifalaridan biri sanatsiya rejasining asosiy shartlari yuzasidan kreditorlar o‘rtasida kelishuvga erishishga ko‘maklashishdan iborat. Qo‘mita, shuningdek, axborot oqimini ko‘paytirishga yordam berishi mumkin. Qarzdorlar, ayniqsa, qo‘mita a’zolari maxfiylik shartnomalarini imzolagan hollarda, kreditorlarning to‘liq tarkibiga emas, balki kichik qo‘mitaga ayniqsa maxfiy ma’lumotlarni taqdim etishga ko‘proq tayyor bo‘lishlari mumkin.[58]

Shuni ta’kidlash kerakki, yuqoridagi mulohazalar, umuman olganda, xalqaro amaliyotga tegishli. Oxir-oqibat 19-moddaning aniq shartlari kreditorlar qo‘mitasining vakolatlari va faoliyat doirasini belgilaydi. Masalan, yuqoridagi qism kreditorlar qo‘mitasi «*qaror qabul qilish jarayonida faqat maslahat vazifasini bajaradi»* deb ta’kidlasa-da, 19-moddaga muvofiq, kreditorlar qo‘mitasiga berilgan ayrim vakolatlar faqat maslahat xususiyatiga ega bo‘lmay, mustaqil huquqiy ahamiyatga ham egadir.

22-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 22-moddada asosan sud boshqaruvchisi uchun talab qilinadigan malakalar, shuningdek, shaxslarni ushbu lavozimdan chetlashtirish mezonlari bayon etilgan. Xalqaro nuqtayi nazardan, UNCITRAL qo‘llanmasida tegishli malaka bo‘yicha quyidagi umumiy mulohazalar keltirilgan («to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil» tavsifiga tayanib To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonunda sud boshqaruvchisi lavozimini tavsiflash uchun foydalanilgan):

Ayrim davlatlar qonunchiligiga ko‘ra, to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil vazifasini jismoniy shaxs, ba’zi hollarda esa yuridik shaxs ham bajarishi mumkin. Qanday tayinlanishidan qat’i nazar, to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunni samarali va ta’sirchan amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi, qarzdorlar va ularning aktivlari ustidan ma’lum vakolatlarga ega hamda ushbu aktivlar va ularning qiymatini, shuningdek, kreditorlar va xodimlarning manfaatlarini himoya qilish hamda qonunning samarali va xolis qo‘llanilishini ta’minlash majburiyatiga ega. Shu sababli sud boshqaruvchisi (to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil) yuqori kasbiy malaka, amaliy tajriba va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishi, shu-

[58] 6-iqtibos, 74–75-betlar.

ningdek, o‘z faoliyatini mustaqil, xolis va samarali amalga oshirish imkoniyatini ta’minlaydigan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.[59]

22-moddaning uchinchi qismidagi cheklovlar ro‘yxati kirish qismida keltirilgan muhim yaxlitlik tamoyillarini, jumladan, bashorat qilish tamoyili[60], samaradorlik tamoyili[61] va xolislik tamoyilini mustahkamlaydi.[62] Xalqaro miqyosda manfaatlar to‘qnashuvi (xolislik tamoyilining buzilishi) yuzaga kelishi mumkin ko‘pincha. Manfaatlar to‘qnashuvining mavjudligi odatda sodda ko‘rinsa-da, ba’zan murakkab bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, bu borada UNCITRAL qo‘llanmasidan batafsil iqtibos keltirish foydali bo‘ladi:

Ushbu shaxsiy kasbiy fazilatlarning muhim elementi shundaki, to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil iqtisodiy, oilaviy yoki boshqa xususiyatdagi manfaatlardan mustaqilligini namoyish eta oladi. Shu maqsadda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun mavjud yoki potensial manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish majburiyatini yuklashi maqsadga muvofiqdir, bu esa ish yuritish boshlanishida to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil etib tayinlanishi taklif qilingan shaxsga va ish yuritish davomida doimiy ravishda tayinlangan shaxsga nisbatan qo‘llaniladi. Qonunda oshkor qilish kimga qilinishi kerakligi ko‘rsatilishi kerak. Bu to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilni tanlash va tayinlash tartibiga qarab farq qilishi mumkin. Manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan holatlar qonunlar orasida farq qiladi, shuningdek, ish yuritish boshlanishida oshkor qilinishi yoki keyingi bosqichda aniqlanishi mumkin bo‘lgan nizoning oqibatlari ham turlicha bo‘ladi.

Masalan, qarzdor bilan oldingi yoki mavjud munosabatlardan manfaatlar to‘qnashuvi kelib chiqishi mumkin. Qarzdorning avvalgi mulkdori bo‘lganlik; qarzdor bilan oldingi yoki mavjud biznes munosabatlari (shu jumladan, qarzdor bilan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishda tergov qilinishi mumkin bo‘lgan bitim tarafi bo‘lish va qarzdorning kreditori yoki qarzdori bo‘lish); qarzdorning kreditori bilan munosabatlar; qarzdorning vakili yoki mansabdor shaxsi sifatida oldingi ishtirok; qarzdorning auditori sifatida oldingi ishtirok; qarzdorning raqobatchisi bilan munosabatlar manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash uchun yetarli bo‘lishi mumkin. Ba’zi davlatlarda manfaatlar to‘qnashuvi shaxsni to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil etib tayinlashga to‘sqinlik qiladi yoki tayinlangan shaxsni ushbu rolda davom etishdan chetlashtiradi. Boshqalarda esa manfaatlar to‘qnashuvi oshkor qilingan taqdirda va bunday oshkor qilinish xolislik va betarafligini qo‘llab-quvvatlasa yoki har qanday mustaqillikning yo‘qligi oshkor qilingan holatlarga nisbatan baholanishi mumkin bo‘lsa, shaxs hali ham tayinlanishi mumkin. To‘lovga qobiliyatsizlik tizimining shaffofligi, bashorat qila olinishi va yaxlitligini oshirish uchun to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunda bunday manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan munosabatlar darajasi, shu jumladan,

[59] 4-iqtibos, 174-bet.

[60] Kirish qismiga qarang, 6-bet.

[61] Kirish qismiga qarang, 6-bet.

[62] Kirish qismiga qarang, 7-bet.

shaxsni tayinlashdan chetlashtiradigan munosabatlar ko‘rsatilishi maqsadga muvofiqdir. Odatda, muayyan ishda manfaatlar to‘qnashuvi yoki mustaqillikning yo‘qligini ko‘rsatish uchun asos mavjudligini aniqlash sudlarga qoldiriladi.[63]

24-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Muhimi, 24-moddada sud boshqaruvchilari jamoat birlashmasi tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar, jumladan, vakillik qilish, ta’lim va malaka oshirish tadbirlarini tashkil etish belgilangan. Ushbu birlashmalar, shuningdek, sud boshqaruvchisi lavozimiga nomzodlarni sudga tavsiya etish vazifasini ham bajaradi.

Sud boshqaruvchilaridan talab qilinadigan o‘qish, ta’lim va tajriba nuqtayi nazaridan UNCITRAL qo‘llanmasida quyidagi mulohazalar keltirilgan:

To‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil etib tayinlash uchun talab qilinadigan malakalarni aniqlashda yuqori malakali shaxsni tayinlashga olib keladigan, ammo tegishli malakaga ega deb hisoblangan mutaxassislar safini sezilarli darajada cheklab qo‘yishi va sud jarayoni xarajatlarini oshirishi mumkin bo‘lgan qat’iy talablar bilan talab qilinadigan xizmat sifatini kafolatlash uchun juda past bo‘lgan talablar o‘rtasida muvozanatga erishish maqsadga muvofiqdir. Tegishli malakali mutaxassislar yetishmasa, to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilni tayinlash va nazorat qilishda sudga berilgan vazifa zarur muvozanatga erishishda muhim omil bo‘lishi mumkin.[64]

Keyingisi:

Ko‘pgina to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining murakkabligi sud boshqaruvchisidan tegishli kasbiy malaka, huquq, moliya, tijorat va buxgalteriya sohalarida yetarli bilim hamda amaliy tajribaga ega bo‘lishni talab etadi.

To‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil tugatilish va qayta tashkil etishda tortishuvlarga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan turli xil holatlar va vaziyatlarda o‘ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishda malakasini namoyish etishi kerak bo‘ladi, bunda to‘lovga qobiliyatsizlik qonunchiligi bilan vaqt cheklovlari belgilanishi mumkin, tijorat talablari huquqiy mulohazalar bilan muvozanatlashtirilishi kerak hamda kreditorlar va ehtimol jamoat manfaatlari kabi boshqalarning manfaatlariga xizmat qilish zarurati mavjud. Agar muayyan ish bo‘yicha maxsus bilim yoki yuqori darajadagi ixtisoslashgan malaka talab etilsa, bunday bilim va ko‘nikmalar jalb etilgan mutaxassislar orqali ta’minlanishi mumkin. Ba’zi to‘lovga qobiliyatsizlik qonunlari, shuningdek, shaxsning ma’lum bir ishda to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil sifatida tayinlanishini talab qiladi, bunda u qarzdorning o‘ziga xos biznesi, uning aktivlari va u faoliyat yuritadigan bozor xususiyatlarini bilishi kabi ushbu ishga mos keladigan tajriba va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.[65]

Malakalar jihatidan:

[63] 4-iqtibos, 176-bet.
[64] 4-iqtibos, 174-bet.
[65] 4-iqtibos, 175-bet.

To‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilning tegishli malakasini ta’minlash uchun turli xil yondashuvlar qo‘llaniladi, jumladan, ma’lum professional malaka va imtihonlarga qo‘yiladigan talablar; litsenziyalash tizimi davlat organi yoki professional organ tomonidan boshqariladigan litsenziyalash; ixtisoslashtirilgan o‘quv kurslari va sertifikatlashtirish imtihonlari; tegishli sohalarda, masalan, moliya, tijorat, buxgalteriya hisobi va huquq sohasida, shuningdek, to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha ishlarni yuritishda ma’lum darajadagi tajribaga (odatda yillar sonida ko‘rsatilgan) talablar qo‘yiladi. Shuningdek, huquq va amaliyotning tegishli sohalaridagi dolzarb o‘zgarishlar bilan tanishishni ta’minlash uchun doimiy professional ta’lim talablari ham bo‘lishi mumkin. Litsenziyalash yoki professional malaka va professional uyushmalarga a’zolikni talab qiladigan tizimlar ko‘pincha nazorat va intizom masalalarini ham hal qiladi va to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil sud, professional uyushma, korporativ regulyator yoki to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonundan tashqari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa organ tomonidan tartibga solinishi mumkin.[66]

Umuman olganda, sud boshqaruvchisining shaxsiy fazilatlariga kelsak:

Kerakli bilim va tajribaga ega bo‘lishdan tashqari to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilning halollik, xolislik, mustaqillik va yaxshi boshqaruv ko‘nikmalari kabi ma’lum shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lishi ham maqsadga muvofiq.[67]

25-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu moddaning talqini O‘zbekiston sudi tomonidan belgilanadigan O‘zbekiston qonunchiligi masalasi bo‘lsa-da, Xalqaro valyuta jamg‘armasi qo‘llanmasida sud boshqaruvchisi tomonidan o‘z vazifalari va funksiyalarini bajarishga nisbatan tegishli diqqat-e’tibor standarti bo‘yicha xalqaro amaliyotga asoslangan quyidagi mulohazalar keltirilgan:

Sud tomonidan tayinlangan mansabdor shaxs sifatida tugatish boshqaruvchisi barcha manfaatdor shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini hisobga olib harakat qilish majburiyatini oladi.[68] Shuning uchun ushbu majburiyatni buzganlik uchun barcha taraflar oldida javobgar bo‘lishlari mumkin. Ushbu taraflarga nisbatan qanday ehtiyotkorlik standarti ta’minlanishi kerak? Umuman olganda, standart beparvolikka nisbatan belgilanadigan standartdan qat’iyroq bo‘lmasligi kerak, bu standart tugatuvchi yoki boshqaruvchi o‘z vazifalarini bajarishda duch keladigan qiyin vaziyatlarni hisobga oladigan bo‘lishi kerak. Qat’iyroq standart malakali mutaxassislarni jalb qilishni qiyinlashtiradi. Shuni ta’kidlash kerakki, tugatuvchi yoki boshqaruvchining javobgarligi har qanday muhim qarorlar qabul qilinishidan oldin (masalan, tugatish paytida biznesni davom ettirish) kreditorlarning oldindan roziligini olish orqali samarali ravishda kamaytirilishi mumkin.[69]

---

[66] 4-iqtibos, 174-bet.

[67] 4-iqtibos, 174-bet.

[68] Ushbu lavozim tavsifi To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunga muvofiq tayinlangan sud boshqaruvchisiga tengdir.

[69] 6-iqtibos, 77-bet.

UNCITRAL qo‘llanmasida, shuningdek, diqqat-e’tibor standarti bo‘yicha mulohazalar ham keltirilgan. Muammoning muhimligini inobatga olgan holda quyidagi uzun parcha keltirilgan:

60. To‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil tomonidan qo‘llaniladigan diqqat-e’tibor standarti va uning shaxsiy javobgarligi to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha ish yuritish uchun muhimdir. To‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilning o‘z vazifalari va funksiyalarini bajarishdagi g‘amxo‘rligi, tirishqoqligi va mahorati uchun o‘lchovni belgilash to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil o‘z rolini bajarishda duch keladigan qiyin vaziyatlarni hisobga olishni va tegishli darajadagi haq to‘lash hamda to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil sifatida ishlash uchun malakali shaxslarni jalb qilish zarurati bilan muvozanatlashni talab qiladi. To‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilning vazifalarini malakali bajarishini ta’minlaydigan standart bilan to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilga qarshi sud da’volarini keltirib chiqaradigan va uning xizmatlari xarajatlarini oshiradigan darajada qat’iy standart o‘rtasida muvozanat ham maqsadga muvofiqdir. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun, shuningdek, to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilning javobgarligi ko‘pincha to‘lovga qobiliyatsizlikdan tashqari qonunni qo‘llashni yoki to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil professional tashkilot a’zosi bo‘lgan taqdirda, tashkilotning tegishli professional standartlarini o‘z ichiga olishi mumkinligini hisobga olishi kerak.

61. Ko‘pgina huquqiy tizimlarga ko‘ra, to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaganligi yoki vakolatlarini suiiste’mol qilishi natijasida kelib chiqadigan zarar uchun fuqarolik da’vosida javobgar bo‘ladi, garchi talab qilinadigan standartni belgilashda turli xil yondashuvlar qo‘llanilsa-da... Bir yondashuv to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakildan qarzdorga nisbatan odatiy biznes faoliyatini to‘lovga qodirlik holatida amalga oshirishda qo‘llanilishi kutilganidan qat’iyroq bo‘lmagan standartga, ya’ni ushbu lavozimdagi ehtiyotkor shaxsga rioya qilishni talab qilish bo‘lishi mumkin. Biroq ba’zi davlatlar bunday holatda yuqoriroq ehtiyotkorlik standartini talab qilishi mumkin, chunki to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil o‘z aktivlari bilan emas, balki boshqa shaxsga tegishli mol-mulkni boshqaradi. Yana boshqa formula – to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilning tegishli maqsadlar uchun vijdonan harakat qilishini kutishga asoslangan formula. Boshqa yondashuvga ko‘ra, javobgarlik beparvolik mavjudligini aniqlashda qo‘llaniladigan ehtiyotkorlik standarti asosida baholanadi.[70]

26-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – sud boshqaruvchisiga haq to‘lash xalqaro miqyosda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi:

Mulkni boshqarish jarayonida qilingan tegishli xarajatlarni qoplashdan tashqari to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil o‘z xizmatlari uchun haq olish huquqiga ega bo‘ladi. Ushbu haq to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilning malakasiga va u baja-

[70] 4-iqtibos, 183–184-betlar.

rishi kerak bo‘lgan vazifalarga mos kelishi va tegishli malakali mutaxassislarni jalb qilish uchun xavf va mukofot o‘rtasida muvozanatga erishishi kerak.[71]

Asosiy murakkablik mazkur haqni hisoblash usulini tanlashda yotadi. Xalqaro amaliyot turli yondashuvlarga misollar keltiradi:

To‘lovlar davlat idorasi yoki professional uyushma tomonidan tasdiqlangan miqdor bo‘yicha hisoblanadi, sud boshqaruvchisiga to‘lanadigan haq ushbu tariflar asosida belgilanadi.

Sud yoki kreditorlar tomonidan (kreditorlar yig‘ilishida yoki kreditorlar qo‘mitasida) belgilanadigan haq «*to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilning (va ofis xodimlaridan tortib asosiy tayinlangan shaxsgacha to‘lovga qobiliyatsizlikni boshqarishda ishlashi mumkin bo‘lgan turli toifadagi shaxslarning) bevosita sarflagan vaqtiga qarab*».[72] Mazkur yondashuv amaliyotda vaqt sarfiga asoslangan haq to‘lash tizimi sifatida qo‘llaniladi.

Qarzdorning aktivlari qiymatining foiziga (yig‘ilgan qiymat yoki taqsimlangan qiymat) asoslangan haq to‘lash. Bu komissiyaga asoslangan tizim sifatida tanilgan. Rag‘batlantirish choralari qo‘shimcha haqni hisoblashga kiritilishi mumkin, masalan, ta’minlanmagan kreditorlarga belgilangan foizli daromadga erishish kabi bosqichlar uchun yuqori komissiya (26-moddaning to‘qqizinchi qismi ushbu turdagi rag‘batlantirish to‘loviga misol bo‘ladi).

UNCITRAL qo‘llanmasida vaqtga asoslangan tizimlar bo‘yicha quyidagi mulohazalar keltirilgan:

Vaqtga asoslangan usulning afzalligi shundaki, ko‘pincha boshidanoq ma’lum bir boshqaruv qanchalik murakkab va resurslarni ko‘p talab qilishi mumkinligi borasida yuqori darajadagi noaniqlik bo‘ladi, har holda, dastlabki ishlar bajarilmaguncha. Kamchilik shundaki, u juda puxta boshqaruvni rag‘batlantirishi mumkin bo‘lsa-da, vaqtga asoslangan tizim ba’zi hollarda mulkka mutanosib qiymat qaytarilishiga erishmasdan boshqaruvga sarflangan vaqtni maksimal darajada oshirish uchun rag‘bat sifatida ham ishlashi mumkin.[73]

Boshqa tomondan, UNCITRAL qo‘llanmasida komissiyaga asoslangan tizimlar bo‘yicha quyidagi mulohazalar keltirilgan:

Kreditorlar nuqtayi nazaridan komissiyaga asoslangan tizimning asosiy afzalligi shundaki, undirilgan aktivlarning hech bo‘lmaganda bir qismi yoinki salmoqli qismi ularga taqsimlanadi. Biroq, to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil nuqtayi nazaridan, bu hisoblashning noaniq usuli bo‘lishi mumkin, chunki ma’muriyat bilan bog‘liq ish hajmi taqsimlash uchun mavjud bo‘lgan aktivlar qiymatiga mutanosib emas. Bu, shuningdek, «minimal xarajat evaziga maksimal daromad» yondashuvini rag‘batlantirishi va kreditorlarga daromadni oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan funksiyalarni, masalan, sudga ham, kreditorlarga ham hisobot berish va tartibga soluvchi organlarga

[71] 4-iqtibos, 180–181-betlar.
[72] 4-iqtibos, 181-bet.
[73] 4-iqtibos, 181-bet.

qarzdorning ishlari va mumkin bo‘lgan noto‘g‘ri xatti-harakatlarni tekshirishda yordam berish majburiyatlarini bajarish uchun kam rag‘batlantirish imkonini beradi. Ushbu hisoblash usuli juda salmoqli hollarda mulkdan sezilarli darajada katta miqdorda to‘lovlar to‘lanishiga olib kelishi mumkin, bu esa kreditor va qarzdorning arizalarini to‘xtatishi mumkin.[74]

UNCITRAL qo‘llanmasida kreditorlarning sud boshqaruvchisiga to‘lanadigan haqni tasdiqlash jarayonida ishtirok etishi ularning sud boshqaruvchisi faoliyati davomida yuzaga keladigan muammolardan xabardor bo‘lishini ta’minlaydigan muhim omil sifatida e’tirof etilgan.

Sud boshqaruvchisiga haq to‘lash masalasi, shuningdek, sud jarayoni davomida vaqti-vaqti bilan ko‘rib chiqilishi mumkin, bunda har qanday muammolar yuzaga kelganda, ehtimol, arbitraj yoki to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil va kreditorlar o‘rtasidagi nizolarni hal qilishning boshqa shakli orqali hal qilinadi. Haq to‘lash to‘g‘risida yakuniy qaror qabul qilish vakolati bir taraf ixtiyorida qolishi sud jarayoniga asossiz ta’sir ko‘rsatish xavfini keltirib chiqarmasligi lozim. Shuning uchun bunday nizolarni hal qilishning xolis va samarali mexanizmi nazarda tutilishi maqsadga muvofiq.[75]

26-moddaning sakkizinchi qismi mazkur masalani huquqiy jihatdan tartibga solib, sud boshqaruvchisiga haq to‘lash bilan bog‘liq nizolar sud tomonidan ko‘rib chiqilishini nazarda tutadi.

[74] 4-iqtibos, 181-bet.
[75] 4-iqtibos, 182-bet.

3-BOB
TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK SOHASINI TARTIBGA SOLISH

Moddalar bo‘yicha sharh

28- va 29-moddalar

Xalqaro nuqtayi nazar – 28- va 29-moddalar qisman O‘zbekiston Respublikasi tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida kreditor sifatida ariza bilan murojaat qilish, shuningdek, davlat ulushiga ega bo‘lgan korxonalarga ta’sir qiluvchi moliyaviy qiyinchiliklarni boshqarish bilan bog‘liq.

28- va 29-moddalar O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (Davaktiv) va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonlari ustidan muhim tartibga solish va nazorat qilish vakolatlarini beradi. Ushbu organlar to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonlarida ishtirok etuvchi mutaxassislarni nazorat qiladi. Ushbu tartibga solish va nazorat qilish roli xalqaro miqyosda mustahkam huquqiy tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ushbu rolni samarali bajarish mazkur xalqaro sharhning kirish qismida bayon etilgan yaxlitlik tamoyillariga rioya qilish uchun juda muhimdir.[76] UNCITRAL qo‘llanmasida quyidagi mulohazalar keltirilgan:

To‘lovga qobiliyatsizlik tizimini joriy etish nafaqat sudga, balki to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarida ishtirok etuvchi mutaxassislarga ham bog‘liqdir, ular to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakillari, yuridik maslahatchilar, buxgalterlar, baholash mutaxassislari yoki boshqa professional maslahatchilar bo‘lishi mumkin. Treninglar va professional standartlarni qabul qilish salohiyatni rivojlantirishga yordam berishi mumkin. To‘lovga qobiliyatsizlik tizimini samarali qilish uchun zarur bo‘lgan ishonch darajasini va to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarida xususiy sektor ishtirokchilari uchun yetarli rag‘batlantirishni yaratish orqali bajarilishi mumkin bo‘lgan funksiyalarni, masalan, to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil vazifasini ta’minlash maqsadida qaysi to‘lovga qobiliyatsizlik funksiyalari haqiqatan ham ommaviy xarakterga ega ekanligini va shuning uchun davlat sektorida bajarilishi kerakligini baholash o‘rinli bo‘lishi mumkin.[77]

Jahon banki qo‘llanmasida samarali to‘lovga qobiliyatsizlik va kreditor/qarzdor rejimlari tamoyillarining bir qismi sifatida quyidagi tartibga solish masalalari keltirilgan:[78]

---

[76] Mazkur xalqaro sharhning kirish qismiga, 5–7-sahifalariga qarang.

[77] 4-iqtibos, 35-bet.

[78] 1-iqtibos, 33–34-betlar.

D7 Tartibga soluvchi yoki nazorat qiluvchi organlarning roli

To‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakillarni tartibga solish yoki nazorat qilish uchun mas’ul organlar quyidagilarni bajarishi kerak:

individual vakillardan mustaqil bo‘lish;

qonunchilik talablari va adolat, xolislik, shaffoflik va hisobdorlik bo‘yicha jamoatchilikning kutishlarini aks ettiruvchi standartlarni belgilash;

o‘z funksiyalari, vazifalari va majburiyatlarini samarali bajarishlariga sharoit yaratib berish uchun tegishli vakolatlar va resurslarga ega bo‘lishlari.

D8 To‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakillarning vakolati va halolligi

Tizim quyidagilarni ta’minlashi lozim:

To‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil kim bo‘lishi mumkinligi mezonlari xolis, aniq belgilangan va ommaga ochiq bo‘lishi kerak;

To‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakillar o‘zlariga tayinlangan ishni bajarish va ularga berilgan vakolatlardan foydalanish malakasiga ega bo‘lishlari kerak;

To‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakillar halollik, xolislik va mustaqillik bilan harakat qilishadi;

To‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakillar boshqaruvchi sifatida ish yuritganda direktor va mansabdor shaxslarning javobgarlik standartlariga rioya qilishlari va qobiliyatsizlik, beparvolik, firibgarlik yoki boshqa noqonuniy xatti-harakatlar uchun lavozimidan chetlatilishi kerak.

4-BOB
TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK TARTIB-TAOMILLARI VA SUDGACHA SANATSIYA QILISH

Kirish

Xalqaro nuqtayi nazar – Sudgacha bo‘lgan sanatsiya, shuningdek, xalqaro miqyosda «tarkibiy jihatdan o‘zgartirish» yoki «norasmiy mashqlar» deb ham ataladi, rasmiy yoki sudga asoslangan to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonlaridan tashqarida qo‘llaniladigan keng tarqalgan jarayondir. Bu moliyaviy qiyinchiliklarni hal qilishning muhim vositasi bo‘lib, ayniqsa, bitta kreditor (yoki kreditorlarning kichik guruhi) yetarlicha jiddiy da’vo(lar)ga ega bo‘lib, qarzdorning moliyaviy qiyinchiliklarini ular bilan murosa yoki kelishuv orqali hal qilish imkoniyati bo‘lganida samarali bo‘ladi.

Masalan, qarzdor va uning banki yoki banklar sindikati o‘rtasidagi murosa ko‘pincha qarzdorning to‘lovga qobiliyatini tiklashi mumkin. Xalqaro miqyosda bu jarayon katta qarzdorlikka ega bo‘lgan yirik qarzdorlar uchun keng qo‘llaniladi. Bu mikro, kichik va o‘rta korxonalar (shuningdek, O‘KK yoki MKO‘Klar deb ham ataladi) uchun ham amal qilishi mumkin, bunda soliq organi yoki qarzdorning ijaraga beruvchi bilan kelishuv qarzdorni to‘lov qobiliyatini tiklashi uchun yetarli bo‘ladi.

OTB qo‘llanmasiga ko‘ra, ushbu jarayon bir qator afzalliklarni taqdim etadi:

6.1.1. Norasmiy mashqlarning afzalliklari

Odatda norasmiy yoki shartnomaga asoslangan yordam yoxud «mashq»ni amalga oshirishda qarzdorlar va kreditorlar uchun moddiy afzalliklar mavjud. Asosiy afzalliklar quyidagilar:

rasmiy to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonlarining ehtimoliy xarajatlari, murakkabligi, noaniqligi va uzoq davom etishi kamayadi;

jalb qilingan kreditorlar soni nisbatan kam bo‘lgani uchun, rasmiyatchiliklarga ehtiyoj kamroq, natijada samaradorlik yuqori bo‘ladi;

sir va maxfiylikning yuqori darajasiga imkon borligi (qarzdorning moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgani haqida hech qanday oshkoralik yoki jamoatchilikka ma’lum qilinish yo‘qligi ma’nosida);

qarzdorning moliyaviy qiyinchiliklarini hal qilish bo‘yicha harakatlar rejasini belgilashda ko‘proq qulaylik va kamroq qat’iylik bo‘lishi mumkin, chunki ishtirokchilar rasmiy to‘lovga qobiliyatsizlikni qayta tashkil etish tartib-taomili tomonidan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan cheklovlar bilan bog‘langan emaslar;

qarzdor va uning moliyalashtiruvchilari o‘rtasidagi kelishuv bilan qo‘llab-quvvatlanadigan norasmiy «mashq», odatda, rasmiy to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoniga

qaraganda, qarzdorning ishlarini qayta tashkil etish uchun qulayroq tartib-taomilni ta'minlaydi.[79]

Jahon banki keng ko‘lamli to‘lovga qobiliyatsizliklarda ushbu jarayonning muhimligini ta'kidlaydi:

Mamlakatning moliya sektori (ehtimol, markaziy bank yoki moliya vazirligi yordamida) banklar va boshqa moliya institutlari, ayniqsa, korxonalarning to‘lovga qobiliyatsizligi tizimli bo‘lgan bozorlarda jiddiy ta'sirga ega bo‘lgan korporativ moliyaviy qiyinchiliklar holatlarini ko‘rib chiqish uchun suddan tashqari norasmiy jarayonni ilgari surishi kerak.[80]

Shunday qilib, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni boshlanishidan oldin tegishli kreditorlar bilan birga bir muzokaralar orqali sanatsiyaga erishish OTB qo‘llanmasida ko‘rsatilgan afzalliklarni berishi mumkin.

Qarzdor va uning kreditorlari guruhi o‘rtasida, xususan, qarzdor va uning banki yoki banklar sindikati o‘rtasida sudgacha bo‘lgan sanatsiya jarayonlarini osonlashtirish uchun batafsil va murakkab xalqaro qoidalar va protokollar ishlab chiqilgan. INSOL International shunday tizimlardan birini nashr etgan.[81]

Bundan tashqari, mediatsiya sudgacha sanatsiya jarayonida samarali vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Chunki ayrim hollarda bir yoki bir nechta kreditor bilan kelishuvga erishishning o‘zi qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash uchun yetarli bo‘ladi.

Sudgacha bo‘lgan sanatsiyaning bir cheklovi qarzdor va kreditorlar o‘rtasidagi o‘zaro kelishuvga tayanishdir. Agar kreditorlar norozilik bildirishsa, norozilik bildirgan kreditorlarni taklif qilingan kelishuvga majburlash uchun to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni boshlash kerak bo‘ladi. Bunday hollarda sudgacha sanatsiyadan rasmiy to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomiliga o‘tish qonunda belgilangan tartibda, kreditorlarning zarur ko‘pchiligi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan va boshqa qonunchilik talablari bajarilgan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin.

Moddalar bo‘yicha sharh

30-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 30-moddada qarzdorlar uchun mavjud bo‘lgan turli xil to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari sanab o‘tilgan. Qarzdor yuridik shaxs, jismoniy shaxs yoki tadbirkor bo‘lishidan qat'i nazar, sudgacha bo‘lgan sanatsiya, tugatish (ya'ni jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi) yoki sanatsiya qilishning muqobil yo‘llari mavjud.

15-bob yakka tartibdagi tadbirkorlarga tugatishning muqobili sifatida ikkita sanatsiya variantini (sudgacha sanatsiyadan tashqari) taqdim etadi. Birinchidan, 229-moddaga muvofiq qarzni to‘lash rejasi mavjud. Ikkinchidan, 232-moddaning ikkinchi

[79] 5-iqtibos, 60-bet.

[80] 1-iqtibos, 7-bet.

[81] INSOL International. 2017 Statement of Principles for a Global Approach to Multi-Creditor Workouts II.

qismida kelishuv bitimi taklif qilinayotgan va ko‘rib chiqilayotgan paytda (12-bobda berilgandek) to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni keyinga qoldirish imkoniyati tan olinadi.

Xalqaro miqyosda tugatish va sanatsiya o‘rtasidagi bu tanlov to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunning asosiy poydevori hisoblanadi. Bu ikki muqobil yo‘l qarzdor uchun turli xil natijalarga olib keladi.

Shuning uchun bu ikki yo‘l orasidagi tanlov to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida qilinadigan eng muhim tanlovdir. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, agar qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashning real imkoniyati mavjud bo‘lsa, ustuvorlik sanatsiya tartib-taomiliga beriladi. Bunday imkoniyat mavjud bo‘lmagan taqdirda esa tugatish tartib-taomili qo‘llaniladi. UNCITRAL qo‘llanmasida ta’kidlanganidek, sanatsiya jarayonlari «so‘nib *borayotgan korxonalar uchun xavfsiz boshpana yaratishga olib kelmasligi kerak: qutqarish imkoniyati bo‘lmaydigan korxonalar iloji boricha tez va samarali ravishda tugatilishi lozim»*.[82]

Agar sanatsiya iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lsa, ko‘pincha biznes qiymatini saqlab qolish orqali manfaatdor taraflar uchun yaxshiroq iqtisodiy natijani ta’minlashi mumkin. Qiymatning muhim masalasi, uni qanday o‘lchash mumkinligi va tugatish va sanatsiya o‘rtasidagi tanlov bilan bog‘liq boshqa omillar 8-bobning kirish qismida xalqaro sharhda batafsilroq muhokama qilinadi.[83]

31-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Iltimos, ushbu bob masalasida xalqaro sharhning kirish qismiga qarang.[84]

34-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 34-modda sudgacha sanatsiyani amalga oshirish uchun bir nechta tashkiliy, shartnomaviy va huquqiy mexanizmlarni belgilaydi. Ushbu moddaning shartlari bu borada xalqaro amaliyotga mos keladi.

[82] 4-iqtibos, 15–16-betlar.

[83] 8-bob, xalqaro sharhlar, 36–40-betlarga qarang.

[84] 4-bobga kirish, xalqaro sharhlar, 25–26-betlarga qarang.

5-BOB
TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI SUDDA KO‘RISH

Moddalar bo‘yicha sharh

37-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – UNCITRAL qo‘llanmasida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni boshlash standarti bo‘yicha quyidagi xalqaro amaliyot mulohazalari keltirilgan:[85]

Umumiy tamoyil sifatida boshlash standarti shaffof va aniq bo‘lishi, moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan yoki to‘lovga qobiliyatsiz biznesni ixtiyoriy ravishda sud jarayonlarini boshlashga undash uchun to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillariga qulay, tejamkor va foydalanishni osonlashtirishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillaridan (sanatsiya va tugatish) foydalanish imkoniyati sodda, qulay va moslashuvchan bo‘lishi lozim. Shuningdek, zaruratga qarab bir tartib-taomildan boshqasiga o‘tish imkoniyati ham ta’minlanishi maqsadga muvofiq. Cheklangan kirish qarzdorlarni ham, kreditorlarni ham sud jarayonlarini boshlashdan to‘xtatishi mumkin, kechikish esa aktivlar qiymatiga va to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining muvaffaqiyatli yakunlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, ayniqsa, qayta tashkil etish holatlarida zararli bo‘lishi mumkin. Jarayonlardan noto‘g‘ri foydalanishning oldini olish uchun foydalanish qulayligi tegishli va yetarli darajada himoya choralari bilan muvozanatlashtirilishi kerak. To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillaridan suiiste’mol qilishga, masalan, moliyaviy qiyinchilikka uchramagan qarzdorning kreditorlar oldidagi majburiyatlarni bajarishni kechiktirish maqsadida sudga murojaat qilishi yoki raqobatchi kreditorning qarzdor faoliyatiga to‘sqinlik qilish maqsadida asossiz ariza berishi misol bo‘lishi mumkin.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish boshlanishidan oldin bajarilishi kerak bo‘lgan muayyan standartlar borasida qonunlar bir-biridan farq qiladi. Bir qator qonunlar turli mezonlarni o‘z ichiga oladi va tugatish hamda qayta tashkil etish jarayonlarini boshlash uchun qo‘llaniladigan standartlar borasida, shuningdek, qarzdor va kreditor yoki kreditorlarning arizalari tartibida farq qiladi.[86]

37-moddaning birinchi qismida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atish imkonini beruvchi «vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizlik» mezoni ekanligi belgilangan.

---

[85] Ushbu mulohazalar 37-moddani talqin qilmaydi, balki shunchaki qonunchilik to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni boshlash uchun standartni belgilashi kerakligini ta’kidlaydi.

[86] 4-iqtibos, 45-bet.

37-moddaning oltinchi qismi davlat soliq organlariga to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atish uchun ariza berishga imkon beradi. Bu xalqaro amaliyotga mos keladi:

Hukumat kreditor bo‘lgan hollarda u tugatish jarayonini boshlash borasida boshqa har qanday kreditor bilan bir xil huquqqa ega bo‘lishi kerak.[87]

39-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Qarzdor ariza bilan murojaat qilgan taqdirda, 39-modda kreditorlarga va to‘lovga qobiliyatsizlik ishida ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga xabarnoma berilishini talab qiladi. Bu xalqaro amaliyotga mos keladi:

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi ariza va uning boshlanishi haqida xabar berish to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilining bir nechta asosiy maqsadlari uchun muhimdir. Bu ish yuritishning shaffofligini va barcha manfaatdor taraflar – qarzdorning arizasi bo‘yicha kreditorlar va boshqa manfaatdor taraflar, kreditorning arizasi bo‘yicha esa qarzdor, boshqa kreditorlar va manfaatdor taraflar – bir xil darajada xabardor bo‘lishini ta’minlaydi.[88]

41-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Kreditor ariza bilan murojaat qilgan taqdirda, qarzdorni ariza haqida xabardor qilish talab qilinadi. Bu xalqaro amaliyotga mos keladi:

Kreditorning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi arizasi holatida qarzdor ariza haqida darhol xabardor bo‘lish va eshitilish hamda ariza beruvchining qarzdorning moliyaviy ahvoliga oid talablariga qarshi chiqish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerakligi tobora ko‘proq tan olinmoqda.[89]

47-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu moddada tasvirlangan turdagi himoya vositalarining mavjudligi xalqaro amaliyotga mos keladi.

50-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Xalqaro amaliyot to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni boshlash yoki boshlashni rad etish to‘g‘risida tezkor qaror qabul qilish muhimligini ta’kidlaydi. UNCITRAL qo‘llanmasida quyidagilar qayd etilgan:

Sud ishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilishi shart bo‘lgan hollarda qaror qabul qilishning aniqligi va oldindan bashorat qilinishi mumkinligi hamda sud jarayonini kechiktirmasdan samarali olib borishni ta’minlash uchun ushbu qaror o‘z vaqtida qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir. Bu, ayniqsa, qayta tashkil etish tartib-taomilida aktivlar qiymatining yanada kamayishiga yo‘l qo‘ymaslik va muvaffaqiyatli qayta tashkil

[87] 4-iqtibos, 52-bet.
[88] 4-iqtibos, 59-bet.
[89] 4-iqtibos, 60-bet.

etish imkoniyatlarini oshirish uchun muhimdir. Ba'zi to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunlarda ariza berilgandan keyin ish yuritishni boshlash to'g'risida qaror qabul qilish uchun belgilangan muddatlar nazarda tutiladi.[90]

Qisqa muddatga uzaytirish imkoniyati bilan muddatni belgilash tezkorlik va shaffoflik zarurati bilan kreditor ariza bilan murojaat qilganda manfaatdor taraflarga, ayniqsa, qarzdorga tegishli jarayonni ta'minlash zarurati o'rtasida muvozanatni saqlaydi.

53-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu moddaning e'lon qilishga doir talablari mazkur xalqaro sharhning kirish qismida yoritilgan shaffoflik tamoyiliga mos keladi.[91]

54-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu moddaning e'lon qilishga doir talablari mazkur xalqaro sharhning kirish qismida yoritilgan shaffoflik tamoyiliga mos keladi.[92]

60-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – To'lovga qobiliyatsizlik jarayonida yuzaga keladigan nizolarni qo'zg'atish va hal qilish muddatlari juda qisqa. Ushbu yondashuv xalqaro amaliyotga mos keladi:

To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish yuritish dinamik jarayondir. O'tmishda sodir bo'lgan voqealarni tekshirishni o'z ichiga olgan boshqa ko'plab sud jarayonlaridan farqli o'laroq, to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish yuritish real vaqt rejimida amalga oshiriladi: sud qarorining qaror qabul qilinishi kechikishi aktivlar qiymatiga yoki korxonaning yashovchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun sud majlislarini tezda o'tkazish va qarorlarni tez qabul qilishga qaratilgan protsessual tartib-taomillarni joriy etish juda muhimdir.[93]

62-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Xalqaro amaliyotga muvofiq, ushbu modda davlat qarzdorga investitsiya kiritgan taqdirda moliyaviy qiyinchiliklarni hal qilish vositasi sifatida sudgacha sanatsiyani qo'llashni qo'llab-quvvatlaydi.

[90] 4-iqtibos, 58-bet.
[91] Kirish qismining 6-betiga qarang.
[92] Kirish qismining 6-betiga qarang.
[93] 6-iqtibos, 79-bet.

6-BOB
BITIMLARNING HAQIQIY EMASLIGI

Kirish

Xalqaro nuqtayi nazar – 6-bob bo‘yicha berilgan mazkur xalqaro sharh e’tiborni umumiy tamoyillar va xalqaro amaliyotlarga qaratadi. Buning sababi, ushbu bobning mavzusi bunday umumiy tamoyillar va amaliyotlarga mos keladi, har bir moddaning aniq shartlari esa ushbu tamoyillar va amaliyotlarning individual qo‘llanilishini ifodalaydi. Har bir modda o‘z shartlariga muvofiq O‘zbekiston qonunchiligi masalasi sifatida talqin qilinishi kerak.

Asos

Xalqaro nuqtayi nazar – Zamonaviy to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunlar odatda qarzdor tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonidan oldin yoki davomida tuzilgan muayyan bitimlarni haqiqiy emas deb topish qoidalarini o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonning To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonuniga ko‘ra, ushbu bitimlar, garchi ular boshqacha jihatlardan haqiqiy va qonuniy kuchga ega bo‘lsa ham, 6-bobga muvofiq haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Shu ma’noda, 6-bob qarzdor va boshqa taraflar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni tartibga soladi. Bu xalqaro miqyosda tan olingan tamoyillar va amaliyotlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu rejimning To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonunga kiritilishi kreditorlarga nisbatan adolatli munosabat tamoyili aks ettiradi.[94] Xalqaro miqyosda tan olingan asos UNCITRAL tomonidan quyidagicha tushuntirilgan:

To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili (tugatish yoki qayta tashkil etish) qarzdor bunday natijadan qochib bo‘lmasligini birinchi marta anglaganidan ancha keyin boshlanishi mumkin. Ushbu oraliq davrda qarzdor uchun aktivlarni kreditorlardan yashirishga urinish, sun’iy majburiyatlarni o‘z zimmasiga olish, qarindoshlari va do‘stlariga xayriya yoki sovg‘alar berish yoki boshqalarni chetlab o‘tib, ayrim kreditorlarga pul to‘lash uchun sezilarli imkoniyatlar bo‘lishi mumkin. Shuningdek, kreditorlar o‘zlarini foydali holatga keltirish uchun strategik harakatlarni boshlash imkoniyatlari ham bo‘lishi mumkin. Bunday harakatlarning natijasi oxir-oqibat to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni nuqtayi nazaridan, odatda bunday harakatlarda ishtirok etmagan va garov huquqi himoyasiga ega bo‘lmagan oddiy ta’minlanmagan kreditorlarga zarar yetkazadi.[95]

---

[94] Kirish qismining 7-betiga qarang.

[95] 4-iqtibos, 135-bet.

UNCITRAL qo‘llanmasida quyidagi qo‘shimcha mulohaza qo‘shilgan:

151. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonunning umumiy qabul qilingan tamoyili shundaki, kreditorlar uchun mavjud bo‘lgan aktivlarni maksimal darajada oshirishda kreditorlarga individual choralar tizimiga nisbatan kollektiv harakatlar samaraliroq va barcha o‘xshash kreditorlarga bir xil munosabatda bo‘lishni talab qiladi. Bitimlarni haqiqiy emas deb topish vakolatlariga oid qoidalar ushbu kollektiv maqsadlarni qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, kreditorlar to‘lovga qobiliyatsiz qarzdorning aktivlarini belgilangan navbatga muvofiq adolatli taqsimlashni ta’minlaydi va tugatish massasining yaxlitligini saqlaydi. Bitimlarni haqiqiy emas deb topishga oid qoidalar tiyib turuvchi vazifani ham bajaradi. Agar kreditorlar bunday bitimlar yoki ularning huquqiy oqibatlari keyinchalik haqiqiy emas deb topilishi mumkinligini bilsalar, ular to‘lovga qobiliyatsizlik yuzaga kelishidan oldingi davrda boshqa kreditorlar hisobidan ustunlikka erishishga qaratilgan individual choralarni ko‘rishdan tiyiladilar. Odatda firibgarlikning oldini olish uchun to‘lovga qobiliyatsizlikda bitimlarni haqiqiy emas deb topish mumkin (masalan, qarzdorning keyinroq foyda olish uchun aktivlarni yashirish yoki qarzdorning mansabdor shaxslari, mulkdorlari yoki direktorlariga foyda keltirish uchun mo‘ljallangan bitimlar); kreditorlarning huquqlarini ta’minlash; qarzdor qolgan kreditorlar hisobidan ma’lum kreditorlarga ustunlik berishni istagan hollarda favoritizmning oldini olish orqali barcha kreditorlarga teng munosabatda bo‘lishni ta’minlash; to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilishidan oldin biznes subyektining to‘satdan qiymatini yo‘qotishining oldini olish; ba’zi davlatlarda suddan tashqari kelishuvni rag‘batlantirish uchun asos yaratish – kreditorlar so‘nggi daqiqadagi bitimlar yoki aktivlarga band qo‘yish bekor qilinishi mumkinligini bilishadi, shuning uchun sud aralashuvisiz amaliy kelishuvlarga erishish uchun qarzdorlar bilan ishlash ehtimoli ko‘proq bo‘ladi.[96]

Yuqoridagi UNCITRAL qo‘llanmasining iqtiboslarida ko‘rinib turganidek, xalqaro tajribada qarzdorlar moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelganda odatda yuzaga keladigan bir qator holatlar tasvirlangan. Xalqaro miqyosda bu holatlar odatda uchta keng toifadan biriga yoki bir nechtasiga (boshqalar qatori) tushadi[97]:

1) kreditorlarning talablarini undirilishiga to‘sqinlik qilish, ularni ortda qoldirish yoki kechiktirishga qaratilgan bitimlar;
2) qiymati past baholanib tuzilgan bitimlar;
3) bir yoki bir nechta kreditorlarga boshqa kreditorlarga nisbatan imtiyozli qanoatlantirishga olib keluvchi bitimlar.

UNCITRALning ta’kidlashicha, bunday bitimlar «*odatda oddiy ta’minlanmagan kreditorlarga zarar yetkazadi*».[98] Bunday ta’sirga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlarning keng doirasini hisobga olgan holda To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qo-

[96] 4-iqtibos, 136-bet.

[97] Bu xalqaro miqyosdagi pozitsiya bo‘lib, xalqaro tajribani namoyish etish uchun tilga olingan. O‘zbekiston sudi bitimlarni haqiqiy emas deb topish vakolatiga ega bo‘lgan toifalar 6-bobda ko‘rsatilgan.

[98] Bu adolatli munosabat tamoyilining taalluqliligini ta’kidlaydi.

nun turli holatlarni qamrab olishga mo‘ljallangan bir nechta qoidalarni o‘z ichiga olishi kerak.

Bu mazkur bobda adolatli munosabat tamoyiliga zid bo‘lgan turli holatlarni tartibga soluvchi moddalarda o‘z ifodasini topgan.

6-bobda ko‘rib chiqilgan murakkab jihatlar

Xalqaro nuqtayi nazar – Ta’kidlanganidek, 6-bob kreditorlarga nisbatan teng munosabat tamoyilini buzishi mumkin bo‘lgan turli xil bitimlar va ularni amalga oshirish usullarini ko‘rib chiqish orqali ushbu tamoyilni himoya qiladi. Ushbu murakkablikni hal qilish uchun 6-bob ushbu bitimlarni bir nechta alohida moddalar bo‘yicha tasniflaydi.

Yana bir murakkablik shundaki, To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonun ba’zan bir-biriga zid kelishi mumkin bo‘lgan bir nechta tamoyillarni o‘z ichiga oladi. 6-bobda nazarda tutilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish tartibi adolatli munosabat tamoyiliga asoslangan. Biroq bu tamoyil shartnomaviy munosabatlarning huquqiy aniqlik va barqarorlikni himoya qilishning umumiyroq**,** lekin ayni paytda muhimroq tamoyiliga zid kelishi mumkin. XVJ ta’kidlaganidek:

Bu, ayniqsa, bitimlar va operatsiyalar mutlaqo normal bo‘lgan, ammo ular shunchaki sud jarayoni boshlanishiga yaqin bo‘lganligi sababli haqiqiy emas deb topilishi mumkin bo‘lgan bitimlarga tegishli.[99]

Ushbu nizoni hal qilishning bir usuli – bitim haqiqiy emas deb topilishi uchun uning qaysi vaqt oralig‘ida amalga oshirilgan bo‘lishi kerakligini belgilash. Turli xil haqiqiy emas deb topilishi mumkin bo‘lgan bitimlar toifalari uchun turli vaqt oralig‘i belgilanishi mumkin.

Nizoni hal qilishning ikkinchi usuli – ikki tamoyilni sudga bitimlarni bekor qilishga vakolat beradigan holatlarni belgilash orqali muvozanatlash. Bu yerda nazarda tutilgan yondashuvlar moddalar loyihasini tuzishda aks etadi, masalan, quyidagilar orasida:

(a) obyektiv mezonlarni belgilash (masalan, bitimning obyektiv ta’siriga e’tibor qaratish, ya’ni ayrim kreditorga boshqa kreditorlarga nisbatan ustunlik berish *ta’siri* kabi);

(b) subyektiv mezonlarni belgilash (masalan, qarzdorning bitimni amalga oshirishdagi subyektiv niyati, masalan, ma’lum bir kreditorni boshqa kreditorlarga nisbatan ustunlik berish *niyati*);

(c) ikkalasining kombinatsiyasi.

Vaqt oraliqlarini belgilashda bo‘lgani kabi, ushbu loyiha tuzishdagi yondashuvlar orasidan qaror qabul qilishda «to‘g‘ri» yoki «noto‘g‘ri» yondashuv mavjud emas. Loyiha tuzish usuli shunchaki yuqorida aytib o‘tilgan o‘zaro raqobatlashuvchi tamoyillar o‘rtasida muvozanatga erishilgan joyni aks ettiradi, bu mamlakatning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonuni uning parlamenti tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan paytda belgilangan. Har bir modda o‘z shartlariga muvofiq talqin qilinishi kerak.

[99] 6-iqtibos, 35-bet.

Ta’sirlangan bitimlar

Xalqaro nuqtayi nazar – 6-bobdagi «bitim» tushunchasi O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq har bir moddaning ma’nosiga muvofiq talqin qilinishi kerak bo‘lsa-da, xalqaro amaliyot odatda uni haqiqiy emas deb topish kontekstida «bitim» tushunchasini keng talqin qiladi. UNCITRAL qo‘llanmasida quyidagilar qayd etilgan:

Bu [kontekstda] «bitim» so‘zining ishlatilishi [umumiy xalqaro amaliyot masalasi sifatida] aktivlarni sotish yoki majburiyatlar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan keng ko‘lamli huquqiy harakatlarga, jumladan, o‘tkazish, to‘lov, garov, kafolat, qarz berish yoki ozod qilish yo‘li bilan amalga oshiriladigan harakatlarga nisbatan qo‘llanilishi va bunday bitimlarning yig‘indisini o‘z ichiga olishi mumkin.[100]

Bitimni haqiqiy emas deb topish uchun nazarda tutilgan qonunchilik mezonlariga javob berishini tasdiqlovchi dalillar

Xalqaro nuqtayi nazar – Bu oxir-oqibat O‘zbekiston qonunchiligiga tegishli masaladir. Quyida tegishli xalqaro amaliyotlardan ba’zi misollar keltirilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, UNCITRAL qo‘llanmasidan quyidagi parchalar umumiy ma’noda bayon qilingan va boshqa mamlakatlarning to‘lovga qobiliyatsizlik qonunlaridagi bitimning haqiqiy emas deb topish qoidalari talqin qilinishiga bog‘liq. Bu qonunlar ushbu mavzuga tegishli bo‘lsa-da, ular boshqacha tarzda ishlab chiqilgan va sezilarli farqlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Agar xalqaro amaliyotlar bo‘yicha mulohazalar 6-bobdagi biron-bir moddaga tegishli bo‘lsa, ular ushbu sharhga kiritilgan.

Bitimning qiymati sudning uni haqiqiy emas deb topish vakolatiga tegishli bo‘lgan hollarda UNCITRAL qo‘llanmasida xalqaro amaliyot sifatida quyidagilar qayd etilgan:

Qarzdor uchinchi shaxs bilan bitim natijasida olgan qiymati nominal yoki mavjud bo‘lmagan, masalan, sovg‘a yoki haqiqiy qiymatdan yoki bozor narxidan ancha past bo‘lgan hollarda, bitimlar shubhali davr ichida sodir bo‘lgan taqdirda, odatda, bitimlarni haqiqiy emas deb topish mumkin bo‘ladi.[101]

Keyin UNCITRAL qo‘llanmasida qiymatning pastligi darajasi bo‘yicha quyidagi mulohazalar keltirilgan:

Ushbu turdagi bitimlarga oid muhim savol shundaki, nima bitimni haqiqiy emas deb topish uchun yetarli «kam qiymat»ni tashkil qiladi va uni qanday aniqlash mumkin. Ko‘pgina davlatlarda tegishli ekspert xulosalari asosida bitim sodir bo‘lgan paytda amalda bo‘lgan oqilona yoki bozor qiymati kabi standartlarga asoslanib qaror qabul qilish sudlarga qoldiriladi. Bitimdagi tegishli summalar aniq bo‘lmasligi mumkin bo‘lgan hollarda sudga yordam berishning bir usuli to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilning sudga bunday summalarning taxminiy bahosini taqdim etishi bo‘lishi mumkin, bu esa bitimning kontragenti tomonidan qo‘shimcha dalillar taqdim etilganida bahsli bo‘lib qolishi mumkin. Sudga, shuningdek, qiymatni o‘zi aniqlash o‘rniga baholash usulini belgilash vakolati berilishi mumkin.[102]

[100] 4-iqtibos, 135-bet.
[101] 4-iqtibos, 143-bet.
[102] 4-iqtibos, 143-bet.

6-bobga muvofiq, e’tiroz bildirilishi mumkin bo‘lgan bitimlar toifalaridan biri bitta kreditorning talablarini boshqalarga nisbatan imtiyozli ravishda qondirishdir. Shunga o‘xshash qoidalar bo‘yicha xalqaro tajribadan olingan quyidagi umumiy sharhlar ushbu toifaga tegishli:

(a) Imtiyoz berilganligini aniqlash xalqaro standartlar qondirilgan talab vaqtida qarz oldindan mavjud bo‘lganligini va «*bitim natijasida kreditor o‘z talabini qarzdorning aktivlaridan bir xil navbatdagi yoki toifadagi boshqa kreditorlarga qaraganda talabining ko‘proq qismi qondirilganligini (boshqacha qilib aytganda, imtiyoz bo‘lganligini)»* isbotlashni talab qiladi.[103]

(b) Talabni qondirish vaqtida qarz oldindan bo‘lganligi talabi, huquqiy tekshiruv oldindan mavjud bo‘lgan qarz bo‘lmagan holatlardan farqli o‘laroq, to‘lov allaqachon mavjud bo‘lgan qarz uchun bo‘lganligini ko‘rsatuvchi dalillarga qaratiladi. Oldindan mavjud bo‘lgan qarz bo‘lmagan holatlarga misollar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

tegishli tovarlar yoki xizmatlar uchun *bir vaqtning o‘zida* to‘lov va yetkazib berish;

tovarlar yoki xizmatlar uchun *oldindan to‘lov.*

Bu ikkala misolda ham talabni imtiyozli ravishda qondirish bo‘lmaydi, chunki oldindan mavjud qarz yo‘q.

Ko‘pgina mamlakatlarda oldindan mavjud bo‘lgan qarzni ta’minlash uchun garov berish ushbu kreditorga boshqa kreditorlarga nisbatan imtiyozli munosabat sifatida qaraladi. Boshqa tomondan, qarz va garovning bir vaqtning o‘zida paydo bo‘lishi (yoki qarz paydo bo‘lishidan oldin garovning paydo bo‘lishi) imtiyozli deb hisoblanmaydi. Qarz oldindan mavjud bo‘lmaganligi sababli, kreditor imtiyozli ravishda ta’minlanmagan holatdan ta’minlangan holatga o‘tmaydi. Oldindan mavjud bo‘lgan qarz mavjudligini aniqlashda xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, bitimning nafaqat shakli, balki mohiyati ham diqqat bilan ko‘rib chiqilishi kerak.

Moddalar bo‘yicha sharh

63–68-moddalar

Yuqoridagi umumiy xalqaro sharhlardan tashqari moddaga tegishli sharhlar taklif qilinmadi.

[103] 4-iqtibos, 144-bet.

7-BOB
TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK TO‘G‘RISIDAGI ISHDA QARZDOR RAHBARINING VA BOSHQA SHAXSLARNING JAVOBGARLIGI

Xalqaro nuqtayi nazar – To‘lovga qobiliyatsiz bo‘lib qolgan qarzdorni nazorat qilgan shaxslar va tashkilotlarning javobgarligiga nisbatan xalqaro amaliyot turli ko‘rinishlarga ega. Xalqaro amaliyot odatda qarzdorning bunday nazoratchilariga shunchaki qarzdor to‘lovga qobiliyatsizligi uchun javobgarlik yuklamaydi. Biroq agar to‘lovga qobiliyatsizlik qarzdorni nazorat qiluvchi shaxslarning noto‘g‘ri xatti-harakatlari yoki beparvoligi tufayli yuzaga kelsa, yondashuv boshqacha bo‘ladi. UNCITRAL qo‘llanmasida ta’kidlanganidek:

Agar to‘lovga qobiliyatsiz qarzdor bilan bog‘liq shaxslarning o‘tmishdagi xulqatvori va xatti-harakatlarining oqibati qarzdorning kreditorlariga zarar yoki ziyon yetkazilishi bo‘lsa (masalan, firibgarlik yoki mas’uliyatsiz xatti-harakatlar orqali), bir tomondan, firibgarlik, ikkinchi tomondan, beparvolik uchun qo‘llaniladigan javobgarlik rejimlariga qarab to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun tegishli shaxslardan zarar yoki yo‘qotishni undirishni nazarda tutishi maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin.[104]

Xalqaro miqyosda ushbu sohani tartibga solishning keng tarqalgan elementi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish boshlanishidan oldin nazoratni amalga oshirgan va xatti-harakatlari noqonuniy bo‘lgan (*masalan,* nojo‘ya xatti-harakatlar) shaxslarga javobgarlik yuklashdir.

Hisobdorlikni ta’minlash usullari mamlakatlar o‘rtasida quyidagicha farq qiladi:

nazoratchi kimligini aniqlash;

nojo‘ya xatti-harakatlarga nisbatan qo‘llaniladigan javobgarlik standarti;

himoya vositalarining mohiyati;

alohida kreditorlar sud jarayonini boshlashi mumkinmi yoki muqobil ravishda barcha kreditorlar nomidan faqat sud boshqaruvchisi birgalikda ish qo‘zg‘atishi mumkinmi;

to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunda maxsus ko‘zda tutilgan nazoratchiga qarshi choralarning tabiati.

Ushbu farqlarni hisobga olgan holda yuqorida keltirilgan UNCITRAL qo‘llanmasidan parchada ko‘rsatilgan muayyan yondashuv mulohazalaridan tashqari xalqaro misollar yoki amaliyotlardan juda kam ko‘rsatmalar olish mumkin.

Moddalar bo‘yicha sharh
69–77-moddalar

Yuqoridagi umumiy xalqaro sharhlardan tashqari moddaga tegishli sharhlar taklif qilinmadi.

[104] 4-iqtibos, 171-bet.

8-BOB
KUZATUV TARTIB-TAOMILI

Kirish

Xalqaro nuqtayi nazar – To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunning o‘ziga xos maqsadi moliyaviy qiyinchiliklar qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz yoki to‘lovga qobiliyatsizlik holati yaqinlashayotgan taqdirda unga qarshi qo‘yilgan barcha talablarni jamlangan tartibda ko‘rib chiqishdan iborat.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun ikkita asosiy yo‘lni ko‘zda tutadi va tartibga soladi: tugatish va sanatsiya. Bu yo‘llar orasidagi tanlov asosiy bo‘lsa-da, to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining boshida ko‘pincha qaysi tanlov mos kelishi yoki hatto sanatsiya qilish mumkin-mumkin emasligi noma’lum bo‘lib qoladi. Ushbu noaniqlik samarali to‘lovga qobiliyatsizlik tizimini yaratishda qiyinchilik tug‘diradi, bunda maqsad tezkor va yetarli axborotga asoslangan qaror qabul qilishdir.

Bu muammoni hal qiladigan yagona xalqaro amaliyot yo‘q. Ko‘pgina mamlakatlarning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunlarida keng qo‘llaniladigan amaliyotlardan biri to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish boshlanishida mustaqil taraf tomonidan nisbatan qisqa vaqt ichida tegishli tekshiruv o‘tkazish imkonini beradigan jarayonni taqdim etishdir:

qarzdorning moliyaviy holatini baholash;

sanatsiya shaklining mumkin-mumkin emasligini o‘rganish;

sanatsiya variantlarini tugatishdan kelib chiqadigan ehtimoliy natijalar bilan taqqoslash.

Muhimi, bu jarayon davom etayotgan va kreditorlar uchun hisobot tayyorlanayotgan bir paytda, qarzdorning aktivlari va biznesi himoyalangan bo‘lishi kerak.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonunning 8-bobida belgilangan kuzatuv tartib-taomili yuqorida tavsiflangan umumiy xalqaro jarayonga mos keladi.

8-bobdagi muayyan moddalarga o‘tishdan oldin, avvalo, quyidagilar foydali bo‘lishi mumkin:

8-bobda kuzatuv jarayoni markaziy o‘rin tutadigan tugatish va sanatsiya o‘rtasidagi tanlovga tegishli asosiy tushunchalarni tushuntirish;

boshqa mamlakatlarning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunlarida ham xuddi shunday tanlov va o‘xshash xususiyatlari mavjud bo‘lgan xalqaro amaliyot va nuqtayi nazarni aniqlash.

Qiymat, uni saqlash va himoya qilish – xalqaro nuqtayi nazar

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonunda «qiymat»ning ahamiyati

Xalqaro nuqtayi nazar – To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonunning asosiy maqsadi – «*barcha manfaatdor taraflar va umuman iqtisodiyot manfaatlari uchun qiy-*

matni himoya qilish va maksimal darajada oshirish».[105] Ushbu maqsadning ahamiyati xalqaro miqyosda tan olingan:

To‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni ishtirokchilari aktivlar uchun maksimal qiymatga erishish uchun kuchli rag‘batga ega bo‘lishlari kerak, chunki bu umuman kreditorlar talablarining yuqoriroq darajada qanoatlantirilishiga xizmat qiladi va to‘lovga qobiliyatsizlik yukini kamaytiradi.[106]

XVJ quyidagilarni keltiradi:

Bu maqsad, eng aniqrog‘i, sanatsiya davrida amalga oshiriladi, bunda qiymat biznesni davom ettirish orqali maksimal darajada oshiriladi. Ammo bu, shuningdek, sanatsiya mumkin bo‘lmagan korxonalarni tugatish tartib-taomillarining asosiy maqsadi hisoblanadi.[107]

Biroq, UNCITRAL e’tirof etishicha, sanatsiya jarayonlarining mavjudligi «s*o‘nayotgan korxonalar uchun xavfsiz boshpana yaratishga olib kelmasligi kerak: favqulodda yordamdan foyda ko‘rmaydigan korxonalar iloji boricha tez va samarali ravishda tugatilishi lozim»*.[108]

Xuddi shuningdek, Jahon banki quyidagilarni keltiradi:

Korxona faoliyat yurita olmaydigan hollarda qonunning asosiy yo‘nalishi kreditorlar manfaati uchun maksimal darajada undirish maqsadida tez va samarali tugatish bo‘lishi kerak. Tugatishlar, yuridik shaxsdan farqli o‘laroq, biznes faoliyatini saqlab qolish va sotishni o‘z ichiga olishi mumkin. Boshqa tomondan, korxona faoliyat yurita oladigan bo‘lsa, ya’ni uni qayta tiklash mumkin bo‘lsa, uning aktivlari ko‘pincha tugatilganda sotilgandan ko‘ra qayta tiklangan biznesda saqlansa qimmatliroq bo‘ladi.[109]

Shunday qilib, «qiymat»ga oid ushbu umumiy xalqaro nuqtayi nazarni umumlashtirsak:

(i) Qarzdorning to‘lov qobiliyatini muvaffaqiyatli tiklash mumkin bo‘lmagan hollarda samarali tugatish jarayoni odatda qarzdorning aktivlari qiymatini kreditorlar manfaati uchun maksimal darajada oshirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Biroq bu har doim ham shunday bo‘lavermasligi mumkin. Ba’zi hollarda qarzdorning biznesini rejali va bosqichma-bosqich tugatish emas, balki sanatsiya orqali yaxshiroq erishish va kreditorlarga yuqoriroq daromad keltirish mumkin.

(ii) Qarzdorning to‘lov qobiliyatini muvaffaqiyatli tiklash mumkin bo‘lgan va sanatsiya jarayoni tugatishga qaraganda yuqori «qiymat» keltiradigan hollarda sanatsiya to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining afzal natijasi bo‘lish ehtimoli ko‘proq.

---

[105] 6-iqtibos, 6-bet.
[106] 4-iqtibos, 10-bet.
[107] 6-iqtibos, 6–7-betlar.
[108] 4-iqtibos, 15–16-betlar.
[109] 1-iqtibos, 7–8-betlar.

Kreditorlar uchun qiymatni baholash va turli maqsadlarni zaruriy muvozanatlash

Xalqaro nuqtayi nazar – «Qiymat» tushunchasi to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining markazida bo‘lganligi sababli, uni baholash, ayniqsa, tugatish va sanatsiya o‘rtasidagi tanlov uchun juda muhimdir.

Qiymatni baholash uchun muhim ko‘rsatkich tugatish va taklif qilingan sanatsiya o‘rtasidagi kreditorlarga (va ehtimol aksiyadorlarga) taxminiy qondirish darajasidir. Agar taqqoslash natijalariga ko‘ra sanatsiya kreditorlar talablarining yuqoriroq darajada qondirilishini ta’minlashi kutilayotgan bo‘lsa, shu bilan birga, uning muvaffaqiyatsiz amalga oshish xavfi hamda boshqa muhim omillar ham baholangan bo‘lsa, sanatsiya tugatishga nisbatan afzalroq variant hisoblanadi.

Xalqaro tajriba umumiy taklif sifatida, agar qarzdorning biznesi barqaror bo‘lsa, sanatsiya qilish tugatishga qaraganda yuqori daromad keltirishi mumkinligini ko‘rsatadi. UNCITRAL qo‘llanmasida bu taklif quyidagicha tushuntirilgan:

Bu biznesning asosiy tarkibiy qismlarini parchalab tashlash o‘rniga ularni birga saqlash orqali ko‘proq foyda olish mumkin degan asosiy iqtisodiy nazariyaga asoslanadi.[110]

Biroq ushbu taklifning to‘g‘riligi har bir o‘ziga xos vaziyatda diqqat bilan ko‘rib chiqilishi kerak. Agar biznes moliyaviy jihatdan barqaror bo‘lmasa, bu noto‘g‘ri bo‘ladi (binobarin, biznesni tugatishga yoki «faoliyatning uzluksizligi» tarzida sotilishiga sharoit yaratish uchun cheklangan vaqt davomida savdoni davom ettirishga qaratilgan sanatsiya variantini ko‘rib chiqish mumkin).

Bundan tashqari, sanatsiya muvaffaqiyatli bo‘lmasligi va qarzdorning reja maqsadlariga erisha olmaslik xavfi mavjud. Agar sanatsiya muvaffaqiyatsiz bo‘lsa, u kreditorlarga tezkor tugatish bilan erishilganidan ko‘ra kamroq daromad keltirishi mumkin. Bu xavflarni diqqat bilan ko‘rib chiqish zarur.

Shuningdek, sanatsiyani amalga oshirish qo‘shimcha kapital jalb etishni talab qilgan hollarda rejalashtirilgan investitsiyalarning kiritilmaslik xavfi ham mavjud.

«Qiymat» to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunda shunchaki kreditorlarga daromad o‘lchovidan ko‘ra kengroq ma’noga ega

Xalqaro nuqtayi nazar – To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonunning asosiy maqsadi «barcha manfaatdor taraflar *va umuman iqtisodiyot manfaatlari uchun qiymatni himoya qilish va maksimal darajada oshirish»dir.*[111]

Xalqaro valyuta jamg‘armasi qo‘llanmasidagi «qiymat» nafaqat «*manfaatdor taraflar»*ga tushadigan daromad bilan o‘lchanishi, balki «*umuman iqtisodiyot»*ni ham hisobga olishni ta’kidlaydi.

Bu shuni anglatadiki, xalqaro amaliyot nuqtayi nazaridan, «qiymat» deganda muvaffaqiyatli to‘lov qobiliyati tiklanishidan kreditorlarga dividendlarning potensial o‘si-

[110] 4-iqtibos, 11-bet.

[111] 6-iqtibos, 6-bet, ta’kid qo‘shildi.

shi bilan cheklanmay, undan ham ko‘ra kengroq tushuniladi. Ko‘pincha sanatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan «qiymat»ning boshqa jihatlari ham inobatga olinadi:

ba’zi mamlakatlar sanatsiya tartib-taomillarini faoliyat yuritib turgan korxonaning qiymati orqali kreditorlar talablarining qiymatini oshirish usuli sifatida ko‘rsa; boshqa mamlakatlar buni aksiyadorlar va qarzdorning rahbariyatiga «ikkinchi imkoniyat» berish vositasi sifatida ham ko‘radi. Yana boshqalar korxonaning faoliyatini davom ettirishni birinchi navbatda xodimlarga foyda keltirish deb bilishadi.[112]

Jahon banki qo‘llanmasida quyidagi qiymat jihatlarining taalluqliligi ta’kidlangan:

Biznesni qutqarish ish o‘rinlarini saqlab qoladi, kreditorlarga faoliyati uzluksiz bo‘lgan korxonadan yuqoriroq foyda olish, mulkdorlari uchun potensial daromad va mamlakat uchun tiklangan korxonaning hosilini ta’minlaydi. [113]

UNCITRAL qo‘llanmasida «*ish bilan ta’minlashni himoya qilish, kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish»* va *tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish»* kabi qo‘shimcha qiymat jihatlari aniqlangan.[114]

Xalqaro valyuta jamg‘armasi qo‘llanmasida ta’kidlanganidek, muvaffaqiyatsiz korxonaga «*ikkinchi imkoniyat»* berish tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadini qo‘llab-quvvatlaydi.[115]

Qiymat faqat kreditorlarga daromad kelishi nuqtayi nazaridan o‘lchangan taqdirda ham, xalqaro amaliyot qiymat faqat yuqori dividend olish ehtimoli bilan cheklanmasligini tan oladi. Muvaffaqiyatning boshqa o‘lchovlari ham taalluqli bo‘lishi mumkin. Sanatsiya muvaffaqiyatli bo‘lgan va qarzdorning biznesi davom etayotgan hollarda kreditorlar uchun qarzdorni o‘z mijozi sifatida saqlab qolishning o‘ziga xos qiymati mavjud. Ya’ni muvaffaqiyatli sanatsiya nafaqat kreditorlar talablarining yuqoriroq darajada qondirilishini ta’minlashi, balki kreditorlar uchun kelajakda foydali savdo qilish imkoniyatlarini yaratishi mumkin.

Bundan tashqari, qiymat o‘lchovlarini ifodalovchi kengroq ijtimoiy birdamlik jihatlari bo‘lishi mumkin. Masalan, agar shahar yoki qishloq mintaqadagi asosiy (yoki yagona) ish beruvchi bo‘lgan qarzdorga moliyaviy jihatdan qaram bo‘lsa, biznesni tugatish va yopish jiddiy ijtimoiy tanglikka olib kelishi mumkin.

Biroq «qiymat»ning barcha o‘lchovlari ham sanatsiyaning maqsadga muvofiqligini ko‘rsatmaydi. Masalan, tugatishning ba’zi iqtisodiy foydalari mavjud:

Iqtisodiy siyosat nuqtayi nazaridan va yuqoridagi maqsadlarni hisobga olgan holda samarali to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun bir qator sohalarda muhim rol o‘ynashi mumkin. Umuman olganda, qarzdorlarga nisbatan huquqiy intizomning ta’minlanishi bozor ishtirokchilari uchun teng raqobat sharoitlarini yaratadi hamda kredit berishni rag‘batlantiradi.[116]

---

[112] 6-iqtibos, 7-bet.
[113] 1-iqtibos, 8-bet.
[114] 4-iqtibos, 14–15-betlar.
[115] 6-iqtibos, 53-bet.
[116] 6-iqtibos, 8-bet.

Ba’zi iqtisodchilarning ta’kidlashicha, samarasiz bizneslarni tugatishga ruxsat berish foydali bo‘lishi mumkin, chunki bu samaraliroq bizneslarga raqobatbardosh bozorda bir xil tovarlar yoki xizmatlarni yetkazib berish imkonini beradi. Ya’ni muvaffaqiyatsizlikka uchragan biznesni tugatish bozor raqobatbardoshliligini oshirishi mumkin.

Yangi investitsiyalarning kengroq ta’sirini ham hisobga olish kerak:

Tez tugatish va kreditorlar uchun ko‘proq qiymat yaratishi mumkin bo‘lgan biznesni qayta tashkil etish bo‘yicha uzoq muddatli sa’y-harakatlar, aktivlar qiymatini saqlab qolish yoki yaxshilash uchun yangi investitsiyalarga ehtiyoj va ushbu yangi investitsiyaning mavjud manfaatdor taraflarga ta’siri va qiymati o‘rtasida muvozanatni topish lozim...[117]

Bu mulohazalar tugatish va sanatsiya jarayonida kreditorlarga beriladigan daromadlarni qat’iy matematik taqqoslashdan ko‘ra ko‘proq narsani anglatadi. Ular to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining qarzdor va uning kreditorlariga ta’siridan tashqari kengroq iqtisodiy va ijtimoiy mulohazalarni aks ettiradi.

Sanatsiya va tugatish o‘rtasidagi baholashni amalga oshirish

Xalqaro nuqtayi nazar – To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonunda tugatish va sanatsiya o‘rtasida tanlov qilish kerak bo‘lgan bir nechta holatlar keltirilgan. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni boshlash yoki jarayonning keyingi bosqichlarida qaror qabul qilish talab qilinishi mumkin.

8-bob ushbu tanlovni sud jarayonining nisbatan erta bosqichlarida amalga oshirishga imkon beradi va xabardor bo‘lgan holatda qaror qabul qilishga imkoniyat yaratadi. Agar tanlov amalga oshirilgandan keyin vaziyat o‘zgarsa, tanlovni qayta ko‘rib chiqish va boshqa jarayonga o‘tish zarur bo‘lishi mumkin. Bu imkoniyat To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonunda ham mavjud.

Ko‘proq mos keladigan harakat yo‘nalishini tanlashda qiymatga oid baho berish talab etiladi:

Zamonaviy to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari bozor iqtisodiyotining o‘zgaruvchan sharoitlarida iqtisodiy faoliyat samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. **Garchi to‘lovga qobiliyatsizlik qonunlari qat’iy formulalarga tushmasa-da, zamonaviy tizimlar yuqorida bayon qilingan maqsadlarga erishish uchun odatda tuzilmaviy xususiyatlarga tayanadi.**[118]

Yuqorida ta’kidlangan jumla muhim bir fikrni bildiradi – bu mulohazalarni to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunga qat’iy formula ko‘rinishida kiritib bo‘lmaydi. Qarzdorning o‘ziga xos holatlariga tegishli bo‘lishi mumkin bo‘lgan keng ko‘lamli mulohazalarni hisobga olgan holda bunday yondashuvni amalda qo‘llash imkonsiz. Buning o‘rniga to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunlar qarzdorning o‘ziga xos holatlarini hisobga olgan holda tanlashni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro miqyosda tan olingan standartlar va amaliyotlar tegishli ma’lumot va kontekstni taqdim etishi mumkin.

---

[117] 4-iqtibos, 11-bet.

[118] 1-iqtibos, 8-bet, ta’kid qo‘shildi.

Odatda, sanatsiya amalga oshirilishi mumkin deb topilsa, kreditorlar talablarining sanatsiya natijasida qondirilishi mumkin bo‘lgan darajasi tugatish tartib-taomilida kutilayotgan qondirish darajasi bilan taqqoslanadi. Kreditorlar uchun yuqori ehtimollikdagi natija odatda afzal ko‘riladi, agar xavf omillari ham diqqat bilan ko‘rib chiqilgan bo‘lsa. Biroq yuqorida bayon qilingan kengroq omillar xalqaro standartlar va amaliyotlar nuqtayi nazaridan variantlarni baholashda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Moddalar bo‘yicha sharh

78-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 78-modda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish boshlangan paytdagi holatni ko‘rib chiqadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, bu masalada uch xil yondashuv qo‘llaniladi. Birinchi yondashuvga ko‘ra, ish yuritish tugatish sifatida boshlanishi kerak, agar kerak bo‘lsa, sanatsiya jarayoniga o‘tkazish imkoniyati bilan. Ikkinchisiga ko‘ra, ish yuritish sanatsiya sifatida boshlanishi kerak, keyinchalik tugatishga o‘tkazish imkoniyati bilan. Uchinchi yondashuv UNCITRAL qo‘llanmasida quyidagicha tavsiflangan:

Keyingi yondashuvga ko‘ra, arizaning ta’siri neytral bo‘ladi va qayta tashkil etish va tugatish o‘rtasida tanlov faqat qarzdorning moliyaviy ahvolini baholash davridan keyingina amalga oshiriladi.[119]

Ushbu uchinchi yondashuv 78-moddada aks etgan. XVJ qo‘llanmasida ushbu yondashuvning amaliy afzalligi borligi ta’kidlangan:

amaliyotga ko‘ra... qarzdorni tugatish yoki sanatsiya qilish kerakligini aytish ko‘pincha imkonsizdir.[120]

Shu sababli 8-bobdagi kabi kuzatuv jarayoni xalqaro miqyosda keng qo‘llaniladi.

79-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Kuzatuv tartib-taomili boshlangandan so‘ng, ushbu moddada ko‘zda tutilganidek, qarzdor uchun muayyan himoya choralari kuchga kiradi. Bu xalqaro amaliyotga mos keladi, buning asosi UNCITRAL qo‘llanmasida quyidagicha tushuntirilgan:

Kreditorlarga kelsak, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunning asosiy tamoyillaridan biri shundaki, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish jamoaviy ish yuritish bo‘lib, barcha kreditorlarning manfaatlarini ulardan birining individual harakatlaridan himoya qilishni talab qiladi. Ko‘pgina to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunlar tugatish massasining qiymatini himoya qilish mexanizmini o‘z ichiga oladi, bu nafaqat kreditorlarning tugatish yoki qayta tashkil etish jarayonining bir qismi yoki barchasi davomida o‘z huquqlarini qonuniy vositalar orqali himoya qilish bo‘yicha da’volarni qo‘zg‘atishga to‘sqinlik qiladi, balki qarzdorga qarshi allaqachon qo‘zg‘a-

[119] 4-iqtibos, 48-bet.
[120] 6-iqtibos, 16-bet.

tilgan da’volarni ham to‘xtatib turadi. Bunday mexanizm o‘z ta’siriga qarab turlicha: «moratoriy», «to‘xtatib turish» yoki «qoldirib turish» deb ataladi.[121]

Ushbu asosning qo‘shimcha izohi XVJ qo‘llanmasida keltirilgan:

Bundan tashqari, sanatsiya tartib-taomili qarzdorlarni iloji boricha tezroq uni qo‘llashga undash maqsadi hisobga olinishi kerakligi sababli, kreditorlarning huquqiy himoya vositalaridan foydalanishini vaqtincha to‘xtatib turishi qarzdorni sanatsiya tartib-taomilini o‘z vaqtida boshlashga rag‘batlantiruvchi muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi. Bundan tashqari, sanatsiya jarayoni kreditorlar talablarining qondirilishini maksimal darajada oshirishga qaratilganligi sababli, bunday to‘xtatib turish o‘z-o‘zidan kreditorlarning manfaatlariga zid bo‘lmaydi.[122]

79-modda, shuningdek, kuzatuv tartib-taomili boshlanganidan keyin qarzdorning shartnomaviy munosabatlariga ham tegishli. Shunga o‘xshash shartnomaviy masalalar bo‘yicha tegishli mulohazalar ushbu sharhning 96-moddasida keltirilgan.

8-bobdagi kuzatuv tartib-taomili sanatsiya tartib-taomili emas, aksincha, bu sanatsiyani amalga oshirish imkoniyati va maqsadga muvofiqligini baholashga qaratilgan oraliq tartib-taomil hisoblanadi. Agar 79-moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan shartnomaviy huquqlar sanatsiyaning amalga oshirilishiga to‘sqinlik qiladigan tarzda amalga oshirilsa, uning maqsadiga putur yetkaziladi. Biroq bu himoya vositalari shartnomaviy munosabatlarga xalaqit beradi. Shu bois 79-moddaning to‘rtinchi, beshinchi va oltinchi qismlarida o‘zaro raqobatlashuvchi manfaatlarni muvozanatlashtirish maqsadida shartnoma bo‘yicha kontragentning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy kafolatlar nazarda tutilgan.

80-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Qarzdorning moliyaviy majburiyatlarini muqobil qarshi talabni o‘zaro kelishuv orqali bekor qilish xalqaro miqyosda «o‘zaro hisobga olish» usuli sifatida tanilgan. 80-modda qarzdor kuzatuv tartib-taomili ostida bo‘lgan paytda hisobga olish masalasini ko‘rib chiqadi. Bu to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish uchun ham taalluqlidir, chunki ish yuritish boshlangan paytda ba’zi kreditorlar nafaqat qarzdorga qarshi talabni qo‘yishlari, balki qarzdor oldida pul majburiyatlariga ham ega bo‘lishlari mumkin.

Xalqaro nuqtayi nazardan, o‘zaro hisobga olishlarni ko‘rib chiqish turli mamlakatlarda turlicha bo‘ladi. Ba’zi mamlakatlarda adolatli munosabat tamoyili[123] quyidagicha tushuniladi: «*[sud boshqaruvchisi] kreditorning to‘liq qarzdorlik summasini olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak va kreditorning talabi mulk tugatilgandan so‘ng barcha boshqa ta’minlanmagan kreditorlarning hajmida qondiriladi».*[124] Ya’ni sud boshqaruvchisi (bu yerda muvaqqat boshqaruvchi) kreditorning qarzini qarzdorga to‘liq

[121] 4-iqtibos, 83-bet.

[122] 6-iqtibos, 56–57-betlar.

[123] Kirish qismining 7-sahifasida adolatli munosabat tamoyilini muhokama qiluvchi sharhlarga qarang.

[124] 6-iqtibos, 42-bet.

undirib beradi, kreditor esa xuddi boshqa oddiy ta’minlanmagan kreditorlar singari qarzdorga qarshi talabi bo‘yicha dividend oladi.

Boshqa mamlakatlarda esa o‘zaro raqobatlashuvchi manfaatlar boshqacha muvozanatlashtiriladi. Bunda kreditorning qarzdorga nisbatan talablari hamda qarzdorning kreditorga nisbatan talablarini boshqa kreditorlar talablari qondirilishidan oldin o‘zaro hisobga olishga yo‘l qo‘yiladi.[125] Ushbu yondashuvni qo‘llaydigan mamlakatlar quyidagi yondashuv nuqtayi nazariga ko‘proq ahamiyat beradi:

Birinchisi, adolatlilik: kreditorlar o‘rtasida teng muomala muhimligiga qaramay, qarzdorning kreditorga to‘lovni amalga oshirishdan bosh tortishi, shu bilan birga, ushbu kreditordan to‘lovni talab qilishi adolatsiz hisoblanadi. Bundan tashqari, ko‘plab kontragentlar banklar bo‘lgani uchun, o‘zaro hisobga olish huquqi bank tizimi uchun ayniqsa foydalidir, shuning uchun banklarning muhim kredit yaratish roli tufayli iqtisodiyot uchun umumiy foyda keltiradi deb hisoblanadi. Asosiy funksiyalari (kredit berish va depozitlarni qabul qilish) tufayli bankrot bo‘lgan tashkilotga kredit bergan banklar ko‘pincha qarzdor oldida depozitlar ko‘rinishida moliyaviy majburiyatlarga ega ekanligini aniqlaydi. Boshlangandan keyingi o‘zaro hisobga olish huquqi banklarga o‘zlarining to‘lanmagan talablarini qarzdorning depozitlari bilan qoplash imkonini beradi, garchi bu o‘zaro talablar hali muddati kelmagan va to‘lanishi kerak bo‘lmasa ham.[126]

Boshqa yondashuvlar ham qo‘llaniladi. Masalan, ba’zi mamlakatlar faqat talablar bir xil bitimdan kelib chiqqan taqdirdagina o‘zaro hisobga olinishiga ruxsat beradi.[127]

Xulosa qilib aytganda, o‘zaro hisobga olishni qo‘llash bo‘yicha yagona xalqaro amaliyot mavjud emas. Shuning uchun O‘zbekistonda kuzatuv tartib-taomili doirasida o‘zaro hisobga olish masalasi 80-modda normalarining mazmuni va maqsadidan kelib chiqqan holda talqin qilinishi lozim.

81-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – To‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining xalqaro miqyosda tan olingan asosiy maqsadlari qarzdorning aktivlarini saqlash va himoya qilish bilan bog‘liq. XVJ qo‘llanmasida quyidagilar qayd etilgan:

Samarali to‘lovga qobiliyatsizlik tizimining muhim maqsadi mulk aktivlarining qiymati turli manfaatdor taraflarning harakatlari bilan kamayib ketmasligiga ishonch hosil qilish uchun himoya mexanizmini yaratishdir. Mulk qarzdor va uning kreditorlari tomonidan eng katta himoyaga muhtoj.

Kuzatuv tartib-taomili nuqtayi nazaridan, 81-modda qarzdordan himoya qilish zaruratiga e’tibor qaratgan. U qarzdor rahbariyatiga kuzatuv tartib-taomili davomida biznes faoliyatini odatdagidek davom ettirishga imkon berish va to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining maqsadlariga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan qarorlar va bitimlardan himoya qilish o‘rtasida muvozanatga erishishga intiladi.

---

[125] Aksincha, agar qarzdorga qarshi talab qarzdorning talabidan kam bo‘lsa, mamlakatning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunlari to‘lovga qobiliyatsizlikni hisobga olishga ruxsat bergan taqdirda, qarzdorga faqat sof qoldiq to‘lanishi kerak.

[126] 6-iqtibos, 42-bet.

[127] 6-iqtibos, 42-bet.

83- va 84-moddalar

Xalqaro nuqtayi nazar – Muvaqqat boshqaruvchi kuzatuv jarayonida markaziy rol o‘ynaydi. Ushbu muhim rolni bajarish uchun 83- va 84-moddalar muayyan huquq, vakolat va majburiyatlarni beradi. Xalqaro amaliyot ushbu kuzatuv tartib-taomilining maqsadlariga erishish uchun o‘xshash tizimlarni aks ettiradi.

Muvaqqat boshqaruvchining asosiy vazifasi 84-moddaning oxirgi qismida tasvirlangan hisobotni tuzishdir. Har qanday to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida eng muhim qarorlardan biri qarzdorni tugatish yoki sanatsiya jarayonlaridan birini amalga oshirish o‘rtasida tanlov qilishdir. Shunday qilib, xalqaro nuqtayi nazardan, har tomonlama asoslangan hisobot va muvaqqat boshqaruvchining uni tayyorlashdagi tirishqoqligining ahamiyati nihoyatda yuqori baholanadi.

Shunga qaramay, so‘rovlar va hisobotning davomiyligi va murakkabligi, xalqaro amaliyotga ko‘ra, qarzdorning hamda uning biznesining hajmi va murakkabligiga bog‘liqdir. Agar ko‘plab qarzdorlarda bo‘lgani kabi, ularni moliyaviy jihatdan tiklash imkoniyati mavjud bo‘lmasa, boshqa hollarda talab qilinadigan so‘rov batafsil, hisobot uzun bo‘lishi shart emas.

86-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Muvaqqat boshqaruvchidan talab qilinadigan tahlil ushbu kuzatuv tartib-taomilining maqsadi uchun muhimdir. Qarzdorni sanatsiya qilish mumkinligi (yoki mumkin emasligini) va maqsadga muvofiqligini aniqlash tugatishni davom ettirish yoki sanatsiya variantini qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilishga asos bo‘ladi. Sanatsiyani amalga oshirish bo‘yicha takliflarni tayyorlash ham xuddi shunday muhimdir.

Qarzdorning mol-mulki sud xarajatlari hamda muvaqqat boshqaruvchi haqini qoplash uchun yetarli bo‘lishi masalasi, ayniqsa, kichik qarzdorlarga nisbatan qo‘llaniladigan kuzatuv tartib-taomilida muhim ahamiyatga ega.

86-moddaning oxirgi qismi muvaqqat boshqaruvchiga qarzdorning moliyaviy holatini aniqlash uchun ixtisoslashgan tashkilotni jalb qilishga haqli. Bu kichik va o‘rta kompaniyalar uchun keraksiz bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, yirik yoki murakkab korxona ixtisoslashgan tajribani talab qiladigan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

88-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 2-bob sharhida keltirilgan kreditorlar yig‘ilishlariga oid xalqaro sharhga murojaat qilinadi.

89-, 90- va 91-moddalar

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu moddalarda belgilangan qarorlar 8-bob erishmoqchi bo‘lgan asosiy natijalardir.

Ushbu qarorlarni qabul qilishda kreditorlarning roliga kelsak, yana 2-bobda kreditorlar yig‘ilishlari haqidagi xalqaro sharhlarga murojaat qilinadi.

9-BOB
SUD SANATSIYASI TARTIB-TAOMILI

Kirish

Xalqaro nuqtayi nazar – Butun dunyoda to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida odatda talab qilinadigan muhim masala jarayon tugatish yoki tiklash bilan yakunlanishi o‘rtasidagi tanlovdir. Ko‘p jarayonlarda tugatish eng maqbul tanlov bo‘ladi, chunki tiklashni amalga oshirib bo‘lmaydi. UNCITRAL ta’kidlaganidek, tiklash jarayonlarining mavjudligi «*layoqatsiz korxonalar uchun xavfsiz boshpana yaratishga olib kelmasligi kerak: sanatsiya choralari samara bermaydigan korxonalar iloji boricha tez va samarali ravishda tugatilishi lozim*».[128]

Biroq ko‘pincha tiklash imkoniyati mavjud bo‘lishi va tiklash hamda tugatish o‘rtasida tanlash kerak bo‘ladi. Tiklash XVJ tomonidan quyidagicha tavsiflangan:

Tiklash tartib-taomillarining umumiy iqtisodiy maqsadi moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan korxonani iqtisodiyotda raqobatbardosh va samarali ishtirokchiga aylantirish imkonini berishdir, bu esa nafaqat korxona manfaatdor taraflarga (mulkdorlari, kreditorlari va xodimlari), balki umuman iqtisodiyotga ham foyda keltiradi. Tiklash tartib-taomili ushbu maqsadga erishish uchun barcha manfaatdor taraflar uchun tartib-taomillarda ishtirok etishga rag‘batlantirishi yoki zarur bo‘lganda ba’zi manfaatdor taraflar tomonidan to‘sqinlik qilinishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Shunday qilib, masalan, tartib-taomillarning xususiyatlari qarzdorlarni moliyaviy qiyinchiliklarida tartib-taomillarni erta boshlashga undash uchun yetarlicha jozibador bo‘lishi kerak va shu bilan tiklash imkoniyatini oshiradi. Boshqa tomondan, tiklash tartib-taomili kreditorlarga yetarli darajada himoyani ta’minlashi kerak, shunda ular shunchaki tugatishni kechiktirish uchun vosita sifatida foydalanilmasligiga ishonch hosil qilishlari kerak, chunki bu vaqt ichida ularning talablarini qondirilish darajasi pasayadi.[129]

UNCITRAL tiklash maqsadini yanada aniqroq ifodalaydi:

Qayta tiklashning maqsadi kreditorlar uchun kelajakda talablarining qondirilish darajasini maksimal darajada oshirish, qarzdorni tugatishga qaraganda yaxshiroq natija berish va xodimlar uchun ish o‘rinlarini va yetkazib beruvchilar uchun savdoni saqlab qolish vositasi sifatida istiqbolli biznesni saqlab qolishdir.[130]

Tugatish va tiklash o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunda ham dolzarb bo‘lib, ko‘pincha ikkalasi o‘rtasida tanlov sifatida ko‘rib chiqiladi. Xalqaro amaliyot nuqtayi nazaridan, bu o‘zaro bog‘liqlik haqida uchta asosiy mulohazani aytish mumkin.

---

[128] 4-iqtibos, 15–16-betlar.
[129] 6-iqtibos, 52-bet.
[130] 4-iqtibos, 209-bet.

Birinchidan, ikkalasi o‘rtasidagi farq noaniqlikka sabab bo‘lishi mumkin, chunki o‘xshash natijalarga har ikkala jarayonda ham erishish mumkin:

Ushbu tartib-taomillar hal qilishi kerak bo‘lgan asosiy masalalarga kelsak, ularda ham sezilarli darajada o‘xshashliklar mavjud. Bu (hech bo‘lmaganda qisman) «tugatish» va «tiklash» o‘rtasidagi farq biroz noaniqligi bilan bog‘liq. Korxonaning faoliyat yuritayotgan korxona sifatida sotilishini qanday tasniflash mumkin? Bir nuqtayi nazardan, buni tiklash sifatida ko‘rish mumkin, chunki korxona o‘z faoliyatini davom ettiradi va ish bilan ta’minlanganlik saqlanib qoladi. Boshqa nuqtayi nazardan, buni qarzdorning aktivlarini tugatish sifatida ko‘rish mumkin, chunki korxonaga egalik qiluvchi kompaniya tugatilgan va korxona (iqtisodiy birlik sifatida) endi yangi mulkchilik ostida. Agar, ko‘p hollarda bo‘lgani kabi, korxonani faoliyat yuritayotgan korxona sifatida sotish tugatish jarayonining mumkin bo‘lgan natijasi deb hisoblansa, korxonaning faoliyatini davom ettirish tiklash jarayonidagi kabi muhim bo‘lib qoladi, shuning uchun kreditorlarning harakatlarini to‘xtatib turish va shartnomalarni ko‘rib chiqish bo‘yicha shunga o‘xshash himoya choralari talab qilinishi mumkin.[131]

Ikkinchidan, ba’zida o‘xshash natijalarga erishish qobiliyatiga qaramay, aynan tanlangan jarayonning qoidalari qo‘llaniladi.

Uchinchidan, ikkita tartib-taomil o‘rtasidagi o‘xshashlik va «qiymat»ga bo‘lgan e’tibor, uni saqlash va maksimal darajada oshirishga qaratilgan umumiy e’tibor tufayli, odatda, qarzdorga foyda keltiradigan bir nechta himoya vositalari mavjud bo‘lib, ular ham tugatish, ham tiklash uchun umumiydir.

9-bob aniqlangan manfaatdor taraflarga qarzdor uchun sanatsiya tartib-taomilini boshlash uchun sudga murojaat qilish imkonini beradi. Arizani topshirish to‘g‘risidagi qarorni va tegishli hollarda sud sanatsiya joriy etish to‘g‘risidagi ajrimni qabul qilish maqsadga muvofiqligi bo‘yicha bir nechta mulohazalar mavjud. Ushbu mulohazalarning aksariyati «qiymat» tushunchasiga va 9-bobga muvofiq sanatsiya tartib-taomili tugatishdan ko‘ra qiymatni samaraliroq maksimal darajada oshirishi yoki yo‘qligiga tegishli. Bu nuqtayi nazardan, qiymat murakkab tushunchadir. Xalqaro amaliyot konsepsiyaning ko‘plab jihatlarini aniqlab bergan. Bular 8-bobning kirish qismida ta’riflangan va muhokama qilingan.[132]

Moddalar bo‘yicha sharh

93-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, qarzdor uchun to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni davomida sanatsiya variant sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. 93-modda sanatsiyani erta boshlash uchun imkoniyat yaratadi.

Xalqaro amaliyot sanatsiya jarayonlariga oid ikkita asosiy masalani aniqlaydi. Birinchisi, taklif qilinadigan reja muddatlari. Ikkinchisi, reja taklif qilishi mumkin bo‘l-

[131] 6-iqtibos, 17-bet.

[132] 8-bobning 36–40-sahifalariga qarang.

gan manfaatdor taraflarni aniqlash. Bu ikkala muhim masala ham sud sanatsiyasi tartib-taomili bilan bog‘liq holda 93-moddada ko‘rib chiqilgan.

Qarzdorning ta’sischilari kabi turli taraflar sud sanatsiya tartib-taomilini taklif qilishlari mumkin. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ta’sischilarga bunday tartib-taomilni taklif qilishga ruxsat berish «*qarzdorlarni qayta tashkil etish tartib-taomillarini dastlabki bosqichda boshlashga undash va rejada qarzdorning biznesining davom etayotgan faoliyati ko‘zda tutilgan hollarda qarzdorning o‘z biznesi bilan tanishligi va to‘lovga qobiliyatsiz biznesni jonlantirish uchun zarur bo‘lgan qadamlar haqidagi bilimlaridan maksimal darajada foydalanish afzalligiga ega bo‘lishi mumkin. Bu borada qarzdorga berilgan imkoniyat kreditorning qarzdorga va uning taklifiga ishonchini ta’minlash zarurati bilan muvozanatlashtirilishi kerak bo‘lishi mumkin. Bunday yondashuvning afzalliklari, shuningdek, qarzdorning asosiy boshqaruv xodimlari biznesning muvaffaqiyati uchun zarur bo‘lgan hollarda (masalan, uning murakkabligi tufayli) yoki qisqa muddatda ularni almashtirish qiyin bo‘lgan hollarda ham aniq bo‘lishi mumkin».*[133]

94-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 94-modda kreditorlar qo‘mitasi yoki kreditorlar yig‘ilishi tomonidan ko‘riladigan choralarni belgilaydi. Bunday talablar bo‘yicha xalqaro amaliyotga kelsak, 2-bobdagi kreditorlar yig‘ilishlari va kreditorlar qo‘mitasi yig‘ilishlari bo‘yicha batafsil xalqaro sharhlar taalluqlidir.[134]

Xalqaro amaliyotga ko‘ra, sanatsiya rejasini tasdiqlash yoki tasdiqlamaslik to‘g‘risida qaror qabul qilishda muhim jihatlardan biri rejadagi to‘lov majburiyatlariga rioya qilmaslik (yoki ularni bajarish qobiliyatining dalillari yo‘qligi) xavfidir. Mazkur modda ushbu muhim masalani hal qilishga qaratilgan.

95-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 95-moddaning uchinchi qismi shikoyat berish tartibini belgilaydi va shikoyat ko‘rib chiqilayotgan va hal qilinayotgan paytda sud sanatsiya tartib-taomilini davom ettirishga imkon beradi. Sud sanatsiya tartib-taomilining davom etishi barcha ishtirokchilarning huquqlariga ta’sir qilganligi sababli, shunga o‘xshash holatlarda xalqaro sud amaliyoti shikoyatni qisqa muddatlarda ko‘rib chiqish va u bo‘yicha tezkor qaror qabul qilishni talab etadi. Bu mazkur sharhning[135] kirish qismida tasvirlangan va tizimga bo‘lgan ishonchni saqlab qolish uchun muhim bo‘lgan «samaradorlik tamoyili»ni aks ettiradi.

95-moddaning to‘rtinchi qismida sud sanatsiya tartib-taomilini yakunlash uchun muddat belgilangan. Muddat xalqaro amaliyotga mos keladi (garchi uning davomiyligi mamlakatga qarab farq qilsa ham), bu mazkur sharhning kirish qismida tasvirlangan

[133] 4-iqtibos, 212-bet.

[134] 2-bob, Kirish (14–15-betlar) va 19-modda (17-bet)dagi xalqaro sharhlarga qarang.

[135] Kirish qismining 6-betiga qarang.

«samaradorlik tamoyili»ni aks ettiradi.[136] Bu samaradorlik to‘lovga qobiliyatsizlik tizimiga ishonchni saqlab qolish uchun muhimdir.

96-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 96-modda kreditorlar qo‘mitasi yoki kreditorlar yig‘ilishida qaror qabul qilishni nazarda tutadi. Bunday qarorlarga oid xalqaro amaliyot kreditorlar yig‘ilishlari va kreditorlar qo‘mitalarining ahamiyati haqidagi 2-bobda[137] berilgan.

96-moddaning beshinchi qismida va undan keyingi qismlarda shartnomalarni ko‘rib chiqish To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunda yirik bitimlar va «*ipso facto»* bandlari deb ataladigan muhim yondashuv masalalari qanday hal qilinishini aks ettiradi. «*ipso facto»* band – qarzdor bilan tuzilgan shartnomani garchi u tomonidan hech qanday majburiyat buzilmagan bo‘lsa ham, bankrotlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilgan paytda uning kontragenti tomonidan shartnomani bekor qilish yoki uning bajarilishini to‘xtatib turish huquqiga ega ekanligini belgilovchi band. Xalqaro yondashuv va amaliyot nuqtayi nazaridan, qiymatni himoya qilish va maksimal darajada oshirish muhim tamoyil hisoblanadi.[138] Ushbu tamoyil sanatsiya tartib-taomili amalga oshirilayotgan paytda yirik bitimlar uchun taalluqlidir.

96-moddaning beshinchi qismidagi salmoqli aktivlar va bitimlar bilan bog‘liq kelishuvlarga qo‘yilgan cheklovlar va kreditorlarning roziligi talabi sud sanatsiya tartib-taomilini himoya qilishga xizmat qiladi va bunday masalalarni hal qilishda xalqaro amaliyotga mos keladi.

96-moddaning shartnomalar va bitimlarga oid oltinchi – o‘ninchi qismlariga kelsak, XVJ qo‘llanmasida quyidagilar qayd etilgan:

Shartnoma shartlariga aralashish vakolatining kengligi bilan bog‘liq yondashuv tanlovlari sanatsiya tartib-taomillari kontekstida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Shartnomalarni davom ettirish yoki bekor qilish bo‘yicha keng vakolatlar sanatsiya imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi.[139]

UNCITRAL qo‘llanmasi xalqaro amaliyotlarni quyidagicha ifodalaydi:

Qayta tashkil etishda sud jarayonining maqsadi qarzdor faoliyatining saqlanib qolishi va iloji boricha o‘z ishlarini davom ettirishiga imkon berish bo‘lgan hollarda qarzdorning biznesi uchun foydali yoki muhim bo‘lgan va mulkka qiymat qo‘shadigan shartnomalarning davom etishi sud jarayonining muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Bularga zarur tovarlar va xizmatlarni yetkazib berish shartnomalari yoki biznesning davom etishi uchun muhim bo‘lgan mulkdan, shu jumladan, uchinchi shaxslarga tegishli mulkdan foydalanishga oid shartnomalar kirishi mumkin.[140]

---

[136] Kirish qismining 6-betiga qarang.

[137] 2-bob, Kirish (14–15-betlar) va 19-modda (17-bet)dagi xalqaro sharhlarga qarang.

[138] 8-bob, 36–40-betlardagi «qiymat» tushunchasi atrofidagi muhokamaga qarang.

[139] 6-iqtibos, 72-bet.

[140] 4-iqtibos, 121-bet.

Xususan, XVJ qo‘llanmasi ogohlantiradi:

Xususan, agar biror mamlakat sanatsiya boshlanganidan keyin shartnomani bekor qilish bandlarini bekor qilishni nazarda tutmasa, agar ko‘rib chiqilayotgan shartnomalar, masalan, ijara shartnomalari juda salmoqli bo‘lsa, korxona uchun sanatsiya qiyinroq bo‘ladi.[141]

Masala qarzdor shartnomalarida «*ipso facto»* bandlari mavjud bo‘lgan holatlarda yanada murakkablashadi. Agar sanatsiya tartib-taomili boshlangan bo‘lsa, bu bandlar bunday shartnomani bekor qilishga imkon beradi, hatto boshqa hech qanday majburiyat buzilmagan bo‘lsa ham. Murakkabligi shundaki, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunlarda raqobatlashuvchi masalalarda muvozanat ta’minlanishi lozim – masalan, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun shartnomaning asl shartlariga rioya qilishga imkoniyat berishi kerakmi yoki ushbu bandning amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilish orqali sanatsiya tartib-taomilini himoya qilishi kerakmi? Ushbu ikkinchi yondashuvni qo‘llashning sabablari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: «*biznesni sotish qiymatini maksimallashtirish yoki daromad olishni oshirish uchun uni saqlash zarurati; shartnoma qiymatini kontragentga berish o‘rniga barcha kreditorlar manfaati uchun qo‘lga kiritish; biznesni yakuniy sotishga barcha taraflarni jalb qilishning maqsadga muvofiqligi»*.[142]

O‘zbekiston parlamenti tomonidan To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunni qabul qilishda ushbu masala bo‘yicha qabul qilingan tanlov 96-moddada aks ettirilgan bo‘lib, unda *ipso facto* bandlari «*haqiqiy emas, mazkur qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno»* deb belgilangan. Ya’ni ko‘rsatilgan istisnolardan tashqari na qarzdor, na kontragent qarzdor tomonidan tuzilgan shartnomalarni bekor qilish uchun bunday bandlarga tayanishi mumkin.

96-moddaning sakkizinchi va to‘qqizinchi qismlari shartnoma qarzdor uchun og‘ir bo‘lgan holatlarni ko‘rib chiqadi. UNCITRAL qo‘llanmasida quyidagilar qayd etilgan:

Xuddi shunday, [sanatsiya] muvaffaqiyatining istiqbollari to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilga og‘ir shartnomalarni, masalan, bajarish qiymati olinadigan foydadan yuqori bo‘lgan shartnomalarni yoki, masalan, muddati tugamagan ijara shartnomasining bahosi bozor bahosidan oshib ketadigan shartnomalarni rad etishga ruxsat berish orqali oshirilishi mumkin.[143]

Xalqaro amaliyotda qarzdor bunday shartnomalarni bajarishdan bosh tortishi mumkin bo‘lgan holatlar aniq ko‘rsatiladi. O‘zbekiston parlamenti tomonidan ushbu masala bo‘yicha To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunni qabul qilishda qabul qilingan tanlov 96-moddaning beshinchi va oltinchi qismlarida aks ettirilgan bo‘lib, ushbu normalarda qonunda belgilangan aniq holatlarda shartnomani bekor qilish huquqi nazarda tutilgan.

[141] 6-iqtibos, 71-bet.
[142] 4-iqtibos, 123-bet.
[143] 4-iqtibos, 121-bet.

98-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 98-modda sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Xalqaro amaliyot va tartib-taomillar sanatsiya qiluvchi boshqaruvchini 9-bobga muvofiq sud sanatsiyasi jarayoni uchun muhim deb hisoblaydi. Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining vazifalari sud sanatsiyasi tartib-taomilining qonun talablariga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlash va mazkur bobning maqsadlariga erishishga qaratilgan.

98-moddaning birinchi qismi bilan sanatsiya qiluvchi boshqaruvchiga aniqlangan ma'lumotlarni kreditorlarga taqdim etish majburiyati ushbu sharhning kirish qismida «shaffoflik tamoyili» sarlavhasi ostida tasvirlangan shaffoflikning muhim siyosatini aks ettiradi.[144]

99-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 99-moddaning birinchi qismi bilan sanatsiya qiluvchi boshqaruvchiga kreditorlarga aniqlangan ma'lumotlarni taqdim etish majburiyati kirish qismida «shaffoflik tamoyili» sarlavhasi ostida tasvirlangan shaffoflikning muhim siyosatini aks ettiradi.[145]

100-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Xalqaro siyosat va amaliyot qarzdorning rahbariga, qarzdorning muassislariga (ta'rifiga ko'ra) yoki qarzdorning mol-mulki egasiga 100-moddaning birinchi qismida ko'zda tutilganidek, sud sanatsiya rejasini tayyorlash va taqdim etish imkonini berishda bir qancha afzalliklarni tan oladi. Ushbu shaxslar qarzdorning biznes faoliyatini hammadan yaxshiroq bilishadi. Shu bois sanatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarur chora-tadbirlar yuzasidan eng to'liq ma'lumot va amaliy tajribaga aynan ular ega bo'lishadi.

Bundan tashqari, XVJ qo'llanmasida ushbu yondashuv sanatsiya tartib-taomilidan foydalanishni rag'batlantirishi ta'kidlangan:

Agar qarzdorga [sanatsiya rejasini taqdim etish] imkoniyati berilmasa, u sanatsiya tartib-taomilidan foydalanish uchun kamroq rag'batga ega bo'ladi.[146]

Yana bir afzallik tadbirkorlar toifasini rivojlantirishning kengroq iqtisodiyot uchun qiymati bo'lib, tadbirkorlarga «ikkinchi imkoniyat» berilganda erishiladi:

Bundan tashqari, hech bo'lmaganda ba'zi mamlakatlar uchun sanatsiya tartib-taomilining maqsadlaridan biri tadbirkorlar toifasini rivojlantirish ekanligini hisobga olsak, qarzdorga reja tayyorlash imkoniyatidan mahrum qilish (bu ehtimol qarzdorning ma'lum bir kapitalni va/yoki boshqaruv rolini saqlab qolishini o'z ichiga oladi) bu maqsadga putur yetkazadi, chunki bu qarzdorga «ikkinchi imkoniyat»ga ega bo'lish imkoniyatini amalda rad etadi.[147]

---

[144] Kirish qismining 6-betiga qarang.

[145] Kirish qismining 6-betiga qarang.

[146] 6-iqtibos, 61-bet.

[147] 6-iqtibos, 61-bet.

Ushbu «ikkinchi imkoniyat» 9-bobda 100-moddaning birinchi qismida ko‘zda tutilganidek, reja tayyorlash va taqdim etishga ruxsat berilgan manfaatdor taraflar qatoriga biznes egalarini kiritish orqali osonlashtiriladi.

100-moddaning ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi, oltinchi, o‘ninchi, o‘n birinchi, o‘n sakkizinchi va yigirma ikkinchi qismlarida rejaga kiritilishi kerak bo‘lgan yoki kiritilishi mumkin bo‘lgan masalalar ko‘rsatilgan. Ushbu talab Kirish qismida ushbu sarlavha ostida keltirilgan muhim bashorat qilish tamoyiliga xizmat qiladi.[148]

100-moddaning to‘rtinchi qismi qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish imkoniyatini beradi, bu esa qarzni kapitalga aylantirishga ruxsat beruvchi xalqaro amaliyotga muvofiq qo‘shimcha talablar qo‘yilgan holda amalga oshiriladi. Qonunda ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan qo‘shimcha talablarni aniqlash uchun yagona xalqaro yondashuv mavjud emas. Shunga qaramay, bu yerda bo‘lgani kabi, yuqori foiz chegarasi bilan alohida aksiyadorlarning ovozini talab qilish odatiy holdir.

100-moddaning o‘ninchi qismida qo‘shimcha talablar qo‘yilgan holda qarzdorning qo‘shimcha emissiyaviy aksiyalarini chiqarish va joylashtirish, ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo‘shimcha ulush kiritish hamda kreditorlarning talablarini aksiyalarga ayirboshlash nazarda tutilishi mumkin. Bu xalqaro amaliyotga mos keladi, binobarin, qo‘shimcha talablarni aniqlashning yagona xalqaro yondashuvi mavjud emas.

Xuddi shunday, 100-moddaning o‘n birinchi qismi qarzdorning biznesini yoki uning mol-mulkining bir qismini qo‘shimcha talablar qo‘yilgan holda sotishga ruxsat beradi, bu esa xalqaro amaliyotga mos keladi.

100-moddaning yettinchi, sakkizinchi, to‘qqizinchi, o‘n ikkinchi, o‘n to‘rtinchi, o‘n oltinchi, o‘n to‘qqizinchi, yigirmanchi va yigirma birinchi qismlarida kreditorlarning taklif qilingan sud sanatsiya rejasini tasdiqlash yoki rad etish jarayonida ishtirok etish tartibi belgilangan. Xalqaro sharhning 2-bobida kreditorlarning to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonlarida o‘ynaydigan muhim roli muhokama qilinadi.

100-moddaning to‘qqizinchi qismida kreditorlarning belgilangan tartibda rejani tasdiqlash to‘g‘risidagi qarorni qabul qilmaslik oqibatlari ko‘rsatilgan. Natijada tugatish tartib-taomiliga o‘tish xalqaro amaliyotga mos keladi.

100-moddaning o‘n uchinchi qismi Kirish qismida bayon etilgan juda muhim yaxlitlik tamoyili aks ettirilgan.[149] Suiiste’mol qilish holatlarida «*qonun sanatsiya jarayonini [boshqa jarayonga] o‘tkazish mexanizmini nazarda tutishi muhimdir*».[150]

100-moddaning o‘n to‘rtinchi qismiga kelsak, mazkur xalqaro sharhning 8-bobiga kirish qismiga havola qilinadi, unda sanatsiya va tugatish o‘rtasidagi tanlov muhokama qilinadi. U yerda aytib o‘tilganidek, agar vaziyat o‘zgarsa, ushbu tanlovni qayta ko‘rib chiqishga imkon berish muhimdir. 100-moddaning o‘n to‘rtinchi qismi aniqlangan holatlarda ushbu imkoniyatni beradi.

---

[148] Kirish qismining 6-betiga qarang.

[149] Kirishning 5-betiga qarang.

[150] 6-iqtibos, 59-bet.

100-moddaning o‘n yettinchi qismi Kirish qismida bayon etilgan muhim shaffoflik tamoyilini aks ettiradi.[151]

103-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Muddatidan oldin tugatish masalasida ushbu xalqaro sharhning 8-bob kirish qismiga murojaat qilinadi, unda sanatsiya va tugatish o‘rtasida zarur bo‘lgan tanlov muhokama qilinadi. U yerda aytib o‘tilganidek, agar vaziyat o‘zgarsa, tanlovni qayta ko‘rib chiqishga imkon berish muhimdir. 103-moddaning o‘n to‘rtinchi qismi muddatidan oldin tugatish uchun asoslar yuzaga kelgan hollarda shunday imkoniyatni beradi. Bu qiymatni saqlab qolish muhimligini ko‘rsatadi. Shuningdek, u moslashuvchanlik zarurligini ko‘rsatadi, bunda vaziyat o‘zgarishi tufayli boshqa to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni yuqori natija berishi mumkin.

104-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 104-moddaning birinchi qismidagi hujjatlashtirish va axborot talablari Kirish qismida muhokama qilingan shaffoflik tamoyilini aks ettiradi.[152]

104-moddaning to‘rtinchi qismi bo‘yicha xalqaro yondashuvlar mazkur sharhning 8-bobi kirish qismida bayon etilgan sanatsiya va tugatish o‘rtasidagi tanlov mezonlariga muvofiq baholanadi.[153] Agar ishning holatlari o‘zgarsa, tanlangan tartib-taomilni qayta ko‘rib chiqish imkoniyati saqlanib qoladi.

106-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 106-moddaning birinchi qismidagi hujjatlashtirish va axborot talablari Kirish qismida muhokama qilingan shaffoflik tamoyilini aks ettiradi.[154]

106-moddaning yakuniy qismi ham sanatsiya va tugatish o‘rtasida tanlovni qayta ko‘rib chiqish mumkinligiga asoslanadi. Bu xalqaro amaliyotda e’tirof etilgan moslashuvchanlik tamoyilining ifodasidir.[155]

107-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 107-moddada nazarda tutilgan yondashuv ham xalqaro amaliyotga mos bo‘lib, ishning holatlari o‘zgarganida tanlangan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilini qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini ta’minlaydi.[156]

---

[151] Kirishning 6-betiga qarang.
[152] Kirish qismining 6-betiga qarang.
[153] 8-bobning 40-betiga qarang.
[154] Kirish qismining 6-betiga qarang.
[155] 8-bobning 40-betiga qarang.
[156] 8-bobning 40-betiga qarang.

10-BOB
TASHQI BOSHQARUV TARTIB-TAOMILI

Kirish[157]

Xalqaro nuqtayi nazar – Butun dunyoda to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida odatda talab qilinadigan muhim masala jarayon tugatish yoki tiklash bilan yakunlanishi o‘rtasidagi tanlovdir. Ko‘p jarayonlarda tugatish eng maqbul tanlov bo‘ladi, chunki tiklashni amalga oshirib bo‘lmaydi. UNCITRAL ta’kidlaganidek, tiklash jarayonlarining mavjudligi «s*o‘nayotgan korxonalar uchun xavfsiz boshpana yaratishga olib kelmasligi kerak: favqulodda moliyaviy yordamdan foyda ko‘rmaydigan korxonalar iloji boricha tez va samarali ravishda tugatilishi lozim».*[158]

Biroq ko‘pincha tiklash imkoniyati mavjud bo‘ladi va tiklash va tugatish o‘rtasida qaror qabul qilish talab etiladi. Tiklash XVJ tomonidan quyidagicha tavsiflangan:

Tiklash tartib-taomillarining umumiy iqtisodiy maqsadi moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan korxonani iqtisodiyotda raqobatbardosh va samarali ishtirokchiga aylantirish imkonini berishdir, bu esa nafaqat korxona manfaatdor taraflarga (mulkdorlari, kreditorlari va xodimlari), balki umuman iqtisodiyotga ham foyda keltiradi. Tiklash tartib-taomili ushbu maqsadga erishish uchun barcha manfaatdor taraflar uchun tartib-taomillarda ishtirok etishga rag‘batlantirishi yoki zarur bo‘lganda ba’zi manfaatdor taraflarning uni buzishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Shunday qilib, masalan, tartib-taomillarning xususiyatlari qarzdorlarni moliyaviy qiyinchiliklarida tartib-taomillarni erta boshlashga undash uchun yetarlicha jozibador bo‘lishi kerak va shu bilan tiklash imkoniyatini oshiradi. Boshqa tomondan, tiklash tartib-taomili kreditorlarga yetarli darajada himoyani ta’minlashi kerak, shunda ular shunchaki tugatishni kechiktirish uchun vosita sifatida foydalanilmasligiga ishonch hosil qilishlari kerak, chunki bu vaqt ichida ularning talablari qondirilish darajasi pasayadi.[159]

UNCITRAL tiklash maqsadini yanada aniqroq ifodalaydi:

Qayta tiklashning maqsadi kreditorlar uchun kelajakda talablarining qondirilishini maksimal darajada oshirishdir, qarzdorni tugatishga qaraganda yaxshiroq natija berish va xodimlar uchun ish o‘rinlarini va yetkazib beruvchilar uchun savdoni saqlab qolish vositasi sifatida istiqbolli biznesni saqlab qolishdir.[160]

---

[157] Ushbu kirish 9-bobning kirish qismi bilan bir xil. Sababi, 9-bob va mazkur 10-bob ikkalasi ham tiklash tartib-taomillarini o‘z ichiga oladi, shuning uchun tiklash tartib-taomillari bo‘yicha kirish xalqaro sharhi ikkala bob uchun ham bir xildir.

[158] 4-iqtibos, 15–16-betlar.

[159] 6-iqtibos, 52-bet.

[160] 4-iqtibos, 209-bet.

Tugatish va tiklash o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunda ham dolzarb bo‘lib, ko‘pincha ikkalasi o‘rtasida tanlov sifatida ko‘rib chiqiladi. Xalqaro amaliyot nuqtayi nazaridan, bu o‘zaro bog‘liqlik haqida uchta asosiy mulohazani aytish mumkin.

Birinchidan, ikkalasi o‘rtasidagi farq noaniqlikka sabab bo‘lishi mumkin, chunki ikkala jarayonda ham o‘xshash natijalarga erishish mumkin:

Ushbu tartib-taomillar hal qilishi kerak bo‘lgan asosiy masalalarga kelsak, ularda ham sezilarli darajada o‘xshashliklar mavjud. Bu (hech bo‘lmaganda qisman) «tugatish» va «tiklash» o‘rtasidagi farq biroz noaniqligi bilan bog‘liq. Korxonaning faoliyat yuritayotgan korxona sifatida sotilishini qanday tasniflash mumkin? Bir nuqtayi nazardan, bunga tiklash sifatida qarash mumkin, chunki korxona o‘z faoliyatini davom ettiradi va ish bilan ta’minlanganlik saqlanib qoladi. Boshqa nuqtayi nazardan, buni qarzdorning aktivlarini tugatish sifatida ko‘rish mumkin, chunki korxonaga egalik qiluvchi kompaniya tugatilgan va korxona (iqtisodiy birlik sifatida) endi yangi mulkchilik ostida. Agar, ko‘p hollarda bo‘lgani kabi, korxonani faoliyat yuritayotgan korxona sifatida sotish tugatish jarayonining mumkin bo‘lgan natijasi deb hisoblansa, korxonaning faoliyatini davom ettirish tiklash jarayonidagi kabi muhim bo‘lib qoladi, shuning uchun kreditorlarning harakatlarini to‘xtatib turish va shartnomalarni ko‘rib chiqish bo‘yicha shunga o‘xshash himoya choralari talab qilinishi mumkin.[161]

Ikkinchidan, ba’zida shunga o‘xshash natijalarga erishish qobiliyatiga qaramay, aynan tanlangan jarayon qoidalari qo‘llaniladi.

Uchinchidan, ikkita tartib-taomil o‘rtasidagi o‘xshashlik va «qiymat», uni saqlash va maksimal darajada oshirishga qaratilgan umumiy e’tibor tufayli, odatda, qarzdorga foyda keltiradigan bir nechta himoya vositalari mavjud bo‘lib, ular ham tugatish, ham tiklash uchun umumiydir.

10-bob aniqlangan manfaatdor taraflarga qarzdor uchun tashqi boshqaruv tartib-taomilini boshlash uchun sudga murojaat qilish imkonini beradi. Arizani topshirish to‘g‘risidagi qarorni va tegishli hollarda sud 10-bobga muvofiq tashqi boshqaruv, 9-bobga asosan sud sanatsiyasi yoki 11-bobga ko‘ra tugatishni joriy etish to‘g‘risidagi ajrimni qabul qilish maqsadga muvofiqligi bo‘yicha bir nechta mulohazalar mavjud. Ushbu mulohazalarning asosiy qismi «qiymat» tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, tashqi boshqaruv tartib-taomili tugatishga nisbatan qiymatni saqlash va uni yanada oshirishga qay darajada xizmat qilishi mumkinligiga qaratilgan. Bu nuqtayi nazardan, qiymat murakkab tushunchadir. Xalqaro amaliyot konsepsiyaning ko‘plab jihatlarini aniqlagan. Bular 8-bobning kirish qismida aniqlangan va muhokama qilingan.[162]

[161] 6-iqtibos, 17-bet.

[162] 8-bobning 36–40-betlarga qarang.

Moddalar bo‘yicha sharh

108-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Mazkur bobning kirish qismida ko‘rsatilganidek, xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, «*favqulodda moliyaviy yordam orqali qutqarilmaydigan korxonalar iloji boricha tez va samarali ravishda tugatilishi lozim».*[163] Ushbu amaliyot 108-moddadagi talabga mos keladi, unda 10-bobdagi tashqi boshqaruv tartib-taomili faqat «*qarzdorni sanatsiya qilishning haqiqiy imkoniyati aniqlangan taqdirdagina»* amal qilishi ko‘zda tutilgan.

108-modda, shuningdek, jarayon yakunlanishi kerak bo‘lgan muddatlarni belgilab beradi. Vaqt chegaralarining mavjudligi ham xalqaro amaliyotga mos keladi, bu UNCITRAL qo‘llanmasida tushuntirilgan:

Qarzdorning biznes faoliyatiga ortiqcha xalaqit bermaslik va sud jarayoni xarajatlarini minimallashtirish maqsadida to‘lovga qobiliyatsizlik muammosi tartibli, tez va samarali tarzda ko‘rib chiqilishi va hal qilinishi kerak. O‘z vaqtida va samarali boshqaruvga erishish aktivlar qiymatini maksimal darajada oshirish maqsadini qo‘llab-quvvatlaydi...[164]

108-moddada belgilangan muddatlarga rioya qilmaslikning oqibatlaridan biri, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatishga o‘zgartirishdir. Bu holat xalqaro amaliyotga mos keladi, chunki u sanatsiyadan tugatishga va aksincha tugatishdan sanatsiyaga o‘tish imkoniyatini e’tiborga olishi to‘lovga qobiliyatsizlik tizimida moslashuvchanlikning muhim jihatidir.

109-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Xalqaro nuqtayi nazardan:

Sanatsiya jarayonlari boshlanganidan keyin qarzdor rahbariyatini korxonani boshqarishdan chetlatishga olib kelishi kerakligi borasida jiddiy munozaralar mavjud va mamlakatlarning bu masalani hal qilish usullari borasida bir xillik yo‘q.[165]

9-bobdagi sud sanatsiya qilish tartib-taomiliga ko‘ra, qarzdorning rahbariyati qarzdorning biznes faoliyati ustidan nazoratni aniqlangan cheklovlarga (9-bobning 96-moddasida belgilangan) rioya qilgan holda saqlab qoladi. Aksincha, 10-bobdagi tashqi boshqaruv tartib-taomili mavjud rahbariyatni almashtiradi va qarzdorni va uning biznesini boshqarish vakolatiga ega bo‘lgan mustaqil tashqi boshqaruvchini tayinlaydi. 9- va 10-boblardagi ushbu muqobil sanatsiya yo‘llarining mavjudligi moslashuvchanlikni ta’minlaydi, bu tanlangan tartib-taomil qarzdor va uning rahbariyatining o‘ziga xos holatlarini aks ettirish imkonini beradi.

109-modda kreditorlarning harakatlaridan maxsus himoyani ham ta’minlaydi. XVJ qo‘llanmasida ta’kidlanganidek:

---

[163] 4-iqtibos, 15–16-betlar.

[164] 4-iqtibos, 12-bet.

[165] 6-iqtibos, 57-bet.

Sanatsiya tartib-taomili doirasida to‘xtatib turishning mavjudligi juda muhim. Agar korxona kreditorlar tomonidan aktivlari musodara qilinishi orqali qismlarga bo‘linib ketayotgan bo‘lsa, uni sanatsiya qilib bo‘lmaydi.[166]

110-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 8-bobdagi 79-moddaga sharhda to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida kreditorlarning talablariga moratoriy joriy etishning xalqaro miqyosda tan olingan asoslari keltirilgan.[167] Sanatsiya jarayonining o‘ziga xos kontekstida ushbu asos batafsilroq tavsiflangan:

Qayta tiklash jarayonida to‘xtatib turishni qo‘llash biznesning davom etishini osonlashtiradi va qarzdorga o‘z ishlarini tartibga solish uchun qarzdorga moliyaviy ahvolini tiklash uchun zarur vaqt beradi, qayta tashkil etish rejasini tayyorlash va tasdiqlash hamda tegishli bo‘lganda zararli faoliyat va muammoli shartnomalarni bekor qilish kabi boshqa choralar uchun vaqt beradi. Tugatishda bo‘lgani kabi, bu qarzdorga qarshi qo‘zg‘atilgan da’volarni ko‘rib chiqish imkoniyatini ham beradi.[168]

110-moddaning oxirgi qismi moratoriy va ta’minlangan kreditorning talablari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirga bag‘ishlangan. Bu muhim o‘zaro ta’sir bo‘lib, mazkur xalqaro sharhning kirish qismida muhokama qilingan.[169]

113-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Tashqi boshqaruvchini o‘z vazifalarini bajarishdan ozod qilish uchun bir nechta asoslar yaxlitlik tamoyilining jihatlariga taalluqlidir. Bu jihatlar Kirish qismida «ishtirokchilarning yaxlitligi»[170] va «xolislik tamoyili» deb ataladi.[171]

114- va 115-moddalar

Xalqaro nuqtayi nazar – Tashqi boshqaruv tartib-taomilining asosiy ishtirokchisi tashqi boshqaruvchi hisoblanadi. Ushbu muhim rolni bajarish uchun tashqi boshqaruvchiga 114- va 115-moddalarda ko‘rsatilgan huquqlar, vakolatlar va majburiyatlar belgilangan.

115-moddadagi hisobot talablari – xususan, kreditorlarga ma’lumot berish va rejaning amalga oshirilishi jarayoni haqida hisobot berish majburiyati – ikkalasi ham ushbu sharhning kirish qismida belgilangan shaffoflik tamoyilini aks ettiradi.[172]

Bundan tashqari, 115-moddaga muvofiq kreditorlarga tashqi boshqaruv rejasini ishlab chiqish va taqdim etish hamda kreditorlar yig‘ilishida tasdiqlashni olish majbu-

---

[166] 6-iqtibos, 56-bet.
[167] 79-moddaga, 41-betdagi sharhga qarang.
[168] 4-iqtibos, 84-bet.
[169] Kirish, 7–9-betlar.
[170] Kirish, 5-bet.
[171] Kirish, 7-bet.
[172] Kirish, 6-bet.

riyati, xalqaro amaliyotga muvofiq kreditorlarning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishda ishtirok etishining muhimligini ta’kidlaydi.

118-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 118-moddaning ikkinchi qismida talab qilinadigan rozilik kreditorlarning muhim rol o‘ynashidan[173] dalolat beradi, bu tushuncha mazkur xalqaro sharhning 2-bobida batafsilroq muhokama qilinadi.

119-modda

Xalqaro nuqtayi nazar[174] – 119-moddada shartnomalarga munosabat va «*ipso facto*» bandlari masalalari To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunda qanday ko‘rib chiqilganligini aks ettiradi. Xalqaro amaliyot nuqtayi nazaridan, qiymatni himoya qilish va maksimal darajada oshirish muhim tamoyil bo‘lib[175], u sanatsiya jarayonidagi yirik shartnomalarga tegishli. XVJ qo‘llanmasida quyidagilar qayd etilgan:

Shartnoma shartlariga aralashish vakolatining kengligi bilan bog‘liq tanlov sanatsiya tartib-taomillari kontekstida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Shartnomalarni davom ettirish yoki bekor qilish bo‘yicha keng vakolatlar sanatsiya imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi.[176]

UNCITRAL qo‘llanmasida ushbu xalqaro mulohazalar batafsil bayon etilgan:

Qayta tashkil etishda sud jarayonining maqsadi qarzdor faoliyatining saqlanib qolishi va iloji boricha o‘z ishlarini davom ettirishiga imkon berish bo‘lgan hollarda qarzdorning biznesi uchun foydali yoki muhim bo‘lgan va mulkka qiymat qo‘shadigan shartnomalarning davom etishi sud jarayonining muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Bularga zarur tovarlar va xizmatlarni yetkazib berish shartnomalari yoki biznesning davom etishi uchun muhim bo‘lgan mulkdan, shu jumladan, uchinchi shaxslarga tegishli mulkdan foydalanishga oid shartnomalar kirishi mumkin.[177]

Aniqroq aytganda, XVJ qo‘llanmasi quyidagicha ogohlantiradi:

Xususan, agar biror mamlakat sanatsiya boshlanganidan keyin shartnomani bekor qilish bandlarini bekor qilishni nazarda tutmasa, ko‘rib chiqilayotgan shartnomalar, masalan, ijara shartnomalari juda muhim bo‘lsa, korxona uchun sanatsiya qiyinroq bo‘ladi.[178]

Masala qarzdor shartnomalarida «*ipso facto*» bandlari mavjud bo‘lgan holatlarda yanada murakkablashadi. Agar sanatsiya tartib-taomili boshlangan bo‘lsa, bu bandlar bunday shartnomani bekor qilishga imkon beradi, hatto boshqa hech qanday majbu-

---

[173] 2-bob, Kirish (14–15-betlar) va 19-modda (17-bet)dagi xalqaro sharhlarga qarang.

[174] Ushbu moddaga berilgan xalqaro sharh asosan 96-moddaga nisbatan bayon qilingan sharhning qismlariga o‘xshash, chunki qoidalar o‘xshash.

[175] 8-bob, 36–40-betlardagi «qiymat» tushunchasi atrofidagi muhokamaga qarang.

[176] 6-iqtibos, 72-bet.

[177] 4-iqtibos, 121-bet.

[178] 6-iqtibos, 71-bet.

riyat buzilmagan bo‘lsa ham. Murakkab holat paydo bo‘lishining sababi – to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunlar raqobatlashuvchi manfaatlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlashi kerak – masalan, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun shartnomaning asl shartlariga rioya qilishi kerakmi yoki ushbu bandning amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilish orqali sanatsiya tartib-taomilini himoya qilishi kerakmi? Ushbu ikkinchi yondashuvni qo‘llashning asoslari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: «*biznesni sotish qiymatini maksimallashtirish yoki daromad olishni oshirish uchun uni saqlash zarurati; shartnoma qiymatini kontragentga berish o‘rniga barcha kreditorlar manfaati uchun qo‘lga kiritish; biznesni yakuniy sotishga barcha taraflarni jalb qilishning maqsadga muvofiqligi».*[179]

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunni qabul qilishda parlament «*ipso facto»* bandlari bo‘yicha yondashuvni tanlashi kerak. O‘zbekiston misolida parlament 119-moddada aks ettirilgan yondashuvni tanlagan, unda «*ipso facto»* bandlari «*haqiqiy emas, ushbu qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno»* deb belgilangan. Ya’ni ko‘rsatilgan istisnolardan tashqari na qarzdor, na kontragent shartnomalar yoki boshqa bitimlarni to‘xtatib turish yoki bajarishni rad etish uchun bunday bandlarga tayanishi mumkin.

119-moddaning ikkinchi,uchinchi va to‘rtinchi qismlari shartnoma qarzdor uchun muammoli bo‘lgan vaziyatni ko‘rib chiqadi. UNCITRAL qo‘llanmasida quyidagilar qayd etilgan:

Xuddi shunday, [sanatsiya] muvaffaqiyatining istiqbollari to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilga muammoli shartnomalarni, masalan, bajarish qiymati olinadigan foydadan yuqori bo‘lgan shartnomalarni yoki, masalan, muddati tugamagan ijara shartnomasining bahosi bozor bahosidan oshib ketadigan shartnomalarni rad etishga ruxsat berish orqali oshirilishi mumkin.[180]

Xalqaro amaliyot tashqi boshqaruvchi bunday shartnomalarni qachon bekor qilishi mumkinligi holatlarini aniq ko‘rsatib beradi. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun ushbu amaliyotga 119-moddaning ikkinchi qismida tashqi boshqaruvchining bunday shartnomalarni bekor qilish asoslarini aniq belgilash orqali mazkur xalqaro yondashuvni amalga oshirgan.

120- va 121-moddalar

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu moddalar xalqaro amaliyotga muvofiq tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayonida muhim qarorlar ustidan kreditorlar nazoratining muhimligini isbotlaydi. Kreditorlar va kreditor qo‘mitalarining muhim roli haqidagi ma’lumot ushbu sharhning 2-bobida keltirilgan.[181]

[179] 4-iqtibos, 123-bet.
[180] 4-iqtibos, 121-bet.
[181] 2-bob, Kirish (14–15-betlar) va 19-modda (17-bet)dagi xalqaro sharhlarga qarang.

122-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu modda tashqi boshqaruv rejasini taklif qilish, tasdiqlash va mazmunini tartibga soladi. Bular muhim va mazkur masalalar bo‘yicha batafsil huquqiy qoidalarning belgilanishi xalqaro amaliyotga to‘liq mos keladi, xususan:

muddatlar

ovoz berish talablari (shu jumladan, norozi kreditorlar uchun himoya choralari)

rejaning mazmuni

Xalqaro amaliyotga muvofiq, ushbu modda tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayonida muhim qarorlar ustidan kreditorlar nazoratining ahamiyatini ta’kidlaydi. Ehtimol, hech bir qaror rejani tasdiqlashdan muhimroq bo‘lmasa kerak. Kreditorlar va kreditor qo‘mitalarining muhim roli haqidagi sharhlar mazkur xalqaro sharhning 2-bobida keltirilgan.[182]

123-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 123-modda tashqi boshqaruv tartib-taomillari oqilona tezkorlik bilan amalga oshirilishi kerakligi haqidagi xalqaro amaliyotga rioya qilgan holda ma’lum bir muddatni belgilaydi.

124-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – yuqoridagi 123-moddada ko‘rsatilganidek, xalqaro amaliyot tezkorlikka ustuvor ahamiyat beradi, shuningdek, moslashuvchanlik zarurligini tan oladi. Bu 124-moddaga mos keladi, unda belgilangan muddatlarni belgilangan asoslar bo‘yicha uzaytirishga ruxsat etiladi.

125-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Tiklash choralari doirasi «operatsion qayta tuzish» (masalan, biznesni moslashtirish va yaxshilash) va «balans tarkibini qayta tuzish» (masalan, qayta kapitalizatsiya) elementlarini birlashtiradi.

Belgilangan qo‘shimcha talablarga muvofiq qarzdorlikni aksiyaga ayirboshlash imkoniyatining kiritilishi xalqaro amaliyotga mos keladi, bu esa uni tiklashda qo‘llash imkonini beradi. Qo‘shimcha talablarni aniqlash uchun yagona xalqaro standart mavjud emas. Biroq, bu holatda bo‘lgani kabi, alohida aksiyadorlarning ko‘pchilik ovozi bilan tasdiqlashni talab qilish odatiy holdir.

Qo‘shimcha talablarni (130-moddada) ko‘rsatib, kapitalizatsiya imkoniyatini kiritish, tiklash jarayonida ushbu imkoniyatga ruxsat berish xalqaro amaliyotiga mos keladi. Taklif qilinayotgan kapitalizatsiya uchun qo‘shimcha talablarni aniqlash bo‘yicha yagona xalqaro yondashuv mavjud emas.

Xuddi shunday tarzda, qarzdorning biznesini yoki mulkining bir qismini sotish imkoniyatini qo‘shimcha talablar (126- va 127-moddalarda) bilan birga belgilash, tiklash paytida ushbu imkoniyatlarga ruxsat berish xalqaro amaliyotiga mos keladi.

---

[182] 2-bob, Kirish (14–15-betlar) va 19-modda (17-bet)dagi xalqaro sharhlarga qarang.

126- va 127-moddalar

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu ikki modda qarzdorning biznesi va aktivlarini to‘liq yoki qisman sotishni tartibga soladi. Xalqaro nuqtayi nazardan, quyidagi mulohazalar taklif etiladi:

Ushbu moddalar sanatsiya jarayonida muhim qarorlar ustidan kreditorlar nazoratining muhimligini ta’kidlash orqali xalqaro amaliyotga moslashtirish. Kreditorlar va kreditor qo‘mitalarining muhim roli haqida qo‘shimcha muhokama mazkur xalqaro sharhning 2-bobida keltirilgan.[183]

126-moddaning yigirma ikkinchi qismida xalqaro amaliyotga muvofiq, muayyan holatlarda tiklash jarayonini tugatish jarayoniga o‘tkazish tasvirlangan. 12-bobda belgilanganidek, kelishuv bitimi tuzishni rag‘batlantirish, konsensual kelishuv orqali yakuniylikka erishishning xalqaro amaliyotini ilgari suradi.

126-moddaning o‘n ikkinchi qismidagi mustaqillik talabi[184] mazkur xalqaro sharhning kirish qismida bayon etilgan xolislik va yaxlitlik tamoyillarini aks ettiradi.[185]

130-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Xalqaro amaliyot qarzdorni qayta kapitalizatsiya qilishni mumkin bo‘lgan yechim sifatida emas, qayta kapitalizatsiyani sog‘lomlashtirishning mumkin bo‘lgan usuli sifatida tan oladi. Bunga erishishning universal yondashuvi mavjud bo‘lmasa-da, xalqaro amaliyot qayta kapitalizatsiyaga erishish mumkin bo‘lgan shartlar va holatlar, shuningdek, uning qarzdor va mavjud aksiyadorlar uchun majburiy bo‘lgan holatlar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun doirasida aniqlanadi. 130-moddada To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunga muvofiq ushbu aniq shartlar va holatlar belgilangan.

131-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Xalqaro amaliyot kapitalni tarkibiy jihatdan o‘zgartirishni sog‘lomlashtirishning asosiy vositasi sifatida tan oladi. Bunga erishish uchun universal amaliyot mavjud bo‘lmasa-da, xalqaro amaliyot kapitalni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan shartlar va holatlarni hamda u qarzdor, kreditorlar va mavjud aksiyadorlar uchun to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunga muvofiq qachon majburiy ekanligini aniqlashdan iborat. 131-moddada qarzdorning aktivlari o‘rnini almashtirish, ya’ni qarzdorning mol-mulki asosida bitta yoki bir nechta aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish orqali amalga oshirilishi belgilangan.

---

[183] 2-bob, Kirish (14–15-betlar) va 19-modda (17-bet)dagi xalqaro sharhlarga qarang.

[184] Kirish, 7-bet.

[185] Kirish, 5-bet.

132-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu modda tashqi boshqaruvchidan hisobot berishni talab qilish va kiritilishi kerak bo‘lgan tafsilotlarni ko‘rsatish orqali xalqaro miqyosda tan olingan shaffoflik tamoyilini aks ettiradi.[186]

Moddada, shuningdek, zarur hollarda tiklash tartib-taomilini tugatish jarayoniga o‘tkazish imkoniyati ham berilgan. Xalqaro amaliyotga ko‘ra, vaziyat o‘zgarganda tiklash tartib-taomili va tugatish jarayoni o‘rtasida o‘tish imkoniyati mavjudligi muhim hisoblanadi.

Tashqi boshqaruv jarayonini tugatishga o‘tkazish kreditorlar uchun mavjud bo‘lgan yagona tanlov emas. Tashqi boshqaruv jarayonining natijasini aniqlashdagi moslashuvchanlik xalqaro amaliyotga mos keladi, bu odatda vaziyat o‘zgarganda yoki o‘tish yaxshiroq natija beradigan hollarda bir jarayondan ikkinchisiga o‘tishda ma’lum darajada moslashuvchanlikni saqlab qoladi. Bu moslashuvchanlik samaradorlik tamoyilining muhim jihati hisoblanadi.[187] Ushbu tamoyilga rioya qilish ushbu qarorlar bo‘yicha erta qaror qabul qilishni va ularni tezkor ravishda amalga oshirishni talab qiladi. Biroq samaradorlik qo‘shimcha ma’lumotlar mavjud bo‘lganda yoki vaziyat o‘zgarganda (masalan, va’da qilingan kapital amalga oshmaganda yoki yirik shartnomalar bekor qilinganda) qaror keyinchalik noto‘g‘ri bo‘lib chiqishi xavfini tug‘diradi. Ushbu ichki xavfdan himoya qilish, agar kerak bo‘lsa, boshqa jarayonga o‘tishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan moslashuvchanlikdir.

133-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 133-moddada ko‘rsatilgan qisqa muddatlar samaradorlik tamoyilini aks ettiradi.

134-, 135-, 136-, 137-, 138- va 139-moddalar

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu moddalar 133-moddada ko‘rsatilgan kreditorlar yig‘ilishidan so‘ng sud tomonidan qabul qilinadigan qarorni, shuningdek, qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni uchun sud qarorining oqibatlarini ko‘rib chiqadi. Ushbu moddalar qarordan kelib chiqadigan mumkin bo‘lgan natijalarni aniq ko‘rsatib beradi, shuning uchun bashorat qilish tamoyilini qo‘llab-quvvatlaydi.[188]

[186] Kirish, 6-bet.
[187] Kirish qismining 6-betiga qarang.
[188] Kirish qismining 6-betiga qarang.

11-BOB
TUGATISHGA DOIR ISH YURITISH TARTIB-TAOMILI

Kirish

Xalqaro nuqtayi nazar – XVJ qo‘llanmasiga ko‘ra, tugatish to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining eng keng tarqalgan shakli sifatida tan olingan. U qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligini «*iqtisodiy jihatdan oqilona tiklanish imkoniyati bo‘lmaganda»* hal qilish uchun mavjuddir.[189] XVJ bu jarayonni quyidagicha ta’riflaydi:

[...] kreditorlar o‘rtasida teng munosabatga erishishga va kreditorlarga taqsimlanadigan aktivlarni maksimal darajada oshirishga qaratilgan jamoaviy jarayon. Bunga odatda kreditorlarning qarzdorga nisbatan o‘z huquqlarini himoya qilish qobiliyatini to‘xtatib turish va asosiy vazifasi kreditorlarga taqsimlashdan oldin qarzdorning aktivlari qiymatini maksimal darajada oshirishdan iborat bo‘lgan mustaqil tugatish boshqaruvchisini tayinlash orqali erishiladi.[190]

Xalqaro amaliyotda tugatish uchta asosiy maqsadga xizmat qiladi[191] – birinchidan, qarzdorning aktivlari qiymatini maksimal darajada oshirish; ikkinchidan, o‘xshash holatdagi kreditorlarga teng munosabatda bo‘lishni ta’minlash; uchinchidan, investitsiya qarorlarini qabul qilishni osonlashtiradigan mexanizmni taqdim etish (kreditorlarga o‘z huquqlarini amalga oshirish va ushbu ijro natijalarini baholash imkonini berish orqali). Ushbu uchinchi maqsadga nisbatan UNCITRAL qo‘llanmasida quyidagilar qayd etilgan:

Kreditorlarning jamoaviy huquqlarini amalga oshirishning tartibli va nisbatan oldindan aytib bo‘ladigan mexanizmi kreditorlarga kredit berish to‘g‘risida qaror qabul qilish paytida bashorat qilinadigan huquqiy mexanizmni taqdim etishi, umuman olganda, kredit berish va moliya bozorlarini rivojlantirishni osonlashtirish orqali iqtisodiyotdagi barcha ishtirokchilarning manfaatlarini ilgari surishi mumkin.[192]

Ba’zi sharhlovchilar iqtisodiy jihatdan tugatish uchun yana bir asosni keltiradilar:

Umuman olganda, bozor iqtisodiyotida raqobatlasha olmaydigan tijorat biznesini bozordan olib tashlash kerak degan fikrni keltirish mumkin.[193]

Ushbu fikr, shuningdek, kapitalni iqtisodiyotga tezda qaytarishning iqtisodiy foydalarini ta’kidlaydi.

Tugatish jarayonlari, shuningdek, iqtisodiy va ehtimol ijtimoiy tanglik xavfini kamaytirish orqali kredit bozorining to‘g‘ri ishlashi uchun muhim va xalqaro miqyosda tan olingan foyda keltiradi:

---

[189] 6-iqtibos, 18-bet.
[190] 6-iqtibos, 13-bet.
[191] 6-iqtibos, 18–19-betlar
[192] 4-iqtibos, 31-bet.
[193] 4-iqtibos, 31-bet.

Samarali to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonlari kreditorlarga ijro mexanizmlari ishlamay qolgan hollarda qarzlarni yakuniy undirish imkonini beradi va bu majburiyatlarini lozim darajada bajarmagan qarzdor uchun ma’lum bir kreditorga qarzni to‘lash uchun samarali rag‘bat bo‘lishi mumkin.[194]

Moddalar bo‘yicha sharh

140-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 140-modda tugatish jarayonining davomiyligiga 12 oylik cheklov qo‘yadi. Ushbu muddat xalqaro amaliyotga mos keladi, unda «*korxona faoliyat yuritishga yaroqsiz bo‘lgan hollarda, qonunning asosiy yo‘nalishi kreditorlar manfaati uchun undiruvlarni maksimal darajada oshirish uchun*[195] ***tez*** *va* ***samarali*** *tugatish bo‘lishi kerak»* deyilgan.

Muhimi, 140-modda sudga 12 oylik muddatni uzaytirishga imkon beradi. Bu, shuningdek, qarzdorlar bir xil emasligini tan oladigan xalqaro amaliyotga ham mos keladi. Masalan, yirik biznesga yoki sudda da’vo predmeti bo‘lgan aktivlarga ega qarzdor bo‘yicha tugatish jarayonida aktivlar qiymatini maksimal darajada saqlash va kreditorlar talablarining qondirilish darajasini oshirishga qaratilgan maqsadlarga erishish uchun qo‘shimcha vaqt talab qilinishi mumkin.[196]

140-moddaning beshinchi – yettinchi qismlarida shartnomalarni ko‘rib chiqish To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun yirik shartnomalar va «*ipso facto bandlari»* deb ataladigan muhim masalaga qanday munosabatda bo‘lishini aks ettiradi. Xalqaro nuqtayi nazardan, asosiy tamoyil qiymatni himoya qilish va maksimal darajada oshirishdir. Agar tugatish boshqaruvchisi qarzdorning biznesini davom ettirishni istasa – uni faoliyat yuritayotgan korxona sifatida sotishni yoki tartibli ravishda tugatishni istasa, bu tamoyil yirik shartnomalar uchun juda muhimdir. Qimmatli shartnomalarni saqlab qolish masalasi XVJ qo‘llanmasida quyidagicha tasvirlangan:

Ba’zi hollarda shartnomani davom ettirish mulk uchun uni bekor qilishdan ko‘ra foydaliroq bo‘ladi. Masalan, qarzdor ijara shartnomasi bo‘yicha ijarachi bo‘lishi, bunda ijara haqi bozor qiymatidan past bo‘lishi va ijara muddati hali ham katta bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda tugatuvchi qarzdorning biznesini ijara shartnomasi saqlanib qolgan holda faoliyat yuritayotgan korxona sifatida sotish[197] uchun ijara shartnomasini davom ettirishni xohlashi mumkin.

Masala qarzdor shartnomalarida «*ipso facto»* bandlari mavjud bo‘lgan holatlarda yanada murakkablashadi. Agar sanatsiya tartib-taomili boshlangan bo‘lsa, bu bandlar bunday shartnomani bekor qilishga imkon beradi, hatto boshqa hech qanday majburiyat buzilmagan bo‘lsa ham. Murakkablashuv paydo bo‘lishining sababi – to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunlar raqobatbardosh masalalarini muvozanatlashtirishi

[194] 4-iqtibos, 31-bet.

[195] 1-iqtibos, 7-bet (ta’kid qo‘shilgan).

[196] 8-bob, 36–40-betlardagi «qiymat» tushunchasi atrofidagi muhokamaga qarang.

[197] 6-iqtibos, 38–39-betlar.

kerak – masalan, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun shartnomaning dastlabki shartlarini saqlashi lozimmi yoki bunday bandlarning amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilish orqali tugatish jarayonini himoya qilishi kerakmi?

Ikkinchi yondashuvni qo‘llashning sabablari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: «*biznesni sotish qiymatini maksimallashtirish yoki daromad olishni oshirish uchun uni saqlash zarurati; shartnoma qiymatini kontragentga berish o‘rniga barcha kreditorlar manfaati uchun qo‘lga kiritish; biznesni yakuniy sotishga barcha taraflarni jalb qilishning maqsadga muvofiqligi*».[198]

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunni qabul qilishda parlament «*ipso facto*» bandlariga oid yondashuv tanlovini amalga oshirishi kerak. O‘zbekistonda parlament 140-moddaning oltinchi qismida aks ettirilgan yondashuvni tanladi, unda *ipso facto* bandlari «*haqiqiy emas, mazkur qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno*» deb belgilangan. Ya’ni ko‘rsatilgan istisnolardan tashqari kontragentlar qarzdor tomonidan tuzilgan shartnomalarni bekor qilish uchun bunday bandlarga tayanishga haqli emas.

Xalqaro amaliyot nuqtayi nazaridan, 140-moddaning yettinchi qismida sudga berilgan vakolat xalqaro sharhning kirish qismida muhokama qilingan[199] muhim «*adolatli munosabat tamoyili*»ni aks ettiradi.

141-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Qarzdorning aktivlarini saqlash va himoya qilish tugatish jarayonining xalqaro miqyosda tan olingan asosiy maqsadi hisoblanadi. Natijada, xalqaro nuqtayi nazardan, tugatish jarayoni boshlanganida quyidagilar yuzaga keladi:

Tugatish jarayoni boshlanganidan so‘ng to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun odatda qarzdorning aktivlari ustidan nazoratni mustaqil mansabdor shaxsga o‘tkazishni va aktivlar qarzdor, uning kreditorlarining harakatlaridan himoya qilinishini nazarda tutadi.

[…]

Mamlakatning huquqiy an’analaridan qat’i nazar, har qanday mamlakatning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonuni odatda ikkita masalani hal qilishi kerak bo‘ladi. Birinchidan, qarzdorning qaysi mol-mulki tugatuvchining nazorati ostiga o‘tadi va tugatish uchun mavjud bo‘ladi, ya’ni «mulk»ning aktivlari nimalardan iborat (huquqiy emas, balki funksional tushuncha sifatida)? Ikkinchidan, ushbu aktivlarni qarzdor va uning kreditorlari tomonidan ko‘riladigan harakatlardan himoya qilish uchun qanday choralar ko‘riladi?[200]

146-modda ushbu ikki masalaning birinchisini e’tirof etsa, 141-modda ikkinchi va unga bog‘liq masalalarni e’tirof etadi.

---

[198] 4-iqtibos, 123-bet.

[199] Xususan, Kirish qismida keltirilgan tegishli Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Xalqaro valyuta jamg‘armasi qo‘llanmalarida keltirilgan mulohazalar.

[200] 6-iqtibos, 25–26-betlar.

Xalqaro amaliyot 141-moddada belgilangan turli xil himoya maqsadlari uchun kontekst yaratadi. XVJ qo‘llanmasida quyidagilar qayd etilgan:

Samarali to‘lovga qobiliyatsizlik tizimining muhim maqsadi mulk aktivlarining qiymati turli manfaatdor taraflarning harakatlari bilan kamaymasligini ta’minlash uchun himoya mexanizmini yaratishdir. Mulk qarzdor va uning kreditorlaridan eng katta himoyaga muhtoj hisoblanadi. Birinchi holda qarzdor biznes faoliyati ustidan har qanday ta’sir yoki nazorat qilishdan chetlashtirilishi kerak, chunki tugatish jarayoni boshlanganidan so‘ng aktivlardan iqtisodiy manfaat olish huquqi amalda kreditorlar manfaatlarini ta’minlashga qaratiladi. Shuning uchun qarzdor tugatish jarayoni boshlanishidan oldin yoki keyin darhol qarzdor tugatish massasi tarkibiga kiruvchi aktivlarni boshqa shaxslarga o‘tkazmasligi, yashirmasligi yoki boshqacha tarzda chiqarib yubormasligini ta’minlash uchun himoya choralari ham zarur.

Kreditorlar mulkning kelajakdagi benefitsiarlari bo‘lsa-da, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunning asosiy tamoyillaridan biri shundaki, kreditorlarning jamoaviy va umumiy manfaatlarini ulardan birining individual harakatlaridan himoya qilish uchun ham choralar ko‘rish zarur. Odatda tugatish jarayoni boshlanganidan keyin kreditorlarning mulkka qarshi da’volarini «to‘xtatib turish» individual kreditorlarning manfaatlarini amalga oshirishga cheklovlar qo‘yish orqali kreditorlarning jamoaviy manfaatlarini kuchaytiradi. Biroq, keyingi bo‘limlarda muhokama qilinadiganidek, ushbu to‘xtatib turishning mohiyati va ko‘lami mamlakatlar orasida sezilarli darajada farq qiladi, bu o‘zgarish turli huquqiy an’analar va tanlovlarni aks ettiradi.[201]

Xalqaro valyuta jamg‘armasi qo‘llanmasida tugatish jarayonini qarzdorning va individual kreditorlarning harakatlaridan himoya qilish asoslari haqida batafsil ma’lumot berilgan.

Qarzdorning (va uning rahbariyati va aksiyadorlarining) harakatlaridan himoya qilish borasida XVJ quyidagi ko‘rsatmalarni taqdim etadi:

Tugatish jarayoni boshlangandan so‘ng mulkni saqlash uchun mulkni qarzdordan himoya qilish maqsadida keng qamrovli choralar ko‘rilishi talab qilinadi. Shu sababli qarzdor odatda biznesni boshqarish va yuritishning barcha huquqlaridan mahrum qilinadi va qarzdor voz kechgan barcha majburiyatlarni, jumladan, bankrotlik mulki nomidan da’vo qo‘zg‘atish va himoya qilish huquqini, shuningdek, qarzdorga yo‘naltirilayotgan barcha to‘lovlarni olish huquqini o‘z zimmasiga olish uchun tugatuvchi tayinlanadi. Dastlab tugatuvchi tugatish massasi tarkibiga kiruvchi aktivlarni inventarizatsiya qiladi va ularni muzlatib qo‘yishi (yoki «muhrlashi») mumkin. Sud jarayoni boshlanganidan so‘ng qarzdor tomonidan mulkka zarar yetkazadigan har qanday harakatlar odatda bekor qilinadi.[202]

Ta’minlanmagan kreditorlarning harakatlaridan himoya qilish borasida XVJ quyidagi ko‘rsatmalarni taqdim etadi:

[201] 6-iqtibos, 27-bet; shunga o‘xshash mulohazalarni ifodalash uchun 4-iqtibos, 83-betga ham qarang.
[202] 6-iqtibos, 28-bet.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunning asosiy maqsadlaridan biri kreditorlarning tugatish jarayoni davomida o‘z huquqlarini qonuniy choralar orqali amalga oshirish qobiliyatiga «to‘xtatib turish»ni joriy etishdir. Bunday to‘xtatib turish nafaqat tugatuvchiga tugatilayotgan aktivlarning qiymatini maksimal darajada oshirmaydigan qiymati pasaytirilgan shoshilinch sotuvni amalga oshirishning oldini olish uchun yetarli vaqt berish, balki tugatuvchiga korxonani faoliyat yuritayotgan korxona sifatida sotish imkoniyatini berish uchun ham zarur. Yuqoridagilarga qaramay, cheklanadigan huquqlar doirasi mamlakatlar o‘rtasida sezilarli darajada farq qiladi. Ta’minlanmagan kreditorlarning shartnomaviy talablarini bajarish vositasi sifatida aktivlarni musodara qilish qobiliyatini to‘xtatib turish zarurati va barcha kreditorlarga sud jarayoni boshlanishidan oldin yuzaga kelgan qarzlarni undirish uchun sud jarayonini boshlashga to‘sqinlik qilish zarurati haqida kam munozaralar mavjud.[203]

«To‘xtatib turish»ning asosliligi haqida qo‘shimcha tushuntirish UNCITRAL qo‘llanmasida keltirilgan bo‘lib, unda quyidagilar ko‘rsatilgan:

To‘xtatib turish to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilga tugatilayotgan aktivlarning qiymatini maksimal darajada oshirishga imkon bermaydigan majburiy sotishni amalga oshirishdan qochish uchun yetarli vaqt beradi, shuningdek, biznesni faoliyat yuritayotgan korxona sifatida sotish mumkinmi yoki yo‘qligini ko‘rish imkonini beradi, bunda aktivlarning umumiy qiymati aktivlar bo‘lak-bo‘lak sotilgandan ko‘ra ko‘proq bo‘lishi mumkin. To‘xtatib turish, shuningdek, to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilga qarzdorning ahvolini, shu jumladan, allaqachon boshlangan sud ishlari va huquqiy harakatlarni tahlil qilish imkonini beradi va barcha harakatlarni to‘liq ko‘rib chiqish uchun vaqt taqdim etadi, bu esa qarzdor va kreditorlarning manfaatlariga zarar yetkazmaydigan natijaga erishish imkoniyatini oshiradi.[204]

141-moddaning ikkinchi qismi ta’minlangan kreditorlarning huquqiy maqomini belgilaydi. Mazkur masala yuzasidan xalqaro huquqiy yondashuv ushbu bobning kirish qismida batafsil yoritilgan.[205]

144-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 144-modda tugatish boshqaruvchisining huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Xalqaro amaliyot tugatish boshqaruvchisini tugatish tartib- taomilining markaziy tarkibiy qismi sifatida ko‘radi, u qonunning quyidagi maqsadlariga erishish uchun tugatish jarayonini qonunga muvofiq amalga oshirish imkonini beruvchi vakolat va majburiyatlarga ega:

Samarali to‘lovga qobiliyatsizlik tizimi, shuningdek, mol-mulk aktivlarining o‘z vaqtida, oldindan aytib bo‘ladigan va adolatli tarzda sotilishi va taqsimlanishini ta’minlaydigan tartib-taomillarni ham ta’minlashi kerak. Bundan tashqari, tugatuvchi sotuv narxining maksimal darajada oshirilishini, ammo sotish va taqsimlash xarajatlari cheklanganligini ta’minlashga harakat qilishi kerak […]

---

[203] 6-iqtibos, 29-bet; shuningdek, 4-iqtibosga, 83-betga qarang.

[204] 4-iqtibos, 83–84-betlar.

[205] Kirish, 7–9-betlar.

Ko‘p jihatdan tugatish tartib-taomilining birinchi bosqichi tugatish massasiga kiruvchi aktivlarni aniqlash va yig‘ishdir. Aktivlar aniqlangandan so‘ng tugatuvchi tugatish massasining majburiyatlarini aniqlashi va tekshirishi lozim. So‘ngra u aktivlarni kreditorlar manfaatlarini hisobga olgan holda eng yuqori iqtisodiy samarani ta’minlaydigan shaffof tartib-taomil asosida realizatsiya qilishi kerak. Nihoyat u tushumni qonunda belgilangan ustuvorlik qoidalariga muvofiq taqsimlashi kerak.[206]

144-moddaning birinchi qismi qarzdorning ishlariga oid barcha boshqaruv vakolatlarini qarzdorning mavjud rahbariyatidan tugatish boshqaruvchisiga o‘tkazadi. Xalqaro amaliyot vakolatlarning ushbu o‘tkazilishi tugatish boshqaruvchisining tegishli tugatish maqsadida vakolatlarni amalga oshirish majburiyatiga bog‘liqligini tan oladi.

145-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 145-modda kreditorlar qo‘mitasining ishtirokini nazarda tutadi. Kreditorlar qo‘mitalari bo‘yicha xalqaro amaliyot mazkur xalqaro sharhning 2-bobida muhokama qilinadi.[207]

146-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu modda tugatish massasining aktivlarini aniqlashga qaratilgan. Bu 141-moddaga oid sharhda XVJ qo‘llanmasida keltirilgan ikkita asosiy masalaning birinchisidir.

Xalqaro amaliyotga muvofiq, mulk ushbu moddada keng ta’riflangan bo‘lib, uning ma’nosini talqin qilish O‘zbekiston qonunchiligiga bog‘liq.

147-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 147-modda kreditorlar qo‘mitasining ishtiroki to‘g‘risidagi qoidani o‘z ichiga oladi. Kreditorlar qo‘mitalariga oid xalqaro amaliyot mazkur xalqaro sharhning 2-bobida[208] muhokama qilinadi.

149-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 149-modda ta’minlangan kreditorlar va tugatish jarayoni o‘rtasidagi munosabatlarga bag‘ishlangan. Ushbu munosabatlar xalqaro miqyosda qanday hal qilinishiga oid ko‘plab amaliyot materiallari mavjud. Muammoga yondashuvlar har bir mamlakatda turlicha bo‘lsa-da, ta’minlangan kreditor va qarzdorning manfaatlarini muvozanatlash uchun bir qancha xalqaro miqyosda tan olingan tamoyillar va mulohazalar taalluqlidir. Ushbu mavzu 2-bobda[209] batafsilroq muhokama qilinadi.

---

[206] 6-iqtibos, 44-bet.

[207] 2-bob, kirish (14–15-betlar) va 19-modda (17-bet)dagi xalqaro sharhlarga qarang.

[208] Xalqaro sharh, 2-bob, kirish (14–15-betlar) va 19-modda (17-bet)ga qarang.

[209] Xalqaro sharh, 2-bob, kirish (14–15-betlar) va 19-modda (17-bet)ga qarang.

150-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 150-moddada belgilangan taqsimot ustuvorliklari xalqaro amaliyotga mos keladi. Ustuvorliklar[210] butun dunyo bo‘ylab to‘lovga qobiliyatsizlik qonunlarining asosi bo‘lgan adolatli munosabat tamoyilini mustahkamlaydi:

Barcha to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunlar mulkdan tushgan mablag‘larni taqsimlash ustuvorligini aniqlash maqsadida kreditorlarni navbatlar bo‘yicha tasniflash tamoyilini o‘z ichiga olishi kerak. Bunday tasniflash o‘z-o‘zidan adolatli munosabat tamoyiliga zid emas. Aksincha, turli kreditorlar qarzdor bilan tubdan farqli tijorat bitimlarini tuzganligi sababli, kreditorlarni tasniflash aslida adolat masalasi sifatida talab qilinishi mumkin. Darhaqiqat, ustuvorlik tizimi kredit berishni osonlashtirish uchun muhim vosita bo‘lishi mumkin. Eng muhimi, agar ta’minlangan kreditorga taqsimlash paytida ustuvor huquq berilsa (yoki garovni sotishdan tushgan mablag‘ni to‘g‘ridan to‘g‘ri olsa), bu ta’minlangan kredit berishni osonlashtiradi.[211]

150-moddaning birinchi qismida aniqlangan xarajatlarga ustuvorlik berilganligi ham xalqaro amaliyotga mos keladi. XVJ bunday xarajatlarga ustuvorlik berish uchun quyidagi asoslarni keltiradi:

Ustuvorlik berishning yana bir maqbul asosi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishning o‘zi bilan bog‘liq. Xususan, mutaxassislarni aynan tugatuvchi uchun to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish tartibli va samarali bo‘lishini ta’minlash uchun zarur xizmatlarni ko‘rsatishga rag‘batlantirish maqsadida to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun odatda ushbu mutaxassislarga tugatishdan tushgan mablag‘lardan ustuvorlik asosida kompensatsiya olishni nazarda tutishi kerak. Xuddi shu tamoyilni qo‘llagan holda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish boshlanganidan keyin moliyalashtirishni jalb qilish uchun joriy kreditorlarga ham ustuvorlik berilishi kerak. Ushbu kafolatni taqdim etish odatda sanatsiya jarayoni kontekstida zarur deb hisoblansa-da, bu tugatish jarayoni kontekstida ham muhim bo‘lishi mumkin, ayniqsa tugatuvchi mulkning qiymatini korxona faoliyatini vaqtincha davom ettirish orqali maksimal darajada oshirish mumkin deb hisoblagan hollarda (masalan, agar u korxonani faoliyat yuritayotgan korxona sifatida sotishga urinayotgan bo‘lsa).

[…]

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, bunday xarajatlar uchun ustuvorlik, agar bunday imtiyozli munosabat bo‘lmasa, tugatish jarayoni uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ham insoniy, ham moliyaviy resurslarni jalb qila olmasligi bilan oqlanadi.[212]

Aniqlab o‘tilgan xarajatlar uchun ustuvorlik berilgandan so‘ng 150-modda boshqa talablarni qondirish ketma-ketligini belgilaydi. Xalqaro miqyosda qaysi taraflar ustuvorlikka ega bo‘lishi yoki taqsimlashning aniq tartibi borasida bir xillik yo‘q, ikkita mu-

[210] Ushbu tamoyil haqidagi muhokamani Kirish qismining 7-sahifasida ko‘ring.

[211] 6-iqtibos, 46–47-betlar.

[212] 6-iqtibos, 47-bet, 48-bet.

him istisno: xodimlarning talablari va soliq talablari.[213] Xodimlarning talablariga odatda ustuvorlik beriladi, garchi ustuvorlik berilgan talablarning mohiyati va hajmi xalqaro miqyosda har xil bo‘lsa ham. Soliq talablariga ham har doim bo‘lmasa-da, ko‘pincha ustuvorlik beriladi. Ham xodimlarning talablari, ham soliq talablari To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunning 150-moddasiga binoan ustuvorlikka ega bo‘ladi.

151-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Tugatish boshqaruvchisining asosiy vazifasi qarzdorning aktivlarini sotishdir. Bu 126-moddaga muvofiq biznesni sotishni yoki 127-moddaga muvofiq qarzdorning mulkining bir qismini sotishni o‘z ichiga olishi mumkinligi 151-moddada tan olinadi. Turli mexanizmlarning turli qoidalarga ega bo‘lishi xalqaro amaliyotga mos keladi:

Aktivlarni faoliyat yuritayotgan korxonaning bir qismi sifatida yoki biznes bo‘linmalarining bir qismi sifatida sotish ko‘pincha kreditorlar uchun alohida aktivlarni sotishga qaraganda ko‘proq iqtisodiy samara beradi. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun bu afzallikni qonunning o‘zida aks ettirishi mumkin bo‘lsa-da, bunga zarur bo‘lmasligi mumkin, chunki tugatuvchi taqsimlashdan tushadigan daromadni maksimal darajada oshiradigan yo‘ldan borishi taxmin qilinadi.[214]

151-moddadagi sotish jarayoni qoidalarining batafsil tavsifi ham xalqaro amaliyotga mos keladi. Bunga kreditorlar qo‘mitasi yoki kreditorlar yig‘ilishida qabul qilingan qarorlar kiradi. Kreditorlar tomonidan tasdiqlashga oid xalqaro amaliyot mazkur xalqaro sharhning 2-bobida muhokama qilinadi.[215]

152-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 152-modda kreditorlar qo‘mitasi yoki kreditorlar yig‘ilishida qaror qabul qilinishini nazarda tutadi. Bunday talablarga oid xalqaro amaliyotlar mazkur xalqaro sharhning 2-bobida muhokama qilinadi.[216]

153-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 153-modda kreditorlar yig‘ilishida qaror qabul qilinishini nazarda tutadi. Bunday talablarga oid xalqaro amaliyotlar mazkur xalqaro sharhning 2-bobida muhokama qilinadi.[217]

154-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Tugatishning asosiy jihati kreditorlarning talablarini baholash va to‘lashdir. 154-modda kechiktirilgan talablarni ko‘rib chiqish, bahsli ta-

[213] 6-iqtibos, 49-bet.
[214] 6-iqtibos, 46-bet.
[215] Xalqaro sharhning 2-bobi, kirish (14–15-betlar) va 19-modda (17-bet)ga qarang.
[216] Xalqaro sharhning 2-bobi, kirish (14–15-betlar) va 19-modda (17-bet)ga qarang.
[217] Xalqaro sharhning 2-bobi, kirish (14–15-betlar) va 19-modda (17-bet)ga qarang.

lablarni ko‘rib chiqish, qarzdorning aktivlari tugagandan so‘ng to‘lanmagan talablar qoldiqlarining holati, o‘zaro hisobga olish va boshqa muhim jihatlarni qamrab oladi. XVJ qo‘llanmasidan quyidagi sharh taalluqlidir:

Ba’zi mamlakatlarda kreditorlar kabi boshqa manfaatdor taraflarga talabga e’tiroz bildirish huquqi beriladi. Shu nuqtayi nazardan, kreditorlar talablarining yakuniy ro‘yxatini sud yoki tugatuvchi tomonidan bunday ro‘yxat tayyorlangandan so‘ng bir yoki bir nechta kreditorlar yig‘ilishlarida ko‘rib chiqish tavsiya etilishi mumkin. Shaffoflikni ta’minlash vositasi sifatida tegishli va o‘z vaqtida xabarnoma berish juda muhimdir. Agar shunday bo‘lsa, kreditorlar talablarini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishlari kerak bo‘lgan muddatlarni belgilash orqali tugatishni tezlashtirish mumkin. Kechikishga qarshi chora sifatida, kechikkan kreditorlar taqsimotdan butunlay chetlashtirilishi yoki talablar faqat tekshirilgandan keyin qolgan har qanday aktivlarni taqsimlashda[218] proporsional ravishda ishtirok etishi nazarda tutilishi mumkin.

O‘zaro hisobga olish masalasi 154-moddada tartibga solingan. Bu masalaning ahamiyati shundaki, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritish boshlangan vaqtda ayrim kreditorlar qarzdorga nisbatan talablarga ega bo‘lishlari bilan bir qatorda, qarzdor oldida ham pul majburiyatlariga ega bo‘lishlari mumkin. O‘zaro hisobga olish turli mamlakatlarda turlicha ko‘rib chiqiladi, shuning uchun izchil xalqaro amaliyot mavjud emas.

Ba’zi mamlakatlarda adolatli munosabat tamoyili[219] «*tugatuvchi kreditorning qarzdor oldidagi qarzini to‘liq undirish huquqiga ega bo‘lish va kreditorning talabi mulk tugatilgandan keyin boshqa barcha ta’minlanmagan kreditorlar qondiriladigan darajada qondirilishi»*ni talab qiladi deb tushuniladi.[220] Ya’ni tugatuvchi kreditorning qarzdor oldidagi qarzini to‘liq undiradi, kreditor esa qarzdorga qarshi talabi bo‘yicha dividend oladi, xuddi boshqa oddiy ta’minlanmagan kreditorlar singari.

Boshqa mamlakatlar raqobatbardosh mulohazalarni boshqacha muvozanatlashtiradilar, bu esa dividend uchun qolgan talablar taqdim etilishidan oldin talablarni o‘zaro hisobga olishga imkon beradi.[221] Ushbu yondashuvni qo‘llaydigan mamlakatlar quyidagi yondashuv nuqtayi nazariga ko‘proq ahamiyat berishadi:

Birinchisi, adolatlilik: kreditorlar o‘rtasida teng muomala muhimligiga qaramay, qarzdorning kreditorga to‘lovni amalga oshirishdan bosh tortishi, shu bilan birga, ushbu kreditordan to‘lovni talab qilishi adolatsiz hisoblanadi. Bundan tashqari, ko‘plab kontragentlar banklar bo‘lgani uchun, o‘zaro hisobga olish huquqi bank tizimi uchun ayniqsa foydalidir, shuning uchun banklarning muhim kredit yaratish roli tufayli iqtisodiyot uchun umumiy foyda keltiradi deb hisoblanadi. Asosiy funksiyalari (kredit berish va depozitlarni qabul qilish) tufayli bankrot bo‘lgan tashkilotga kredit bergan banklar ko‘pincha qarzdor oldida depozitlar ko‘rinishida moliyaviy majburiyatlarga

[218] 6-iqtibos, 45-bet.

[219] Kirish, 7-bet.

[220] 6-iqtibos, 42-bet.

[221] Aksincha, agar qarzdorga qarshi talab qarzdorning talabidan kam bo‘lsa, mamlakatning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunlari to‘lovga qobiliyatsizlikni o‘zaro hisobga olishga ruxsat bergan taqdirda, qarzdorga faqat sof qoldiq to‘lanishi kerak.

ega ekanligi ma’lum bo‘ladi. Jarayon boshlangandan keyin o‘zaro hisobga olish huquqi banklarga o‘zlarining to‘lanmagan talablarini qarzdorning depozitlari bilan qoplash imkonini beradi, garchi bu o‘zaro talablar hali muddati kelmagan va to‘lanishi kerak bo‘lmasa ham.[222]

Boshqa yondashuvlar ham qo‘llaniladi, masalan, ba’zi mamlakatlarda faqat talablar bir xil bitimdan kelib chiqqan taqdirdagina o‘zaro hisobga olishga ruxsat beriladi.[223] Shunday qilib, o‘zaro hisobga olishga oid yagona xalqaro amaliyot mavjud emas.

O‘zbekistonda tugatish jarayonida o‘zaro hisobga olishni qo‘llash 154-moddaga muvofiq bo‘lishi kerak.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, xorijiy kreditorlarning talablari istisno qilinmaydi. Bu xalqaro amaliyotga mos keladi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga, shuningdek, xorijiy banklardan kredit olish imkoniyati va kredit olish shartlarini yaxshilashga intilayotgan har qanday iqtisodiyot uchun muhimdir.

155-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Shaffoflik to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunning samarali ishlashi uchun asosiy bo‘lgan yaxlitlik tamoyillaridan biridir.[224] Ushbu tamoyil 155-moddaga muvofiq kreditorlar qo‘mitasiga (yoki kreditorlar yig‘ilishlariga) yoki talab bo‘yicha sudga oylik hisobotlarni taqdim etish talabida aks etgan. Bu, shuningdek, hisobotlar mazmunining batafsil tavsifida ham aks etgan. Ushbu modda, shuningdek, 2-bobdagi sharhda muhokama qilinganidek, kreditorlar qo‘mitasi yoki kreditorlar yig‘ilishlarining muhim rolini ko‘rsatadi.[225]

157-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 157-modda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunning asosiy maqsadini, ya’ni qiymatni saqlab qolishni aks ettiradi:

Korxona faoliyat yuritishga layoqatsiz bo‘lgan hollarda, qonunning asosiy yo‘nalishi kreditorlar manfaati uchun maksimal darajada undirish uchun tez va samarali tugatish bo‘lishi kerak... Boshqa tomondan, korxona faoliyat yuritishga layoqatli bo‘lgan, ya’ni uni tiklash mumkin bo‘lgan hollarda, uning aktivlari ko‘pincha tiklash jarayonida sotilganidan ko‘ra tiklash jarayonida saqlangan biznesda qimmatliroq bo‘ladi. Biznesni qutqarish ish o‘rinlarini saqlab qoladi, kreditorlarga korxonaning yuqori faoliyat yuritish qiymatlariga asoslangan holda ko‘proq daromad keltiradi, egalari uchun potensial daromad keltiradi va mamlakat uchun tiklangan korxonaning iqtisodiy samarasini ta’minlaydi. Biznesni qutqarish rasmiy va norasmiy tartib-taomillar orqali amalga oshirilishi lozim.[226]

---

[222] 6-iqtibos, 42-bet.

[223] 6-iqtibos, 42-bet.

[224] Kirish, 6-bet.

[225] Xalqaro sharhning 2-bobi, kirish (14–15-betlar) va 19-modda (17-bet)ga qarang.

[226] 1-iqtibos, 7–8-betlar.

Sud jarayoni boshlanganda tugatish va sanatsiya o‘rtasida tanlov amalga oshiriladigan mamlakatlarda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun qarzdorning sanatsiya imkoniyatlari haqidagi ma’lumotlar ushbu bosqichda cheklangan bo‘lishi mumkinligini yoki sud jarayoni boshlanganidan keyin qarzdorning holati o‘zgarishi mumkinligini tan olishi kerak, masalan, yangi kapital mavjudligi tufayli. XVJ qo‘llanmasida ta’kidlanganidek, «*amaliyotda... jarayonni boshlash davrida qarzdorni tugatish yoki sanatsiya qilish kerakligini ko‘pincha aniqlab bo‘lmaydi*».[227]

Natijada:

[...] kreditor qarzdorga qarshi tugatish jarayonini boshlaganda, qonun ko‘pincha jarayonni sanatsiya jarayoniga aylantirish imkonini beruvchi mexanizmni belgilaydi. Aksincha, qarzdor sanatsiya jarayonini boshlash orqali himoya izlagan hollarda, agar muvaffaqiyatli sanatsiya ehtimoli yo‘qligi aniqlansa, qonun ko‘pincha jarayonni tugatish jarayoniga aylantirish vositasini taqdim etadi.[228]

157-moddada xalqaro amaliyotda keng qo‘llab-quvvatlanadigan tugatish tartib-taomilini sanatsiya tartib-taomiliga o‘tkazish imkoniyati nazarda tutilgan.

158-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 158-modda muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan shaffoflik tamoyilini aks ettiradi.[229]

160-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – sudga hisobot taqdim etish talabi shaffoflikning muhimligini aks ettiradi, bu esa to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunning muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan yaxlitlik tamoyillaridan biridir.[230]

[227] 6-iqtibos, 16-bet.
[228] 6-iqtibos, 16–17-betlar.
[229] Kirish, 6-bet.
[230] Kirish, 6-bet.

12-BOB
KELISHUV BITIMI

Kirish

Xalqaro nuqtayi nazar – Qarzdor va uning kreditorlari (yoki uning kreditorlari guruhi) o‘rtasidagi talablarni hal qilish uchun ikki xil kelishuv qo‘llaniladi.

Birinchi turi rasmiy to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonidan tashqarida erishilgan xususiy kelishuv bitimidir. Ushbu turdagi xususiy kelishuv bitimiga ko‘ra, individual kreditor faqat bunga aniq rozilik bergan taqdirdagina kelishuv bitimiga amal qilishga majbur bo‘ladi. Bu rasmiy qonuniy jarayondan tashqarida kreditorlar o‘z roziligisiz talablaridan voz kechishga majbur emaslik tamoyilini ifodalaydi.

Ikkinchi turi, agar barcha qonuniy talablar bajarilsa, norozi kreditorlarni kelishuvga majburlashi mumkin bo‘lgan rasmiy qonuniy jarayondan foydalanadi. 12-bob ushbu ikkinchi turdagi kelishuv bitimiga misol bo‘lib, u kelishuv bitimi kuchga kirishidan oldin to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish ochilishini talab qiladi.

Ayrim kreditorlarning e’tirozlariga qaramay, kreditorlar talablari bo‘yicha kelishuvga erishish imkoniyati xalqaro to‘lovga qobiliyatsizlik huquqida keng e’tirof etilgan huquqiy mexanizm hisoblanadi. Bu qiymat tamoyilining ahamiyatini va moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan kompaniyani muvaffaqiyatli tiklash orqali erishilgan qiymatni saqlab qolishni aks ettiradi (8-bobning kirish qismida qiymat va qiymatni saqlab qolishning ahamiyati muhokama qilinadi).[231]

Rozi bo‘lmayotgan kreditorlarning huquqlariga ta’sir qiluvchi kelishuv bitimiga xalqaro miqyosda sanatsiya shakli sifatida qaraladi. Uning afzalligi shundaki, tezkor ravishda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan, rasmiyligi kamroq jarayondir. Ba’zan biznesni muvaffaqiyatli sanatsiya uchun tezkor hal qilish zarur bo‘lishi mumkin va 12-bobga muvofiq kelishuv bitimlari bu maqsadga xizmat qiladi:

[Q]ayta tashkil etish bir nechta shakllardan birida namoyon bo‘lishi mumkin. Bularga norasmiy (ya’ni suddan tashqarida olib boriladigan) ixtiyoriy asosdagi qayta tashkil etish muzokaralari kiradi, ular sudning ishtirokini deyarli talab qilmaydi yoki sud umuman ishtirok etmaydi va asosan ishtirok etuvchi taraflarning kelishuviga bog‘liqdir.

[…] Biroq qayta tashkil etish, shuningdek, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun sudga ushbu jarayonlarni tezlashtirishga imkon beradigan hollarda (ushbu bo‘limda «tezlashtirilgan qayta tashkil etish jarayonlari» deb ataladi) ta’sirlangan kreditorlar tomonidan ixtiyoriy asosdagi tarkibiy jihatdan o‘zgartirish muzokaralarida muhokama qilingan va kelishilgan rejani amalga oshirish uchun boshlangan jarayonlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.[232]

---

[231] 8-bob, 36–40-betlardagi «qiymat» tushunchasi atrofidagi muhokamaga qarang.

[232] 4-iqtibos, 238-bet.

12-bobdagi kelishuv bitimlari ayniqsa kreditorlarning aksariyati kompaniyani sog‘lomlashtirish uchun murosaga kelish tarafdori bo‘lgan, ammo bir yoki bir nechta norozi kreditorlar qolgan hollarda foydalidir. UNCITRAL qo‘llanmasida quyidagi foydali mulohazalar keltirilgan:

78. Ixtiyoriy asosdagi tarkibiy jihatdan o‘zgartirish bo‘yicha muzokaralarga ta’sirlangan kreditorlarning ozchiligi ham to‘sqinlik qilishi mumkin, ular ko‘pchilik kreditorlarning manfaatlariga mos keladigan yechimga rozi bo‘lishdan bosh tortishlari mumkin, ular o‘z mavqeidan foydalanib boshqa taraflar hisobidan o‘zlari uchun yaxshiroq shartlar yaratish maqsadida (ko‘pincha «ishtirok etishdan bosh tortish» deb ataladi) ko‘pchilik kreditorlarning manfaatlariga mos keladigan yechimga rozi bo‘lishdan bosh tortishlari mumkin. Bunday bosh tortish yuz bergan hollarda, ixtiyoriy asosdagi kelishuv faqat ushbu norozi kreditorlarning shartnomaviy huquqlari ularning roziligisiz o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin. Ko‘pgina mavjud huquqiy tizimlarda shartnomaviy huquqlarning bunday o‘zgartirilishi barcha kreditorlarni jalb qiladigan va bunday jarayonlarni tartibga soluvchi to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunga muvofiq to‘liq tarkibiy jihatdan o‘zgartirish jarayonini boshlashni talab qiladi. Biznesni tarkibiy jihatdan o‘zgartirishda vaqt juda muhim va kechikish (odatda to‘liq tarkibiy jihatdan o‘zgartirish jarayoniga xos) ko‘pincha samarali yechimga erishish uchun qimmatga tushishi yoki hatto halokatli bo‘lishi mumkin.

79. Ushbu qiyinchiliklar, shuningdek, ko‘pincha to‘liq qayta tashkil etish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan ba’zi xarajatlar, kechikishlar, protsessual va huquqiy talablar ixtiyoriy asosdagi qayta tashkil etish muzokaralari va tezlashtirilgan qayta tashkil etish jarayoni qo‘llanilganda oldi olinishi mumkin. Ushbu jarayonlar qarzdorning moliyaviy qiyinchiliklarini hal qilishning tejamkor vositasini taqdim etishi mumkin, binobarin, ularning samaradorligi Qonunchilik qo‘llanmasining birinchi qismida muhokama qilingan ma’lum shartlarga bog‘liq bo‘lishi mumkin (II bob, 2–18-bandlarga qarang). Bu shartlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: cheklangan miqdordagi asosiy banklar yoki moliya instituti kreditorlariga qarzdorlikning katta qismi to‘g‘ri kelishi; kreditorlar qarzdorning moliyaviy qiyinchiliklarini hal qilish uchun qarzdor va moliyachilar o‘rtasida, shuningdek, moliyachilarning o‘zlari o‘rtasida kelishuv bo‘yicha muzokaralar olib borish afzalroq bo‘lishi mumkinligini qabul qilishlari; to‘g‘ridan to‘g‘ri va darhol to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunga murojaat qilishdan ko‘ra muzokara jarayonida barcha taraflar uchun ko‘proq foyda olish istiqboli mavjudligi (qisman natija muzokarachilarning nazorati ostida bo‘lgani va jarayon arzonroq bo‘lgani va qarzdorning biznesiga xalaqit bermasdan tezda amalga oshirilishi mumkinligi); qarzdorning tijorat qarzlaridan ozod qilinishiga yoki rasmiy to‘lovga qobiliyatsizlik holatidan foydalanish, masalan, avtomatik moratoriy yoki og‘ir qarzlardan voz kechish imkoniyatiga muhtoj emasligi.

80. Bunday shartlarga bog‘liq bo‘lishiga qaramay, ixtiyoriy asosdagi tarkibiy jihatdan o‘zgartirish bo‘yicha muzokaralar va tezlashtirilgan qayta tashkil etish jarayonlari mamlakatning tijorat va biznes sektori uchun mavjud bo‘lgan to‘lovga qobiliyatsizlik

yechimlari qatorida qimmatli vositalar bo‘lishi mumkin. Bunday yechimlardan foydalanishni rag‘batlantirish mamlakatning rasmiy to‘lovga qobiliyatsizlik tizimining yomon, samarasiz yoki ishonchsiz ekanligidan kelib chiqmasligi, balki bunday yechimlar sof rasmiy to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillariga qo‘shimcha sifatida taqdim etadigan afzalliklaridan kelib chiqishi kerak, bu esa adolat va aniqlikni ta’minlaydi. Bundan tashqari, bunday yechimlar muzokaralar jarayonini boshlashning iloji bo‘lmaganda yoki to‘xtatilganda, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunga tez va samarali murojaat qilish imkoniyati mavjud bo‘lgan hollarda juda yaxshi ishlaydi.[233]

Albatta, kelishuv bitimi barcha bo‘lmasa-da, aksariyat kreditorlar tomonidan kelishilgan taqdirda majburiy bo‘lgan holatlarni tartibga soluvchi qoidalar va chegaralar bo‘lishi zarur. Ushbu qoidalar norozi kreditorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga hamda suiiste’mol qilishning oldini olishga xizmat qiladi. 12-bobda kelishuv bitimi qachon majburiy bo‘lishi mumkinligi va qarzdor tomonidan kelishuv shartlarini buzish oqibatlari tartibga solinadigan qoidalar belgilangan.

Moddalar bo‘yicha sharh

161-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu moddada 12-bobga muvofiq kelishuv bitimidan foydalanishni tartibga soluvchi qoidalar, shuningdek, bunday foydalanishning oqibatlari bayon etilgan. Ushbu qoidalarning batafsil tavsifi xalqaro amaliyotga mos keladi, samarali to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunni qo‘llab-quvvatlovchi muhim tamoyillar bo‘lgan sud arizalari natijalarida shaffoflik va bashorat qilish imkoniyatini ta’minlaydi. Ushbu tiklash jarayonining mavjudligi va bob talablari bajarilganda sud jarayonlarini tezda o‘tkazish imkoniyati tiklash natijasiga erishishda tezlik va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bu xalqaro miqyosda tan olingan samaradorlik tamoyiliga mos keladi, bu ham samarali to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunning muhim jihati hisoblanadi.[234]

Garov bilan ta’minlangan kreditorlarning manfaatlari to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida ham himoya qilinishi lozim, chunki bunday himoya mamlakat iqtisodiyoti uchun, ayniqsa, kreditning mavjudligi va narxini belgilash nuqtayi nazaridan muhimdir. Ushbu himoya 161-moddaning ikkinchi qismida belgilangan (mazkur xalqaro sharhning kirish qismida garovga qo‘yilgan aktivlarni himoya qilishning ahamiyati muhokama qilinadi).[235]

164-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 164-moddaning uchinchi qismi ushbu sharhning kirish qismida muhokama qilingan adolatli munosabat tamoyilini aks ettiradi.[236]

---

[233] 4-iqtibos, 239-bet.

[234] Kirish qismining 6-betiga qarang.

[235] Kirish qismining 7–9-betlariga qarang.

[236] Kirish qismining 7-betiga qarang.

Xuddi shunday, 164-moddaning to‘rtinchi qismida aktivlar garovi bilan himoyalangan kreditorlarning huquqlarini saqlash va himoya qilishning muhimligi aks ettirilgan, buning asosi ham Kirish qismida muhokama qilingan.[237]

165-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu moddaning hujjatlashtirish va axborot haqidagi talablari mazkur sharhning kirish qismida tasvirlangan shaffoflik tamoyilining ahamiyatini aks ettiradi.[238]

169-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Kelishuv bitimi haqiqiy emasligining ikki asosidan birinchisi mazkur xalqaro sharhning kirish qismida tasvirlangan adolatli munosabat tamoyilining ahamiyatini aks ettiradi.[239]

[237] Kirish qismining 7–9-betlariga qarang.
[238] Kirish qismining 6-betiga qarang.
[239] Kirish qismining 7-betiga qarang.

13-BOB
QARZDOR YURIDIK SHAXSLAR AYRIM TOIFALARI TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kirish

Xalqaro nuqtayi nazar – Qarzdorlarning ayrim toifalari uchun mamlakatning to‘lovga qobiliyatsizlik qonunlariga muvofiq alohida va o‘ziga xos huquqiy tartibga solish keng tarqalgan xalqaro amaliyotdir. Eng keng tarqalgan misollar tijorat banklari va sug‘urta kompaniyalarini o‘z ichiga oladi.

Ba’zi mamlakatlar ushbu maxsus tartibga solishni to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunning o‘ziga kiritadi, boshqalari esa uni alohida qonunchilik, masalan, bank yoki sug‘urta qonunlari orqali hal qiladi. 13-bobda turli toifadagi qarzdorlar uchun maxsus qoidalarni nazarda tutish orqali To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun xalqaro amaliyotga mos keladi.

Ushbu qoidalar, xalqaro amaliyotga muvofiq, muhimligi sababli ayrim qarzdor turlari uchun alohida e’tibor talab qiladigan asosiy mulohazalarni e’tirof etadi. Masalan:

Banklar va sug‘urta kompaniyalarining to‘lovga qobiliyatsizligi butun iqtisodiyot hamda alohida fuqarolar uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu sohalar odatda alohida prudensial tartibga solishga bo‘ysunadi. Ikkala omil ham ushbu o‘ziga xos xavf va holatlarni hal qilish uchun umumiy to‘lovga qobiliyatsizlik qoidalarini moslashtirishni talab qiladi.

Xuddi shunday, qurilish kompaniyalari va professional qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilarining muvaffaqiyatsizligi fuqarolar uchun yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ushbu sohalar odatda alohida prudensial tartibga solishga bo‘ysunadi. Shu sabablarga ko‘ra ushbu sohalar uchun maxsus moslashtirilgan to‘lovga qobiliyatsizlikni tartibga solish foydalidir.

Shaharni tashkil etuvchi (yoki shunga o‘xshash) korxonalarda, ayniqsa, qarzdor milliy mudofaa yoki boshqa strategik ahamiyatga ega bo‘lgan hollarda, tegishli aholi punkti yoki ko‘p sonli xodimlar uchun muvaffaqiyatsizlik oqibatlari jiddiy bo‘lishi mumkin. Ushbu holatlar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilikdagi ixtisoslashgan qoidalar orqali hal qilinishi kerak.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiyot uchun ahamiyati va sektorning o‘ziga xos biznes muammolari (masalan, ob-havo va kechiktirilgan hosil) hisobga olinsa, ijtimoiy nuqtayi nazardan shunga o‘xshash maxsus munosabat zarur.

Ushbu sohalar uchun qo‘shimcha choralar, mulohazalar va talablarni nazarda tutuvchi qoidalar kiritilishi ijtimoiy maqsadlarga xizmat qiladi.

Banklar, sug‘urta kompaniyalari va boshqa tizimli ahamiyatga ega moliya institutlari (SIFI deb nomlanuvchi) kabi ayrim sohalarda moliyaviy qiyinchiliklarni boshqarish uchun yagona tamoyillar to‘plamini taqdim etishga urinishlar bo‘lgan.[240] Biroq bunday tizimlarni joriy etish hozirda xalqaro miqyosda davom etmoqda.

Umuman olganda, xalqaro amaliyotda ayrim qarzdorlar turlari uchun alohida va o‘ziga xos to‘lovga qobiliyatsizlik qoidalari qabul qilingan bo‘lsa-da, ushbu qoidalarning o‘ziga xos shartlari har bir mamlakatda farq qiladi. Shu sababli umumiy kuzatishlardan tashqari ushbu bobdagi moddalarning o‘ziga xos mazmuniga tegishli cheklangan xalqaro nuqtayi nazar mavjud.

Moddalar bo‘yicha sharh

172-, 173-, 174-, 175- va 176-moddalar – Shaharni tashkil etuvchi korxona va unga tenglashtirilgan korxona

Xalqaro nuqtayi nazar – 172-modda to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida ishtirok etishga ruxsat berilgan qo‘shimcha manfaatdor taraflarni belgilaydi. Bu xalqaro amaliyotga mos keladi, unda qarzdorlarning ayrim toifalari uchun maxsus muomala qilishni talab etadigan bir xil mulohazalar kengroq ishtirokchilar guruhini qo‘shishni ham qo‘llab-quvvatlaydi. Tegishli sohalar uchun mas’ul shaxslarning mavjudligi ushbu sohalarning sud jarayonida vakil sifatida ishtirokini ta’minlaydi.

Xuddi shu asos 173-moddadagi har qanday tashqi boshqaruv rejasi soha bo‘yicha tegishli davlat organi bilan kelishilgan bo‘lishi kerakligi talabini qo‘llab-quvvatlaydi.

174-moddada nazarda tutilgan o‘n ikki oylik uzaytirish ijtimoiy ahamiyatga ega korxonalar faoliyatini saqlab qolish va ularni sog‘lomlashtirish imkoniyatini oshirishga qaratilganligini aks ettiradi.

Ijtimoiy soha masalalari 175- va 176-moddalardagi bir nechta muayyan qoidalar uchun ham muhimdir.

177-, 178- va 179-moddalar – Qishloq xo‘jaligi korxonalari

Xalqaro nuqtayi nazar – Qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun maxsus to‘lovga qobiliyatsizlik qoidalarining mavjudligi odatiy holdir. Bu qishloq xo‘jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi strategik va son jihatidan ahamiyatini, shuningdek, fermerlar iqlim, tabiiy ofatlar va murakkab bozor sharoitlari tufayli duch keladigan noyob biznes muammolarini aks ettiradi.

Xalqaro amaliyot ko‘pincha sudgacha bo‘lgan sanatsiyani rag‘batlantiradi yoki talab qiladi, ba’zi mamlakatlarda esa to‘lovga qobiliyatsizlik belgilari paydo bo‘lgandan keyin ijro choralari ko‘rilishidan oldin majburiy mediatsiya amalga oshiriladi.

179-moddada ko‘rsatilgan maxsus mulohazalarga kelsak, 8-bobning kirish qismida qiymatni saqlash, xususan, aktivlarni alohida-alohida sotish o‘rniga korxonani yagona

[240] Masalan, www.fsb.org saytida mavjud bo‘lgan Moliyaviy barqarorlik kengashining ishlari.

mulkiy majmua (faoliyat yuritayotgan biznes) sifatida sotish orqali erishish masalalari[241] bo‘yicha xalqaro amaliyot mulohazalari muhokama qilingan.[242]

180- va 181-moddalar – Banklar

Xalqaro nuqtayi nazar – Umumiy xalqaro amaliyotga muvofiq, 181-moddada banklarning to‘lovga qobiliyatsizligini tartibga solish alohida qonunchilik bilan amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

182-, 183-, 184- va 185-moddalar – Sug‘urtalovchilar

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu moddalar sug‘urta polisi egalari uchun maxsus himoya vositalarini taqdim etadi va tugatish sharoitida sug‘urta hodisasi allaqachon sodir bo‘lgan va hali sodir bo‘lmagan sug‘urta polisi egalari o‘rtasida farq qiladi. Ushbu qoidalar boshqa mamlakatlar qoidalariga mos kelsa-da, bunday masalalarni hal qilishda yagona universal amaliyot mavjud emas.

186-, 187-, 188- va 189-moddalar – Qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari

Xalqaro nuqtayi nazar – Umumiy xalqaro amaliyotga muvofiq, ushbu moddalar qimmatli qog‘ozlar bozorida professional ishtirokchilarning to‘lovga qobiliyatsizligi muammosini hal qilish uchun alohida qonunchilikni ko‘rib chiqadi. Shuningdek, qimmatli qog‘ozlar bozorida professional ishtirokchining o‘ziga xos to‘lovga qobiliyatsizligi holatlariga moslashtirilgan qoidalar mavjud.

190-, 191-, 192- va 193-moddalar – Ulush kiritish asosidagi qurilish bo‘yicha quruvchi

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu moddalar ulush kiritish asosidagi qurilish bo‘yicha quruvchining to‘lovga qobiliyatsizligi masalasini hal qilish uchun To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunning qoidalarini belgilaydi.

[241] 8-bob, 36–40-betlardagi «qiymat» tushunchasi atrofidagi muhokamaga qarang.
[242] 8-bob, 36–40-betlardagi «qiymat» tushunchasi muhokamasiga qarang.

14-BOB
JISMONIY SHAXSNING TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIGI

Kirish

Xalqaro nuqtayi nazar – To‘lovga qobiliyatsizlik yuridik shaxslar bilan chegaralanib qolmaydi. Jismoniy shaxslar, shuningdek, kredit asosida sotib olingan tovarlar (masalan, iste’mol krediti yoki uy-joy krediti orqali) yoki yuzaga kelgan majburiyatlar (masalan, boshqa birovning mulkiga zarar yetkazish orqali) natijasida kelib chiqadigan moliyaviy majburiyatlarini bajara olmasligi mumkin. Bunday hollarda jismoniy shaxs 1-bobning 5-moddasida ko‘rsatilgan usullarning birida (yoki ikkalasida) to‘lovga qobiliyatsizlik holatida bo‘lishi mumkin.

Jahon bankining to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha mutaxassislari ta’kidlaganidek[243], O‘zbekistonda iste’molchilarning qarzlarini to‘lashdan bosh tortishi bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda jiddiy chaqiriqlar mavjud bo‘lib, 2023-yil holatiga ko‘ra qarz majburiyatlarini bajarmaslik holatlari sezilarli darajada ekanligi qayd etilgan.

Yuridik shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligini hal qilishning mavjud jarayonlari jismoniy shaxslarga nisbatan o‘zgartirishlarsiz qo‘llanilishi mumkin emas. Masalan:

To‘lovga qobiliyatsiz deb e’lon qilingan va tugatilgan yuridik shaxs jarayon oxirida tugatiladi va faoliyatini to‘xtatadi. Aksincha, jismoniy shaxs to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni tugagandan so‘ng jamiyatning funksional a’zosi bo‘lib qolishi va shuning uchun jamiyatga moliyaviy jihatdan qayta integratsiya qilinishi kerak.

Yuridik shaxs tugatilganda uning barcha aktivlari sotiladi va (haq to‘lash va xarajatlardan keyin) tushgan mablag‘ to‘liq to‘lanmagan kreditorlar o‘rtasida taqsimlanadi. Jismoniy shaxsda bunday bo‘lmaydi, chunki u oziq-ovqat va boshpanaga muhtoj bo‘lishi va qaramog‘idagi oila a’zolarini qo‘llab-quvvatlashga majbur bo‘lishi mumkin.

Xuddi shuningdek, bankrot bo‘lgan jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida olgan daromadi to‘liq ravishda kreditorlar talablarini qondirishga yo‘naltirilishi mumkin emas, chunki qarzdor va uning qaramog‘idagi shaxslarning yashashi uchun zarur minimal mablag‘ saqlanishi lozim.

Ko‘pgina yurisdiksiyalar jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligida tugatish massasiga kiritilmaydigan mol-mulk tan oladi. Masalan, hunarmandga ko‘pincha o‘z uskunalarini saqlab qolishga ruxsat beriladi. Qarzdorga bunday aktivlarni saqlashga ruxsat beriladi, chunki ular qarzdorning hunarmand sifatida ishlashi va daromad olishi uchun zarurdir.

[243] F. Dancausa and M. Melecky. 2024. Private Sector Development Blog, World Bank. New Beginnings: Resolving Consumer Insolvencies in Central Asia.

Shunday qilib, jismoniy va yuridik shaxslar to‘lovga qobiliyatsizligi asosiy tamoyillarga tayansa-da, qonun to‘lovga qobiliyatsiz jismoniy shaxsning o‘ziga xos holatlarini hisobga olish uchun moslashishi kerak.

Ushbu bob bo‘yicha xalqaro sharh boshqa boblarga nisbatan batafsilroq bayon etiladi, chunki jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligi instituti O‘zbekiston qonunchiligi uchun yangi huquqiy institut hisoblanadi. Xalqaro amaliyotni ko‘rib chiqishdan oldin 14-bob qanday ishlashini umumiy tushuntirib o‘tish foydali bo‘ladi.

Umuman olganda[244], 14-bob jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligini quyidagicha tartibga soladi:

Shaxs uch oydan ortiq vaqt davomida qarzlarini to‘lay olmagan taqdirda, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilishi mumkin. 12-bobga muvofiq, kelishuv bitimiga qo‘shimcha ravishda ikkita asosiy yo‘l mavjud – to‘lov rejasi yoki bankrotlik jarayoni.

To‘lov rejasiga kelsak:

Qarzdor o‘zining mavjud daromadidan kelib chiqib 3 yilgacha bo‘lgan muddatga to‘lov rejasini taklif qilishi mumkin.

Agar kreditorlar rejani rad etsalar, qarzdor aniqlangan holatlarda suddan uni tasdiqlashni so‘rashi mumkin.

Agar kreditorlar va sud uni rad etsa, bankrotlik jarayoni amalga oshiriladi.

Bankrotlik jarayoniga kelsak:

Jarayon odatda olti oy davom etadi, uch oyga uzaytirilishi mumkin.

Ba’zi aktivlar jarayondan ozod qilinadi. Ozod qilinmagan aktivlar kreditorlarning talablarini qondirish uchun sotiladi.

Qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik jarayoni davomida olgan daromadining bir qismi kreditorlarning talablarini qondirish uchun taqdim etiladi.

Olti yoki to‘qqiz oylik muddat oxirida qarzdor qolgan qarzlardan ozod qilinadi, garchi muayyan belgilangan majburiyatlar saqlanib qolsa ham.

Kelishilgan to‘lov rejasi orqali yoki bankrotlik jarayonidan so‘ng qarzdor nisbatan qisqa muddatda iqtisodiy faol hayotga qaytadi hamda jamiyatda mustaqil iqtisodiy faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligi – xalqaro miqyosda tan olingan standartlar va amaliyotlar

Xalqaro nuqtayi nazar – yuridik shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligiga nisbatan qo‘llaniladigan xalqaro standartlar va ilg‘or amaliyotning asosiy tamoyillari, odatda, jismoniy shaxslarga nisbatan ham tatbiq etiladi.[245] Biroq jismoniy shaxs uchun to‘lovga qobiliyatsizlikning o‘ziga xos xususiyatlari tufayli qo‘shimcha mulohazalar mavjud.

[244] Bu qisqa va umumiy bayon bo‘lib, aniqlik, talablar va tafsilotlarsiz keltirilgan. 14-bob qanday ishlashini to‘g‘ri tushunish uchun mazkur nashrning asosiy qismidagi 14-bobga berilgan sharhni batafsil o‘qib chiqish zarur.

[245] Kirish qismiga qarang, 5–9-betlar.

Avstraliya kontekstidan olingan quyidagi mulohaza xalqaro amaliyotga mos keladi:

Hozirgi kunda keng e'tirof etilgan yondashuvga ko‘ra, agar shaxs qarzlarini to‘lay olmasa va umidsiz moliyaviy ahvolda bo‘lsa, qonun qarzdor yoki kreditor tomonidan sud jarayonini amalga oshirishga imkon berishi kerak, shunda qarzdorning ko‘pgina mol-mulki tortib olinishi va kreditorlarga ularning har biriga to‘lanadigan summalarga mutanosib ravishda to‘lash uchun ishlatilishi mumkin. Shuningdek, agar qarzdor moliyaviy masalalarda biron-bir nohaqlik, isrofgarchilik yoki boshqa noto‘g‘ri xatti-harakatlarda aybdor bo‘lmasa, qonun qarzdorni to‘plangan qarzlar yukidan ozod qilishi, yangitdan boshlash imkonini berishi kerak. Ushbu umumiy qabul qilingan tamoyillarni amalga oshiradigan narsa zamonaviy [jismoniy shaxs] bankrotligi qonunidir.[246]

«Yangitdan boshlash» qarzdorning qolgan qarz majburiyatlaridan ozod etish orqali amalga oshiriladi. Xalqaro nuqtayi nazardan, ushbu «yangitdan boshlash» jismoniy shaxslar uchun to‘lovga qobiliyatsizlik qonunchiligining asosiy tamoyilidir. Bu jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligi uchun yuridik shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligiga nisbatan amalga oshirilgan moslashuvlarning ko‘lami va mazmuniga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Jahon bankidan Dankausa va Meleki ta'kidlaganidek:

Iste'molchilarning to‘lovga qobiliyatsizligi bo‘yicha mustahkam tizim – qarzlarni hisobdan chiqarish yoki ulardan ozod etish, ya'ni insofli iste'molchilar oqilona to‘lay olmaydigan qarzlarni bekor qilish orqali – bir qator ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga yordam beradi, jumladan: qarzdorlar va ularning oilalari ortiqcha qarzlardan xalos bo‘ladi va ularning qiyinchiliklari yengillashadi; qarzdorlarni amalda ish bilan ta'minlash va mas'uliyatli iste'molchi sifatida qayta integratsiya qilish orqali qarzdorning iqtisodiy faolligi qayta tiklanadi; kreditorlar o‘z talablari bo‘yicha daromadlarni to‘lov rejasi yoki qarzdorlarning ozod qilinmagan mulkini kelishilgan holda sotish orqali optimallashtirishlari mumkin. Bundan tashqari, iste'molchilarning to‘lovga qobiliyatsizligi muammosini oldindan aytib bo‘ladigan tarzda hal qilish kredit berilishini yaxshilaydi, chunki bu moliya institutlariga kredit narxini aniqroq baholash imkonini beradi.[247]

Jahon bankining Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi hisobotida[248] qaysi jihatlar xalqaro miqyosda jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizlikka tegishli deb tan olinishi bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan. Hisobotda uchta toifa keltirilgan: kreditorlar uchun foyda, qarzdorlar (va ularning oilalari) uchun foyda va jamiyat uchun foyda.

Kreditorlar uchun foydaga kelsak, Jahon bankining jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi hisobotida quyidagilar e'tirof etilgan:

Qiymatni saqlash: Jamoaviy sud tartib-taomillari kreditorlar tomonidan qarzdorga nisbatan muvofiqlashtirilmagan bir necha ijro harakatlari oqibatida aktivlarni qiyma-

[246] D. Rose, Lewis' Australian Bankruptcy Law (11th Ed, LBC Information Services, Sydney, 1999). P.1.

[247] 245-iqtibos, 1-bet.

[248] Jahon banki, **Jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligi borasidagi hisobot** ishchi guruh tomonidan yozilgan (Jason J. Kilborn, Jose M. Garrido, Charles D. Booth, Johanna Niemi, va Iain D.C. Ramsay dan iborat loyiha qo‘mitasi), 2012-yil, 2025-yil 11-oktyabrda Jahon banki hujjatida ko‘rib chiqilgan va ushbu bobda «Jahon bankining shaxsiy to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi hisoboti» yoki «JB hisoboti» sifatida tilga olingan.

ti pasaytirilgan holda shoshilinch sotishning, shuningdek, ortiqcha ijro xarajatlari va aktivlar qiymati yo‘qotilishining oldini oladi.[249] Hisobotda quyidagilar qayd etilgan:

Axborot asimmetriyasi va noaniqlikning ikki tomonlama yuki ostida og‘ir mehnat qilayotgan har bir kreditor o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun iloji boricha ko‘proq qiymat olishga shoshilib ijro choralariga pul sarflashga rag‘batlanib qoladi. Agar aktivlar ijro xarajatlaridan ortiq daromad keltirmasa, individual, muvofiqlashtirilmagan ijro choralari sof yo‘qotishni anglatishi mumkin. Aktivlarning qiymati katta bo‘lsa ham, bunday harakatlar qiymatni yo‘q qilishi muqarrar va ko‘pchilik kreditorlar uchun muvofiqlashtirilgan, jamoaviy harakatlar orqali oldi olinishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni oshiradi. To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili kreditorlarga qo‘shimcha undirishning mantiqsiz ekanligining yanada ishonchli dalillarini taqdim etishi mumkin, bu esa kreditorlarga muvaffaqiyatsiz ijro choralarining ko‘payishi xarajatlaridan qochish imkonini beradi. Mavjud bo‘lgan har qanday aktivlar uchun jamoaviy to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili ijro choralarining ma’muriy xarajatlarini bitta tartib-taomilga jamlaydi, bunda boshqaruvchi barcha kreditorlar uchun aktivlar qiymatini maksimal darajada oshiradi.[250]

Adolat: agressiv yoki tajribali kreditorlarning boshqa kreditorlarga nisbatan ustuvor bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi.[251]

Aktivlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning shaffofligi: jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligining odatiy jarayonlari qarzdorlarni aktivlarni oshkor qilishga undaydi va agar kerak bo‘lsa, yashirin mulkni topish uchun vositalarni taqdim etadi.[252]

Kelgusidagi daromadlar hisobiga qarzlarni qoplash imkoniyati: tizim, shuningdek, kelajakdagi daromaddan qiymat yaratishni ham rag‘batlantiradi.[253] Hisobotda tushuntirilganidek:

Aktivlarni topishdan ham muhimrog‘i, to‘lovga qobiliyatsizlikka doir tizimning foydasi shundaki, u qarzdorlarni samarali ishlashga undaydi, kelajakdagi qiymatning bir qismi kreditorlarga murosali to‘lovlar orqali kelishini osonlashtiradi va yillar davomida ushbu murosaga rioya qilinishini ta’minlaydi.[254]

Jarayonni jamoaviy boshqarish orqali samaradorlik: Hisobotda ta’kidlanganidek:

To‘lovga qobiliyatsizlik tizimi kuzatuv xarajatlarining takrorlanishidagi isrofgarchilikni yana bir yo‘l bilan bartaraf etishi mumkin, bunga shu vazifani qarzdorning faoliyatini har qanday individual kreditorga qaraganda ko‘proq tekshirish vakolatiga ega bo‘lgan bitta boshqaruvchiga yuklash orqali erishadi. To‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil qarzdor tomonidan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda tuzatish choralarini ko‘rish vakolatiga ega bo‘lishi mumkin, bu esa qarzdordan kreditorlar manfaati uchun imkon qadar yuqori darajada to‘lov amalga oshirilishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.[255]

---

[249] 250-iqtibos, 20–21-betlar.
[250] 250-iqtibos, 2–22-betlar.
[251] 250-iqtibos, 20–21-betlar.
[252] 250-iqtibos, 22-bet.
[253] 250-iqtibos, 22-bet.
[254] 250-iqtibos, 22-bet.
[255] 250-iqtibos, 24-bet.

Qarzdorlar (va ularning oilalari) uchun foydaga kelsak, Jahon bankining «Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi hisobotida «*halol, ammo omadsiz» qarzdorlarga yordam berish uzoq vaqtdan beri jismoniy shaxslar uchun to‘lovga qobiliyatsizlik rejimlarining asosiy maqsadi bo‘lib kelgan» degan fikr ta’kidlangan.*[256] Jahon banki hisoboti quyidagi tarixiy nuqtayi nazarni taqdim etadi:

Ming yillar davomida bu sohaning siyosatini belgilovchilar qarzdorlarning qiyinchiliklarini yengillashtirish bilan bog‘liq turli xil motivatsiyalarga, jumladan, diniy e’tiqod, ijtimoiy birdamlik ideallari va uzoq muddatli qiyinchiliklarni kamaytirishga qaratilgan hamdardlik va gumanitar diqqat-e’tiborning asosiy tuyg‘ulariga asoslangan to‘lovga qobiliyatsizlik tizimlariga o‘xshash huquqiy asoslarni ishlab chiqqanlar.[257]

Tarixiy nuqtayi nazardan zamonaviy nuqtayi nazarga qaytsak, qarzdorga qarzdan ozod bo‘lish va yangitdan boshlash imkonini beradigan rasmiy jamoaviy qarzni ijro etish jarayonining afzalliklari haqida – «inson unsuri» haqida batafsil xalqaro tushuncha mavjud. Jahon banki hisobotida ta’kidlanganidek:

71. Boshqarib bo‘lmaydigan qarz yuklari qarzdorlar uchun ko‘plab jiddiy ruhiy va oxir-oqibat jismoniy muammolarni keltirib chiqaradi. Empirik tadqiqotlar qarzdorlarning qarzlarni to‘lay olmaslik haqidagi doimiy xavotirdan, shuningdek, muvaffaqiyatsizlik hissiyotlaridan kelib chiqadigan qo‘rquv va xavotirdan aziyat chekayotganini hujjatlashtirgan.[258] To‘lovga qobiliyatsizlikdan yoki kreditorlar tomonidan ta’qiblardan kelib chiqadigan doimiy xavotir qarzdorlar uchun jiddiy hissiy va boshqa muammolarni, jumladan, depressiya va ijtimoiy cheklanishni keltirib chiqarishi mumkin. Qizig‘i shundaki, haddan tashqari qarz yuklari qarzdorlarning ish va boshqa majburiyatlarga diqqatini jamlay olmasligiga olib kelishi mumkin, shu bilan qarzdorlarning o‘z moliyaviy qiyinchiliklarini mas’uliyatli boshqarishiga to‘sqinlik qiladi va ularni muvaffaqiyatsizlikka uchragan spiralga tushiradi. Bu umidsizlik holati nafaqat qarzdorning samarali ish bilan shug‘ullanishga bo‘lgan motivatsiyasini, balki qarzdorning asosiy quvonchini yoki hatto yashash istagini ham so‘ndirishi mumkin.

72. Agar shug‘ullanilmasa, bu ruhiy kasalliklar jiddiy jismoniy muammolarda namoyon bo‘lishi mumkin. Yuqori darajadagi stress va doimiy xavotir qarzdorlarda turli xil jismoniy kasalliklarni keltirib chiqarishi ma’lum, jumladan, uyqusizlikdan tortib ishda diqqatni jamlay olmaslikkacha va ovqat hazm qilish buzilishi, yurak va asab muammolari, holsizlik va tushkunlik, hatto o‘z joniga qasd qilish fikrlari kabi jiddiyroq kasalliklargacha. Bir mamlakatda jismoniy shaxslar uchun to‘lovga qobiliyatsizlik tizimi asosan qarzlarni undirish tizimining samarasiz ishlashi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jismoniy kasalliklarning yuqori darajasini kuzatgan shifokorning chaqiruviga javoban paydo bo‘ldi. Boshqa mamlakatda ommaviy axborot vositalari xabarlarida umidsiz to‘lovga qobiliyatsizligi natijasida o‘z joniga qasd qilgan ko‘plab qarzdorlarning umidsiz ahvoliga e’tibor qaratildi.

---

[256] 250-iqtibos, 25-bet.

[257] 250-iqtibos, 25-bet.

[258] Masalan, qarang: L. Choi. 2008. Federal Reserve Bank of San Francisco. Financial Stress and its Physical Effects on Individuals and Communities. 5 Community Development Investment Review 120 (2009). AP-AOL/ABT SRBI. Credit Card / Debt Stress Study.

73. To‘lovga qobiliyatsizlikni hal qilish tizimlari odatda qarzlarni boshqarish qobiliyatining yo‘qligi bilan bog‘liq stress, xavotir va boshqa salbiy hissiy va jismoniy reaksiyalardan to‘g‘ridan to‘g‘ri va ko‘pincha darhol xalos bo‘lishni ta’minlaydi. To‘lovga qobiliyatsizlik tizimlaridagi qarzdorlar bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, oddiy dam olish – hatto vaqtinchalik bo‘lsa ham – xavotir, aybdorlik, uyat va ojizlikdan azob chekayotgan qarzdorlarga ulkan yengillik hissini berishi mumkin. Dunyo bo‘ylab ko‘plab sohaning siyosatini belgilovchilar bunday qarzdorlarning uzoq muddatli qiyinchiliklarini yengillashtirish o‘z-o‘zidan munosib maqsad degan xulosaga kelishdi.[259]

Shaxsiy to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining jamiyat uchun umumiy foydalarini bayon qilishdan oldin Jahon banki hisobotida qarzdorning oilasi uchun foydasi ham ko‘rib chiqilgan:

Qarzdorlarning turmush o‘rtoqlari, ayniqsa, farzandlari ayblari bo‘lmasa ham azob chekishadi, shuning uchun ular ayniqsa mehr-shafqat va yordamga loyiqdirlar. Umidsiz qarzdorlarning farzandlari kreditorlarning qo‘ng‘iroqlari va moliyaviy qiyinchiliklar bilan doimiy ravishda ta’qib qilinib keladigan oilada o‘sib-ulg‘ayishning jiddiy zararli oqibatlaridan aziyat chekishadi, ayniqsa, agar ota-ona qarzdor ushbu doimiy tazyiq natijasida samarali iqtisodiy faoliyatdan chetga chiqib qolsa. Bolalikdagi bu oqibatlar keyinchalik hayotda ijtimoiy chetlanish tufayli yomon ijtimoiylashuv, shuningdek, moliyaviy mas’uliyat, soliqlarni to‘lash va samarali ishtirok etishga nisbatan konstruktiv bo‘lmagan munosabat shaklida namoyon bo‘lishi mumkin. Keyin, kengroq maqsadlarga o‘tilsa, bolalarning majburiyatlar, ish va jamiyat bilan konstruktiv aloqada bo‘lish muhitida o‘sishini ta’minlash nafaqat qarzdor va uning farzandlari uchun, balki jamiyat uchun ham foydali bo‘ladi.[260]

Jamiyat uchun foydaga kelsak, Jahon bankining shaxsiy to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi hisobotida quyidagilar aniqlangan:

Kreditlarning mavjudligi va narxi mamlakatning iqtisodiy salomatligi uchun muhimdir. Banklar va boshqa institutsional kreditorlar o‘zlarining debitorlik qarzlarini muntazam ravishda baholashlari va audit qilishlari kerak. Tartibga soluvchi organlar va investorlar, o‘z navbatida, ushbu baholashlarning aniqligiga tayanadilar. Debitorlik qarzning qiymati asosan uning undirilishini aks ettirganligi sababli, unga ishonchni yo‘qotish muassasaga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi va butun iqtisodiyotga kaskadli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Jahon banki hisobotiga ko‘ra, ushbu mulohazalar jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizlik tizimiga quyidagicha tegishli:

To‘lovga qobiliyatsizlik tizimi kreditorlarni qarzdorning moliyaviy ahvoli yomonlashganligi sababli o‘z talablari qiymati pasayganini o‘z vaqtida e’tirof etishga va shunga mos choralar ko‘rishga undashi mumkin. Qarzdorlarning to‘lovga qobiliyatsizligining rasmiy deklaratsiyasi va tasdiqlanishi kreditorlarning muammoli kredit portfellarini yanada samaraliroq qayta baholashga va bunday kreditorlarga investitsiya kiritish va ularni tartibga solish borasida yanada oqilona qarorlar qabul qilishga

[259] 250-iqtibos, 25–26-betlar.
[260] 250-iqtibos, 27-bet.

undaydi. Bundan tashqari, qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligini tasdiqlash ko‘pgina tizimlarda soliq ta’siriga ega bo‘lishi mumkin, bu esa kreditorlarga o‘z zararlari uchun soliq imtiyozlarini talab qilish imkonini beradi. Natijada mazkur omillar investitsiya kiritish uchun yanada qulay muhit yaratadi hamda iqtisodiyot va jamiyatda muhim o‘rin tutadigan kreditorlar faoliyatining barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.[261]

Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizlik tizimi individual kreditorlarning majburiy ijro harakatlariga nisbatan jamoaviy ijroni ustuvor ko‘radi. Bu umidsiz darajada to‘lovga qobiliyatsiz jismoniy shaxslarga nisbatan individual ijro etishning kamchiliklarini yumshatadi:

Kreditorlarga umidsiz to‘lovga qobiliyatsiz qarzdorlarga qarshi ijro choralarini ko‘rishga ruxsat berilganda, kamida uchta salbiy oqibat yuzaga keladi. Birinchidan, sudlar ko‘pincha allaqachon ortiqcha yuklamadan zo‘riqqan resurslarini yanada og‘irlashtiradigan oddiy ijro choralari tufayli ish yuklamasi oshib qolgan bo‘ladi... Qarzlarni undirish ishlaridagi javobgarlik borasida ko‘pincha tortishuv bo‘lmaydi, ammo kreditorlar to‘lovga qobiliyatsiz qarzdorlarga qarshi sud qarorlari bo‘yicha qarzlarni undirish umidi juda past bo‘lganligi sababli, ular ko‘pincha amalda umuman undirib bo‘lmaydigan qaror chiqarish uchun umumiy sud tizimining shundoq ham kam resurslaridan foydalanadilar. Kreditorlar bunday sud jarayonlari xarajatlarining bir qismini o‘z zimmalariga olsalar-da, ularning davlat boji va boshqa yig‘imlari sud tizimini rasmiyatchilik va odatda samarasiz jarayon bilan yuklashning bevosita va bilvosita xarajatlarini to‘liq qoplamaydi. Ikkinchidan, agar rasmiy organga ushbu samarasiz qarorlarni ijro etish yuklatilgan bo‘lsa, uning vaqti va resurslari ham behuda sarflanadi. Bu xarajatlarni kreditordan undirish orqali ham to‘liq qoplash imkoni bo‘lmasligi mumkin. Nihoyat agar mavjud aktivlar topilsa, ularning qiymati ko‘pincha ijro xarajatlarini qoplashga sarflanadi, bu esa kreditorning mavqeini sezilarli yoki butunlay o‘zgartirmaydi, chunki bu aktivlarning haqiqiy obyektiv qiymatining katta qismi samarasiz bo‘lak-bo‘lak sotish jarayonida isrof bo‘ladi. Darhaqiqat, ko‘plab soha amaliyotini belgilovchilar qarzdorlarni uchinchi tomonga qaraganda ancha katta shaxsiy qiymatga ega bo‘lgan aktivlardan mahrum qilishning to‘rtinchi salbiy ta’sirini aniqladilar, bu ta’sir qarzdorlarga katta miqdordagi qayta tiklash xarajatlarini yuklash orqali yanada kuchayadi.[262]

Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizlik tizimi qarzdorning sog‘lig‘i va farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi. Natijada bu nafaqat qarzdorning o‘zi, balki butun jamiyat uchun ham ijobiy samara beradi, jumladan, sog‘liqni saqlash tizimi xarajatlarini va jinoyatchilik darajasini kamaytirishga hissa qo‘shadi.

Qarzdorlar qarzlardan rasmiy ravishda ozod qilish orqali jamiyatning samarali a’zolari sifatida jamiyatga qaytadilar. Jahon banki hisobotida quyidagilar qayd etilgan:

Faol va tirishqoq qarzdorlar jamiyatga turli yo‘llar bilan hissa qo‘shadilar... Aniq va tez-tez tilga olinadigan hissalardan biri soliq tushumlari bilan bog‘liq. Yashirin iqtisodiyotga o‘tishga majbur bo‘lgan qarzdorlar daromad keltirishi mumkin, ammo soliq

[261] 250-iqtibos, 29-bet.
[262] 250-iqtibos, 30-bet.

organlari bunday ishlab chiqarishdan foyda ko‘ra olmaydi. To‘lovga qobiliyatsizlik rejimlari qarzdorlarga o‘zlarining ishlab chiqarish salohiyatini muntazam iqtisodiyotga qo‘llash, ularning uzoq muddatli kelajakdagi ishlab chiqarish salohiyatini maksimal darajada oshirish va daromad solig‘i va ijtimoiy ta’minot badallarini to‘lash uchun rag‘batlantirishi mumkin. Umidsiz qarzdor bo‘lgan potensial ishchilarning soliqlar va ijtimoiy badallarni to‘lashning kechiktirishi ko‘plab mavjud to‘lovga qobiliyatsizlik rejimlarini qabul qilishda asosiy e’tiborga olingan masala bo‘lib kelgan.

...

Doimiy ish o‘rinlari mavjud bo‘lgan joylarda ba’zi qonun chiqaruvchilar kreditorlar va jamiyat o‘rtasida zararli raqobat sezishgan, xususan, kreditorlar kam miqdordagi to‘lovning kichik va ehtimol xayoliy umidida to‘lovga qobiliyatsiz qarzdorlarni yillar davomida ta’qib qilishda davom etganida. Masalan, bir mamlakatdagi amaliyotni belgilovchilar qarzdorlarning «ish tashlash»ga chiqishlari va agar ularning sa’y-harakatlari mevasining aksariyati yoki barchasi kreditorlar tomonidan tortib olinsa, muntazam daromad olish uchun ishlashdan bosh tortishlari kabi nomaqbul, ammo tushunish mumkin bo‘lgan tendensiyasini e’tirof etishgan. Bu yo‘qotilgan daromad nafaqat ta’qib qiluvchi kreditorlarga, balki butun jamiyatga zarar yetkazadi va jamiyatga yetkazilgan zarar kreditorlarga yetkazilgan zarardan ancha ko‘proq, ayniqsa kreditorlarning doimiy bosimi ko‘pincha qarzdorlardan to‘lovlarni emas, balki ularning doimiy ishchi kuchidan o‘zini chetga olishi hisobga olinsa. Potensial samarali qarzdorlarni ortiqcha daromadni tortib olish xavfi ostida ushlab turish orqali bu kreditorlar nisbatan kichik summa uchun jamiyatni ushbu qiynalgan qarzdorlarning potensial jihatdan ancha katta uzoq muddatli ishlab chiqarish energiyasidan mahrum qiladilar.[263]

Nihoyat kengroq moliyaviy tizim va iqtisodiyotda barqarorlik va bashorat qilish imkoniyati yaxshilanishi. Jahon banki hisobotida quyidagilar qayd etilgan:

To‘lovga qobiliyatsizlik tizimi moliyaviy tizimda ortiqcha qarz yuki to‘planishi natijasida yuzaga keladigan salbiy bosimni yumshatuvchi barqarorlashtiruvchi mexanizm vazifasini bajaradi, bu esa moliyaviy tizimda haddan tashqari kredit yuklamasi va to‘plangan unumdorlik natijasida hosil bo‘ladigan bosimni yo‘qotish uchun xizmat qiladi. Darhaqiqat, ko‘plab qonun chiqaruvchilar jismoniy shaxslar uchun yangi to‘lovga qobiliyatsizlik tizimlarining funksiyasini aynan shunday ta’rifladilar: moliyaviy va iqtisodiy faoliyatni yanada ravonroq tartibga solish uchun barqarorlashtiruvchi mexanizmni taklif qilish. Nazoratni tartibga solish iqtisodiyotning bir yoki bir nechta segmentlarida faoliyat uchun haddan tashqari rag‘batlantirishning, ko‘pincha «pufak» deb ataladigan to‘planishning oldini olish orqali barqaror va oldindan bashorat qilsa bo‘ladigan iqtisodiy faoliyatni saqlab turishi mumkin. Aksincha, to‘lovga qobiliyatsizlik tizimi faoliyat ko‘plab qarzlar bilan haddan tashqari yuklangan qarama-qarshi vaziyatda barqarorlik va bashorat qilishni saqlab qolishga yordam beradi. Salbiy nomutanosiblikni tuzatish uchun tabiiy, uzoq muddatli iqtisodiy kuchlarga tayanish o‘rniga to‘lovga qobiliyatsizlik tizimi iqtisodiy faoliyat qurbonlariga o‘z vaqtida va kamroq

[263] 250-iqtibos, 37–38-betlar.

zarar keltirish munosabatida bo‘lishni ta’minlashi, butun tizim bo‘ylab iqtisodiy faoliyatning yanada ravon, barqaror va oldindan bashorat qilsa bo‘ladigan holatda davom etishini ta’minlashi mumkin.[264]

Moddalar bo‘yicha sharh

195- va 196-moddalar

Xalqaro nuqtayi nazar – Sud tomonidan jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishini qo‘zg‘atish uchun belgilangan huquqiy mezonlar turli mamlakatlarda har xildir. Shunga qaramay, mazkur moddalar yuridik shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan mezonlarni jismoniy shaxsning huquqiy maqomi va o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirish orqali xalqaro amaliyotga muvofiq shakllantirilgan. Xususan, ikki qo‘shimcha mezon – qarzdorlikning kamida uch oy davom etishi va qarzdorlikning eng kam miqdori belgilanganligi – qarzdorning jismoniy shaxs ekanligi bilan izohlanadi.

198-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu modda mazkur xalqaro sharhning kirish qismida bayon etilgan shaffoflik tamoyilini tasvirlaydi.[265]

199-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Kreditorlar (shu jumladan, soliq organlari yoki boshqa vakolatli organlar) uchun jismoniy shaxsga qarshi ariza berish mezonlari va me’yorlari har bir mamlakatda farq qiladi. Agar ariza to‘lanmagan qarzni undirish to‘g‘risidagi talabga asoslangan bo‘lsa, ba’zi mamlakatlar talabni tasdiqlovchi sudning qonuniy kuchga kirgan qarori mavjud bo‘lishini nazarda tutadi. Aksincha, boshqalari belgilangan muddat ichida to‘lovni talab qiluvchi qaror asosida xabar berishning keyingi bosqichini talab qiladi. Ushbu talablar qarzdor qarzni to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lmagan yoki qarz nizo predmeti bo‘lgan yoki qarz qarzdorning kreditorga nisbatan qarshi talabi qiymatidan oshib ketgan hollarda jismoniy shaxsni bankrot qilishning jiddiy bosqichi amalga oshirilmasligini ta’minlaydi.

199-modda ushbu muammolarni talabni tasdiqlovchi sud qarori yoki 199-moddaning ikkinchi qismida keltirilgan boshqa tekshirish usullaridan birini talab qilish orqali hal qiladi. Bu masala 202-moddada batafsilroq ko‘rib chiqilgan.

201-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 20-moddaning ikkinchi qismida ko‘rib chiqilgan moliyaviy boshqaruvchini tayinlash bo‘yicha 22-, 23- va 25-moddalarga nisbatan 2-bobda keltirilgan xalqaro sharhga qarang.

---

[264] 250-iqtibos, 40-bet.

[265] Kirish qismining 6-betiga qarang.

202-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 199-moddadagi kreditorlarning talablari bo‘yicha xalqaro sharhga qarang.

203-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Kirish qismidagi «ta’minlangan qarz/garovlarga e’tibor tamoyili» sarlavhasi ostidagi[266] xalqaro sharhga qarang.

204-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 2-bobdagi kreditorlar yig‘ilishlari bo‘yicha xalqaro sharhlarga qarang.

205-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 205-modda sud qaroridan keyin qarzdor va uning aktivlarini himoya qilishni o‘z ichiga oladi. Ushbu himoya bilan bog‘liq xalqaro amaliyotlar uchun 8-bobda keltirilgan yuridik shaxsga tegishli shunga o‘xshash choralar bo‘yicha xalqaro sharhga qarang.

206-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 206-modda qarzdorning aktivlarini himoya qilish orqali kreditorlar manfaatlarini himoya qilishni o‘z ichiga oladi. Ba’zi aktivlar bilan bog‘liq bitimlar taqiqlanadi, boshqalari esa kreditorlar yig‘ilishi, moliyaviy boshqaruvchi yoki sudning roziligini talab qiladi. Cheklangan bitimlar turlari va turli darajadagi cheklashlar bo‘yicha universal xalqaro amaliyot mavjud emas. Biroq 206-moddadagi choralar quyidagilarni tan olishda xalqaro amaliyotga mos keladi:

jismoniy shaxs oziq-ovqat va boshpana uchun pul va boshqa aktivlarga ega bo‘lishi kerak;

turli bitimlarning turlicha ahamiyati turli darajadagi rozilikni talab qiladi.

207-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Hujjatlar va axborot talablari mazkur xalqaro sharhning kirish qismida muhokama qilingan shaffoflik tamoyilining ahamiyatini aks ettiradi.[267]

208-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 208-moddaning ikkinchi qismidagi hujjatlashtirish va axborot talablari kirish qismida muhokama qilingan shaffoflik tamoyilining ahamiyatini aks ettiradi.[268]

---

[266] Kirish qismining 7–9-betlariga qarang.

[267] Kirish qismining 6-betiga qarang.

[268] Kirish qismining 6-betiga qarang.

209-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini to‘liq amalga oshirish uchun uch yillik muddat, odatda, jismoniy shaxs qarzdor bo‘lgan rejani to‘liq amalga oshirish uchun qisqa vaqt oralig‘ini talab qiladigan xalqaro amaliyotga mos keladi.

209-moddaning to‘rtinchi va sakkizinchi qismlariga kelsak, kirish qismidagi «ta’minlangan qarz/garovlarga e’tibor tamoyili» sarlavhasi ostidagi xalqaro sharhga qarang.[269]

209-moddaning oltinchi qismidagi kreditorlarning talablari mutanosib ravishda qondirilishi kerakligi haqidagi norma (kreditor kamroq ulushga rozilik bergan hollar bundan mustasno) Kirish qismida muhokama qilingan adolatli munosabat tamoyilini ko‘rsatadi.[270]

210-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 210-moddaning hujjatlashtirish va axborot talablari Kirish qismida muhokama qilingan shaffoflik tamoyilini aks ettiradi.[271]

211- va 212-moddalar

Xalqaro nuqtayi nazar – 211- va 212-moddalarda sudning qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini tasdiqlash yoki rad etishdagi roli bayon etilgan.

Ushbu moddalar kreditorlarning qarori va sudning rejani tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, xususan, quyidagilarni ko‘rib chiqadi:

reja sud tomonidan tasdiqlanmaguncha qonuniy kuchga ega emas;

kreditorlar yig‘ilishi rejani ma’qullamagan bo‘lsa ham, sud (agar shartlar bajarilsa) reja qonuniy kuchga kirishi uchun tasdiqlashi mumkin.

Bu pozitsiya asosan jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi bo‘yicha xalqaro miqyosda e’tirof etilgan tamoyillarga mos keladi.

Birinchi yondashuv Jahon banki hisobotida quyidagi ma’noda tushuntirilgan «kreditorlarning passivligi»ga qaratilgan:

Jismoniy shaxslar uchun to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarida, aksincha, juda kam qiymat mavjud va kreditorlar odatda tartib-taomilda deyarli rol o‘ynamaydi yoki umuman rol o‘ynamaydi. Kreditorlar ishtirok etishga taklif qilingan taqdirda ham, ularning jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarida ishtirok etishini odatiy hol deb hisoblab bo‘lmaydi. Kreditorlar buni o‘z manfaatlariga mos deb bilganlarida ishtirok etadilar va ularning ishtiroki ularning dividendlarini oshirishi ehtimoldan yiroq deb hisoblaganlarida ishtirok etishni istamaydilar. Shunday qilib, kreditorlarga kam yoki umuman dividend kutilmagan jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarining katta qismida kreditorlarning passivligi oqilona tanlov bo‘lishi mumkin.

[269] Kirish, 7–9-betlar.

[270] Kirish qismining 7-betiga qarang.

[271] Kirish qismining 6-betiga qarang.

Jismoniy shaxslar ishtirokidagi to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarida kreditorlar ko‘pincha bunday sud jarayonlaridan olinadigan dividendlarni ularning ishtirokini oqlash uchun yetarli emas deb hisoblashgan. Kreditorning to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining boshlanishiga qarshi e’tirozi qo‘llab-quvvatlansa ham, natijada qonuniy ravishda yordam olish huquqiga ega bo‘lmasa ham, amalda to‘lovga qobiliyatsiz qarzdorga qarshi undirib bo‘lmaydigan talab paydo bo‘lishi ehtimoli katta. Natijada bugungi kunda dunyodagi jismoniy shaxslar ishtirokidagi to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarining[272] aksariyat qismida kreditorlarning faol ishtiroki istisno hisoblanadi.

Kreditorlarning passivligi kreditor rejasini tasdiqlash bo‘yicha ovoz berishda muammo tug‘diradi, chunki kreditorlar yig‘ilishida ko‘pchilik ovoz umumiy kreditorlarning ozgina qismini tashkil qilishi va barcha kreditorlarning umumiy pozitsiyasini aks ettirmasligi mumkin.

Ikkinchidan, ba’zi mamlakatlarda ayrim institutsional kreditorlar (masalan, soliq nazorati idoralari, moliya institutlari va qarzlarni undirish tashkilotlari), rejaning afzalliklaridan qat’i nazar, umumiy yondashuv masalasi sifatida barcha rejalarga qarshi ovoz berishadi. Jahon banki hisobotida ta’kidlanganidek, bunday yondashuv «*qarzdorning qadr-qimmatini yoki to‘lov rejasining sifatini e’tiborsiz qoldiradi va bunday siyosat oxir-oqibat tizimning boshqa kreditorlar va jamiyat uchun ko‘plab afzalliklariga erishishga putur yetkazadi*».[273]

Bundan tashqari, passiv kreditorlar ko‘pincha qisman ma’lumotlarga asoslanib qaror qabul qiladilar, chunki ularda tegishli ma’lumotlarni ko‘rib chiqish uchun vaqt yoki rag‘bat yo‘q.[274] Bu jihatdan sudning vazifasi kreditorlarnikidan tubdan farq qiladi, chunki sud ish materiallarini har tomonlama o‘rganish va qarzdorni, shuningdek, ziddiyatli fikrlarni tinglash majburiyatiga ega.

Nihoyat kreditorlarning passivligi masalasida, rejani tasdiqlashda ishtirok etadigan va ovoz beradigan kreditorlarning shaxsiy manfaatlari oqilona fikrlashni aks ettirmasligi mumkin.[275] Kreditorlarning passivligi tufayli yig‘ilishda kam ishtirok etish shaxsiy, oqilona bo‘lmagan niyatlarga ega kreditorlarga ovoz berishda ustunlik qilish imkonini beradi, bu esa jami kreditorlarning manfaatlariga putur yetkazadi.

Shu bois xalqaro amaliyotda ko‘plab mamlakatlar qonunchiligi sudga, qonunda belgilangan shartlar mavjud bo‘lgan taqdirda, kreditorlar yig‘ilishida ishtirok etgan kreditorlarning ko‘pchiligi rejaga qarshi ovoz bergan bo‘lsa ham, uni tasdiqlash vakolatini beradi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunda kreditorning rad etishi ustidan sud tomonidan rejani tasdiqlash faqat 211-moddaning beshinchi qismi talablari bajarilgan taqdirdagina mumkin. Ushbu talablar, 14-bobga muvofiq, yuqorida tushuntirilgan tamoyillarni, shuningdek, kreditorlarning qarorlariga hurmat ko‘rsatishning muhimligini muvozanatlashtiradi.

---

[272] 250-iqtibos, 70-bet.

[273] 250-iqtibos, 72–73-betlar.

[274] 250-iqtibos, 73-bet.

[275] 250-iqtibos, 73-bet.

211-modda, shuningdek, kreditorlar rejani rad etgan hollarda, sudga rejani keyingi muhokama qilish uchun yoki muqobil rejani tayyorlash va ko‘rib chiqish uchun qisqa muddatga uzaytirish imkonini beradi.

Rejani rad etish uchun bir nechta asoslar Kirish qismida muhokama qilingan yaxlitlik tamoyillarini ko‘rsatadi.[276]

213-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 213-modda birinchi qismining oltinchi xatboshisi Kirish qismida muhokama qilingan yaxlitlik va shaffoflik tamoyillarini tasvirlaydi.[277] 213-moddaning ikkinchi qismida Kirish qismida muhokama qilingan yaxlitlik va shaffoflik tamoyillari ham ko‘rsatilgan.[278]

214-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Kreditorlarning qarori va sud qarori o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirga kelsak, yuqorida 211-moddaga nisbatan muhokama qilingan xalqaro tamoyillar ham o‘rinlidir. Xuddi shunday, ushbu qarama-qarshi tamoyillarni bu holda 214-moddaning o‘ninchi qismida belgilangan shartlar asosida hal qilishda muvozanatni saqlash kerak, bunda kreditorlar muddatni uzaytirishga qarshi chiqishlari mumkin.

216- va 217-moddalar

Xalqaro nuqtayi nazar – 216- va 217-moddalarning ikkalasi ham xalqaro amaliyotga muvofiq aniqlangan holatlarda qarzni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish rejasini bankrotlik tartib-taomiliga o‘tkazish imkoniyatini beradi.

217-moddaning birinchi qismidagi dastlabki ikkita kichik xatboshi Kirish qismida muhokama qilingan yaxlitlik va shaffoflik tamoyillarining muhimligini ko‘rsatadi.[279]

218-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Bankrotlik tartib-taomilining davomiyligi har bir mamlakatda tanlangan huquqiy modelga bog‘liq. Xalqaro miqyosda universal standart yo‘q, u bir necha oydan (iste’mol qarzlari uchun) uch yoki undan ortiq yilgacha o‘zgarishi mumkin (masalan, Germaniyada 2020-yilga qadar bu muddat 6 yilgacha bo‘lgan). To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunga ko‘ra, bu muddat olti oyni tashkil etadi, qo‘shimcha uch oygacha uzaytirilishi mumkin.

219-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Xalqaro amaliyot bankrotlikni qarzdorning kreditorlarining talablarini birgalikda qondirish uchun qarzdorning mol-mulkiga nisbatan ja-

[276] Kirish, 5-betga qarang.
[277] Kirish, 5–6-betlarga qarang.
[278] Kirish, 5–6-betlarga qarang.
[279] Kirish, 5-6-betlarga qarang.

moaviy ijro vositasi sifatida ko‘rib chiqadi. Bu, 219-moddaning birinchi – to‘rtinchi qismlarida ko‘rsatilganidek, kreditorlarning talablarini qondirish uchun qarzdorning mavjud mol-mulkini aniqlashni talab qiladi.

Jamoaviy ijro jarayoniga oid xalqaro amaliyot tanlov massasining aktivlarini nazorat qilishni mustaqil mutaxassis – bu yerda moliyaviy boshqaruvchi – amalga oshirishini talab qiladi. Bu 219-moddaning beshinchi – sakkizinchi qismlarida ko‘rib chiqilgan.

Shuningdek, tanlov massasining aktivlarini sotilishi va realizatsiya qilinishidan oldin himoya qilish xalqaro amaliyotda bor. Ushbu turdagi himoya vositalari 219-moddaning to‘qqizinchi qismida va undan keyingi qismlarida ko‘rib chiqilgan.

220-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 220-moddaning bir nechta qismlari turmush o‘rtog‘i yoki sobiq turmush o‘rtog‘i bilan birgalikdagi mulkka ega bo‘lgan aktivlarga tegishli. Bu masala xalqaro amaliyotda tez-tez uchraydi va birgalikdagi mulk «*alohida qarzdorlar uchun murakkab huquqiy muammolarni keltirib chiqarishi»* va bunday asoratlar *qarzdorlar va ularning turmush o‘rtoqlarining manfaatlarini baholashda tez-tez yuzaga kelishi kuzatilgan.* Bundan tashqari, Jahon banki hisobotida quyidagilar qayd etilgan[280]:

Oilaviy uy bilan bog‘liq murakkab muammolar, shuningdek, uy sotib olish yoki ipoteka kreditini to‘lash uchun ishlatilgan to‘lovga qobiliyatsiz turmush o‘rtog‘ining badallari bilan bog‘liq holda ham yuzaga kelishi mumkin.

Xalqaro tajribaga asoslanib bu masalalar tegishli to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilik nuqtayi nazaridan va ko‘p hollarda qarzdorning manfaatlari boshqa qonunlarga muvofiq qanday ko‘rib chiqilishi bilan bog‘liq holda hal qilinadi.

221-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 221-moddaning birinchi qismi xalqaro amaliyotga mos keladi, chunki u to‘lovlarni amalga oshirishda joriy kreditorlarga (To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi Qonunda belgilanganidek) ariza berilishidan oldingi kreditorlardan ustuvorlik belgilaydi. Aks holda, bankrotlik jarayonining subyekti bo‘lgan jismoniy shaxsga nisbatan hech qanday kredit berilmaydi. Masalan, agar moliyaviy boshqaruvchining haqi birinchi o‘ringa qo‘yilmasa, bu rolni bajaradigan odamni topish qiyin bo‘ladi. Ustuvorlik maqomini berish bankrotlik jarayonining mo‘ljallanganidek ishlashini ta’minlaydi.

221-moddaning oltinchi, yettinchi va sakkizinchi qismlarida garovga qo‘yilgan aktivlarni o‘zaro hisobga olish bo‘yicha kirish qismidagi «ta’minlangan qarz/garovlarga e’tibor tamoyili» sarlavhasi ostidagi xalqaro sharhga qarang.[281]

221-moddaning to‘qqizinchi qismi (shuningdek, 222-moddaning bir nechta qismlari) bankrotlik jarayoni tugagandan so‘ng kreditorlarning talablarini so‘ndirishni nazarda tutadi, To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunda ko‘rsatilgan ozod qilingan talablar bundan mustasno. Batafsil ma’lumot uchun quyida 222-modda sharhida keltirilgan talablarni so‘ndirish bo‘yicha xalqaro sharhga qarang.

---

[280] 250-iqtibos, 85-bet.

[281] Kirish qismining 7–9-betlariga qarang.

222-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 222-moddaning birinchi qismi kirish qismida muhokama qilingan shaffoflik tamoyilini tasvirlaydi.[282]

222-moddaning uchinchi qismida jismoniy shaxsni bankrot deb topish va uning mol-mulkini sotish tartib-taomili joriy etilayotganda kreditorlarning bildirilmagan talablarini bajarish majburiyatidan ozod etilishi nazarda tutilgan, To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunning boshqa joylarida (shu jumladan, 222-moddaning bir nechta qismlarida) ko‘rsatilgan ozod qilingan talablar bundan mustasno.

Jahon banki hisobotida xalqaro miqyosda ozod qilish bo‘yicha quyidagi mulohazalar keltirilgan:

[Sanatsiya maqsadi] uchun qarzdorning iloji boricha ko‘proq qarzlari qarzlarni to‘lashdan ozod qilish doirasiga kiritilishi muhimdir. Qarzlarni to‘lashdan ozod qilish ta’siridan qancha ko‘p qarzlar chiqarib tashlansa, qarzdorni sanatsiya va ko‘plab tegishli maqsadlarga erishishda to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili shunchalik samarasiz bo‘lishi mumkin... Kreditorlarga teng munosabatda bo‘lishning eski to‘lovga qobiliyatsizlik qonuni tamoyili shaxsiy to‘lovga qobiliyatsizlik qonunchiligida to‘lashga kiritiladigan qarzlarga nisbatan yana bir muhim prinsipdir. Jismoniy shaxslar uchun to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunlarning aksariyati kreditorlarning tengligi tamoyiliga amal qilishda davom etmoqda, shuning uchun to‘lashdan juda kam talablar chiqarib tashlanadi. Ammo bu umumiy tendensiyadan ba’zi istisnolar mavjud, hatto «qarzdorlarga do‘stona» deb nomlanuvchi mamlakatlarda ham. Bozor sharoitida yaratilmagan ba’zi qarzlar, xususan, bolalarni qo‘llab-quvvatlash va ba’zan turmush o‘rtog‘ini qo‘llab-quvvatlash ko‘plab tizimlarda qarzlarni to‘lashdan chiqarib tashlanadi. Xuddi shunday, soliqlar va jarimalar ko‘pincha chiqarib tashlanadi, garchi to‘lovga qobiliyatsizlik qonunchiligidagi so‘nggi tendensiya davlat organlari oldidagi qarzlarga maxsus munosabatni bekor qilish bo‘lsa ham.[283]

222-moddada ifodalangan ozod qilinishning bir qator istisnolari Kirish qismida muhokama qilingan yaxlitlik tamoyilini aks ettiradi.[284]

223-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu modda Kirish qismida muhokama qilingan shaffoflik va yaxlitlik tamoyillarining muhimligini ko‘rsatadi.[285]

225-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Xalqaro amaliyotda bankrotlik tartib-taomili boshlanganidan keyin ham qarzdor va kreditorlar o‘rtasida kelishuvga erishish imkoniyati saqlanib qoladi.

---

[282] Kirish qismining 6-betiga qarang.

[283] 250-iqtibos, 120–121-betlar.

[284] Kirish qismining 5-betiga qarang.

[285] Kirish, 5–6-betlarga qarang.

15-BOB
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORNING TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIGI

Kirish – Tadbirkorlarning ahamiyati

Xalqaro nuqtayi nazar – Tadbirkorlar quyida keltirilgan nashrlarda turli xil nomlangan: «tadbirkorlar», MSME (MKO‘K, mikro, kichik yoki o‘rta korxonalar degan ma’noni anglatadi) yoki MSE (MKK, mikro yoki kichik korxonalar degan ma’noni anglatadi). Odatda, bu atamalar shaxs (yoki oila) tomonidan boshqariladigan kichik yoki mikro (ya’ni juda kichik) biznesni anglatadi. Mazkur xalqaro sharhda «tadbirkor» atamasi ishlatiladi, garchi iqtibos qilingan parchalarda ko‘pincha boshqa atamalar qo‘llanilsa-da.

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi va raqobat muhitini shakllantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Jahon bankining MKK qo‘llanmasida ta’kidlanganidek:

Mikro, kichik va o‘rta korxonalar (MKO‘K) global iqtisodiyotning asosini tashkil qiladi. Kichik va o‘rta biznesning xilma-xilligi va ko‘pligi ularning aniq sonini belgilash va ta’sirini o‘lchashni qiyinlashtirsa-da, ular biznesning aksariyat qismini ifodalaydi va deyarli barcha iqtisodiyotlarda bandlik, iqtisodiy o‘sish va tadbirkorlikning asosiy omili hisoblanadi.[286]

Jahon banki bu muhim masalani quyidagi global statistika bilan ko‘rsatadi:

Kichik va o‘rta biznesning eng muhim afzalliklaridan biri ularning bandlikka qo‘shgan hissasidir. Xususiy sektorda bandlikning taxminan 60 foizi yoki dunyo ishchi kuchining uchdan bir qismi kichik va o‘rta biznesga to‘g‘ri keladi. Kichik va o‘rta biznes tomonidan yaratilgan iqtisodiy hissa ham salmoqli: ular xususiy sektor qo‘shilgan qiymatining 52 foizini tashkil qiladi («qo‘shilgan qiymat» – iqtisodiyotning mahsulot qiymati, oraliq iste’molni ayirgan holda yoki YIM soliqlarni ayirgan holda, lekin subsidiyalarni o‘z ichiga olgan holda).[287]

Kirish – Tadbirkorlar duch keladigan qiyinchiliklar

Xalqaro nuqtayi nazar – Ko‘pgina mamlakatlarning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunlarida tadbirkorlarning bankrotligiga nima uchun alohida e’tibor berilishini tushunish uchun tadbirkorlar duch keladigan qiyinchiliklarning mohiyatini tushunish muhimdir.

Tadbirkorlar o‘z bizneslarini yuritishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu ko‘pincha yirik bizneslarga duch keladigan qiyinchiliklardan farq qiladi va qiyinroq

[286] 8-iqtibos, 1-bet.
[287] 8-iqtibos, 4-bet.

bo‘ladi. Ular «*ko‘pincha katta bizneslarga nisbatan kamroq kapitalga, o‘z bozorlarida pastroq bozor ulushiga, ishchi kuchi kamroq va umuman kamroq resurslarga ega bo‘ladilar. Bu omillar kichik va o‘rta biznesning yirik bizneslardan farqli faoliyat yuritishiga olib keladi va shunga mos ravishda ular duch keladigan qiyinchiliklar va to‘siqlar o‘ziga xosdir».*[288]

Jahon bankining MSE qo‘llanmasida tadbirkorlar duch keladigan ba’zi qo‘shimcha qiyinchiliklar bayon etilgan:

MKO‘Kning kichik hajmi va cheklangan faoliyat ko‘lami ularning faoliyati muvaffaqiyatsiz yakunlanishi xavfini oshiradi. Devis va boshqalar[289] ta’kidlaganidek, MKO‘K ko‘pincha diversifikatsiyalanmagan yetkazib beruvchilar va mijozlarga ega, bu esa muhim kontragentning yo‘qolishini yoki kechiktirilgan to‘lovni yanada xavotirli qiladi. Bundan tashqari, MSME ko‘pincha yuridik va moliyaviy mutaxassislardan yordam olish uchun resurslarga ega emas. MSME odatda yirik korxonalarga o‘xshash darajada moliyalashtirishga ega bo‘la olmasligini hisobga olsak, MSME ko‘pincha makroiqtisodiy va moliyaviy shoklarga dosh berishda qiyinchiliklarga duch keladi... Ko‘pgina bizneslar uchun o‘sishni moliyalashtirish yoki pul oqimi nomutanosibligi davrida operatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun kredit olish zarur. Yetarlicha xizmat ko‘rsatilmagan yoki qondirilmagan moliyalashtirish ehtiyojlari korxonani to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelishi mumkin. IFC (XMK)ning hisob-kitoblariga ko‘ra, rasmiy MSMEning yarmidan uchdan ikki qismigachasi moliyalashtirishni bevosita qo‘lga kiritish imkoniga ega emas.[290]

Xalqaro miqyosda tadbirkorlar mamlakatning to‘lovga qobiliyatsizlik tizimining keng tarqalgan foydalanuvchilari hisoblanadi. Bu ularning mamlakat tijorat faoliyatidagi katta ulushi va yuqorida bayon qilingan o‘ziga xos zaifliklari bilan bog‘liq.

Natijada so‘nggi 20 yil ichida Jahon banki va UNCITRAL kabi xalqaro tashkilotlar tadbirkorlar uchun ayniqsa dolzarb bo‘lgan muammolarni hal qilish uchun to‘lovga qobiliyatsizlik tizimlarini moslashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar ishlab chiqishga katta mablag‘ sarfladi. Shu davrda mamlakatlar tadbirkorlarning to‘lovga qobiliyatsizligini hal qilish uchun to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida alohida rejimni tobora ko‘proq qo‘llamoqda.

Tadbirkorlarning bankrotligi bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar UNCITRAL tomonidan nashr etilgan asosiy maqsadlar ro‘yxatida aks etgan:

A. Soddalashtirilgan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilining asosiy maqsadlari

271. Davlatlar soddalashtirilgan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilini ta’minlashi va shu maqsadda quyidagi asosiy maqsadlarni ko‘rib chiqishi kerak:

---

[288] 8-iqtibos, 5-bet.

[289] Davis, Ronald, Stephan Madaus, Alberto Mazzoni, Irit Mevorach, Riz Mokal, Barbara Romaine, Janis Sarra, and Ignacio Tirado. 2016. “The Modular Approach to MSME Insolvency”. Ishchi hujjat loyihasi. Jahon banki guruhi va mualliflari bilan ro‘yxatga olingan fayl.

[290] 8-iqtibos, 5–6-betlar.

(a) Tezkor, sodda, qulay va arzon narxlardagi to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonlarini (bundan buyon «soddalashtirilgan to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonlari» deb yuritiladi) joriy etish;

(b) Mikro va kichik korxonalar (MKK) uchun soddalashtirilgan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini taqdim etish va ulardan osongina foydalanish imkoniyatini yaratish;

(c) soddalashtirilgan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari orqali faoliyat yuritishga layoqatsiz kichik va o‘rta biznes subyektlarini tezkor ravishda tugatish va faoliyat yuritishga layoqatli kichik va o‘rta biznes subyektlarini qayta tashkil etish orqali qarzdorning faoliyatini yangitdan boshlashni rag‘batlantirish;

(d) Soddalashtirilgan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari davomida soddalashtirilgan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillaridan ta’sirlangan shaxslarni, jumladan, kreditorlar, xodimlar va boshqa manfaatdor taraflarni (bundan buyon matnda «manfaatdor taraflar» deb yuritiladi) himoya qilishni ta’minlash;

(e) Kreditorlar va boshqa manfaatdor taraflarning soddalashtirilgan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarida ishtirok etishini osonlashtirish, kreditor va qarzdor o‘rtasidagi munosabatlarning tugatilishi uchun samarali choralarni ko‘rish;

(f) Soddalashtirilgan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilini suiiste’mol qilish yoki noto‘g‘ri foydalanishning oldini olish va noto‘g‘ri xatti-harakatlar uchun tegishli jazolarni qo‘llash uchun samarali sanksiyalar tartib-taomilini joriy etish;

(g) To‘lovga qobiliyatsizlik tufayli stigmatizatsiya bilan bog‘liq xavotirlarni hal qilish;

(h) Qayta tashkil etish mumkin bo‘lgan hollarda ish o‘rinlari va investitsiyalarni saqlab qolish.

Yuqoridagi tamoyillar quyidagilarni ta’minlashga qaratilgan:

(a) yangitdan boshlash, iloji bo‘lsa, sanatsiya imkoniyati bilan (oddiy, tezkor va arzon usulda);

(b) xuddi shunday sodda, tezkor va arzon bo‘lgan muqobil tugatish yo‘li.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan tadbirkorlarning aksariyati oxir-oqibat tugatiladi.

Yuqorida aytib o‘tilganlar tegishli huquqiy asosni shakllantiradi, xalqaro miqyosda tadbirkorlarga nisbatan qo‘llaniladigan alohida to‘lovga qobiliyatsizlik tizimining asosi sifatida tan olingan umumiy maqsadlarni belgilaydi. O‘zbekistonning to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonuni 15-bobida mamlakatdagi yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan qo‘llaniladigan aniq shartlar qayd etilgan.

Quyidagi sharhda ko‘rsatilganidek, moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan tadbirkor uchun tugatishga muqobil sifatida uchta sanatsiya varianti mavjud. Ular sudgacha sanatsiya (227-modda va uning 4-bobga havolasiga qarang), 12-bobda ko‘rsatilgan turdagi kelishuv bitimiga erishish (232-moddaning ikkinchi qismiga qarang) va qarzni to‘lash rejasini tuzish (229-moddaga qarang).

Moddalar bo‘yicha sharh

227-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – 4-bobning tegishli boblar ro‘yxatiga kiritilishi xalqaro amaliyotga mos keladi va 4-bobdagi sudgacha bo‘lgan sanatsiyaga oid aniq moddalar alohida e’tiborga loyiqdir. 34-moddada keltirilgan ba’zi choralar moliyaviy jihatdan qiynalayotgan tadbirkorning moliyaviy imkoniyatlariga mos kelmasligi ehtimoli katta bo‘lsa-da, boshqa choralar juda o‘rinli, masalan:

«*sudgacha sanatsiya davrida soliqlar va yig‘imlarni to‘lashni hamda kreditlarni qaytarish muddatini kechiktirish»;*

«qarzdor va kreditorlar o‘rtasida qarzdorning faoliyatini davom ettirish uchun kreditorlarga to‘lanadigan to‘lovlarni kechiktirish va (yoki) bo‘lib-bo‘lib to‘lash yoki qarzlar bo‘yicha chegirma berish to‘g‘risida ular o‘rtasida kelishuvga erishishga qaratilgan kelishuv».

Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan ko‘plab tadbirkorlar yagona kreditor – ko‘pincha tadbirkorning banki, uy egasi yoki soliq organi bilan munosabatlarda moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishadi. Agar ushbu yagona kreditor bilan kelishuvga erishilsa (masalan, kechiktirish, bo‘lib-bo‘lib to‘lash va/yoki qarzlar bo‘yicha chegirma), unda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishni boshlashning oldini olish mumkin. Bunday kelishuv bank, uy egasi yoki soliq organi uchun jozibador bo‘lishi mumkin, chunki rasmiy to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish yuritishning muqobili ushbu kreditor uchun ancha yomon moliyaviy natijalarga olib kelishi mumkin.

229-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu modda moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan tadbirkorga tiklashning uchta usulidan birini taqdim etadi. Uning shartlari ushbu bobning kirish qismida keltirilgan UNCITRAL maqsadlar ro‘yxatidagi (c) maqsadga mos keladi.

Bu, shuningdek, quyidagi sodda jarayonni ta’minlashda UNCITRAL maqsadlar ro‘yxatidagi (a) va (b) maqsadlarga mos keladi:

(a) qarzdorning arizasiga qo‘shib qarzni to‘lash rejasini ilova qilish;

(b) sudga kreditorlar yig‘ilishisiz rejani tasdiqlashga ruxsat berish (kreditorlarning e’tirozlari bo‘lmasa degan taxmin asosida).

Ushbu jarayon, shuningdek, kreditor va qarzdor o‘rtasidagi munosabatlarning tugatilishi bilan bog‘liq kechikishlarni (UNCITRAL maqsadlar ro‘yxatidagi (e) maqsad), yig‘ilish talabini olib tashlash orqali hal qiladi, shu bilan birga, kreditorlarga 2 oy ichida rejaga e’tiroz bildirishga ruxsat beradi. Sud e’tirozlar bo‘yicha ruxsat etilgan tarzda (UNCITRAL maqsadlarining (d) maqsadini aks ettiruvchi) sud jarayoniga asossiz kechikish va ortiqcha xarajatlar qo‘shmasdan harakat qilish vakolatiga ega.

230-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu moddada ko‘zda tutilgan, aks holda, qarzlarni to‘lash uchun sotilishi mumkin bo‘lgan mulkka nisbatan istisnolar xalqaro amaliyotga mos keladi.

Bu yerda taalluqli bo‘lishi mumkin bo‘lgan aktivlar doirasini cheklamasdan, e’tiborga loyiq istisno misoli sifatida duradgor bo‘lgan qarzdorning asbob-uskunalarini keltirish mumkin. Ushbu vositalar duradgorning tirikchilik qilishda davom etishi uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, ishlatilgan asbob-uskunalar sifatida ularni sotish «*kreditorlar talablarini qondirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi»* ehtimoli kam.[291]

232-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu modda moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan tadbirkorga tiklashning uchta usulidan birini taqdim etadi. Uning shartlari yuqorida ushbu bobning kirish qismida keltirilgan UNCITRAL maqsadlar ro‘yxatidagi (c) maqsadga mos keladi.

Kelishuv bitimini tuzish uchun berilgan bir oylik muddat yuqorida ushbu bobning kirish qismida keltirilgan UNCITRAL maqsadlar ro‘yxatidagi (a) maqsadga mos keladi, chunki qisqa muddat nizoni tezkor hal qilishga yordam beradi.

233-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Ushbu moddada bayon etilgan jarayonlar, jumladan, kreditorlarning talablarini taqdim etish uchun bir oylik muddat tezkorlik bilan amalga oshiriladi. Bu yana ushbu bobning kirish qismida yuqorida keltirilgan UNCITRAL maqsadlar ro‘yxatidan (a) maqsadi – tezkor hal qilish maqsadiga mos keladi.

237-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – Tadbirkor tugatish jarayoni tugallangandan so‘ng ozod qilinadi. «Bankrotlik»ning uzaytirilgan muddati yo‘q. Shunday qilib, tadbirkor sud jarayoni boshlanganidan keyin nisbatan qisqa vaqt ichida boshqa tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Bu ushbu bobning kirish qismida yuqorida keltirilgan UNCITRAL maqsadlari ro‘yxatiga, jumladan, faoliyatni qayta boshlash imkoniyatiga mos keladi.

[291] 230-modda, ikkinchi qism.

16-BOB
TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIKNING SODDALASHTIRILGAN TARTIB-TAOMILLARI

Ushbu bob bo‘yicha xalqaro sharhlar mavjud emas.

17-BOB
YAKUNLOVCHI QOIDALAR

Moddalar bo‘yicha sharh

244-modda

Xalqaro nuqtayi nazar – To‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida yuzaga keladigan nizolarni hal qilish tartibini belgilash xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladi. Qaysi taraflar nizolarni hal qilish jarayonida ishtirok etish huquqiga ega ekanligi masalasi yuzaga keladi. Bu O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq hal qilinishi kerak bo‘lgan masala.

Xalqaro amaliyot nuqtayi nazaridan, UNCITRAL qo‘llanmasida quyidagi mulohazalar keltirilgan:

To‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakil, qarzdor, kreditor, kreditor qo‘mitasi yoki boshqa manfaatdor taraf to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunga muvofiq murojaat qilishni xohlashi yoki boshqalar bunday murojaatlarga e’tiroz bildirishi mumkin. Ushbu taraflarning har biri to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunga muvofiq ularning huquqlari, aktivlarga nisbatan huquq va manfaatlari yoki majburiyatlari buzilganda eshitilish huquqi ta’minlanishi kerak.[292]

[…]

To‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilning harakatlari kreditorlarning oldindan roziligiga bog‘liq bo‘lmagan hollarda kreditorlarga suddan to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilning qarorini qayta ko‘rib chiqishni so‘rash huquqini berish o‘rinli bo‘lishi mumkin. Bunday ko‘rib chiqish tartibi to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha vakilning harakatlari ularga ta’sir qilgan boshqa manfaatdor taraflar uchun ham mos kelishi mumkin.[293]

[292] 4-iqtibos, 205-bet.
[293] 4-iqtibos, 206-bet.

MUALLIFLAR HAQIDA

Otaxonov Foziljon Xaydarovich

“Demokratiya va inson huquqlari instituti” respublika jamoat birlashmasi direktori o‘rinbosari, TDYU Tadqiqot markazi bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlar doktori, professor.

Yurtimizda hamda o‘nga yaqin xorijiy davlatlarda F.X. Otaxonovning 700 dan ortiq ilmiy, o‘quv-amaliy ishlari va maqolalari chop etilgan. Jumladan, bankrotlik to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini keng targ‘ib qilish maqsadida yigirmadan ortiq monografiya, o‘quv qo‘llanmalar va ilmiy-ommabop maqolalar yozgan.

F.X. Otaxonov “Bankrotlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini 1998- va 2003-yillarda yangi tahrirda qabul qilish jarayonida faol ishtirok etgan bo‘lib, uning aksariyat takliflari inobatga olingan.

Toshkent shahar xo‘jalik sudida faoliyat yuritgan davrida ellikdan ortiq bankrotlik ishlarini ko‘rib chiqqan va sud amaliyotini umumlashtirish hamda Oliy xo‘jalik sudi Plenumi qarorini tayyorlashda qatnashgan.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Xo‘jalik protsessual kodeksi, “Bankrotlik to‘g‘risida”gi, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi hamda “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunlarga sharhlar tayyorlashda ishtirok etgan.

Kalandarova Malikaxon Pirnazarovna

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o‘rinbosari, O‘zbekiston ayol sudyalar assotsiatsiyasi raisi, yuridik fanlar nomzodi, dotsent.

Yurtimizda hamda o‘nga yaqin xorijiy davlatlarda M.P. Kalandarovaning 100 dan ortiq ilmiy, o‘quv-amaliy ishlari va maqolalari chop etilgan. Jumladan, davlat xaridlari, bankrotlik, protsessual qonunchilik hujjatlarini keng targ‘ib qilish maqsadida o‘ttizdan ortiq monografiya, o‘quv qo‘llanmalar va ilmiy-ommabop maqolalar yozgan.

Iqtisodiy sudda faoliyat yuritgan davrida yuzdan ortiq bankrotlik ishlarini ko‘rib chiqqan va sud amaliyotini umumlashtirish hamda Oliy sud Plenumining to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qarorini tayyorlashda ishtirok etgan.

O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga sharhlar tayyorlashda faol qatnashgan.

Xudaybergenov Bexzod Baxtiyorovich

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi To‘lovga qobiliyatsizlik ishlari agentligi Sud boshqaruvchilari faoliyatini tashkil etish bo‘limi bosh maslahatchisi, yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent.

Yurtimizda hamda xorijiy davlatlarda B.B. Xudaybergenovning 100 dan ortiq ilmiy, o‘quv-amaliy ishlari va maqolalari nashr etilgan. Xususan, to‘lovga qobiliyatsizlikni hu-

quqiy tartibga solishga qaratilgan 70 dan ortiq asarlar, “Bankrotlik huquqi” nomli o‘quv qo‘llanma, bir nechta monografiya va ko‘plab ilmiy maqolalar yozgan.

2013–2024-yillar davomida Toshkent davlat yuridik universitetida bakalavr va magistratura bosqichi talabalari uchun “Bankrotlik huquqi” fanidan modul rahbari sifatida dars mashg‘ulotlarini olib borgan, 2022-yildan hozirgi kungacha Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida “Biznesni qayta tashkil etish va bankrotlik” fanidan magistrantlarga ta’lim berib kelmoqda.

“To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunini qabul qilish jarayonida faol ishtirok etgan bo‘lib, uning qarzdor to‘lov qobiliyatini tiklash bilan bog‘liq ilmiy takliflari qonunchilikka kiritilgan.

2019-yilda “Bankrotlik taomili sifatida sud sanatsiyasini takomillashtirish” mavzusida yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga, 2024-yilda “To‘lovga qobiliyatsizlikni huquqiy tartibga solish: sanatsiya va bankrotlik” mavzusida yuridik fanlar doktori (DSc) ilmiy darajasiga sazovor bo‘lgan.

Saydaxmedov Umid Murodovich

Toshkent viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudyasi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor.

Yurtimizda hamda bir necha xorijiy davlatlarda U.M. Saydaxmedovning 100 dan ortiq ilmiy, o‘quv-amaliy ishlari va maqolalari chop etilgan. Jumladan, bankrotlik to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini keng targ‘ib qilish maqsadida yigirmadan ortiq monografiya, o‘quv qo‘llanmalar va ilmiy-ommabop maqolalar yozgan.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarni iqtisodiy sudlarda ko‘rish borasida 10 yillik sud amaliyoti tajribasiga ega.

“To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qilish jarayonida faol ishtirok etgan bo‘lib, uning aksariyat takliflari inobatga olingan, sud amaliyotini umumlashtirish hamda Oliy sud Plenumi qarorini tayyorlashda ishtirok etgan.

O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga sharhlar tayyorlashda qatnashgan.

Maksudov Alisher Maksud o‘g‘li

Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi sudyasi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

“Yakka tartibdagi tadbirkor bankrotligining fuqarolik-huquqiy asoslarini takomillashtirish” mavzusida yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga sazovor bo‘lgan.

Yurtimizda hamda o‘nga yaqin xorijiy davlatlarda A. Maksudovning 100 dan ortiq ilmiy, o‘quv-amaliy ishlari va maqolalari chop etilgan. Jumladan, to‘lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini keng targ‘ib qilish maqsadida monografiya, o‘quv qo‘llanmalar va ilmiy-ommabop maqolalar yozgan.

To‘lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) to‘g‘risidagi ishlarni iqtisodiy (xo‘jalik) sudlarda ko‘rish borasida 20 yillik tajribaga ega. Sudyalik faoliyati davomida 300 dan ortiq to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib hal etgan.

“Bankrotlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish”, “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari hamda hukumatning sohaga oid ko‘plab qarorlarini qabul qilish jarayonida va Oliy sud Plenumi qarorlarini tayyorlashda ishchi guruh tarkibida faol ishtirok etgan bo‘lib, aksariyat takliflari inobatga olingan.

Saidov Maqsudbek Norboevich

Toshkent viloyat ma’muriy sudining sudyasi, Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti dotsenti v.b., yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

M. Saidov to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rish borasida 15 yildan ortiq sud amaliyoti tajribasiga ega. Iqtisodiy (xo‘jalik) sudlardagi faoliyati davomida 300 dan ortiq to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib hal etgan. Qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish borasida 100 dan ortiq ilmiy, o‘quv-amaliy ishlar va maqolalar e’lon qilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga sharhlar tayyorlashda ishtirok etgan.

Masadikov Sherzodbek Maxmudovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida kafedra mudiri, yuridik fanlar nomzodi, dotsent.

Sh.M. Masadikovning nizolarni muqobil hal etish, mediatsiya va arbitrajga oid 50 dan ortiq ilmiy ishlari chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuniga sharh muallifi.

O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi, “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi Qonunlari loyihalari, shuningdek, sohaga oid qonun va qonunosti hujjatlar loyihalarining ishlab chiqilishida ishtirok etgan.

Berdiyarov Raxmatjon Tojinorovich

O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining Iqtisodiy-huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti v.b., yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R.T. Berdiyarov to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarni iqtisodiy sudlarda ko‘rish borasida 10 yildan ortiq sud amaliyoti tajribasiga ega, shuningdek, qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish borasida tadqiqotlar olib borgan, 70 dan ortiq ilmiy, o‘quv-amaliy ishlari va maqolalari chop etilgan.

Nazarov Sherbek Ulug‘bek o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Odil sudlov sohasidagi qonunchilikni tahlil qilish departamenti rahbari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Sh.U. Nazarovning qonun ustuvorligini ta’minlash, odil sudlov samaradorligini oshirish, tadbirkorlik qonunchiligini takomillashtirish, jumladan, mulkiy huquqlar himoyasi, to‘lovga qobiliyatsizlikka oid 50 dan ortiq ilmiy, o‘quv-amaliy ishlari va maqolalari milliy va xalqaro nashrlarda chop etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksiga ilmiy-amaliy sharh (I–II rasmiy nashr), “O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarini himoya qilishning huquqiy asoslari” (monografiya), “Chet ellik investorlar va chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar bilan bog‘liq ishlarni sudlarda ko‘rish”, “Hakamlik sudlarining faoliyati va rivojlanish istiqbollari”, “Xo‘jalik ishlari bo‘yicha sud hujjatlari namunalari”, “Uy-joyga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo‘yicha sud amaliyoti” kabi amaliy qo‘llanmalar muallifi (hammuallifi) hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi, Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi, yangi tahrirdagi Fuqarolik protsessual kodeksi, “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi Qonun loyihalari, shuningdek, sohaga oid 500 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari loyihalarining ishlab chiqilishida ishtirok etgan.

John Martin

Avstraliyaning Sidney shahridagi “K&L Gates”da advokat. To‘lovga qobiliyatsizlik huquqi sohasida qariyb 40 yillik tajribaga ega va xalqaro to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha ixtisoslashgan. Ushbu ixtisoslashuv unga xalqaro miqyosdagi ko‘plab to‘lovga qobiliyatsizlik tizimlari va UNCITRAL, Jahon banki, XVJ va OTB tomonidan e’lon qilingan muhim xalqaro matnlar bilan tanishish va tajriba orttirish imkoniyatini bergan. Jon ko‘plab mamlakatlarda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunni isloh qilish loyihalari ustida ishlagan. 2017-yilda 50 yillik UNCITRAL Kongressida Xalqaro to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha maqola taqdim etgan (professor Ros Meyson bilan hamkorlikda). 15 yildan ortiq vaqt davomida Xalqaro to‘lovga qobiliyatsizlik instituti a’zosi bo‘lib kelgan, 2021–2023-yillarda bu tashkilotning prezidenti bo‘lib ishlagan.

MUNDARIJA

So‘zboshi ... 3
So‘zboshi ... 6
Kirish ... 8

O‘zbekiston Respublikasining «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida» gi Qonuniga sharh ... 13
1-bob. Umumiy qoidalar ... 13
2-bob. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishni yuritish ishtirokchilarining, kreditorlar yig‘ilishining, jamoat birlashmalarining, sud boshqaruvchilarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi ... 39
3-bob. To‘lovga qobiliyatsizlik sohasini tartibga solish ... 106
4-bob. To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari va sudgacha sanatsiya qilish ... 114
5-bob. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rish ... 129
6-bob. Bitimlarning haqiqiy emasligi ... 201
7-bob. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishda qarzdor rahbarining va boshqa shaxslarning javobgarligi ... 219
8-bob. Kuzatuv tartib-taomili ... 239
9-bob. Sud sanatsiyasi tartib-taomili ... 289
10-bob. Tashqi boshqaruv tartib-taomili ... 326
11-bob. Tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili ... 405
12-bob. Kelishuv bitimi ... 477
13-bob. Qarzdor yuridik shaxslar ayrim toifalari to‘lovga qobiliyatsizligining o‘ziga xos xususiyatlari ... 496
14-bob. Jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi ... 537
15-bob. Yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligi ... 654
16-bob. To‘lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartib-taomillari ... 687
17-bob. Yakunlovchi qoidalar ... 700

«To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonuniga Xalqaro sharh ... 709

Mualliflar haqida ... 814

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING «TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK TO‘G‘RISIDA»GI QONUNIGA SHARH

Muharrir: Abdulla SHAROPOV
Badiiy muharrir: Bahriddin BOZOROV
Texnik muharrir: Dilshod NAZAROV
Sahifalovchi: Inomjon O‘SAROV
Musahhih: Tohir KAMOLOV



Bosishga ruxsat etildi: 20.09.2026-y.
Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi: 70x100 $^{1}/_{16}$.
Ofset bosma. Hisob-nashriyot t.: 121,3. Shartli b.t.: 133,2.
Adadi: 500 nusxa.
Buyurtma №

«Akademnashr» nashriyotida tayyorlandi va chop etildi.
Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Yakkabog‘ MFY,
Bunyodkor ko‘chasi 20-uy.

Tel.: (+99899) 433-16-77
e-mail: info@akademnashr.uz

ISBN 978-9910-5214-0-9